O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

«ZAMONAVIY FALSAFIY QARASHLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI: MA’NAVIYAT, AXLOQ VA IJTIMOIY BARQARORLIK»

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

«СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕСТВА: ДУХОВНОСТЬ, НРАВСТВЕННОСТЬ И СОЦИАЛЬНАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ»

Материалы Международной научно-практической конференции

“CONTEMPORARY PHILOSOPHICAL VIEWS AND SOCIAL CHALLENGES: SPIRITUALITY, MORALITY, AND SOCIAL SUSTAINABILITY”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference

Buxoro-2026

“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti
UO‘K 1:316.42:17(063)
KBK 87я431
«**ZAMONAVIY FALSAFIY QARASHLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI: MA’NAVIYAT, AXLOQ VA IJTIMOIY BARQARORLIK**» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari [matn] **Buxoro-2026, “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 632 b.**

Mazkur Xalqaro ilmiy-amaliy 2026-yil 16-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil qilingan.

***Mas’ul muharrir**:*
Z.A.Axmedova
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent,

To‘plamni nashrga tayyorlovchilar:
***G.N.Kurbanova** – Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, (DSc)*
***N.Dj.Namazova** – Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, i.f.n.*
***X.P.Kenjayeva** – Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan «Zamonaviy falsafiy qarashlar va jamiyat muammolari: ma’naviyat, axloq va ijtimoiy barqarorlik» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga taqdim etilgan ilmiy maqola va tezislar o‘rin olgan.

To‘plam materiallari konferensiyaning beshta asosiy yo‘nalishini qamrab oladi: inson falsafasi va zamonaviy jamiyat transformatsiyasi; axloq, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlik; ta’lim, psixologiya va iqtidorli shaxsni rivojlantirish; jamiyat barqaror rivojlanishining tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari; tibbiy etika, bioetika va tibbiyot falsafasi.

Ilmiy maqola va tezislarda globallashuv hamda raqamli o‘zgarishlar sharoitida insonning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, ta’lim va psixologik yondashuvlar asosida iqtidorli shaxsni rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotining tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillari, shuningdek, tibbiy etika, bioetika hamda tibbiyot falsafasining dolzarb masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

To‘plam faylasuflar, tarixchilar, iqtisodchilar, pedagog va psixologlar, tibbiyot sohasi mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-629-7993-65-2

HURMATLI KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI!

Muhtaram olimlar, aziz ustozlar, tadqiqotchilar va qadrli mehmonlar!

Sizlarni Buxoro davlat tibbiyot instituti jamoasi nomidan «Zamonaviy falsafiy qarashlar va jamiyat muammolari: ma'naviyat, axloq va ijtimoiy barqarorlik» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning ochilishi bilan samimiy muborakbod etaman.

Ilm-fan va ma'rifat an'analari, boy tarixiy-madaniy merosi bilan tanilgan Buxoro zaminida inson, jamiyat va taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan ushbu anjumanni o'tkazayotganimiz biz uchun katta sharafdir. Bugungi ilmiy muloqotimiz turli soha va ilmiy maktab vakillarini ezgu maqsad - inson qadrini ulug'lash, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va jamiyat barqarorligini mustahkamlash yo'lida birlashtirmoqda.

Avvalo, konferensiyamizda ishtirok etayotgan **xorijlik olimlar va xalqaro ilmiy hamjamiyat vakillariga** alohida minnatdorlik bildiraman. Sizlarning ishtirokingiz anjumanimizning ilmiy mazmunini boyitish, turli mamlakatlarda shakllangan tadqiqot yondashuvlari va tajribalarini o'rganish uchun muhim imkoniyatdir. Ishonamanki, bugungi fikr almashuvlar yangi ilmiy aloqalar, qo'shma izlanishlar va uzoq muddatli hamkorlikka asos bo'ladi.

Shuningdek, anjumanimizda qatnashayotgan **faylasuf olimlarga, falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga hissa qo'shib kelayotgan ustozlarimizga** samimiy hurmatimni izhor etaman. Sizlarning inson mohiyati, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy mas'uliyat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy qarashlaringiz bugungi muhokamalarimizning nazariy asosini chuqurlashtiradi. Ayniqsa, tibbiyot ta'limi va amaliyotida insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashda falsafiy tafakkurning o'rni beqiyosdir.

Hurmatli hamkasblar!

Bugun insoniyat jadal va murakkab o'zgarishlar davrida yashamoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ilmiy kashfiyotlar hamda ijtimoiy munosabatlarning yangilanishi hayotimizga katta imkoniyatlar olib kirmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonlar inson erkinligi, shaxsiy mas'uliyat, axloqiy tanlov, ijtimoiy adolat va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq yangi savollarni yuzaga chiqarmoqda.

Ilmiy va texnologik taraqqiyot inson manfaatlariga qanday xizmat qilishi kerak? O'zgarayotgan jamiyatda o'zaro ishonch va hamjihatlikni qanday mustahkamlaymiz? Yosh avlodning bilimli, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun qanday ta'lim muhitini yaratishimiz zarur? Bu savollar turli fan vakillarining hamkorlikda izlanishini talab etadi.

Shu jihatdan, konferensiyamizda falsafa, tibbiyot, psixologiya, pedagogika, tarix, iqtisodiyot va boshqa ijtimoiy-gumanitar yo'nalish vakillarining ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Har bir sohaning ilmiy tajribasi umumiy muammolarni turli tomondan ko'rish, ularning sabablarini chuqurroq anglash va amaliy yechimlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Mazkur konferensiyaning tibbiyot institutida tashkil etilishi ham chuqur ma'noga ega. **Tibbiyot va falsafani birlashtiruvchi asosiy qadriyat - insondir.** Uning hayoti, salomatligi, qadr-qimmati va farovonligi har ikki soha uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida tibbiy bilim va falsafiy tafakkur uyg'unligini ko'ramiz. Bu ilmiy an'ana bugungi tibbiyot ta'limi oldiga ham muhim vazifa qo'yadi: bo'lajak shifokorda chuqur kasbiy bilim bilan birga insonni tushunish, uning dardiga hamdard bo'lish va o'z qarorlari uchun mas'uliyatni his etish fazilatlarini rivojlantirish.

Shifokorning kasbiy madaniyati bemorni tinglashida, unga tushunarli axborot berishida, sha'ni va shaxsiy hayotini hurmat qilishida namoyon bo'ladi. Shu sababli tibbiy etika, bioetika va tibbiyot falsafasiga doir tadqiqotlar ta'lim jarayoni hamda klinik amaliyot uchun bevosita ahamiyatlidir. Yangi texnologiyalardan foydalanishda ham inson manfaatlari, bemor ishonchi va kasbiy mas'uliyat diqqat markazida turishi lozim.

Anjumanimizning ma'naviyat, axloq va ijtimoiy barqarorlik masalalariga qaratilgani ham dolzarbdir. Jamiyatdagi ishonch kundalik munosabatlarda halollik, adolat, o'zaro hurmat va mas'uliyat orqali mustahkamlanadi. Bu qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda oila, ta'lim muassasalari, ilmiy jamoatchilik va amaliyotchi mutaxassislarning hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Ta’lim va psixologiya sohasidagi izlanishlar esa yoshlarning qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, iqtidorini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom ma’naviy muhit yaratishga xizmat qilishi kerak. Talabaga mustaqil fikrlash, savol berish, izlanish va o‘z g‘oyasini asoslash imkonini berish orqali biz kelajakdagi yetuk mutaxassislar kamolotiga zamin yaratamiz.

Jamiyatning barqaror rivojlanishini tarixiy tajriba, iqtisodiy imkoniyatlar, sifatli ta’lim va aholi salomatligi bilan bog‘liq holda o‘rganish ham muhimdir. Ushbu omillarning o‘zaro ta’sirini anglash inson farovonligiga qaratilgan ilmiy va amaliy takliflarning asosli bo‘lishini ta’minlaydi.

Qadrli konferensiya ishtirokchilari!

Bugungi anjumandan kutayotgan muhim natijamiz - mazmunli ilmiy muloqotning amaliy hamkorlikka aylanishidir. Xorijiy va mahalliy olimlar o‘rtasida qo‘shma tadqiqotlarni rivojlantirish, falsafiy va tibbiy bilimlar uyg‘unligiga asoslangan ta’lim yondashuvlarini muhokama qilish, yosh tadqiqotchilarni ilmiy hamkorlikka jalb etishni muhim deb bilamiz.

Ayniqsa, yosh olimlarimiz ushbu imkoniyatdan unumli foydalanib, tajribali ustozlarning fikrlarini tinglaydi, o‘z izlanishlarini muhokamaga olib chiqadi va kelgusi tadqiqotlari uchun yangi g‘oyalar oladi, degan umiddaman.

Konferensiyamizda ishtirok etayotgan barcha xorijiy va mahalliy hamkasblarimizga, faylasuf olimlarimizga, tibbiyot va ijtimoiy-gumanitar soha vakillariga yana bir bor minnatdorlik bildiraman. Anjumanni tayyorlashga hissa qo‘shgan tashkilotchilar va hamkorlarimizga samimiy tashakkur izhor etaman. Barchangizga mustahkam salomatlik, ilmiy izlanishlaringizda muvaffaqiyat, samarali muloqot va yangi ijodiy g‘oyalar tilayman.

«Zamonaviy falsafiy qarashlar va jamiyat muammolari: ma’naviyat, axloq va ijtimoiy barqarorlik» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani ochiq deb e’lon qilaman!

E’tiboringiz uchun rahmat!

Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori
professor Shuxrat Jumayevich Teshayev

INSON FALSAFASI VA ZAMONAVIY JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI

INSON MANFAATLARI HIMOYASI VA OILA BARQARORLIGI

Xuseynova Abira Amonovna
Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, Oliy Majlisning Inson huququqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning Buxoro viloyati mintaqaviy vakili., f.f.d., (DSc), professor, p.f.d. (DSc), professor
Buxoro davlat Universiteti, Buxoro, 100149, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: abira.amon@yandex.ru

Har qanday jamiyatning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi uning asosiy bo'g'ini bo'lmish oila institutining mustahkamligiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy dunyoda yuz berayotgan shiddatli globallashuv, demografik o'zgarishlar hamda madaniy-axborot muhitining transformatsiyalashuvi oilaviy qadriyatlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda oila barqarorligini mustahkamlashning institutsional va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish g'oyat dolzarb ijtimoiy-falsafiy hamda huquqiy masaladir [1, b. 45].

Oila – nafaqat shaxsning ruhiy va ma'naviy shakllanish makoni, balki inson kapitalini yetishtiruvchi, avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlovchi va ijtimoiy birdamlikni qaror toptiruvchi asosiy poydevordir. Inson manfaatlari va uning qadr-qimmatini ulug'laydigan jamiyatda oilani har taraflama qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar hamda bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish, oilaviy ajrimlarning oldini olish hamda kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy ko'mak ko'rsatish tizimi ustuvor yo'nalishga aylanadi.

Oila psixologiyasida oilaning hissiy-emotsional, jismoniy quvvatni ta'minlash hamda ma'naviy muloqotni shakllantirish kabi asosiy funksiyalari ajratib ko'rsatiladi. Hissiy-emotsional funksiya a'zolar o'rtasidagi samimiyat, mehr-oqibat va o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali insonning ruhiy salomatligini ta'minlasa, jismoniy quvvatni ta'minlash funksiyasi munosib va qulay yashash sharoitlari, to'g'ri ovqatlanish hamda dam olish imkonini yaratish vositasida jismoniy halovatni kafolatlaydi, ma'naviy muloqot funksiyasi esa farzandlarga milliy qadriyatlar, kattalarga hurmat va muomala odobini singdirib, xonadonda ma'naviy ahillik va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi [2, b. 112].

Jinsiy-hissiy muloqot funksiyasi turmush o'rtoqlar o'rtasidagi o'zaro psixologik va fiziologik yaqinlikni ta'minlab, avlodlar bardavomligini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu funksiyaning muvaffaqiyatli bajarilishi oilaviy-nikoh munosabatlarining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, shaxslararo o'zaro sadoqat, ruhiy-jismoniy salomatlik hamda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning muhim omili hisoblanadi. Zero, zamonaviy psixologik va sotsiologik yondashuvlarga ko'ra, oila ichidagi emotsional va intim muvozanat shaxsning umumiy psixologik xotirjamligini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini hamda oilaviy nizolarga nisbatan barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur funksiyaning buzilishi yoki e'tibordan chetda qolishi esa ko'pincha oilaviy munosabatlarning inqirozga uchrashi, ma'naviy begonalashuv hamda ajrimlar sonining ortishiga olib keluvchi yashirin omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Baxt va tinchlik-xotirjamlikni barqarorlashtirish funksiyasi ham o'ta muhim bo'lib, aynan oila har bir a'zosining muammolarini yechish, uni tashqi turli ta'sirlardan himoyalash va mustahkam immunitetni shakllantirishga yordam beradi. O'zbeklarda "O'z uyim – o'lan to'shagim" degan ibora bor, har kim o'z uyida chinakam xotirjam bo'lishi mumkin. Uzoq safarlarda dam olib kelgach, o'z uyida osoyishta "shukur" deyishi uning eng katta baxtidir [3, b. 47]. Shu nuqtai nazardan farzandlarning sog'-omon ulg'ayishi, ular ongini yot g'oyalardan himoya qilishda ham oila barqarorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oila tinch va xavfsiz bo'lsa, demak, jamiyat ham, davlat ham tinch va uning barqarorligi ta'minlanadi.

Oilaning reproduktiv va ijtimoiy funksiyalari avlodlar davomiyligi, demografik barqarorlik hamda inson manfaatlari himoyasini ta’minlashda hal qiluvchi poydevor hisoblanadi. Konstitutsiyaviy mezonlar va milliy qonunchilik asosida oila, onalik hamda bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi islohotlar nuklear oilalardagi ajrimlar va mehnat migratsiyasi kabi zamonaviy demografik muammolar sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4 b. 66]. Shu bois, aholi sifatini yuksaltirish, yoshlarda oilaviy mas’uliyat hissini shakllantirish hamda oila institutini har taraflama qo‘llab-quvvatlash jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va inson manfaatlarini to‘liq qaror toptirishning muhim falsafiy-metodologik yo‘nalishidir [5, b. 67].

O‘zbekistonda inson manfaatlari va oila barqarorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi inson huquqlari hamda qadr-qimmatini amalda kafolatlashning eng ishonchli ijtimoiy-huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlar va bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish hamda oilalarga manzilli ko‘mak berish borasidagi islohotlar jamiyat barqarorligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga bevosita zamin yaratmoqda. Globallashuv va madaniy-axborot muhitining transformatsiyalashuvi sharoitida an’anaviy oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni oilaviy hayotga mas’uliyat bilan tayyorlash hamda mahalla va davlat organlarining hamkorligini kuchaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu bois, oila farovonligini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni yanada takomillashtirish jamiyatda milliy hamjihatlik, ijtimoiy adolat va inson manfaatlari to‘liq qaror topishining hal qiluvchi omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Sh.M.Mirziyoev. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60, 2022 y.28.01.

2.O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 1998. – 302 b.

3.XXI asr oilasi konsepsiyasi. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi. – T.: NISIM, 2002. – 28 b.

4.Avdeeva N.N., Xaymovskaya N.A. Zavisimost tipa privyazannosti rebenka k vzroslomu ot osobennostey ix vzaimodeystviya (v seme i Dome rebenka) // Psixologicheskiy jurnal. 1999. T. 20, № 1.

5.Ayol, oila va jamiyat / Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari / Mas’ul muh. F. Otaxonov. – T.: 2007 – 260 b.

ФИЛОСОФИЯ И ДУХОВНОСТЬ ТЮРКСКОГО ВОСТОКА И РЕНЕССАНСНОГО ЗАПАДА В ТРАНСФОРМАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

Шадманов Курбан Бадриддинович
Бухарский государственный медицинский институт
E-mail: shadmanov.qurbon@bsmi.uz

Сравнительный анализ культур тюркского мира и Запада занимает важное место в мировой компаративистике. Значение подобного анализа состоит, в частности, в широкой исторической перспективе, которую он открывает, стимулируя обобщения всемирно-исторического характера. В последнее время исследователи уделяют серьезное внимание компаративистике этого культурного аспекта прогрессирующего движения мировой цивилизации, особенно в сфере истории философии. В этой области знания у нас в стране и за рубежом были обобщены некоторые важные принципы сравнительного изучения объектов культурно-исторического процесса, а именно дифференциация различных видов сравнительного исследования в зависимости от того, каков источник общности объектов сравнения – обусловлена ли эта общность единством происхождения, разными взаимовлияниями или же наличием некоторых общих закономерностей функционирования и развития объектов. Говоря о философско-историческом осмыслении места, роли и значения тюркских народов в мировую культуру и цивилизацию, прежде всего, следует упомянуть о том, что в последние годы во всем мире культура и философская мысль тюркского мира Центральной Азии привлекает все возрастающий интерес как

специалистов-ученых, так и самых широких читательских кругов. Интерес этот не случаен. Нити, связывающие современную культуру со средневековой, не только не ослабевают, но все более укрепляются. Меняющийся в исторической перспективе образ средневековых мыслителей этого региона вызывает живой интерес у человека XXI века выявившимися в них ещё в те времена общечеловеческими культурными ценностями. Современная гуманитарная наука значительно преуспела в изучении наследия прошлого. Разработаны новые методы анализа археологических находок, усовершенствованы способы хронологизации древних источников, введены в научный оборот многочисленные, вновь открытые персо-арабоязычные тексты, существенно уточняющие представление о материальной и духовной культуре средневекового Востока, колыбелью которого, вне сомнения, можно считать Центральную Азию. В результате, многие традиционные и, на первый взгляд, хорошо изученные проблемы Средневековой культуры предстают перед нами новыми своими гранями, которые были закрыты для специалистов ещё совсем недавно – в годы тоталитаризма. Даже такие классики как Гомер, Платон, Аристотель продолжают давать богатый материал для современной науки, а что говорить о громадной Средневековой эпохе Центральной Азии, особенно IX-XIII веков, где каждое имя открывает перед учеными широкие горизонты для исследования!

Исходя из вышеизложенного, наша цель состоит в том, чтобы дать самую общую комплексную постановку данной проблемы и установить её методологическое значение. Последнее обусловлено тем, что она фокусирует в себе фундаментальные задачи культурно-исторического знания на современном этапе. Задачи эти, связанные с исследованием процессов развития культуры как системы, с выявлением в них противоречивого единства и взаимозависимости общих и регионально-неповторимых свойств, как нельзя лучше стимулируют поиск в данном направлении и задают ему исходные теоретические ориентиры. На первый взгляд, может показаться некорректной вот такая постановка вопроса или, скажем, как бы натянутой - что может быть общего между европейской философией XIV-XVII веков и мусульманской философией Средних веков. Однако, историческая взаимообусловленность традиций однозначно доказывает, что, если принимается зависимость философского понятийного аппарата Возрождения от общих закономерностей и тенденций этой эпохи, признается обусловленность Возрождения средневековьем и особенно античностью, то необходимо будет и согласиться и со следующим за этим выводом - сочинения арабо-язычных философов средних веков стали одним из главных источников, по которым непосредственно - или опосредовано - изучали эту науку все выдающиеся философы Европы эпохи Возрождения. Во-вторых, и это более важно, изучение трактатов арабоязычных философов европейцами было обязательным этапом освоения ими основ философских знаний. Этому способствовала и школа переводчиков, сформировавшаяся в Испании VII-XII вв., которая не только открыла Европе мир античной философии, но сделала ее достоянием научную мысль и произведения многих ученых-философов Мавероуннахра - Мухаммада Мусы Хорезми, Абу Насра Фараби, Ахмада Фергани, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины. В Европейских государствах над переводами этих ученых трудились около тысячи переводчиков, перед которыми на первый план выдвигалась проблема перевода на арабский язык произведений с греческого, сирийского, санскрита, фарси и ознакомления с ними, тем самим, ученой общественности. Среди ученых, служивших в Халифате и занимавшихся переводом на арабский язык с греческого, сирийского, фарси и хинди, особо выделяются Хунайн ибн Исхак (810- 873гг.), Исхак ибн Хунайн, Хубайш Сабит ибн Курра (886- 901 гг.), Яхья ибн Ади, Исхак ад-Димишки, семья Масарджувайхов, Ноубахт, ибн Мукаффа, ибн Манка, ибн Вахшиа.

Касаясь культурных связей между тюркским миром Востока и Западной Европой, Ж. Кондорсе, французский мыслитель XVIII века, отмечает: “Труды арабов погибли бы для человеческого рода, если бы они не послужили для подготовки возрождения более прочного, картину которого представит нам Запад” [Кондорсе, 1936:113;127]. Достижения

философской мысли мусульманского Востока стали также достоянием Запада; они были восприняты, развиты дальше и подняты на новую, более высокую ступень. В этом деле значительную роль сыграли Шартрский и Парижский Университеты, учебные центры городов Болоньи, Падуи, Генуи и особенно Оксфордский университет и его выдающийся представитель аверроист-францисканец Роджер Бэкон (1214-1291), который высоко чтил учения Авиценны и Аверроэса, чьи философские труды были его настольными книгами, использовал идеи других авторов тюркского мира, в частности, Абу Насра Фараби. Известно, что произведения Ибн Сины имели на Роджера Бэкона такое воздействие, что он изложил свои впечатления о них в ряде писем, адресованных самому Ибн Сине, хотя их уже разделяли столетия [Бернал, 1996:167]. Труды мыслителей мусульманского Востока оказали плодотворное влияние на творчество и мировоззрение таких ярчайших представителей европейской философской мысли как Сигер из Брабанта, Адельярд из Бата, Иоанн Солсберийский, Кларенбальд, Амальрик из Бена. Прежде всего это влияние шло от трех великих философов – Фараби, Ибн Сины и Ибн Рушда. Европейцы действительно активно изучали этих мыслителей и в Средние века, и в Возрождение - именно в течение этих периодов арабоязычная философия тюркского мира и выполнила, так сказать, свою историческую миссию. Чтобы не быть голословными, приведем мнение ведущего российского специалиста по философии Возрождения А.Х. Горфункеля: "Со времени зарождения философских школ там господствовало аверроистское свободомыслие, сложившееся под воздействием средневековой восточной мысли и натуралистических истолкований Аристотеля... Разумеется, он (философ итальянского Возрождения XVI в. П. Помпонацци - К.Ш.) верен традиции, проще сказать, профессиональным обязанностям: преподаватель философии должен был толковать сочинения Стагирита, привлекая его авторитетнейших комментаторов – Фараби, Ибн Сину, Аверроэса и других"[Горфункель, 1990: 6].

Действительно, неизвестно, как развилась бы дальше философия (а через нее и все другие науки, включая естественные), если бы арабоязычные философы тюркского мира YIII-XY веков и особенно X-XII веков не подхватили знамя мировой науки, упавшее под натиском средневековой теологии, и не пронесли его через этот тяжелый период. Действительно, год 529 в истории мировой цивилизации мог стать концом античной культуры, если бы не жаждущий знаний Восток. Именно благодаря философам Центральной Азии античная мысль не угасла. С IX века этим просветителям стали известны труды Аристотеля, и через них вся Европа познакомилась с гениями философии. Таковой представляется историческая почва, на которой появились эти мыслители кардинально изменившие представления о классической философии и чей творческий вклад в сокровищницу мировой философской мысли по сей день способствует трансформации общества и духовности.

Литература:

1. Бернал Дж. Наука в истории общества. М., 1996.
2. Бертельс Е.Э. История литературы и культуры Ирана. – М., 1988.
3. Горфункель А.Х. Постоянство разума/ Свободомыслие Пьетра Помпонацци// Помпонацци П. Трактаты, М. 1990.
4. И.Н Голенишев-Кутузов. Данте и предвозрождение. Литература эпохи Возрождения. М., 1967.
5. Гюи. Влияние крестовых походов на западную цивилизацию// Ж. Атеней. 1858. №24.
6. Ибн Рушд. Опровержение опровержения// Избр. произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. М.,1961.
7. Идрис Шах. Суфизм. -М., 1994.
8. Аль-Кинди. О первой Философии. // Избр. произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. М. 1961.
9. Ибн Туфейль. Роман о Хайе, сыне Якзана. Пг., 1920.
10. Кондорсе Ж. Эскиз исторической картины прогресса человеческого разума. М., 1936.

11. Конрад Н.И. Средние века в исторической науке. Избр. труды. -М.,1975.
12. Культурное наследие Востока//Теоретические проблемы истории культуры Востока.-Л.,1985;
13. Леви-Провансаль Э. Арабская культура в Испании. -М., 1967.
14. Маркарян Э.С. Теория культуры и современная наука: логико–методологический анализ. - М.,1983.
15. Монтгомери У. У. Влияние ислама на средневековую Европу. -М., 1976.
16. Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). - М.,1980.
17. Сулейманова Ф. Восток и Запад. – Т., 2001.
18. Рассел Б**.** История западной философии. – М., 1959.
19. Dietirici F. Die Philosophie der Araber im. 9, 10 Jahrhunderten. 4. Buch, Logik und Psychologie. Leipzig. 1868.
20. Наследие аль-Фараби и формирование нового интегрального мировоззрения. – Алматы,2012.
21. Shadmanov Kurban Badriddinovich. A great book from a great thinker// Известия института философии, политологии и права им.А.Баховаддинова Нац.Академии Наук Таджикистана. №3, 2025. -Душанбе, Таджикистан. – с.29-35.

НАФС ТАРБИЯСИ – БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ АСОСИ

Наврўзова Гулчеҳра Неъматовна
Бухоро давлат техника университети профессори, фалсафа фанлари доктори
email: premium.progress@mail.ru

Янги Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш учун баркамол, соғлом авлодни тарбиялаш масаласи долзарбдир. Глобаллашув шароитида оммавий маданият таъсирида маънавий қашшоқланиш жараёни сезилмоқда. Нафс истакларига берилиш, худбинлик, ҳасад, ғазаб каби иллатлар жамоаларда парокандалик ва низоларни келтириб чиқармоқда. Бу иллатлар коррупцияни манбаи бўлиб мамлакат иқтисодиётига салбий таъсир этмоқда. Инсон қадри улуғланаётган ва инсонга эътибор қаратилаётган ҳозирги даврда нафсни тарбиялаш масаласи долзарб бўлиб қолмоқда.

Баҳоуддин Нақшбанд номи билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Муҳаммад ал - Бухорий (1318 -1389) томонидан асосланган жаҳонга машҳур Нақшбандия таълимотида нафс тарбияси мўътадил, меъёрида, мақбул йўллар билан олиб борилган. Бу таълимотда “Дил ба Ёру, даст ба кор” шиори асосида инсонни имонли ва меҳнатсеварлик руҳида тарбиялашнинг мақбул услублари топилган. Нақшбандия таълимотининг нафс тушунчаси, нафс тарбиясига оид ғояларини ўрганиш фаровон, тинч ва бахтли ҳаётни таъминлашга ёрдам беради. Шунинг учун мақолада Нақшбандия таълимотидаги нафс тушунчасини фалсафий таҳлил этишни мақсад қилиб қўйдик.

Манбалар асосида Баҳоуддин Нақшбанд таълимотига оид монографиянинг нашр этилиши, [1] Бухоронинг Етти Пири ҳақида [2]рисола яратилиши Нақшбандияни мукаммал ўрганишга илк қадамлар бўлди.

Нақшбандия таълимотидаги нафс масаласи М. А. Жўшоннинг “Тасаввуф ва нафс тарбияси” ҳамда Муҳаммад Зоҳид Қудқунинг “Нафс нимадир?” асарларида яхши таҳлил этилган. 2021 йилда Зебунисо Ҳусайн қизи томонидан таржима этилган. Муҳаммад Зоҳид Қутқунинг “Нафс нимадир?” асарида нафс тушунчаси, унинг етти тури: нафси аммора, нафси лаввома, нафси мулҳама, нафси мутмаинна, нафси розия, нафси марзия, нафси софия батафсил таҳлил этилган. Асарда нафси аммораниинг 12 аломати: ёмон сифати ва одатлари: куфр, ширк, ғафлат, жаҳолат, гуноҳларга шўнғимоқ, кибр, ҳирс, бахиллик, ғазаб, ҳасад, нафрат, шаҳват тавсифланган ва уни тарбиялаш йўллари кўрсатилган.

Файласуф олим Омунулла Файзуллаевнинг “Нафс, жон ва руҳ” асарлари бу мавзуни ёритишда муҳим манбадир.

Нафс нимадир? “Нафс инсоннинг моддий ўзлиги, “Мен”лигидир. Бизнинг ботинимизга бир идора этувчи, жисмимизни, моддий борлиғимизни, ҳаёт учун зарурий

манфаатларимизни қўриқлаш ва қўллаш мақсадида фаолият кўрсатувчи маънавий бир борлиқ нафсдир” [3]. Демак, нафс инсон вужудига рухнинг кирганидан бошлаб ҳаёти давомида моддий борлиғини меъёрдаги эҳтиёжларини қондириш учун ҳосил бўладиган қувватдир. Умуман олганда нафс меъёрида бўлганида зарурийдир. Файласуф олим фалсафа фанлари доктори, профессор О.Файзуллаев нафсни зарурий ва зарарли деб икки турга бўлганлари жуда тўғридир. Нафс меъёридан ошса зарарли бўлади. Нақшбандия таълимоти нафсни меъёрда сақлаш учун “Дил ба ёру даст бакор” – “Қалб оллох билан, қўл ишда” шиори асосида инсоннинг маънавий ва моддий томонини уйғун ҳолда бўлишига эътибор қаратади. Бу таълимот шиори асосида инсон иймонли ва меҳнатсевар бўлиб камолга етади.

Нақшбандия таълимотидаги нафс тушунчасини шаклланишида Юсуф Ҳамадоний ва Хожагон тариқати пирларининг асарлари манба бўлиб хизмат қилган. Адабиёт шунос олимлар Сайфиддин Сайфуллоҳ ва Нодирхон Ҳасан Юсуф Ҳамадоний асарларини таржима қилганлар. Шайх Юсуф Хамадоний ўзининг “Одоби тариқат”асарида инсон камолоти учун тўрт асосга эътибор бериш лозимлиги таъкидлаб ўтган. Биринчи асос нафс риёзати бўлиб, бунда: “Инсон шаҳват, яъни дунёвий орзу-истаги ўлчовида эмас, балки ҳожат доирасида ейиши, ичиши, кийиниши керак”[4], дейди Юсуф Ҳамадоний. Унинг бу ғояларининг мазмун-моҳиятини Бахоуддин Нақшбанд тушуниш ва амалда қўллаш учун нафс нима эканлиги масаласига махсус эътибор берган.

Нафснинг мавжудлиги зарурат ва унинг истаклари табиийдир. Лекин уни назорат қилиш, тарбиялаш ва ёмон иллатлардан поклаб туриш шарт. Чунки унинг табиий истаклари бажо этилаверса, у ҳаддидан ошади ва жиловлаб бўлмайдиган ҳолатга келади. Бобораҳим Машрабнинг бу борада айтган қуйидаги фикри бунга далилдир: “Нур бўлур эрдимки, нафс аждарҳоси бўлмаса”.

Нақшбандия талимотида нафснинг етти тури: нафси аммора, нафси лаввома, нафси мулҳама, нафси мутмаинна, нафси розия, нафси марзия, нафси софия борлиги таъкитланади. Нафси амморанинг 12 аломати, ёмон сифати ва одатлари: куфр, ширк, ғафлат, жаҳолат, гуноҳларга шўнғимоқ, кибр, ҳирс, бахиллик, ғазаб, ҳасад, нафрат, шаҳват борлиги кўрсатилади.

Нафснинг дастлабки ҳолати а м м о р а лик бўлиб, бу инсонни гуноҳларга ботиб юришига сабабчи бўлади. Уни манбаларда қуйидагича таърифлаганлар:

Нафси аммора бири, ҳам кўкдир унинг ранги,
Сифатлари еттидир, ҳам ҳайвони ваҳшийдир.
"Лааммаратул биссу" мазҳаридир,
Ҳирс, тамаъ, шаҳват, буғзу ҳасад, бахиллик феълидир.
Дарду зулум, ҳуббу дунё завқидир.
Салбу дунё, мавти жони хавфидир[5].

Тасаввуф аҳли умумий нуқтаи назари бўйича, нафси аммора барча ёмонлик, ифлослик гуноҳларнинг дояси эрур. Жунайд Бағдодий “Куфрнинг асоси - нафснинг муроди эрур”, деса, Абу Сулаймон Дароний “Нафс ҳам хоин, ҳам ғаним эрур. Энг яхши амал унга қарши курашмоқдир”, дейди. Нажмиддин Комилов “Нафс – шайтон қуткуси, нафс – тубанликка тортадиган куч, нафс – ҳирсу ҳавас даракчиси, таъма, манманлик, жаҳолат, фаҳшни келтириб чиқарадиган қувват. Шунинг учун инсоннинг биринчи вазифаси ўз нафсини жиловлаб олиш, уни маҳв этишдир” [6]дейди.

Баҳоуддин Нақшбанд нафс ҳақида қуйидаги фикрларни айтганлар:

“Бу йўлда юрувчи ўз нафсини Фиръавннинг нафсидан юз марта баттар деб билмаса, демак бу йўлда эмас”.

“Ҳар бир тавфиқ эгаси ўз нафсига қарши турмоғи ва бу ҳар қанча оз бўлса ҳам кўп билсин ҳамда бу тавфиқнинг шукрини қилсин”.

“Агар абдоллар мақомини ҳоҳласанг, бас, сенга аҳвонни ўзгартириш керак” деганларидан мурод бу Аллоҳ жалла жалоллоҳуга суянган ҳақиқий муршид иноятн орқали ахлоқни ҳамда ёқимсиз феълларни узгартириш билан нафсга қарши курашишдир”. Байт:

Абдол он, ки ў мубаддал шавад,

Ҳамраш аз табдили Яздон халл шавад.

Мазмуни:Ўзини аллоҳ иноятиби лан ўзгартира олган, шароби сиркага айланган одам абдолдир.

“Киши ўзининг нафсига туҳмат қилиши керак. Кимки Ҳақ субҳонаҳу иноятиби лан ўз нафсининг ёмонлигини таниган, унинг ҳийла-найрангини англаган булса, бундай қилиш унга осон булади”.

“Агар хоҳласам, нафсимни эллик марта сув лабига олиб бориб, яна ташна ҳолда қайтариб келаман”.[7]

Баҳоуддин Нақшбанд нафсларини жиловлаб, юксак даражаларга эришганлар. Бу ҳақида “Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд” асарида шундай сўзлари келтирилган: ”Ҳар бир машойихнинг ойнасида икки томон бор, бизнинг ойнамизда эса олти томон. Қирқ йилдирки, биз ойнадорлик қиламиз, вужудимиз ойнаси ҳеч қачон хато қилган эмас. Ҳар вақт сенинг кўнглингдан нимаики ўтса биз уни бехато кўрамиз”.

Қутбу-л-авлиё Абдул Куддусдан нақл қилинишича, у айтган экан: ”Хожамиз (қадасаллоҳу сирраҳу-л-азиз) нинг сайри осмон ва ернинг барча табақаларига жорий эди”.

Нақшбандия таълимотида бўлган Ҳазрат Алишер Навоий ҳирсу ҳавас, нафсу ҳаво, зулму ситам ҳақида гапирар экан, уни қуйидаги сатрларда ифода этади:

То ҳирсу ҳавас хирмани барбод ўлмас,
То нафсу ҳаво қасри барафтод ўлмас,
То зулму ситам жониға бедод ўлмас,
Эл шод ўлмас, мамлакат обод ўлмас.

Шунингдек, Навоий нафсни душмандан-да хавфли душман, унга тобе бўлиб ғанимни банд айлаши мумкин, лекин нафсни таслим этиш беҳад душвор, дея таъкидлайди:

Бўлиб нафсингға тобиъ, банд этарсен тушса душманни,
Сенга йўқ нафсдек душман, қила олсанг ани қил банди.

Аммора нафсига хос бўлган бу иллатлар инсон қўл-оёқларини боғлаб, уни фақат ёмонлик қилишга чорлайди. Шунинг учун Юсуф Ҳамадоний инсон камолотининг биринчи асосини нафс риёзиёти, деб билади. Инсон нафси тарбияланиб, аммораликдан мутмаинна даражасига етганида, нафс хотиржам бўлади ва инсон ахлоқий камолотга етади. Шунинг учун нафси мумаиннани меъёрдаги нафс дейиш мумкин. Инсон камол топиб нафси розия, марзия, сафия даражасига юксалганида, унда малакий, авлиё ва набийларга хос ҳамда илоҳий сифатлар юзага келади. Бу вақтда у Комил Инсонга айланади.

Юсуф Ҳамадоний “Одоби тариқат” рисоласида нафс риёзати ҳақида ёзадики, агар бир кеча кундузда бир марта таом ейиш кифоя қилса, икки марта ейиш керак эмас, агар бир марта озгина ейиш кифоя қилса тўйиб емаслик лозим. Агар очлик оғир машаққат бўлса, ҳаётни очлик асосида қуриш керак эмас. Бу фикрдан маълум бўладики, инсон ўз эҳтиёжи доирасида нафсига мухолифат қилиши, аммо очлик билан ўзини машаққатда қолдирмаслиги керак. Инсоннинг ҳолдан тойиши ва нобуд бўлиши нафс риёзати эмас. Баҳоуддин Нақшбанд ҳам нафс тарбиясига меъёрни сақлаш, зарурий нафсни эътиборга олиш кераклигини айтганлар.

Юсуф Ҳамадонийнинг асарида нафс риёзати икки кўринишда бўлиб, биринчиси узлат, иккинчиси эса кам ухлашдир, деб кўрсатилган.

Узлат деганда Юсуф Ҳамадоний аввало “кўнгил муҳофазаси” ни назарда тутади. Бунда инсон ўз қалбини кибр, ҳасад, ғазаб, таъма, ғийбат, ҳирс ва шайтон васвасасидан муҳофаза қилиши лозим. Чунки қалб бир покиза макон, яъни буюк Аллоҳ маконидир. Мана шу қалбни покиза сақлай олган инсонгина комиллик даражасига етади. Узлатнинг бошқа мазмуни “зеҳн муҳофазаси”. Бунда ҳам инсон ўзининг зеҳнини муҳофаза, яъни уни ҳар хил кераксиз ўйлардан холи қилиши зарур. Зеҳн – бу хотира, хаёл қувватидир. Азалдан халқ орасида кам учрайдиган ўткир зеҳнли, қувваи ҳофизаси кучли, хаёлий даражаси жуда кенг бўлган инсонлар улуғланганлар. Инсон хотирасидаги гина, ғазаб, кераксиз фактлар инсон камолотига ғов бўлади. Шунинг учун зеҳнда керакли маълумотларни сақлаш лозим. Умр оқиб кетар дарё кабидир. Инсон умрини беҳуда хаёллар билан ўтказмаслиги, руҳини азобга

қўймаслиги лозим. Чунки жон, руҳ, тана омонат экан, уни ҳар қандай кераксиз хаёллар билан азоблашга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ. Бир-бировимизга, ота-она, фарзандларга, ака-ука, қариндош-уруғ, қўни-қўшниларга кечиримли бўлиб, уларга нисбатан ёмон фикрларни зеҳнимиздан, хаёлимиздан олиб ташлаш камолотга имкон бўлади.

Юсуф Ҳамадонийнинг узлатни "кўнгил муҳофазаси" ва "зеҳн муҳофазаси" сифатида талқин этиши Нақшбандия таълимотида "Хилват дар анжуман" тамойили ва "Дил ба Ёру даст ба кор" шиорини шаклланишига асос бўлди.

Юсуф Хамадоний ўзининг "Одоби тариқат" асарида нафс риёзатининг яна бир кўринишини "кам ухлаш"дир, деб изоҳлайди. "Кўп ухлашлик умрни зое этади, баданни бўшаштиради, иш унуми ва иштиёқини йўқотади", деб таъкидлайди. "Киши бир кунда саккиз соатдан ортиқ ухламаслиги керак. Акс ҳолда инсон умрининг учдан бирини йўқотган бўлади", - дея муаллиф Имом Ғаззолийнинг фикрига иқтибос келтиради.

Юсуф Ҳамадоний ўз асарида овқатланиш ва ухлашнинг шартларини баён этади ва овқатланиш шартларига қуйидагиларни киритади: инсон ейишга эҳтиёж сезганда, таҳоратли ҳолда, яқинлари билан бирга овқатланишга амал қилиш, шунингдек, "Бисмиллоҳ" деб бошлаш ва неъмат шукронасини келтириш, оғзига луқмани кичикроқ олиш, овқатни аста-секин истеъмол қилиш, бировнинг луқмасини емаслик. Ухлаш шарти: таҳоратли ҳолда ётиш, қорни тўқ ухламаслик, дуо, салавотлар ва Аллоҳ зикри билан уйқуга ётиш. Баҳоуддин Нақшбанд ҳам инсон камолотга етиши учун оз ухлаши, оз ейиши ва оз гапириши лозим деган фикрни таъкидлаганлар.

Нафси аммора инсонни ғафлат ҳолатига солади.[8] Ҳолбуки Нақшбандияда нафасни беҳудага исроф қилиш қаттиқ қораланади. Нақшбандия таълимотидаги "Ҳуш дар дам" ва "Назар бар қадам" рашҳа – ҳаётбахш ўгитдари инсонни ғафлат ҳолатида чиқариб мушоҳада майдонига киритади.

Нақшбандия таълимотидаги нафс тарбияси масалаларини таҳлили асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

Нафс даражасига боғлиқ инсон ахлоқий камолот мақомларини билиши, ўрганиши, ажратиши инсонни ўз-ўзини англаши учун зарурдир. Нафс тарбияси руҳий камолот йўлида, маънавий баркамол инсонни тарбиялашда катта аҳамият касб этади.

Нафс тарбиясида меъёрга амал қилиши лозим. Нафс инсон моддий борлиғининг эҳтиёжи даражасида бўлса у зарурийдир. Эҳтиёждан ортган нафс зарарли бўлиб, унга курашиш лозим.

Нафси мутмаинна – хотиржам нафс етти нафс тури ичида меъёрдаги нафсдир. Ундан пастда бўлган нафс кўринишларини тарбиялаш зарур. Ундан юксак ҳолатдаги нафс инсонни комиллик даражасига етказади.

Баҳоуддин Нақшбандниг нафс тарбиясига оид ғояларининг шаклланишида Юсуф Ҳамадонийнинг асарлари манба бўлиб хизмат қилган.

Юқоридаги хулосалар асосида қуйидаги таклифни тавсия этамиз:

Мактабгача тарбия масканларидан то олий ўқув юртларигача бўлган таълим жараёнига албатта "Нафс тарбияси" фанини ва шунга оид машғулотларни киритиш лозим. Шунда таълим сифати талаб даражасида бўлади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Т.:Ўзбекистон Республикаси Фанлар академяси «Фан» нашриёти давлат корхонаси, 2021. 244 б.

2. Наврўзова Г., Зоиров Э. Бухорои шарифнинг етти пири. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2018. 72 б.

3. Жўшон М. А. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Т.: Чўлпон, 1998. 13-бет.

4. Хожа Юсуф Ҳамадоний. Одоби тариқат.// Ҳаёт мезони. Одоби тариқат, Коинот ва инсон ҳақида. Т.: "Movaraunnahr", 2018. 101- бет.

5. Сиддиқ Нажи Эрен. Аллоҳга ва расулига энг яқин йўл. 3-нашр. Истамбул: Сена, 1992. 229-бет.

6. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Мовараннаҳр-Ўзбекистон, 2009. 396-бет.
7. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд. / Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент: “O’zbekiston” НМИУ, 2019. 114-116, 128 б.
8. Муҳаммад Зоҳид Қутку. Нафс нимадир?. Т.: “Sharq”, 2021. 39-41 б.

ALISHER NAVOIY MA’NAVIY MEROSIDAGI NAQSHBANDIYA G‘OYALARI: INSON KAMOLOTI VA ZAMONAVIY JAMIYAT TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY TALQINI

Pardayeva Marhabo Davlatovna
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
Buxoro davlat texnika universiteti prorektori

Jamiyat transformatsiyasi iqtisodiy munosabatlar, texnologiyalar va boshqaruv shakllarining yangilanishi bilan birga insonning o‘zini anglashi, qadriyatlari va xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni ham qamrab oladi. Bunday jarayonda taraqqiyotning maqsadi, shaxsiy manfaatning chegarasi va insonning boshqalar oldidagi mas’uliyati falsafiy muammoga aylanadi. Shu sababli ijtimoiy yangilanishni baholashda moddiy imkoniyatlarning kengayishi bilan bir qatorda inson qadr-qimmati, adolat va o‘zaro ishonch mezonlarini ham hisobga olish zarur.

Alisher Navoiy ma’naviy merosidagi Naqshbandiya g‘oyalari ushbu masalalarni tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganishga asos beradi. Mazkur merosda botiniy poklanish, ma’rifatga intilish va xalq manfaatiga xizmat qilish bir-biriga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Insonning kamoloti uning ichki dunyosi bilan ijtimoiy faoliyati o‘rtasidagi muvofiqlik orqali anglashiladi. Navoiy asarlaridagi odamiylik, muruvvat va adolat talablari ana shu muvofiqlikning axloqiy ifodalaridir.

Tasavvufda komil inson markaziy tushunchalardan biri bo‘lib, uning tizimli falsafiy talqini Muhyiddin ibn Arabiy bilan bog‘liq; Aziziddin Nasafiy va Abdulkarim Jiliy qarashlarida u turli yo‘nalishlarda rivojlangan. Najmiddin Komilov ushbu an’ananing insonparvar mazmunini quyidagicha ifodalaydi: “Inson uchun qayg‘urish, uning ma’naviy kamolotini o‘ylash tasavvufning doimiy o‘zak masalasi bo‘lib kelgan” [1]. Komil inson haqidagi qarashlar shu ma’noda shaxsning mavjudlik mohiyati, ma’rifati va axloqiy mas’uliyatini birgalikda o‘rganishni talab qiladi.

Faylasuf olima G.Navro‘zovaning “Navoi and Naqshbandiya” maqolasida Navoiy asarlarining tariqat tarixi, nazariyasi va amaliyotini yoritishdagi o‘rni hamda uning Abdurahmon Jomiy bilan ma’naviy aloqasi tahlil qilinadi [2]. Olimaning boshqa ishlarida Bahouddin Naqshband ta’limotidagi o‘zlikni anglash va “hush dar dam” tamoyilining hushyorlik bilan bog‘liq mazmuni ochib berilgan [7; 8]. Mazkur tadqiqotlar Navoiy merosidagi axloqiy qarashlarni Naqshbandiya an’anasi doirasida o‘qish uchun tayanch bo‘la oladi.

Navoiy va Naqshbandiya munosabatini anglashda Abdurahmon Jomiy bilan ustoz-shogird aloqasi muhim o‘rin tutadi [2]. Bu aloqa ma’rifatni shaxsiy ibrat, ruhiy tarbiya va suhbat orqali egallash an’anasi bilan bog‘liq. “Nasoyim ul-muhabbat” tasavvuf namoyandalari haqidagi ma’lumotlar orqali mazkur muhitni yoritadi. “Hayrat ul-abror” va “Favoyid ul-kibar”da esa, kamolotga oid masalalar poetik obrazlar va axloqiy mulohazalar shaklida ifodalanadi [3–5].

Navoiy merosidagi har bir tasavvufiy tushunchani faqat Naqshbandiyaga mansub deb izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ishq, fano, nafs tarbiyasi va futuvvat keng tasavvufiy hamda axloqiy an’analarga daxldordir. Ularning Naqshbandiya bilan aloqasi Navoiyda qanday mazmun va munosabatlar doirasida qo‘llanganiga qarab aniqlanishi lozim. Shu jihatdan qalbni Haqqa yo‘naltirgan holda xalq orasida faol yashash g‘oyasi maqolaning asosiy talqin nuqtasini tashkil etadi.

Naqshbandiya an’anasining “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili qalbning Haqqa bog‘liqligi bilan amaliy faoliyatning uyg‘unligini ifodalaydi. Navoiy merosini ushbu tamoyil asosida o‘qish mehnat, ma’rifat va xalq xizmatining ma’naviy tarbiyadagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Faoliyatning axloqiy qiymati uning qanday niyat bilan bajarilishi va odamlarga qanday foyda keltirishi bilan bog‘lanadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Bahouddin Naqshbandga nisbat berilgan “anjumanda xilvat” izohi zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan bo‘lishni anglatadi [3, 134-b.]. Ushbu qoida insonning ijtimoiy muhitda yashab, ichki ma’naviy yo‘nalishini saqlashini nazarda tutadi. Uning zamonaviy falsafiy talqinida tashqi ta’sirlar va manfaatlar orasida vijdon mezoniga sodiq qolish masalasi ajratib ko‘rsatilishi mumkin. Bunda tariqatdagi botiniy holatning diniy mohiyati saqlanadi, undan chiqarilayotgan axloqiy xulosa esa alohida talqin sifatida tushuniladi.

Navoiy talqinida kamolot o‘zlikni anglash va nafsni tarbiyalash bilan bog‘liq. Olima G. Navro‘zova Bahouddin Naqshband qarashlarini sharhlab, “inson bu olamdagi o‘z o‘rni, asl mohiyatini bilishi lozim”, deb ta’kidlaydi [7]. O‘zlikni anglash insonning imkoniyatlarini bilishi, ulardan foydalanish maqsadini aniqlashi va o‘z xatti-harakatiga baho berishini qamrab oladi.

“Favoyid ul-kibar”ning 280-g‘azalida Navoiy shunday yozadi: *Gar fano rasmini qilmoq tilar ersang mazbut, Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut [4, 143-b.].* Baytda nafs va ruh diniy-badiiy qarama-qarshilik orqali ifodalangan. Fano tasavvufda Haqqa yo‘nalish bilan bog‘liq murakkab irfoniy tushunchadir; uning axloqiy talqinida xudbinlik va o‘ziga mahliyo bo‘lishdan xalos bo‘lish jihati ajratib ko‘rsatiladi. Bu talqinni fanoning butun mazmuniga tenglashtirish yoki baytdan tabiiy ehtiyojlarni yo‘qotish talabi kelib chiqadi, deb hisoblash uning ma’nosini toraytiradi.

Nafs tarbiyasining axloqiy mohiyati istak, tanlov va oqibat o‘rtasida ongli munosabat o‘rnatishda namoyon bo‘ladi. Boylik, mavqe yoki e’tirofga intilish boshqalarning manfaatiga zarar yetkazganda, inson o‘z maqsadlarini qayta baholashi zarur. Shu asosda ichki intizom shaxsni o‘z faoliyatining ma’naviy mazmuni uchun javob berishga yo‘naltiradi.

Navoiy she’riyatidagi ilohiy ishq ham kamolotning muhim asosidir. Ishq timsoli insonning oliy ma’noga intilishi, vafo va fidoyilik bilan bog‘liq holda o‘qilishi mumkin. Shoirning barcha ishqiy obrazlari bir xil mazmunga ega emas. Biroq ishqning axloqiy talqini ezgulikning ichki ehtiyojga aylanishini anglashga yordam beradi: inson boshqaga yaxshilik qilishni o‘z ma’naviy hayotining zarur qismi sifatida qabul qiladi.

Komillik idealining bugungi talqinida har bir kishining qadr-qimmatini tan olish muhimdir. Axloqiy yetuklik darajasi insonning asosiy qadrini kamaytiradigan mezonga aylantirilmasligi lozim. Kamolotga intilish o‘z xatosini anglash, uni tuzatish va mas’uliyatni kuchaytirishga xizmat qilgandagina tarbiyaviy mazmun kasb etadi.

Futuvvat va muruvvat odamiylikning amaliy ifodasini kuchaytiradi. Navoiy “Favoyid ul-kibar”dagi fardida shunday yozadi: *Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q, Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q [4, 391-b.].* Ushbu poetik ta’rifda beg‘arazlik va amal ustuvorligi ifodalangan. Yaxshilikning axloqiy mazmuni insonning o‘zini ko‘rsatish istagidan yuqori turadi. Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniy”da saxovat, safo va vafoni futuvvat martabalari sifatida tushuntirib, vafoni xalq xizmatida bo‘lish bilan bog‘laydi [6, 8-b.]. Bu qiyos Navoiy qarashlarini u bilan mushtarak axloqiy muhit doirasida anglashga yordam beradi.

“Hayrat ul-abror”ning Bahouddin Naqshband tavsifidagi saxovat va o‘zlikdan kechish obrazlari ham ichki poklanishning ezgu faoliyatga yo‘nalishini ko‘rsatadi [5, 68-b.]. Zamonaviy talqinda xizmatning axloqiy mezoni yordam oluvchining qadrini saqlash, yaxshilikni minnatga aylantirmaslik va amaliy natijaga e’tibor berish orqali ifodalanishi mumkin.

Niyat bilan natija o‘rtasidagi munosabat bu yerda alohida ahamiyatga ega. Xolis niyat bildirish bajarilgan ishning oqibatini baholash zaruratini bekor qilmaydi. Shuningdek, tashqi foydasi mavjud faoliyat faqat shuhrat yoki shaxsiy ustunlik uchun bajarilsa, uning ma’naviy mazmuni zaiflashadi. Demak, kamolot faoliyat sabablarini ham, uning boshqa odamlarga ta’sirini ham o‘rganadigan axloqiy o‘zini tekshirishni talab qiladi.

Navoiydagi xalq xizmatini adolat masalasidan ajratib bo‘lmaydi. “Hayrat ul-abror”da hukmdorga qaratilgan “Ermas alar tufrog‘u sen nuri pok” misrasi raiyatni insoniy qadri jihatidan past ko‘rishga qarshi axloqiy mazmun kasb etadi [5, 88-b.]. Hukmdor va raiyat haqidagi ushbu tarixiy mulohaza bugungi talqinda mavqe egasining mas’uliyati, boshqalarga hurmati va imkoniyatlardan adolatli foydalanishi masalalarini muhokama qilishga asos beradi.

Rostgo‘ylik ham odamiylikning ijtimoiy shartidir. “Hayrat ul-abror”da yolg‘onning oxir-oqibat fosh bo‘lishi haqidagi fikr shaxsiy xulqning oqibatini yoritadi [5, 155-b.]. Uning zamonaviy falsafiy talqinida rostgo‘ylik o‘zaro ishonch, va’daga sadoqat va hamkorlik bilan bog‘lanadi. So‘z va amal muvofiqligi kundalik munosabatlarda boshqalarni chalg‘itmaslik, ilmiy faoliyatda esa dalil va manbalarga vijdonan munosabatda bo‘lishni talab qiladi.

“Nasoyim ul-muhabbat”dagi “bizning tariqimiz suhbatdur” iborasi ma’naviy tarbiyaning shaxslararo xususiyatini ifodalaydi [3, 134-b.]. Tarixiy mazmunda suhbat tariqatga xos ruhiy tarbiya amaliyotidir. Navoiy va Jomiy aloqasi ham bilim, maslahat va shaxsiy ibratning o‘zaro bog‘liqligini anglashga yordam beradi [2].

Bugungi ta’limga doir talqinda suhbatning ahamiyati tinglash, savol qo‘yish, dalil bilan javob berish va suhbatdosh qadrini saqlash orqali izohlanishi mumkin. Bunday muloqot shaxsning o‘z fikriga mas’uliyatini kuchaytiradi. Tarixiy ustoz-shogird munosabatidan olinadigan tarbiyaviy xulosa bilim bilan axloqiy namunaning uzviyligidir.

Kasbiy faoliyatda halol mehnat va xalq xizmati bilimdan qanday maqsadda foydalanish masalasini o‘rtaga qo‘yadi. O‘qituvchining xolis bahosi, tadqiqotchining manbani aniq ko‘rsatishi va rahbarning manfaatlar to‘qnashuvini ochiq hal etishi ana shu talqinning amaliy misollaridir. Kasbiy mahorat inson manfaatini hisobga olish bilan uyg‘unlashganda, faoliyatning axloqiy mazmuni to‘laroq namoyon bo‘ladi.

Bu jarayonda shaxsiy fazilatlar bilan tashkiliy sharoitlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim. Halollikni rag‘batlantiradigan baholash mezonlari, adolatli mehnat taqsimoti va qarorlar yuzasidan hisob berish imkoniyati mas’uliyatli xulqni qo‘llab-quvvatlaydi. Navoiy merosidan chiqarilayotgan zamonaviy xulosa insonning o‘zini tarbiyalashi bilan ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish bir-birini to‘ldirishidir.

Jamiyatdagi turli qarash va e’tiqodlarga ega kishilar o‘rtasida hamkorlikni muhokama qilishda hamdardlik, halollik va adolat umumiy axloqiy mavzu bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Navoiy merosining diniy ildizlarini tushunish mazkur g‘oyalar yuzasidan keng falsafiy muloqot yuritishga imkon beradi. Ularni ta’lim va jamoat hayotida sharhlashda insonning erkin tanlovi hamda qarashlar xilma-xilligini hurmat qilish zarur.

Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy barqarorlik yangilanish jarayonida inson qadrini, o‘zaro ishonchni va yordamga tayyorlikni saqlash bilan bog‘lanadi. Masalan, yangi texnologiya yoki mehnat tartibi joriy etilganda unumdorlik bilan bir qatorda xodimning o‘rganish imkoniyati va adolatli munosabatga ehtiyoji ham e’tiborga olinishi lozim. Navoiy merosi bunday tanlovlarning insoniy maqsadini muhokama qilish uchun axloqiy mezon beradi.

Alisher Navoiy ma’naviy merosidagi Naqshbandiya g‘oyalari insonning ichki tarbiyasini odamiylik va xalq xizmati bilan bog‘liq holda tushunishga imkon beradi. “Xilvat dar anjuman” qalbning ma’naviy yo‘nalishi va ijtimoiy faoliyat uyg‘unligini ifodalasa, nafs tarbiyasi shaxsning o‘z istaklari hamda amallariga mas’uliyatini kuchaytiradi. Futuvvat, muruvvat va suhbat esa kamolotning amaliy va shaxslararo jihatlarini ochadi.

Tahlilning asosiy xulosasi shuki, Navoiydagi komillik idealining ijtimoiy mazmuni insonning boshqalarga munosabati va ezgu faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu bog‘lanish zamonaviy jamiyat transformatsiyasini kasbiy halollik, raqamli mas’uliyat, adolat va o‘zaro ishonch nuqtayi nazaridan baholashga asos bo‘lishi mumkin. Shaxsiy ma’naviy tarbiya adolatli ijtimoiy sharoitlar bilan qo‘llab-quvvatlanganda yangilanishning insonparvar maqsadlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. –. 271 б.
2. Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. – 244 б.
3. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 томлик. Т 17. – Тошкент: Фан, 2001. – 520 б.
4. Алишер Навоий. Фавойил ул-кибар. ТАТ, 10 жилдлик. 4-жилд. – Т.: 2011. –741 б.
5. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 томлик. Т.7. – Тошкент: Фан, 1991. – 392 б.

6. Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов). – Т.: 2011. – Б. 16.
7. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд. Авроди Баҳоия. – Бухоро: “Бухоро”, 2000. – 30 б.
8. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд (манбалар таҳлили). –Тошкент: Sano-standart, 2019. – 255 б.

ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТ ТРАНСФОРМАЦИЯСИДА ИНСОН ҚАДРИ

Ойгул Шарипова
БухДУ профессори, ф.ф.д.(DSc), “Жўйбори Калон”аёл-қизлар ўрта-махсус ислом таълим муассасаси директори
Мунисхон Гуламова
БухДУ доценти, ф.ф.б.ф.д. (PhD)

Глобаллашув жараёнида барча жамиятларда трансформациялашув амалга ошмоқда. Чунки фан-техниканинг ривожланиши, рақамли иқтисодиёт, мобил алоқаларнинг тараққиёти, янгидан-янги кашфиётлар, коммуникацияларниг такомиллашуви, инвестицияларнинг киритилиши, шулар туфайли янги жамият кишисининг шаклланиши ўзига хосдир.Барча давлатларнинг ҳаётида бу жараёнлар яққол кўзга ташланмоқда.Барча соҳаларда сунъй интелектдан фойдаланилмоқда. Булар хохлайсизми, хохламайсизми ёшлар ҳаётига ўз таъсирини ўтказиб, уларнинг дунёқараши, фаолияти, кундалик турмушида ўз аксини топади .Инсон –энг олий қадриятдир. Ҳамма даврларда, барча таълимотларда, жамиики улуғ мутафаккирлар қарашларида инсон моҳияти ҳақида фикрлар билдирилган.Фалсафада инсоннинг энг олий қадрият эканлиги таъкидланиб, жамият ҳаётида амалга ошириладиган барча саъй-ҳаракатлар, ўзгаришлар, ислоҳотлар унинг фаровон ҳаёти учун эканлиги айтилади.

Қадриятлар туғрисидаги фан — Аксиология (аксио — қадрият, логос фан, таълимот маъносини англатади) фалсафанинг шу масалани ўрганадиган ва у билан шуғулланадиган соҳаси ҳисобланади. Қадриятлар фалсафаси — Аксиологиянинг кўпдан-кўп мавзулари мутаҳассисларимизнинг илмий изланишларида ўзига хос ўрин тутмоқда

Қадриятлар мавзусининг тарихи, илдизлари ва инсониятга ҳос қадрлаш тамойиллари шаклланиши узоқ ўтмишга ега. Ғарб олимлари бу борада, асосан, Европа маданий мероси ва ғояларига таянадилар, кўплаб алломаларнинг номларини тилга оладилар. Биз Суқрот ва Афлотун, Арасту ва Гегеллар катта еътибор берган бу мавзунинг Ғарб фалсафасида ўз тарихига ега еканлигини биламиз.

Аммо ушбу мавзу кўҳна ва навқирон Шарқ, ҳусусан Ўзбекистон учун ҳам ўзига хос.Номлари сивилизасиямиз тарихига абадий битилган Хоразмий, Форобий, ал-Буҳорий, ат-Термизий, Беруний, Ибн Сино, Нажмиддин Кубро, Яссавий, Нақшбанд, Улуғбек, Навоий, Машраб, Бедил, Беҳбудий, Авлоний каби мутафаккирлар ижодида ҳам бу мавзунинг излари бор, теран қирралари очилган.

Одамлар битта жамиятда, бир даврда ва ўхшаш шароитларда яшаётганликларига қарамасдан, у ёки бу нарсанинг қадри турлича англаб олинади, тушунилади ва талқин қилинади. Юқорида айтганимиздеке, ижтимоий жараёнлар таъсирида кишиларнинг қадриятлар туғрисидаги тасаввури, қарашлари ўзгаради, бу еса тараққиёт жараёнида одамларнинг турмуш шароитлари, ҳаёти ва маънавий қиёфасидаги ўзгаришлар билан боғликдир.

Ана шунга кўра, ҳаммада ҳам қадрлаш туйғуси доимо бир ҳил бўлавермайди, ижобий ва салбий қарашлар, турли ҳил жиҳатлар ҳар қандай қадриятнинг қарама-қарши томонларини ташкил қилади. Ижобийлиги ва салбийлиги, баҳоланиши ва аҳамиятига кўра бир-бирига мутлақо зиддек бўлиб кўринадиган яҳшилик ва ёмонлик, ҳақиқат ва ҳақсизлик, баҳт-саодат ва ғам-кулфат, тараққиёт ва таназзул каби тушунчалар ҳаётнинг бир-бирига зид ва чамбарчас боғланган томонларини ифодалайди.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, қадриятлар жамиятнинг ривожи ва кишилар ҳаётининг турли даврларида турлича аҳамият касб етади, тарихий заруриятга мос равишда

гоҳ у, гоҳ бу қадрият ижтимоий тараққиётнинг енг олдинги поғонасига чиқиб олади. Истиқлол инсон қадри, унинг манфаат ва еҳтиёжлари билан боғлиқ масалаларни долзарблаштириб юборди. Инсон қадри унинг ижтимоий ҳусусиятлари, жамиятда амалга оширган фаолияти, бошқаларга ва атроф-муҳитга муносабати, камолотга етганлиги, ижтимоий ҳусусиятларни ўзлаштириб олганлиги ва уларни маънавий қиёфасида намоён қила олганлигида ҳам кўринади. Одам боласининг шаҳсга айланиши, ўз қадрини ва ўзгалар қадрини англаш жараёни узоқ йиллар давом етади.

Умуман, одамзод наслининг ҳозирги авлоди учинчи минг йилликни кутиб олаётган бугунги кунларда бутун дунёда қадрлаш фалсафасининг умуминсоний мезонларини амалиётда қўллашга еҳтиёж кучайди. Инсоннинг бутун умри шаҳсий қадриятларни такомиллаштириш, ўз қадрини камолга етказиш, ўзгалар, жамият, замон ва ундаги содир бўлаётган ўзгаришлар қадрини англашга интилиш жараёнидан иборатдир. Ўз шаҳси ва бошқалар қадрини англаб етиш учун инсоннинг камолоти давомида шаклланган маънавий қиёфаси ва дунёси езгуликка ҳизмат қилиши, юксак ижтимоий сифатларга ега бўлиши, унинг ўзи еса ҳаётнинг моҳияти ва мақсадини туғри англайдиган даражада тарбияланган бўлмоғи лозим.

Шахснинг қадри у яшаётган замон, ундаги жараёнлар, ижтимоий, тарихий шарт-шароитлар билан диалектик алоқадорликда намоён бўлади. Муҳит ва давр талаблари шаҳс қадрини шакллантириб, сайқаллаб боради, унинг ўзи еса ўз қадрининг шаҳсий талаблари, еҳтиёжлари ва мақсадлари билан нақадар алоқадорлигини чуқурроқ англаб олиш томон боради. Қадриятлар ёшларга ҳаёт мазмунини чуқурроқ тушуниш, жамият қонун-қоидаларидан туғри фойдаланиш, ўзларининг ҳатти-ҳаракатларини ана шу маънавий мезонлар талабига мослаштириш имконини беради. Ҳозирги даврда талаба ва ўқувчиларга қадрлаш ва қадрсизланиш жараёнларининг моҳиятини англатиш, мустақиллик еълон қилган қадриятларнинг аҳамиятини туғри тушунтиришга еришиш ниҳоятда долзарб масаладир.

Ёшлар, хусусан талабалар ва ўқувчиларни маънавий баркамол авлод вакиллари сифатида тарбиялаш ва шакллантиришда қадр ва қадрлаш туйғуси, қадриятлар категорияси, уларнинг моҳияти, мазмуни, намоён бўлиш шакллари туғрисидаги билимларнинг мажмуаси бўлган замонавий аксиология ўрганиш ниҳоятда муҳим. Ана шу сабабдан ҳам умуминсониятнинг қадрлаш меъёрлари борасида тўплаган ютуқларини умумлаштирган билим соҳалари имкониятидан фойдаланиш таълим-тарбия самарадорлигининг асосий мезонларидан биридир.

Инсон қадри, унинг шаъни, ор-номуси, миллий ғурури, албатта, миллий қадриятлар билан бевосита боғлиқ. Шунингдек, инсон ўз соглигининг қадрига етиб яшаши, уни асраб-авайлашига доимий эътибор бериб яшамоғи лозим.

Чунки халқимиз бежизга “Соғ танда-соғлом ақл” деб бежизга айтмаган. Одамзоднинг соғлиги кўп жиҳатидан аввалambор унинг ўзига боғлиқ. Бунинг учун у ўз ҳаётини оқилона йўлга қўйиши, ҳар қандай касалликнинг олдини олиш учун соғлом ҳаёт тарзи ва турмуш маданияти талабларига амал қилиб яшаши лозим.Турмуш тарзи- инсон ҳаётининг шундай бир таянч нуқтасики, ҳар бир инсон унга таянган ҳолда, ўз ҳаётини тубдан ўзгартиришга еришиши мумкин.

Турмуш тарзи- деганда инсон билан табиий ижтимоий муҳит ўртасидаги барқарор ва узоқни кўзлаб ўрнатилган муносабатлар тизимидан иборат бўлган жамиятнинг ахлоқий ва моддий қадриятлари сифатида гавдаланган, интилишлари, мақсадлари, шаклланган хулқи, узоқ келажакни ўйлаб иш тутиши нуқтаи назардан еса жамиятдаги мавжуд қонунлар, ананалар ва тартибларга асосланган ҳолга ўзининг турли хил еҳтиёжларини қондириб яшаш тарзи тушунилади.Турмуш тарзи – бу жамиятда одамларнинг фаолияти юриш туриши тартиби бўлиб, яшаш шароитлари билан боғланган, уларга жавоб беради, улардан у ёки бу даражада фойдаланишни назарда тутади. Турмуш тарзи- ҳар бир шахснинг турмуш кечириши ёки бошқача айтганда уларнинг яшаш фаолияти шаклидир. Яшаш шароити еса турмуш тарзи билан воситалашган ва шартланган омиллар йиғиндиси бўлиб белглайди ёки

бошқача қилиб айцак, яшаш шароити турмуш тарзига таъсир курсатувчи моддий ва манавий омиллар йиғиндисидан таркиб топади.

Соғлик олий қадрият Саломатликни ўрганадиган фанларга диетология, фармакология, биология, епидемиология, психология (саломатлик психологияси, ривожланиш психологияси, експериментал ва клиник психология, ижтимоий (социал) психология), психиатрия, педиатрия, тиббий социология ва тиббий антропология, психохигина, дефектология ва бошқалар киради.

Инсон саломатлигини муҳофаза қилиш (соғлиқни сақлаш) — давлатнинг вазифаларидан биридир. Дунё миқёсида инсон саломатлигини сақлаш билан **Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти** (ЖССТ) шуғулланади.

Инсон саломатлиги — сифат кўрсаткичи бўлиб, у миқдорий параметрлар: **антропометрик**; **биокимёвий, биологик** ва бошқа биомаркерлардан ташкил топади.

Инсон организми ҳолати учун “меъёр” тушунчаси мавжуд бўлиб, бунда параметр қийматлари тиббиёт фани ва амалиёти билан белгиланадиган диапазонга тўғри келиши инобатга олинади. Қийматнинг берилган диапазондан оғиши, саломатлик ёмонлашувининг белгиси ва далили бўлиши мумкин. Ташқи томондан, соғликни йўқотиш тананинг таркибий тузилмалари ва функцияларида ўлчанадиган бузилишларда, унинг мослашувчанлиги ўзгаришида ифодаланади.

Турмуш тарзи қуйидаги 4 та тоифани ўз ичига олади:

1. Иқтисодий ёки “яшаш даражаси” – фаровон яшаш тоифаси бўлиб уни сон жиҳатдан ўлчаш мумкин. Бунга миллий дарома, истеъмол фондлари, аҳолининг ҳақиқий даромадлари ва улардан фойдаланишни, уй- жой билан таъминланиш, тиббий хизмат кўрсатиш ва саводхонлик даражаси, иш вақти ва бўш вақтнинг давомийлиги, даромадлари таркиби ва хоказолар.
2. Ижтимоий ёки “яшаш сифати” еса уй-жой, яшаш шароитлари ва овқатланиш, қулайликларига егалиги, ишдан қониқиши, мулоқотда бўлиши кабиларни баҳолаш учун қўлланиладиган тоифа ҳисобланади.
3. Ижтимоий руҳий томони “яшаш услуби” тарзида баҳоланиб, у ҳар бир шахснинг ўзига хос хусусиятлари- фикрлаши ва тафаккур дираси кабиларни қамраб олади.
4. Ижтимои- иктисодий томони еса –одамларнинг жамиятда тутган ўрни, ҳаёти, турмуши, маданияти ҳамда уларнинг яшаш фаолиятларини белгилайди. Турмуш тарзи – деганда инсонларнинг муайян ижтимоий муҳитда, жамиятда ўзини тутиши, уларнинг меҳнат фаолияти ва моддий шароитларини ўзаро диаликтик муносабатларидан иборат фалсафий категория тушунилади.

Шундай қилиб турмуш тарзи – ижтимоий- иқтисодий фармацтия ва жамиятнинг объектив ривожланиш жараёнлари билан боғланган ҳолда шаклланиб, у тарихий ривожланишнинг малум босқичида ишлаб чиқариш усулига боғлиқ ҳолда пайдо бўлади.

Меҳнат фаолияти ва ишлаб чикариш билан боғлик турмуш турмуш тарзига: мехнатнинг тури, унинг мазмуни ,таркибий кисмлари, ташкил килиш даражаси ва хоказолар киради. Бунда ишлаб чикариш тармоги ,жисмоний ёки интеллектуал иш режими,автоматлаштириш ёки механизастиялаш даражаси, мехнат интизоми, иш хажми, ташаббускорлик, мехнатга ва жамоага муносабати, рухий ва емостионал холат,уз ишидан қониқиш хосил килиш даражаси кабилар инобатга олинади.

-Турмуш тарзининг мухим турига инсоннинг ижтимоий сиёсий фаоллиги хам киради. Буларга доимий равишда жамоатчилик асосида маълум вазифани бажариш, сайлов органлари ичида катнашиш, мамлакатнинг ташки ва ичкисиёсати масалаларида саводхонлиги ,сиёсий адабиётга кизикиш,йигилишларда катнашиб,чикишлар килиш ва хоказолар киради.

Шунинг учун одамларнинг яшаши ва турмуш даражаси турли мамлакатларда турлича булиб, у мамлакатнинг иктисодий-ижтимоий ривожланиши,сиёсий холати,ишлаб чикариш кучларининг ривожланганлиги,мамлакат миллий даромади ва истеъмол фондлари

хажми, одамларнинг даромади, уй-жой билан таъминланиши, тиббий ёрдам олиш даражаси,ахолини саводхонлиги, иш вактининг давомийлиги, саломатлик курсаткичлари ва демографик жараёнлар холати кабилар билан белгиланади.

Биоэтика нуқтаи назардан соғлом турмуш тарзи:

1. Организмнинг ёшига боғлиқ хусусиятларга ва саломатлик ҳолатига мос келиши, организмнинг енергия таъминотига булган талабини истеъмол қилинаётган озиқ-овқат махсулотлари хисобига тўла қондирилиши;
2. Организмнинг мустаҳкам ва жисмоний фаол бўлиши;
3. Белгиланган кун тартибига риоя қилиш, мехнат қилиш ва дам олишни мутаносиб қилишга асосланиши, ҳаёт ритмларига мос келиши. Ижтимоий нуқтаи назардан еса:

Ахлоқий пок бўлиш;

Ирода асосида бошқариш;

Гўзал булиши;

Ўзини-узи тарбиялашга асосланиши лозим.

Фан – техниканинг ғоят улкан имкониятлари одамлардан соғлом турмуш тарзини шакллантиришни ўз-ўзидан таминлаб бермайди.Бу ўринда субъектиб омилнинг, яъни биоэтикага асосланган турмуш тарзини таъминловчи кучли ижтимоий сиёсатнинг фаол рол ўйнаши талаб етилади. Соғлом тарзи мехнат, турмуш ва дам олиш гигиенаси, шахслар аро маданиятини, екологик маданият ўз организмини физиологик жиҳатдан авайлаш ва атрофдагиларнинг саломатлиги тўғрисида қайғуриш сингари коплекс омилларни ўз ичига олади.

Мамлакатимизнинг ижтимоий ва иқтисодий тараққиёти ўсиб ва ривожланиб бораётган ҳозирги даврда соғлом турмуш тарзининг ижтимоий – гигиеник мезонларини аниқ белгилаб олишнинг аҳамияти каттадир.

Учинчи Ренессанс пойдеворини қураётган Янги Ўзбекистоннинг буюк келажаги ана шундай комил инсонларни тарбиялаб, етиштириш даражаси билан белгиланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2021. — 464 б.
2. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). — Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2011. — 384 б.
3. Шермухамедова Н. А. Инсон фалсафаси. — Тошкент: Ношир, 2016.
4. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. — Тошкент: Ўзбекистон, 2013.

IJTIMOIY ONG VA FUQAROLIK JAMIYATI DIALEKTIKASI

Teshayev Nutfullo Nasrulloyevich
BuxDU falsafa fanlari doktiri(DSc), professor.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida inson omili, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabati, jamoatchilik hayotidagi ishtiroki va fuqarolik pozitsiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning demokratik taraqqiyoti faqat siyosiy institutlarning mavjudligi bilan emas, balki fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarni anglash darajasi, huquq va erkinliklariga munosabati, ijtimoiy mas'uliyati va jamoatchilik faolligi bilan ham belgilanadi. Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida "Xalqimiz hayotining barcha soxalari fuqarolarimizning ongi va dunyo qarashida jiddiy o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda"[1, b. 261]. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati munosabatlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Chunki fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun institutsional shart-sharoitlar bilan bir qatorda, fuqarolarning tegishli ijtimoiy ongi ham shakllangan bo'lishi zarur. Ijtimoiy ong jamiyatda yuz berayotgan voqea va jarayonlarning insonlar tomonidan anglanishi, baholanishi va muayyan ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilishini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyati esa ana shu ongiy jarayonlar amaliy faoliyatga aylanadigan muhim ijtimoiy makondir. Ular o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emas. Bir tarafdan, ijtimoiy ong fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tarafdan,

fuqarolik jamiyati institutlari insonlarning ijtimoiy ongi, qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvoriga ta’sir etadi. Shu sababli ular o‘rtasidagi munosabatni **dialektik o‘zaro ta’sir** sifatida baholash mumkin. Ijtimoiy ong — muayyan jamiyatning ijtimoiy borliqni aks ettirishi, anglashi va baholashi jarayonida shakllangan g‘oyalar, qarashlar, tasavvurlar, his-tuyg‘ular, qadriyatlar, nazariyalar va ijtimoiy-psixologik holatlar tizimidir. Ijtimoiy ong individual ongdan farqli ravishda umumiy ijtimoiy tajribani ifodalaydi. Biroq ular bir-biridan uzilgan holda mavjud bo‘lmaydi. Individning dunyoqarashi, siyosiy va huquqiy qarashlari, axloqiy pozitsiyasi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi; o‘z navbatida, faol shaxslarning g‘oyalari va faoliyati jamiyat ongiga ta’sir qilishi mumkin. Ijtimoiy ongning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy xarakterga egaligi; tarixiy o‘zgaruvchanligi; ijtimoiy borliq bilan bog‘liqligi; nisbiy mustaqillikka egaligi; vorisiylik xususiyati; jamiyat taraqqiyotiga faol ta’sir ko‘rsatish imkoniyati. Ijtimoiy ongni faqat voqelikning passiv in’ikosi sifatida tushunish bir tomonlama yondashuv bo‘ladi. U insonlarning ijtimoiy faoliyatini belgilaydi, ularning maqsad va manfaatlarini shakllantiradi hamda ijtimoiy o‘zgarishlarga turtki beradi. Ijtimoiy ong ichki jihatdan murakkab va ko‘p qirrali tizimdir. Uning asosiy shakllari sifatida siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, ilmiy va mafkuraviy ongni ko‘rsatish mumkin. Siyosiy ong insonlarning davlat, hokimiyat, siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar va jamoatchilik munosabatlariga oid qarashlari tizimidir. Fuqarolik jamiyati nuqtayi nazaridan siyosiy ong fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi, saylovlarda faol bo‘lishi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi va o‘z huquqlarini himoya qilishi uchun muhim omil hisoblanadi. Huquqiy ong insonlarning huquq, majburiyat, qonuniylik, adolat va huquqiy munosabatlarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Yuksak huquqiy ong fuqarolik jamiyatining muhim shartidir. Qonunni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish fuqaroning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Axloqiy ong jamiyatda qabul qilingan yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, adolat, mas’uliyat kabi tushunchalarni ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatining institutsional mexanizmlari axloqiy madaniyat bilan uyg‘unlashgandagina samarali ishlaydi.

Chunki ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va hamkorlik faqat huquqiy normalar emas, balki axloqiy qadriyatlarga ham tayanadi. Ilmiy ong obyektiv bilim, ratsional fikrlash va tanqidiy tahlilga asoslanadi. Zamonaviy fuqarolik jamiyatida ilmiy ong dezinformatsiya, manipulyatsiya va stereotiplarga qarshi intellektual immunitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati munosabatlarining dialektikasi ularning o‘zaro ta’sir va o‘zaro shartlanganligida namoyon bo‘ladi. Ushbu munosabatni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin: Ijtimoiy borliq → ijtimoiy ong → ijtimoiy faollik → fuqarolik institutlari → ijtimoiy o‘zgarish → yangi ijtimoiy ong Demak, ijtimoiy ong fuqarolik jamiyatining ma’naviy-intellektual asoslarini shakllantirsa, fuqarolik jamiyati ijtimoiy ongning rivojlanishi uchun amaliy muhit yaratadi. Berdikulova S. A. o’z maqolasida “Ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy ong dialektik aloqada bir-biriga ta’sir etib, jamiyat rivojiga turtki beradi.” [5, b. 257] deb ko’rsatadi. Masalan, inson o‘z huquqlarini anglashi huquqiy ongning yuksalishini anglatadi. Agar u o‘z huquqini amalga oshirish uchun jamoat tashkilotiga birlashsa, jamoatchilik muhokamasida ishtirok etsa yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshirsa, ong amaliy faoliyatga aylanadi. Shu ma’noda: Ong → pozitsiya → faollik → institut → ijtimoiy ta’sir zanjiri fuqarolik jamiyati rivojining muhim mexanizmlaridan biridir. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun fuqarolarning o‘zini jamiyat hayotining faol subyekti sifatida anglashi muhimdir. Bunday ong: shaxsiy mas’uliyat; huquq va erkinliklarni anglash; jamoat manfaatlariga daxldorlik; ijtimoiy tashabbuskorlik; siyosiy madaniyat; huquqiy madaniyat; ijtimoiy sheriklik; bag‘rikenglik; muloqot madaniyati kabi sifatlarni shakllantiradi. Fuqarolik ongi yuqori bo‘lgan jamiyatda inson o‘zini faqat davlat tomonidan xizmat ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan passiv subyekt sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun mas’ul faol subyekt sifatida anglaydi. Bu holat fuqarolik jamiyatining institutsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro ta’sirning ikkinchi tomoni fuqarolik jamiyatining insonlar ongiga ta’siridir. Fuqarolik institutlari insonlarga: o‘z fikrini erkin bildirish; jamoaviy muhokamada ishtirok etish; turli manfaatlarni ifodalash; ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilish; davlat organlari faoliyatini baholash; jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda shaxsning ijtimoiy tajribasi boyib, uning fuqarolik kompetensiyasi rivojlanadi. Shunday qilib,

fuqarolik jamiyati institutsional muhit sifatida ijtimoiy ongni faollashtiradi va uni amaliy mazmun bilan boyitadi. Zamonaviy fuqarolik jamiyati nazariyasida Yurgen Habermasning kommunikativ harakat konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Habermas jamiyatda ijtimoiy integratsiyaning muhim manbalaridan biri ratsional muloqot ekanini ta'kidlaydi. [4,b. 357] Uning yondashuvida jamoatchilik muhokamasi, ochiq muloqot va argumentlarga asoslangan fikr almashinuvi demokratik jamiyatning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati munosabatlarini tushunish uchun ham muhimdir. Chunki fuqarolik jamiyati institutlari orqali turli ijtimoiy guruhlar o‘z manfaatlarini ifodalaydi va ularni ochiq muloqot maydoniga olib chiqadi. Bu jarayonda: fikr → muloqot → kelishuv → ijtimoiy harakat → institutsional o‘zgarish mexanizmi shakllanishi mumkin. Ijtimoiy ongning fuqarolik jamiyatidagi amaliy ahamiyati, eng avvalo, ijtimoiy faollik orqali namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy faollik — shaxs yoki ijtimoiy guruhning jamiyat hayotida ongli va maqsadli ishtirok etishidir. Ijtimoiy faollikning muhim shakllari: jamoat ishlarida ishtirok; volontyorlik; ijtimoiy tashabbus; jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok; mahalla hayotida ishtirok; saylovlarda ishtirok; jamoatchilik muhokamalari; ijtimoiy loyihalar; ekologik tashabbuslar. Ijtimoiy sheriklik esa davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, biznes va aholi o‘rtasidagi hamkorlikni anglatadi. Shu ma'noda "..ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolik faolligini oshirish va davlat hamda jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash lozim"[6, b. 29]. Ijtimoiy ong qanchalik yuksak bo‘lsa, ijtimoiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida inson qadri, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Siyosatshinos olim A.A. Azizxo'jayev o'zining "Davlatchilik va ma'naviyat" risolasida "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishning o'zaro bog'liqligi, ularni bir-biridan ajralmas holda barpo etish mumkin emasligi" [3, b. 22] takidlap o'tadi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, demokratik prinsiplar va fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishiga oid konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangan. Bu jarayon ijtimoiy ongning mazmunida ham o‘zgarishlarni taqozo etadi. Ayniqsa, «fuqaro — davlat» munosabatlarida fuqaroning passiv kuzatuvchi emas, balki ijtimoiy jarayonlarning faol subyekti sifatida shakllanishi muhimdir. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da xalq hayotining turli sohalarida fuqarolarning ongi va dunyoqarashida jiddiy o‘zgarishlar zarurligi ta'kidlangan. Bu holat ijtimoiy ongni islohotlarning nafaqat natijasi, balki muhim subyektiv omili sifatida ham baholash imkonini beradi. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida ham inson salohiyatini rivojlantirish, jamiyat va davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, fuqarolar uchun munosib sharoit yaratish kabi vazifalar ijtimoiy ong va fuqarolik mas'uliyatining yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy ongning o‘zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko‘rsatmoqda: globallashuv; raqamlashtirish; urbanizatsiya; ta'lim tizimi; ommaviy kommunikatsiyalar; ijtimoiy tarmoqlar; iqtisodiy o‘zgarishlar; siyosiy islohotlar; huquqiy madaniyat; milliy-madaniy qadriyatlar; yoshlar ijtimoiy faolligi; xalqaro axborot almashinuvi. Bu omillar ta'sirida insonlarning davlat, jamiyat, siyosat, huquq, milliy qadriyatlar va shaxsiy mas'uliyat haqidagi tasavvurlari o‘zgarib bormoqda. Dialektik yondashuv ijtimoiy taraqqiyotda ziddiyatlarning mavjudligini ham hisobga olishni talab qiladi. Ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati munosabatlarida quyidagi ziddiyatlar kuzatilishi mumkin: shaxsiy manfaat va jamoat manfaati o‘rtasidagi ziddiyat; erkinlik va mas'uliyat o‘rtasidagi ziddiyat; an'ana va modernizatsiya o‘rtasidagi ziddiyat; milliy qadriyatlar va global madaniy ta'sirlar o‘rtasidagi ziddiyat; ochiqlik va axborot xavfsizligi o‘rtasidagi ziddiyat; davlat manfaatlari va ayrim ijtimoiy guruhlar manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat. Ushbu ziddiyatlarning mavjudligi fuqarolik jamiyatining zaifligi emas. Aksincha, ularni huquqiy, demokratik va konstruktiv mexanizmlar orqali hal etish jamiyatning institutsional rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy ongni yuksaltirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim: Birinchidan, fuqarolik ta'limi Yoshlarda Konstitutsiya, huquq va erkinliklar, demokratik qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat haqida bilimlarni oshirish zarur. Ikkinchidan, tanqidiy fikrlash

Fuqarolar axborotni tahlil qilish, manbalarni solishtirish va manipulyativ axborotni ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.Uchinchidan, jamoatchilik muhokamasi Ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilish madaniyatini rivojlantirish zarur. To‘rtinchidan, jamoatchilik nazorati Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari faoliyati ustidan qonuniy jamoatchilik nazorati mexanizmlaridan foydalanishi muhim. Beshinchidan, ijtimoiy sheriklik Davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ijtimoiy muammolarni hal qilish samaradorligini oshiradi. Tahlillar asosida ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni quyidagi ilmiy xulosalar bilan ifodalash mumkin. Birinchidan, ijtimoiy ong fuqarolik jamiyatining ma’naviy va subyektiv asosini tashkil etadi. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy ongning shakllanishi va o‘zgarishi uchun amaliy ijtimoiy muhit vazifasini bajaradi. Uchinchidan, ijtimoiy ongning siyosiy, huquqiy va axloqiy shakllari fuqarolik jamiyatining institutsional rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyatining barqarorligi fuqarolarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatiga bog‘liq. Beshinchidan, raqamlashtirish sharoitida mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash ijtimoiy ongning muhim komponentlariga aylanmoqda. Oltinchidan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish faqat institutsional islohotlar bilan cheklanib qolmasligi, balki fuqarolarning ongi va dunyoqarashidagi o‘zgarishlar bilan uyg‘unlashishi zarur. Ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabat murakkab, ko‘p qirrali va dialektik xarakterga ega. Ijtimoiy ong jamiyatning ma’naviy-intellektual holatini ifodalab, insonlarning ijtimoiy faoliyati va fuqarolik pozitsiyasini belgilaydi. Fuqarolik jamiyati esa ushbu ongning amaliy ifodasi va rivojlanish muhiti sifatida namoyon bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, shaxsning ijtimoiy tashabbus ko‘rsatishi, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishi, jamoatchilik hayotida ishtirok etishi uchun shunchalik keng imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy ongning yangi sifat darajasiga ko‘tarilishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan fuqarolik jamiyati taraqqiyotini “institutsional o‘zgarishlar + ijtimoiy ong transformatsiyasi + fuqarolik faolligi” birligi sifatida qarash maqsadga muvofiq. O‘zbekiston sharoitida ham demokratik islohotlarning samaradorligi faqat qonunchilik va institutlarni takomillashtirish bilan emas, balki fuqarolarning huquqiy va siyosiy ongini yuksaltirish, ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Demak, ijtimoiy ong va fuqarolik jamiyati dialektikasining asosiy mazmunini ongning ijtimoiy faollikka, ijtimoiy faollikning fuqarolik institutlariga, fuqarolik institutlarining esa yangi ijtimoiy ong shakllarining yuzaga kelishiga ta’siri tashkil etadi. Shu ma’noda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonini faqat institutsional qurilish emas, balki insonning ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi, uning ongi, dunyoqarashi, qadriyatlari va mas’uliyatining sifat jihatdan o‘zgarishi jarayoni sifatida ham baholash lozim.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. Azizxo‘jayev A.A. Davlatchilik va ma’naviyat. – Toshkent. “Sharq” 1997.
4. Юрген Хабермас “Теория коммуникативного действия” М. “Весь Мир” 2022г
5. Berdikulova S. A. “Yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy ong o‘zgarishlari dialektikasi”. “TAMADDUN NURI” 2025-yil 4-son
6. Kulmatov. P..M. Ijtimoiy ong va davlat boshqaruvida “Inson qadri” tamoyilining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. ILM FAN XABARNOMASI, 2026, Vol. 12, No.1.
7. Teshayev N.N Yangi O`zbekiston taraqqiyotida fuqarolik jamiyati rivojlanishining ma`naviy omillari va mafkuraviy tamoyillarining transform-atsiyasi Monografiya. “Bukhara hamd print”2024. 104 b.

INSON FALSAFASI VA ZAMONAVIY JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI: YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY ISLOHOTLAR

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti, Falsafa fanlari doktori (DSc).

Inson falsafasi va zamonaviy jamiyat transformatsiyasi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zamonaviy bosqichida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar va Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish jarayonini belgilab beradi. Globallashuv va kognitiv tahdidlar keskinlashgan bir sharoitda jamiyat rivojini shunchaki iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti va inson falsafasi tamoyillari bilan baholash strategik zaruriyatga aylandi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ma’naviy islohotlar hamda jamiyat transformatsiyasini inson falsafasi va uning ma’rifiy ehtiyojlariga yo‘naltirgan holda tahlil qilishdan iboratdir.

Ijtimoiy-falsafiy va gumanitar fanlar doirasida inson falsafasi jamiyat taraqqiyoti hamda davlat siyosatining oliy mezoni va konseptual o‘zagini tashkil etadi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish bosqichida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar insonni nafaqat iqtisodiy munosabatlar subyekti, balki barcha o‘zgarishlarning bosh maqsadi sifatida e’tirof etishga tayanadi. Falsafiy-aksiologik nuqtai nazardan, inson qadrini ulug‘lash shaxsning ma’naviy erkinligi va intellektual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur muhitni yaratishdan iboratdir [1, b. 123]. Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish g‘oyasi bevosita inson kapitalini rivojlantirish va uning ma’naviy-axloqiy darajasini yuksaltirish bilan uzviy bog‘liqdir. Tarixiy-metodologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, Sharqning Birinchi va Ikkinchi Renessansi davrida ham ilmiy yuksallikning negizida insonga bo‘lgan ehtirom va inson falsafasi yotgan. Hozirgi davrda zamonaviy jamiyat transformatsiyasi o‘tmishdagi boy merosni zamonaviy gumanistik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirgan holda yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi.

Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning aksiologik mohiyati insonning ma’naviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishga, jamiyatda adolat va bag‘rikenglikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Inson falsafasi doirasida ma’naviyat shunchaki nazariy g‘oyalar to‘plami emas, balki har bir fuqaroning kundalik hayot tarzida o‘z ifodasini topadigan amaliy qadriyatga aylanishi lozim. Bu esa zamonaviy jamiyat transformatsiyasi jarayonida ma’naviy ishlar samarasini insonning baxtli va farovon yashashi bilan o‘lchashni talab etadi [2, b. 123]. Globallashuv kuchaygan zamonaviy axborot jamiyatida targ‘ibot faoliyatining metodologik bazasini tubdan qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji mavjud. Eski usullar o‘rnini inson va uning shaxsiy daxldorligiga yo‘naltirilgan, kognitiv va psixologik jihatdan ta’sirchan metodlar egallashi shart. Inson falsafasiga tayangan targ‘ibot – bu har bir shaxs bilan samimiy muloqot o‘rnatish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini tinglash hamda muammolariga ma’rifiy yechim taklif etish demakdir.

Uchinchi Renessans g‘oyalarini targ‘ib etishda ma’rifatparvarlik an’analari va Jadidchilik harakati tajribasi muhim nazariy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Jadid mutafakkirlarining insonni ma’rifatli qilish orqali jamiyatni o‘zgartirish g‘oyasi bugungi Yangi O‘zbekiston strategiyasiga to‘liq mos keladi. Ularning ta’limni insonparvarlashtirib, zamonaviy jamiyat transformatsiyasini ta’minlash borasidagi qarashlari targ‘ibot poydevorini mustahkamlaydi [3, b. 123]. Raqamli texnologiyalar va mediamakon ma’naviy islohotlarni inson falsafasi asosida targ‘ib etishning eng dinamik institutsional vositasiga aylandi. Axborot makonida gumanistik va ma’rifiy qadriyatlarni aks ettiruvchi yuqori sifatli vizual kontentlarni yaratish yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mediamakonda inson qadrini ulug‘laydigan kontentlarni ko‘paytirish yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi baquvvat mafkuraviy immunitetni rivojlantiradi.

Gnoseologik jihatdan Uchinchi Renessans va inson falsafasining integratsiyasi ta’lim-tarbiya tizimini uzluksiz insonparvarlashtirishni taqazo etadi. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani inson kamolotining ajralmas qismi sifatida tashkil etish zarur. Ta’lim platformalarida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat transformatsiyasining faol subyektlariga aylantiradi [4, b. 123]. Sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan ma’naviy islohotlarni inson falsafasi asosida amalga oshirish davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining uyg‘un hamkorligini talab etadi. Institutlar o‘rtasidagi bunday hamkorlik jamiyatda ijtimoiy sheriklik va adolat muhitini

mustahkamlab, har bir fuqaroning o‘zgarishlarga daxldorlik hissini oshiradi. Sinergetik hamkorlik natijasida targ‘ibot faoliyati rasmiy tadbirdan emas, balki jamiyatning ichki ehtiyojiga va harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy islohotlar va zamonaviy jamiyat transformatsiyasini inson falsafasi asosida yoritish mamlakatning intellektual xavfsizligini ta’minlashning poydevoridir. Insonning ma’rifiy ehtiyojlarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish Uchinchi Renessansning gumanistik ustunlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatda barqaror rivojlanishni ta’minlab, har bir shaxsning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [5, b. 123].

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar va zamonaviy jamiyat transformatsiyasini inson falsafasi poydevorida amalga oshirish barqaror taraqqiyotning strategik omilidir. Jamiyatda har bir fuqaroning ma’naviy va madaniy ehtiyojlarini ta’minlash aholining fuqarolik daxldorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Globallashuv sharoitida Renessans g‘oyalarining gumanistik mohiyatini zamonaviy interfaol metodlar orqali singdirish jamiyatimizning ma’rifiy ustunlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 460 b.
2. Erkaev A. Uchinchi Renessans: ma’rifiy va institutsional poydevor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 220 b.
3. Jorayev N. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va milliy tiklanish falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 185 b.
4. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.
5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СИЁСИЙ ТИЗИМИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОИЙ МОБИЛЛИГИНИНГ НАМОЁН БЎЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

Каримова Лола Музаффаровна
Бухоро давлат тиббиёт институти доценти, ф.ф.д. (DSc)

Глобал миқёсда хотин-қизлар ижтимоий мобиллиги замонавий дунёнинг нафақат демографик ва ижтимоий масаласи, балки глобал иқтисодий барқарорлик ва технологик рақобатнинг ҳал қилувчи омили сифатида талқин қилинмоқда. Ижтимоий мобиллик назариясининг замонавий талқинларида “имкониятлар тенгсизлиги” индекси асосий мезон бўлиб, унда аёлларнинг вертикал юксалиши дунё иқтисодиётига триллионлаб доллар фойда келтириши мумкин бўлган “ишга солинмаган ресурс” сифатида баҳоланади. Глобал мобилликнинг бугунги ҳолатини таҳлил қилганда, биринчи навбатда “Gender Pay Gap” (иш ҳақидаги фарқ) ва унинг меҳнат мобиллигига тўсқинлик қилиши қонунияти кўзга ташланади. Жаҳон иқтисодий форуми (WEF) маълумотларига кўра, ҳозирги суръатлар сақланиб қолса, тўлиқ гендер тенглигига ва аёлларнинг иқтисодий мобиллигига эришиш учун камида 131 йил керак бўлади [1]. Бу ерда биз ижтимоий мобилликнинг “секинлашиш” қонуниятини кўрамиз, бунда ривожланган давлатларда (Скандинавия мамлакатлари) мобиллик каналлари очиқ бўлса, Глобал Жануб мамлакатларида “шиша шифт” (glass ceiling) ва “ёпишқоқ пол” (sticky floor) эффектлари ҳамон сақланиб қолмоқда. Ижтимоий психологияда “ёпишқоқ пол” эффекти аёлларнинг ижтимоий иерархиянинг энг пастки бўғинларида узоқ вақт қолиб кетишини англатади. Глобал даражадаги иккинчи муҳим хусусият - бу таълим мобиллигининг “парадоксал” характеридир. Дунё бўйлаб олий маълумотли аёллар сони эркаклардан ортиб бораётган бўлса-да (Reversed Gender Gap in Education), бу кўрсаткич аёлларнинг юқори бошқарув лавозимларига ўтишида (вертикал

мобилликда) ҳамон тўлиқ акс этмаяпти. Клаудия Голдин ўзининг Нобель мукофотига сазовор бўлган тадқиқотларида таъкидлаганидек, аёллар мобиллигига нафақат маълумот даражаси, балки “вақт очкўзлиги” (greedy jobs) ва оилавий мажбуриятларнинг нотенг тақсимоти тўсқинлик қилади [7]. Учинчидан, рақамли трансформация глобал мобилликнинг “географик чегаралари”ни бузиб ташлади. “Digital Nomad” (рақамли кўчманчи) аёллар қатламининг пайдо бўлиши ижтимоий мобилликнинг янги - транснационал шаклини юзага келтирди. Бунда аёл кишининг ижтимоий мавқеи унинг жисмоний яшаш жойига эмас, балки унинг глобал рақамли тармоқлардаги иштироки ва “интеллектуал капитали”га боғлиқ бўлиб қолмоқда. Мануэль Кастеллс концепциясига кўра, тармоқли жамиятда мобиллик иерархик эмас, балки оқимий характерга эга [8]. Тўртинчи муҳим қонуният - бу сиёсий мобилликнинг “критик масса” босқичига ўтишидир. Дунёнинг кўплаб мамлакатларида аёлларнинг парламентдаги улуши 30-40 фоизга етиши сиёсий қарорларнинг ижтимоий йўналтирилганлигини ошириб, мобилликнинг институционал кафолатларини мустаҳкамламоқда. Шу билан бирга, БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари (SDG 5) доирасида аёллар мобиллиги глобал хавфсизлик ва тинчликни таъминлашнинг ажралмас қисми сифатида эътироф этилмоқда. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, аёлларнинг ижтимоий мобиллиги юқори бўлган жамиятларда ички низолар даражаси пастроқ ва иқтисодий барқарорлик юқорироқ бўлади. Глобал даражада хотин-қизлар ижтимоий мобиллиги институционал ютуқлар ва маданий-психологик тўсиқлар ўртасидаги зиддиятли жараён сифатида намоён бўлмоқда. Келажакдаги мобиллик қонуниятлари кўп жиҳатдан сунъий интеллект ва рақамли иқтисодиёт яратадиган янги имкониятлардан аёлларнинг қанчалик фойдалана олиши ҳамда давлатларнинг гендер сиёсатини қанчалик тизимли амалга оширишига боғлиқ бўлади. Янги Ўзбекистоннинг сиёсий ва ҳуқуқий қиёфаси шаклланаётган ҳозирги босқичда эса хотин-қизларнинг ижтимоий мобиллиги нафақат демократик ислоҳотларнинг натижаси, балки ушбу жараёнларнинг муҳим драйвери сифатида намоён бўлмоқда. Ижтимоий мобиллик назариясининг асосчиси Питирим Сорокин таъкидлаганидек, жамиятнинг ижтимоий структурасидаги силжишлар сиёсий тизимнинг очиқлиги ва ижтимоий лифтларнинг самарадорлиги билан белгиланади [10]. Ўзбекистоннинг замонавий сиёсий тизимида хотин-қизлар мобиллигининг ўзига хос қонунияти шундаки, у “патриархал-анъанавий” моделдан “демократик-институционал” моделга ўтиш босқичини бошидан кечирмоқда. Бу трансформациянинг ҳуқуқий пойдевори сифатида Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни ва 2030 йилгача мўлжалланган гендер тенгликка эришиш стратегияси хизмат қилмоқда. Давлат раҳбари Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “Биз жамиятимизда хотин-қизларнинг мавқеини ошириш, уларга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун кенг имкониятлар яратишни стратегик вазифа деб биламиз” [2]. Ушбу сиёсий ирода натижасида вертикал мобилликнинг сиёсий каналлари - парламент, ижро ҳокимияти ва маҳаллий кенгашларда аёллар иштироки сифат жиҳатидан янгиланди. Эндиликда хотин-қизларнинг сиёсий тизимдаги иштироки шунчаки “квота” тамойилидан “меритократия” ва “лидерлик” тамойилига ўтмоқда. Бу ерда биз ижтимоий мобилликнинг “сиёсий лифт” механизмини кўришимиз мумкин: сиёсий партияларда аёллар улушининг 30 фоиздан кам бўлмаслиги ҳақидаги норма нафақат сон, балки қарор қабул қилиш жараёнига таъсир этувчи сифат кўрсаткичига айланди.

Ижтимоий мобилликнинг сиёсий йўналишида “шиша шифт” эффектининг заифлашиши кузатилмоқда; Олий Мажлис Сенати Раиси даражасида аёл кишининг фаолият юритиши, вазирликлар ва ҳокимликларда хотин-қизларнинг бошқарув лавозимларига тайинланиши ижтимоий иерархиянинг энг юқори нуқталари аёллар учун очиқлигини англатади. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бундай мобиллик жамиятда “сиёсий лидер аёл” образини шакллантириб, ёш авлод қизлари учун кучли мотивацион траектория яратмоқда. Социолог Энтони Гидденс таъкидлаганидек, замонавий сиёсий тизимларда ҳокимият тақсимотининг қайта кўриб чиқилиши ижтимоий адолатнинг бош мезони

ҳисобланади [6]. Янги Ўзбекистонда бу жараён “маҳалла - туман - вилоят – республика” занжири асосида тизимли равишда амалга оширилмоқда. Маҳаллаларда хотин-қизлар фаоллари лавозимининг жорий этилиши горизонтал мобилликни вертикал юксалиш билан боғловчи ўзига хос “инкубатор” вазифасини ўтаяпти. Шу билан бирга, сиёсий мобиллик иқтисодий ва илмий мобиллик билан узвий боғлиқ ҳолда кечмоқда. Таълим тизимидаги имтиёзлар, хусусан, хотин-қизларнинг магистратура босқичида бепул ўқиши ва илмий изланишларини қўллаб-қувватлаш уларнинг “маданий капитали”ни ошириб, сиёсий элита қаторига кириши учун зарур бўлган малакавий базани яратмоқда. Пьер Бурдье концепциясига кўра, маданий капитал ижтимоий статусга айланиш хусусиятига эга [3]. Ўзбекистон сиёсий тизимида илмли аёлларнинг давлат хизматига жалб этилиши меритократик мобилликнинг яққол намунасидир. Рақамли трансформация даврида рақамли мобиллик феномени ҳам сиёсий тус олмоқда; аёлларнинг ижтимоий тармоқлар ва электрон платформалар орқали сиёсий жараёнларда, қонунчилик муҳокамаларида фаол иштирок этиши уларнинг сиёсий субъектлигини мустаҳкамламоқда. Бу жараёнда хотин-қизлар нафақат давлат томонидан яратилган имкониятлардан фойдаланмоқда, балки ўзлари ҳам ижтимоий ўзгаришларнинг фаол ташаббускорига айланмоқда. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, Янги Ўзбекистонда хотин-қизлар мобиллигининг қонуниятлари тизимлилик, изчиллик ва институционал қўллаб-қувватлаш тамойилларига асосланади. Сиёсий тизимдаги бундай ижобий динамика мамлакатнинг халқаро гендер индексларидаги мавқеини яхшилаш билан бир қаторда, ички ижтимоий барқарорликни таъминлашга ҳам хизмат қилмоқда. Бироқ, мобиллик жараёнини янада тезлаштириш учун маҳаллий даражадаги стереотипларни енгиб ўтиш ва аёлларнинг иқтисодий мустақиллигини сиёсий фаоллик билан мутаносиб равишда ривожлантириш лозим.

Хулоса қилиб айтганда, Янги Ўзбекистоннинг сиёсий тизимида хотин-қизлар ижтимоий мобиллиги миллий давлатчиликнинг янги босқичи сифатида, жамиятнинг интеллектуал ва сиёсий салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқаришга йўналтирилган стратегик жараёндир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида” (ЎРҚ-562-сон, 02.09.2019 й.).
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. — Т.: Тасвир, 2022. — 416 б.
3. Бурдье П. Формы капитала // Экономическая социология. — 2002. — Т. 3. № 4. — С. 60–74.
4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. — Chicago: University of Chicago Press, 1993. — 392 p.
5. World Bank. Gender Equality and the Digital Economy: Openness, Skills, and Empowerment. — Washington DC: IBRD, 2023. — 112 p.
6. Giddens A., Sutton P.W. Sociology. — 9th ed. — Cambridge: Polity Press, 2021. — 1120 p.
7. Goldin C. Career and Family: Women’s Century-Long Journey toward Equity. — Princeton: Princeton University Press, 2021. — 328 p.
8. Castells M. The Power of Identity: The Information Age: Economy, Society, and Culture. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. — 560 p.
9. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. — 650 p.
10. Сорокин П.А. Социальная мобильность / Пер. с англ. М.В. Ломоносовой. — М.: Мысль, 2005. — 588 с.

ОСМЫСЛЕНИЕ РОЛИ РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Вильданова Г.Б.
Профессор, ФГБОУ ВО «Уфимский университет науки технологий», г. Уфа, Россия

Вопрос об осмыслении роли религиозного мировоззрения является весьма актуальным, ибо от того, как человек видит мир вокруг себя и размышляет о своем месте в нем, от того, какое место занимает вера Богу, зависит не только личное благополучие человека, а также благополучие всего общества. Злободневность мировоззренческих, внутренних, рефлексивных проблем человека, обусловлена тем, что они представляют собой первопричину и источник внешних, социальных и политических проблем. Социальные трудности являются прямым следствием искажений во внутреннем духовном мире, результатом утраты подлинных жизненных ориентиров и отсутствия понимания человеком своего места в мире, в силу отсутствия целостного видения. Следовательно, для осуществления подлинных изменений и трансформаций в любой области – будь то мировоззрение, социальная сфера или духовно-нравственное воспитание – необходимо обращаться непосредственно к области причин, а не бороться с их последствиями.

Методологическая стратегия современной философской мысли заключается в оформлении основ мировоззрения и ценностных установок человека. На протяжении многовекового существования философия претендовала на роль «царицы наук», которая определяла (направляла умы людей) ценностные, смыслоопределяющие ориентиры. Проводя анализ всей философской мысли человечества, мы должны сейчас понимать, что осмысление истинных основ в мировоззренческом (идеологическом) уровне, прямо пропорциональна гармоничному (благополучному) существованию на уровне проявленного бытия. Но когда человек хочет изучить основы мировоззрения, основы бытия, как правило, философия направляет его на решение так называемого «основного вопроса философии»: общественное бытие определяет общественное сознание или, наоборот, общественное сознание определяется общественным бытием. Еще Ф. Энгельс отметил: «Великий и фундаментальный вопрос всей, особенно новейшей, философии - это вопрос отношения мышления к бытию» [7]. Но при более внимательном взгляде можно констатировать, что ни бытие (явленная реальность), ни сознание (ментально-духовный мир) не являются основой мироздания. Ибо и бытие (материя), и сознание (мысли, творчество) являются сотворёнными (вторичными) продуктами. «Сам этот основной вопрос философии изначально «уводит» нас от вопроса: откуда появилось это бытие? Кто или что является первопричиной этого мира? Если же человек, воспринимая философию, мировоззренческую парадигму (установку), считает, что этот мир возник случайно, после «большого взрыва» и развитие социального мира происходит по внутренним законам, установленными государствами, то такая «философия случайности», однозначно, порождает два вида лжи. Первая ложь основана на убеждении, что Бытие первично, а вторая же, что первично Сознание (дух). Но может ли одно из них, например, Бытие (материя), будучи первичным, порождать другое? Или общественное сознание - породить это бытие? Ответ: ни Бытие, ни Сознание - не первичны, в том смысле, что одно из них могло бы породить другое! Они вполне могут взаимодействовать друг с другом, вызывая те или иные действия, но они не могут являться фундаментом, основанием, первопричиной» [2, с. 202].

Таким образом, когда человек хочет осмыслить основы бытия, философия направляет его на решение этого так называемого «основного вопроса философии», который уже не может предоставить ему истинное понимание своего места в этом бытие. Вопрос о взаимоотношении, взаимовлиянии общественного бытия на общественное сознание, представленная марксистами как «основной вопрос философии», не является таковым (основным) в современном мире. Современному человеку нужно осмыслить новый «основной вопрос философии», который включает в себя глубокое, трансцендентное

осмысление «не случайности» бытия, необходимо признание разумного Создателя, Первоначала, который создал и то, и другое (и общественное бытие, и общественное сознание). Как мы будем называть это Первоначало всего мироздания: Абсолют, Бог, Аллах, от этого, полагаем, существенно ничего не поменяется. Но от глубинного осмысления, понимания сердцем (не только интеллектом) этой Истины зависит вся дальнейшая судьба как индивидуального человека, так и всего человечества в целом.

ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bunday ma'lumotlarning keng tarqalishi esa fuqarolarning ishonchini kamaytirib, axborot manbalarining ishonchliligini shubha ostiga qo'yadi"[7]. Bu fikrni axborotlashgan jamiyat sharoitida talqin qilsak, xavfsizlik bu - axborotli mavjudlikning estetik, etik va kognitiv muvozanatida saqlanishidir.

Raqamli jamiyat sharoitida xavfsizlik paradigmasi an'anaviy jismoniy va institutsional himoya doirasidan chiqib, insonning axborot, kommunikativ, ma'naviy-madaniy va identifikatsion makondagi mavjudligini muhofaza qilishni ham qamrab oluvchi kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisaga aylanmoqda. Virtual makonning yoshlar hayotiga chuqur kirib borishi ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiylashuvi va madaniy identikligiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda axborot manipulyatsiyasi, destruktiv kontent, madaniy begonalashuv va identiklikning fragmentatsiyasi kabi tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois yoshlarning ijtimoiy-madaniy xavfsizligi faqat axborotdan himoyalanish emas, balki raqamli muhitda ongli tanlov, tanqidiy tafakkur, ma'naviy-axloqiy immunitet va konstruktiv ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish bilan bog'liq yaxlit jarayon sifatida talqin etilishi lozim.

Shundan kelib chiqib, zamonaviy xavfsizlik paradigmasining markaziga insonning raqamli muhitdagi erkinligi, daxlsizligi va ijtimoiy-madaniy barqarorligini ta'minlash masalasi qo'yiladi. Yoshlarning ijtimoiy-madaniy xavfsizligini ta'minlashda raqamli savodxonlik va media madaniyatni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini mustahkamlash, yoshlarning tanqidiy-refleksiv tafakkurini yuksaltirish hamda xavfsiz raqamli kommunikatsiya muhitini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Demak, raqamli jamiyatda xavfsizlik paradigmasi tahdidlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan himoya modelidan insonning barqaror ijtimoiy-madaniy mavjudligi va ongli raqamli faoliyatini ta'minlovchi preventiv, aksiologik va insonparvar paradigma tomon rivojlanmoqda..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зиатдинов Д.Ф. Теоретические подходы к проблемам безопасности в международных отношениях: концепция безопасности человека // Мировая политика. – Москва, 2020. - № 4. - С. 32-52. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33703
2. Nurullayev H.U. Xavfsizlik – ijtimoiy-ma'naviy tahlil // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur vainnovatsion g'oyalar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. - Vol. 1 No. 7 (2025). - B.421-426.
3. Castells M. The Rise of the Network Society, 2nd Edition, with a New Preface. – Wiley-Blackwell, 2010. – 656 pp.
4. Tursunova Sh.B. Raqamlashtirish sharoitida axborotlarning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri // "Innovatsiya va taraqqiyot" ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. – Urganch, 2026. - Vol. 4, No. 4. - pp. 294-8, https://adabiyotxazinasi.com/index.php/inno/article/view/1242
5. Kodirov N.M. Yoshlar ma'naviyatga qarshi qaratilgan axboriy tahdidlarga qarshi kurashning zamonaviy usullari va vositalari (xorijiy va milliy tajriba) // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. – Mahsus son. – B. 652-655.
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. Lug'at. // Q.Nazarov va b. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021.- 816 b.
7. Muxamedjanova L. Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar // https://bukhari.uz/?p=44298&lang=oz

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON QADRI TAMOYILINING JADIDLAR G'OYALARI BILAN UYG'UNLIGI

A.Saloxov

Buxoro davlat texnika universiteti, PhD

XX asr boshlarida Turkiston, xususan, Buxoro ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy taraqqiyot, ma'rifat, ilm-fan, inson kamoloti va jamiyatni isloh qilish g'oyalarini o'zida mujassam etgan muhim intellektual hodisa hisoblanadi. Jadidlar faoliyatini faqat maktab va ta'lim tizimini isloh qilish bilan cheklab bo'lmaydi. Ular insonning

shaxsiy va ijtimoiy mavqei, erkin fikrlashi, milliy o‘zligini anglashi, huquqiy va siyosiy ongining yuksalishi, adolatli jamiyat barpo etish kabi masalalarni ham kun tartibiga qo‘yganlar.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida inson manfaatlari va qadr-qimmatining ustuvorligi davlat siyosati va ijtimoiy islohotlarning muhim mezoni sifatida belgilanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni sifatida qabul qilingan bo‘lib, “Davlat – inson uchun” g‘oyasi asosida Taraqqiyot strategiyasi xalqning fikr va takliflari bilan bog‘liq holda ishlab chiqilgan [1]. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida inson manfaatlari, uning qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ustuvor qo‘yish davlat siyosati mazmunining markaziy falsafiy mezoniga aylanmoqda. Bu yondashuvning mohiyati davlatning maqsad va vazifalari insonga xizmat qilish, uning munosib hayot kechirishi uchun zarur ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy shart-sharoitlarni yaratish bilan belgilanishida namoyon bo‘ladi.

Falsafiy nuqtai nazardan “Inson qadri uchun” tamoyili insonni davlat siyosatining oddiy ob’ekti emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sub’ekti va oliy qadriyati sifatida e’tirof etishni anglatadi. Bu yerda “qadr” tushunchasi faqat insonning huquqiy maqomi bilan cheklanmaydi. U insonning sha’ni, huquq va erkinliklari, intellektual salohiyati, ma’naviy dunyosi, ijtimoiy ehtiyojlari, mehnati va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini qamrab oluvchi kompleks falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, “Davlat – inson uchun” g‘oyasi davlat va shaxs munosabatlarida an’anaviy “inson – davlat uchun” yondashuvidan farq qiluvchi muhim aksiologik burilishni ifodalaydi. Agar davlat faoliyatining pirovard mezoni insonning farovonligi, xavfsizligi, erkinligi va munosib hayoti bilan o‘lchansa, davlat institutlarining samaradorligi ham ularning inson manfaatlariga qay darajada xizmat qilayotgani orqali baholanadi.

Jadidlar uchun ham jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti insonni jaholat va qaramlikdan ma’rifat, bilim, erkin fikr va axloqiy kamolot sari yuksaltirish edi. Demak, zamonaviy “Inson qadri uchun” tamoyili bilan jadidlarning ma’rifatparvarlik falsafasi o‘rtasida insonni ijtimoiy taraqqiyotning markaziy sub’ekti sifatida ko‘rish nuqtai nazaridan muayyan g‘oyaviy mushtaraklik mavjud. Shunday qilib, “Inson qadri uchun” va “Davlat – inson uchun” tamoyillari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelining aksiologik va antropologik asoslarini tashkil etadi**.** Ularda davlatning mohiyati insondan ustun turuvchi mustaqil maqsad sifatida emas, balki insonning huquqlari, erkinliklari, farovonligi va ijtimoiy imkoniyatlarini ta’minlovchi institut sifatida talqin etiladi. Bu esa davlat va jamiyat taraqqiyotini “inson manfaati → inson qadri → ijtimoiy adolat → barqaror taraqqiyot” mantiqiy zanjiri asosida baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [3].

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy taraqqiyot strategiyasidagi inson qadri konsepsiyasining milliy ma’naviy-intellektual ildizlarini tadqiq etish, uni jadidlar merosidagi insonparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

“Inson qadri” tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda insonning hayoti, sha’ni, huquqlari, erkinliklari, ijtimoiy mavqei, ma’naviy-axloqiy kamoloti va munosib turmush sharoitlarini qamrab oluvchi kompleks aksiologik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan [4]. Shuningdek, Konstitutsiyaning 14-moddasida davlat o‘z faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida amalga oshirishi belgilangan. Bu holat inson qadrining faqat axloqiy yoki ma’naviy tushuncha emas, balki huquqiy-siyosiy kategoriyaga aylanganini ko‘rsatadi. Xususan, Konstitutsiyaning 19-moddasida inson huquq va erkinliklari tug‘ilganidan boshlab tegishli ekani, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi belgilangan; 21-moddada esa har bir insonning o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqi kafolatlangan.

Ushbu tasnifni falsafiy jihatdan chuqurlashtirganda, inson qadrini faqat huquqiy maqom yoki ma’naviy fazilatlar yig‘indisi sifatida emas, balki inson mavjudligining ob’ektiv asosi, uning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati va davlat-jamiyat munosabatlaridagi huquqiy-institutsional ifodasini birlashtiruvchi yaxlit fenomen sifatida talqin qilish mumkin.

Buxoro jadidlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida inson jamiyat taraqqiyotining ham sub’ekti, ham asosiy maqsadi sifatida qaraladi. Ular ijtimoiy qoloqlikning asosiy sabablarini jaholat, ilmsizlik, ma’naviy passivlik, ta’lim tizimining samarasizligi va ijtimoiy adolatsizlik kabi omillar bilan bog‘laganlar.

Ayniqsa, Abdurauf Fitratning “Munozara” asarida eski ta’lim tizimi tanqid qilinib, yangi usuldagi maktablarni joriy etish, ilm-fanni rivojlantirish va yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash g‘oyalari ilgari suriladi [5]. Fitratning mazkur asarida jadid maktablarining asosiy maqsadi inson va jamiyatni ma’rifiy yuksaltirish bilan bog‘lanadi. Tadqiqotlarda ham “Munozara” asarida usuli jadid maktabining afzalliklari va ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosiy masalalardan biri ekani qayd etilgan [6].

Fitratning mazkur qarashlarini zamonaviy inson qadri konsepsiyasi bilan qiyoslaganda muhim bir metodologik mushtaraklik namoyon bo‘ladi: jadidlar insonni jaholatdan ma’rifatga, passivlikdan ijtimoiy faollikka, qaramlikdan erkin fikrlashga yetaklashni taraqqiyotning asosiy sharti deb bilganlar. Zamonaviy taraqqiyot strategiyasi esa inson huquqlari, erkinliklari, ta’lim, ijtimoiy himoya va munosib turmush sharoitlarini ta’minlashni davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga kiritadi.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalq farovonligini oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsad qilib belgilangan [3].

Shunday qilib, “jadidlar – insonni uyg‘otish va ma’rifatga yetaklash” g‘oyasi bilan “Yangi O‘zbekiston – inson qadrini ta’minlash va uning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish” tamoyili o‘rtasida muhim falsafiy vorislik mavjud. Ushbu vorislik milliy taraqqiyot tafakkurining uzluksizligini ta’minlovchi ma’naviy-intellektual omil sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. – 2022 yil 26 yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023. 13, 14, 19, 20, 21, 26-moddalar.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 47–95. “Munozara”.
6. Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Ma’naviyat, 1991. – B. 45–52.
7. Xudayberdieva M. Abdurauf Fitratning “Munozara” asarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari talqini // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №1. – B. 297–303.
8. “Taraqqiyparvar – jadid” // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). – 2022 yil 30 iyul.

MILLIY MEROS VA ISLOMIY QADRIYATLAR POYDEVORI: ZAMONAVIY JAMIYAT TRANSFORMATSIYASIDA MA’NAVIY TARAQQIYOT OMILLARI

Sultonov Muhammad Yoqub o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Zamonaviy globallashuv va kognitiv tahdidlar sharoitida jamiyatning ma’naviy-axloqiy daxlsizligini muhofaza qilish milliy meros va islomiy qadriyatlar poydevoriga tayanishni taqazo etmoqda. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning milliy yuksalish strategiyasi doirasida Uchinchi Renessans g‘oyasi bevosita ma’rifiy merosni zamonaviy ilm-fan bilan sintez qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi islomiy qadriyatlarning insonparvarlik va axloqiy

salohiyatini zamonaviy jamiyat transformatsiyasidagi o‘rni nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iboratdir. Falsafiy va aksiologik yondashuvlar islomiy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy turmush tarzini shakllantiruvchi poydevor ekanligini ko‘rsatadi.

Globallashuv kuchaygan sharoitda milliy va ma’naviy daxlsizlikni asrab qolish islom sivilizatsiyasining insonparvarlik tamoyillarini qayta idrok etishni talab etadi. Uchinchi Renessans konsepsiyasi milliy qadriyatlarning insonparvarlik mohiyatini zamonaviy gumanitar taraqqiyot bilan uyg‘unlashtiruvchi platforma vazifasini bajaradi [1, b. 123]. Markaziy Osiyo hududida kechgan Renessans davrlarining intellektual salohiyati islomiy ma’rifatparvarlik va ilmiy tafakkur sintezi natijasida yuzaga kelgan. Qomusiy olimlar ilm-fan va e’tiqodning chuqur dialektik birlikda ekanligini o‘z faoliyatida isbotlagan.

Aksiologik nuqtai nazardan, islomiy qadriyatlar milliy merosimiz doirasida jamiyatning ma’naviy ustunlarini mustahkamlovchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Adolat, halollik, ilmga intilish va Vatanga ehtirom kabi tamoyillar zamonaviy jamiyat transformatsiyasining muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda ushbu qadriyatlar yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi tabiiy mafkuraviy immunitetni qaror toptirishning asosiy omilidir. Jadidchilik namoyandalarining merosi islomiy qadriyatlarni zamonaviylik va milliy taraqqiyot bilan integratsiya qilishning yorqin namunasidir [2, b. 123]. Jadidlar islom dinining ma’rifiy va komil insonni tarbiyalashga qaratilgan asl mohiyatini anglagan holda, xurofotga qarshi ma’rifat bilan kurashdilar. Ularning qarashlari zamonaviy jamiyat transformatsiyasi sharoitida islomiy qadriyatlarni taraqqiyot omili sifatida targ‘ib etishning nazorat bazasidir. Gnoseologik jihatdan Uchinchi Renessans g‘oyalari ta’lim-tarbiya tizimini ma’rifiy asosda shakllantirishni nazarda tutadi. Islom sivilizatsiyasida ilm olishga bo‘lgan yondashuv jamiyatimizning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor maqsadi bilan mos keladi.

Ilm-fan yutuqlarini egallashni ma’naviy mas’uliyat deb biluvchi vatanparvar shaxs modelini shakllantirish hozirgi bosqichning muhim vazifasidir. Ontologik nuqtai nazardan, ma’rifiy islom va milliy merosning o‘rni jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minlashning shartidir. Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda ajdodlarimiz qoldirgan nodir ilmiy-diniy manbalarni chuqur o‘rganish katta ahamiyatga ega. Islomiy qadriyatlarning bag‘rikenglik mohiyatini yoshlar ongiga yetkazish ularni mafkuraviy xurujlardan muhofaza qiladi. Raqamli makon sharoitida islomiy qadriyatlar va milliy merosni zamonaviy usullar yordamida targ‘ib etish talab etiladi. Axborot makonida ma’rifiy merosni zamonaviy media-formatlarda taqdim etish yoshlar auditoriyasida tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Sinergetik va institutsional yondashuv doirasida ushbu qadriyatlarni targ‘ib etish ta’lim muassasalari hamkorligini talab etadi. Bunday hamkorlik jamiyatda adolat muhitini qaror toptirish va diniy hamda dunyoviy bilimlarning uyg‘unligini ta’minlaydi.

Jamiyat transformatsiyasi jarayonida milliy meros va islomiy qadriyatlar poydevoriga tayanish ijtimoiy barqarorlikni kafolatlaydi. Shaxsning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishda milliy va diniy qadriyatlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash ularning jamiyat taraqqiyotidagi faolligini oshiradi. Ta’lim jarayonida ma’rifiy islom g‘oyalaridan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ma’naviy taraqqiyot omillari jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligiga tayanadi [4, b. 123]. Bu jarayon fuqarolarning mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Milliy meros va islomiy qadriyatlarning uzviy bog‘liqligi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Zamonaviy islohotlar sharoitida ma’naviy qadriyatlarni asrab-avyaylash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir.

Ilmiy-falsafiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, islomiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining ma’naviy quvvatini ta’minlaydi. Milliy meros asosida yoshlarni tarbiyalash milliy o‘zlikni saqlab qolishning asosiy shartidir. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni boyitib borish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi [5, b. 123]. Ma’rifiy islom g‘oyalari yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda xizmat qiladi. Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashda ma’naviy-axloqiy mezonlarning o‘rni beqiyosdir. Jamiyat transformatsiyasi jarayonida inson qadrini ulug‘lash bosh maqsad sifatida namoyon bo‘ladi. Islomiy qadriyatlarning

bunyodkorlik salohiyati Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ma’rifatparvarlik an’analari yosh avlodning intellektual kamolotini ta’minlaydi.

Aksiologik yondashuvlar asosida qadriyatlarni o‘rganish jamiyatdagi ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtiradi. Milliy meros va islomiy qadriyatlar poydevori kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zamonaviy sharoitda ma’naviy islohotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon mamlakatimizning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy meros va islomiy qadriyatlar poydevoriga tayanuvchi zamonaviy jamiyat transformatsiyasi ma’naviy taraqqiyotni ta’minlaydi. Islom sivilizatsiyasining insonparvarlik an’analari yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda xizmat qiladi. Ma’rifiy islom g‘oyalarini hayotga tatbiq etish jamiyatimizning intellektual quvvatini oshiradi. Bu esa Uchinchi Renessans poydevorini yanada mustahkamlashning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 460 b.
2. Boboyev H. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy va diniy-ma’rifiy qarashlari. – Toshkent: Adolat, 2021. – 280 b.
3. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.
4. Avloniy A. Turkiyi guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Erkaev A. Uchinchi Renessans: ma’rifiy va institutsional poydevor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 220 b.

ДИАЛЕКТИКА ДИСКУРСИВНОГО И ИНТУИТИВНОГО ПОЗНАНИЯ: ОТ ВОСТОЧНОЙ ГНОСЕОЛОГИЧЕСКОЙ ТРАДИЦИИ К ИНТУИТИВИЗМУ А. БЕРГСОНА В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВА

Вахабова Дилфуза Разиковна
Преподаватель Бухарского государственного университета, (PhD)

Современная цифровая трансформация общества сопровождается тотальной алгоритмизацией познавательных процессов. Экспансия технологий искусственного интеллекта выводит на первый план дискурсивно-логическое, формализуемое знание. Однако формально-логические структуры оказываются неспособными в полной мере охватить континуальную природу экзистенциально-смысловых, этических и онтологических измерений человеческого бытия.

В связи с этим возникает необходимость обращения к методологическому потенциалу философии А. Бергсона и восточной гносеологической традиции, где соотношение дискурсивного (рационально-понятийного) и интуитивного (непосредственно-целостного) познания рассматривалось как органически-диалектическое единство, а не как взаимоисключающая оппозиция.

Актуальность исследования определяется необходимостью философского переосмысления границ алгоритмизируемого мышления в эпоху искусственного интеллекта; целью статьи является сравнительный анализ дискурсивно-интуитивной диалектики в восточной перипатетической традиции (аль-Фараби, Ибн Сина) и в интуитивизме А. Бергсона, а также определение эвристического потенциала этого синтеза для осмысления когнитивных пределов технологий искусственного интеллекта.

Дискурсивно-интуитивная диалектика в восточной философии (аль-Фараби, Ибн Сина)

В мыслительной традиции Центральной Азии проблема соотношения дискретного логического мышления (*фикр, акл*) и непосредственного постижения истины (*хадс, ишрак*) занимала центральное место.

Аль-Фараби в трактате «О взглядах жителей добродетельного города» выстраивает иерархию познавательных способностей, согласно которой теоретический разум достигает

высшей степени совершенства через соединение с деятельным разумом (*ал-'акл ал-фа"ал*) [2; 3, с. 106; 5].

Ибн Сина (Авиценна) в «Указаниях и наставлениях» *(«ал-Ишарат ва-т-танбихат»*) описывает особый род мистического знания: мистик стремится к постижению высшей истины, не требуя ничего взамен, и поклоняется лишь ей одной, ибо она единственно достойна поклонения; при этом его сокровенные помыслы озаряются светом Истины, но не ослепляют его [7, с. 367]. Как отмечает исследовательница Е. А. Фролова, речь здесь идёт о принципе «непосредственной очевидности» высшей ценности, придаваемой в постижении истины не дискурсивному выводу, а прямому, целостному её усмотрению. У Ибн Сины интуиция не отрицает дискурс, а выступает его высшей кульминацией: дискурсивный (логический) анализ подготавливает и накапливает знание, тогда как непосредственное созерцание Истины осуществляет итоговое, целостное её схватывание.

Интуитивизм А. Бергсона как критический аналог формального рационализма

А. Бергсон в работах «Творческая эволюция» и «Введение в метафизику» подвергает критике «кинематографический» характер интеллекта, который дробит непрерывный поток реальности (durée) на статичные, дискретные понятия.

Интеллект, согласно Бергсону, по своей природе ориентирован на практическое действие и оперирование неорганической материей и реализуется преимущественно через дискурсивные схемы. Постижение же сущности жизни, духа и внутренней динамики бытия требует интуиции того, что философ называет «интеллектуальной симпатией»: способности человека как бы перенестись внутрь предмета, чтобы совпасть с его уникальной, невыразимой в понятиях природой.

Как отмечает сам Бергсон, интуиция представляет собой высшую, бескорыстную форму работы разума интеллект, освободившийся от узкопрактических целей, обращённый на самого себя и способный до бесконечности расширять предмет своего размышления [4.с.128]. Иными словами, интуиция для Бергсона не отказ от интеллекта, а его предельное, само осознающее развитие.

Точки конвергенции и современный контекст цифровизации

Сравнительный анализ показывает существенное типологическое сходство между связкой «*дискурс - хадс*» у восточных перипатетиков и связкой «*интеллект - интуиция*» у А. Бергсона. В обоих случаях дискурсивный уровень познания (*фикр, кияс* у Ибн Сины и ал-Фараби; аналитический интеллект у Бергсона) выполняет подготовительную, накопительную функцию, тогда как интуитивный уровень (*хадс, кашф*, постижение *durée*) обеспечивает целостное, непосредственное схватывание истины, восполняя структурную ограниченность дискурсивного мышления.

Показательно, что данная типология обнаруживает прямую проекцию на современный контекст искусственного интеллекта: алгоритмы машинного обучения успешно воспроизводят дискурсивно-синтаксический уровень познания, однако что подтверждается, в частности, известным мысленным экспериментом Дж. Сёрля «Китайская комната» остаются лишёнными семантического погружения и феноменальной интуиции [10, с. 417–418]. Обращение к наследию Бергсона и философии Центральной Азии позволяет обосновать тезис о том, что человеческое сознание обладает суверенным эвристическим потенциалом, не подлежащим полной алгоритмизации, а необходимость сохранения «человека в контуре» при принятии значимых решений получает не только техническое, но и глубокое гносеологическое обоснование.

Заключение

Дискурсивное и интуитивное познание не исключают, а взаимно дополняют друг друга: как понятие «*хадс»* у Ибн Сины, так и понятие «интуиция» у Бергсона обозначают глубинную форму познания, наступающую вслед за логической, дискурсивной подготовкой, а не вопреки ей.

Опора исключительно на технократию и алгоритмическую логику в условиях цифровой трансформации общества чревата когнитивным кризисом. Синтез идей Бергсона

и восточной философской традиции даёт философское обоснование непреходящей роли человеческой субъективности и творческого мышления в эпоху искусственного интеллекта.

Использованная литература

1. Бергсон А. Творческая эволюция / Пер. с фр. В. Флеровой. – М.: Терра – Книжный клуб; КАНОН-пресс-Ц, 2001. – 384 с.
2. Аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1970. – 430 с.
3. Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – С. 106.
4. Бергсон А. Введение в метафизику // Собрание сочинений: в 4 т. – М.: Московский клуб, 1992. – Т. 1.
5. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. – Toshkent: O'zbekiston, 1975.
6. Хайруллаев М.М. Абу Наср аль-Фараби. – М.: Наука, 1982. – 216 с.
7. Ибн Сина. Избранные философские произведения. – М.: Наука, 1980. – 552 с.
8. Ибн Сина (Авиценна). Avicenna's De Anima (Arabic text): being the psychological part of Kitāb al-Shifāʾ / Ed. F. Rahman. – London: Oxford University Press, 1959.
9. Ибн Сина. Livre des directives et remarques (Kitab al-'Isharat wa'l-tanbihat) / Trad. et comm. par A.-M. Goichon. – Paris: J. Vrin, 1951.
10. Searle J.R. Minds, Brains, and Programs // Behavioral and Brain Sciences. – 1980. – Vol. 3, No. 3. – P. 417–424.

ZAMONAVIY TAHDIDLAR SHAROITIDA INSON QADRI VA MA’NAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Raqamlashtirish va global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy-ma’naviy hayot tubdan o‘zgarib, zamonaviy media makon inson tafakkuri va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy vositaga aylangan bir davrda shaxs daxlsizligi hamda inson qadr-qimmatini axborot xurujlaridan himoya qilish eng dolzarb ijtimoiy-falsafiy masalalardan biridir. Bugungi kunda gibrid xarakterdagi mafkuraviy manipulyatsiyalar, kiberbulling va soxta (feyk) axborotlar oqimi insonning ruhiy-ma’naviy olamiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid solayotgan bir sharoitda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash faqatgina texnik va huquqiy choralar bilan emas, balki eng avvalo jamiyatda mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy ma’naviy omillarga tayanish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi zamonaviy tahdidlar sharoitida inson qadrini e’zozlash, yoshlarda tanqidiy va axborot-media madaniyatini rivojlantirish hamda ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida axborot va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning amaliy va aksiologik mexanizmlarini tizimli ilmiy usullar (qiyosiy-falsafiy va gnoseologik tahlil) orqali asoslab berishdan iboratdir.

Raqamli jamiyat transformatsiyasi sharoitida “inson qadri” va “ma’naviy xavfsizlik” tushunchalarining falsafiy-metodologik mohiyati sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallashuvi insoniyatga ulkan imkoniyatlar yaratishi bilan birga, shaxsning virtual makondagi ma’naviy daxlsizligi, erkinligi va ruhiy barqarorligiga nisbatan yangi xatarlarni keltirib chiqarmoqda [1, b. 28]. Bugungi kunda inson qadrini ulug‘lash nafaqat uning moddiy va huquqiy manfaatlarini, balki axborot oqimlari sharoitida uning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, shaxsiy qadr-qimmati va ruhiy salomatligini turli buzg‘unchi ta’sirlardan muhofaza qilishni ham taqzo etadi.

Raqamli vositalar hamda mediakenglik shaxsning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantiruvchi yetakchi ijtimoiy omilga aylanib borayotgan bir davrda ma’naviy xavfsizlikning fundamental komponentlari alohida o‘rin tutadi. Klod Shennon va Norbert Vinerning axborot nazariyasiga oid qarashlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarda rivojlantirilib, axborot endilikda faqat texnik ma’lumot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini boshqaruvchi mafkuraviy qurol sifatida e’tirof etilmoqda [2, b. 112]. Shu sababli ma’naviy

xavfsizlikni ta’minlash tushunchasi sof texnik va kiberhimoya doirasidan chiqib, shaxs va jamiyatning ma’naviy-psixologik barqarorligini kafolatlashni ham o‘z ichiga oladi.

Gibrid xarakterdagi axborot xurujlari, soxta (feyk) xabarlar, kiberbulling va manipulyativ kognitiv texnologiyalar inson qalbi va ongini egallashga yo‘naltirilgan ma’naviy-ideologik tahdidlarning zamonaviy ko‘rinishlaridir. Bunday tahdidlar shaxsda o‘zlikni anglash inqirozi, ma’naviy nigilizm va milliy-madaniy ildizlardan uzilish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi [3, b. 45]. Manuel Kastelsning “tarmoqli jamiyat” konsepsiyasida ta’kidlanganidek, global tarmoqdagi ommaviy axborot oqimlari to‘g‘ri saralanmasa, u shaxsning mustaqil tafakkurini bo‘g‘ish va uni tashqi manipulyatsiyalarga zaif qilib qo‘yish xavfini tug‘diradi.

Zamonaviy tahdidlar sharoitida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali va barqaror drayveri - bu shaxsda shakllangan mustahkam mafkuraviy immunitetdir. Mafkuraviy immunitet gnoseologik hamda aksiologik darajada shakllanib, u insonni axborotiy taxdidlarga qarshi ichki ma’naviy qalqon bilan ta’minlaydi [4, b. 67]. Bu immun tizimi har bir fuqaroga, ayniqsa yoshlarga, kirib kelayotgan axborot oqimini tanqidiy va mantiqiy süzgichdan o‘tkazish, ezgulik va buzg‘unchilik, haqiqat va uydirmani farqlash imkonini beradi.

Raqamli muhitda inson qadrini asrash va ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlash bevosita media savodxonlik va axborot madaniyatining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Zamonaviy media savodxonlik faqat texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasini emas, balki media-matnlarning yashirin g‘oyaviy ma’nolarini anglash, ma’lumotlar ishonchliligini tekshirish (fact-checking) va axborot makonida axloqiy normallarga amal qilishni anglatadi [6, b. 102]. Media savodxon shaxs virtual olamda o‘z qadr-qimmatini saqlay oladi va boshqalarning ham shaxsiy daxlsizligini hurmat qiladi.

Ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash va inson qadrini e’zozlash, eng avvalo, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarimizning ma’rifiy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda mustahkam mafkuraviy immunitetga tayanadi [5, b. 54]. Raqamli makondagi manipulyatsiyalar, kiberbulling va soxta axborotlar sharoitida kiberhimoya faqat tashqi to‘siq bo‘lib, shaxsning ruhiy va ma’naviy daxlsizligini saqlashda yuksak media madaniyat va tanqidiy tafakkur ma’naviy-intellektual filtr (qalqon) vazifasini o‘taydi [6, b. 123]. Aynan mediakompetensiya, axborot madaniyati hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi shaxsni begonalashuv va g‘oyaviy xatarlardan himoyalab, zamonaviy tahdidlar sharoitida inson qadrini asrash hamda jamiyatning barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi falsafiy-metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilganda, global media makonning shiddatli kengayishi va zamonaviy tahdidlar kuchayishi sharoitida inson qadr-qimmatini e’zozlash hamda uning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash faqatgina texnik kiberhimoya yoki huquqiy cheklovlar bilan cheklanmay, eng avvalo, shaxs va jamiyat darajasidagi ma’naviy-axloqiy omillar hamda ichki mafkuraviy immunitetga tayanadi. Gibrid axborot xurujlari va manipulyativ texnologiyalar tahdid solayotgan bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, media savodxonlik hamda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish inson erkinligi va ma'naviy o‘zligini asrovchi eng samarali qalqondir. Shu bois, inson qadrini ulug‘lash, ma’rifiy meros va media ta'lim integratsiyasini kuchaytirish Yangi O‘zbekistonning barqaror va xavfsiz taraqqiyotini ta'minlovchi muhim metodologik poydevor hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jorayev N. Raqamli jamiyatda ma’naviy xavfsizlik va shaxs daxlsizligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023. – 184 b.

2. Wiener N. Cybernetics and Society: The Human Use of Human Beings. – Boston: Houghton Mifflin, 1954. – 220 p.

3. Quronov M. Ideologik xatarlar va ularga qarshi kurashishning ma’naviy mexanizmlari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 160 b.

4. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 597 p.

5. Erkaev A. Ma’naviyat va jamiyat taraqqiyoti: falsafiy va ijtimoiy tahlil. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 210 b.
6. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 232 p.

JADID MA’RIFATCHILIGI VA INSON FALSAFASI: MILLIY UYG‘ONISH VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYA

Majidov Sevinch Axtamovich
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

XX asr boshlarida Turkiston zamonida yuzaga kelgan jadidchilik harakati shunchaki ma’rifatparvarlik oqimi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, jamiyatni jaholat va qoloqlik botqog‘idan qutqarish hamda milliy davlatchilik poydevorini qo‘yishga qaratilgan qudratli ijtimoiy-siyosiy va madaniy renessans edi. Jadid namoyandalari xalqning ko‘zini ochish, zamonaviy ilmlarni ommalashtirish, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va matbuot orqali hurriyat g‘oyalarini yoyishni o‘zlarining hayotiy e’tiqodi deb bildilar. Biroq, sovet mustabit tuzumining qaror topishi bilan millat erki va ma’rifati yo‘lida kurashgan ushbu fidoiy ziyolilar sinfi tuzum uchun eng xavfli kuch sifatida baholandi.

XX asrning ilk choragida ma’rifatparvar-jadidlar yurtimizni mustamlakachilik zulmidan ozod qilish, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish maqsadida “Ko‘mak”, “Tarbiyai atfol” kabi xayriya jamiyatlari orqali iste’dodli yoshlarni Germaniya, Turkiya kabi davlatlarga o‘qishga yubordilar [1, b. 123]. Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev va boshqa arboblar tashabbusi bilan xorijga safarbar etilgan bu yoshlar Yevropaning ilm-fan va texnologiya yutuqlarini egallab, kelgusida o‘z Vatanini iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqarish hamda mustaqillikka olib chiqishni maqsad qilgan edilar.

Ushbu murakkab va ulkan tarixiy loyihani amalga oshirishda o‘sha davrda yuksak davlat lavozimlarida faoliyat yuritgan Abdurauf Fitratning roli beqiyos bo‘ldi. Fitrat tashabbusi bilan Buxoroda Sharq musiqa maktabi tashkil etilib, xalq qo‘lida sochilib yotgan noyob qo‘lyozmalar to‘plandi, shuningdek, yoshlarning Germaniyaga borib tahsil olishi uchun ilmiy-tashkiliy asoslar yaratildi [2, b. 123]. Yurt qayg‘usida yongan Fitrat chet elga ketayotgan yoshlarni Vatan istiqboli uchun fidoiy mutaxassis bo‘lib xizmat qilishga da’vat etar edi. Yoshlarni Germaniyaga jo‘natishdan oldin ularni Samarqandga, Amir Temur maqbarasiga olib borib, Vatan taraqqiyoti yo‘lida qasamyod qildirilishi jadidchilik harakatining milliy g‘urur va tarixiy xotiraga naqadar katta e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. Fitratning Temur ruhiga murojaat etib aytgan so‘zlari yoshlarning qalbida o‘z yurtiga bo‘lgan sadoqat va fidoyilik tuyg‘usini uyg‘otishga qaratilgan kuchli ma’naviy-falsafiy qurol edi [3, b. 123].

BXSR rahbari Fayzulla Xo‘jaev va atoqli davlat arbobi Turar Risqulovlarning Germaniyaga borib, u yerda tahsil olayotgan turkistonlik yigit-qizlarning holidan xabardor bo‘lishi, ularning turmush tarzi va o‘qishlarini qo‘llab-quvvatlashi milliy ziyolilarning yosh avlod kelajagiga qanchalik mas’uliyat bilan yondoshganini tasdiqlaydi. Berlinga borgan talabalar orasida qizlarning ham borligi va ularning muvaffaqiyatli o‘qishi o‘sha davr ma’rifiy islohotlarining ko‘lami kengligidan dalolat beradi. Germaniyaga yuborilgan 70 nafar iqtidorli yoshlar qatorida tekstilchi-kimyogar yo‘nalishida tahsil olgan Rahmatjon Avazjonovning taqdiri jadidlar yetishtirgan avlodning fojiali, ayni paytda matonatli yo‘lini yorqin aks ettiradi. Buxoroning nufuzli oilasida tug‘ilib, zamonaviy va mumtoz ta’lim olgan Rahmatjon Yevropada o‘z mutaxassisligini chuqur egallab, vataniga xizmat qilishni o‘zining oliy burchi deb bildi [4, b. 123].

Sovet xufyalarining ta’qiblari va aldovlari tufayli Rahmatjon Avazjonovning Germaniyadagi shaxsiy hayoti va o‘qishining so‘nggi yillari og‘ir sinovlarga uchradi. Shunga qaramamay, u Moskvada turli sohalarda mehnat qilib, o‘z bilimini amalda qo‘llashga intildi, biroq sovet totalitar tuzumining jallodlari uni ham chetlab o‘tmadi.

1937 yil 4 sentyabrda Rahmatjon Avazjonov soxta ayblar bilan qamoqqa olindi va uning butun hayoti, ilmiy hujjatlari, hatto shaxsiy xotiralari musodara qilindi. Tergovchilar uning

Germaniyada o‘qiganini va xorijiy elchixonalar bilan aloqada bo‘lganini asos qilib olib, uni davlat dushmani sifatida ko‘rsatishga urinishdi. Tergov jarayonida hech qanday ishonarli dalillar keltirilmaganiga qaramadan, Stalincha qatag‘on mashinasi o‘zining qora ishini davom ettirdi va Rahmatjon Avazjonovni oliy jazoga hukm etdi. 1938 yil 9 oktyabrda amalga oshirilgan bu adolatsiz hukm o‘zbek xalqining eng sara, ziyoli farzandlarini yo‘q qilishga qaratilgan qonli siyosatning yana bir ko‘rinishi edi.

Faqat yillar o‘tib, stalinizm jinoyatlari fosh etila boshlagach, adolat tantana qildi va Rahmatjon Avazjonov 1957 yil 20 sentyabrda SSSR Oliy Sudining harbiy kollegiyasi qarori bilan oqlandi. Uning nomi va ilmiy merosi o‘z xalqiga qaytarilib, fojiali taqdiri tariximizning unutib bo‘lmas sahifasiga aylandi. XX asr boshlaridagi xorijiy ilmiy-madaniy aloqalar Shavkat Turdiyev kabi tadqiqotchilarning asarlarida chuqur ilmiy tahlil qilinib, talabalarning Berlinda “Ozod Sharq” nashriyotini ochgani va milliy matbuotni rivojlantirgani asoslab berilgan. Bu esa jadidchilik harakatining nafaqat ma’rifiy, balki xalqaro miqyosdagi madaniy-g‘oyaviy integratsiya jarayoni bo‘lganini ko‘rsatadi.

Afsuski, sovet terrori oqibatida Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Fayzulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon kabi buyuk siymolarning fojiali o‘limi bilan Turkistonning xorij bilan aloqalari uzib qo‘yildi [5, b. 123]. Chet elda o‘qib qaytgan o‘zbek ziyolilari josuslik kabi uydirma ayblar bilan jismonan yo‘q qilindi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy tariximizni, qatag‘on qurbonlari bo‘lgan jadid allomalarining hayoti va ilmiy merosini o‘rganish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu ezgu sa’y-harakatlar xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, yosh avlodni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma’rifatchiligi va inson falsafasi g‘oyalari zamonaviy jamiyat transformatsiyasi sharoitida ham o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Millat erki, ma’rifati va taraqqiyoti yo‘lida jon fido qilgan ajdodlarimizning xotirasi hamda ularning boy ilmiy merosi Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ma’naviy-ma’rifiy qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. – Toshkent: Fan, 1998. – 210 b.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 280 b.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b.
4. Shamsutdinov R. O‘zbekistonda sovet rejimining qatag‘on siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: Sharq, 2012. – 432 b.
5. Rajabov Q. Jadidchilik harakati va uning fojiali taqdiri. – Toshkent: Universitet, 2021. – 250 b.

EMOTIONAL CONTENT ON SOCIAL MEDIA AS A MECHANISM OF MANIPULATION: THE ROLE OF FEAR, ANGER AND HATRED IN REDUCING CRITICAL INFORMATION PROCESSING

Kodirova Munavvar Ganijonovna
Teacher of the Department of “Social science” Bukhara state medical institution

The emergence of digital communication technologies has transformed the structure of contemporary social interaction. Social media platforms such as Facebook, Instagram, X, TikTok, YouTube and Telegram have become not only communication tools but also important environments in which individuals receive news, interpret political and social events, construct identities and participate in public discussions. Consequently, social consciousness is increasingly formed within a digital information environment characterized by enormous information volume, rapid circulation and intense competition for human attention.

Within this environment, information is not distributed exclusively according to its accuracy, social importance or intellectual quality. Visibility is also influenced by the ability of content to attract attention and produce interaction. Clicking, commenting, sharing, reacting and continuing to watch are measurable behaviors that can determine how widely a message circulates. This creates an important structural transformation: **human attention becomes an economic resource, while emotional reaction becomes one of the mechanisms through which that resource is captured.**

Research provides substantial evidence for this attention asymmetry. Robertson et al. (2023), using large-scale randomized experiments involving more than 100,000 headline variations and hundreds of millions of impressions, found that negative language increased online news consumption. For an average-length headline, the addition of a negative word increased the click-through rate by approximately 2.3%. Their findings provide strong evidence for a negativity bias in digital news consumption.

This phenomenon becomes particularly important when fear, anger, hatred and moral outrage are intentionally or unintentionally embedded in political, ideological or socially divisive messages. Such emotions have strong motivational properties. Fear directs attention toward potential threats. Anger increases certainty, moral judgment and willingness to act. Hatred can transform disagreement into rejection of an entire social group. Moral outrage, meanwhile, can provide individuals with a sense that sharing or condemning information constitutes a moral obligation.

Emotion itself should not be regarded as irrational or socially harmful. Emotions constitute fundamental components of human judgment and decision-making. Psychological research demonstrates that emotions can provide adaptive information, organize attention and assist decision-making. At the same time, emotions can systematically alter risk perception, judgment and behavioral choices (Lerner et al., 2015).

The problem therefore arises not from the existence of emotion but from its **strategic exploitation**. A manipulative message does not necessarily need to persuade an individual through detailed argumentation. It can instead create an emotional state in which the individual becomes more willing to accept a particular interpretation of reality. A message such as “They are destroying our future,” “Your children are in danger,” “Everyone is lying to you,” or “This group is responsible for your problems” may be psychologically effective even when it provides little verifiable evidence. Its persuasive force originates partly from the emotional framework within which subsequent information is interpreted.

The relationship becomes particularly significant in the context of misinformation. Vosoughi, Roy and Aral's analysis of approximately 126,000 verified news stories distributed on Twitter by around three million users found that false information travelled farther, faster, deeper and more broadly than truthful information. False stories also generated greater surprise, fear and disgust, while true stories were associated more strongly with emotions such as trust and anticipation.

Similarly, Martel, Pennycook and Rand (2020) demonstrated through correlational and experimental studies that increased reliance on emotion was associated with greater belief in false news. Their experiments provide particularly important evidence because participants instructed to rely on emotion when evaluating headlines were more likely to believe false information than participants in control or reason-oriented conditions.

These findings suggest that emotional communication should be examined not simply as a stylistic feature of social media but as a potential mechanism affecting the formation of social consciousness. From a socio-philosophical perspective, the problem concerns the conditions under which individuals remain autonomous subjects of judgment. Manipulation becomes particularly powerful when citizens believe that they are independently evaluating information while their attention, emotional states and interpretive frameworks are being externally influenced.

The central argument is that repeated exposure to emotionally intense content can create conditions in which rapid affective responses dominate reflective information processing, thereby increasing susceptibility to manipulative narratives.

Importantly, this does not mean that strong emotion automatically eliminates rational thought. Rather, emotional arousal may alter the cognitive conditions under which information is evaluated, making verification, source analysis and consideration of alternative explanations less likely under certain circumstances.

This study adopts a structured narrative literature review combined with socio-philosophical conceptual analysis. Such an approach was selected because the relationship between emotional content, misinformation, social media engagement, and critical reasoning has already been extensively investigated across several academic disciplines, including experimental psychology, communication studies, computational social science, and behavioral research. Rather than producing new empirical data, the study brings together existing theoretical and empirical findings in order to examine how emotionally charged digital content can influence individual judgment and contribute to the broader manipulation of social consciousness. The interdisciplinary character of the research is essential to the analysis. Emotional manipulation on social media cannot be fully understood from a single disciplinary perspective, as it involves psychological responses, communication processes, technological mechanisms, and social consequences at the same time. For this reason, the conceptual framework of the study draws on research concerning emotion and decision-making, misinformation and fake news, social media diffusion and engagement, as well as socio-philosophical interpretations of manipulation, collective consciousness, and digital communication. Bringing these perspectives together makes it possible to examine not only how individuals react to emotionally provocative information, but also how such reactions may be intensified and reproduced within digital networks.

The literature used in the study was selected according to its relevance to the relationship between emotional communication, information processing, misinformation, and social influence in digital environments. Priority was given to peer-reviewed empirical studies, experimental research, large-scale analyses of online behavior, systematic and expert reviews, and theoretically significant publications addressing the social and psychological effects of digital communication. Particular attention was paid to studies exploring the ways in which emotional arousal influences attention, judgment, engagement, information evaluation, and sharing behavior. Research concerning negativity bias, fear, anger, moral outrage, misinformation susceptibility, analytic reasoning, repeated exposure, and digital reinforcement was especially relevant to the analysis. The literature was examined with the assumption that emotional influence on social media develops through a sequence of interconnected processes. An emotionally provocative message first attracts attention, then produces affective arousal, which may shape the way the information is interpreted and evaluated. This response can subsequently lead to engagement, sharing, repetition, and broader social influence.

Both foundational and recent studies were incorporated into the analysis. Earlier psychological and communication research was used to explain established mechanisms of emotional processing and persuasion, while more recent studies were included to account for the specific characteristics of algorithmically mediated social media environments. This combination was necessary because the psychological foundations of emotional influence are not new, whereas the speed, scale, personalization, and technological reinforcement of such influence represent distinctive features of contemporary digital communication.

The selected literature was analyzed through thematic synthesis in order to identify recurring patterns and mechanisms associated with emotional manipulation in social media environments. The analysis revealed several closely connected processes. One of the most consistent mechanisms was the capacity of negative and emotionally intense information to capture attention more effectively than neutral content. A second pattern concerned the role of emotion in shaping information processing, particularly in situations where immediate emotional reactions may precede careful evaluation of evidence. The literature also demonstrated that morally and

emotionally charged messages frequently possess greater potential for online diffusion, especially when they generate anger, fear, indignation, or group-based hostility. Another recurring theme involved the reinforcing character of social media environments. Emotional expression may be encouraged through visible indicators of social approval, such as likes, shares, comments, and other forms of engagement. At the same time, recommendation systems can repeatedly expose users to similar forms of content, thereby increasing the familiarity and perceived importance of particular narratives. When such mechanisms operate within ideologically or socially homogeneous online communities, they may contribute to group polarization and the normalization of emotionally constructed interpretations of reality.

On the basis of these recurring themes, the study develops a conceptual sequence explaining how emotional manipulation may operate in digital environments. The process begins with an emotional stimulus capable of attracting attention and producing affective arousal. This emotional response may reduce the likelihood of slow and reflective evaluation and encourage rapid judgment. Once the user reacts, shares, or otherwise engages with the content, social and algorithmic mechanisms may increase its visibility and repetition. Continued exposure can gradually normalize the narrative and increase the individual's susceptibility to similar forms of manipulation in the future. This conceptual model should not, however, be interpreted as a fixed or deterministic process. Individuals do not respond to emotional content in identical ways. The degree of susceptibility to manipulation may vary according to educational background, personality, political and social identity, digital literacy, cognitive style, previous beliefs, and the broader social environment. The model therefore represents an analytical framework for understanding recurring tendencies rather than a universal prediction of individual behavior.

The first major finding concerns human attentional asymmetry. People do not assign identical cognitive importance to positive, neutral and negative information. Potential threats traditionally possess high adaptive significance. Consequently, negative signals frequently receive rapid attentional priority. In digital communication, this biological and psychological tendency can become economically exploitable. Social media platforms and digital publishers operate within an attention economy. Content creators compete for limited quantities of user attention, and emotionally provocative headlines can provide a competitive advantage. Robertson et al. (2023) demonstrated experimentally that negative terminology in headlines increased consumption. Their large-scale analysis therefore suggests that negativity is not merely correlated with successful online content; changes in negative language can causally influence clicking behavior.

This mechanism creates what may be described as an **emotional attention asymmetry**.

A neutral message stating:

“Economic indicators changed during the previous quarter”

may attract less immediate attention than:

“Economic crisis threatens the future of millions.”

Even when both messages refer to the same underlying phenomenon, the second formulation introduces threat. *Threat increases urgency. Urgency increases attention.Attention increases the probability of interaction.*

When platform systems subsequently interpret interaction as evidence of relevance, emotionally intense information may acquire additional visibility.

Thus:

Emotion → attention → engagement → visibility → further attention.

A self-reinforcing informational cycle becomes possible.

The second finding concerns the distinction between rapid intuitive judgment and slower reflective processing. Critical evaluation requires cognitive effort. Evaluating information appropriately may involve checking sources, identifying missing evidence, distinguishing correlation from causation, comparing alternative explanations and recognizing one's own biases.

Emotionally intense communication can interfere with this process by creating perceived urgency.

The individual effectively moves from:

“Is this information true?”

toward:

“How should I react to this?”

This difference is fundamental. Martel et al. (2020) found both correlational and causal evidence connecting reliance on emotional processing with belief in false news. Participants experiencing greater emotionality demonstrated reduced discrimination between true and false information, while experimentally encouraging reliance on emotion increased perceived accuracy of false headlines. Conversely, research on analytic reasoning has repeatedly found an association between reflective thinking and improved ability to distinguish misinformation from accurate information. Consequently, emotional manipulation does not necessarily need to eliminate reasoning completely.

Its more realistic function is to **change the order of cognitive operations**.

Instead of:

Information → verification → interpretation → emotional response

the process may become:

Information → emotional response → interpretation → selective verification.

Once an emotional conclusion has been formed, subsequent information may be assessed according to whether it confirms the initial judgment. This creates favorable conditions for confirmation bias.

The third major finding concerns transmission. Emotional content is not only processed differently; some forms of emotional content also circulate more effectively. Brady et al. (2017) analyzed more than half a million social media messages concerning politically polarizing issues. They found that moral-emotional language substantially increased message diffusion within ideological networks. Each additional moral-emotional term was associated with an approximately 20% increase in diffusion in the analyzed dataset.

This phenomenon has been described as **moral contagion**.

It is particularly important because anger communicated as a moral judgment differs from ordinary negative emotion.

A user does not simply experience:

“I dislike this.”

Instead, the message becomes:

“This is morally unacceptable, and everyone must know about it.”

Sharing therefore becomes morally meaningful.

Crockett (2017) argues that digital environments may transform moral outrage because online platforms reduce the costs associated with expressing condemnation while simultaneously expanding the potential social rewards. The informational complexity of reality decreases while emotional certainty increases. This constitutes one of the central mechanisms through which emotional communication may influence collective consciousness.

A particularly important result concerns the long-term behavioral effects of online feedback. Brady et al. (2021) analyzed millions of social media posts and conducted behavioral experiments examining expressions of moral outrage. They found that positive social feedback for expressions of outrage increased the likelihood of users expressing outrage again in the future. Users also adapted their emotional expression to the norms of their social networks. This demonstrates a reinforcement-learning mechanism.

A simplified cycle can be represented as:

Outrage → Post → Likes/Shares/Comments → Social Reward → More Outrage Expression.

The implications extend beyond individual behavior. When thousands or millions of users experience similar reinforcement simultaneously, digital platforms may become environments in which increasingly emotional forms of communication are socially rewarded. The result is not necessarily that individuals become permanently angrier. Instead, they may learn that anger is an effective **communication strategy**. This distinction is crucial. Digital systems can amplify

emotional discourse even without explicitly intending to promote hatred. Engagement optimization alone may indirectly reward characteristics correlated with engagement.

False information can be particularly effective in emotionally charged digital environments because, unlike accurate information, it is not restricted by the need to correspond with reality. Fabricated or misleading messages can therefore be deliberately constructed to maximize surprise, fear, anger, disgust, or moral outrage, even when the underlying claims lack sufficient evidence. This gives misinformation an important communicative advantage: it can be simplified, dramatized, and emotionally intensified in ways that factual reporting often cannot.

Empirical research supports this tendency. Vosoughi et al. (2018), in a large-scale analysis of information diffusion on Twitter, found that false news spread farther, faster, deeper, and more broadly than truthful news. Their study also revealed notable differences in the emotional responses associated with false and true information. False stories were more strongly connected with emotions such as surprise, fear, and disgust, suggesting that emotional intensity may contribute to the rapid circulation of misleading content.

However, this relationship should not be interpreted as meaning that all emotionally charged information is false or that misinformation is always based on negative emotions. Emotional appeal is a broader communicative mechanism that can operate through both negative and positive affect. Recent research indicates that positively framed misinformation may also attract attention and encourage sharing, particularly when it confirms expectations, provides hope, or produces amusement. Experimental studies have further shown that emotional valence can influence users' willingness to share questionable information, while simple interventions that direct attention toward accuracy can reduce such behavior.

The central issue, therefore, is not the emotional tone of a message itself but the way emotional appeal can compete with factual evaluation. In digital environments where attention, engagement, and rapid sharing are rewarded more immediately than verification, emotionally compelling information may gain an advantage over more accurate but less stimulating content. Under such conditions, the persuasive power of misinformation may depend less on its factual credibility than on its ability to provoke a strong psychological response.

The findings indicate that emotionally charged digital communication should be understood as a complex phenomenon shaped by psychological, technological, economic, and socio-cultural factors. Emotion itself is not inherently manipulative. Fear may alert individuals to genuine threats, anger can motivate responses to injustice, and moral outrage may encourage collective action. The problem arises when emotional responses are deliberately intensified in ways that discourage balanced evaluation of evidence. The relevant distinction is therefore not between emotion and reason, but between emotion supported by evidence and emotion separated from critical verification.

One of the main effects of emotional content is its ability to dominate attention. Because human attention is limited, repeated exposure to fear-, anger-, or hatred-based messages can make certain issues appear more urgent or important than others. Manipulation may therefore occur not only through false information, but also through selective emphasis. An issue can be presented accurately yet disproportionately amplified, causing other socially significant problems to receive less attention. In this sense, emotional salience can function as a form of agenda control.

Emotional manipulation begins at the level of individual judgment but can expand through digital networks into a collective process. Emotionally provocative content encourages engagement and sharing, which may increase its algorithmic visibility and repetition. Repeated circulation can gradually normalize particular interpretations of events and contribute to the formation of broader social attitudes.

Unlike traditional propaganda, contemporary manipulation is often decentralized. Ordinary users may unknowingly participate in spreading emotionally manipulative narratives, becoming both recipients and distributors of influence. This feature distinguishes digital manipulation from older models of one-directional mass communication.

From a socio-philosophical perspective, spiritual and informational security involves more than protection from openly harmful content. It also requires preserving independent judgment, social trust, tolerance, intellectual responsibility, and the ability to distinguish evidence from emotional suggestion. A society may have access to enormous amounts of information while remaining vulnerable to manipulation if individuals lack sufficient time, motivation, or skills to evaluate that information critically. Therefore, the digital age demonstrates that greater access to information does not automatically lead to greater knowledge; it may also contribute to confusion, emotional exhaustion, and dependence on simplified narratives.

Resistance to emotional manipulation requires more than traditional media literacy. Digital literacy should also include emotional awareness and the ability to recognize when a message is attempting to provoke fear, anger, hatred, or immediate reaction. Users should be encouraged to pause before sharing emotionally provocative content, examine the evidence supporting the claim, compare independent sources, and consider whether emotional framing is stronger than the factual basis of the message. This brief interruption between emotional reaction and action can improve critical evaluation and reduce impulsive sharing. At the same time, responsibility cannot rest entirely on users. Digital platforms also shape the visibility and circulation of information through recommendation and engagement systems. Greater transparency, stronger safeguards against coordinated manipulation, improved user control over recommendations, and measures that slow the rapid redistribution of questionable content may help reduce the amplification of emotionally manipulative messages. Technological systems cannot be considered fully neutral when their architecture directly influences which information receives public attention.

The study demonstrates that emotional content occupies a structurally important position in contemporary social media communication. Fear, anger, hatred and moral outrage can capture attention, accelerate information diffusion, encourage rapid judgment and facilitate group-based interpretations of reality. Available empirical research supports several components of this process. Negative language can increase attention to digital content. Moral-emotional language can facilitate online diffusion. Reliance on emotional processing can increase susceptibility to false information. Social feedback can reinforce repeated expressions of outrage. Repeated exposure can increase familiarity and perceived credibility. However, these findings should not be interpreted as evidence that emotion inherently destroys critical thinking.

The more precise conclusion is that **emotionally intense environments can reduce the probability of slow, reflective and evidence-oriented information processing under particular conditions**, especially when emotional reaction is combined with repetition, group identity, perceived threat and rapid digital sharing.

Instead of preventing people from receiving information, modern manipulation can overwhelm them with information selectively structured to provoke emotional reactions.

Instead of ordering individuals what to think, manipulators can influence **what they fear, whom they blame and which information they consider worthy of attention**.

The protection of social consciousness consequently requires more than fact-checking.

It requires the development of critical thinking, media literacy, emotional self-regulation, intellectual humility, responsible journalism, transparent platform governance and social resistance to dehumanizing discourse.

In the information society, one of the most important dimensions of freedom is therefore not simply access to information but the capacity to preserve autonomous judgment within an environment continuously competing to capture and emotionally direct human attention.

References

1. Brady, W. J., McLoughlin, K., Doan, T. N., & Crockett, M. J. (2021). How social learning amplifies moral outrage expression in online social networks. *Science Advances, 7*(33), eabe5641. https://doi.org/10.1126/sciadv.abe5641
2. Crockett, M. J. (2017). Moral outrage in the digital age. *Nature Human Behaviour, 1*, 769–771. https://doi.org/10.1038/s41562-017-0213-3

3. Martel, C., Pennycook, G., & Rand, D. G. (2020). Reliance on emotion promotes belief in fake news. *Cognitive Research: Principles and Implications, 5*, 47. https://doi.org/10.1186/s41235-020-00252-3
4. Pennycook, G., Cannon, T. D., & Rand, D. G. (2018). Prior exposure increases perceived accuracy of fake news. *Journal of Experimental Psychology: General, 147*(12), 1865–1880.
5. Robertson, C. E., Pröllochs, N., Schwarzenegger, K., Pärnamets, P., Van Bavel, J. J., & Feuerriegel, S. (2023). Negativity drives online news consumption. *Nature Human Behaviour, 7*, 812–822. https://doi.org/10.1038/s41562-023-01538-4
6. Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. (2018). The spread of true and false news online. *Science, 359*(6380), 1146–1151. https://doi.org/10.1126/science.aap9559

INSON FALSAFASI VA ZAMONAVIY JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI: MUHYIDDIN IBN ARABIY TA'LIMOTI KESIMIDA

Yarashova M.SH
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Zamonaviy jamiyat o'zining mislsiz texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlari bilan insoniyat tarixida yangi, murakkab davrni boshlab berdi. Globallashuv, raqamlashtirish, sun'iy intellekt rivojlanishi va qadriyatlar tizimidagi keskin burilishlar insonning koinotdagi, jamiyatdagi o'rni va mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bugungi kundagi asosiy inqiroz — bu insonning o'zligidan, tabiatdan va ruhiyatidan begonalashuvi hisoblanadi. Jamiyat transformatsiyasi asosan moddiy va axborot qatlamlarida yuz berayotgan bir paytda, insoniyatning ma'naviy-ontologik negizlari zaiflashib bormoqda. Aynan shu nuqtada, inson mohiyatini chuqur falsafiy tahlil qilgan Sharq mutafakkirlari, xususan, Muhyiddin ibn Arabiy ta'limotiga murojaat qilish zamonaviy sotsiologik va antropologik muammolarga yechim topishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kashf etadi.

Muhyiddin ibn Arabiy (1165–1240) o'zining "Fusus al-hikam" va "Al-Futuhat al-Makkiyya" kabi asarlarida insonni koinotning gultoji, ilohiy ism va sifatlarning to'liq namoyon bo'ladigan oynasi sifatida ta'riflaydi. Mutafakkir insonni shunchaki bio-ijtimoiy mavjudot emas, balki "Olamning ruhi" (Ruh al-Olam) hamda "Mikrokosmos" deya ataydi [1, b. 45]. Zamonaviy jamiyatda inson ko'pincha ishlab chiqarish kuchi, iste'molchi yoki raqamli ma'lumotlar yig'indisi (obyekt) sifatida qabul qilinmoqda. Ibn Arabiy falsafasi esa insonni subyekt darajasiga, koinotning ma'no o'qiga qaytaradi. Mutafakkirning fikricha, butun borliq (makrokosmos) inson (mikrokosmos) ichida jamlangan bo'lib, insonning o'zligini anglashi butun borliqni anglashini anglatadi.

Bugungi post-industrial jamiyat inson ongiga faqatgina ratsional va pragmatik yondashuvni singdirmoqda. Boshqacha qilib aytganda, insonning muvaffaqiyati uning ijtimoiy maqomi, boyligi va moddiy farovonligi bilan o'lchanadigan bo'lib qoldi. Biroq, insonning ma'naviy intilishlari va axloqiy prinsiplari bu jarayonda ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Ibn Arabiy ontologiyasi insonning koinotdagi mavqeini faqat uning aql-zakovati bilangina emas, balki ilohiy ma'rifatni qabul qila olish qobiliyati bilan ham belgilaydi. Inson o'z tabiatini kashf etish orqali haqiqiy erkinlikka erishadi. Ushbu erkinlik tashqi omillardan qaram bo'lmaslikni, ichki uyg'unlik va ma'naviy muvozanatni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy jamiyatdagi eng katta muammolardan biri bu — qutblanish, ziddiyatlar va insonlar o'rtasidagi tafovutlarning sun'iy ravishda kuchaytirilishidir. Iqtisodiy raqobat, geosiyosiy to'qnashuvlar va ijtimoiy xudbinlik oqibatida bashariyat yagona butunlik hissini mutlaqo yo'qotib bormoqda. Bu borada Ibn Arabiyning "Vahdatul vujud" (Borliqning yagonaligi) konsepsiyasi zamonaviy tafakkur uchun muhim epistemologik va axloqiy poydevor bo'la oladi [2, b. 112]. "Vahdatul vujud" ta'limotiga ko'ra, koinotdagi barcha mavjudotlar yagona ilohiy haqiqatning (Haqq) turli darajadagi tajalliylari, ya'ni ko'rinishlaridir. Agar zamonaviy inson o'zini va boshqalarni, qolaversa butun tabiatni ushbu Yagona Borliqning uzviy qismi deb bilsa, jamiyatdagi agressiya, millatchilik, irqchilik kabi illatlar o'z-o'zidan barham topadi.

Shu o'rinda "Vahdatul vujud" ta'limoti zamonaviy ekologik inqirozni hal qilishda ham o'ziga xos yondashuvni taklif etishini ta'kidlash joiz. Antropotsentrizm va tabiatga nisbatan iste'molchilik munosabati global iqlim o'zgarishlari va bioxilma-xillikning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Agar inson o'zini tabiatdan ustun emas, balki u bilan bir butun deb his etsa, unga ilohiy go'zallik va uyg'unlikning timsoli sifatida munosabatda bo'ladi. Bunday qarash tabiatni asrab-avaylashni iqtisodiy zaruratdan ma'naviy burchga aylantiradi. Inson koinotning bir bo'lagi ekanligini anglagandagina tabiatdagi tartibotga hurmat bilan munosabatda bo'lishni boshlaydi [3, b. 201].

Ibn Arabiy falsafasida "Insani komil" (Komil inson) g‘oyasi mutlaqo markaziy o‘rinni egallaydi. Komil inson — bu o‘zida barcha ilohiy sifatlarni muvozanatda jamlagan, nafsini jilovlab, ruhiy yuksaklikka erishgan shaxsdir. Zamonaviy jamiyat transformatsiyasi asosan tashqi omillarni — infratuzilma, iqtisodiyot, qonunchilik hamda siyosiy boshqaruvni o‘zgartirish orqali mukammal jamiyat qurish xomxayoliga asoslangan. Biroq, insoniyat tarixi va bugungi kun tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, insonning ichki (ruhiy-ma’naviy) dunyosi o‘zgarmasdan turib, tashqi o‘zgarishlar hech qachon baxt va ijtimoiy barqarorlik keltirmaydi. Ibn Arabiy jamiyatning istalgan islohoti har bir individning o‘z qalbini isloh qilishidan boshlanishini ta’kidlaydi.

Komil inson faqatgina diniy yoki tasavvufiy ideal emas, u barkamol va axloqiy pok ijtimoiy subyekt modelidir. Hozirgi davrda inson kapitalini rivojlantirish tushunchasi asosan professional malaka va raqamli bilimlarni oshirish bilan cheklanadi. Ibn Arabiy esa ma'naviy intellekt va qalb musaffoligini hamisha birinchi o'ringa qo'yadi. Agar ilm-fan va texnologiyalar axloqiy poydevorsiz rivojlansa, ular insoniyatning o'zini o'zi yo'q qilishiga xizmat qilishi tayin. Shu sababli, bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimida faqat ratsional bilimlarni emas, balki "qalb ta'limi"ni ham keng joriy etish komil insonlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv va integratsiya sharoitida ommaviy madaniyat qoliplariga tushib qolayotgan inson o‘zining shaxsiy betakrorligini tezkorlik bilan yo‘qotmoqda. Standartlashgan turmush tarzi, bir xil vizual did va iste'mol odatlari shaxsni olomonning mustaqil fikrsiz bir bo'lagiga aylantirib qo'ydi. Ibn Arabiy esa har bir inson o‘ziga xos ilohiy tajalli, ya’ni mutlaqo takrorlanmas xilqat ekanligini uqtiradi. Uning "Hech bir tajalli ikki marta aynan takrorlanmaydi" degan ulug'vor qoidasi zamonaviy insonga o‘zining qadr-qimmati va yagonaligini his qilishga, ijtimoiy tarmoqlar qurboniga aylanib qolmaslikka yordam beradi [4, b. 88]. Inson o‘z qalbiga chuqur nazar tashlagandagina tashqi shovqindan qutulishi mumkin.

Qolaversa, post-industrial jamiyatdagi kiber-muhit insoniyatni jismoniy olamdan virtual makonga ko‘chirmoqda. Bu holat tafakkur, g‘oya va jismoniy moddiyot o‘rtasidagi jarlikni yuzaga keltirmoqda. Bugungi yosh avlod ko'p vaqtini metakoinot va ijtimoiy tarmoqlar olamida o'tkazmoqda, real insoniy munosabatlar esa sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Ibn Arabiy ta’limotidagi "Xayol olami" (Olam al-Xayal) tushunchasi ushbu yuksak texnologik fenomenni chuqurroq tushunishda yordam beradi. Mutafakkir g‘oya (ma’no) va modda o‘rtasida bog‘lovchi kishvar sifatida "xayol"ni ko‘rsatadi.

Bugungi kundagi butun raqamli reallik, virtual makon va sun'iy intellekt ham aslida inson xayolotining o'ziga xos texnologik in’ikosidir. Agar ushbu raqamli in’ikos yuksak axloq, gumanizm va ilohiy haqiqat bilan sug‘orilmasa, u insoniyatni to'g'ri yo'ldan chalg‘ituvchi vositaga, halokatli illuziyaga aylanib qolishi muqarrar. Texnologiya o‘z-o‘zidan yovuz ham, mutlaq ezgu ham emas. U insonning ichki dunyosi qanday bo‘lsa, shuni o'zida aks ettiruvchi ulkan va qudratli ko‘zgudir [5, b. 156]. Shuning uchun texnologik innovatsiyalar parallel ravishda ma'naviy evolyutsiya bilan birga olib borilishi zarur.

Axborot asrida inson turli-tuman bilimlarni nihoyatda osonlik bilan, bir zumda qo'lga kiritishi mumkin, ammo jamiyatda donishmandlik o'ta kamyob hodisaga aylanib bormoqda. Ibn Arabiy buni "ilm" va "ma'rifat" o'rtasidagi tafovut orqali juda chiroyli tushuntirib beradi. Ilm – bu obyektiv dalillar, mantiqiy xulosalar va faktlar to'plami bo'lsa, ma'rifat – bu borliqning asl mohiyatini qalb orqali kashf etish va anglashdir. Bugungi axborot xuruji davrida insonga aynan qalb musaffoligi va ma'rifat yetishmayapti. Keraksiz ma'lumotlarning haddan tashqari ko'pligi

inson ongini toliqtiradi va chalg'itadi. Ibn Arabiy metodologiyasi esa, inson diqqatini tashqi axborotdan qalb sokinligiga qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyat transformatsiyasi faqatgina raqamli qulayliklar va iqtisodiy yuksalish bilangina o‘lchanmasligi lozim. Haqiqiy, bardavom va xavfsiz taraqqiyot insonning ontologik, ruhiy va axloqiy mohiyatiga har tomonlama asoslanishi shart. Buyuk mutafakkir Muhyiddin ibn Arabiy ta’limoti bugungi g‘oyaviy va ma'naviy bo‘shliqni to‘ldirish, insonning tabiat hamda koinot bilan azaliy garmoniyasini tiklash uchun ulkan manba hisoblanadi. Jamiyatning yorqin va farovon kelajagi har bir shaxsning "Komil inson" darajasiga erishish yo‘lidagi tinimsiz ma’naviy bedorligiga hamda butun borliqqa bo‘lgan sof, betama muhabbatiga chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar

1. Muhyiddin ibn Arabiy. Fusus al-hikam (Hikmatlar jilvasi). - Toshkent: Movarounnahr, 2020.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. - Toshkent: Yozuvchi, 1999.
3. Chittick W. C. The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-Arabi's Metaphysics of Imagination. - Albany: SUNY Press, 1989.
4. Xudoyberdiyev M. Zamonaviy inson inqirozi va falsafiy yechimlar. - Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq falsafiy fikr tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.

INSONNING MA’NAVIY DUNYOSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI

Rahmonova S.Sh
Osiyo Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi

Jamiyat taraqqiyoti doimo inson hayoti, uning ehtiyojlari, dunyoqarashi va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar insonning ma’naviy dunyosiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv, raqamlashtirish, axborot oqimining keskin ortishi, mehnat va ta’lim shakllarining yangilanishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi natijasida shaxsning dunyoni idrok etishi va o‘zini jamiyatda namoyon qilishi yangi mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy transformatsiya jarayonlarini faqat texnologik yoki iqtisodiy o‘zgarishlar sifatida baholash yetarli emas. Chunki har qanday ijtimoiy o‘zgarish insonning fikrlashi, ehtiyojlari, axloqiy qarashlari va hayotiy maqsadlariga ta’sir qiladi.

Insonning ma’naviy dunyosi uning ong va tafakkuri, e’tiqod va qarashlari, axloqiy mezonlari, estetik didi, bilim va tajribasi, orzu-intilishlari hamda hayot mazmuni haqidagi tasavvurlarini qamrab oluvchi murakkab tizimdir. U biologik ehtiyojlardan tashqari, insonni shaxs sifatida shakllantiradigan ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadi. Shu jihatdan ma’naviyat insonning ichki dunyosi va uning jamiyat bilan munosabatlarini bog‘lovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy nuqtayi nazardan inson ma’naviy dunyosi tayyor va o‘zgarmas hodisa emas. U tarbiya, ta’lim, ijtimoiy tajriba, madaniy muhit va shaxsning o‘z ustida ishlashi jarayonida shakllanadi. Insonning o‘zligini anglash darajasi uning ma’naviy ehtiyojlari va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir qiladi.

Zamonaviy jamiyat transformatsiyasi va inson ma’naviyatiga ta’siri. Zamonaviy jamiyatning transformatsiyasi iqtisodiy, siyosiy, texnologik va madaniy jarayonlarning o‘zaro ta’siri asosida kechmoqda. Raqamli texnologiyalar insonning axborot olish, muloqot qilish, ta’lim olish va mehnat faoliyatini tashkil etish usullarini tubdan o‘zgartirdi. Bunday sharoitda insonning vaqt, makon va ijtimoiy munosabatlar haqidagi tasavvurlari ham yangilanmoqda. Axborot makonining kengayishi inson uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Turli xalqlar va madaniyatlar tajribasi bilan tanishish, ilmiy va ta’limiy resurslardan foydalanish, yangi kasbiy ko‘nikmalarni egallash shaxsning intellektual va ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, nazoratsiz axborot oqimi, manipulyativ kontent, iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi va yuzaki

qarashlarning ommalashuvi ma’naviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini ham oshiradi.

Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi. Globallashuv turli jamiyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kuchaytirish bilan birga, qadriyatlar almashinuvini ham tezlashtirmoqda. Bunday sharoitda inson bir vaqtning o‘zida mahalliy, milliy va global madaniy muhit ta’sirida shakllanadi. Natijada identiklik masalasi yanada murakkablashadi. Shaxs o‘zining milliy va madaniy ildizlarini saqlagan holda, global makonning yangi talablariga moslashishi kerak bo‘ladi. Qadriyatlar transformatsiyasi tabiiy jarayon bo‘lsa-da, u ma’naviy mezonlarning zaiflashishiga olib kelmasligi kerak. Zamonaviylikni qabul qilish milliy o‘zlikdan voz kechish degani emas. Aksincha, tarixiy xotira, ona tiliga hurmat, milliy madaniyat va an’analarni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish shaxsning barqaror identikligini ta’minlaydi. Inson ma’naviy dunyosini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari. Inson ma’naviy dunyosini rivojlantirish, avvalo, ta’lim va tarbiya tizimining mazmunini takomillashtirish bilan bog‘liq. Ta’lim faqat kasbiy bilim berish bilan cheklanmasdan, shaxsning mustaqil fikrlashi, axloqiy mas’uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va madaniy savodxonligini ham rivojlantirishi lozim. Ayniqsa, yoshlarning axborot makonida to‘g‘ri yo‘nalish topa olishi, media savodxonligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish dolzarbdir. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish ham muhim. Kitobxonlikni targ‘ib qilish, ilmiy-ma’rifiy kontent yaratish, tarixiy va madaniy merosni raqamli shaklda ommalashtirish, yoshlar bilan ochiq muloqot maydonlarini kengaytirish shaxsning ma’naviy ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Oila, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san’at sohasi hamkorligi yaxlit ma’naviy muhitni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyat transformatsiyasi insonning ma’naviy dunyosini yangi sharoit va yangi talablar bilan yuzma-yuz qo‘ymoqda. Globallashuv va raqamlashtirish bir tomondan bilim, muloqot va ijodkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan qadriyatlar tizimiga turli ta’sirlarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois inson ma’naviy dunyosini rivojlantirish zamonaviy jamiyatning strategik vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Insonning ma’naviy yetukligi uning zamonaviy o‘zgarishlarga moslashishinigina emas, balki ushbu o‘zgarishlarni ongli ravishda boshqarish va ularga ijobiy mazmun berish qobiliyatini ham belgilaydi. Ma’naviy qadriyatlar, tanqidiy tafakkur, axloqiy mas’uliyat, milliy o‘zlik va umuminsoniy tamoyillarning uyg‘unligi jamiyat transformatsiyasining insonparvar yo‘nalishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Toffler A. The Third Wave. – New York: William Morrow, 1980.
5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.

INSON FALSAFASI VA MILLIY MEROS UYG‘UNLIGI ASOSIDA VATANPARVAR SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TRANSFORMATSION OMILLARI

Siddiqov Ulug‘bek Gafforovich
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Dunyo miqyosida g‘oyaviy raqobat va kognitiv jarayonlar keskinlashib borayotgan hozirgi davrda inson falsafasi va milliy meros uyg‘unligi asosida vatanparvar shaxsni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsning ma’naviy-axloqiy daxlsizligini muhofaza qilish hamda yoshlar qalbida vatanparvarlikni qaror toptirish milliy-ma’rifiy ildizlarga murojaat qilishni taqazo etadi. Bugungi geosiyosiy sharoitda O‘zbekiston uchun Uchinchi Renessans g‘oyasi boy merosni zamonaviy innovatsiyalar bilan sintez qiluvchi poydevoriy konseptdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi inson falsafasi va milliy meros uyg‘unligining vatanparvar shaxsni shakllantirishdagi transformatsion rolini ochib berishdan iboratdir.

Falsafiy va aksiologik yondashuvlar nuqtai nazaridan vatanparvarlik xalqning ko‘p asrlik davlatchilik tajribasi va madaniy xotirasidan oziqlanuvchi murakkab fenomen hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat transformatsiyasi jarayonida yosh avlodning fuqarolik o‘zligini asrab qolish milliy ma’rifiy poydevorga tayanishni talab etadi [1, b. 123]. Shu ma’noda, inson falsafasi va milliy meros uyg‘unligi shaxsni modellashtirishning strategik platformasi bo‘lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyodagi intellektual meros Vatan ravnaqi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan vatanparvar shaxs konsepsiyasining nazariy manbasidir.

Sharq mutafakkirlarining falsafiy ta’limotlarida ilm-fan, ma’rifat va axloq jamiyat barqarorligining bosh omili sifatida e’tirof etilgan. Xususan, Forobiyning fozil inson va jamiyat a’zolarining o‘zaro hamkorligi haqidagi qarashlari vatanparvarlikning ilmiy-falsafiy poydevorini tashkil etadi. Jadidchilik harakati vakillarining ma’rifatparvarlik an’analari milliy o‘zlikni anglashda vatanparvarlikning sifat jihatidan yangi bosqichini shakllantirdi. Jadidlarning ta’lim va tarbiyani ustuvor deb bilgan qarashlari inson falsafasining amaliy ifodasidir [2, b. 123].

Aksiologik nuqtai nazaridan, milliy meros yoshlarda mafkuraviy immunitet va fuqarolik mas’uliyatini qaror toptirishda ichki ma’naviy qalqon vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ma’naviy-mafkuraviy xurujlar kuchaygan sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini milliy meros va inson falsafasining g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirish orqali tashkil etish lozim. Tarixiy xotiraga tayangan qadriyatlar tizimi shaxsda tashqi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tabiiy aksil-ta’sir mexanizmini yaratadi.

Uchinchi Renessans g‘oyasi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida milliy yuksalish sari yuz tutgan ma’naviy-konseptual strategiyasidir. Ushbu g‘oyaning markazida raqobatbardosh, zamonaviy bilimlarni egallagan va o‘z ildizlariga sodiq bo‘lgan vatanparvar shaxs modeli turadi. Inson falsafasi va milliy merosni zamonaviy ilm-fan hamda gumanitar bilimlarning ilg‘or yutuqlari bilan sintez qilish muhim talabdir [3, b. 123]. Tarixiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik tushunchalari uzviy dialektik bog‘liqlikka ega.

Ma’rifatdan ayri bo‘lgan vatanparvarlik emotsional xarakterga ega bo‘lib, u axborot xurujlari sharoitida o‘zining mustahkamligini yo‘qotadi. Aksincha, ilmiy va ma’rifiy poydevorga tayanuvchi vatanparvarlik shaxsda tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Bu esa mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan real amaliy faoliyatda o‘z ifodasini topadi. Ontologik jihatdan vatanparvar shaxsni shakllantirish uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo‘lib, u tarixiy tajriba uyg‘unligini talab etadi.

O‘tmish renessanslari natijasida yaratilgan manbalarni zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar orqali yoshlarga yetkazish tahliliy idrok etish imkonini beradi [4, b. 123]. Bu jarayon yosh avlodda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shaxsiy e’tiqod darajasiga ko‘taradi. Sotsiologik yondashuv doirasida milliy meros va inson falsafasini targ‘ib etish ta’lim tizimi, oila va mahalla hamkorligini taqozo etadi. Ta’lim platformalarida milliy tariximizni zamonaviy vizual formatlarda sunish targ‘ibot samaradorligini keskin oshiradi.

Inson falsafasi va milliy meros uyg‘unligi asosida vatanparvar shaxsni shakllantirish Yangi O‘zbekistonning ma’naviy barqarorligining shartidir. Tarixiy ma’rifatparvarlik an’analarini zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos holda tadbiq etish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalish yoshlarda yuksak fuqarolik mas’uliyatini tarbiyalashning intellektual ustunlarini mustahkamlaydi [5, b. 123]. Insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish zamonaviy jamiyat transformatsiyasining bosh mezoni hisoblanadi.

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ma’rifat va axloqning o‘rni beqiyosdir. Jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish orqali barqaror taraqqiyotga erishiladi. Vatanparvarlik g‘oyalari yoshlarning ilmiy va ijodiy faoliyatida o‘z aksini topishi lozim. Bu esa mamlakatimiz kelajagi uchun xizmat qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida inson falsafasi va milliy meros uyg‘unligi asosida vatanparvar shaxsni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Tarixiy merosni zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan boyitish yoshlarda mustahkam e’tiqodni qaror toptiradi. Bu jarayon Yangi O‘zbekistonni harakatlantiruvchi yetakchi kuchni voyaga yetkazishning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 460 b.
2. Erkaev A. Uchinchi Renessans: ma’rifiy va institutsional poydevor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 220 b.
3. Jorayev N. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va milliy tiklanish falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 185 b.
4. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.
5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY HUQUQLARNI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY HUQUQIY MEXANIZMLARI

Hayotov Farmon Davlat o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi

Oila jamiyatning eng muhim va asosiy ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyasi, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni egallashi, avvalo, oiladagi muhit bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli oilani mustahkamlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda oilaviy munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solish har qanday demokratik davlatning muhim vazifalaridan biridir.Bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Nikoh tuzish va bekor qilish, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, aliment majburiyatlari, mulkiy munosabatlar, farzand tarbiyasi, oilaviy nizolar hamda oiladagi shaxslarning huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar huquqiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda oilaning huquqiy himoyasi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan [1]. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik, xususan, Oila kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishning muhim asosini tashkil etadi.Mazkur sohada amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning asosiy maqsadi nafaqat oilani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, balki har bir oila a’zosining huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy huquqlarni himoya qilishning mavjud mexanizmlarini o‘rganish va ularni takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

1. Oilaviy huquqlarning mazmuni va ularni himoya qilishning huquqiy asoslari

Oilaviy huquq shaxslarning nikoh va oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi huquq sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaviy huquq doirasiga nikoh tuzish va bekor qilish, er-xotinning huquq va majburiyatlari, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, farzandlikka olish, aliment majburiyatlari, vasiylik va homiylik bilan bog‘liq munosabatlar kiradi.Oilaviy huquqlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ko‘pincha shaxsning eng muhim va daxlsiz manfaatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bolaning ota-onasi bilan yashash, tarbiya olish, ta’lim olish, o‘z manfaatlarini himoya qilish kabi huquqlari uning normal rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.Oilaviy huquqlarni himoya qilish, avvalo, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan kafolatlar orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy normalar oilaning davlat va jamiyat muhofazasida ekanligini belgilash bilan birga, oilaviy munosabatlarda shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash uchun huquqiy zamin yaratadi.

Oila kodeksi esa oilaviy munosabatlarning aniq huquqiy tartibini belgilaydi. Unda nikoh tuzish shartlari, er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquqlari, ota-ona va bolalarning huquq hamda majburiyatlari, aliment undirish, nikohni bekor qilish va boshqa ko‘plab masalalar tartibga solingan [2].Oilaviy huquqlarni himoya qilishda xalqaro huquqiy hujjatlar ham muhim o‘rin tutadi. Bola huquqlariga oid xalqaro standartlar, inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlar davlatlarning oilaviy munosabatlarda inson huquqlarini ta’minlash borasidagi majburiyatlarini belgilaydi. Shunday qilib, oilaviy huquqlarni himoya qilishning huquqiy asoslari ko‘p bosqichli

tizimdan iborat bo‘lib, unda Konstitutsiya, qonunlar, qonunosti hujjatlari va xalqaro huquqiy normalar o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi.

2. Oilaviy huquqlarni himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari

Oilaviy huquqlarni himoya qilish mexanizmi deganda shaxsning oilaviy huquq va manfaatlarini buzilishdan saqlash, buzilgan huquqlarni tiklash hamda qonuniy manfaatlarni ta’minlashga qaratilgan huquqiy vositalar tizimi tushuniladi. Bunday mexanizmlarning eng muhim shakllaridan biri sud orqali himoya qilishdir. Oilaviy nizolar yuzaga kelgan taqdirda manfaatdor shaxs o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega [3]. Ayniqsa, nikohni bekor qilish, aliment undirish, bolaning yashash joyini belgilash, ota-onalik huquqini amalga oshirish va mulkiy nizolar kabi masalalarda sud himoyasi muhim ahamiyatga ega.

Sud himoyasining afzalligi shundaki, u nizoni qonun asosida hal etish, taraflarning huquq va majburiyatlarini aniqlash hamda zarur hollarda buzilgan huquqni tiklash imkonini beradi. Shu bilan birga, oilaviy nizolarning o‘ziga xos xususiyati sababli sud tomonidan ishlarni ko‘rib chiqishda voyaga yetmagan bolalarning manfaatlariga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Oilaviy huquqlarni himoya qilishning yana bir muhim yo‘nalishi — aliment majburiyatlarini ta’minlashdir. Ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlarini moddiy ta’minlash majburiyati bolaning huquqlarini ta’minlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Aliment majburiyatlarining qonuniy belgilanishi bolaning zarur moddiy ta’minotdan mahrum bo‘lib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, davlat organlari va boshqa vakolatli tashkilotlarning faoliyati ham oilaviy huquqlarni himoya qilish mexanizmining muhim qismidir. Oilani qo‘llab-quvvatlash, ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand oilalarga yordam ko‘rsatish kabi yo‘nalishlar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.Zamonaviy sharoitda oilaviy huquqlarni himoya qilishda raqamlashtirish jarayonlarining ham ahamiyati ortib bormoqda. Davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi fuqarolarning huquqiy xizmatlardan foydalanishini osonlashtiradi, ayrim huquqiy jarayonlarning tezkorligi va shaffofligini oshiradi.

3. Ota-ona va bolalar huquqlarini himoya qilish

Oilaviy munosabatlarda eng muhim masalalardan biri ota-ona va bolalar huquqlarini ta’minlashdir. Bola jamiyatning alohida himoyaga muhtoj qatlami sifatida qaraladi. Shu sababli uning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolaning oilada tarbiya olish, ota-onasini bilish, ular bilan muloqot qilish, ta’lim olish, sog‘lom rivojlanish va o‘z manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq huquqlari mavjud [3]. Ota-onalar esa farzandlarini tarbiyalash, ularning sog‘lig‘i, jismoniy va ma’naviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilish kabi majburiyatlarga ega. Ayrim hollarda ota-ona o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bolaning manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, nikoh bekor qilingandan keyin bolaning kim bilan yashashi, ikkinchi ota-onasi bilan muloqot qilishi yoki uni moddiy ta’minlash bilan bog‘liq nizolar yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda bolaning manfaatlari ustuvor hisoblanishi va huquqiy mexanizmlar aynan shu maqsadga xizmat qilishi kerak.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki uni cheklash kabi choralar ham bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biridir. Biroq bunday choralar oilaviy munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi sababli qonuniy asoslar mavjud bo‘lgan hollardagina qo‘llanilishi lozim. Shuningdek, bolaga nisbatan zo‘ravonlik, e’tiborsizlik yoki boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish oilaviy huquqlarni himoya qilishning muhim yo‘nalishidir. Bunda faqat huquqbuzarlik sodir bo‘lgandan keyin javobgarlik choralarini qo‘llash emas, balki profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish ham muhimdir.

4. Oilaviy nizolarni hal etish va huquqiy himoyani takomillashtirish masalalari

Oilaviy nizolar boshqa huquqiy nizolardan o‘zining shaxsiy va hissiy xususiyati bilan farq qiladi. Chunki bunday nizolarning taraflari ko‘pincha bir-biri bilan yaqin qarindoshlik yoki nikoh munosabatlarida bo‘ladi. Shu sababli oilaviy nizolarni hal etishda faqat huquqiy natijaga emas, balki oilaviy munosabatlarning kelgusidagi holatiga ham e’tibor qaratish muhim. Oilaviy nizolarni

sudgacha hal etish, kelishuvga erishish va yarashtirish imkoniyatlaridan foydalanish nizolarni tez va samarali hal etishga xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, voyaga yetmagan farzandlar mavjud bo‘lgan oilalarda nizoni imkon qadar tinch yo‘l bilan hal qilish bolaning manfaatlariga mos keladi. Shu bilan birga, oilaviy nizolarni hal etishda mediatorlik institutidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Mediatsiya taraflarga o‘zaro kelishuvga erishish, nizoni sudgacha yoki sud jarayoni davomida murosali tarzda hal qilish imkonini beradi [8].

Amaliyotda oilaviy huquqlarni himoya qilish bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini yetarli darajada bilmasligi, ayrim oilaviy nizolarning uzoq davom etishi, aliment majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq muammolar, oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurati shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, aholining huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Fuqarolar o‘z huquqlarini qanchalik yaxshi bilsa, ularni qonuniy yo‘l bilan himoya qilish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari, oilaviy huquqlarni himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq. Oilaviy muammolarni faqat bitta davlat organi faoliyati orqali hal etish qiyin. Shu sababli huquqiy, ijtimoiy va psixologik yordam mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish samarali natija beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oilaviy huquqlarni himoya qilish jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Oila shaxsning shakllanishi va jamiyat rivojida muhim o‘rin tutishi sababli oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish va oilaning har bir a’zosi huquqlarini samarali himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Oilaviy huquqlarni himoya qilish samaradorligini oshirish uchun sud himoyasi bilan bir qatorda nizolarni muqobil hal etish, mediatsiya, huquqiy maslahat, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi hamda raqamli huquqiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish muhimdir.

Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aliment majburiyatlarining samarali bajarilishini ta’minlash, oiladagi nizolar va zo‘ravonliklarning oldini olish, shuningdek, aholining oilaviy-huquqiy savodxonligini oshirish kelgusidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shunday ekan, oilaviy huquqlarni himoya qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki oilaviy nizolarning oldini olish, oilani mustahkamlash va jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oilaviy munosabatlarga oid qarorlari.
9. O‘zbekiston Respublikasida oila va bolalikni himoya qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy materiallar.

TEXNOLOGIK TARAQQIYOT DAVRIDA INSON: IMKONIYATLAR VA FALSAFIY MUAMMOLAR

[1,2] Iskandarova Fotima Ibrohim qizi, [1]Jurayev Husniddin Oltinboyevich,

[2]Qurbonova Gulnoz Negmatovna,

[1]Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti, Buxoro davlat universiteti

[2]Ijtimoiy fanlar kafedrasi, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Inson masalasi falsafaning eng qadimiy va doimiy dolzarb mavzularidan biridir. Insonning mohiyati, uning jamiyatdagi o‘rni, erkinligi, ma’naviyati va kelajagi haqidagi savollar turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos mazmun kasb etgan. Bugungi kunda esa ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, globallashuv, raqamli muhitning kengayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi inson haqidagi falsafiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda.

Zamonaviy jamiyat transformatsiyasi inson hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ta’lim, mehnat, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va kundalik muloqot shakllari yangi texnologiyalar ta’sirida o‘zgarib bormoqda. Natijada insonning jamiyatdagi mavqeyi, uning imkoniyatlari va mas’uliyati masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat transformatsiyasining eng muhim omillaridan biri — raqamlashtirish jarayonidir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli xizmatlar va sun’iy intellekt insonning axborot olish, bilim egallash va muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bir tomondan, bu jarayon insonning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ikkinchi tomondan esa axborotning haddan tashqari ko‘pligi, virtual muhitga qaramlik, shaxsiy hayot daxlsizligi va insoniy muloqotning o‘zgarishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy inson faqat texnologiyalardan foydalanuvchi mavjudot sifatida emas, balki texnologik taraqqiyotning ma’naviy va axloqiy yo‘nalishini belgilovchi subyekt sifatida qaralishi lozim. Texnologiya inson hayotini yengillashtirishi mumkin, ammo u insonning ma’naviy ehtiyojlari, axloqiy tanlovi va ijtimoiy mas’uliyatini to‘liq almashtira olmaydi.

Jamiyat transformatsiyasi jarayonida inson erkinligi masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar insonning tanlov imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda turli axborot oqimlari va ijtimoiy ta’sirlar shaxsning mustaqil fikrlashiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli insonning tanqidiy fikrlashi, axborotni tahlil qila olishi va ongli tanlov qilishi zamonaviy jamiyatning muhim talablaridan biriga aylanmoqda.

Bundan tashqari, globallashuv jarayoni turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirmoqda. Bu jarayon insoniyat uchun o‘zaro tajriba almashish, hamkorlik qilish va umumiy muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatini yaratadi. Biroq milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Inson o‘z milliy va madaniy o‘zligini saqlagan holda global jarayonlarda faol ishtirok etishi muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda inson falsafasining asosiy vazifalaridan biri - texnologik taraqqiyot va insonparvarlik tamoyillari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. Taraqqiyotning asosiy mezoni faqat iqtisodiy yoki texnologik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki insonning hayot sifati, huquq va erkinliklari, ma’naviy kamoloti hamda jamiyatdagi munosabatlarning insonparvarlik darajasi bilan ham belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyat transformatsiyasi insonning hayot tarzi va dunyoqarashida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamlashtirish, globallashuv va sun’iy intellekt kabi omillar inson oldida yangi imkoniyatlarni ochish bilan birga, muayyan falsafiy va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitda inson falsafasi shaxsning erkinligi, qadr-qimmati, ma’naviyati, mas’uliyati va o‘zligini anglash masalalarini chuqur o‘rganishi zarur. Zamonaviy taraqqiyotning markazida inson va uning manfaatlari turishi lozim. Texnologik rivojlanish insonparvarlik, axloqiy mas’uliyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgandagina jamiyatning barqaror va ijobiy transformatsiyasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Verbeek, P.-P. Moralizing Technology: Understanding and Designing the Morality of Things. — Chicago: University of Chicago Press, 2011.
2. Floridi, L. The Fourth Revolution: How the Infosphere Is Reshaping Human Reality. — Oxford: Oxford University Press, 2014.
3. Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. — New York: PublicAffairs, 2019.
4. Floridi, L. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. — Oxford: Oxford University Press, 2023.

5. Shermuhamedova, N. A. Texnika falsafasi. — Toshkent: Noshir, 2018.
6. Shermuhamedova, N. A. Inson falsafasi. — Toshkent: Noshir, 2016.

АСПЕКТЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО БЫТИЯ В ТАСАВВУФЕ

Алиева Фаргана
Бакинский государственный университет Научно -исследовательская лаборатория имени «Деде Горгуда»
Соискательница Навоийского государственного университета, Узбекистан
https://orcid. org/ 0009-0001-1030-8776
farka85@gmail.com

В контексте тасаввуфа данные наставления ориентируют человека на внутреннее очищение и сосредоточение помыслов на постижение Божественной реальности, поскольку подлинный смысл бытия заключается в духовном приближении к Аллаху. В суфийской парадигме человек скорее может быть атрибутивно описан не как homo ludens / *человек играющий,* а как homo amens / *человек любящий.* Делается вывод о том, что суфийской коммуникативистике чужда игра как онтология, жизнь для суфия – не игра, а путь любви к Творцу, поскольку бытие Всевышнего и бытие человека постулируется как реальное, а не как воображаемое [П. А. Магомедова, А. М. Кангиева, 2022].

В тасаввуфе имеется тонкая грань между понятием «хал» и «макамат». Хал (экстаз, душевное озарение салика) дарованное Свыше, а макамат это нравственная ступень, результат собственных усилий *путника.* В суфийской среде начинается складываться мистическая концепция «Пути к Богу» (тарик), согласно которой постижение Истины (Абсолюта) осуществляется через прохождение ряда «стоянок» (макамат; ед.ч. макам) и путем переживания мистических «состояний» (ахвал;е д.ч. хал). «Состояния» служат обозначением особых духовных состояний суфия, достигнутых им в ходе интуитивного познания, когда суфий ощущает присутствие божественного внутри себя, и считаются дарованными свыше, тогда как «стоянки» обозначают различные стадии процесса богопознания, достигнутые, или «приобретенные», благодаря «усердию» (муджахада) в суфийской духовной практике [И. Р. Насыров,2009:52].

Суфийский шейх, теолог, философ, знаток музыки Абдурахман Джами, отметил уникальность 12 макамов. Каждый макам оказывает на слушателей специфическое воздействие, вызывая шквал эмоций. Однако по словам учёной Тамилы Джани-заде: «При попытках определить, что же есть макам как понятие музыкальной культуры и что составляет его сущностные структурообразующие признаки, возникают значительные методологические трудности. Макам трактуется в прямом значении слова («место»), как звуковысотная структура (ладовый звукоряд, тип мелодии, мелодическая модель), способ (принцип) развития, жанр, модель для импровизации, канон (жанровый, художественный, технологический) и т.д. В этих «представлениях» просматривается упорное стремление «ухватить» специфику рассматриваемого феномена, включив его «разными путями в общемировую музыкальную культуру». Но для «понятийного описания» данной музыкальной формы «необходим более широкий контекст культуры, обращение к тем её немузыкальным духовным пластам, с которыми музыка в определённый исторический период особенно сближалась». Такими явлениями видятся «поэтическая газель и суфизм повлиявший на её «жанровые особенности» [Т. Атаев, 2017]. Постижение философии тасаввуфа требует осмысления того, что жизнь для суфия выступает не как обыденная игра, а духовное совершенствование, зиждущаяся на борьбе с нафсом — низшей мирской природой человека — и в его внутреннем преображении в стремлении приблизиться к Божественной реальности и удостоиться Божественной милости.....Игра не онтологична для суфия, поскольку игра описывает мирскую сторону суфия, обращенную к исчезающему миру, проявление полноты разнообразия его эмоций. Выше эмоциональной сферы в суфийской парадигме – сфера духа. Поэтому атрибутивное свойство суфия – это

постоянное приближение к любви Господа, постоянное состояние обращенности к Господу и надежда на ответ Творца [П. А. Магомедова, А. М. Кангиева, 2022].

Человек играющий – это одна из граней суфия, его органичная сторона. В исламском мистицизме (тасаввуфе) феномен игры может рассматриваться в двух аспектах: во-первых, как дозволенная форма деятельности, основанная на свободе самовыражения в условно ограниченном пространственно-временном контексте; во-вторых, как любая деятельность, не связанная с поминанием (зикром) и познанием Всевышнего Аллаха. В Священном Коране земное бытие человека отождествляется с бренной забавой и иллюзорным видением. В суфийско-философской интепретации по данному высказыванию земная жизнь (дунья) воспринимается, как искушение скрывающее под своей внешней завесой (хиджаб), духовную западню (гафла). Именно поэтому коранические аяты неоднократно предостерегают верующих от чрезмерной привязанности к миру дунья: «Знайте, что мирская жизнь - всего лишь игра и потеха, украшение и похвальба между вами, а также стремление обрести побольше богатства и детей. Она подобна дождю, растения после которого восхищают земледельцев, но потом они высыхают, и ты видишь их пожелтевшими, после чего они превращаются в труху. А в Последней жизни есть тяжкие мучения и прощение от Аллаха и довольство. Мирская жизнь - всего лишь предмет обольщения» [Коран,57:20–29]. Резюмируя вышесказанное, можно сделать вывод, что музыка во всем многообразии своих ритмических проявлений играет специфическую роль как в духовном, так и в телесном аспектах человеческого бытия

Литература:

1. Газизова Б. *Роль звука в суфийских духовных практиках.* https://designschool.am/project/505e23bdb8964542ae663b3d457f83a1
2. Шахбазов Ф. (2016). *Аспекты изучения связей музыки и медицины на основе Азербайджанского музыкального фольклора*, Министерство Образования Азербайджанской Республики Бакинская музыкальная академия имени Узеира Гаджибейли, с.9. https://aak.gov.az/upload/dissertasion/sen/sen_n_saf_30_09_16.pdf
3. Насыров И. Р. (2009). *Духовная практика в исламском мистицизме (суфизме): альтернатива откровению или имитация*, Философский журнал, с.56. https://cyberleninka.ru/article/n/duhovnaya-praktika-v-islamskom-mistitsizme-sufizme-alternativa-otkroveniyu-ili-imitatsiya
4. Ток Э. (2014). *Ней у мевлевийских поэтов XVII века*, журнал *Mediterranean Journal of Humanities (*Средиземноморский журнал гуманитарных наук*)*. — Том IV, № 2, с. 2. https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/3708081
5. Низамов А. (1998). *Суфизм в контексте музыкальной культуры народов в Центральной Азии*.

ФРАГМЕНТАРНОСТЬ, РЕАКТИВНОСТЬ И ЦЕЛОСТНОСТЬ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВНУТРЕННЕГО СОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА

Вильданова М.У.

Уфимский университет науки и технологий

Высшая школа философии, психологии и социологии г. Уфа, аспирант 3 г.о.

Научный руководитель – Елхова Оксана Игоревна, доктор философских наук, доцент, профессор кафедры философии и культурологии УУНиТ

Вопрос о внутренней целостности личности и её нравственной устойчивости остаётся одним из ключевых для философского осмысления современного общества, переживающего интенсивные социальные трансформации. Особую значимость он приобретает применительно к духовно-нравственным основаниям человеческого существования, на которых базируется устойчивость как отдельной личности, так и общества в целом.

Современная коммуникация развивается стремительно. Мы обмениваемся сообщениями быстро, часто импульсивно, почти не оставляя времени на осмысление.

Внешне это создаёт впечатление активной вовлечённости: человек постоянно взаимодействует, реагирует, комментирует, участвует в обсуждениях. Но если присмотреться внимательнее, становится заметно, что такая насыщенность не ведёт к углублению взаимопонимания.

В этом проявляется характерная черта современной культуры: многочисленные связи не обеспечивают целостности. Человек может постоянно быть на связи и при этом ощущать растущую внутреннюю дистанцию между собственными мыслями, чувствами и действиями. Разрыв возникает не из-за отсутствия общения, а из-за того, что скорость обмена информацией вытесняет способность удерживать более широкий контекст.

Эта фрагментарность затрудняет повседневное взаимодействие: эмоции усиливаются быстрее, чем становятся понятными; решения принимаются до того, как появляется их обоснование. Человек ориентируется на непосредственный стимул и редко успевает увидеть ситуацию в целом. То есть извне приходит стимул, и он на него реагирует. О стимуле и реакциях на этот стимул в начале XX века были исследования физиолога, создателя науки о высшей нервной деятельности академика И.П. Павлова [1, с. 21].

Сознание человека имеет ограничения, мы способны фиксировать лишь малую часть происходящего и редко улавливаем более широкие связи между событиями. Человеческое внимание избирательно: оно фокусируется на одном участке ситуации, оставляя остальное на периферии. Такое восприятие можно сравнить с лучом фонарика в тёмной комнате: то, что попадает в луч света, становится важным и определяющим, а всё остальное исчезает из поля зрения, хотя именно оно может задавать общий контекст. Из-за этого человек часто реагирует не на реальную структуру события, а на его локальный фрагмент.

Фрагментарность современного сознания проявляет более глубокую проблему, связанную с самой природой человеческого «я». Человек воспринимает себя как автономного субъекта, который действует, принимает решения и определяет собственные состояния. Однако философские традиции, крайне далекие друг от друга по времени и культурному контексту, сходятся в том, что личность не является цельной и самостоятельной сущностью.

В марксистской философии человек определяется как совокупность общественных отношений. Это определение было сформулировано К. Марксом в «Тезисах о Фейербахе»: «Сущность человека не есть абстракт, присущий отдельному индивиду. В своей действительности она есть совокупность всех общественных отношений» [2, с. 3]. Это не характеристика внешнего окружения человека, а указание на внутреннюю структуру, которая формируется не из индивидуального выбора, а из включенности в связи, не контролируемые сознанием. Реакции и представления индивида в этом контексте являются не выражением автономной сущности, а эффектами тех отношений, в которые он включён.

В классической философии буддизма есть понятие упадана, которое раскрывает одного из аспектов человека – привязанности, когда он, воспринимая объект, отождествляется с ним. Так, человек, схватывая объект и мир в целом, конструирует себя. Отношение к телу, к переживаниям, к другим людям, к происходящему формирует конфигурацию человека, не как субстанции, а как движущихся структур привязанностей. В упадане Будда видел причину внутренней зависимости человека от своих привязанностей, но и причину порабощения в сансаре. В этой связи он говорил о непривязанности как основе освобождения – нирваны. Буддийская логика взаимозависимого возникновения человека и мира явлений показывает, что любые качества – «хорошее» и «плохое», «длинное» и «короткое» существуют лишь относительно этих явлений и не принадлежат вещам сами по себе. «Зависимое возникновение» означает, что одна вещь появляется в зависимости от другой, в то время сама по себе она не обладает никаким конкретным существованием. То же самое относится и ко всему остальному миру: «хорошее» зависит от «плохого», а «плохое» – от «хорошего». Всё подобно этому. То же относится и к человеку: он проявляется только через общественные отношения и никогда не существует

как самодовлеющая и замкнутая отдельность. Понятие «общественные отношения», передающее значение всеобщей относительности, обусловленности, взаимозависимости человека мироздания, отсутствия в нём какой бы то ни было самостоятельной, независимой сущности, включая и самого человека [3, с. 51].

М.К. Мамардашвили, размышляя о природе сознания, также указывал, что значительная часть того, что человек считает своими переживаниями и решениями, возникает в слоях, не поддающихся прямому наблюдению. Он пишет: «В самом деле, ведь когда мы сталкиваемся, например, с феноменом любви, то так или иначе допускаем, что ее внешнее выражение (то, как она реализуется, высказывается, проявляется в тех или иных поступках) может порой не иметь ничего общего с действительным положением дела. И, следовательно, по явлениям нельзя судить о том, что является, наблюдается... Существо, которое не хочет расставаться с привычной ему жизнью, подставляя в этом случае под действительную мысль или действительные чувства массу подменных образований. Существуют целые слои, в которых начинает в результате жить тот или иной мысленный предмет только потому, что человек не хочет расстаться с самим собой. С самим себе любезным. Это, так сказать, удобные ему истины, удобные ему чувства, продолжающие его выживаемость или приспособление в условиях окружающей среды, положения» [4, с. 45]. Сознание растянуто, многослойно, и его эффекты можно описывать лишь как проявления целостностей, которые не складываются из последовательности отдельных мотивов. Поэтому любое действие или реакция личности – это всегда выражение не единой сущности, а множества одновременно действующих отношений и структур.

Такое понимание личности делает очевидным, почему современное сознание столь легко распадается на фрагменты: человек переживает только те элементы отношений, которые попадают в поле его внимания, но не видит системы, из которой эти элементы возникают. Сознание действует как узкий луч света, освещающий лишь один участок сложной многослойной структуры. В результате реакции кажутся самостоятельными, а состояние хаотичным, тогда как за ними стоят скрытые взаимосвязи, не наблюдаемые напрямую.

Если рассматривать внутреннее состояние человека как структуру отношений, а не как автономную сущность, становится понятным, почему реакции, переживания и оценки нередко начинают усиливать друг друга, образуя нарастающее напряжение. Этот процесс был описан Грегори Бейтсоном через понятие схизмогенеза – модели, в которой взаимодействующие элементы не стремятся к равновесию, а, напротив, постепенно расходятся, усиливая различия [5, с. 104]. Хотя исходно это понятие применялось к межличностному и культурному взаимодействию, сама логика схизмогенеза позволяет рассматривать его и как механизм внутренней динамики человека.

Схизмогенез проявляется тогда, когда определённая реакция не осмысливается как часть целостной структуры, а фиксируется отдельно и вызывает ответ в том же направлении. Внутри личности это выглядит как постепенное усиление определённых состояний: тревога порождает ещё большую тревогу; раздражение вызывает новые поводы для раздражения; сравнение себя с другими усиливает неудовлетворённость, которая снова приводит к сравнению.

Процессы внутреннего расхождения проявляются не только как нарастающее различие между состояниями, но и как определённые структурные паттерны. Бейтсон различал три типа взаимодействий – симметрические, комплементарные и обоюдные, которые описывают не содержание состояний, а их форму, то есть способ, которым реакции соотносятся друг с другом. Эти паттерны могут быть применены не только к межличностному взаимодействию, но и к динамике внутренней жизни человека.

Симметрический паттерн основан на принципе сопоставления: каждое состояние вызывает ответное состояние того же порядка. Если одна часть внутренней структуры усиливает напряжение, другая отвечает аналогичным усилением; если возникает стремление к превосходству, в ответ появляется внутреннее требование соответствия. На

уровне субъективного опыта это проявляется как внутреннее соревнование: человек одновременно предъявляет к себе взаимоисключающие требования, сравнивает себя с собственными ожиданиями и тем самым постоянно увеличивает дистанцию между тем, что он считает должным, и тем, что является реальным.

Комплементарный паттерн связан с противоположностью ролей. Внутри личности он проявляется, когда одна часть структуры занимает позицию доминирования, а другая подчинения; одна контроля, другая зависимости; одна оценки, другая самооправдания. В результате личность перестаёт действовать как единое целое: внутренние позиции начинают поддерживать друг друга, но не ведут к целостности, а закрепляют разделённость.

Обоюдный паттерн описывает случаи, когда реакции не усиливают противоположности и не зеркалят друг друга, но расходятся в разные стороны, не образуя устойчивой формы. Во внутренней динамике это проявляется как состояние неопределённости: человек колеблется между различными способами реакции, не может удержать одну линию поведения, и структура распадается не через усиление различий, а через отсутствие устойчивого отношения между элементами.

Если внутренние состояния человека формируются через отношения, а не через автономное «я», то устойчивость не может появиться из самих состояний. Они меняются, конкурируют между собой и подчиняются различным линиям развития. Поэтому единство личности не возникает как сумма реакций или свойств, а требует точки, которая не принадлежит этим изменениям. В разных философских традициях эту точку описывали по-разному: как норму, закон, форму или духовный принцип.

Такое основание выступает не внутренним состоянием, а ориентиром, которое человек признаёт более значимым, чем собственная реакция в данный момент. В этом смысле целостность не является свойством личности, а формой её отношения к тому, что превышает её частные переживания. Лишь при наличии такого ориентира внутренняя жизнь перестаёт распадаться на несогласованные фрагменты и приобретает возможность устойчивой структуры. Рассмотрение внутреннего опыта через структуру отношений показывает, что нестабильность современного человека связана не с отдельными состояниями, а с отсутствием основания, которое могло бы соотнести их между собой. Целостность в этом контексте не задаётся автоматически и не является естественным состоянием сознания. Она требует постоянного соотнесения своих переживаний, оценок и действий с тем, что не определяется ситуацией и не меняется вслед за реакциями. Именно такая ориентированность позволяет внутренней структуре удерживать форму и снижает вероятность её распада на несогласованные фрагменты. В условиях ускоренных процессов и изменчивых контекстов эта задача становится особенно значимой.

Таким образом, устойчивость внутреннего опыта личности оказывается неразрывно связана с духовно-нравственными ориентирами, задающими человеку меру и направление вне зависимости от изменчивости актуальных состояний. В этом смысле философский анализ внутренней целостности человека выходит за рамки индивидуальной психологии и приобретает социальное измерение: нравственная устойчивость личности выступает необходимым условием социальной устойчивости общества в целом, особенно в условиях ускоренных коммуникационных и культурных трансформаций.

Литература

1. Павлов И. П. Условный рефлекс. – М.: Издательство Академии медицинских наук СССР, 1952. – С. 21.
2. Маркс К. Тезисы о Фейербахе // Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. Т. 3. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1955. – С. 3.
3. Вильданов У.С. Человек в трансцендентально-философской мысли Востока: гносеологический анализ. – Уфа: РИО БГУ, 2006. – С. 51.
4. Мамардашвили М.К. Проблема сознания и философское призвание // Мамардашвили М.К. Как я понимаю философию. – 2-е изд., изм. и доп. – М.: Прогресс, 1992. – С. 45.

5. Бейтсон Г. Контакт культур и схизмогенез // Бейтсон Г. Экология разума: Избранные статьи по антропологии, психиатрии и эпистемологии / Пер. с англ. – М.: Смысл, 2000. – С. 104.

AXLOQ, MA'NAVIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY BARQARORLIK

ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ИНСОН ВА ИНСОН МОҲИЯТИ ҲАҚИДА

Саломова Ҳакима Юсуповна
Бухоро давлат университети
"Ислом тарихи ва манбашунослиги. Фалсафа" кафедраси
профессори, фалсафа фанлари доктори

Инсон танасини унинг моддий борлиқ сифатидаги тана аъзоларини - Ибн Сино қанчалик чуқур ва ҳартомонлама ўрганган бўлса, инсон моҳияти ҳақидаги фикр-мулоҳазалар, ижтимоий, диний, фалсафий олами, унинг маънавий-руҳий борлиғи, қадр-қиммати, унинг беқиёс қудратини Жалолиддин Румийчалик ҳеч ким шу қадар чуқур ва мантиқий изчилликда, ҳар томонлама аниқ очиб бермаган. Бошқача иборалар билан фикримизни ёритсак, Ибн Сино инсон танасининг (жисмининг) табиби саналса, Жалолиддин Румий инсон руҳий борлиғининг илмий тадқиқотчиси ҳамда табиби бўлган. Алишер Навоий Румийни – "илоҳий ишқ куйчиси, буюкликнинг кўз илғамас чўққиси" деб эъзозлаган бўлса, Джаведадзе Румий таълимотини "Инсон комил фалсафасидир", - деб таъкидлади.

Жалолиддин Румий уқтирганларидек, барча инсонларнинг туб илдизи ягона, бирдир. Бу илдиз ҳар бир инсоннинг қалбидаги билим, эътиқод, қалб софлигига асосланади. Инсон қалбидаги бу уч компонент бирлашса, инсон комилликка эриша олади.

Румийнинг форс-тожик, араб ва туркий тилларни жуда чуқур ўзлаштиргани ҳам унинг дунёқараши нақадар кенглигидан далолат беради.

Мавлоно Румий маънавий мероси бешта асарни ташкил этади. Аммо уларнинг ҳар бири улкан маънавий жавоҳир саналади. Ҳар бешшала асар ҳам олам ва инсон, инсон руҳи исёнлари, борлиқ, аёллар, зиддиятлар, баҳс-мунозаралар ҳақида.

1. "Маснавийи маънавий" (ушбу асарнинг бошқача номлари мавжуд: "Форсий Қуръон","Маънавият денгизи","Тасаввуф қомуси","Дунё китоби"). Китоб олти дафтардан иборат;
2. "Фиҳи мо фиҳи" ("Ичиндаги ичингдадир") – фалсафий маънавий асар;
3. "Девони Кабир" (ушбу асарнинг бошқача номлари: ёхуд "Куллиёти Шамс Табризий" шеърий девони, ёки "Девони Шамсул-ҳақойиқ" деб аталган). "Девони Кабир" 3365 ғазал вақасида; 15 таржеъ; 1994 рубоий ни ўз таркибига олган бўлиб, уларнинг умумий миқдори 42 000 байтни ташкил этади).
4. "Мавоизи мажолиси сабъа" Бу асар Жалолиддин Румийнинг етти ўғит ва панд-насиҳатларидан иборат;
5. "Макотиб" ёхуд "Мактубот" Мавлоно Румийнинг ёру-дўст ва муридларига ёзган 144 та мактубни ўз ичига олган мактублар тўплами.

Инсоннинг инсонлиги шундаки, у эришган даражаси билан ҳаргиз қаноатланмайди. У билим олиш, ўсиш, улғайишдан чарчамайди; киши нақадар билимли бўлса, маънавияти нақадар юксак бўлса, руҳи унга куч ато этиб, қалби жасорат билан, жисми куч билан тўлиша боради. Бундай қутлуғ фазилатни Оллоҳ фақат фаришта ва ҳайвон орасидаги мавжудот бўлган инсонга ато этган. Чунки инсон руҳи ҳамиша интилишда, ҳайвонликни тарк этиш учун курашда. Жалолиддин Румий инсон қалбидаги руҳий туғёнларни узлуксиз тараққиёт "кўзгуси" орқали ёритди. Жалолиддин Румий бошқа тасаввуф аҳлидан фарқли ўлароқ, қуйидаги ғояни илгари сурди:

1. Фақат соликлар эмас, одамзоднинг барча-барчаси узлуксиз тараққий қилиши керак. Бошқача ибора билан айтганда, Жалолиддин Румий бутун инсоният учун, дини, ранги,

миллати, жинси, мазҳаби ҳар хил бўлишидан қатъий назар, Ер сайёрасида яшайдиган барча одамларнинг узлуксиз ҳамжиҳатлик билан йўғрилган самарали, барча инсонларга фойдали тараққиётини назарга олди;

2. Инсон, одам - табиат тараққиётининг маҳсули, натижаси. Қуръонга таянган ҳолда, Парвардигор аввал жонсиз жисмларни, ундан ўсимликлар, ўсимлик тараққий этиб ҳайвонга айланди, ҳайвон тараққиётида одам пайдо бўлди:

Аз жумодий мурдаму нумий шудам,
В – аз нумо мурдам, зи ҳайвон сар задам.
Мурдам аз ҳайвонию одам шудам,
Пас, чи тарсам, кай зи мурдам кам шудам?
Жумлаи дигар бимарам аз башар,
То барорам аз малоик болу пар.
Аз малак ҳам боядам жастан зи жў:
“Кулли шайъин ҳолака ило вужуҳ”.
Бори дигар аз малак паррон шавам,
Он чи он дар ваҳм н-ояд-он шавам,
Пас одам гардам, одам чун арғунун,
Гуядам: “Аъно алайҳа рожеъун”.

Т а р ж и м а с и :

Жисмликдан кечиб, ўсимлик бўлдим,
Ўсимликдан кечиб, ҳайвонга дўндим.
Ҳайвонликдан кечиб, одам бўлдим.
Бас, нега қўрқайин, ахир, баридан кечиб (ўлиб)
Кам бўлганим йўқ-ку!
Энди одамликдан ҳам буткул кечмоқчиман
(одам сифатида ўлмоқчиман),
Токи фаришталардай қанот чиқарайин.
Аммо фаришталикдан ҳам сакраб ўтишим керак,
(чунки): “Бор мавжудот ҳалокатга юз тутади”[1]
Яна бир марта фаришталикдан парвоз этайин,
Хаёл бовар қилмайдиган не нарса бўлса,
Ўшанга айланайин.
Кейин куй каби ғойиб бўлайин йўқлик қаърига,
Шунда Тангрим десин: “Барчаси Ўзимга қайтиб келади”.

Мавлоно Румийнинг ушбу сатрларида олам, оламнинг айланиши, моддий олам жисмларининг бир сифатдан бошқа сифатга ўтиши, одам ва табиат, одам ва Оллоҳ орасидаги боғлиқлик, мунособат фалсафаси акс этишини англаш унчалик қийин эмас. Жонли ва жонсиз жисмлар алоқадорлиги, нотирик ва тирик олам алоқадорлиги, инсоннинг табиат борлиғи олдидаги бурч ва мажбуриятларини англатишга ҳаракат қилади.

Инсоннинг вазифаси нима? Ушбу саволга **Азизиддин Насафий** шундай жавоб беради: “Инсоннинг вазифаси – узлуксиз маърифатга интилиш ва нур билан тўлишиш ва илм топиб, мусаффолик сари талпинишдир”. Яна бир ўринда шундай дейди: “Одам нақадар маърифатли ва покиза бўлса, унинг жаннатдаги жойи ҳам шу қадар юксак бўлади”.

Жалолиддин Румийнинг бешта илмий – маънавий мероси орасидан айниқса учтаси – “Маснавийи маънавий”, “Фиҳи мо фиҳий” ҳамда “Девони Шамси Табризий” да инсон фалсафаси ҳақидаги энг нодир манба десак, асло хато қилмаган бўламиз. Барча асарларининг бош мавзуси – инсон, инсон борлиғи, унинг ички маънавий ва руҳий олами, ундаги зиддиятлар, ундаги уйғунлик ва келишмовчиликлар, орзу, ҳирс, ишқ, дард, кемтиклик ҳамда комилликка эришиш йўллари бирма-бир мантиқий изчиллик билан ёритилган.

[1] Қуръони каримда шундай дейилган.

Бу борада Мавлоно Жалолиддин Румийнинг “Мажолиси сабъа” –“Етти мажлис” асарини ҳам ўрни ҳам каттагина. Номини ўзиданоқ кўриниб турибдики, Румийнинг еттита мажлисининг ваъзлари ёзиб олинишидан вужудга келган асар.[2] Асар мағзини “томчи” (инсон), “денгиз” (Аллоҳ) ва “ҳаракат” ташкил этади. Ҳақиқатдан ҳам дунёдан пайғамбардан тортиб оддий авомгача, доҳийдан бошлаб шифокору, ўқитувчигача, қари инсондан бошлаб, гўдакгача, оқ танлидан тортиб қора танлигача, шоҳдан гадогача барча – барчани Румий томчиларга ўхшатади. Аммо томчилар бир-биридан фарқ қилади. Денгиз – Аллоҳ, Яратувчи. Румийнинг энг катта ютуқларидан бири одам ажратмаслиги. Ер юзида яшовчи ҳар бир инсон иккинчисидан шаклларда фарқ қилса, моҳиятда уларнинг эҳтиёжлари, дунёқараши, эътиқодлари, истак, орзулари бир-бирига ўхшайди, улар бир-бирини бойитади. Энг асосийси инсонни борича қабул қилади. Мусбат ва манфий қирралари билан, кемтиклиги-ю, ютуқлари билан кўрсата олган. Инсонларни оҳисталик билан, қалбига, ғурурига озор бермаган ҳолда, қалб кўзларини очишга оид йўлларни кўрсатишга интилади.

“**Инсон – томчи ва сел”.**

Инсон - “томчи”. Бу ерда Румий ажойиб фикрни билдиради:”Айрим томчилар тупроққа аралашиб, баъзилари япроққа осилиб, яна бировлари тупроққа аралашиб, баъзилари япроққа осилиб, яна бировлари ёвуз васвасалар комига учиб, ўзларини чормихга осадилар. Баъзи томчилар дарахтларнинг матонатлари сабаб уларнинг илдизларига сўрилиб кетадилар”...[3] Гўё Мавлоно шу кун аҳволини ёзаётгандек, қанчадан қанча инсонлар ўз фарзандини умрига зомин бўлмоқда, қанчадан қанча инсонлар ўз жигаргўшалари бўғзига арзимас бир мерос боис пичоқ тормоқда, ўз фарзандидан воз кечганлар қанча...умматим залолатга кетганда суннатимни маҳкам ушлаганлар бошқа тоифадир. Ҳар бир инсон бир олам. “Ҳар бир томчиси нима биландир машғул. Ким тикувчилик, ким этикдўзлик, яна кимдир сахийлик савдосига банди, тағин бириси чанг тинглаш ишқибози. Бошқа бири эса ҳид, рангларга боғланганидан денгизни тамоман унутиб юборган. У юз минг томчи сел галлари бир ерга тўпланишиб: “Пешқадам бўлгувчи зотлар (жаннат неъматларига эришишда ҳам) пешқадам бўлгувчи зотлардир” (“Воқеа” сураси, 10-оят) ҳукмидагидек, бир-бирларига суянганча йўл очиб оқиб кетгандилар.”[4] Инсонлар бор, бир-бирини суяйди, бир-бирига далда бўлади. Шу сабабдан бўлса керак, айнан “етти мажлис” асарида инсонларни “қора юзлилар”, “оқ юзлилар”, “дўзах ва жаннат эгалари”, “Зоҳид ва обид”лар, “жиноятккор”, “кофир кимсалар”, “аҳли сурат”, “аҳли маъни”[5], “иймон эгалари”га ажратиб кўрсатади. Сурат аҳли, зоҳирпарастлар дугёвий дуру жавоҳирларда ғарқ бўлганлар. Маъно аҳли эса маъно дарёсида Ҳақ таолога восил бўлганлар. Зоҳидлик надир?-деган саволга мукаммал жавоб беради.

Зоҳидлик - “ножўя сўз айтишдан қочишлик” [6].

Ошиқлик надир? Ўз борлиғи – ўзлигидан оғиз очмаслик.[7].

Инсон-сел. Томчилар орасида шундай томчи борки, у бошқа томчилардан сифат жиҳатдан тамоман фарқ қилди. Бу томчи оддий томчи эмас. Бу томчи-пешқадам бўлган инсонни ифодалайди. **Бу инсон – бу томчи – йиқилганни турғузувчи инсон. Ўстирувчи инсон. Бу томчи барча учун малҳам бўла олувчи томчи-инсон. Иккинчи томондан, бу томчи “юз минглаб томчилар бажарган ишни уддалайдиган томчидир. У энди томчи эмас, селдир.** Энди у томчи эмас, томчи шаклдидаги селдир. Бу борада Румийнинг диалектик инкорини яққол кўзга ташланади: томчи томчини дилектик инкор этди, сўнг эса

[2] Mevlana Celaleddin Rumi. “Mecalisi seba”. Ankara Sure. 2010.

[3] Жалолиддин Румий. Етти мажлис. Мажолиси Сабъа. Томчиман бир... денгизга ташна. Т.:”Янги аср авлоди.2019. 30-бет.

[4] Ўша жой.

[5] Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий.Камолиддн Ҳусайн Хоразмий Карим Замоний. Мукаммал шарҳ. 1-китоб. 5-жуз.Т.:Hilol nashr.2020. 57.

[6] Ўша китоб.107-бет.

[7] Ўша китоб.107- бет.

сел томчини диалектик инкор этди. У ҳақ йўлдан ҳеч қачон тоймайдиган пешво – Иброҳим эди. “Албатта, Иброҳим ҳақ йўлдан тойилмаган бир пешво – имом эди”[8]. Бирлик – кўплик. Ҳам томчи эди, ҳам сел эди. Иброҳим ўз-ўзига уммат эди, ҳам парча эри, Ҳам подшо эди, ҳам қўшин. Уммат – юз минг киши бўлади. Минг киши эди, балки юз минглаб киши эди у. Румий мана шундай инсон борлиғи объектив реал диалектикасини аниқ тушунтира олди.

Олимлар кўп дунёда, аммо ҳамма олим ҳам ҳақиқий олим сифатига эгами? Шундай бўлганда эди, француз файласуфи Альфред де Мише “одамларни билганим сайин, ҳайвонларни кўпроқ севдим”, деб ёзмаган бўлур эди. Қаранг, Румий инсон руҳий-маънавий борлиғини қанчалик англаган. У – бирликда, у кўпликда. У томчи эди, ҳам сел. Оқ ва қора – кураш. “Оллоҳ гўзалдир, гўзалликни севади” айнан ман шу ғоя орқали инсониятни гўзал амалларга етаклайди, Мавлоно. Қуръони каримда инсон моҳияти, хиллари, ҳаёт тарзи, қайси сифатлар соҳиби бўлиши-ю, қайси сифатлардан йироқ бўлиши шартлиги уқтирилган. Бу борада қуйидаги суралар алоҳида ўрин эгаллайди: “Инсон”, “Ёсин” (“Эй инсон!”), “Мўминун” (мўминлар), “Мунофиқон” (“Мунофиқлар”), “Луқмон”, “Аҳзоб” (“Фақирлар”), “Марьям”, “Нисо” (Аёллар), “Нос” (“Одамлар”), ”Кофирлар”, “Хумаза” (бировнинг ортидан имо-ишоралар билан ғийбат қилувчи шахс), “Абаса” (Юзини буриштирувчи), “Ғофир” (Мўмин), “Жосия” (тиз чўкиб ўтирувчи), “Анбий” (“Пайғамбарлар”), “Юнус”, “Ҳуд”, “Иброҳим”, “Юсуф”, “Муҳаммад”, “Нуҳ” ва бошқа суралар айнан инсон моддий, маънавий рухий оламига бағишланган суралар саналади. Ҳақиқатдан ҳам, Жалолиддин Румий ҳар бир сурадаги зоҳирий ва ботиний, ботинни-ботинийи моҳиятни ўз қалбидан ўтказиб, бутун маъносини англаб жуда содда ҳолда тушунтириб бера олди.

Пайғамбарлар мисолида инсонларга илоҳий сифатларни сингдириш йўлларини ўргатса, Қуръони Карим, Ҳадислардаги аёлларга оид фикрларни теран англаб, аёлларга ниҳоятда меҳрибон, назокатли муомалада бўлишни уқтирган. Жалолиддин Румий ўз байтларида Яратгувчининг жон ва дилларга ҳукмрон эканини уқтиради. Худованд тоғдек вазмин ва улуғвор қалбларни ҳам ғазаб ва шафқат олови таъсирида ўрнидан қўзғатиб, сомон парчаси каби бодлар қўйнида саргардон қилади. Одамзод ҳар қанча зийрак ва ўткир ақл соҳиби бўлмасин, у ҳаво-ю ҳавас, ботил фикрлар домида қолиши мумкин. Худованд моддий ҳодисаларгагина ҳоким бўлмай, жон ва тафаккуримиз ҳам унинг тасаруфида. Зоҳиран мазкур байт ушбу оятга ишора қилади: ...Ваъламу анналлоҳа яҳувлу байнал маръи ва қолбоҳи”. Шубҳасиз, Аллоҳ ҳар бир одам ва унинг қалб оралиғини эгаллаб туради”. (“Анфол” сураси. 24-оят.)

Жалолиддин Румийнинг бешта илмий – маънавий мероси орасидан айниқса учтаси – “Маснавийи маънавий”, “Фиҳи мо фиҳий” ҳамда “Девони Шамси Табризий” да инсон фалсафаси ҳақидаги энг нодир манба десак, асло хато қилмаган бўламиз. Барча асарларининг бош мавзуси – инсон, инсон борлиғи, унинг ички маънавий ва руҳий олами, ундаги зиддиятлар, ундаги уйғунлик ва келишмовчиликлар, орзу, ҳирс, ишқ, дард, кемтиклик ҳамда комилликка эришиш йўллари бирма-бир мантиқий изчиллик билан ёритилган.

Бу борада Мавлоно Жалолиддин Румийнинг “Мажолиси сабъа” –“Етти мажлис” асарини ҳам ўрни ҳам каттагина. Номини ўзиданоқ кўриниб турибдики, Румийнинг еттита мажлисининг ваъзлари ёзиб олинишидан вужудга келган асар.[9] Асар мағзини “томчи” (инсон), “денгиз” (Аллоҳ) ва “ҳаракат” ташкил этади. Ҳақиқатдан ҳам дунёдан пайғамбардан тортиб оддий авомгача, доҳийдан бошлаб шифокору, ўқитувчигача, қари инсондан бошлаб, гўдакгача, оқ танлидан тортиб қора танлигача, шоҳдан гадогача барча – барчани Румий томчиларга ўхшатади. Аммо томчилар бир-биридан фарқ қилади. Денгиз – Аллоҳ, Яратувчи. Румийнинг энг катта ютуқларидан бири одам ажратмаслиги. Ер юзида яшовчи ҳар бир инсон иккинчисидан шаклларда фарқ қилса, моҳиятда уларнинг

[8] “Наҳл” сураси 120-оят.
[9] Mevlana Celaleddin Rumi. “Mecalisi seba”. Ankara Sure. 2010.

эҳтиёжлари, дунёқараши, эътиқодлари, истак, орзулари бир-бирига ўхшайди, улар бир-бирини бойитади. Энг асосийси инсонни борича қабул қилади. Мусбат ва манфий қирралари билан, кемтиклиги-ю, ютуқлари билан кўрсата олган. Инсонларни оҳисталик билан, қалбига, ғурурига озор бермаган ҳолда, қалб кўзларини очишга оид йўлларни кўрсатишга интилади.

Шарқнинг буюк донишмандларидан бири Жалолиддин Румий Мансур Ҳаллож ва Фариддин Атторнинг инсонга оид қарашларини янада ривожлантирди. Жалолиддин Румий ўз асарларида таъкидлаганидек, инсон тана, жон ва руҳнинг бирлигидан иборат. Мавлоно эътироф этганидек, оламдаги барча мавжудотларни, шунингдек, инсонни ҳам мавжуд қилиб турган қудрат – ҳаракатдир. Оламдаги барча нарсалар, ҳодисалар, воқеалар ҳаракат туфайли бир-бирига халақит бермайди. Инсон оламда мавжуд бўлган тирик махлуқотлар ичида энг мураккабидир. Айниқса унинг ички олами ҳали ўрганилмаган қўриқ. Унинг ичида ҳамма нарса ёзилган. Бироқ зулмат ва пардалар борки, улар ўша ёзувларни ўқишга имкон бермайди. Шундай бўлишига қарамасдан, инсон ўзининг ички оламидаги ёзувларни ўқий олади.[10]

I. **Инсон - даҳлиз, олам – уй;** Уйга киришдан олдин даҳлизга кирилади. Демак, инсон оламни билишдан олдин, инсон ўзлигини билиши керак. Ҳамма инсон ҳам ўзида яширинган қобилиятларни ҳар доим ҳам юзага чиқара олмайди.

II. **Инсон – устоз** (руҳий устознинг қуввати оддий инсоннинг қувватидан юз баробар кучлидир. “Бу ижодий куч-қувватни Аллоҳ на еру кўкка, на ҳайвону ўсимликларга берди. Бу куч-қувватни фақат инсонгагина бериб, унда ўз сиймосини кўрди.”[11]

III. **Инсон – оддий инсонлар. О**ддий инсонлардаги руҳий қувват устознинг руҳий қувватичалик кучли ҳамда барқарор эмас.

Ирода кучи табиатда ҳам, инсон фаолиятида ҳам мавжуд. Аммо табиатдаги ирода кучи онгсиз бўлиб, у ўз-ўзини англамайди. У ўсимликлар, ҳайвонлар ҳаракатида, тупроқ, сув, ва ҳавонинг ўзгаришида ўзини намойиш этади.”Буюрдики: Сигирлар ҳам неъматларга монанддир ва оғилхонада бўлганлари ҳолда оғил эгаси хушлаган нарсалардир. Агар соҳиб хоҳласа ўз молини шоҳнинг оғилига олиб бориб қўяди, ибтидода бўлганидек, йўқликдан борликқа келтирилади. Борлиқ (вужуд) оғилидан жамоа оғилига, жонсиз борлиқлар оғилидан ўсимлик дунёсига, ундан ҳайвонликка, ҳайвонликдан инсонликка, инсонликдан малакликка ва шу сўнгсиз тарзда илгарилатади. У сенга буларни бир-биридан устун оғиллар борлигини қабул ва эътироф этмоғинг учун кўрсатгандир”[12] .

Инсон билан Аллоҳ орасидаги якка-ю-ягона фарқ, инсонни Аллоҳга эҳтиёжи бор, Аллоҳнинг эса инсонга эҳтиёжи – инсоннинг Аллоҳга бўлган эҳтиёжичалик кучли, юқори эмас.

Жалолиддин Румий уч восита билан ҳақиқатни билиш мумкин, деб билади. Булар: юрак-билишнинг жойи; қалб-муҳаббатнинг ўрни; қалблар туби-сирлар макони. Бу жойда юрак инсон жисми сифатида эмас, балки билиш учун зарур бўлган интуитив восита ҳисобланади. Юрак доимо ақл ва истак, хоҳиш қарама-қаршиликлар орасида бўлади. Илоҳийлик, фаришгавийлик кучлари билан шайтоний кучлар қарама-қаршилиги марказида бўлади.

Юсуф Хос Ҳожиб инсонийликнинг муҳим кўрсатгичи ахлоқий баркамоликдир, деб билади. У инсонларни ахлоқий баркамол ёки ахлоқсизлигига қараб иккига бўлди:

1. Яхши одамлар;

[10] Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. Биринчи жилд.Биринчи китоб. Асқар Маҳкам таржимаси.Т.: 1999. 26,33-34,84-90 бетлар.

[11] Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур.- Тошкент: Ёзувчи. 1997. Б. 31.

[12] Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур.- Тошкент: Ёзувчи. 1997. Б.28.

2. Ёмон одамлар. “Туғма ёмонлар учун чора ва илож йўқ, улар борлиққа бало, халқ учун офат бўладилар”[13]. Бу тоифали одамларга - ғазаргўйлар, ҳасадгўйлар ва бошқа ахлоқий тубан инсонлар мансуб бўлишади.

Инсонлар табиатидаги яхшилик ва ёмонлик аломатларини насл-насаб, генетик хусусиятлардан қидиради.

Юсуф Хос Ҳожиб (1016/1018 - ?) фикрича: “инсон – улкан мавжудот бўлса-да, айни чоғда мураккабдир”. Бошқа бир жойда, **инсонларни: муруватли ва нуқсонли, доно ва аҳмоқ, оққўнгил ва ёвузларга ажратади.** Юсуф Хос Ҳожибнинг фикрига қўшилган ҳолда, ёмон одамлар икки тоифали бўлиши мумкин деган хулосага кела олишимиз мумкин:
1) Туғма ёмон одамлар;
2) Ҳаёт жараёнида ёмон одамга айланган одамлар.

Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний ўзларининг “Мақомоти Юсуф Ҳамадоний” асарларида **“Инсонлар беш тоифага бўлинадилар: мўмин, кофир, мунофиқ, гуноҳкор ва мушрик.** Имон ҳақиқийдир, мажозий эмас”[14] деб уларнинг фикрларини билдирганлар.

Жалолиддин Румий инсонларни бир неча гуруҳларга ажратади: поклар (меҳри пок), донолар (аҳли доно)[15], тулки юз сўфилар[16], ёмон кимсалар[17], илоҳий табиблар ёхуд кўнгилларнинг жосуси[18], оқиллар, ғофиллар, иблис одам, одамхўр одамлар ва ҳ.

Баъзи инсонлар Жалолиддин Румий назарида сув каби зилол, оққўнгил, самимий гўзал ахлоқли, баъзилари эса тошмеҳр, қўпол хислатларга эга қилиб яратилган.

Мавлоно ёзади: “...одам борки, денгизларга қонмас, одам бўладики, бир томчи сув билан кифояланади, ортиқчаси унга зарар келтиради. Бу фақат маъно оламида, яъни илм ва ҳикматда эмас, балки ҳамма нарсада шундай. Дунёдаги мол-мулклар, олтинлар, қимматбаҳо тошлар конлари сўнгсиз ўлчовдадир. Бироқ улар инсонга баҳоси миқдорида келади. Ортиқчасини эса кўтараолмай, ақлдан озади.”[19] Бу борадаги ғоя – инсондаги зарурий оқилона) эҳтиёжни билиш ва унга амал қиши оламда яшаш одобларидан бири - эканлигига ишора қилинмоқда.

“Маснавий”нинг тўртинчи китобида инсонларни уч тоифага бўлиб кўрсатади.

Эътиқод масаласи нуқтаи назарига кўра Жалолиддин Румий инсонларни уч гуруҳга бўлади:

Ул ҳадисда дедиким, яздону ҳу,
Халқни – оламни яратди уч гуруҳ.
Бир гуруҳда жумла ақл илми жуд,
Ул малаклардир, фақат айлар сужуд....
Бир гуруҳ борким, улар ҳайвонсифат,
Еб-ичиб,ухлаб семиргайлар фақат...
Бор учинчи бир гуруҳ – қавми башар,
Ярми инсон, ярмиси эшшак магар.[20]

Мазкур байтни таҳлил қилсак, Жалолиддин Румий илм ҳамда иймон соҳиблари, деб биладилар.

IV. Инсон –малак.

[13] Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. Қадимий ҳикматлар. Тошкент. 1987. 128, 149-150 бет.
[14] Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Рисолаи соҳибия. Васиятнома.Т.: “Movarounnahr”. 2018. 31-бет.
[15] Раҳматан лил-оламин- “Биз Сизни оламларга раҳмат қилиб юбордик” маъносидаги Қуръон оятига ишора.
[16] 62-бет. Ҳикматлар.
[17] Ўша китоб. 141-бет.
[18] Илоҳий табиблар ёки жосус бу ерда кўнгиллар сирини биладиган, ҳамма нарсадан хабардор маъносида (140 бет)
[19] Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур.Т.: “Янги аср авлоди”.2013.43-бет.
[20] Жалолиддин Румий.Маснавийи маънавий (Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол тарж.-Т.: “MERIYUS” ХНМК. 2010.432-бет.

1- **Тоифа: Малаклар** - буларга мансуб кишилар оламдаги барча ҳодисалар, воқеаларнинг яратувчиси, сонеъи (холиқи) уларнинг асрагувчиси (ҳофизи) Худонинг борлигига, руҳнинг мавжудлигига, (“баъдал мавт”) ўлимдан сўнг, жазо ва мукофот муқаррарлигига қаттиқ ишонадилар. Бошқача иборалар билан айтганда, ундай инсонларни **малак** деб атади. **Малаклар – яъни нуқул ақлдан иборат, инсонлар.** Айнан “нуқул ақл”ни Гегель “худо ақли”га алмаштирди.

2-тоифага мансуб кишилар – (инсон-ҳайвон) инсон руҳининг мавжудлигини инкор қилувчилар – улар мункирлардир. Одам якка танадан иборат махлуқ, “вафотидан сўнг баданининг таркиби буткул ҳал бўлиб, батамом фанога юз тутади, деб даъво қилишади.[21] Руҳониятни, охиратни рад этадилар. Ҳирс ва нафс соҳиби ёхуд бу тоифадагиларни – **ҳайвонлар, деб аташади, зеро уларда фақат шаҳват мавжуд, уларни ёмонликдан қайтарувчи ақл йўқ.**

“Ким ёмонлар жинсидандир, ул киши
То қиёмати, бас, ёмонликдир иши”[22].

“Ичиндаги ичиндадур” асарида бундай тоифа инсонларни **“жаҳаннам оташининг ўтинлари”, “дунёга ғарқ бўлганлар”, “ҳаддан зиёд ғофил бўлганлар”** деган ибораларда келтириб, ундайларнинг моҳиятини ёритиб беради[23]. Ўз ота-онасини, фарзандини, умр йўлдошини ўлдирганлар ёхуд ўз яқинларини жонига қасд қилиш даражасига олиб борган малъун кимсалар.

Махмуд Замаҳшарий: “Ловиллаб ёнаётган оловни сув ўчиргани каби нодон одамлардан чиқаётган алангани ҳакиму оқил одамлар сўндирарлар”, деб таъкидлайди.

Инсоннинг ҳақиқати (моҳияти) табиатдаги бошқа жонзотлардан фарқлантирувчи белгиси руҳдир. Руҳ – латиф ва мулойим. Румий ёзадилар: “Руҳ шундай бир латифадирки, у ғайб оламидан келиб киради, у ҳаётнинг асоси ва ҳатто ҳаётдан ҳам баланд, руҳ – раббоний амрдир”. Демак, руҳ – ғайб оламидан келиб қалбга кирадиган латиф бир қувват. Уни шу сабабли ҳам латифа дейдилар.

Румий фикрича, киши нақадар жоҳил бўлса, шу қадар ҳайвонсифат бўлади, лутф ва назокат, меҳрибонликдан узоқ туради. **“Жоҳилларда, деб уқтирадилар Румий икки хусусият аниқ кўзга ташланиб туради: бири - оқил ва соҳибдил кишилар устидан ҳукмронлик қилишга интилиш бўлса, иккинчиси руҳий-маънавий жиҳатдан юксалганларга эмас, балки ўзига ўхшаган нодон ва дағал табиатлиларга раҳм-шафқат кўргазиш ва ўшалар билан бирлашишдир”[24].** Бошқача сўзлар билан ифода этганда паст пастга қараб тортади, олижаноблик олижанобликка етаклайди. Жалолиддин Румий бунга тоқат қила олмайди. Ул зот фикрига кўра, ҳайвоний хислатларга ҳам (жумладан нафс ва жисмга), ҳайвон табиатли одамларга ҳам раҳм қилмаслик керак. Фақат руҳ ва руҳоний ҳаёт ҳимояга, шафқатга сазовор. Руҳни ҳимоя қилиш – инсон камолотини ҳимоя қилиш ҳамда парвариш этишдир, деб мутафаккир бундай ёзади:

Раҳм бар Исо куну бар хар макун,
Табъро бар ақли худ сарвар макун.
Яъни:
Исога раҳм қил, эшакка эмас,
Табиатни (жисмни) ақлингга йўлбошчи қилма .

Исо – руҳ, эшак-жисм. Жисм – табиат инсоннинг қобиғи, моддий жиҳати, руҳ эса ақл жавҳари, инсон моҳиятидир. Демак, инсон қудрати – руҳдандир. Демак, инсонийлик даражалари руҳнинг тараққиёт даражалари билан белгиланар экан, демак, руҳий-маънавий

[21] Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. Биринчи жилд. Биринчи китоб. Асқар Маҳкам таржимаси.Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти. 1999. 24-бет.
[22] Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти. 2008. 31-бет.
[23] Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Т.: “Янги аср авлоди”. 2013. 120-бет.
[24] Нажмиддин Комилов. Руҳ – раббоний амр// Тафаккур.1998.№3. 90-95 бетлар.

юксаклик зулму-шафқатсизлик, нодонлик, паст табиатлилик устидан ғалаба қилиши муқаррар.

X. Заволли инсонлар –ақлдан ва шаҳватдан ташкил топганлар.

3-тоифага мансуб кишилар – заволли инсонлар, яъни ақлдан ва шаҳватдан ташкил топган инсонлар. Бу инсонлар тоифасидагилар юқоридаги масалаларга шубҳа билан қарайдилар. Уларнинг мустақил ўз фикрлари бўлмайди, гумон соҳиблари – ярми инсон, ярми эшшаклардир.

Биринчи ва иккинчи тоифадаги инсонларда танлаш имкони йўқ, деб уқтиради Мавлоно, аммо учинчи тоифадагилар – "заволли инсон"ларда танлаш имкони бор. Демак, инсоннинг ярми шаҳват, ярми ҳайвон, ярми илон, ярими балиқ. Балиқ қисми уни сувга тортади, илон бўлаги тупроққа судрайди. Айнан шу тоифадаги инсонлар моҳиятини ёритишда зиддиятлар, қарама-қаршиликлар кураши "кўзгуси" орқали инсоннинг танлаш имконини кўрсатади.

Малаклар – буларда нуқул ақл устувор. Ибодатсиз яшай олмай олмай диганлар; Оллоҳга яқин, у унга ғарқ бўлганлар;

Аҳли маъно ва ботин аҳли – Мусо (а.с), Исо (а.с.), Муҳаммад (с.а.в.);

Сувратпарастлар - Фиръавн аҳли[25];

Ёмон кимсалар (мункирлар ёхуд ҳайвонлар) – ёмон кимса ўз ёмонлигидан собит туриб, яхшиларнинг давлатга эришганларини кўриб, шайтонга айланур, ҳасад қилиб, яхшиликка моне бўлур...Бўйлаким, хирмани ёнган киши ўзгаларнинг ҳам хирмани ёнишини истар[26]. Мен қийналдимми, бошқалар ҳам қийналсин, мени уйим ёндими, бошқаларнинг ҳам уйи ёнсин, дегувчи қалби қоралар.

Инсонда фаришталик, шайтоний ва ваҳшийлик хусусияти бўлади. **Фаришталик хусусияти:** иймон, раҳм-шафқат, тоат-ибодат, хушъ ва нафсий юксалиш бўлади.

Шайтоний хусусияти: ҳаром қилинган шаҳват, ёлғон, ҳийла ва бузғунчилик бўлади.

Ваҳшийлик хусусияти: ғазаб, зўравонлик ва зулм бўлади.

Жуда кўп одамлар ташқи томондан одам шаклида бўлсаларда, аслида ичкари – ботиний оламида шайтондирлар. Улар зоҳиран ўзларини ҳақиқат аҳли деб кўрсатсаларда, аслида содадил одамларни ўз домларига тортадилар. Ҳар бир узатилган қўлга қўл беришдан олдин бу қўлнинг қандайлигини билишинг керак, деб уқтиради Жалолиддин Румий.

XI. Иблис – одам. Жалолиддн Румий дуч келган одамга "қўл" бериб кетавермай, барча инсонларни қайта ва қайта огоҳ бўлишга ундайди:

Эй, басо **иблис одам** рўйи ҳаст,
Бас, ба ҳар дасти нашояд дод даст.
Дасти ноқис дасти шайтон аст-у дев,
З-он ки, андар банди таклиф аст-у рев".[27]

М а з м у н и:

Одам юзли қанча-қанча иблислар бор.
Бас, (тўғри келган) ҳар қўлга (шайх, пир деб)
Қўл беравермаслик лозим.
Ноқис шайхнинг қўли шайтон ва девнинг қўлидир.
Чунки бу қўл қилиб олиш таклифи ва ҳийладир.

Жалолиддин Румий ёзган мисралар мазмунининг том маъноси "одам юзли иблислар" – ўз манфаатини бошқа ҳамма нарсадан устун қўювчилар; мол дунёни севувчилар; шакли мазмунига мос келмаганлар – бир нарсани айтиб, бошқа нарсани

[25] Сад ҳазорон найзаи Фиръавнро,
Даришкаст аз Мусин бо як асо.
Жалолиддин Румий. Маънавий Маснавий. Куллиёт. Биринчи жилд. Иккинчи китоб.Т.:"Янги авлод". 2007. 126-бет.

[26] Ўша китоб. 141-бет.

[27] Яъқуб Чархий. Тафсир-и Чархий. ЎзХИА манбалар хазинаси.Тошбосма №80.-Бомбей: Матбаъа Каримий, 1908. 176-бет.

қилувчилар, худбинлар, имонсизлар, ҳийла-макр ишлатиб, мурид йиғадиган риёкор хожагонларни; ҳақиқий олим бўлмаганлар, Оллоҳдан қўрқмаган шайх ва донишмандларни назарда тутган. Ноқис шайхнинг – шайтон ва девнинг қўлидир.

"Нос" сурасининг сўнгги ояти шарҳи бўйича сохта шайхларни "одамлар орасидаги шайтонлар" деган таснифни кўзда тутиб, ўзини солиҳ, зоҳид каби кўрсатиб, мол-дунё йиғиб, ўз муридларини ҳаром ейишдан ман этмайдиган, одамлар орасидаги шайтонлар, дин душманлари деб билади.

XII. Одамхўр одамлар. Яна бир тоифа - **Румий назарида - одамхўр одамлар** гуруҳи:

Одами хўранд аксар мардумон
Аз салом алайкашон кам чў омон.
Инсонларнинг аксари одамхўрлардир.
Уларнинг салом-алигидан кўп омонлик кутаверма.
Хонаи дев аст дилҳои ҳама
Кам пазир аз деви мардум дамдама.
Уларнинг кўнгиллари, дев-шайтоннинг уясидир.
Инсон юзли шайтонлардан камроқ вафо кут.
Ҳар ки дар дунё хўрад талбиси дев
Ваз аддувви дўстрўй таъзиму рев.
Ҳар ким дунёда шайтоннинг васвасасига учса
Ва дўст кўринган душманлардан таъзим ва фириб еса
Дар роҳи ислом бар пули сирот
Дар сарояд ҳамчу он хар аз хабот.
Ислом йўлида, пули сиротда у эшакга ўхшаб,
Юзтубан йиқилади.

Жалолиддин Румий фикрига кўра, бир жойда ҳамма малаклар, бир жойда барча ёмон хулқли, ҳайвон табиатли одамлар ҳаёт кечиришмайди. "Денгиз тубидаги қимматбаҳо жавоҳирлар, оддий тошлар (ёмон хулқлилар, ҳайвон табиатлилар, одам юзли иблислар – С.Ҳ.) билан аралаш ҳолда топилади. Мақталган нарсалар (малаклар, кўнгил соҳиблари, мехрлилар, валийлар – С.Х), айб – нуқсонлар орасида бўлади..." Макон ва замонда борлиқда юқоридаги инсонларнинг барча хиллари бирга ҳаёт кечиришади. Ҳақиқатдан ҳам бирга ишлайдиган бир кичкина жамиятнинг бир бўлагида ҳар хил инсонларни кўрамиз: сахий ва олижаноб, бахил ва бадахлоқ, меҳрли ва меҳрсиз, билимли ёки сохта билимдон, атрофдагилар билан самимий ёки аксинча шунчаки юзаки муомала қиладиганлар, сўзи бошқа, қалби бошқа ва ҳ. Ҳаёт шундай шафқатсизки, баъзида нодонлар донолар устида ҳукмронлик қилишади, нодон ёки тулки юзлилар мансаб тўпасига чиқиб қолади.

Жалолиддин Румий назарида,

"Бир инсоннинг ичи сиртидан қадрлироқ бўлса,
унинг номи "Валий" дейилади,
Бир инсоннинг ичи билан сирти бир хил қадрга эга бўлса,
унинг номи "Олим" дейилади,
Бир инсоннинг сирти ичидан қадрлироқ бўлса, бунга "Нодон"
тамғаси босилади", - деб уқтиради аллома.

XIII. "Менинг хирмоним куйди, бошқанинг ҳам хирмони куйсин" дегувчи инсонлар. 2017 йил ОИТС инфекцияси бир қизда аниқланди. Ўзининг ўта хавфли касалликка чалинганлиги билган фоҳиша 40 эркакка ўз касалини била туриб юқтирди. Бу эркакларнинг кўпчилиги оилали, демак, бу машъум касаллик уларнинг ҳалол ўз жуфтига – хотинига ҳам юқди.[28] Бухорода яшовчи бу фоҳишага олти ярим йиллик қамоқ жазоси тайинланди (4-статья 113. Яъни, атайлаб тери-таносил касалликларини тарқатгани учун).

[28] @potrebitel_ Bukhara.

Инсон бу оламда яшаркан гўёки, синаш учун ҳозирланган майдонда тургандек ўзини сезади: бу “ҳалол”, бу “ҳаром”, бу “мумкин”, бу “мумкин эмас”, бу “ҳақ”, бу “ноҳақ” каби насиҳатларга қулоқ тутармикан? “Ҳалол”,”ҳақ”, “мумкин” – булар инсон борлиғида мавжуд бўлган меъёрлар;
“Ҳаром”,”ботил”,”мумкин эмас” – бу инсон табиатидаги меъёрсизликдир.

XIV. “Инсон – денгиз кабидир” Жалолиддин Румий ушбу иборада инсонга моҳият ва ҳодиса нуқтаи назаридан қарагани билинади. “Инсон – денгиз кабидир. Ёлғизгина усти билинади, остида нималарни сақлайди, ичида қандай ғалаёнлар бўлаётганини сўзламайди. Фақатгина жимгина овозсиз оқиб туради...”. Инсон ўзгарувчан, лаҳзадан лаҳзага ўзгаради. Тананинг ичидаги жонни суратдан суратга ўзгартиради.

XV. Инсон кучли ва кучсиз. “Инсон дунё сандиғига қамаб қўйилган арслон кабидир, - деб ёзади Мавлоно. Сандиқ эса қулфлангандир. У ўзини чарчаган, ҳолдан тойгандек кўрсатмоқда. Лекин кун келиб қайнаб – тошиб, ҳайқириб сандиқни бузиб чиқади. Ҳозирча куч-қувватсиз, заиф кўринмоқда. Аммо инсоннинг қанчалик кучли, қудратли эканини ўша пайтда кўрасан. Инсон дунё неъматларига асир бўлганда ниҳоятда кучсиздир. Оёғи остига олсагина жудаям кучли бўлади...”. Жалолиддин Румий юқоридаги сатрлар орқали, аниқ қилиб айтганда: инсон оламдаги моддий дунё неъматларига қул, тобе бўлмаса, улардан юқори турса – ўша пайт энг кучли инсон бўла олади, деб уқтирмоқда. Қачон у ўзининг нафсини енга олмаса, у кучсиздир. Халқчил тилда бу оддий, бебаҳо ҳақиқатни инсонга етказмоқда файласуф-шоир.

Мусулмон бўлиш – комил инсон бўлиш мақомига ўтишнинг илк поғонасидир, мусулмон бўлиш эса осон эмас. Мазкур жараёнда сифатларнинг диалектик инкорини Жалолиддин Румий тўғри тушунтира олди. Қарама-қарши сифатлар, зид сифатлар, илоҳий сифатлар, фаришгавий сифатлар, ҳайвоний сифатлар ва ҳ. Инсон ички оламидаги сифат курашлари, сифатларнинг айниқса илоҳий сифатларнинг ҳайвоний сифатларни диалектик инкори, унинг устуворлиги ҳамда барқарор сифат даражасига кўтарилишлари ҳаётий мисолларда ўз аксини топган.
Мавлоно ёзади:
“Ҳазор сола роҳ аст аз ту мо мусулмонй,
Ҳазор соли дигар аст то ба ҳадди инсонй.”
Т а р ж и м а с и :
Минг йиллик йўл бор сендан мусулмонликка довур,
Яна минг йиллик йўл бор то инсонликка довур.
Демак, мақсад аниқ, Мавлоно, ҳар инсонни чин мусулмон, иймонли бўлишга чақирса, иккинчи томондан ҳаддини билишга даъват этади. Ер сайёрасида деярли саккиз миллиардга яқинлашиб қолган инсониятнинг ҳар бири ўз ҳаддини билиб яшаса олам чароғон бўларди, ҳеч қачон тўқнашувлар, қон тўкишлар, экологик инқирозлар, океан, денгиз, дарё сувларининг ифлосланиши-ю, ўрмонлар кесилиши, турлар йўқолиши, очлик ҳамда маънавий инқирозлар асло рўй бермас эди.

Юқоридагилардан шундай хулосага келинадики, Жалолиддин Румий инсонларни қуйидаги гуруҳларга ажратиб, уларнинг моҳиятини тўлиқ ёрита олган:

1. Инсон –гапирувчи ҳайвон;
2. Инсон – малак, фаришта;
3. Инсон – заволли (ақлдан ва шаҳватдан ташкил топган инсон);
4. Инсон – одамхўр;
5. Инсон – ғофил;
6. Инсон – томчи ва сел;
7. Инсон – ожиз ва қудратли ёхуд кучсиз ва кучли;
8. Инсон – бир ва минг қиёфали;
9. Инсон – уй ва даҳлиз, (Инсон – кичик олам);
10. Инсон – ярим фаришта, ярим махлуқ;
11. Инсон – Тангрининг устурлоби;

12. Инсон –одам юзли иблис;
13. Инсон – олим ва амир;
14. Инсон – доно ва нодон;
15. Инсон – меҳрли ва меҳрсиз;
16. Инсон – валий;
17. Инсон – шакл ва мазмун ягоналиги;
18. Инсон - илоҳий;
19. Инсон – Комил инсон;
20. Инсон – либосли, инсон либоссиз;

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Mevlana Celaleddin Rumi. “Mecalisi seba”. Ankara Sure. 2010.
2.Жалолиддин Румий. Етти мажлис. Мажолиси Сабъа. Томчиман бир... денгизга ташна. Т.:”Янги аср авлоди.2019. 30-бет.
3.Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий.Камолиддн Ҳусайн Хоразмий Карим Замоний. Мукаммал шарҳ. 1-китоб. 5-жуз.Т.:Hilol nashr.2020. 57.
4.Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. Биринчи жилд.Биринчи китоб. Асқар Маҳкам таржимаси.Т.: 1999. 26,33-34,84-90 бетлар.
5.Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур.- Тошкент: Ёзувчи. 1997. Б. 31.
6.Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. Қадимий ҳикматлар. Тошкент. 1987. 128, 149-150 бет.
7.Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Рисолаи соҳибия. Васиятнома.Т.: “Movarounnahr”. 2018. 31-бет.
8.Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур.Т.: “Янги аср авлоди”.2013.43-бет.
9.Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти. 2008. 31-бет.
10.Нажмиддин Комилов. Руҳ – раббоний амр// Тафаккур.1998.№3. 90-95 бетлар.
11.Яъқуб Чархий. Тафсир-и Чархий. ЎзХИА манбалар хазинаси.Тошбосма №80.-Бомбей: Матбаъа Каримий, 1908. 176-бет.
12.@potrebitel_ Bukhara.

YA’QUBI CHARXIY FALSAFIY MEROSIDA BORLIQ VA MAVJUDLIK MASALALARINING TASAVVUFIY-ONTOLOGIK TALQINI

Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro davlat texnika universiteti professori, falsafa fanlar doktori (DSc)

Faylasuflar borliq haqida turli g‘oyalarni ilgari surishgan. Tasavvufda borliq, vujud tushunchasi sifatida keladi va uni izohlashda vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi sifatida yoritilgan. Mazkur nazariyalar ham falsafiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Tasavvufda birinchi bo‘lib ushbu nazariyani, o‘z falsafiy qarashlari bilan keng ko‘lamda tarqatgan Ibn Arabiy (1165 – 1240 yy) dir. Mutasavvif borliq to‘g‘risidagi ta’limotini aynan “vahdatul vujud” (“borliqning yagonaligi”) deb nomlamagan bo‘lsa-da, asarlarida shu g‘oya aks etgan. Ibn Arabiy bevosita borliq muammosiga oid “Risolai vujudiya” [1] (Vujud haqida risola) asarini yozgan. Risolaning to‘liq nomi Payg‘ambar alayhissalomning “Kim o‘zini tanisa, Robbisini taniydi” hadisining ma’nosini ochib beruvchi “vujud” to‘g‘risida risola” bo‘lib, barcha ilm ahli uchun, jumladan, so‘fiylar va faylasuflar uchun ham juda qimmatli manba hisoblanadi. Naqshbandiya tariqatining mashhur namoyandasi Ya’qubi Charxiy risolalarini tahlil qilganimizda, ayniqsa, vahdat ul-vujud falsafiy nazariyasini o‘zining xos uslubi asosida izohlaydi. Mutasavvifning risolalarining tasnifi ko‘rsatadiki, u borliqqa umumiy ta’rif berish bilan birga uning ko‘rinishlari bo‘lgan tabiat, inson, jamiyat va ma’naviy borliqni ham tahlil etgan.

Tadqiqotchi M.Razzoqova Yaqubi Charxiyning “Risolai qudsiya” (“Ilohiy dargohga oid haqida risola”) asari mavjudligi, risola ilohiyot, tasavvuf, uni tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, “faqara” (maqola yoki fasl) bilan boshlanganligini keltiradi.[2] “Faqara” so‘zining ko‘pligi “faqarot” bo‘lib ko‘pincha shu turdagi asarlarga “Faqarot” deb nom qo‘yilgan. Ya’qubi

Charxiyning muridi Xoja Ahror ham o‘z piri ilmiy faoliyatini davom ettirib “Faqara” yozadi. Risolaning nomi “Faqarotu-l-orifiyn”[3] (Ma’rifat ahli hayotidan lavhalar) deb ataladi.

“Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi” mualliflari ham mutasavvifning “Risolai qudsiya” asari № 980/II raqam bilan saqlanayotganligi haqida ma’lumotni beradi.[4] Ya’qubi Charxiy risolada Alloh ta’oloning Yer va Osmondagi mavjudotlarni yaratishdagi ilohiy hikmatlari, ularning tartibi va o‘rinlari haqidagi bo‘lib, olam, borliq, yo‘qlik kabi falsafiy tushunchalarni tasavvufiy nuqtai nazardan tahlil etgan. M.Razzoqova fikricha, Ya’qubi Charxiyning “Risolai qudsiya”si Xoja Muhammad Porsoning “Risolai qudsiya”siga hamohang tarzda yozilgan. Ularning mazmun jihatidan bir-biridan farqi shundaki, Ya’qubi Charxiy o‘z asarida tasavvufga oid nozik hikmatlarini o‘z fikriga suyangan holda sharhlab bersa, Muhammad Porso esa o‘z piri Bahouddin Naqshbandning qudsiy kalimalarni kengaytirib, tushuntirib beradi.

Ya’qubi Charxiy tavhid masalasiga alohida e’tibor berib, ustozi Bahouddin Naqshband qarashlari bilan umumiylik mavjud. Mutasavvif: “Agar sendan tavhid nima?” deb so‘rasalar, dilni Haq subhonahudan boshqa narsalardan poklash va yagonalash deb aytgin,[5] deganlar”. Bahouddin Naqshbanddan tavhid so‘zining ma’nosi so‘ralganda: “Allohdan boshqa barcha narsani ko‘ngildan butunlay ketkazishdir”, [6] deb javob beradi.

Ya’qubi Charxiy “Risolai havroiyya” (Hurlar risolasi) da “faqatgina Sening samadiyatingga muyassar bo‘laylik. Zero hamma Sendandir. Bizning talabimizni botinlarimizga ber. “La ilaha illalloh” ning barakatidan nafsoniy istaklar va shaytoniy vasvasalarni bizdan uzoq qilki, barcha oriflarning istagi shudir” – deb, Hakim Sanoiy G‘aznaviyning quyidagi baytini keltiradi:

“Illalloh” ning maydonida “La ilaha” tig‘i bilan

Allohdan boshqa nima bo‘lsa, hammasini qurbon qildilar.[7]

Mutasavvif vujudga oid vahdat, ittihod, saodat, shaqovat, vasl kabi tushunchalarni quyidagicha tahlil qiladi: “Agar sendan, vahdat nima, deb so‘rasalar, dilni Haq subhonahuning borligiga g‘arq bo‘lishdir” - deydi. "Vahdat" so‘zi birlik va bir bo‘lish ma’nosini ifodalaydi. "Vujud" esa "borliq" ma’nosini anglatadi. Vahdat ul - vujud ta’limotida borliq jamodot (jonsiz va harakatsiz qattiq jismlar), o‘simliklar, hayvonlar, osmonlar va falakka bog‘liq bo‘lgan narsalargacha hammasi bir vujud hisoblanadi.

Ya’qubi Charxiy Al-Mu’id (Barcha yo‘q bo‘lib ketganlarni yo‘qlikdan qaytaruvchi), Al-Muhyi (tanaga jonni, qalbga iymonni solib tiriltiruvchi Zot), Al-Qayyum **(**hamisha bor bo‘lgan va cheksiz mulk egasi va hamma Unga muhtoj bo‘lgan, U esa hech narsaga muhtoj bo‘lmaydigan Zot**)** sifatlarni tasavvufiy tahlil qilib, orifning bu ismlardan shuni anglashi kerakki tirikliklikda qilib yurgan ishlaridan qayta tiriladigan kunda ahvoli qanday bo‘lishini solishtirsin, Undan o‘zgadan yuz o‘girsin va butun vaqtini Uning hazratiga to‘liq yuzlanishga sarflasin, Uning yo‘liga qoyim bo‘lsin va bu yo‘ldan chetlashganlarni to‘g‘ri yo‘lga solsin.[8] Bu haqda Ibn Arabiy Yaratuvchining yakkaligiga ishora qiluvchi zotiy sifatlari bilan Unga hamd aytib, yakka va bitta mazmunini ifoda etuvchi “vahdoniyat”, “fardoniyat” kabi ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlarni alohida tahlil qilgan: “Vahdoniyatidan oldin O‘zidan o‘zga hech bir oldinlik bo‘lmagan, har qanday oldinlik O‘zi bo‘lgan va fardoniyatidan keyin O‘zidan o‘zga hech bir keyinlik bo‘lmagan, har qanday keyinlik O‘zi bo‘lgan Allohga hamdlar bo‘lsin”. [9]

Ya’qubi Charxiy fikricha “agar sendan, ittihod nima, deb so‘rasalar Haq subhonahuning boshqa narsani bilimidan xolos qilishdir” – degan xulosani beradi. Ittihod (arab. - birlashish) bo‘lib, sufiyning jazabada tushish holatida Xudo bilan ruhan “qo‘shilib ketishi” tushuniladi. Sufiylar Xudo bilan muhabbat (ishq) ni ittihodning zaruriy qismi deb qaraydi. Ittihod turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Sunniy tasavvuda ittihod qat’iy rad qilingan. Mutasavvif “agar sendan, saodat nima, deb so‘rasalar, Haqni ko‘rish va o‘zidan xalos bo‘lish” – degan fikrni beradi. Demak, “vahdat ul-vujud” deganda moddiylikdan, shaklu shamoyildan xoli, munazzah, ammo ana shu O‘zi xalq etgan olamlar bilan doimiy birga bo‘lgan, bu olamlar mohiyatini qamrab olgan, ularga muhit bo‘lgan Zoti pokning yagona vujudi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhyiddin Ibn Arabiy. Ar-Risolatul vujudiyya, Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2004. tarj. Boltaev A.

2. Razzoqova M. Mavlono Ya'qubi Charxiy. – T.: Muharrir, 2013. – B. 37.
3. Xoja Ubaydulloh Ahror. Faqarotu-l-orifiyn. O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 507 / II, 130 v.
4. Shamsuddin Boboxonov., Abdulaziz Mansur. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi. -T.: Movarounnahr. 1993. – B. 17.
5. Ya'qubi Charxiy. Risolai qudsiya. – B. 74.
6. Ya'qubi Charxiy. Risolai havroiyya. Muhammad Nazir Ranjxo. Kandiyon, 2009. – B. 185.
7. Ya'qubi Charxiy. Sharhi Asmul husna. – B. 173.
8. Xojagiy Ahmad Kosoniy. Risola - ye vujudiya. – 3 v.
9. Ya'qubi Charxiy. Risolai abdoliya. – B. 20.

ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA INSON MASALASI

Shamsutdinova Nigina Karimovna
Navoiy davlat universiteti, f.f.d., (DSc)

Insonda ikki olam uning asliyatini tashkil etadi. "Inson, eng mazmunli hayoti bilan ajralib turadi. Uning hayotidagi tirishqoqligi va intilishi, kuch va qudratining asosi bo'lgan aql va intuisiyaga ko'ra, insonning go'zalligi, jozibasi va inoyati manbai bo'lgan mukammal tarbiya, olijanob (saxiy) xulq va mukammal ko'nikmalarga mos keladi" [1].

"Uning muhabbati boshqalarga yetishi yoki yetmasligidan qat'iy nazar ham sevilgan, ham seviluvchi bo'ladi, chunki u o'z mohiyatida va boshqa ko'p narsalarda o'zida muhabbat obyektidir." Unga Ibn Sino tomonidan aqlli ilohiy substansiyalar deb nomlangan mavjudotlar ergashadi, ular ham birinchi Haqiqat tafakkuridan, ham u bilan ymumiy bo'lgan samoviy kelib chiqishidan zavqlanadilar. Bu yerda avvalambor, donishmand-faylasyf ongining eng yuqori nazariy qobiliyatini nazarda tutamiz, bu asl yoki quyi tirik mavjudotlarning intellektyal imkoniyatlari bilan aslo bog'liq emas. Yaxshi, baxtli hayot va kamolotga erishishga intilayotgan inson uchun bilish faoliyatining o'zi uning qalbining aqliy oliy qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lsa ham, yetarli emas. Shu bilan birga, Ibn Sinoning fikriga ko'ra, kerakli maqsadga erishishda subyektning hissiy ehtiros yoki muhabbat sifatida eng yuqori darajada namoyon bo'ladigan idrok obyektiga hissiy-psixologik munosabati ham muhimdir. U ham inson ongi kabi ilohiy inoyat nuri bilan yoritilgan va tug'ma hisoblanadi. Haqiqat va baxtga erishish ehtirosli muhabbat orqali erishiladi, chunki u harakatning manbai, insonning kamolotga bo'lgan ma'naviy intilishining motividir.

Olimning ta'kidlashicha, masalan, "muhabbat ehtirosi-haddan tashqari myhabbat" deganda, ko'pincha jinsning farqlovchi xususiyat e'tiborga olinadi, holbuki muhabbat ehtirosi - by ortiqcha myhabbatdir". [2] Demak, ehtirosga berilib ketgan odam yo biror narsaga erishgan, yoki uni yo'qotgandir.

Muhabbatda Abu Ali Ibn Sino mohiyat va mukammallikni bilishga intiladi. Shunday qilib, "haqiqiy muhabbat-bu muayyan voqyelikni bevosita ko'rish quvonchi hisoblanadi. Ehtiros-bu xayolda biron bir tomondan namoyon bo'lganda, masalan, tasavvurda paydo bo'lganda yoki biron bir tomondan namoyon bo'lmaganda, masalan, hissiy aks ettirish to'liq bo'lmasligi uchun sodir bo'lganda quvonchni yakunlash uchun harakatdir».[3]

Bu ikki pog'ona ortidan ehtirosli sevishganlar turishadi. Bu odamlarni baxtli deb atash mumkin, chunki ularning ehtirosli muhabbati harakat manbai, maqsadga erishishga intilish, o'z baxtlarini ro'yobga chiqarishda rag'batdir. Ularning ba'zilariga ehtirosli muhabbat ma'lum azoblarni keltirib chiqaradi, ammo bu azoblar osonlikcha engiladi, chunki bu uqubatlar baxtli hayot yo'lida ular uchun yoqimli azoblarga aylanadi.

Shuning uchun ham Ibn Sino ta'kidlaydiki, inson ko'ngli "bu dunyoda eng oliy baxtga erishgan, ehtirosli sevishganlar bo'lishga loyiq, ehtirosli bog'liqlikdan mahrum bo'lmagan..." bo'lishi lozimdir[1]. By qalblar ortidan eng kam ruhiy zavqlarga duchor bo'lgan yoki har qanday bilish ehtiroslaridan butunlay mahrum bo'lgan inson qalblari turadi. Shuning uchun ham bu ruhlar "hukmronlik" va "xorlik" yoki "baxtsizlik olamida sayr qilish" bosqichlari o'rtasida yurib, azob-yqybatlarga mahkum bo'ladi va ulardan qochib qutula olmaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Ibn Sinoning fikricha, tanadagi har bir narsa o'ziga xos mukammallik, ushbu mukammallikka ixtiyoriy yoki tabiiy muhabbat, shuningdek ularning muhim asosini tashkil etadigan tabiiy yoki ixtiyoriy ehtirosdan iborat.

Biroq, Ibn Sino muhabbatni faqat xususiyat sifatida emas, balki ruhiy turtki (ulug'vor) yoki isondagi oliy haqiqat bilan birlashuvi, yaratuvchini bilish sifatida tasvirlaydi.

"Muhabbat haqidagi risolasi"da u buni koinotning butun makoniga singib ketadigan kosmik hodisa deb biladi: bu tabiiy va kosmik substansiyalarini barchasi, birlamchi unsurlarning mutlaq ruhning yuqori substansiyalari ham - barchasi ma'lum darajada muhabbat ta'siriga mubtalo qilingan. Shunday qilib, uning talqinidagi muhabbat butun falsafiy konsepsiyaga aylangan, va o'ziga xos "muhabbat falsafasi"[3] darajasiga ko'tarilgan bo'lib, barcha tirik va jonsiz mavjudotlarning yaxlitligini ta'minlaydigan fazilatli va yo'naltiryvchi substansiya sifatida talqin qilinadi. Buni risola boblarining sarlavhalari ham tasdiqlaydi:

1. Har bir alohida subtansiyada oqayotgan muhabbat kuchi haqida.
2. Jonsiz oddiy subtansiyalarda muhabbat borligi haqida.
3. Mavjud narsalarda (umuman olganda) va ulardagi ozuqaviy kuchga ega bo'lgan narsalarda muhabbat haqida.
4. Hayvon substansiyalarda hayvoniy kuchga ega bo'lgan darajada muhabbatning borligi haqida.
5. Noziklik va yoshlik bilan chiroyli tarzda ajralib turadigan kishilarning muhabbati haqida.
6. Ilohiy ruhlarning muhabbati haqida.

Har bir alohida substansiyada sof Ezgulikning individual substansiyasidan kelib chiqadigan o'ziga xos Ezgulik sifatida mukammallikka intilish bilan bir qatorda, ilk materiyadan kelib chiqadigan yovuzlikning namoyon bo'lishi sifatida o'ziga xos illatlardan qochishga tug'ma moyillik mavjud. Ibn Sino shunday yozadi: "[Yuqori tamoyil] tomonidan boshqariladigan mavjud barcha narsalar, tabiiy shahvat va tyg'ma ishqga ega... bu narsalarning mavjudligiga ishq sabab bo'lishi aniqdir" **[4]**. Tabiatning barcha haqiqiy mavjudotlari o'zlarining mavjudligiga shunday moyil bo'ladilarki, ular moddiy olamning etishmasligi va tabiatdan mavjud bo'lgan mukammallik o'rtasida ikkilanib yurishadi. Binobarin, tug'ma ishq va shahvat tufayli mavjud narsalarning komillik bilan bog'lanishi amalga oshadi.

Aslida, ayrim substansiyalarning kamoloti emanasiya orqali erishilgan ana shy komillikning o'zida aks etishidir.

Zaruriy borliq donoligining emanasiyasi orqali kiritilgan individyal substansiyalarda umumiy komilliklarni saqlab qolish uchun ularga umumiy sevgi berilgan, barcha substansiyalarda bu muhabbatning mavjudligi zaruriy va ajralmas bo'lishi lozim.

Bundan kelib chiqadiki, "har bir narsaning [yuqori tamoyil] tomonidan boshqariladigan borligi tug'ma ishq bilan belgilanadi" **[5]**. Hatto birlamchi materiya hisoblangan substansiya ham ishqdan xoli emas, chunki u yoki bu shaklga ega bo'lishga intiladi va shu orqali o'zining mavjudligini ta'minlaydi va yo'qlikdan qochadi. Shakldan ya'ni ishqdan xoli birlamchi materiya mutlaq yo'qlikdir. Ibn Sinoning majoziy ifodasiga ko'ra, u "O'zining xunukligini yashirishga yrinadigan badmashara ayolga o'xshaydi". [6]

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ибн-Сино. Тадбири манзил. (Домоводство). Избр. произ. - Соч. Т.Н. С. 13.
2. Ибн Сино. Хикмати машрикия. - С. 100
3. Ибн Сина. Трактат о любви. / перев.: Серебряков С. Б. Трактат Ибн Сины о любви. - С 48.
4. D. Gutas. Avicenna and the Aristotelen tradition, LEIDEN-BOSTON. 2014.-P.616. ;
5. Шамсутдинова Н.К. Метафизика контекстида Абу Али Ибн Синонинг тасаввуфий қарашлари.// Imom Buxoriy saboqlari. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy adabiy jurnal // Samarqand. 2023-№4. B. 128-129.
6. Шамсутдинова Н.К. Абу Али Ибн Сино тасаввуфий қарашларининг иррационал моҳияти.// Journal of central Asian renaissance // https://www.tadqiqot.uz/index.php/renaissance/article/view/8419/801

7. Mahdi M. Islamic philosophy: the Eastern and Western schools. - "Cultures". - Paris, 1978, Vol 4, №1.

SHARQNING BUYUK MUTAFAKKIRI

Axmedova Zebiniso Azizovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri, dotsent

Ahmad Donish (1827–1897) - XIX asrning eng mashhur olimlaridan biri bo'lib, O'rta Osiyo ilm-fani va ma'naviyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. U nafaqat o'z davrining yirik mutafakkiri, balki adabiyot va falsafaning chuqur bilimdoni, shuningdek, davlat arbobi sifatida ham tanilgan. Ahmad Donishning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari nafaqat uning zamonasi, balki keyingi asrlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Donishning falsafiy qarashlari va ma'naviy g'oyalari o'z davrining siyosiy va ijtimoiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, ilmni va ma'rifatni eng oliy qadriyat sifatida qabul qiladi. U ilm va ma'rifatga bo'lgan hurmatini, milliy va dini qadriyatlarni rivojlantirish zaruriyatini har tomonlama targ'ib qilgan. Ahmad Donishning asarlari nafaqat o'zi yashagan davrda, balki keyingi zamonlarda ham ta'lim-tarbiya va ma'naviy tarbiya sohalarida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan.

Taniqli olim, professor Ibrohim Haqqulning "Ahmad Kalla" nomli essesida shunday satrlar bor: "O‘n to‘qqizinchi asrdagi Buxoro sharoitida Ahmad Donishdek olim, adib, mutafakkir va davlat arbobining kamol topishi hayratlanarli hol…Ilm-fanning sayozlashuvi, ma'rifat bo‘stonlarining qovjirashi, hurriyat nurlarining so‘nishi Buxoroning tinka-madorini quritgan edi. Davlat va hokimiyat Buxoroi sharif ahli xohish-irodasiga zid bo‘lgan aqida va orzu-havaslarga tobe edi…Rost so‘z, to‘g‘ri fikrning bir chaqalik qiymati bo‘lmagan ana shunday qaltis sharoit va zerikarli muhitda Ahmad Donish saroy xizmatida yurgan… Ahmad Donish hayotni sevib, hech bir to‘siq va qarshilikni pisand etmay mardona kun kechirdi. Shu boisdan ham uning asarlari rostlik, matonat ruhi bilan sug‘orilgan".

Axmad Donish XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr ibtidosi ma'naviy xayotida burilish nuqtasini boshlab bergan.

Ahmad Donish o‘z asri uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham dono ustoz, bag‘rikeng muallim, ilg‘or fikrli, matonatli rahnamo, e'tiqod va maslagiga sadoqatli shaxs sifatida qadrli. "Men dunyoni o‘z ixtiyorim bilan tashlaganim yo‘q, - deydi Donish, - balki ko‘p yillar o‘tib orttirgan tajribam orqali ma'lum bo‘ldiki, mening baxtli bo‘lishim molu-dunyoga qiziqmasligim va oddiy hayot kechirishimda ekan. Chunki menda yashirinib yotgan nafs va shaytoniy ishlarning ko‘pligi o‘zimga ayondir".

Ustoz Sadriddin Ayniyning "Esdaliklar" asarida Ahmad Donish haqida shunday ma'lumot keltirilgan: "U ajoyib odamning nomi Ahmad Mahdum, uning adabiy taxallusi Donish, ilmiy taxallusi muhandis va qiziqishi munajjimlik ekan. U odamning boshi haddan ortiq katta bo‘lganidan, unga "Kalla" degan nom bergan ekanlar. Odamlar uni Ahmad Mahdum, Ahmad Mahdumi Donish, Ahmad Mahdumi muhandis, Ahmad Mahdumi munajjim yoki butunlay qisqartirib Ahmad Kalla deb yuritar ekanlar. Ammo u o‘zini hazil bilan "Ahmadi Porina"(ya'ni, "o‘tgan yilgi Ahmad") der va "odamlar meni ne desalar desinlar", men hamon "Ahmadiporinaki budam, hastam"(ya'ni, men hamon o‘sha bulturgi Ahmadman, hozir ham o‘shaman) der ekan".

Bu shaxs Buxoro qozikaloni Sadri Ziyo tomonidan "rasm chizishda Behzodu moniy, astronomiyada Ulug‘bek Ko‘ragoniy, hattotlikda Mir Ali, musiqada Zuhrai falak, jadvalshunoslikda Mir Shafe'ro Soniy, shifokorlik va tabobatda Abu Ali, sahovatda Hotam Toy, she'r yozishda Sa'di Sheroziy, nasrda Husayn Koshifiy darajasiga yetgan edi", deb ta'riflangan, qomusiy bilim sohibi bo‘lganligi bois zamondoshlari tomonidan - Ahmad mahdum, - Ahmad mahdumi donish, - Ahmad mahdumi muhandis, - Ahmad mahdumi munajjim, - Ahmad kalla nomlari bilan ulug‘langan.

Odamlarga, xususan, madrasa talabalariga turli kitoblardan nusxa ko‘chirib, ularni har xil rasmlar, turli-tuman naqshlar bilan bezab, moddiy ahvolini yaxshiladi, iste'dodli naqqosh va kotib

sifatida shuhrat qozondi. O‘z davrining ilg‘or va har taraflama bilimli kishisi bo‘lib yetishadi va 100 dan ortiq turli olimlarning ko‘lyozmalarini ko‘chiradi. Ahmad Donish “Haft qalam” nomiga ega bo‘lgan Buxoro hattotlik maktabi vakillaridan biridir.

Hattotlik, rassomlik va naqqoshlikni puxta egallagan, shuningdek, munajjimliqdan yaxshi xabardorligi bilan Nasrullaxon nazariga tushgan. Uning amir Muzaffar taklifiga ko‘ra 1865-yilda “Manozir ul-kavokib” (“Sayyoralarning joylashishlari”) nomli ilmi nujumga oid kitob yozganligi bu sohani ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Ahmad Donish Buxoro shahri tarixi, uning joylashish o‘rni, geografiyasiga tegishli qimmatli ma’lumotlar yiqqan, Buxoro shahrining tarh ya’ni sxema-planini qog‘ozga tushirgan, bunda shaharning barcha inshoot, bino, suv yo‘llari, ko‘chalari nomlarini birma-bir sanagan. Buxoro tarixini o‘rganishda bu faktlar muhim tarixiy manba ekanligi bilan qadrlidir. Rangli xarita yaqin tariximiz haqida ma’lumot beruvchi muhim ashyoviy manba sifatida ilmiy qimmatga ega va olimning qiziqish doirasi kengligidan dalolat beruvchi noyob ilmiy meros.

“Ahmad Donishning, - deydi akademik Ibrohim Mo‘minov, - Fuzuliyning ozarbayjon tilida yozilgan she’rlaridan olgan parchalari juda e’tiborli. Bu esa Donishning Fuzuliy g‘oyalari, uning astronomiya haqidagi fikrlari bilan qiziqqanidan dalolat beradi”.

Ustoz Ayniyning hikoya qilishicha, “Mir Arab madrasasida 300 dan ortiq tolibi ilmlar, mullalar o‘qir edi. Shu madrasada Ahmad Mahdum Donishning hujrasi bor edi. Uni Ahmad Kalla, deb atar edilar. Haftada bir marta, kechqurun uyidan o‘zining hujrasiga kelar edi. Mullalar uni olim va shoir deb atar edilar. Men u bilan tanishishni judayam xohlar edim, ammo buning uchun men hali juda yosh edim. O‘sha yili Sharifjon Mahdum Buxoroga qaytdi. Ahmad Kallaning “Nodir voqealar” asari qo‘lyozmasini olib keldi va Mirzo Abdulvohidga uni ko‘chirishni topshirdi” .

Donish boshlang‘ich ta’limdan so‘ng, guzar maktabida, keyinroq madrasada tahsil olgan. Madrasa xatmidan so‘ng ustozlaridan birining ko‘magi bilan Ahmad Donish Amir Nasrullo saroyiga me’mor va hattot sifatida ishga joylashdi. Ko‘p vaqt o‘tmay u nafaqat naqqoshu-me’mor, balki dono, fozil olim sifatida taniladi. Amir Nasrullo Donishning ziyrakligi, aqlliligini fahmlab, Peterburgga mirzo va ishonchli kishisi sifatida yuboradi. 1857 yilning yozida Nikolay I vafoti munosabati bilan ta’ziya izhori, Aleksandr I ning taxtga o‘tirganini tabriklash uchun bu guruh yo‘lga chiqadi. Guruh sardori elchi mullojon Miroxur edi. Uch oy davom etgan safarda ular sanoat korxonalari, tarixiy va madaniy yodgorliklar, kutubxona, teatr, rasadxona, botanika bog‘i, muzeylar, ilm-fan markazlari bilan tanishdilar. Bu tashrif Donishga ikki davlatni bir-biri bilan qiyoslash imkonini beradi.

Ahmad Donish ko‘rganlarini amirga ta’riflab bersa, uning xikoyalaridan keyin amir davlatda islohot o‘tkazadi, deb umid qilar edi. Chunki amirning o‘zi Donishga rus davlatining ichki ishlarini diqqat bilan o‘rganib kelishni ta’kidlagan edi. Donish hikoyalari amirda qanday taassurot qoldirgani aniq emas edi. U 1860 yilda vafot etadi va uning irodasiz, tadbirsiz o‘g‘li Muzaffar taxtga o‘tiradi. Muzaffar davrida Donishning saroyda nufuzi va ta’siri kamroq bo‘ldi.

1866 yil rus podshosi Toshkentga hujum qilib, uni qo‘lga kiritadi. Amir Muzaffar o‘zini islom homiysi hisoblab, rus qo‘shiniga qarshi lashkar tortadi va shu bilan Buxoro va Rossiya o‘rtasida qarama-qarshilikni vujudga keltiradi.

Donish Rossiyaning iqtisodiy va harbiy qudratini yaxshi bilgani uchun Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi jangni foydasiz deb hisoblaydi. Donishning so‘zlariga qaramay, amir dushmanlik munosabatlari-yu, jang otashini tezlatar edi. Natijada Buxoro mag‘lubiyatga uchradi, tuzilgan sulh asosida u Rossiyaga katta tovon to‘ladi, yerlarining katta qismidan mahrum bo‘ldi.

1869 yilning oxirida sulhga imzo chekilgandan so‘ng amir Muzaffar do‘stlik izhori va ikki mamlakat munosabatlarini mustahkamlash uchun Peterburgga o‘z elchilarini yubordi, Donishni esa safarning maxsus mirzosi etib tayinladi. Bu safarda Ahmad Donish Peterburg bilan yanada yaxshiroq tanishadi, rus amaldorlari, ma’murlari orasida siyosatdonligi bilan elchidan ortiqroq obro‘ga ega bo‘ladi. Ahmad Donish Rossiya davlatining tuzilishi, bu mamlakatning boshqa davlatlarga munosabati bilan tanishadi. Yevropa, Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatidan xabardor bo‘ladi. U vaqtini tejab tarixiy yodgorliklar, Kronshtat qal’asi, g‘ishtsozlik korxonasi, ko‘rgazmalarni ko‘rib, xodimlar bilan suhbatlashadi.

Safar natijasida Donishning amir yaqinlaridan donoroq ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi. Ikkinchidan, safari vaqtida u tadbirkorligi tufayli ko‘pgina ishlarni Buxoro foydasiga hal qildi va aql farosati, siyosatdonligi bilan Rossiya ma’murlari oldida katta e’tiborga ega bo‘ladi.

1874 yil fevral-mart oylarida Rossiyada nashr etilgan “Golos”, “Novoe vremya” gazetalarida Ahmad Donishning bilim-saviyasi va siyosatdonligi ta’riflangan fikrlar yozilgan bo‘lib, u “Namunali shaxs” sifatida e’tirof etilgan. Bu esa Donish rus podshosi xizmatidagi yozuvchi va olimlarning e’tiborini tortgani hamda hurmatiga sazovor bo‘lganidan dalolatdir.

Amir Ahmad Donishga saroyda ishlashni taklif qiladi, ammo mutafakkir har xil bahonalar bilan uzoqroq yurishga harakat qilar edi. Bu orada amir uni uchinchi bor Peterburgga safarga yuboradi. Donish uch oy o‘sha yerda yashaydi (1874 yil yanvar-mart). Uning obro‘si shunchalik ko‘tariladiki, hatto imperator Aleksandr II ning o‘zi Donishning donoligini eshitib, shaxsan ehtirom ko‘rsatadi. Donish bu safarida Moskva shahrini tomosha qiladi, rus sharqshunos olimi V.Grigorev bilan tanishadi.

Bu safardan keyin yana unga davlat ishini taklif qiladilar. Donish o‘z fikrini maktub vositasida izhor qiladi. U shunday shart qo‘yadi: agar davlat ishlari o‘zgartirilsa, islohot o‘tkazilsa, shu vaqtning o‘zidayoq davlat mansabini egallashga rozi bo‘ladi. Ahmad Donish islohot va davlat boshqaruvi tartibini o‘zgartirish haqidagi takliflarini maxsus risolada aks ettirib amirga yuboradi (Keyinroq bu asarni “Risola dar nazmi tamaddun va taovun” nomi bilan “Navodir ul-vaqoe’”ga kiritadi). Bu risolada birinchi navbatda parlament sistemasini joriy etishda hokimlik huquqlarini ko‘rsatib beradi.

1889 yilning yozida Buxoroda dahshatli vabo epidemiyasi yuz berib, har kuni 500-600 kishi yostig‘ini qurita boshladi. Bolalik yillari G‘ijduvon tumanining Soktare qishlog‘ida o‘tgan Sadriddin Ayniy o‘zining “Esdaliklar” asarida vaboning o‘z oilasidagi dahshatli oqibatlarini shunday bayon qilgan:”Kichik bir xonada qator bo‘lib besh bemor yotar edi. Men ularning biridan ikkinchisining yoniga o‘tib, suv, sut ichirar, yuzlariga qo‘nayotgan chivinlarni haydar, turmoqchi bo‘lganlarida qo‘ltiqlaridan ko‘tarib yordam berar edim. Bir hafta o‘tgach, qishlog‘imizdagi barcha xonadonlar shunday ahvolga tushdi. Faqatgina qishlog‘imizda emas, butun tumanda sog‘lom odam deyarli qolmadi. Odamlar o‘la boshladilar”... O‘sha kunlarda Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda 25 mingdan ziyod kishi halok bo‘ldi. Odamlar birin-ketin o‘layotgan qarindosh-urug‘lari jasadlarini ko‘mishga ham ulgurmas edilar. Faqatgina kuz boshlanib, sovuq tushganidan keyin epidemiya shiddati biroz susaydi. Buxoro amiri mamlakatda zamonaviy tibbiyot tizimini vujudga keltirmasdan bunday falokatlarni bartaraf etib bo‘lmasligini tushundi.

1891 yil 15 mayda Rossiya siyosiy agentligining qistovi bilan amir Abdulahadxon farmoniga ko‘ra Buxoroda birinchi "Rus tuzem shifoxonasi" tashkil etiladi. Ahmad Donish hazm qilish bilan bog‘liq surunkali qabziyat kasalligining bezota qilishi sababli 1895 yillar boshlarida shayx Jalol darvozasi olida joylashgan lazaretning birinchi bosh vrachi Penzyakov Iosif Fyodorovichga murojaat etadi va uning qaramog‘ida davolanadi.

Ahmad Donish o‘z asri uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham dono ustoz, bag‘rikeng muallim, ilg‘or fikrli, matonatli rahnamo, e’tiqod va maslagiga sadoqatli shaxs sifatida qadrli hisoblanadi.

Ahmad Donishning hayoti va ma’naviy merosi Markaziy Osiyo ilm-fanida va madaniyatida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning ilmiy va falsafiy qarashlari, adabiy merosi va ma'naviy g‘oyalari o‘z davrida nafaqat o‘z xalqiga, balki butun Sharq dunyosiga ta'sir ko‘rsatgan. Donish ilmga bo‘lgan yuksak hurmat, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni saqlashga intilgan, va shu orqali o‘z asarlarida ilm-fan va diniy g‘oyalarni uyg‘unlashtirib, jamiyatni taraqqiy ettirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temirov F.U.Buxorolik allomalar. - Buxoro, 2022. – B.59
2. Voxidov R. Yillardan qolgan ma’naviy yodgorlik. – Toshkent: “Zarqalam”, 2006. – 290 b.
3. Ayniy S. Asarlar. 8 jildlik. - Toshkent: Fan, 1965. 5-jild. - 205 b

4. Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya. Tojik tilidan tarjima, kirish, izohlar muallifi B. Aminov. - Toshkent: Bayoz, 2017. – B. 60.
5. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. - Toshkent: Tafakkur, 2016. – B. 332.
6. Hasanov H. Sayyoh olimlar.T., “Fan”, 1981. – B. 232.
7. R.M.Ahmedov, N.N.Naimov. Buxoro tibbiyoti tarixi. – Buxoro: Buxoro, 2009. – 47 b.
8. Akhmedova Z.A. Ahmad Donish’s ideas on improving public administration // Oriental Journal of Philology. 2021 yil, 31 dekabr 10-18
9. Akhmedova Z.A. Kultur von Turkestan in der zweiten hälfte des 19. jahrhunderts. // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2021. - № 1 . – P. 20-29.
10. Axmedova Z.A. Ahmad Donishning falsafiy g‘oyalari. //O‘zbek falsafasi tarixi. III jild. Toshkent: “Muharrir”. – 2000. – B. 143-162.

AJDODLAR MEROSI VA UCHINCHI RENESSANS JAMIYAT MA’NAVIY YUKSALISHINING POYDEVORIDIR.

Saifillaeva Dilfuza Kakhramonovna
Buxoro Davlat Universiteti, “Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa” kafedrasi mudiri, (PhD)

Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash har bir millat va jamiyatning tarixiy, madaniy hamda axloqiy ildizlariga tayanadi. U o‘z ichiga xalqning ma’naviy qadriyatlarini, vatanparvarlik tamoyillarini va ijtimoiy tajribani oladi. Shu bois axloqiy qadriyatlar tizimini o‘rganish va uni jamiyat hayotiga tatbiq etish shaxs va davlat barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi Renessans va yangi taraqqiyot g‘oyalari esa inson tafakkurini kengaytirish, ijodiy va ma’naviy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgandir [1, b. 123]. Bu g‘oyalar jamiyatning ma’naviy yuksalishida, shaxsning axloqiy barkamolligini hamda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi zamonda vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi uyg‘unlashganda, ular nafaqat shaxsning ma’naviy barkamolligini oshiradi, balki jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy uyg‘unlik va milliy birdamlikni ta’minlayd. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axloqiy qadriyatlar tizimi va vatanparvarlik tarbiyasi ijtimoiy barqarorlikning mustahkam poydevori sifatida o‘rganishga loyiq ilmiy mavzudir [2, b. 123]. Ushbu matn vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ularning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tatbiqini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Tarixiy meros va axloqiy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy ildizlarini tashkil etadi. U nafaqat o‘tgan avlodlarning tajribasini, balki xalqning vatanparvarlik va mas’uliyat tuyg‘ularini ham o‘z ichiga oladi. Axloqiy qadriyatlar tizimi milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ildizlarga hurmatni shakllantirish, shuningdek, shaxsning ma’naviy barkamolligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Uchinchi Renessans g‘oyalari inson tafakkurini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ma’naviy yuksalishda strategik ahamiyat kasb etadi. Bu g‘oyalar shaxsni bilimli, tafakkurli va axloqiy jihatdan yetuk fuqaro sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi [3, b. 123]. Uchinchi Renessans nafaqat shaxsning tafakkur doirasini kengaytiradi, balki jamiyatda ilm-fan va axloqiy me’yorlarga bo‘lgan hurmatni mustahkamlaydi. Vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi uyg‘unlashganda, ular jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni va madaniy uyg‘unlikni ta’minlashning mustahkam poydevorini yaratadi. Tarixiy tajriba bilan uyg‘unlashgan bu tamoyillar shaxsning axloqiy barkamolligini oshiradi, insonparvarlik va adolat ruhini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular yosh avlodni vatanparvarlik, halollik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, axloqiy qadriyatlar tizimi va vatanparvarlik tarbiyasi o‘quv jarayonida shaxsning ma’naviy barkamolligini rivojlantirishga yordam beradi. Ular ijodiy tafakkur va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirib, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu tariqa, mazkur ikki yo‘nalish uyg‘unlashganda, ular jamiyatning ma’naviy, madaniy va pedagogik

rivojlanishida uzluksiz poydevor yaratadi. Vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi har qanday demokratik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning buzilmas poydevorini yaratadi. Tarixiy tajriba va boy madaniy qadriyatlar bilan uzviy uyg‘unlashgan bu ulug‘vor g‘oyalar shaxsning axloqiy barkamolligini, insonparvarlik ruhini va milliy uyg‘onish jarayonlarini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ular jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, fuqaroviy birdamlik va kelajakka bo‘lgan ishonchli barqaror rivojlanishning hal qiluvchi omili sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy globallashuv va axborot xurujlari keskinlashgan sharoitda ushbu tizimning ahamiyati yanada ortib, yosh avlodning ongi va qalbida Vatanga sadoqat tuyg‘usini qaror toptirishda boshqaruvchi ma’naviy kompas vazifasini bajaradi. Milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tamoyillari asosida shakllangan vatanparvarlik tarbiyasi har bir fuqaroda mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Natijada, jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlar sog‘lom muhitda rivojlanib, har qanday turdagi yot mafkuraviy ta’sirlar va ma’naviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitet hosil bo‘ladi.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi jamiyatning ma’naviy yuksalishida va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega [4, b. 123]. Axloqiy qadriyatlar shaxsning madaniy qadriyatlarini shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy tajribadan saboq olish imkonini beradi. Uchinchi Renessans g‘oyalari esa shaxsning ijodiy va tafakkur salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilib, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlaydi. Ushbu omillar uyg‘unlashganda, ular shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi, yosh avlodni insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu tariqa, vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi jamiyatning barqaror poydevorini yaratadi [5, b. 123].

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimi uzluksiz va mustahkam poydevorni tashkil etadi. Bu esa zamonaviy jamiyat rivojlanishi, pedagogik yondashuvlar va Uchinchi Renessans g‘oyalarini hayotga tatbiq etish uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
2. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.
3. Jorayev N. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va institutsional islohotlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 180 b.
4. Erkaev A. Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-institutsiya omillari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 215 b.
5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ И НРАВСТВЕННОСТЬ КАК ОСНОВА ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Нагайбаева З. А. - к.с.н., ассоциированный профессор,
Бисембаева З. У. - к.ф.н., ассоциированный профессор КазНМУ им.С.Д.Асфендиярова

Духовные ценности и нравственность во все времена оказывали особое влияние на духовное развитие общества, выражались в способах и принципах духовной деятельности человека, в характере удовлетворения потребностей общества. В современных условиях востребованным является проблема сохранения и восприятия нравственных и духовных ценностей, традиции, их воздействие на духовно-ценностные ориентации общечеловеческих отношений.

Изменения происходящие в духовном, культурном, нравственном, социальном сферах жизнедеятельности человека показывают, что в обществе проявляется недооценивание нравственных и духовных традиций.

Исследование новых духовно-нравственных концепций должна основываться на сознании человека и базироваться на традиционные, духовно-нравственные принципы, где основополагающе значение отводится сохранению культуры, традиций, обычаев и т.д.

Нравственное развитие личности обуславливается духовным возрождением как потенциальной основы социальной, экономической, политической стабильности общества. Развитие духовно-нравственных отношений вызвано социально-общественным характером развития общества. Развивая духовные ценности человечество должно придерживаться сохранения и преумножить традиции, которые придерживались предшественники и сохранить преемственность, для сохранения и утверждения морально-ценностных ориентаций человека для сохранения многовековых духовно-нравственных традиций.

Научное осмысление традиции помогает выяснить характерные особенности непрерывности и преемственности поколений и способствуют сохранению многовекового опыта народа. Нравственность это и есть духовность, духовность человека обуславливается прошлым, основывается на процессы современной действительности, осмысливает человеческую жизнь.

Нравственность и духовность, являясь ценностной основой личности, во многом схожие понятия, проявляющиеся на основе восприятии личности с последующим отображением в традициях. Традиция, есть неотьемлемое положение существования и развития общества, которое проявляется в обществе с помощью сложной системы моделей, стандартов поведения людей.

Обьективный мир человека существует в качестве основы изменений традиций, обычаев и выступает своеобразным инструментом развития и изменения традиций, дополнения их новациями, побуждающий к отмиранию с учетом их невостребованности. Духовные ценности порождаются традициями и обычаями и являются ценностью для личности и общества. Неотьемлемой частью смысла жизни человека является социальная и духовно-ценностная среда жизни человека в обществе.

Духовные ценности имеют огромное значение для человека вне зависимости от их национальной и культурной принадлежности, общечеловеческие ценности помогают находить точки соприкосновения между представителями различных этнических групп и разных культур. Общечеловеческие отношения не уничтожают разные культуры, а наоборот уважая право других людей обеспечивают возможность для взаимоотношений между различными культурами.

Духовные ценности тесно взаимосвязаны с внутренним миром человека, его представлениями о добре, истине, о счастье, достоинстве, смысле жизни, помогают выяснить жизненные приоритеты человека. К основным духовным ценностям относятся : уважение к старшим, любовь к Родине, к семье, стремление к познанию, к саморазвитию, к справедливости, эмпатия, уважение к достоинству человека, окружающему миру и др.

В настоящее время общество развивается в условиях молниеносных социально-экономических, технологических изменений. Сегодня на мировоззрение человека оказывает сильное влияние цифровизация, изменение образа жизни и расширение информационного пространства. В силу сложившихся условий особое значение приобретают духовные ценности и нравственность, формирующие внутренние ориентиры личности и способствующие сохранению стабильности общества.

В развитии и сохранении духовных ценностей огромную роль играют государственные институты. Немаловажное значение в развитии нравственности имеет честность, справедливость, ответственность, доброта, уважение, эмпатия, взаимоуважение людей друг к другу и др.

Нравственность и духовные ценности составляют фундамент общечеловеческих отношений и складываются не только благодаря знаниям, но и через воспитание, семейные отношения, участие в общественной жизни и т.д. Нравственность – это совокупность принципов и норм, определяющие отношение человека к другим людям и к обществу,

нравственный человек должен осознавать понимать последствия своих поступков и считаться с интересами других.

Литература

1. Гончаров В. Н., Попова Н. А. Духовно-нравственные ценности в системе общественных отношений // Фундаментальные исследования. 2015. № 2. Ч. 7.
2. Мчедлова Е. М. Социокультурные ценности гражданского общества // Наука. Культура. Общество. 2020. Т. 26. № 3. С. 82–89.
3. Южаков В. А. Традиционные духовно-нравственные ценности и потребительская культура в России: противоречия и гармонизация // Социальное управление. 2025. Т. 7. № 2. С. 49–62.
4. Павловская О. А. Духовно-нравственные ценности в формировании современного человека. — Минск: Право и экономика, 2018.

AJDODLARIMIZ KALOM ILMIGA OID MEROSINING ZAMONAVIY IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDAGI AHAMIYATI

G‘ulomov Abdullo

Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent v.b.

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Inson hayoti manfaatlarning muttasil ravishda to‘qnashuvidan iborat murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat moddiy, balki ruhiy-ma’naviy jihatlarga ham ega. Bu esa jamiyatda sog‘lom raqobat va taraqqiyot singari ijobiy tushunchalar bilan birga turli ijtimoiy-psixologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Mazkur muammolarning yechimi borasidagi qarashlar esa turli-tuman. Ularning ichida diniy e’tiqod bilan bog‘liq his-tuyg‘ular alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom ilmlari orasida kalom ilmi o‘ziga xos xususiyatga ega. “Kalom ilmi” yoki “Aqoid” deb nomlanuvchi mazkur ilm islom diniga e’tiqod qiluvchi har bir shaxs bilishi va qattiq ishonishi lozim bo‘lgan ta’limotlar majmuasini bayon qilib beradi. Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar boshqa ilmlar qatori kalom ilmi taraqqiyotiga ham salmoqli xissa qo‘shgan. Farg‘ona diyorida tug‘ilib, Samarqandda faoliyat yuritgan Abus-Sano Mahmud ibn Zayd Lomishiy ana shunday ulamolardan biri bo‘lib, u o‘z davrining faqih, mutakallim olimi sifatida tanilgan.

Olimning ilmiy asarlari orasida “at-Tamhid li qova’id at-tavhid” kitobi alohida ahamiyat kasb etib, aqida ilmiga oid muhim manba sanaladi.

“Tamhid” asari XII asrda yozilgan bo‘lib, o‘zida moturidiya ta’limoti qarashlarini aks ettirgan. Asarda aqida ilmining tavhid, Allohning ism va sifatlari, risolat va nubuvvat, avliyolarning karomatlari, rizq, shafoat, qazo va qadar kabi masalalari bayon etilgan.

Hozirgi vaqtda jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-psixologik muammolar sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

— O‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payib borayotgani;
— Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga mukkasidan ketish;
— Sodir etilgan yomon ishlarni taqdirga to‘nkash;
— O‘limdan keyingi jarayonlarga bo‘lgan ishonchning zaifligi;
— Rizq haqidagi noto‘g‘ri tasavvurlarning mavjudligi;
— Qanday yo‘l bilan bo‘lmasin birdaniga yuqori darajadagi moddiy ta’minlanganlikka erishish;
— Giyohvandlik, ichkilik va turli psixotrop moddalarga qaramlik;
— Fahsh hamda behayolikning avj olishi va uning nomaqbul jinsiy hayotga ta’siri;
— Zo‘ravonlik va bezorilikning odatiy hol sifatida qabul qilinishi;
— Korrupsiyani hayotning ajralmas bir bo‘lagi, tabiiy qonun deb qabul qilish kabilar.

Kalom ilmidagi bosh mavzulardan biri Yaratuvchining yagonaligi va Uning qudrat, ilm, iroda, eshitish, ko‘rish kabi sifatlarini isbotlash hisoblanadi. Yaratuvchini komil sifatlari bilan

tanish va Unga chin ma’noda bandalik qilish barcha yaxshiliklarning boshi hisoblanadi. Aksincha, Uni tanimaslik insonning nomaqbul hayot tarzida o‘z aksini topadi.

Taqdir masalasi ham kalom ilmidagi muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Uni tushunishda esa turlicha talqinlarga duch kelish mumkin. Taqdirning oldindan bitib qo‘yilgani aniq, lekin nima bitilgani noma’lum. Jabariylardan farqli o‘laroq, ahli sunna val jamoa e’tiqodiga ko‘ra, inson hech bir ishni qilishga majbur qilinmaydi. Insondan talab qilingan narsa shuki, yaxshilik qilish va yomonlikdan qaytish. Ana shunda turli-tuman yomonliklarni amalga oshirishga taqdirni ro‘kach qilish barham topadi.

Oxiratga bo‘lgan ishonch, qiyomatda amallarning hisob-kitob qilinishi, jannat va do‘zax, jannatda Alloh taoloni ko‘rish, payg‘ambarlarning shafoati, qabr azobining haqligi kabi masalalar ham kalom ilmida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzularni ilmiy asosda o‘rganish, atroflicha mushohada qilish yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning o‘z yechimini topishida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Aqida ilmida yana avliyolar va ularning karomatlari borasida ham so‘z yuritiladi. Avliyoning ta’rifi, uning shartlari va karomatlarining zohir bo‘lishi, har bir mo‘min-musulmon inson valiylik darajasiga yetishi mumkinligi borasida bilimga ega bo‘lish insonni komillik sari yetaklaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ajdodlarimiz, xususan, Mahmud ibn Zayd Lomishiyning kalom ilmiga oid merosini ilmiy asosda o‘rganish yoshlar orasidagi ijtimoiy-psixologik muammolarning o‘z yechimini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, alloma Lomishiyning ibratli hayoti va ilmiy merosi g‘oyalar kurashi avj olgan bugungi davrda yosh avlodga muqaddas dinimiz ta’limotining asl mohiyatini tushuntirish va ularni ma’nan barkamol inson qilib tarbiyalashda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri // A.Mansurov. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
2. Abullays Samarqandiy. Bahrul-ulum. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1993.
3. Abu Shakur Solimiy Keshiy. At-Tamhid fi bayonit tavhid (Tarjimon: S.Primov). – T.: Movarounnahr, 2014.
4. Doktor Mustafo Shak’a. Buyuk imom Abu Hanifa No‘mon. – Samarqand, “Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti”, 2019.
5. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-tamhid li qova’idit-tavhid(Usmon Orkach tahqiqi ostida). – Istanbul, Erenler vakfi, 2021.
6. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qovaid at-tavhid (Abdulmajid Turkiy tahqiqi ostida). – Bayrut: Dor g‘arb al-islamiy, 1995.
7. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qovaid at-tavhid (Ahmad Farid Miziyadiy tahqiqi ostida). – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2007.
8. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxisi. – T.: “HILOL-NASHR”, 2014.
9. Oqilov S. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta’limoti. – T.: Hilol-Nashr, 2020.

JAMIYAT MA’NAVIY TARAQQIYOTIDA OILA, AXLOQ VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

G‘afurov Doniyor Oripovich

Buxoro Innovatsiyalar universiteti dotsenti

Oila, axloq va milliy qadriyatlar uyg‘unligi har bir jamiyatning ma’naviy poydevorini tashkil etuvchi eng muhim omillardan biridir. Oila – shaxsning birinchi tarbiya muhiti bo‘lib, unda insonning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy fazilatlari shakllanadi. Shu sababli, oilada mustahkamlangan yuksak axloqiy mezonlar shaxsning ichki dunyosini boyitadi, uni ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar esa asrlar davomida xalqimiz boshidan kechirgan boy tarixiy tajriba, ajdodlar merosi hamda ma’naviy-madaniy an’analarini o‘z ichiga oladi. Ular jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash, shaxslarni o‘z milliy o‘zligini chuqur anglashga va ijtimoiy hayotda faol, ongli ravishda ishtirok etishga undashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [1, b. 67]. Zero, milliy ildizlariga sodiq qolgan inson jamiyatdagi o‘z o‘rnini topadi, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydi.

Darhaqiqat, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bu bebaho ma’naviy xazina shaxsning dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, uning qalbida o‘z Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Har bir xalqning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari va axloqiy mezonlari uning o‘ziga xosligini сақлаб qolish bilan birga, yosh avlodni ezgulikka yetaklovchi ma’naviy mayoq vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni e’zozlash va ularni zamonaviy hayot tarzi bilan uyg‘unlashtirish jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni qaror toptirishning eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila, yuksak axloq va milliy qadriyatlar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, ijtimoiy totuvligi va barqaror rivojlanishining mustahkam poydevorini tashkil etadi [2, b. 54]. Chunki har qanday kuchli va farovon jamiyatning boshlang‘ich nuqtasi sog‘lom oilaviy muhit va ma’naviy-axloqiy sog‘lomlikka tayanadi.

Bugungi kunda jadal tus olgan globallashuv, axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi va turli xil yashirin mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda oilaning hamda milliy qadriyatlarning o‘rni yanada oshib bormoqda. Yosh avlodni tarbiyalashda oilaviy muhitni sog‘lom axloqiy tamoyillar, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va milliy an’analar uyg‘unligi bilan boyitish, ularda yuksak ijtimoiy mas’uliyat, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish har qachongidan ko‘ra dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifaga aylanmoqda.

Oila jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim ijtimoiy tizimi sifatida shaxsning birinchi tarbiya maskani hisoblanadi. Oilada shakllanadigan axloqiy va ma’naviy fazilatlar insonning xulq-atvori va ijtimoiy roli uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shaxs oilada tarbiyalanish jarayonida mas’uliyat, hurmat, vatanparvarlik va sabr-toqat kabi axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, oilaviy tarbiya shaxsni jamiyatdagi faoliyatga tayyorlaydi, uning ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lishini rag‘batlantiradi va to‘g‘ri axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar shaxsning har tomonlama tarbiyasi hamda jamiyatning ma’naviy barqarorligi uchun mustahkam poydevor va muhim kontekstni yaratadi. Ular asrlar davomida sinovdan o‘tgan tarixiy tajriba, ajdodlar merosi, urf-odat va an’analarni o‘z ichiga olib, shaxsni o‘z milliy o‘zligini teran anglashga, ildizlarini qadrlashga va yuksak axloqiy tamoyillarga sodiq qolishga undaydi [3, b. 43]. Zero, milliy o‘zlikni anglagan inson o‘z xalqining ma’naviy boyliklarini e’zozlaydi va turli yot g‘oyalarga nisbatan o‘zida mustahkam immunitetni shakllantiradi.

Bundan tashqari, axloqiy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlik, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular insonlar o‘rtasidagi kundalik munosabatlarda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, insof, adolat va hamjihatlikni rag‘batlantirib, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy ishonch muhitini mustahkamlaydi [4, b. 38]. Jamiyatda sog‘lom axloqiy muhit hukmron bo‘lgandagina ijtimoiy nizolarning oldi olinadi va barqaror taraqqiyot ta’minlanadi.

Shu tariqa, oilaviy tarbiya, yuksak axloq va milliy qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlashganda, ular nafaqat alohida shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlaydi, balki butun jamiyatning intellektual va umumiy ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda, kelajak avlodni mas’uliyatli va vatanparvar qilib voyaga yetkazishda ham asosiy vosita sifatida xizmat qiladi [5, b. 44]. Bugungi jadal globallashuv va axborot oqimlari shiddatli tus olgan murakkab zamonaviy sharoitda oilaviy an’analar hamda milliy qadriyatlarni zamonaviy ilmiy-axloqiy yondashuvlar bilan boyitib borish jamiyat ma’naviy taraqqiyotining harakatlantiruvchi hamda ajralmas omilidir.

Jamiyat ma’naviy taraqqiyotida oila, axloq va milliy qadriyatlar uyg‘unligi markaziy o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilada shakllangan yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlar shaxsning ichki dunyosini boyitadi, uning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantiradi va vatanparvarlik ruhini mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlar esa jamiyatdagi barqarorlik va ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Ular yosh avlodni ma’naviy barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli va insonparvar shaxs sifatida tarbiyalashning eng samarali vositasidir. Shu bois, oilaviy va milliy qadriyatlarni axloqiy asosda rivojlantirish har bir davlat siyosati va ta’lim tizimi uchun ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Shermuhamedova N. Falsafa va ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 190 b.
3. To‘xliyev B. Oila pedagogikasi va ma’naviy-axloqiy tarbiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 210 b.
4. Yusupov E. Inson, uning axloqi va milliy qadriyatlar. – Toshkent: Sharq, 2017. – 160 b.
5. Inoyatov S. Jamiyat ma’naviy taraqqiyoti va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 185 b.

MAMADQULOZODA VA SIDDIQIY QARASHLARIDA MA’RIFAT VA AXLOQ UYG‘UNLIGI.

Haqqulov Nabijon Qahramonovich
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Jadidchilik harakati XIX-XX asrlar o‘rtalarida Sharq, xususan Ozarbayjon va Turkiston hududlarida ma’rifiy va ijtimoiy yangilanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Ushbu harakatning maqsadi nafaqat xalqni bilim bilan ta’minlash, balki ularni zamonaviy ijtimoiy va siyosiy hayotga tayyorlash, milliy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan. Jadidchilik harakati o‘z faoliyati davomida Sharq falsafiy merosi, islomiy va ma’rifiy an’analar, hamda G‘arbning yangicha bilim va pedagogik tajribalarini uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Shu jihatdan, harakat nafaqat ta’lim va madaniyat sohasida, balki jamiyatning umumiy ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Ozarbayjon va Turkistonda bu harakatning rivojlanishida Jalil Mamadqulozoda va Siddiqiy kabi faol shaxslarning roli alohida e’tiborga loyiqdir. Ular o‘z faoliyatlarida ta’limni zamonaviylashtirish, yosh avlodni ma’naviy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, shuningdek, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish kabi masalalarni birinchi o‘ringa qo‘yganlar. Mamadqulozoda va Siddiqiy ishlarida Sharq falsafiy merosi, jumladan, insoniy qadriyatlar, adolat, bilimga intilish, hamkorlik va jamiyatda barqarorlikni ta’minlash kabi printsiplar asos bo‘lgan [1, b. 45]. Jadidchilik harakati va Sharq falsafiy merosi orasidagi uyg‘unlik ushbu harakatning ijtimoiy-ma’rifiy muvaffaqiyatining asosiy omili hisoblanadi. Sharq falsafiy merosi, asosan, insonning ma’naviy rivojlanishi, axloqiy qadriyatlar, jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligi va ilm-fanga bo‘lgan hurmat kabi tamoyillarni o‘zida mujassam etgan. Mamadqulozoda va Siddiqiy faoliyati aynan shu tamoyillarni jadidchilik harakati orqali amaliyotga tadbiq qilgan. Ularning ishlari nafaqat ta’lim va ma’rifat sohasida, balki milliy madaniyat, ijtimoiy adolat va fuqarolarning ma’naviy yuksalishi yo‘nalishida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Bugungi kunda ham jadidchilik harakati va Sharq falsafiy merosining uyg‘unligi zamonaviy Ozarbayjon va Turkiston hududlarida, xususan, O‘zbekistonning ilm-fan, ma’rifat va madaniyat sohalarida o‘z aksini topmoqda. Ularning faoliyati yosh avlodni ma’naviy-intellektual jihatdan rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda [2, b. 112]. Shu nuqtai nazardan, Mamadqulozoda va Siddiqiy ishlarini o‘rganish orqali biz jadidchilik harakati va Sharq falsafiy merosining bugungi kun

taraqqiyotiga bo‘lgan ta’sirini chuqur anglash imkoniga ega bo‘lamiz. Shu tariqa, ushbu maqola doirasida Ozarbayjon va Turkistonda rivojlangan jadidchilik harakati va Sharq falsafiy merosi, shuningdek, Mamadqulozoda va Siddiqiy faoliyatining jamiyat va ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi keng qamrovda o‘rganiladi. Bu kirish qismi harakatning tarixiy ildizlari, falsafiy asoslari va zamonaviy ahamiyatini tushunishga xizmat qiladi hamda maqolaning asosiy tahliliy qismlariga yo‘l ochadi.

Jadidchilik harakati XIX-XX asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan Ozarbayjon va Turkiston hududlarida ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy yangilanishning muhim yo‘nalishi sifatida shakllangan. Ushbu harakatning asosiy maqsadi nafaqat xalqni ta’lim va bilim bilan ta’minlash, balki jamiyatning ma’naviy va axloqiy rivojlanishini ta’minlash, milliy o‘zlikni mustahkamlash va yosh avlodni tarbiyalash bo‘lgan [3, b. 88]. Jadidchilik harakati Sharq falsafiy merosi, islomiy ma’rifiy an’analar va G‘arb pedagogik tajribalarini uyg‘unlashtirishga intilgan. Bu uyg‘unlik orqali harakat ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yangicha qarashlar va yangilanishlar kiritishga muvaffaq bo‘lgan.

Sharq falsafiy merosi, xususan insoniy qadriyatlar, adolat, bilimga intilish, hamkorlik va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini o‘zida mujassam etgan. Jadidchilik faoliyati aynan shu merosdan ilhomlanib, zamonaviy ta’lim tizimini yaratish, yosh avlodni ma’naviy va axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalash va jamiyatning barqaror rivojini ta’minlashga qaratilgan. Mamadqulozoda va Siddiqiy bu harakatning eng yorqin namoyandalari bo‘lib, ularning faoliyati nafaqat ta’lim va ma’rifat sohasida, balki milliy madaniyat va ijtimoiy hayotda ham chuqur iz qoldirgan [4, b. 62].

Jalil Mamadqulozoda faoliyati davomida, o‘quv dargohlarini tashkil etish, yangi uslubdagi darsliklar yaratish va yoshlarni tarbiyalashga katta e’tibor qaratgan. U Sharq falsafiy merosi asosida insonning shaxsiy va ma’naviy yuksalishi, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va jamiyatdagi hamkorlikni rivojlantirishga intilgan. Shu bilan birga, Siddiqiy o‘z faoliyatida jamiyatning ma’naviy rivoji, ijtimoiy adolat va yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surgan [5, b. 134]. Ularning har ikkisi ham jadidchilik harakatini Sharq falsafiy merosi bilan uyg‘unlashtirish orqali jamiyatda bilimga intilish, axloqiy yuksalish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Jadidchilik va Sharq falsafiy merosining uyg‘unligi yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim zamin yaratadi. Xususan, Jalil Mamadqulozoda va Siddiqiy-Ajziy faoliyati ta’limni modernizatsiya qilish, milliy madaniyat va axloqiy barqarorlikni mustahkamlashning tamal toshi bo‘lgan. Ularning asarlarida insonparvarlik, adolat va ilmga intilish tamoyillari jadidchilik g‘oyalari bilan uzviy uyg‘unlashib, jamiyatda yangicha tafakkur tizimini shakllantirgan. Bugungi kunda ushbu merosni o‘rganish yoshlarda axloqiy mas’uliyatni oshirish va barkamol shaxsni voyaga yetkazishda muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Jadidchilik harakati va Sharq falsafiy merosining Mamadqulozoda va Siddiqiy faoliyati orqali rivojlanishi ijtimoiy-ma’rifiy yangilanish, milliy o‘zlikni mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalash va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, ularning merosi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida qadrlanadi, balki Yangi Ozarbayjon va Turkiston hududlarida, xususan, O‘zbekistonning ma’rifiy va madaniy rivojida amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Jadidchilik: Islohot, yangilanish, mustaqillik. – Toshkent: Universitet, 1996. – 210 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 280 b.
3. Siddiqiy-Ajziy. Asarlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 192 b.
4. Karimov N. Jadid adabiyoti namoyandalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 240 b.
5. Jo‘rayev N. Ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish falsafasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 185 b.

IJTIMOIY BARQARORLIK VA AXLOQIY FAZILATLAR

Ismoilov S.T.
GulDU dotsenti, f.f.n.

Xalqimiz dunyo xalqlari orasida insonlardagi fazilat va xususiyatlarga katta e'tibor beradigan xalqdan biri sanaladi.

Ayni paytda bu narsa ko'pchiligimizda etishmayotganga o'xshamoqda nazarimizda. Zero, bu borada xalqimiz boy ma'naviy merosga ega.

Manbalarda fazilat-ijobiy xislat, yaxshi sifat yoki xususiyat-deb talqin etiladi.

Fazilatlar majmui shaxsning axloqiy ongi va tajribasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Fazilatlar o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ularning mazmunida hamma vaqt ham jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar tizimi gavdalanadi. Oxir-oqibatda, aynan fazilat individning dunyoqarashini va dunyoni tushunishini, binobarin, xulqining yo'nalishini belgilaydi. Fazilatlar alohida turdagi tartibga soluvchi omildir. Qoidalardan farqli o'laroq fazilatlar-shaxsning ma'naviy ongidan ajralmaydigan ijobiy axloqiy sifatidir.

Fazilatlar odamga tabiat tomonidan tabiiy tarzda berilmagan, balki hayotdan, insonlar faoliyatidan namuna olib, shaxslarni o'z axloqiy tajribasi yordamida egallanadi yoki shakllanadi.

Yaxshi fazilat odamni odam bilan yaqinlatadi, Har bir odamning boshqalar bilmagan sifatlari bor, Odamning bilimi oshgan sari, yaxshi fazilati ko'paya boradi-deyiladi xalq hikmatlarida.

"Qadimdan o'zining mehmondo'stligi, ochiq ko'ngilligi, mehr-oqibati bilan tanilib kelgan xalqimizning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ularni yanada ravnaq toptirish - bugungi kundagi eng asosiy vazifalarimizdir" [2. b. 324], deb yozadi birinchi prezidentimiz.

Fazilatlarni shakllantiradigan ilm bu axloq ilmidir.

Axloq ilmi insonlarning yaxshi "xulq"larga chaqirub yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini bayon qiladurgan, bildiradurgan bir ilmdir. Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxiratda sharofatlik bo'lur. Axloqli yaxshi kishilar dushmanlarini ham osonlik ila o'zlariga do'st qilurlar. Insonlarning hayvonlardan farqlari, ayrimlari aql, ilm, so'z, adab, fikr, axloq iladur. Shuning uchun dunyoda "chin inson bo'lurman" degan kishilarga bu ilmni o'qimak, "axloq" yo'llarini o'rganmak, yaxshi xulq qaysi, yomon xulq qaysi - bilmak, bir-biridan ayirmak lozimdur [5. b. 3].

Asrlar davomida ajdodlarimiz Qur'oni karim va hadislar asosida to'g'rilik, olijanoblik, mardlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalovchi kodeksni ishlab chiqqanlar. Bugun u butun dunyoda "go'zal islom axloqi" [1. b. 20-39] degan nom bilan e'tibor topmoqda.

"Haqiqiy musulmon:

-yolg'iz Ollohga topinadi;

-Olloh amr etgan, Rasulullоh ko'rsatgan tarzda sajda qilib, ro'za tutadi, molining zakotini (rasmiy soliqlarni) to'laydi;

-etimlarga, yo'qsil va muhtojlarga, xesh-aqrabolarga, musofirlarga samimiy yordam beradi ("silai rahm");

-tahlikali holatlarda o'zini yo'qotmaydi, qo'rqoqlik qilmay, Olloh madadiga tayanadi;

-qiyinchilik, musibat va falokatlarni sabr bilan engadi, Ollohdan umidini uzmaydi;

-kattaga hurmatda, kichikka izzatda, har jonzotga shafqatda bo'ladi;

-ilmga intiladi, ustozlarini hurmat qiladi;

-axdiga vafo qilib, boshqalarning mulkiga xiyonatdan saqlanadi;

-o'z zimmasidagi vazifani bekamu ko'st bajaradi;

-o'zini, yashaydigan va ishlaydigan joyini, buyumlarini kir va iflosdan, qalbini nojo'ya fikrlaru tuban tuyg'ulardan, tilini nojoiz so'zlar aytishdan tozalaydi;

-o'zgalarning aybini kovlab, sirlarini yoymaydi;

-odamlar orasida ixtiloflarni bartaraf etib, ularni tinchlantirishni burch deb biladi;

-bilmagan narsasi haqida hukm chiqarmaydi;

-o’zi va yaqinlarini zino, qimor, ichkilik ichish, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik va chaqimchilik kabi qabohatlardan asraydi;

-boshqalarga qo’lidan kelgan yordamini ayamaydi, qasd va qasosdan o’zini tiyadi;

-noma’qul ish yo gunoh qilib qo’ysa, darhol Ollohdan mag’firat so’rab, xatosini tuzatishga tirishadi;

-tanballik qilmaydi, xastalarning ko’nglini oladi;

-ota-ona duosini oladi, vatanini sevadi va xalqidan ajralmaslikka harakat qiladi”.

Kodeksning har bir moddasi zamirida xalqimizning ming yillik hikmati bor.

Markaziy Osiyo axloqiy fikrlar tarixida juda ko’p pandnoma asarlar yozilgan. Bu pandnomalar sarasiga Kaykovusning “Qabusnoma”, Sa’di Sheroziyning “Guliston”, “Bo’ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbul ul-qulub”, Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy”, va Husayin Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asarlarini kiritish mumkin.

Biz ulardan quyida “mukammal inson” va uning fazilatlari haqida o’z qarashlarini bayon etgan Husayn Voiz Koshifiy talqinlariga to’htaldik.

Kamoliddin Husayn ibn Ali voiz al-Koshifiy 1440-1505 yillarda Xuroson poytaxti Hirot adabiy muhitining yorqin namoyondasi. Bu erda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning zamondoshi.

Husayn Voiz Koshifiy o’z davrining mashhur yozuvchi, shoir, olim, dinshunos, voizi edi.

Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy ikki yuzdan ortiq asarlar yozgan bo’lib, ularning aksariyati axloq mavzusiga bag’ishlangan.

Uning “Axloqi Muxsiniy”, “Risolayi Xotamiya”, “Anvari Suhayliy”, “Ahloqi Karim” va boshqa asarlarida odob-axloq haqidagi ta’limotini ilgari suradi. “Axloqiy Muhsiniy” ham pandnoma janriga taalluqli o’git-nasihat mazmunidagi asarlardir. “Axloqi Muhsini” asari 40 bobdan iboratdir [4. b. 12].

Respublikamizdagi taniqli koshifiyshunos olim Ravshanbek Mahmudov o’zining “Degonimni ulusg’a marg’ub et...” monografiyasida: [3. b. 35-39] “Voiz Koshifiy insonni dunyodagi eng yuksak olijanob mavjudot deb biladi. U “Risolati Hotamia” asarida:

Odam nomi yaxshilik bilan eslash tufayli boqiydir,

Hayotlik ayyoming hosili yaxshi nom orttirishdir,-deb yozadi. Bu Voiz Koshifiy axloqiy ta’limotining asosiy etakchi g’oyasidir”, deb ta’kidlay va Voiz Koshifiyning o’z axloqiy asarlarida ilgari surgan asosiy o’nta axloqiy g’oyalarni qayd etadi:

1. Mutafakkir etuk axloqli inson (insoni komil) haqidagi fikrlari.
2. Mutafakkir faqat podshoni emas, balki oddiy insonning ham dili, niyati pok, xayr-saxovatli, kamtar va muloyim, dono olim, dunyo sir-asrorlarini bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasi sifatida ko’rishni orzu qiladi.
3. Voiz Koshifiy ijtimoiy-axloqiy idealini yuzaga chiqarishning asosiy vositasi deb ilm-ma’rifat bilan axloqiy tarbiyani tushunadi.:
4. Boiz Koshifiy adabning ma’nosini juda keng tushunadi.
5. Koshifiy buyuk insonparvar edi.
6. Voiz Koshifiy ijodida biz xalqchillik, insonparvarlik g’oyalarini insonlar tengligi, inson baxti uchun kurashish, xalqni ezuvchilarni tartibga chaqirish, podsholarni adolatlilikka chorlash kabi fazilatlarni ko’ramiz.
7. Voiz Koshifiy insonparvarligining yana bir qirrasi shundaki, u kishilarni inoqlikka, tinch-totuvlikqa, og’a-inilikka chaqiradi.

8.Koshifiyning axloqiy kontseptsiyasida xalqlar do’stligi keng o’rin egallaydi.

9. Voiz Koshifiy insonparvarligining yana bir qirrasi kishilarni kasb-hunar, ilm-ma’rifatni egallashga chaqirishidir.
10. Shuningdek, Koshifiy ilmdor kishilarni jamiyat hayotidagi roli katta ekanligini ta’kidlab ustozni e’zozlash shartligini aytadi.

Olimning yuqoridagi tasnifidan biz uchun ahamiyatli bo'lgan birinchi va oltinchi axloqiy g'oyalari qimmatlidir.

Jumladan, birinchi bandda: [3. b. 35] "Mutafakkir etuk axloqli inson (insoni komil) haqidagi fikrlarini, qarashlarini Suqrot, Aflotun, Faridun, Nushiravon, Aristotolis, Iskandar, Ma'mun, A'robiy, Rum sarkardasi, Misr podshosi, hakimlar tilidan bayon qiladi. Chunki Voiz Koshifiy podshoni etuk, odil, dono, aqlli, kamtar, olim, inson sifatida ko'rishni orzu qiladi. Shuning uchun ularni doimo yaxshi inson qilib tasvirlaydi. Bu umuman Sharqning axloqiy-falsafiy an'anasi bo'lganligi uchun Koshifiy ham komil inson kontsepsiyasini yanada rivojlantirdi", degan ta'kidida allomaning tarixiy komil insonlar yuzasidan bergan ma'lumotlari ahamiyatli bo'lsa.

Boshqa tomondan oltinchi bandda berilgan mukammal inson sifatlari ilmiy asoslidir [3. b. 37-38].

"Mukammal, go'zal fe'l-atvorli inson bo'lish uchun o'n qoidaga amal qilish kerakligini uqtiradi mutafakkir:

"Birinchi - elga muxolafat (teskari) ish qilmaslik;

ikkinchi - o'z nafsiga insof tilash;

uchinchi - kishi aybini ochmaslik;

to'rtinchi - har kishida uchraydigan (nomunosib, yomon) xulq-odat bo'lsa, uni yaxshilik tomonga burish;

beshinchi - bir odam o'z aybiga iqror bo'lib, uzr etsa, uzrini qabul qilish;

oltinchi - och-yupunlarni hojatini chiqarmoq;

ettinchi - inson uchun mashaqqat tortish;

sakkizinchi - o'z nafsini tiyish;

to'qqizinchi - kishi xalqqa toza yuz bilan ko'rinish;

o'ninchi - kishiga yaxshi so'z aytmoq".

Koshifiyning bu dono o'gitlarini alohida izohlash shart emas. Chunki bu so'zlar faqat XV asr uchun emas, balki ayni hozirgi kun uchun ham juda ahamiyatli va qadrlidir.

Xulosa o'rnida aytganda, *birinchidan,* sharqona axloq normalari jumladan, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Koshifiy kabi allomalarimiz merosining aksariyati axloq va "mukammal inson" hamda uning fazilatlar mavzusiga bag'ishlangan.

Ikkinchidan, xalqimizning boy axloqiy me'rosida "mukammal inson"ning 10 ta sifat-fazilatlari sanab o'tilgan.

Uchinchidan, hozirgi globallashgan ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida har bir shaxs, fuqaro o'zida yuqorida qayd etilgan fazilatlarni o'zida shakllantirishi lozim bo'ladi.

Zero, hayot va jamiyat taraqqiyoti fazilatlar asosiga quriladi va xalqimizning dunyodagi eng ma'naviyati yuksak xalqlar qatoriga qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. Abdulla A'zam. Fan va din: Odamzodning paydo bo'lishi G'G' Tafakkur. № 4. 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Mahmudov R. Degonimni ulusg'a marg'ub et... -T.: O'zbekiston, 1992.
4. Mahmudov R. Husayn Voiz Koshifiy-axloqshunos olim. -Guliston: Yangier tipografiyasi, 1990.
5. Qori Nizomiddin bin mullo Husayn. Axloq ilmi. -Qarshi: Nasaf, 1993.

АЗИЗИДДИН НАСАФИЙНИНГ ТАСАВВУФ ГНОСЕОЛОГИЯСИДА ИРФОН МАСАЛАСИ

Нарзиев Зубайдилло Ибодиллоевич

Бухоро давлат педагогика институти доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

Ирфон (маърифат) - бу инсон қалбининг покланиши, маънавий тазкия ва ботиний мушоҳада (кашф ва мукошафа) орқали Борлиқнинг Асл Моҳиятини, илоҳий сирлар ва ҳақиқатларни воситасиз англашга қаратилган олий билиш даражасидир. Ислом фалсафаси

ва тасаввуф анъанасида ирфон шунчаки назарий билимлар мажмуи ёки ақлий мулоҳазалар йиғиндиси эмас, балки инсоннинг ахлоқий-маънавий трансформацияси ва яшаладиган муайян маънавий тажрибаси сифатида намоён бўлади. Анъанавий мантиқий ёки ақлий билишда (илмда) билувчи субъект ва билинувчи объект ўртасида муайян масофа сақланиб, билиш ақлий тушунчалар ҳамда далил-истидлоллар воситасида амалга оширилса, ирфоний билишда ушбу чегаралар барҳам топиб, қалб Илоҳий Нурга туташади ва ҳақиқатни бўлганидек мушоҳада қилади.

Ирфон таълимотининг марказида инсон ва борлиқнинг онтологик бирлиги, яъни Олами кабир (макрокосм) ва Олами сағир (микрокосм) ўртасидаги ўзаро акс эттириш қонунияти туради. Бунда инсон коинотнинг қисқартирилган ва жамланган нусхаси бўлиб, ўз ботинига назар солиш, нафсни дунёвий ва моддий боғлиқликлардан, ақлий адоватлар ва ғафлатдан поклаш орқали бутун борлиқнинг ва Унинг Яратувчисининг илоҳий исм ҳамда сифатларини англаш салоҳиятига эга бўлади. Ирфоний гносеологияда ақл (ақли жузъий) тамомила инкор этилмайди, балки унга ҳақиқат остонасигача олиб борувчи бошланғич восита ва чироқ сифатида қаралади; бироқ илоҳий моҳиятнинг бепоён сирларини англашда заминий ақлнинг чекланганлиги таъкидланиб, унинг ўрнини қалбий англаш - маърифат ва кашф эгаллайди.

Шунингдек, ирфонда шариат - зоҳирий қонуниятлар ва покланиш, тариқат - ботиний сулук ва амалий амалиёт, ҳақиқат эса - ирфоний билиш ва маорифнинг меваси сифатида ўзаро ажралмас яхлитликни ташкил этади. Билиш ва амалнинг бундай уйғунлиги инсонни “комил инсон” мақомига кўтаради. Ирфоний тажриба орқали инсон ўз вужудининг ўткинчи эканини ва ягона ҳақиқий Мутлақ Вужуд фақат Ҳақ таолога тегишли эканини англаб этади. Бу англаш шунчаки сўз ёки тушунчаларда эмас, балки руҳий покланиш ва илоҳий манзилларга кўтарилиш жараёнида мушоҳада қилиниши сабабли ирфон инсоният маънавий ва фалсафий тафаккурининг энг юқори чуққиларидан бири ҳисобланади.

Тасаввуф тарихида ирфонга оид қарашлари билан беқиёс ҳисса қўшган мутасаввифлардан бири-Азизиддин Насафийдир. Азизиддин Насафий XIII асрда Мовароуннаҳр ва Эрон ирфоний-фалсафий муҳитини боғлаб турган, тасаввуф назарияси ҳамда онтологик-гносеологик қарашларни тизимлаштирган энг йирик мутафаккирлардан биридир. Насафийнинг билиш назарияси (гносеология) анъанавий Ибн Синонинг машшоийлик, Шаҳобуддин Суҳравардийнинг ишроқийлик таълимоти ва Ибн ал-Арабий томонидан асосланган ваҳдати вужуд назариясининг ўзига хос синтезидан иборат. Унинг гносеологик концепциясида илоҳий ва инсоний билишнинг чегаралари, нафс ва ақлнинг мутаносиблиги, мақомот ва мукошафа босқичлари ҳамда ҳақиқатга эришишнинг уч асосий манбаи - ҳис-туйғу (ҳавос), ақл (назар ва бурҳон) ва ирфоний кашф (илҳом ва мукошафа) атрофлича таҳлил қилинган.

Насафий ирфон масаласини алоҳида ажратилган назарий соҳа эмас, балки инсоннинг онтологик мақоми, яъни “комил инсон” даражасига кўтарилишнинг асосий воситаси ва натижаси сифатида талқин этади. Мутафаккирнинг гносеологиясида билиш жараёни уч асосий йўналиш бўйча ривожланади. Биринчидан, аҳли зоҳир ёки мутакаллимларнинг нақл ва мантиқий далилларга асосланган билиш усули; иккинчидан, файласуфларнинг (ҳакимлар) ақлий бурҳон ва фикрий тафаккурга таянган билиш усули; учинчидан, аҳли ваҳдат ёки аҳли кашфнинг покланган қалб ва илоҳий нур (нури маориф) воситасида ҳақиқатни воситасиз англаш усулидир.

Насафий ўзининг “Кашф ал-ҳақойиқ”(Ҳақиқатларнинг очилиши) асарида билишнинг ушбу уч даражасини атрофлича қиёслаб, ирфоний тажрибани ақлий-фикрлаш даражасидан устун қўяди. Унинг таъкидлашича, ақл ҳақиқатнинг фақат зоҳирий ва нисбий қирраларини англашга қодир бўлиб, у чекланган воситадир. Ақл инсонни ҳақиқат остонасигача етаклаб келади, аммо ҳақиқатнинг аслини англаш ва уни воситасиз мушоҳада қилиш фақат қалб покланиши ва ирфоний кашф орқали амалга ошади. Бу ҳақда мутафаккир шундай ёзади: “Ақл - ҳақиқатни англашда зарур бўлган чироқдир, аммо манзилга етиш учун чироқнинг ўзи кифоя қилмайди, балки юриш ва мушоҳада қилиш керак. Ақли бурҳоний

соҳиблари далиллар билан чекланадилар, аҳли кашф эса кўриш ва англаш мақомидадирлар”[1, б. 4].

Мутафаккирнинг билиш назариясида микрокосм (олами сағир) ва макрокосм (олами кабир) ўртасидаги параллеллик марказий ўринни эгаллайди. Насафий “Китоб ал-Инсон ал-Комил” ва “Баён ут-танзил” асарларида таъкидлаганидек, инсон коинотнинг ихчамлаштирилган намунасидир. Бинобарин, инсон ўзини англаш орқали бутун борлиқни ва унинг Яратувчисини англаш имкониятига эга бўлади. Ушбу “ман арафа нафсаҳу фақад арафа раббаҳу” (Кимки ўз нафсини англаса, Раббини англабди) ҳадиси шарифига таянган гносеологик тамойил Насафий ирфонининг ўзагини ташкил этади. Инсон нафсининг покланиши (тазкияту-н-нафс) ва қалбнинг сайқалланиши (тасфияту-л-қалб) орқали моддий олам пардалари олиб ташланади ва қалб олами кабирдаги илоҳий исм ва сифатларнинг аксини акс эттирувчи кўзгуга айланади. Насафий бу жараённи қуйидагича баён қилади: “Билгилки, инсон нафси бир кўзгудир. Эътиқодлар ва дунёвий боғлиқликлар ушбу кўзгудаги занг ва ғибордир. Қачонки солик риёзат ва мужоҳада воситасида ушбу зангни тозаласа, ғайб оламидан ҳақиқатлар нури унда бевосита акс этади. Буни ирфоний билиш ёки кашф дейилади”[2, б.18].

Насафийнинг гносеологик тизимида “илм” ва “маърифат” (ирфон) тушунчалари қатъий фарқланади. Илм - бу объект ва субъект ўртасидаги масофани сақлаган ҳолда, далил, истидлол ва ўрганиш орқали ҳосил бўладиган тафаккур натижасидир. Маърифат эса - объект (Ҳақ) билан субъектнинг (солик) маънавий бирлашуви ва воситасиз англашидир. Илмда хато ва адашиш эҳтимоли мавжуд, чунки у ақлий ва ҳиссий воситаларга таянади. Маърифатда эса хато бўлмайди, чунки у илоҳий нур (нури илҳом) воситасида тўғридан-тўғри қалбга қуйилади. “Мақсади ақсо”(Сўнгги мақсад) асарида Насафий ушбу фарқни шундай ифодалайди: “Илм - эшитиш ва ўрганиш орқали, маърифат эса кўриш ва тажриба қилиш орқали ҳосил бўлади. Илм соҳиби билади, маърифат соҳиби эса кўради. Биладиган киши ҳали йўлдадир, кўрадиган киши эса манзилга етгандир”[3, б.205].

Шу билан бирга, Насафий ақлни бутунлай инкор этмайди. Унинг гносеологияси анти-рационалистик эмас, балки супра-рационалистик (ақлдан устун) характердадир. Ақл - шариат ва аҳкомларни тушунишда, дунёвий ва моддий қонуниятларни англашда ҳамда ирфоний тажрибага тайёргарлик кўришда зарур манбадир. Аммо заминий ақл (ақли жузъий) илоҳий моҳиятни (зати Ҳақ) тўлиқ камраб олишга ожизлик қилади. Илоҳий моҳиятга эришиш ва уни англаш учун ақли жузъий Ақли кулл (Куллий Ақл) билан ва аъло даражадаги Илоҳий Нурга туташиши лозим. Ушбу ўтиш жараёни ирфоний сулук ва маънавий мақомлар (тавба, зуҳд, таваккул, ризо ва ҳ.к.) орқали амалга ошади.

Насафийнинг гносеологик қарашларида ирфоний билишнинг босқичлари ҳам муҳим ўрин тутади. У билишни уч асосий мақомга бўлади: илм ал-яқийн, айн ал-яқийн ва ҳабб ал-яқийн (ёки ҳаққ ал-яқийн). Илм ал-яқийн - ақлий далиллар ва эшитиш орқали ҳосил бўладиган билим (масалан, оловнинг борлигини тутун орқали билиш). Айн ал-яқийн - мушоҳада ва бевосита кашф орқали ҳосил бўладиган билим (оловни ўз кўзи билан кўриш). Ҳаққ ал-яқийн эса - бевосита тажриба ва ирфоний бирлашув орқали эришиладиган билим (олов ичига кириб, унинг моҳияти билан бирлашиш). Насафий “Кашф ал-ҳақойиқ”да таъкидлашича, “Мутакаллимлар ва файласуфлар илм ал-яқийн мақомидадирлар. Замоннинг буюк азизлари ва сўфийлари айн ал-яқийн мақомидадирлар. Аҳли ваҳдат ва комил инсонлар эса ҳаққ ал-яқийн мақомига эришганлардир”[1, б.15].

Ирфоний билишда луғат, тил ва мажоз масаласи ҳам Насафийнинг диққат марказида туради. Мутафаккирнинг фикрича, ирфоний тажрибада англанган ҳақиқатлар ва ғайбий сирлар анъанавий инсоний тил рамзларига тўлиқ сиғмайди. Тил ва сўзлар - ақлий ва моддий олам тушунчаларини ифодалаш учун яратилган чекланган воситалардир. Шу сабабли, ирфоний маорифни баён қилишда сўфийлар мажоз, истиора ва рамзлардан фойдаланишга мажбур бўладилар. Насафий ўзининг “Зубдат ал-ҳақойиқ” асарида таъкидлайдики, “Аҳли ҳақиқатнинг сўзлари мажоз ва ишоралардан иборатдир. Чунки ғайб олами сирларини зоҳирий сўзлар ва чекланган ҳарфлар билан тўлиқ баён қилиб бўлмайди. Кимки

ишораларни айнан зоҳирий маънода қабул қилса, адашади; кимки ишора ортидаги мақсадни англаса, ирфон соҳибига айланади”[4, б.42].

Насафий ирфонида билиш ва амалиёт (амал) ажралмас бирликни ташкил этади. Билиш фақат назарий ўзлаштириш эмас, балки ахлоқий покланиш ва амалий сулук натижасидир. Шариат - зоҳирий поклик ва қонуниятлар, тариқат - ботиний покланиш ва сулук, ҳақиқат эса - ирфоний билиш ва маорифдир. Ушбу учлик бир-бирини тўлдиради: шариатсиз тариқат, тариқатсиз ҳақиқат мумкин эмас. Насафий “Баён ут-танзил”да шундай ёзади: “Шариат - дарахт, тариқат - унинг шох ва барглари, ҳақиқат эса унинг мевасидир. Мевасиз дарахт фойдасиз бўлганидек, амал ва сулуксиз назарий билим ҳам инсонни ҳақиқий маърифатга эриштирмайди”[5, б.88].

Мутафаккирнинг гносеологиясида илоҳий илҳом (ваҳий ва илҳом) ва инсоний тафаккур ўртасидаги фарқлаш муҳим ўрин тутади. Ваҳий - пайғамбарларга хос бўлган воситасиз илоҳий калом бўлса, илҳом - авлиёлар ва комил инсонлар қалбига қуйиладиган илоҳий нур ва маорифдир. Ирфоний билиш айнан илҳом ва мукошафага таянади. Покланган қалб Илоҳий Лавҳ (Лавҳи маҳфуз) билан алоқага киришади ва ундаги маънолар қалб кўзгусида бевосита намоён бўлади. Бу ҳақда Насафий шундай ёзади: “Қачонки соликнинг қалби дунёвий боғлиқликлардан бутунлай халос бўлса ва Лавҳи маҳфузга рўпара қилинса, ундаги билимлар ҳеч бир таълим ва ўрганишсиз қалбда акс этади. Бу - илми ладуний ва ирфоний маърифатнинг аслидир”[5, б.112].

Насафийнинг гносеологик қарашларида маҳрам ва номаҳрам тушунчаси ҳам ирфоний билишнинг даражалилиги билан боғлиқ. Ирфоний ҳақиқатлар ҳамма учун бир хилда очиқ эмас. Тайёргарликка эга бўлмаган, ақлий ва ахлоқий жиҳатдан покланмаган кишиларга (номаҳрамларга) ирфоний сирларни очиш хавфлидир, чунки улар ботиний маъноларни нотўғри талқин қилиб, залолатга кетишлари мумкин. Шу сабабли Насафий “Кашф ал-ҳақойиқ” муқаддимасида таъкидлайди: “Шояд бу дарвешнинг асл фикри ва эътиқоди ушбу китобда ёзилган бўлса эди, токи маҳрам ва номаҳрамлар бундан хабардор бўлур эдилар. Ва номаҳрамларнинг Азизлар сўзига назар солишлари эса ҳаромдир”[1, б. 4]. Бу ёндашув ирфоний гносеологиянинг энг юқори хусусиятини, яъни билишнинг чуқур ва ботиний даражалари фақат махсус ахлоқий-маънавий тайёргарликдан ўтган соликлар учун очиқлигини кўрсатади.

Шунингдек, Насафий ваҳдати вужуд концепцияси нуқтаи назаридан билишни субъект ва объектнинг бирлиги мақомига кўтаради. Анъанавий гносеологияда билувчи (субъект), билинувчи (объект) ва билиш (жараён) алоҳида феноменлар сифатида қаралади. Насафий ваҳдати вужудчи аҳли ирфон қарашларини таҳлил қилар экан, олий ирфоний мақомда ушбу учлик ягона вужудда бирлашишини таъкидлайди. Яъни, олий мақомда Ҳақ - ҳам билувчи (Олим), ҳам билинувчи (Маълум), ҳам билишнинг ўзидир (Илм). Инсон ушбу мақомга эришганда, ўз вужудининг йўқлигини (фано) ва фақат Ҳақнинг вужуди мавжудлигини (бақо) англайди. “Кашф ал-ҳақойиқ”нинг ўнгинчи рисоласида мутафаккир шундай ёзади: “Аҳли ваҳдат наздида, Олим ва Маълум аслида бир нарсадир. Маърифатнинг ниҳояси шундаки, солик ўзининг мустақил вужуди йўқлигини ва ягона ҳақиқий Вужуд - Ҳақ таоло эканини мушоҳада этади. Бу мақомда билиш ва бўлиш бирлашади”[1, б. 208].

Насафийнинг билиш назариясидаги яна бир муҳим жиҳат - замон ва макон чегараларидан халос бўлган ирфоний тажрибадир. Ақлий билиш ҳамиша вақт ва макон координаталари ичида амалда бўлади. Ирфоний кашф ва мукошафа эса замон ва макон ўлчамларидан ташқарига чиқишни талаб қилади. Мутафаккир “Кашф ал-ҳақойиқ”нинг туш баёнига бағишланган фаслида келажакдаги ҳодисаларнинг ва ҳақиқатларнинг руёбга чиқишини ирфоний башорат сифатида талқин этади: “Ушбу туш далолат қиладики, ҳижрий етти юздан кейин ғафлат ва ғибор одамлар қалбидан кўтарилажак ва нарсаларнинг ҳақиқати ошкор бўлажакдир...”[1, б. 12]. Бу ўринда ирфоний тажриба келажакни ва ғайб оламини англашнинг ўзига хос воситаси сифатида намоён бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Азизиддин Насафийнинг гносеологик қарашларида ирфон - бу фақат назарий билимлар мажмуи эмас, балки инсоннинг маънавий ва ахлоқий

трансформацияси, нафсни поклаш, ақлни илоҳий нур билан тўлдириш ва оқибатда борлиқнинг асл моҳияти билан бирлашиш жараёнидир. Мутасаввиф ақлий-фикрлаш (калом ва фалсафа) усулларини тан олган ҳолда, ҳақиқатга эришишнинг олий ва мукаммал босқичи сифатида ирфоний кашф ва мушоҳадани асослаб берган. Бу қарашлар Марказий Осиё тасаввуф ва ирфон мактабининг концептуал ривожига ва комил инсон ҳақидаги таълимотнинг шаклланишига салмоқли ҳисса қўшган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. نسفی، عزیزالدین. کشف الحقایق / به اهتمام احمد مهدوی دامغانی. — تهران: بنگاه ترجمه و نشر کتاب، ۱۳۴۴ (۱۹۶۵). — ص ۳۲۰. (Насафий, Азизиддин. Кашф ал-ҳақойиқ / Ба эҳтимом-и Аҳмад Маҳдавий Домғоний. — Теҳрон: Бунгоҳ-и таржума ва нашр-и китоб, 1344 (1965). — 320 б.)
2. نسفی، عزیزالدین. کتاب الانسان الکامل / به اهتمام ماریژان موله. — تهران: بنگاه ترجمه و نشر کتاب، ۱۳۴۱ (۱۹۶۲). — ص ۵۲۲. (Насафий, Азизиддин. Китоб ал-инсон ал-комил / Ба эҳтимом-и Марижан Моле. — Теҳрон: Бунгоҳ-и таржума ва нашр-и китоб, 1962 (1341 ҳ.ш.). — 522 б.)
3. نسفی، عزیزالدین. مقصود اقصی / به اهتمام احمد مهدوی دامغانی. — تهران: بنگاه ترجمه و نشر کتاب، ۱۳۴۴ (۱۹۶۵). — ص. ۲۰۵–۲۸۵.(Насафий, Азизиддин. Мақсади ақсо / Ба эҳтимом-и Аҳмад Маҳдавий Домғоний. — Теҳрон: Бунгоҳ-и таржума ва нашр-и китоб, 1344 (1965). — Б. 205–285.)
4. نسفی، عزیزالدین. زبدة الحقایق / به اهتمام حق‌وردی ناصری. — تهران: بنگاه ترجمه و نشر کتاب، ۱۳۸۵ (۲۰۰۶). — ص ۲۱۰. (Насафий, Азизиддин. Зубдат ал-ҳақойиқ / Ба эҳтимом-и Ҳақвердий Носирий. — Теҳрон: Бунгоҳ-и таржума ва нашр-и китоб, 1385 (2006). — 210 б.)
5. نسفی، عزیزالدین. بیان التنزیل / به اهتمام سید علی میرباقری فرد. — تهران: انجمن آثار و مفاخر فرهنگی، ۱۳۹۱ (۲۰۱۲). — ص ۴۵۰. (Насафий, Азизиддин. Баён ут-танзил / Ба эҳтимом-и С. А. Мирбоқирий Фард. — Теҳрон: Анжуман-и осор ва мофоҳир-и фарҳангрий, 1391 (2012). — 450 б.)

JADIDCHILIK HARAKATINING IJTIMOIY-TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA MILLIY AXLOQNI YUKSALTIRISHDA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI

Kutlimuratov Sardorbek Rustamovich

Urganch RANCh Texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsent v.b.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan jadidchilik harakati o‘lka ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotida tub burilish yasagan eng qudratli milliy uyg‘onish omillaridan biridir. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati hamda mahalliy jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy va iqtisodiy qoloqlik sharoitida maydonga chiqqan ushbu harakat o‘z rivojlanish jarayonida murakkab ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyani boshdan kechirdi.

Dastlab ma’rifatparvarlik, usuli jadid maktablarini tashkil etish, milliy matbuot va teatrni yo‘lga qo‘yish kabi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan boshlangan jadidchilik, jamiyatda axloqiy tanazzulning oldini olish, milliy o‘zlikni anglash hamda siyosiy hürriyat talablarini ilgari suruvchi yaxlit harakatga aylandi [1, b. 74]. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi ko‘plab ziyolilarning sa’y-harakatlari natijasida harakat ma’rifiy platformadan milliy davlatchilik g‘oyalarigacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Ushbu tadqiqotda jadidchilik harakatining paydo bo‘lish omillari, uning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi, axloqiy-ma’rifiy mohiyati va bugungi Yangi O‘zbekiston ma’naviy poydevorini shakllantirishdagi tarixiy o‘rni ilmiy va sistemali ravishda tahlil qilinadi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, u bir tarafdan, jahonda sodir bo‘layotgan ulkan taraqqiyot va o‘zgarishlar, ikkinchi tarafdan, turkiy va musulmon xalqlari yashayotgan hududlardagi og‘ir ijtimoiy va madaniy muammolar ta’sirida yuzaga keldi. XVIII-XX asrlar oralig‘ida dunyoda sanoat inqilobi, modernizatsiya, mustamlakachilik va milliy davlatlarning tuzilishi kabi jarayonlar kechgan bo‘lsa, Turkistonda 1853–1895 yillarda Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakachilik siyosati o‘rnatildi [2, b. 35].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon xalqlari orasida keng yoyilgan jadidchilik harakati butun musulmon dunyosida G‘arb mustamlakachiligiga javob o‘laroq yuz bergan “islom modernizmi” harakatining bir qismi sifatida tarix maydoniga chiqdi. Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham jadidchilik harakati o‘ziga xos bosqichlarni bosib o‘tdi. Xivada savdo-sanoat doiralari va ziyolilarni birlashtirgan o‘ng va so‘l oqimlar shakllanib,

ma’rifiy ishlar bilan birga xonlik tuzumiga qarshi kurashlar olib borildi. Jadidlarning bosh maqsadli konsepsiyasi rasmiy jihatdan turlicha ko‘rinsa-da, g‘oyaviy maqsad bitta - Turkiston hududida mustaqil, demokratik va ma’rifatli jamiyat barpo etish edi [3, b. 23].

Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy va diniy-axloqiy taraqqiyotida jadidlar jamiyatni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik va xurofotlardan ozod qilishni, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni o‘zlarining asosiy burchi deb bildilar [4, b. 45]. Rus akademigi V.V.Bartoldning yozishicha, mahalliy aholining rus hayoti bilan qo‘shilishi natijasida ba’zan salbiy holatlar - axloqiy tanazzul, yaramas turmush tarzi yoyila boshlagan edi. Jadidlar ana shu ma’naviy-axloqiy tanazzulning oldini olishga jiddu jahd qildilar.

Ziyolilar uchun eski usuldagi maktablarni isloh etib, «Usuli savtiya» maktablarini ochish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona sifatida foydalanish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuotni tashkil etish ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid muharriri Hoji Muin ta’kidlaganidek, matbuot bir millatni uyg‘otish uchun birinchi omil edi. Ismoilbek Gasprinskiyning “Tilda, fikrda, ishda birlik” g‘oyasi asosida nashr etilgan “Tarjimon” gazetasi hamda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali ma’rifat tarqatish, xalqni fikr tarbiyasiga o‘rgatish va axloqiy ongini yuksaltirishda ulkan rol o‘ynadi.

Jadidchilik harakati faqat ma’rifiy-pedagogik islohotlar bilan cheklanib qolmay, vaqt o‘tishi bilan qudratли ijtimoiy-siyosiy kuchga aylandi. 1906–1916 yillarda jadidlar o‘zlarining siyosiy yo‘lini aniqlab oldilar. Masalan, Sirdaryo viloyatidan Peterburgdagi Davlat dumasiga saylangan Abduvohidqori Abduraufqoriyev Turkiston xalqi manfaatlarini himoya qilib, musulmon fraksiyasiga o‘lka dardini yetkazdi [5, b. 74].

1916-yilgi mardikorlikka olish farmoniga qarshi o‘laroq, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev va Mirkomilboy Mirmo‘minboyev kabi millatparvarlar Peterburgga borib, Rossiya jamoatchiligi e’tiborini bu adolatsizlikka qaratdilar. Bu voqealar jadidlar ma’rifatparvarlikdan faol siyosiy kurashga o‘tganligini yaqqol ko‘rsatdi. Garchi sovet totalitar tuzumining qatag‘onlari natijasida jadidlar fojiali tarzda mahv etilgan bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy g‘oyalari o‘z qadrini yo‘qotmadi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston zaminida shakll agrup jadidchilik harakatining ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyasi oddiy ma’rifatparvarlik tashabbuslaridan milliy davlatchilik va axloqiy o‘zlikni anglash g‘oyalarigacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidlar matbuot, maktab, teatr va ilmiy meros orqali xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otib, jamiyatni ma’naviy-axloqiy jihatdan sog‘lomlashtirishga intildilar. Bugungi kunda jadidchilikning ilmiy-ma’rifiy merosini chuqur o‘rganish Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini yaratish hamda yosh avlodda yuksak milliy g‘urur, ma’naviy yetuklik va axloqiy mas’uliyatni shakllantirishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimov, H. O‘zbekiston ma’rifatparvarlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
2. Olimov, M. O‘rta Osiyoda jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 1999.
4. Niyozov, S. Jadidchilik va ta’lim islohotlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
5. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar). – Urganch: Xorazm, 1999.

HAKIM TERMIZIY MA’NAVIY MEROSIDA AXLOQIY KAMOLOT VA IJTIMOIY BARQARORLIK G‘OYALARI

Xaitov L.A.

Buxoro davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida ma’naviy qadriyatlar, shaxsning axloqiy mas’uliyati va jamiyat barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy-ma’naviy merosni faqat o‘tmish hodisasi sifatida emas, balki

zamonaviy insonning ichki dunyosini takomillashtirishga xizmat qiluvchi g‘oyaviy manba sifatida o‘rganish zarurati kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurining yirik namoyandasi Hakim Termiziy merosi insonning botiniy olami, xulq-atvori va ma’naviy kamoloti haqidagi tizimli qarashlari bilan muhimdir. Mutafakkir ta’limotida nafs, qalb, aql, niyat, tavba, halol kasb va ma’naviy manzillar bir-biri bilan uzviy bog‘langan tushunchalar sifatida tahlil qilinadi [1, b. 49-52].

Hakim Termiziy antropologik qarashlarining markazida insonni zohiriy va botiniy jihatdan tarbiyalash masalasi turadi. Uning asarlarida insonni komillikka yetaklovchi omillar nafsni me’yorga solish, qalbni pok saqlash, ilm va ma’rifatga intilish, halol mehnat qilish hamda ezgu xulqni shakllantirish bilan izohlanadi. Monografik tadqiqot xulosalarida ham alloma ta’limotining tayanch nuqtasi insonning ma’naviy-botiniy olamini poklash va takomillashtirish ekani alohida qayd etilgan [1, b. 133-135]. Mazkur maqolaning maqsadi ana shu g‘oyalarni axloqiy kamolot va ijtimoiy barqarorlik muammosi bilan bog‘liq holda tahlil qilishdan iborat.

Nafs tarbiyasi - axloqiy o‘zini boshqarish asosi

Hakim Termiziy insonning axloqiy qiyofasini tushuntirishda nafs tushunchasiga katta e’tibor beradi. Mutafakkir nafsni shunchaki tabiiy ehtiyojlar majmui sifatida emas, balki tarbiya qilinishi va me’yorga solinishi zarur bo‘lgan ichki kuch sifatida ko‘radi. Uning qarashlarida nafs insonning “men”ligi bilan bog‘liq bo‘lib, nazoratsiz qolganda johillik, manmanlik, dunyoparastlik, tamagirlik, hasad, baxillik, riyokorlik, zolimlik va rahmsizlik kabi salbiy xususiyatlarga yo‘l ochishi mumkin [1, b. 50-51]. Bunday yondashuv axloqiy muammoni tashqi taqiq bilan emas, avvalo, insonning ichki o‘zini boshqarishi bilan bog‘laydi.

Alloma nafsning ammora, lavvoma, mulhima va mutmaina kabi holatlarini ajratib, insonning ma’naviy yuksalishi nafsni anglash va tarbiyalashdan boshlanishini ta’kidlaydi. Nafsni me’yorga solishda sabr, qanoat, aql, tavba, ro‘za, halollik va poklik muhim vositalar sifatida ko‘rsatiladi [1, b. 66; 3, b. 108]. Bu fazilatlar bir-biridan ajralgan axloqiy me’yorlar emas. Sabr insonni hissiy shoshqaloqlikdan, qanoat ochko‘zlikdan, aql xato qarordan, tavba esa o‘z xatosini tan olmaslikdan tiyadi. Shu sababli nafs tarbiyasi shaxsiy intizom, mas’uliyat va o‘z xatti-harakatini baholash madaniyatining ichki mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy talqinda, o‘z nafsini boshqara oladigan shaxsning qarori ko‘proq mas’uliyat, me’yor va boshqalarning haq-huquqini hisobga olishga tayangan bo‘ladi. Aksincha, manfaatparastlik, zo‘ravonlik, poraxo‘rlik va murosasizlik kabi holatlar ko‘pincha shaxsiy istakning umumiy axloqiy me’yordan ustun qo‘yilishi bilan kuchayadi. Hakim Termiziy merosidagi nafsni tarbiyalash g‘oyasi shu ma’noda jamiyat barqarorligini shaxsning ichki axloqiy barqarorligidan boshlash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot xulosalarida ham uning nafsni me’yorga solish haqidagi qarashlari yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi uchun muhimligi qayd etiladi [1, b. 134].

Qalb pokligi va ma’naviy mas’uliyat. Hakim Termiziy ta’limotida qalb insonning ma’naviy hayotini boshqaruvchi markaz sifatida talqin qilinadi. “Masoil al-Maknuna” asarida qalb inson a’zolariga “amir” ekani, unga ma’rifat va ilm joylashtirilgani, inson esa o‘z qalbini saqlashga mas’ul qilingani ta’kidlanadi [2, b. 22]. Bu fikr axloqiy xatti-harakat bilan ichki niyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatadi. Ya’ni tashqi amalning sifatini faqat uning ko‘rinishi emas, balki uni tug‘dirgan qalbiy holat ham belgilaydi.

Hakim Termiziyning “Bayonul farq bayna as-sadr val qalb val fuad val lub”, “Adabun nafs”, “Ma’rifatul asror” kabi asarlarida qalbning darajalari va uning inson kamolotidagi o‘rni yoritiladi. Alloma qalb, sadr, fuod va lub tushunchalarini farqlab, qalbni ma’rifat va ruhiy idrokning markazi sifatida sharhlaydi [3, b. 108; 4, b. 77]. Uning “agar amir to‘g‘ri bo‘lsa, uning qo‘shini ham to‘g‘ri bo‘ladi” mazmunidagi qiyosi orqali qalbdagi sog‘lom holatning butun inson faoliyatiga ta’siri ifodalanadi [6, b. 317].

Qalb pokligi g‘oyasining ijtimoiy mazmuni ham muhim. Qalbni adovat, hasad, kibr va g‘arazdan tozalash shaxslararo munosabatlarda ishonch, hurmat va bag‘rikenglik muhitini shakllantiradi. Bunday axloqiy sifatlar ijtimoiy barqarorlikning ma’naviy poydevorini tashkil etadi. Albatta, Hakim Termiziy “ijtimoiy barqarorlik” terminini zamonaviy ma’noda qo‘llamagan.

Biroq uning qalbni poklash, niyatni to‘g‘rilash va xulqni ezgulikka yo‘naltirish haqidagi qarashlarini bugungi jamiyatdagi hamjihatlik va ma’naviy xavfsizlik masalalari bilan bog‘lash ilmiy jihatdan asosli talqin imkonini beradi. Monografiya xulosalarida allomaning bu g‘oyalari yoshlarni turli buzg‘unchi ta’sirlardan himoyalashga xizmat qilishi mumkinligi ham ko‘rsatilgan [1, b. 135].

Halol kasb va ijtimoiy mas’uliyat. Hakim Termiziy merosining zamonaviy jamiyat uchun dolzarb jihatlaridan yana biri kasb va rizq masalasidir. “Bayonul kasb” risolasida insonning mehnat qilishi, kasb-hunar egallashi va halol rizq topishi bunyodkor hayotning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Mutafakkir rizqning ilohiy taqdir bilan bog‘liqligini e’tirof etgan holda, harakat va kasbni inkor etmaydi. Aksincha, insonning aql-idroki va jismoniy imkoniyatlari bekorga berilmagani, halol mehnat va sa’y-harakat zarurligi uqtiriladi [1, b. 134-135; 3, b. 356-399].

Hakim Termiziy qarashlarida tavakkul bilan kasb bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Tavakkul qalbga, kasb esa a’zolarning faoliyatiga taalluqli bo‘lib, niyat pokligi bilan halol mehnat uyg‘unlashganda xayr va baraka yuzaga keladi [5, b. 97-100]. Bu yondashuv insonni passivlik, boqimandalik va mas’uliyatsizlikdan uzoqlashtirib, jamiyatdagi faol ishtirok va foydali mehnatga undaydi. Halol kasb faqat iqtisodiy ehtiyojni qondirish vositasi emas, balki shaxsning o‘z oilasi va jamiyat oldidagi burchini ado etish shakliga aylanadi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy barqarorlik iqtisodiy munosabatlardagi ishonch, mehnatga hurmat, halollik va o‘zaro mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, Hakim Termiziyning halol kasb haqidagi qarashlari ma’naviy qadriyat bilan ijtimoiy amaliyotning birligini ifodalaydi. Monografiya xulosalarida ushbu g‘oyalar yosh avlodda mehnatsevarlik, halollik, bag‘rikenglik, mehr-muhabbat va saxovat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi [1, b. 134]. Bu jihat alloma merosining axloqiy tarbiya bilan birga ijtimoiy mas’uliyatni ham mustahkamlash salohiyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ma’naviy kamolot manzillari va jamiyat barqarorligi. Hakim Termiziyning “Manozil ul-ibod min al-iboda” asarida inson kamoloti bosqichma-bosqich ruhiy-axloqiy taraqqiyot sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir tavba, zuhd, nafsga adovat, muhabbat, hoyu havasni uzish, qo‘rquv va qurbat kabi yetti ma’naviy manzilni ko‘rsatadi [5, b. 12-36]. Asarning muhim jihati shundaki, ushbu manzillar insonni yomon xulqlardan poklash va go‘zal xulqlar bilan ziynatlash yo‘li sifatida tushuntiriladi. Demak, kamolot bir martalik holat emas, balki insonning o‘zini muntazam ravishda nazorat qilishi va tarbiyalashi jarayonidir.

Birinchi manzil bo‘lgan tavba shaxsning xatosini anglash, uni tan olish va xulqini tuzatishga tayyorligini bildiradi. Bu tamoyil zamonaviy axloqiy madaniyat uchun ham muhim: o‘z xatosini tan olish va uni bartaraf etish qobiliyati shaxsiy hamda ijtimoiy ishonchni tiklaydi. Nafsga adovat manzili esa insonning zararli istaklarini cheklashi, ularni aql va axloqiy mezon bilan boshqarishini anglatadi. Muhabbat manzili ma’naviy yaqinlik va ezgulikka intilishni, qurbat esa oliy maqsad sari ichki takomillashuvni ifodalaydi. Shu jihatdan yetti manzilni insonning axloqiy o‘zini rivojlantirish modeli sifatida talqin qilish mumkin.

Hakim Termiziy merosida komil shaxs jamiyatdan uzilgan, faqat o‘z botini bilan mashg‘ul inson emas. Uning ma’naviy pokligi tashqi xatti-harakat, halol kasb, ilmga munosabat va boshqa kishilar bilan muloqotida namoyon bo‘ladi. Mutafakkirning inson tabiatiga oid qarashlarida odamlarning bir-biriga talpinishi, do‘stlik va ulfatchilikka ehtiyoji insoniy sifat sifatida qayd etiladi [6, b. 279]. Bu holat axloqiy kamolotning ijtimoiy o‘lchamga ega ekanini ko‘rsatadi: inson o‘zini tarbiyalash orqali nafaqat shaxsiy osoyishtalikka, balki sog‘lom ijtimoiy munosabatlarga ham hissa qo‘shadi.

Hakim Termiziy merosining zamonaviy ahamiyati. Hakim Termiziy yashagan davrda ham turli diniy-fikriy oqimlar, keskin bahslar va g‘oyaviy qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lgan. Tadqiqotda alloma ayrim soxta da’volar va ilmsizlikka qarshi ilmiy asoslangan fikrlar bilan chiqib, ma’rifat va sog‘lom e’tiqodni himoya qilgani ta’kidlanadi [1, b. 133]. Bu tarixiy tajriba bugungi axborot makonida ham ahamiyatlidir. Chunki ma’naviy bo‘shliq, yuzaki bilim va manipulyativ g‘oyalar shaxsning qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda ilm, tafakkur, o‘zini

anglash va axloqiy mas’uliyatga asoslangan tarbiya shaxsning ichki barqarorligini mustahkamlaydi.

Hakim Termiziy ta’limotidagi nafsni tanish, qalbni pok saqlash, halol mehnat qilish, tavba va o‘zini takomillashtirish g‘oyalari yagona ma’naviy tizimni hosil qiladi. Ushbu tizimning zamonaviy ahamiyati uning insonni faol, mas’uliyatli va axloqiy mezonlarga tayangan shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatidadir. Jamiyat barqarorligi faqat tashqi institutlar bilan emas, balki shu institutlarda faoliyat yurituvchi insonlarning halolligi, mas’uliyati va o‘zaro hurmatiga ham bog‘liq. Shuning uchun Hakim Termiziy merosini axloqiy tarbiya, kasb ma’naviyati va yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish bilan bog‘liq ilmiy-ma’rifiy dasturlarda o‘rganish maqsadga muvofiqdir [1, b. 135-136].

Alloma merosiga bunday yondashuv tarixiy tasavvufiy tushunchalarni zamonaviy ijtimoiy hodisalar bilan mexanik tenglashtirishni anglatmaydi. Aksincha, tarixiy manbadagi axloqiy tamoyillarning bugungi falsafiy mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Nafsni tarbiyalashni - o‘zini boshqarish, qalb pokligini - niyat va mas’uliyat, halol kasbni - ijtimoiy foydali faoliyat, ma’naviy manzillarni esa - uzluksiz axloqiy o‘sish modeli sifatida talqin qilish Hakim Termiziy g‘oyalarining hozirgi davr uchun metodologik imkoniyatlarini ochib beradi.

Xulosa. Hakim Termiziy ma’naviy merosining tahlili shuni ko‘rsatadiki, mutafakkir inson kamolotini ichki va tashqi faoliyatning uyg‘unligi orqali tushuntiradi. Nafsni me’yorga solish shaxsning o‘z xatti-harakatini boshqarishiga, qalbni poklash esa niyat va axloqiy mezonlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu ikki yo‘nalish birgalikda insonning ma’naviy barqarorligini shakllantiradi.

Ikkinchidan, halol kasb, mehnatsevarlik va tavakkulning uyg‘unligi haqidagi qarashlar axloqiy qadriyatni kundalik ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog‘laydi. Shu sababli Hakim Termiziy merosi shaxsiy komillikni jamiyatdan chekinish emas, balki halol va mas’uliyatli faoliyat orqali namoyon etiladigan fazilat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, “Manozil ul-ibod min al-iboda” asaridagi ma’naviy manzillar insonning uzluksiz axloqiy o‘sish modelini ifodalaydi. Tavba, nafsni jilovlash, muhabbat va qurbat kabi tushunchalar o‘zini tahlil qilish, xatoni tuzatish, ezgulikni tanlash va yuksak maqsad sari intilish kabi universal ma’naviy mazmunga ega.

To‘rtinchidan, Hakim Termiziy merosidagi ilm, ma’rifat, halollik, qalb pokligi va o‘zini tarbiyalash tamoyillari zamonaviy jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarning axloqiy immunitetini oshirish va ijtimoiy hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois alloma merosini zamonaviy falsafa, axloqshunoslik va ma’naviy-ma’rifiy tarbiya doirasida tizimli o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Xaitov L.A. Hakim Termiziy ma’naviy merosining inson kamolotidagi o‘rni. – Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023. – 148 b.
2. Al-Hakim at-Termiziy. Yashirin masalalar. Masoil al-Maknuna / tarj. M. Ismoilov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019.
3. Muhammad Hakim Termiziy risolalari. Nafs odobi; Kasb-tirikchilik bayoni / tarj. J. Cho‘tmatov. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy. Ma’rifatul asror (Sirlar ma’rifati) / tarj. A.M. Tursunov. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
5. Hakim at-Termiziy Abu Abdulloh ibn Ali. Manozil ul-ibod min al-iboda / tarj. A. Shoshiy. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
6. Oriflar tasallisi. Hakim Termiziy asarlaridan saylanma / tarj. I. Usmonov va boshq. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
7. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999. – 180 b.
8. Navro‘zova G.N., Zoirov E.X., Yunusova G.S. Tasavvufda inson va uning kamoloti masalasi. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. – 133 b.

9. Palmer A. The Social and Theoretical Dimensions of Sainthood in Early Islam: Al-Tirmidhi's Gnoseology and the Foundations of Sufi Social Praxis. PhD dissertation. – University of Michigan, 2015. – 374 p.

SUQROT QARASHLARIDA INSONNING MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTI

Karimov Jamshid To'lqin o'g'li
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Antik davrning mashhur faylasufi Suqrot miloddan avvalgi 469-yilda Afinada tavallud topgan [10]. U falsafa fanining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan mutafakkirlardan biridir. Suqrot Afina demokratiyasi inqirozga yuz tutgan tarixiy sharoitda faoliyat yuritgan. Ana shu davrning o'ziga xos xususiyatlari faylasufning shaxsi va ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatib, uning qarashlari serqirra, murakkab hamda o'ziga xos mazmun kasb etishiga sabab bo'lgan.

Suqrotning hayoti, faoliyati va ilmiy-falsafiy merosi ilmiy jamoatchilikda doimo katta qiziqish uyg'otib kelgan. Mutafakkirning zamondoshlari uning ijodiga bag'ishlangan dastlabki asarlarni yaratganlar. Xususan, tarixchi Ksenofontning "Suqrot haqida xotiralar", Platonning "Suqrot appologiyalari", "Dialoglar", F.X. Kessidining "Suqrot", S.A. Jebelyovning "Suqrot. Biografik ma'lumot" [1], Ye.N. Orlovning "Suqrot. Uning hayoti va falsafiy faoliyati" kabi asarlari mutafakkirning hayoti, faoliyati hamda falsafiy qarashlarini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tizimli va qiyosiy tahlil, analiz, sintez, dialektika, sinergetika singari umumfalsafiy metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik va obyektivlik tamoyillariga tayanildi.

Suqrotning falsafiy qarashlari shakllanishida "sofistika" nomi bilan atalgan intellektual hodisa alohida ahamiyat kasb etgan. "Sofist" (sophi-stes) atamasi "usta", "mohir", "san'atkor" kabi ma'nolarni bildirgan [2:97-98]. Dastlab ushbu tushuncha hunarmandchilik yoki badiiy san'atning ma'lum bir yo'nalishida maqsadli professional ilmiy-amaliy faoliyat olib boruvchi kishilarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa bu atama narsa va hodisalarning xususiyatlari hamda mohiyatini amaliy va nazariy jihatdan anglashga intiluvchi ijodiy tafakkur egalarini ifodalash uchun qo'llanila boshlagan.

Suqrot sofistlar bilan olib borgan suhbatlari davomida o'zining falsafiy qarashlarini ifodalab, insonlarni o'zini tadqiq qilish va o'zligini anglashga da'vat qilgan [2:146]. Uning qarashlariga ko'ra, jamiyatning farovonligi hamda davlatning kuch-qudrati fuqarolarning ma'naviy darajasi bilan chambarchas bog'liq. Mutafakkir odamlar ezgulik va yovuzlikning mohiyatini to'liq anglamas ekan, davlat va jamiyatni mustahkam mudofaa devorlari yoki ko'p sonli jangovar kemalar ham muqarrar halokat va zalolatdan asrab qola olmasligini ta'kidlagan [6].

Darhaqiqat, millatning buyukligi va davlatning qudrati ko'p jihatdan uning fuqarolari amal qiladigan axloqiy tamoyillarga bog'liq. Suqrotning fikricha, insonning kamolotini boylik, kuch yoki hokimiyat emas, balki yuksak axloqiy fazilatlar belgilaydi [4:16]. Yovuzlikni bartaraf etishning eng muhim sharti esa, avvalo, insonlarda, xususan yoshlarda ezgu fazilatlarni shakllantirishdan iborat [3:434].

Suqrot oqil inson nazariy va amaliy faoliyatda predmetlarni to'g'ri tasniflash orqali ezgulikni yovuzlikdan ajrata olishni o'rganishi va shu asosda yuksak axloq hamda baxtga erishishi mumkinligini qat'iy ta'kidlaydi [2:152]. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni bir-biridan farqlash uchun inson ularning mohiyatini ochib beruvchi bilimga ega bo'lishi zarur. Mutafakkir adolat va adolatsizlik, ezgulik va yovuzlik, haqiqat, jasorat singari ko'plab tushunchalarning mazmunini falsafiy jihatdan sharhlab, sinergetikaga xos bo'lgan ko'p qirrali va nochiziqli yondashuvni namoyon qilgan. U mo'tadil demokratiya tarafdori sifatida davlat lavozimlari hamda mamlakatning oliy organi hisoblangan Besh yuzlar kengashiga nomzodlarni qur'a orqali emas, balki ovoz berish yo'li bilan saylashni taklif qilgan. Shu jihatdan faylasuf o'z davridan ilgarilab ketib, bugungi demokratiyaning muhim belgilaridan biri bo'lgan zamonaviy saylov tizimini joriy etishni nazarda tutgan, deb aytish mumkin.

Faylasuf insonlarda mavjud ezgu fazilatlar asosida butun insoniyatga xos umumiy axloqiy fazilatlar shakllanishini ta’kidlab, xususiylikdan umumiylikka olib boruvchi induksiya metodini asoslagan. Mazkur induksiya axloqiy tushunchalar va qadriyatlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, Suqrot xudolarga maqbul bo‘lgan barcha sifatlarni ezgu fazilatlar, maqbul bo‘lmaganlarini esa yovuz sifatlar sifatida baholab, ezgulik va yovuzlikka qisqa va aniq falsafiy ta’rif bergan [6].

Suqrot tomonidan berilgan hazilomuz savollar suhbatdoshida sarosima holatini yuzaga keltirib, uni o‘zlikni anglash orqali ma’naviy jihatdan takomillashish va uyg‘un barqarorlikka intilishga undagan. Faylasufning axloqiy ta’limotida asosiy mezonlar obyektiv bilimga ega bo‘lish imkoniyatiga, insonning ichki olamini anglash mumkinligiga hamda ezgulikning asl mohiyati bilim ekaniga ishonch hosil qilishdan iborat [3].

Islom dinida insonning taqdiri va fe’l-atvori, ya’ni uning ish-harakatlari Alloh tomonidan yaratilgani, shu bilan birga insonga juz’iy ixtiyor – iroda erkinligi berilgani qayd etiladi [5:24]. E’tiborga molik jihati shundaki, islom dini vujudga kelishidan qariyb ming yil avval yashagan Suqrot ham inson taqdiri Xudo tomonidan belgilanishi va uning hayot yo‘li yaratuvchining irodasiga mos ravishda kechishini ta’kidlagan. Shu bilan birga, u inson o‘zining bilimi, kuchi va qobiliyatiga muvofiq hayot tarzini to‘g‘ri tanlash imkoniyatiga ega ekanini ham qayd etgan.

Mutafakkir qarashlarida insonning ezgu faoliyatining asosiy manbai, uni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan muhim omil bilim va aql hisoblanadi. Kishining bilimi qanchalik keng va mahorati qanchalik yuqori bo‘lsa, u o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni shunchalik muvaffaqiyatli bajara oladi. Demak, bilim insonga boylik, salomatlik va aql singari ne’matlardan baxt hamda farovonlikka erishish yo‘lida oqilona foydalanish imkonini beradi. Buning uchun inson baxtning mohiyatini chuqur anglab, unga erishish yo‘lida yaxshi xulq-atvorni shakllantirishi va hayotiy faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltira olishi lozim.

Mutafakkir inson xatti-harakatlarini ularning natijasiga qarab baholashni tavsiya qiladi: ezgulik ustun bo‘lsa, bunday harakatni to‘g‘ri, yovuzlik ustunlik qilsa, uni qusurli deb hisoblash kerak. U insonning yaxshi amallari bilim asosida, noo‘rin xatti-harakatlari esa bilimsizlik va badnafs natijasida yuzaga kelishini ta’kidlab [6], insonni aqlli mavjudot sifatida ratsionalistik nuqtayi nazardan tushuntirishga intilgan.

Rus yozuvchisi F.M. Dostoyevskiy esa inson xatti-harakatlarini aql emas, balki xohish va ehtiyoj boshqarishini qayd etadi. Uning fikricha, insonning buzg‘unchilik va xaosga intilishi o‘z manfaatlariga zid bo‘lgan harakatlarni amalga oshirishga undovchi irratsional ehtiyojni yuzaga keltiradi. Inson foydali va zararli narsalarni bilmagani sababli buzg‘unchilikka qo‘l uradi. Agar unga bunday harakatlarning zararli jihatlari tushuntirilib, foydali tomonlari ko‘rsatib berilsa, u buzg‘unchilikdan voz kechib, ezgu faoliyatga kirishadi [8].

Suqrotning qarashlarida esa bilimli inson to‘g‘ri qaror qabul qilish va uni amalga oshirish uchun doimo imkoniyatga ega. Uning fikricha, mukammal bilimga ega bo‘lgan shaxsda noo‘rin xatti-harakatlarga ehtiyoj qolmaydi. Shu tariqa mutafakkir bilim bilan xohish o‘rtasidagi ziddiyat mavjudligini inkor etadi.

Mutafakkir nazarida bilim va malaka ezgulik hamda yovuzlikning mazmun-mohiyatini anglashga, qalbni davolashga va salomatlikni mustahkamlashga xizmat qilgan taqdirdagina foydali hisoblanadi. Shu sababli Suqrot ilgari surgan o‘zlikni anglash tamoyilining mazmunini qalbga g‘amxo‘rlik qilish, mazmunli ma’naviy hayot kechirish, yaxshi tarbiyaga intilish va oliyjanob ruhiyatni shakllantirishga da’vat tashkil etadi. U yoshlarni ham, keksalarni ham pul va jismoniy holat haqida emas, balki qalbni yanada yaxshilash haqida qayg‘urishga chorlaydi.

Suqrot insonning qalb go‘zalligi haqida qayg‘urib yashashini uning burchi va hayotdagi asosiy maqsadi sifatida ko‘rsatadi hamda qalbni aql-tafakkurning kaliti va insoniylikning eng muhim qadriyati sifatida ulug‘laydi. Faylasuf qalb tushunchasi orqali axloqan komil shaxsning faol aqliy tafakkurini nazarda tutadi. Uning fikricha, qalb jismning podshohi bo‘lib, insonning axloqiy holatiga muvofiq ravishda uning barcha xatti-harakatlari va hissiyotlarini boshqaradi [9].

Insonning hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashi uchun o‘zligini anglash, bilim va hayotiy tajriba zarur. Shu sababli Suqrot afinalik siyosiy arboblarni mamlakatning harbiy, siyosiy va iqtisodiy

qudratini oshirish masalalaridan ko‘ra, hayotning eng muhim masalasi bo‘lgan fuqarolarning aqliy va axloqiy kamoloti haqida qayg‘urishga chaqirgan [2:237]. Mutafakkirning axloqiy takomilga oid qarashlari idealistik va yarim utopik xususiyatdagi ayrim cheklanishlarga ega bo‘lishiga qaramay, ular inqilobiy ahamiyat kasb etgan.

Insonning faoliyati va xatti-harakatlari maqsadga yo‘naltirilgan hamda ko‘pchilik manfaatiga xizmat qilgan taqdirdagina ezgulik mazmunini kasb etadi. Rohat-farog‘atga haddan tashqari berilish esa inson aqlini ezgu maqsadlardan uzoqlashtirib, uni yanada ahmoqona mayllarga yetaklaydi. Suqrot uchun bilim, donishmandlik va ezgulik eng oliy qadriyatlar hisoblanadi. Chunki bilimga ega, o‘zligini anglagan, ezgu amallarni bajaradigan va ma’naviy kamolot haqida qayg‘urib yashaydigan insonlargina mazmunli va sururli hayot kechira oladi.

“O‘zlikni anglash” tarzida ifodalangan donishmandlik qoidasi Suqrotdan oldin ham qo‘llanilgan bo‘lsa-da, uning muallifi sifatida aynan Suqrot e’tirof etiladi. U antik davr mutafakkirlari orasida birinchilardan bo‘lib, o‘zlikni anglash tamoyilini o‘z ta’limotining asosiga va butun faoliyatining bosh mezoniga aylantirdi. Uning fikricha, ezgulik haqida fikr yuritmaydigan, o‘z hayoti va boshqalarning hayotini tadqiq etmaydigan kunni inson o‘tgan umr sifatida hisoblamasligi kerak [10]. Mutafakkir ilgari surgan o‘zlikni anglash tamoyili inson muammosini falsafaning asosiy masalasiga aylantirib, yunon nazariy tafakkurining rivojida yangi bosqichni boshlab bergan. Hozirgi globallashuv va ilmiy-texnik inqilob sharoitida yuz berayotgan ilmiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda harbiy-siyosiy ziddiyatlar sharoitida ushbu tamoyilning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Mutafakkir qarashlariga ko‘ra, o‘zlikni anglash insonning o‘z ichki dunyosini bilishi, mazmunli hayot kechirishi, ruhiy salomatlikka erishishi, ichki imkoniyatlari bilan tashqi faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashi va o‘zining axloqiy xulq-atvoridan qoniqish hosil qilishini anglatadi. O‘zligini anglagan inson o‘zining hamda boshqalarning bilim va layoqatini to‘g‘ri baholab, ratsional jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zini anglagan kishi nimalar foydali va nimalar zararli ekanini, nimalarga qodirligi va nimalarga qodir emasligini yaxshi biladi. U o‘z bilim va imkoniyatlariga mos faoliyat bilan shug‘ullanib, ehtiyojlarini qondiradi hamda baxtli hayot kechiradi. Bilmagan narsalari bilan shug‘ullanish esa uni xato va baxtsizlikka olib kelishi mumkin [6].

Biroq Suqrotning fojiali taqdiri uning o‘z bilganlariga doimo amal qilmaganini ko‘rsatadi. Agar u aksincha yo‘l tutganida, sud jarayonida ko‘pchilikni o‘ziga qarshi qo‘ymagan va hayotini saqlab qolgan bo‘lar edi. Sud tomonidan u xudolarni tan olmaslik, yangi xudolarni joriy etishga urinish hamda yoshlar ongini buzishda aybdor deb topilgan [10]. Shunga qaramay, faylasuf o‘zining haq ekaniga ishongan holda sud jarayonida vijdoni va qarashlaridan voz kechmagan. Hatto sud hukmi chiqarilgach ham qamoqdan qochish imkoniyatlarini ongli ravishda rad etib, o‘zini halokatga mahkum qilgan [10].

Suqrot o‘zining xolisona ma’ruzalari orqali demagogik rejimning individualizm, egoizm va hokimiyatga intilish kabi jihatlarini keskin tanqid qilgan [3:14]. Afina demokratlari mutafakkirni ochiq munozara orqali yengish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlar. Shu sababli ular faylasufning shaklan isyonkor, ammo mohiyatan ezgu faoliyatiga uzoq vaqt davomida chora ko‘rmay sabr qilganlar. Nihoyat, miloddan avvalgi 399-yilda asossiz ayblovlar asosida Suqrot o‘limga hukm qilinib, uning hayotiga barham berilgan [10].

Xulosa qilib aytganda, Suqrot ilgari surgan ratsional tafakkur konsepsiyasi ilm, o‘zlikni anglash va ezgu amallar orqali komil insonni tarbiyalash, haqiqat, adolat hamda baxtga erishishga yo‘naltirilgan. Shu sababli Aflotun Suqrotning o‘limi uning o‘zidan ko‘ra, qotillari uchun dahshatliroq ekanini, chunki mutafakkir vafotidan keyin ularni haqiqat va adolatni izlashga majbur etuvchi kuch qolmaganini ta’kidlagan [3:14].

Adabiyotlar

1. Жебелёв С.А. Сократ. Биографический очерк. – М.: Юрайт, 2025.
2. Кессиди Ф.Х. Сократ. – СПб.: Алетейя, 2001.
3. Платон. Собрание сочинений. В 4 т. Т. 1. – М.: Мысль, 1990.

4. Хакимов Р.С. Жадидизм (Реформированный ислам). – Казань: Институт истории АН РТ, 2010.
5. Xursandov O. Moturidiylik haqiqati. – T.: Hilol nashr, 2024.
6. https://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1348105100.
7. https://cyberleninka.ru/artic.
8. https://ilibrary.ru/text/9/p.7/index.html.
9. https://plato.spbu.ru/RESEARCH/ksocrat/02.htm.
10. https://plato.spbu.ru/TEXTS/PLATO/Academia/001-03.pdf.

MA'NAVIYAT MAZMUNIGA EGA MA'LUMOTLAR KORPUSI: AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY BARQARORLIK

Xolmurodova Madina Alisher qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili funksional leksika kafedrasi dotsenti, PhD

So'nggi yillarda korpus lingvistikasi tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Til birliklarining real matnlar asosida tahlil qilinishi, ularning qo'llanish chastotasi, uslubiy xususiyatlari va ma'no ottenkalarini aniqlashda katta hajmdagi elektron matnlar korpusi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq korpus faqat leksik-grammatik tadqiqotlar uchun emas, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy holatini o'rganish, milliy qadriyatlarni saqlash va yosh avlodni tarbiyalash vositasi sifatida ham katta imkoniyatlarga ega.

Ma'naviyat mazmuniga ega ma'lumotlar korpusi deganda biz badiiy, publitsistik, ilmiy-ommabop va og'zaki nutq namunalaridan tarkib topgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi tushunchalarni ifodalovchi til birliklarini o'zida mujassam etgan maxsus tashkil etilgan matnlar to'plamini tushunamiz. Bunday korpusning boshqa umumiy til korpuslaridan farqi shundaki, matnlar tanlanishida mazmuniy mezon ya'ni matnning ma'naviy-axloqiy yuk tashishi - hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi [1,b.24].

Tilshunos olimlarning ta'kidlashicha, har qanday xalqning ma'naviy dunyoqarashi, avvalambor, uning tilida, xususan, leksik fondida o'z aksini topadi [2,b.56]. Shu bois ma'naviyat mazmuniga ega korpusni yaratish jarayonida quyidagi manbalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- xalq og'zaki ijodi namunalari (maqol, matal, topishmoq, ertak);
- mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalari;
- ma'rifiy-axloqiy mavzudagi publitsistik maqolalar;
- diniy-ma'rifiy adabiyotlarning ilmiy-ma'rifiy tahlilga tortilgan qismlari;
- ta'lim tizimida qo'llaniladigan darslik va qo'llanmalar matnlari.

Bunday xilma-xil manbalar korpusning mazmun jihatidan boyligini va tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Ma'naviyat mazmuniga ega korpusni shakllantirishning uch bosqichli metodologiyasini taklif etish mumkin. *Birinchi bosqichda* manbalar tanlab olinadi va ularning janr, davr, muallif kabi mezonlar bo'yicha tasnifi amalga oshiriladi. *Ikkinchi bosqichda* matnlar elektron formatga o'tkaziladi hamda lingvistik izohlash (tokenlashtirish, morfologik va semantik teglash) jarayonidan o'tkaziladi. *Uchinchi bosqichda* esa korpus doirasida ma'naviy-axloqiy mazmun tashuvchi leksik-frazeologik birliklar (masalan, or-nomus, halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralar) chastotaviy va konteksual tahlildan o'tkaziladi [3,b.112]. Bunday yondashuv nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika va sotsiologiya sohalari uchun ham qimmatli statistik va sifatiy ma'lumotlar beradi.

Ma'naviyat mazmuniga ega korpusning amaliy ahamiyati bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. *Birinchidan,* bunday korpus asosida tuzilgan lug'atlar va qo'llanmalar ta'lim jarayonida yosh avlodga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. *Ikkinchidan,* korpus tahlili orqali jamiyatda qanday axloqiy tushunchalar faol qo'llanilayotgani, qaysilari esa nutqiy muomaladan chetlashib borayotgani aniqlanadi, bu esa

ma’naviy-ma’rifiy siyosatni ilmiy asosda yuritish imkonini beradi [4,b.89]. *Uchinchidan,* korpus lingvistik va ijtimoiy-madaniy tadqiqotlarni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi: til orqali jamiyatning qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarni kuzatish mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan qaraganda, til va ma’naviyat o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot makonida turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishi sharoitida milliy qadriyatlarni til vositasida saqlash va targ‘ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ma’naviyat mazmuniga ega korpus asosida yaratilgan o‘quv-metodik materiallar, elektron lug‘atlar va tahliliy resurslar yoshlarda mustahkam dunyoqarash, milliy g‘urur va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda korpus lingvistikasi nafaqat tilshunoslik, balki ma’naviy tarbiya va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash borasidagi kompleks ishlarning ajralmas qismiga aylanmoqda [5,b.41].

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyat mazmuniga ega ma'lumotlar korpusini yaratish va undan foydalanish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bunday korpus, bir tomondan, tilning leksik-semantik boyligini ilmiy asosda o‘rganish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, jamiyatda axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladigan amaliy vositaga aylanadi. Kelgusida bunday korpuslarni kengaytirish, ularni raqamli platformalarga integratsiya qilish va ta’lim tizimida keng qo‘llash borasida qo‘shimcha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev B. Korpus lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 212 b.
2. Nazarov O. Til va milliy qadriyatlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 168 b.
3. Rahimov S. Elektron matnlar korpusini shakllantirish metodologiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2021. – №3. – B. 108–116.
4. Karimova D. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada til vositalarining o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 144 b.
5. Islomov Z. Ijtimoiy barqarorlik va milliy g‘oya masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022. – 196 b.

IBN SINO FALSAFASIDA KOMILLIK YO‘LI, BILIM VA AXLOQ UYG‘UNLIGI

Yuldasheva Lola Sagdullaevna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti, (PhD,

Ilm-fan, falsafa va tibbiyot yulduzi Abu Ali ibn Sinoning boy merosida uning “Tadbiri manzil” (“Xonadon boshqaruvi”) risolasi alohida o‘rin egallaydi. Bu asar shunchaki ro‘zg‘or boshqarish qo‘llanmasi emas, balki ijtimoiy muhit va tarbiya ta’sirida inson shaxsining shakllanishini chuqur o‘rganuvchi tadqiqotdir. Ibn Sino mazkur risolasida inson oldindan belgilangan axloq bilan tug‘ilmasligini ta’kidlaydi. Oq qog‘ozdek inson qalbi tarbiya va hayotiy tajriba ta’sirida yer yuzidagi yo‘li davomida ezgulik yoki yovuzlik ranglarini singdirib boradi. Xuddi yengil shabadadek ijtimoiy muhit inson xarakterini shakllantirib, uni yo nur sari, yo zulmat tomon yetaklaydi.

Idealizm cho‘qqilariga ko‘tarilgan Ibn Sino Yaratuvchini ham bilim, ham axloq manbai sifatida idrok etadi. U inson ojiz yaratilgan bo‘lsa-da, tabiat mukammalligi, jismoniy uyg‘unlik va qiyoslashga ko‘prik bo‘lmaydigan tashqi qiyofa bilan taqdirlangan holda tirik mavjudotlar orasida markaziy o‘rinni egallashini ta’kidlaydi. Mana shu zaiflik va olijanoblik ichida inson mavjudotining paradoksal mohiyati yotadiki, bu nafaqat xonadonni, balki hayotning o‘zini oqilona boshqarishni talab qiladi. Avitsenna nuqtai nazaridan, ilohiy hikmat va cheksiz qudrat inson bilimi hamda axloqining fundamental manbalaridir. Dunyoga idealizm prizmasidan nazar tashlar ekan, u Yaratuvchida inson ongini yorituvchi va uning amallarini yo‘naltiruvchi nur manbasini ko‘rdi. Ibn Sinoning fikricha, inson ojiz mavjudot bo‘lib ko‘rinsa-da, maxsus ato bilan taqdirlangan [1, b. 123]. O‘zining tashqi zaifligiga qaramay, inson koinotda markaziy o‘rinni egallaydi. Tabiat unga mukammallik, noyob tana tuzilishi va boshqa barcha maxluqotlardan ustun qo‘yuvchi mislsiz go‘zallik ato etgan. Zaiflik va buyuklikning mana shu paradoksida inson mavjudotining chuqur

siri yotadi va u o‘z maqsadiga nisbatan mulohaza yuritish hamda hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi.

Xo‘sh, ko‘pincha jismonan baquvvatroq bo‘lgan hayvonlardan insonning ustunligi nimada? Olimning fikricha, Alloh insonga yaxshilikni yomonlikdan, ilmiy yetuklikni jaholatdan, haqiqatni yolg‘ondan ajratish quvvatini ato etgan. Inson oqilona mavjudot bo‘lgani bois tabiatda alohida o‘rin egallaydi va hayvonot olamidan ajralib turadi. Aynan aql tufayli u shaxsga aylanadi [2, b. 123]. Shu aqliy qobiliyat tufayli inson hayoti hayvonlarning mavjudotidan o‘zining chuqurligi va rang-barangligi bilan tubdan farq qiladi. Bilimga intilish, samarali faoliyat va maqsad sari abadiy intilish aql hamda hikmat quvvati bilan bog‘langandir.

Shu ma’noda, inson nafaqat takrorlanmas tashqi shakl va yuksak axloqiy fazilatlar egasi, balki axloqiy fazilatlarning bunyodkoridir ham. Axloqiy taraqqiyot faqat insoniyatga xosdir, chunki insonlar buyuk tafakkur va aql qudrati tufayli haqiqat bilan yolg‘on o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilay oladilar, shuningdek, do‘stni dushmandan ajrata oladilar. Agar narsalarning mohiyatini tushunish uchun aqliy yetuklik va ilm zarur bo‘lsa-da, ular axloqiy mukammallik uchun hali ham yetarli emas. Bilim va axloqiy niyat pokligining birligi insonni oqil hamda olijanob qiladi [3, b. 123]. Axloqiy taraqqiyotning imkoniyatiga shubha yo‘q, chunki go‘zallik va axloqiy mukammallik sari intilish faqat insongagina xos tug‘ma sifatdir.

“Tadbiri manzil” risolasida mutafakkir muhim bir g‘oyani ilgari suradi - inson tabiati o‘z-o‘zidan fazilatli yoki axloqsiz bo‘lmaydi. Odamlar oldindan shakllangan shaxsiy xususiyatlar, odatlar yoki ko‘nikmalar bilan tug‘ilmaydi; ular bularni shaxsiy tajriba, avvalgi avlodlar an’analari hamda o‘qish va tarbiya jarayonlari asosida o‘tkinchi hayot yo‘lida rivojlantiradilar. Ta’lim-tarbiya va boshqalarning ta’siri ostida inson yo maqtovga sazovor fazilatlarni egallaydi, yo yomon odatlar, salbiy xarakter xususiyatlari va hissiyotlarning tashuvchisiga aylanadi. Bu yerda qonun kuchiga ega bo‘lgan odatning roli ham birdek muhimdir. Maqtovga sazovor odatlar va fazilatlarni egallash qanchalik qiyin bo‘lsa, ma’naviy tabiatiga ildiz otgan salbiy sifatlar hamda odatlardan xalos bo‘lish ham shunchalik qiyindir [4, b. 123].

Mutafakkir Ibn Sino ta’lim va tarbiya jarayoni ma’rifat izlash hamda inson hayotining turli sohalarini chuqur o‘rganishdan boshlanishi lozimligini taklif qilgan. Bu dunyoda inson faoliyati faqat diniy rasm-rusumlar va an’analar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Aksincha, dunyoviy bilimlarni yuksaltirishga hamda ilm-fan va ma’rifat bayrog‘ini baland ko‘tarishga targ‘ib qilinishi lozim. Shu munosabat bilan Ibn Sino ona tilining hamda chet tillarining qoida va grammatik asoslarini astoydil o‘rganib, asta-sekin boshqa muhim fanlarga, jumladan, tibbiyot va geometriyaga o‘tib borish kerakligiga ishongan.

Avitsennaning fikricha, maqsadga erishish yo‘l va vositalari aniq belgilangan, biroq amaliy natija ularning yagona tizim doirasida to‘g‘ri va izchil ishlashiga bog‘liqdir. Tashqi dunyo hodisalarining mohiyati va sabablarini tushunish axloqiy fazilatlarning yanada rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgani kabi, falsafiy nuqtai nazardan axloqiy mukammallik ham voqelikni chuqur tahlil qilish, ilmiy muammolarni xolisona tekshirish uchun cheksiz ufqlarni ochib beradi [5, b. 123]. Inson o‘zini kamsituvchi ma’naviy illatlari va zararli odatlaridan to‘la xalos bo‘lganda, ortiqcha qiyinchiliklarsiz ilm olish jarayoni bilan shug‘ullana oladi.

Shunday qilib, Ibn Sino o‘zining “Tadbiri manzil” asarida bilim va axloq birligini bilim hamda narsalarning mohiyatini tushunishga intilish o‘z-o‘zidan maqsad emasligi g‘oyasi bilan bog‘laydi. Bilimning ahamiyati birinchi navbatda uning shaxs va jamiyatning axloqiy taraqqiyotidagi o‘rni hamda roli bilan belgilanadi. Fazilatli jamiyatda bilimning o‘zi axloqiy me’yorlar va axloqiy tamoyillar hokimiyati bilan qo‘llab-quvvatlanadigan axloqiy fazilatga aylanadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash Markaziy Osiyo xalqlari ajdodlarining pedagogik g‘oyalarini chuqur o‘rganishni, ularning konsepsiyalarini zamonaviy ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 460 b.

2. Erkaev A. Uchinchi Renessans: ma’rifiy va institutsional poydevor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 220 b.
3. Jorayev N. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va milliy tiklanish falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 185 b.
4. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.
5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В КАЗАХСТАНЕ

Абдыкадырова А.Р., Бураханова А.С.
магистр педагогических наук, ассистент-профессор
Казахский национальный медицинский университет имени С.Д. Асфендиярова

Современное общество развивается в условиях значительных социальных, экономических, культурных и технологических изменений. Особенно сильно данные процессы отражаются на молодом поколении. Расширение информацион-ного пространства, активное использование социальных сетей и цифровых технологий создают новые возможности для образования и общения, но одно-временно оказывают влияние на систему ценностей и мировоззрение молодежи. В этих условиях особую актуальность приобретает проблема духовно-нравственного воспитания. Молодой человек должен не только обладать необходимыми знаниями и профессиональными компетенциями, но и иметь устойчивые нравственные ориентиры, чувство ответственности, уважение к другим людям, своей семье, обществу, культуре и истории своей страны. Для Казахстана данный вопрос имеет особое значение. Республика является многонациональным и многоконфессиональным государством, в котором важную роль играют идеи общественного согласия, взаимного уважения и единства. Одновременно сохранение национальной культуры, языка, традиций и исторической памяти является важной составляющей духовного развития молодого поколения.

Духовно-нравственное воспитание представляет собой процесс формирования у человека устойчивых представлений о добре и зле, справедливости, совести, достоинстве, ответственности и уважении к другим людям. Оно предполагает не только знание нравственных норм, но и способность применять их в повседневной жизни. Особое место в системе духовно-нравственных ценностей казахского народа занимают уважение к старшим, забота о младших, гостеприимство, взаимопомощь, единство, трудолюбие, честность и ответственность перед семьей и обществом. Эти традиционные ценности формировались на протяжении многих поколений и нашли отражение в устном народном творчестве, литературе и философской мысли казахского народа. Большое значение для нравственного воспитания молодежи имеет наследие великого казахского мыслителя Абая Кунанбаева. В своих произведениях Абай уделял большое внимание вопросам образования, труда, нравственности и духовного совершенствования человека. Его представление о гармонично развитой личности связано с единством разума, знаний, труда и нравственных качеств. Идеи Абая сохраняют актуальность и в современном Казахстане, поскольку побуждают молодого человека к саморазвитию, ответственности и стремлению к знаниям. Не менее важен вклад Ыбырая Алтынсарина в развитие образования и воспитания. Он рассматривал просвещение как важнейшее средство развития общества. Его педагогические идеи основывались на необходимости воспитания трудолюбия, честности, доброты и стремления к знаниям. Для современной молодежи эти принципы остаются значимыми, поскольку образование должно способствовать не только профессиональному развитию, но и формированию культуры личности. Особое место занимает духовное наследие Шакарима Кудайбердиева, который большое внимание уделял вопросам совести,

нравственной ответственности и внутренней культуры человека. Его идеи позволяют рассматривать нравственность как внутреннюю основу поведения личности. Воспитание совестливого и ответственного человека особенно важно в условиях современного общества, где молодые люди сталкиваются с большим количеством различных информационных и социальных воздействий. Большой вклад в развитие педагогической мысли внес Магжан Жумабаев. В труде «Педагогика» он рассматривал воспитание как сложный процесс формирования личности и подчеркивал необходимость учитывать особенности ребенка, его духовный мир и способности. Его идеи имеют значение для современной системы образования, ориентированной на всестороннее развитие личности. Одним из важнейших факторов формирования духовно-нравственных ценностей является семья. Именно в семье ребенок впервые знакомится с понятиями добра, уважения, ответственности и справедливости. Отношения между родителями и детьми, отношение взрослых к старшим членам семьи, традиции взаимопомощи и поддержки оказывают большое влияние на формирование характера молодого человека. Для казахской культуры традиционно большое значение имеет уважение к старшему поколению. Такие понятия, как уважение к старшим и забота о младших, способствуют укреплению семейных связей и формированию чувства ответственности. Важно сохранять эти традиции и передавать их молодому поколению не только в форме слов, но и посредством личного примера. Значительную роль в духовно-нравственном воспитании играет система образования. Школы, колледжи и высшие учебные заведения должны создавать условия не только для получения знаний, но и для развития гражданской культуры молодежи. Особое значение имеют история Казахстана, казахская литература, язык, культура и другие гуманитарные дисциплины. Изучение истории своего народа помогает молодому человеку осознать связь между прошлым, настоящим и будущим. Знание культурного наследия способствует формированию уважения к своей стране и другим народам. При этом патриотическое воспитание должно основываться не только на эмоциональной привязанности к Родине, но и на готовности ответственно участвовать в жизни общества, соблюдать законы, уважать права других людей и приносить пользу своей стране. Большой воспитательный потенциал имеют культура и искусство. Литературные произведения, музыка, театр, изобразительное искусство и кино помогают молодежи осмысливать нравственные проблемы, развивают эмоциональную отзывчивость и способность сопереживать. Особое место занимает казахская литература, в которой отражены многовековой исторический опыт, традиции и нравственные представления народа. В современных условиях необходимо также уделять внимание влиянию цифровой среды. Интернет и социальные сети являются важной частью жизни молодежи и могут оказывать как положительное, так и отрицательное воздействие. Поэтому необходимо развивать у молодых людей информационную культуру, критическое мышление и способность самостоятельно оценивать содержание получаемой информации. Важным направлением духовно-нравственного развития является участие молодежи в общественной и волонтерской деятельности. Помощь пожилым людям, участие в благотворительных, экологических и социальных проектах формируют чувство ответственности и солидарности. Через практическую деятельность молодые люди получают возможность реализовать такие ценности, как милосердие, взаимопомощь и гражданская ответственность. Таким образом, духовно-нравственное воспитание молодежи Казахстана должно осуществляться комплексно. Семья, образовательные организации, учреждения культуры, общественные объединения и государственные структуры должны создавать единую воспитательную среду. При этом важно учитывать интересы самой молодежи и предоставлять ей возможность самостоятельно участвовать в общественной жизни. Заключение Формирование духовно-нравственных ценностей у молодого поколения является важнейшей задачей современного Казахстана. В условиях глобализации и стремительного развития информационных технологий особую значимость приобретает сохранение нравственных ориентиров, культурной идентичности и исторической памяти. Важную роль в этом процессе играют семья, образование,

национальная культура, литература, искусство и общественно полезная деятельность. Духовное наследие Абая Кунанбаева, Ыбырая Алтынсарина, Шакарима Кудайбердиева и Магжана Жумабаева содержит значительный воспитательный потенциал и может служить основой для формирования нравственной личности современного молодого человека. Духовно-нравственное воспитание должно быть направлено на развитие честности, ответственности, трудолюбия, уважения к старшим, заботы о близких, патриотизма, гражданственности и стремления к знаниям. Одновременно необходимо воспитывать уважение к многообразию культур и мировоззрений, что особенно важно для многонационального общества Казахстана. Таким образом, будущее страны во многом зависит от того, какими ценностями будет руководствоваться молодое поколение. Образованная, нравственно ответственная, культурно развитая и социально активная молодежь является важнейшим условием устойчивого развития Казахстана.

Литература:

1.Абай Кунанбаев. Книга слов (Қара сөздер). — Алматы: Ел, 1993.
2. Алтынсарин И. Избранные произведения. — Алматы: Наука, 1988.
3.Жумабаев М. Педагогика. — Алматы: Рауан, 1993.
4.Кудайбердиев Ш. Үш анық (Три истины). — Алматы: Қазақстан, 1991.
5.Назарбаев Н. А. Взгляд в будущее: модернизация общественного сознания // Казахстанская правда. — 2017. — 12 апреля.
6.Калибекова А. А. Народная мудрость казахов о воспитании. — Алматы: Бауыр, 2011.
7.Куздеубаева А., Жакаева С., Сопбеков С. Некоторые педагогические аспекты духовно-воспитания личности на основе национальных ценностей // Вестник Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмеда Ясави. — 2021.
8.Алгожаева Н., Ертысова С. Духовно-нравственное воспитание молодежи на основе казахских художественных фильмов // Вестник КазНУ. Серия «Педагогические науки». — 2020. — Т. 65. — № 4. — С. 134–140.
9.Уразбаева Г. Ш., Сакауова У. Ж. Духовно-нравственное воспитание — базовая основа современного образования детей и молодежи // Алтынсаринские педагогические чтения. — 2024. — Кн. 1. — С. 659–664
10.Закон Республики Казахстан «Об образовании» от 27 июля 2007 года № 319-III.

AXLOQIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI TARG‘IB QILISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Kaxorova Saodat Kaxramonovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Raqamlashtirish va shiddatli axborot xurujlari avj olib borayotgan bugungi davrda jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta’minlash, xususan, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularni turli buzg‘unchi g‘oyalardan muhofaza qilish an’anaviy, bir qolipdagi targ‘ibot usullaridan butunlay voz kechishni taqozo etadi. Bu jarayon ilmiy-metodik jihatdan puxta asoslangan, zamonaviy innovatsion texnologiyalarga tayangan yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni va ularni hayotga tatbiq etishni talab qiladi.

Bugungi yoshlar auditoriyasining axborotni qabul qilish psixologiyasi, tafakkur tarzi hamda raqamli media muhitdagi xulq-atvori tubdan o‘zgargan bir sharoitda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini interfaol usullar, vizual va raqamli kontentlar hamda sotsiologik-psixologik diagnostika mexanizmlari orqali tashkil etish hayotiy zaruratdir [1, b. 123]. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi yoshlar ongida milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirishda zamonaviy media-texnologiyalar, interfaol platformalar hamda ilmiy-metodik yondashuvlarning samaradorligini ochib berishdan iboratdir.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va pedagogik bilimlarda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot faoliyati shunchaki axborot uzatish jarayoni emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimini modellashtiruvchi, uning ijtimoiy axloqini yo‘naltiruvchi va dunyoqarashini shakllantiruvchi murakkab kognitiv-kommunikativ tizim sifatida talqin etiladi. Axborot jamiyatining jadal rivojlanishi sharoitida

ma’naviy-tarbiyaviy jarayonni ilmiy-metodik jihatdan qayta ko‘rib chiqish hamda unga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda [2, b. 123].

Ijtimoiy-psixologik nazariyalarga ko‘ra, bugungi yoshlar auditoriyasi axborotni qabul qilish va uni baholash borasida dinamik hamda vizual-mediativ xususiyatlarga ega. Targ‘ibotning ilmiy-metodik poydevori tizimlilik, izchillik va auditoriya ehtiyojlariga moslashuvchanlik tamoyillariga tayanib, diagnostika, kontent yaratish va qayta aloqa bosqichlarini o‘z ichiga olgan uch bosqichli model asosida tashkil etilishi lozim [3, b. 123]. Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan, innovatsion targ‘ibot texnologiyalari milliy va axloqiy qadriyatlarni yoshlar ongiga majburiy norma sifatida emas, balki ularning shaxsiy muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan hayotiy resurs sifatida singdirishga qaratilmog‘i lozim. Sharq mutafakkirlarining ma’rifat va axloq uyg‘unligi haqidagi qarashlari zamonaviy innovatsion targ‘ibot metodologiyasining ma’naviy-falsafiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asrida targ‘ibotning eng samarali vositalaridan biri mediata’lim va raqamli storytelling (hikoyachilik) texnologiyalari hisoblanadi. Qisqa videoroliklar, infografikalar va podkastlar ko‘rinishidagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalar yoshlarda emotsional idrok etish va axloqiy bog‘liqlik hissini kuchaytiradi. Innovatsion targ‘ibotning yana bir muhim yo‘nalishi geymifikatsiya (o‘yinlashtirish) va interfaol kognitiv loyihalarni tatbiq etishdir [4, b. 123]. Ma’naviy-tarbiyaviy jarayonga intellektual o‘yinlar va virtual ma’rifiy platformalarni joriy etish yoshlarning faol ishtirokini ta’minlab, axloqiy ko‘nikmalarni singdirish samarasini bir necha barobar oshiradi.

Zamonaviy media muhitda ma’naviy targ‘ibotning muvaffaqiyati va uning real samaradorligi yoshlarda tanqidiy tafakkur hamda media savodxonlikni shakllantirish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir [5, b. 123]. Axborot oqimi cheksiz bo‘lib borayotgan hozirgi davrda yoshlar har qanday xabar yoki vizual kontektni ko‘r-ko‘rona qabul qilmasdan, uni tahlil qilish, soxta (feyk) xabarlar hamda manipulyativ tuzoqlarni o‘z vaqtida farqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Ana shu tanqidiy yondashuvgina ularni axborot xurujlaridan himoya qiluvchi ichki intellektual qalqon vazifasini o‘taydi.

Mazkur jarayonda ijtimoiy institutlarning o‘rni beqiyosdir. Oila, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan, tizimli harakati ta’lim-tarbiyotda o‘ziga xos “sinergetik samara”ni yuzaga keltiradi. Ya’ni, oilada olingan azaliy axloqiy tamoyillar maktab va OTMlardagi ilmiy-metodik muhit bilan quvvatlanib, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali keng jamoatchilik ongida mustahkamlansa, yoshlarda har qanday yot va buzg‘unchi ta’sirlarga qarshi yengilmas mafkuraviy immunitet hosil bo‘ladi.

Shu bilan birga, neyropedagogika va ijtimoiy psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari ma’naviy targ‘ibot jarayonida eskicha, qolipga tushib qolgan an’anaviy usullardan butunlay voz kechishni, shaxsiy o‘rnak bo‘ladigan hamda yoshlarning zamonaviy tili bilan muloqot qiladigan “fikr yetakchilari” (*opinion leaders*)ning rolini keskin oshirishni qat’iy talab etadi. Bugungi raqamli asrda voyaga yetayotgan yosh avlod rasmiyatchilikka, quruq ma’ruzalarga yoki zerikarli pand-nasihatlarga asoslangan targ‘ibot usullarini deyarli qabul qilmaydi. Aksincha, ular o‘zlarining hayotiy tajribasi, zamonaviy dunyoqarashi, samimiyligi va amaliy ishlari bilan atroflidagilarga chinakam namuna bo‘la oladigan, yoshlarning ichki kechinmalari, muammolari hamda intilishlarini teran tushunadigan nufuzli shaxslarga ergashishni afzal ko‘radilar.

Bu esa ma’naviy targ‘ibotchilarning zamonaviy media kompetentligini, ya’ni raqamli texnologiyalar tilida erkin muloqot qilish malakasini muntazam oshirib borishni taqozo etadi. Targ‘ibotchilarning axborot makonidagi faolligi, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sir doirasi va emotsional intellekti zamonaviy ilmiy-metodik kadrlar siyosatining eng ustuvor o‘zagini tashkil qiladi. Zero, yoshlar ongiga ma’rifat ulashish uchun targ‘ibotchining o‘zi zamon bilan hamnafas bo‘lishi va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni mukammal egallashi shart.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy barqarorlikni ta’minlashda yoshlar ma’naviyatini targ‘ib qilish ishlarini innovatsion texnologiyalarga tayangan holda tashkil etish mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasini va ma’naviy-ma’rifiy xavfsizlikni kafolatlaydigan eng ustuvor mexanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jorayev N. Ma’naviy targ‘ibot metodologiyasi va zamonaviylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 180 b.
2. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.
3. Ochilov E. Tarbiyada innovatsion va interfaol texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020. – 190 b.
4. Erkaev A. Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-institutsiya omillari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 215 b.
5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

МИНИАТЮРА КАК СРЕДСТВО СОХРАНЕНИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Мусинова Азиза Садиковна[1], Ашурбаева Кубаро[2]

[1] преподаватель Бухарского государственного педагогического института

[2] студентка 1 курса направления «Изобразительное искусство и инженерная графика»

В современном мире процессы глобализации, цифровизации и интенсификации межкультурных связей значительно расширяют возможности культурного взаимодействия. Вместе с тем они актуализируют проблему сохранения национальной идентичности, исторической памяти и духовных ценностей. Особенно важным становится поиск таких форм культурной деятельности, которые способны не только хранить элементы прошлого, но и обеспечивать их осмысленную передачу молодому поколению.

Искусство традиционно выполняет не только эстетическую, но и социально-культурную функцию. В художественных произведениях сохраняются представления народа о мире, нравственных ценностях, красоте, традициях, общественных отношениях и историческом прошлом. В исследовании Б. Ж. Юлдашевой подчёркивается, что национальные ценности определяют содержательную основу произведений искусства, тогда как традиции обогащают их формы и выразительные средства [2, с. 64]. В изобразительном и прикладном искусстве, музыке и литературе находят отражение культурное наследие, обычаи и духовное мировоззрение народа.

Особое место в художественном наследии Центральной Азии занимает миниатюрное искусство. Узбекская миниатюра представляет собой одну из наиболее тонких и самобытных форм восточной художественной культуры. Исторически она развивалась в тесной связи с рукописной книгой, литературой, поэзией и художественным оформлением текста. Однако её функции не ограничивались иллюстрированием литературных произведений. Через миниатюру передавались особенности социальной жизни, эстетического мировоззрения, одежды, архитектуры, музыкальной культуры, праздников и различных традиций [3, с. 121].

Ф. Ризакулова отмечает, что миниатюрное искусство следует рассматривать не только как разновидность изобразительного искусства, но и как форму, воплощающую духовное мировоззрение, ценности и образ жизни народа [3, с. 121].

Особый расцвет восточной миниатюры связан с культурой эпохи Тимуридов и творчеством Камолиддина Бехзода. В анализируемых материалах этот исторический период характеризуется как время достижения высокого уровня художественной выразительности, композиционной ясности, тонкости рисунка и гармонии цвета [3, с. 121–122].

Миниатюрные произведения имеют особое значение и как визуальные источники культурной памяти. Они позволяют увидеть не только значительные исторические события, но и различные стороны повседневной жизни общества. Изображения людей,

архитектуры, одежды, природы, музыкальных инструментов, праздников и собраний создают образ определённой исторической эпохи.

Особенно важны в данном отношении музыкальные сюжеты. Х. Т. Балтаева и Ш. К. Жуманазарова указывают, что в восточной миниатюре изображения музыкантов, инструментов, музыкальных собраний, праздников и караванных сцен занимают заметное место. Музыка при этом выступает носителем национального духа, исторической памяти и эстетических ценностей [1, с. 53–54].

Музыкальные образы в миниатюре выполняют не просто декоративную функцию. Через фигуры музыкантов, форму и расположение инструментов, движения персонажей и композиционный ритм художник передаёт культурную атмосферу определённого времени. Такие изображения становятся своеобразной визуальной фиксацией нематериального культурного наследия.

Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью научного осмысления миниатюрного искусства не только с точки зрения истории изобразительного искусства, но и в контексте сохранения национального культурного кода.

Цель исследования — определить роль узбекского миниатюрного искусства в сохранении духовных ценностей, исторической памяти и культурной идентичности узбекского народа.

Для реализации поставленной цели определены следующие задачи:

1. раскрыть значение миниатюры как формы визуальной культурной памяти;
2. определить роль национальной символики и художественных образов в сохранении культурной идентичности;
3. рассмотреть музыкальные сюжеты миниатюры как отражение нематериальной культуры;
4. выявить воспитательный потенциал миниатюрного искусства;
5. проанализировать соотношение традиционных и современных тенденций развития узбекской миниатюры.

Исследование носит теоретико-аналитический характер.Источниковую базу исследования составили три публикации, тематически связанные с проблемами национальных ценностей, художественного наследия и узбекского миниатюрного искусства.

Первая работа — статья Х. Т. Балтаевой и Ш. К. Жуманазаровой «Yosh rassomlarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda musiqiy obrazlarning roli», опубликованная в журнале *Advances in Science and Education* в 2026 году. Авторы рассматривают музыкальные образы восточной миниатюры как средство развития национального самосознания, исторической памяти, художественного мышления и эстетического вкуса молодых художников [1, с. 53–57]. Библиографические данные работы непосредственно приведены в предоставленном источнике.

Вторым источником стала статья Б. Ж. Юлдашевой «San’at asarlarida milliy qadriyatlar va an’analar aks etishi». В работе рассматривается отражение национальных ценностей и традиций в изобразительном и прикладном искусстве, музыке и литературе, а также подчёркивается их значение в воспитательном процессе [2, с. 64–66].

Третьим материалом послужила публикация Ф. Ризакуловой «O‘zbek miniatyura san’atining bugungi kundagi talqini va rivoji», посвящённая историческим корням, художественным традициям и современным тенденциям развития узбекской миниатюры [3, с. 120–124].

В ходе исследования применялись следующие методы: контент-анализ научных публикаций; историко-сравнительный анализ; семантическая интерпретация художественных образов; сопоставление традиционных и современных форм миниатюрного искусства; теоретическое обобщение полученных данных.

Использование историко-сравнительного подхода согласуется с методологией одного из анализируемых исследований, где для изучения национальных ценностей в

искусстве применены историко-сравнительный анализ, наблюдение и теоретическое обобщение [2, с. 65].

Проведённый анализ позволил выделить несколько взаимосвязанных функций миниатюрного искусства, обеспечивающих сохранение духовных ценностей и культурной идентичности.

Миниатюра как форма визуальной исторической памяти

Одной из наиболее значимых функций миниатюры является сохранение исторической и культурной памяти.

В миниатюрных композициях отражались исторические события, литературные сюжеты, сцены повседневной жизни, праздники, общественные собрания и различные элементы традиционного быта. Благодаря этому произведение становится не только объектом эстетического восприятия, но и визуальным источником информации об определённой исторической эпохе.

Х. Т. Балтаева и Ш. К. Жуманазарова подчёркивают, что восточная миниатюра на протяжении веков отражала духовную жизнь, культурные традиции и эстетические взгляды народов Востока [1, с. 55]. В ней находили выражение как литературно-исторические события, так и повседневные сцены, праздники и обряды.

В этом смысле миниатюра выполняет функцию своеобразного визуального архива культуры. Письменный источник передаёт преимущественно факты, имена и события, тогда как художественное произведение позволяет реконструировать ещё и визуальную, эмоциональную и эстетическую атмосферу исторического времени.

Национальные символы и художественные коды

Культурная идентичность в миниатюре раскрывается не только посредством сюжета, но и через систему художественных символов.

Цветовая гамма, растения, деревья, птицы, архитектура, одежда персонажей, орнаменты и различные предметы могут обладать определённым семантическим значением.

В анализируемой работе о современном развитии узбекской миниатюры подчёркивается, что изображения цветов, деревьев и птиц могут символизировать жизнь, обновление, чистоту и духовное возвышение [3, с. 122].

Таким образом, миниатюра формирует целую систему визуальных кодов, в которых отражаются мировоззренческие и духовные представления общества.

Не менее значимы изображения исторических личностей. Через них зритель устанавливает визуальную связь с прошлым. Изображение исторического героя становится не просто иллюстрацией, а элементом коллективной исторической памяти. В одном из анализируемых источников подчёркивается, что такие образы способствуют укреплению национального самосознания [3, с. 122].

Музыкальный образ как носитель нематериального наследия

Особое место в узбекской и восточной миниатюре занимают музыкальные сюжеты.

Танбур, дутар, рубаб, най, дойра и другие традиционные инструменты являются не только частью художественной композиции, но и знаками определённой культурной среды. Изображения музыкантов и музыкальных собраний позволяют судить о традициях исполнения, эстетике поведения, организации праздников и общественной жизни.

В исследовании Х. Т. Балтаевой и Ш. К. Жуманазаровой музыкальные образы характеризуются как важные носители национальной культуры и духовности. Через изображения музыкантов, певцов, танцовщиц и музыкальных инструментов передаются особенности культурной среды, придворной и народной жизни определённого периода [1, с. 55].

Большое значение имеет композиционный аспект таких изображений. Положение фигур, движения рук исполнителей, форма инструментов, направление линий и сочетание цветов позволяют передать ощущение ритма, движения и эмоционального состояния.

Таким образом, миниатюра способствует сохранению сразу двух уровней культурного наследия: материального — форма предметов, одежда, архитектура, музыкальные инструменты; и нематериального — музыка, настроение, традиция исполнения, эстетические представления и социальные отношения.

Воспитательная функция миниатюрного искусства

Ещё одним важным результатом исследования стало подтверждение значительного воспитательного потенциала национального искусства.

Б. Ж. Юлдашева отмечает, что использование национальных ценностей в художественном образовании способствует развитию эстетического мировоззрения, национальной гордости и духовной культуры учащихся [2, с. 65–66].

Миниатюра представляет особую ценность, поскольку сочетает в себе художественное мастерство и историко-культурную информацию.

При изучении миниатюрных композиций молодые люди знакомятся с национальной одеждой, музыкальными инструментами, архитектурой, традициями и историческими персонажами.

Практическая работа над миниатюрой способствует развитию чувства цвета, композиционного мышления, образного восприятия и творческого подхода.

В исследовании, посвящённом музыкальным образам, отмечается, что использование таких сюжетов повышает интерес молодых художников к национальной культуре, развивает эстетический вкус и творческое мышление, а также способствует формированию уважения к историческому наследию [1, с. 56–57].

Миниатюра может быть использована не только для обучения технике рисования. Она создаёт возможность интегрировать знания по истории, литературе, музыке и традиционной культуре.

Именно поэтому работа с миниатюрой обладает междисциплинарным потенциалом.

Х. Т. Балтаева и Ш. К. Жуманазарова отмечают, что сочетание музыки и изобразительного искусства в процессе обучения помогает учащимся воспринимать музыкальный образ посредством цвета, линии и формы. Такой подход способствует развитию образного и ассоциативного мышления [1, с. 55–56].

Важной проблемой современности становится соотношение традиции и инновации.

Развитие цифровых технологий предоставляет новые возможности для распространения национального искусства. Электронные коллекции, виртуальные экспозиции, цифровая графика и образовательные ресурсы позволяют сделать миниатюру доступной значительно более широкой аудитории.

Однако существует риск поверхностного использования национальных художественных элементов, при котором орнаменты и традиционные образы превращаются лишь в декоративные знаки, утратив связь со своим первоначальным культурным содержанием.

Поэтому сохранение миниатюры предполагает не только воспроизведение её внешних признаков, но прежде всего понимание её внутренней художественной и духовной системы.

В этом отношении особое значение имеет принцип преемственности художественной традиции. В материалах о современном развитии миниатюры отмечается роль художественных школ, высших учебных заведений, специальных курсов, мастер-классов и взаимодействия с мастерами в передаче национального художественного опыта молодому поколению [3, с. 123].

Необходимо также отметить репрезентативную функцию миниатюры.

Выход узбекского миниатюрного искусства на международные выставочные площадки способствует знакомству зарубежной аудитории с национальной культурой. В анализируемом материале участие узбекских художников в международных выставках рассматривается также как проявление культурной дипломатии, поскольку каждое

произведение несёт информацию об истории, ценностях и духовном мире народа [3, с. 122–123].

Следовательно, функции миниатюры можно объединить в несколько основных групп:

- историко-мемориальная;
- духовно-ценностная;
- художественно-эстетическая;
- идентификационная;
- воспитательная;
- образовательная;
- коммуникативная;
- репрезентативная.

Эти функции взаимосвязаны и обеспечивают устойчивость миниатюры как культурного явления.

Практическое значение исследования заключается в возможности использования полученных выводов при преподавании изобразительного искусства, истории культуры, организации музейно-просветительской деятельности, разработке программ эстетического воспитания, создании цифровых образовательных ресурсов и проектов, направленных на сохранение национального художественного наследия.

Ограничением настоящего исследования является его теоретический характер. Анализ основан на трёх предоставленных публикациях и не включает самостоятельного социологического опроса или педагогического эксперимента.

В дальнейшем перспективным представляется проведение эмпирических исследований, направленных на изучение влияния занятий миниатюрным искусством на уровень национальной идентичности, интерес к историческому наследию и эстетическое развитие обучающихся.

Проведённый анализ позволяет сделать вывод, что узбекская миниатюра представляет собой важный механизм сохранения духовных ценностей, исторической памяти и культурной идентичности народа.

Её значение выходит далеко за пределы декоративно-изобразительной функции.

Через исторические и литературные сюжеты, изображения национальной одежды, архитектуры, музыкальных инструментов, природы, праздников и повседневной жизни миниатюрное искусство сохраняет элементы историко-культурного опыта и обеспечивает их передачу последующим поколениям.

Особое значение имеют музыкальные и бытовые образы. Они позволяют сохранить не только материальные элементы культуры, но и нематериальные ценности: музыкальные традиции, нормы общения, эстетические представления, атмосферу праздников и коллективной жизни [1, с. 54–55].

Исследование также показало, что миниатюра обладает значительным воспитательным потенциалом. Её изучение развивает эстетический вкус, художественное мышление, уважение к национальной культуре и интерес к историческому наследию [1, с. 56–57; 2, с. 65–66].

Современная узбекская миниатюра сочетает сохранение традиционной художественной системы с поиском новых форм выражения. Использование цифровых технологий и графического дизайна расширяет возможности распространения национального искусства, однако требует сохранения его художественно-семантического ядра [3, с. 122–123].

Таким образом, сохранение узбекской миниатюры следует рассматривать не только как сохранение определённой художественной техники.

Это одновременно сохранение исторической памяти, национальной системы образов и символов, эстетического мировоззрения и духовной преемственности узбекского народа.

Миниатюра остаётся важным связующим звеном между прошлым и настоящим, традицией и современностью, национальным наследием и культурным самоопределением молодого поколения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Baltayeva X. T., Jumanazarova Sh. K. Yosh rassomlarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda musiqiy obrazlarning roli // *Advances in Science and Education*. – 2026. – Vol. 02. – No. 01. – P. 53–57. – DOI: 10.70728/edu.v02.i01.012.

2. Yuldasheva B. J. San'at asarlarida milliy qadriyatlar va an'analar aks etishi // *Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions: European Science International Conference*. – P. 64–66.

3. Rizaqulova F. O'zbek miniatyura san'atining bugungi kundagi talqini va rivoji. – P. 120–124.

IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA VATANPARVARLIK TARBIYASI VA AXLOQIY QADRIYATLAR TIZIMI

Niyozova Shohista Nusratilloyevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va Uchinchi Renessansning poydevorini mustahkamlash bosqichida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularda yuksak fuqarolik mas'uliyatini qaror toptirish vatanparvar shaxsni va milliy axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarning samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir [1, b. 123]. Murakkab globallashuv va axborot-kommunikatsiya makonining jadal kengayishi sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatan taqdiriga daxldorlik hamda huquqiy va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash tarqoq harakatlarni emas, balki oila, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda davlat organlarining uzviy hamkorligiga tayangan yaxlit tizimni talab etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi yoshlarda baquvvat mafkuraviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimining ijtimoiy-barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ijtimoiy-falsafiy hamda institutsional tahlil usullari orqali ilmiy tadqiq etishdan iboratdir.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va politologik tadqiqotlarda vatanparvarlik hamda axloqiy qadriyatlar tushunchasi shunchaki hissiy-emotsional munosabat emas, balki shaxsning fuqarolik o'zini anglashi, ijtimoiy mas'uliyati va davlat taraqqiyotiga qo'shadigan amaliy hissasini belgilaydigan murakkab kognitiv-qadriyatli struktura sifatida talqin etiladi. Bugungi globallashuv va kognitiv xurujlar kuchaygan sharoitda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash shaxsiy va tarqoq tarbiyaviy harakatlar orqali emas, balki tizimli hamda davlat darajasida muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi. Institutsionalizm nazariyasiga ko'ra, axloqiy qadriyatlar tizimi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi hamda ularni avloddan avlodga o'tkazuvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Vatanparvar shaxsni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash tizimida oila instituti birlamchi va poydevoriy bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi [2, b. 123]. Ijtimoiy psixologiya va neyropedagogika ma'lumotlariga ko'ra, shaxsning ijtimoiy-axloqiy kompasi, Vatan va jamiyat haqidagi dastlabki aksiologik tasavvurlari aynan oilaviy muhitda qaror topadi. Oila instituti beradigan ma'naviy-axloqiy poydevor va ota-onaning shaxsiy o'rnagi yosh avlodda Vatan taqdiriga daxldorlik, mas'uliyat va fidoyilik kabi fundamental fazilatlarni shakllantirishning birinchi va eng ta'sirchan kognitiv bosqichini tashkil etadi.

Ta'lim tizimi vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlarni singdirishning ikkinchi va eng faol institutsional bosqichi hisoblanadi. Ta'lim muassasasi shunchaki ilmiy bilim beruvchi makon bo'lib qolmay, balki shaxsda akademik va fuqarolik madaniyatini, tanqidiy tafakkurni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasini ta'minlaydigan ijtimoiy muhitdir. Ta'lim platformalarida amalga oshiriladigan tizimli ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari yoshlar ongida milliy davlatchilik g'oyalarini, konstitutsiyaviy burch va fuqarolik mas'uliyatini ilmiy-metodik jihatdan mustahkamlaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari - mahalla, yoshlar tashkilotlari, nodavlat va jamoat birlashmalari vatanparvarlik tarbiyasida vositachilik va amaliy integratsiya funksiyasini bajaradi [3, b. 123]. Mahallaning nodavlat va ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni yoshlarni jamiyatning real muammolariga jalb etish, ularda ijtimoiy sheriklik, o‘zaro yordam va mamlakat miqyosidagi mas’uliyatni qaror toptirishda namoyon bo‘ladi. Yoshlar tashkilotlarining faoliyati esa yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ijodiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularni davlat qurilishining faol subyektiga aylantiradi.

Zamonaviy axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalari va raqamli media muhit vatanparvar shaxsni va barqaror axloqiy muhitni tarbiyalashning eng dinamik va ta’sirchan institutsional mexanizmlaridan biriga aylandi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida raqamli makon va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviyatini shakllantiruvchi asosiy kognitiv maydondir. Shu sababli, raqamli mediamakonda milliy manfaatlarga va vatanparvarlik g‘oyalariga mos keladigan ta’sirchan, zamonaviy va vizual kontentlarni yaratish, yoshlarda media savodxonlik va mafkuraviy immunitetni rivojlantirish institutsional tizimning strategik yo‘nalishidir.

Davlat va uning tegishli idoralari vatanparvarlik tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar tizimining huquqiy-siyosiy va konseptual bazasini yaratadi [4, b. 123]. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, strategik dasturlar va davlat mukofotlari institutsional tizimning yo‘naltiruvchi hamda rag‘batlantiruvchi fundamentidir. Davlat tuzilmalarining ma’rifiy va vatanparvarlik yo‘nalishidagi tizimli faoliyati yoshlarda qonunga hurmat, davlat ramzlariga sadoqat va mamlakat xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan ichki tayyorgarlikni shakllantiradi.

Sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan, vatanparvar shaxsni tarbiyalash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash barcha institutsional tuzilmalar o‘rtasidagi uzviylikka tayanuvchi murakkab va chiziqli bo‘lmagan jarayondir. Zero, jamiyatning ochiq tizim sifatidagi xususiyatidan kelib chiqib, oila, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va davlat organlarining vaqt va makon mezonlari bo‘yicha uyg‘un hamkorligi tarbiya samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Vatanparvar shaxsni kamolga yetkazish va ijtimoiy barqarorlikni kafolatlashda barcha subyektlarning yagona maqsad yo‘lida jipslashuvi Uchinchi Renessans davrida intellektual va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning zaruriy shartidir. Institutsional hamkorlik va muvofiqlashtirish tizimining samarali ishlashi yosh avlodni aksiologik inqirozlardan va yot g‘oyalar ta’siridan ishonchli himoya qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda milliy suverenitetning ma’naviy-falsafiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va vatanparvarlik tarbiyasini axloqiy qadriyatlar tizimi asosida tashkil etish jarayoni ko‘p bo‘g‘inli va yaxlit institutsional mexanizmlarga tayanadi [5, b. 123]. Globallashuv hamda axborot xurujlari keskinlashgan murakkab sharoitda oila, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda davlat tuzilmalarining uzviy va sinergetik hamkorligini ta’minlash yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi baquvvat mafkuraviy immunitetni va real ijtimoiy daxldorlik hissini qaror toptirishning bosh omilidir. Vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltirilgan institutsional mexanizmlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda ta’sirchan axloqiy vositalar bilan muntazam takomillashtirib borish har bir yoshning ma’naviy madaniyatini oshiradi, ularni Uchinchi Renessansning intellektual va ma’rifiy ustunlariga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.

2. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.

3. Jorayev N. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va institutsional islohotlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 180 b.

4. Erkaev A. Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-institutsiya omillari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 215 b.
5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

MA’RIFAT VA AXLOQIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI - JAMIYAT BARQARORLIGINING POYDEVORI

Rashidov Mehriddin Faxriddin o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

XXI asrda jadal kechayotgan globallashuv, texnologik va axborot inqiloblari insoniyat sivilizatsiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish bilan birga, jamiyatning ma’naviy-axloqiy poydevoriga jiddiy sinovlarni ham solmoqda. Bugungi murakkab geosiyosiy va ijtimoiy-madaniy sharoitda milliy o‘zlikni saqlab qolish, jamiyatda barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashning eng muhim sharti ma’rifat va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligiga erishishdir.

Zamonaviy O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning tub mohiyatida ham aynan inson kapitalini rivojlantirish va uning ma’naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish masalasi markaziy o‘rinda turadi. Bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan uyg‘onish va yangilanish jarayonlari shunchaki iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlar bilan cheklanmay, chuqur ma’rifiy-axloqiy zamin sohibi bo‘lgan yangi jamiyatni shakllantirishga qaratilgandir [1, b. 123]. Shu bois, modernizatsiya jarayonlarida ma’rifat va axloqiy qadriyatlarning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini, ularning rivojlanish konseptual asoslarini falsafiy-amaliy jihatdan tadqiq etish nihoyatda dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ma’rifat va axloqiy qadriyatlar masalalari Sharq va G‘arb mutafakkirlari ilmiy-falsafiy qarashlarida muhim o‘rin egallagan bo‘lib, inson kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlashda asosiy omil sifatida talqin etilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino hamda Alisher Navoiy asarlarida ma’rifat inson tafakkurini yuksaltiruvchi, axloq esa jamiyat barqarorligini kafolatlovchi qadriyat sifatida keng yoritilgan. Mazkur maqolani yoritishda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, mantiqiylik hamda kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi [2, b. 123]. Muhokama va natijalar. Bugungi kunda dunyo jadal sur’atlarda rivojlanmoqda va globallashuv jarayonlari inson tafakkuri hamda axloqiy qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda [3, b. 123]. Bu esa shaxs ongini yangicha qarashlar asosida shakllantirish, axloqiy me’yorlarni zamon talablariga moslashtirish hamda ijtimoiy faoliyatda mas’uliyatni oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sharoitda ma’rifat va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi har bir fuqaroning jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishini va barqarorlikni ta’minlashini ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’rifiy-axloqiy yuksalish nafaqat bilim egallash jarayoni, balki insonning boshqalarga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi ijtimoiy-ma’naviy hodisa hisoblanadi. Insonning fikrlash madaniyati va ma’naviy saviyasi o‘zgarishi bilan uning atrofidagi ijtimoiy muhit ham ijobiy tomonga o‘zgaradi. Axloqiy fazilatlar va qadriyatlar esa ma’rifatli insonning ichki ma’naviy dunyosini tashkil etuvchi asosiy unsurlardir. Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’rifat va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash davlat rivojlanishining strategik yo‘nalishlaridan biri va ijtimoiy barqarorlikning poydevori sifatida qaralmoqda. Ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali intellektual va ma’naviy jamiyat shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim sifati va ma’naviy tarbiya bilan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, yuqori malakali hamda axloqan mas’uliyatli kadrlar mamlakat barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [4, b. 123].

Hozirgi davrda ma’rifiy-axloqiy yuksalish hamda innovatsion madaniyatning rivojlanish jarayoni madaniyat sohalarining o‘zaro bog‘liqligi va tashqi tizimlar bilan integratsiyasi sezilarli darajada kuchayib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlarga globallashuv kabi murakkab ijtimoiy hodisa kuchli ta’sir ko‘rsatib, ma’rifiy va axloqiy qadriyatlarni yaratish hamda ularni hayotga tatbiq etish ko‘lamining kengayishiga olib kelmoqda. Ma’rifiy-axloqiy g‘oyalarni

yoyishda zamonaviy axborot tizimlari muhim o‘rin tutadi, chunki ular ezgu g‘oyalarni tezkor tarzda yagona ijtimoiy makonga tarqatish imkonini beradi.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi hamda sog‘lom raqobat muhitining kuchayishi jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatning faollashuviga xizmat qilmoqda. Bu esa jamiyatda yangilik yaratish, ma’rifiy saviyani oshirish va samaradorlikka intilish zaruratini kuchaytiradi. Mazkur jarayonlar bevosita ta’lim va tarbiya tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’lim konsepsiyasi ma’rifiy-axloqiy va innovatsion tafakkurni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Yangi O‘zbekistonda ma’rifat va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi innovatsion va ma’naviy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bilim va axloqning uyg‘unlashuvi shaxsning ijodiy va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma’rifatli va axloqan yetuk shaxs ijtimoiy hamda innovatsion jarayonlarda mas’uliyatli ishtirok etadi va jamiyat barqarorligiga ijobiy hissa qo‘shadi [5, b. 123]. Inson ongiga xos yaratuvchanlik avvalo insonning ichki ma’naviy dunyosida ezgu g‘oyaning paydo bo‘lishi bilan boshlanadi va bu jarayon individual axloqiy faoliyatni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O‘zbekistonda kechayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional islohotlar sharoitida ma’rifat hamda axloqiy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash jamiyatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini kafolatlovchi strategik va konseptual omil hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sof texnologik va iqtisodiy o‘sishning o‘zi inson kapitalining komilligini ta’minlashda yetarsiz bo‘lib, ma’rifat insonga keng dunyoqarash bag‘ishlasa, axloqiy qadriyatlar bu bilimlarni ezgulik, adolat va barqarorlik yo‘nalishida boshqaruvchi ma’naviy kompas vazifasini bajaradi. Ma’rifiy-axloqiy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlariga chuqur integratsiya qilish zamonaviy O‘zbekistonda yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli hamda mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashning bosh poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baho. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 140.
2. Muxtorov A., Sultonov T. Ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2012. – № 4. – B. 5.
3. Djui Dzh. Demokratiya i obrazovanie. – Moskva: Pedagogika-Press, 2000. – S. 85.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 454.
5. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 345.

“ORIFNOMA” ASARI HIKMATLARIDA AXLOQ, MA’NAVIY QADRIYATLAR TALQINI

Raxmatova Dildora Sadriyevna
Zarmed universiteti o`qituvchisi

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy merosida tasavvufiy-falsafiy tafakkur alohida o‘rin egallaydi. Bu tafakkur namunalari insonning ruhiy olamini anglash, uning axloqiy qiyofasini shakllantirish, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash mohiyatini ochib berish, komil insonni tarbiyalash kabi masalalarni yoritib kelgan. Xoja Muhammad Orif ar-Revgariyning “Orifnoma” asari ana shunday bebaho ma’naviy manbalardan biridir. Tadqiqotchilar “Orifnoma”ni Xojagon-Naqshbandiya ta’limotining muhim tasavvufiy-falsafiy manbalaridan biri sifatida baholaydilar. “Orifnoma” Xoja Orif Revgariyning ma’naviy-axloqiy qarashlarini mujassam etgan risola bo‘lib, unda oriflik, valiylik, nafs tarbiyasi, qalb pokligi, tavba, zikr, sabr, shukr, odob va ilmga doir hikmatlar jamlangan. Manbalarda qayd etilishicha, asarda Orif Revgariyning o‘z hikmatlari bilan bir qatorda mashoyixlar kalomlaridan ham namunalar keltirilgan. Risola Xojagon ta’limotining mazmun-mohiyati, odobi va kamolot yo‘lini tushuntiruvchi muhim manba sifatida e’tirof etiladi.

Asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi insonning o‘z nafsini tarbiyalashi va qalbini poklashi orqali ma’naviy kamolotga erishishi bilan bog‘liq. Xoja Orif nazarida insonning haqiqiy boyligi mol-dunyo yoki mansab emas, balki pok qalb, toza e’tiqod, ezgu amal va go‘zal axloqdir. Shu nuqtai nazardan “Orifnoma”dagi hikmatlar nafaqat tasavvufiy ta’limot, balki axloqshunoslik va ma’naviyat tarbiyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Orifnoma” hikmatlarining markazida yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli shaxs masalasi turadi. Xoja Orif insonni o‘z-o‘zini tarbiyalashga qodir mavjudot sifatida ko‘radi. Insonning ma’naviy kamoloti uning ichki dunyosini anglashdan boshlanadi. Shu sababli asarda tashqi ko‘rinishdan ko‘ra qalbning holati, niyatning pokligi va amalning samimiyligiga katta e’tibor beriladi. Xoja Orifning qarashlarida insoniylik saodatiga erishish uchun nafsdan xoli bo‘lish, pokdomonlikni saqlash, Allohni doimo yod etish, bandalik ahdiga sodiq qolish va ezgu kishilar xizmatida bo‘lish zarurligi ta’kidlanadi [1, b. 15]. Bu fikrlar orqali muallif axloqni insonning ichki intizomi sifatida tushuntiradi. Ya’ni insonning yaxshi yoki yomonligi faqat uning tashqi harakatlari bilan emas, balki qalbidagi maqsad va niyat bilan belgilanadi. Asarda insonning o‘zini tarbiyalashi uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi. Inson bir marta yaxshilik qilish bilan komillikka erishmaydi. U doimo o‘z ustida ishlashi, nafsini nazorat qilishi, xatolarini anglab, tavba qilishi va ezgu amallarini ko‘paytirishi lozim. Bu jihatdan “Orifnoma”dagi axloqiy ta’limot insonning doimiy o‘z-o‘zini nazorat qilish tamoyiliga asoslanadi.

Xoja Orifning inson haqidagi qarashlarida “qalb” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Qalb pok bo‘lsa, insonning amali ham poklanadi; qalbda kibr, hasad, dunyoga ortiqcha bog‘lanish kabi illatlar kuchaysa, insonning ma’naviy hayoti ham zaiflashadi. Shu bois asarda qalbni poklash axloqiy kamolotning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi.

Nafs tarbiyasi — ma’naviy kamolotning asosiy sharti hisoblanadi.

Xoja Orif Revgariy “Orifnoma”da axloqiy tarbiya masalasi, avvalo, nafs tarbiyasi bilan bog‘lanadi. Tasavvuf ta’limotida nafs insonning ichki istaklari, mayllari va hirslarini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, uni tarbiyalash komillikka erishishning muhim bosqichi hisoblanadi. Xoja Orif ham insonning ma’naviy kamolot yo‘lida nafs istaklariga ko‘r-ko‘rona ergashmasligi lozimligini uqtiradi.

Asarda insonni Haqdan uzoqlashtiruvchi omillar qatorida dunyoga haddan tashqari bog‘lanish, mol-mulk, mansab va turli nafs istaklariga berilish kabi holatlar ko‘rsatiladi. Bunday istaklar insonning qalbida ma’naviy to‘siqlar hosil qiladi, qalb ko’zini zaiflashtiradi. Tadqiqotlarda ham “Orifnoma” hikmatlarida dunyoga bog‘lanish, nafsga berilish, boylik va mansabga muhabbat inson bilan Haq o‘rtasidagi ma’naviy hijob sifatida talqin etilgani qayd qilinadi.

Bu fikrning axloqiy mohiyati shundaki, inson o‘z istaklarini boshqarishni o‘rganmasa, uning erki tashqi ehtiyojlar tomonidan boshqarila boshlaydi. Demak, haqiqiy erkinlik nafsning barcha istaklarini qondirishda emas, balki ularni nazorat qila bilishda namoyon bo‘ladi. Xoja Orifning mazkur qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Hozirgi jamiyatda moddiy manfaat, mansab, shuhrat va tashqi ko‘rinishga ortiqcha e’tibor berish insonning ichki dunyosini ikkinchi darajaga tushirib qo‘yishi mumkin. “Orifnoma” esa insonni avvalo o‘z qalbi va axloqiga e’tibor berishga chaqiradi. Bu jihat asarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

“Orifnoma”da qalb pokligi insonning eng muhim ma’naviy mezonlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Xoja Orifning hikmatlarida pokdomonlik, pok e’tiqod va qalbning g‘uborlardan xalos bo‘lishi alohida ta’kidlanadi [1, b. 15].

Qalb pokligi tushunchasi asarda faqat diniy mazmun bilan chegaralanmaydi. U insonning boshqalarga munosabati, halolligi, samimiyligi, adolati, mehr-shafqati va niyatining tozaligini ham anglatadi. Demak, qalb pokligi axloqiy fazilatlarning ichki manbai hisoblanadi. Xoja Orif insonning ma’naviy qiyofasini uning boyligi yoki ijtimoiy mavqei bilan emas, balki qalbining holati bilan baholaydi. Bu qarash insonning tengligi va uning ma’naviy qadr-qimmatini e’tirof etishga xizmat qiladi. Chunki insonni ulug‘laydigan narsa tashqi mavqe emas, balki uning go‘zal xulqi va ezgu amallaridir. Shuningdek, “Orifnoma”da qalbni poklash bilan ilm va ma’rifat o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Inson jaholatdan ilm orqali qutuladi, ammo ilmning o‘zi ham

axloq bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy ma’naviy qiymatga ega bo‘ladi. Shu sababli Xoja Orif Qur’on, hadis va solih kishilar hikmatlaridan pand-nasihat olishga chaqiradi [1, b. 15].

“Orifnoma”da odob — komil insonning asosiy belgisi sifatida ulug’lanadi.

“Orifnoma”da odob masalasi ham alohida o‘rin egallaydi. Xoja Orif uchun odob insonning ma’naviy yetukligini namoyon qiluvchi muhim mezondir. Odob faqat muayyan vaziyatdagi xatti-harakat emas, balki insonning butun hayot tarzini belgilovchi qadriyat sifatida talqin qilinadi.

Manbalarda “Orifnoma”da “odob” insoniy fazilatlarning muhim ko‘rsatkichi sifatida berilishi, avliyolik belgilaridan biri esa yuqori darajaga erishganda ham kamtar bo‘lish ekani qayd etiladi.

Kamtarlik, sabr va insofning bir-biri bilan bog‘liq holda talqin qilinishi “Orifnoma” axloqiy konsepsiyasining yaxlitligini ko‘rsatadi. Kamtarlik insonni kibrdan asrasa, sabr uni nafsning shoshqaloq istaklaridan himoya qiladi, insof esa boshqalarga nisbatan adolatli munosabatni ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, odob insonning faqat boshqalar oldidagi xulqi emas, balki o‘z nafsiga munosabati hamdir. O‘zini tuta bilish, ortiqcha gapdan saqlanish, vaqtni qadrlash, ilm olish, ustozni hurmat qilish va yaxshilikka intilish — bularning barchasi odobning turli ko‘rinishlaridir.

Xoja Orif Revgariy hikmatlarida ilm va ma’rifat insonning ma’naviy taraqqiyotida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda Qur’on, hadis va solih kishilarning hikmatlaridan o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi [1, b. 15].

Ilm insonni jaholatdan xalos etadi. Biroq “Orifnoma”dagi ilm tushunchasi faqat nazariy bilimni anglatmaydi. Haqiqiy ilm insonning xulqida, dunyoqarashida va amaliy faoliyatida namoyon bo‘lishi kerak. Agar inson ko‘p narsani bilsa-yu, ammo o‘z nafsini tarbiyalay olmasa, uning ilmi ma’naviy kamolotga xizmat qilmaydi.

Shu ma’noda “Orifnoma” ilmni axloq bilan birlashtiradi. Bilimdonlik va odoblilik, ma’rifat va kamtarlik, ilm va ezgu amal bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Bu qarash o‘zbek ma’naviy tafakkurining keyingi taraqqiyotida ham muhim o‘rin egallagan.

“Orifnoma” hikmatlarida insonning boshqa odamlarga bo‘lgan munosabati ham muhim axloqiy mezon sifatida ko‘rsatiladi. Ezgu kishilar bilan suhbatda bo‘lish, ulardan pand-nasihat olish va boshqalarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish haqidagi fikrlar insonparvarlik tamoyilini kuchaytiradi [1, b. 15].

Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda mustahkam axloqiy mezonlarni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan tarixiy-ma’naviy manbalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, “Orifnoma”da ilgari surilgan axloqiy va ma’naviy qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, yoshlarni halollik, kamtarlik, sabr-toqat, ilmga muhabbat, vaqtni qadrlash, insonparvarlik va o‘z-o‘zini tarbiyalash ruhida tarbiyalashda ushbu asarning hikmatlaridan samarali foydalanish mumkin. Shu jihatdan “Orifnoma” nafaqat tarixiy-tasavvufiy yodgorlik, balki zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun ham qimmatli manba sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar

1. Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy. Orifnoma / Fors-tojik tilidan Sadriddin Salim Buxoriy va Isroil Subhoniy tarjimasi; mas’ul muharrir Tilak Jo‘ra. – Toshkent: Navro‘z, 1994. – 16 b.
2. Sadriddin Salim Buxoriy. Xoja Orif ar-Revgariy. – Buxoro, 2007. – 30–31 b.
3. Sadriddin Salim Buxoriy, Samad Azimov. Buyuk G‘ijduvoniylar. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2006. – 96–99 b.
4. Najdat To‘sun. Oltin halqa. – Toshkent: Qamar-media, 2022. – 72 b.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism. – Toshkent. – 111–112 b.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf asoslari. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2010.
7. Azizxon Qayumov. Naqshbandiya tariqati va uning namoyandalari. – Toshkent: Adolat, 2003.
8. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. – Toshkent: Fan, 1993.

JADID PEDAGOGIKASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY BARQARORLIK: ZAMONAVIY TA’LIM UCHUN KONSEPTUAL YONDASHUV

Shamsullayeva R.S

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi faqat iqtisodiy yoki texnologik taraqqiyot bilan belgilanmaydi. Ijtimoiy barqarorlikning muhim omillari qatoriga ma’naviy qadriyatlar, axloqiy mas’uliyat, insonparvarlik, fuqarolik ongining shakllanganligi hamda ta’limning shaxs va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi kiradi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy pedagogik merosni zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan bog‘lab o‘rganish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati ta’lim va jamiyatni yangilash g‘oyalarini ilgari surgan ma’rifiy harakat sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi. Jadidlar maktabni isloh qilish, savodxonlikni oshirish, ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish bilan birga, ma’naviy-axloqiy barkamol shaxsni tarbiyalashni ham asosiy maqsad deb bildilar [1; 2].

Jadid pedagogikasining dolzarbligi shundaki, unda ta’lim va tarbiya, bilim va axloq, milliy o‘zlik va umuminsoniy taraqqiyot o‘zaro uyg‘un holda qaraladi. Jadid maktablarida fonetik o‘qitish, tushunishga asoslangan ta’lim, tartibli darslar, darsliklar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimni faol o‘zlashtirishiga xizmat qilgan. Ushbu tarixiy tajribani bugungi faol ta’lim va raqamli pedagogik texnologiyalar bilan konseptual jihatdan bog‘lash mumkin. Mazkur maqolaning maqsadi jadid pedagogikasidagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni aniqlash hamda ularning zamonaviy ta’lim va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi konseptual ahamiyatini yoritishdan iborat.

Jadid pedagogikasi mazkur masalaga kompleks yondashadi. Unda bilim, axloq va ijtimoiy faollik bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Ma’rifatli inson mustaqil fikrlashi, o‘z qarorlarining oqibatini anglash va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qilishi kerak. Shu jihatdan jadid pedagogikasi ijtimoiy barqarorlikning shaxsiy-axloqiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda bu g‘oyalar media savodxonlik, raqamli etika, akademik halollik va fuqarolik faolligi bilan yangi mazmun kasb etadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim imkoniyatlarini kengaytirayotgan bir paytda axborot manipulyatsiyasi, begonalashuv va madaniy o‘zlikning zaiflashuvi kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Shu bois texnologik modernizatsiya axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashishi zarur. Jadid pedagogikasini zamonaviy ta’limga moslashtirish uni aynan tarixiy shaklda takrorlashni anglatmaydi. Asosiy vazifa uning pedagogik va aksiologik tamoyillarini bugungi ehtiyojlarga mos ravishda qayta talqin qilishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, jadid pedagogikasi Markaziy Osiyo tarixidagi ta’lim islohoti tajribasi bo‘lish bilan birga, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’rifat, axloqiy kamolot, milliy o‘zlik, ijtimoiy mas’uliyat, ilmga ochiqlik, tushunishga asoslangan ta’lim va ko‘rgazmalilik uning muhim pedagogik hamda aksiologik ustunlarini tashkil etadi. Jadid pedagogikasini zamonaviy ta’limga integratsiya qilish tarixiy merosni idealizatsiya qilish emas, balki uning mazmuniy va metodologik imkoniyatlarini tanqidiy hamda ijodiy tarzda qayta talqin qilishni talab etadi. Bunday yondashuv ta’limning ma’naviy-tarbiyaviy va innovatsion salohiyatini kuchaytirishi hamda jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy barqarorligiga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Lazzerini E. J. Jadidism at the Turn of the Twentieth Century: A View from Within // Cahiers du Monde Russe et Soviétique. 1975. Vol. 16, No. 2. P. 245–277.

2. Shamsullaeva R.S. va boshqalar. Revisiting Jadid Pedagogy for Sustainable Development Goals (SDGs): A Conceptual Framework for Digital Educational Governance // ASEAN Journal of Educational Research and Technology. 2026. Vol. 5, No. 3. P. 401–414.

3. Maryanti R. va boshqalar. Sustainable Development Goals (SDGs) in Science Education: Definition, Literature Review, and Bibliometric Analysis. 2022.\
4. Mukhamedov N.A., Khimmataliev D.O., Omonova N.P. Structural Equations Modeling of Teacher Self-Efficacy and Innovative Work Activities in Competency-Based Higher Education. 2024.
5. Hidayatullah M.I. va boshqalar. Global Trends in Character Education at the Elementary School Level. 2026.
6. Wiyanarti E., Nurjannah A.N. Influence of Self-Efficacy on Affective Learning Outcomes. 2026.

THE QUESTION OF THE INDIVIDUAL AND SOCIETY IN THE ETHICAL VIEWS OF QORI RAHMATULLOH VOZEH

Saodat Abdullayeva
teacher, department social sciences, Bukhara State Medical institute named after Abu Ali ibn Sino

The social, cultural, and spiritual life of the nineteenth-century Emirate of Bukhara was characterized by complex processes. Qori Rahmatulloh Vozeh, who lived and worked during this period, is of particular significance as an intellectual and poet who observed the scholarly and literary environment of his time and expressed his views on the moral character of the individual and various social phenomena. In the sources, the scholar is also referred to by such names as Qori Rahmatulloh Vozeh and Qori Rahmatulloh Bukhari.[1] As a reciter of the Qur'an, Vozeh was known for his refined and pleasant voice. Examining his intellectual legacy from an ethical and philosophical perspective allows for a deeper understanding of conceptions of the individual, spirituality, and social relations in nineteenth-century Bukharan society. The poet was also well versed in literature, history, the natural sciences, and other fields of knowledge.[2] Vozeh independently pursued an in-depth study of historiography and the natural sciences. His contemporary, the poet Hoji Azim Shariy, noted in his memoirs that Vozeh possessed considerable experience in medicine and was also a highly skilled teacher.[3] Alongside these fields of knowledge, an interest in literature occupied an important place in the young poet's intellectual and creative development.

In Vozeh's ethical thought, the question of the individual is manifested, first and foremost, in relation to moral and spiritual perfection. An individual's position in society is determined not only by lineage or material status but also by knowledge, proper conduct, morality, and attitudes toward others. From this perspective, enlightenment is regarded as an important means of liberating the individual from ignorance and shaping both worldview and moral virtues.

The relationship between the individual and society is not one-sided. While the values, customs, traditions, and social environment prevailing in society influence an individual's worldview, the moral character of individuals also contributes to the formation of the broader social environment. Therefore, negative phenomena within society may be evaluated not merely as the actions of particular individuals but also as social problems associated with enlightenment and moral education.

In studying Vozeh's legacy, issues related to superstition and *bid'ah* (religious innovations) are also of particular importance. In the nineteenth-century social environment of Bukhara, there were discrepancies between religious knowledge and various beliefs and perceptions that had developed among the population. The acceptance of certain customs as religious requirements, together with insufficient scientific and religious knowledge, influenced people's everyday lives and moral decisions. A critical analysis of such phenomena helps reveal the importance Vozeh attached to enlightenment and a conscious moral life.

The period in which Qori Rahmatulloh Vozeh lived coincided with a time of political and economic crisis in the Emirate of Bukhara and stagnation in its social life. The following couplet by the thinker may be regarded as a philosophical and psychological reflection on this difficult period:

«Ман, ки аз ташвиши даврон
хотирам зери ғам аст,
Рӯзи идам дар назар
монанди шоми мотам аст».[4]

(Meaning: *Because of the anxieties of the age, my heart is burdened with sorrow; therefore, even the day of Eid appears to me like an evening of mourning.*)

Vozeh's perception of even the day of Eid as a time of mourning because of the "anxieties of the age" demonstrates his highly critical and realistic attitude toward the social reality of his time. The thinker perceived the social injustice and moral decline of his age at the level of a personal tragedy. These lines constitute a powerful ideological expression of the general atmosphere of despondency characteristic of the socio-philosophical environment of Bukhara in the second half of the nineteenth century. In Vozeh's philosophy, an unhealthy social environment limits an individual's ability to derive fulfillment even from religious and cultural values.

The study of issues concerning women's social and spiritual life is particularly important for understanding the moral condition of the society in which Vozeh lived. Certain superstitious beliefs prevalent among women and misinterpretations of religious concepts should be regarded not merely as individual shortcomings but as social phenomena connected with limited access to education and enlightenment. From this perspective, the critical ideas found in Vozeh's legacy indicate that the acquisition of knowledge and the ability to live consciously constitute essential conditions for the spiritual development of society.

In Qori Rahmatulloh Vozeh's ethical philosophy, the spiritual elevation of the individual is measured by the ability to sacrifice one's lower self and remain steadfast in the pursuit of higher ideals. The following lines by the thinker express in a distinctive manner the process of moral self-sacrifice and spiritual purification (*tajalli*):

«Боядам дар оташи савдо саропо сӯхтан,
Чун сипанд аз ҳасрати он холи болочасти ту».[5]

(Meaning: *In longing for the beauty mark above your lip, I must burn completely in the fire of love, like sipand [wild rue].*)

Vozeh's philosophical reflections based on the image of *sipand* (wild rue) reveal the principles of self-sacrifice and spiritual purification in his ethical thought. In the thinker's view, the attainment of moral perfection is directly connected with the individual's willingness to "burn" the material self for the sake of spiritual values—that is, to discipline and restrain the *nafs* (lower self). Through the image of burning *sipand*, Vozeh depicts the spiritual transformation of the individual, showing how goodness and virtue may emerge from the human soul through pain and trials. His views in this respect represent an example of the synthesis of Sufi ethics with a realistic philosophy of life.

An analysis of Vozeh's ethical views makes it possible to observe the intrinsic relationship between individual perfection and social development. While a moral and enlightened individual contributes to the formation of healthy relations within society, ignorance, superstition, and moral irresponsibility negatively affect the social environment. Thus, the moral education of the individual is not merely a question of personal perfection but also a task directly related to ensuring the spiritual stability of society.

In Qori Rahmatulloh Vozeh's ethical views, the individual and society may be interpreted as closely interconnected concepts. An individual's enlightenment, proper conduct, and moral responsibility extend beyond the boundaries of personal life and influence the overall spiritual environment of society. At the same time, education, the religious and intellectual environment, and prevailing customs and traditions play an important role in shaping the individual's moral character. Studying Vozeh's legacy from this perspective makes it possible to reveal not only the literary and historical significance of his thought but also its ethical and philosophical importance.

References

[1] Akyuz, Murat. “Qarirahmatullah Vozeh and His Antology Namedtohfe-Tul Ahbab Fi Tadhkira-Tul As’hab.” *Journal of Social Research and Behavioral Sciences*, 2020, Vol. 6, Issue 11, pp. 102–113.

[2] Abdullayeva, S. N. “Qori Rahmatulloh Vozeh – diniy va dunyoviy ilmlar sohibi.” *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2024, Vol. 2, No. 4(3), pp. 24–25.

[3] Неъматзода, Т. *Возеҳ*. Душанбе: Ирфон, 1967. С. 33.

[4] *Шоирони Мовароуннахр*. Душанбе: «Адиб», 2006. Б. 390.

AXLOQ, INSON FALSAFASI VA XOJAGON IRFONIY MEROSI: YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY ISLOHOTLAR VA JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI

Vohidova Dilshoda Vohid qizi

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi globallashuv va shiddatli intellektual-texnologik rivojlanish davrida Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yish va ma’rifatli jamiyatni shakllantirish jarayonida axloq, inson falsafasi va Xojagon irfoniy merosi uyg‘unligi hal qiluvchi nazariy-amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi; xususan, Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Yusuf Hamadoniy kabi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining “Dast ba koru, dil ba yor” hamda “Xilvat dar anjuman” kabi fundamental tamoyillari insonni jamiyatdan ajralmagan holda halol mehnat qilishga, qalb pokligiga, ijtimoiy mas’uliyat va adolatga da’vat etishi bilan mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar hamda jamiyat transformatsiyasi jarayonining g‘oyaviy o‘zagini tashkil etadi [1, b. 123].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida jamiyat taraqqiyoti ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar hamda milliy irfoniy meros bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda Buxoro intellektual tarixining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Xojagon tariqati ta’limoti muhim nazariy va amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi [1.38]. Xojagon irfoniy merosi insonni ruhiy komillikka yetaklash bilan birga, uni jamiyat hayotida faol bo‘lishga, halol mehnat qilishga, adolat va kamtarlikka da’vat etadi. Uning “xilvat dar anjuman” kabi ilg‘or tamoyillari Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yish hamda yoshlar dunyoqarashini yot g‘oyalardan himoya qilishda katta mafkuraviy ahamiyatga ega [2.45].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi Xojagon ta’limotidagi komil inson va ma’naviy poklanish g‘oyalari bilan to‘liq hamohangdir. Ma’rifatli jamiyat barpo etish quyidagi uchta asosiy drayverga tayanadi:

1. Ta’lim va ilm-fanning ustuvorligi;
2. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish;
3. Fuqarolik jamiyati institutlari faolligi va ma’rifatga asoslangan davlat siyosati. [3.47]

Ilmga e’tiborning pasayishi va ma’rifat qadriyatlarining zaiflashishi intellektual va madaniyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladi [4.74]. Shu sababli, yangi taraqqiyot bosqichida aql, bilim va zamonaviy ta’lim imkoniyatlarini oshirish – jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy omilidir [5.75]. Historyda Platon, Gegel hamda Imom al-Buxoriy kabi mutafakkirlar ham bilimni inson hayoti va najotining bosh negizi sifatida e’tirof etishgan [6.74]. Yangi O‘zbekistondagi ta’lim islohotlari va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida islom madaniyati ile Xojagon tariqatining insonparvarlik, birodarlik va inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan irfoniy-falsafiy g‘oyalaridan oqilona foydalanish jamiyat barqarorligi va ma’rifiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi [7.71, 8.43].

Xojagon tariqatida insonning qadri uning qalbi, niyati hamda ezgu amallari bilan o‘lchanadi. Ta’limotga ko‘ra, insonning asosiy vazifasi yer yuzini halol mehnat, dehqonchilik va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish orqali moddiy, hamda ilm-fan, odob-axloq va ibodat orqali ma’naviy jihatdan obod qilishdir.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy antropologiyasiga ko‘ra, inson jismoniy (“Olami asg‘ar”) hamda ruhiy (“Olami akbar”) olamni o‘zida mujassam etadi. Ta’limotda insonlar ruhiy kamolotga intiluvchi “Nuriylar” va nafsga berilgan “Noriylar”ga ajratilib, faqat qalb pokligi va halollikka

intilgan “Nuriylar” haqiqiy ruhiy kamolga erishishi ta’kidlanadi. Tasavvufiy komillik esa “o‘zini bilish”, muomalada shirinso‘zlik va jamiyatga zarar yetkazmaslik orqali namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan ma’rifatli jamiyatda zohiriy (dunyoviy) va botiniy (ma’rifiy) bilimlarning uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. G‘ijduvoniy ta’limotida axloqiy tuzalish, insonparvarlik hamda jamiyatda faol bo‘lish yetakchi mezon sanaladi. Tariqatning “shayxlik eshigini yopib, suhbat eshigini ochish” va “dast ba koru, dil ba yor” (qo‘ling mehnatda, qalbining Allohda bo‘lsin) tamoyillari fuqaroni nafaqat ruhiy poklanishga, balki halol kasb-kor va ijtimoiy mas’uliyat orqali jamiyat obodligiga xizmat qilishga chorlaydi. Yusuf Hamadoniy va G‘ijduvoniy asarlarida (“Vasiyatnoma”, “Odobi tariqat”) tinchlik, bag‘rikenglik va zaiflarga ehson qilish umuminsoniy qadriyat sifatida ulug‘lanadi.

Inson qalbidagi e’tiqod va ma’rifat nuri uni nafs istaklaridan ustun qo‘yib, ezgulikka yo‘naltirsa, Xojagon-Naqshbandiya ta’limotidagi “xilvat dar anjuman” hamda “dast ba koru, dil ba yor” kabi purmano tamoyillar insonni jamiyatdan ajralmagan holda halol mehnat va yuksak axloqiy poklikka chorlaydi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida intellektual salohiyatni ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish, xususan, Xojagon irfoniy ta’limotining bunyodkor g‘oyalarini zamonaviy zamon talablari bilan integratsiya qilish globallashuv davrida milliy immunitetni kuchaytirish, yoshlarda halollik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishning eng samarali omilidir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning ma’naviy poydevorini mustahkamlash jarayoni zamonaviy ilm-fan bilan birga Xojagon tariqati ta’limotining falsafiy-axloqiy va insonparvarlik tamoyillariga tayanishni talab etadi. Abdulxoliq G‘ijduvoniyning “Dast ba koru, dil ba yor” va “Xilvat dar anjuman” g‘oyalari insonni jamiyatdan ajralmagan holda halol mehnatga, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy poklikka yo‘naltirib, bugungi islohotlar va yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish vazifalari bilan to‘liq hamohangdir. Zohiriy va botiniy bilimlarning uyg‘unligi hamda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan ushbu irfoniy merosni ta’limga integratsiya qilish globallashuv davrida milliy o‘zlikni asrash va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashning eng muhim poydevoridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navro‘zova G.N. Xojagon tariqati va inson kamoloti. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 38.
2. G‘ijduvoniy Abdulxoliq. Vasiyatnoma / Tarjimon va mas’ul muharrir: H.Boltaboyev. – Toshkent: Yozuvchi, 2002. – B. 45.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 47.
4. Jo‘rayev N. Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-ma’rifiy omillari va zamonaviylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 74.
5. Falsafa: qomusiy lug‘at / Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 75.
6. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B. 74.
7. Usmonov Q. va boshq. O‘zbekiston tarixi va ma’naviyati. – Toshkent: Moliya, 2019. – B. 71.
8. Turdiyev B.S. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda irfoniy qadriyatlarning o‘rni. // Falsafa va huquq jurnali. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 43.

IMOM AL-BUXORIY HADISIY MEROSIDA MA’RIFATPARVARLIK VA MA’NAVIY-AXLOQIY BARQARORLIK G‘OYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Xaitov Azizbek Azamatovich

Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti

Globallashuv, axborot oqimlarining keskin ortishi va turli qadriyaviy ta’sirlar kuchaygan sharoitda talabaning bilim darajasi bilan bir qatorda uning ilmga munosabati, axloqiy mas’uliyati, mustaqil fikrlashi va ma’naviy barqarorligini rivojlantirish oliy ta’limning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda tarixiy-pedagogik merosdan foydalanish faqat o‘tmish

tajribasini targ‘ib qilish emas, balki tarixiy manbadagi qadriyaviy mazmunni zamonaviy ta’lim vazifalari bilan ilmiy asosda bog‘lashni talab etadi. Imom al-Buxoriy tomonidan jamlangan hadisiy meros ilm, ma’rifat, adab, halollik, niyat, sabr, mas’uliyat, bilimni tekshirish va yetkazish singari tushunchalarning o‘zaro aloqador tizimini aks ettirishi bilan ana shunday pedagogik imkoniyatga ega.

Mazkur merosdan foydalanishda tarixiy manbaning o‘ziga xosligini saqlash muhim metodologik shartdir. Hadislarni zamonaviy pedagogik terminlarning aynan o‘zi sifatida talqin qilish emas, balki ulardagi ta’limiy-axloqiy g‘oyalarni tarixiy kontekstda aniqlab, keyin funksional jihatdan zamonaviy pedagogika bilan qiyoslash ilmiy jihatdan to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. Mazkur maqolada shu maqsadda “tarixiy manba – pedagogik g‘oya – qadriyaviy ma’no – pedagogik funksiya” izchilligi metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Maqolaning maqsadi Imom al-Buxoriy hadisiy merosidagi ma’rifiy-axloqiy g‘oyalarni talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlari va ma’naviy-axloqiy barqarorlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ushbu jarayonning pedagogik mexanizmlari va nazariy-metodik imkoniyatlarini umumlashtirishdan iborat.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi shuni ko‘rsatadiki, Imom al-Buxoriy merosining hadis ilmi taraqqiyotidagi o‘rni, manbashunoslik xususiyatlari va tarixiy ahamiyati U. Uvatov tadqiqotlarida, Imom al-Buxoriy va Abu Nasr Forobiy merosidagi axloqiy tarbiya g‘oyalari K.J. Nosirov ishlarida tahlil qilingan [2; 3]. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda esa “Sahih al-Buxoriy”ning “Kitob al-ilm” qismidagi ta’lim odobi, ustoz-talaba munosabatlari va bilimni uzatishga oid g‘oyalar zamonaviy islom ta’limi nuqtayi nazaridan tizimlashtirilgan [4, b. 927–940]. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishlar talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlari va ma’naviy-axloqiy barqarorlikni rivojlantirish masalasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotda tarixiy-pedagogik va manbashunoslik tahlili, nazariy tahlil, sintez, qiyoslash, mazmuniy tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Imom al-Buxoriy hadislaridagi ilmiy-ma’rifiy hamda axloqiy g‘oyalar tarixiy kontekst, pedagogik mazmun va zamonaviy ta’limdagi funksional imkoniyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Manbaviy mazmunni zamonaviy pedagogik tushunchalar bilan bevosita aynanlashtirmaslik, balki tarixiylik va ilmiy xolislik tamoyillariga tayangan holda qiyosiy talqin qilish metodologik mezon sifatida belgilandi.

Imom al-Buxoriy hadislarida ta’lim jarayoni bilimni bir tomonlama yetkazish bilangina cheklanmaydi. Ularda o‘rganuvchining holatini hisobga olish, bilimni tushunarli shaklda bayon etish, zarur o‘rinda takrorlash, savol berish va bilimni boshqalarga mas’uliyat bilan yetkazish kabi jihatlar kuzatiladi. Masalan, 68-hadisda nasihat va ta’lim uchun kishilar malol topmaydigan vaqtni tanlash holati bayon qilinadi. Bu tarixiy misol o‘rganuvchining psixologik qabul qilish holati, diqqati va yuklamasini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [1, b. 40].

69-hadisda osonlashtirish va qiyinlashtirmaslik g‘oyasi ilgari suriladi. Pedagogik talqinda bu ilmiy mazmunni soddalashtirib yuborish emas, balki murakkab bilimni o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan metodik shaklga keltirish zaruratini anglatadi [1, b. 41]. 95-hadisda fikrning to‘g‘ri anglanishini ta’minlash uchun ayrim so‘zlarning qayta aytilishi keltiriladi. Mazkur holat takrorlashni mexanik yodlash vositasi sifatida emas, tushunishni mustahkamlashga xizmat qiluvchi didaktik usul sifatida ko‘rish imkonini beradi [1, b. 50].

101–102-hadislarda ta’lim oluvchilarning o‘z ehtiyojlarini bildirishlari va ular uchun alohida vaqt ajratilishi qayd etiladi [1, b. 52–53]. Ushbu tarixiy holatni zamonaviy differensial ta’lim bilan aynanlashtirish to‘g‘ri bo‘lmasa-da, ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘rganuvchining real ehtiyoji va imkoniyatini hisobga olish g‘oyasini ajratish mumkin. 105-hadisdagi eshitilgan bilimni hozir bo‘lmaganlarga yetkazish talabi esa bilimning individual egalikdan ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tarilishini ifodalaydi [1, b. 54]. Bunda bilimni yetkazish nafaqat faollik, balki mazmunni buzmasdan, mas’uliyat bilan uzatish vazifasini ham anglatadi.

122-hadisda Muso alayhissalom va Xizr qissasi orqali bilimning chegarasini anglash, o‘zidan bilimliroq kishidan o‘rganishga tayyor bo‘lish hamda yangi bilim izlash kabi jihatlar namoyon bo‘ladi [1, b. 60–61]. Pedagogik nuqtayi nazardan bu holat intellektual kamtarlik, dalilga ochiqlik va uzluksiz o‘rganish ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiluvchi tarixiy namuna sifatida

ahamiyatlidir. Shaxs o‘z fikriga ega bo‘lish bilan birga, yangi asosli ma’lumot ta’sirida qarashini qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘lishi ma’rifatparvarlikning muhim belgisidir.

Shu asosda ma’rifatparvarlik fazilatlari ilmga intilish, xolis niyat, bilimni anglab o‘zlashtirish, mustaqil va daliliy fikrlash, axloqiy poklik, akademik halollik, ilmiy mas’uliyat, bilimni saqlash va uni boshqalarga mas’uliyat bilan yetkazish kabi o‘zaro bog‘liq sifatlar birligi sifatida qaraladi. Bunday sifatlar talabaning nafaqat intellektual rivojiga, balki uning ma’naviy-axloqiy barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyatli pozitsiyasining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Ma’rifatparvarlik va ma’naviy-axloqiy barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari

Tadqiqotda talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish besh o‘zaro bog‘liq pedagogik mexanizm orqali asoslangan. Birinchisi, motivatsion-qadriyatli mexanizm bo‘lib, u talabada ilmga ichki ehtiyoj, bilimning qadri, xolis niyat va mas’uliyatni rivojlantirishga qaratiladi. Bunda bilim olish tashqi majburiyat sifatida emas, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyat sifatida anglanadi.

Ikkinchi, kognitiv-tahliliy mexanizm hadisiy manbani bilish, uning tarixiy mazmunini anglash, dalillarni qiyoslash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Axborot ko‘paygan zamonaviy sharoitda mazkur mexanizm ayniqsa muhim, chunki talabaning ma’naviy va intellektual barqarorligi tayyor axborotni passiv qabul qilishga emas, balki manbani tekshirish, dalilni baholash va xulosa uchun mas’uliyatni his etishga tayanadi.

Uchinchi, refleksiv-axloqiy mexanizm talabaning o‘z qarorlari va xatti-harakatlarini axloqiy mezonlar asosida tahlil qilishiga xizmat qiladi. Halollik, adolat, mas’uliyat, vijdonlilik va o‘z xatosini tan olish kabi sifatlar mazkur mexanizmning mazmunini tashkil etadi. To‘rtinchi, faoliyatli-amaliy mexanizm o‘zlashtirilgan bilim va qadriyatlarni amaliy vaziyatlarda namoyon etish, mustaqil izlanish, akademik halollik va mas’uliyatli faoliyatni shakllantirishga qaratiladi. Beshinchi, ijtimoiy-kommunikativ mexanizm esa ilmiy-ma’rifiy muloqot, hamkorlik, savol berish madaniyati, bilim almashish va kommunikativ mas’uliyatni rivojlantiradi.

Mazkur mexanizmlar bir-biridan ajralgan holda emas, o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi. Ustoz-shogird hamkorligi ularni birlashtiruvchi integrativ pedagogik muhit sifatida talqin qilinadi. Bunda ustozning vazifasi talabani qaram holatda saqlash emas, balki uning ilmiy mustaqilligi va mas’uliyatli faoliyatini bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Shogird esa bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki savol beruvchi, izlanadigan, tinglaydigan, tekshiradigan, xulosa chiqaradigan va o‘zlashtirgan bilimni boshqalarga yetkazadigan faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’rifatparvarlik fazilatlarining mazmunini sakkizta asosiy komponent orqali tizimlashtirish mumkin: ilm; maqsad va niyat; motivatsiya va sabr; donishmandlik va hikmat; adolat va halollik; haqiqat va ishonch; milliy va umumbashariy qadriyatlar; ilmni amaliy faoliyat bilan bog‘lash. Mazkur komponentlar talabaning ilmga qadriyaviy munosabati, mustaqil fikrlashi, axloqiy mas’uliyati va ijtimoiy faoliyatini yagona tizimda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hadisiy merosni oliy ta’limga samarali integratsiya qilishni nazariy-metodik jihatdan olti o‘zaro bog‘liq bosqichda tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich – manbaviy-kontekstual tahlil bo‘lib, unda hadisning manbadagi o‘rni, kitob va bob bilan bog‘liqligi hamda tarixiy sharoiti aniqlanadi. Ikkinchi bosqich – anglash jarayonida talabalar matndagi yetakchi pedagogik g‘oyani savol, dialog va qiyoslash asosida tushunadilar. Uchinchi bosqich – qadriyatlashtirishda mazkur g‘oyaning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy ahamiyati muhokama qilinadi. To‘rtinchi bosqich – refleksiya talabaning o‘z qarashlari, xatti-harakatlari va ilmiy faoliyatini tahlil qilishiga yo‘naltiriladi. Beshinchi bosqich – faoliyatda o‘zlashtirilgan g‘oya va qadriyatlar keys-stadi, muammoli vaziyat, loyiha, manba tahlili, munozara va amaliy topshiriqlar orqali qo‘llanadi. Oltinchi bosqich – baholash va qayta aloqa bo‘lib, unda talabaning mazmunni anglash darajasi, qadriyaviy munosabati va amaliy faoliyatidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun mezonli tahlildan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur yondashuv tarixiy manbani zamonaviy pedagogik vazifaga mexanik ko‘chirish emas, balki tarixiylikni saqlagan holda mazmunni anglash, qadriyatga aylantirish va amaliy faoliyat bilan bog‘lashni ko‘zda tutadi.

Konferensiya mavzusi nuqtayi nazaridan ma’naviy-axloqiy barqarorlik bilimni tekshirish, xolis niyat, refleksiya, akademik halollik, mas’uliyatli muloqot va ijtimoiy foydali faoliyat uyg‘unligida rivojlanadi. Imom al-Buxoriy hadisiy merosidagi bunday g‘oyalar talabaning axborotga tanqidiy munosabatini, ilmiy mas’uliyatini va qadriyatlarga sodiqligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi tarixiy-pedagogik resurs sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, bilimni ishonchli manba asosida tekshirish va uni buzmasdan yetkazish tamoyili bugungi axborot muhitida ma’naviy barqarorlik bilan birga ilmiy halollik madaniyatini ham mustahkamlash imkonini beradi.

Imom al-Buxoriy hadisiy merosidagi ilm, ma’rifat, niyat, adab, halollik, sabr, bilimni tekshirish va uni mas’uliyat bilan yetkazishga oid g‘oyalar talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish uchun boy tarixiy-pedagogik imkoniyatga ega. Mazkur g‘oyalar zamonaviy ta’lim tushunchalari bilan aynanlashtirilmasdan, manbaviy-kontekstual tahlil asosida pedagogik mazmuni ajratilganda, ular ilmga qadriyaviy munosabat, mustaqil va daliliy fikrlash, akademik halollik, refleksiv mas’uliyat hamda ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada tizimlashtirilgan besh pedagogik mexanizm va olti bosqichli nazariy-metodik yondashuv ma’rifatparvarlikni shaxsning ma’naviy-axloqiy pozitsiyasi va amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan sifatlar tizimi sifatida rivojlantirish imkoniyatini ochib beradi. Imom al-Buxoriy merosidan pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar, mustaqil ta’lim hamda ustoz-shogird hamkorligida ilmiy-metodik asosda foydalanish talabalarning ma’rifiy dunyoqarashi, akademik halolligi va ma’naviy-axloqiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahihi Buxoriy. I jild. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2021.
2. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004. – 220 b.
3. Nosirov K.J. IX–X asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalari (Al-Buxoriy va al-Farobiy asarlari misolida): pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004. – 167 b.
4. Silaturahim R., Nasution S., Zarkasih. Adab of Learning in Kitāb al-‘Ilm of Ṣaḥīḥ al-Bukhārī: A Ḥadīth-Based Conceptual Model for Islamic Education // Al-Hayat: Journal of Islamic Education. – 2025. – Vol. 9, № 4. – P. 927–940.

IBN SINO QARASHLARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA

Raxmatov Nuriddin Negqadamovich
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

O‘z davrining buyuk allomasi va tib ilmining sultoni bo‘lib yetishgan Abu Ali ibn Sino jahon fani tarixida qomusiy olim sifatida tan olingan edi, chunki u o‘z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug‘ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Abu Ali ibn Sino 980 yil 16 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, fundamental bilimlarni Movarounnahrning Buxoro va Gurganch shaharlarida tahsil olib, ilmiy va tibbiy sohada yuqori darajadagi olim va tabib bo‘lib yetishdi. Umrining so‘ngi kunlarida esa, Afg‘oniston, Eron kabi shaharlarida yashab, ilmiy faoliyat bo‘yicha yuqori darajaga chiqdi. U 1037 yil 18 iyunda Eronning Hamadon shaxrida vafot etgan.

Ibn Sino G‘arb olamida “Insoniyatning donishmandlaridan biri”, “Avitsenna” nomlari bilan tanilgan bo‘lib, Sharq olamida esa “Shayx-ur-rais”, “Sharaf al-mulk”, “Hujjat al-haq” va “Hakim al-vazir” nomlari bilan mashhurdir. [1] G‘arbda uni mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, “Tib qonunlari” bo‘lsa, shuningdek, uning buyuk faylasufligi ham e’tirof etiladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini 16 yoshlarida boshlagan Ibn Sinoning umri davomida turli manbalarda 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan, lekin bizgacha ularning 242 (160 tasi mavjud) tasi yetib kelgan. Shulardan, 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo‘lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag‘ishlangan.

Ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlari merosiga nazar tashlasak, ulardan eng yirik va muhim asari “Kitob ash-shifo”dir. [2] Keyingilari “Kitob an-najot” “Kitob ash-shifo”ning qisqartirilgan shakli bo‘lib, u ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning ijtimoiy-falsafiy qarashlari yana “Al-ishorot va-t-tanbihot” (“Ishoralar va tanbehlar”), “Hikmat al-mashriqiyin” (“Sharq falsafasi”), “Kitob al-ishorot fil mantiq val hikmat” (“Mantiq va falsafaning ishoralari”), fors tilida yozilgan “Donishnoma” (“Bilim kitobi”) va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda “Tayr qissasi”, “Salomon va Ibsal”, “Hayy ibn Yaqzon”, “Yusuf haqida qissa” kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarida o‘z aksini topgan.

Ibn Sinoning falsafiy asarlari bilan tanishganimizda insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga oid masalalarga ham katta e’tibor qaratilganligini uning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari asosida ilgari surilgan progressiv yo‘nalishdagi g‘oyalaridan bilib olamiz.

Ibn Sino insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan axloqshunoslik “Etika” fanini amaliy fanlar sirasiga kiritadi. Ibn Sino o‘zining “Aqsam al-ulum al-a’qliyya” nomli ilmiy-falsafiy asarida axloqshunoslik faniga quyidagicha tushuntirish beradi: “Bu shunday fanki, uning yordamida odam hayoti go‘zal bo‘lishini hamda o‘limi yaqinlashgandan keyin uning ruhi to‘la xotirjam va baxt-saodatda yashashini tushunib olishida o‘zining yurish-turishi va hatti-harakati qanday bo‘lishi kerakligini anglab etadi”. “Dunyoda mavjud barcha narsalar, - deb yozadi Ibn Sino, - tabiatiga ko‘ra mukammallikka erishishga harakat qiladi. Ayniqsa ushbu komillikka intilishning o‘zi uning mohiyatida singdirilgan ezgulikdir. Barcha ezgulikning mavjud emasligi yovuzlikning mavjudligidir”. Ibn Sino nuqtai nazaricha, ezgulik va yovuzlik, rohatlanish va qayg‘uga tushish - asosiy axloqiy tushunchalar hisoblanadi. Asosiy ma’naviy qadriyat esa adolat bo‘lib, hamma narsada o‘lchovlikka muvofiqdir. Adolat yoki o‘rtalik ma’naviy ezgulik va lazzatlanishning mezonidir.

Ibn Sino insonning ma’naviy tarbiyasiga oqilonalik asosida yondashgan. Uning aytishicha, tarbiya eng avvalo insonda predmet va hodisalarga nisbatan oqilona yondashuvni rivojlantirishi, uning negizida esa aql, ezgulik, tartiblilik va barcha insoniy baxt-saodat yotishi kerak.

Ibn Sinoning insonni axloqiy tarbiyalash borasidagi qarashlari ham beqiyosdir. Uning aytishicha, inson qanchalik aqliy va jismoniy rivojlangan bo‘lmasin, agarda uning bilimlari axloqiy tarbiya bilan yoritilmagan bo‘lsa, u jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘la olmay, unga foyda keltira olmaydi. Chunki, past axloqiy fazilatga ega bo‘lgan kishi faqatgina zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Axloqliylik - bu insonning tabiiy sifati bo‘lmay, balki tarbiyaning predmeti va uning natijasidir. Uning aytishicha, tarbiyaning maqsadi shunday insonni tayyorlash kerakki, u inson nafaqat o‘zi uchun yashashligi, balki boshqa insonlar uchun ham yashashi kerakligini bilishi lozimdir. Ushbu ideallikka esa odamlarda insonparvarlik, haqiqiy do‘stlik, sadoqat, mustahkam iroda va mustahkam xarakter, mehnatni sevish va ijodiy mehnat malakalarining tarbiyalanishi orqali erishish mumkindir.

“Muqoisa dar axloq” kitobida Ibn Sino maslahat beradi, “Agarda inson o‘zining axloqiy qoidalarini buzsa, unda u o‘zining axloqiy qiyofasini buzgan bo‘ladi; u o‘zini tartibga solishi, barcha axloqiy normalarni o‘rganishi, yomon ishlaridan voz kechishi kerak”, - deb ta’kidlab, jamiyat tomonidan o‘rnaligan axloq qoidalarini o‘rganishga va rioya etishga undaydi.

Alloma “Solomon va Ibsol kissasi”da esa, oliy jahon insonlarni ulug‘lab, ma’naviy kamolotga erishgan kishilarni ko‘rsatib beradi. Shuningdek, axloq masalasida do‘stlik va birodarlikni tarbiyalash muammolari va amaliyoti ham muhim ekanligini aytib o‘tadi.

Ibn Sino inson hayotida haqiqiy do‘stlikning ahamiyatini ta’kidlab, haqiqiy do‘stlarni soxta do‘stlardan ajratish uchun maslahatlar beradi. U shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yish, xudbinlik va ikkiyuzlamachilikka qarshi chiqadi. Uning aytishicha, inson tabiatiga ko‘ra jamoaviy hayotga intiladi, shunga ko‘ra insonda jamoat orasida bo‘lish va yashash yoqimlidir. Shundan kelib chiqqan holda Ibn Sinoning fikricha, inson uning hayoti qiyin bo‘lmasligi uchun ham do‘stga ega bo‘lishi lozimdir. Do‘stlar hamjihatligida inson katta qahramonliklar ko‘rsatishi mumkin. U aytadi: “Inson shunda inson bo‘ladiki, u boshqalarning ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga boshqalar ham uning. Biri ko‘chat ekadi, boshqasi non

pishiradi, uchinchisi tikadi, to‘rtinchisi igna tayyorlaydi va barchasi ana shunday birlashib, bir-birining ehtiyojini qondiradi”. Birodarlik, do‘stlik, bir - birini qo‘llab-quvvatlash inson faoliyatida muvaffaqiyat keltirishini ilgari suradi. Uning aytishicha “Agar u senga xaqiqiy do‘st bo‘lsa, u sening xursandchilik, hafalik va qayg‘uli kunlaringda birga bo‘ladi". Shuning uchun, Ibn Sino odamlarni birlashishga, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikda yashashga chaqiradi. Shuningdek, Ibn Sino “Tadbiri manzil” asarida har bir insonning u kim bo‘lishidan qatiy nazar yaxshi va aqlli do‘sti bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida yozadi. Aqlli do‘st oyna singari insonning yaxshi va yomon tomonlarini ko‘rsatishi kerak. Uning aytishicha, “Agar u haqiqiy do‘st bo‘lsa, faoliyatingdagi sening bir kamchiliging boshqa bir yomonlikni keltirib chiqarmasligi uchun darhol sening kamchiliklaringni o‘zingga aytadi”.

Ibn Sinoning aytishicha, ma’naviyatli insonni eng asosiy sifatlaridan biri kamtarlikka ham qatta e’tibor beradi. Insonning kamtarligi ishda va faoliyat jarayonida oqilona yondashuvi bilan muvofiq kelishi kerakligini aytadi. Allomaning aytishicha, odamlarning aytadigan gaplari ularning qilayotgan ishlari bilan mos kelishi kerak. U laganbardorlarni qattiq qoralaydi. “Qush to‘g‘risida”gi hikoyasida Ibn Sino shunday o‘xshatishni keltirib o‘tadi: “Tipratikanning tashqi tomoni tikanli bo‘lgani bilan, uning ichi toza. Shuningdek, ayrim nafs odamlarda tashqi tomoni chiroyli ko‘rinishi bilan ularning ichidagi g‘arazli g‘ap, ikkiyuzlamachilik, buzuqlik, axloqsizlik va yaramaslikni hatti-harakatlarida ko‘rish mumkin”. Shuning uchun, “Insonlarni ularning tashqi ko‘rinishiga qarab emas, balki ichki dunyosiga qarab baholash to‘g‘ri va oqilona ish bo‘lgan bo‘lardi”, - deb aytadi Ibn Sino.

Allomaning asarlarida shu narsa alohida ko‘rsatib o‘tilganki, kibru-havo, ortiqcha o‘zining ko‘chiga bino qo‘yish va maqtanchoqlik ma’naviy jihatdan kamolotga yetmaganligidan dalolat sanaladi. Ibn Sino insoniyat ma’naviy va axloqiy kamoloti uning psixologik tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq ekanligini aytadi. Bunda asosan birinchi o‘rinda u inson ijtimoiy harakatlarini yaxshilashga qaratilgan amaliy maqsadlarini nazarda tutadi. Uning fikricha, inson sirtdan salbiy sifatlarga ega bo‘lmasligi mumkin, yomon odatlar o‘z-o‘zidan ichdan paydo bo‘lmaydi, balki uning harakatlarida ko‘rinib boradi.

Ibn Sino inson qalbida amaliy (tajribali) va tajribaga asoslanmagan mushohadali (o‘y-hayolga asoslangan) ikki kuch mavjudligini aytadi. Uning aytishicha, tajriba kuchi doimo yuqori turishi va yaxshi axlokiy sifatlarin o‘zlashtirib borishi kerak.

Ibn Sino inson hatti-harakatlarini uch qismga bo‘ladi: birinchisi, majburiyat yuzasidan kelib chiqadigan harakatlar; ikkinchisi, ma’lum bir foydaga erishishga qaratilgan (shuningdek, o‘zining shaxsiy huzur-halovatiga) va uchinchisi, hech qanday bir ta’magirlikka asoslanmagan va insonni bezaydigan harakatlar. Allomaning aytishicha, “Ezgulik, yaxshilik shunchaki qilinmagan, shunchaki o‘zining maqsad va manfaati uchun ham qilinmagan bo‘lsagina, bunday ezgulik va yaxshilik mukammal ezgulik hisoblanadi. Ko‘pgina insonlar esa, ezgulikning mukammaligiga erishishga harakat qilmaydilar”. Shuningdek, Ibn Sinoning mukammal jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyasida fuqarolar o‘z hatti-harakatlarida mukammallikka erishishi va buning butun davlat miqyosida norma sifatida muvofiqlashtirishi to‘g‘risida fikr bildiradi. Shuningdek, alloma insoniyat ma’naviy-axloqiy shakllanishida uning atrofidagi odamlarning hatti-harakatlari, yurish-turishlari, fe’l-atvori va o‘zaro munosabatlari bilan birga davlat rahbarining ham asosiy rol o‘ynashini aytib o‘tadi. Davlat rahbari qanday sifatlarga ega bo‘lsa, bo‘ysunuvchilar ham unga taqlid qilgan holda shunday sifatlarga ega bo‘lishadi. Shuning uchun ham davlat rahbari o‘zidagi barcha kamchiliklarini bartaraf etishi, shundan keyin esa, shaxsiy namuna sifatida boshqalarga yaxshi sifatlarni tarbiyalashga harakat qilishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi.

Xulosa sifatida, Ibn Sinoning ma’naviy-axloqiy tarbiya konsepsiyasi uning falsafiy merosining muhim qismi bo‘lib, u insonning individual va jam’iy taraqqiyotini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rish, axloqni ratsional va emotsional jihatlarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida tushunish, shaxsiy va jamiyat manfaatlarining o‘zaro munosabatini muvozanatlashtirishga intilish kabi universal qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Uning g‘oyalari zamonaviy ijtimoiy fanlar va axloqshunoslikning rivojlanishi uchun muhim manba va ilhom manbai sifatida qimmatlidir.

Ibn Sinoning ma’naviy tarbiya to‘g‘risidagi qarashlarining dolzarb ta’limoti shundan iboratki, inson kamoloti faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki uning amaliy hayotda qo‘llanilishi, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik va adolat prinsiplariga rioya qilinishi, shaxsiy manfaatni jamiyat manfaati bilan muvozanatlashtirish orqali amalga oshishi mumkin.

Ibn Sinoning g‘oyalaridan haqiqiy ma’naviy-axloqiy fazilatlarga va ideal jamiyatga shu mavjud dunyoda erishish mumkinligini, buning uchun esa jamiyatda insonlar o‘zaro yordam, birdamlik va o‘zaro hamkorlik asosida yashashlari kerakligini, bunday jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini bilishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Egamberdieva N. M. Abu Ali ibn Sino va uning "Hayy ibn Yaqzon" asaridagi falsafiy muammolar tahlili // Molodoy uchenыy. - 2017. - №27. - B. 76-80. – URL https://moluch.ru/archive/161/45085/ (ko‘rildi: 12.09.2026 yil).
2. Ibn Sino. “Kitob ash-Shifo”. "Payg‘ambarlik haqida dalil..." bobi (Muhammad Yusuf Muso. Ibn Sino falsafasida ijtimoiy va siyosiy g‘oyalar. Qohira. 1952 kitobidan iqtibos).
3. Ibn Sino. Tanlangan asarlar (tojik tilida). Jild 2. - Dushanbe, 1983. Ibn Sino "Tadbiri manzil" 22-sahifa.
4. Ibn Sino. Tib qonunlari. I jild: - Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1992 y.
5. Abū'Alī ibn Sīnā Axloqi Nosiriy. Dushanbe: Irfon. 1989 y.

HARBIY XIZMATCHILAR OILALARIDA MILLIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI JAMIYAT BARQAROR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-MADANIY OMILI SIFATIDA

Ashirmatova Barno Saataliyevna

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik

Jamiyatning barqaror rivojlanishi iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy ishonch va madaniy davomiylikning o‘zaro aloqasini talab qiladi. BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan kun tartibida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlar bir-biriga bog‘liq deb qaraladi. Uning 4.7-vazifasida madaniy xilma-xillikni qadrlash va madaniyatning barqaror rivojlanishga hissasini anglash ta’limning muhim natijalari qatorida qayd etiladi [1]. Mazkur yondashuv oiladagi tarbiya va qadriyatlar tizimini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lab o‘rganish uchun asos yaratadi.

Harbiy xizmatchilar oilasida kasbiy burch, xizmat tartibi va yaqinlar oldidagi mas’uliyat bir muhitda tutashadi. Xizmat joyining o‘zgarishi yoki vaqtincha ayriliq ehtimoli oilaviy muloqot va tarbiya usullarini qayta tashkil etishni talab qilishi mumkin. Shu sababli bu oilalardagi milliy qadriyatlarni o‘rganishda xizmatning o‘ziga xos sharoitini hisobga olish zarur [6].

Milliy tarbiya merosida qadriyat va amaliy xulq birligi alohida o‘rin tutadi. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “Axloq tarbiyasi” bo‘limida “dars oluvchi - biluvchi, tarbiya oluvchi - amal qiluvchi demakdur”, deb yozadi [2]. Ushbu fikr oilada halollik, mas’uliyat va hurmat haqidagi bilim shaxsiy namuna bilan mustahkamlanishi zarurligini izohlashga yordam beradi. Avloniy qarashlarining mavzuga aloqasi tarbiyaning samarasi amalda namoyon bo‘lishini ta’kidlashidadir. Mazkur tarixiy-ma’rifiy yondashuv qadriyatlar davomiyligini kundalik hayot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xorijlik tadqiqotchi olim Sh. Schwartz qadriyatlarni inson tanlovi va xulqini yo‘naltiruvchi motivatsion tizim sifatida tushuntiradi. Uning nazariyasida an’analar, xavfsizlik, mustaqil fikrlash va boshqalar farovonligini ko‘zlash o‘rtasidagi muvofiqlik hamda ziddiyatlar tahlil qilinadi [3]. Bu yondashuv harbiy oilada intizom va farzandning mustaqil qaror qabul qilishi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish uchun foydalidir.

R.Inglehart va W. Baker modernizatsiya sharoitida keng madaniy o‘zgarishlar bilan bir qatorda tarixiy an’analarning davomiyligi ham kuzatilishini ko‘rsatgan [4]. Shundan kelib chiqib, transformatsiyani qadriyatlar mazmuni, ustuvorligi yoki amalga oshirish shaklining o‘zgarishi deb tushunish mumkin. Masalan, qarindoshlar bilan aloqaning masofaviy muloqot orqali davom etishi

an’anaviy yaqinlikning yangi vositada ifodalanishidir. Bunday talqin o‘zgarishni baholashda uning mazmuni va oilaviy munosabatlarga ta’sirini alohida tekshirishni talab qiladi.

J. Coleman ijtimoiy kapitalni hamkorlikni yengillashtiruvchi munosabatlar, o‘zaro majburiyatlar, axborot kanallari va ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘laydi; bunda oila ichidagi hamda oiladan tashqaridagi aloqalarni ajratadi [5]. M. Segal esa, AQSh harbiy oilalari misolida oila va harbiy tashkilot shaxsning vaqti, sadoqati hamda kuchiga katta talab qo‘yishini tahlil qiladi [6]. Ushbu qarashlar qadriyatlar shakllanishini xizmat talablari va oila resurslari o‘rtasidagi munosabat orqali o‘rganish imkonini beradi.

F.Walsh oilaviy bardoshlilikning tayanch jarayonlarini umumiy e’tiqod va qarashlar, oilaviy tashkil etilish hamda muloqot va muammolarni hal qilish bilan bog‘laydi [7]. Bardoshlilik oilaning qiyinchilikka moslashish salohiyatini anglatadi. Hébert va hammualliflarning 2024-yildagi sharhiga 32 ta maqola kiritilgan; tadqiqotlarning 91 foizi AQShda o‘tkazilgan. Mualliflar dasturlar hamda ularning natijalarini o‘lchash usullari xilma-xilligini qayd etadi [8]. Bu holat xorijiy xulosalarni O‘zbekiston sharoitiga qo‘llashda xizmat tartibi, qarindoshlik aloqalari va ijtimoiy yordam tizimidagi farqlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Harbiy oiladagi ijtimoiy-madaniy muhit o‘zaro muloqot, oilaviy xotira, vazifalar taqsimoti, madaniy amaliyotlar va tashqi ijtimoiy aloqalar birligida namoyon bo‘ladi. Qadriyatning shakllanishi uni nomlash, mazmunini tushuntirish, amalda namoyon etish va xatti-harakatni baholash jarayonlarini qamrab oladi. Bola va yoshlar kattalarning kundalik qarorlarini kuzatib, e’lon qilingan mezonning amalda qanday ishlashini anglaydi. Shu bois oilaviy muhitni baholashda aytilayotgan fikrlar bilan bajarilayotgan ishlarning muvofiqligi alohida mezon bo‘lishi kerak.

Tarixiy-madaniy davomiylik avlodlararo suhbatlar, oilaviy xotiralarni saqlash, ona tilidagi muloqot va adabiyot mutolaasi orqali qo‘llab-quvvatlanishi mumkin. Bunday faoliyatda voqeani eslash bilan birga uning bugungi hayot uchun ma’nosini muhokama qilish muhim. Masalan, ajdodlarning mehnat tajribasini o‘rganish farzandga mas’uliyat va halol mehnat mazmunini tushuntirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmat haqidagi oilaviy hikoyalar ham fuqarolar osoyishtaligi, o‘zaro yordam va jamoat manfaatini ko‘zlash bilan bog‘lab talqin etilishi maqsadga muvofiq.

Shaxsiy namuna qadriyatni odatiy amaliyotga aylantiradigan asosiy mexanizmlardan biri sifatida taklif etiladi. Oilada va’daga amal qilish, umumiy vazifani bajarish, xarajatlarni kelishish va boshqa a’zolarning mehnatini qadrlash mas’uliyatni kuzatiladigan xatti-harakatga aylantiradi. Intizom esa yoshga mos talablar, tushunarli qoidalar va izchil munosabat orqali mazmun kasb etadi. Farzandning savol berishi va fikr bildirishiga imkon yaratish uning oilaviy me’yorlarni ongli tushunishiga sharoit tug‘diradi. Bu munosabatning samarasi kelgusi tadqiqotlarda tekshirilishi lozim.

Xizmat tufayli oiladan vaqtincha uzoqda bo‘lish sharoitida qadriyatlarni uzatishning tashkiliy shakli o‘zgarishi mumkin. Xizmat tartibi imkon bergan vaqtda muntazam suhbat, birgalikda kitob muhokamasi va farzand hayotiga qiziqish ota-ona ishtirokini davom ettirish usullari bo‘la oladi. Raqamli vositalarning foydasi suhbat mazmuni va o‘zaro e’tibor bilan belgilanadi. Uyda qolgan turmush o‘rtog‘iga yuklanadigan vazifalarni kelishib olish ham oilaviy hamkorlikning amaliy ko‘rinishidir. Harbiy oila atamasi harbiy xizmatni erkak yoki ayol bajaradigan, shuningdek ikkala turmush o‘rtog‘i xizmat qiladigan oilalarni ham qamrab olishi kerak.

Transformatsiyani tahlil qilishda uch holatni farqlash taklif etiladi. Birinchisi, qadriyat mazmuni saqlanib, uni ifodalash vositasi o‘zgarishidir; masofaviy avlodlararo suhbat bunga misol bo‘la oladi. Ikkinchisi, qadriyatlar ustuvorligining qayta ko‘rib chiqilishidir: xizmat jadvali o‘zgarganda vazifalarni adolatli taqsimlashga ehtiyoj ortishi mumkin. Uchinchisi, qadriyat bilan amaliyot o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir: o‘zaro hurmat e’tirof etilgan holda ayrim a’zolarning fikri muntazam e’tiborsiz qolishi shunday holatdir. Ushbu farqlash davomiylik, moslashuv va ziddiyatni alohida o‘rganishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit qadriyatlarni amalda ro‘yobga chiqarish imkoniyatlariga ta’sir qiluvchi kontekst sifatida qaraladi. Uy-joy, ta’limga kirish, turmush o‘rtog‘ining bandligi va

bolalar parvarishi bilan bog‘liq masalalar tarbiya uchun ajratiladigan vaqt hamda kuch bilan tutashadi. Moddiy qiyinchilikni oilaning axloqiy kamchiligi deb talqin qilish ilmiy jihatdan asossiz.

Oiladagi ishonchning jamoat hayotiga o‘tishi alohida tushuntirishni talab qiladi. Coleman yondashuvida ichki va tashqi ijtimoiy aloqalarning farqlanishi bunga nazariy asos beradi [5]. Harbiy oilaning maktab, mahalla va madaniyat muassasalari bilan ixtiyoriy hamkorligi oilaviy yordam tajribasini kengroq munosabatlarda qo‘llash imkoniyati sifatida taklif etiladi. Masalan, birgalikdagi ma’rifiy yoki xayriya faoliyati boshqa oilalar bilan muloqotga sharoit yaratishi mumkin. Uning natijasi oilaning tadbirda qatnashgani bilangina belgilanmaydi; o‘zaro ishonch va hamkorlik sifati ham o‘rganilishi kerak.

Shu asosda quyidagi konseptual bog‘lanish taklif etiladi: qadriyatni anglash, uni kundalik munosabatlarda qo‘llash, oilaviy ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy hamkorlikda namoyon etish. Mazkur ketma-ketlikning har bir bosqichiga xizmat yuklamasi, moddiy imkoniyatlar va ijtimoiy yordam ta’sir qilishi mumkin. U jamiyat barqarorligiga avtomatik olib boradigan sababiy zanjir sifatida talqin etilmaydi. Oilaviy tajriba bilan keng ijtimoiy natija o‘rtasidagi aloqa mustaqil empirik baholashni talab qiladi. Modelning tahliliy afzalligi qadriyatlar haqidagi umumiy fikrlarni tekshiriladigan savollarga aylantirishidadir.

Modeldan ikki tadqiqot taxmini kelib chiqadi. Birinchidan, oila a’zolari kuzatadigan shaxsiy namuna va muntazam muloqot qadriyatlarning kundalik amaliyotda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi kutiladi. Ikkinchidan, oiladan tashqaridagi hamkorlik imkoniyatlari oilaviy ishonchning jamoat hayotidagi ishtirok bilan bog‘lanishini kuchaytirishi mumkin. Ushbu taxminlarni baholashda moddiy ta’minot, ta’lim va xizmat sharoitining muqobil ta’siri tekshirilishi lozim. Harbiy oilalar bilan boshqa kasb vakillari oilalarini qiyoslash esa kuzatilgan holatning qaysi qismi aynan xizmat xususiyatiga aloqadorligini aniqlashtiradi.

Harbiy oilalar bilan ishlashda ma’rifiy suhbatlarni kundalik muammolarni birgalikda hal qilish bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Dastur mavzulariga oilaviy muloqot, farzand tarbiyasida kelishuv, oilaviy tarixni o‘rganish, budjetni rejalashtirish va raqamli axborotni baholash kiritilishi mumkin. Mashg‘ulot vaqti xizmat tartibiga moslashtirilishi, ishtirok esa oila a’zolarining ehtiyojlari asosida tashkil etilishi lozim. Ko‘chib kelgan oilalarga maktab, bandlik va madaniy imkoniyatlar haqida tushunarli ma’lumot berish ma’naviy-ma’rifiy ishlarning amaliy davomiga aylanishi mumkin.

Kelgusi tadqiqotlarda harbiy xizmatchi, turmush o‘rtog‘i va yoshiga mos ravishda farzandlarning qarashlarini alohida o‘rganish taklif etiladi. Qadriyatning ahamiyati haqidagi javoblar o‘zaro suhbat muntazamligi, vazifalar taqsimotidan qoniqish, avlodlararo aloqalar va ixtiyoriy jamoat faoliyati kabi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanishi mumkin. Xizmat staji, ko‘chish tajribasi va iqtisodiy sharoit alohida hisobga olinadi. So‘rovni yarim tuzilgan intervyu bilan birlashtirish “to‘g‘ri javob” berishga intilish ta’sirini aniqlashga yordam beradi. Bunda ishtirokning ixtiyoriyligi va maxfiyligi ta’minlanishi zarur.

Harbiy xizmatchilar oilalarida milliy qadriyatlarning shakllanishi tarixiy-madaniy meros, kundalik tarbiya, xizmat sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarning o‘zaro aloqasi doirasida tushuntirilishi mumkin. Ularning barqaror rivojlanish uchun ahamiyati mas’uliyatli xulq, o‘zaro hurmat va hamkorlikda amaliy ifoda topishiga bog‘liq. Transformatsiya sharoitida mazmun bilan uni amalga oshirish shaklini farqlash qadriyatlar davomiyligini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/70/1. 2015. 4.7 va 5.4-vazifalar. Rasmiy matn.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. 2-nashr. Toshkent, 1917. “Axloq tarbiyasi” bo‘limi. Ziyouz elektron matni. Elektron manba.
3. Schwartz S. H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. Online Readings in Psychology and Culture. 2012;2(1). DOI: 10.9707/2307-0919.1116

4. Inglehart R., Baker W. E. Modernization, Cultural Change, and the Persistence of Traditional Values. American Sociological Review. 2000;65(1):19–51. DOI: 10.2307/2657288
5. Coleman J. S. Social Capital in the Creation of Human Capital. American Journal of Sociology. 1988;94(Supplement):S95–S120. DOI: 10.1086/228943
6. Segal M. W. The Military and the Family as Greedy Institutions. Armed Forces & Society. 1986;13(1):9–38. DOI: 10.1177/0095327X8601300101
7. Walsh F. Family Resilience: A Framework for Clinical Practice. Family Process. 2003;42(1):1–18. DOI: 10.1111/j.1545-5300.2003.00001.x
8. Hébert M. L., Tippe J. M., Aquin C., Maximos M., Brémault-Phillips S., Sevigny P. R. Military Family-Centred Resilience-Building Programming Across the Deployment Cycle: A Scoping Review. International Journal of Environmental Research and Public Health. 2024;21(10):1378. DOI: 10.3390/ijerph21101378

БОРЛИҚ ВА ЙЎҚЛИК ФАЛСАФАСИ: НАЖМИДДИН ҚАЗВИНИЙНИНГ ОНТОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Алиқулов Р.

Бухоро давлат техника университети мустақил тадқиқотчиси

Инсон тафаккури тарихида энг қадимий ва энг муҳим фалсафий масалалардан бири - борлиқ ва йўқлик масаласидир. Фалсафада онтология таълимоти айнан шу мавзуларни ўрганади. Онтология қадимги юнон фалсафасида у ёки бу объектларнинг борлиғи, борлиқнинг ўзи ҳақидаги таълимот сифатида ажралиб чиқди. Парменид фикрича ҳақиқий билим – бу ҳақиқатдан ҳам мавжуд нарсалар ҳақидаги билимдир.[1.19.] Парменид парадоксида инсоннинг дунёдаги борлиги, унинг “шу ерда” ва “ҳозир” мавжудлигига дастлабки ишончи қайд этилган. Аммо бу ишонч мустаҳкамлангани заҳоти жуда кўп саволлар кўндаланг бўлади: дунё шу ерда мавжуд бўлса, у ҳамма ерда мавжудми? Дунё биттами ёки дунёлар кўпми? Дунё ўзгарувчанми ёки ўзгармасми, чеклими ёки чексизми? Одамлар туғилади, яшайди ва ўлади. Ҳаётнинг моҳияти йўқликдан борлиққа эмас, балки борлиқдан йўқликка ўтишдадир. Ибтидоси бор ҳамма нарсанинг интиҳоси ҳам бор, туғилган ҳамма нарса ўлиши керак; бу – борлиқнинг абадий қонуни. Шу боис Парменидниг “Борлиқ мавжуд, йўқлик эса мавжуд эмас”[1.19.] шиори юнон тафаккурини бир жойда узоқ вақт ушлаб туриши мумкин эмас эди. Дунёнинг чеклилиги ва чексизлиги, унинг тузилиши тамойиллари ва ўзгариш хусусияти ҳақидаги масалаларни ечишда файласуфлар турли йўллардан бордилар.

Шарқ мутафаккирлари онтологияни теологик муаммолар ечимига мослаштирдилар. Борлиқ ҳақидаги баҳслар нафақат фалсафада, балки калом, мантиқ ва илоҳиёт илмларида ҳам марказий ўрин тутади. “Борлиқ ва йўқлик тушунчаси ўз-ўзидан тушунарли ҳақиқатдир” деган фикр эса ушбу баҳсларнинг асосий нуқталаридан биридир. Форобий, Ибн Сино, Ал-Киндий, Ибн Рушдлар юнон донишмандлари Афлотун, Арасту ва бошқаларнинг тажриба ва кузатув, мантиқий таҳлил ва умумлашмалар орқали табиат, инсон ва жамиятни тадқиқ этиш йўлидан борганлар. Демак, аҳли каломда ҳам, аҳли ҳикматда ҳам ақлий-мантиқий илм, тажриба қилиш, билим асосий ўринга эга бўлган.

Вужуд, мавжудот таркиби, илмлар таснифи Ибн Синонинг борлиқ, мавжудот ҳақидаги онтологик таълимотини Форобий таълимотининг давоми, ривожи деб таърифлаш мумкин. Ибн Сино вужудни иккига: “зарурий вужуд-вожиб ул-вужуд ва мумкин ул-вужуд – вужуди мумкинга ажратади. Зарурий вужуд ҳамма мавжуд нарсаларнинг бошланғичи – биринчи сабаби – яъни Аллоҳдир, ундан келиб чиқувчи бошқа борлиқ нарсалар вужуди мумкиндир”.[2.63.]

Биринчи ягона вужуддан келиб чиқувчи вужудлар, мавжуд борлиқнинг турли туман шакллари, бошланғич ягона вужуднинг ифодаланишидир. Аста-секин келиб чиқувчи борлиқ шакллари, яъни сўнгги вужудлар сабаб-оқибат муносабати шаклида ўзаро боғлиқдир. Биринчи вужуднинг хислатлари ундан келиб чиқувчи барча вужудларга ўтиб боради.

Мутафаккир Нажмиддин Котибий “Ҳикмат ал-айн” асарида онтологик муаммолардан бўлган борлиқ ва йўқлик категорияларини мустақил боб сифатида таҳлил қилган.

Биринчидан, *Борлик ва йўқлик тушунчаси ўз-ўзидан тушунарли ҳақиқатдир***.** Яъни, Менинг борлигим аниқ ҳақиқат бўлиб, мутлақ борлик унинг бир қисмидир. Ўз-ўзидан тасаввур қилинаётган нарсанинг бир бўлагини тасаввур қилиш ҳам ўз-ўзидан ҳақиқат бўлади. Демак, борлик ўз-ўзидан равшан ҳақиқатдир.[3.95.]

Мутафаккир қарашларида инсон аввало ўзини англаса бутун оламни англаши назарда тутилади. Инсон “мен борман” деган ҳукмга келиши учун далил ёки исботга муҳтож эмас. Чунки инсон ўзининг мавжудлигини ички ҳис ва идрок орқали тўғридан-тўғри англайди. Бу ҳолат Ибн Синонинг “муаллақ инсон” назариясига билан умумийликка эга. Унда “инсон ташқи ҳисларсиз ҳам ўз мавжудлигини идрок қилиши мумкин”лиги таъкидланади.[1.63.] Демак, борлиқ тушунчаси инсон онгида энг дастлабки ва энг равшан тушунчалардан ҳисобланади.

Нажмиддин Котибий “менинг борлигим аниқ ҳақиқат бўлиб, мутлақ борлиқ унинг бир қисмидир”[3.96.] деганда, инсон ўз хусусий мавжудлигини англаш орқали умумий борлиқ ҳақида ҳам тасаввур ҳосил қилади. Яъни, жузъий борлиқ орқали куллий борлиқ англанади. Фалсафада бу ҳолат хусусийдан умумийга ўтиш шакли сифатида баҳоланади. Инсон ўзини мавжуд деб билгани учун “мавжудлик” деган умумий маънони ҳам идрок этади. Мутафаккирнинг фикрича борлиқ тушунчаси таърифга муҳтож эмас, чунки ўз-ўзидан равшан ҳақиқатдир. Фахриддин ар-Розий ва бошқа мутакаллимлар таълимотида борлиқ “бадеҳий”[3.96.] деб тушунганлар. Яъни, борлиқни инсон ақли табиий равишда қабул қилади. Демак, борлиқ тушунчасининг ўз-ўзидан аниқ ҳақиқат экани инсоннинг ўз мавжудлигини бевосита англашига асосланади. Бу тушунча таъриф ва исботга муҳтож эмас, чунки у ақлдаги энг дастлабки ва энг умумий тушунчадир.

Иккинчидан*, Вужуд муштаракдир (умумий).* Яъни, мавжудлик муштарак бўлиши шарт. Акс ҳолда, *биринчидан*, хусусиятлар ҳақидаги эътиқод йўқолиши билан мавжудлик ҳақидаги эътиқод ҳам барҳам топади. *Иккинчидан*, нарсалар борлиқ ва йўқлик доирасига чекланиши бекорга айланади. Чунки у ҳолда йўқликнинг муқобилида хос мавжудлик туриши керак бўлади. *Учинчидан*, нарсанинг вожиб (яъни, мавжуд бўлиши шарт, бўлиши зарурий) ва мумкин (яъни, бор бўлиши ҳам, йўқ бўлиши ҳам мумкин, бор бўлиши мантиқан зарур бўлмаган нарса) га бўлиниши дуруст бўлмай қолади.[3.96.]

Фалсафий таълимотда энг муҳим баҳс мавзуларидан бири “мавжудлик” тушунчаси барча мавжудотларга умумий маънода қўлланиладими ёки ҳар бир нарсанинг вужуди ўзига хосми? Мутафаккир таълимотида агар вужуд умумий бўлмаса, бир қатор фалсафий муаммоларни келтириб чиқаришини хусусийлик, умумийлик ҳамда сабаб ва оқибат категорияси асосида исботлаб беради. “Албатта, ушбу уч фараз ботилдир. *Биринчисига* келсак*,* агар биз мавжуд мумкин нарсанинг қандайдир мумкин сабаби бор деб билсак, ўша сабабнинг борлигига жазм ила ҳукм қилган бўламиз. Сўнгра ўша сабабни вужуди вожиб нарса деб билсак, унинг вужуди мумкин эканлиги тушунчаси йўқолади, лекин мавжудлиги эътиқоди қолаверади. *Иккинчи* ва *учинчилар*нинг ботиллиги эса кўриниб турибди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент.: “Шарқ”, 2003. – Б. 19.

2. Хайруллаев М.М. Абу Али ибн Синонинг илмий-фалсафий ва ижтимоий қарашлари. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. –Тошкент.: Ўзбекистон, 1995. –Б.63.

3. نجم الدين دبيران كاتبي قزويني. حكمة العين. تهران, انجمن آثار و مفاخر فرهنگی, 1384ش. ص 95,96.

BUXORO ILM-FAN VA MA’RIFAT O‘CHOG‘INING TASAVVUFIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Bo‘ldiyeva Sobira Rajabovna
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Asrlar davomida islom sivilizatsiyasining yirik ilmiy-ma’rifiy markazi hamda irfoniy an’analar o‘chog‘i bo‘lib kelgan Buxoroning an’anaviy ta’lim tizimi nafaqat zohiriy (ilmiy-nazariy) bilimlarni, balki botiniy (tasavvufiy-axloqiy) kamolot mezonlarini ham o‘zida aks ettirgan noyob ma’naviy muhit hisoblanadi. Bugungi kunda milliy ma’naviy merosimiz va mutafakkirlarimiz ilmiy merosini qayta anglash jarayonida tasavvufiy dunyoqarashning shakllanish omillarini tadqiq etish, xususan, uning falsafiy qarashlarida Buxoro madrasa ta’limi hamda naqshbandiylik va boshqa mahalliy irfoniy maktablar ta’sirini ochib berish alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - Buxoro ilm-fan va ma’rifat o‘chog‘ining tasavvufiy dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rnini hamda zohir va botin uyg‘unligiga asoslangan insonparvarlik falsafasini har taraflama tahlil qilishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, mutafakkir merosida islomiy-tasavvufiy manbalarning o‘zlashtirilish darajasi, Buxoro ta’lim tizimidagi ustoz-shogirdlik an’analarining uning axloqiy va irfoniy qarashlariga ta’siri hamda ushbu an’analarning shaxs kamolotidagi amaliy ahamiyatini tadqiq etish kabi ilmiy vazifalar belgilab olinadi. Tasavvufiy-falsafiy meros tadqiqot obyekti, Buxoro ta’lim an’analarining irfoniy dunyoqarashga ko‘rsatgan ta’sir mexanizmlari esa tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, erishilgan xulosalar o‘zbek falsafasi tarixi, tasavvufshunoslik hamda manbashunoslik yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarni boyitadi, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlashda va yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga bag‘ishlangan amaliy dasturlarda keng foydalanilishi mumkin [1, b. 123].

Sharq pedotsentrik ta’lim an’anasiga ko‘ra, bolaga 4 yosh-u 4 oy, 4 hafta-yu 4 kunlik paytidan e’tiboran ma’rifiy odob va harf-i hijoni o‘rgatish ramziy hamda amaliy mantiqqa ega edi. Sadriddin Ayniyning xotiralarida aks etgan ushbu qoida Roziya buvining yosh bolalarga dars berishni boshlagan jarayoni bilan g‘oyaviy hamohanglik hosil qiladi. Maktab yoshiga yetgan har bir bola oila va mahalla muhitida ilk saboqni olgach, Buxoro ta’lim tizimining keyingi bosqichiga – abjad hisobi hamda murakkabroq matnlarni o‘qish malakasiga tayyorlanar edi. Bu an’ana har bir bola qalbida hali tili chiqmasdanoq ilohiy so‘z va mumtoz kalomga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilgan.

Sadriddin Ayniy “Eski maktab” asarida alifbo va “zer-zabar” qoidalarini o‘zlashtirgandan so‘ng, o‘quvchilarga So‘fi Olloyorning “Sabotul-ojizin” va “Maslakul-muttaqin” asarlari puxta o‘rgatilganini alohida ta’kidlaydi. Ushbu metodik zanjir oilaviy muhitda olingan dastlabki ta’lim jarayoni bilan mutlaqo bir xil sxemaga ega [2, b. 123]. Demak, sho‘ro davrining mafkuraviy tazyiqlariga qaramay, Buxoroning ko‘hna ma’rifiy an’analari oila qobig‘ida bo‘lsa-da, o‘zining amaliy bosqichlarini buzmagan holda saqlanib qolgan va avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Buxoro ta’lim an’anasining yana bir o‘ziga xos xususiyati shunda ediki, unda nafaqat diniy va fiqhiy bilimlar, balki tasavvufiy axloq, irfoniy qarashlar va mumtoz poeziya sintetik tarzda o‘qitilgan. S.Ayniy xotiralarida ko‘rinadigan va domlalarning bobo-buvisidan olgan saboqlarida namoyon bo‘ladigan ushbu tamoyil – insonni komillikka yetaklashning amaliy mexanizmi edi. Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy va Mirza Bedil kabi mutafakkirlarning asarlarini yod olish orqali yosh talaba nafaqat til boyligini oshirgan, balki qalbini tariqat va ma’rifat tushunchalariga tayyorlab borgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Ayniy tasvirlagan XIX asr oxiridagi ta’lim muhiti va XX asrning o‘rtalarida ulg‘aygan muhit o‘rtasida bevosita ma’naviy saboqdorlik bor. Ustozlarning harf o‘rgatish metodikasi Buxoro klassik maktabdorlik maktabining tirik ko‘rinishi bo‘lib, u yosh avlodning keyinchalik nafaqat nazariyotchi, balki xojagon-naqshbandiya tariqatining amaliyotchi ulamolaridan biri bo‘lib yetishishida poydevor vazifasini o‘tadi [3, b. 123].

Tadqiqotning ushbu qismida tahlil etilgan oilaviy muhit, qishloq va muqaddas ziyoratgohlar bilan bog‘liq ilohiy-ruhiy manbalar hamda Buxoroning an’anaviy ta’lim tizimi

shaxsiyat shakllanishining uchta asosiy ustunidir [4, b. 123]. Sadriddin Ayniyning «Eski maktab» asari bilan shaxsiy xotiralar o‘rtasidagi bunday qiyosiy-tarixiy parallelizm Buxoro zaminida asrlar davomida amal qilib kelgan ta’limiy-tasavvufiy an’analar o‘z hayotiyligini yo‘qotmaganini to‘liq isbotlaydi.

Fidoiy ustozlarning jur’ati tufayli shakllangan bu nodir ta’limiy tajriba shaxsni tariqat va shariat masalalarida chuqur bilimga ega olim darajasiga ko‘tardi [5, b. 123]. Oddiy xalq orasida yuksak e’tirofga sazovor bo‘lish, yuqorida tahlil etilganidek, faqatgina rasmiy unvon emas, balki qalbi poklik, tariqat amallariga qat’iy rioya qilish hamda ajdodlar ma’naviy genetikasi bilan bog‘liq mukammallik natijasi edi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy muhit, Buxoro ta’lim an’analari va tariqat ustozlarining ta’siri xojagon-naqshbandiya silsilasidagi o‘rinni belgilab bergan asosiy omillardir. Muqaddas qadamjolar bilan bog‘liq ilohiy-ruhiy manbalar hamda oiladagi halol luqma va ma’naviy tarbiya omili birlashib, kelajakda tasavvuf tariqatining Buxorodagi ulug‘ amaliyotchilari va nazariyotchilaridan biriga aylanishiga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 460 b.

2. Boboyev H. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy va diniy-ma’rifiy qarashlari. – Toshkent: Adolat, 2021. – 280 b.

3. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.

4. Avloniy A. Turkiyi guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.

5. Erkaev A. Uchinchi Renessans: ma’rifiy va institutsional poydevor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 220 b.

AMIR XUSRAV DEHLAVIY MA’NAVIY MEROSIDA INSON VA AXLOQIY KOMILLIK MASALASI

Guljaxon Raimovna Kazimova

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Sharq mumtoz adabiyoti va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o‘zining bebaho hamda serqirra ijodi bilan o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirlardan biri Amir Xusrav Dehlaviydir. Allomaning boy ma’naviy merosida inson muammosi, uning qadr-qimmati, jamiyatdagi o‘rni va axloqiy kamoloti masalalari doimo markaziy o‘rinni egallab kelgan. Shoir o‘zining asarlarida, xususan, mashhur “Xamsa”sida va ko‘plab devonlarida insonni olamning gultoji sifatida ulug‘lab, uning aqliy, ma’naviy hamda axloqiy poklanish yo‘llarini chuqur badiiy-falsafiy mushohada qiladi.

Amir Xusrav Dehlaviy (yoki to‘la ismi Yaminiddin Abdulhasan) (1253–1325) – Sharq madaniyati, forsiya va hind adabiyoti hamda musiqa san’atida o‘chmas iz qoldirgan buyuk fors-tojik shoiri, yetuk adabiyotshunos olim va iqtidorli bastakordir. Uning otasi Sayfuddin Mahmud aslan Kesh (hozirgi Shahrisabz)lik bo‘lib, mo‘g‘ullar istilosi davrida Hindistonga ko‘chib o‘tgan va Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmish saroyida amirlik unvoniga sazovor bo‘lgan [1, b. 123]. Otasining jangda halok bo‘lishi va onasi Davlatnozbegim hamda bobosi Imodulmulk tarbiyasida kamol topishi yosh Xusravning ma’naviy va shaxsiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Yoshligidan favqulodda noyob qobiliyati va bilishga bo‘lgan ishtiyoqi bilan ajralib turgan bo‘lajak alloma o‘z davrining asosiy fanlarini chuqur egalladi. U turk, fors, arab hamda hind tillarini mukammal o‘zlashtirib, ko‘p tilli adabiy muhit faoliga aylandi [2, b. 123]. Shoirlik iste’dodini barvaqt namoyon etgan Xusrav Qozi Sa’duddin Muhammad hamda Xoja Aziziddin kabi ustozlar qo‘lida tahsil olib, Sharq adabiyoti va ilmiy tafakkuri cho‘qqilarini zabt etishga kirishdi.

Xusrav Dehlaviy serqirra ijodkor va davlat arbobi sifatida uch sulolaga mansub yettita sulton saroyida xizmat qilib, o‘zining ko‘plab asarlarini ushbu hukmdorlarga bag‘ishladi. Biroq umrining so‘nggi yillarida shohona hayot va saroy xizmatidan voz kechib, Chishtiya tariqatining

mashhur shayxi Nizomiddin Avliyoga murid tushdi. Tariqat bosqichlarini muvaffaqiyatli bosib o‘tib, valiulloh maqomiga erishgan shoir “Muhammad Kosales” faqirona ismini qabul qildi; u Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida ham avliyolar qatorida alohida e’tirof etilgan [3, b. 123].

Shoir forsiy she’riyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqib, o‘zidan keyin taxminan 500 ming baytga yaqin nihoyatda boy badiiy meros qoldirdi. Abdurahmon Jomiy va boshqa tazkiranavislar manbalarida uning 99 va hatto 199 ta kitob muallifi ekani ta’kidlanadi. Badiuzzamon Xurosoniyning e’tirof etishicha, Sharq adabiyoti tarixida hech bir shoir o‘zidan keyin Amir Xusravchalik ko‘p va sermahsul she’riy meros qoldirmagan [4, b. 123].

Xusrav Dehlaviy Sharq adabiyotida ilk bor umr fasllariga moslab devon tuzish an’anasini boshlab berdi, bu tajriba keyinchalik Jomiy va Alisher Navoiy kabi so‘z san’atkorlari tomonidan munosib davom ettirildi. Shoirning umumiy hajmi 32 645 baytdan iborat bo‘lgan “Tuhfat us-sig‘ar”, “Vasat ul-hayot”, “G‘urrat ul-kamol”, “Baqiyai naqiya” hamda “Nihoyat ul-kamol” nomli 5 ta devoni uning yoshlikdan to keksallikgacha bo‘lgan ijodiy kamolot yo‘lini yaqqol aks ettiradi.

Uning devonlaridan 2000 dan ortiq g‘azal, 300 atrofida qasida, 20 ga yaqin masnaviy, 1200 dan ziyod ruboiy va 500 tacha qit’alar o‘rin olgan bo‘lib, ular janrlar rang-barangligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi. Dehlaviy adabiyot tarixida nafaqat mumtoz g‘azalsaroy, balki Sharq poetikasi shakl va mazmunini sezilarli darajada boyitgan novator san’atkor sifatida tan olingan.

Xusrav Dehlaviy Sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”siga birinchi bo‘lib munosib javob yozish orqali xamsanavislik an’anasiga poydevor qo‘ydi. Uning 1299–1302 yillarda yozilgan “Matla’ ul-anvor”, “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Oinai Iskandariy” hamda “Hasht bihisht” dostonlaridan iborat “Xamsa”si ruhiyat teranligi va qalb boyligi bilan ajralib turib, o‘zidan keyingi butun bir shoirlar avlodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Shoir dostonchilik sohasida ham unumli ijod qilib, “Qiron us-sa’dayn”, “Miftoh ul-futuh”, “Duvalroniy va Xizrxon”, “No‘x sipehr” va “To‘g‘luqnoma” kabi yirik va tarixiy manba hisoblangan dostonlarni yaratdi. Shuningdek, uning 5 risoladan iborat “E’jozi Xusraviy” nasriy asari adabiyot nazariyasi, poetika va uslubiyat masalalarini ilmiy va teran tahlil etuvchi noyob manba sanaladi [5, b. 123].

Xusrav Dehlaviy nafaqat so‘z san’atida, balki musiqa sohasida ham sermahsul faoliyat yuritib, bir qancha kuylarni yaratgan va musiqaga oid risolalar yozgan. U o‘z asarlarida odil podsho orzusi, davlat mustahkamligi, mamlakat farovonligi, raiyat tinchligi, ma’rifat tantanasi hamda insonning axloqiy kamoloti muammosi kabi barcha zamonlar uchun dolzarb va hayotiy bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni yuksak mahorat bilan talqin etdi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Xusrav Dehlaviy o‘zining badiiy yuksak va ko‘p qirrali ijodi bilan Hindistondagi forsiyzabon adabiyotning tamal toshini qo‘ydi. Uning sa’y-harakatlari va bebaho merosi sababli Xuroson hamda Movarounnahr so‘z san’atidagi mavjud bo‘lgan barcha janrlar va poetik an’analar Hindiston adabiyotiga chuqur kirib bordi hamda Sharq madaniyatining umuminsoniy xazinasini boyitdi. Amir Xusrav Dehlaviyning ma’naviy va adabiy merosida inson va axloqiy komillik masalasi shunchaki epizodik mavzu emas, balki shoir butun ijodiy hamda falsafiy faoliyatining bosh g‘oyaviy o‘zagini tashkil etadi. Shu sababli, Amir Xusrav Dehlaviyning inson va uning axloqiy kamoloti haqidagi ta’limotini har taraflama o‘rganish hamda targ‘ib etish zamonaviy jamiyatda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jomiy A., Bahoriston, T., 1997; Samarqandiy D., Shoirlar bo‘stoni, T., 1981, Homidiy H., Ko‘hna Sharq darg‘alari, T., 1999. – 58 b.
2. Hikmatlar, T., 1973; Injular ummoni, T., 1988; 333 ruboiy, T., 1991. – 50 b. Козмоян А.К. Рубои в классической поэзии на фарси (X-XIIвв.). – Ереван, 1981. – 52 b.
3. Shomuhamedov Sh., Musayev B. Amir Xusrav Dehlaviy. – T.: Fan, 1971. – 66 b.
4. Shodiev, J. J. A step towards human dignity. golden brain, 1(24), 59-67.

5. Jo‘raqulovich, S. J. (2026). The strategic importance of developing youth spirituality in the development of new uzbekistan. BG pulse journal, 2(5), 2378-2383.

НАЖМИДДИН ҚАЗВИНИЙ ТАЪЛИМОТИДА ИНСОНИЙ НАФС МАСАЛАСИ

Аликулов Р.

Бухоро давлат техника университети мустақил тадқиқотчиси

Инсоннинг яралиши, моҳияти ва жамиятда тутган ўрни фалсафий муаммолар тизимида муҳим ўрин тутади. Турли фалсафий таълимотларда бу масалалар турлича талқин этиб келинган. Шундай бўлиши табиий ҳам эди, чунки инсон моҳиятан ижтимоий-тарихий ва маданий мавжудот сифатида ҳар бир янги тарихий шароитда ўзлигини чуқурроқ англашга, инсон моҳиятини рўёбга чиқаришга интилаверади.

Инсон моҳиятини фалсафий жиҳатдан чуқурроқ таҳлил қилишда шахс, индивид, индивидуаллик тушунчаларининг моҳиятини билиш ва уларни бир-биридан фарқлаш муҳимдир. Инсон оламларнинг таркибий қисмидир. Оламнинг ўзи бизга маълумки, руҳлар олами ва моддий оламдан ташкил топган. Моддий олам – бу маъданлар, ўсимликлар, ҳайвонлардан иборат, руҳий олам эса илоҳий бўлиб унда руҳдек латиф нарса инсон танасида ўрнашган.[1.51.] Яъни инсонда моддий оламдан тўрт унсур: тупроқ, ҳаво, сув ва олов унсурлари мавжуд бўлса, руҳий оламлардан: лоҳут, жабарут, малакутдан ўтиб, мулк оламида инсон танасига руҳ ўрнашган. Демак, инсон шу оламдаги икки бирлик: моддийлик ва руҳийликни ўзида бирлаштирган жонли зот бўлиб у икки оламнинг бириктирувчисидир.

Шарқ фалсафаси тарихида инсон бош мавзулардан биридир. Форобий фалсафасида инсон бутун борлиқ тараққиётининг маҳсули сифатида талқин қилинади. Мутафаккир инсоннинг барча олижаноб фазилатлари илм туфайли эканлигини, инсон ҳаётининг мазмуни - бахтли бўлиш ва бахтли қилишга интилиш, бунга эса фақат илм ва маърифат орқали эришиш мумкинлигини кўрсатади.[2.25.] Беруний ва Ибн Сино инсоннинг бошқа мавжудотлардан устунлиги ақл ва тафаккур туфайли эканлигини исботлашга ҳаракат қилдилар. Бундан фарқли ўлароқ, Абу Ҳомид Ғаззолий бу устунликни ақлда эмас, балки инсон қалбида эканлигини кўрсатди; ақл имкониятлари чекланганлигини исботлашга ҳаракат қилган тасаввуф таълимотида комил инсон асосий ғоялардан бири эди.[3.78.] Бу комиллик, асосан, маънавий баркамоллик, руҳий юксалиш, жисмоний орзу-истакларни идора қила билишда намоён бўлишини уқтирганлар. Шарқ фалсафасида инсон тўғрисидаги қарашлар ислом дини ғоялари, шарқона тафаккур ва турмуш тарзи билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланган. Ибн Арабий назариясида инсон фақат моддий мавжудот эмас, балки у “илоҳий омонат” ни ўз зиммасига олган руҳий мавжудотдир. Мукаллафлик, яъни Аллоҳнинг буйруқларини бажариш масъулияти инсоннинг борлиги ва мақсадига тўғридан-тўғри боғлиқ.[4.164.] Илоҳий омонат – бу Қуръоннинги Аҳзоб сурасидаги “Албатта, Биз омонатни осмонларга, ерга ва тоғларга таклиф қилдик. Бас, улар уни кўтаришдан бош тортдилар ва ундан қўрқдилар Уни инсон кўтарди”, деган 72-оятдаги мазмунни англатиб, “омонат” бу инсонга юклатилган масъулиятдир.

Жон фалсафа тарихида номоддий субстанция, руҳ билан маънодош тушунча. Қадимий таълимотларда инсон ва ҳайвон вужудида (баъзи ўсимлик ҳам) яшовчи, уйқуда ёки ўлим ҳолатида танани тарк қилувчи алоҳида куч (жоннинг кўчиши ҳақидаги таълимот-метемпсихоз).[6. 124-125.] Жон (руҳ) “мен кимман” деган чуқур маънавий моҳият бўлса, нафс “мен нима ҳоҳлайман” деган ички интилиш соҳаси ҳисобланади. Нафс тушунчаси фалсафада инсоннинг ички “мен”и, хоҳиш – истаклари, ҳис туйғулари ва руҳий қувватларини ифодаловси мураккаб тушунча. Ислом фалсафасида нафс инсоннинг шахсийлиги ва ички табиатини англатади. Шарқ мутафаккирлари нафсни тарбиялаш ва поклашни маънавий камолотнинг муҳим шарти деб ҳисоблашган. Айниқса, нафснинг азалий ёки ҳодис (яъни, яратилган)лиги файласуфлар, мутакаллимлар ва ирфоний мактаблар ўртасида баҳсга сабаб бўлган.

Нажмиддин Қазвиний нафснинг моҳияти жиҳатидан ғайримоддий эканлиги, унинг индувидиал мавжуд бўлиши учун тананинг зарурлигини исботлашга ҳаракат қилган. “Фараз қилайлик, нафс азалий нарса. Агар у ягона бўлса, Эшматнинг нафси Тошматнинг нафсининг айнан ўзи бўлар эди. Натижада, улардан бири билганини бошқаси ҳам билади, агар таъаллуқдан кейин ҳам битталигича қолса. Агар битталигича қолмаса, парчаланишни қабул қилувчи бўлиб қолади ва мужаррад (яхлит) бўлмай қолади. Бордию нафс аввалбошдан битта эмас, кўп бўлса, улар орасидаги фарқланиш моҳият ва унинг тақозоларида бўлмай қолади. Акс ҳолда, нафс моҳиятда муштарак бўлгани учун, фарқланиш унинг тақозоси бўлиб қолар эди. Иккинчидан, фарқланиш аразларда ҳам бўлмай қолади. Негаки, агар нафсга аразларнинг илҳақ бўлиши (дуч келиши) моҳият ёки бажарувчи сабабдан бўлса, лозим бўлиб қолади. Агар бадан сабабдан бўлса, нафс бадандан олдин баданга таъаллуқ топган дейишга тўғри келади”.[7.173.] Мутафаккир нафснинг азалий (олдиндан бор) эмас, балки ҳодис (тана билан бирга қужудга келган) эканини исботлаш учун иккита мантиқий зиддиятни келтиради. *Биринчидан,* нафс азалий ва ягона бўлса, у барча инсонларда умумий бўлиши керак. Унада инсоннинг билими бир-бирига ўтиши лозим. Бироқ реал ҳаётда инсонларнинг билими турлича бўлиб, нафсларнингазалий бирлиги назариясини бекор қилади. *Иккинчидан,* “Агар нафслар бадандан олдин кўп бўлса, уларни бир-биридан ажратиб турувчи белги нима? Моҳият бир бўлгач, уларни фақат бадан (материя) ажратиши мумкин” Агар нафслар азалий ва кўп бўлса, уларнинг ўзаро фарқини таъминловчи омил нима деган савол туғилади. Моҳият жиҳатидан нафслар бир-бирининг айни экан, уларнинг кўплиги фақат ташқи шартлар – яъни баданлар орқали юзага келади. Демак, бадандан олдин нафсларнинг кўплиги мазмунсиздир.

Нажмиддин Қазвиний фикрича, “айримлар нафсларнинг моҳият ва тақозоларда муштарак бўлишини, бир баданга таъаллуқли бўлишидан олдин шу баданга таъаллуқли бўла олмаслигини рад этиши мумкин. Улар фикрича, нафс бу бадандан олдин бошқа бир баданга, ундан олдин ҳам бошқа бир баданга ва ҳоказо чегарасиз баданларга таъаллуқ топиши мумкин. Таносух (яъни, руҳ бадан ўлимидан сўнг бошқа баданга кўчиб ўтади, дея даъво қиладиган фикр) фикрини маъқуллайдиганлар мана шундай дейдилар”.[7.173.] Демак, нафс моҳиятан бир хил. Шу туфайли уларнинг бири-биридан фарқи моҳиятда эмас, аразда ҳисобланади. Чунки, араз моҳиятдан ташқарида, айнан тана воситасида келади. Нафснинг шахс сифатида ажралиши фақат тана билан боғлангандан кейин содир бўлади. Тана бўлмаса, нафсларнинг кўплиги ҳам, индивидуал фарқлар ҳам бўлмайди.

Мутафаккир таносух, яъни жоннинг бир танадан бошқа танага ўтиш ғоясини рад этиб, нафснинг мужаррад (материядан холи) табиати ва тана билан бўлган органик боғлиқлиги орқали очиб беради. “Агар нафс бу бадандан олдин мавжуд бўлган бўлса, мавжуд бўлишда унга муҳтож бўлмас эди. Шунинг учун унга таъаллуқ топмайди, дейиш нотўғри. Чунки, нафс ундан беҳожат бўлган ҳолида унинг ҳодис бўлиши шарти билан унга боғланиши мантиқан жоиз”.[7.173.]

Нажмиддин Қазвиний таълимотида нима учун танасух мантиқсиз эканлиги калом илми нуқтайи-назардан таҳлил қилган. Чунки, бу ерда таъаллуқнинг ўзига хослиги бор. Нафс танага шунчаки “ташриф буюрмайди”, балки у билан органик, яъни моҳиятан боғланади. Боғланиш шунчаки тасодифий бўлса, нафс ҳар қандай баданга келиб кираверади, деган хулоса чиқади. Бироқ бу нафснинг индивид сифатидаги ўзига хослигини йўқотади. Бундан ташқари материяга боғлиқлик масаласи ҳам мавжуд. Нафснинг тана билан боғланиши фақат бадан тайёр бўлгандагина рўй беради. Бу эса ҳар бир баданга алоҳида нафс берилишини кўрсатади.

Нажмиддин Қазвиний таъллуқ ёки боғланиш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратган. “Нафс баданга эҳтиёж сезади, аммо бу эҳтиёж унинг мавжудлиги учун эмас, балки унинг ҳодис бўлиши ва муайян шахс сифатида шаклланиши учундир”.[7.173.] Демак, нафс азалий бўлганида, унга бадан керак эмас эди. Бироқ нафс ҳодис (яратилган) бўлгани туфайли, у мавжуд бўлиш учун бир “макон”га ёки “восита”га муҳтож. Бу восита эса тана ҳисобланади. Мутафаккир таълимотида нафс моҳиятан танадан мустақил бўлса-да, унинг

индивидуал хусусият касб этиши ва шахс сифатида шаклланиши тана билан боғлиқ. Шу билан бирга, “ягона жон” ғояси рад этилиб, ҳар бир инсон нафси унинг шахсий тажрибаси ва билими асосида шаклланиши таъкидланади. Бу нуқтаи назар таносух ғоясининг мантиқий жиҳатдан асоссиз эканини кўрсатади, чунки ҳар бир тана янги нафснинг пайдо бўлишига асос бўлади. Шунингдек, нафснинг ҳодис экани унинг қадр-қимматини пасайтирмайди, балки унинг тана билан ўзаро боғлиқ ҳолда ривожланиб, индивидуал камолотга эришишини англатади. Бу ғоялар ҳозирги кунда ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Нажмиддин Қазвинийнинг таълимотида нафснинг ҳодис эканлиги унинг қадр-қимматини пасайтирмайди, аксинча, инсоннинг жисмоний ва руҳий оламдаги органик бирлигини мустаҳкамлайди. Бу ғоялар ҳар бир инсоннинг ўз ҳаёти, билими ва маънавий камолоти учун шахсан масъул эканлигини илмий-фалсафий жиҳатдан асослаб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент.: Ғафур Ғулом, 2021. – Б.51.
2. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. – Тошкент, 2009. – Б. 25.
3. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мушкот ул-анвор. – Қоҳира. 1961. –Б.78.
4. Ибн Арабий. Ал-Футуҳот ал-Маккийя. – Байрут.: Дарул кутубил илмийя, 1985. Ж: 2. – Б. 164.
5. Фалсафа: қомусий луғат / Масъул муҳаррир Қ. Назаров. – Тошкент.: Шарқ, 2004. – Б. 124–125.
6. نجم الدين دبيران كاتبي قزويني. حكمة العين. تهران, انجمن آثار و مفاخر فرهنگی, 1384ش. ص 173.

VATANPARVARLIKNING AXLOQIY-MA’NAVIY ASOSLARI VA IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI O‘RNI

Siddiqov Ulug`bek Gafforovich

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Jamiyat hayotining barqarorligi kishilarning bir-biriga munosabati, umumiy qoidalarga ishonchi va o‘z majburiyatlarini bajarishga tayyorligi bilan bog‘liq. Inson boshqalardan adolat kutar ekan, o‘z xatti-harakatini ham shu mezon asosida baholashi zarur. Bunday o‘zaro talab axloqiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Vatanparvarlik ana shu munosabatlarni umumiy Vatan taqdiri uchun mas’uliyat bilan bog‘lovchi qadriyat sifatida ahamiyatlidir.

Ma’naviy qadriyatlar inson mazmunli va ardoqli deb biladigan maqsad hamda tamoyillarni ifodalaydi. Vatanparvarlik bu qadriyatlarni muayyan yurt va uning aholisi oldidagi burch bilan bog‘laydi. Ijtimoiy barqarorlik esa umumiy hayotning davomiyligi, munosabatlarning ishonchliligi va kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish qobiliyati orqali talqin etiladi.

Abdulla Sher «Axloqshunoslik» darsligida vatanparvarlikni insonparvarlik bilan bog‘liq axloqiy tamoyil sifatida yoritadi. Olimning «Vatan himoyasi, bu — inson himoyasi, millat himoyasi» degan fikri ushbu aloqani aniq ifodalaydi [1, 271-b.]. Bu mulohazani tahlil qilganda, Vatanning qadri unda yashovchi insonlarning hayoti va erkinligi bilan bog‘liqligi ko‘rinadi. Shundan kelib chiqib, fuqaroni tahqirlash, uning manfaatiga befarq bo‘lish yoki milliy mansubligi asosida kamsitish vatanparvarlikning insonparvar mazmuniga zid, degan normativ xulosa chiqarish mumkin.

Abdulla Sherning ushbu bo‘limda Vatanga xizmatni turli faoliyat sohalari bilan bog‘lashi ham muhimdir [1, 270–272-b.]. Mazkur qarash vatanparvarlikning axloqiy qiymatini kundalik munosabatlar orqali baholashga imkon beradi. O‘z ishiga puxta yondashish, vatandoshining huquqini hurmat qilish va umumiy mulkka ehtiyotkor bo‘lish Vatanga munosabatning amaliy ko‘rinishlari sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda insonning jamiyatga foydasi uning shaxsiy tanlovi va kasbiy mas’uliyati orqali namoyon bo‘ladi.

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida: «Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur», deb yozadi [2, «Haqqoniyat» bo‘limi]. Ushbu ta’rif vatanparvarlikning axloqiy mezonini aniqlashda ahamiyatlidir. Vatan manfaatini himoya qilish da’vosi rostgo‘ylik va halollik bilan tasdiqlanishi lozim. Masalan, kasbiy kamchilikni yashirish qisqa muddatda

muassasa obro‘sini saqlagandek ko‘rinishi mumkin, ammo u boshqalarga zarar yetkazsa, umumiy manfaatga xizmat qilmaydi. Avloniy fikrining zamonaviy talqini so‘z bilan faoliyat o‘rtasidagi muvofiqlikni talab etadi.

Qiyom Nazarov «Qadriyatlar falsafasi» asarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro munosabatini tahlil qiladi. Muallif ta’kidlaydi: «Shu bilan birga, muayyan milliy, sinfiy yoki boshqa xususiy qadriyatlar tizimi ham, umuminsoniy qadriyatlar tizimining o‘rnini bosa olmaydi» [3, elektron matn, 34-b.]. Bu fikr vatanparvarlikning axloqiy chegarasini belgilashga yordam beradi: yurtga sadoqat inson hayoti, qadr-qimmati va adolatga hurmat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Milliy manfaatni anglash boshqa xalqlarning sha’ni va huquqlarini tan olish bilan birga kechishi mumkin.

Abdurahim Erkayev «Ma’naviyat va taraqqiyot» kitobida: «Ma’naviyat inson kamolotiga, millat o‘zligini saqlashi, mustahkamlashi va jamiyatning sog‘lom taraqqiyotiga xizmat qiladi», deya ta’kidlaydi [4, 4-b.]. Shu sahifada olim o‘zaro yordam, mas’ullik va ijtimoiy hamkorlikning barqarorlikka ta’sirini ham ko‘rsatadi. Uning qarashidan kelib chiqib, ma’naviy qadriyatning ijtimoiy ahamiyatini kishilar o‘rtasidagi munosabatga qo‘shgan hissasi orqali baholash mumkin. Vatanparvarlik ham insonni mas’uliyatli faoliyatga undaganda jamiyat hayotida mazmun kasb etadi.

Mazkur qarashlarning qiyosi uchta o‘zaro bog‘liq jihatni ajratish imkonini beradi. Vatanparvarlikning predmeti umumiy Vatan va vatandoshlar hayotidir; uning axloqiy mezoni insonparvarlik hamda haqqoniyatdir; amaliy ifodasi esa, shaxsning mas’uliyatli faoliyatida ko‘rinadi. Bu umumlashtirish mahalliy mualliflarning turli yo‘nalishdagi fikrlarini bir tahlil doirasida bog‘laydi. Ularning asarlaridagi mulohazalar bugungi ijtimoiy muammolar uchun tayyor yechim sifatida emas, falsafiy izlanishning nazariy tayanchi sifatida qo‘llanmoqda.

Vatanparvarlikning axloqiy kuchi shaxsning o‘ziga qo‘yadigan talabida namoyon bo‘ladi. Vijdon insonni o‘z qarorining boshqalarga ta’sirini o‘ylashga, xatosini tan olishga va uni tuzatishga undaydi. Shu ma’noda, vijdoniy mas’uliyat umumiy qadriyatlarning ichki e’tiqodga aylanishini ifodalaydi. Fuqaro halollikni o‘zi uchun majburiy mezon deb bilsa, uning xulqi tashqi nazorat mavjud bo‘lmagan vaziyatda ham shu mezonga yo‘nalishi mumkin.

Bu jarayonning ijtimoiy natijasini ishonch tushunchasi orqali tushuntirish mumkin. Odamlar o‘zaro munosabatda va’daga amal qilish, rost ma’lumot berish va kelishilgan vazifani bajarishni kutadi. Bunday kutish muntazam tasdiqlansa, hamkorlik uchun axloqiy zamin mustahkamlanadi. Vatanparvarlikning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri aynan shu vositali aloqa orqali talqin etiladi: umumiy yurtga daxldorlik mas’uliyatli xulqqa undaydi, ishonchli xulq esa birgalikdagi faoliyatni davom ettirishga ko‘maklashadi.

Vijdon individual ong hodisasi bo‘lsa-da, uning shakllanishi ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq. Oilada, ta’lim muassasasida va ish joyida halollik qanday baholanishi shaxsning qadriyat haqidagi tasavvuriga ta’sir etadi. Adolatni targ‘ib qilib, amalda tanish-bilishchilikka yo‘l qo‘yish axloqiy talabning ishonchliligini zaiflashtiradi. Shu sababli vatanparvarlik tarbiyasida tarbiyachining shaxsiy namunasi, baholashning xolisligi va umumiy qoidalarning izchil qo‘llanishi birgalikda ko‘rilishi lozim.

Mas’uliyatning o‘zaro xususiyati ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Fuqaro jamiyat oldida burchga ega bo‘lganidek, ijtimoiy institutlar ham uning sha’ni, imkoniyatlari va murojaatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi zarur. Axloqiy barqarorlik bir tomonlama sadoqat talabi bilan mustahkamlanmaydi. U kishining o‘z hissasi qadrlanishiga va qoidalar boshqalarga ham bir xil tatbiq etilishiga asoslangan ishonchni talab qiladi.

Adolat vatanparvarlikning umumiy manfaatga yo‘nalishini tekshiruvchi mezondir. Muayyan qaror mamlakat uchun foydali deb taqdim etilganda, uning turli ijtimoiy guruhlarga ta’siri ham muhokama qilinishi lozim. Bunda kimning ehtiyoji hisobga olinayotgani, kim ortiqcha yukni ko‘tarayotgani va manfaatlar qanday muvozanatlashtirilayotgani ahamiyatlidir. Umumiy manfaatni bitta guruhning manfaatiga tenglashtirish fuqarolarning birgalikdagi hayoti haqidagi tasavvurni toraytiradi.

M. Viroli vatanparvarlikning fuqarolik talqinini umumiy erkinlik, umumiy manfaat va respublikaviy fazilatlar bilan bog‘laydi [5]. Bu yondashuv mahalliy olimlarning insonparvarlik va qadriyatlar haqidagi mulohazalari bilan qiyoslash uchun imkon yaratadi. Vatanga mansublik turli dunyoqarashdagi kishilarni umumiy hayot qoidalari atrofida birlashtirishi mumkin. Buning axloqiy sharti har bir fuqaroning qadrini e’tirof etish va uning fikrini tinglashga tayyorlikdir.

R. Schatz, E. Staub va H. Lavine tadqiqotida konstruktiv vatanparvarlik mamlakat hayotini yaxshilash maqsadidagi savol va tanqidni qo‘llab-quvvatlash bilan tavsiflanadi [6]. Ushbu farqlash vatanparvarlik va tanqidiy fikrlashning o‘zaro mosligini tushuntiradi. Asosli tanqid muammoni aniqlash, zararli amaliyotni tuzatish va umumiy manfaatni himoya qilishga yo‘naltirilganda axloqiy mas’uliyatning ifodasi bo‘lishi mumkin. Uning qiymati dalillarning ishonchliligi, muhokama usuli va taklif etilgan yechim bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy barqarorlikni turli fikrlarning mavjudligi bilan qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Fikrlar xilma-xilligi sharoitida ham o‘zaro hurmat, kelishilgan tartib va adolatli muhokama saqlanishi mumkin. Vatanparvarlikning barqarorlashtiruvchi vazifasi kelishmovchilikni bostirishdan ko‘ra, uni umumiy mas’uliyat doirasida hal etishga tayyorlikda namoyon bo‘ladi. Bu xulosa normativ talqin bo‘lib, uning muayyan muhitdagi samarasi alohida o‘rganilishi kerak.

Tahlil asosida vatanparvarlik tarbiyasining mazmunini uch yo‘nalishda boyitish taklif etiladi. Birinchisi, mahalliy olimlar asarlarini axloqiy vaziyatlar bilan bog‘lab o‘rganishdir. Masalan, Sherning inson himoyasi haqidagi fikrini kamsitishga munosabat, Avloniyning haqqoniyat tushunchasini kasbiy halollik, Nazarovning qadriyatlar haqidagi qarashini milliy va umuminsoniy manfaatlar muvozanati orqali muhokama qilish mumkin. Bunday mashg‘ulotda tayyor fikrni takrorlashdan tashqari, qarorning axloqiy asosini tushuntirishga e’tibor beriladi.

Ikkinchi yo‘nalish umumiy foydaga qaratilgan ixtiyoriy faoliyatni rivojlantirishdir. Mahalladagi keksa kishilarga yordam, madaniy merosni o‘rganish, jamoat joylarini asrash yoki imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay muhit yaratish loyihalari mas’uliyatni amalda tushunishga xizmat qilishi mumkin. Ishtirokchilar vazifani birgalikda belgilashi, mehnat taqsimotini kelishishi va natijani baholashi lozim. Faoliyatning tarbiyaviy qiymati uning ixtiyoriyligi va aniq ehtiyojga javob berishida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalish ta’lim va mehnat muhitida axloqiy izchillikni ta’minlashdir. Xolis baholash, murojaatni tinglash, xatoni tuzatish imkoniyati va bajarilgan ishni adolatli e’tirof etish qadriyatlarni kundalik tajribaga aylantiradi. Shu maqsadda ishtirokchining va’daga amal qilishi, umumiy mulkka munosabati, boshqalar fikrini tinglashi va nizoni muhokama orqali hal etishga intilishi kuzatilishi mumkin. Bular tayyor diagnostik shkala emas, kelgusi tadqiqotda tekshirilishi lozim bo‘lgan baholash yo‘nalishlaridir.

Raqamli muloqotda ham shu axloqiy talablar saqlanadi. Vatan manfaatini himoya qilishni da’vo qilgan axborotning haqiqatga mosligini tekshirish, boshqa shaxsning sha’nini hurmat qilish va xato ma’lumotni tuzatish fuqarolik mas’uliyatiga daxldordir. Axborotning hissiy ta’siri uning rostligini kafolatlamaydi. Shuning uchun media savodxonlikni haqqoniyat va vijdon haqidagi falsafiy muhokama bilan bog‘lash tarbiyaning mazmunini kengaytiradi.

Vatanparvarlikning axloqiy-ma’naviy asoslari inson qadrini hurmat qilish, haqqoniyat, vijdoniy mas’uliyat va umumiy manfaatni anglashda namoyon bo‘ladi. Abdulla Sher, Qiyom Nazarov va Abdurahim Erkayev qarashlari, shuningdek, Abdulla Avloniyning axloqiy merosi ushbu asoslarni falsafiy jihatdan tushuntirishga xizmat qiladi. Ularning qiyosiy tahlili Vatanga sadoqatning ijtimoiy qiymatini insonlarga munosabat va kundalik faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Qadriyatning e’tiqodga, e’tiqodning mas’uliyatli xulqqa aylanishi ijtimoiy ishonch orqali barqarorlikka hissa qo‘shadi. Bu jarayon adolatli institutlar, ochiq muloqot va ixtiyoriy fuqarolik ishtiroki bilan qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Shu bois vatanparvarlikni rivojlantirishda axloqiy tarbiya, shaxsiy namuna va ijtimoiy adolatni birgalikda ta’minlash asosiy amaliy yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sher A. Axloqshunoslik. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. 328 b. 270–272-b.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Ilk nashri: 1913. «Haqqoniyat», «Vijdon», «Vatanni suymak» bo‘limlari. Elektron matn.
3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. Ziyouz elektron matni, 85 b.
4. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. Toshkent: Ma’naviyat, 2009. 480 b.
5. Viroli M. For Love of Country: An Essay on Patriotism and Nationalism. Oxford University Press, 1997. DOI: 10.1093/0198293585.001.0001.
6. Schatz R. T., Staub E., Lavine H. On the Varieties of National Attachment: Blind Versus Constructive Patriotism. Political Psychology. 1999;20(1):151–174. DOI: 10.1111/0162-895X.00140.

СЎФИ ОЛЛОЁР ДАВРИДА МОВАРОУННАҲРДА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҲОЛАТ

Саидов И.

Бухоро давлат техника университети мустақил тадқиқотчиси

Ҳар бир халқнинг, юртнинг қадр-қиммати, унинг башарият тарихидаги ўрни ва мақоми жаҳон илм-фани ва маданияти ривожи, умумбашарий тамаддун ва тараққиётга қўшган ҳиссаси билан белгиланади. Демак, миллий қадриятлар шаклланишига амалий таъсир кўрсатувчи омиллардан яна бири шу юртдан етишиб чиқадиган буюк алломалар ҳамда улар яратган беназир асарлардир. Шу нуқтаи назардан қаралганда, бизнинг бой ва ибратларга тўла бир неча минг йиллик шонли тарихимиз, ўзига хос миллий қадриятларимиз, бетакрор илмий, маданий, маънавий, диний меросга эга халқ эканимиз дунё миқёсида эътироф этилган, этилмоқда. Айниқса, табаррук заминимиздан ўзларининг оламшумул аҳамиятга молик асарлари, абадий барҳаёт таълимотлари билан бутун дунёни лол қолдирган кўплаб буюк алломалар етишиб чиққанидан тарихдан маълум.

Мустақилликнинг дастлабки кунлариданоқ аждодларимиз амал қилиб келган улкан, бебаҳо миллий қадриятларимизни тиклаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган ниҳоятда муҳим вазифа бўлиб қолди. Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Янги Ўзбекистон – барчамизнинг эзгу орзумиз, меҳнаткаш, тинчликсевар халқимизнинг орзуси! Бу орзуда мужассам бўлган халқимизнинг истаги, хоҳиш-иродаси инсонпарвар ва тараққийпарвар ғояларда ўз ифодасини топганига қадим тарихимиз гувоҳ. Даврлар нафаси ва халқнинг эҳтиёж ҳамда манфаатлари, интилиш ҳамда орзу-ҳавасларига монанд равишда у, гоҳ эзгулик ва адолат, гоҳ қудратли давлат ва адолатли шоҳ, гоҳ комил инсон ва маърифатли жамият билан боғлиқ олижаноб ғояларда намоён бўлгани маълум”.[1.14.] Дарҳақиқат, одамлар онгида ўз миллий қадриятларини мустаҳкамлаш порлоқ истиқбол гаровидир. Ҳақиқатдан ҳам, миллий қадриятларни тиклаш, ўз навбатида, миллий ўзлигини англашга, миллий ҳис-туйғу ва ифтихорини ривожлантиришга самарали таъсир этади.

Ёшларимиз ўз бобокалонларининг илмий, адабий меросини қанчалик яхши билсалар, булардан илмий, айниқса, маънавий озиқ олиш билан бирга, улар билан ҳақли равишда фахрланадилар, уларга тақлид қиладилар ва пировардида, уларга муносиб бўлишга интиладилар. Чунки, муайян халққа, миллатга, унинг аждодларига тааллуқли, фарзандларига беқиёс куч етказилиши лозим бўлган қимматбаҳо моддий ва маънавий бойликлар миллий қадриятдир. Миллатимиз шакллана бошлаган даврдан буён то ҳозирга қадар яратилган, ривожлантирилиб, қарор топтирилган, бугунги кун авлодлар фойдаланаётган ва ардоқлаётган асл қадриятлар эса ўзбек миллий қадриятидир. Бундай қадриятлар сирасига шу халқнинг ўзи яратган, бойитган, сақлаб келаётган, аждодлардан авлодларга мерос қолиб, ривожланиб бораётган бойликлар, буюк бобокалонларимизнинг илмий, фалсафий, маданий, бадиий асарлари, анъана, маросим ва бошқа қадриятлар киради.

Нақшбандия-мужаддидия тариқатининг намоёндаси Сўфи Оллоёр XVII-XVIII асрлар Моваройннаҳрда аштархонийлар давлати ҳукмронлик қилган даврда яшаб ижод

этган. Аштархонийлар даври Бухоро тарихида кўплаб ўзгаришлар билан ажралиб туради. Сулоланинг давлат бошқарувидаги услуби, марказий ҳокимиятга интилиши, ҳарбий ислоҳотлар, дин ва маърифатга бўлган муносабати, уларнинг тарихий шахс сифатида тутган ўрни – буларнинг барчаси тарихий манбалар асосида таҳлил этилиши зарур бўлган масалалардир. Айниқса, бу даврда Бухоронинг яна илм-фан ва дин марказига айланиши, йирик мадрасалар ва кутубхоналар фаолиятининг кучайтирилгани тарихий жиҳатдан муҳим жараён ҳисобланади.

Аштархонийлар даврида халқаро савдо алоқалари ривожланди. Хорижий давлатлар билан дипломатик ва иқтисодий мунособатлар ўрнатилди. Бу эса Бухоро хонлигининг нуфузини оширишга хизмат қилди. Савдо йўллари фаол ишлади, карвонсаройлар, бозорлар ва божхона тизими ривожланди. Шу билан бирга, ички сиёсий бошқарувда амирлар, беклар ва диний раҳбарларнинг роли ошиб борди. Буларнинг барчаси ўша давр ижтимоий-сиёсий ҳаётининг мураккаблигини кўрсатади.

Тадқиқотчи олим Азамат Замоновнинг келтирилишича, Вали Муҳаммад ҳукмронлиги даврида (1606-1611) ички курашлар янада кучайди, йирик ўзбек қабилалари беклари иқтисодий-сиёсий жиҳатдан катта кучга эга бўлиб, хон ҳокимиятига бўйсунмас эдилар. Марказий ҳокимият мамлакатда вазиятни назорат қилолмас, ҳудудий яхлитлигини таъминлай олмас эди. Янги хоннинг марказий ҳокимиятни кучайтиришга бўлган интилиши унга қарши фитна билан якунланди ва тахтни Боқи Муҳаммаднинг ўғли Имомқулихон эгаллади. У ўзининг нисбатан узоқ давом этган ҳукмронлиги даврида (1611-1742) хонликда ҳукм сураётган ўзаро феодал урушларга чек қўйишга ва марказий ҳокимиятни мустаҳкамлашга муваффақ бўлган бўлса-да, Хуросон ва Хоразмни қайта қўлга кирита олмади. Тошкент ва хонликнинг шимолий чегаралари учун кўчманчи қабилалар: қозоқлар, қалмиқлар, мўғулларга қарши муваффақиятли кураш олиб борди ва хонлик ҳудудини шимоли-шарққа кенгайтирди. Бу даврда хон ҳокимиятининг мавқейи ошди, ички вазият бирмунча яхшиланди.[2.56.]

Аштархонийлар давлат тизими ўз тузилиши, моҳиятига кўра Шайбонийлар давлат тизимидан деярли фарқ қилмас эди. Хон расман олий ҳокимият бошлиғи бўлиб, давлатнинг ички ва ташқи сиёсатга боғлиқ барча масалалар унинг ихтиёри билан ҳал қилинар эди. Лекин амалда кўпгина аштархоний ҳукмдорлар йирик сарой амалдорлари қўлида ўйинчоқ бўлиб қолган бўлсада, жойларда маҳаллий ҳокимият тамомила вилоят ҳокимлари ихтиёрида эди. Бу марказий бошқарувнинг заифлиги оқибати бўлиб, у кўп ҳолларда мамлакатни инқирозга олиб келарди.

Аштархонийлар даврига хос бўлган ўзаро урушлар, сиёсий тарқоқлик, солиқларнинг муттасил ошиб бориши иқтисодиётни, унинг етакчи тармоғи бўлган қишлоқ хўжалигини инқирозли аҳволга солиб қўйди. Бу давр деҳқончилигида ўрта асрларга хос ер эгалиги, иқтисодий муносабатлар тўла сақланиб қолди. Анъанавий ер эгалиги ҳам сақланиб келар эди. Бу даврда маъмурий ва диний амалдорларга тегишли бўлган суюрғол, иқто ерлар ҳамда вақф ерлари кўпайиб борди. Бу ерларда асосан, оддий деҳқонлар ижарага ер олиб ишлардилар. Қишлоқ хўжалигида анъанавий озиқ-овқат экинлари етиштирилган ва бу маҳсулот ички эхтиёжни қондиргани ҳолда, бир қисми четга ҳам чиқарилган. Аштархонийлар даврида чорвачилик ҳам қишлоқ хўжалигининг етакчи тармоғи сифатида фаолият кўрсатиб келди.[3.125.]

Ҳунармандчиликнинг асосий марказлари шаҳарлар бўлиб қолган бўлсада, ўзаро иқтисодий муносабатларнинг заифлашиши ва натурал хўжаликнинг ривожланиши сабабли, энг керакли ҳунармандчилик маҳсулотларини етиштириш кўпгина йирик қишлоқларда ҳам ривожлана бошлади. Мамлакатнинг ҳунармандчилик маҳсулотларига бўлган эхтиёжи асосан маҳаллий хунармандлар маҳсулотлари ҳисобига қондирилар эди. Бу даврда тўқимачилик ва у билан боғлиқ ҳунармандчилик турлари (ип йигириш, газламалар тайёрлаш, тайёр кийимлар тикиш ва бошқалар) ривожланишда давом этиб, бу соҳа бутун ўрта асрлар даврида бўлганидек хунармандчиликнинг етакчи тармоғи бўлиб қолди. Шу билан бирга кулолчилик ҳам ривожланиб борди. Бу давр хунармандчилигида мета л ва

ёғочга ишов бериш, ёғоч ва ганч ўймакорлигида ҳам ўрта аср анъаналари давом эттирилиши билан бирга кўпгина ўзига хосликлар кўзга ташланади.

Мамлакат иқтисодий ҳаётида савдо-сотиқнинг ўрни ва аҳамияти хатто урушлар кучайган даврда ҳам бирмунча сақланиб қолди. Асосий савдо марказлари сифатида Бухоро, Самарқанд, Қарши, Тошкент, Балх ва бошқа йирик шаҳарларнинг мавқеи ошиб борди. Хонликда деҳқончиликдан, чорвачилик ва ҳунармандчиликдан олинадитган маҳсулотларнинг турли-туманлиги ички савдонинг ривожланишига катта таъсир кўрсатди. Бу даврда ташқи савдо алоқалари ривожланди. Хусусан, Россиянинг турли савдо шаҳарлари (Астрахан, Оренбург, Сибирдаги шаҳарлар), Ҳиндистон, Эрон, Қошғар, Туркия билан савдо-сотиқ олиб борилди. Ташқи бозорга асосан турли қишлоқ хўжалик маҳсулотлари чиқариларди. Бу даврда пахта, тери, жун, турли матоларнинг асосий харидори сифатида Россия катта аҳамиятга эга бўла бошлади.[4.180-190.]

Нодир Муҳаммадхон (1642-1645), Абдулазизхон (1645-1681) ва Субхонқулихон (1681-1702) даврида мамлакатда сиёсий вазият яна издан чиқди. Бу хонлар маҳаллий феодалларга ва ташқи душманларга қарши тўхтовсиз урушлар олиб боришга мажбур бўлдилар. Бу курашларда ҳокимиятнинг асосий таянчи дин пешволари эди. Шу сабали бу даврда ер майдонлари оммавий равишда диний маҳкамалар ва йирик уламолар ихтиёрига ўта бошлади. Мамлакатда диний мутаассиблик кучайди. Бу ўз навбатида давлат ва жамият тараққиётига тўсқинлик қилар эди. Бу даврда Жўйбор хўжаларининг авлодлари мавқеи жуда юқорига чиқади. Асосий солиқ тўловчи фуқаро – раиятнинг аҳволи янада ёмонлашди. Аштархонийлар даврида ўзаро ички урушлар авж олиб, ҳарбий соҳада жиддий ўзгаришлар, ислоҳотлар қилинмади. Қўшин тузилиши ва жанг олиб бориш усули аштархонийлар давридагидек бўлиб, бу усул бу даврга келганда ўз аҳамиятини йўқота бошлаган эди. Мамлакатда ташқи ва ички душманларга тўсиқ бўла оладиган қудратли ҳарбий қўшиннинг барпо этилмаганлиги, уюшган марказий қўмондонликнинг йўқлиги сабабли Аштархонийлар даврида Бухоро хонлиги харбий жиҳатдан ўта заифлашиб кетди.

Ана шундай ижтимоий-сиёсий беқарорлик давр мутафаккирларини ҳам бефарқ қолдирмаган. Улардан бири Сўфи Оллоёр бўлиб, Мутасаввиф ўз асарларида давр ҳақида маълумот беради, турли тариқат ва оқимларга мансуб бўлган айрим шахслар ўзларини “ориф”, “аҳли тариқа” деб эълон қилсалар-да, уларнинг қарашлари ҳақиқий илм ва шариат талабларига мос келмаслигини келтиради.

Бани одамда бордур бир фариқа,
Тутарлар ўзларини аҳли тариқа.[5.48.]

Мутасаввиф ақида хусусидаги қарашлари жамиятни қайта тарбиялаш, унинг вужудини турли маънавий маразлардан даволаш ва инсонларни ҳақиқатга чорлашга хизмат қилади. Сўфи Оллоёрнинг ақидавий қарашлари фақат диний таълимотни тушунтириш билан чекланмай, балки жамиятнинг маънавий ҳаётини соғломлаштиришга қаратилган ижтимоий-фалсафий дастур сифатида намоён бўлади. Жамиятни ислоҳ қилиш сиёсий ёки иқтисодий ислоҳотлардан аввал инсоннинг ички дунёсини, эътиқоди ва ахлоқини ислоҳ қилишдан бошланиши лозим. Зеро, маънавий етук инсонлардан ташкил топган жамиятгина адолат, ҳамжиҳатлик ва эзгулик тамойиллари асосида тараққий эта олади.

Сўфи Оллоёрнинг сохта тариқатларга қарши муносабати диний экстремизм, хурофот ва жоҳилликка қарши маърифий кураш сифатида ҳам баҳоланади. Мутасаввиф динни шахсий манфаат воситасига айлантиришга қарши чиқиб, ҳақиқий эътиқод инсонни камтарлик, ҳалоллик ва маънавий комилликка етаклаши лозимлигини таъкидлайди.

Сўфи Оллоёр яшаган ижтимоий-маънавий муҳитда Мовароуннаҳр маданияти зодагон маданиятига хос хислатларга эга бўлган. Мовароуннаҳрда аштархоний сулола вакиллари бўлган хонлар Самарқанд, Тошкент, Бухоро, Балх шаҳарларида ўзларига атаб бир қанча мадраса ва масжидлар барпо этганлар. Халқнинг маънавий ҳаёти мусулмон динининг ақидалари остида кечар, руҳонийлар баъзи диний ақидаларга сўзсиз итоат

қилишни талаб қилар, халқни турли бидъатлар қаршисида ожиз, қўрқувда тутишдан манфаатдор эдилар.[6.34.]

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021.
2. Замонов А. Бухоро хонлигининг Аштархоний ҳукмдорлари: давлат бошқаруви ва ташқи сиёсат. – Тошкент: “Баёз”, 2018.
3. Алексеев А.К. Политическая история Бухарского ханства при Аштараханидах (XVII – начало XVIII в.). – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2006.
4. Замонов А. Бухоро хонлигининг Аштархоний ҳукмдорлари: давлат бошқаруви ва ташқи сиёсат. – Тошкент: “Баёз”, 2018.
5. Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин. – Тошкент: Меҳнат, 1991.
6. Ҳошимхонов М. Машраби мўътабар ўзим. – Тошкент.: Nashirlik yog`dusi, 2018.

SO‘FI OLLOYOR ILMIY MEROSINING YEVROPADA TADQIQ ETILISHI

Tojiyev Fazliddin Hayitmurod o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

Tasavvufiy tafakkurda ma’naviy kamolot insonning tayyor holati emas, uning butun hayoti davomida kechadigan ichki o‘zgarish jarayonidir. Inson jismoniy va aqliy imkoniyatlar bilan birga, nafs, kibr, g‘aflat, hirs, hasad va riyoga moyillikni ham o‘zida mujassam etadi. Shu sababli komillik insondagi tabiiy imkoniyatlarning o‘z-o‘zidan rivojlanishi emas, balki ularning e’tiqodiy, ma’rifiy va axloqiy mezon asosida tarbiyalanishini anglatadi. “Tasavvufda tarbiya tashqi xatti-harakatni nazorat qilishdan boshlansa-da, uning asosiy maqsadi shaxsning ichki qiyofasi, niyati va qadriyatlar tizimini o‘zgartirishdan iborat” [1].

Mutasavvif olim va Naqshbandiya tariqati (“Sabot ul-ojizin” asarida olimning malomatiylik tariqatiga oid sheriy satrlarini ham ko‘rishimiz mumkin[2]) davomchisi So‘fi Olloyor ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish tarixi zamonaviy akademik tadqiqotlardan ancha oldin, mutafakkir asarlarining qo‘lyozma nusxalarini ko‘chirish, ularga lug‘at va sharhlar tuzish jarayonidan boshlangan. “Maslakul muttaqin”ga tuzilgan, maxsus diniy-tasavvufiy istilohlarni qamrab olgan lug‘atlar, shuningdek, “Sabotul ojizin”ni baytma-bayt izohlashga qaratilgan sharhlar asarning dastlabki o‘rganilish bosqichini tashkil etadi. XVIII asr oxirida Tojuddin Yolchiqul o‘g‘li tomonidan yaratilgan “Risolai Aziza” asarning leksik, aqidaviy, axloqiy va badiiy ma’nolarini ochish bilan birga, So‘fi Olloyor tarjimai holi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni ham saqlab qolgan muhim manbadir. Keyinchalik Ubaydulloh ibn Islomqulning «Sharhi sufiya», Salohiddin Salimiyning “Irshod al-g‘ojizin”, Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon al-Farg‘oniy al-Qobuliyning “Hidoyatut tolibin” hamda Shayx Muhammad Said Turkistoniyning sharhlarida “Sabotul ojizin”dagi aqida, fiqh, axloq va tasavvufga oid masalalar diniy-germenevtik usulda talqin qilingan [3]. Ayni paytda “Risolai Aziza”da keltirilgan ayrim biografik xabarlarning Sadriddin Ayniy va Po‘latjon Qayyumiy tazkiralaridagi ma’lumotlar bilan to‘liq tasdiqlanmasligi ushbu manbalarga tarixiy-tanqidiy yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahon sharqshunosligida So‘fi Olloyor shaxsiyati va asarlariga ilmiy qiziqish XIX asrning o‘rtalaridan boshlangan. I.N. Berezin tuzgan “Turkiy xrestomatiya” ning birinchi jildida “Sabotul ojizin” dan parchalar e’lon qilinishi asarning Yevropa va Rossiya ilmiy muhitiga kirib borishiga zamin yaratgan. Vengr sharqshunosi Herman Vamberi Markaziy Osiyoga safari davomida So‘fi Olloyor asarlarining qo‘lyozma nusxalarini o‘rganib, mutafakkir ijodining mintaqa xalqlari orasida keng tarqalganiga e’tibor qaratgan. Turkolog N.F. Katanov esa “Mistik Allayar” maqolasida mutafakkirning qisqacha tarjimai holini bayon qilib, uning diniy-falsafiy asarlari Markaziy Osiyo musulmonlari orasida mashhur bo‘lganini qayd etgan. V.V. Bartold asarlarida ham So‘fi Olloyor ommalashgan turkiy mualliflardan biri sifatida tilga olingan[4]. Mazkur tadqiqotlar mutafakkir merosining tarqalish geografiyasi, tili, nashr tarixi va madaniy mavqeini aniqlashga xizmat qilgan bo‘lsa-da, uning tasavvufiy ta’limoti maxsus falsafiy tizim sifatida tahlil etilmagan.

Sharq, xususan, Volgabo‘yi va Uraloldi musulmon intellektual muhitida So‘fi Olloyor merosiga qiziqish alohida ilmiy-adabiy an’anaga aylangan. Qayum Nosiriy “Majma’ ul-axbor” asarida Tojuddin Yolchiqul ma’lumotlariga tayanib, So‘fi Olloyor hayoti va ijodi haqida fikr yuritgan; M.Akchurina “Sabotul ojizin” ning ma’rifiy va badiiy qimmatiga baho bergan; G‘.G‘aziz va G‘.Rahim esa tatar adabiyoti tarixi doirasida mutafakkir asarining Volgabo‘yi xalqlari ma’naviy hayotidagi o‘rnini ko‘rsatgan. A.Karimullin So‘fi Olloyor asarlarining Qozon matbaalaridagi nashrlariga oid bibliografik ma’lumotlarni tizimlashtirgan, F.Z. Yaxin “Sabotul ojizin” matnini nashrga tayyorlab, uni zamonaviy tatar tiliga tabdil qilgan, X.Y. Minnegulov esa So‘fi Olloyor va Tojuddin Yolchiqul ijodi o‘rtasidagi adabiy-g‘oyaviy aloqalarni o‘rgangan [5]. Ushbu tadqiqotlarda “Sabotul ojizin” ning tatar adabiyoti va axloqiy-ma’rifiy tafakkuriga ta’siri keng yoritilgan, biroq asardagi irfoniy bilish, insonning ma’naviy o‘zgarishi va ijtimoiy burch masalalarining falsafiy mazmuni mustaqil muammo sifatida ajratilmagan.

MDH davlatlaridagi So‘fi Olloyorshunoslikning maxsus tadqiqot darajasiga ko‘tarilishi R.R. Maxonovaning “So‘fi Olloyor ijodi va uning tatar adabiyotidagi an’analari” mavzusidagi dissertatsiyasida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi mutafakkir asarlarining tatar kitobxonligida tarqalishi, Tojuddin Yolchiqul sharhining o‘rni hamda So‘fi Olloyor g‘oyalarining G‘abdurahim Utiz Imoniy, Shamsiddin Zakiy, Qayum Nosiriy, Majit G‘afuriy va boshqa ijodkorlar merosida davom ettirilishini qiyosiy-tarixiy yo‘nalishda tahlil qilgan [6]. L.V. Dmitriyeva turkiy qo‘lyozmalar tavsifi orqali So‘fi Olloyor asarlarining qo‘lyozma nusxalari haqida muhim manbashunoslik ma’lumotlarini ilmiy muomalaga kiritgan. Mazkur ishlar mutafakkir merosining mintaqalararo ta’siri va adabiy vorisiyligini ochishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, asosan filologiya, qo‘lyozmashunoslik va adabiy aloqalar doirasida amalga oshirilgan.

Turkiya va boshqa xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan zamonaviy izlanishlarda So‘fi Olloyorning hayoti, tariqat mansubligi, asarlarining manbalari va til xususiyatlari tadqiq etilgan. Abid Nazar Mahdum dastlab “So‘fi Olloyor va uning “Sabotul ojizin” asari” mavzusida magistrlik dissertatsiyasini tayyorlagan, keyingi maqolasida esa asarning Qur’on, hadis, hanafiy aqidasi, fiqhiy va tasavvufiy manbalar bilan munosabatini qiyosiy misollar orqali ko‘rsatgan. A.Deniz Abik “Sabotul ojizin” ning XVIII asr Sharqiy turkiy adabiy tilidagi o‘rni va mahalliylashuv xususiyatlarini o‘rgangan. Abdurahim Vubuli Sharqiy Turkiston madrasalarida So‘fi Olloyor asarining ta’limiy vazifasini tadqiq etgan. Nejdet Tosun mutafakkirni Markaziy Osiyo naqshbandiya-mujaddidiya an’anasining vakili sifatida tavsiflagan [7]. Aleksandr Papas esa “Sabotul ojizin” ni Markaziy Osiyo tasavvufida axloq, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy tarbiya munosabatlarini ifodalovchi manba sifatida talqin qilgan. Ushbu tadqiqotlar So‘fi Olloyor merosining xalqaro ilmiy ahamiyatini ko‘rsatsa-da, ularda mutafakkirning barcha asarlari negizida shakllangan tasavvufiy-falsafiy konsepsiya yaxlit holda qamrab olinmagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, So‘fi Olloyor ilmiy merosi dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Asarlari tadqiq qilinib, sharq va g‘arb olamining nufuzli kutubxonalarida saqlanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – B. 3–12, 70–89.

2. Тожиев, Ф. (2026). Маломатийлик таърифи:“Сабот ул-Ожизин” да маломатийлик ғояларининг фалсафий таҳлили. Falsafa va Huquq jurnali, 2026(01).

3. Тожуддин Ёлчиқул ўғли. Рисолаи Азиза: «Саботул ожизин» шарҳи / тузувчи Б. Ҳасан. – Тошкент: А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2000. – 256 б.; Салими Салоҳиддин. Иршод ал-ғожизин шарҳи «Саботул ғожизин». – Қозон: Матбааи Каримия, 1902. – 236 б.; Саййид Ҳабибуллоҳ ибн Саййид Яҳёхон ал-Фарғоний ал-Қобулий. Ҳидоятут толибин: «Саботул ожизин» шарҳи / нашрга тайёрловчи О. Алимов. – Тошкент, 2009.

4. Турецкая хрестоматия / сост. И.Н. Березин. В 3 т. Т. 1. – Казань: Типография Казанского университета, 1857. – С. 318–339; Вамбери А. Очерки Средней Азии. – М.: Издание А.И. Мамонтова, 1868. – С. 336–337; Катанов Н.Ф. Мистик Аллаяр // Деятель. –

1896. – № 6. – С. 339–341; Бартольд В.В. Сочинения. Т. 5: Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. – М.: Наука, 1968. – С. 609.

5. Насыйри К. Мәҗмәгыл-әхбар. – Казан, 1895. – Б. 160–162; Акчурина М. «Сөбател-гаҗизин» китабы // Шура. – 1917. – № 8. – Б. 181–182; Газиз Г., Рахим Г. Татар әдәбияты тарихы. 1-қисм, 2-бўлим. – Казан: Татарстан Республикаси давлат нашриёти, 1923. – Б. 144–155; Каримуллин А. У истоков татарской книги: от начала возникновения до 60-х годов XIX века. – Казань: Татарское книжное издательство, 1971. – С. 122, 127; Суфи Аллаһияр. Сөбател-гаҗизин: Ғажизларга терәк / нашрга тайёрловчи ва кириш мақоласи муаллифи Ф.З. Яхин. – Казан: Хәтер, 2002. – 399 б.

6. Маханова Р.Р. Творчество Суфи Аллаяра и его традиции в татарской литературе: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2008. – 29 с.; Дмитриева Л.В. Описание тюркских рукописей Института востоковедения. Т. III. – М.: Наука, 1980. – С. 92–100.

7. Mahdum A.N. Sûfî Allahyâr ve Sebâtü'l-Âcizîn'i: yayımlanmamış yüksek lisans tezi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1993; Mahdum A.N. On the Sources of Sebâtü'l-Âcizîn by Sûfî Allahyâr // Türkiyat Mecmuası. – 2011. – C. 21. – № 2. – P. 239–254; Abik A.D. Sûfî Allahyâr ve Sebâtü'l-Âcizîn'i: 18. yüzyıl Doğu Türk edebî dilinde mahallîleşme eğilimleri üzerine // International Journal of Central Asian Studies. – 2007. – Vol. 11. – № 1. – P. 52–73; Wubuli A. Doğu Türkistan medreselerinde İslam düşüncesi: Sûfî Allahyar'ın Sebatü'l-Âcizin adlı eseri ekseninde inceleme: yüksek lisans tezi. – Ankara: Ankara Üniversitesi, 2015; Tosun N. Sûfî Allahyâr // TDV İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV İslâm Araştırmaları Merkezi, 2019; Papas A. Sufism and Ethics in Central Asia: Ṣūfī Allāhyār's Thabāt al-ʿĀjizīn // Mysticism and Ethics in Islam. – Beirut: AUB Press, 2023. – P. 379–388.

8. Tojiyev, F. faylasuf va tasavvuf namayondasi Muhyiddin ilmiy me'rosi va u davrdagi ijtimoy-madaniy muhit.

JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMIDA TALABALARNI AXLOQIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH: O'QITUVCHI FAOLIYATI VA IJTIMOIY BARQARORLIK

Fayziyeva Shahnoza Ismatovna, Odilova Maftuna Dilmurodovna
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o`qituvchilari

Jamoat salomatligi texnikumida ta'lim olayotgan o'quvchi kelajakda bemor, uning yaqinlari va tibbiyot jamoasi bilan ishlaydi. Uning so'zi, muomalasi va qarori insonning o'zini xavfsiz his etishiga, berilgan ma'lumotni tushunishiga va yordamga murojaat qilishga tayyorligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli kasbiy tayyorgarlikda bilim va amaliy ko'nikmalar bilan birga axloqiy qaror qabul qilish, boshqalarni hurmat qilish va o'z harakati uchun javob berish qobiliyati rivojlantirilishi lozim.

O'qituvchining tarbiyaviy ta'siri mashg'ulotdagi kundalik munosabatlarda ko'rinadi. O'quvchining savolini tinglash, bahoni asoslash, xatoga xolis munosabat bildirish va va'daga amal qilish orqali pedagog amalda muomala me'yorlarini namoyish etadi. O'quvchi shu tajribalar asosida kasbiy muhitda qanday xatti-harakat ma'qullanishini anglaydi. Tarbiyaviy ishning mazmuni dars, amaliyot va texnikumdagi umumiy muhit bilan uyg'un bo'lganda qadriyatlarni muayyan vaziyatga tatbiq etish imkoniyati kengayadi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur" degan fikr bilan ifodalaydi [1, "Tarbiyaning zamoni" bo'limi]. Mazkur qarashni texnikum faoliyatiga tatbiq etishda tarbiyani muntazam muomala, mehnat va mas'uliyat tajribasi bilan bog'lash mumkin. O'quvchining halolligi topshiriqni mustaqil bajarishida, mas'uliyati esa o'z xatosini tan olib tuzatishida ko'rinadi.

UNESCOning Bioetika va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida inson qadr-qimmati, shaxs mustaqilligi, maxfiylik, tenglik va kamsitmaslik tamoyillari belgilangan [2]. Ushbu tamoyillar o'quvchiga murakkab vaziyatni baholash uchun tushunarli mezon beradi.

Masalan, bemorga oid ma’lumotni muhokama qilishda ta’limiy manfaat bilan shaxsiy hayot daxlsizligi birgalikda ko‘rib chiqiladi. Milliy qadriyatlardagi izzat-hurmat va g‘amxo‘rlik kasbiy faoliyatda bemorning xohishini tinglash hamda uning sha’nini saqlash orqali ifodalanishi mumkin.

Xalqaro hamshiralar kengashining 2021-yildagi axloq kodeksi hamshiralar va hamshiralik ta’limi oluvchilarining axloqiy qadriyatlari hamda kasbiy mas’uliyatini bayon qiladi [3]. Bu hujjat texnikumdagi tegishli yo‘nalishlar uchun muhokama manbai bo‘la oladi. O‘qituvchi umumiy tamoyilni o‘quvchining bo‘lajak vazifasi bilan bog‘lashi zarur. Shunda mehr-shafqat bemorni sabr bilan tinglashda, halollik kuzatuv natijasini to‘g‘ri qayd etishda, mas’uliyat esa bilmagan masalada rahbardan yordam so‘rashda aniq mazmun kasb etadi.

F. Hafferty tibbiy ta’limdagi “yashirin o‘quv dasturi” tushunchasi orqali muassasa madaniyati va norasmiy munosabatlarning ta’limiy ta’siriga e’tibor qaratadi [4]. Texnikum sharoitida bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, axloq haqidagi dars mazmuni baholash va kundalik muomala tartibida ham aks etishi kerak. Agar darsda adolat targ‘ib qilinib, amalda ayrim o‘quvchilarga tushuntirilmagan imtiyoz berilsa, tarbiyaviy mazmunning ishonchliligi zaiflashishi mumkin. Muassasa ichidagi qoidalar ham shu sababli ochiq va izchil bo‘lishi lozim.

Kasbiy o‘zlikning shakllanishiga bag‘ishlangan E. Y. H. Koh va hammualliflarning tizimli qamrovli sharhi namuna orqali o‘rganishning shaxsiy va muhit omillari bilan bog‘liqligini muhokama qiladi [5]. Ushbu tadqiqot tibbiy ta’limga oid bo‘lib, uning xulosalarini texnikumga moslashtirish talab etiladi. Pedagogik taklif sifatida amaliyot rahbari va fan o‘qituvchisi o‘rtasida bemor bilan muomala, maxfiylik va xatoni muhokama qilish bo‘yicha bir xil tushunchalarni shakllantirish maqsadga muvofiq. O‘quvchi turli mashg‘ulotlarda o‘zaro mos namunalarni ko‘rishi kerak.

Adolatli baholash o‘quvchiga o‘z mehnati bilan natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Buning uchun topshiriq mezonlari oldindan tushuntiriladi, fikr-mulohaza aniq ishga qaratiladi va bahoga doir savolga asosli javob beriladi. Pedagog o‘quvchining ijtimoiy kelib chiqishi, tili yoki shaxsiy qarashini baholash mezoniga aylantirmasligi lozim. Hurmatga asoslangan muhit o‘quvchining o‘z fikrini dalillashiga va boshqalarning fikriga e’tibor bilan qarashiga mashq maydoni bo‘ladi.

Vaziyatli tahlil axloqiy tushunchalarni muayyan qaror bilan bog‘lashga xizmat qiladi. O‘qituvchi qisqa voqeani taqdim etib, kimning manfaatlari daxldorligi, qanday qadriyatlar to‘qnashayotgani, mavjud yechimlar va ularning oqibatlarini muhokama qiladi. O‘quvchi o‘z tanlovini asoslaydi va boshqa yechimga berilgan dalillarni ko‘rib chiqadi. Muhokama oxirida umumiy tamoyil hamda amalda bajariladigan harakat ajratiladi. Bu tartib tayyor javobni yodlashdan ko‘ra fikrlash jarayonini ko‘rishga imkon beradi.

Birinchi o‘quv vaziyatida amaliyotdagi o‘quvchi bemorning tasvirini guruhdagi yozishmaga yubormoqchi bo‘ladi. Topshiriq maqsadi maxfiylik, rozilik va axborotdan foydalanish chegaralarini muhokama qilishdir. O‘qituvchi ism o‘chirilgani har doim ham shaxsni aniqlash imkoniyatini yo‘qotmasligini tushuntiradi. Mashg‘ulotda oldindan tayyorlangan shartli tasvir yoki to‘liq o‘quv materiali ishlatiladi. O‘quvchilar ma’lumotni tarqatishdan oldin kimga murojaat qilish, qanday ruxsat talablarini tekshirish va keraksiz ma’lumotni qanday cheklashni asoslaydi.

Ikkinchi vaziyatda o‘quvchi bemor bilan suhbat davomida uning savolini tushunmaydi, biroq bilimli ko‘rinish uchun ishonchsiz javob bermoqchi bo‘ladi. Muhokamada halollik, vakolat chegarasi va bemor manfaatlari ko‘rib chiqiladi. O‘quvchi javobni aniqlashtirish uchun rahbariga murojaat qilishni hurmat bilan ifodalashga mashq qiladi. Maqsad bilmaganini tan olishni kasbiy mas’uliyatning bir ko‘rinishi sifatida anglatishdir. O‘qituvchi qarorning to‘g‘riligini uning asoslanishi va keyingi harakat bilan birga baholaydi.

Rolli mashg‘ulotlarda o‘quvchilar bemor, tibbiyot xodimi va kuzatuvchi vazifalarini navbat bilan bajaradi. Kuzatuvchi tinglash, tushunarli izoh, muloyim ohang va savol berish imkoniyatiga e’tibor qaratadi. Mashqdan so‘ng har bir ishtirokchi qaysi ibora yordam bergani yoki noqulaylik tug‘dirganini aytadi. Bunda shaxsga baho berish o‘rniga aniq harakat muhokama qilinadi. Bir vaziyatni qayta bajarish o‘quvchiga bildirilgan fikrni amalda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Axloqiy muhokamada bir nechta qadriyat o‘rtasidagi ziddiyatni ham ochish kerak. Masalan, tanishiga yordam berish istagi belgilangan navbat va boshqalarga xolis munosabat talabi bilan to‘qnashishi mumkin. O‘quvchilar mehribonlikni adolat bilan qanday uyg‘unlashtirishni muhokama qiladi. O‘qituvchi vaziyatni baholash uchun zarur ma’lumotni ajratadi, taxmin bilan faktni farqlaydi va kasbiy tartibga muvofiq yechimni asoslashni so‘raydi. Bunday mashq qadriyatlarni shior sifatida takrorlash bilan cheklanmasdan, ularning amaliy chegaralarini anglashga yordam beradi.

Refleksiv yozuv o‘quvchining o‘z tajribasini axloqiy jihatdan tahlil qilishiga yordam beradigan vosita sifatida taklif etiladi. Unda vaziyat, tanlangan harakat, qarorga ta’sir qilgan qadriyat va kelgusi safar kiritiladigan o‘zgarish qisqa bayon qilinadi. Yozuvga bemorni aniqlashga imkon beruvchi ma’lumotlar kiritilmaydi. O‘qituvchi tahlilning asoslanganligi va o‘zgarish rejasini ko‘rib chiqadi. Shaxsiy kechinmalarni oshkor qilishga majburlash o‘rniga o‘quv maqsadiga mos darajada fikr yuritish imkoniyati beriladi.

Jamoatga xizmat qiluvchi loyihalar mehr-oqibat va ijtimoiy mas’uliyatni amaliy topshiriqqa aylantirishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar mutaxassis nazoratida sog‘lom turmushga oid tushunarli axborot materiali tayyorlaydi yoki keksalar uchun muassasada yo‘l topishni yengillashtiruvchi ko‘rsatmalar ishlab chiqadi. Loyiha oldidan auditoriya ehtiyoji aniqlanadi, material tekshiriladi va ishtirokchilar fikri tinglanadi. Faoliyat natijasi tadbirlar soni bilan birga ma’lumotning foydaliligi, tushunarliligi va bildirilgan mulohazalar asosida kiritilgan tuzatishlar orqali ko‘rib chiqiladi.

Raqamli muhitdagi mas’uliyatni o‘rgatishda o‘quvchilarga sog‘liqqa oid xabarni tekshirish topshirig‘i berilishi mumkin. Ular muallif, nashr sanasi, dalil manbai va reklama manfaatini aniqlaydi, keyin xabarni ulashish to‘g‘risidagi qarorini tushuntiradi. O‘qituvchi ishonchli ma’lumot bilan shaxsiy taxminni ajratishga yo‘naltiradi. Shuningdek, yozishmada hurmatni saqlash, boshqa odamning suratidan ruxsat bilan foydalanish va o‘zga matniga havola berish amalda mashq qilinadi. Bu topshiriqlar halollikni axborot bilan ishlash madaniyatiga bog‘laydi.

UNESCOning 2023-yilda qabul qilingan tinchlik va inson huquqlari ta’limiga oid tavsiyasi ta’limni hamkorlik, o‘zaro tushunish va barqaror rivojlanish bilan bog‘laydi [6]. Texnikumdagi axloqiy tarbiyaning shu jarayonga aloqasi kundalik munosabatlar orqali izohlanishi mumkin. Adolatli qaror ishonch uchun asos yaratadi; tushunarli muloqot kelishmovchilik sabablarini aniqlashga yordam beradi; mas’uliyatli hamkorlik umumiy vazifani bajarishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu bog‘liqlik maqolada nazariy tushuntirish sifatida taklif etiladi.

Bo‘lajak tibbiyot xodimi jamiyatning turli guruhlari bilan ishlashi sababli hurmat va xolislikka asoslangan muomala alohida ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida yosh, til, e’tiqod yoki iqtisodiy sharoitdagi farqlarni kamsitish uchun asos qilmaslik muhokama etiladi. Milliy mehr-oqibat va hamjihatlik an’analari barcha bemorlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish orqali kasbiy mazmun oladi. Bunda bemorning shaxsiy qarorini tinglash va uning ehtiyojini aniqlashtirish g‘amxo‘rlikning amaliy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi tarbiya o‘quvchini muammoni ko‘rish va uni mas’uliyat bilan muhokama qilishga ham tayyorlaydi. O‘quvchi nohaqlik yoki xavfsizlikka doir tashvishini kimga va qanday bildirishini bilishi kerak. Hurmatli e’tiroz, dalilga tayangan muloqot va xatoni tuzatish tartibi texnikumdagi ishonchni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Biroq bir o‘quv muassasasidagi tarbiyaviy ishning butun jamiyat barqarorligiga bevosita sababiy ta’sirini ushbu nazariy tahlil asosida o‘lchab bo‘lmaydi.

Baholash o‘quvchining kasbiy vaziyatdagi kuzatiladigan harakatlariga qaratilishi tavsiya etiladi. Asosiy mezonlar axloqiy muammoni aniqlash, manfaatdor tomonlarni hisobga olish, qarorni dalillash, hurmatli muloqot va kamchilikni tuzatishni qamrab oladi. Dastlabki va yakuniy vaziyatlar murakkabligi jihatidan o‘xshash bo‘lishi lozim. Bir martalik javob asosida o‘quvchiga qat’iy axloqiy tavsif berilmaydi; bir necha ish namunasi va vaqt davomidagi o‘zgarish ko‘rib chiqiladi.

Qisqa o‘quv moduli uchun quyidagi ketma-ketlik taklif etiladi: dastlab qadriyat va kasbiy talab muhokama qilinadi, keyin vaziyatli topshiriq bajariladi, navbatdagi mashg‘ulotda rolli mashq

o‘tkaziladi va yakunda yozma refleksiya olinadi. O‘quvchi dastlabki qarori bilan keyingi qarorini qiyoslab, o‘zgarish sababini izohlaydi. Ushbu ish namunalarini saqlash o‘qituvchiga rivojlanish yo‘nalishini ko‘rishga yordam beradi. Modul hajmi fan dasturi va mavjud vaqtga mos belgilanadi; uning samaradorligi o‘quvchilar faoliyati asosida tekshiriladi.

Jamoat salomatligi texnikumida axloqiy va ma’naviy tarbiya o‘qituvchining shaxsiy namunasi, adolatli ta’lim muhiti va kasbiy vaziyatlarni muntazam tahlil qilish orqali amalga oshirilishi lozim. Milliy pedagogik merosdagi halollik, mehr-oqibat va mas’uliyat g‘oyalari inson qadr-qimmati hamda kasbiy axloq tamoyillari bilan uyg‘unlashtiriladi. O‘quvchi bu qadriyatlarni qaror, muloqot va amaliy harakatda qo‘llashga o‘rganadi. Natijalarni kuzatiladigan mezonlar bilan baholash tarbiyaviy ishni takomillashtirishga, hurmat va ishonchga asoslangan kasbiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. (1917). Turkiy guliston yoxud axloq. 2-nashr. Toshkent. “Axloq”, “Tarbiya”, “Tarbiyaning zamoni” bo‘limlari.
2. UNESCO. (2005). Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris. 3, 5, 9–11-moddalar.
3. International Council of Nurses. (2021). The ICN code of ethics for nurses. Geneva: ICN.
4. Hafferty, F. W. (1998). Beyond curriculum reform: Confronting medicine’s hidden curriculum. Academic Medicine, 73(4), 403–407. DOI: 10.1097/00001888-199804000-00013
5. Koh, E. Y. H., Koh, K. K., Renganathan, Y., & Krishna, L. (2023). Role modelling in professional identity formation: A systematic scoping review. BMC Medical Education, 23, 194. DOI: 10.1186/s12909-023-04144-0
6. UNESCO. (2023). Recommendation on Education for Peace, Human Rights and Sustainable Development. Paris.

СЎФИ ОЛЛОЁР МЕРОСИНИНГ ШАРҚ ВА ҒАРБДА ЎРГАНИЛИШИ ВА “САБОТ УЛ-ОЖИЗИН” АСАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ

Саидов И.

Бухоро давлат техника университети мустақил тадқиқотчиси

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида ҳам инсон қадрини юксалтириш, маънавий юксалишни таъминлаш, миллий ўзликни англаш ва бой тарихий меросни асраб-авайлаш устувор вазифалар сифатида белгиланган. Бу жиҳатдан қараганда, XVII–XVIII асрлар мутафаккирлари илгари сурган инсонпарварлик, ватанпарварлик, маърифатпарварлик ва адолатпарварлик ғоялари бугунги ислоҳотларнинг маънавий-фалсафий асослари билан уйғунлик касб этади. Зеро, ҳар қандай тараққиётнинг пойдевори инсон онги, маънавияти ва интеллектуал салоҳиятига боғлиқ.

Тарихий мерос ва замонавий ислоҳотлар ўртасида узлуксиз ворисийлик мавжуд. Жамият тараққиёти фақат иқтисодий ўзгаришлар билан эмас, балки маънавий қадриятларнинг янгиланиши, миллий тафаккурнинг ривожланиши ва инсоннинг ички дунёси бойиши билан таъминланади. Шу маънода XVII–XVIII асрлар тафаккурида илгари сурилган эзгулик, адолат ва маърифат ғоялари Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг маънавий пойдеворини мустаҳкамлашга хизмат қилувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Бугунги кунда маданий меросни асраш, буюк аждодлар хотирасини абадийлаштириш, қўлёзмаларни ўрганиш, илм-фан ва таълимни ривожлантириш, китобхонлик маданиятини юксалтириш, ёш авлодни миллий ғурур ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган давлат сиёсати мазкур тарихий мероснинг ҳаётий аҳамиятини янада оширмоқда. Бу жараёнлар маънавий тараққиёт ва миллий тикланишнинг муҳим кўриниши сифатида намоён бўлмоқда.

Сўфи Оллоёр ва унинг асарларига оид ўз даври ҳамда кейинги асрларда Ғарб ва Шарқ олимлари томонидан кўпгина тадқиқотлар олиб борилган. Исҳоқ Боғистоний (Исҳоқ ибн Зиёвуддин Боғистоний) XVIII аср бошларида яшаган адиб ва тазкиранавис бўлиб, у асосан “Тазкираи қаландарон” асари билан машҳур. Бу асар машҳур сўфий шоир

Бобораҳим Машраб ҳаёти ҳақидаги энг қадимий ва муҳим манбалардан бири ҳисобланади. “Тазкираи қаландарон” асарида келтирилишича, Бобораҳим Машраб (1653—1711) Сўфи Оллоҳёр билан Қободиёнда учрашиб мунозарада келиша олмаган. Буни Исҳоқ Боғистоний тариқат айирмалиги билан изоҳлайди.[1.29.] Демак, нақшбандийлик шайхларидан ҳисобланган Эшон Сўфининг қарашлари Туркистон қаландарларининг валийси томонидан хуш қабул қилинмаган.

Ҳижрий 1211 (милодий 1796) йилда бошқирд сўфийси ва тарихчиси Тожиддин ибн Ялчиғул ал-Башқурдий (вафоти 1254/1838) Сўфи Оллоёрнинг “Сабот ул-ожизин” асарини татар тилига таржима қилиб “Рисолайи Азиза, шарҳи Сабот ул-ожизин”[2.56-57.] номли шарҳ ёзади. Бу шарҳ 1847 йилда Санкт-Петербургда, 1850 йилда эса Қозонда чоп этилади.[3.99-100.] Тожиддин ибн Ялчиғулнинг асар сарлавҳасида келтирилишича, “Азиза” сўзи икки маънода қўлланган: бир томондан, Сўфий Аллоҳёрга ҳурмат ифодаси бўлса, иккинчи томондан, муаллифнинг қизи Азизанинг исмига ишора қилади. Ривоят қилинишича, айнан қизи отасидан мазкур асарга шарҳ ёзишни илтимос қилган.[4.7.]

Сўфи Оллоёрнинг асарларининг кенг тарқалиши билан бир қаторда, ўз даврининг машҳур олим ва адиблари томонидан ёзилган шарҳлар туфайли ҳам жуда катта шуҳрат қозонди. Бу айниқса Россия империяси таркибидаги мусулмон ўлкаларида яққол намоён бўлди. Бугунги кунда мазкур асарга камида бешта шарҳ маълум бўлиб, улардан дастлабки учтаси Марказий Евроосиё мадрасаларида кенг ўқитилган. Бу ҳолат “Сабот ул-ожизин”нинг жамият томонидан қандай қабул қилинганини кўрсатувчи қизиқарли маънавий харитани тасаввур қилиш имконини беради.

Тасаввуф алломалари тармоқлари туфайли ўз асарларини кенг ҳудудларга тарқатганлар. Шу орқали Сўфий Оллоёрнинг “Сабот ул-ожизин” асари Истанбулдан Ғарбий Хитойгача бўлган улкан ҳудудда, жумладан Истанбул, Санкт-Петербург, Қозон, Бухоро, Кобул ва Қошғар каби марказлар ўртасидаги илмий алоқаларнинг муҳим бўғинига айланган. Тожиддин ибн Ялчиғулнинг мазкур шарҳи камида ўн тўрт марта нашр қилинган. Бу асар Волга – Урал минтақаси ҳамда Сибир мактабларида энг машҳур дарсликлардан бирига айланган. “Сабот ул-ожизин” асари ҳатто бутпарастликдан чиққан ёки православ динига киритилган татар болаларини исломга тарғиб қилишда ҳам муҳим аҳамият касб этган. Чунки Сўфи Оллоёр шеърлари ўқув дастурига киритилган бўлиб, ўқувчилар уларни ёд олишлари талаб этиларди.[5.79.] Тожиддин ибн Ялчиғул Сўфи Оллоёрнинг ҳаёти ҳақида ҳагиографик ривоятларга асосланган қисқача таржимаи ҳолини ҳамда унинг асарлари рўйхатини тузган.[4.7.] Шунингдек, у шарҳни рисолани кенг китобхонлар учун тушунарли қилиш, қийин жойларини изоҳлаш ва луғавий шарҳлар бериш мақсадида ёзганини таъкидлайди.

1165/1752 ёки 1167/1754 йилларда Татаристоннинг Чистай (Чистопол) шаҳрида туғилган олим Абдурраҳим Ўтиз-Имоний Булғорий ҳам Сўфи Оллоёрнинг “Сабот ул-ожизин” асарини туркий ва араб тилларида аралаш услубда шарҳ ёзган.[6.98.] Манбаларга келтирилишича, Абдурраҳим Ўтиз-Имоний Булғорий аввал Мулло Вилдон мадрасасида, кейин эса Қарғалидаги Валид ибн Муҳаммад ал-Амин мадрасасида таҳсил олган. Шунга қарамай, илмни янада чуқурлаштириш мақсадида 1202/1788 йилда оиласи билан Бухоро ва Самарқандга сафар қилади. 1210/1796 йилда Ҳирот ва Қобулга боради. Бухорода Ўтиз-Имоний Абдулқайюм ибн Абдулкарим ибн Оллоёрдан таълим олади. Тадқиқотчиларнинг фикрича, бу шахс Сўфи Оллоёрнинг набираси бўлган.[5.128-129.]

1241/1826 йилда Уфа яқинидаги Татаристон ҳудудида туғилган олим Муҳаммад Али Чуқурий ҳам Сўфи Оллёрни асарларини шарҳлаб “Сабот ул-ожизин” га алоҳида эътибор қаратган. Муҳаммад Али Чуқурий “Сабот ул-ожизин” ни шарҳлаб, “Аъён-и мозий” ёки “Дебочайи Фоиза” деб номлайди.[7.385.] Олим асарни ёзиш тарихида отасининг ўрни катта бўлганлигини келтиради. Отаси Эски Чуқур қишлоғида имом ва шайх бўлиб, нуфузли бошқирд оиласидан чиққан эди. Муҳаммад Али ўн етти ёшида атрофдаги турли мадрасаларда таҳсилни бошлаган. 1265/1849 йилда илм даражасини ошириш мақсадида Бухорога йўл олган. Аммо тасаввуфга болалигидан қизиқтирган отаси вафот

этгач, ватанига қайтишга мажбур бўлган. Отасининг вафотидан кейин Муҳаммад Мурод Бадахшоний ҳамда Ҳорис Ишон (Муҳаммад Ҳорис Истерлибоши Тўқаев, вафоти 1287/1870) дан тасаввуфий тарбиясини давом эттирган.[8.115.]

Турк олими Наждат Тўсин келтирилишича, Мадина шаҳрида Муҳаммад Али Чуқурий ҳиндистонлик Мужаддидия шайхи Муҳаммад Мазҳардан (вафоти 1301/1883) ижоза (илмий ва иршод бериш рухсати) олади. Шундан кейин муридларига “Сабот ул-ожизин” асари асосида дарс бериб, тарбиялашни бошлайди.[9.198.]

Сўфи Оллоёрнинг “Сабот ул-ожизин»” асарига ёзилган сўнгги икки машҳур шарҳ Салоҳиддин ибн Ровил ас-Салимий ал-Киронийнинг “Иршод ул-ожизин, шарҳи Сабот ул-ожизин” асари бўлиб, татар туркийсида ёзилган. 1311/1893 ва 1328/1910 йилларда Қозонда нашр этилган. Иккинчиси, Саййид Ҳабибуллоҳ ибн Саййид Яҳёхоннинг “Ҳидоят ут-толибин” асари ҳисобланади. Афсуски, бу икки муаллифнинг ҳаёти ва асарлари мазмуни ҳақида етарли маълумот сақланмаган.[7.386.]

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Болтабоев Ҳ. Ислом тасаввуфи манбалари (Тасаввуф назарияси ва тарихи: илмий мажмуа). – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.
2. Abik A. Deniz. Sûfî Allahyâr ve Sebâtü’l-Âcizîn’i // Turkish Studies. – 2008.
3. Дмитриева Л. В. Описание тюркских рукописей Института народов Азии. Т. 2. – Москва.: Наука, 1965.
4. Тожуддин Ёлчиқул. “Рисолаи азиза” (“Сабот ул-ожизин” шарҳи). – Тошкент.: А. Қодирий, 2000.
5. Frank, Allen J. Bukhara and the Muslims of Russia: Sufism, Education, and the Paradox of Islamic Prestige. Leiden: Brill, 2012.
6. Дмитриева Л. В. Описание тюркских рукописей Института народов Азии. Т. 2. – М.: Наука, 1965.
7. Papas A. Sufism and Ethics in Central Asia: Ṣūfī Allāhyār’s Thabāt al-ʿĀjizīn and Its Legacy // Journal of the American University of Beirut. – 2024.
8. Algar H. Shaykh Zaynullah Rasulev: The Last Great Naqshbandi Shaykh of the Volga-Urals Region // Muslims in Central Asia: Expressions of Identity and Change / Ed. by Jo-Ann Gross. – Durham; London: Duke University Press, 1992.
9. Tosun N. Türkistan Dervişlerinden Yâdigâr: Orta Asya Türkçesiyle Yazılmış Tasavvufî Eserler. – İstanbul: İnsan Yayınları, 2011.

TURIZM RIVOJIDA MA’NAVIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI: MADANIY MEROSNI SAQLASH VA TIJORATLASHTIRISH O‘RTASIDAGI ZIDDIYAT

Fattoyev Islom Ilg‘or o‘g‘li
“Profi University” Navoiy filiali o‘qituvchisi

Turizm zamonaviy iqtisodiyotning nafaqat xizmat ko‘rsatish, balki madaniy muloqot, tarixiy xotira va mahalliy o‘zlikni namoyon etish vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Turistning muayyan hududga tashrifi ko‘pincha uning tabiiy manzaralari bilan bir qatorda tarixiy obidalar, urf-odatlar, hunarmandchilik, milliy taomlar, folklor va boshqa ma’naviy qadriyatlar bilan tanishishga bo‘lgan ehtiyojini ham qamrab oladi. Shu sababli madaniy meros turizm mahsulotining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Biroq merosning turizm mahsulotiga aylanishi iqtisodiy manfaat bilan bir qatorda uni qanday saqlash, kimning manfaatiga xizmat qilishi va uning asl mazmuni qay darajada saqlanishi masalalarini ham kun tartibiga olib chiqadi.

UN Tourism meros turizmini rivojlantirishda madaniy o‘zlikni saqlash va turizmni rivojlantirish o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, shuningdek, mahalliy hamjamiyatlarni merosni muhofaza qilish va namoyish etish jarayonlariga jalb etish zarurligini ta’kidlaydi [1]. UNESCO esa turizmning ijobiy iqtisodiy imkoniyatlari bilan birga tashriflar sonining ortiqcha ko‘payishi, infratuzilmaga bosim va nomoddiy merosning haddan tashqari tijoratlashtirilishi uning mazmuni va autentikligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadi [2, b. 11]. Demak, muammo

turizm va meros o‘rtasidagi oddiy qarama-qarshilik emas, balki iqtisodiy foydalanishning qanday shaklda va qanday boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshirilishidadir.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni dinamik solishtirish va hududiy misol asosida tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Nazariy qismda madaniy meros turizmi, tijoratlashtirish, autentiklik va mahalliy hamjamiyat ishtiroki tushunchalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Empirik qismda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlari, hukumat va Turizm qo‘mitasining rasmiy axborotlari hamda UNESCO va UN Tourism materiallaridan foydalanildi.

Madaniy merosni turizm nuqtayi nazaridan faqat tarixiy bino yoki arxeologik yodgorlik sifatida talqin qilish yetarli emas. U moddiy va nomoddiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Moddiy merosga me’moriy yodgorliklar, arxeologik obyektlar, tarixiy shaharlar va boshqa jismoniy obyektlar kirsa, nomoddiy merosga urf-odatlar, marosimlar, og‘zaki ijod, an’anaviy hunarmandchilik, musiqa, taom tayyorlash usullari va jamoaviy bilimlar kiradi. Turizm ana shu qadriyatlarni keng auditoriyaga yetkazish va ularni saqlash uchun iqtisodiy imkoniyat yaratishi mumkin.

UNESCO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi tijorat faoliyati madaniy merosning ahamiyatini oshirish, meros tashuvchilariga daromad yaratish, mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va bilim hamda ko‘nikmalarning avlodlararo uzatilishiga ko‘maklashishi mumkinligini qayd etadi. Shu bilan birga, tijorat faoliyati merosning yashovchanligiga zarar yetkazmasligi, manfaatlarning avvalo merosni yaratuvchi va tashuvchi jamoalarga qaytishi hamda tijorat maqsadida uning mazmuni buzilmasligi kerak [3].

Shu nuqtayi nazardan, turizmning madaniy merosga ta’siri ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchi yo‘nalish – iqtisodiy rag‘batlantirish. Turistlar oqimi muzey, ekskursiya, hunarmandchilik, gastronomiya, mehmon uylari, transport va boshqa xizmatlarga talabni oshiradi. Bu esa mahalliy aholining tarixiy-madaniy resurslardan qonuniy daromad olish imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchi yo‘nalish – transformatsiya xavfi. Agar turistik talab asosiy mezonga aylansa, an’anaviy amaliyotlar turistga qulay va tez iste’mol qilinadigan ko‘rinishga keltirilishi, murakkab marosimlar qisqartirilishi yoki hunarmandchilik mahsulotlari ommaviy ishlab chiqariladigan suvenirlar bilan almashtirilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda tijoratlashtirish madaniy merosning iqtisodiy qiymatini oshiruvchi jarayon sifatida ham, uning mazmunini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan omil sifatida ham ko‘riladi. Zhang, Yin va Pengning tadqiqotida madaniy meros destinatsiyasidagi tijoratlashtirish turistlarning qabul qiladigan autentikligi va qoniqishiga ta’sir qilishi empirik jihatdan o‘rganilgan [4]. Mazkur yondashuv tijoratlashtirishni avtomatik ravishda salbiy hodisa sifatida baholamaslik, uning intensivligi va shakliga e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi.

2024-yilda Tourist Studies jurnalida e’lon qilingan tadqiqotda nomoddiy madaniy meros turizmida tijoratlashtirish va merosni muhofaza qilish o‘rtasidagi ziddiyat tahlil qilingan. Mualliflar turizm tijoratlashtirish orqali nomoddiy meros uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkinligini, biroq soxta yoki standartlashtirilgan mahsulotlar tijoriy qiymatni merosning o‘z qiymatidan ustun qo‘yishi xavfini tug‘dirishini ko‘rsatadi [5, b. 246–265]. Bu holat turistik talabning o‘zi emas, balki talabni qondirish usuli muhim ekanini anglatadi.

2025-yilda Journal of Hospitality and Tourism Management jurnalida chop etilgan tadqiqot ham yuqori darajadagi tijoratlashtirish madaniy meros obyektlarida turistlarning qoniqishi va sodiqligini pasaytirishi mumkinligini ko‘rsatgan. Tadqiqotda bunday ta’sir autentiklikning pasayishi bilan izohlangan [6, b. 98–111]. Shundan kelib chiqib, turizm mahsulotini shakllantirishda “ko‘proq turist – ko‘proq daromad” tamoyilining o‘zi yetarli emas; turistlar soni, obyektning sig‘imi, xizmatlarning mahalliy madaniyatga bog‘liqligi va merosning asl funksiyasi o‘rtasidagi nisbat ham hisobga olinishi kerak.

O‘zbekistonda turizm oqimining tiklanishi va tez o‘sishi madaniy meros obyektlariga bo‘lgan talabni ham kuchaytirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonga turistik maqsadlarda kirib kelgan xorijiy fuqarolar soni 2019-yilda 6 748,5 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, pandemiya ta’sirida 2020-yilda 1 504,1 ming kishigacha kamaygan.

2021-yilda ko‘rsatkich 1 881,3 ming, 2022-yilda 5 232,8 ming, 2023-yilda 6 626,3 ming, 2024-yilda 7 957,2 ming, 2025-yilda esa 11 679,6 ming kishiga yetgan [7]. Bu dinamika madaniy va tabiiy turizm resurslaridan foydalanishni kengaytirish bilan bir qatorda ularni boshqarish masalasini ham dolzarb qiladi.

Madaniy merosga bo‘lgan talabni muzeylarga tashriflar statistikasi ham ko‘rsatadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston muzeylariga 2024-yilda 4,8 mln tashrif qayd etilgan bo‘lib, shundan 1,4 mln nafari xorijiy turistlar hissasiga to‘g‘ri kelgan [8]. Bu raqamlar madaniy meros obyektlari turistik iste’molning muhim qismi ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tashriflarning ko‘payishi merosni muhofaza qilish, tashriflarni boshqarish va tijorat faoliyatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi.

O‘zbekistonning davlat siyosatida ham turizm va madaniy merosning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib bormoqda. 2024-yil 30-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining 919-son qarori tarixiy obyektlar va turizm salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, 2024-yil 7-dekabrdagi 820-son qaror turizm sohasini raqamlashtirish va turizm xizmatlarini yagona platformaga integratsiya qilish choralarini belgiladi [9]. Bunday choralar madaniy merosni turistik bozorda ko‘rinadigan qilish imkoniyatini oshiradi, biroq raqamli targ‘ibotning o‘zi obyektning ilmiy va madaniy muhofazasini ta’minlamaydi.

Navoiy viloyati madaniy meros va turizmning o‘zaro ta’sirini o‘rganish uchun muhim hududiy misoldir. Viloyatda Sarmishsoy darasi, Rabot-i Malik va Sardoba Malik, Qosim Shayx majmuasi, Nurota Chashmasi, qadimiy korizlar, shuningdek, etnografik va hunarmandchilik an’analari turizm resurslari sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonning milliy turizm portalida Sarmishsoy darasi bo‘yicha alohida elektron axborot sahifasi yaratilgan; unda 5 mingdan ortiq qoyatosh tasvirlari haqida ma’lumot va “Elektron tur” funksiyasi mavjud [10]. Bu madaniy merosni targ‘ib qilishning zamonaviy shakllari rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Sarmishsoy misolida tijoratlashtirish masalasi ayniqsa ehtiyotkor boshqaruvni talab qiladi. 2026-yilda Sarmishsoy muzey-qo‘riqxonasida 32 gektarlik turizm markazi loyihasi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, loyiha 50 ta yangi ish o‘rni yaratishi va yillik tashrif buyuruvchilar sonini 60 ming nafarga yetkazishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, davlat muzey-qo‘riqxonasida arxeologlarni jalb qilgan holda madaniy qatlamni o‘rganish va madaniy qatlam mavjud bo‘lmagan hududlarda turizm hamda xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish belgilangan [11]. Bu yondashuv muhim: turistik infratuzilmani rivojlantirish madaniy qatlamni muhofaza qilish talabi bilan birga olib borilmoqda.

Navoiy viloyatidagi Yangiqazg‘an turizm ovuli esa madaniy qadriyatlarni mahalliy iqtisodiyot bilan bog‘lashning boshqa shaklini ko‘rsatadi. 2026-yilgi rasmiy ma’lumotga ko‘ra, ovulda turizm orqali qariyb 60 ta oila barqaror daromad olmoqda, 20 ta mehmon uyi va 10 ta hunarmand uyi faoliyat yuritmoqda. Sayyohlarga milliy taom tayyorlash, tandirda non yopish, gilam va boshqa mahsulotlar tayyorlash jarayonlarida bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratilgan [12]. Bu modelda madaniy qadriyat faqat tomosha qilinadigan obyekt emas, balki mahalliy aholining kundalik hayoti va iqtisodiy faoliyati bilan bog‘langan “tirik meros” sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq bunday tajribada ham tijoratlashtirishning chegaralari mavjud. Masalan, hunarmandchilik mahsulotlari turist talabi uchun haddan tashqari standartlashtirilsa, ularning mahalliy uslub va texnologiyalari yo‘qolishi mumkin. Folklor dasturlari faqat tomoshaboplikka moslashtirilsa, marosimlarning asl ijtimoiy mazmuni qisqarishi ehtimoli mavjud. Shu sababli turizm mahsulotini ishlab chiqishda mahalliy meros tashuvchilari – hunarmandlar, oqsoqollar, madaniyat xodimlari, tadqiqotchilar va mahalla vakillarining ishtiroki zarur.

Madaniy merosni turizmga jalb etishning iqtisodiy jihatdan foydali tomonlari mavjud. Turizm daromadi konservatsiya ishlarini moliyalashtirish, mahalliy aholining bandligini oshirish, hunarmandchilikni davom ettirish va yosh avlodga an’anaviy bilimlarni uzatish uchun qo‘shimcha rag‘bat yaratishi mumkin. UNESCO ham nomoddiy meros bilan bog‘liq tijorat faoliyati meros tashuvchilarining daromadini oshirishi va bilim hamda ko‘nikmalarning davomiyligini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini tan oladi [3].

Shu bilan birga, tijoratlashtirishning foydasi avtomatik ravishda merosning saqlanishini anglatmaydi. UNESCO materiallarida ortiqcha turizm tashriflarining meros obyektlarining sig‘imidan oshishi ularning yaxlitligi va autentikligiga putur yetkazishi, nomoddiy merosning haddan tashqari tijoratlashtirilishi esa amaliyotlarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan [2, b. 11]. Shuning uchun barqaror boshqaruvning markazida uchta tamoyil turishi lozim: birinchisi – ilmiy va huquqiy muhofaza; ikkinchisi – mahalliy hamjamiyatning real ishtiroki va manfaatdorligi; uchinchisi – turistik mahsulotning madaniy mazmuni va autentikligini saqlash.

Navoiy viloyati uchun ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etishda turistik obyektlarning tashrif sig‘imini belgilash, arxeologik qatlamlarni muhofaza qilinadigan va xizmat ko‘rsatish zonalariga ajratish, mahalliy hunarmandlar bilan bevosita shartnoma va savdo mexanizmlarini rivojlantirish, ekskursiya dasturlarini mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqish hamda turistik daromadlarning bir qismini merosni saqlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv turizmni madaniy merosdan “foydalanish”dan uning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydigan boshqaruv tizimiga aylantiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm rivojida ma’naviy qadriyatlarning transformatsiyasi muqarrar ravishda iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Madaniy meros turistik mahsulotga aylanganda uning iqtisodiy qiymati oshishi, mahalliy aholi uchun yangi daromad va bandlik imkoniyatlari paydo bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, nazoratsiz yoki haddan tashqari tijoratlashtirish merosning mazmuni soddalashishi, autentiklikning pasayishi va mahalliy madaniy amaliyotlarning turistlar ehtiyojiga mos ravishda sun’iy o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston turizm oqimining 2020-yildagi keskin pasayishdan keyin tez tiklanib, 2025-yilda 11,68 mln xorijiy turistik kirishgacha yetgani hamda 2024-yilda mamlakat muzeylariga 4,8 mln tashrif qayd etilgani madaniy turizmga bo‘lgan talabning yuqoriligini ko‘rsatadi [7; 8]. Navoiy viloyatida Sarmishsoy bo‘yicha tashriflar salohiyatini 60 ming nafargacha oshirishga qaratilgan loyiha va Yangiqazg‘an turizm ovulida 60 ga yaqin oilaning turizm orqali daromad olayotgani madaniy meros va mahalliy iqtisodiyotning bog‘lanishi kuchayib borayotganini ko‘rsatadi [11; 12].

Shu sababli madaniy merosni turizmga jalb etishning eng maqbul modeli tijoratlashtirishni rad etish emas, balki uni muhofaza, autentiklik, mahalliy hamjamiyat manfaatlari va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanat asosida boshqarishdan iborat. Ayniqsa, Navoiy viloyatida Sarmishsoy, Nurota, Rabot-i Malik va etnografik turizm maskanlarini rivojlantirishda “meros – turistik mahsulot – mahalliy daromad – merosni qayta moliyalashtirish” uzviy mexanizmini shakllantirish hududning uzoq muddatli turistik raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Amaliy takliflar

Madaniy merosni turizmga jalb etishda yuqoridagi tahlildan kelib chiqadigan amaliy yo‘nalishlardan biri – turistik obyektning iqtisodiy yuklamasi bilan uning muhofaza sig‘imini birgalikda hisobga olishdir. Ayniqsa arxeologik obyektlar uchun tashrif buyuruvchilar oqimini mavsumiy va hududiy jihatdan boshqarish, piyoda yo‘laklarini belgilash, xizmat ko‘rsatish zonalarini madaniy qatlamdan ajratish va axborot belgilarini standartlashtirish muhim. Bunday yondashuv Sarmishsoy kabi ochiq osmon ostidagi arxeologik yodgorliklarda turizmni kengaytirish bilan bir vaqtda obyektning ilmiy qiymatini saqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish – turistik daromadlarning ma’lum qismini merosni saqlash va mahalliy madaniy amaliyotlarni davom ettirishga qayta yo‘naltirish mexanizmini shakllantirishdir. Yangiqazg‘an tajribasida turizm daromadining oilalar, mehmon uylari va hunarmandlar bilan bevosita bog‘lanishi ijobiy holatdir. Bunday modelni boshqa hududlarga tatbiq etishda hunarmandlar uchun mahalliy brendlar, sertifikatlash, ustoz-shogird dasturlari va turistik savdo kanallarini rivojlantirish mumkin. Natijada turist uchun mahsulotning iqtisodiy qiymati bilan birga uning tarixiy va madaniy kelib chiqishi ham tushunarli bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalish – madaniy merosni targ‘ib qilishda autentiklik mezonlarini kuchaytirish. Turistik dasturlarda mahalliy tarix, rivoyatlar va an’analarni mutaxassislar

tomonidan tekshirilgan ma’lumotlar asosida taqdim etish, hunarmandchilik va folklor elementlarini faqat sahnalashtirilgan tomosha sifatida emas, ularning haqiqiy ijtimoiy-kundalik konteksti bilan birga ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv turistning hududni chuqurroq anglashiga va mahalliy aholining o‘z madaniyatini namoyish etishdagi subyektlik mavqeini saqlashiga yordam beradi.

To‘rtinchi yo‘nalish – mahalliy jamoalarni turizm boshqaruviga jalb etish. Meros obyektlarida yangi turizm loyihalari ishlab chiqilishidan oldin mahalla, hunarmandlar, muzey xodimlari, tarixchi va arxeologlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilishi ma’naviy qadriyatlarning tashqi talab asosida bir tomonlama o‘zgarib ketishining oldini oladi. Shu tariqa turizm iqtisodiy faoliyat bo‘lish bilan birga mahalliy madaniy o‘zlikni mustahkamlovchi mexanizmga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. UN Tourism. International Conference on Heritage Tourism: How do we Foster, Present and Preserve World Treasures? [Elektron resurs]. – 2016. – URL: https://www.unwto.org/archive/asia/news/2016-02-03/unwto-international-conference-heritage-tourism-how-do-we-foster-present-and-preserv (murojaat sanasi: 14.09.2026).

2. UNESCO. Bringing cultural tourism back in the game [Elektron resurs]. – UNESCO Courier, 2021. – P. 11. – URL: https://articles.unesco.org/sites/default/files/tracker_2.0_issue_6_en.pdf (murojaat sanasi: 14.09.2026).

3. UNESCO. Commercial activities related to intangible heritage. Decision of the Intergovernmental Committee: 4.COM 6 [Elektron resurs]. – URL: https://ich.unesco.org/en/Decisions/4.COM/6 (murojaat sanasi: 14.09.2026).

4. Zhang T., Yin P., Peng Y. Effect of Commercialization on Tourists’ Perceived Authenticity and Satisfaction in the Cultural Heritage Tourism Context: Case Study of Langzhong Ancient City // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 12. – Art. 6847. – DOI: 10.3390/su13126847.

5. Wang C., Wang Y., Edelheim J. R., Zhou J. Tourism commercialisation and the frontstage-backstage metaphor in intangible cultural heritage tourism // Tourist Studies. – 2024. – Vol. 24, No. 3. – P. 246–265. – DOI: 10.1177/14687976241251514.

6. Cao Q., Zhang J., Li C., So K. K. F. From tradition to transaction: The effect of commercialization on tourism experience in cultural heritage attractions // Journal of Hospitality and Tourism Management. – 2025. – Vol. 63. – P. 98–111. – DOI: 10.1016/j.jhtm.2025.03.006.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. The number of inbound tourist trips by foreign citizens to the Republic of Uzbekistan (total) [Elektron resurs]. – SIAT. – URL: https://siat.stat.uz/data/1038/?lang=en (murojaat sanasi: 14.09.2026).

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 4.8 million people visited the museums of Uzbekistan [Elektron resurs]. – 28.08.2025. – URL: https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/63592 (murojaat sanasi: 14.09.2026).

9. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Hukumat qarorlari: 2024-yil 7-dekabrdagi 820-son va 30-dekabrdagi 919-son qarorlar [Elektron resurs]. – URL: https://gov.uz/en/uzbektourism/pages/hukumat-qarorlari (murojaat sanasi: 14.09.2026).

10. Uzbekistan Travel. Sarmishsoy darasi [Elektron resurs]. – URL: https://uzbekistan.travel/uz/o/sarmishsoy-darasi/ (murojaat sanasi: 14.09.2026).

11. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Navoiyda turizm salohiyatini kengaytirish va xizmat sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar va istiqbolli loyihalar [Elektron resurs]. – 2026. – URL: https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/129387 (murojaat sanasi: 14.09.2026).

12. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Navoiyda respublikada yagona bo‘lgan turizm ovuli tashkil etilmoqda [Elektron resurs]. – 2026. – URL: https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/194317 (murojaat sanasi: 14.09.2026).

«MAHALLA – OILA – TA’LIM MUASSASASI» KLASTERI SHAROITIDA YOSHLARNING AXLOQIY-MA’NAVIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH VA NIZOLI XULQ-ATVORNI KORREKSIYALASH

Miraliyev Shahzod Jahongir o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Yoshlarning axloqiy-ma’naviy qiyofasi birgina ta’lim muassasasida yoki faqat oilaviy tarbiya jarayonida shakllanadigan hodisa emas. Shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori, boshqa insonlarga munosabati, ijtimoiy me’yorlarni qabul qilishi, o‘z xatti-harakatining oqibatlarini anglay olishi va murakkab vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilishi uzoq davom etadigan ijtimoiy-pedagogik jarayonning natijasidir. Shu sababli yoshlar tarbiyasida turli ijtimoiy institutlarning alohida-alohida faoliyat yuritishidan ko‘ra, ularning yagona tarbiyaviy maqsad atrofida birlashishi muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. «Mahalla – oila – ta’lim muassasasi» klasteri aynan ana shunday uzviy hamkorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Abdulxoliq G‘ijduvoniy yodgorlik majmuasiga tashrifi chog‘ida ta’kidlaganidek, “…kitobda o‘qish boshqa, ziyorat qilib, yurakdan o‘tkazib o‘rganish boshqa. Bu joy ma’rifat markazi bo‘lishi, odamlar o‘ziga ilm olib ketishi kerak”. [1.1] Shu bois mazkur maskanlar ma’rifat markaziga aylanishi, tashrif buyuruvchilar bu erda ilm va ma’naviyatdan bahramand bo‘lib qaytishi zarurligi qayd etilgan. Bundan tashqari, tarixiy qadamjolarni obod etish bilan bir qatorda “Yetti pir” merosini o‘rganish, ular haqida ilmiy asarlar yaratish hamda boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib etish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilgan. “Bunday ma’naviy xazina boshqa hech qayerda yo‘q. Bu xazinani mukammal o‘rganish, odamlarga, yoshlarga oson tilda etkazish kerak. Maqsadimiz yoshlarimiz o‘zimizning allomalarga ergashsin, merosini bilsin, ular bilan faxrlansin,” shu ma’noda, madaniy merosimizni, o‘tmish qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o‘rganish hozirgi milliy ma’naviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarining shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir.

Abduxoliq G‘ijduvoniy asos solgan Xojagon tariqati Markaziy Osiyo tasavvuf maktabi an’analari davomchisi sifatida mahalliy ildizlarga ega. Jumladan, Hakim Termiziy (820-932), Abu Bakr Kalobodiy (917-995), Mustamliy Buxoriy (vaf.1043) kabi so‘fiylar, tasavvuf nazariyotchilari ta’limotlaridan ta’sir olgan va Xojagon ta’limoti mustaqil tariqat sifatida vujud kelgan. Faxriddin Ali Safiyning “Rashahot ayn-al hayot” asarida G‘ijduvoniyni “Xojagon zanjirining bosh halqasi”, “Xojagon tabaqasining asoschisi va azizon silsilasining boshlovchisi” deb ataydi va “uning hayot tarzi barchaga o‘rnak va barcha guruhlar uchun maqbul” ekanligini ma’lum qiladi. [2.13-15] Germaniyalik sharqshunos olima Annemarie Schimmel o‘zining “Islom olamining tasavvufiy ta’limoti” asarida Abdulxoliq G‘ijduvoniyni Yusuf Hamadoniy ta’limotining eng iste’dodli davomchisi sifatida e’tirof etadi. Rossiyalik sharqshunos Aleksey Xismatulin esa “So‘fiylar hikmati” asarida Xojagon tariqatining asoschisi sifatida aynan

Abdulxoliq G‘ijduvoniyni ko‘rsatib, uning ma’naviy meros sifatida shakllangan o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. [3.16.]

Xojagonlar tariqatiga oid fikrlar Abduxoliq G‘ijduvoniyning “Vasiyatnoma” (Nasihatlar kitobi), “Maqsad as-solikin” (Soliklar maqsadi), “Risolayi odobi tariqat” (Tariqat odobi risolasi), “Ibtidoye jomi’ ul kalom” (Boshlang‘ich so‘zlar to‘plami), “Risolayi sohibiya” (Do‘stlik haqida risola), “Risolayi vasoyo” (Nasihatlar risolasi), “Az guftori Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy” (Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy hikmatlaridan), “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” (Xoja Yusuf Hamadoniy maqomlari) kabi asarlarida bayon etilgan. Bu asarlar tariqatning mohiyatini o‘rganishda **birinchi darajali manbalar** bo‘lib xizmat qiladi, **ikkinchi darajali asosiy manbalar** esa – Abduxoliq G‘ijduvoniy hayot yo‘li va ta’limotiga oid manoqib, maqomot, tazkira va risolalar: Orif Revgariyning “Orifnoma”, Muhammad Porsoning “Fasl ul-xitob”, Xattot Shayx Qosim Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan “Maslak al-orifin”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Fazlulloh ibn Ro‘zbehonning “Manoqibi Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy”, Ali Safiyning “Rashahot ayn ul-hayot”, Mahdumi A’zamning “Manoqibi Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy”, Tohir Eshonning “Tazkirayi Naqshbandiya”, Muhammad Tolibning “Matlab ul-tolibin”, Nosiriddin al Hanafiy al-Hasaniy al-Buxoriyning “Tuhfat uz-zoirin”, Muhammad Doroshukuhning “Safinat ul-avliyo”, G‘ulom Sarvar Lohuriyning “Xazinat ul-asfiyo”, Xalil Ibrohim Soriy o‘g‘lining Saloh ibn Muborak Buxoriyning “Anis ut-tolibin va uddat us-solikin” asarining nashriga ilova etgan ilmiy maqolasi, Vasliy Samarqandiyning “Nazm ul-silsila”, Sa’id Nafisiynig “Risolayi sohibiya”ga muqaddimasi va boshqalar.

Uchinchi darajali manbalar qatoriga Abdulxoliq G‘ijduvoniyga bag‘ishlangan dissertatsiyalar, shuningdek, uning tavalludining 890, 900 va 915 yillik yubileylari munosabati bilan e’lon qilingan ilmiy maqolalar, risolalar, anjuman materiallari hamda turli ilmiy asarlar kiradi. Bularga Najmiddin Komilov, Muhammad Boltayev, Mahmud Hasaniy, Karomat Qilicheva, Mavjuda Razzoqova, Orif Usmon, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Sadriddin Salim Buxoriy, Samad Azimov, Bahodir Qazoqov, Gulchehra Navro‘zova, Ubaydillo Qosimov, Sayfiddin Sayfulloh, Nodirxon Hasan, Ibrohim Haqqul, Sultonmurod Olim, Mirzo Kenjabek, Komiljon Kattayev, Hamidjon Homidiy, Ergash Ochilov, Komiljon Rahimov, Nigora Safarova, Nigora Nuratova, Erkin Zoirov, Xolida Rahmatova, Bekzod Dehqonov, Sanjar Barnoyev va boshqalarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin.

Xojagon tariqatining g‘oyaviy asosi hisoblangan dastlabki Hamadoniy tomonidan aytilgan to‘rt kalimayi qudsiya, ya’ni 4 muqaddas kalimalar haqida “Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy”da shunday yozilgan: “Xush dar dam dored” (“har bir nafasda hushyor bo‘ling”), “Nazar dar qadam dored” (“har bir qilinadigan ishni o‘ylab qilish”), “Safar dar vatan dored” (“vatan ichra safar qiling”), “Xilvat dar anjuman dored” (“anjumanda xilvatda bo‘ling”). Xojayi Jahon bu muqaddas kalimalar asosida shu mohiyatni davom ettirib yana to‘rtta: Yodkard (Allohni eslash, zikr qilish), Bozgasht (tavba qilib o‘z amalining xolis bo‘lishiga erishish), Nigohdosht (qalb va xotira muroqabasi), Yoddosht (har lahza Allohni eslash, vijdonli bo‘lish) kalimalarini qo‘shgan.

Xojagon tariqatida ijtimoiy faollik g‘oyasi ustuvor o‘rin egallaydi. Manbalarda keltirilishicha, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy “xalqning og‘irini engillashtirish zarur, bunga esa halol mehnat orqali erishiladi” degan fikrni ilgari surgan. Shuningdek, “Dast ba kor-u, dil ba yor” (“qo‘l ishda, dil yorda”) tamoyili Xojagon tariqatida bajarilishi shart bo‘lgan asosiy amaliy qoida sifatida talqin etiladi.[4.30-31]

Ulug‘ so‘fiy Xojayi Jahon yuksak maqom egasi bo‘lib, atrofdagilarga faqat ezgulik ulashishga intilgan komil inson sifatida e’tirof etiladi. Uning qarashlariga ko‘ra, inson fikrida, so‘zida va amallarida yaxshilikni ustuvor qo‘yib, xayrli ishlar bilan yashasa, bu dunyodagi hayotini yuksaltirishi va haqiqiy insoniy kamolot darajasiga erishishi mumkin. Aksincha, g‘azab, zulm, adolatsizlik va xudbinlik insonni insoniylikdan uzoqlashtirib, ilohiylikdan chetlatadi. Shu jihatdan G‘ijduvoniyning quyidagi hikmatli misralari alohida e’tiborga loyiqdir:

Az xislati bad agar muzahhab boshi,
Bo xalqi jahon juma uaddab boshi,

Bo neku badi jahon ba rahmat mebosh.
To nazdi Xudo abdi muqarrab boshi.
Tarjimasi:
Agar yomon xislatlardan tozalangan, soflangan bo‘lsang,
Jumlayi jahon xalqiga nisbatan adabli, xayrli bo‘lasan,
Jahon yaxshi-yomonlariga nisbatan mehribon, rahmdil bo‘lgil,
O‘shanda Xudo oldida unga yaqin banda bo‘la olasan.

Xulosa qilib aytganda:

– tasavvuf islom olamida VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi. U islomdagi falsafiy oqim bo‘lib, arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Islom dini bilan birgalikda tasavvuf ham rivojlanib bordi. Insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘naltiruvchi ushbu ta’limot Sharq mamlakatlarining ijtimoiy va ma’naviy hayotiga kirib borib fan va madaniyatga katta ta’sir ko‘rsatdi.

– Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ilk mumtoz Xojagon tariqati asoschisi Xojagon tasavvufiy tariqatining ustozi murshidi, keyinchalik naqshbandiya tariqati va ta’limotining haqiqiy asoschisi, so‘fiy Abduxoliq binni Abduljamil G‘ijduvoniy hisoblanadi.

– Xojagon tariqati ta’limotining asosiy g‘oyalari vatanparvarlik, xalq manfaatlariga sadoqat, insonparvarlik, mehnasevarlik, tinchlik va adolatni qadrlash kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, unda ota-onaga va ustozlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, insonning botiniy va zohiriy pokligiga intilishi, halol mehnat asosida hayot kechirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tariqatda yaxshi insonlar bilan hamnafas bo‘lish, ezgu amallarni bajarish, yuksak odob-axloqqa amal qilish ustuvor sanaladi. Yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik, insonlarning salbiy xatti-harakatlarini ularning o‘ziga qaytuvchi oqibat sifatida anglash, har bir ishda aql va hikmatga tayanish, xayrli ishlarni amalga oshirish, ilm olishni muqaddas burch deb bilish kabi g‘oyalar ham muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, do‘stlik, iymon va jamiyat qonun-qoidalariga rioya etish kabi ijtimoiy qadriyatlar Xojagon tariqatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. “Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy tasavvufiy ta’limotini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari” mavzusida ilmiy-nazariy konferensiyalar tashkil etish;

2. Jahon qo‘lyozma fondlari va kutubxonalarida saqlanayotgan, hali ilmiy muomalaga kiritilmagan Xojagon tariqati namoyandalari asarlarini o‘rganish va nashr etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni hamkorlikda amalga oshirish;

3. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” Davlat dasturi doirasida mahallalarda olib boriladigan targ‘ibot ishlarida Xojagon tariqatining ilg‘or g‘oyalaridan foydalanish, bu borada maxsus qo‘llanmalar va elektron materiallar tayyorlash;

4. Turizmni rivojlantirish yo‘nalishida “Xojagonlik – ijtimoiy faollik ta’limoti” mavzusida ilmiy-ommabop qo‘llanmalar yaratish va nashr etish;

5. Korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan hozirgi sharoitda “Xojagon tasavvufiy tariqatida nafs tarbiyasi” mavzusida teleko‘rsatuvlar va radioyeshittirishlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi. 2019 yil, 30 mart №61
2. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot ayn al-hayot. 1j. – B. 13-15.
3. Мудрост суфиев. Шахабиддин Махамад Парсо. Махдуми Аъзам. – Санкт-Петербург: Петербургское востоковедение, 2001. – С.16.
4. Sulton I. Bahouddin Naqshband abadiyati. – T.: O‘z. R. FA. Fan. 1994. – B. 30-31.

TA’LIM, PSIXOLOGIYA VA IQTIDORLI SHAXSNI RIVOJLANTIRISH

IQTIDORLI TALABALARNING INTELLEKTUAL HAMDA MA’NAVIY RIVOJLANISHIDA YOSHLAR MASALALARI VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR BO‘YICHA PROREKTOR FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Baxronova Zubayda Saidovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor, p.f.f.d., professor

Oliy ta’limda iqtidorli shaxsni rivojlantirish talabaning mavjud qobiliyatini aniqlash, uni murakkab vazifalar bilan boyitish va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan faoliyatga yo‘naltirishni talab etadi. Kasbiy bilimga ega yosh mutaxassis o‘z qarorlarining insonlar hayoti, jamoa va ijtimoiy muhitga ta’sirini ham anglay olishi lozim. Shu sababli intellektual salohiyat bilan ma’naviy mas’uliyatni birgalikda rivojlantirish oliy ta’limdagi tarbiyaviy faoliyatning muhim vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida yoshlarning intellektual va axloqiy kamolotiga ko‘maklashish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish belgilangan. Qonunning 25-moddasi iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy imkoniyatlarini ko‘rsatadi [1]. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror esa ushbu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish uchun normativ asoslardan biridir [2]. Bu hujjatlarning mazmuni oliy ta’limda talaba ehtiyojlariga mos amaliy dasturlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur jarayonda yoshlar bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektorning faoliyatini talabalar rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

R. Subotnik, P. Olszewski-Kubilius va F. Worrell iqtidorni rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilib, yuqori salohiyatning amaliy yutuqqa aylanishida ta’lim imkoniyatlari va psixologik-ijtimoiy omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi [3]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, oliy ta’limdagi saralashda baholar bilan birga talabaning yangi muammoni hal etishi, ijodiy mahsuloti va faoliyatni davom ettirishga tayyorligini ham o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda bir martalik muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik yakuniy xulosa uchun yetarli asos bo‘la olmaydi.

R. Ryan va E. Deci ta’lim motivatsiyasini tahlil qilishda shaxsning mustaqil tanlovi, o‘zini kompetent his etishi va boshqalar bilan yaqin aloqadorlik ehtiyojlariga e’tibor qaratadi [4]. Ushbu nazariyaning prorektor faoliyatiga amaliy tatbiqi sifatida talabaga loyiha tanlash imkonini berish, uning rivojlanishi haqida mazmunli fikr bildirish va hamkorlik muhitini yaratish taklif etilishi mumkin. Mukofotlash mezonlari ham mehnat, o‘sish va foydali hissani tushunarli tarzda e’tirof etishi lozim.

J. Durlak va hammualliflarning meta-tahlilida maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlari ishtirokchilarida ijtimoiy ko‘nikmalar, xulq-atvor va akademik o‘zlashtirish yaxshilanishi qayd etilgan [5]. Tadqiqot maktab ta’limiga tegishli bo‘lgani uchun uning xulosalarini universitet talabalariga bevosita ko‘chirish mumkin emas. Biroq u o‘zini boshqarish, hamkorlik va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ta’lim jarayonida alohida rivojlantirish zarurligini muhokama qilish uchun asos beradi.

G. Walton va G. Cohenning universitetning birinchi bosqich talabalari ishtirokidagi tajribasi muayyan ijtimoiy guruhda jamoaga mansublik hissini qo‘llab-quvvatlash akademik moslashuvga foyda berishi mumkinligini ko‘rsatgan [6]. Bu natija barcha muassasalarda bir xil ta’sirni kafolatlamaydi. Shunga qaramay, iqtidorli talabaning o‘zini tinglanadigan va qabul qilinadigan jamoa a’zosi sifatida his etishiga sharoit yaratish mahalliy dasturlarda sinab ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishdir.

Prorektor faoliyatida birinchi yo‘nalish talabalarning turli qobiliyatlarini namoyon etishiga ochiq sharoit yaratish bo‘lishi kerak. Fan olimpiadalari va ilmiy tanlovlar bilan birga ijodiy ishlar, ijtimoiy tashabbuslar, muammoli vazifalar va jamoaviy loyihalar ham kuzatuv manbai bo‘la oladi.

Har bir yo‘nalish uchun mezonlar oldindan e’lon qilinib, talaba o‘z nomzodini mustaqil ilgari surishi mumkin bo‘lishi tavsiya etiladi.

Saralashda talabaning boshlang‘ich imkoniyatlari e’tiborga olinishi lozim. Masalan, ilmiy anjumanda qatnashmagan talaba mustaqil tahlil qilish salohiyatiga ega bo‘lishi mumkin; uning tajribasi yetishmasligi rivojlantiruvchi yordamga ehtiyojni bildiradi. Qishloq hududlaridan kelgan, ishlashga majbur bo‘lgan yoki nogironligi bo‘lgan talabalar uchun ishtirok sharoitlarini moslashtirish ham zarur. Dasturga kirish imkoniyatini semestr davomida qayta ochish yangi qiziqishi shakllangan yoshlarni ham qamrab olishga yordam beradi.

Ikkinchi yo‘nalish talaba bilan kelishilgan individual rivojlanish rejasini tuzishdir. Rejada uning kuchli tomonlari, o‘rganishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, bajariladigan loyiha, foydalaniladigan resurslar va natijani ko‘rib chiqish muddati belgilanadi. Masalan, ilmiy izlanishga qiziqqan talaba uchun bir semestrda adabiyotlarni saralash, tadqiqot savolini shakllantirish va asoslangan taqdimot tayyorlash vazifalari qo‘yilishi mumkin. Bunday reja talabaning dars yuklamasi bilan muvofiqlashtiriladi.

Ustozlik faoliyatida ilmiy rahbar kasbiy mazmunni, tyutor kundalik moslashuvni, psixolog esa zarur hollarda psixologik ko‘makni ta’minlaydi. Prorektor ushbu ishtirokchilar o‘rtasidagi vazifalar taqsimoti va axborot almashinuvi tartibini muvofiqlashtirishi mumkin. Uchrashuvlar talabaning bajargan ishi, duch kelgan qiyinchiligi va keyingi qadami atrofida tashkil etilishi tavsiya qilinadi. Baholashda uning avvalgi holatiga nisbatan o‘sishi ham e’tiborga olinadi.

Uchinchi yo‘nalish ma’naviy qadriyatlarni talabaning kundalik qarorlari va kasbiy vazifalari orqali anglatishdan iborat. Akademik halollik manbani to‘g‘ri ko‘rsatish, o‘zlashtirilgan fikrni ajratish, ma’lumotlarni o‘zgartirmaslik va jamoaviy ishda mualliflik hissasini adolatli taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Shu bois ilmiy to‘garak va loyiha dasturlariga axloqiy vaziyatlar muhokamasini kiritish taklif etiladi. Talaba qarorining sababini tushuntirib, muqobil yo‘llarning oqibatlarini solishtirishi kerak.

Tibbiyot yo‘nalishida bunday mashg‘ulotlar bemorga hurmat, maxfiylik va mas’uliyatli muloqotga doir vaziyatlar asosida tashkil etilishi mumkin. Aholining sog‘liq bo‘yicha savodxonligini oshirishga qaratilgan talabalar loyihasi esa ilmiy ma’lumotni sodda bayon qilish va ijtimoiy ehtiyojni tushunishni birlashtiradi. Bu faoliyat mutaxassis nazoratida, talabalarning vakolati doirasida bajarilishi lozim. Boshqa yo‘nalishlarda ham mutaxassislikka mos ijtimoiy vazifalarni tanlash mumkin.

Milliy merosni o‘rganishda matnning mazmunini zamonaviy vaziyat bilan bog‘lash muhim. Masalan, adolat, inson qadrini ulug‘lash va mas’uliyat haqidagi qarashlar baholashning xolisligi, jamoada kelishmovchilikni hal qilish yoki yordamga muhtoj kishiga munosabat misolida muhokama qilinadi. Bunday mashg‘ulotda talabaning mustaqil izohi, dalil keltirishi va boshqa fikrga hurmati asosiy o‘rinda turadi. Muayyan fikrni takrorlash ma’naviy rivojlanishning yetarli belgisi sifatida olinmasligi kerak.

To‘rtinchi yo‘nalish rivojlantiruvchi talabchanlikni ishonchli muloqot bilan uyg‘unlashtirishdir. Dasturda talaba murakkab vazifani bajarishi, xatosini muhokama qilishi va yordam so‘rashi uchun sharoit yaratiladi. Ortiqcha yuklama, omma oldida kamsitish yoki doimiy taqqoslashning oldini olish tashkiliy qoidalarga kiritilishi tavsiya etiladi. Psixologik maslahatning mazmuni shaxsiy sir sifatida saqlanib, boshqaruv hisobotlarida faqat zarur umumlashtirilgan ma’lumotlardan foydalaniladi.

Talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun kichik loyiha tanlovlari, ochiq muhokamalar va talabalar maslahat guruhini tashkil etish mumkin. Arizalar dolzarblik, bajarish imkoniyati, kutilayotgan foyda va resurslarning asoslanganligi bo‘yicha ko‘rib chiqiladi. Rad etilgan taklifga ham tushunarli izoh berilishi talabaning keyingi urinishini rejalashtirishiga xizmat qiladi. Mazkur tartib tashabbuskorlikni aniq mas’uliyat va hisobdorlik bilan bog‘laydi.

Raqamli muhitdagi faoliyat ham ushbu ishlarning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Talabalar bilan xabarning manbasini tekshirish, dalil va fikrni farqlash, onlayn muloqot odobi hamda sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan matnni tekshirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish taklif etiladi. Talaba loyiha materialida foydalangan raqamli vositalarni muassasa

qoidalariga muvofiq ko‘rsatishi, taqdim etilgan mazmun uchun javobgarlikni o‘z zimmasida saqlashi lozim.

Taklif etilgan yondashuvda baholash bir necha dalilga tayanadi. Intellektual rivojlanish loyiha sifati, muammoni ifodalash va xulosani asoslash orqali; hamkorlik jamoaviy vazifaga qo‘shilgan hissa orqali; axloqiy mulohaza esa vaziyatli topshiriqda qaror sabablarini tushuntirish orqali kuzatiladi. Talabaning ma’naviyatini bitta umumiy ball bilan ifodalash o‘rniga aniq ko‘nikmalar tavsiflanadi. O‘zini baholash ustoz fikri va faoliyat mahsuloti bilan birga talqin qilinadi.

Boshlang‘ich va semestr yakunidagi vazifalar mazmunan tenglashtirilishi, baholash mezonlari esa oldindan kelishilishi tavsiya etiladi. Dastur qamrovi va yakunlangan loyihalar ulushi imkoniyatdan foydalanishni ko‘rsatadi, lekin shaxsiy rivojlanishning o‘rnini bosa olmaydi. Natijalarni tahlil qilishda dasturdan chiqib ketgan talabalar sabablari, resurslar yetishmasligi va mentorlar yuklamasi ham ko‘rib chiqiladi. Faqat muvaffaqiyatli ishtirokchilar haqida hisobot berish umumiy manzarani buzishi mumkin.

Dastlab bir fakultetda bir semestrlik sinov joriy etilishi mumkin. Tayyorlov bosqichida ehtiyojlar va resurslar aniqlanadi, keyin ochiq qabul, individual rejalar va ustozlik uchrashuvlari tashkil etiladi. Semestr oxirida talabalar fikri, portfolio va bajarilgan ishlar birgalikda tahlil qilinadi. Nazorat guruhi mavjud bo‘lmagan oldin–keyin baholash kuzatilgan o‘zgarishning aynan dastur sababli yuz berganini isbotlamaydi; shu sababli dastlabki natijalar ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi kerak.

Iqtidorli talabaning intellektual va ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda prorektor faoliyatining asosiy mazmuni ta’lim muhiti, ustozlik, psixologik ko‘mak va talaba tashabbuslarini o‘zaro muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi mumkin. Nazariy tahlil individual qobiliyatni rivojlantirishni mustaqil tanlov, ijtimoiy mas’uliyat va amaliy faoliyat bilan bog‘lashga asos beradi. Taklif etilgan yondashuvning samaradorligi esa mahalliy sharoitdagi tekshiruv orqali aniqlanishi lozim.

Amaliy jihatdan ochiq saralash mezonlarini ishlab chiqish, talaba bilan individual rivojlanish rejasini kelishish, ustozlarning vazifalarini aniqlashtirish va loyihalarda akademik halollik talablarini qo‘llash tavsiya etiladi. Yillik rejalarda mazmunli rivojlanish natijalari, ularga erishish uchun zarur resurslar va baholash usullari birgalikda ko‘rsatilishi kerak. Talabalar fikrini muntazam eshitish hamda baholash natijalariga ko‘ra dasturlarni takomillashtirish prorektor faoliyatining shaxs rivojlanishiga yo‘naltirilgan mazmunini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2016). Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son Qonun. LexUZ. https://lex.uz/docs/-3026246
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori. LexUZ. https://lex.uz/docs/-5344692
3. Subotnik, R. F., Olszewski-Kubilius, P., & Worrell, F. C. (2011). Rethinking giftedness and gifted education: A proposed direction forward based on psychological science. Psychological Science in the Public Interest, 12(1), 3–54. DOI: 10.1177/1529100611418056
4. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2020). Intrinsic and extrinsic motivation from a self-determination theory perspective: Definitions, theory, practices, and future directions. Contemporary Educational Psychology, 61, 101860. DOI: 10.1016/j.cedpsych.2020.101860
5. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405–432. DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x
6. Walton, G. M., & Cohen, G. L. (2011). A brief social-belonging intervention improves academic and health outcomes of minority students. Science, 331(6023), 1447–1451. DOI: 10.1126/science.1198364

PEDAGOGIK JARAYONDA SHAXS TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING MANTIQIY TUZILMASI

Kurbanova Gulnoz Negmatovna
pedagogika fanlari doktori, Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Hozirgi davrda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa uning tafakkur salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Jamiyat taraqqiyoti mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda shaxs tafakkurini rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [3].

Tafakkur shaxs bilish faoliyatining yuksak shakli bo‘lib, u voqelikni bilvosita va umumlashtirilgan holda aks ettirish imkonini beradi [22]. Tafakkurning rivojlanganlik darajasi shaxsning ta’lim jarayonidagi faolligi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi[17]. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida tafakkurni rivojlantirish ko‘pincha tizimsiz, fragmentar tarzda amalga oshirilmoqda [21].

Shu sababli mazkur maqolada pedagogik jarayonda shaxs tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini ilmiy asoslash va empirik tadqiqot natijalari orqali samaradorligini ko‘rsatish maqsad qilib olindi.

Asosiy qism. Miya, ruhiyat va tafakkur o‘zaro bog‘liqligi. Inson tafakkuri murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, u bosh miya funksiyalari, ruhiy holat va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Bosh miya insonning bilish faoliyatini boshqaruvchi markaz hisoblanib, unda idrok, xotira, xayol, emotsiya va tafakkur jarayonlari uzviy bog‘liqlikda amalga oshadi [22]. Miya po‘stlog‘ining turli bo‘limlari mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy amallarni ta’minlaydi.

Ruhiyat esa shaxsning ichki kechinmalari, hissiy holati va motivatsiyasini ifodalaydi. Ruhiy barqarorlik va ijobiy emotsiyalar tafakkur jarayonining faollashuviga xizmat qiladi, salbiy ruhiy holatlar esa fikrlash tezligi va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilarning ruhiy holatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega [12].

Til, nutq va tafakkur o‘zaro ta’siri. Til tafakkurning asosiy ifoda vositasi bo‘lib, inson fikr-mulohazalarining shakllanishi va ifodalanishida muhim rol o‘ynaydi. Til orqali shaxs atrof-muhitni anglaydi, bilimlarni umumlashtiradi va muloqot jarayonida uzatadi. Tilning ta’siri nafaqat fikr mazmunida, balki uning tuzilishi va mantiqiy izchilligida ham namoyon bo‘ladi [5].

Nutq jarayonida intonatsiya va nutq ohangi alohida ahamiyat kasb etadi. Intonatsiya fikrning emotsional rangini belgilab, tinglovchining idrokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[11]. Nutq ohangi orqali shaxsning munosabati, ishonchi va hissiy holati namoyon bo‘ladi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchining nutq ohangi va intonatsiyasi ta’lim oluvchilarning diqqatini jalb etish, ularning xayolni faollashtirish va tafakkur jarayonini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, o‘qituvchi nutqining ifodali, mantiqan izchil va emotsional jihatdan boy bo‘lishi ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Nutq ohangining mosligi va intonatsiyaning o‘rinli qo‘llanilishi o‘quvchilarda ijobiy ruhiy holatni yuzaga keltirib, ularning bilish faoliyatini rag‘batlantiradi[24].

Til, nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shaxsning aqliy rivojlanishida muhim psixologik-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tafakkur til orqali shakllanib, nutq jarayonida tashqi ifodasini topadi, nutq esa o‘z navbatida tafakkurni yanada rivojlantiradi va boyitadi. Inson fikr-mulohazalari nutq orqali mantiqiy tizimga solinadi, umumlashtiriladi va ijtimoiy tajriba bilan boyitiladi. Shu bois pedagogik jarayonda til va nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tafakkur rivojining muhim sharti sifatida qaraladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq faoliyatining rivojlanganlik darajasi bosh miya funksiyalarining faolligi bilan chambarchas bog‘liq. Og‘zaki va yozma nutq jarayonida miya po‘stlog‘ining turli markazlari faol ishtirok etib, tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy xulosa chiqarish

va xayoliy tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarini ta’minlaydi. Ayniqsa, murakkab nutqiy vazifalar inson tafakkurining yuqori darajada faollashuviga olib keladi.

Pedagogik jarayonda til va nutqdan ongli foydalanish ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Munozara, bahs-munozaralar, og‘zaki taqdimotlar va muammoli savollar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini erkin ifodalash, o‘z pozitsiyasini asoslash va mantiqiy himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa shaxs tafakkurining rivojlanishida muhim pedagogik natija hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, til, nutq va tafakkur o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik jarayon shaxsning intellektual salohiyatini oshirish, emotsional barqarorligini ta’minlash va ijodiy xayolini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Tafakkur va shaxs rivoji. Tafakkur shaxsning intellektual faoliyatini belgilovchi yetakchi omil bo‘lib, u bilish jarayonida tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish kabi aqliy amallar orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar tafakkur rivoji shaxsning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi va ularni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Pedagogik jarayonda tafakkur rivoji ta’lim oluvchining faolligini oshirish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi metodlarni qo‘llash orqali ta’minlanadi.

Tafakkurni rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, shaxs tafakkurini rivojlantirishning mantiqiy tuzilmasi quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

1. **Maqsadli komponent** – tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan aniq pedagogik maqsad va vazifalar;
2. **Mazmuniy komponent** – mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi bilimlar, tushunchalar va muammoli vazifalar tizimi;
3. **Faoliyat komponenti** – o‘quvchilarning mustaqil va jamoaviy aqliy faoliyati;
4. **Refleksiv-nazorat komponenti** – tafakkur rivoji darajasini baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish[17;23].

Mazkur komponentlarning izchil va o‘zaro uyg‘un holda tashkil etilishi pedagogik jarayonda mantiqiy tuzilmaning samaradorligini ta’minlaydi.

Pedagogik shart-sharoitlar

Tadqiqotda shaxs tafakkurini rivojlantirish samaradorligiga ta’sir etuvchi quyidagi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi: muammoli ta’lim va interfaol metodlardan tizimli foydalanish; mantiqiy topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish; refleksiv tahlil va baholashni yo‘lga qo‘yish.

Mazkur shart-sharoitlar pedagogik jarayonda mantiqiy tuzilmaning faol ishlashiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik natijalar. Tadqiqot 2024–2025 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasasining 2-bosqich talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 60 nafar talaba qatnashib, ular tajriba (30 nafar) va nazorat (30 nafar) guruhlariga ajratildi.

1-jadval. Tafakkur rivoji darajalarining solishtirma ko‘rsatkichlari (%)

Guruh	Yuqori daraja	O’rta daraja	Past daraja
Tajriba guruhi	46,7	43,3	10.0
Nazorat guruhi	26.7	40.0	33.3

Jadvaldan ko‘rinadiki, mantiqiy tuzilma asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni tajriba guruhida yuqori natijalarni ta’minlagan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik jarayonda shaxs tafakkurini rivojlantirish mantiqiy tuzilma asosida tashkil etilganda ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Mantiqiy tuzilmaning maqsadli, mazmuniy, faoliyat va refleksiv komponentlari o‘zaro uyg‘unlashganda shaxsda mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Empirik tadqiqot natijalari tajriba guruhida tafakkur rivoji ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqladi. Mazkur xulosalar pedagogik amaliyotda ta’lim jarayonini

takomillashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гилфорд, Дж. Структура интеллекта / Дж. Гилфорд. — М.: Прогресс, 1988. — 432 с.
2. Торранс, Э. Креативность и развитие творческого мышления / Э. Торранс. — М.: Прогресс, 1990. — 384 с.
3. Выготский, Л. С. Мышление и речь / Л. С. Выготский. — М.: Педагогика, 1982. — 350 с.
4. Колб, Д. Экспериментальное обучение: опыт как источник обучения и развития / Д. Колб. — Нью-Йорк: Prentice Hall, 1984. — 256 p.
5. Хабермас, Ю. Теория коммуникативного действия / Ю. Хабермас. — М.: Academia, 2000. — 528 с.
6. Бубер, М. Я и Ты / М. Бубер. — М.: Республика, 1993. — 220 с.
7. Epstein, R. M., Hundert, E. M. Defining and Assessing Professional Competence // *Journal of the American Medical Association (JAMA).* — 2002. — Vol. 287, No. 2. — P. 226–235.
8. Van der Vleuten, C. Assessment of Professional Competence: Developments, Research and Practical Implications // *Medical Education.* — 2016. — Vol. 50(1). — P. 1–9.
9. Harden, R. M., Laidlaw, J. *Essential Skills for a Medical Teacher.* — Edinburgh: Elsevier, 2021. — 360 p.
10. Bandura, A. *Social Learning Theory.* — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. — 247 p.
11. Brookfield, S. *Becoming a Critically Reflective Teacher.* — San Francisco: Jossey-Bass, 2017. — 290 p.
12. Мирзаев, Ш. Тиббиёт таълимининг инсонпарварлик асослари / Ш. Мирзаев. — Тошкент: Фан, 2020. — 185 б.
13. Ҳасанов, Н. Педагогик этика ва касбий маданият / Н. Ҳасанов. — Тошкент: Илм-зиё, 2019. — 210 б.
14. Севинчова, Д. Н. Тиббий таълимда креатив тафаккурни ривожлантириш имкониятлари // *Тиббиёт таълими журнали.* — 2024. — №2. — Б. 44–51.
15. Юсупова, А. Т. Тиббий таълимда ахлоқий компетенцияларни шакллантиришнинг педагогик асослари // *Педагогика ва психология ж. — 2023. — №3.* — Б. 28–34.
16. Subetto, A. I. *Filosofiya obrazovaniya i kul'tury.* — SPb.: Nauka, 2005. — 312 s.
17. Dewey, J. *How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process.* — Boston: D.C. Heath, 1933. — 301 p.
18. Sternberg, R. J. *Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized.* — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 333 p.
19. Muslimov, N. A. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda tafakkur madaniyatining o‘rni // *Oliy ta’limda innovatsiyalar.* — 2022. — №1. — B. 40–45.
20. Schweitzer, A. *Kultura i etika.* — M.: Республика, 1992. — 256 с.
21. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
22. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
23. Klarin M.V. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Moskva, 2018.
24. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar to‘plami. – Toshkent, 2022.

IQTIDORLI SHAXSNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Kurbonova Gulchehra Abdullayevna
Perfect universityning "Gumanitar fanlar" kafedrasi
professori, psixologiya fanlari doktori, Turon fanlar akademiyasining akademigi, professori,
Turon fanlar akademiyasi tasarrufidagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri insonning intellektual va ijodiy salohiyatidan samarali foydalanish hisoblanadi. Fan, texnika, ta'lim, iqtisodiyot va madaniyatning jadal rivojlanishi mustaqil fikrlaydigan, yangilik yaratishga qodir, muammolarga nostandart yondasha oladigan va o‘z qobiliyatlarini amaliy faoliyatda namoyon etadigan shaxslarni tarbiyalashni talab qilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod orasidagi iqtidorli shaxslarni erta aniqlash va ularning tabiiy imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish muhim pedagogik-psixologik vazifalardan biridir.

Iqtidor tushunchasi psixologiyada uzoq vaqt davomida asosan yuqori intellekt bilan bog‘lab tushuntirilgan. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlarda iqtidor ancha keng tushuncha sifatida qaraladi. Iqtidor shaxsning ma'lum bir faoliyat sohasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradigan individual-psixologik xususiyatlari majmuasidir. U matematik, lingvistik, ijodiy, musiqiy, texnik, sport, ijtimoiy va boshqa yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

J. S. Renzulli iqtidorni faqat yuqori intellekt bilan izohlash yetarli emasligini ta'kidlab, uni uchta asosiy komponentning o‘zaro ta'siri bilan tushuntiradi: o‘rtachadan yuqori qobiliyat, ijodkorlik va vazifaga sadoqat [1]. Demak, insonning yuqori intellektga ega bo‘lishi uning albatta yuqori natijalarga erishishini anglatmaydi. Qobiliyatning real natijaga aylanishi uchun shaxsning motivatsiyasi, mehnatsevarligi, qiziqishi va faoliyatga bo‘lgan munosabati ham muhim.

F. Gagne esa tabiiy qobiliyat va rivojlangan iste'dod o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Uning Differensial iqtidor va iste'dod modeliga ko‘ra, insonda mavjud tabiiy qobiliyatlar ta'lim, mashq, motivatsiya va muhit ta'sirida rivojlanib, ma'lum faoliyat sohasidagi iste'dodga aylanishi mumkin [2].

Shu sababli iqtidorni rivojlantirish masalasida "bola nimaga qodir?" degan savol bilan birga "uning qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin?" degan savolga ham javob izlash zarur.

1. Iqtidorning psixologik mazmuni. Iqtidor shaxsning individual imkoniyatlarini belgilovchi murakkab psixologik hodisadir. U birgina intellektual ko‘rsatkich bilan chegaralanmaydi. Iqtidorli shaxs odatda ma'lumotni tez o‘zlashtirishi, muammoning mohiyatini tez anglab yetishi, mustaqil fikr yuritishi, yangi g‘oyalar ilgari surishi va murakkab vazifalarga qiziqishi bilan ajralib turadi. Biroq barcha iqtidorli shaxslar bir xil ko‘rinishda bo‘lmaydi. Masalan, bir o‘quvchi matematika masalalarini juda tez yechishi mumkin, boshqasi esa musiqa asarlarini eslab qolishda yuqori qobiliyat namoyon etadi. Yana bir o‘quvchi odamlar bilan muloqot qilish, ularni ishontirish va jamoani boshqarishda kuchli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun iqtidorni aniqlashda faqat maktabdagi baholarga tayanish to‘g‘ri emas. Bola darsda yuqori natija ko‘rsatmasa ham, muayyan sohada kuchli ijodiy yoki amaliy qobiliyatga ega bo‘lishi mumkin.

Hayotiy misol. Bir o‘quvchi maktabda matematika fanidan doimo yuqori baho oladi. Boshqa bir o‘quvchi esa o‘rtacha baho olsa-da, uyidagi oddiy buyumlardan turli mexanizmlar yasashga qiziqadi. Birinchi bolaning akademik qobiliyati, ikkinchisining esa texnik-ijodiy salohiyati yuqori bo‘lishi mumkin. Demak, iqtidorni baholashda bolaning qiziqishi, mustaqil faoliyati va muammolarni hal qilish uslubini ham hisobga olish zarur.

2. Motivatsiya — iqtidorni rivojlantiruvchi asosiy omil. Iqtidorni real yutuqqa aylantirishda motivatsiyaning o‘rni nihoyatda katta. Motivatsiya insonni muayyan faoliyatga undaydi va qiyinchiliklar paydo bo‘lganda faoliyatni davom ettirishga yordam beradi. Motivatsiya ichki va tashqi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ichki motivatsiyada inson faoliyatning o‘zidan zavq oladi. Tashqi motivatsiyada esa baho, mukofot, maqtov yoki boshqa tashqi omillar muhim rol o‘ynaydi. E. L. Deci va R. M. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi belgilash nazariyasida insonning barqaror motivatsiyasi uchun avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari muhimligi ko‘rsatiladi [3]. Iqtidorli bolalar ko‘pincha o‘zlarini qiziqtirgan

mavzularni boshqalarga qaraganda chuqurroq o‘rganishga moyil bo‘ladilar. Agar ota-ona yoki o‘qituvchi bolaning ushbu qiziqishini qo‘llab-quvvatlasa, ichki motivatsiya kuchayadi.

Hayotiy misol. 11 yoshli o‘quvchi astronomiyaga juda qiziqadi. U osmon jismlari haqida mustaqil ravishda kitoblar o‘qiydi va internetdan ma’lumot izlaydi. Agar ota-onasi uning qiziqishini “Bu yoshda bunday narsalar bilan shug‘ullanishning nima keragi bor?” deb cheklasa, qiziqish susayishi mumkin. Aksincha, unga astronomiya bo‘yicha kitob olib berish, kuzatuvlar olib borishga sharoit yaratish yoki tegishli to‘garakka jalb qilish bolaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Demak, iqtidorli shaxsni rivojlantirishda blaning **nimaga qiziqishi**ni aniqlash va shu qiziqishni rivojlantirish muhimdir.

3. Ijodkorlik va mustaqil fikrlash. Iqtidorning muhim belgilaridan biri ijodkorlikdir. Ijodkorlik yangi g‘oyalarni yaratish, mavjud muammoga yangicha qarash va nostandart yechim topish qobiliyatidir. T. M. Amabile ijodkorlikning shakllanishida shaxsning ichki motivatsiyasi va ijtimoiy muhit muhimligini ta’kidlaydi [4]. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun bolaga faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki mustaqil fikr yuritish imkoniyati ham berilishi lozim. O‘qituvchi dars davomida “To‘g‘ri javob qaysi?” degan savol bilan cheklanib qolmasdan, “Bu muammoni yana qanday usul bilan hal qilish mumkin?”, “Agar shart o‘zgarsa nima bo‘ladi?”, “Siz qanday yechim taklif qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollarni berishi foydalidir.

Hayotiy misol. O‘qituvchi o‘quvchilarga oddiy qog‘ozdan eng mustahkam ko‘prik modelini yasash topshirig‘ini beradi. Bir o‘quvchi darslikdagi namunani takrorlaydi. Boshqa o‘quvchi esa qog‘ozni buklab, uchburchak shaklidagi konstruksiya yaratadi. Ikkinchi o‘quvchi tayyor bilimni takrorlashdan ko‘ra, muammoni mustaqil hal qilishga harakat qilgani bilan ijodiy yondashuv namunasini ko‘rsatadi.

4. O‘ziga ishonch va o‘z-o‘zini samarali his qilish. Iqtidorning mavjudligi bilan bir qatorda shaxsning o‘z qobiliyatlariga ishonishi ham katta ahamiyatga ega. A. Bandura “o‘z-o‘zini samarali his qilish” tushunchasi orqali insonning muayyan vazifani muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini tushuntiradi [5].

O‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan shaxs qiyin vazifalardan qochmaydi. Aksincha, ularni o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish uchun imkoniyat sifatida qabul qiladi.

Hayotiy misol. Iqtidorli o‘quvchi fan olimpiadasida murakkab masalaga duch keladi. U masalani bir necha daqiqa ichida yecha olmaydi. Agar o‘quvchida “Men buni uddalay olmayman” degan ishonch shakllangan bo‘lsa, u topshiriqni tashlab qo‘yishi mumkin. Agar “Bu masala qiyin, lekin boshqa usulni sinab ko‘raman” deb fikrlasa, u muvaffaqiyatsizlikni yangi tajriba sifatida qabul qiladi.

Shu sababli ota-ona va pedagog bolaga faqat natija uchun emas, uning **harakati, strategiyasi va mehnati uchun ham ijobiy fikr-mulohaza** berishi kerak.

5. O‘sishga yo‘naltirilgan tafakkur. C. Dvek insonning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan qarashlari uning rivojlanishiga ta’sir qilishini ko‘rsatadi [6]. Agar bola o‘z qobiliyatlarini o‘zgarmas deb hisoblaydigan bo‘lsa, u qiyin vazifalardan qochishi mumkin. Agar qobiliyatni mehnat va o‘rganish orqali rivojlantirish mumkin deb hisoblaydigan bo‘lsa, qiyinchiliklarga nisbatan faolroq munosabatda bo‘ladi.

Masalan, “Men matematikadan qobiliyatsizman” degan fikr bolaning yangi masalalarni yechishga bo‘lgan harakatini cheklashi mumkin. “Hozircha bu mavzuni yaxshi tushunmayapman, ko‘proq mashq qilsam o‘rganaman” degan qarash esa rivojlanishga yo‘naltirilgan fikrlashni anglatadi. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda ayniqsa bir jihatga e’tibor berish lozim: ularni doimo “aqlli”, “eng zo‘r”, “birinchi” deb ta’riflash ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki bola o‘zining asosiy qadri yuqori natijaga bog‘liq deb o‘ylab qolishi mumkin. Shuning uchun “Sen juda aqllisan” degan bahodan ko‘ra “Sen bu masalani yechish uchun bir necha usulni sinab ko‘rding” kabi fikr-mulohaza foydaliroqdir.

6. Qat’iyat va o‘zini o‘zi boshqarish. Iqtidorli shaxsning rivojlanishida qat’iyat, sabr va o‘zini o‘zi boshqarish ham muhim omillardan hisoblanadi. Yuqori qobiliyat insonning murakkab faoliyatni doimo oson bajarishini anglatmaydi. J. S. Renzulli iqtidorning asosiy komponentlaridan biri sifatida vazifaga sadoqatni ko‘rsatadi [1]. Inson maqsadiga erishish uchun uzoq vaqt davomida

mehnat qilishi, xatolarini tahlil qilishi va faoliyatini davom ettirishi zarur. Masalan, matematika faniga qobiliyatli o‘quvchi olimpiadaga tayyorlanayotganda yuzlab murakkab masalalarni yechishi mumkin. Uning muvaffaqiyati faqat tabiiy qobiliyatiga emas, balki muntazam mashq qilishiga ham bog‘liq.

O‘zini o‘zi boshqarish quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:

- maqsad qo‘yish;
- vaqtni rejalashtirish;
- vazifalarni ustuvorlashtirish;
- o‘z faoliyatini nazorat qilish;
- xatolarni tahlil qilish;
- natijani baholash;
- zarur hollarda faoliyat strategiyasini o‘zgartirish.

Bu ko‘nikmalarni bolalikdan boshlab rivojlantirish iqtidorning barqaror natijaga aylanishiga yordam beradi.

7. Oila muhitining psixologik ahamiyati. Oila bolaning shaxsiyati shakllanadigan birinchi ijtimoiy muhitdir. Ota-onaning farzand qobiliyatiga bo‘lgan munosabati iqtidorning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtidorli bolaning ota-onasi ba’zan undan haddan tashqari katta natijalar kutishi mumkin. “Sen aqlli bolasan, shuning uchun doimo birinchi o‘rinda bo‘lishing kerak” degan talab dastlab rag‘batlantiruvchi bo‘lib ko‘rinsa-da, keyinchalik bolaning muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishiga olib kelishi mumkin. K. E. Ablard va W. D. Parker tomonidan olib borilgan tadqiqotda ota-onalarning yutuqqa yo‘naltirilgan maqsadlari bilan akademik iqtidorli bolalardagi perfektsionizm o‘rtasidagi munosabat o‘rganilgan [7].

Hayotiy misol. Bir o‘quvchi nazorat ishidan 95 ball oladi. Ota-onasi “Nega 100 emas?” deb so‘raydi. Boshqa bir o‘quvchining ota-onasi esa “Qaysi savollar qiyin bo‘ldi? Keyingi safar nimani yaxshilash mumkin?” deb so‘raydi. Birinchi vaziyatda bola natijaga bog‘liq bosimni kuchliroq his qilishi mumkin. Ikkinchi vaziyat esa xatolarni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Shuning uchun oilada bolaning natijasidan ko‘ra uning **rivojlanish jarayoni, qiziqishi va mehnatini qadrlash** muhim.

8. Pedagogning roli. Iqtidorli o‘quvchining rivojlanishida pedagogning professional va psixologik kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bolaning qobiliyatini o‘z vaqtida payqashi, unga mos ta’lim strategiyasini tanlashi va murakkabroq vazifalarni taklif qilishi kerak. Iqtidorli o‘quvchi mavzuni sinfdoshlaridan tezroq o‘zlashtirishi mumkin. Bunday vaziyatda unga oddiy mashqlar sonini ko‘paytirishdan ko‘ra, mazmunan murakkabroq va ijodiy topshiriqlar berish maqsadga muvofiq. Masalan, matematika darsida boshqa o‘quvchilar oddiy tenglamalarni yechayotgan vaqtda iqtidorli o‘quvchiga tenglama tuzish, real hayotdagi vaziyatni matematik modelga aylantirish yoki bir masalani bir necha usulda yechish topshirig‘i berilishi mumkin. Pedagog shuningdek, iqtidorli o‘quvchining ijtimoiy-emotsional ehtiyojlarini ham hisobga olishi kerak. Uni sinfdoshlardan ajratib qo‘yish yoki “eng aqlli o‘quvchi” sifatida doimiy ravishda namoyish qilish uning tengdoshlari bilan munosabatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

9. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish. Iqtidorli shaxsning intellektual rivojlanishi uning emotsional rivojlanishidan alohida qaralmasligi kerak. Iqtidorli bola ham do‘stlik, e’tirof, xavfsizlik va qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi. Ba’zi iqtidorli o‘quvchilar tengdoshlari bilan qiziqishlari mos kelmagani sababli o‘zini yolg‘iz his qilishi mumkin. Boshqalari esa o‘zidan doimo yuqori natija kutgani sababli xavotirga tushishi mumkin. Shuning uchun iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda ilmiy va akademik rivojlanish bilan birga:

- muloqot ko‘nikmalari;
- jamoada ishlash;
- emotsiyalarni boshqarish;
- muvaffaqiyatsizlikni qabul qilish;
- stressga bardoshlilik;
- o‘ziga nisbatan sog‘lom munosabat kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarur.

10. Iqtidorli shaxsni rivojlantirishning samarali shartlari. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, iqtidorli shaxsni rivojlantirish uchun quyidagi shartlarni ajratish mumkin:

1. **Iqtidorni erta va to‘g‘ri aniqlash.** Bunda faqat test natijalariga emas, bolaning qiziqishi, ijodkorligi va faoliyatdagi xatti-harakatlariga ham e’tibor berish.
2. **Individual yondashuv.** Har bir bolaning kuchli tomoni va rivojlanishi kerak bo‘lgan jihatlarini hisobga olish.
3. **Ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash.** Bolani faqat baho yoki mukofot uchun emas, bilim va faoliyatning o‘zidan zavq olishga yo‘naltirish.
4. **Ijodiy muhit yaratish.** Mustaqil fikrlash, savol berish va yangi g‘oya taklif qilish uchun imkoniyat yaratish.
5. **Muvaffaqiyatsizlikka ijobiy munosabat.** Xatoni jazolash emas, uning sabablarini tahlil qilish va undan xulosa chiqarishga o‘rgatish.
6. **Ota-ona va pedagog hamkorligi.** Bolaning rivojlanish maqsadlari va ehtiyojlarini birgalikda muhokama qilish.
7. **Ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash.** Bolaning do‘stlari, jamoasi va oilasi bilan sog‘lom munosabatlarini rivojlantirish.
8. **Mustaqillikni shakllantirish.** Bola o‘z maqsadlarini belgilash, reja tuzish va faoliyat natijasini baholashni o‘rganishi kerak.

Xulosa

Iqtidorli shaxsni rivojlantirish murakkab, uzluksiz va ko‘p omilli psixologik jarayondir. Iqtidorni faqat yuqori intellekt yoki yuqori baholar bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Insonning tabiiy qobiliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘lsa-da, bu imkoniyatning real iste’dodga aylanishi ko‘plab ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtidorni rivojlantirishda **ichki motivatsiya, ijodkorlik, o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini samarali his qilish, o‘sishga yo‘naltirilgan tafakkur, qat’iyat, o‘zini o‘zi boshqarish va emotsional barqarorlik** asosiy psixologik omillar hisoblanadi. Ushbu omillar bir-biridan mustaqil emas, balki o‘zaro bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi. Iqtidorli bola o‘z qobiliyatlariga ishonsa, qiyinchiliklardan qo‘rqmasa, xatolarini tahlil qila olsa va o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘ya olsa, uning tabiiy salohiyatini yuqori natijaga aylantirish imkoniyati ortadi. Bunda oila va pedagogning munosabati ham katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolaning faqat yuqori natijalarini emas, uning harakatini, qiziqishini va shaxsiy rivojlanishini qadrlashlari lozim. Pedagoglar esa iqtidorli o‘quvchilarga individual yondashib, ularning bilimlarini chuqurlashtirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil izlanishiga sharoit yaratishlari zarur.

Umuman olganda, **iqtidor — tayyor yutuq emas, balki rivojlantirilishi kerak bo‘lgan psixologik salohiyatdir**. Uning to‘laqonli namoyon bo‘lishi shaxsning individual imkoniyatlari, motivatsiyasi va mehnati bilan bir qatorda, oila, maktab, pedagog va ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlashiga ham bog‘liq. Shu bois iqtidorli shaxsni rivojlantirish jarayonida intellektual rivojlanish bilan bir qatorda uning emotsional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham kompleks yondashish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Renzulli, J. S. What Makes Giftedness? Reexamining a Definition // *Phi Delta Kappan*. — 1978. — Vol. 60, No. 3. — P. 180–184, 261.
2. Gagne, F. Transforming Gifts into Talents: The DMGT as a Developmental Theory // *High Ability Studies*. — 2004. — Vol. 15, No. 2. — P. 119–147. — DOI: 10.1080/1359813042000314682.
3. Deci, E. L., Ryan, R. M. The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // *Psychological Inquiry*. — 2000. — Vol. 11, No. 4. — P. 227–268. — DOI: 10.1207/S15327965PLI1104_01.
4. Amabile, T. M. *Creativity in Context*. — Boulder, CO: Westview Press, 1996. — 317 p.
5. Bandura, A. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. — New York: W. H. Freeman and Company, 1997. — 604 p.
6. Dweck, C. S. *Mindset: The New Psychology of Success*. — New York: Random House, 2006. — 320 p.

7. Ablard, K. E., Parker, W. D. Parents' Achievement Goals and Perfectionism in Their Academically Talented Children // *Journal of Youth and Adolescence*. — 1997. — Vol. 26, No. 6. — P. 651–667. — DOI: 10.1023/A:1022392524554.
8. Garn, A. C., Matthews, M. S., Jolly, J. L. Parents' Role in the Academic Motivation of Students with Gifts and Talents // *Psychology in the Schools*. — 2012. — Vol. 49, No. 7. — P. 656–667. — DOI: 10.1002/pits.21626.
9. Geake, J. G., Gross, M. U. M. Teachers' Negative Affect Toward Academically Gifted Students: An Evolutionary Psychological Study // *Gifted Child Quarterly*. — 2008. — Vol. 52, No. 3. — P. 217–231. — DOI: 10.1177/0016986208319704.
10. Vigotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
11. Hennessey, B. A. Developing Creativity in Gifted Children: The Central Importance of Motivation and Classroom Climate. — Storrs, CT: National Research Center on the Gifted and Talented, 2004.
12. American Psychological Association. Top 20 Principles for Creative, Talented, and Gifted Students: Teaching and Learning. — Washington, DC: American Psychological Association, 2024.
13. Xodjayeva, D. J. Akademik iqtidorli talabalar bilan o‘quv jarayonini tashkil etishning psixologik xususiyatlari // *Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali*. — 2025. — Vol. 4, No. 9. — DOI: 10.65185/mojgo.v4i9.201.
14. Yunusova, N. M., Khamrayeva, N. M. Features of the Family's Influence on the Development of Intellectually Gifted Students // *International Research Journal*. — 2025. — No. 159(2). — DOI: 10.60797/IRJ.2025.159.2.
15. Unpacking the Underachievement of Gifted Students: A Systematic Review of Internal and External Factors // *Heliyon*. — 2024.

PSIXOLOGIYA VA IQTIDORLI SHAXSNI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY TAHLIL

Xajiyeva Iroda Adambayevna
Urganch RANCH texnologiya universiteti
professori v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc)

Iqtidorli shaxs haqida gap ketganda, ko‘pincha yuqori baho, tez o‘zlashtirish yoki murakkab masalani boshqalardan oldin yechish ko‘z oldimizga keladi. Bu belgilar muhim, ammo ular iqtidorning to‘liq mazmunini bermaydi. Bir o‘quvchi matematik formulalarni tez ilg‘ashi mumkin, boshqa biri yangi til birliklarini noodatiy bog‘laydi, uchinchisi esa ijtimoiy vaziyatdagi muammoni nozik sezib, guruhni samarali tashkil etadi. Demak, psixologik tahlil qobiliyatning namoyon bo‘lish shakllari bilan bir qatorda, shaxsning o‘z imkoniyatini qanday anglashini, uni qaysi sharoitda rivojlantirishini va faoliyat davomida qanday hissiy holatni boshdan kechirishini ham qamrab olishi kerak.

Terman tomonidan olib borilgan uzoq muddatli tadqiqotda intellekt ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan 1528 nafar bola kuzatilgan [8]. Ushbu loyiha iqtidorli bolalarning ko‘pchiligi ta’lim va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, keyingi psixologik tadqiqotlar yuqori IQning o‘zi ijodiy mahsuldorlik yoki shaxsiy farovonlikni kafolatlamasligini aniqladi. Tarixiy ma’lumotning muhim sabog‘i shundan iborat: qobiliyatni erta aniqlash zarur, lekin rivojlanish yo‘lini oldindan belgilab qo‘yish mumkin emas. Shaxsiy motivlar, ustoz bilan munosabat, oiladagi kutilmalar va muvaffaqiyatsizlikka munosabat natijani sezilarli darajada o‘zgartiradi.

Zamonaviy yondashuvlarda iqtidor dinamik hodisa sifatida qaraladi. Renzulli uni yuqori qobiliyat, kreativlik va vazifaga sadoqatning kesishmasida yuzaga keladigan faoliyat sifatida talqin qiladi. Gagné esa tabiiy qobiliyatlar ta’lim, mashq, shaxsiy xususiyatlar va muhit ta’sirida iste’dodga aylanishini farqlaydi. Bu ikki model bir masalaga turli tomondan javob beradi. Renzulli real faoliyatdagi faollikni, Gagné esa tabiiy salohiyatning malakaga aylanish jarayonini

tushuntiradi. Shu bois iqtidorli shaxsni rivojlantirish faqat saralash yoki tezlashtirilgan o‘qitish masalasi emas, balki psixik rivojlanishni boshqarish vazifasidir.

Maqolaning maqsadi iqtidorli shaxs rivojining psixologik mexanizmlarini nazariy manbalar asosida tizimlashtirish, intellekt va kreativlikning motivatsiya, emotsional holat hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirini ochib berishdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha qo‘yildi: iqtidorning barqaror natijaga aylanishi uchun qaysi psixologik va ijtimoiy shartlar birgalikda ishlashi kerak? Mazkur savolga javob izlashda iqtidorning faqat natija emas, rivojlanish jarayoni ekanligi asosiy mezon sifatida olindi.

METODOLOGIYA. Tadqiqot nazariy, narrativ adabiyotlar tahlili dizaynida bajarildi. Empirik respondentlar guruhi shakllantirilmadi va yangi statistik ma’lumotlar yig‘ilmadi. Shuning uchun maqoladagi “natijalar” atamasi nazariy manbalarni tematik va qiyosiy tahlil qilishdan olingan xulosalarni anglatadi. Bunday yondashuv mavzu bo‘yicha mavjud konsepsiyalarni birlashtirishga, turli maktablarning umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatishga imkon beradi.

Manbalarni tanlashda uchta mezon qo‘llandi. Birinchisi, asar iqtidor, qobiliyat, kreativlik yoki shaxs rivojini bevosita izohlashi kerak edi. Ikkinchisi, nazariya iqtidorli shaxsning real faoliyatini, motivatsiyasini yoki emotsional holatini tushuntirish imkonini berishi lozim edi. Uchinchisi, model ta’lim va psixologik qo‘llab-quvvatlash amaliyotiga tatbiq etiladigan tushunchalarni taklif qilishi kerak edi. Shu mezon asosida Renzulli, Gagné, Gardner, Terman, Vygotskiy, Deci va Ryan, Dweck, Bandura hamda Subotnik va hammualliflarning ishlari tahlil qilindi [7].

Tahlil ikki bosqichda o‘tkazildi. Dastlab manbalarda iqtidorning qanday ta’riflangani, qobiliyat va iste’dod o‘rtasidagi farq, kreativlikning o‘rni hamda rivojlanish shartlari ajratib olindi. Keyingi bosqichda mazkur g‘oyalar besh tematik guruhga birlashtirildi: individual psixologik omillar, motivatsion jarayonlar, emotsional va ijtimoiy rivojlanish, ta’lim muhiti hamda psixologik yordam. Qiyoslash jarayonida qarama-qarshi ko‘ringan fikrlar ham saqlandi. Masalan, yuqori natija ba’zi o‘quvchilarda ichki qiziqishni kuchaytirsa, boshqalarda doimiy baholanish xavotirini oshirishi mumkin.

Metodologik jihatdan maqola rivojlanish psixologiyasi va ta’lim psixologiyasi chegarasida turadi. Bu tanlov bejiz emas. Iqtidorni faqat psixometrik ko‘rsatkich sifatida ko‘rsak, uning faoliyatda shakllanishini tushuntira olmaymiz; faqat pedagogik texnologiya sifatida qarasak, emotsional zo‘riqish va shaxslararo munosabatlarning ta’siri ko‘zdan chetda qoladi. Nazariy tahlilning vazifasi aynan shu uzilgan qismlarni bir butun modelga keltirishdan iborat.

NATIJALAR. Tahlil natijasida iqtidorli shaxs rivojiga ta’sir qiluvchi omillar alohida emas, o‘zaro bog‘langan tizim sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Intellekt murakkab vazifani tushunish va tez qayta ishlash imkonini beradi, kreativlik mavjud bilimlarni yangi kombinatsiyada qo‘llashga yordam beradi, motivatsiya esa faoliyatni davom ettirish uchun energiya yaratadi. Ushbu uchlikdan biri zaif bo‘lsa, yuqori salohiyat kutilgan natijaga aylanmasligi mumkin. Masalan, kuchli mantiqiy tafakkurga ega, lekin mustaqil tanlov imkoniyati bo‘lmagan talaba topshiriqni sifatli bajarsa ham, uzoq muddatli loyihada tashabbus ko‘rsatmasligi mumkin.

1. Iqtidorning psixologik tuzilishi. Renzullining uch halqali modeli iqtidorni yuqori qobiliyat, kreativlik va vazifaga sadoqatning kesishmasi sifatida tushuntiradi [6]. Modelning amaliy qiymati shundaki, u “iqtidorli” degan yorliqni faqat test natijasiga bog‘lab qo‘ymaydi. O‘quvchi murakkab masalani yecha olishi bilan birga, yangi savol qo‘yishi va muammoni oxirigacha izchil o‘rganishi kerak. Gagnening differensial modeli bu fikrni rivojlantirib, tabiiy qobiliyat bilan rivojlangan iste’dod o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi [4]. Biologik yoki dastlabki psixologik imkoniyatlar ta’lim, mashq, mentorlik va oilaviy sharoit orqali aniq kompetensiyaga aylanadi.

Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasi iqtidorni namoyon qilish kanallari bir xil emasligini ko‘rsatadi [5]. Lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, musiqiy, tana-kinestetik, shaxslararo va shaxs ichki intellekt kabi yo‘nalishlar ta’lim jarayonida turli belgilar orqali ko‘rinadi. Bu nazariyani test natijalarini mexanik ravishda almashtiruvchi vosita sifatida emas, shaxsning kuchli tomonlarini kengroq kuzatish uchun konseptual xarita sifatida ishlatish

maqsadga muvofiq. Masalan, tilga qobiliyatli talaba faqat so‘z boyligi bilan emas, mazmunni qayta tuzish, ma’no nozikliklarini ilg‘ash va kommunikativ vaziyatga mos ifoda tanlash orqali ham ajralib turadi.

2. Kreativlik va metakognitiv boshqaruv. Kreativlik iqtidorning bezagi emas, uning faol mexanizmlaridan biridir. Yangi g‘oya yaratish uchun shaxs muammoni qayta ko‘ra olishi, taxminiy yechimlarni solishtirishi va xatoni izlanishning tabiiy qismi sifatida qabul qilishi kerak. Bu jarayonda metakognitiv ko‘nikmalar, ya’ni o‘z fikrlash usulini kuzatish, strategiyani tanlash va natijani qayta baholash, alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqori salohiyatli o‘quvchi murakkab masalani tez yechmasligi ham mumkin, lekin u qaysi bosqichda to‘xtaganini tushuntira olsa, keyingi urinishni ongli ravishda o‘zgartiradi.

Kreativ faoliyatni rivojlantirish uchun topshiriqning yagona to‘g‘ri javobga yopishib qolmasligi muhim. Masalan, tarix darsida talabadan sanani yodlashni emas, bitta voqeani uch xil ijtimoiy guruh nuqtayi nazaridan izohlashni so‘rash mumkin. Til mashg‘ulotida esa matnni qayta tarjima qilishdan tashqari, uning mazmunini boshqa auditoriya uchun qayta yozish topshirig‘i beriladi. Bunday vazifalar bilimni takrorlashdan ko‘ra, bilimni ko‘chirish va qayta tashkil etishga undaydi. Shu yerda psixologik xavfsizlik zarur: har bir xato darhol jazolansa, noodatiy fikr bildirish kamayadi.

3. Motivatsiya va o‘zini boshqarish. Deci va Ryan o‘zini belgilash nazariyasida ichki motivatsiya uch ehtiyoj bilan bog‘lanadi [2]: avtonomiya, kompetentlik va munosabat. Iqtidorli shaxs uchun topshiriqning qiyinligi muhim, ammo qiyinchilikning o‘zi yetarli emas. O‘quvchi nima uchun shu ishni bajarayotganini tushunishi, usul tanlashda ma’lum erkinlikka ega bo‘lishi va o‘z o‘sishini ko‘ra olishi kerak. Aks holda tashqi mukofotlar qisqa muddatli faollikni oshiradi, lekin qiziqishning o‘zini susaytirishi mumkin.

Banduraning o‘z-o‘ziga samaradorlik konsepsiyasi bu jarayonning kognitiv tomonini tushuntiradi [1]. Shaxs “men buni uddalay olaman” degan ishonchni tayyor gapdan emas, real tajribadan hosil qiladi. Shuning uchun rivojlanish dasturida vazifalar haddan tashqari oson ham, muntazam mag‘lubiyatga olib keladigan darajada og‘ir ham bo‘lmasligi kerak. O‘quvchi bosqichma-bosqich murakkablashadigan vazifalarni bajarganida, muvaffaqiyatni faqat tug‘ma qobiliyat bilan emas, strategiya va mehnat bilan ham bog‘lay boshlaydi. Dweckning o‘suvchi tafakkur g‘oyasi shu nuqtada amaliy ahamiyatga ega [3]: “hali uddalay olmadim” iborasi qobiliyat chegarasini emas, o‘rganish jarayonining davom etayotganini bildiradi.

4. Emotsional rivojlanish va ijtimoiy moslashuv. Iqtidorli bolalar ko‘pincha o‘z yoshiga nisbatan murakkab savollar beradi, adolatsizlikka keskin munosabat bildiradi yoki tengdoshlari bilan umumiy qiziqish topishda qiynaladi. Bu holatni darhol “injiqlik” deb baholash psixologik ehtiyojni yashiradi. Yuqori intellekt tezligi emotsional yetuklik bilan bir vaqtda rivojlanmasligi mumkin. Bola murakkab g‘oyani anglaydi, lekin xafa bo‘lganida uni boshqarish, kutish yoki murosa qilish ko‘nikmalari hali shakllanmagan bo‘ladi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning sifati ayniqsa muhim. Oila farzanddan faqat yuqori natija kutsa, iqtidorli o‘quvchi o‘z qadrini baho bilan tenglashtirishi mumkin. Har bir muvaffaqiyatdan keyin yanada kattaroq natija talab qilinishi perfeksionizmni kuchaytiradi. Perfeksionizmning konstruktiv shakli ishni puxta bajarishga undaydi, destruktiv shakli esa xato qilishdan qo‘rqish, vazifani cho‘zish va o‘zini keskin tanqid qilish bilan kechadi. Psixologik yordamning vazifasi natijani pasaytirish emas, muvaffaqiyat va shaxsiy qadrni bir-biridan ajratishga ko‘maklashishdir.

Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy konsepsiyasi iqtidor rivojida muloqot va hamkorlikning o‘rnini tushuntiradi [9]. Shaxs o‘zi mustaqil bajara oladigan ish bilan yordam orqali uddalaydigan vazifa o‘rtasidagi farqdan rivojlanadi. Mentor yoki o‘qituvchi tayyor javobni berib qo‘ymasdan, savolni aniqlashtirishi, muammoni kichik bosqichlarga ajratishi va asta-sekin yordamni kamaytirishi kerak. Bu usul iqtidorli o‘quvchini kattalarga qaram qilib qo‘ymaydi, aksincha, mustaqil fikrlash va o‘z faoliyatini rejalashtirishni kuchaytiradi.

5. Ta’lim muhiti va individual trayektoriya. Iqtidorli shaxsni bir xil dastur ichida ushlab turish ko‘pincha ikki muammoga olib keladi. Material juda oson bo‘lsa, zerikish va

passivlik paydo bo‘ladi; vazifa faqat tezlik bilan murakkablashtirilsa, ortiqcha yuklama va charchoq kuchayadi. Shuning uchun individual ta’lim trayektoriyasi mazmunni chuqurlashtirish, mustaqil tadqiqot, amaliy loyiha va qayta aloqa imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishi lozim. Tezlashtirish hamma holatda eng yaxshi yechim emas. Ba’zi o‘quvchilarga yuqori bosqich mavzusini oldinroq berishdan ko‘ra, ayni mavzuni boshqa usulda tahlil qilish foydaliroq bo‘ladi.

Samarali muhitning belgisi faqat ko‘p topshiriq emas. U yerda savol berish rag‘batlantiriladi, izlanish jarayoni baholanadi, guruhdagi boshqa qobiliyatlar ham ko‘rinadi. Masalan, ilmiy loyiha davomida bir talaba hisob-kitobni, ikkinchisi matn tuzilishini, uchinchisi taqdimotni kuchli bajarishi mumkin. Bunday hamkorlik iqtidorni raqobatga qamab qo‘ymaydi. Aksincha, shaxs o‘z kuchini anglaydi va boshqalarning kompetensiyasi bilan ishlashni o‘rganadi.

Psixodiagnostika ham shu tamoyilga mos bo‘lishi kerak. Bitta test natijasi asosida bolaning kelajagini belgilash metodik jihatdan xavfli. Kuzatish, suhbat, ijodiy mahsulotlar tahlili, o‘qituvchi va ota-onaning ma’lumotlari, turli vaziyatlardagi faoliyat natijalari birgalikda ko‘rib chiqilganda xulosa ishonchliroq bo‘ladi. Natijaning yuqoriligi bilan bir qatorda, o‘quvchining topshiriqqa qanday kirishgani, yordamni qanday qabul qilgani va muvaffaqiyatsizlikdan keyin faoliyatni davom ettirganiga ham e’tibor berish zarur.

MUHOKAMA. Nazariy manbalarni qiyoslash iqtidorni “yuqori IQga ega bola” degan tor tasavvurga sig‘dirib bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Terman tadqiqotlari intellektual salohiyat uzoq muddatli natija uchun kuchli resurs ekanini ko‘rsatadi [8]. Renzulli va Gagné modellari esa resursning faoliyatdagi namoyon bo‘lishi uchun kreativlik, sadoqat, mashq va muhit kerakligini tushuntiradi [4; 6]. Gardnerning yondashuvi qobiliyatlar xilma-xilligini ko‘rsatib beradi, lekin uni psixometrik aniqlikning to‘liq o‘rnini bosuvchi vosita sifatida ishlatish to‘g‘ri emas. Demak, turli nazariyalarni tanlashda “qaysi biri mutlaq to‘g‘ri?” degan savoldan ko‘ra, “qaysi model rivojlanishning qaysi qismini yaxshiroq tushuntiradi?” degan savol foydaliroq.

Muhokamaning ikkinchi masalasi iqtidorni rivojlantirish va psixologik farovonlik o‘rtasidagi muvozanatdir. Yuqori natija doimiy zo‘riqish hisobiga qo‘lga kiritilsa, ta’limiy muvaffaqiyatning o‘zi yetarli mezon bo‘la olmaydi. Iqtidorli shaxs o‘z ishini sevishi, dam olishni rejalashtirishi, yordam so‘rashi va tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishi ham kerak. Bu jihatlar “qo‘shimcha” deb qaralsa, rivojlanishning ichki tayanchi zaiflashadi. Psixologik xavfsizlik, ayniqsa, yangi g‘oyalarni taklif qilish va xatodan keyin qayta urinish uchun zarur shartdir.

Mahalliy ta’lim amaliyotida iqtidorni rivojlantirish masalasi ko‘pincha fan olimpiadalari, tanlovlar va yuqori akademik ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanadi. Bu yo‘nalishlar muhim, lekin iqtidorning barcha shakllarini qamrab olmaydi. Til bilan ishlash, musiqiy eshitish, fazoviy tasavvur, shaxslararo sezgirlik yoki o‘zini anglash qobiliyati doim ham an’anaviy baholashda aks etmaydi. Shuning uchun maktab va oliy ta’lim muassasalarida portfoliolar, loyiha natijalari, ijodiy topshiriqlar va refleksiv kundaliklardan foydalanish diagnostik ko‘rinishni boyitadi. Bunda baholash vositasining o‘zi emas, o‘quvchining rivojlanish dinamikasi markazga chiqadi.

Iqtidorli shaxsni qo‘llab-quvvatlashda psixolog, o‘qituvchi va ota-ona vazifalari ham farqlanadi. O‘qituvchi murakkab mazmun va mazmunli faoliyatni tashkil etadi. Psixolog emotsional holat, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv va o‘zini baholashdagi xavflarni kuzatadi. Ota-ona esa uy sharoitida bolaning faqat natijasini emas, mehnati, qiziqishi va tiklanish ehtiyojini ham ko‘ra olishi kerak. Uchala tomon bir-birining rolini almashtirmaydi, lekin umumiy maqsad va muloqot bo‘lmasa, yordam parchalangan holda qoladi.

Tahlilning cheklovi shundaki, maqola yangi empirik ma’lumotlarga emas, tanlangan nazariy manbalar sharhiga asoslandi. Shu sababli turli yosh guruhlari, ta’lim bosqichlari va madaniy sharoitlarda qaysi omil kuchliroq ishlashi haqida aniq statistik xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Keyingi tadqiqotlarda iqtidorli o‘quvchilarning motivatsiyasi, perfeksionizmi, emotsional farovonligi va mentorlik tajribasini birgalikda o‘lchaydigan aralash metodli dizaynlar zarur. Ayniqsa, yuqori natijaga erishayotgan, lekin ichki zo‘riqishi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar alohida guruh sifatida o‘rganilishi kerak.

XULOSA. Iqtidorli shaxsni rivojlantirishning psixologik mazmuni yuqori natijani tezroq olishdan kengroqdir. Rivojlanish intellektual imkoniyatni kreativ faoliyat, ichki motivatsiya, o‘z-

o‘zini boshqarish va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘laganida barqaror tus oladi. Shaxsning kuchli qobiliyati uning butun hayotini belgilab beradigan yorliq emas, to‘g‘ri sharoitda kengayib boradigan resursdir.

Nazariy tahlilga ko‘ra, iqtidorni qo‘llab-quvvatlash dasturi besh yo‘nalishni qamrab olishi lozim: individual psixologik imkoniyatlarni aniqlash, murakkab va mazmunli topshiriqlar yaratish, mustaqil tanlovni kengaytirish, emotsional farovonlikni himoya qilish hamda mentorlik va oilaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Shu tizimda diagnostika faqat saralash uchun emas, rivojlanish yo‘lini belgilash uchun xizmat qiladi. Natijada iqtidorli o‘quvchi faqat “tez o‘zlashtiruvchi” sifatida emas, o‘z faoliyatini anglaydigan, xatodan keyin tiklana oladigan va bilimini yangi vaziyatga ko‘chira oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Amaliy jihatdan eng muhim xulosa shuki, iqtidorni rivojlantirishda talabchanlik va g‘amxo‘rlik qarama-qarshi emas. Murakkab vazifa yuqori talabni bildiradi, psixologik xavfsizlik esa shu vazifani qo‘rquvsiz bajarish imkonini beradi. Ta’lim, oila va psixologik xizmat shu ikki ehtiyojni birgalikda ko‘ra olganida, iqtidor shaxsning farovonligi hisobiga emas, uning ongli tanlovi va mazmunli faoliyati orqali namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman and Company, 1997. 604 p.

2. Deci E.L., Ryan R.M. The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // Psychological Inquiry. 2000. Vol. 11, No. 4. P. 227–268. DOI: 10.1207/S15327965PLI1104_01.

3. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. New York: Random House, 2006. 276 p.

4. Gagné F. Transforming Gifts into Talents: The DMGT as a Developmental Theory // High Ability Studies. 2004. Vol. 15, No. 2. P. 119–147. DOI: 10.1080/1359813042000314682.

5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983. 440 p.

6. Renzulli J.S. What Makes Giftedness? Reexamining a Definition // Phi Delta Kappan. 1978. Vol. 60, No. 3. P. 180–184, 261.

7. Subotnik R.F., Olszewski-Kubilius P., Worrell F.C. Rethinking Giftedness and Gifted Education: A Proposed Direction Forward Based on Psychological Science // Psychological Science in the Public Interest. 2011. Vol. 12, No. 1. P. 3–54. DOI: 10.1177/1529100611418056.

8. Terman L.M. Genetic Studies of Genius. Vol. 1: Mental and Physical Traits of a Thousand Gifted Children. Stanford: Stanford University Press, 1925.

9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.

10. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent, 2005. 88 b.

11. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.

12. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat: psixokorreksiya, psixoprofilaktika va psixodiagnostika. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

13. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. Toshkent: Sharq, 2010.

14. Woolfolk A. Educational Psychology. 14th ed. Boston: Pearson, 2019.

ИЛМГА БАХШИДА УМР ...

Юнусова Г.С.

БухДТУ Ижтимоий фанлар ва жисмоний маданият кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори

Ислом дини илмни юксак мақомга кўтарган ва эъзозлаган диндир. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам Анас ибн Молик розияллоҳу анҳудан ривоят бўлган ҳадисда: **“Ҳар бир мусулмон кишига илм талаб қилиш фарздир”**, - деганлар. Ибн Можа

ривоят қилган. Мана шу қоидага амал қилиб, ўз илмини такомиллаштириб, ўзидан кейин эзгу ишларга васила бўладиган илм қолдирган оилмлар ҳақиқий маънода пайғамбарлар ворисларидир.

Шундай инсонлар борки бутун умрини илмга бахшида қилади. Гарчи унинг орқасидан моддий жиҳатдан бойликка эришмасада, маънавий етуклик, шукроналик асосида яшаб ўтган умри барча учун ибрат мактаби десак ўринли бўлади.Устозимиз – кимё фани билимдони, ҳалол ва пок яшаш қоидасини умрининг шиорига айлантирган Мавжуда Тошпўлот қизи мана шундай инсонлар тоифасидан эдилар. Бутун умрини илмга бағишлаган бу олима иқтидори ҳаминқадар эдики, гарчи табиий фанлар соҳасида Москвада номзодлик ишини ҳимоя қилган бўлсада (олима кимё фанлари номзоди, доцент эдилар), тасаввуф илми қалбига сурур бағишлаб, шукроналик ҳиссини кенгроқ ёйишга шижоати бор эди.

Маълумки, Бухоро тасаввуф мактаби тарихида хожагон-нақшбандия, қодирия, суҳравардия, кубровия каби таълимотлар тарихи, манбалари ўрганилиб илмий муомалага киритилаётган бир вақтда устозимиз профессор Гулчеҳра Наврўзова раҳбарлигида Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд йўлининг давомчиси “Олтин силсила”да “32-ҳалқада” бўлган Нақшбандия-холидия тариқати Кумушхонавия (Зиёийя) тармоғи асосчиси Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавийнинг ҳаёти ва маънавий меросини ўрганаётгани учун олима Мавжуда опа ҳар нафасида, ҳар лаҳзасига шукроналар қилар эди. Шу таълимотни ўрганишга киришганлиги тарихини сўзлаб берганларида Туркия сафари, турк олимларининг бу иқтидорли олимага самимий муносабатлари, Истамбул университети кутубхоналарида илм уммонидан озиқланиб ноёб манбаларни қўлга киритганликлари учун қилган шукроналарининг чегараси йўқ эди.

Устозимизнинг маслаҳатлари билан Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавийнинг “Жомиъ ул-мутин”, “Ромуз-ул аҳодис” асарлари таҳлили асосида комил инсон тарбиясига бағишланган ғоялар таҳлилини жамлаб салмоқли китоб – монографиянинг ёзилиши олима Мавжуда опа Ғуломованинг кўп йиллик меҳнатлари самарасидир.

Кумушхонавий тўғрисида энг кўп маълумотга эга, жуда кўп асар ёзган илоҳиёт факультети тасаввуфшунослик кафедраси профессори Нажат Йилмаз билан суҳбатда бўлдим, -дея хотирлайди олима Мавжуда Ғуломова. Шундан сўнг устозамиз яна бир олим билан бўлган суҳбатларини эсладилар ва ундан анчагина Кумушхонавий ҳақида маълумотлар олганликларини хотирладилар.

Профессор Аҳмат Туран Арслан - Фотиҳ Султон Меҳмет университети илмий ходими билан Кумушхонавийнинг тасаввуфга оид асрлари тўғрисида суҳбат бўлди.

Машҳур олим ва мутасаввиф Аҳмад Зиёвуддин ал-Кумушхонавий(1813 – 1893 й)[29]нинг маънавий меросини фалсафий таҳлил қилиб, илмий жамоатчиликка тақдим этишга улгурган олима Мавжуда Ғуломованинг “**Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавий маънавий меросининг комил инсон тарбиясидаги ўрни” номли монографияси кўп йиллик меҳнатлари самараси бўлиб 2023 йилнинг охирги ойларида нашрдан чиқди[30].**

Аҳмад Зиёвуддин ал-Кумушхонавий валийлик даражасига етган ва Нақшбандия-холидия таълимотининг шахобчаси бўлган Кумушхонавия тариқати асосчисидир. Кумушхонавийдан жуда катта маънавий мерос қолган. Ҳадис, фиқҳ, сарф, наҳв ва бошқа мавзуларда араб тилида 60 га яқин қимматли ва улуғ асарлар битган табаррук инсон ҳисобланади[31]. Кумушхонавий илмий фаолияти давомида ҳадис ва фиқҳга оид 30 та, ахлоқ

[29] Гуламова М.Т. Кумушхонавийнинг валийлик ва унинг даражалари ҳақидаги ғоялари // Ислом тафаккури. – Тошкент: 2021. 3-сон. -43 б.

[30] **Афсуслар бўлсинким, бу асар олиманинг тасаввуф илми йўлида кўрсатган жонбозликларининг энг чўққиси ва охири эди.**

[31] Гуламова М.Т. Мушку анбар ҳидли валоят ғунчаси Зиёуддин Аҳмад Кумушхонавий // Имом Бухорий сабоқлари журнали. – 2020. - № 2. -29 б.; Gulamova M.T. 2020. Ahmad Ziyouddin al-Kumushxonaviyning Moturidiy ta’limoti to‘g‘risidagi sharhlari.[Ahmad Ziyouddin al-Kumushkhanavi's commentary on the Moturidi doctrine] // Falsafa va hayot xalqaro jurnal. № 1. Maxsus soni – Pp. 285.

ва тасаввуфга оид 15 та, тафсирга оид 8 та китоб ва бошқа турли асарлар ёзган[32]. Манографияда Кумушхонавийнинг “Жомиъ ул-мутун”, “Жомиъул - усул Фий - л - авлиёи ва анвоиҳим”, “Ромузул-аҳодис” – “Ҳадислар денгизи”, “Катта дуолар ва зикр”, асарлари таҳлил қилинган.

Кумушхонавий Нақшбандиянинг Холидия тариқатига мансуб бўлганидан Нақшбандия-холидия тариқатига, Ҳанафий мазҳабига мансуб бўлган қоидаларга амал қилган. Аҳмад Зиёвуддин ал-Кумушхонавийга ўз замондошлари “Раббоний олим, зоҳирий ва ботиний илмлар билан ораста, фахрул машойих, хотиматул муҳаддисин, орифи комил, шайхи комил” деб таъриф берган[33].

Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавий ҳижрий 1228, милодий 1813 йилда Рум диёри, ҳозирги Туркиянинг Кумушхона шаҳрининг “Амирлар” маҳалласида бой хонадонда дунёга келган. Аждодлари Бухорои Шарифдан бўлган. Оталари солиҳ инсон бўлиб, тижорат билан шуғулланган. Отасининг исми Мустафо, бобосининг исми Абдураҳмон бўлган[34].

Кумушхонавий ҳақида маълумот берувчи манбаларда унинг туғилган йиллари 1227/1812, 1228/1813 ва 1235/1819-20 кўрсатилган[35].

Халифаси Аҳмад Ҳилми устози Аҳмад Зиёуддин ҳазратлари ҳақида ёзган “Мақомат”да унинг туғилганлик санаси ва ёши келтирилган маълумотларга кўра, Аҳмад Зиёуддин 1280/1863-64 йилларда қирқ етти, 1294/1877-78 йилларда олтмиш бир ёшда бўлган. Бу ҳисоб-китобга кўра, унинг таваллуд санаси ҳижрий 1233, меллодий 1817-18 йилга тўғри келади, - деган маълумотларни берган олима илмни такомиллаштириш йўлида Туркияга ҳам сафар қиладилар. Асли хожагон-нақшбандия таълимотининг машҳур тамойилларидан бўлган “Сафар дар ватан” ғояси олиманинг ҳаётий шиорига айланган эди. Чунки опамиз тинимсиз авлиёлар, уламолар қадамжоларига зиёратга борар ва бу у кишига катта илҳом ва илм манбаи каби янгидан янги манбалар ёки маълумотлар хазинаси томон йўл очилар эди. Ана шундай сфарларининг бирида Истанбул университетига ташриф буюрганлар. Саёҳат таассуротларига қизиқиб опамиздан турк олимлари билан бўлган суҳбатларидан баҳраманд бўлганимизда, эслаб шундай деган эдилар: “Сиз шу ёшга етиб энди бошқа соҳада илмий иш қилишга киришибсиз, бу сизга нимага керак?” – деб саволга тутганларида, опамиз жилмайиб, дадил ишонч билан: - “Мен бу илмни охиратим учун қиламан, шундай яхши олимнинг ғояларидан ёшлар баҳраманд бўлса ажаб эмаски, биз ҳам савобидан баҳраманд бўлсак” – деб жавоб берган эканлар. Ҳусен Будак билан Кумушхонавий тўғрисида ёзилган асарлар ва мақолалар тўғрисида суҳбат қилдик. Кумушхонавий тўғрисида ёзилган иккита асарни менга ҳадя қилди.

Кумушхонавийни илмга бўлган катта эътибори, ислом аҳли суннасининг “этиқод”ига (исломий қарашларига) боғлиқлиги, “бидъат”лардан (бидъатлардан) қочиши ва тафаккур услубини тушунишга асос бўлганлиги туфайли шуҳрат қозонган. У асарларида Қуръони Карим ва Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг суннатлари ва уларнинг ҳаётга татбиқ этилиши, муқаддас китоб қоидаларини баён қилган. Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавий беш ёшида ўқишни бошлаб, саккиз ёшда Қуръони карим, “Далоили хойрот”, “Қасидаи Бурда” ва “Ҳизбул Аъзам” китобларни қироат қилишга устозлардан рухсат олган[36].

---

[32] Rukiyl AY. Doğdu Demir. Ahmed Z1yâedd1n Gümüşhânevî. 2. Baskl, Ankara Temmuz 2019 pP 45-62

[33] Гуламова М.Т. Мушку анбар ҳидли валоят ғунчаси Зиёуддин Аҳмад Кумушхонавий // Имом Бухорий сабоқлари журнали. – 2020. - № 2. – Б.28-29.

[34] Зиёвуддин Ахмад Ал-Кумушхонавий. Жомеъ ул-мутун//таржимон Мирзо Кенжабек, Тошкент: Мовароуннаҳр, 2000. –Б.302; Rukiye Ay. Doğdu Demir. Ahmed Z1yâeddin Gümüşhânevî// Ankara: Temmuz, 2019. 18 s.

[35] Necdet Yilmaz.Camıu't-turuk bir şahsiyet. Ahmed Ziyâeddîn-i Gümüshânevî hayatı, dergâhı, halifeleri, eserleri ve tasavvufî yolu (ziyâiyye) 2020 Üsküda saifa 49.

[36] Mustafa Fevzî b. Nu’man, *Hediyyetü’l-Hâlidin*, İstanbul, 1313, s. 17; Hüseyin Vassâf, *Sefîne-i Evliyâ*, haz. Ali Yılmaz & Mehmet Akkuş, İstanbul: Seha Neşriyat, 1999, s. 341.; Гуламова М.Т. Жизненный путь и духовное наследие Ахмада Зиявуддина аль-Кумушханави // Universum: общественные науки : электрон. научн. журн. 2022. 5(84). стр. 11

Ўн ёшида 1822 йил оталари оиласи билан савдо-сотиқ учун Қора денгиз атрофидаги шаҳарлардан бири Турабзонга кўчиб келган. У ерда Шайх Усмон, Шайх Холид ас-Саидий каби олимлардан (балоғат), сарфу наҳв, маъоний (адабиёт, бадиият) ва мантиқ билимларини ҳамда шариат илмларини ўргана бошлаган. Ёш бўлишига қарамай, дўконда отасига ҳам ёрдам бериб, бир томондан илоҳий ишқ ва шавқ билан илм таҳсилига сайъ ва ғайрат қилган, аммо ақл ҳуши кўпроқ илм олишда бўлган. Ёшлигида ҳалол пул топишга ҳаракат қилиб, ўз қўли билан ҳамён тўқиб сотган ва топган пулларини илм излаш йўлида сарфлаган[37].

Кумушхонавий асарларидан илҳом олган олима инсон ҳақида олимнинг ажойиб хулосасини баён т этади: Тасаввуф фалсафасида инсонни ўзига жалб қилувчи марказга айлантирувчи масалалар бошида нафс ва қалб туради. Чунки инсон нафс, руҳ ва вужуддан иборат мавжудотдир[38]. Маълум бўладики, Кумушхонавий инсонни нафс, руҳ ва вужуддан иборат деб баҳо берган.

Кумушхонавий Ибн Аббосга тегишли бир ривоятни келтиради. Нафс билан руҳ ўртасида қуёш нурларидек чақнашлар бор. Руҳ ақл ва фикрдир. Руҳ ҳиссиётлар ва ҳаётийлик. Уйқуда руҳ эмас, нафс олинади. Ўлимда руҳ ҳам нафс ҳам олинади. Лекин одам илоҳий зоҳирлар олдида ҳар соатда ўлим ва ҳаёт даражаларига бир сонияда эришади. Руҳ ўзининг мавжудлигини турли йўллар билан кўрсатадиган жавҳардир. Уйқу ҳолатида руҳ тананинг ташқарисидан кесилади, тананинг ички қисмидан кесилмайди. Ўлим пайтида эса, руҳ ҳам ташқаридан, ҳам ичкаридан кесилади. Демак, уйқу-тўлиқ бўлмаган узилиш.

Кумушхонавийнинг шогирдлари ва дўстларига қуйидагиларни васият қилган: “Ҳалол таом ва ичимликларни тинчлик, алоқа ва суннатга мувофиқ истеъмол қилишга эътибор бериши керак”. “Ҳаромдан қочган, нафсини шаҳватдан сақлаган, ич-ичини сезги билан камолга етказган, ҳалол таомларни истеъмол қилган киши узоқни кўришда адашмайди. Ҳолбуки, эҳтиёткорлик руҳнинг танадаги ҳукмронлиги билан эмас, балки Аллоҳ таолонинг нури билан нигоҳнинг сезгирлигини қозонган хислатдир”[39] .

Мутасаввиф Кумушхонавий тасаввуф аҳлининг инсон борлиғига оид қарашларига қўшилиб, биринчи навбатда, "Ўз нафсини билган Раббисини билади” деган ҳадисга асосланган. Бу ҳадисга кўра, нафсни билиш фарздир. Чунки Тангрини билиш нафсни билишга боғлиқ. Ўз нафсини билмаган киши Раббини билмайди, унга сажда ҳам қила олмайди. Ана шу ҳаётий қоидага амал қилган олиманинг ҳаёти ҳам шу даржада эди деск муболаға бўлмайди.

Олима бир анжуманда қилган маърузасида шундай фикрларни ўқиймиз: “Аллоҳга беҳисоб шукроналар қиламанки, 2000- йил мен Кумушхонавийнинг ўзбек тилидаги “Жомиъ ул-мутун” асарларини сотиб олган эдим. Ҳар сафар китобларимни кўриб чиқаётганимда очиб бирор бетини ўқиб бир кун керак бўлади деб қўярдим. Аллоҳга шукурлар бўлсин, 20 йилдан кейин 2020- йил Кумушхонавий тўғрисида мақолалар ёза бошладим”, - деб хотирлаганда устоз бугунга келиб ўзининг ҳаёти ҳам биз учун хотирага айланишини ким ўйлабди дейсиз.

“Илмни охиратим учун қиламан”, -деган фикрлари дарҳақиқат, ҳар бир олиму уламонинг умр мазмунини кўрсатадиган мезон бўлиши керак, зеро илм ва амал бирлиги бўлган жойда ҳалоллик устивор бўлади. Олима Мавжуда Тошпўлатовна Ғуломованинг илм ва ҳаёт йўли фикримизнинг далилидир. Гарчи кимё, техника соҳасида илм ва иқтидори бисёр бўлсада ва унинг ортидан ҳаётлари фаровон бўлсада, яна илм олишга қалбида шижоат топган олиманинг қалб бойлиги шукроналик неъмати туфайли эканлигини

---

[37] Гуламова М.Т. Мушку анбар ҳидли валоят ғунчаси Зиёуддин Аҳмад Кумушхонавий // Имом Бухорий сабоқлари журнали. – 2020. - № 2. – Б.28-29.

[38] Gümüşhanevî’nin Câmiu’l-Usûl Adlı Eserinde İnsan Tasavvuru Kamil SARITAŞ https://kutuphane.gumushane.edu.tr/media/uploads/kutuphane/files/gumushanevi_bildir

[39] https://www.гумушане.бел.тр/гумушане-реҳбери/аҳмед-зияуддини-гумушаневи-ҳз/

таъкидлаш эди холос. Зеро устозамизнинг Туркияга қилган сафарлари хорижлик олимларда катта қизиқиш уйғотган ва бу ҳақда матбуотда салмоқли мақола эълон қилинган.

Шундай заҳматкаш олима, фидойи инсон, муслима аёл бўлган Мавжуда опа билан ўтган ҳаёт йўлимда, илм сарҳадларида ўтган онларимиз учун Аллоҳга шукроналар келтираман, шахсан ўзимнинг ҳаётимда ўчмай из қолдирган устозамизнинг жойлари жаннатда бўлсин!

Илоҳо устозимизнинг илм йўлида чеккан машаққатлари роҳатга айлаб, охират озуқаси бўлсин. Ҳар бир ёзган жумлалари ёшлар учун ибрат мактаби бўлсин! Шукроналик уфуриб турган умр йўллари барчамиз учун дастуруламал бўлсин.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY-AXLOQIY QARORLARIDA “ICHKI KOMPAS”NING QADRIYATLI-REFLEKSIV ASOSLARI

Kurbanova Gulnoz Negmatovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti, pedagogika fanlari doktori DSc, professor
Sharipova Ferangiza Sayodovna,
Buxoro davlat pedagokika instituti, tayanch doktoranti

O‘zbekistonda oliy pedagogik ta’limni rivojlantirish vazifalari bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim va ko‘nikmalari bilan bir qatorda, mustaqil fikrlashi hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida zamonaviy bilimlarga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga va yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega kadrlar tayyorlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan [1]. Bu talab bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik vaziyatlarda qadriyatlarga tayangan holda mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilishga tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘qituvchilik faoliyati o‘quv materialini yetkazish va ta’lim natijalarini baholash bilangina cheklanmaydi. Pedagog kundalik amaliyotda adolat, o‘quvchi manfaatlari, maxfiylik, kasbiy burch, hamkasblarga sadoqat va ta’lim muassasasi talablariga daxldor qarorlarni qabul qiladi. Bir vaqtning o‘zida bir necha qadriyat yoki manfaat to‘qnashgan vaziyatda tayyor qoidani bilish yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun kasbiy tayyorgarlik axloqiy muammoni anglash, muqobil tanlovlarni baholash va qabul qilingan qaror uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini ham qamrab olishi kerak [4, b. 21–28].

Pedagogik amaliyotda uchraydigan axloqiy dilemmalar ko‘pincha yagona va barcha sharoitlarga mos keladigan yechimga ega emas. O‘qituvchi o‘quvchining individual ehtiyojini hisobga olish bilan umumiy talablarni saqlash, hamkasb bilan kasbiy birdamlikni namoyon etish bilan adolatsiz xatti-harakatga munosabat bildirish yoki maxfiylikni ta’minlash bilan muassasa qoidalariga rioya qilish o‘rtasida tanlov qilishi mumkin. O‘qituvchilar faoliyatidagi tanqidiy hodisalar tahlili bunday qarorlar turli axloqiy tamoyillar, kasbiy me’yorlar va vaziyat talablari o‘rtasidagi ziddiyat sharoitida shakllanishini ko‘rsatgan [5, b. 648–656].

Mazkur masala bo‘lajak o‘qituvchilar uchun yanada murakkabdir. Ularning kasbiy qadriyatlari va pedagogik pozitsiyasi hali shakllanayotganligi sababli, amaliyotda uchraydigan axloqiy ziddiyatlar ikkilanish, o‘z qaroridan qoniqmaslik va kasbiy imkoniyatlariga shubha bilan qarashga olib kelishi mumkin. X. Wang, D. Liu va J. Liu tomonidan 43 nafar bo‘lajak o‘qituvchi ishtirokida o‘tkazilgan sifat tadqiqotida rasmiy va yashirin o‘quv mazmuni, oila talablari va ta’lim standartlari, hamkasblarga sadoqat va maktab me’yorlari, maxfiylik va ichki qoidalar o‘rtasidagi ziddiyatlar aniqlangan. Mualliflar bunday tajriba talabalarning hissiy holati va keyingi kasbiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini qayd etgan [6, b. 1–11].

Bo‘lajak pedagogning axloqiy vaziyatdagi harakati uning alohida bilim yoki ko‘nikmasi bilangina belgilanmaydi. Qaror mazmuniga kasbiy motivlar, pedagogik qadriyatlar, o‘zini o‘qituvchi sifatida anglashi, refleksiv tahlil qobiliyati va shaxsiy mas’uliyat hissi birgalikda ta’sir qiladi. Milliy pedagogik adabiyotlarda ta’lim texnologiyalarini faoliyatga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash hamda pedagogik kompetentlikni kasbiy faoliyat sifatiga ta’sir qiluvchi omil sifatida rivojlantirish masalalari yoritilgan [2; 3, b. 3–8]. Biroq kasbiy kompetentlikning axloqiy qaror qabul qilish bilan bog‘liq ichki mexanizmlarini alohida tahlil qilish talab etiladi.

Mazkur maqolada “ichki kompas” bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik qadriyatlarga tayanishi, vaziyatni refleksiv tahlil qilishi, mustaqil kasbiy pozitsiyani egallashi va qaror oqibatlari uchun mas’uliyatni anglashi bilan bog‘liq integrativ pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi. Refleksiya sodir bo‘lgan voqeani oddiy eslash yoki o‘z harakatiga umumiy baho berish emas, balki muayyan tajribaning mazmunini anglash, qarorning sabablarini aniqlash va keyingi faoliyat uchun asoslangan xulosa chiqarishni anglatadi [8, b. 33–43].

Maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy qarorlarida “ichki kompas”ning qadriyatli-refleksiv asoslarini ochib berish hamda uni rivojlantirishda axloqiy dilemmalar, refleksiv tahlil va kollaborativ muhokamadan foydalanish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat..

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning normativ asoslarida kadrlar tayyorlash sifati zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda mustaqil fikrlash va ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan bog‘langan [1]. Milliy pedagogik tadqiqotlarda ushbu vazifani amalga oshirishning texnologik va kompetensiyaviy jihatlari ko‘rib chiqilgan. O‘.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini o‘zaro bog‘lovchi tizim sifatida yoritgan [2]. Z.T. Raximov esa pedagogik kompetentlikni ta’lim jarayoni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omil sifatida tahlil qilgan [3, b. 3–8]. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini yaxlit shakllantirish zaruratini ko‘rsatadi, biroq uning axloqiy tanlovini boshqaruvchi qadriyatli-refleksiv mexanizmni to‘liq tavsiflamaydi.

Pedagogik faoliyatning axloqiy mazmuni o‘qituvchining kasbiy vazifalari va o‘quvchi oldidagi mas’uliyatini bir-biridan ajratib bo‘lmasligi bilan izohlanadi. R.V. Bullough o‘qituvchilik va pedagoglarni tayyorlashga oid tadqiqotlarni tahlil qilib, axloqiy masalalar pedagogik faoliyatga tashqaridan qo‘shiladigan talab emas, balki uning mazmuniga singib ketgan tarkibiy qism ekanini ko‘rsatadi. O‘qituvchining baholash usuli, muloqoti, o‘quvchiga munosabati va kasbiy vakolatidan foydalanishi muayyan qadriyatli tanlovni ifodalaydi. Shu sababli bo‘lajak pedagogning axloqiy tayyorgarligini kasbiy xulq qoidalarini o‘zlashtirish bilangina cheklash mumkin emas [4, b. 21–28].

O. Shapira-Lishchinsky o‘qituvchilar faoliyatidagi tanqidiy hodisalarni o‘rganib, axloqiy dilemma turli qadriyatlar, kasbiy me’yorlar va tashkiliy talablar bir vaqtda to‘liq bajarilishi mumkin bo‘lmagan vaziyatda yuzaga kelishini aniqlagan. Bunday sharoitda tanlangan qaror bir talabni ta’minlashi, ayni paytda boshqa qadriyatning cheklanishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqot axloqiy vaziyatni tanish, ziddiyat mazmunini aniqlash va qarorning ehtimoliy oqibatlarini baholash pedagogning kasbiy mulohazasida alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi [5, b. 648–656].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyot davridagi tajribasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ushbu muammo kasbiy tayyorgarlik bosqichidayoq mavjudligini tasdiqlaydi. X. Wang, D. Liu va J. Liu aniqlagan dilemmalar o‘quv dasturi va yashirin ta’lim muhiti, ota-onalar talabi va pedagogik standartlar, hamkasblarga sadoqat va muassasa me’yorlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni qamrab olgan. Mualliflar real vaziyatlarga asoslangan keyslar, harakatdan oldingi va keyingi refleksiya hamda pedagogika oliy ta’lim muassasalari bilan amaliyot bazalari o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirishni tavsiya etgan [6, b. 1–11]. Bu natijalar axloqiy qaror qabul qilishni amaliy tajriba asosida rivojlantiriladigan kasbiy qobiliyat sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi.

F.A.J. Korthagenning yaxlit pedagogik yondashuvida o‘qituvchi faoliyatining tashqi va ichki qatlamlari farqlanadi. Muhit, xulq-atvor va kompetensiyalar kuzatiladigan faoliyatni ifodalasa, e’tiqodlar, kasbiy identiklik va missiya pedagogik qarorning shaxsiy mazmunini belgilaydi [7, b. 77–97]. F. Korthagen va A. Vasalos ishlab chiqqan yadro refleksiyasi konsepsiyasida kasbiy vaziyatni tahlil qilish shaxsning qadriyatlari, ideal maqsadlari va tayanch sifatlarini anglashi bilan bog‘langan [9, b. 47–71]. Ushbu qarashlar “ichki kompas”ning qadriyatli va refleksiv tomonlarini yagona jarayon sifatida tushuntirish uchun nazariy asos yaratadi.

J.J. Loughran refleksiv amaliyotni tayyor savollarga javob berish yoki mashg‘ulot yakunidagi taassurotlarni qayd etish bilan cheklamaydi. Uning yondashuvida refleksiya muayyan tajriba, harakat sabablari va undan chiqarilgan kasbiy xulosalar o‘rtasidagi aloqani ochishi kerak

[8, b. 33–43]. Shu bois axloqiy dilemmani tahlil qilishda “qanday qaror qabul qilindi?” degan savolning o‘zi yetarli emas. Qaror qaysi qadriyatlarga tayangani, kimning manfaatiga ta’sir qilgani, qanday muqobil tanlovlar mavjudligi va ularning ehtimoliy oqibatlari ham muhokama qilinishi lozim.

Kasbiy identiklikka oid tadqiqotlarda o‘qituvchining o‘z kasbiy rolini anglashi tayyor va o‘zgarmas sifat emasligi qayd etiladi. D. Beijaard, P.C. Meijer va N. Verloop kasbiy identiklik shaxsiy tajriba, kasbga doir tasavvurlar va ijtimoiy muhit ta’sirida muntazam qayta shakllanishini ko‘rsatgan [10, b. 107–128]. Teacher agency konsepsiyasida pedagogning mustaqil harakati uning e’tiqodlari, oldingi tajribasi, kelajak maqsadlari va mavjud faoliyat sharoitining o‘zaro ta’siri natijasi sifatida tushuntiriladi [11, b. 624–640; 12, b. 45–65]. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-axloqiy pozitsiyasi shaxsiy qadriyatlarga tayansa-da, u pedagogik muhit va ijtimoiy munosabatlardan tashqarida shakllanmaydi.

Kasbiy-axloqiy tanlovni rivojlantirishda kollaborativ muhokama talabaning vaziyatga turli nuqtai nazarlardan qarash imkoniyatini kengaytiradi. Guruhiy faoliyat davomida u o‘z fikrini asoslash, muqobil qarashlarni tinglash, tanlovining boshqa ishtirokchilarga ta’sirini baholash va umumiy xulosaga kelish tajribasini egallaydi. Ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlik nazariyasiga ko‘ra, samarali hamkorlik uchun umumiy maqsad, individual javobgarlik, o‘zaro ko‘mak va guruh faoliyatini birgalikda tahlil qilish shartlari yaratilishi kerak [13, b. 365–379].

Tahlil qilingan manbalarda pedagogik faoliyatning axloqiy tabiati, refleksiv amaliyot, kasbiy identiklik, professional subyektlik va kollaborativ ta’limning nazariy asoslari yoritilgan. Biroq mazkur jihatlarni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-axloqiy qarorini yo‘naltiruvchi yaxlit mexanizm doirasida birlashtirish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotda “ichki kompas” motivatsion-qadriyatli, refleksiv, kasbiy-pozitsion va kollaborativ-faoliyatli komponentlarning o‘zaro aloqasini ifodalovchi mualliflik pedagogik konstrukti sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqotda normativ hujjatlar hamda pedagogik etika, refleksiv amaliyot, kasbiy identiklik, professional subyektlik va kollaborativ ta’limga oid ilmiy manbalar mazmuniy jihatdan tahlil qilindi. Ulardagi asosiy tushunchalar qiyoslandi va kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish nuqtai nazaridan tizimlashtirildi. Tadqiqotning metodologik asosini aksiologik, refleksiv, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi.

Nazariy tahlil asosida bo‘lajak o‘qituvchining “ichki kompasi” kasbiy-axloqiy vaziyatni anglash, qarama-qarshi qadriyatlarni solishtirish, muqobil harakatlarning oqibatlarini baholash va qabul qilingan qaror uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilindi. Mazkur mexanizm tayyor axloqiy qoidalarni takrorlash bilan cheklanmaydi, balki ularni muayyan pedagogik vaziyatning mazmuni va ishtirokchilar manfaatlari bilan bog‘lashni nazarda tutadi.

“Ichki kompas”ning kasbiy-axloqiy qaror qabul qilishdagi faoliyati to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent orqali namoyon bo‘ladi: motivatsion-qadriyatli, refleksiv, kasbiy-pozitsion va kollaborativ-faoliyatli. Ushbu komponentlar ketma-ket bosqichlar emas, balki pedagogik tanlov jarayonida bir vaqtda ishtirok etuvchi ichki tayanchlardir. Ulardan birining yetarli shakllanmaganligi qarorning bir tomonlama, tashqi talabga qaram yoki oqibatlari yetarlicha baholanmagan holda qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo‘lajak o‘qituvchiga pedagogik vaziyatning axloqiy mazmunini aniqlash imkonini beradi. O‘quvchiga hurmat, adolat, halollik, zarar yetkazmaslik va kasbiy mas’uliyat kabi qadriyatlar qarorni yo‘naltiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda talaba faqat “qaysi qoidaga rioya qilish kerak?” degan savolga emas, balki “ushbu qaror kimning manfaatiga ta’sir qiladi?” va “qaysi qadriyatni himoya qilmoqda?” kabi savollarga ham javob izlashi zarur.

Refleksiv komponent vaziyatni shaxsiy munosabat va dastlabki hissiy reaksiyadan ajratib, chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi muammoning kelib chiqish sabablarini, mavjud tanlovlarni, o‘z qarashlariga ta’sir qilayotgan omillarni va har bir qarorning

ehtimoliy oqibatlarini baholaydi. Refleksiya orqali u o‘z xulosasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, zarur hollarda dastlabki pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Kasbiy-pozitsion komponent tanlangan qarorni pedagogik nuqtai nazardan asoslash va uning oqibatlari uchun javobgarlikni qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Mustaqil kasbiy pozitsiya tashkiliy talablarni inkor etishni anglatmaydi. U mavjud qoida, o‘quvchi ehtiyoji, pedagogik maqsad va axloqiy me’yorlarni o‘zaro muvofiqlashtirgan holda ongli tanlov qilishni talab etadi. Shu tariqa bo‘lajak o‘qituvchi ko‘rsatmani mexanik bajaruvchi emas, balki o‘z harakatining mazmunini tushunadigan pedagogik faoliyat subyekti sifatida shakllanadi.

Kollaborativ-faoliyatli komponent axloqiy vaziyatni turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqish imkonini kengaytiradi. Guruhli muhokamada talabalar o‘z qarorini dalillaydi, boshqa ishtirokchilarning fikrini tinglaydi va bir xil vaziyat turlicha talqin qilinishi mumkinligini anglaydi. Biroq jamoaviy fikr shaxsiy kasbiy mas’uliyatni almashtirmasligi kerak. Kollaborativ tahlilning vazifasi tayyor javob berish emas, balki qaror asoslarini aniqlashtirish va muqobil yechimlarni qiyoslashdan iborat.

“Ichki kompas”ni rivojlantirish uchun pedagogik vaziyatlar va axloqiy dilemmalarga asoslangan keyslar, refleksiv savollar, rolli muhokamalar hamda guruhiy qarorlarni tahlil qilishdan foydalanish mumkin. Mashg‘ulot jarayonida talaba avvalo muammoning axloqiy mazmunini aniqlaydi, manfaatdor tomonlarni ajratadi, muqobil qarorlarni taklif qiladi va ularning ehtimoliy oqibatlarini baholaydi. Keyingi bosqichda tanlangan qaror qadriyatlar, kasbiy me’yorlar va pedagogik maqsadlar nuqtai nazaridan asoslanadi.

Taklif etilgan yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda tayyor qoidaga bog‘liq javobni emas, asoslangan kasbiy-axloqiy tanlovni shakllantirishga qaratilgan. Uning natijadorligi pedagogik qadriyatlarning anglanganligi, refleksiv tahlilning izchilligi, kasbiy pozitsiyaning mustaqilligi va hamkorlikdagi muloqot sifati orqali baholanishi mumkin. Mazkur xulosalar nazariy tahlilga asoslanganligi sababli, yondashuvning amaliy samaradorligi keyingi tajriba-sinov tadqiqotlarida tekshirilishi lozim.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida bo‘lajak o‘qituvchining “ichki kompasi” kasbiy-axloqiy vaziyatni anglash, qarama-qarshi qadriyatlarni baholash, mustaqil tanlov qilish va uning oqibatlari uchun mas’uliyatni qabul qilishni birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilindi. Uning motivatsion-qadriyatli, refleksiv, kasbiy-pozitsion va kollaborativ-faoliyatli komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kasbiy qarorning axloqiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda mazkur mexanizmni rivojlantirish uchun pedagogik vaziyatlar va axloqiy dilemmalarga asoslangan keyslar, refleksiv savollar, rolli muhokamalar hamda guruhiy tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday mashg‘ulotlarda talaba muammoning axloqiy mazmunini aniqlashi, manfaatdor tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, muqobil qarorlarni qiyoslashi va tanlovini pedagogik qadriyatlar bilan asoslashi kerak. Kollaborativ muhokama qarorni tayyor shaklda berishga emas, talabaning mustaqil kasbiy pozitsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Taklif etilgan yondashuv nazariy xususiyatga ega. Shu sababli uning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatiga ta’sirini aniqlash uchun alohida diagnostik vositalar ishlab chiqish va tajriba-sinov tadqiqotlarini o‘tkazish talab etiladi..

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. – Toshkent, 2019. – URL: https://lex.uz/docs/-4545884 (murojaat sanasi: 15.09.2026).

2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

3. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta’lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida // Zamonaviy ta’lim. – 2019. – № 7. – B. 3–8.

4. Bullough R.V. Jr. Ethical and moral matters in teaching and teacher education // Teaching and Teacher Education. – 2011. – Vol. 27, № 1. – P. 21–28.

5. Shapira-Lishchinsky O. Teachers' critical incidents: Ethical dilemmas in teaching practice // Teaching and Teacher Education. – 2011. – Vol. 27, № 3. – P. 648–656.
6. Wang X., Liu D., Liu J. Formality or reality: Student teachers' experiences of ethical dilemmas and emotions during the practicum // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 870069. – P. 1–11.
Nemis klassik falsafasi va estetikasi asoschilaridan biri Immanuil Kant o‘zining "Mulohaza qobiliyatining tanqidi" asarida estetik hissiyotni shaxsning intellektual va axloqiy erkinligini bog‘lovchi ko‘prik deb atagan. Shuningdek, Fridrix Shiller o‘zining "Insonning estetik tarbiyasi to‘g‘risida xatlar" nomli fundamental asarida ta’kidlaganidek, inson faqat estetik rivojlanish bosqichidan o‘tgandan keyingina to‘liq ma’nodagi ijodiy va erkin sotsial subyektga aylana oladi. Zamonaviy pedagogik voqelikda estetik dunyoqarashning ontogenezdagi rivojlanish dinamikasi bevosita estetik tarbiya jarayonining konseptual mazmuniga tayanadi. Antropotsentrik paradigmaning invariant qismi sifatida estetik tarbiya individual shaxs hamda makro-mikro sotsial guruhlarning ma’naviy-sensor sohasini transformatsiya qilishga yo‘naltiriladi.

Xulosa. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish muammosini nazariy-metodologik va amaliy jihatdan tadqiq etish quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi: Badiiy-estetik dunyoqarash shunchaki san’at asarlarini reproduktiv idrok etish ko‘nikmasi emas, balki shaxsning kognitiv, affektiv-refleksiv, aksiologik va kreativ-amaliy kompetensiyalarini birlashtiruvchi murakkab psixofizik fenomendir. Ontogenezning o‘smirlik bosqichida ushbu tizimning to‘g‘ri shakllantirilishi o‘quvchining sotsiomadaniy identifikatsiyalashuvini va ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlovchi pedagogik drayver vazifasini o‘taydi. P.Torrens va

J.Gilfordning divergent fikrlash nazariyalariga tayangan holda, ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvni integratsiya qilish o‘smirlarda fikrning ravonligi, moslashuvchanlik, originallik va mukammallik kabi fundamental kompetensiyalarni rivojlantiradi. Bu mexanizm raqamli va vizual ma’lumotlar oqimi sharoitida o‘smir shaxsida axborotni selektiv tanlash va estetik kodlash filtrini shakllantiradi.Vizual san’at darslari o‘smirlarning ijodiy potensialini realizatsiya qilish uchun eng maqbul amaliy poligon hisoblanadi. Rasm chizish, kompozitsiya yaratish va vizual metaforalar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar mavhum tushunchalarni estetik obrazlarga muvaffaqiyatli transformatsiya qiladi hamda o‘zlarining subyektiv dunyoqarashlarini original usullarda namoyon etadi. Kreativ yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish o‘qituvchining an’anaviy axborot uzatuvchi rolidan voz kechib, kreativ fasilitator, estetik mentor va refleksiv muloqot moderatori maqomiga o‘tishini taqozo etadi. Mezonli-kreativ baholash tizimini joriy etish va darslarda daxlsiz ijodiy muhit yaratish o‘smirlardagi ichki psixologik to‘siqlarni bartaraf etishning bosh pedagogik shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nabiyev, M. (2017). *Bolalarda estetik tafakkurni shakllantiriladi*. T
2. Qo‘ziyev, T., va Xudoyberganov, R. (2022). *Tasviriy san'at darslarida kreativ fikrlash*. T
3. Xodjamqulov, U., & Perdeshova, N. (2021). Darsdan birgalikda tarbiyaviylarining faoliyatida san'at to‘garak ahamiyati.
4. Самиева Ш. Х. кизи Усмонова ГХ Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
5. Самиева.Ш.Х.,Маджидова М. Х. ЭСТЕТИЧЕСКОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ КАК ОДИН ИЗ КОМПОНЕНТОВ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ //МАТЕРИАЛЫ ДОКЛАДОВ 53-Й МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И СТУДЕНТОВ. – 2020. – С. 41-43.
6. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. Oliy Talimda Strategik Fikrlash Va Kreativ Boshqarish Asosida Talimni Tashkil Etishning Muhim Yonalishlari: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandisliktexnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

O‘rinov Uyg‘un Abdullayevich
Buxoro davlat texnika universiteti professori
Xolova Nodira Axmedovna
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi inson shaxsini rivojlantirish, uning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli ta’lim muhiti ta’lim oluvchining tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil izlanishi, axborotni tahlil qilishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi hamda o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya sharoitida ta’limning muhim vazifalaridan biri shaxsning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini kompleks rivojlantirishdan iborat.

Ayniqsa, oliy ta’limda bo‘lajak muhandis shaxsini kasbiy rivojlantirish jarayoni nafaqat maxsus bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, balki uning psixologik xususiyatlari, kasbiy qiziqishlari, motivatsiyasi, mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Muhandislik faoliyatida murakkab texnik masalalarni hal qilish, nostandart vaziyatlarda qaror

qabul qilish, yangi g‘oya va texnologik yechimlarni ilgari surish kabi sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ta’lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash va ularni maqsadli rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik yondashuvlarni qo‘llash zarur.

Raqamli ta’lim muhiti mazkur jarayon uchun qulay rivojlantiruvchi makon sifatida namoyon bo‘ladi. Elektron ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, raqamli modellashtirish, interaktiv topshiriqlar, simulyatsion muhitlar va raqamli ta’lim platformalari talabalarning individual faolligini oshirish, mustaqil ta’lim olish va o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday ta’lim muhitida talaba o‘zining bilish faoliyatini mustaqil tashkil etishi, turli yechimlarni sinab ko‘rishi, xatolarini tahlil qilishi va natijalarini baholashi mumkin. Bu esa uning o‘z-o‘zini nazorat qilish, refleksiya, tanqidiy fikrlash va kasbiy o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti iqtidorli va yuqori salohiyatli talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Murakkablashtirilgan raqamli topshiriqlar, tadqiqot va loyihaviy faoliyat, virtual tajribalar hamda nostandart kasbiy masalalardan foydalanish talabalarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etishga imkon beradi. Bunda ta’lim oluvchining shaxsiy qiziqishi va qobiliyatiga mos faoliyatni tanlashi uning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantiradi.

Shunga ko‘ra, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasini pedagogik va psixologik nuqtai nazardan o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunda ta’lim mazmunini raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bilan bir qatorda, talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, kasbiy motivatsiyasini rag‘batlantirish, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish faolligini qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv raqamli ta’limni nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsning intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini rivojlantiruvchi pedagogik muhit sifatida qarash imkonini beradi.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari, shakllari va vositalarini raqamli texnologiyalar asosida qayta tashkil etishni taqozo etadi. Bunda kasbiy kompetensiya maxsus bilim, amaliy ko‘nikma, kasbiy motivatsiya, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, jamoada ishlash va raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyatlarining o‘zaro integratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qurilish muhandisligi ta’limida bo‘lajak mutaxassislarni real kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun raqamli muhit imkoniyatlaridan tizimli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Raqamli ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari, avvalo, ta’lim oluvchining faol o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish bilan belgilanadi. Elektron ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, 3D modellar, BIM texnologiyalari va raqamli loyihalar talabaga nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Masalan, qurilish ob’ektining raqamli modeli asosida konstruktiv elementlarni tahlil qilish, qurilish ishlarining texnologik ketma-ketligini belgilash, resurslarni taqsimlash va ehtimoliy texnik xatolarni aniqlash bo‘yicha topshiriqlarni bajarish talabalarning kasbiy faolligini oshiradi. Bunday faoliyat jarayonida talaba tayyor axborotni o‘zlashtiruvchi emas, balki uni izlaydigan, tahlil qiladigan va kasbiy qaror qabul qiladigan faol sub’ekt sifatida shakllanadi.

Raqamli ta’lim muhitida muammoli va loyihaviy ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘lajak muhandislarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Qurilish sohasiga oid real yoki modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarni raqamli muhitda taqdim etish orqali talabalarga konstruksiyaning texnik holatini baholash, qurilish materialini tanlash, resurslardan samarali foydalanish, qurilish jarayonidagi muammolarni aniqlash va muqobil yechimlarni ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatiladi. Natijada talabalarda muammoni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini belgilash, turli yechimlarni taqqoslash va asoslangan muhandislik qarorini qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Pedagogik imkoniyatlar bilan bir qatorda, raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak muhandis shaxsining psixologik rivojlanishi uchun ham muhim sharoit yaratadi. Virtual modellashtirish va interaktiv topshiriqlar talabalarning bilish faolligi, diqqati, xotirasi, fazoviy tasavvuri va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Ayniqsa, qurilish ob’ektlarining uch o‘lchamli modellari bilan ishlash fazoviy fikrlashni, texnologik jarayonlarni virtual tarzda boshqarish esa operatsion va tahliliy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi. O‘z navbatida, mustaqil ravishda vazifani bajarish va natijani baholash talabada o‘z kuchiga ishonch, mas’uliyat va o‘z-o‘zini nazorat qilish sifatlarini mustahkamlaydi [2].

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda ham raqamli muhitning imkoniyatlari kengdir. Ta’lim mazmunini real qurilish ob’ektlari va zamonaviy muhandislik faoliyati bilan bog‘lash talabalarda tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Raqamli loyihalarni mustaqil ishlab chiqish, virtual qurilish jarayonlarini boshqarish va o‘z yechimlarining natijasini ko‘rish talaba faoliyatining amaliy ahamiyatini anglashga yordam beradi. Shu tariqa tashqi nazoratga asoslangan o‘quv faoliyatidan ichki qiziqish va kasbiy ehtiyojga asoslangan faoliyatga o‘tish uchun pedagogik-psixologik zamin yaratiladi [3].

Raqamli ta’lim muhiti iqtidorli va yuqori intellektual salohiyatga ega talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Murakkablashtirilgan kasbiy topshiriqlar, tadqiqot loyihalari, raqamli modellashtirish va nostandart muhandislik masalalari talabalarning ijodiy salohiyatini namoyon etishga imkon beradi. Masalan, talabaga qurilish ob’ektining energiya samaradorligini oshirish, resurs sarfini kamaytirish yoki texnologik jarayonni optimallashtirish bo‘yicha bir nechta muqobil raqamli yechim ishlab chiqish vazifasi berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda hamkorlikdagi raqamli faoliyat muhim o‘rin tutadi. Guruhli raqamli loyihalarda talabalar loyihalash, konstruksiya, texnologik jarayon, resurslarni boshqarish va texnik nazorat kabi vazifalarni o‘zaro taqsimlab bajarishlari mumkin. Bu jarayon ularda jamoada ishlash, kasbiy muloqot, o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini qabul qilish va umumiy qarorga kelish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan raqamli ta’lim muhiti nafaqat individual, balki ijtimoiy-psixologik rivojlanish uchun ham muhim ta’limiy makon hisoblanadi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini baholashda raqamli vositalardan foydalanish ham ta’lim natijalarini aniqlash imkonini kengaytiradi. Elektron portfolio, raqamli testlar, virtual amaliy topshiriqlar, loyiha natijalari va simulyatsiya jarayonidagi faollikni tahlil qilish orqali talabaning bilim, ko‘nikma va shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Bunda baholash faqat yakuniy natijaga emas, balki muammoni hal qilish jarayoni, mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatiga ham yo‘naltiriladi [4].

Demak, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik va psixologik imkoniyatlarning yaxlitligi asosida tashkil etilishi lozim. Ta’limning raqamli vositalari kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda, talabalarning mustaqilligi, motivatsiyasi, ijodiy va tanqidiy fikrlashi, fazoviy tasavvuri, refleksiv qobiliyatlari hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuning uchun raqamli ta’lim muhitini faqat texnik vositalar majmui sifatida emas, balki bo‘lajak muhandisning kasbiy, intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik-psixologik muhit sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining mazmuni va texnologiyalarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bilan bir qatorda, ta’lim oluvchining shaxsiy va psixologik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ham keng sharoit yaratadi. Raqamli ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar, simulyatsiyalar va loyihaviy faoliyatdan maqsadli foydalanish talabalarning kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalari bilan birga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Raqamli muhitning pedagogik-psixologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish talabalarning kasbiy motivatsiyasi, bilish faolligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, refleksiya va mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini kuchaytiradi. Ayniqsa, real kasbiy vaziyatlarga asoslangan raqamli topshiriqlar va loyihalar ta’lim oluvchilarning individual qobiliyatlarini namoyon etish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon iqtidorli talabalar uchun murakkablashtirilgan tadqiqot va loyiha vazifalarini bajarish orqali o‘z imkoniyatlarini yanada kengroq namoyon etishga zamin yaratadi.

Shu asosda raqamli ta’lim muhitini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak muhandisning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda raqamli texnologiyalar ta’lim oluvchi uchun nafaqat axborot olish vositasi, balki mustaqil izlanish, ijod qilish, kasbiy muammolarni hal etish va o‘z salohiyatini rivojlantirish muhiti vazifasini bajaradi.

Demak, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tizimli ravishda qo‘llash orqali kasbiy bilim, amaliy faoliyat, raqamli ko‘nikma, ijodiy salohiyat, kasbiy motivatsiya va shaxsiy rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligiga erishish mumkin. Mazkur yondashuv zamonaviy muhandislik faoliyati talablariga mos, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega va raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashning pedagogik asoslarini mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. P.f.d. disser. – T., 2007. 305-b.
2. Himmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diognostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta’lim muassasalarining “kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida). Diss...ped.fan.dok.-Toshkent.-2018.-230 b
3. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2017 y.
4. O‘rinov U.A. Oliy ta’lim bitiruvchilarini tayyorlashga oid ilmiy – uslubiy ishlar va tadqiqotlar tahlili // Mug’allim hem uzluksiz bilimlendiro‘. 2020. №1 82-87 b.

INKLYUZIV TA’LIMNI INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

(Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi Xotin-qizlar va yoshlar uchun IT va muhandislik inklyuziv ta’lim markazi tajribasi asosida)

Sh.X. Samiyeva

Buxoro davlat texnika universiteti professori

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish, ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va barcha uchun teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslarning zamonaviy kasbiy ta’limga jalb etilishi, ularning ijtimoiy moslashuvi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash inklyuziv ta’limni takomillashtirishning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim bugungi kunda faqatgina turli imkoniyatga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarni bir ta’lim muhitiga birlashtirish shakli sifatida emas, balki ta’lim muhitining o‘ziga xos ehtiyojlar va individual imkoniyatlarga moslashtirilishini nazarda tutuvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qaralmoqda. Bunda ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari, baholash mezonlari va pedagogik munosabatlar ta’lim oluvchining individual xususiyatlariga muvofiq tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga

qaratilgan davlat dasturlari inklyuziv ta’lim uchun huquqiy va tashkiliy asoslarni mustahkamlamoqda.

Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi Xotin-qizlar va yoshlar uchun IT va muhandislik inklyuziv ta’lim markazi zamonaviy kasbiy ta’lim, raqamli texnologiyalar va inklyuziv yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi amaliy ta’lim platformalaridan biri sifatida ahamiyatlidir. Markazda dasturlash, grafik dizayn, robototexnika, muhandislik modellashtirishi, AutoCAD, tikuvchilik texnologiyalari, tillar va boshqa yo‘nalishlarda ta’lim berish orqali turli ijtimoiy guruhlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga sharoit yaratilmoqda.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar, hamkorlik pedagogikasi, individuallashtirish tamoyillari hamda raqamli didaktika g‘oyalari tashkil etadi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan inklyuziv ta’lim maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-faoliyatli, texnologik va baholash komponentlarining o‘zaro bog‘liqligidan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu komponentlarning uyg‘unligi ta’lim oluvchining nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv har bir ta’lim oluvchining qobiliyati, qiziqishi, tayyorgarlik darajasi, ta’lim olish sur’ati va individual ehtiyojlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Shu asosda individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish inklyuziv ta’limning muhim mexanizmi sifatida belgilanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarni egallashi bilan cheklanmasdan, ularni amaliy va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. IT va muhandislik ta’limida mazkur yondashuv dasturlash, raqamli modellashtirish, robototexnika, dizayn va boshqa amaliy faoliyat turlari orqali namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishda raqamli didaktika imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar ta’lim mazmunini turli shakllarda taqdim etish, ta’lim oluvchining individual sur’atini hisobga olish, tezkor qayta aloqa o‘rnatish va ta’lim natijalarini monitoring qilish imkonini beradi.

Birinchidan, ta’limni individuallashtirish inklyuziv ta’lim metodikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Markaz faoliyatida ta’lim mazmunini murakkablik darajasi bo‘yicha differensiatsiyalash, turli shakldagi o‘quv materiallaridan foydalanish va ta’lim oluvchining o‘zlashtirish sur’atiga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Masalan, dasturlashni o‘rganishda bir guruh ta’lim oluvchilar uchun bazaviy algoritmik topshiriqlar, boshqalar uchun esa murakkab amaliy loyihalar taklif etilishi mumkin.

Ikkinchidan, multimodal ta’lim inklyuziv muhitni shakllantirishning samarali vositasidir. Matn, grafik tasvir, infografika, video, audio, interaktiv model va amaliy topshiriqlarni uyg‘unlashtirish turli ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslarning o‘quv materialini o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, muhandislik fanlarida interaktiv modellar, texnik chizmalar va virtual simulyatorlardan foydalanish murakkab jarayonlarni vizual idrok etishni yengillashtiradi.

Uchinchidan, loyihaga asoslangan ta’lim IT va muhandislik yo‘nalishlarida inklyuziv ta’limni amaliy jihatdan kuchaytirish imkonini beradi. Ta’lim oluvchilarning kichik loyihalar ustida hamkorlikda ishlashi ularda kasbiy, kommunikativ, ijodiy va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, har bir ishtirokchi o‘z imkoniyati va qiziqishiga mos vazifani bajarishi mumkin.

To‘rtinchidan, geymifikatsiya elementlari ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirish, xatodan qo‘rqishni kamaytirish va muvaffaqiyat vaziyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Interaktiv topshiriqlar, raqamli trenajyorlar, bosqichli vazifalar va rag‘batlantirish mexanizmlaridan foydalanish ayniqsa texnik fanlarni o‘zlashtirishda ijobiy pedagogik muhitni ta’minlaydi.

Beshinchidan, inklyuziv ta’lim samaradorligi pedagog va mentorlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fani bo‘yicha bilimga, balki

pedagogik diagnostika, adaptiv ta’lim texnologiyalari, individual ta’lim traektoriyasini loyihalash va raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyalariga ham ega bo‘lishi zarur.

Shu asosda inklyuziv ta’lim metodikasini takomillashtirishning quyidagi modeli taklif etiladi:

diagnostika → individual maqsad belgilash → individual ta’lim traektoriyasini loyihalash → adaptiv metod va raqamli vositalarni tanlash → amaliy faoliyat → monitoring va qayta aloqa → ta’lim traektoriyasini korreksiyalash.

Mazkur algoritm ta’lim jarayonini statik emas, balki ta’lim oluvchining rivojlanish dinamikasiga mos ravishda o‘zgarib boruvchi pedagogik tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’limni rivojlantirishda faqat texnik vositalar bilan ta’minlashning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Inklyuziv muhit samaradorligi pedagogik yondashuvlar, raqamli infratuzilma, pedagog va mentorlarning tayyorgarligi, ta’lim mazmunining moslashuvchanligi hamda ta’lim oluvchini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi IT va muhandislik inklyuziv ta’lim markazi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli va muhandislik kompetensiyalarini egallash uchun yaratilgan qulay ta’lim muhiti xotin-qizlar va yoshlarning kasbiy o‘zini o‘zi namoyon qilishi, ijtimoiy faolligi va mehnat bozoriga moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limda «barchaga bir xil ta’lim» emas, balki «barcha uchun teng imkoniyat» tamoyili ustuvor bo‘lishi lozim. Bu esa ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini ta’lim oluvchining individual ehtiyojlariga muvofiqlashtirishni talab etadi.

Tadqiqot natijasida inklyuziv ta’limni innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirishning asosiy pedagogik shartlari aniqlandi. Jumladan, ta’limni individuallashtirish, raqamli didaktika imkoniyatlaridan foydalanish, adaptiv ta’lim texnologiyalarini joriy etish, loyihaga asoslangan va amaliy ta’limni kuchaytirish, pedagog va mentorlarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omillar sifatida belgilandi.

Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi Xotin-qizlar va yoshlar uchun IT va muhandislik inklyuziv ta’lim markazi tajribasi asosida inklyuziv ta’limni tashkil etishda diagnostika – individuallashtirish – raqamlashtirish – amaliy faoliyat – monitoring – korreksiya mantiqiy zanjiriga asoslangan metodik yondashuv samarali ekanligi asoslandi.

Inklyuziv ta’limni yanada takomillashtirish uchun pedagoglar va mentorlar uchun inklyuziv pedagogika bo‘yicha maxsus modullarni joriy etish, adaptatsiya qilingan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish, raqamli ta’lim resurslarining inklyuzivligini ta’minlash hamda ta’lim muassasasi, oila va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta’lim tamoyillari bilan integratsiyalash xotin-qizlar va yoshlarning, jumladan, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega shaxslarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ijtimoiy integratsiyasi va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020 yil 23 sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni. 2023 yil 11 sentyabr.

3. Booth T., Ainscow M. *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. Bristol: CSIE, 2011.

4. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogy // *British Educational Research Journal*. 2011. Vol. 37. No. 5. P. 813–828.

5. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // *Teachers College Record*. 2006. Vol. 108. No. 6. P. 1017–1054.

6. Rose D.H., Meyer A. *Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning*. Alexandria: ASCD, 2002.
7. UNESCO. *A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education*. Paris: UNESCO, 2017.
8. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All*. Paris: UNESCO, 2020.
9. CAST. *Universal Design for Learning Guidelines, Version 2.2*. Wakefield, MA: CAST, 2018.
10. Salamanca Declaration on Principles, Policy and Practice in Special Needs Education. UNESCO, 1994.

ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ: ОСОБЕННОСТИ МЕЖДУНАРОДНОГО МЕЖВУЗОВСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Корганова С.С., кандидат философских наук, доцент
Монтаев А.Б.. доктор PhD по социологии
Южно-Казахстанский исследовательский университет им. М. Ауэзова. Шымкент, Каззахстан

Образовательная сфера ШОС – это область, в которой организация работает для развития сотрудничества и обмена между государствами-членами в сфере образования. Он включает в себя такие инициативы, как обмен студентами, совместные исследовательские проекты и другие мероприятия, которые способствуют обмену знаниями и культурному пониманию. ШОС также обеспечивает платформу для диалога между своими членами по вопросам, связанным с образовательной политикой, разработкой учебных программ, подготовкой учителей, обеспечением качества и многим другим. Организация также предприняла шаги по укреплению регионального сотрудничества в сфере высшего образования. Согласованный подход к интернационализации высшего образования опирается на долгосрочные политические, культурные, академические цели развития страны. Реализация такой стратегии осуществляется через поддержку студенческой и академической мобильности, путем предоставления стипендий и реализации программ академических обменов, а также программ, направленных на создание институциональных партнерств в сфере высшего образования. Доминирующим принципом данного подхода является международное сотрудничество, а не конкуренция. Шанхайская организация сотрудничества (ШОС) является постоянно действующей межправительственной международной организацией. Существование ШОС обеспечивает реальную платформу для гуманитарного сотрудничества между Россия, Китай и страны Центральной Азии. Гуманитарное сотрудничество является одним из приоритетных направлений межгосударственного сотрудничества в рамках ШОС.

В XXI веке ключевой проблемой для стран ШОС становится формирование информационного общества: ориентация на знания и представление об эффективности личности, владеющей информационно-коммуникационными технологиями. Информатизация выступает как основной механизм реализации новой образовательной парадигмы[1]. Несомненно, сотрудничество в культурной и гуманитарной сферах способствует взаимопониманию между государствами - членами, укрепляет дружбу и политическое взаимное доверие, создает благоприятные условия для формирования общих ценностей и культурной идентичности, а также снижает барьеры сотрудничества в областях экономики и безопасности. В конечном счете, конкуренция государственной власти на международной арене заключается в резерве инновационных талантов. В частности, международная интеграция образования играет важную роль в процессе укрепления государственной власти и влияния.

Соглашение о сотрудничестве в области образования, подписанное в июне 2006 года между правительствами государственных членов ШОС, стало правовой основой для развития и укрепления взаимодействий в этой области. В августе 2007 года на саммите

ШОС в Бишкеке Президент Российской Федерации выступил с инициативой создания Университета ШОС (USCO), который поддерживается Казахстаном, Китаем, Кыргызстаном и Таджикистаном (Узбекистан отказался участвовать). Кроме того, в октябре 2008 года Министерстве образования была подписана концепция создания и функционирования Университета ШОС, Министерская встреча государств-членов ШОС (в Астане).

Университет ШОС - это особая форма национальных институтов для координации и управления образовательной интеграцией в этом регионе. Его создание воплощает тенденцию интеграции образования в рамках ШОС. Цели создания Университета ШОС определены в рамках ШОС многосторонним правовым актом, принятые государствами - членами ШОС следующим образом: укрепление взаимного доверия и добрососедских отношений между государствами-членами.

Государства - члены ООН назначили ЮНЕСКО специализированным учреждением ООН по вопросам образования, которое будет содействовать ежегодному празднованию Международного дня образования в тесном сотрудничестве с основными игроками в области образования. Был сделан также призыв предоставление не менее одного года бесплатного и обязательного качественного дошкольного образования, чтобы все дети имели доступ к качественному дошкольному развитию, воспитанию и обучению. В настоящее время университет объединяет 79 вуза по 7 приоритетным направлениям, таким как энергетика, экология, информационные технологии (IT-technology), регионоведение, нанотехнологии и педагогика. В Казахстане — 14, в Китае — 23, в Кыргызстане — 8, в России — 22, в Таджикистане — 11, а также в Белоруссии — 1.

В современных условиях вхождение Индии и Пакистана в ШОС позволил расширить географические рамки и направления сотрудничества Университета ШОС. Во время пандемии почти во всех странах «семьи» ШОС сфера образования изменилась кардинально и стремительно. Учителям пришлось внедрять незнакомые методы преподавания, работать с классом и проверять знания учащихся буквально в виртуальной атмосфере. Применялись разные виды дистанционного обучения: трансляция уроков через телеканалы, размещение видеоуроков на специальных платформах, аудио трансляция уроков по радио, через электронную почту, и пр. Важно отметить, что межвузовское сотрудничество между государствами-членами ШОС в сфере образования не снижает обороты в современных условиях. Так, в начале декабря 2020 года по инициативе России состоялась XIII-ая Неделя образования государств-членов ШОС «Образование без границ» (1-4 декабря 2020 г.) в формате видеоконференции. По данным СМИ на торжественном открытии Недели приняли участие представители министерств образования (науки) стран-членов ШОС и руководители ведущих вузов Университета ШОС.

Таким образом, это создает условия для проведения единых учебных программ для Университета ШОС по соответствующим направлениям. Подготовка высококвалифицированных кадров в Китае и других странах осуществляется в основном по совместной программе на уровне магистра. Русский и официальными языками ШОС будет китайский, а в исключительных случаях - английский.

Следует отметить, что в Даляньском Университете иностранных языков (ДУИЯ, КНР) действует Сетевой Университет Шанхайской организации сотрудничества, где обучаются магистранты из стран участниц ШОС. Основной же целью нового, уникального в своем роде, университета является создание единого евразийского образовательного пространства, сочетающего лучшие национальные традиции и мировые образовательные стандарты. Они нашли свое отражение в Концепции создания УШОС и Плане мероприятий по ее реализации, утвержденных на Совещании министров образования государств-членов ШОС 24 октября 2008 г. в Астане. Согласно этой концепции, университет должен функционировать как сеть уже существующих университетов в государствах-членах ШОС. Причем сотрудничество в рамках Университета ШОС должно идти путем расширения обмена учащимися, студентами, аспирантами, докторантами и научно-педагогическими

работниками. Концепция уделяет внимание увеличению научно-академического сотрудничества; внедрению современных образовательных методик и технологий; созданию механизмов признания и эквивалентности документов об образовании Университета ШОС государствами-членами ШОС. Особо выделена идея проведения экспертизы и выработки рекомендаций в конкретных областях сотрудничества ШОС; подготовки кадров для структур ШОС; создания сети языковых и страноведческих курсов.

По данным СМИ в состав УШОС в 2016 году входило 79 университета из Китая, Казахстана, Киргизии, Таджикистана и России. Особенностью университета стало объединение стран с разными цивилизационными общностями, культурой и экономикой. В нем сошлись страны с различными возможностями, амбициями и образовательным потенциалом: Китай, Россия, Казахстан, Таджикистан, Узбекистан, Кыргызстан, Индия, Пакистан. В рамках программы действуют университеты из каждой страны-участницы. Например, в Казахстане это Казахский национальный университет имени аль-Фараби, Карагандинский государственный технический университет ЮКУ имени М.Аузова и другие.

Ведущие учебные заведения стран-участниц организации согласны в том, что гармонизация систем высшего образования является определяющей и непременной предпосылкой как для наращивания интеграционных связей в области образования на пространстве ШОС, так и для успешного достижения общих для всех стран ШОС целей модернизации и повышения эффективности национальных систем образования. При открытии в Даляньском университете иностранных языков (ДУИЯ, КНР) Центра исследования Казахстана.

В 2018-2019 учебном году я работала в Центре исследования Казахстана при ДУИЯ от ЮКГУ имени М.Ауэзова (Шымкент, РК), и читала курс лекций по Регионоведению для магистрантов-слушателей Университета Шанхайской организации сотрудничества (УШОС). Для учебы прибыли магистранты из вузов России, Казахстана, Кыргызстана и Таджикистана. Магистранты активно занимались научно-исследовательской работой, участвовали на конференциях, круглых столах, выступали с рефератами по изучаемым проблемам. По словам ребят, учеба в рамках УШОС была для них прекрасной возможностью поближе узнавать друг друга, тесно общаться и участвовать в культурных мероприятиях, проводимых в ДУИЯ. Как показывает практика сотрудничества, сетевые Университеты ШОС, самым благотворным образом влияют не только на состояние социальных, культурных отношений между странами регионов, но и на их экономическое и политическое взаимодействие. По утверждению начальника ректората УШОС с китайской стороны, и тогдашнего декана Института русского языка ДУИЯ, профессора Жэнь Сюемэй, действующая система УШОС способствует сближению гармонизации стандартов образования на евразийском пространстве, вовлекает государства региона в общемировые процессы интернационализции образования. Например, восьмое совещание прошло 19 июня 2024 года в формате видеоконференцсвязи под председательством Казахстана, а заместитель Генерального секретаря ШОС Джанеш Кейн подчеркнул перспективность научно-технического сотрудничества. Девятое Совещание руководителей министерств и ведомств науки и техники государств — членов Шанхайской организации сотрудничества проходило 12 июня 2025 года в г.Чэнду, КНР где Председательствовал Министр науки и технологий Китайской Народной Республики Инь Хэцзюнь. Главы делегаций обменялись мнениями по вопросам научной политики и обсудили ход исполнения решений предыдущего Совещания профильных ведомств (19 июня 2024 года, г.Астана). Стороны договорились продолжить укреплять взаимовыгодный диалог в научно-технической сфере, содействовать разработке и реализации соответствующих программ, внедрять совместные финансируемые проекты, направленные на повышение доступности результатов научного прогресса для народов всех государств-членов ШОС[2].

Страны-участницы видят в Университете ШОС большой потенциал как надежной платформы для подготовки высококвалифицированных кадров по профессиям,

представляющим приоритетный интерес для экономического и социального развития государств-членов ШОС, развития интеграционных процессов в области образования, науки и технологий. Нельзя не согласиться с тем, что «пространство ШОС – это яркая иллюстрация того, как на региональном уровне реализуются мощные тенденции глобального развития». В современной системе международных отношений наблюдается рост новых центров политического, экономического влияния. В этом смысле государства, входящие сегодня в ШОС, оказались на высоте исторического момента, своевременно уловив веяние многополярной эпохи»[3]. Наряду с Россией крупнейшим членом ШОС является Китай, который также заинтересован в развитии гуманитарного направления сотрудничества. Китайская сторона придерживается необходимости сохранения этой структуры, так как ШОС – это самый удобный и законный канал общения и надежное средство координации действий в Центральной Азии. Как подчеркивают китайские эксперты, в результате долгих поисков и тщательной подготовки центрально-азиатская стратегия Пекина определилась. Она направлена на то, чтобы, опираясь на ШОС, активно развивать отношения с его странами, способствовать их стабильности и процветанию, а также осуществлять свои стратегические интересы, которые сосредоточены прежде всего в сфере освоения ресурсов Центральной Азии [4].

Выступая на 22-ом заседании глав государств-членов ШОС 16 сентября 2022 года в Самарканде Председатель КНР Си Цзиньпин отмечал, что: «за прошедшие годы страны-участницы Организации, следуя духу и буквам двух основополагающих документов, сумели шаг за шагом встать на путь развития и укрепления международной организации нового типа, накопили весьма богатый и полезный опыт, наращивать культурно-гуманитарные обмены. Цивилизации интегрируются в ходе общения и развиваются благодаря интеграции. Следует углублять сотрудничество в сфере образования, науки и техники, культуры, здравоохранения, СМИ, теле- и радиовещания, продолжать успешную практику организации брендовых мероприятий, таких как Молодежный лагерь, Форум женщин, Форум народной дипломатии, Форум по традиционной медицине, при выявлении позитивной роли общественных организаций, в частности Комитета добрососедства, дружбы и сотрудничества ШОС»[5].

Необходимо подчеркнуть то, что разработанная МГЛУ магистерская образовательная программа «Регионоведение, лингвистика и межкультурная коммуникация в государствах-членах ШОС» прошла экспертизу и согласование в следующих лингвистических вузах государств СНГ: – Евразийский национальный университет им. Л. Н. Гумилёва (Республика Казахстан); – Казахский национальный университет им. Аль-Фараби (Республика Казахстан); – Казахский университет международных отношений и мировых языков им. Абылай хана (Республика Казахстан); – Бишкекский гуманитарный университет им. К. Карасаева (Киргизская Республика); – Кыргызский национальный университет им. Ж. Баласагына (Киргизская Республика); – Российско-Таджикский (Славянский) университет (Республика Таджикистан); – Таджикский государственный институт языков им. Сотим Улугзода (Республика Таджикистан). Эти вузы стран-участников СНГ, большинство из которых являются также базовыми (головными) вузами проекта УШОС, высоко оценили магистерскую программу МГЛУ. В этом смысле государства, входящие сегодня в ШОС, оказались на высоте исторического момента, своевременно уловив веяние многополярной эпохи[6].

Как показывает практика сотрудничества стран-членов ШОС, необходимо дальше развивать двустороннее сотрудничество между странами в сфере образования и науки. Осуществлять совместные проекты по реализации инициативы «Один пояс, один путь». Выполнять научно-исследовательскую работу с магистрантами и докторантами. Ярким примером в этом направлении являются функционирующие Университеты Шанхайской организации сотрудничества. Проект «Один пояс, один путь» охватывает 65 стран с населением в 4,4 миллиарда человек разных национальностей, верований, идеологий, интересов и потребностей, что определяет значительную сложность в культурном

распространении. В процессе распространения концепции «Один пояс, один путь» необходимо руководствоваться стратегией сохранения прежде всего, этого многообразия. В этом и заключается философия образования в современных реалиях. В 2025 году можно будет оценить результаты реализации магистерских программ, которые были запущены вузами-партнерами по УШОС[7].

Таким образом, за годы своего существования ШОС смогла добиться многого, в первую очередь признания со стороны мирового сообщества. Сама работа над созданием Университета ШОС показала, что сегодня можно смело говорить о реальном начале обмена образовательными методиками и лучшими образовательными технологиями, регулярном обмене студентами, аспирантами и преподавателями в формате УШОС, работы над совместными научными проектами в рамках решений, принятых университетами, входящими в состав УШОС.

Список литературы

1. Вестник МГЛУ. Выпуск 11(617) как новое качество системы образования, как средство реализации функции прогнозирования образовательной системы, системной связи науки и образования.М.2018. С.-220. [4].
2. О совещании руководителей министерств и ведомств науки и техники государств-членов Шанхайской организации сотрудничества 12 июня 2025года../ https://rus.sectsco.org/20250613/1859878.html.
3. К. Федин. Создание Университета Шанхайской Организации Сотрудничества – важный этап процессов интернационализации образования Вестник МГЛУ. Выпуск 11 (644) / 2012.С.220.
4. Сыроежкин К. Россия и Казахстан в ШОС – проблемы и перспективы [Электронный ресурс]. –Режим доступа: http://www.centrasia.ru/ newsA.php4?st=1166515560 14. Internationalisation and Trade in H
5. Выступление Председателя КНР Си Цзиньпина на 22-ом заседании глав государств-членов ШОС . 16 сентября 2022 года, РУ, Самарканд.
6. Майтдинова Г. М. Модели интеграции государств Центральной Азии: за и против // Проекты сотрудничества и интеграции для Центральной Азии. Сравнительный анализ, возможности и перспективы: материалы междунар. конф. – Бишкек, 2007. – С. 124.
7. Е. М. Минин канд. истор. наук, доц.; зав. каф. теории регионоведения ИМО и СПН, координатор проекта «Университет ШОС» от МГЛУ e-mail: minin@linguanet.ru «О реализации Московским Государственным лингвистическим университетом проекта «Университет Шанхайской Организации Сотрудничества». Вестник МГЛУ. Выпуск 20 (653) / 2012.

ДУХОВНОСТЬ И НРАВСТВЕННОСТЬ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ: ОТ ФИЛОСОФСКОЙ ИДЕИ К ШКОЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Ходжагельдиева З.М.

кандидат педагогических наук, ассоциированный профессор

Средняя школа «Келешек» № 66, города Тараз, Жамбылская область, Республика Казахстан

В современной педагогической науке накоплен обширный теоретический фонд, посвящённый проблемам духовно-нравственного воспитания. Труды В.А. Сухомлинского, Ш.А. Амонашвили, Н.Д. Никандрова, А.Н. Джуринского и других исследователей убедительно доказывают, что нравственность — не дополнительный, а системообразующий элемент образования. Однако между академическим знанием о нравственном воспитании и тем, как оно фактически осуществляется в школе, существует значительный разрыв.

Опыт, полученный за время работы в школе в городе Тараз (Жамбылская область, Республика Казахстан), позволяет говорить о необходимости переосмысления некоторых

устоявшихся теоретических положений и предложить практико-ориентированную модель интеграции духовно-нравственного воспитания в образовательное пространство.

Проблема духовности и нравственности в образовании уходит корнями в философскую традицию, которая в контексте Центральной Азии имеет особую глубину. Философское наследие региона формировалось на пересечении нескольких интеллектуальных традиций: исламской философии (Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Бируни), тюркской просветительской мысли (Абай Кунанбаев, Чокан Валиханов, Ыбырай Алтынсарин) и бухарской школы, которая на протяжении веков была одним из центров исламской образованности и духовности.

Аль-Фараби в трактате «О взглядах жителей добродетельного города» рассматривал нравственность как основу социального благополучия: добродетельный город возможен лишь тогда, когда его жители стремятся к совершенству через образование и взаимное совершенствование [1]. Абай Кунанбаев в «Словах назидания» формулировал идею «полного человека» (толық адам) — личности, в которой знания, нравственность и духовность образуют неразрывное единство [2]. Абай подчёркивал, что образование без нравственного основания ведёт не к прогрессу, а к разрушению: «Учёный, лишённый добродетели, опаснее невежды, ибо его невежество вооружено знанием» [2, с. 143].

Эта мысль сегодня звучит с особой остротой. В эпоху, когда доступ к информации неограничен, а формирование ценностных ориентаций всё чаще определяется не школой и семьёй, а алгоритмами социальных сетей, задача образования — не просто передать знание, но и создать условия для внутреннего, духовного становления личности.

Аксиологический подход, развиваемый в работах В. П. Зинченко, Н. С. Розова, М. В. Богуславского, рассматривает образование как процесс освоения ценностей, в котором знание и нравственность не противопоставлены, а взаимно обусловлены [3; 4]. Однако, в школьной практике этот подход часто реализуется фрагментарно — в виде отдельных воспитательных мероприятий, «классных часов» и «разговоров о важном», которые существуют параллельно основному учебному процессу, но не встроены в него органично.

Академическое знание и школьная реальность: точки разрыва

Первый разрыв — между декларируемыми целями и фактическим содержанием. В нормативных документах Республики Казахстан (Государственный общеобязательный стандарт образования, концепция воспитания) нравственное и духовное воспитание заявлено как приоритет. Однако в реальном учебном процессе оно чаще всего реализуется как отдельный модуль — «Самопознание», внеклассные мероприятия, — в то время как основное предметное содержание (математика, физика, языки) остаётся ценностно нейтральным. Между тем нравственный потенциал заложен в каждом предмете: в литературе — через сопереживание герою, в истории — через осмысление причин и последствий человеческих решений, в естественных науках — через понимание ответственности за окружающий мир.

Второй разрыв — между «воспитательной» и «учебной» частями работы. В школе существует негласное разделение: учителя-предметники «дают знания», а классные руководители и «воспитатели» занимаются нравственным развитием. Это разделение противоречит самой природе образования, в которой, как писал В. А. Сухомлинский, «воспитание — это не отдельный процесс, а пронизывающая все стороны школьной жизни сила» [5, с. 28].

Третий разрыв — между поколениями в восприятии ценностей. Современные подростки — это цифровое поколение, для которого источниками ценностных ориентиров выступают не только школа и семья, но в значительной степени медиасреда. Наблюдения показывают, что традиционные формы нравственного воспитания — лекции, беседы, нравоучения — воспринимаются ими как формальные и не вызывают внутреннего отклика. В то же время обсуждение нравственных проблем через литературный текст, через анализ реальных ситуаций, через совместный поиск ответов — напротив, оказывается эффективным.

Четвёртый разрыв — между оценкой и ценностью. Система оценок в школе ориентирована на измерение знаний, а не нравственных качеств. Это создаёт у учащихся искажённое представление: главное — получить хорошую оценку, а нравственность — нечто необязательное, «внеэкзаменационное». Преодоление этого разрыва требует не отмены оценок, а изменения педагогической философии: оценки должны сопровождать рост, а не определять ценность человека.

От теории к практике: опыт интеграции

На основе наблюдений и практической работы нами была апробирована модель интеграции духовно-нравственного воспитания в образовательное пространство, включающая три уровня.

Уровень предметного содержания

va kognitiv ta’siri hamda avtonomiyani qo‘llab-quvvatlashining shaxs intellektual rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan aloqadorligini turli yosh davrlarini yagona tadqiqot dizaynida qiyosiy o‘rganish masalasi yanada chuqur empirik tadqiqotlarni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, turli yosh davrlarida pedagogning psixologik ta’siri va shaxs intellektual rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash, pedagogik ta’sirning qaysi komponentlari muayyan yosh davrida ustuvor ahamiyat kasb etishini belgilash hamda ushbu munosabatda motivatsion, emotsional va kognitiv mexanizmlarning rolini empirik asoslash mazkur tadqiqotning muhim ilmiy yo‘nalishini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya: darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 352 b.
2. Do‘stmuhamedova Sh.A. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013. – 344 b.
3. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 600 b.
4. Dominguez S., Svihla V. A Review of Teacher Implemented Scaffolding in K–12 // Social Sciences & Humanities Open. – 2023. – Vol. 8, No. 1. – Article 100613. DOI: 10.1016/j.ssaho.2023.100613.
5. Göktaş E., Kaya M. The Effects of Teacher Relationships on Student Academic Achievement: A Second Order Meta-Analysis // Participatory Educational Research. – 2023. – Vol. 10, No. 1. – P. 275–289.
6. Lei H., Wang X., Chiu M.M., Du M., Xie T. Teacher–Student Relationship and Academic Achievement in China: Evidence from a Three-Level Meta-Analysis // School Psychology International. – 2023. – Vol. 44, No. 1. – P. 68–101. DOI: 10.1177/01430343221122453.
7. Zhou D., Liu S., Zhou H., Liu J., Ma Y. The Association Among Teacher–Student Relationship, Subjective Well-Being, and Academic Achievement: Evidence from Chinese Fourth Graders and Eighth Graders // Frontiers in Psychology. – 2023. – Vol. 14. – Article 1097094. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1097094.
8. A Meta-Analytic Review of the Relationships Between Autonomy Support and Positive Learning Outcomes // Contemporary Educational Psychology. – 2023. – Vol. 75. – Article 102235. DOI: 10.1016/j.cedpsych.2023.102235.
9. Ashurov R.R. Psychological Analysis of the Interrelationship Between Intelligence and Adaptation // Advances in Science and Education. – 2026. – Vol. 2, No. 8. – P. 3–6. DOI: 10.70728/edu.v02.i08.001.

YOSHLAR TARBIYASIDA “KASHF UL-HAQOYIQ” ASARINING AXLOQIY-MA’NAVIY ASOSLARI

Dehqonov Behzod Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD.

Bugungi jadal globallashuv, axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi va madaniy integratsiya sharoitida yosh avlodning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirish, ularni turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilish hamda mustahkam milliy immunitetni qaror toptirish eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yoshlar nafaqat jamiyatning faol harakatlantiruvchi kuchi, balki kelajak ijtimoiy-madaniy va intellektual salohiyatining asosiy tashuvchisidir. Shu bois, ularning dunyoqarashini boyitishda boy milliy-ma’naviy merosimiz, xususan, Sharq renessansi mutafakkirlarining falsafiy-axloqiy g‘oyalariga murojaat qilish va ularni zamonaviy voqelik kontekstida qayta idrok etish alohida ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Inson mohiyati va uning tarbiyasidagi axloqiy-ma’naviy asoslar masalasi falsafa tarixining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Sharq falsafasi va tasavvuf an’anasida inson borliqning markaziy bo‘g‘ini sifatida qaralib, uning nafaqat jismoniy mavjudot, balki ruhiy-axloqiy kamolotga intiluvchi yuksak shaxs ekanligi ta’kidlanadi [1, b. 67]. Aziziddin Nasafiyning

“Kashf ul-haqoyiq” asari insonni axloqiy jihatdan yuksaltirish, uning o‘zligini anglatish va yoshlar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga qaratilgan mukammal falsafiy qarashlarni o‘zida mujassam etadi. Nasafiy insonning asl mohiyati ma’naviy-ruhiy manbalar va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib, yoshlarni komillikka yetaklashda ichki poklanishning ahamiyatini asoslaydi [2, b. 102].

Mazkur tadqiqot Aziziddin Nasafiyning “Kashf ul-haqoyiq” asarida yoshlar tarbiyasining axloqiy-ma’naviy asoslarini falsafiy, tasavvufiy va pedagogik jihatdan chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar tadqiqotning xolisligi va obyektivligini ta’minlaydi. Xususan, tarixiy-falsafiy metod yordamida mutafakkirning qarashlari o‘rta asr Sharq tasavvuf an’analari, intellektual muhiti va ma’naviy-falsafiy evolyutsiyasi kontekstida o‘rganilib, uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Matnshunoslik va hermenevtik metodlar asardagi murakkab falsafiy-tasavvufiy ramzlar, axloqiy-ma’naviy tushunchalar hamda muallifning yashirin g‘oyalarini to‘g‘ri talqin qilishga xizmat qildi. Tizimli-tahliliy yondashuv esa yoshlar tarbiyasida jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatlarni bir-biridan ajratmagan holda, ularni uzviy bog‘liq yagona yaxlit tizim sifatida ko‘rsatish imkonini berdi. Shuningdek, taqqoslash va zamonaviy pedagogik interpretatsiya usullari orqali Nasafiy tomonidan ilgari surilgan mumtoz g‘oyalarning bugungi kunda yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi dolzarb amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi [3, b. 38].

Inson mohiyati va uni axloqiy jihatdan shakllantirish masalasi o‘rta asr musulmon mutafakkirlari, xususan, Sharq tasavvuf falsafasi namoyandalari ijodida markaziy o‘rin tutgan. Aziziddin Nasafiyning “Kashf ul-haqoyiq” asarida insonning jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatlarining uyg‘unligi uning tarbiyasida hal qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir inson mavjudligini faqatgina moddiy borliq yoki biologik jarayonlar bilan cheklab qo‘ymaydi, aksincha, uni ilohiy haqiqatni anglash, ma’naviy manbalardan ozuqa olish va yuksak axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etishga qodir bo‘lgan ulug‘ zot sifatida ulug‘laydi [4, b. 65]. Nasafiyning qarashlariga ko‘ra, insonda mavjud bo‘lgan har bir fazilat va axloqiy mezon uning botiniy olamini poklash, nafsni jilovlash hamda jamiyatda adolat va ezgulikni qaror toptirishga xizmat qilishi lozim. Bu esa o‘z navbatida yoshlar tarbiyasida faqat tashqi qoidalarga tayanib qolmasdan, balki ularning qalbiga ezgulik va ma’naviy barkamollik urug‘larini qadash qanchalik muhim ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Yoshlar tarbiyasida ichki dunyoni boyitish, ruhiy tafakkurni rivojlantirish va axloqiy barqarorlikni ta’minlash bugungi kundagi eng ustuvor va hal qiluvchi vazifalardan hisoblanadi. Aziziddin Nasafiyning ta’limotiga ko‘ra, yoshlar faqatgina tayyor tashqi bilimlar, ilmiy ma’lumotlar yoki quruq qoidalar to‘plami bilan cheklanib qolmasligi lozim; aksincha, ular ichki ruhiy rivojlanish, axloqiy uyg‘unlik va o‘zligini teran anglash jarayonlari orqaligina haqiqiy kamolot cho‘qqisiga erishishlari shart. Asarda ruhiy kamolotga intilish va botiniy poklanish insonning ichki haqiqatini, uning yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, yoshlarni jamiyatga chinakamiga foydali, ma’nan yetuk va mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetishga yo‘naltiradi. Bu kabi teran falsafiy yondashuvlar shiddat bilan o‘zgarib borayotgan axborot asrida yoshlarni turli yot g‘oyalardan himoya qilish, ularda mustahkam mafkuraviy immunitet va axloqiy o‘zakni shakllantirishda zamonaviy pedagogik va antropologik izlanishlar uchun ham o‘ta muhim nazariy-amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Aziziddin Nasafiyning “Kashf ul-haqoyiq” asarida ilgari surilgan axloqiy-ma’naviy g‘oyalar yoshlar tarbiyasini tizimli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi [5, b. 123]. Nasafiy talqiniga ko‘ra, yoshlarni faqat jismoniy yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki ruhiy-axloqiy jihatdan mukammal shaxs sifatida kamol toptirish jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining bosh garovidir. Asardagi qarashlar bugungi kunda yoshlarda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ularni yot g‘oyalardan himoya qilish hamda ma’nan yetuk avlodni tarbiyalash borasida yuksak nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nasafiy A. Kashf ul-haqoyiq. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 180 b.

2. Qosimov B. Sharq mutafakkirlari falsafasi va axloqiy ta’limotlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 210 b.
3. Karimov N. Tasavvuf va inson kamoloti masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 150 b.
4. Jumaniyozov M. Yoshlar tarbiyasining ma’naviy-falsafiy asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021. – 195 b.
5. Inoyatov S. O‘rta asr Sharq falsafasi va pedagogik merosi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 170 b.

ЗНАЧЕНИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Джураева Лола Рустамовна
Азиатский международный университет,
доцент кафедры педагогики и психологии,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Современная система высшего образования претерпевает фундаментальные изменения, обусловленные стремительным развитием информационных технологий, увеличением объёма доступной информации и усложнением профессиональных задач, стоящих перед будущими специалистами. В этих условиях особую значимость приобретает формирование у студентов не столько суммы готовых знаний, сколько способности самостоятельно добывать, анализировать и критически осмысливать информацию, выявлять проблемы и находить пути их решения. Критическое мышление, признанное Европейской комиссией ключевым навыком XXI века в образовании, профессиональной деятельности и гражданском обществе, выступает в качестве необходимого условия успешной научно-исследовательской деятельности студентов.

В компетентностной модели образовательных программ подготовка специалиста подразумевает овладение обучающимися системным и критическим мышлением, индикаторами которого выступают базисные исследовательские и информационные действия. Исследовательские навыки, в свою очередь, рассматриваются как интегративное качество личности, включающее способность к постановке проблемы, выдвижению гипотез, планированию и проведению исследования, интерпретации полученных результатов и формулированию обоснованных выводов. Взаимосвязь критического мышления и исследовательских навыков носит двусторонний характер: критическое мышление является основой для осуществления исследовательской деятельности, а сама исследовательская практика выступает эффективным средством развития критического мышления.

В современной научной литературе существует множество определений критического мышления, отражающих различные аспекты этого сложного феномена. В наиболее общем виде критическое мышление понимается как способ мышления, при котором человек подвергает сомнению поступающую информацию, анализирует её с разных точек зрения, оценивает достоверность и логическую обоснованность аргументов, прежде чем принять решение или сформировать собственную позицию.

Концепция критического мышления активно развивается с 1980-х годов в США в качестве перспективной альтернативы знаниецентричной системе образования. В результате было разработано несколько моделей критического мышления, среди которых наиболее известны Paul-Elder, APA Delphi, FSU QEP, CLA. Каждая из этих моделей предлагает свой подход к структурированию компонентов критического мышления, однако все они сходятся в выделении таких ключевых элементов, как:

- способность к анализу и оценке информации;
- умение выявлять логические связи и противоречия;
- навык формулирования и проверки гипотез;
- готовность к рефлексии собственных мыслительных процессов;

- способность принимать обоснованные решения на основе доступных данных.

Для понимания значения критического мышления в развитии научно-исследовательских навыков студентов необходимо рассмотреть его структурные компоненты в контексте этапов исследовательской работы. Исследовательская деятельность представляет собой последовательный процесс, включающий:

1) Постановку проблемы – требует умения видеть противоречия в существующем знании, формулировать исследовательские вопросы. Критическое мышление на этом этапе проявляется в способности подвергать сомнению устоявшиеся представления и выявлять области недостаточного знания.

2) Поиск и анализ информации – предполагает работу с научной литературой, базами данных, эмпирическими материалами. Критическое мышление позволяет студенту оценивать достоверность источников, выявлять методологические ошибки в исследованиях, отделять существенную информацию от второстепенной. Как показывают исследования, навыки критического мышления значимо коррелируют с эффективностью поиска и обработки информации ($p = 0,003$).

3) Формулирование гипотезы – требует логического мышления, умения строить причинно-следственные связи и прогнозировать возможные результаты. Критическое мышление помогает оценить обоснованность гипотезы и её соответствие имеющимся данным.

4) Планирование и проведение исследования – предполагает выбор адекватных методов, разработку дизайна исследования. На этом этапе критическое мышление необходимо для оценки ограничений выбранных методов, предвидения возможных искажений и контроля за процедурой сбора данных.

5) Интерпретация результатов и формулирование выводов – требует способности объективно оценивать полученные данные, соотносить их с гипотезой и существующими теоретическими концепциями. Критическое мышление позволяет избежать поспешных обобщений и учитывать альтернативные объяснения.

Особого внимания заслуживает роль критического мышления в формировании рационального скептицизма как нормы научной этики. Исследовательская деятельность немыслима без критического отношения к собственным выводам и результатам, без готовности пересматривать свои взгляды под влиянием новых доказательств. Именно эта установка, формируемая через развитие критического мышления, отличает подлинно научный подход от догматического восприятия знания.

Эффективное развитие критического мышления студентов требует целенаправленного применения специальных педагогических технологий, интегрирующих исследовательский компонент в образовательный процесс. Анализ научной литературы позволяет выделить несколько наиболее результативных подходов.

Проблемно-ориентированное обучение предполагает постановку перед студентами реальных или смоделированных профессиональных проблем, решение которых требует самостоятельного поиска информации, анализа, синтеза и принятия решений. Данный подход развивает такие важные навыки, как критическое мышление, творческий подход, аналитический анализ и командная работа. Исследования показывают, что проблемно-ориентированное обучение способствует положительной динамике уровня критического мышления студентов.

В контексте развития исследовательских навыков особую ценность представляет то, что проблемно-ориентированное обучение моделирует логику реального научного исследования: от обнаружения проблемы до поиска её решения. Студент оказывается в позиции исследователя, что формирует устойчивую исследовательскую позицию и способность к критическому мышлению.

Проектное обучение, являясь одной из универсальных образовательных технологий формирования критического мышления, предполагает выполнение студентами самостоятельных проектов, требующих проведения исследования, анализа данных и

представления результатов. Как отмечают исследователи, метод проектного обучения способствует формированию навыков самостоятельного исследования, критического мышления и аналитических способностей.

Важно подчеркнуть, что проблемно-проектное обучение объединяет преимущества обоих подходов: проблемные задания выступают внешним мотивом обучения, а добровольное выполнение проектных заданий свидетельствует о наличии внутренней мотивации обучающегося. Такое сочетание создаёт оптимальные условия для развития как когнитивных, так и мотивационных компонентов исследовательской компетентности.

Использование кейс-метода, предполагающего анализ конкретных ситуаций из профессиональной практики, позволяет развивать у студентов способность к критической оценке информации, выявлению логических ошибок и принятию обоснованных решений. Аналогичную функцию выполняет работа с научными текстами, включающая их критический анализ, выявление аргументационной структуры и оценку достоверности представленных данных.

Особый интерес представляет подход, сочетающий аргументацию, взаимное рецензирование и обучение целевому чтению, который обеспечивает активное вовлечение студентов в критическое осмысление научных статей. Такой подход не только развивает критическое мышление, но и формирует непосредственно исследовательские навыки работы с научной литературой.

Современные эмпирические исследования подтверждают тесную взаимосвязь между уровнем развития критического мышления и успешностью исследовательской деятельности студентов.

В исследовании, проведённом на базе китайского университета SUSTech, было выявлено, что глубокое вовлечение студентов в подлинную исследовательскую практику (authentic undergraduate research practices) способствует неосознанному развитию критического мышления через три конструктивных механизма: личностно-ориентированный дизайн, активацию когнитивного конфликта и структурированное исследовательское сопровождение. Это исследование показало, что даже когда развитие критического мышления не является явной целью исследовательской работы студентов, сама исследовательская деятельность при условии глубокой вовлечённости приводит к значимому росту критического мышления.

В работе Н. Хаидер и У. Хабибы было установлено, что навыки критического мышления значимо влияют на исследовательские способности студентов ($p = 0{,}003$). Исследование также выявило существенные прямые корреляции между опосредующим эффектом критического мышления и способностью выполнять эффективный онлайн-поиск, что особенно актуально в условиях цифровой трансформации образования.

Российские исследователи также подтверждают значимость критического мышления для исследовательской деятельности. А.Н. Кохичко отмечает, что компетентностная модель подготовки специалиста подразумевает овладение обучающимися системным и критическим мышлением, индикаторами которого выступают базисные исследовательские и информационные действия. Особую роль в этом процессе играет метод понятийного анализа, который помогает формированию у студентов рационального скептицизма как нормы научной этики и сознательному оперированию исследовательскими понятиями.

В Узбекистане также проводятся исследования в данном направлении. С. Яхшибоева анализирует дидактические основы развития исследовательской компетентности студентов через мировые информационные ресурсы, выделяя критическое мышление в качестве одного из важнейших принципов организации исследовательской деятельности наряду с научностью, систематичностью, самостоятельностью и практико-ориентированным подходом. З. Шабидинова и З. Зайрова подчёркивают роль университетских исследований в развитии критического мышления и навыков решения проблем у студентов, отмечая, что

участие в исследовательской деятельности готовит студентов к профессиональным вызовам.

На основе теоретического и эмпирического анализа выделены пять ключевых направлений целенаправленного развития критического мышления в ходе формирования исследовательских навыков студентов:

Системная интеграция – развитие критического мышления должно пронизывать все дисциплины и этапы обучения, что достигается перестройкой академических курсов для одновременного освоения предметного содержания и мыслительных навыков.

Активные и интерактивные методы – использование дискуссий, дебатов, мозговых штурмов, ролевых игр, семинаров-дискуссий и рефлексивных практикумов способствует столкновению точек зрения и укреплению аргументации.

Самостоятельная проектная работа – включение студентов в реальные или учебные научные проекты с элементами неопределённости, требующими самостоятельного поиска решений, развивает критическое мышление через практику.

Формирующее оценивание – внедрение взаимного рецензирования, публичных защит и публикаций результатов создаёт среду, где критическое мышление становится востребованным и получает обратную связь.

Развитие метакогнитивных навыков – рефлексия собственной деятельности, ведение исследовательского дневника, анализ ошибок формируют критическое отношение не только к внешней информации, но и к собственным выводам.

Таким образом, комплексное применение этих подходов обеспечивает устойчивое формирование критического мышления как основы исследовательской компетентности студентов.

Заключение. Проведённый анализ теоретических подходов и эмпирических исследований позволяет сделать вывод о фундаментальном значении критического мышления в развитии научно-исследовательских навыков студентов высших учебных заведений. Критическое мышление выступает не просто как одна из компетенций, а как интегративное качество, пронизывающее все этапы исследовательской деятельности – от постановки проблемы до интерпретации результатов и формулирования выводов.

Целенаправленное развитие критического мышления через проблемно-ориентированное и проектное обучение, кейс-метод, анализ научных текстов и рефлексивные практики создаёт необходимые условия для формирования полноценной исследовательской компетентности будущего специалиста. Эмпирические исследования подтверждают, что студенты с более высоким уровнем критического мышления демонстрируют лучшие результаты в исследовательской деятельности и более эффективно справляются с профессиональными задачами.

В условиях цифровой трансформации образования и роста объёма доступной информации значение критического мышления будет только возрастать. Задачей современного высшего образования становится не просто передача знаний, а формирование у студентов способности к самостоятельному критическому мышлению, без которого невозможно полноценное участие в научно-исследовательской деятельности и успешная профессиональная реализация в быстро меняющемся мире.

Дальнейшие исследования в этом направлении должны быть направлены на разработку и валидацию диагностических инструментов оценки уровня критического мышления в контексте исследовательской деятельности, а также на создание интегрированных образовательных программ, сочетающих предметное обучение с целенаправленным развитием критического мышления.

Список использованной литературы

1. Солодихина М.В., Солодихина А.А. Развитие критического мышления магистрантов // Современные проблемы науки и образования. – 2026. – № 2. – С. 12-18.

2. Кохичко А.Н. О мотивации исследовательской деятельности студентов Института педагогики и психологии Мурманского арктического университета // Новые управленческие технологии в педагогике. – 2025. – Т. 15, № 7-1. – С. 30-38.

3. Haider N., Habiba U. From Query to Knowledge: Evaluating University Students' Online Searching Proficiency and Its Connection to Critical Thinking and Research Skills // European Journal of Education. – 2025. – Vol. 60, No. 3. – P. e70144.

4. Fostering Critical Thinking Through STEM Undergraduate Research: Mechanisms and Challenges in a Chinese Research University // International Journal of Educational Research. – 2026. – Vol. 125. – P. 102-118.

5. Яхшибоева С. Дидактические основы развития исследовательской компетентности студентов на основе мировых информационных ресурсов // Universal International Scientific Journal. – 2025. – Т. 2, № 7.1. – С. 148-149.

6. Шабидинова З., Зайрова З. Значение исследований в университетском образовании // Наука и инновация. – 2025. – Т. 3, № 19. – С. 70-72.

7. Сафонцева Н.Ю. Проблемно-проектное обучение как дидактическое условие развития личностного потенциала студентов // Вестник науки Казахстана. – 2023. – № 4. – С. 120-128.

TA'LIM MUHITIDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Hojiyeva N.B.
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti

Zamonaviy ta'lim o'quvchining tayyor bilimni o'zlashtirishidan tashqari, uning individual salohiyatini aniqlash va maqsadli rivojlantirishni ham ko'zda tutadi. Shu jihatdan iqtidorli o'quvchi bilan ishlash alohida tadbirlar yig'indisi emas, balki pedagog, psixolog, ota-ona va zarur hollarda mentor faoliyatini birlashtiruvchi tizimdir. J. Renzulli iqtidorni yuqori qobiliyat, ijodkorlik va vazifaga sodiqlikning o'zaro uyg'unligi sifatida talqin qiladi. Bu qarash iqtidorni faqat baho yoki test natijasiga ko'ra aniqlash yetarli emasligini ko'rsatadi.

F. Gagne modelida esa tabiiy qobiliyatning aniq iste'dodga aylanishida ta'lim muhiti, motivatsiya, shaxsiy sifatlar va maqsadli faoliyat muhim katalizator sifatida ko'riladi. Demak, iqtidorni aniqlashdan keyingi eng muhim vazifa o'quvchiga rivojlanish uchun mos sharoit yaratishdir. Bunda intellektual murakkablik bilan psixologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanat saqlanishi kerak. O'zbek psixologiya maktabi vakili E.G'. G'oziyev qobiliyatni shaxsning individual-psixologik xususiyatlari tizimida talqin etib, uning faoliyat jarayonida namoyon bo'lishi va rivojlanishiga e'tibor qaratadi.

Iqtidorli o'quvchini qo'llab-quvvatlashning psixologik-pedagogik asoslari

Qo'llab-quvvatlashning birinchi tamoyili – o'quvchining mavjud natijasi bilan cheklanmasdan, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashdir. L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi g'oyasi o'quvchining mustaqil bajara oladigan vazifalari va malakali yordam bilan uddalay oladigan vazifalari orasidagi farqni rivojlanish manbai sifatida talqin qiladi. Iqtidorli o'quvchi uchun haddan tashqari oson topshiriq zerikish va motivatsiya pasayishiga, me'yoridan ortiq bosim esa xavotir va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ta'lim muhitida uch yo'nalish uyg'un ishlashi lozim: diagnostik, rivojlantiruvchi va himoyalovchi. Diagnostik yo'nalishda fan natijalari, qiziqishlar, kreativ mahsulotlar, motivatsiya va pedagogik kuzatuv birgalikda tahlil qilinadi. Rivojlantiruvchi yo'nalishda murakkablashtirilgan topshiriqlar, fanlararo loyihalar, mustaqil tadqiqot va tanlov faoliyati tashkil etiladi. Himoyalovchi yo'nalish esa stress, perfektsionizm, o'ziga haddan tashqari talabchanlik va tengdoshlar bilan muloqotdagi qiyinchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Asosiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

Birinchi mexanizm – ko'p manbali diagnostika. Bir martalik test yoki faqat olimpiada natijasiga tayanish yashirin iqtidorni ko'rmay qolishi mumkin. Pedagog kuzatuvi, o'quv natijasi, ijodiy ishlar, psixologik metodikalar, ota-ona fikri va o'quvchining o'zini baholashi

umumlashtirilib, individual rivojlanish profili tuziladi. Profil o‘quvchining kuchli tomonlari, qiziqish sohasi, qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji va yaqin maqsadlarini ko‘rsatishi kerak. M.G. Davletshin qobiliyat diagnostikasida individual farqlarni kompleks o‘rganish zarurligini asoslaydi; bu yondashuv iqtidorli o‘quvchini birgina test natijasi bilan baholamaslik tamoyiliga mos keladi.

Ikkinchi mexanizm – individual ta’lim trayektoriyasi. Unda o‘quvchiga “ko‘proq topshiriq” emas, balki mazmunan chuqurroq, fikrlash jihatidan murakkabroq va mustaqillikni talab qiladigan faoliyat beriladi. C. Tomlinson differensial ta’limda mazmun, jarayon, mahsulot va o‘quv muhitini o‘quvchining tayyorgarligi hamda qiziqishlariga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv iqtidorli o‘quvchiga tezlashtirish, chuqurlashtirish yoki fanlararo loyiha shakllaridan mosini tanlash imkonini beradi.

Uchinchi mexanizm – mentorlik. Tajribali pedagog yoki soha mutaxassisi bilan ishlash o‘quvchiga nafaqat yangi bilim, balki ilmiy fikrlash, dalillash, muammo qo‘yish, natijani taqdim etish va kasbiy yo‘nalish tanlash tajribasini beradi. To‘rtinchi mexanizm – psixologik maslahat. Unda emotsiyalarni boshqarish, vaqtni rejalashtirish, stressga chidamlilik, konstruktiv muloqot va muvaffaqiyatsizlikka sog‘lom munosabat shakllantiriladi.

Ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik

Iqtidorli o‘quvchining yuqori akademik imkoniyati uning barcha sohada bir xil darajada yetuk ekanini anglatmaydi. Ayrim bolalarda intellektual rivojlanish tezligi bilan emotsional yoki ijtimoiy tajriba o‘rtasida nomutanosiblik kuzatilishi mumkin. Shu sababli iqtidorli bolalarning ijtimoiy-emotsional ehtiyojlarini individual kontekstda baholash muhimdir. Psixologik xavfsiz muhitda o‘quvchi savol berish, xato qilish, fikrini o‘zgartirish va yordam so‘rashdan qo‘rqmasligi kerak.

Pedagog va ota-ona hamkorligi ham qo‘llab-quvvatlashning zarur qismidir. Ota-onaning faqat yuqori natijani kutishi bolada doimiy bosim paydo qilishi mumkin; qobiliyatni umuman e’tiborsiz qoldirish esa rivojlanish imkoniyatini cheklaydi. Pedagog, psixolog va ota-ona muntazam axborot almashib, yuklama, motivatsiya, emotsional holat va o‘quv maqsadlarini muvofiqlashtirishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda iqtidorli ta’lim o‘quvchining yuqori salohiyatiga mos rivojlantiruvchi imkoniyat yaratishi zarurligi qayd etiladi.

Amaliy model

Ta’lim tashkilotida qo‘llab-quvvatlash jarayonini “aniqlash → individual profil → maqsad → moslashtirilgan ta’lim → psixologik yordam → mentorlik → monitoring” sikli asosida tashkil etish mumkin. Monitoringda baho bilan birga motivatsiya, mustaqillik, kreativlik va ijtimoiy moslashuvdagi o‘zgarishlar ham baholanib, individual maqsadlar davriy yangilanadi.

Amaliyotda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash uchun pedagog, psixolog va mentor hamkorligini yo‘lga qo‘yish, umumiy kuzatuv kartasini yuritish hamda olimpiada bilan bir qatorda loyiha, ijodiy mahsulot va tashabbuslarni ham natija sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiq.

Pedagogik amaliyot uchun metodik tavsiyalar

Pedagog topshiriqlarni bazaviy, tahliliy va ijodiy darajalarda loyihalashi, o‘quvchiga ayrim vazifalarni tanlash imkonini berishi lozim. Teskari aloqa faqat bahoga emas, qo‘llangan strategiya, dalillash sifati, yangicha yechim va keyingi rivojlanish qadamiga qaratilishi kerak.

Psixologik xizmat uchun esa davriy qisqa monitoring muhim: o‘quvchining o‘zini baholashi, maktabga munosabati, emotsional zo‘riqishi, tengdoshlar bilan aloqasi va muvaffaqiyatsizlikka reaksiyasi kuzatib boriladi. Agar ilgari faol bo‘lgan o‘quvchida vazifalardan qochish, haddan tashqari xavotir, uyqu yoki diqqatdagi o‘zgarishlar, o‘zini keskin tanqid qilish kabi belgilar paydo bo‘lsa, pedagog va ota-ona bilan birgalikda yuklama hamda kutilmalar qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Bunday erta profilaktika iqtidorni qo‘llab-quvvatlashni faqat yutuq ortidan quvishdan shaxsning barqaror rivojlanishiga yo‘naltiradi. Z.T. Nishonova ta’lim muassasasidagi psixologik xizmatda diagnostika, maslahat va profilaktika yo‘nalishlarining uzviyligini ko‘rsatadi; shu sababli iqtidorli o‘quvchini qo‘llab-quvvatlashda muntazam psixologik kuzatuv muhimdir.

Xulosa. Iqtidorli o‘quvchini rivojlantirish diagnostika, individual ta’lim, psixologik yordam, mentorlik, ota-ona bilan hamkorlik va monitoringni birlashtiradigan uzluksiz jarayondir. Yuqori akademik talab psixologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashgandagina o‘quvchi o‘z salohiyatini

barqaror namoyon eta oladi. Pedagogning rivojlantiruvchi topshiriqlari, psixologning emotsional-motivatsion ko‘magi va ota-onaning muvozanatli qo‘llab-quvvatlashi birgalikda tabiiy qobiliyatni mazmunli va ijtimoiy ahamiyatli yutuqqa aylantiradi.

Shu bois ta’lim tashkilotida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini faqat sovrinlar soni bilan emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ichki motivatsiyasi, psixologik farovonligi va o‘z rivojlanish maqsadini anglay olishi bilan ham baholash maqsadga muvofiq. Tizimli va individual yondashuv iqtidorni qisqa muddatli natijadan barqaror shaxsiy salohiyatga aylantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Renzulli J.S. What Makes Giftedness? // Phi Delta Kappan. – 1978. – 60(3).
2. Gagné F. Transforming Gifts into Talents // High Ability Studies. – 2004. – 15(2).
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom. – Alexandria, VA: ASCD, 2014.
5. Reis S.M., Renzulli J.S. Is There Still a Need for Gifted Education? // Learning and Individual Differences. – 2010. – 20(4).
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2002.
7. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
8. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. – Toshkent, 2007.

YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA TADBIRKORLIK TAFAKKURI: IQTIDORLI SHAXSNI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI

Abduraxmonov U.U
ZARMED universiteti, ijtimoiy fanlar kafedrasi v/b dotsent
Samarqand sh, O‘zbekiston

Bugungi kunda jamiyatning barqaror taraqqiyoti, uning intellektual, iqtisodiy va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish ko‘p jihatdan yosh avlodning bilim darajasi, intellektual imkoniyatlari, ijodiy tafakkuri va tadbirkorlik tashabbusiga bog‘liq. Yoshlar jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlamlaridan biri sifatida yangi g‘oyalar, innovatsiyalar va ijtimoiy tashabbuslarning asosiy manbai hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularda zamonaviy tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish hamda iqtidorli shaxsning o‘z qobiliyatlarini to‘laqonli namoyon etishi uchun zarur bo‘lgan falsafiy asoslarni tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Falsafiy nuqtayi nazardan, iqtidorli shaxs faqat yuqori bilim yoki muayyan faoliyatdagi qobiliyatga ega bo‘lgan inson emas, balki o‘z imkoniyatlarini anglay oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, yangi g‘oyalarni ilgari surishga qodir, mavjud muammolarga ijodiy yondashadigan hamda o‘z faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini anglaydigan faol subyektdir. Shaxs iqtidorining rivojlanishi tabiiy qobiliyatlar bilan bir qatorda ta’lim, tarbiya, ijtimoiy muhit, ma’naviy qadriyatlar, motivatsiya va shaxsiy faoliyatning o‘zaro ta’siri asosida kechadi.

Yoshlarning intellektual salohiyati ularning bilim olish, mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ijodiy g‘oyalarni ilgari surish va yangi bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlarini ifodalaydi. Uning rivojlanishi natijasida shaxsning nafaqat bilim darajasi, balki dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglashi, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy maqsadlari ham takomillashadi. Tadbirkorlik tafakkuri esa shaxsning iqtisodiy faoliyat yuritish qobiliyati bilangina cheklanmaydi. U tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, imkoniyatlarni ko‘ra bilish, tavakkalchilikni oqilona baholash, innovatsion yondashuv, mas’uliyat va natijaga yo‘naltirilganlik kabi sifatlarning yaxlit majmuasidir. Shu jihatdan tadbirkorlik tafakkuri iqtidorli shaxsning intellektual salohiyatini amaliy faoliyat bilan bog‘lovchi muhim omil hisoblanadi. Intellektual salohiyat yangi g‘oyalarni yuzaga keltirsa, tadbirkorlik tafakkuri ushbu g‘oyalarni amaliy qiymatga aylantirish imkonini beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo‘nalishlarni egallab, ancha ilgarilab ketyapti. Ularni qo‘llab-

quvvatlasak, sifatli ta’lim berib, sharoit yaratsak, bundan ham katta natijalarga erishadi” [1, b. 96]. Mazkur fikr yoshlarning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning iqtidorini qo‘llab-quvvatlash hamda tashabbuskorligini rag‘batlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanini ko‘rsatadi.

Iqtidorli shaxsning rivojlanishini dialektik nuqtayi nazardan tahlil qilganda, uning intellektual va tadbirkorlik tafakkuri doimiy o‘zgarish, yangilanish va takomillashuv jarayonida shakllanishi ko‘rinadi. Shaxsning mavjud bilim va qarashlari yangi tajriba, bilim va g‘oyalar ta’sirida qayta ko‘rib chiqiladi. Eski qarashlarning inkori natijasida yangi bilim va dunyoqarash shakllanadi, bu esa navbatdagi rivojlanish bosqichiga asos yaratadi. Shu ma’noda, inkorni inkor qilish qonuni iqtidorli yosh shaxs tafakkurida bilim, tajriba va ijodiy imkoniyatlarning uzluksiz takomillashuvini ifodalovchi dialektik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [2, b. 362].

Iqtidorli shaxsning rivojlanishida ichki va tashqi ziddiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Shaxsning mavjud bilim va imkoniyatlari bilan uning yangi maqsadlari o‘rtasidagi tafovut uni izlanishga undaydi. Shu bilan birga, jamiyat ehtiyojlari, texnologik o‘zgarishlar va mehnat bozoridagi yangi talablar shaxsdan o‘z qobiliyatlarini muntazam rivojlantirishni talab etadi. Mazkur ziddiyatlar to‘g‘ri yo‘naltirilgan taqdirda intellektual o‘sish va tadbirkorlik tafakkurining rivojlanish manbaiga aylanadi.

Iqtidorning rivojlanishini miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni asosida ham izohlash mumkin. Shaxsning bilimlari, ko‘nikmalari, tajribasi, ijodiy mashg‘ulotlari va amaliy faoliyati dastlab miqdoriy jihatdan ortib boradi. Muayyan bosqichga yetgach, ushbu o‘zgarishlar tafakkurning sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilishiga olib keladi. Natijada oddiy bilim va ko‘nikmalar tizimi mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, innovatsion g‘oya va tadbirkorlik tashabbusiga aylanadi [3, b. 76]. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish faqat ularga ko‘proq bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Muhimi, olingan bilimni tahlil qilish, baholash, amaliyotda qo‘llash va undan yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Aynan shu jarayon iqtidorning real salohiyatga, salohiyatning esa ijtimoiy va iqtisodiy qiymatga aylanishini ta’minlaydi. Demak, iqtidorni rivojlantirishda bilim, tafakkur, tajriba va amaliy faoliyatning uzviy birligi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi [4, b. 280].

Intellektual salohiyat shaxsning bilim olish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, ijodiy yondashish va yangi bilimlarni yaratish imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab kognitiv resursdir. Falsafiy nuqtayi nazardan, u insonning borliqni anglash, o‘z faoliyatini maqsadli tashkil etish va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. Tadbirkorlik tafakkuri esa ushbu salohiyatning amaliy yo‘nalishini belgilaydi. U mavjud resurs va imkoniyatlarni anglash, yangi imkoniyatlarni izlash, muammolardan rivojlanish nuqtalarini topish, noan’anaviy yechimlar ishlab chiqish va g‘oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish qobiliyatini ifodalaydi.

Dialektik yondashuv iqtidorli shaxs rivojlanishida mavjud imkoniyatlar va yangi ehtiyojlar, bilim va tajriba, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ziddiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, inkorni inkor qilish hamda miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi kabi dialektik qonunlar asosida shaxs intellektual salohiyatining rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, tahlil va sintez metodi iqtidorli shaxsning intellektual, ma’naviy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini alohida o‘rganish hamda ularni yagona tizim sifatida umumlashtirish imkonini beradi. Induktiv va deduktiv yondashuvlar esa yoshlarning individual tajribasi va faoliyatidan kelib chiqib umumiy nazariy xulosalar ishlab chiqish, shuningdek, mavjud falsafiy nazariyalar asosida iqtidorli shaxs rivojlanishining amaliy jihatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar intellektual salohiyati va tadbirkorlik tafakkuri iqtidorli shaxsni rivojlantirishning o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlaridir. Iqtidorning rivojlanishi faqat tabiiy qobiliyatlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. U ta’lim, tarbiya, ijtimoiy

muhit, shaxsiy faollik, motivatsiya, ijodiy izlanish va amaliy tajriba bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Intellektual salohiyat shaxsga bilim va g‘oyalar yaratish imkonini bersa, tadbirkorlik tafakkuri ushbu g‘oya va imkoniyatlarni amaliy natijaga aylantirish mexanizmini yaratadi. Shu sababli iqtidorli yoshlarni rivojlantirish jarayonida ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligini ta’minlash muhimdir. Yoshlarning mustaqil va tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda mas’uliyatini rivojlantirish orqali ularning shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Yuqoridagi nazariy va falsafiy mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun ta’lim tizimida tanqidiy, mantiqiy va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi zamonaviy metod va texnologiyalarni keng joriy etish.

Iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta’limiy va ilmiy-amaliy dasturlarni kengaytirish.

Tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish maqsadida yoshlarni loyiha, startap, biznes-modellashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mentorlik faoliyatiga keng jalb etish.

Ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, biznes subyektlari va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali intellektual salohiyat va tadbirkorlik tafakkurining integratsiyasini ta’minlash.

Iqtidorli yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun ilmiy-ijodiy muhit, innovatsion markazlar, intellektual klublar va yoshlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashib, buyuk tarix yaratamiz! – Toshkent, 2026. – 96 b.
2. Raxmatullayeva.F.A. youth entrepreneurship and its development measures //best journal of innovation in science, research and evelopment.issn: 2835-3579 volume:3 issue:1|2024. 340-343.
3. Абдурахмонов У. У. Механизмы повышения интеллектуального потенциала как предмет философского анализа // Интерактивная наука. – 2024. – С. 76-77. – ISSN 2414-9411. – DOI 10.21661/r-561962;
4. Наримбаева.Л.К, талабаларда интеллектуал-ижодий қобилиятни ривожлантириш технологиялари, Academic research in educational sciences volume 3 | issue 6 | 2022 issn: 2181-1385. 279-282 б;

TALABALARNING OLIY TA’LIMDAGI PSIXOLOGIK MARGINALIZATSIYASI: “YASHIRIN CHEKINISH” KONSEPTUAL MODELI ASOSIDA YANGI YONDASHUV

Nazarova Manzura Mustafo qizi

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Oliy ta’limning ommalashuvi universitetlarni ijtimoiy jihatdan xilma-xil muhitga aylantirdi. Biroq universitetga kirishning kengayishi avtomatik ravishda barcha talabalar uchun teng akademik va ijtimoiy tajribani anglatmaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda aynan shu muammo — oliy ta’limga rasmiy kirish imkoniyati bilan talabaning ta’lim jarayoniga real va to‘laqonli qo‘shilishi o‘rtasidagi tafovut — tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda. Ijtimoiy, iqtisodiy yoki madaniy jihatdan noqulay sharoitdagi talabalar uchun iqtisodiy resurslar, til, madaniy farqlar, diskriminatsiya, stereotiplar, o‘qituvchilar bilan munosabat, mentorlikning yetishmasligi va oilaviy mas’uliyatlar universitetdagi ishtirokni cheklashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan marginalizatsiyani “universitetga kira olmaslik” bilan cheklash yetarli emas. Talaba universitetga kirgan, darslarga qatnashayotgan va hatto yuqori baholar olayotgan bo‘lsa ham, u akademik muhitning periferiyasida qolishi mumkin [1, b. 98]. Talaba universitetda rasman mavjud bo‘la

turib, qanday mexanizmlar orqali ijtimoiy, psixologik va akademik jihatdan marginal holatga tushadi? Ushbu savolga javob berish uchun marginalizatsiyaning uch bosqichli mexanizmi taklif qilinadi: mikro-to‘siq → yashirin chekinish → tegishlilik qarzi.

1-bosqich: Mikro-to‘siq. Talaba kichik noqulaylikka duch keladi: noto‘g‘ri tushunish, stereotip, resurs yetishmasligi, til muammosi, o‘qituvchining e’tiborsizligi yoki guruhdagi ijtimoiy masofa. 2-bosqich: Takrorlanish. Bir martalik hodisa takrorlana boshlaydi. Talaba “bu muhit menga mos emas” degan xulosaga kelishi mumkin. 3-bosqich: O‘z-o‘zini cheklash. U yordam so‘rash, savol berish, ijtimoiy faoliyatga qo‘shilish yoki akademik imkoniyatlardan foydalanishni kamaytiradi. Talaba universitetda qoladi, ammo ishtiroki periferiyaga siljiydi. Universitetda qolish uchun talab qilinadigan qo‘shimcha psixologik va ijtimoiy yuklama ortadi. 4-bosqich: Natijaviy marginalizatsiya. Talabaning akademik, ijtimoiy va institutsional imkoniyatlardan foydalanish darajasi pasayadi. Ushbu mexanizmning eng muhim jihati shundaki, marginalizatsiyaning yakuniy natijasi dastlabki sababdan ancha katta bo‘lishi mumkin. Masalan, kichik lingvistik qiyinchilik → savol bermaslik → o‘qituvchi bilan kamroq aloqa → mentorlikdan foydalanmaslik → akademik tarmoqdan uzoqlashish → imkoniyatlar haqida kamroq ma’lumot olish → akademik natijalarning pasayishi. Demak, marginalizatsiya “bitta muammo” emas, balki muammolarni bir-birini kuchaytiradigan tizimdir. Ushbu modelning asosiy farazi shundan iboratki, marginalizatsiya ko‘pincha katta va ko‘zga tashlanadigan diskriminatsion hodisadan emas, balki kichik, takrorlanuvchi va alohida olinganda “ahamiyatsiz” ko‘rinadigan tajribalarning yig‘ilishidan paydo bo‘ladi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda marginalizatsiya ko‘pincha ijtimoiy chetlanish, tengsizlik, diskriminatsiya, tegishlilik va kapitalga kirish tushunchalari orqali tushuntiriladi [2, b. 49]. Masalan, ijtimoiy chetlanish yondashuvi oliy ta’limdagi tengsizlikni nafaqat resurs yetishmasligi, balki huquqlar, imkoniyatlar va xizmatlardan samarali foydalanishdagi cheklanish bilan ham bog‘laydi. Boshqa tadqiqotlar esa universitetga kirgan kam imtiyozli talabalar o‘zaro yordam tarmoqlarini yaratishini ko‘rsatadi. Bu aloqalar universitetda qolishga yordam bersa-da, ayrim hollarda talabalarni imtiyozli guruhlarning ijtimoiy va madaniy resurslaridan uzoqlashtirib, tengsizlikning takror ishlab chiqarilishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Yana bir muhim yo‘nalish — talabaning “tegishlilik hissi”. So‘nggi tadqiqotlar “tegishlilik hissi” akademik muvaffaqiyat, faollik va farovonlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Biroq 2026-yilgi sistematik sharh 485 ta tadqiqotni ko‘rib chiqib, oliy ta’limdagi “tegishlilik hissi” uchun 198 xil o‘lchov qo‘llanganini, ularning katta qismi faqat bir marta ishlatilganini va o‘lchovlar o‘rtasida nazariy hamda metodologik nomuvofiqlik mavjudligini aniqlagan. Demak, muammo faqat “talaba o‘zini universitetga tegishli deb his qiladimi?” degan savolda emas. Muhimroq savol: Universitet talabaning o‘zini shu muhitga tegishli deb his qilishi uchun qancha qo‘shimcha mehnat talab qilmoqda? Tadqiqotning original konseptual nuqtasi aynan shu savoldan kelib chiqadi. Shuningdek, talabalarning oliy ta’limdagi marginalizatsiya jarayonida “yashirin chekinish” tushunchasiga ham to‘xtalib o ‘tish lozim. ”Yashirin chekinish” — talabaning universitetni tark etmasdan turib, uning akademik va ijtimoiy hayotidagi ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish jarayonidir. Masalan, talaba:darsga keladi, lekin savol bermaydi; topshiriqni bajaradi, lekin o‘qituvchidan yordam so‘ramaydi;universitetda o‘qiydi, lekin talabalar tashkilotlariga qo‘shilmaydi; guruhda mavjud, lekin ijtimoiy aloqalar markaziga kirmaydi; stipendiya yoki boshqa yordamga muhtoj bo‘lsa-da, murojaat qilishni noqulay deb hisoblaydi; muammoga duch kelganda universitet tizimidan yordam izlash o‘rniga o‘z muammosini “shaxsiy kamchilik” deb qabul qiladi. Bu holatda tashqi statistik ko‘rsatkichlar aldamchi bo‘lishi mumkin. Talabaning davomat ko‘rsatkichi yuqori, baholari qoniqarli, u universitetdan chiqarilmagan. Shunga qaramay, uning institutsional ishtirok maydoni qisqarib bormoqda. Shunday qilib, marginalizatsiyaning eng xavfli shakli har doim ham “chetga chiqarish” emas; ba’zan u talabaning o‘zini markazdan sekin-asta olib chiqib ketishiga olib keladigan muhit bo‘lishi mumkin. Marginalizatsiya individual xususiyatdan ko‘ra ko‘proq munosabatlar va institutsional jarayonlar natijasidir. Bu yondashuv marginalizatsiyani “talaba nimanidir uddalay olmayapti” degan individualistik izohdan “institut talabaning to‘laqonli ishtiroki uchun qanday sharoit yaratmoqda?” degan strukturaviy savolga ko‘chiradi. Mavjud xalqaro tadqiqotlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan noqulay guruhlar

uchun asosiy to‘siqlar qatorida diskriminatsiya, stereotiplar, iqtisodiy cheklovlar, til muammolari, mentorlik yetishmasligi va oilaviy majburiyatlarni ko‘rsatadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, **psixologik marginalizatsiya** talabaning ta’lim jarayonida o‘zini begona, qadrsiz yoki qo‘llab-quvvatlashdan chetda his qilishi bilan namoyon bo‘ladi. “Yashirin chekinish” modeli esa talabaning universitetdan jismonan ketmagan holda, psixologik va emotsional jihatdan ta’lim jarayonidan uzoqlashishini ifodalaydi. Bunday holat motivatsiyaning pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya, o‘ziga ishonchning susayishi va akademik faollikning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli talabalarning psixologik holatini erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash oliy ta’lim samaradorligining muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dias-Broens, A. S., Meeuwisse, M., & Severiens, S. E. (2024). The definition and measurement of sense of belonging in higher education: A systematic literature review with a special focus on students’ ethnicity and generation status in higher education. Educational Research Review, 45, 100622.
2. Hamilton, L. T., Dawson, C. E., Armstrong, E. A., & Waller-Bey, A. (2024). Racialized Horizontal Stratification in US Higher Education: Politics, Process, and Consequences. Annual Review of Sociology, 50, 475–499. Zaman, R. A., Sharma, U., & Round, P. (2025).
3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi**.** – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

APPLYING THE STEM APPROACH IN MECHANICS INSTRUCTION TO ENHANCE STUDENT MOTIVATION IN PHYSICS

Nabiyeva K. E.
Master’s student,
L.N. Gumilyov Eurasian National University,
Supervisor - Aralbayeva G. M., PhD,
L.N. Gumilyov Eurasian national university,
Astana, Republic of Kazakhstan

In the 21st century, education systems worldwide emphasize the development of students’ scientific literacy, creativity, and innovation. Physics, being a fundamental natural science, plays a crucial role in forming analytical and engineering thinking. However, traditional teaching methods often fail to maintain students’ interest, especially in abstract topics such as mechanics. STEM education, integrating Science, Technology, Engineering, and Mathematics, provides a modern pedagogical framework that makes learning physics more interactive, practical, and meaningful. The mechanics unit offers a perfect platform for applying the STEM approach because it connects theory with real-world motion, force, and energy phenomena [1].

STEM education aims to equip students with skills relevant to the rapidly changing technological world. According to Bybee (2013), STEM learning fosters inquiry, design thinking, and innovation through the integration of multiple disciplines. In physics education, STEM serves as a bridge between abstract laws and hands-on experimentation. The mechanics unit, which includes topics such as motion, Newton’s laws, energy, and momentum, naturally aligns with engineering and mathematical applications. Thus, implementing STEM in mechanics allows students to see the relevance of physics in everyday life and future careers [2].

This study used a qualitative pedagogical approach conducted in a real classroom setting. The experimental work was carried out with students of the 10th grade "A" (25 students) of secondary school. During the six-week academic period (one academic semester), students attended mechanics classes designed in accordance with the STEM concept, while the parallel class of 10th grade "B" (24 students) followed traditional teaching methods and served as a control group.

The learning process in the experimental classroom included the following integrated components:

• Scientific research: Students observed and analyzed real-world motion phenomena such as vehicle movement, falling objects, and mechanical systems used in everyday life.;

• Technology integration: Students used simulations (PhET, video data analysis using a tracker), smartphone sensors, and mobile apps to collect, measure, and visualize motion data.;

• Engineering Design: Students constructed simple mechanical devices such as catapults, block systems, and trolleys using available materials.;

• Mathematical modeling: Students analyzed motion graphs, calculated speed, acceleration, force, and energy efficiency, and compared theoretical and experimental results.

Students worked together in small groups (4-5 people) working on the development of mini-projects and presenting their results in the form of reports, presentations and demonstrations. This format of collaboration facilitated group learning and active participation.

Several practical projects have been implemented to demonstrate the effectiveness of the STEM approach in mechanics.:

1. The Hydraulic Robotic Arm project. The students designed and constructed a robotic arm powered by syringes and water pressure to study Pascal's law. This project helped them understand force transmission and pressure distribution in liquids, as well as apply theoretical knowledge in practice.

2. Competition for the design of catapults. Groups of participants created miniature catapults and explored the movement of projectiles. They measured launch angles, distances, and initial velocities, comparing experimental data with theoretical calculations based on the laws of motion and conservation of energy.

3. Experiment with a cart. The students assembled carts and used smartphone sensors to measure acceleration and friction on various surfaces. Data analysis using Tracker software allowed them to link kinematic graphs with real mechanical movement.

4. Engineering assignment for the construction of bridges. The students designed small bridges made of straws and paper, testing their strength under various loads. They applied the concepts of torque, balance, and load distribution, integrating mathematical calculations into engineering solutions.

These events significantly deepened students' understanding of physics concepts, as well as contributed to the development of teamwork, critical thinking and independent research skills.

At the beginning of the experiment, a diagnostic test was conducted in both classes to determine the basic level of understanding of the concepts of mechanics. The results showed similar indicators:

• Experimental class (10 "A"): the average academic score is 52%.

• Control group (10 "B"): the average score is 50%.

After six weeks of STEM studies, a final assessment was conducted at the end of the semester. The results showed a clear improvement:

• Experimental class (10 "A"): average grade of 78%.

• Control group (10 "B"): the average academic performance is 62%.

Indicator	Experimental Group (10A)	Control Group (10B)
Number of students	25	24
Initial average score (%)	52%	50%
Final average score (%)	78%	62%
Improvement (%)	**+26%**	**+12%**
High achievers (>80%) before	20%	18%
High achievers (>80%) after	56%	30%

Table: Comparison of Student Performance

Thus, there was an increase of 26 percentage points in the experimental group, while the improvement in the control group was only 12 percentage points. In addition, the number of high-

achieving students (with scores above 80%) in the experimental class increased from 20% to 56%, while in the control class it increased from 18% to 30%.

In addition, qualitative observations and feedback from students showed the following:

• Increased motivation and involvement in physics lessons (84% of students reported this);

• Improved conceptual understanding of the laws of mechanics (observed during problem solving);

• more developed teamwork and communication skills;

• Increased creativity and interest in engineering.

Compared to traditional education, integrated STEM education has allowed students to better connect theoretical knowledge with real-life situations. Students in the experimental class were more likely to demonstrate the ability to explain physical phenomena using both experimental data and mathematical reasoning.

These results confirm that the STEM approach creates a more effective and engaging learning environment. The results are consistent with previous research highlighting that interdisciplinary and project-based learning improves both academic performance and student motivation.

For the successful implementation of the project, it is extremely important to create favorable pedagogical conditions, such as research-based learning, access to digital tools, an environment for collaboration and formative assessment strategies. In addition, teacher training and proper curriculum planning are crucial to ensure long-term improvements.

Integrating the STEM approach into teaching the mechanics unit effectively increases students' interest in physics. It transforms the learning process from passive memorization into active exploration and problem-solving. By combining science, technology, engineering, and mathematics, teachers can create interdisciplinary learning experiences that reflect real-world challenges. Future research should focus on developing comprehensive STEM-based curricula and training teachers to implement such methods systematically across physics topics.

In conclusion, the integration of STEM methodology into teaching mechanics not only improves academic performance, but also prepares students for the necessary skills of the 21st century. A significant improvement (up to 26% increase in learning outcomes) demonstrates the effectiveness of this approach in teaching physics in high school students.

References

1. Bybee, R. W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. Arlington, // VA: NSTA Press, 2013 P.15

2. English, L. D. STEM education K–12: Perspectives on integration. International Journal of STEM Education, 2016, 3(3), 1–8.

3. Margot, K. C., & Kettler, T. Teachers' perception of STEM integration and education: A systematic literature review. // International Journal of STEM Education, 2019, 6(2), 1–16.

4. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder.

5. National Research Council. STEM Integration in K–12 Education. //Washington, DC: National Academies Press, 2014, P.139–172

6. Li, Y. Advancing STEM education as a dynamic and distinct academic field. //International Journal of STEM Education, 2025, 12, P. 61.

7. Rehman, N., Huang, X., Mahmood, A., & Zafeer, H. M. I. Emerging trends and effective strategies in STEM teacher professional development: A systematic review. //Humanities and Social Sciences Communications, 2025, 12, P. 32.

8. Yesnazar, A., Zhorabekova, A., Kalzhanova, A., Abilkhairova, Z., Ortaeva, K., & Jumassaeva, Z. STEM education impact on the development of students' meta-subject skills: An experimental study. Frontiers in Education, 2025, 10, 1669765.

9. Gamage, S. H. P. W., Ayres, J. R., & Behrend, M. B. A systematic review on digital learning tools in STEM education. // International Journal of STEM Education, 2022, 9, P. 28.

10. Chen, E., Wang, D., Xu, L., et al. A systematic review on the use of artificial intelligence in K-12 STEM education. // Computers & Education, 2024, 194, 104684. 6

INDIVIDUAL TA’LIM TRAEKTORIYASI VA FUNKSIONAL SAVODXONLIK

Ozodova M. H.
Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti p.f.f.d (PhD)

Zamonaviy ta’limning markaziy savoli “o‘quvchi nimani biladi?” degan yondashuvdan “o‘quvchi bilganini qanday vaziyatda va qay darajada qo‘llay oladi?” degan masalaga siljimoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida har bir insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu ta’limda individual imkoniyatlarni hisobga olish, sifat va natijadorlikni shaxs rivoji bilan bog‘lash zaruratini kuchaytiradi [1]. Shu ma’noda individual ta’lim trayektoriyasi hamda funksional savodxonlik bir-birini to‘ldiruvchi ikki pedagogik kategoriyadir: birinchisi o‘quvchining rivojlanish yo‘lini shaxsiylashtiradi, ikkinchisi esa egallangan bilimning amaliy qiymatini namoyon etadi.

OECDning PISA yondashuvida savodxonlik faqat bilimni qayta aytib berish bilan cheklanmaydi; o‘quvchining o‘rganganini notanish va real hayotiy sharoitlarda qo‘llashi, tahlil qilishi, baholashi va xulosa chiqarishi muhim natija sifatida qaraladi [2]. Demak, funksional savodxonlik ta’lim mazmunining “hayotga chiqish nuqtasi”dir. Individual ta’lim trayektoriyasi esa shu chiqish nuqtasiga barcha o‘quvchilarni bir xil yo‘l bilan emas, balki ularning tayyorgarligi, qiziqishi, sur’ati va o‘rganish strategiyalariga mos yo‘llar orqali olib borishni nazarda tutadi.

Individual ta’lim trayektoriyasi o‘quvchining maqsadga erishish uchun bosib o‘tadigan shaxsiy ta’lim yo‘li bo‘lib, unda mazmun, sur’at, usul, topshiriq murakkabligi, resurs va natijani namoyish etish shakli ma’lum darajada individuallashtiriladi. UNESCO IITE shaxsiylashtirilgan ta’limni “bir qolip hamma uchun” modelidan voz kechib, nimani va qanday o‘qitishni o‘quvchining individual ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida izohlaydi [3]. Shuning uchun individual trayektoriya alohida dars rejasi emas, balki o‘quvchini o‘z ta’limining faol subyektiga aylantiruvchi pedagogik boshqaruv tizimidir.

Individual trayektoriyaning samarali ishlashi uchta tayanchga bog‘liq: birinchisi – aniq diagnostika, ikkinchisi – tanlov imkoniyati, uchinchisi – muntazam refleksiya. Diagnostika o‘quvchini “kuchli” yoki “kuchsiz” guruhga ajratish uchun emas, uning hozirgi nuqtasini aniqlash va keyingi rivojlanish qadamini belgilash uchun xizmat qilishi lozim. UNESCO MGIEPning ISEE baholashida har bir o‘quvchi turlicha o‘rganishi, shaxsiy rivojlanish sur’ati esa dinamik va formatif baholash orqali kuzatilishi kerakligi ta’kidlanadi [4]. Bunday yondashuv bahoni yakuniy hukm emas, keyingi rivojlanish uchun pedagogik signalga aylantiradi.

Ta’limiy tanlov esa o‘quvchiga bir xil maqsadga turli usullar orqali erishish imkonini beradi. Masalan, mavzu bo‘yicha yakuniy natijani biri tahliliy matn, ikkinchisi diagramma, uchinchisi loyiha, to‘rtinchisi og‘zaki taqdimot orqali namoyish etishi mumkin. Muhim jihat – yakuniy kompetensiya mezoni saqlanib qoladi, lekin unga olib boruvchi yo‘l variativ bo‘ladi. UNESCO moslashuvchan ta’lim yo‘llarini o‘quvchilarning turli iste’dodi, qiziqishi va qobiliyatiga moslashtirish ta’limning dolzarbligi hamda adolatliligini oshirishini qayd etadi [5].

Funksional savodxonlikni “ko‘p ma’lumot bilish” bilan tenglashtirish metodik jihatdan noto‘g‘ri. U bilim, amaliy harakat, tanqidiy tahlil va kontekstni birlashtiradi. PISA doirasida o‘qish savodxonligi matnni tushunish, undan foydalanish, baholash, u haqida mulohaza yuritish va jamiyatda ishtirok etish bilan; matematik savodxonlik esa real vaziyatlarda matematik mulohaza yuritish, masalani matematik shaklga keltirish, yechish va natijani talqin qilish bilan bog‘lanadi [2]. Shunday ekan, funksional savodxonlikning asosiy belgisi bilimning ko‘chiriluvchanligidir: o‘quvchi darsda egallagan bilimini yangi vaziyatga olib o‘ta olishi kerak.

Masalan, boshlang‘ich ta’limda “foiz” yoki “ulush”ni bilishning o‘zi yetarli emas; o‘quvchi chegirma, oilaviy xarajat yoki kundalik xarid bilan bog‘liq vaziyatlarda mazkur bilimdan foydalanishi zarur. O‘qish savodxonligida esa matnni o‘qib savollarga javob berishdan tashqari, turli manbalardagi ma’lumotlarni solishtirish, fakt va fikrni farqlash, muallif pozitsiyasini anglash hamda dalilning ishonchliligini baholashni talab qiladi.. Bunday topshiriqlar o‘quvchini reproduktiv javobdan tahliliy va amaliy fikrlashga olib o‘tadi.

Shu nuqtayi nazardan individual ta’lim trayektoriyasi funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun qulay “pedagogik laboratoriya” vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchi o‘z tayyorgarligiga mos murakkablikdagi, lekin real hayotiy mazmunga ega topshiriqlar bilan ishlaganda u bir vaqtning o‘zida bilimini mustahkamlaydi, muammoni tahlil qiladi va shaxsiy o‘rganish strategiyasini sinab ko‘radi. Natijada “to‘g‘ri javob”dan ko‘ra “asoslangan yechim”ga yo‘naltirilgan tafakkur shakllanadi.

Individual trayektoriya va funksional savodxonlik integratsiyasini quyidagi mantiqiy zanjirda ifodalash mumkin: DIAGNOSTIKA → SHAXSIY MAQSAD → TANLOV → FAOLIYAT → HAYOTIY KONTEKST → REFLEKSIYA → KORREKSIYA. Mazkur modelda o‘qituvchi tayyor yo‘lni belgilovchi emas, balki “ta’lim navigatori” sifatida faoliyat yuritadi. U o‘quvchining hozirgi holatini aniqlaydi, maqsadni konkretlashtiradi, topshiriqlar va resurslar variantini taklif etadi, jarayonni kuzatadi hamda qayta aloqa beradi.

O‘quvchi esa tinglovchidan tanlov qiluvchi, tadqiqotchi va o‘z faoliyatini baholovchi subyektga aylanadi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda optimal sur’at, mazmun va murakkablikni tanlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda kompetensiyaviy yondashuvning uyg‘unligi individual ta’lim trayektoriyasining muhim xususiyatlari sifatida ko‘rsatilmoqda [6]. Demak, trayektoriya faqat “kuchli o‘quvchiga qiyinroq, sust o‘quvchiga osonroq topshiriq” berish emas; u o‘quvchining o‘z o‘rganishini anglash, boshqarish va natija uchun mas’uliyat olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Bu jarayonda refleksiya markaziy o‘rin tutadi. Dars oxiridagi “Bugun nimani bildim?” savoli “Bu bilim menga qayerda kerak bo‘ladi?”, “Men qaysi strategiyani tanladim?”, “Qaysi dalil yechimimni isbotlaydi?”, “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” kabi savollar bilan boyitilganda metakognitiv faoliyat kuchayadi. Funksional savodxonlik aynan shunday o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari bilan mustahkamlanadi. Chunki real hayotdagi vazifa ko‘pincha tayyor algoritmga ega emas; inson vaziyatni anglaydi, muqobil yechimlarni solishtiradi va oqibatni baholaydi.

Individual ta’lim trayektoriyasini haddan tashqari individuallashtirish ham metodik xavf tug‘dirishi mumkin. Ta’lim nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy jarayon hamdir. O‘quvchi individual topshiriqni bajarishi bilan birga guruhda fikr almashish, o‘z yechimini himoya qilish, boshqa yondashuvni tinglash va umumiy xulosaga kelish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi zarur. Demak, samarali model “individual yo‘l – hamkorlikdagi muhit – umumiy kompetensiya” uchligini ta’minlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, individual ta’lim trayektoriyasi va funksional savodxonlik o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy ta’limning mazmun va metodikasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Individual trayektoriya o‘quvchining qaysi yo‘l bilan rivojlanishini belgilasa, funksional savodxonlik ushbu rivojlanishning amaliy natijasini ko‘rsatadi. Shuning uchun samarali ta’lim modelini “bilim + tanlov + faoliyat + hayotiy vaziyat + refleksiya = funksional kompetentlik” formulasi orqali ifodalash mumkin. Bunda bilim boshlang‘ich resurs, tanlov – subyektlik, faoliyat – tajriba, hayotiy vaziyat – funksionallik, refleksiya esa rivojlanishni boshqarish mexanizmidir.

Kelajak maktabida barcha o‘quvchilarni bir xil usulda bir nuqtaga olib borish emas, balki har bir o‘quvchi uchun umumiy ta’lim maqsadlariga erishishning mazmunli va samarali yo‘lini yaratish ustuvor vazifaga aylanadi. Shunday muhitda o‘quvchi nafaqat o‘rganganini eslab qoladi, balki undan foydalanadi, dalillaydi, baholaydi, yangicha vaziyatga ko‘chiradi va mustaqil yechim yaratadi. Aynan mana shu sifatlar individual ta’lim trayektoriyasining ham, funksional savodxonlikning ham eng muhim kesishuv nuqtasidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-6600413
2. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/dfe0bf9c-en. https://doi.org/10.1787/dfe0bf9c-en
3. UNESCO Institute for Information Technologies in Education. Personalized Learning: A New ICT-Enabled Education Approach. Policy Brief. Moscow: UNESCO IITE, 2013. https://iite.unesco.org/publications/3214716/

4. UNESCO MGIEP. Reimagining Education: The International Science and Evidence Based Education (ISEE) Assessment. New Delhi: UNESCO MGIEP, 2022. https://mgiep.unesco.org/iseeareport
5. UNESCO. Flexible Learning Pathways: A More Relevant Future for All. 2023. https://www.unesco.org/en/articles/flexible-learning-pathways-more-relevant-future-all
6. Bilyakovska O., Horuk N., Kukharskyy V. Personalized Learning in the Context of a Competence-Based Paradigm of Higher Education // International Scientific Journal of Universities and Leadership. 2025. No. 19. P. 27–36. DOI:

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARINI KREATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODIK YONDASHUVLARI

Raximova Shoira Adilbekovna
Osiyo Xalqaro universiteti Xorazm filiali “Pedagogika nazariyasi” kafedrasi
p.f.f.d.(PhD)., v.b.dotsenti

Boshlang‘ich sinf darsliklari mazmuni, didaktik qurilishi, til-uslubiy sathlari, topshiriqlar tizimi hamda baholashga yo‘naltirilgan elementlari ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar darslikni shunchaki axborot manbai emas, balki o‘quv jarayonini rejalashtiruvchi va boshqaruvchi didaktik tizimning markaziy bo‘g‘ini sifatida ko‘radi; darslik o‘quvchi faoliyatini yo‘naltirishi, ko‘nikma va kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirishi, differensial yondashuvni qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘qituvchi uchun metodik tayanch vazifasini bajarishi lozim. Shu nuqtai nazardan darslikni takomillashtirish masalasi faqat matnni yangilash yoki dizaynni chiroyliroq qilish bilan cheklanmaydi: u ta’lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv, yosh psixologiyasi, baholash tizimi, til siyosati va inkluziv ta’lim talablari bilan uzviy bog‘liqlik murakkab ilmiy-amaliy muammolar majmuasidir.

Respublikamizda ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uzluksiz ta’limning yagona tizimini shakllantirish bilan bog‘liq mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida qator farmon va qarorlar e’lon qilindi. Shu bilan birga, jamiyat taraqqiyoti va davlatimiz ravnaqi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni va uni ijro etish yo‘lida Vazirlar Mahkamasi e’lon qilgan qarorlarda ham ta’lim tizimidagi islohotlar bog‘liq muammolar davlat siyosati darajasida kun tartibiga qo‘yilganini ko‘rish mumkin [1].

Harakatlar strategiyasining 4.4-bandida hozirgi globallashuv sharoitida maktab ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan o‘quv standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish istiqboli borasida ham yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Shunga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli buyrug‘iga asosan Xalq ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat xalq ta’limi boshqarmalari huzuridagi ishchi guruhlar tomonidan DTS, o‘quv dasturlari ekspertizadan o‘tkazildi va ularning xulosasi asosida umumiy o‘rta ta’limning takomillashtirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari tayyorlandi [2]. O‘zbekistonda ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlariga kompetensiyaviy yondashuvning kirib kelishi darsliklarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini kuchaytirdi. Darsliklar nafaqat bilimlar majmuini bayon qilishi, balki o‘quvchining amaliy faoliyatini tashkil etishi, o‘rganilgan bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishga tayyorlashi kerak bo‘ldi. O‘quv dasturida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malaka, kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar har bir sinf hamda darajalar bo‘yicha alohida ko‘rsatilgan. Bu talablarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, o‘rganilishi ko‘zda tutilgan asarlarning ta’limiy-pedagogik jihatlari hisobga olinganligi darslik materialini taqdim etish usullariga qat’iy talablar qo‘yadi. Bular, matn hajmi, gap tuzilishi, lug‘at tanlovi, ko‘rgazmalilik va amaliy faoliyatning mutanosibligi.

Darsliklarni takomillashtirish omillarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularni tizimli yondashuv asosida guruhlash va amaliy tavsiyalar bilan boyitish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifadir.

Darsliklarni takomillashtirish omillarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularni tizimli yondashuv asosida guruhlash va amaliy tavsiyalar bilan boyitish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifadir.

Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, TIMSS, PISA) talablari ham boshlang‘ich sinf darsliklarida matn bilan ishlash, savodxonlikning turlari, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish kabi ko‘nikmalarni maqsadli rivojlantirish zaruratini ko‘rsatdi. Ayniqsa, o‘qish savodxonligi va matematik savodxonlikni rivojlantirish darslikdagi topshiriqlar doirasi hamda ularning aqliy murakkablik darajasi bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.



yuklamasidan qochish - takomillashtirishning muhim mezonidir. Darslikdagi faktlar, misollar, terminlar zamonaviy ilmiy bilimlar bilan mos bo‘lishi, mavhumlik va noaniqliklar kamaytirilishi, mantiqiy izchillik saqlanishi zarur.

Didaktik-metodik omillar darslikning o‘qitish tamoyillari, metodlar tizimi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish mexanizmlariga taalluqlidir. Ta’lim psixologiyasi va pedagogikada faol o‘qitish yondashuvlari bilimni “tayyor” holatda berishdan ko‘ra uni o‘quvchi tomonidan faol kashf etish, muammoni hal qilish, izlanish, munozara va refleksiya orqali egallash samaraliroq ekanini ko‘rsatadi; bu yondashuv darslikda muammoli savollar, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar, loyihaviy mini-ishlar, kuzatish va tajribalar, guruhiy hamkorlikni rag‘batlantiruvchi vazifalar ulushini oshirishni taqozo etadi [3, 36-b.]. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinfda kognitiv yuklamani me’yorlash alohida ahamiyat kasb etadi: darslikdagi bir sahifaga jamlangan yangi tushunchalar soni, topshiriqlar murakkabligi, vizual va matnli axborot nisbatini o‘quvchining

ishchi xotirasi imkoniyatlariga moslashtirish kerak; kognitiv yuklama nazariyasi darslik dizaynida ortiqcha bezaklar, mavzuga aloqasiz rasm va elementlar o‘quvchi diqqatini chalg‘itishi, asosiy mazmunni o‘zlashtirishni qiyinlashtirishini ilmiy asoslaydi. Demak, didaktik takomillashtirish darslikning hajmini ko‘proq qilish emas, balki sodda va samarali qilish, o‘qitish maqsadiga xizmat qilmaydigan yuklamalarni kamaytirish demakdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi. - 2017-yil 8-fevral. - №28 (6722).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. - https://lex.uz
3. Bruner J. Toward a Theory of Instruction. - Cambridge: Harvard University Press, 1966. - 81-b.

TASVIRIY SAN’AT TA’LIMIDA TALABALARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Shomurodov Oybek Norqulovich
Buxoro davlat universiteti Tasviriy san’at va musiqa ijrochiligi kafedrasi dotsenti

Hozirgi kunda oliy ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan hamda o‘z kasbiy faoliyatida ijodiy yondasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, tasviriy san’at yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun ijodiy kompetensiyani shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tasviriy san’at ta’limi o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra boshqa fanlardan farq qiladi. Mazkur yo‘nalishda talaba tayyor nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda kuzatish, tasavvur qilish, obraz yaratish, kompozitsion yechim topish va o‘z fikrini badiiy vositalar yordamida ifodalashni o‘rganadi. Shu sababli tasviriy san’at darslarida talabaning mustaqil ijodiy faoliyatiga keng imkoniyat yaratish zarur.

Tasviriy san’at oliy ta’limida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarda maxsus tashkil etilgan ijodiy mashg‘ulotlar talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlangan. Xususan, Cheung On Tam tomonidan olib borilgan tadqiqotda vizual san’at kursiga ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatlar kiritilib, ularning talabalarning ijodiy fikrlashiga ijobiy ta’siri aniqlangan [1, b. 16–17].

Tasviriy san’at ta’limida ijodiy kompetensiyani rivojlantirish masalasining dolzarbligi shundaki, bugungi rassom-pedagogdan faqat texnik mahorat emas, balki yangi g‘oya yaratish, badiiy muammoni mustaqil hal qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘z ijodiy qarashlarini asoslay olish qobiliyati ham talab etiladi.

Tasviriy san’at ta’limida ijodiy kompetensiya tushunchasi

Ijodiy kompetensiya shaxsning yangi g‘oya va obrazlarni yaratishi, mavjud muammoga noodatiy nuqtayi nazardan yondashishi hamda o‘zining ijodiy qarorlarini amaliy faoliyatda ifodalay olish qobiliyatini anglatadi. Tasviriy san’at yo‘nalishida mazkur kompetensiya badiiy tasavvur, kuzatuvchanlik, kompozitsion fikrlash, rang va shakl bilan ishlash, materialni to‘g‘ri tanlash hamda mustaqil badiiy qaror qabul qilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Tasviriy san’atda ijodkorlik faqat chiroyli rasm chizish bilan belgilanmaydi. Talabaning yangi g‘oya yaratishi, bir mavzuni turli usullarda talqin qilishi va o‘ziga xos badiiy yechim topishi ham ijodkorlikning muhim ko‘rsatkichidir.

K. Ulgerning tadqiqotida tasviriy san’at oliy ta’limida ijodiy tayyorgarlikning talabalarning ijodiy tafakkuriga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijodiy tayyorgarlik talabalarning ijodiy fikrlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan va ochiq tuzilgan o‘quv faoliyatlari ochiq fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan [2, b. 73–74].

Shu sababli tasviriy san’at mashg‘ulotlarida talabaning faqat texnik mahoratini emas, balki uning ijodiy fikrlash jarayonini ham rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Ochiq topshiriqlarning ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati

Tasviriy san’at ta’limida ochiq topshiriqlardan foydalanish talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Ochiq topshiriqlarda odatda yagona to‘g‘ri javob bo‘lmaydi. Talaba berilgan mavzu yoki muammoni o‘zining individual qarashi asosida hal qiladi.

Masalan, “Natyurmortni chizing” topshirig‘i nisbatan yopiq topshiriq bo‘lishi mumkin. “Bir xil predmetlardan foydalanib, uch xil kayfiyatni ifodalovchi natyurmort kompozitsiyasi yarating” topshirig‘i esa talabadan ijodiy yechim izlashni talab qiladi.

Bunday topshiriqda talaba rang, kompozitsiya, yorug‘lik va soya, shakl hamda faktura vositalaridan mustaqil foydalanadi. Natijada o‘qituvchi bergan bitta namunani takrorlash o‘rniga talaba o‘zining badiiy qarashini ifodalashga harakat qiladi.

Ulgerning tadqiqotida ham ijodiy ta’lim jarayonida ochiq tuzilgan faoliyatlarning ahamiyati alohida ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, erkin va moslashuvchan o‘quv muhiti hamda o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi yondashuvi ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi [2, b. 80–84]. Demak, tasviriy san’at o‘qituvchisi topshiriqlarni ishlab chiqishda talabaning ijodiy tanloviga imkon qoldirishi lozim.

Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish

Tasviriy san’at ta’limida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish ham samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Muammoli ta’limda talaba tayyor algoritm asosida ishlamaydi, balki oldiga qo‘yilgan muammoni mustaqil tahlil qiladi va uning yechimini izlaydi.

K. Ulger tomonidan oliy ta’limdagi tasviriy san’at talabalari ishtirokida olib borilgan tadqiqotda muammoli ta’limning ijodiy va tanqidiy fikrlashga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda muammoli ta’lim talabalarning ijodiy fikrlashiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan [3, b. 1–3].

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida muammoli vaziyatni turli shakllarda tashkil etish mumkin. Masalan, “Faqat ikki yoki uchta rangdan foydalanib, makon chuqurligini qanday ifodalash mumkin?”, “Bir predmetni turli rakurslardan ko‘rsatish orqali qanday kompozitsion yechimga erishish mumkin?” kabi savollar talabani mustaqil izlanishga undaydi.

Bunday topshiriqlarning asosiy afzalligi shundaki, talaba masalaning tayyor javobini emas, balki uning yechimini izlash jarayonini boshdan kechiradi. Bu esa ijodiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijodiy mashg‘ulotlarni tashkil etish

Tasviriy san’at ta’limida ijodiy mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish talabalarning ijodiy imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich bosqichda talabaga kuzatish va tasavvur qilishga oid mashqlar beriladi. Keyingi bosqichda u mavjud obrazni o‘zgartirish, bir nechta obyektni bir kompozitsiyaga birlashtirish va turli rang yechimlarini izlashga o‘rgatiladi.

Yuqori bosqichda esa talabadan mustaqil badiiy konsepsiya ishlab chiqish talab etiladi. Masalan, “Zamonaviy inson va tabiat” mavzusida konseptual kompozitsiya yaratish topshirig‘i berilishi mumkin.

Tam tadqiqotida vizual san’at kursiga maxsus ijodiy fikrlash mashg‘ulotlari kiritilgan va ular talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan [1, b. 20–27]. Tadqiqotda o‘yinchanlik, erkinlik va tuzilmalilik, guruhiy o‘zaro hamkorlik hamda muammoli faoliyat ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan [1, b. 24–30].

Shu jihatdan tasviriy san’at darslarida faqat yakuniy natijaga emas, balki ijodiy jarayonga ham e’tibor berish lozim.

Talaba markazidagi ta’lim yondashuvi

Zamonaviy tasviriy san’at ta’limida talaba markazidagi yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchi barcha ishlarni tayyor holda ko‘rsatib beruvchi shaxs emas, balki talabaning ijodiy izlanishini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Talaba markazidagi yondashuvning asosiy jihati shundan iboratki, talaba o‘zining badiiy qarorini mustaqil ishlab chiqadi. O‘qituvchi esa unga zarur metodik maslahat beradi, texnik xatolarini ko‘rsatadi va ijodiy izlanishni davom ettirishga undaydi.

Tamning tadqiqotida oliy ta’limdagi vizual san’at kursida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatlar o‘quv jarayoniga integratsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bunday yondashuv talabalarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirganini ko‘rsatgan [1, b. 16–18].

Shu sababli o‘qituvchi “mening namunamni aynan takrorlang” tamoyilidan ko‘ra “ushbu badiiy muammoni o‘z uslubingizda hal qiling” tamoyiliga ko‘proq e’tibor berishi maqsadga muvofiq.

Kuzatuvchanlik va vizual tafakkurni rivojlantirish

Tasviriy san’at ta’limining asosiy tarkibiy qismlaridan biri kuzatuvchanlikdir. Rassom predmetning tashqi ko‘rinishini shunchaki ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki uning shakli, proporsiyasi, rangi, yorug‘lik va soya munosabatlari hamda fazodagi joylashuvini tahlil qiladi.

OECD tomonidan tayyorlangan tadqiqotda tasviriy san’at ta’limi bilan bog‘liq ko‘nikmalar qatorida diqqat bilan kuzatish va vizual-fazoviy ko‘nikmalar alohida qayd etilgan [4, b. 135–137].

Mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlarda qisqa muddatli kuzatuv va xotiradan tasvirlash mashqlaridan foydalanish mumkin. Masalan, talabaga predmetni bir necha daqiqa kuzatish, keyin esa uni ko‘rmasdan tasvirlash topshirig‘i beriladi. Keyinchalik talaba o‘z tasvirini original obyekt bilan taqqoslaydi.

Bunday mashqlar talabaning vizual xotirasini, kuzatuvchanligini va obyektni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyiha metodi asosida ijodiy faoliyatni tashkil etish

Tasviriy san’at yo‘nalishida loyiha metodi talabaning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Loyiha jarayonida talaba mavzu tanlaydi, ma’lumot to‘playdi, dastlabki eskizlar yaratadi, material va texnikani belgilaydi, kompozitsion yechimlarni ishlab chiqadi va yakuniy badiiy asarni yaratadi.

Masalan, “Milliy qadriyatlarning zamonaviy tasviriy san’atdagi talqini” mavzusidagi ijodiy loyiha quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mavzu va g‘oyani tanlash.
2. Adabiy va vizual materiallarni o‘rganish.
3. Dastlabki eskizlarni ishlab chiqish.
4. Kompozitsion variantlarni taqqoslash.
5. Rang va texnika tanlash.
6. Yakuniy asarni yaratish.
7. Ijodiy ishni taqdim etish.
8. O‘z faoliyatini tahlil qilish.

Bunday loyiha talabaning badiiy mahorati bilan birga rejalashtirish, izlanish, qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Guruhiy ijodiy faoliyat

Tasviriy san’at darslarida individual ishlash bilan bir qatorda guruhiy ijodiy faoliyatdan ham foydalanish mumkin. Guruhiy faoliyat talabalarni o‘zaro fikr almashishga, bir-birining g‘oyalarini tinglashga va umumiy badiiy yechim ishlab chiqishga o‘rgatadi. Tam tadqiqotida guruhiy o‘zaro hamkorlik ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyatlardan biri sifatida ko‘rsatilgan [1, b. 24–30].

Masalan, guruhlarga “Shahar kelajagi” mavzusida umumiy kompozitsiya yaratish topshirig‘i beriladi. Har bir talaba kompozitsiyaning alohida elementini ishlab chiqadi, keyin guruh a’zolari ushbu elementlarni yagona badiiy konsepsiyaga birlashtiradi. Bunday faoliyat

talabalarda nafaqat ijodkorlik, balki muloqot, hamkorlik va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Portfolio va refleksiyaning ahamiyati

Tasviriy san’at yo‘nalishida talabaning bilim va ko‘nikmalarini baholashda faqat yakuniy ijodiy ishni hisobga olish yetarli emas. Talabaning ijodiy rivojlanish jarayonini ham kuzatish muhim.

Shu maqsadda portfolio texnologiyasidan foydalanish mumkin. Portfolio tarkibiga talabaning eskizlari, amaliy ishlari, ijodiy loyihalari, yakuniy asarlari va o‘z faoliyatiga oid qisqa izohlari kiritiladi.

Portfolio o‘qituvchiga talabaning bir semestr yoki o‘quv yili davomida qanday rivojlanganini ko‘rish imkonini beradi. Talaba uchun esa o‘zining oldingi va keyingi ishlarini taqqoslash orqali rivojlanish dinamikasini anglash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Refleksiya jarayonida talaba “Men ushbu kompozitsiyada qanday g‘oyani ifodaladim?”, “Qaysi badiiy vositalardan foydalandim?”, “Ishimning kuchli va zaif tomonlari nimada?”, “Keyingi ishda nimani o‘zgartirgan bo‘lardim?” kabi savollarga javob beradi.

Bunday yondashuv talabaning o‘z ijodiy faoliyatini tahlil qilish va kelgusidagi ishlarini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tasviriy san’atda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tasviriy san’at ta’limiga ham yangi imkoniyatlar olib kirmoqda. Grafik dasturlar, raqamli tasvir, elektron portfolio, virtual ko‘rgazmalar va multimedia vositalari talabalarning ijodiy faoliyatini boyitishi mumkin.

Biroq raqamli texnologiyalar an’anaviy tasviriy san’at texnikalarini to‘liq almashtirmasligi kerak. Qalam, ko‘mir, akvarel, guash, moybo‘yoq va boshqa materiallar bilan ishlash talabaning materialni bevosita his qilishi, qo‘l harakatlarini boshqarishi va badiiy jarayonni amalda anglashiga yordam beradi.

Shuning uchun oliy ta’limda an’anaviy va raqamli badiiy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, talaba avval an’anaviy usulda eskiz yaratib, keyinchalik uni raqamli muhitda qayta ishlab chiqishi mumkin.

Bu yondashuv kelajakdagi rassom-pedagog yoki dizaynerning zamonaviy kasbiy faoliyatiga mos kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining ijodiy muhit yaratishdagi roli

Tasviriy san’at o‘qituvchisi talabaning ijodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchining vazifasi faqat texnik usullarni ko‘rsatish bilan cheklanmasligi kerak. U talabani mustaqil fikrlashga, izlanishga va tajriba qilishga undashi lozim.

Ulger tadqiqotida o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi munosabati va erkin, moslashuvchan ta’lim muhiti ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan [2, b. 80–84].

O‘qituvchi talabaning ishini tanqid qilayotganda faqat xatolarni ko‘rsatib qolmasdan, uning kuchli tomonlarini ham aniqlashi zarur. “Bu noto‘g‘ri” degan bahodan ko‘ra “ushbu kompozitsion yechimni yana qanday variantlarda rivojlantirish mumkin?” degan savol ijodiy izlanishni ko‘proq rag‘batlantiradi.

Shu sababli dotsent va professor-o‘qituvchilarning metodik faoliyatida ijodiy pedagogika tamoyillarini qo‘llash, o‘quv mashg‘ulotlarini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish va talabalar ijodiy rivojlanishini muntazam kuzatish muhimdir.

Talabalar ijodiy ishlarini baholash

Tasviriy san’atda baholash jarayoni o‘ziga xos xususiyatga ega. Chunki badiiy asarni faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” mezoni asosida baholash mumkin emas. Talabaning ijodiy g‘oyasi, kompozitsion qarori, texnik mahorati va individual yondashuvi ham hisobga olinishi lozim.

Shu asosda talabaning ijodiy ishlarini quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin:

- ijodiy g‘oyaning originalligi — 20 foiz;
- kompozitsion yechim — 20 foiz;
- badiiy-texnik mahorat — 20 foiz;
- rang va shakl uyg‘unligi — 15 foiz;

- mustaqil ijodiy qaror — 15 foiz;
- ijodiy ishni asoslash va taqdim etish — 10 foiz.

Bunday baholashda talabaning faqat yakuniy natijasi emas, balki ijodiy jarayoni ham hisobga olinadi. Ijodiy kompetensiyani baholashga oid tadqiqotlarda ham tasviriy san'atda originallik, g'oya yaratish, texnik mahorat, tasavvur va ijodiy yechim kabi mezonlarning ahamiyati ko'rsatilgan [5, b. 1–3].

Tasviriy san'at ta'limida talabalarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Bunday kompetensiyani shakllantirish faqat amaliy rasm chizish mashg'ulotlari bilan cheklanmasdan, talabaning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi, tasavvuri, muammoli vaziyatlarni hal qilishi va o'z ijodiy faoliyatini tahlil qila olishini ham qamrab olishi kerak.

Muammoli ta'lim texnologiyasi ham tasviriy san'at talabalarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari muammoli ta'limning ijodiy fikrlashga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan [3, b. 1–3]. Shu sababli tasviriy san'at yo'nalishidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ochiq topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy loyihalar, guruhiy faoliyat, portfolio va refleksiya usullaridan tizimli foydalanish maqsadga muvofiq. O'qituvchi, ayniqsa oliy ta'limdagi dotsent va professor-o'qituvchi, talabaning tayyor namunani takrorlashiga emas, balki mustaqil badiiy qaror qabul qilishiga sharoit yaratishi lozim. Bunday pedagogik muhit talabaning individual ijodiy uslubini shakllantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at ta'limida ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo'li an'anaviy badiiy-amaliy tayyorgarlikni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Talabaning mustaqil ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ochiq topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar yaratish va ijodiy jarayonni baholash orqali yuqori darajadagi kasbiy va ijodiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Adabiyotlar

1. Tam C. O. Integrating Creative Thinking Skills Pedagogies into a Higher Education Visual Arts Course // The International Journal of Art & Design Education. — 2023. — Vol. 42, No. 1. — P. 16–32. DOI: 10.1111/jade.12452.
2. Ulger K. The Creative Training in the Visual Arts Education // Thinking Skills and Creativity. — 2016. — Vol. 19. — P. 73–87. DOI: 10.1016/j.tsc.2015.10.007.
3. Ulger K. The Effect of Problem-Based Learning on the Creative Thinking and Critical Thinking Disposition of Students in Visual Arts Education // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. — 2018. — Vol. 12, No. 1. DOI: 10.7771/1541-5015.1649.
4. Winner E., Goldstein T. R., Vincent-Lancrin S. Art for Art's Sake? The Impact of Arts Education. — Paris: OECD Publishing, 2013. — 270 p. DOI: 10.1787/9789264180789-en.
5. Ulger K. A Review of the Criteria of the Prediction of Students' Creative Skills in the Visual Arts Education // Creativity Studies. — 2020. — Vol. 13, No. 2. — P. 379–393. DOI: 10.3846/cs.2020.11860.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI O'STIRISH

Sidiqova Dilora Shavkatovna

Osiyo xalqaro universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashga o'quvchilarni jalb qilish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang'ich sinf o'quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o'zlashtiradi, ravon va ongli o'qish ko'nikma-malakalariga ega bo'ladi,

nutqi boyiydi hamda fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada, o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talablar ijrosiga erishiladi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini hamda ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol-topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim [2, b.10].

Matnni o‘qish ko‘nikmasiga egalik, avvalo, o‘quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi. O‘qitishning mustaqil qismi bo‘lgan har qanday dars ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o‘z munosabatini bildira olishga o‘rgatish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaning og‘zaki va yozma nutqi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning bilimlarni o‘zlashtirishi, fikrini erkin ifodalashi va atrofdagilar bilan muloqot qilishi shunchalik samarali bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri o‘quvchilarning nutq faoliyati, tafakkuri va dunyoqarashi shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli dars jarayonida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutq boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar so‘zlarning ma’nosini tushunadi, gaplarni to‘g‘ri tuzishni o‘rganadi hamda o‘z fikrini izchil bayon qilishga odatlanadi. Matn o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi, nutqini boyitadi va ularning tafakkurini rivojlantiradi. Ayniqsa, badiiy va ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlash o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, voqea-hodisalarni tahlil qilish va ularga baho berish ko‘nikmalarini shakllantiradi [3, b.14].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda matn ustida ishlashning ahamiyati nihoyatda katta. O‘quvchi matnni o‘qish jarayonida yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi, ularning ma’nosini tushunadi va nutqida qo‘llashga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash davomida o‘quvchilar savollarga javob beradi, matn mazmunini qayta hikoya qiladi, voqealarni izohlaydi va o‘z munosabatini bildiradi. Natijada, ularning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi.

Nutq — insonning fikrini til vositalari orqali ifodalashi va boshqalar bilan muloqot qilishi jarayonidir. Nutq yordamida inson o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini va istaklarini ifodalaydi. Nutq og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi. Og‘zaki nutq suhbat, hikoya qilish va savol-javob jarayonida namoyon bo‘lsa, yozma nutq insho, bayon, diktant va turli yozma ishlar orqali rivojlanadi. Boshlang‘ich ta’limda har ikkala nutq turini rivojlantirish muhim hisoblanadi [1, b.9].

Boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash — bu o‘quvchining voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildira olishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishidir. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi, voqealar sababini aniqlaydi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. Bu esa ularda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muammoli savollar muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi matn yuzasidan “Nima uchun?”, “Siz qahramon o‘rnida bo‘lsangiz qanday yo‘l tutardingiz?”, “Voqea boshqacha tugashi mumkinmidi?” kabi savollar berishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bunday savollar o‘quvchilarning voqealarni chuqurroq tahlil qilishiga va o‘z nuqtayi nazarini bildirishiga yordam beradi [4, b.26].

Boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlashning yana bir muhim jihati — o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdir. Matn bilan muntazam ishlash o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil mutolaa qilishga undaydi. Kitob o‘qigan o‘quvchining

dunyoqarashi kengayadi, nutqi boyiydi va fikrlash doirasi rivojlanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni yoshiga mos badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mutolaa qilishga rag‘batlantirib borishi zarur.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda o‘qituvchining nutqi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi dars jarayonida adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda ravon, aniq va ifodali nutqdan foydalanishi kerak. Chunki o‘quvchilar ko‘proq o‘qituvchining nutqiga taqlid qiladi. Shu bois o‘qituvchining to‘g‘ri talaffuzi, boy lug‘ati va ifodali nutqi o‘quvchilar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Matn bilan ishlash orqali o‘quvchilar fikrini erkin bayon qilish, voqealarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishni o‘rganadi. Natijada ularda kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi [4, b.42].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshadi, bog‘lanishli nutqi rivojlanadi va ular mustaqil fikr yuritishga o‘rganadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash metodikasini to‘g‘ri tashkil etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Aminova F. H. O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. …dis. avtoref. – T.: O‘zPFITI. 2007. – 22 b.

2. Aslonova O.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – QarDU. 2020. – 49 b.

3. Bakieva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – TDPU. 2019. – 47 b.

4. Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI HAMKORLIGINING BOLANING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Turdiyeva Mohira Juraqulovna
Renessans universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti
p.f.f.d. (PhD)
Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti

Maktabgacha yosh davri bolaning keyingi ta’lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim poydevor shakllanadigan bosqichdir. Shu davrda bolaning rivojlanishi faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan belgilanmaydi. Uning bilish faoliyati, nutqi, o‘zini boshqarishi, tengdoshlari bilan munosabati, ijodiy faolligi, mustaqilligi va emotsional barqarorligi bir butun tizim sifatida shakllanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tadqiqotlari ham bolaning rivojlanishini faqat pedagog tomonidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar natijasi sifatida emas, balki bola–oila–pedagog–ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar tizimi sifatida ko‘rib chiqmoqda. Xususan, 2023-yilda e’lon qilingan keng qamrovli sharhda maktabgacha ta’lim muhitida bolaning faolligi uning ijtimoiy va moddiy muhit bilan o‘zaro ta’siri, kognitiv va emotsional jarayonlari bilan bog‘liq holda talqin qilinishi zarurligi ko‘rsatilgan [1].

Mazkur holat oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligiga bo‘lgan yondashuvni ham o‘zgartirishni talab etadi. Avvalgi yondashuvlarda ota-onalar bilan ishlash ko‘pincha

yig‘ilishlar, bayramlar yoki maslahatlar bilan chegaralangan bo‘lsa, zamonaviy konsepsiyada ota-ona bolaning rivojlanish jarayonining faol hamkori sifatida qaralmoqda.

2024-yilgi tizimli tadqiqotda erta bolalik ta’limi sharoitida ota-ona va pedagog o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan 1 992 ta ilmiy ish ko‘rib chiqilgan, ulardan atigi 9 tasi bevosita ushbu munosabatni yaxshilashga qaratilgan intervensiyalar sifatida tadqiqot mezonlariga javob bergan. Mualliflar ota-ona–pedagog munosabatlarining sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy dalillar bazasi hali rivojlanish bosqichida ekanini ta’kidlaydi [2].

Bu xulosa mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi: hamkorlikning o‘zi emas, uning qanday tashkil etilishi va bolaning rivojlanishiga qanday mexanizm orqali ta’sir qilishi ilmiy tahlilning asosiy obyektiga aylanishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligining bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik mexanizmlarini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida aniqlash va samarali hamkorlik modelining asosiy tarkibiy qismlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining bolaning rivojlanishidagi funksiyalarini aniqlash;
- zamonaviy tadqiqotlarda oilaviy ishtirok tushunchasining mazmunini tahlil qilish;
- ota-ona va pedagog kommunikatsiyasining bola rivojlanishidagi rolini aniqlash;
- hamkorlikning kognitiv, nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta’sir mexanizmlarini ko‘rsatish;
- zamonaviy hamkorlik shakllarini tizimlashtirish;
- O‘zbekiston maktabgacha ta’lim sharoitida oila bilan hamkorlikni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqolada ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Oilaviy ishtirok tushunchasining zamonaviy talqini

Bugungi maktabgacha ta’limda “ota-onalar bilan ishlash” va “oilaviy hamkorlik” tushunchalarini aynanlashtirish to‘g‘ri emas.

Ota-onalar bilan ishlash ko‘proq pedagogning ota-onaga ma’lumot berishi, tavsiya berishi yoki ularni tadbirlarga jalb etishini anglatishi mumkin.

Oilaviy hamkorlik esa ikki tomonlama jarayon bo‘lib, unda ota-ona va pedagog:

- bolaning rivojlanish ehtiyojlarini birgalikda aniqlaydi;
- bola haqidagi ma’lumotlarni almashadi;
- rivojlantirish strategiyalarini muvofiqlashtiradi;
- uy va MTT muhitidagi pedagogik ta’sirlarni uyg‘unlashtiradi;
- bolaning rivojlanish dinamikasini birgalikda kuzatadi.

2025-yilda e’lon qilingan oilaning maktabgacha ta’limdagi ishtirokini o‘lchashga bag‘ishlangan tizimli sharhda 97 ta empirik tadqiqot tahlil qilingan va oilaviy ishtirokni baholash usullarida sezilarli xilma-xillik mavjudligi aniqlangan [3].

Bu natija muhim metodologik xulosaga olib keladi: oilaviy ishtirokni faqat “ota-ona tadbirga keldi yoki kelmadi” mezoni bilan o‘lchash ilmiy jihatdan yetarli emas.

Oila va MTT hamkorligining pedagogik mexanizmi

Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanishiga bevosita emas, balki bir qator pedagogik mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchi mexanizm — axborot almashinuvi. Ota-ona bolaning uy sharoitidagi xulqi, qiziqishlari, odatlari va ehtiyojlari haqida pedagogga ma’lumot beradi. Pedagog esa bolaning guruhdagi faoliyati, tengdoshlari bilan munosabati va ta’limiy faolligi haqida ota-onaga ma’lumot beradi.

Ikkinchi mexanizm — pedagogik yondashuvlarning muvofiqlashuvi. Agar uy va MTTda bolaning mustaqilligi, muloqoti yoki o‘zini boshqarishiga nisbatan bir-biriga zid talablar qo‘yilmasa, bola uchun yanada barqaror rivojlanish muhiti yuzaga keladi.

Uchinchi mexanizm — uydagi rivojlantiruvchi faoliyatni qo‘llab-quvvatlash. 2023-yilda beshta past va o‘rta daromadli mamlakat ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tadqiqotda ota-onalarning bola

bilan kitob o‘qish, o‘ynash, qo‘shiq aytish va boshqa rag‘batlantiruvchi faoliyatlari erta savodxonlik, hisoblash, ijtimoiy-emotsional, motor va ijro funksiyalari bilan bog‘liq ekani aniqlangan [4].

1-jadval.

Mexanizm	Amalga oshish shakli	Bolaga kutiladigan ta’sir
Axborot almashinuvi	Suhbat, individual uchrashuv, elektron aloqa	Individual yondashuv
Pedagogik muvofiqlashtirish	Umumiy tarbiyaviy talablar	Barqaror xulq-atvor
Uyda rivojlantirish	Kitob, o‘yin, suhbat, tajriba	Kognitiv va nutqiy rivojlanish
Rivojlanish monitoringi	Kuzatuv va tahlil	Muammolarni erta aniqlash
Emotsional qo‘llab-quvvatlash	Ijobiy muloqot	Emotsional barqarorlik
Faol ishtirok	Oilaviy loyiha va topshiriqlar	Motivatsiya va mustaqillik

1. Oila–MTT hamkorligining asosiy pedagogik mexanizmlari

Ota-ona–pedagog kommunikatsiyasi hamkorlikning asosiy sharti sifatida

Zamonaviy tadqiqotlarda hamkorlikning miqdoridan ko‘ra munosabat sifati muhimroq ekani tobora ko‘proq ta’kidlanmoqda.

2024-yilda *Early Childhood Research Quarterly* jurnalida e’lon qilingan tadqiqotda ota-ona va pedagog o‘rtasidagi kommunikatsiya sifati maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limiy faoliyatga jalb etilishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [5]. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari bu bog‘liqlikning bola va oila xususiyatlariga qarab farqlanishini ham ko‘rsatadi.

Demak, ota-onalar bilan muloqotning samaradorligi faqat aloqa qilish chastotasi bilan emas, balki uning mazmuni va sifatiga ham bog‘liq.

Samarali kommunikatsiya:

- bolaning kuchli tomonlariga tayanadi;
- muammoni ayblash emas, yechim izlashga qaratiladi;
- ota-onaning fikrini hisobga oladi;
- professional pedagogik tavsiyani tushunarli shaklda beradi;
- muntazam bo‘ladi;
- bolaning individual xususiyatlarini hisobga oladi.

Bu yondashuv ota-onani “pedagog ko‘rsatmasini bajaruvchi” emas, balki qaror qabul qilish jarayonidagi sherik sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Hamkorlikning bolaning kognitiv va nutqiy rivojlanishidagi ahamiyati

Bolaning kognitiv rivojlanishida uy va MTTda amalga oshiriladigan faoliyatlarning o‘zaro davomiyligi muhim.

Masalan, MTTda bola ranglar, shakllar, sonlar yoki tabiat hodisalari bilan tanishgan bo‘lsa, ota-ona kundalik hayotda ushbu bilimlarni tabiiy vaziyatlarda mustahkamlashi mumkin.

“Bu qanday shakl?”, “Nechta olma bor?”, “Nima uchun barglar to‘kilyapti?”, “Qaysi biri katta?” kabi savollar bolaning fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Xuddi shunday, nutqiy rivojlanishda MTTdagi hikoya qilish va suhbat faoliyati oiladagi kitob o‘qish va mazmunli muloqot bilan davom ettirilsa, bolaning nutqiy tajribasi boyiydi.

Bu yerda muhim jihat — ta’limni uyga ko‘chirish emas, balki bolaning kundalik hayotini rivojlantiruvchi muhitga aylantirishdir.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish va oilaviy hamkorlik

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uning keyingi ta’lim muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

2023-yilgi ilmiy sharhda maktabgacha ta’lim dasturlari orqali ota-onalarni jalb etish bolaning ijtimoiy-emotsional va o‘zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan [6].

Bunday hamkorlikda ota-onaga bolaga tayyor javob berishdan ko‘ra:

- bolaning his-tuyg‘usini nomlash;
- muammoli vaziyatni birgalikda muhokama qilish;
- tanlov qilish imkonini berish;
- xatti-harakat oqibatlarini tushuntirish;
- mustaqil yechim topishiga sharoit yaratish kabi usullar tavsiya etiladi.

Bu yondashuv bolani faqat “itoatkor” bo‘lishga emas, balki o‘z xatti-harakatini anglash va boshqarishga o‘rgatadi.

Oila va MTT hamkorligida bolaning faol subyekt sifatidagi o‘rni

Zamonaviy maktabgacha ta’limning muhim xususiyati — bolani ta’lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida ko‘rishdir.

2023-yilgi keng qamrovli sharhda maktabgacha ta’lim muhitidagi bolaning engagementi, ya’ni faol jalb etilishi xulqiy faollik bilan bir qatorda kognitiv va emotsional jihatlarni ham qamrab olishi ko‘rsatilgan [1].

Shu sababli oila bilan hamkorlikda ham bolaning fikri, qiziqishi va tanlovlari hisobga olinishi kerak.

Masalan, oilaviy loyiha pedagog tomonidan to‘liq belgilanib, bola faqat topshiriqni bajaruvchi bo‘lsa, bu haqiqiy hamkorlik emas. Aksincha, bola loyiha mavzusini tanlashi, savollar berishi, materiallarni tanlashi va natijani taqdim etishda ishtirok etishi uning subyektivligini kuchaytiradi.

Raqamli kommunikatsiya — zamonaviy hamkorlik vositasi

Raqamli texnologiyalar ota-ona va pedagog o‘rtasidagi aloqani tezkorlashtirish imkonini beradi. 2023-yilda o‘tkazilgan pilot tadqiqotda ota-onalarga SMS orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘rganishi va rivojlanishini uy sharoitida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qisqa tavsiyalar yuborish yondashuvi sinab ko‘rilgan [7].

Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli kommunikatsiyani:

- kunlik yoki haftalik rivojlanish tavsiyalari;
- qisqa video-metodik ko‘rsatmalar;
- ota-onalar uchun elektron maslahatlar;
- bolaning yutuqlari haqida individual fikr-mulohaza;
- uyda bajariladigan rivojlantiruvchi faoliyatlar

uchun qo‘llash mumkin.

Biroq raqamli aloqa jonli pedagogik muloqotning o‘rnini bosmasligi, balki uni to‘ldirishi kerak.

Oila bilan hamkorlik shakllarini zamonaviylashtirish

An’anaviy ota-onalar yig‘ilishi muhim bo‘lsa-da, uni hamkorlikning asosiy shakli sifatida ko‘rish zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan yetarli emas.

2-jadval.

An’anaviy yondashuv	Zamonaviy yondashuv
Ota-onaga ma’lumot berish	Ota-ona bilan ikki tomonlama muloqot
Umumiy yig‘ilish	Individual va kichik guruhli maslahat
Tayyor topshiriq	Birgalikda maqsad belgilash
Muammoga e’tibor	Bolaning kuchli tomonlariga tayanish
Tadbirga qatnashish	Rivojlanish jarayonida faol ishtirok
Faqat MTTdagi faoliyat	Uy va MTT faoliyatining uyg‘unligi
Bir tomonlama aloqa	Raqamli va bevosita ikki tomonlama aloqa
Natijani baholash	Rivojlanish dinamikasini monitoring qilish

2. An’anaviy va zamonaviy hamkorlik yondashuvlarining

qiyosiy tavsifi

Bu o‘zgarishning mohiyati shundan iboratki, hamkorlik “tadbir”dan “jarayon”ga aylanishi kerak.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va oilaviy hamkorlik

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida bolaning rivojlanishini kompleks qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan muhim metodik asoslardan biri — **“**Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashridir. Dastur 2022-yilda nashr etilgan va maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mo‘ljallangan. Dastur mazmunida bolaning rivojlanishi, kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish masalalariga e’tibor qaratilishi oilaviy hamkorlik uchun ham metodik imkoniyat yaratadi.

Bunda oila va MTTning vazifalarini quyidagicha muvofiqlashtirish mumkin:

3-jadval.

Rivojlanish yo‘nalishi	MTT faoliyati	Oiladagi davomiy faoliyat
Nutq va kommunikatsiya	Suhbat, hikoya, rolli o‘yin	Kitob o‘qish, suhbat
Bilish faoliyati	Kuzatish, tajriba, didaktik o‘yin	Kundalik hayotdagi kuzatish
Ijtimoiy rivojlanish	Guruhli o‘yinlar	Oilaviy hamkorlik va vazifalar
Ijodiy rivojlanish	Rasm, musiqa, konstruktorlik	Uyda ijodiy faoliyat
Mustaqillik	O‘z-o‘ziga xizmat	Uy yumushlarida yoshiga mos ishtirok
Jismoniy rivojlanish	Harakatli o‘yinlar	Sayr va faol harakat

3. “Ilk qadam” yondashuvi doirasida oila–MTT hamkorligi

Shu tarzda, dasturdagi rivojlanish yo‘nalishlarini oiladagi kundalik faoliyat bilan bog‘lash mumkin.

Hamkorlikning samaradorligini baholash

Hamkorlik samaradorligini faqat ota-onalar tadbirga kelgan-kelmaganligi bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Samaradorlikni quyidagi indikatorlar orqali kuzatish mumkin:

4-jadval.

Indikator	Kuzatiladigan holat
Kommunikativ	Ota-ona va pedagog o‘rtasidagi muntazam muloqot
Pedagogik	Uy va MTTdagi yondashuvlarning muvofiqligi
Rivojlanish	Bolaning individual rivojlanish dinamikasi
Ishtirok	Ota-onaning bolaning rivojlanish faoliyatidagi real ishtiroki
Emotsional	Bola va kattalar o‘rtasidagi ijobiy munosabat
Mustaqillik	Bolaning o‘z faoliyatini boshqarish darajasi
Kognitiv	Savol berish, kuzatish va muammoli vaziyatni hal qilish faolligi
Ijtimoiy	Tengdoshlari bilan hamkorlik qilish qobiliyati

4. Oila–MTT hamkorligi samaradorligini baholash indikatorlari

Bu mezonlar hamkorlikni jarayon ko‘rsatkichi emas, rivojlanish natijasi asosida baholash imkonini beradi.

Hamkorlikning zamonaviy modeli

Yuqoridagi ilmiy qarashlar asosida oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligining quyidagi modelini taklif qilish mumkin:

Bolaning ehtiyojlarini aniqlash → umumiy maqsad belgilash → oilaga mos pedagogik strategiya tanlash → uy va MTT faoliyatini uyg‘unlashtirish → muntazam kommunikatsiya → rivojlanish monitoringi → natijalarni tahlil qilish → hamkorlik strategiyasini takomillashtirish.

Ushbu modelning asosiy farqi shundaki, hamkorlikning markazida ota-ona yoki pedagog emas, bola turadi.

Tahlil qilingan zamonaviy tadqiqotlar oilaviy hamkorlikni bir yo‘nalishli axborot berish jarayonidan ikki tomonlama pedagogik sheriklikka aylantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. 2024-yilgi tizimli sharh ota-ona–pedagog munosabatlarini yaxshilash bo‘yicha intervensiyalar soni hali kamligini ko‘rsatgani bilan birga, ushbu munosabatning o‘zi erta bolalik ta’limidagi muhim ilmiy muammo ekanini ko‘rsatadi [2]. 2024-yilgi tadqiqotda esa oila bilan ishlash amaliyotlari, xususan, pedagogning kommunikatsiya faoliyati maktabgacha ta’limga qatnashish va erta o‘rganish ko‘nikmalari bilan bog‘liq ekani aniqlangan [8]. Shuningdek, ota-onalarning uy sharoitidagi o‘yin, kitob o‘qish va boshqa rivojlantiruvchi faoliyatlari turli rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi aniqlangan [4].

Bu natijalar birgalikda quyidagi ilmiy xulosani ilgari surish imkonini beradi:

Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligining pedagogik qiymati ota-onaning ta’lim tashkilotidagi formal ishtirokidan ko‘ra, uy va MTTdagi rivojlantiruvchi ta’sirlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi.

Demak, hamkorlikni tashkil etishda asosiy e’tibor tadbirlar soniga emas, bolaning rivojlanish trayektoriyasiga qaratilishi kerak.

Xulosa qilib qytganda, tadqiqot natijalari oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi ko‘p komponentli pedagogik tizim sifatida baholash imkonini beradi.

Birinchidan, zamonaviy yondashuvda oila maktabgacha ta’lim tashkilotining tashqi hamkori emas, bolaning rivojlanish ekotizimining faol subyekti sifatida qaralishi lozim.

Ikkinchidan, ota-ona va pedagog o‘rtasidagi muloqot sifati hamkorlik samaradorligining asosiy shartlaridan biridir. Tadqiqotlar kommunikatsiyaning bola faoliyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda [5; 8].

Uchinchidan, oilaviy hamkorlikning eng muhim natijasi ota-onaning tadbirda qatnashishi emas, balki bolaning rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, uy sharoitidagi kitob o‘qish, o‘yin, suhbat va boshqa rivojlantiruvchi faoliyatlarni MTTdagi pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashtirish bolaning turli rivojlanish sohalarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi [4].

Beshinchidan, raqamli kommunikatsiya ota-ona va pedagog o‘rtasidagi tezkor aloqani kuchaytiruvchi vosita bo‘lishi mumkin, biroq u bevosita pedagogik munosabatlarning o‘rnini bosmasligi kerak [7].

Oltinchidan, oila–MTT hamkorligini takomillashtirishning istiqbolli modeli **“**tadbirga yo‘naltirilgan hamkorlik”dan “rivojlanish natijasiga yo‘naltirilgan pedagogik sheriklik”ka o‘tish bilan bog‘liq.

Shunday qilib, bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasida oddiy aloqa emas, balki umumiy maqsad, o‘zaro ishonch, muntazam kommunikatsiya, individual yondashuv, rivojlanish monitoringi va pedagogik mas’uliyatni bo‘lishishga asoslangan sheriklik modeli zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ritoša A., Åström F., Björck E. et al. Measuring Children’s Engagement in Early Childhood Education and Care Settings: A Scoping Literature Review // *Educational Psychology Review*. — 2023. — Vol. 35. — Art. 99. — DOI: 10.1007/s10648-023-09815-4.

2. Zulauf-McCurdy C. A., McManus M. S., Golez M., Fettig A. A Systematic Review of Interventions to Promote Parent-Teacher Relationships in Early Care and Education: Exploring the Social Process Between Parents and Teachers // *SAGE Open*. — 2024. — DOI: 10.1177/21582440241288114.

3. Family Involvement in Early Childhood Education: A Systematic Review of its Measurement // *Early Childhood Education Journal*. — 2025. — DOI: 10.1007/s10643-025-02024-4.

4. Cuartas J., Donati G. et al. Family play, reading, and other stimulation and early childhood development in five low-and-middle-income countries // *Developmental Science*. — 2023. — DOI: 10.1111/desc.13404.
5. Are family-teacher communication quality and child and family characteristics associated with Head Start children's classroom engagement? It's complicated // *Early Childhood Research Quarterly*. — 2024. — Vol. 67. — P. 34–43. — DOI: 10.1016/j.ecresq.2023.11.007.
6. Bierman K. L., Stormshak E. A., Mannweiler M. D., Hails K. A. Preschool Programs that Help Families Promote Child Social-Emotional School Readiness: Promising New Strategies // *Clinical Child and Family Psychology Review*. — 2023. — DOI: 10.1007/s10567-023-00444-5.
7. Simoncini K., McKechnie J., Hilly C. et al. Helping Parents Support Their Preschool Children's Learning and Development Through SMS Messages: An Australian Pilot Study // *Early Childhood Education Journal*. — 2024. — Vol. 52. — P. 1853–1867. — DOI: 10.1007/s10643-023-01525-4.
8. Family engagement practices and children's attendance and early learning skills in a public pre-kindergarten program // *Children and Youth Services Review*. — 2024. — Vol. 163. — Art. 107794. — DOI: 10.1016/j.childyouth.2024.107794.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. *O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi: takomillashtirilgan ikkinchi nashr*. — Toshkent, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi. *Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida*: O'zbekiston Respublikasining O'RQ-595-son Qonuni, 2019-yil 16-dekabr. — Toshkent, 2019.

NEYROLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATNNI IDROK ETISH VA TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Tog'ayeva U.SH.
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Boshlang'ich ta'limda o'qish jarayonining natijasi matndagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish yoki tez o'qish bilangina belgilanmaydi. O'quvchi o'qilgan birliklarning mazmunini tushunishi, matndagi voqea-hodisalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashi, muallif fikrini anglab yetishi hamda o'qiganlari asosida mustaqil xulosa chiqara olishi zarur. Shu sababli matnni tushunish boshlang'ich sinf o'quvchisining keyingi o'quv faoliyatini ta'minlovchi tayanch ko'nikmalardan biri hisoblanadi [7].

Matnni tushunish murakkab kognitiv faoliyat bo'lib, o'quvchi yozma belgilarni idrok etishdan boshlab so'z ma'nolarini faollashtirish, grammatik va semantik munosabatlarni aniqlash, gaplar mazmunini o'zaro bog'lash hamda matnning yaxlit mazmuniy modelini hosil qilishgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshiradi. Neyrolingvistik tadqiqotlarda o'qish jarayoni vizual idrok, leksik-semantik qayta ishlash, diqqat va xotira bilan bog'langan murakkab faoliyat sifatida talqin qilinadi [1; 2].

Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich sinfda matn bilan ishlashni faqat "o'qish – savollarga javob berish – qayta hikoyalash" ketma-ketligida tashkil qilish yetarli emas. O'quvchining avvalgi bilimlari, lug'at zaxirasi, hayotiy tajribasi va mavzuga oid tasavvurlari yangi axborotning anglanishiga ta'sir ko'rsatadi. Matn mazmunini tushunishda mavjud bilimlar va yangi axborot o'rtasida mazmuniy aloqalar hosil qilinishi muhim kognitiv omillardan hisoblanadi [3]. Shuning uchun matn bilan ishlash jarayonini o'qishgacha, o'qish jarayonida va o'qishdan keyingi faoliyat birligida tashkil etish maqsadga muvofiq.

1-jadval. Matn bilan ishlash yondashuvlarining qiyosiy tavsifi

Mezon	An'anaviy yondashuv	Neyrolingvistik-kognitiv yondashuv
O'qishdan oldin	Faoliyat asosan matnni o'qishdan boshlanadi	Mavjud bilim va assotsiatsiyalar faollashtiriladi

O‘qish jarayoni	To‘g‘ri va ravon o‘qishga e’tibor beriladi	O‘qish mazmunni anglash bilan uyg‘unlashtiriladi
Savollar	Tayyor javobni topishga yo‘naltiriladi	Izohlash, taxmin qilish va xulosa chiqarishga undaydi
Lug‘at bilan ishlash	So‘zga tayyor izoh beriladi	Ma’no kontekst va semantik aloqa orqali aniqlanadi
Natija	Mazmunni qayta bayon qilish	Anglash, talqin qilish va mustaqil xulosa chiqarish

O‘qishgacha bo‘lgan bosqichda o‘quvchining matn mavzusiga oid bilimlarini faollashtirish muhimdir. Masalan, sarlavha va rasm asosida “Matnda nima haqida so‘z yuritilishi mumkin?”, “Qanday voqea sodir bo‘lishini taxmin qilasiz?” kabi savollar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarning vazifasi mazmunni oldindan topish emas, balki yangi axborotni qabul qilish uchun semantik-kognitiv tayanch yaratishdan iborat.

O‘qish jarayonida dastlabki taxminlar matn mazmuni bilan solishtiriladi. O‘quvchi “Taxminim tasdiqlandimi?”, “Qaysi yangi ma’lumot fikrimni o‘zgartirdi?”, “Keyingi voqea qanday davom etishi mumkin?” kabi savollarga javob izlaydi. Bu o‘quvchini matn mazmunini faol ravishda shakllantiruvchi subyekt sifatida ishtirok etishga undaydi.

Matnni anglashda so‘z ma’nosini kontekst asosida aniqlash ham muhimdir. Har bir notanish so‘zga tayyor izoh berish o‘rniga “Uning o‘rniga qaysi so‘zni qo‘ysak mazmun saqlanadi?”, “Voqeadan kelib chiqib, bu so‘z qanday ma’noni anglatishi mumkin?” kabi topshiriqlardan foydalanish semantik tahlilni faollashtiradi. Kognitiv tilshunoslikda ham til birliklarining ma’nosi ularning boshqa birliklar va konseptual tuzilmalar bilan munosabati asosida qaraladi [5].

Matnni chuqur tushunish mexanizmlaridan yana biri **inferensiya**, ya’ni bevosita ifodalanmagan mazmunni mavjud axborot asosida aniqlashdir. “Qahramon nima qildi?” savoli tayyor axborotni topishni talab qilsa, “Nima uchun u shunday yo‘l tutdi?” yoki “Uning kayfiyatini qaysi dalillar orqali aniqlash mumkin?” kabi savollar matndagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lash va asoslangan xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi [4].

Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni idrok etish va tushunish faoliyatini quyidagi metodik ketma-ketlikda tashkil etishni taklif etamiz:

Kognitiv tayyorlash → mazmuniy prognoz → faol idrok → semantik integratsiya → inferensial xulosa → mazmunni qayta konstruksiyalash → refleksiv baholash.

Kognitiv tayyorlashda mavjud bilimlar faollashtiriladi; mazmuniy prognozda sarlavha, rasm yoki tayanch birliklar asosida dastlabki taxminlar yaratiladi. Faol idrok va semantik integratsiyada asosiy mazmuniy birliklar hamda ular orasidagi munosabatlar aniqlanadi. Inferensial bosqich matnda bevosita berilmagan ma’noni dalillar asosida ochishga, refleksiya esa o‘quvchining o‘z tushunishini baholashiga xizmat qiladi.

2-jadval. Matnni tushunishga yo‘naltirilgan topshiriqlar

Topshiriq turi	Amaliy ko‘rinishi	Asosiy vazifasi
Prognostik	Sarlavha va rasmga qarab mazmunni taxmin qilish	Prognozlash
Semantik	Mazmunan bog‘liq so‘zlarni aniqlash	Semantik aloqalarni faollashtirish
Kontekstual	So‘z ma’nosini matndan aniqlash	Kontekstual anglash
Inferensial	Yashirin mazmunni dalillar asosida aniqlash	Xulosa chiqarish
Refleksiv	Dastlabki taxmin va yakuniy xulosani solishtirish	O‘z tushunishini baholash

Mazkur topshiriqlarni yagona didaktik zanjirda qo‘llash maqsadga muvofiq. Dars boshida rasm va sarlavha asosida prognoz tuziladi, matnni o‘qish davomida dastlabki taxminlar tekshiriladi. Keyingi bosqichda qahramonlarning xatti-harakatlari hamda voqealarning sabab-

natija aloqalari aniqlanadi. Yakunda o‘quvchi matnning asosiy mazmunini o‘z so‘zlari bilan ifodalaydi va dastlabki tasavvuri qanday o‘zgarganini izohlaydi.

Vizual tayanchlardan foydalanish matn mazmunini tizimlashtirishga yordam beradi. Voqealarni rasmlar ketma-ketligida joylashtirish, qahramonlar munosabatlarini sxemada ifodalash yoki sabab-oqibat aloqalarini grafik ko‘rinishda aks ettirish matnning semantik tuzilishini anglash uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Matnni tushunishda lug‘at zaxirasi ham muhim ahamiyatga ega. Biroq lug‘at ustida ishlash faqat notanish so‘zlarni izohlashdan iborat bo‘lmasligi kerak. Sinonimik munosabatlar, olmoshlarning qaysi shaxs yoki predmetga ishora qilishi, ko‘chma va kontekstual ma’nolarni aniqlash ham matn yaxlitligini tushunishga xizmat qiladi. Ona tili o‘qitish metodikasida lug‘at ustida ishlash va bog‘lanishli nutqni rivojlantirish o‘zaro aloqador jarayon sifatida qaraladi [6].

Neyrolingvistik yondashuv asosida topshiriqlar tuzishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va kognitiv yuklamasi hisobga olinishi zarur. Topshiriqlar aniq axborotni topishdan semantik munosabatlarni aniqlashga, undan mustaqil inferensiya va baholashga tomon bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni idrok etish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘qish texnikasi bilan bir qatorda mazmunni kognitiv qayta ishlash faoliyatini maqsadli tashkil etishni talab qiladi. Neyrolingvistik yondashuv idrok, leksik faollashtirish, semantik integratsiya, prognozlash, inferensiya va refleksiyani o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish imkonini beradi.

Taklif etilgan “kognitiv tayyorlash → mazmuniy prognoz → faol idrok → semantik integratsiya → inferensial xulosa → mazmunni qayta konstruksiyalash → refleksiv baholash” modeli o‘quv topshiriqlarini yaxlit tizim asosida loyihalashga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchi tayyor axborotni qayta bayon qiluvchi emas, balki ma’lumotlarni bog‘laydigan, yashirin mazmunni aniqlaydigan va dalillar asosida mustaqil xulosa chiqaradigan faol kitobxon sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Лурия А. Р. *Основные проблемы нейролингвистики.* — Москва: Издательство Московского университета, 1975.
2. Dehaene S. *Reading in the Brain: The New Science of How We Read.* — New York: Viking, 2009.
3. Kintsch W. *Comprehension: A Paradigm for Cognition.* — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
4. Cain K., Oakhill J. *Children’s Comprehension Problems in Oral and Written Language.* — New York: Guilford Press, 2007.
5. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik.* — Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. *Ona tili o‘qitish metodikasi.* — Toshkent: Nosir, 2009.
7. Snow C. E. *Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension.* — Santa Monica: RAND, 2002.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Абдуллаева Д.А.
к.ф.н., доцент БГМИ

В XXI веке наблюдается стремительное развитие цифровых технологий, которое оказывает глубокое влияние на все сферы человеческой деятельности. Особенно заметны изменения в области образования, где инновационные технологии становятся не просто вспомогательным инструментом, а неотъемлемой частью учебного процесса. Одним из наиболее перспективных направлений цифровой трансформации образования является использование искусственного интеллекта (ИИ). ИИ проникает в самые разные аспекты обучения: от автоматизации рутинных задач до создания интеллектуальных систем,

способных анализировать, прогнозировать и адаптировать учебный процесс под конкретного обучающегося.

Для современного студента, изучающего русский язык как иностранный, освоение сложной морфологии и синтаксиса требует колоссальных временных затрат. Традиционных занятий в аудитории часто бывает недостаточно для формирования уверенных разговорных навыков. В этой связи интеграция инструментов искусственного интеллекта (ИИ) становится для нас не просто техническим новшеством, а необходимым условием эффективного погружения в язык.

Интеграция ИИ в образовательный процесс открывает ряд значимых преимуществ. Во-первых, обеспечивается высокий уровень персонализации обучения: интеллектуальные системы анализируют уровень знаний учащегося и предлагают задания, соответствующие его потребностям и стилю восприятия информации. Во-вторых, ИИ предоставляет быструю и постоянную обратную связь, что особенно важно при обучении письму, грамматике и произношению. Это позволяет ученикам самостоятельно отслеживать и корректировать собственный прогресс.

Развитие искусственного интеллекта открывает новые возможности для создания адаптивных учебных программ, которые отражают последние достижения в лингвистике, литературе и культуре. Внедрение ИИ в преподавание русского языка и литературы предоставляет целый ряд инновационных инструментов, направленных на улучшение образовательного процесса, в том числе:

1. **Адаптивные обучающие платформы**, которые подбирают материалы в зависимости от уровня знаний и потребностей каждого ученика.
2. **Виртуальные модераторы для онлайн-дискуссий**, которые помогают проводить глубокий анализ литературных произведений.
3. **Интерактивные электронные книги** с мультимедийными и виртуальными элементами, которые способствуют лучшему восприятию текстов.
4. **Языковые программы с использованием ИИ**, предлагающие персонализированные задания и практику.
5. **Инструменты для анализа текста**, которые способствуют более глубоком пониманию литературных произведений.
6. **Ускоренная обратная связь**, обеспечиваемая автоматическим контролем выполнения заданий.

С помощью ИИ также облегчаются процессы перевода, создания электронных библиотек и автоматической оценки работ. Все эти инструменты наиболее эффективны в контексте образовательной системы, где роль учителя продолжает оставаться важной для развития критического мышления и культурного осознания.

Примеры применения ИИ в учебном процессе:

1. Разработка интерактивных презентаций.
2. Проведение викторин и образовательных игр.
3. Адаптация заданий с учетом потребностей учеников.
4. Генерация идей для проектных заданий.
5. Автоматическая проверка письменных работ.

Использование ИИ способствует развитию самостоятельности, поскольку обучающиеся получают доступ к материалам в любое время, могут учиться в удобном темпе и повторять темы по необходимости. Интерактивные форматы, игровые элементы и визуализация прогресса делают процесс обучения более интересным, что особенно эффективно для молодёжной и подростковой аудитории. Преподаватели же получают возможность снизить нагрузку за счёт автоматизации проверок и сосредоточиться на более творческих аспектах преподавания. Внедрение ИИ требует переосмысления роли преподавателя. Учитель перестаёт быть единственным источником информации и становится куратором образовательного процесса, наставником и мотиватором. Он направляет, помогает ориентироваться в большом количестве цифровых ресурсов,

поддерживает эмоциональную и коммуникативную составляющую обучения. При этом возрастает необходимость в формировании новых компетенций: цифровая грамотность, умение работать с ИИ-инструментами, анализировать данные об успеваемости, адаптировать методики под современные реалии. Важно также сохранять баланс между использованием технологий и формированием у учащихся гуманитарных, творческих и критических навыков. Только при активном участии преподавателя ИИ может эффективно дополнять, но не заменять живое, содержательное и качественное обучение русскому языку.

Русский язык объективно считается одним из самых трудных для изучения из-за системы падежей, видов глагола и глаголов движения. В процессе самостоятельной работы мы часто сталкиваемся с трудностями, которые требуют мгновенного разъяснения.

Интерактивные объяснения: В отличие от статичного учебника, ИИ-модели позволяют задавать уточняющие вопросы (например, «Почему здесь используется творительный падеж, а не предложный?»).

Мгновенная коррекция: При написании сочинений или выполнении упражнений использование ИИ позволяет получить не только исправленный вариант, но и детальный разбор допущенных ошибок, что способствует лучшему запоминанию правил.

Симуляция реальных ситуаций: С помощью ИИ можно моделировать диалоги (в магазине, в университете, в поликлинике), отрабатывая специфическую лексику.

Работа над произношением: Современные системы распознавания речи позволяют корректировать интонацию и ударение, которые в русском языке крайне подвижны.

Изучение живого русского языка невозможно без понимания контекста и сленга. ИИ помогает адаптировать сложные тексты классической литературы или актуальные новости под текущий уровень владения языком (от A1 до C1). Это позволяет поддерживать высокую мотивацию, так как студент начинает понимать реальный контент гораздо раньше, чем при классическом подходе.

Таким образом, перспективы применения ИИ в обучении русскому языку огромны, и они направлены на улучшение качества образования, более глубокое вовлечение учащихся и повышение их мотивации. Искусственный интеллект кардинально меняет наш подход к изучению РКИ. Он делает процесс обучения непрерывным, снимает психологическое напряжение и позволяет подстраивать программу под индивидуальные нужды студента. Искусственный интеллект способен стать помощником учителя - без самого педагога даже великий и могучий искусственный интеллект перестает быть таковым, работая только вместе с учителем. Грамотное сочетание традиционных методик и возможностей ИИ — это ключ к успешному и быстрому овладению русским языком в цифровую эпоху.

Литература:

1. Азимов Э. Г. Электронные учебники по РКИ: современное состояние и перспективы // Русский язык за рубежом. — 2020. — № 2.

2. Богданова Н. В. Цифровые технологии в преподавании русского языка как иностранного. — М.: МГУ, 2022.

3. Иванова Е. С. Использование чат-ботов для развития коммуникативной компетенции иностранных учащихся // Технологии в образовании. — 2023. — № 1.

ТАЛАБА-ЁШЛАРГА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

Назарова Дилдора
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бухоро давлат тиббиёт институти

Замонавий ахборот технологиялари тилнинг функционал имкониятидан фойдаланишга катта шароит яратди. Компьютер тармоқлари ҳамда унга муқобил ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) таълим тизими учун, энг аввало, Ер шарининг

исталган нуқтасидан туриб, тезкор равишда зарур маълумотни олиш билан боғлиқ бўлган имкониятлар яратди. Хусусан, Интернет глобал компьютер тармоғи орқали дунё ахборот ресурсларига кириш лаҳзаларда амалга оширилиши бунинг яққол далилидир [2]. Тараққиёт меваси бўлмиш замонавий технологиялар инсониятнинг узоғини яқин, оғирини енгил қилиш мақсадида яратилган. Айниқса, ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши ҳар соҳа тараққиётига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда. Инкор этиб бўлмас бир ҳақиқат бор, бугунги давр вакилининг ўз замонаси технологияларидан фойдалана олмаслиги, уларни ўз ҳаёти, касби ва ҳунарига тадбиқ этмаслиги нуқсон саналади. Таъкидлаш жоизки, умумтаълим мактабларида фаолият кўрсатаётган ўқитувчи-педагогларнинг замонавий ахборот-коммуникация технологиялари имкониятларидан турли ўринларда унумли фойдаланишлари уларнинг маҳоратли мутахассис эканлигидан далолат беради.

Давлат умуммиллий дастурида асосий йўналишлардан бири сифатида умумтаълим мактабларини ахборотлаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда[3]. Ушбу дастур доирасида таълим муассасалари замонавий компьютер техникалари билан таъминланди. Умумтаълим мактаблари ва ўқув юртлари тўлиқ Интернет ва ZiyoNET тармоғига уланди. Замонавий шахс шу қадар кўп ахборотга эгаки, у ахборотларни янги ахборот-коммуникация технологияларисиз ишлов бериши ва ишлатиши мумкин эмас. Йилдан-йилга бизнинг ҳаётимизга компьютер ва у билан бирга ахборот-коммуникацион технологиялари жадал кириб келмоқда. Таълим сиёсатининг ҳозирги асосий мақсади таълим олувчи шахс, жамият ва давлат эҳтиёжларини қондирувчи муҳим ва келажакдаги ривожи учун зарур юқори самарадорликка эга бўлган замонавий таълим беришга қаратилган. Мактаб ва олий таълим педагоглари ва раҳбарларининг касбий омилкорлигини ривожлантириш учун уларни фаолиятининг биринчи кунлариданоқ қўшимча педагогик таълимга жалб қилиш лозим.

Компьютер таржимаси, таҳрири, таҳлили, электрон луғат ва тезаурус (тил хазинаси)лар – фикримиз далили. Айниқса, замонавий электрон луғатлар тузиш ва ундан фойдаланиш маданиятини шакллантириш – тил имкониятини эгаллашда самарадор йўли. Хусусан, тилнинг имкониятини намоён этиш ва эгаллаш борасида дунё миқёсида тез суръатларда яратилаётган тил қорпусларининг роли беқиёс. Бу борада давлатимиз раҳбари томонидан “...илмий ва ижодий изланишларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, улар учун зарур шарт-шароитлар яратиш вазифа”[1] сифатида белгиланиши, шу мақсадда ҳукуматимиз томонидан аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқилиши ва амалга оширилиши[1], ҳар бир фан соҳасида, жумладан, тилшуносликда ҳам чуқур изланишлар олиб бориш зарурлигини кўрсатади. Чунончи, “Ўзбек тилининг миллий корпуси”ни яратиш лойиҳаси маълум даражада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4997-, 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947- “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонлари, 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2789- Қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга хизмат қилади.

Ахборот-коммуникацион тизимнинг ривожланиши фанда янги соҳаларнинг пайдо бўлишига олиб келди. Шундай янги соҳалардан бири корпус лингвистикаси. Она тилимизда яратилган бебаҳо асарлардан яхлит ҳолда баҳраманд бўлиш, она тилимиз бойликларни келажак авлодга мерос қолдириш ҳамда тилимизнинг жаҳон глобал тармоғидан ўрин олишига эришиш корпус тузиш тамойилларини тадқиқ этишнинг долзарблигини белгилайди.

Ушбу лойиҳада корпус, унинг ўзига хос хусусияти, ижтимоий, лексикологик, таълимий ва бошқа соҳалардаги аҳамияти, корпус лингвистикаси тарихи, корпус турлари, , ўзбек тили корпусини яратишнинг лингвистик асосларини ишлаб чиқиш мақсад этиб белгиланган. Корпус миллионлаб сўз контекстларига ҳавола қилувчи, махсус қидирув

тизими асосида ишлайдиган электрон матнлар йиғиндиси. Электрон кутубхона қидирув бирлиги яхлит асар матни; ундан маълум бир асарни қидириш мумкин. Корпуснинг қидирув бирлиги сўзшакл ёки қўшимча изоҳлар билан тўлдирилган матн бўла олади. Будай матндан фақат ўқиш учунгина фойдаланиш эмас, балки бу матнларнинг турли грамматик изоҳлари мавжудлиги сабабли улар устида лингвистик амаллар бажара олиш мумкин. Унинг тезаурусдан фарқи шуки, тезаурусда тушунча, корпусда эса сўзшакл ва унинг қўлланиш контекси қидирилади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, талаба-ёшларга таълим-тарбия беришда милий корпуснинг аҳамияти каттадир. Чунончи, ёшларнинг онгда соғлом иммунитет шаклланишида асос бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Фан, техника ва таълимда инфокоммуникацион ва ҳисоблаш технологиялари: монография халқаро конференция маърузалари ва тезислари. (М-во высш. и сред. спец. обр. РУз).
3. Фан ва таълимда ахборот-коммуникация технологиялари: республика илмий-амалий конференция маърузалар тўплами. - Т. : ТАТУ.

O‘SMIRLIK DAVRIDA AXLOQIY O‘ZINI ANGLASHNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li
Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasi
dotsent v.b, Toshkent

O‘smirlik davri shaxsning “men kimman?”, “qanday inson bo‘lishim kerak?” va “mening xatti-harakatim boshqalarga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollarga ichki javob izlay boshlaydigan bosqichidir. Bu davrda axloqiy talablar tashqi nazorat yoki kattalarning ko‘rsatmasi sifatida qabul qilinishdan asta-sekin shaxsning ichki mezonlariga aylana boshlaydi. Shu sababli axloqiy o‘zini anglashni oddiygina yaxshi va yomon xulqni farqlash qobiliyati bilan tenglashtirish yetarli emas. U o‘z xatti-harakatini axloqiy mezonlar asosida baholash, o‘ziga nisbatan ma’naviy talab qo‘yish, javobgarlikni his qilish, boshqalarning holatini hisobga olish va shaxsiy qarorlar uchun ichki javobgarlikni qabul qilishni ham qamrab oladi.

Zamonaviy rivojlanish psixologiyasida o‘smir axloqiy taraqqiyoti kognitiv hukm, axloqiy hissiyot, identiklik, ijtimoiy tajriba va o‘z-o‘zini boshqarishning o‘zaro ta’siri orqali tushuntiriladi. T. Malti va hammualliflar o‘smirlikdagi axloqiy rivojlanishni bir yoqlama kognitiv jarayon emas, balki hissiyot, xulq, ijtimoiylashuv va guruhlararo munosabatlarni birlashtiruvchi dinamik tizim sifatida ko‘rsatadi [1, b. 1097–1113]. T. Krettenauer axloqiy identiklikni “axloqiy inson bo‘lish”ga qaratilgan rivojlanuvchi maqsad sifatida talqin qilib, yosh o‘tishi bilan bu maqsad tashqi talabdan ichki motivatsiyaga, konkret tasavvurlardan abstrakt shaxsiy prinsiplar tomon siljishini ta’kidlaydi [2].

Bu nazariy yondashuvlar o‘smirlikni axloqiy o‘zlik uchun hal qiluvchi davr sifatida ko‘rishga imkon beradi. J. Kingsford, D. Hawes va M. de Rosnay axloqiy “men”ning shakllanishi uzluksiz bo‘lsa-da, o‘smirlikda axloqiy identiklikning yangi mazmun kasb etishini qayd etadi [3, b. 652–666]. S. Hardy va hammualliflar esa axloqiy ideal “men”ning altruizm, axloqiy xarakter va agressiv xatti-harakat bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan [4, b. 45–57]. Shu bilan birga, axloqiy identiklik va real xulq o‘rtasidagi bog‘lanish mutlaq emas: S. Hertz va T. Krettenauerning 111 tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilida axloqiy identiklik bilan axloqiy xulq o‘rtasidagi bog‘lanish ijobiy, biroq o‘rtacha darajadan past bo‘lgan (r=0,22) [5, b. 129–140]. Demak, o‘smirning “men axloqli insonman” degan tasavvuri uning har bir vaziyatda avtomatik ravishda axloqiy qaror qilishini anglatmaydi; vaziyat, guruh bosimi, emotsional holat va o‘z-o‘zini boshqarish ham muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘smirlik davrida axloqiy o‘zini anglashning psixologik xususiyatlarini empirik ma’lumotlar asosida ochib berish, yosh va hududiy farqlarni hamda axloqiy ko‘rsatkichlarning o‘ziga munosabat bilan aloqasini tahlil qilish, shuningdek, ta’lim muhitida axloqiy refleksiyani rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Empirik tadqiqotda jami 321 nafar o‘smir ishtirok etdi. Sinaluvchilarning 169 nafari 7-sinf, 152 nafari 9-sinf o‘quvchilari bo‘lib, tadqiqot Toshkent shahri, Qashqadaryo va Namangan hududlaridagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etildi. Hududlar bo‘yicha taqsimot quyidagicha: Toshkent — 104 nafar, Qashqadaryo — 76 nafar, Namangan — 141 nafar. Mazkur taqsimot o‘smirlikning turli ijtimoiy-madaniy sharoitlarda kechishini qiyosiy ko‘rish imkonini berdi.

1-jadval. Tadqiqot tanlanmasining tarkibi

Ko‘rsatkich	Guruh	n	Ulushi (%)
Sinf	7-sinf	169	52,6
Sinf	9-sinf	152	47,4
Hudud	Toshkent	104	32,4
Hudud	Qashqadaryo	76	23,7
Hudud	Namangan	141	43,9

Psixodiagnostik majmua axloqiy o‘zini anglashning bir necha qatlamini qamrab olish tamoyili asosida tuzildi. Unda A.V. Vorobyova va A.B. Kupreychenkoning axloqiy o‘zini anglashga doir metodikasi, I.G. Timoshukning axloqiy-etik mas’uliyatni aniqlash metodikasi, V.V. Stolin va S.R. Panteleyevning “O‘ziga munosabat” metodikasi hamda tarbiyalanganlik darajasini baholashga qaratilgan Kapustin–Shilova metodikasi qo‘llanildi. Mazkur vositalar o‘smirning axloqiy me’yorni bilishi, unga hissiy munosabati, xulqiy tayyorligi, o‘zini baholashi va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq sifatlarini o‘zaro aloqada ko‘rish imkonini berdi.

Statistik qayta ishlashda taqsimot xususiyatlarini hisobga olgan holda parametrik bo‘lmagan mezonlardan foydalanildi. 7- va 9-sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi farqlar Mann–Whitney U mezoni, hududlar bo‘yicha farqlar Kruskal–Wallis H mezoni, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqalar esa Spearman rang korrelyatsiyasi yordamida tekshirildi. Statistik ahamiyatlilik darajalari $p<0,05$ va $p<0,01$ mezonlari bo‘yicha baholandi. Talqinda nafaqat p qiymatiga, balki bog‘lanish yo‘nalishi va kuchiga ham e’tibor qaratildi.

Natijalar va ularning psixologik talqini

Yosh bosqichlari bo‘yicha axloqiy o‘zini anglashdagi farqlar

7- va 9-sinf o‘quvchilarini taqqoslash axloqiy o‘zini anglashning ayrim tarkibiy qismlari yoshga qarab bir tekis o‘smaydiganini ko‘rsatdi. “Yaxshilik va yomonlikka javob qaytarish” ko‘rsatkichi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarining natijasi yuqoriroq bo‘lib, guruhlar o‘rtasidagi farq statistik ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($U=10395$; $p<0,01$). Shuningdek, axloqiy faollik–passivlikning kognitiv komponentida ham 7-sinf o‘quvchilari yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etdi ($U=11028$; $p<0,05$).

2-jadval. 7- va 9-sinf o‘quvchilarida aniqlangan statistik ahamiyatli farqlar

Ko‘rsatkich	U	p	Yuqori natija
Yaxshilik/yomonlikka javob qaytarish	10395	<0,01	7-sinf
Faollik–passivlik, kognitiv komponent	11028	<0,05	7-sinf

Bu natijani “yosh ortgani sari axloqiylik pasayadi” degan sodda xulosa bilan izohlash noto‘g‘ri bo‘ladi. O‘smirlikning keyingi bosqichida axloqiy vaziyatlarni baholash murakkablashadi, mutlaq “yaxshi–yomon” sxemalariga nisbatan shart-sharoit, niyat va vaziyat omillarini hisobga olish kuchayadi. Shuning uchun 9-sinf o‘quvchisining ayrim shkalalarda pastroq ball olishi axloqiy me’yorning zaiflashganidan ko‘ra, hukmning differensiallashuvi va axloqiy relativlikni ko‘proq anglash bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. D. Hart va G. Carlo

o‘smirlikdagi axloqiy hayotning o‘ziga xosligi aynan murakkab ijtimoiy kontekstlar, yangi rollar va mustaqil qarorlar sonining ortishi bilan belgilanadi, deb ta’kidlaydi [6, b. 223–233].

O‘ziga munosabat ko‘rsatkichlari ham yosh bosqichlari o‘rtasidagi psixologik farqlarni yoritadi. Tadqiqotda 9-sinf o‘quvchilarida autosimpatiya nisbatan yuqoriroq, 7-sinf o‘quvchilarida esa o‘zini qabul qilish, o‘zini ayblash va o‘ziga qiziqish ko‘rsatkichlari yuqoriroq tendensiyada namoyon bo‘ldi. Bu holat erta o‘smirlikda “men”ga diqqatning keskin kuchayishi va o‘zini baholashdagi emotsional tebranishlar, keyingi o‘smirlikda esa o‘ziga nisbatan nisbatan yaxlitroq munosabat shakllanishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq mazkur farqlarni shaxs rivojlanishining qat’iy universal bosqichlari sifatida talqin qilish emas, balki tadqiqot tanlanmasiga xos tendensiya sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Axloqiy ko‘rsatkichlar va o‘ziga munosabat o‘rtasidagi aloqalar

Korrelyatsion tahlil axloqiy o‘zini anglash va o‘ziga munosabat bir-biridan ajralgan ikki psixologik soha emasligini ko‘rsatdi. Ayrim axloqiy komponentlar o‘zini ayblash, o‘zini qadrlash va o‘ziga ishonch bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘landi. Natijalarning muhim qismi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Axloqiy o‘zini anglash va o‘ziga munosabat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsiyalar

Axloqiy ko‘rsatkich	O‘ziga munosabat ko‘rsatkichi	r_s
Yaxshilik/yomonlikka javob qaytarish	O‘zini ayblash	0,111*
Majburiyatga rioya qilish, emotsional	O‘zini ayblash	0,138*
Faollik–passivlik, kognitiv	O‘zini qadrlash	0,124*
Faollik–passivlik, konativ	O‘zini qadrlash	−0,141*
Axloqiy xulq o‘zaro bog‘liqligi, kognitiv	O‘ziga ishonch	−0,135*

Izoh: * $p<0,05$.

Korrelyatsiya koeffitsiyentlarining absolyut qiymati past bo‘lgani sababli ular kuchli psixologik bog‘lanish sifatida talqin qilinmaydi.

O‘zini ayblash bilan “yaxshilik/yomonlikka javob qaytarish” va majburiyatga rioya qilishning emotsional komponenti o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish o‘smirning axloqiy talabni buzganida ichki noqulaylik yoki javobgarlik hissi kuchayishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq r=0,111 va r=0,138 darajasidagi aloqalar kuchsiz. Shu sababli o‘zini ayblashni axloqiy rivojlanganlikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgisi deb qabul qilish xato bo‘ladi. Me’yoridan ortiq o‘zini ayblash konstruktiv vijdoniy nazoratdan ko‘ra, o‘ziga nisbatan keskin tanqidiy munosabatni aks ettirishi ham mumkin.

Kognitiv faollik–passivlikning o‘zini qadrlash bilan ijobiy, uning konativ komponentining esa salbiy bog‘langanligi axloqiy fikr va real harakat o‘rtasidagi munosabat oddiy emasligini ko‘rsatadi. O‘smir axloqiy prinsiplarni yaxshi anglab, o‘zini yuqori baholashi mumkin, biroq konkret vaziyatda bu prinsipni xulqqa ko‘chirishda guruh bosimi, emotsional holat yoki shaxsiy manfaat ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy identiklik va xulq o‘rtasidagi bunday nomukammal moslik xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan [5, b. 129–140].

Hududiy farqlar va ijtimoiy-madaniy kontekst

Estetik madaniyatni rivojlantirish muammosi pedagogika fanida ko‘p qirrali hodisa sifatida tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida inson kamolotida go‘zallikning o‘rniga alohida e’tibor qaratishgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida muhim g‘oyani ilgari suradi. Uning ta’kidlashicha, insonning go‘zallikni anglash qobiliyati ma’naviy va aqliy kamolot bilan uzviy bog‘liqdir[2]. Abu Rayhon Beruniy esa o‘z qarashlarida tabiat va jamiyatdagi mutanosiblikni alohida ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, ushbu uyg‘unlikni anglash estetik idrokning poydevori hisoblanadi[3].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda estetik madaniyat shaxs umumiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida baholanadi. Mashhur olimlar B.T. Lixachev va Yu.B. Borev o‘z ishlarida ushbu masalani chuqur tadqiq etishgan. Ularning ta’kidlashicha, estetik madaniyatni shakllantirish faqat san’at asarlarini tomosha qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o‘quvchining kundalik faoliyatida va muloqot odobida aks etadi[4]. Shuningdek, mehnatga bo‘lgan munosabat ham estetik madaniyatning muhim ko‘rsatkichidir.

Ushbu nazariy qarashlar va huquqiy asoslarga tayanib, o‘quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirishning quyidagi bosqichli modelini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Hissiy-idrok etish bosqichi: Bu bosqichda o‘quvchi atrofdagi va san’atdagi go‘zallikni hissiy sezadi. U go‘zallikni emotsional darajada qabul qilishni o‘rganadi.
- Baholash-tahliliy bosqich: Bu bosqichda o‘quvchida mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmasi shakllanadi. U estetik hodisalar va asarlarga xolis baho bera oladi.
- Ijodiy-amaliy bosqich: Bu yakuniy bosqich hisoblanadi. Bunda o‘quvchi estetik bilimlarni amaliyotda qo‘llaydi. Bu holat rasm chizish, badiiy ijod va odob-axloqda namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, o‘quvchilarda estetik madaniyatni samarali shakllantirish uchun ta’lim jarayonida zamonaviy va interaktiv usullardan unumli foydalanish talab etiladi. Mashhur pedagog va olim K.D. Ushinskiy ta’kidlaganidek, “Tarbiyada estetik elementni e’tiborsiz qoldirish inson

ma’naviy dunyosining eng nafis va ta’sirchan torlarini uzish bilan tengdir” [5]. Bunga erishishda quyidagi metodik yondashuvlar yuqori natija beradi:

- Integratsiyalashgan darslar: Fanlararo aloqadorlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirish.
- Amaliy-ijodiy topshiriqlar: O‘quvchilarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni mustaqil ijodiy jarayonga jalb etish.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): Darslarda multimedia vositalari va ko‘rgazmali raqamli resurslardan foydalanish.

Shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning roli ham g‘oyat kattadir. Teatrlarga tashriflar, muzey va ko‘rgazmalarga ekskursiyalar hamda badiiy kechalar o‘quvchilarning estetik didini charxlaydi. Ushbu amaliy hamda metodik omillarni umumlashtirib aytganda, o‘quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish uzluksiz pedagogik jarayondir. Bu jarayon ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega. Ushbu masalani pedagogik muammo sifatida chuqur o‘rganish juda muhimdir. Bu nazariy va amaliy jihatdan ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Estetik tarbiya o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitadi. Natijada ular jamiyatda barkamol shaxs bo‘lib yetishadi. Mazkur jarayon samaradorligini oshirish uchun aniq choralarni ko‘rish lozim. Avvalo, o‘quv fanlari mazmuniga estetik tarbiya unsurlarini keng joriy etish kerak. Dars jarayonida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytganda, estetik madaniyatni pedagokik muammo sifatida ilmiy hamda amaliy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim samara beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning har tomonlama barkamol, ma’naviy boy va yuqori estetik idrokka ega shaxs bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
2. Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Xalq merosi nashriyoti.
3. Beruniy, A. R. (1968). Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan.
4. Лихачев, Б. Т. (2001). Теория эстетического воспитания школьников. Москва: Просвещение.
5. Ушинский, К. Д. (1948). Избранные педагогические сочинения. Москва: Педагогика.

SPORT MAHORATINI OSHIRISHDA KOGNITIV FUNKSIYALARNING PEDAGOGIK DETERMINATSIYASI

Sherzod Shuxratovich Boboyorov

Buxoro davlat pedagogika instituti psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqola mavzuning mohiyati shundaki, sportchining yutug‘i faqat mushak kuchi bilan emas, balki miyaning axborotni qayta ishlash tezligi ya’ni pedagogik determinantlar (belgilovchi omillar) orqali shakllanadi. "Sport mahoratini oshirishda kognitiv funksiyalarning pedagogic determinatsiyasi haqida malumot berilgan hisoblanadi. Kognitiv funksiyalarning sportdagi roli hisoblanadi. Sport mahorati—bu jismoniy va intellektual harakatlarning sintezidir. Kognitiv funksiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Antisipatsiya: Raqibning keyingi harakatini soniyaning mingdan bir ulushida bashorat qilish.

Selektiv diqqat: Shovqin va ortiqcha signallar ichidan faqat kerakli ob’ektni (to'pni, raqibni) ajratib olish.

Kognitiv moslashuvchanlik: O‘yin taktikasi kutilmaganda o‘zgarganda, tezda yangi qarorga o'tish. Pedagogik determinatsiyaning asosiy yo‘nalishlari Pedagogik determinatsiya—bu murabbiy tomonidan sportchining aqliy rivojlanishini maqsadli ravishda boshqarishdir. U quyidagi xususiyatlarga ega: Vaziyatli modellashtirish: Mashg‘ulot jarayonida sportchini murakkab tanlov qarshisiga

qo‘yish. Masalan, "agar raqib o‘ngdan hujum qilsa, nima qilasiz. kabi muammoli vaziyatlarni sun’iy yaratish. Algoritmik va evristik yondashuv: Murabbiy sportchiga tayyor yechimni bermaydi, balki uni o‘zi topishiga yo‘naltiruvchi pedagogik usullardan foydalanadi. Bu sportchida mustaqil taktik tafakkurni shakllantiradi.

Mashg‘ulotdan keyingi tahlil (videotahlil) — bu kognitiv refleksiya jarayonidir. Sportchi o‘z xatosini anglaganida, miyada yangi neyron aloqalari (tajriba) mustahkamlanadi.

Operativ bosqich: Bir vaqtning o‘zida bir nechta ob’ektni nazorat qilish (diqqat ko‘lami). Strategik bosqich: O‘yinni butunligicha ko‘ra olish va uzoq muddatli natijani rejalashtirish. Sport mahoratini oshirishda kognitiv funksiyalarning pedagogik determinatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sportchi — bu o‘ylaydigan sportchidir. Jismoniy tayyorgarlik "poydevor" bo‘lsa, kognitiv funksiyalar g‘alabani ta’minlovchi "arxitektura"dir. Murabbiyning pedagogik mahorati esa ushbu arxitekturani quruvchi asosiy omildir. Intellektual salohiyatning o‘rni: Sportchining diqqatni jamlashi, tezkor qaror qabul qilishi va vaziyatni bashorat qilish (antisipatsiya) qobiliyati uning texnik-taktik harakatlari samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Murabbiyning boshqaruvchi roli: Pedagogik determinatsiya jarayonida murabbiy shunchaki mashq beruvchi emas, balki sportchining aqliy jarayonlarini shakllantiruvchi strateg sifatida namoyon bo‘ladi. Mashg‘ulotlar tizimiga kognitiv yuklamalarni kiritish sportchining o‘yin intizomi va stressga chidamliligini oshiradi. Metodik zaruriyat: Sport mahoratini yangi bosqichga olib chiqish uchun an’anaviy mashqlarni kognitiv simulyatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish lozim. Bu nafaqat jismoniy quvvatni, balki miyaning neyronal moslashuvchanligini ham ta’minlaydi. "Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sportda faqat jismoniy kuch bilan g‘alaba qozonish qiyin. Sportchining tez fikrlashi, diqqatini jamlashi va raqibning harakatini oldindan seza olishi uning mahoratini belgilaydi. Murabbiy mashg‘ulotlarda nafaqat tanani, balki aqlni ham mashq qildirishi shart. Shundagina sportchi qiyin vaziyatlarda adashmasdan to‘g‘ri qaror qabul qila oladi."

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish — bu miyani tez ishlashga o‘rgatishdir. Murabbiylar mashg‘ulot jarayoniga mantiqiy va taktik o‘yinlarni ko‘proq kiritsa, sportchilarning o‘yin maydonidagi chaqqonligi va topqirligi sezilarli darajada oshadi. "Xulosa shuki, sport mahorati — bu jismoniy kuch va aqlning birlashmasidir. Sportchining miyasi axborotni qanchalik tez qayta ishlasa, u shunchalik kam xato qiladi. Shuning uchun sport tayyorgarligida aqliy mashqlarga ustuvor ahamiyat berish kelajakdagi g‘alabalarning asosiy garovidir.

Kognitiv qobiliyat bu nima Sportda bu — miyaning ma’lumotni qabul qilish va unga javob berish tezligi. Bunga quyidagilar kiradi:

Diqqat: O'yin paytida shovqin-suronni unutib, faqat to'pga yoki raqibga tikilish.

Xotira: Murabbiy o'rgatgan taktikani o'yinning eng qizigan paytida ham esda saqlash. Tezkor qaror: Soniyaning ulushlarida "pas beraymi yoki darvozaga uraymi?" degan savolga javob topish. Murabbiyning o‘rni (Pedagogik xususiyat) Murabbiy shunchaki "yugur" demasligi kerak. U sportchini o'ylashga majbur qiladigan mashqlar o'ylab topishi kerak: Kutilmagan vaziyatlar: Mashg'ulot paytida qoidalarni to'satdan o'zgartirib yuborish (masalan, "faqat chap oyoqda o'ynaymiz"). Bu miyani yangi vaziyatga moslashishga o'rgatadi. Savol-javob: Mashqdan keyin "Nega bunday qilding?", "Yana qanday yo'li bor edi?" deb so'rash orqali sportchida o'z xatosini tahlil qilishnib shakllantirish. Charchoqqa chidamlilik: Sportchi jismonan charchaganda miyasi ham "o'chib" qoladi. Kognitiv mashqlar charchagan holatda ham miyani hushyor turishga o'rgatadi. Jarohatdan qochish: Diqqati kuchli sportchi xavfni (masalan, raqibning zarbasini) oldindan ko'radi va o'zini himoya qila oladi. G'alaba garovi: Hozirgi sportda hamma jismonan baquvvat. Shuning uchun kim tezroq va aqlliroq o'ylasa, o'sha g'alaba qozonmoqda. Sport mahoratini oshirishda aqliy (kognitiv) jarayonlar xuddi jismoniy mashqlar kabi muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotimiz natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga keldik: Aql va tana birligi: Sportchi faqat jismoniy kuch bilan emas, balki miyaning tezkor ishlashi hisobiga g‘alaba qozonadi. Diqqatni jamlash, vaziyatni tez tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish sport mahoratining ajralmas qismidir. Murabbiy—asosiy yo‘naltiruvchi: Murabbiyning vazifasi nafaqat sportchining mushaklarini rivojlantirish, balki uning aqlini ham o‘yin vaziyatlariga tayyorlashdir. Pedagogik usullar (savol-javoblar, taktik tahlillar) sportchini mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Zamon

talabi: Bugungi kunda yuqori natijalarga erishish uchun sportchi "robot" kabi faqat buyruqni bajaruvchi emas, balki maydondagi vaziyatni oldindan ko‘ra oladigan "strateg" bo‘lishi lozim. Qisqacha aytganda: Sportdagi g‘alaba — bu kuchli tayyorgarlik va o‘tkir zehnning mahsulidir. Kognitiv qobiliyatlarni muntazam rivojlantirish sportchini professional darajaga olib chiquvchi eng qisqa yo‘ldir. Bugungi kunda sport sohasi jadal rivojlanib borayotgani, xalqaro musobaqalardagi raqobat kuchaygani murabbiylar oldiga yanada murakkab va mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, sportchilarni tayyorlashda nafaqat jismoniy, balki intellektual va psixologik tayyorgarlik ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sport murabbiylarining kognitiv (bilish) qobiliyatlari ya’ni fikrlash, e’tibor, xotira, muammo yechish kabi jarayonlarini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak murabbiylarning kognitiv salohiyatini shakllantirish va mustahkamlash esa o‘z navbatida ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik-psixologik yondashuvlar, metodlar va shart-sharoitlarga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, ularning professional tayyorgarlik tizimida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalardan biridir. Bo‘lajak sport murabbiylarining kognitiv qobiliyatlari – analitik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, strategik rejalashtirish va muammolarni hal etish kabi yuqori darajadagi aqliy jarayonlari–ularning murabbiylik faoliyatida bevosita natijadorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Piaget nazariyasiga ko‘ra, kognitiv rivojlanish bosqichlari murabbiylarning ma’lum yosh va tajriba darajasida fikrlash tuzilmasi o‘zgarishini belgilaydi Vigotskiy konsepsiyasida esa ijtimoiy muhit va mentorlik roli kognitiv funksiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi deb malumot qoldirgan. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasi doirasida modelga ergashish, observatsion o‘rganish va o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmlari kognitiv qobiliyatlarning mustahkamlanishiga zamin yaratishini ta’kidlaydi Shu jihatdan, pedagogik-psixologik yondashuvlar bo‘lajak murabbiylar tayyorlash jarayonida nazariy asoslarni amaliy mashg‘ulotlarga integratsiya qilish zarurligi takidlab o‘tgan. O‘zbekiston sharoitida sport murabbiylarini tayyorlash tizimi asosan jismoniy tayyorgarlikka e’tibor qaratadi; kognitiv ko‘nikmalarni maqsadli rivojlantirish bo‘yicha metodik vositalar hamda ularning samaradorligini baholashda yetarli tadqiqotlar mavjud emas. Milliy pedagogika-psixologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar kognitiv jarayonlarning mantiqiy va matematik modul tarzida rivojlanishiga urg‘u berar ekan, sport kontekstida murabbiylik faoliyatining murakkab, dinamik xususiyatlari uchun maxsus kognitiv trening metodlari (masalan, reflektiv kundalik, texnika–taktika simulyatsiyalari) yetarlicha tadqiq etilmagan. Zamonaviy dunyoda sport tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, shuning uchun sportchilarning sportdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. yutuqlar. G'alaba qozonish uchun sportchilarga nafaqat sport muhiti, balki boshqa ko'plab sohalarning vakillari ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ayratov J.B. *Sport psixologiyasi va pedagogikasi.* – Toshkent: "O‘qituvchi", 2018. (Sportchilarda kognitiv jarayonlarning umumiy tavsifi).
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent: O‘zDJTSU nashriyoti, 2020. (Pedagogik mahorat va sportchi tayyorgarligi haqida).
3. Mahmudov M.M. *Sportchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.* // "Sportda ilmiy tadqiqotlar" jurnali. – 2021. – №3.
4. Ismoilov T.I. *O‘smir sportchilarning kognitiv faolligini oshirish usullari.* – Toshkent, 2019
5. Eysenck M.W., Keane M.T. *Cognitive Psychology: A Student's Handbook.* – Psychology Press, 2020. (Kognitiv funksiyalar nazariyasi bo‘yicha dunyodagi eng mashhur darsliklardan biri).
6. Williams A.M., Ford P.R. *Expertise and visual-cognitive control in sport.* // "Journal of Sport & Exercise Psychology". – 2013. (Sportda ko‘rish va fikrlash nazorati haqida).
7. Platonov V.N. *Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте.* – Киев: Олимпийская литература, 2015. (Sport mahoratini oshirishning umumiy nazariyasi).

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY-PEDAGOGIK BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ibrohimova S.A.
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Bugungi ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy faoliyati tobora murakkablashib bormoqda. Pedagog nafaqat o‘z fanini puxta bilishi va uni tushuntira olishi, balki turli xarakter, qobiliyat va ehtiyojga ega o‘quvchilar bilan ishlashi, kutilmagan vaziyatlarda tez va asoslangan qaror qabul qilishi, ota-onalar hamda hamkasblar bilan konstruktiv muloqot o‘rnata olishi lozim. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida bilim va metodik ko‘nikmalar bilan bir qatorda uning kasbiy-pedagogik barqarorligini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarda ham nazariya va amaliyotning yaqinlashuvi, o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish va pedagoglarning sifat tarkibini yaxshilash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmon hamda 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son Qaror pedagogik ta’limni amaliyot bilan yaqinlashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish uchun huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy-pedagogik barqarorlikni faqat qiyinchilikka chidash yoki hissiy bosimga dosh berish sifatida tushunish mazkur tushunchaning mazmunini toraytiradi. Barqaror pedagog vaziyatni xolis anglaydi, muammoning sababini ajratadi, bir necha yechimni ko‘rib chiqadi, ularning mumkin bo‘lgan oqibatlarini baholaydi va shundan keyin kasbiy qaror qabul qiladi. Qarordan so‘ng esa o‘z harakatini tahlil qilib, keyingi faoliyati uchun xulosa chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik barqarorlikni oliy ta’lim jarayonidayoq maqsadli ravishda rivojlantirish va buning uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Pedagogik tadqiqotlarda kasbiy barqarorlik shaxsning bitta xususiyati emas, balki kasbiy moslashuvchanlik, hissiy turg‘unlik, muammoli vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish va refleksiya kabi sifatlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rilmoqda. F.A. Akramjonova bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy barqarorlik ko‘nikmalarini refleksiv yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilib, refleksiv faoliyatning kasbiy moslashuvchanlik, hissiy barqarorlik hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish layoqati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [2, b. 928–930]. Bu yondashuv bo‘lajak pedagogni tayyor javobni takrorlovchi emas, balki o‘z harakatini anglaydigan va zarur paytda uni o‘zgartira oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi.

M.K. Djuraboyev pedagogik amaliyotning bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligidagi o‘rnini yoritib, amaliyot nazariy bilimlarni mustahkamlash, o‘qituvchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish va talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini kuchaytiruvchi muhim jarayon ekanini ta’kidlaydi [3, b. 20–27]. Bu fikr kasbiy-pedagogik barqarorlik ham faqat auditoriya mashg‘ulotida emas, real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda faol harakat orqali rivojlanishini ko‘rsatadi.

S.N. Jamoldinovaning 2025-yilda chop etilgan “Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirish” monografiyasida bo‘lajak pedagoglarning nizoli vaziyatlarga konstruktiv munosabati, konfliktni anglash va muloqotni to‘g‘ri tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu yo‘nalish kasbiy-pedagogik barqarorlik bilan bevosita bog‘liq, chunki pedagogning barqarorligi aynan qarama-qarshilik, bosim yoki noaniqlik mavjud vaziyatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

F.Sh. Ilmurodova va M.H. Sa’dullayevaning 2023-yildagi bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisini metodik tayyorlashga bag‘ishlangan monografiyasida kasbiy tayyorgarlikni nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi asosida tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Mazkur yondashuv kasbiy barqarorlikni rivojlantirish uchun ham muhim: nazariy bilim amaliy vaziyatda qo‘llanmaguncha talabaning kasbiy harakatiga to‘liq aylanmaydi.

M.K. Djuraboyevning 2025-yilgi PhD avtoreferatida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik amaliyotining dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish masalasi o‘rganilgan. Bu tadqiqot pedagogik amaliyotni oddiy kuzatuv yoki dars o‘tash davri sifatida emas, balki talabaning kasbiy qarori, faoliyati va refleksiyasi shakllanadigan maxsus muhit sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan manbalar kasbiy-pedagogik barqarorlikning o‘z-o‘zidan shakllanmasligini ko‘rsatadi. Uni rivojlantirish uchun talaba nazariy bilimni real vaziyat bilan bog‘lashi, mustaqil tanlov qilishi, o‘z qarorining oqibatini baholashi va tajribasini refleksiv tahlil qilishi lozim.

Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqot doirasida 2022–2026-yillarda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash, pedagogik amaliyot, kasbiy barqarorlik, refleksiya va konfliktologik madaniyatga oid me’yoriy-huquqiy hamda ilmiy manbalar o‘rganildi.Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar tashkil etdi. Tizimli yondashuv kasbiy-pedagogik barqarorlikni motivatsiya, bilim, muloqot, kasbiy harakat va refleksiyaning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rishga imkon berdi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning kasbiy sifatlari real yoki modellashtirilgan vaziyatlarda faol harakat qilishi davomida shakllanishiga asoslanadi. Refleksiv yondashuv esa talabaning o‘z qarori, harakati va natijasini ongli ravishda qayta ko‘rib chiqishini nazarda tutadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil, ilmiy manbalarni umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Maxsus empirik tajriba-sinov o‘tkazilmagani sababli maqolada tajribada olinmagan statistik ko‘rsatkichlar keltirilmadi.Kasbiy-pedagogik barqarorlikning ishchi tuzilmasida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlar ajratildi. Mazkur komponentlar o‘zaro uyg‘unlashganda talaba murakkab pedagogik vaziyatda kasbiy pozitsiyasini saqlab qolish, vaziyatni to‘g‘ri baholash va maqsadga muvofiq qaror tanlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nazariy tahlil asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik barqarorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi beshta asosiy pedagogik shart-sharoit belgilandi: Birinchi shart – nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlar bilan bog‘lash. Talaba konflikt, motivatsiya, muloqot yoki individual yondashuv haqida nazariy bilimga ega bo‘lishi mumkin. Biroq u bu bilimni qaysi vaziyatda va qanday qo‘llashni sinab ko‘rmasa, bilim amaliy kasbiy vositaga aylanmaydi. Shu sababli mashg‘ulotlarda hayotiy keyslar, muammoli vaziyatlar, mikrodarslar va pedagogik amaliyotdan olingan holatlardan foydalanish muhim

Ikkinchi shart – muqobil yechim izlash imkoniyatini yaratish. Pedagogik vaziyatlarda ko‘pincha bitta mutlaq to‘g‘ri javob mavjud bo‘lmaydi. Talaba bir necha variantni ko‘rib chiqishi, ularning kuchli va zaif tomonlarini solishtirishi, ehtimoliy oqibatlarini baholashi va tanlagan qarorini asoslay olishi zarur.

Uchinchi shart – mustaqil kasbiy qaror qabul qilish tajribasini bosqichma-bosqich shakllantirish. Bo‘lajak pedagog dastlab o‘qituvchi ko‘magida, keyin kichik guruhda, undan so‘ng mustaqil ravishda vaziyatni hal qilishga jalb qilinishi mumkin. Bu jarayon talabada “men vaziyatni tahlil qilib, qaror topa olaman” degan kasbiy ishonchni mustahkamlaydi.

To‘rtinchi shart – refleksiyani o‘quv jarayonining muntazam qismiga aylantirish. Mashg‘ulot yoki pedagogik vaziyatdan so‘ng faqat natijani baholash emas, balki qaror qanday qabul qilingani, qaysi omil ta’sir qilgani, nima muvaffaqiyatli bo‘lgani va nimani keyingi safar o‘zgartirish kerakligi ham tahlil qilinishi lozim.

Beshinchi shart – hamkorlik va kasbiy qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish. Kasbiy barqarorlik barcha muammoni yolg‘iz hal qilish degani emas. Zarur vaziyatda hamkasb, mentor, psixolog yoki rahbar bilan fikr almashish ham kasbiy faoliyatning muhim qismidir. Ushbu ketma-ketlik talabaning tayyor javobni yodlashidan ko‘ra, vaziyatni ongli tahlil qilishiga va o‘z qarorini asoslashiga xizmat qiladi.

Kasbiy-pedagogik barqarorlikni alohida bir mashg‘ulot yoki qisqa trening orqali to‘liq shakllantirish qiyin. Uni pedagogik ta’limning umumiy mazmuniga singdirish zarur. Pedagogika, psixologiya, fanlarni o‘qitish metodikasi va pedagogik amaliyot bir-biridan uzilgan holda emas,

o‘zaro bog‘langan holda tashkil etilgandagina talaba nazariy tushunchani kasbiy vaziyat bilan birlashtirishni o‘rganadi.

Pedagogik amaliyot bu borada eng tabiiy o‘quv muhiti hisoblanadi. Talaba real o‘quvchilar, real sinf va rejalashtirilmagan holatlar bilan uchrashadi. Ammo amaliyot faqat dars o‘tish va yakuniy baho olish bilan cheklansa, uning rivojlantiruvchi imkoniyati kamayadi. Shu sababli amaliyotdan keyingi refleksiv suhbat, yozma tahlil yoki mentor bilan muhokama kasbiy barqarorlik rivojida muhim ahamiyatga ega.

Refleksiya jarayonida “Vaziyatning asosiy muammosi nimada edi?”, “Men dastlab nimani noto‘g‘ri tushundim?”, “Qanday boshqa yechim mavjud edi?”, “Qarorim o‘quvchiga qanday ta’sir qildi?”, “Keyingi safar nimani boshqacha qilaman?” kabi savollar samarali bo‘lishi mumkin. Bu savollar talabaga xatosini aniqlash bilan cheklanmay, o‘z kasbiy fikrlash jarayonini tushunishga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat – xatoga munosabatdir. Agar talabaning har bir xatosi faqat jazolash yoki past baho bilan bog‘lansa, u mustaqil qaror qabul qilishdan qo‘rqishi mumkin. Xato tahlil qilinadigan kasbiy tajriba sifatida ko‘rilganda esa talaba undan kelgusi harakatini yaxshilash uchun foydalanadi. Shuning uchun kasbiy barqarorlikni shakllantirishda “xato qilmaslik”dan ko‘ra “xatoni anglash va undan keyingi qarorni yaxshilash” tamoyili samaraliroqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik barqarorligi kelajakdagi pedagogik faoliyatda uchraydigan murakkab, noaniq va ziddiyatli vaziyatlarni samarali boshqarishga xizmat qiluvchi muhim kasbiy sifatdir. Uni faqat hissiy chidamlilik yoki sabr bilan tenglashtirish yetarli emas. Tahlil natijalari kasbiy-pedagogik barqarorlikning mazmuni vaziyatni anglash, kasbiy bilimdan foydalanish, hissiy holatni boshqarish, muqobil yechimlarni ko‘rish, mustaqil qaror qabul qilish, muloqot va refleksiyani o‘z ichiga olishini ko‘rsatdi.Bo‘lajak o‘qituvchilarda bu sifatni rivojlantirish uchun nazariy bilimlarni real vaziyatlar bilan bog‘lash, muqobil yechimlar ustida ishlash, pedagogik amaliyotda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirish, refleksiyani muntazam tashkil etish va hamkorlik muhitini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Akramjonova F.A. Refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy barqarorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari // Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2026. – B. 928–930. DOI: 10.5281/zenodo.21218051.

3. Artikova M.B., Djuraboyev M.K. Amaliyotcha talabaga uslubiy ko‘mak ruknida: tajriba va samara // Zamonaviy ta’lim. – 2024. – № 8(141). – B. 20–27. DOI: 10.34920/so/vol_2024_issue_8_3.

4. Djuraboyev M.K. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik amaliyotining dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish (“Pedagogika. Tarbiya fani o‘qituvchisi” ta’lim yo‘nalishi misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 2025.

5. Jamoldinova S.N. Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirish: monografiya. – Toshkent: ZEBO PRINTS, 2025. – 118 b.

6. Ilmurodova F.Sh., Sa’dullayeva M.H. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisini metodik tayyorlash tizimi: muammolar, tajriba va tendensiyalar: monografiya. – Toshkent, 2023. – 120 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Sulaymonova Maftuna Anorboy qizi
Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Bugungi boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biri o‘quvchiga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki unda atrof-muhitni ilmiy asosda anglashga ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarash bolaning tabiat, jamiyat va inson haqidagi tasavvurlarini dalil, kuzatish va mantiqiy xulosalar asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ilmiy mazmundagi, bolalar uchun tushunarli va qiziqarli ilmiy-ommabop asarlardan foydalanish alohida metodik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-ommabop asarlar ilmiy tushunchalarni murakkab terminlar yig‘indisi sifatida emas, balki hayotiy misollar, kuzatishlar, qiziqarli faktlar va sodda izohlar orqali taqdim etadi. Bunday matnlar o‘quvchining tabiiy qiziquvchanligini qo‘llab-quvvatlab, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar shunday bo‘lsa, nima yuz beradi?” kabi savollarni mustaqil qo‘yishga undaydi. O‘qish jarayonida savol berish va javobni matndan izlash esa o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda tadqiqotchilik elementlarini ham rivojlantiradi [1, b. 25].

Boshlang‘ich yoshdagi bola uchun ilmiy dunyoqarashni shakllantirish abstrakt ta’riflarni yodlatishdan ko‘ra konkret predmet va hodisalarni kuzatish, ularni o‘z tajribasi bilan bog‘lash orqali samaraliroq amalga oshiriladi. Demak, ilmiy-ommabop asarni o‘qitish metodikasi “matnni o‘qish – tushunish – dalil topish – kuzatish yoki tajriba – xulosa” ketma-ketligiga asoslanishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy-ommabop asarlarning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni

Ilmiy-ommabop asar badiiy matndan farqli ravishda voqea-hodisalarni ilmiy ma’lumotlar, faktlar va izohlar asosida yoritadi. Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun bunday asar ilmiy terminlarga haddan tashqari boy bo‘lmasligi, mazmuni yosh xususiyatiga mos va hayotiy tajriba bilan bog‘lanishi kerak. Matnning sarlavhasi, rasmlari, jadvali, ajratilgan so‘zlari va qisqa izohlari o‘quvchiga axborotni anglashda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishning birinchi samarasi – o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishdir. Ikkinchi samarasi – fakt va fikrni farqlashga dastlabki qadam qo‘yishidir. Uchinchi samarasi – o‘quvchini kuzatish va o‘z fikrini dalil bilan asoslashga o‘rgatishidir. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn mazmunini qayta aytish bilan cheklanib qolmasdan, matndan ma’lumotni topish, bog‘lash, talqin qilish va baholashga yo‘naltirish zarurligi ta’lim tadqiqotlarida ham ta’kidlanadi [2, b. 41].

Shu jihatdan ilmiy-ommabop asarlar “O‘qish savodxonligi” fanini tabiiy fanlar, matematika, ona tili va tasviriy san’at bilan integratsiyalash uchun qulay manba hisoblanadi. Masalan, suvning tabiatdagi aylanishi haqidagi matn o‘qilganda o‘quvchilar bug‘lanish va yog‘in tushunchalarini o‘zlashtirishi, matematikada jadval yoki diagramma bilan ishlashi, ona tilida ilmiy atamalarni ajratishi, tasviriy san’atda esa suv aylanishining sxemasini chizishi mumkin.

Samaradorlikni oshirish metodikasi

Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish samaradorligini oshirish uchun darsni uch bosqichda tashkil etish tavsiya etiladi: o‘qishgacha bo‘lgan faoliyat, o‘qish jarayoni va o‘qishdan keyingi faoliyat. Har bir bosqich o‘quvchining fikrlash faolligini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Birinchi bosqich – o‘qishgacha tayyorgarlik. O‘qituvchi mavzuga doir rasm, predmet, qisqa video, savol yoki hayotiy vaziyatdan foydalanadi. Masalan, “Nega yomg‘irdan keyin ko‘lmaklar asta-sekin yo‘qoladi?” degan savol o‘quvchilarni taxmin bildirishga undaydi. Shundan so‘ng matn sarlavhasi asosida “Men nimani bilaman?”, “Nimani bilishni xohlayman?” savollariga javob olinadi. Bu usul o‘quvchining avvalgi bilimlarini faollashtiradi va o‘qish maqsadini belgilaydi [3, b. 68].

Ikkinchi bosqich – matn bilan faol ishlash. Bu jarayonda “belgilab o‘qish”, “savol-javob”, “klaster”, “aqliy hujum”, “Insert”, “B-B-B”, “Tushunchalar xaritasi” kabi metodlardan foydalanish mumkin. Biroq metodning o‘zi emas, uning o‘quvchi fikrlashini faollashtirishi

muhim. Masalan, “Insert” metodida o‘quvchi o‘ziga tanish ma’lumotni, yangi ma’lumotni, tushunarsiz joyni va qo‘shimcha tekshirish talab qiladigan fikrni ajratadi. Natijada bola matnni passiv o‘qimaydi, balki ma’lumotni tahlil qiladi.

Uchinchi bosqich – o‘qishdan keyingi faoliyat. O‘quvchi o‘qigan ma’lumotini amaliy faoliyatga aylantirishi kerak. Buning uchun tajriba, mini-loyiha, jadval tuzish, rasm yoki sxema chizish, “Nima uchun?” savoliga dalil bilan javob berish, kichik taqdimot tayyorlash kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, “Havo hamma joyda bormi?” mavzusidagi matndan keyin oddiy tajriba orqali havoning mavjudligini kuzatish, natijani jadvalga yozish va xulosa chiqarish mumkin. Tajriba natijasini og‘zaki yoki yozma izohlash ilmiy fikrlashning boshlang‘ich ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Metodik jihatdan yana bir muhim talab – savollarni oddiydan murakkabga qarab tuzishdir. Dastlab “Matnda nima haqida so‘z yuritilgan?” kabi eslab qolishga yo‘naltirilgan savollar, keyin “Nima uchun?”, “Qanday dalil keltirilgan?”, “Agar shart o‘zgarsa, natija qanday bo‘ladi?” kabi tahliliy va muammoli savollar beriladi. Yuqori darajadagi savollar o‘quvchining sabab-oqibat aloqalarini ko‘rishiga va o‘z xulosasini asoslashiga yordam beradi [4, b. 19].

Ilmiy-ommabop asarni tanlashda ham aniq mezonlarga rioya qilish zarur. Matn mazmuni o‘quvchi yoshiga mos, ilmiy jihatdan ishonchli, tili sodda, hajmi me’yorida, hayotiy misollar bilan boyitilgan bo‘lishi lozim. Matndagi rasmlar va grafik materiallar shunchaki bezak emas, balki mazmunni anglashga yordam beruvchi didaktik vosita bo‘lishi kerak. O‘qituvchi ilmiy ma’lumotni soddalashtirar ekan, uning mazmuniy aniqligini yo‘qotmasligi kerak.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi

Samarali metodikaning muhim qismi – topshiriqlar tizimidir. Birinchi turdagi topshiriqlar o‘quvchining kuzatuvchanligini rivojlantiradi: “Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?”, “Matnda qaysi tabiiy hodisa tasvirlangan?” Ikkinchi turdagi topshiriqlar taqqoslashga qaratiladi: “Ikki hodisaning o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.” Uchinchi tur sabab-oqibatni aniqlashga xizmat qiladi: “Nima sababdan bunday hodisa yuz beradi?” To‘rtinchi tur dalillashga yo‘naltiriladi: “Fikringizni matndagi qaysi ma’lumot bilan isbotlaysiz?” Beshinchi tur ijodiy-tadqiqot topshiriqlaridan iborat: “Uyda kuzatish o‘tkazing va natijani yozib keling.”

Bunday topshiriqlarni guruhli va juftlikdagi faoliyat bilan uyg‘unlashtirish ham samarali. Masalan, bir guruh matndan asosiy faktlarni ajratadi, ikkinchi guruh savollar tuzadi, uchinchi guruh sabab-oqibat sxemasini ishlab chiqadi, to‘rtinchi guruh esa matn mazmunini kichik tajriba yoki loyiha bilan bog‘laydi. Guruhlar o‘z ishini himoya qilganda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki o‘z fikrini aniq ifodalash va boshqalarning fikrini tinglashni ham o‘rganadi.

Raqamli vositalardan foydalanish ham darsning ko‘rgazmaliligini oshiradi. Qisqa animatsiya, interaktiv xarita, elektron ensiklopediya yoki oddiy taqdimot matnda tasvirlangan hodisani ko‘z oldiga keltirishga yordam beradi. Biroq raqamli vosita o‘qish faoliyatining o‘rnini bosmasligi, balki matnni tushunishni qo‘llab-quvvatlashi lozim. O‘qituvchi har bir raqamli resursdan keyin o‘quvchiga “Ko‘rganingiz matndagi qaysi fikrni tasdiqlaydi?” kabi savol berishi mumkin.

Baholash mezonlari

Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishda baholash faqat matn mazmunini qayta aytib berishga asoslanmasligi kerak. O‘quvchining ilmiy dunyoqarashi shakllanishini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: 1) asosiy ma’lumotni topa olishi; 2) ilmiy tushunchani sodda izohlay olishi; 3) sabab-oqibatni aniqlashi; 4) dalil keltira olishi; 5) kuzatuv yoki tajriba natijasidan xulosa chiqarishi; 6) o‘z fikrini mustaqil ifodalashi.

Formativ baholashda “Ikki yulduz, bir tilak”, “Svetofor”, o‘z-o‘zini baholash varaqasi va qisqa refleksiya savollaridan foydalanish mumkin. Dars oxirida “Bugun men nimani bildim?”, “Meni nima qiziqtirdi?”, “Qaysi savolga hali javob topmadim?” kabi savollar berilishi o‘quvchining o‘z o‘qish faoliyatini anglashiga yordam beradi. Bu esa mustaqil ta’limga tayyorgarlikning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ilmiy-ommabop asarlar katta metodik imkoniyatga ega. Ular orqali o‘quvchi

tabiat va jamiyatdagi hodisalarni kuzatish, ma’lumotni tushunish, faktlarni ajratish, sabab-oqibatni aniqlash, savol qo‘yish, dalillash va xulosa chiqarishga o‘rganadi. Biroq bu samaraga matnni oddiy o‘qitish bilangina erishib bo‘lmaydi. Ilmiy-ommabop asar mazmuni muammoli savollar, interfaol metodlar, amaliy tajribalar, fanlararo integratsiya va refleksiv baholash bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Taklif etilayotgan metodikaning asosiy tamoyili – “o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, bilimni izlab topuvchi va asoslovchi subyekt” sifatida faoliyat yuritishidir. Shu asosda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, ilmiy fikrlashini va mustaqil o‘rganish motivatsiyasini rivojlantiradi. Natijada boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq ilmiy dunyoqarashning dastlabki, ammo muhim poydevori yaratiladi.

Adabiyotlar

1. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
2. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019.
3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish ta’limi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
7. O‘zbekiston Respublikasi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. – Toshkent.

BOLALARNING NUTQIY RIVOJLANISHIDA IJTIMIOY-PSIXOLOGIK OMILLAR TA`SIRI VA ULARNING AHAMIYATI

Izbullayeva Saodat Azamatovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi kunda bolalarda nutq shakllanishi va rivojlanishi dolzarb masalalardan biri bo`lib, ularda nutq shakllanishi ko`pgina omillarga uzviy bog`liqdir. Xususan, bolalarda nutqning buzilishi ya`ni afaziya holatlari ham mavjud bo`lib ushbu holat fiziologik, ijtimoiy- psixologik jarayonlarni o`z ichiga oladi. Bularni o`rganish uchun fanda nutqning fiziologik va psixologik asoslari o`rganilgan bo`lib, biz bu borada nutq mexanizmlari haqida to`xtalib o`tishni joiz deb bilamiz.Quyida nutq mexanizmlari va ularning nutq shakllanishidagi ahamiyatini ko`rib o`tamiz.

Nutq o`zining fiziologik negiziga ko`ra,eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig`ida tashqi olam tomonidan bo`ladigan turli xil qo`zg`atuvchilar bilan so`zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari,xiqildoq,til va boshqa azolar harakati o`rtasidagi muvaqqat bog`lanishlar o`rnatiladi.Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi.So`z, I.P.Pavlov fikricha,"signallar signali"dir. Nutqni dasturlashtirish-nutqiy ifodaning ,ya`ni kishi bildirmoqchi bo`lgan fikrning ma`naviy o`zagini tuzish -birinchi bosqich hisoblanadi.Ikkinchi bosqich-jumlaning sintaktik tarkibini tuzishdan iborat. Nihoyat,jumlani ovoz chiqarib ayta boshlaydi,ya`ni nutq real tarzda ro`yobga chiqadi.Shunday qilib,"gapirish" jarayoni boshlanadi.

Nutqiy fikr-mulohazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og`zaki muloqotda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar va tizimlar saqlanib qolganda yuz beradi.Mabodo ushbu tizimlar ishida buzilishlar ro`y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar-afaziyalar (so`zlashish va tushunish qobiliyatining yo`qolishi)sodir bo`ladi.[1].

Demak nutq fiziologiyasi bir qator murakkab jarayonlarni o`z ichiga olgan bo`lib, nutqning shakllanishiga bir necha omillar ta`sir ko`rsatadi. Xususan asosiy omillardan biri bu bolaning tug`ruq vaqtida kuchli jarohat olmasdan tug`ilishi ham nutqning o`z vaqtida shakllanishi va rivojlanishiga samarali ta`sir ko`rsatadi deb ayta olamiz. Shuning uchun ham bola dunyoga kelishidan tortib, to uni bolalik yoshigacha bo`lgan davrda barcha fiziologik ijtimoiy-psixologik

omillar uning nutqiy shakllanishida o`z ta`sirini o`tkazmasdan qolmaydi. Aynan shuning uchun ham har bir ota-ona farzand dunyoga kelishi bilan uning jismoniy sog`ligi va ruhiy asab tizimini sog`lom rivojlanishi uchun soha mutaxassislari tomonidan doimiy nazoratda bo`lishini ta`minlashlari maqsadga muvofiqdir. Bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishlariga befarq bo`lmasliklari tavsiya etiladi.Bu esa albatta kelajakda bolalarning jismonan sog`lom va ruhan tetik bo`lib voyaga yetishishlarida o`z samarasini ko`rsatadi.Shuningdek,nutqning ravon bo`lishida psixologik bilish jarayonlarining ham ahamiyati beqiyos.Chunki nutq bilish jarayonlari bilan chambarchas bog`liq bo`lib ular bilan hamohang ravishda shakllanib boradigan jarayondir.Misol sifatida aytib o`tish joizki,tafakkur o`sishi nutqning shakllanishiga va rivojlanishiga bevosita ta`sir ko`rsatadi.

Nutq faoliyati-odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o`zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o`rnatish o`z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.Nutq faoliyati aloqa jarayonining o`zidir.Bolalarda nutqning shakllanishi dastlab egosentsik nutq negizida paydo bo`la boshlaydi.Bu ular o`zi tushunadigan tilda o`ziga o`zi gapirib,kattalar nutqini kuzatish jarayonida ularda dastlabki muloqotga kirishish jarayoni paydo bo`la boshlaydi. Bu ichki nutqning tashqi nutqqa o`tishi bilan tavsiflanadi.Bola so`zni talaffuz qilarkan,istaganiga erishishga -e`tibor qilishiga,erkalatilishiga,o`yinchoq kabilarga erishishga intiladi.So`z aloqa vositasiga aylanadi.Qo`llaniladigan so`zlar soni borgan sari to`xtovsiz orta boradi va 2 yoshda bolalarning so`z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan,balki ularning grammatik shakllarini to`g`ri ishlatishi ham mumkin bo`lib qoladi, jumladan murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi.Bolaning tili maktab yoshigacha bo`lgan yillar davomida boyib boradi.[2].

Bugungi kunda maxsus adabiyotlarda 2,5- 3 yoshgacha bo`lgan nutq buzilishlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- Nutqning umumiy rivojlanmaganligi. Nutqning barcha tarkibiy qismlarining rivojlanishi buzilgan nutq anamoliyasining shakli (fonetik-fonemik, leksik-grammatik);
- Nutqni rivojlantirishning kechikishi. Nutqni rivojlantirish darajasi bolaning yoshiga mos kelmaydigan sur`atning sekinlashishi;
- Nutqning buzilishi. Miyaning shikastlanishi tufayli mavjud nutq va muloqot qobiliyatlarini yo`qotish;
- Nutqni rivojlantirishning buzilishi. Nutqni rivojlantirish jarayoni buzilgan.

B.P.Puzanov bolaning rivojlanishidagi og`ishlarni erta aniqlash va bartaraf etishga e`tibor beradi. U bolalarda nutq patalogiyasini, xususan, shifokorlar, psixologlar, o`qituvchilar, defektologlar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatlari bilan erishiladigan nutq patalogiyasini o`rganish,yengishga kompleks yondashuv zarurligini ta`kidlaydi.

Bola eng avvalo oilada ilk so`zlashuv jarayonini shaklantirib boradi. So`ngra maktabgacha ta`lim muassasalarida ijtimoiy kommunikatsiya ya`ni ijtimoiy muloqotga kirisha boshlaydi.Bu esa o`z navbatida bolaning nutq boyligi oshib borishiga xizmat qiladi. Keyinchalik so`z boyligi tafakkur jarayoni bilan birgalikda rivojlanib, murakkab so`z birikmalarini tuzishga va suhbatlashib ehtiyojini qondirishga undaydi.

Bolalar nutqi Grammatik tuzilishining o`sishi. Bolaning dastlabki gaplari bir so`zdan iborat bo`ladi.Shu bilan birga,bolaning aytgan bitta so`zi – gapi bir necha ma`noga ega bo`lishi mumkin.Masalan, bola: sut (shut) deyar ekan, bundan: “Sut ber”, “Sut ichaman”,”Ana sut” degan va boshqa shu kabi ma`nolarni ifodalashi mumkin.Shuningdek, bola:”mushuk”der ekan, bu bilan:”mushuk meni timdaladi”,”mushukni menga ber”,”mushuk bilan o`ynayapman”degan gaplarni aytayotgan bo`lishi mumkin.

Bola bir yoki bir necha so`zdan iborat gapni aytish bilan o`z fikrida bo`lgan va auytmoqchi bo`lgan narsasini qo`l yoki imo-ishora bilan ko`rsatib bergandagina bolaning oldida turgan kishilar uning mana shu chala-chulpa gapini tushunishlari mumkin.Tilga kirgan bola bilan bir vaziyatda turgan vaqtingizdagina uning gapini tushunish mumkin.

Lekin bola bir yarim yoshga to`lgandan keyin,ayniqsa,uch yoshga qadam qo`yganda ona tilining Grammatik tuzilishini egallay boshlaydi.

Bola oz va ko`p tushunchasini juda erta farq qila boshlaydi. Bola ikki yoshga to`lgunicha qadar katta va kichik tushunchasini ham farq qila boshlaydigan bo`lib qoladi(aka, opa, “ninni”, uka).Shuningdek, bola kelishiklarni ham juda erta (ikki yoshgacha) farq qila boshlaydi. Ammo qaratqich kelishigi o`rnida, ko`pincha tushum kelishigi ishlatadi.(bizni uyimiz).Bolalar bu yoshda fe`llarni shaxs va zamon e`tibori bilan ham birmuncha to`g`ri ishlatadigan bo`lib qoladi.Bolalar buyruq fe`lini ancha tez va barvaqt o`zlashtirib oladilar.

Bolalar to`g`ri tarbiyalanib borganlarida,ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshiga yetganlarida, ularda tilning grammatika shakllarini amaliy ravishda egallash juda tez qadam bilan olg`a qarab boradi. Shu yoshda bolalar murakkab gap sintaksissini ham egallab oladilar.Bolaning nutqida bir-biri bilan bog`langan qo`shma gaplar paydo bo`ladi.Ularning nutqlarida murakkab gaplar ishlatiladi.Bu gaplarda biror sabab,maqsad, xulosa,izoh,shart va shu kabilar aks ettirila boshlaydi. [3]

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, nutqning ravon va aniq bo`lishi birinchi o`rinda fiziologik jarayonlarning to`g`ri rivojlanishiga bog`liq bo`lsa, ikkinchidan, ijtimoiy –psixologik omillarga uzviy bog`liqdir. Chunki bolada tilning tez yoki kech chiqishi oila a`zolari bola bilan qay darajada tez- tez suhbatlashib turishlariga va uni eshitishlariga bevosita bog`liqdir. Biz bilamizki, ko`pincha katta oilalarda ulg`aygan bolalarning tili ertaroq chiqadi va tengdoshlariga nisbatan lug`at boyligi yuqoriroq bo`ladi. Buning sababi shundaki, bola kuzatib taqlid qilish va ko`p tinglash natijasida uning ichki nutqi tashqi nutqqa o`tib, bolada ilk “gapirish” jarayoni boshlanadi. Bolalar dastavval, ichki nutq bilan fikrlaydilar ichlarida taqlid qiladilar, tuzatadilar va so`ngra tashqi nutq orqali bevosita muloqotga kirishadilar.Bolalar ilk bora “gapirish” jarayonini oila a`zolari yordamida gapira boshlaydilar. Oila a`zolari qanchalik muloqotchan bo`lishsa, bolalarda nutq o`sishi shuncha ertaroq amalga oshadi.Ertaroq gapirishni boshlagan bolada esa tafakkur jarayonlari ham ertaroq shakllanib, fikrlash qobiliyati rivojlanib boraveradi. Tafakkur kurtaklari erta shakllansa, nutq shunchalik teran va mazmunli bo`lib,bolalarning kelajakda darslarni oson o`zlashtirishlariga samarali hissa qo`shadi. Shuning uchun bolada tilning kech yoki erta chiqishi ham uni o`rab turgan oilaviy muhit va ijtimoiy kommunikatsiya omillari bilan chambarchas bog`liqdir.Hozirgi kunda ko`pgina ta`lim muassasalarida ham bejiz, vizual va audial zamonaviy texnologiyalar asosida darslar tashkil etilmagandir. Shu boisdan bolada ba`zi hollarda tafakkur nutq bilan birgalikda rivojlanishi bir tekisda kechmasligi mumkin.Shuni aytib o`tish kerakki, bolalarda nutqning shakllanishi va rivojlanishida uning jismoniy va ruhiy sog`lig`i ham alohida ahamiyat kasb etadi.Ham ruhan va jismonan sog`lom bolalarni voyaga yetkazish va tarbiyalash esa biz ota-onalarning hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi.Bu esa o`z navbatida har bir insondan jiddiy ma`suliyatni talab etadi.Qachonki biz nutqning sog`lom va teran shakllanishiga e`tiborli bo`la olsak,o`shanda sog`lom avlodni yetuk bo`lib voyaga yetishishida o`z hissamizni qo`shgan bo`lamiz.

ADABIYOTLAR

1. SH.Barotov,L.Olimov,Z.Maxmudov "Muloqot psixologiyasi" Buxoro 2008
2. . P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent -2008
3. A.M. Nazarov Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.Buxoro-2021
4. A.K. Shamshetova R.N. Melibayeva, X.E.Usmanova,I.O. Xaydarov “Umumiy psixologiya” Toshkent – 2018
5. A.Xuseynova, A.Nazarov “Umumiy psixologiya” Buxoro-2021

Internet saytlari:

1.https//www.dissercat.uz
2.https//www.psyh.uz
3.https//www.works.doklad.ru
4.https//.www.ziyonet.uz
5.https//www.psychology.com


MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING KATTA VA TAYYORLOV GURUHLARIDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Jamolova Shoyira Uyg‘un qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bolalarning intellektual salohiyatini, jumladan matematik tafakkurini erta yoshdanoq shakllantirishdir. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayoni nafaqat bolani sonlar, geometrik shakllar, kattaliklar va fazoviy-vaqtiy munosabatlar bilan tanishtirish, balki uning mantiqiy tafakkurini, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi hamdir. Ayni shu sababli katta va tayyorlov guruhlarida EMT mashg‘ulotlarini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda, chunki aynan shu yoshdagi bolalar maktabda muvaffaqiyatli o‘qishga zaruriy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishlari lozim. An’anaviy tushuntirish-illyustrativ ta’lim modelida tarbiyachi bilimni tayyor holda taqdim etadi, bola esa asosan qabul qiluvchi va takrorlovchi rolida qoladi. Bunday yondashuv bolaning mustaqil fikrlash, izlanish va kashfiyot qilish ehtiyojini to‘liq qondira olmaydi. Shu bois zamonaviy pedagogika fanida muammoli ta’lim texnologiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda — bu texnologiya bola oldiga qiyinchilik tug‘diruvchi, ammo uning mavjud bilim va tajribasi asosida yechilishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatni qo‘yish orqali uning mustaqil izlanish faoliyatini tashkil etishga asoslanadi.

6. Ro‘ziyeva, D. I. (2023). Critical thinking development in primary education: Modern approaches and practices. *Uzluksiz Ta’lim*, 4(2), 45–52.
7. Musurmonova, O. M. (2022). Reading literacy and cognitive development of primary school pupils. *Xalq Ta’limi*, 6, 78–84.
8. To‘xtaxodjayeva, M. X. (2021). *Umumiy pedagogika*. Tashkent: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati.
9. Jumaniyozova, M. A. (2023). Interactive methods in developing students’ analytical thinking skills. *Pedagogik Mahorat*, 3(1), 56–61.
10. Qurbonova, G. R. (2022). The role of reading activities in the formation of critical thinking among primary school students. *Ta’lim, Fan va Innovatsiya*, 5(3), 33–39.
11. Xasanboyeva, O. U. (2021). *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi*. Tashkent: Tafakkur.
12. Mahkamov, U. I. (2022). Educational opportunities for developing critical thinking in primary school education. *Zamonaviy Ta’lim*, 7(2), 40–47.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti*. Tashkent: Adolat.
14. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2023). *Boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha milliy o‘quv dasturi*. Tashkent.
15. Rahimov, A. R. (2024). Innovative approaches to improving reading literacy in primary education. *Xalq Ta’limi*, 2, 67–74.

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Musurmonova Gulnoza Xabibullo qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti, Jizzax shahri

Zamonaviy jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yosh avlodning nutq madaniyatini yuqori darajada shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Nutq madaniyati shaxsning umumiy madaniyati ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u faqat tilning grammatik qoidalariga rioya qilishdangina emas, balki fikrni aniq, izchil va ta'sirchan ifodalay olish qobiliyatidan ham iborat.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bola nutqiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nutqning tozaligi, ravonligi va ifodaliligi o'quvchining til ko'nikmalari, muloqot madaniyati hamda shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7]. Shu bois, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarning nutq madaniyatini maqsadli, tizimli va bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb pedagogik-metodik ahamiyat kasb etadi.

"Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida nutq o'stirishning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha nutq ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish usullari aniq belgilab berilgan [2]. Mahmudov N. o'zining "O'qituvchi nutqi madaniyati" asarida nutq madaniyatini tilning me'yoriy qoidalariga rioya qilish va shu bilan birga muloqot maqsadiga muvofiq eng samarali til vositalaridan foydalana olish mahorati sifatida yoritadi [3]. Qo'ng'urov R. va boshqalarning "Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari" nomli tadqiqotida esa nutq madaniyati tilning boyligi, tozaligi, aniqligi, mantiqiyligi va ifodaliligi kabi sifatlarning yig'indisi sifatida qaraladi [4].

Pedagogik nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Muhammadiyeva X.K. va Ergasheva G.ning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi" nomli tadqiqoti ushbu yo'nalishda bevosita olib borilgan bo'lib, u ushbu maqola uchun asosiy tayanch manbalardan biri hisoblanadi [5]. Islamova N.A. o'z tadqiqotida sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib bergan [6, b. 48]. Biroq mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarda innovatsion ta'lim sharoitida ushbu jarayonni kompleks tashkil etish metodikasi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion metodikasi bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlarning har biri o'ziga xos vazifani bajarib, yakuniy natijada o'quvchida yaxlit nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida ularning har biri alohida ko'rib chiqiladi.

Birinchi yo'nalish – interaktiv metodlardan foydalanish. Rolli o'yinlar, debatlar, hikoya davomini o'ylab topish kabi mashqlar orqali o'quvchilarning erkin fikr bildirish, o'z nuqtai nazarini asoslash va suhbatdoshini tinglash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, "Do'kon", "Shifoxona", "Kutubxona" kabi kundalik hayotiy vaziyotlarni aks ettiruvchi rolli o'yinlarda o'quvchi muayyan vaziyatga mos so'z va iboralarni tanlab ishlatishga, muloqot odobiga rioya qilishga o'rganadi. Debat mashg'ulotlarida esa o'quvchi o'z fikrini dalillar bilan asoslash, raqib fikrini hurmat bilan tinglash va munozara madaniyatiga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydi. Bunday mashqlar bolada nutqiy faollikni oshirish bilan birga, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi [5].

Ikkinchi yo'nalish – loyihaviy topshiriqlar metodi. Bu metod o'quvchilarga real hayotiy vaziyotlarda nutqiy vositalardan foydalanish imkonini beradi. Masalan, "Mening oilam", "Sevimli kitobim", "Kelajakda kim bo'lmoqchiman" kabi mavzularda kichik hajmdagi taqdimotlar tayyorlash o'quvchida fikrni izchil bayon qilish, mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish va nutqni tinglovchiga moslashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyiha ustida ishlash jarayonida o'quvchi ma'lumot to'plash, uni tizimlashtirish va og'zaki taqdim etish bosqichlarini bosib o'tadi, bu esa nafaqat nutqiy, balki tafakkur ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Guruh loyihalarida esa o'quvchilar o'zaro fikr almashish, kelishilgan qarorga kelish va umumiy natijani jamoa oldida taqdim etish orqali muloqot nutqini takomillashtiradi.

Uchinchi yo'nalish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Interaktiv taxta, multimedia taqdimotlar va ta'limiy mobil ilovalar o'quvchilarning nutqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bunday vositalar orqali tashkil etilgan "To'g'ri talaffuz", "So'z zanjiri", "Sinonim va antonimlarni top" kabi interaktiv o'yinlar o'quvchilarda nutqning to'g'riligi va sofligini shakllantirishga xizmat qiladi. Audio va video materiallardan foydalanish orqali o'quvchilarga adabiy talaffuz namunalari taqdim etiladi, bu esa ularning shevaga xos noto'g'ri talaffuz ko'nikmalarini bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, ovoz yozish ilovalari yordamida o'quvchi o'z nutqini eshitib, xatolarini mustaqil aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchi yo'nalish – darsdan va sinfdan tashqari ishlar. Sinfdan tashqari o'qish darslari, nutq madaniyati bo'yicha to'garaklar, she'rxonlik kechalari va notiqlik san'ati bo'yicha kichik musobaqalar muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar o'quvchining nafaqat darslikdagi bilimlarini, balki amaliy nutqiy tajribasini ham boyitadi, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalab,

ijodkorlik va suxandonlik qobiliyatlarini rivojlantiradi [6, b. 48]. Xususan, badiiy asarlarni ifodali o'qish, ularni sahnalashtirish va muhokama qilish o'quvchida nafaqat nutq texnikasi (nafas olish, ovoz, diksiya), balki nutqning ifodaliligi va his-tuyg'uga boyligini ham shakllantiradi.

Beshinchi yo'nalish – differensial va individual yondashuv. Har bir o'quvchining nutqiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lganligi sababli, innovatsion metodika individual xususiyatlarni hisobga olishni talab etadi. Nutqi sust rivojlangan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar, aksincha, nutqi yaxshi rivojlangan o'quvchilar uchun murakkabroq ijodiy topshiriqlar (kichik insho, ertak davomini yozish, sherik bilan dialog tuzish) tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv sinfdagi barcha o'quvchilarning o'z darajasiga mos ravishda rivojlanishini ta'minlaydi.

Alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchining o'zi ham namunali nutq madaniyatiga ega bo'lishi shart. Zero, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qituvchi nutqi taqlid ob'ekti hisoblanadi va uning so'z boyligi, talaffuzning me'yorlashtirilganligi hamda adabiy me'yorlarga rioya qilishi o'quvchi nutqining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7]. O'qituvchilarning og'zaki nutqiga qo'yiladigan talablar tizimli tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, bular pedagogik muloqot jarayonida qat'iy amal qilinishi lozim bo'lgan mezonlarni belgilaydi [8]. Shu munosabat bilan, o'qituvchilarning malaka oshirish kurslarida ham nutq texnikasi va notiqlik san'ati asoslari bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin: o'quvchilarning faol lug'at boyligi ortadi; ular fikrni izchil va mantiqiy tarzda bayon eta boshlaydi; jamoada ishlash va muloqot madaniyatiga oid ko'nikmalar mustahkamlanadi; o'z nutqini nazorat qilish va xatolarni mustaqil tuzatish qobiliyati shakllanadi. Ushbu natijalar innovatsion metodikaning an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u interaktiv metodlar, loyihaviy topshiriqlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda darsdan tashqari ishlarning uzviy bog'liqligida samarali natija beradi. Ushbu yo'nalishlarni tizimli va izchil qo'llash o'quvchilarda nutqning to'g'riligi, aniqligi, boyligi va ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida keng ko'lamli tajriba-sinov ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2023.

2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: "Noshir", 2009. – 352 b.

3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

4. Qo'ng'urov R. va boshq. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. – Toshkent.

5. Muhammadiyeva X.K., Ergasheva G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. – CyberLeninka, 2021.

6. Islamova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish // Fan va ta'lim. – 2022. – № 48. – URL: https://fanvatalim.uz/uz/article/48/

7. Islamova D., Gulimbayeva B. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutq madaniyati // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3, № 11. https://doi.org/10.5281/zenodo.17614579

8. Kodirova Z.K. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari og'zaki nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablar // Ta'lim taraqqiyoti jurnali. – 2022.

O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Nabiyeva Nigora Normuhammaa qizi
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchiga tayyor bilimlarni berish bilan bir qatorda, uning mustaqil fikrlashi, yangicha g‘oyalarni ilgari surishi, muammoli vaziyatlarga turli yechimlar topishi va o‘z qarashlarini asoslay olishini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Chunki zamonaviy jamiyatda bilimni yodda saqlashning o‘zi yetarli bo‘lmay, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, axborotni tahlil qilish, muqobil fikrlarni taqqoslash va yangilik yaratishga intilish talab etiladi. Shu jihatdan o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish umumiy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat o‘quvchining yangi va original g‘oyalarni ilgari surishi, mavjud muammoga odatiy bo‘lmagan yondashuv topishi, tasavvuridan foydalanishi, turli variantlarni ishlab chiqishi hamda o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunday qobiliyat tug‘ma imkoniyatlargagina bog‘liq emas. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayon, qulay psixologik muhit, muntazam ijodiy mashqlar va o‘quvchining faol ishtiroki orqali uni rivojlantirish mumkin.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari

Pedagogik nuqtayi nazardan ijodkorlik o‘quvchining mavjud bilim va tajribalarini yangi aloqalar asosida birlashtira olishida namoyon bo‘ladi. Ijodiy faoliyatda o‘quvchi tayyor algoritmni takrorlamaydi, balki vaziyatni tahlil qilib, o‘ziga xos yechim izlaydi. Shu sababli ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim mazmuni, metodlari va baholash mezonlarini o‘quvchining faol fikrlashiga yo‘naltirishni talab etadi.

Ijodiy qobiliyatlarning muhim belgilariga fikrlar rang-barangligi, yangi g‘oya ishlab chiqish, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘ra olish, tasavvur, moslashuvchanlik va mustaqillikni kiritish mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga ertak qahramonining keyingi taqdirini mustaqil davom ettirish, matn uchun boshqa sarlavha topish, bir masalani bir necha usulda yechish yoki rasm asosida hikoya tuzish kabi vazifalar berilganda unda ijodiy fikrlash jarayoni faollashadi.

Vigotskiyning ta’lim va rivojlanish haqidagi qarashlari, J. Guilfordning divergent fikrlashga oid yondashuvlari, E. Torrance tomonidan ijodkorlikni aniqlash va rivojlantirishga doir ishlanmalar ijodiy qobiliyatlarni pedagogik jarayonda qo‘llab-quvvatlash uchun nazariy asos bo‘la oladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda esa o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaralib, uning tashabbusi, mustaqilligi va individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda eng avvalo ijodiy pedagogik muhitni yaratish zarur. Bunday muhitda o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalashi, xato qilishdan qo‘rqmasligi, savol berishi va o‘z yechimini taklif qilishi mumkin. O‘qituvchi esa yagona to‘g‘ri javobni talab qilishdan ko‘ra, o‘quvchining fikrlash jarayonini kuzatishi va uni izlanishga yo‘naltirishi lozim.

Aqliy hujum metodi ham o‘quvchilarning erkin va tezkor fikrlashini rag‘batlantiradi. Unda o‘quvchilar muammo yuzasidan imkon qadar ko‘p g‘oyalarni ilgari suradilar. Dastlab g‘oyalar tanqid qilinmaydi, keyingi bosqichda esa ular tahlil qilinadi va amaliy jihatdan maqbul variantlar ajratib olinadi. Klaster metodida esa o‘quvchilar asosiy tushuncha atrofida o‘z fikrlarini tarmoqlar ko‘rinishida ifodalab, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlaydilar.

Loyiha metodi o‘quvchining uzoqroq muddat davomida mustaqil izlanishini tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan, boshlang‘ich sinfda “Mening yashil maktabim”, “Suvni tejaymiz”, “Mahallamizdagi kasblar” kabi kichik loyihalarni tashkil etish mumkin. O‘quvchilar ma’lumot to‘playdi, savollar tuzadi, kuzatadi, rasm va jadval tayyorlaydi, natijalarni taqdim etadi. Bu jarayonda ijodiy fikrlash bilan birga muloqot, hamkorlik, mas’uliyat va taqdimot ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Shuningdek, rolli o‘yinlar, hikoya davom ettirish, rasm asosida matn yaratish, she’r yoki topishmoq tuzish, “Agar men muallif bo‘lganimda...” kabi topshiriqlar o‘quvchining tasavvuri va nutqiy ijodkorligini rivojlantiradi. Muhimi, topshiriq o‘quvchiga ma’lum darajada tanlov imkonini

berishi kerak. Tanlov mavjud bo‘lgan vaziyatda o‘quvchi o‘z qarorini qabul qiladi va uning natijasi uchun javobgarlikni his etadi.

O‘qituvchining roli va baholash masalalari

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchining har bir fikrini tayyor mezon asosida cheklab qo‘ymasdan, uning fikrlash jarayoniga e’tibor qaratishi zarur. Bir xil topshiriqqa turlicha javob berish mumkinligini tan olish, o‘quvchining individual qiziqishini qo‘llab-quvvatlash va kichik yutuqlarini rag‘batlantirish ijodiy faollikni oshiradi.

Ijodiy faoliyatni baholashda faqat yakuniy javobga emas, balki g‘oyaning yangiligi, fikrlar xilma-xilligi, muammoni tushunish, dalillash, mustaqillik va topshiriqni bajarish jarayoniga ham e’tibor berish maqsadga muvofiq. O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholashdan foydalanish ham o‘quvchining refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Bugun nimani yangicha o‘rgandim?”, “Qaysi fikrim bilan boshqalardan farq qildim?”, “Keyingi safar nimani yaxshilayman?” kabi savollar o‘quvchini o‘z faoliyatini tahlil qilishga undaydi.

Boshlang‘ich ta’limda ijodiy topshiriqlarni muntazam qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat tasavvur va fikrlash qobiliyatlarini, balki nutqiy, kommunikativ va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuning uchun har bir darsda o‘quvchining “yana qanday?”, “nima uchun?”, “boshqacha bo‘lishi mumkinmi?” kabi savollar ustida fikrlashi uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in the Adolescent. – Moscow: Pedagogy, 1991.
2. Guilford J.P. Creativity. – American Psychologist, 1950. – Vol. 5. – P. 444–454.
3. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
5. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956.
6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
9. To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
10. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006.

“USULI JADID” MAKTABLARIDA ONA TILI DARSLARINING TASHKIL ETILISHI

Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna

Osiyo xalaqaro universiteti

Istiqlol xalqimiz, milliy madaniyatimizning bu muhim sahifalarini haqqoniy va xolisona o‘rganishga imkon yaratdi hamda XXI asr bo‘sag‘asida bu sohada ancha tadqiqotlar amalga oshirildi, bir qator ilmiy anjumanlar o‘tkazildi, jadidchilik harakati namoyandalari merosining ommaviy nashrlari amalga oshirildi.

K.Y. Bendrikov yangi usul maktablarini eski maktablardan sinf-dars tuzilmasining mavjudligi, birinchi o‘quv kitobining ona tilida tuzilgan alifbe darsligi bo‘lishi, savod o‘rgatishning tovush-bo‘g‘in usuliga asoslanishi, arifmetikaning boshlang‘ich ta’lim tarkibiga kiritilishi, o‘quvchilarning yerda emas, partada o‘tirishi va ko‘rgazmali vositalardan foydalanilishi bilan farqlaydi. Munavvarqori va Abdulla Avloniy maktablari kabi ayrim yangi usul maktablarida muayyan o‘quv dasturlariga amal qilingan, alifbe darsliklarida esa metodik tavsiyalar ham taqdim etilgan.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida faoliyat yuritgan jadid maktablari ta’lim tizimiga yangi mazmun va metodlarni olib kirganligi bilan ajralib turadi. Jadid pedagoglari tomonidan ishlab

chiqilgan ta’lim metodikasi, ayniqsa, ona tili fanini o‘qitishda o‘zining ilg‘orligi, hayotiyligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyat kasb etgan. Ona tili jadid maktablarida asosiy fanlardan biri bo‘lib, u orqali o‘quvchilarga savod o‘rgatish, nutqini rivojlantirish va milliy ongni shakllantirish ko‘zda tutilgan. May oyining oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o‘tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur’on suralarini yoddan aytish, o‘zbek tilida o‘qish va yozish, hisobdan to‘rt amalni bajara olishlarini namoyish qilganlar.

Jadid maktablarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon va ongli o‘qish hamda yozishga o‘rgatishdan iborat bo‘lgan. Ona tili darslarida o‘quvchilarning ongli o‘rganishini ta’minlash jadid metodikasining muhim jihatlaridan biri hisoblangan. Dars jarayonida matn bilan ishlashga katta e’tibor qaratilib, o‘quvchilar matn mazmunini tushunib o‘qishga, asosiy fikrni aniqlashga, savollarga javob berishga o‘rgatilgan. Bu esa bolalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirgan. Savol-javob, suhbat va bahs metodlari orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi rivojlantirilgan.

Jadid maktablarida savod o‘rgatish tovush-bo‘g‘in usulida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida ***onglilik tamoyili*** asosiy mezonlardan biri hisoblangan. O‘quvchi faqat o‘qishi yoki yodlashi emas, o‘qiganining mazmunini anglashi kerak edi. XIX asrning 90-yillaridan XX asr boshlariga qadar Toshkent, Qo‘qon va Samarqand shaharlaridagi yangi usul maktablarida ***izohli o‘qish usuli*** qo‘llanilib, o‘quvchilarning bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga alohida e’tibor berildi.

Abduqodir Shakuriy savod chiqarishni yengillashtirish maqsadida dastlab ***bo‘g‘in usuli***, keyinchalik ***tovush-harf usuli***dan foydalandi. Mazkur usullar yordamida o‘quvchilarning olti oy ichida savodini chiqarishga erishgan. U bolalarni ona tilida o‘qitishga qat’iy rioya qilgan, ayni vaqtda ularning tojik, arab va rus tillarini mukammal o‘rganishini qo‘llab-quvvatlagan. Jadid maktablari uchun sodda va tushunarli tilda darsliklar tuzgan.

Jadid maktablarida ona tili o‘qitishda ko‘rgazmalilik tamoyiliga ham alohida ahamiyat berilgan. Darslarda rasmlar, jadvallar, yozma namunalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mavzuni tez va samarali o‘zlashtirishiga erishilgan. Shuningdek, ona tili darslari hayotiy misollar asosida tashkil etilib, o‘rganilayotgan matn va mashqlar o‘quvchilarning kundalik hayoti, atrof-muhit va ijtimoiy voqelik bilan bog‘langan. Bu yondashuv ta’limni mazmunan boyitib, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshirgan. Jadid pedagoglari ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratganlar. O‘quvchilarga diktant, bayon va insho yozdirish orqali ularning yozma savodxonligi mustahkamlangan. Bu jarayonda imlo va grammatik qoidalarni ongli o‘zlashtirish, fikrni izchil va tushunarli ifodalashga o‘rgatish asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Ona tili darslari orqali bolalarda nutq madaniyati, adabiy til me’yorlariga amal qilish ko‘nikmalari shakllantirilgan.

Shuningdek, jadid maktablarida ona tili ta’limi tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda olib borilgan. Darslarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, axloqiy fazilatlarni targ‘ib etuvchi matnlardan foydalanilgan. Bu esa ona tili fanining nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid pedagoglarining darsliklari va metodik qarashlari bu borada muhim manba hisoblanadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy dars jarayoni va o‘quv ishlarini tashkil qilishda Y.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi, har bir darsning o‘z mavzusi va vazifasi bo‘lishi, darsda faollik va intizomni ta’minlash haqidagi qarashlariga tayangan. Shuningdek, K.Ushinskiy, Komenskiy, Pestalotssi va F.Disterveglarning ko‘rsatmali ta’lim metodikasini yangi usullar bilan boyitishga harakat qilgan.

Yangi usul maktablarining muhim tashkiliy xususiyati maktabxonadagi yakka tartibda o‘qitishdan sinf-dars tizimiga o‘tilganida namoyon bo‘ldi. Sinflarda geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Maktablar asosan 1–4-sinflardan iborat boshlang‘ich ta’lim muassasalari bo‘lgan. 1913–1914-o‘quv yilidan boshlab ayrim joylarda ikki bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bunday maktablar “namuna maktablari” deb atalib, ularning birinchi bosqichi tahziriy – boshlang‘ich sinflar, ikkinchi bosqichi esa rushdiy – yuqori sinflar deb

yuritilgan. Munavvarqori Abdurashidxonovning namuna maktabida, A.Shukuriyning Samarqanddagi va A.Ibodiyevning Qo‘qondagi maktablarida 5–6-sinflardan iborat rushdiy sinflar ham ish boshlagan.

Jadidlarning ona tili o‘qitish metodikasi shunchaki ta’limiy islohot emas, balki milliy o‘zlikni anglash harakati edi. Ularning bu boradagi faoliyatini quyidagi uchta muhim nuqta bilan xulosalash mumkin:

Yo‘nalish	Qisqa mazmun
Inqilobiy o‘zgarish	Jadidlar eski yodlash tizimi o‘rniga tovush usulini joriy etib, savod o‘rgatishni tezlashtirdilar.
Til va millat uyg‘unligi	Ona tili milliy o‘zlikni saqlovchi vosita sifatida qaralib, til ta’limi vatanparvarlik va milliy g‘urur bilan bog‘landi.
Poydevor vazifasi	Avloniy, Munavvarqori va Gasprinskiy yaratgan darslik va metodlar zamonaviy o‘zbek tili metodikasining shakllanishiga asos bo‘ldi.

Qisqacha aytganda, jadidlar ona tili o‘qitish metodikasini diniy va dunyoviy bilimlarni o‘zaro bog‘lovchi muhim pedagogik vositaga, ya’ni o‘ziga xos “oltin ko‘prik”ka aylantira oldilar. Ular ta’lim jarayonida ona tilining nafaqat savod chiqarish vositasi, balki xalqning milliy tafakkuri, ma’naviyati, tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini shakllantiruvchi asosiy omil ekanini chuqur angladilar. Jadidlarning yangi usuldagi maktablari, darsliklari va ilg‘or metodik qarashlari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, bilimni ongli ravishda egallashga hamda o‘z ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Shu jihatdan ularning pedagogik merosi zamonaviy o‘zbek tili o‘qitish metodikasining shakllanishida mustahkam poydevor bo‘lib, bugungi ta’lim tizimi uchun ham o‘z ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.

2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: “Universitet”, 2006. – 128 b.

3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). – Toshkent: “Sharq”, 2001.

4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002. – 400 b.

5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2009. – 352 b.

BO‘LAJAK O’QITUVCHILARNING NOSTANDART TA’LIM SHAROITIDA PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK TIZIMI

Ramazonova S.S

Osiyo xalqaro universiteti katta o’qituvchisi

Jahon ta’lim makonida kechayotgan globallashuv, raqamlashtirish va ta’lim mazmunining yangilanishi pedagog kadrlarni tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi faqat muayyan fan bo‘yicha bilimlarni yetkazuvchi mutaxassis sifatida emas, balki murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qila oladigan, o‘zgaruvchan ta’lim sharoitlariga tez moslasha oladigan, yangi pedagogik yechimlarni ishlab chiqadigan va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etadigan mutaxassis sifatida namoyon bo‘lishi talab etilmoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ta'limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat - muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat - pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis deb ta’riflasak, o‘qituvchining pedagogik mahorati mazmunini shunday izohlash mumkin:

Innovatsiya – ta’lim jarayoniga yangi g‘oyalar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etish orqali uning samaradorligini oshirishdir. Ta’limda innovatsiya faqat yangi texnologiyani kiritish emas, balki ushbu yangiliklarning maqsadga muvofiq joriy etilishi va o‘quvchilarga moslashtirilgan holda qo‘llanilishini ham anglatadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas’uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga va o‘zi tanlangan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovasion va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi.

Ta’lim-tarbiya tizimida keng yo’lga qo’yilayotgan pedagogik texnologiyalar, pedagoglar tomonidan ilg’or texnologiyalar mohiyatining anglab yetilishiga erishish, shuningdek, ularda ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritish ko’nikma va malakalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan sanaladi.

Zamonamiz kun sayin o’zgarib borayotgan ekan, eng avvalo, ta’lim sohasi u bilan hamohang bo’ladi va buning natijasida o’qituvchidan o’z faoliyatiga to’xtovsiz o’zgartirishlar kiritishni talab etadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda o’qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini murakkab jarayon sifatida baholash mumkin. Chunki yuqorida aytib o’tilgan usullar o’qituvchi tomonidan ijodiy boyitiladi, rivojlantiruvchi axborotlar bilan to’ldiriladi. Bular shunchaki gaplar emas, natijasi samarali, tajribadan muvaffaqiyatli o’tgan, tasdig’ini topgan tavsiyalardir. Bunda o’qituvchi, innovatsion faoliyatning sub’ekti va tashabbuskori sifatida yangilikni ijodiy izlanish natijasida yaratishi, uni mohirona hayotga tadbiq etish hamda uni ommalashtirishda markaziy o’rinda turishi lozim.

Zamonaviy tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari, refleksiya, metodik loyihalash va kompetensiyaviy yondashuvning integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Innovatsion texnologiya faqat texnik vosita emas, balki ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, kommunikativ muhiti, baholash va refleksiyani o‘zaro bog‘laydigan yaxlit pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda.

Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan nostandart sharoitlar bo‘lajak o‘qituvchidan an’anaviy pedagogik faoliyat doirasidan chiqishni talab qiladi. Bunday sharoitlarga masofaviy va onlayn ta’lim, aralash (blended learning) ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, ta’lim jarayonidagi kutilmagan pedagogik vaziyatlar, individual va differensial ta’lim ehtiyojlari, inklyuziv ta’lim sharoiti, resurslar cheklangan ta’lim muhiti, tezkor pedagogik qaror qabul qilishni talab etuvchi vaziyatlar juda ko’p kuzatilmoqda. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni nostandart ta’lim sharoitida samarali faoliyat olib borishga tayyorlash muhim ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Pedagogik mahoratni egallash vositalari o‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘mak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. Yosh o‘qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytish lozimki, shaxsga ta’lim va tarbiya berishda nafaqat ta’lim oluvchiga ta’limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Ta’lim tizimida innovatsion yondoshuv ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi va joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakli, o‘qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi rolida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O‘qituvchining kasbiy mahoratini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta’limda tub o‘zgarishlarni amalga oshirib, bo‘lajak pedagoglarni

nostandart yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish orqali ta’lim mazmunini yanada rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Najmiddinova S. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish mohiyati. 2025.
2. Olimov, T. X. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
3. Ramazonova S.S. (2025). Bo‘lajak pedagogoglarni nostandart yondashuv asosida ta’limda yangi mazmun, shakl va metodlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish. *"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali, - Buxoro, №2. 62-66- betlar*
4. Ramazonova S.S. (2025). Bo‘lajak pedagogoglarni nostandart yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashning tashkiliy shakllari. *“Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, - Buxoro, №3, (13 00 00 №19) 97-104- betlar*
5. Ramazonova S.S. (2025). Bo‘lajak pedagoglarni nostandart dars o‘tish ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy kompetensiyalarining ahamiyati *“Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi” ilmiy- nazariy va metodik jurnal, - Buxoro,4-son,(130000№19) 142-149-betlar*
6. Ramazonova S.S. (2025). Bo‘lajak pedagogoglarni nostandart dars o‘tish ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy kompetensiyalarning ahamiyati. *"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali, -Buxoro, №4, (13 00 00 №21) 167- 169-betlar*

RINOLALIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALARNI LOGOPEDIK TEKSHIRISH METODIKASI

Rustamova Muxayyo

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Zamonaviy maxsus pedagogika va logopediya sohasida nutq kamchiliklarini erta aniqlash, ularning mexanizmini to‘g‘ri belgilash hamda ilmiy asoslangan korreksion-pedagogik yordamni tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Nutqning talaffuz tomonida murakkab o‘zgarishlarni yuzaga keltiradigan kamchiliklardan biri rinolaliyadir. Rinolaliya nutq apparatining anatomik va funksional xususiyatlari bilan bog‘liq holda ovoz rezonansi va tovushlar talaffuzining buzilishi bilan namoyon bo‘ladi.

Rinolaliyada kuzatiladigan nutqiy kamchiliklar bolaning nutqi tushunarliligiga, kommunikativ faolligiga va ijtimoiy muhit bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli rinolaliyani logopedik tekshirish jarayonida alohida tovushlarning talaffuzini baholash bilan chegaralanish yetarli emas. Nutq apparatining anatomik holati, artikulyatsion motorika, tanglay-halqum faoliyati, nutqiy nafas, ovoz va rezonans, fonematik jarayonlar hamda nutqning leksik-grammatik komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi — rinolaliya nutq kamchiligiga ega bolalarni kompleks logopedik tekshirishning asosiy yo‘nalishlarini tizimlashtirish va tekshiruv natijalari asosida korreksion-logopedik ishni rejalashtirishning metodik imkoniyatlarini yoritish.

Tadqiqot vazifalari: rinolaliyaning nutqiy namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilish; logopedik tekshiruvning asosiy komponentlarini aniqlash; diagnostik topshiriqlar tizimini tavsiflash; tekshiruv natijalaridan individual korreksion ishni rejalashtirishda foydalanish imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqotda maxsus pedagogika va logopediyaga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Rinolaliyali bolalarni tekshirish metodikasini shakllantirishda kompleks, tizimli va individual yondashuv tamoyillariga asoslanildi.

Kompleks yondashuv bolaning nutqiy holatini anatomik, funksional, fonetik-fonematik va leksik-grammatik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv nutq faoliyatining alohida komponentlarini yagona funksional tizim sifatida baholash

imkonini beradi. Individual yondashuv esa bolaning yoshi, nutqiy rivojlanish darajasi, rinolaliyaning shakli va anatomik-funksional imkoniyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Rinolaliyada logopedik tekshiruvning diagnostik ahamiyati

Rinolaliyali bolani tekshirishda dastlab nutq kamchiligining yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Shu maqsadda bolaning rivojlanish tarixi, nutq shakllanishining asosiy bosqichlari, mavjud anatomik o‘zgarishlar, o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlari va avvalgi korreksion yordam haqidagi ma’lumotlar yig‘iladi.

Anamnezning batafsil o‘rganilishi keyingi tekshiruv yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi. Ayniqsa, tug‘ma lab va tanglay yoriqlari mavjud bolalarda jarrohlik amaliyotining turi va muddati, operatsiyadan keyingi holat hamda logopedik yordamning boshlanish vaqti muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Artikulyatsion apparatning anatomik va funksional holatini tekshirish

Logoped bolaning lablari, tishlari, jag‘lari, tili, qattiq va yumshoq tanglayi hamda kichik tilchaning anatomik holatini kuzatadi. Yumshoq tanglayning uzunligi va harakatchanligi, operatsiyadan keyingi chandiqlar, tish-jag‘ tizimidagi o‘zgarishlar qayd etiladi.

Artikulyatsion motorikani baholash uchun bolaga lablarni cho‘chchaytirish va tabassum holatiga keltirish, tilni yuqoriga-pastga hamda o‘ngga-chapga harakatlantirish, til uchini yuqori tishlar ortiga ko‘tarish singari topshiriqlar beriladi. Bunda harakatlarning aniqligi, hajmi, tezligi, koordinatsiyasi va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish qobiliyati baholanadi.

Tanglay-halqum mexanizmini baholash

Rinolaliyani tekshirishda tanglay-halqum mexanizmining funksional imkoniyatlarini baholash muhim o‘rin egallaydi. Yumshoq tanglayning fonatsiya vaqtida ko‘tarilishi va harakatchanligi kuzatiladi. Unli tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish, bo‘g‘in va so‘zlarni aytish jarayonidagi rezonans xususiyatlari tahlil qilinadi.

Mazkur bosqich rinolaliyaning klinik shakli va nutqiy namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Zarur holatlarda logopedik baholash otorinolaringologik va boshqa instrumental tekshiruv natijalari bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq.

Nutqiy nafasni tekshirish

Rinolaliyali bolalarda havo oqimini boshqarishdagi qiyinchiliklar tovushlar talaffuziga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun tekshiruv davomida nafas olish va chiqarishning davomiyligi, yo‘nalishi hamda nutq jarayonida nafasdan foydalanish holati o‘rganiladi.

Bolaga bir tekis va davomli nafas chiqarish, unli tovushni cho‘zib talaffuz qilish, bir nafasda bo‘g‘in yoki qisqa jumlalarni aytish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Ushbu topshiriqlar orqali nutqiy nafasning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

Ovoz va rezonans xususiyatlarini o‘rganish

Ovozning kuchi, balandligi, tembri va rezonans xususiyatlari alohida baholanadi. Ochiq rinolaliyada ortiqcha burun rezonansi, yopiq rinolaliyada esa burun rezonansining yetishmasligi kuzatilishi mumkin.

Rezonansni baholash alohida tovushlar bilangina cheklanmasdan, bo‘g‘in, so‘z, gap va spontan nutqda amalga oshirilishi kerak. Chunki nutqiy vazifa murakkablashgan sari rezonansdagi buzilishlar va kompensator artikulyatsion odatlar aniqroq namoyon bo‘lishi mumkin.

Tovushlar talaffuzini tekshirish

Tovush talaffuzini tekshirishda undosh va unli fonemalarning alohida, bo‘g‘in, so‘z, gap hamda bog‘langan nutqdagi realizatsiyasi o‘rganiladi. Og‘iz bo‘shlig‘ida yetarli havo bosimini talab qiladigan undoshlarning talaffuziga alohida e’tibor beriladi.

Tekshiruv davomida tovushning tushirib qoldirilishi, almashtirilishi, buzib talaffuz qilinishi, artikulyatsiya o‘rnining o‘zgarishi va kompensator talaffuz usullarining mavjudligi qayd etiladi. Olingan natijalarni maxsus logopedik tekshiruv kartasida belgilab borish keyingi korreksion ish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Fonematik jarayonlar va nutqning boshqa komponentlarini tekshirish

Rinolaliya ko‘proq nutqning fonetik tomonida namoyon bo‘lsa-da, bolaning umumiy nutqiy rivojlanishini baholash diagnostikaning muhim qismidir. Shu sababli fonematik idrok, tovushlarni

farqlash, fonematik tahlil va sintez elementlari bolaning yoshiga muvofiq topshiriqlar yordamida o‘rganiladi.Bundan tashqari, faol va passiv lug‘at, grammatik shakllardan foydalanish, gap tuzish hamda bog‘langan nutq holati baholanadi. Rasm asosida hikoya tuzish, voqealar ketma-ketligini bayon qilish va mustaqil suhbat kabi metodlar bolaning kommunikativ nutqini tabiiy sharoitga yaqin vaziyatda tekshirish imkonini beradi.

Kompleks diagnostika asosida korreksion ishni rejalashtirish

Logopedik tekshiruv natijalarini umumlashtirishda bolaning anatomik imkoniyatlari va nutqiy kamchiliklari o‘rtasidagi bog‘liqlik hisobga olinishi zarur. Tekshiruv natijalariga ko‘ra korreksion ishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi.Bunda artikulyatsion motorikani takomillashtirish, yo‘naltirilgan og‘iz havo oqimini shakllantirish, nutqiy nafasni rivojlantirish, fiziologik jihatdan maqbul artikulyatsiya usullarini shakllantirish, tovushlar talaffuzini korreksiya qilish va nutqning kommunikativ tushunarliligini oshirish asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi.Rinolaliyali bolalar bilan ishlashda logopedning boshqa mutaxassislar bilan hamkorligi muhimdir. Otorinolaringolog, yuz-jag‘ jarrohi, ortodont, audiolog, pedagog va psixolog bilan o‘zaro hamkorlik bolaning ehtiyojlarini kompleks baholash va korreksion-reabilitatsion yordamning izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Rinolaliya nutq kamchiligiga ega bolalarni logopedik tekshirish ko‘p komponentli diagnostik jarayon bo‘lib, bolaning nutq apparati anatomik-funksional holati va nutq tizimining asosiy komponentlarini kompleks o‘rganishni talab qiladi.

Tadqiqot tahlili asosida rinolaliyali bolalarni tekshirishda anamnestik ma’lumotlarni yig‘ish, artikulyatsion apparat tuzilishi va motorikasini baholash, tanglay-halqum faoliyatini o‘rganish, nutqiy nafas, ovoz va rezonans, tovushlar talaffuzi, fonematik jarayonlar hamda bog‘langan nutqni tekshirish o‘zaro izchil olib borilishi lozimligi aniqlandi.Logopedik tekshiruvning tizimli tashkil etilishi nutq buzilishining yetakchi mexanizmlarini aniqlash, bolaning saqlangan imkoniyatlarini belgilash va individual korreksion-logopedik dastur ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek, diagnostika natijalarini boshqa mutaxassislarning xulosalari bilan uyg‘unlashtirish rinolaliyali bolalarga ko‘rsatiladigan pedagogik va reabilitatsion yordam samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M.Y. Logopediya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Mo‘minova L., Ayupova M. Logopediya. — Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
3. Mo‘minova L. Bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Shomahmudova R., Mo‘minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Po‘latova P.M., Nurmuxamedova L.Sh., Yakubjonova D.B., Mamarajabova Z.N., Amirsaidova Sh.M., Sultonova A.D. Maxsus pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. — 368 b.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QIB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH: O'QITUVCHINING METAKOGNITIV YO'NALTIRUVCHI ROLI

Shamshiddinova Kamola Alisher qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2-bosqich "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" mutaxassisligi (BT) talabasi, Jizzax

Bugungi boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchini faqat matnni ravon o'qiy oladigan emas, balki o'qigan matnini anglaydigan, asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni farqlaydigan, xulosa chiqaradigan hamda o'zining tushunish darajasini nazorat qila oladigan faol kitobxonga aylantirishdir.

O'qish jarayonida o'quvchining "Men bu matnni tushundimmi?", "Bu savolga javob topish uchun matnning qaysi qismiga murojaat qilishim kerak?", "Mening oldingi taxminim to'g'rimi?" kabi savollarni o'ziga bera olishi metakognitiv faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biridir.

Education Endowment Foundation (EEF) metakognitsiyani o'quvchining "o'z fikrlashini anglash, unga nisbatan refleksiya qilish va uni yo'naltirish" qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Tashkilotning 2025-yilda yangilangan ma'lumotlariga ko'ra, metakognitsiya va o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan yondashuvlar o'rtacha hisobda bir yil davomida qo'shimcha 8 oylik akademik progress bilan bog'langan. Shu bilan birga, ushbu natija barcha alohida darslar yoki barcha o'quvchilar uchun bir xil natija kafolatini anglatmaydi [1; 2].

Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida metakognitiv strategiyalardan foydalanish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Metakognitsiya tushunchasi zamonaviy kognitiv psixologiyada o'quvchining o'z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari va ushbu jarayonlarni boshqarish faoliyatini ifodalash uchun qo'llanadi.

O'qish jarayonida metakognitiv faoliyatni shartli ravishda uch bosqichda ko'rish mumkin:
1. Rejalashtirish (planning) — o'quvchi matnni o'qishdan oldin maqsadni belgilaydi, mavjud bilimlarini faollashtiradi va matn bilan qanday ishlashini rejalashtiradi.
2. Monitoring (monitoring) — o'quvchi o'qish davomida matnni tushunayotgan-tushunmayotganini nazorat qiladi.
3. Baholash va refleksiya (evaluating) — o'quvchi o'qish yakunida o'z tushunishini, qo'llagan strategiyasini va natijasini baholaydi.

EEF tavsiyalarida ham metakognitiv strategiyalarni aynan rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bilan bog'liq holda o'rgatish ta'kidlanadi [2].

Demak, o'qish darsida metakognitsiya faqat "matnni o'qib berish" yoki "savollarga javob berish" bilan cheklanmaydi. Muhim jihat — o'quvchining matnni qanday tushunayotgani va tushunishini qanday nazorat qilayotganini anglashidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda quyidagi strategiyalar samarali pedagogik vosita sifatida qo'llanishi mumkin.

1. Oldindan taxmin qilish

O'qituvchi matn sarlavhasi yoki rasmlar asosida quyidagi kabi savollarni beradi: "Sizningcha, matn nima haqida?", "Bu voqea qanday davom etishi mumkin?", "Matnni o'qiganimizdan keyin qanday savollarga javob topamiz?"

Bu usul o'quvchining avvalgi bilimlarini faollashtirish va o'qish maqsadini belgilashga yordam beradi.

2. O'z-o'ziga savol berish

O'quvchi matnni o'qish jarayonida o'ziga savollar beradi: "Men bu qismni tushundimmi?", "Muallif nimani nazarda tutgan?", "Bu fikrga matndan qanday dalil topish mumkin?"

Bu strategiya o'quvchini passiv o'quvchidan faol matn tadqiqotchisiga aylantirishga xizmat qiladi.

3. Tushunishni monitoring qilish

O'quvchi matnni o'qiyotganda tushunmagan so'z yoki fikrini aniqlaydi. Masalan: "Bu so'zning ma'nosini bilmayapman → kontekstdan taxmin qilaman → boshqa gaplarni o'qiyman → taxminimni tekshiraman."

Bu oddiy ko'rinadigan jarayon aslida o'quvchining o'z kognitiv faoliyatini nazorat qilayotganini ko'rsatadi.

4. O'z fikrlashini izohlash — "Think aloud"

O'qituvchi matn bilan ishlash jarayonida o'z fikrlashini ovoz chiqarib modellashtiradi. Masalan: "Men bu sarlavhani o'qidim. Menda bir taxmin paydo bo'ldi. Endi matnning birinchi qismini o'qib, taxminim to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshiraman."

Bu yerda o'qituvchi o'quvchiga tayyor javob bermaydi. Aksincha, javobga qanday fikrlash orqali kelish mumkinligini namoyish etadi.

EEF ham o'qituvchining o'z fikrlash jarayonini ovoz chiqarib modellashtirishini metakognitiv strategiyalarni o'rgatishning muhim usullaridan biri sifatida ko'rsatadi [2].

Metakognitiv strategiyalarning muvaffaqiyatli qo'llanishida o'qituvchining roli juda muhim.

2017-yilda European Journal of Psychology of Education jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakognitiv bilimlari va o'quvchilarning metakognitiv bilimlari o'rtasidagi munosabat o'rganilgan. Natijalar o'qituvchilarning o'qish strategiyalari haqidagi metakognitiv bilimlari o'quvchilarning metakognitiv bilimlari bilan sezilarli bog'liqligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, o'qituvchi metakognitiv bilimlari bilan o'quvchilarning bevosita o'qish natijasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanmagan [5].

Bu natija juda muhim metodologik xulosaga olib keladi: o'qituvchining strategiyani bilishi yetarli emas; uni o'quv jarayonida qanday modellashtirishi va o'quvchiga qanday o'rgatishi ham muhim.

Shuning uchun o'qituvchi: strategiyani nomlashi; nima uchun undan foydalanilishini tushuntirishi; strategiyani amalda modellashtirishi; o'quvchiga strategiyani qo'llash imkonini berishi; o'quvchini o'z faoliyatini baholashga undashi kerak.

EEF ham metakognitiv strategiyalarni umumiy "fikrlash darsi" sifatida emas, balki aniq fan mazmuni bilan birgalikda o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi [1].

Metakognitiv strategiyalarning o'qish jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatadigan empirik tadqiqotlar mavjud.

Masalan, Teng tomonidan olib borilgan tadqiqotda 25 nafar 5-sinf o'quvchisi ishtirok etgan va metakognitiv o'qish strategiyalariga yo'naltirilgan 10 ta dars jarayoni o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida o'quvchilarning o'qish jarayoni haqidagi metakognitiv xabardorligi oshgani va nazorat guruhiga nisbatan o'qish natijalarida yaxshilanish kuzatilgani qayd etilgan [3].

Biroq ushbu tadqiqot kichik tanlanma va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'quvchilar bilan bog'liq ekanini hisobga olish lozim. Shuning uchun uning natijalarini barcha boshlang'ich sinflarga to'g'ridan-to'g'ri umumlashtirish ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi.

Shuningdek, boshlang'ich sinflarda o'qish bo'yicha olib borilgan boshqa tadqiqotlarda metakognitiv strategiyalarni aniq o'rgatish o'quvchilarning strategiyalardan xabardorligi va matnni tushunish ko'rsatkichlari bilan ijobiy bog'langan [4].

Yaqinda e'lon qilingan sistematik sharhlardan birida 2020–2025-yillarda boshlang'ich maktablarda metakognitiv yondashuv va o'qish ko'nikmalariga oid tadqiqotlar tahlil qilingan. Mualliflar rejalashtirish, monitoring va baholashga asoslangan yondashuvlar o'qish ko'nikmalari hamda o'quvchining mustaqil o'rganuvchi sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etgan [6].

Ilmiy tahlil asosida quyidagi xulosalar ilgari suriladi: birinchidan, ota-ona va o‘qituvchi bolaning rivojlanishi uchun umumiy mas’uliyatni baham ko‘ruvchi pedagogik sheriklar sifatida faoliyat yuritishi kerak; ikkinchidan, Epsteinning olti yo‘nalishli hamkorlik modeli boshlang‘ich ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmuni bilan integratsiyalash uchun qulay nazariy asosdir; uchinchidan, hamkorlik diagnostika, maqsad belgilash, faoliyat, monitoring va refleksiya bosqichlaridan iborat uzluksiz sikl sifatida tashkil etilishi lozim; to‘rtinchidan, raqamli kommunikatsiya tezkorlikni oshirishi mumkin, ammo professional etikani almashtirmaydi; beshinchidan, hamkorlik samaradorligi o‘quvchi o‘zlashtirishi bilan bir qatorda uning mustaqilligi, mas’uliyati, ijtimoiy xulqi, axloqiy qaror qabul qilishi va ota-onalar ishtiroki kabi ko‘rsatkichlar orqali kompleks baholanishi kerak.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti — maktab va oilani alohida tarbiyaviy tizimlar sifatida emas, balki bola manfaatlari atrofida birlashgan yagona pedagogik hamkorlik tizimi sifatida tashkil etishdir.

ADABIYOTLAR

1. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. — Boulder, CO: Westview Press, 2001. — 320 p.
2. Epstein J. L., Sanders M. G., Simon B. S., Salinas K. C., Jansorn N. R., Van Voorhis F. L. School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action. 2nd ed. — Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2002.
3. Epstein J. L. Introduction to the special section: New directions for school, family, and community partnerships in middle and high schools // NASSP Bulletin. — 2001. — Vol. 85, No. 627. — P. 3–6. — DOI: 10.1177/019263650108562701.
4. Epstein J. L., Dauber S. L. School Programs and Teacher Practices of Parent Involvement in Inner-City Elementary and Middle Schools. — Baltimore: Johns Hopkins University, Center on Families, Communities, Schools and Children’s Learning, 1991.
5. Henderson A. T., Mapp K. L. A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. — Austin, TX: Southwest Educational Development Laboratory, 2002.
6. Hiatt-Michael D. B., ed. Promising Practices for Family Involvement in Schools. — Greenwich, CT: Information Age Publishing, 2001.

7. Jeynes W. H. The relationship between parental involvement and urban secondary school student academic achievement: A meta-analysis // Urban Education. — 2007. — Vol. 42, No. 1. — P. 82–110.
8. Richardson D., Olsson E., Richardson F. Family and Child Policies That Promote Early Learning and Well-Being. — Paris: UNESCO, 2026.
9. Sheldon S. B., Epstein J. L. Involvement counts: Family and community partnerships and mathematics achievement // The Journal of Educational Research. — 2005. — Vol. 98, No. 4. — P. 196–206.
10. UNESCO International Bureau of Education. Reaching Out to All Learners: A Resource Pack for Supporting Inclusion and Equity in Education. — Geneva: UNESCO-IBE, 2021.

O‘ZBEK TILIDA NUTQIY MULOQOTNING PSIXOLINGVISTIK MEXANIZMLARI

Bobomurodova G.O.
Buxoro davlat tibbiyot instituti o`qituvchisi

Nutqiy muloqot insonning fikr, hissiyot, maqsad va munosabatlarini til vositasida boshqa kishiga yetkazish jarayonidir. U tayyor gaplarni mexanik ravishda takrorlashdan iborat emas. So‘zlovchi vaziyatni baholaydi, kommunikativ maqsadni belgilaydi, mazmunni rejalashtiradi, tegishli so‘z va grammatik shakllarni tanlaydi, tinglovchi esa eshitilgan signalni ajratadi, uni til birliklari bilan bog‘laydi va kontekst asosida mazmunni tiklaydi. Shu sababli muloqot lingvistik hodisa bo‘lish bilan birga murakkab psixik faoliyat hamdir.

Psixolingvistika til birliklarining tuzilishinigina emas, balki inson ongida nutq qanday yuzaga kelishi, qay tarzda qabul qilinishi va tushunilishini o‘rganadi. Mazkur yo‘nalishda L. S. Vygotskiy fikr va so‘z munosabatini, A. A. Leontyev nutqiy faoliyatning motiv va maqsad bilan boshqarilishini, W. Levelt esa nutq hosil qilishning konseptuallashtirish, shakllantirish va artikulyatsiya bosqichlarini izohlagan [1–3]. Ushbu yondashuvlar o‘zbek tilidagi muloqotni tadqiq etishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqiy faoliyatning boshlang‘ich nuqtasi ehtiyoj va motivdir. Inson muayyan axborotni bildirish, savol berish, ishontirish, iltimos qilish, munosabat o‘rnatish yoki hissiy holatini ifodalash zaruratini sezadi. Motiv hali tayyor jumla emas; u umumiy kommunikativ yo‘nalishni belgilaydi. Keyingi bosqichda kommunikativ niyat shakllanadi: so‘zlovchi kimga, nima haqida, nima maqsadda va qanday ohangda murojaat qilishini ongli yoki avtomatik tarzda aniqlaydi. Masalan, bir mazmun tengdoshga “Derazani yopib qo‘y” shaklida, katta yoshli kishiga esa “Iltimos, derazani yopib qo‘ysangiz” tarzida ifodalanishi mumkin. Mazmun o‘xshash bo‘lsa-da, ijtimoiy masofa va hurmat darajasi til vositalari tanlovini o‘zgartiradi.

Konseptuallashtirish bosqichida aytiladigan fikrning mazmuniy modeli tuziladi. So‘zlovchi voqeaning asosiy ishtirokchilari, vaqt, sabab, natija va baholash munosabatlarini ajratadi. Bu model ko‘pincha so‘zsiz, umumlashgan fikr ko‘rinishida bo‘ladi. Ichki nutq ana shu mazmunni lisoniy shaklga o‘tkazuvchi oraliq mexanizm hisoblanadi. Vygotskiyga ko‘ra, ichki nutq qisqargan, predikativ va shaxsiy mazmunga boy bo‘ladi; tashqi nutqqa aylanishda esa tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun kengayadi [1]. Demak, muvaffaqiyatli muloqot ichki mazmunni umumiy til kodiga yetarlicha aniq ko‘chirishni talab qiladi.

Nutqiy faoliyat faqat ongli nazorat ostida kechmaydi. Kundalik salomlashuv, ko‘p qo‘llanadigan birikmalar, grammatik qo‘shimchalar va talaffuz harakatlari ko‘pincha avtomatlashgan. Biroq yangi mavzu, murakkab ilmiy tushuncha, ziddiyatli vaziyat yoki ikkinchi tilda so‘zlash jarayonida nazorat kuchayadi. Ishchi xotira aytilayotgan fikr qismlarini ushlab turadi, diqqat zarur birlikni tanlaydi, uzoq muddatli xotira esa so‘zlar, grammatik qoliplar va avvalgi tajribani faollashtiradi [4].

Nutq hosil qilish bir-biriga bog‘langan bir necha amaliy bosqichdan iborat. Avvalo so‘zlovchi mazmunni rejalashtiradi. So‘ng mental lug‘atdan kerakli leksemalarni topadi, ularning grammatik shakllarini belgilaydi va gap tuzilishiga joylashtiradi. Keyin fonologik dastur tuzilib, tovushlar ketma-ketligi artikulyatsiya organlari orqali amalga oshiriladi. So‘zlovchi ayni paytda

o‘z nutqini eshitib nazorat qiladi; xato yoki noaniqlik sezilsa, uni takrorlash, izohlash yoki boshqa so‘z bilan almashtirish orqali tuzatadi [3].

Leksik tanlovda faollashuv va raqobat mexanizmi ishlaydi. Ma’lum tushuncha bilan bog‘liq bir necha so‘z ongda faollashadi, ammo vaziyatga eng mos birlik tanlanadi. Masalan, “gapirmoq”, “so‘zlamoq”, “aytmoq”, “bayon qilmoq” fe’llari yaqin ma’noli bo‘lsa ham, ularning uslubiy va birikuv imkoniyatlari farqlanadi. Ilmiy matnda “natijalarni bayon qilmoq”, kundalik muloqotda “gapirib bermoq” shakli tabiiyroq tuyuladi. So‘z topishda yuzaga keladigan vaqtinchalik qiyinchilik, to‘xtalish yoki “til uchida” holati mental lug‘atda kerakli birlik faollashgani, ammo uning fonologik shakli to‘liq tiklanmaganini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining agglutinativ xususiyati nutq hosil qilishda asos va qo‘shimchalarni izchil birlashtirishni talab etadi. “Bormaganlaringizdanmisiz?” shaklida bir asosga inkor, sifatdosh, egalik, chiqish kelishigi, so‘roq va boshqa grammatik ma’nolar ketma-ket yuklanadi. So‘zlovchi har bir morfemani alohida qidirib chiqmaydi; ko‘p uchraydigan modellar yaxlit sxema sifatida xotirada mustahkamlanadi. Shunga qaramay, murakkab shakllar bolalar nutqida, chet elliklarning o‘zbekcha nutqida yoki tez gapirishda qo‘shimcha almashishi va tushirib qoldirilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilida gap bo‘laklarining odatiy tartibi ega–to‘ldiruvchi–kesim ko‘rinishida bo‘lsa-da, kommunikativ maqsadga qarab tartib o‘zgaradi. “Men kitobni kecha oldim” va “Kitobni men kecha oldim” gaplari bir voqeani ifodalasa ham, mantiqiy urg‘u turlicha. So‘z tartibi, ohang va pauza ma’lum axborot bilan yangi axborotni ajratishga yordam beradi. Shu bois sintaktik rejalashtirish grammatik to‘g‘rilik bilangina cheklanmay, tinglovchi diqqatini boshqarish vazifasini ham bajaradi.

Tinglovchi nutqiy signalni passiv qabul qilmaydi. U tovush oqimini segmentlarga ajratadi, fonemalarni farqlaydi, so‘zlarni taniydi, grammatik aloqalarni tiklaydi va gapning umumiy mazmunini hosil qiladi. Og‘zaki nutqda so‘zlar orasida yozuvdagidek aniq chegaralar bo‘lmagani sababli segmentatsiya til tajribasi, urg‘u, ritm va ehtimoliy taxminlarga tayanadi. Nutq tezligi, shovqin, sheva xususiyatlari yoki notanish terminlar idrokni murakkablashtiradi.

Tushunish jarayonida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga yo‘nalgan qayta ishlash bir vaqtda ishlaydi. Birinchi yo‘nalishda tovush belgilaridan so‘z va gap ma’nosiga boriladi; ikkinchisida mavzu, vaziyat va oldingi bilimlar eshitilayotgan signalni taxmin qilishga yordam beradi [5]. Masalan, shifokor “qon bosimingiz...” deb boshlaganda bemor keyingi fikr o‘lchov, natija yoki tavsiyaga aloqador bo‘lishini kutadi. Bunday oldindan taxmin tez tushunishni ta’minlaydi, ammo noto‘g‘ri kutish ba’zan mazmunning yanglish talqin qilinishiga olib keladi.

Kontekst ko‘p ma’noli birlikni aniqlashtiradi. “Bosh”, “ko‘z”, “til”, “yo‘l” kabi so‘zlar turli vaziyatlarda asl yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. “Masalaning boshiga qaytamiz” jumlasidagi “bosh” tana a’zosi sifatida emas, boshlanish nuqtasi sifatida anglanadi. Tinglovchi bunday tanlovni lug‘aviy ma’no, grammatik bog‘lanish va nutq vaziyatini birlashtirish orqali amalga oshiradi. Kontekst yetishmasa, aniqlashtiruvchi savol berish muloqotdagi xatoni kamaytiruvchi metakommunikativ mexanizmga aylanadi.

Nutqni tushunish faqat so‘zlarning lug‘aviy mazmunini yig‘ish emas. Tinglovchi so‘zlovchining maqsadi va nazarda tutilgan tagma’noni ham aniqlaydi. “Bu yer biroz sovuq ekan” gapi oddiy kuzatuv, norozilik yoki derazani yopish haqidagi bilvosita iltimos bo‘lishi mumkin. Talqin vaziyat, ohang, ishtirokchilar munosabati va umumiy bilimga bog‘liq. Grice tomonidan tavsiflangan hamkorlik tamoyili tinglovchining nima uchun aynan shu gap aytilganini izlashini tushuntiradi [6].

O‘zbek muloqot madaniyatida suhbatdoshning yoshi, maqomi, qarindoshlik darajasi va o‘zaro yaqinligi nutq shakliga sezilarli ta’sir qiladi. “Sen” va “siz” olmoshlari, ismga “aka”, “opa”, “domla”, “ustoz” kabi birliklarni qo‘shish, ko‘plik yoki hurmat shakllaridan foydalanish ijtimoiy munosabatni kodlaydi. “Keling”, “o‘tiring”, “marhamat” singari shakllar mazmuniy axborot bilan birga hurmat, masofa va iliqlikni ham bildiradi. So‘zlovchi ushbu vositalarni avtomatik tanlaydi, biroq noto‘g‘ri tanlov grammatik xato bo‘lmasa ham, pragmatik noqulaylik tug‘dirishi mumkin.

Bilvosita ifoda o‘zbek nutqida muhim o‘rin tutadi. Keskin rad javobi o‘rniga “bir o‘ylab ko‘raylik”, “imkon bo‘lsa”, “hozir biroz qiyinroq” kabi yumshatuvchi konstruksiyalar qo‘llanadi. Ular suhbatdoshning ijtimoiy qadrini saqlash, ziddiyatni kamaytirish va hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bunday iboralarni tushunish uchun til bilimi yetarli emas; madaniy ssenariylar va vaziyatga mos xulq me’yorlarini ham bilish zarur.

Og‘zaki muloqotda noverbal belgilar — yuz ifodasi, nigoh, imo-ishora, tana holati, masofa, ovoz balandligi va tembr — verbal axborotni to‘ldiradi. “Mayli” so‘zi sokin ohangda roziliknі, cho‘zib yoki keskin aytilganda norozilik yoxud majburiy rozi bo‘lishni anglatishi mumkin. Psixolingvistik tizim bu kanallardan kelgan axborotni birlashtirib, yaxlit kommunikativ ma’no yaratadi. Yozma va raqamli muloqotda ohangning yo‘qligi tinish belgilari, emoji, takroriy harflar va matnning tuzilishi bilan qisman qoplanadi.

Muloqotning muvaffaqiyati umumiy bilimlar fondiga ham bog‘liq. Maqol, ibora va milliy-madaniy obrazlar suhbatdoshlar uchun umumiy bo‘lsa, qisqa ifoda keng mazmunni anglatadi. “Yetti o‘lchab, bir kes” birikmasi ehtiyotkor qaror qabul qilishni ifodalaydi. Biroq bunday birliklar o‘zbek madaniy kontekstini yetarlicha bilmaydigan kishi uchun so‘zma-so‘z talqin qilinishi mumkin. Demak, kommunikativ kompetensiya grammatika va lug‘atdan tashqari madaniy-pragmatik bilimni ham o‘z ichiga oladi [7].

O‘zbekistonning ko‘p tilli muhitida o‘zbekcha muloqot ko‘pincha rus, tojik, qoraqalpoq, ingliz va boshqa tillar bilan aloqada rivojlanadi. Ikki yoki ko‘p tilli shaxs nutq jarayonida bir nechta til tizimini faollashtiradi. Kerakli tilni tanlash va boshqa til birliklarini vaqtincha bostirish ijro nazorati bilan bog‘liq. Kod almashinuvi har doim tilni yaxshi bilmaslik belgisi emas; u mavzuni aniqlashtirish, guruhga mansublikni bildirish, terminni aniq berish yoki hissiy ta’sirni kuchaytirish vazifasini bajarishi mumkin [8].

Biroq nazoratsiz aralashuv me’yoriy nutq va tinglovchi uchun tushunarlilikka salbiy ta’sir qilishi ehtimoli mavjud. Ta’lim jarayonida o‘quvchining ko‘p tilli tajribasini inkor etmasdan, qaysi vaziyatda adabiy o‘zbek tili, qaysi vaziyatda boshqa til yoki kasbiy termin zarurligini ongli tanlash ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu metalingvistik ongni, ya’ni shaxsning o‘z nutq birliklari va ularning vazifasini kuzata olish qobiliyatini kuchaytiradi.

Raqamli muloqot nutqni rejalashtirish va idrok qilish sur’atini o‘zgartirdi. Qisqa xabarlar, ovozli yozuvlar, izohlar va ijtimoiy tarmoq yozishmalarida og‘zaki hamda yozma nutq belgilarining yaqinlashuvi kuzatiladi. Qisqartmalar, lotin va kirill yozuvining almashishi, emoji hamda multimodal belgilar yangi kommunikativ strategiyalarni yuzaga keltirmoqda. Bunday muhitda tezkorlik oshsa-da, kontekst yetishmasligi va ohangning noaniqligi tushunmovchilik xavfini kuchaytiradi. Shuning uchun raqamli savodxonlik matnning adresati, maqsadi va rasmiylik darajasiga mos til tanlashni ham qamrab olishi lozim.

Psixolingvistik yondashuv ona tili ta’limida qoidani yodlashdan ko‘ra nutqiy vazifani bajarishga e’tibor qaratishni talab qiladi. O‘quvchi fikrni rejalashtirish, asosiy va ikkinchi darajali axborotni ajratish, adresatga mos so‘z tanlash, o‘z nutqini nazorat qilish va qayta tahrirlashni mashq qilishi kerak. Dialog, rolli vaziyat, hikoyani qayta tuzish, muammoli savol, tinglab tushunish va refleksiv tahrir topshiriqlari ushbu mexanizmlarni faollashtiradi.

Kasbiy muloqotda, ayniqsa tibbiyot, ta’lim, huquq va xizmat ko‘rsatish sohalarida, mutaxassisning murakkab axborotni adresat bilimiga mos shaklda yetkazishi muhim. Terminlarni oddiy tilda izohlash, tushunganini qayta so‘rash, faol tinglash, qisqa pauza va aniqlashtiruvchi savollardan foydalanish kommunikativ xatoni kamaytiradi. Samarali muloqotning mezoni faqat xabarning aytilgani emas, balki suhbatdosh uni ko‘zlangan ma’noda tushunganidir.

Nutqiy qiyinchiliklarni baholashda ham mexanizmlarni farqlash zarur. So‘z topish muammosi lug‘aviy kirish bilan, tovushlarni buzish artikulyatsiya bilan, mazmunni ketma-ket bayon qila olmaslik rejalashtirish yoki ishchi xotira bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunga muvofiq pedagog, logoped yoki psixolog umumiy “nutqi sust” bahosidan ko‘ra qaysi bosqichda qiyinchilik yuz berayotganini aniqlashi lozim.

O‘zbek tilida nutqiy muloqot motiv va kommunikativ niyatning shakllanishidan boshlanib, mazmunni rejalashtirish, leksik-grammatik kodlash, fonologik dasturlash, artikulyatsiya, eshitib

nazorat qilish, signalni idrok etish va pragmatik talqin bosqichlari orqali amalga oshadi. Ushbu jarayonlarda tafakkur, diqqat, xotira, emotsiya va ijtimoiy tajriba yagona funksional tizim sifatida qatnashadi.

O‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi, so‘z tartibining kommunikativ imkoniyatlari, hurmat va murojaat shakllari, bilvosita ifoda hamda milliy-madaniy kontekst nutq hosil qilish va tushunish mexanizmlariga o‘ziga xos tus beradi. Ikki tillilik va raqamli muloqot esa til tanlovi, kod almashinuvi va mazmunni talqin qilish bilan bog‘liq yangi vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Kelgusida tabiiy muloqot yozuvlari, eksperimental topshiriqlar, ko‘z harakatini kuzatish va reaksiya vaqtini o‘lchash usullari asosida o‘zbek nutqining psixolingvistik korpusini yaratish muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L. S. Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
2. Leontiev A. A. Osnovy psixolingvistiki. Moskva: Smysl, 1997.
3. Levelt W. J. M. Speaking: From Intention to Articulation. Cambridge, MA: MIT Press, 1989.
4. Baddeley A. Working memory: theories, models, and controversies. Annual Review of Psychology. 2012;63:1–29. doi:10.1146/annurev-psych-120710-100422.
5. Gaskell M. G. (ed.). The Oxford Handbook of Psycholinguistics. Oxford: Oxford University Press, 2007.
6. Grice H. P. Logic and conversation. In: Cole P., Morgan J. L. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3. New York: Academic Press, 1975. P. 41–58.
7. Hymes D. On communicative competence. In: Pride J. B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269–293.
8. Kroll J. F., Bialystok E. Understanding the consequences of bilingualism for language processing and cognition. Journal of Cognitive Psychology. 2013;25(5):497–514. doi:10.1080/20445911.2013.799170.
9. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2012.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

QO‘SHIMCHA TA’LIM SHAROITIDA MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Shorustamboyeva Shaxnoza Ulug’bekovna

Buxoro Xalqaro Universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Bolaning maktabga kirishi uning hayot tarzida keskin burilish yasaydigan davrlardan biridir. Kechagina o‘yin faoliyatida erkinroq bo‘lgan bola endi ma’lum tartibga rioya qilishi, o‘qituvchining umumiy ko‘rsatmasini tinglashi, vazifani belgilangan muddatda bajarishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va o‘z harakatini nazorat qila olishi kerak bo‘ladi. Shu sababli maktabga tayyorlashni “harf tanish” yoki “20 gacha sanash” darajasida tushunish amaliy jihatdan juda tor yondashuvdir. Psixologik nuqtai nazardan tayyorgarlik – bu bolaning yangi faoliyat sharoitiga kirishish imkonini beruvchi o‘zaro bog‘liq sifatlar tizimidir [1; 2].

Bugungi qo‘shimcha ta’lim markazlari, rivojlantiruvchi studiyalar va qisqa muddatli tayyorlov guruhlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim qo‘llab-quvvatlovchi muhitga aylanib bormoqda. Ularning kuchli tomoni – dastur va mashg‘ulotlarni bola ehtiyojiga moslashtirish, kichik guruhlarda ishlash, ota-ona bilan tezkor aloqani yo‘lga qo‘yish hamda an’anaviy darsdan ko‘ra faolroq usullarni qo‘llash imkoniyatidir. Ammo bu imkoniyatlar tartibsiz ishlatilsa, qo‘shimcha ta’lim maktabning soddalashtirilgan nusxasiga aylanib qolishi mumkin: ko‘p varaq, ko‘p yozuv, ko‘p takrorlash, lekin kam harakat, kam muloqot va kam mustaqillik. Mazkur qarama-qarshilik jarayonni takomillashtiruvchi aniq mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Maktabga tayyorgarlikning psixologik mazmuni

Maktabga tayyorgarlikni bir nechta o‘zaro bog‘langan yo‘nalishda ko‘rish maqsadga muvofiq. Birinchisi – bilish tayyorgarligi. Bunda bola tayyor javobni eslab qolishdan ko‘ra, savol

berishi, taqqoslashi, sabab va natijani ajratishi, oddiy muammoni yechish usulini izlashga qiziqishi muhim. Rivojlanish psixologiyasida bolaning yaqin rivojlanish zonasi va kattalar bilan hamkorlikda bajarilgan vazifaning keyinchalik mustaqil faoliyatga aylanishi alohida ta'kidlanadi [1]. Shu nuqtai nazardan, qo'shimcha ta'limdagi topshiriq "bola buni hozir yolg'iz bajara oladimi?" degan savol bilan emas, "qanday yordam bilan bajara oladi va bu yordamni asta-sekin qanday kamaytiramiz?" degan savol bilan qurilishi kerak.

Ikkinchi yo'nalish – motivatsion tayyorgarlik. Maktab haqidagi tashqi jozibador tasavvur – yangi sumka, forma yoki baho – bolaning barqaror o'quv motivatsiyasini kafolatlamaydi. Bolada bilishga ehtiyoj, vazifani uddalashdan qoniqish, savolning javobini topishga qiziqish shakllana boshlaganda o'qish ichki mazmun kasb etadi. L.I. Bojovich maktabga tayyorgarlikda bolaning yangi ijtimoiy mavqega munosabati va motivlar tizimini muhim omil sifatida ko'rsatgan [2]. Demak, qo'shimcha ta'limda har bir topshiriq "to'g'ri javob" bilan tugamasligi, bola nimani kashf qilgani va qanday yo'l bilan yechim topganini anglashiga imkon berishi lozim.

Uchinchi yo'nalish – ixtiyoriy xulq va o'zini boshqarish. Maktabda bola istagan paytda faoliyatni almashtira olmaydi. U qoidaga amal qiladi, ko'rsatmani eslab qoladi, o'z navbatini kutadi, ba'zan yoqimsizroq vazifani ham yakunlaydi. D.B. Elkonin maktabgacha yoshda o'yin orqali qoidalarga bo'ysunish va ijtimoiy rolni egallash mexanizmlarini izohlagan [3]. Shu sababli qo'shimcha ta'limda ixtiyoriylikni faqat "jim o'tirish" bilan o'lchash xato. Asl ko'rsatkich – bolaning harakatini maqsad va qoida asosida boshqara olishi.

To'rtinchi yo'nalish – ijtimoiy-emotsional va ma'naviy-axloqiy tayyorgarlik. Maktabda bilim o'zlashtirish tengdoshlar va kattalar bilan munosabat ichida kechadi. Bola o'z fikrini bildirish, boshqani tinglash, kelishmovchilikda agressiyaga berilmaslik, yordam so'rash, yordam taklif qilish, xatosini tan olish kabi oddiy, lekin kundalik hayot uchun muhim ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bu jihat konferensiyaning ta'lim, psixologiya, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq umumiy g'oyasiga ham bevosita mos keladi: ijtimoiy barqarorlikning boshlang'ich zaminlari bolalikdagi hamkorlik, hurmat va mas'uliyat tajribasida shakllanadi.

Jarayonni takomillashtirishning asosiy mexanizmlari

Birinchi mexanizm – kirish diagnostikasini "saralash" emas, pedagogik yo'nalish belgilash vositasiga aylantirish. Amaliyotda ba'zan dastlabki tekshiruv bolaning nechta harfni bilishi yoki nechagacha sanashi bilan cheklanadi. Bunday o'lchov uning diqqatni ushlab turishi, ko'rsatmani tushunishi, nutqiy ifodasi, mayda motorikasi, o'zini boshqarishi va muloqot xususiyatlarini ko'rsatmaydi. Shuning uchun qisqa diagnostik blok kamida besh yo'nalishni qamrab olishi maqsadga muvofiq: bilish jarayonlari, nutq, motorika, ixtiyoriylik va ijtimoiy-emotsional xulq. Natija "kuchli–zaif bola" degan hukm emas, balki keyingi ish uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi kerak.

Ikkinchi mexanizm – individual rivojlanish xaritasi. Qo'shimcha ta'limning ustunligi aynan moslashuvchanlikda. Bir bola mantiqiy topshiriqlarni tez bajaradi, lekin guruh oldida gapirishdan tortinadi; boshqasi juda faol muloqot qiladi, ammo ko'rsatmaning ikkinchi qismini unutib qo'yadi; uchinchi bola chiroyli yozadi, lekin xato qilsa vazifadan voz kechadi. Ularning uchalasiga bir xil "ko'proq yozish" topshirig'ini berish rivojlantiruvchi emas. Individual xaritada 2–3 ta ustuvor vazifa belgilanib, oy davomida aynan shu ko'nikmalarning dinamikasi kuzatilsa, pedagogning harakati ancha maqsadli bo'ladi.

Uchinchi mexanizm – mashg'ulotni faoliyat bloklari asosida qurish. Maktabgacha yoshdagi bola uchun uzoq muddat bir xil holatda bajariladigan vazifa tabiiy emas. Shuning uchun 45–60 daqiqalik mashg'ulotni "kichik darslar"ga bo'lishdan ko'ra, faoliyat ritmini almashtirib turish samaraliroq: 7–10 daqiqa muloqot va muammoli savol, 10 daqiqa stol ustidagi topshiriq, 5 daqiqa harakatli mashq, 10 daqiqa juftlik yoki guruh ishi, yakunda qisqa refleksiya. A.N. Leontyevning faoliyat yondashuvi va V.V. Davydovning rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilimni bolaning faol harakati bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi [6; 7].

Oddiy pedagogik vaziyatni olaylik. Pedagog bolalarga rangli geometrik shakllarni tarqatib, "uycha yasang" desa, bu topshiriq tezda nusxa ko'chirishga aylanishi mumkin. Agar vazifa "uch kishilik oilaga ikki xonali uycha yasang, deraza va eshik qayerda bo'lishini kelishib oling"

shaklida berilsa, bir topshiriqning o‘zida tasavvur, sanash, fazoviy fikrlash, muloqot va kelishuv ishlaydi. Yakunda “nima uchun bunday qildingiz?” degan savol bolaning o‘z harakatini tushuntirish qobiliyatini faollashtiradi. Bunday mikroloyihalar qo‘shimcha ta’limning tabiiy ustunligidan foydalanadi.

To‘rtinchi mexanizm – xatoga munosabatni o‘zgartirish. Maktabga tayyorlovda ayrim bolalar “xato qilmaslik”ka o‘rganib qoladi. Natijada ular yangi va qiyin vazifadan qochishi mumkin. Pedagog xatoni jazoga sabab emas, fikrlash jarayonining qismi sifatida ko‘rsata olsa, bolada bilishga nisbatan xavfsiz munosabat shakllanadi. “Noto‘g‘ri” deyish o‘rniga “qaysi joyda boshqacha bo‘lib qoldi?”, “yana bir usulni sinab ko‘ramizmi?” kabi savollar bolaning o‘z xatosini ko‘rishi va tuzatishiga yordam beradi. Bu yondashuv ixtiyoriylik va o‘zini nazorat qilishni ham rivojlantiradi.

Beshinchi mexanizm – ijtimoiy-emotsional tayyorgarlikni alohida mashg‘ulot emas, barcha mashg‘ulotlarning tarkibiy qismi qilish. Navbat kutish, sherigining fikrini takrorlab berish, kelishmovchilikda ikki xil yechim taklif qilish, vazifani bo‘lib olish kabi kichik qoidalar muntazam qo‘llansa, bolalar guruh faoliyatini boshqarishni o‘rganadilar. Maktabga tayyor bola faqat “biladigan” bola emas; u bilganini yangi vaziyatda ishlata oladigan, boshqalar bilan birga ishlashga va o‘z hissiyotini boshqarishga qodir bola bo‘lishi kerak.

Oltinchi mexanizm – ota-onani “uyda ko‘proq mashq qildirish” vazifasi bilan cheklamaslik. Qo‘shimcha ta’limda ota-ona bilan hamkorlik ikki tomonlama axborot almashuviga tayanishi kerak. Pedagog boladagi rivojlanishni aniq kuzatuvlar orqali aytadi: masalan, “uch bosqichli ko‘rsatmadan ikki bosqichini mustaqil bajaryapti, uchinchi bosqichda eslatma kerak” yoki “guruhda savol berish faollashdi, lekin xato qilganda tez ranjiydi”. Bunday tilda ota-ona nimani qo‘llab-quvvatlash kerakligini tushunadi. “Yaxshi o‘qiyapti” yoki “e’tibori past” kabi umumiy baholar esa amaliy yo‘nalish bermaydi.

Yettinchi mexanizm – muntazam, lekin ortiqcha byurokratiyasiz monitoring. Har bir mashg‘ulotdan keyin uzun hisobot yozish shart emas. Pedagog uchun 5–7 ta asosiy indikator bo‘yicha qisqa belgilash yetarli bo‘lishi mumkin: ko‘rsatmani tushundi; vazifani boshladi; yordam so‘radi; vazifani yakunladi; xatoni tuzatdi; juftlikda ishladi; o‘z ishini izohladi. Oy yakunida aynan shu belgilar dinamikasi bola rivojlanishining ancha ishonchli manzarasini beradi. Bu pedagogik qarorni sezgi asosida emas, muntazam kuzatuv asosida qabul qilishga yordam beradi.

Qo‘shimcha ta’lim uchun integrativ model

Taklif etilayotgan mexanizmlarni besh bosqichli integrativ model ko‘rinishida ifodalash mumkin: 1) boshlang‘ich diagnostika; 2) individual rivojlanish maqsadlarini belgilash; 3) faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlar tizimi; 4) ota-ona va pedagog hamkorligi; 5) oraliq monitoring va maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish. Modelning muhim tomoni shundaki, u bolaning bir martalik natijasiga emas, rivojlanish dinamikasiga tayanadi. Shu sababli “kim yaxshi, kim yomon” degan solishtirishdan ko‘ra “kechagi holatiga nisbatan nimalar o‘zgardi?” degan savol markazga chiqadi.

Ushbu modelda pedagogning roli ham o‘zgaradi. U faqat bilim beruvchi emas, rivojlanish vaziyatini loyihalovchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, bola topshiriqni bajarmayotgan bo‘lsa, pedagog “u bilmaydi” degan xulosaga shoshilmaydi. Avval vazifaning murakkabligi, ko‘rsatmaning aniqligi, bolaning emotsional holati, guruhdagi munosabati va yordam turi tahlil qilinadi. Ba’zan bitta kichik o‘zgarish – vazifani ikki bosqichga bo‘lish, namunani olib tashlash yoki aksincha qisqa tayanch berish – bolaning faoliyatini sezilarli o‘zgartiradi. Qo‘shimcha ta’limda aynan shunday moslashtirish imkoniyati katta.

Takomillashtirishning yana bir muhim sharti – maktabga tayyorlashni “tezlashtirish” bilan adashtirmaslik. Maktab dasturidagi topshiriqlarni oldindan o‘rgatish qisqa muddatda yaxshi natija ko‘rsatishi mumkin, lekin bola yangi vaziyatda mustaqil fikrlashga tayyor bo‘lmasa, bu ustunlik tez yo‘qoladi. L.A. Venger va boshqa maktabgacha yosh psixologiyasi tadqiqotchilari bola rivojlanishida yoshga mos faoliyat, idrok va fikrlash usullarini shakllantirishning ahamiyatini ko‘rsatgan [4; 5]. Shuning uchun qo‘shimcha ta’lim “birinchi sinfni oldindan o‘qib qo‘yish” emas,

balki birinchi sinfda o‘qishni muvaffaqiyatli boshlash uchun zarur psixologik poydevorni yaratishi kerak.

Amaliy tavsiyalar

Qo‘shimcha ta’lim tashkilotida mazkur yondashuvni joriy etish uchun katta tashkiliy islohot shart emas. Avvalo mashg‘ulot maqsadlarini qayta ko‘rish yetarli: har bir mavzuda bilimiy maqsad bilan birga kamida bitta regulyativ va bitta ijtimoiy maqsad belgilanishi kerak. Masalan, “10 ichida qo‘shish” bilan birga “ko‘rsatmani oxirigacha tinglash” va “juftlikda javobni kelishish” maqsadi qo‘yiladi. Shu paytda bitta mashg‘ulot bola rivojlanishining bir nechta tomoniga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, pedagoglar uchun kuzatuv tili bir xil bo‘lishi kerak. “Dangasa”, “sho‘x”, “diqqatsiz” kabi shaxsga yopishib qoladigan yorliqlar o‘rniga kuzatiladigan xatti-harakat yoziladi: “topshiriqni 3 daqiqadan keyin tark etdi”, “ikki martadan keyin ko‘rsatmani qayta so‘radi”, “sherigining materialini ruxsatsiz oldi”. Bunday aniq tavsif vaziyatni o‘zgartirish imkonini beradi va ota-ona bilan muloqotni ham sog‘lomlashtiradi.

Uchinchidan, bolaga belgilangan chegarada kichik tanlov berish foydali. Masalan, vazifani ikki usuldan birida bajarish yoki guruh ishida rol tanlash mas’uliyatni his qilishga va o‘zini boshqarishga o‘rgatadi.

To‘rtinchidan, tayyorlov guruhidagi muvaffaqiyat mezoni faqat bajarilgan daftarlar soni bilan emas, bolaning mustaqilligi bilan o‘lchanishi kerak. Bola kamroq yordam so‘rasa, topshiriqni o‘zi rejalashtirsa, xatosini tuzatsa va tengdoshi bilan kelisha olsa, bu maktabga tayyorgarlikning muhim natijasidir. Pedagog ana shu o‘zgarishlarni ota-onaga sodda va aniq tilda ko‘rsatib borishi lozim.

Qo‘shimcha ta’lim sharoitida maktabga tayyorlashning samaradorligi bolaga qancha ko‘p ma’lumot berilganiga emas, uning yangi o‘quv vaziyatiga qanchalik puxta tayyorlanganiga bog‘liq. Jarayonni takomillashtirish uchun dastlabki diagnostika, individual rivojlanish maqsadlari, faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlar, ijtimoiy-emotsional va axloqiy ko‘nikmalar, ota-ona bilan hamkorlik hamda sodda monitoring bir-biridan ajralgan elementlar emas, yagona tizim sifatida ishlashi zarur. Bunday tizimda bola maktabga “oldindan dars o‘qigan” holatda emas, balki tinglay oladigan, savol beradigan, o‘zini boshqaradigan, hamkorlik qiladigan va yangi vazifadan qo‘rqmaydigan shaxs sifatida kirib boradi. Aynan shu jihat qo‘shimcha ta’limning maktabga tayyorlashdagi asosiy pedagogik va psixologik qiymatini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика-Пресс, 1999. – 536 с.
2. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – СПб.: Питер, 2008. – 400 с.
3. Эльконин Д.Б. Детская психология. – М.: Академия, 2007. – 384 с.
4. Венгер Л.А., Мухина В.С. Психология. – М.: Просвещение, 1988. – 336 с.
5. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: в 2 т. Т. 1. Психическое развитие ребенка. – М.: Педагогика, 1986. – 320 с.
6. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: ИНТОР, 1996. – 544 с.
7. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл; Академия, 2005. – 352 с.

MATEMATIK ANALIZ FANINI TASHKIL ETISHDA SUN’IY INTELLEKT (CHATGPT, GEMINI, CLAUDE) IMKONIYATLARI

Norqulova Gulibodom Oybek qizi
Buxoro xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt vositalarining ommalashuvi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ta’limiy muloqotning mazmuni hamda shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. UNESCO tomonidan e’lon qilingan tavsiyalarda generativ sun’iy intellekt ta’limda ijodiy foydalanish, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash

imkoniyatlariga ega ekanligi bilan birga, undan foydalanishda insonning faol roli, axloqiy tamoyillar va pedagogik maqsadga muvofiqlik saqlanishi zarurligi ta'kidlangan [1, b. 5–6].

Matematik analiz oliy matematikaning fundamental bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda limit, uzluksizlik, hosila, integral, qatorlar va funksiyalarning turli xossalari o‘rganiladi. Matematik analizni o‘zlashtirish talabadan nafaqat formulalarni bilishni, balki mantiqiy fikrlash, matematik bog‘lanishlarni ko‘rish va masalalarni mustaqil hal qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Masalan, hosila funksiyaning berilgan nuqtadagi o‘zgarish tezligi va grafikdagi urinmaning qiyaligi bilan bog‘liq bo‘lib, uning matematik ta’rifi limit orqali ifodalanadi [5, b. 232–233].

Shu jihatdan qaralganda, sun’iy intellektdan matematik analiz fanida foydalanish talabaning mavzuni o‘zlashtirishiga qo‘shimcha imkoniyat yaratishi mumkin. Biroq bunday foydalanish tayyor javobni olishga emas, balki matematik fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Matematik analiz va sun’iy intellektning integratsiyasi

Matematik analiz fanini o‘qitishda asosiy maqsad talabalarga tayyor formulalarni yodlatishdan iborat emas. Talaba matematik tushunchalarning mazmunini tushunishi, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashi va nazariy bilimlarni amaliy masalalarga tatbiq eta olishi zarur. Shu sababli zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda ham insonning mustaqil fikrlashi markaziy o‘rinda turishi kerak.

UNESCO generativ sun’iy intellektdan foydalanishda “inson faoliyatini himoya qilish” tamoyiliga alohida e’tibor beradi. Tashkilotning tavsiyalariga ko‘ra, generativ AI inson tafakkurini almashtirmasligi, aksincha uni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi kerak [1, b. 25–26].

Bu tamoyil matematik analizni o‘qitishda ayniqsa muhimdir. Masalan, talaba

$$\lim_{x \to 0} (\sin x)/x = 1$$

limitini o‘rganayotgan bo‘lsa, sun’iy intellektdan faqat javobni olish emas, balki ushbu limitning mazmunini, geometrik talqinini va undan qaysi hollarda foydalanilishini tushuntirishni so‘rashi mumkin. Bunda sun’iy intellekt o‘quv jarayonining yordamchi komponentiga aylanadi.

Matematik analizda hosila ham fundamental tushunchalardan biridir. OpenStax darsligida hosila funksiya qiymatining o‘zgarish tezligi bilan bog‘lanishi va hosila ta’rifining limit orqali berilishi ko‘rsatilgan [5, b. 232–233].

Masalan,

$$f(x) = x^2 \sin x$$

funksiyasining hosilasini topishda ko‘paytma hosilasi qoidasi qo‘llanadi:

$$f'(x) = 2x \sin x + x^2 \cos x.$$

Bunday misolda ChatGPT, Gemini yoki Claude talabaning yechim jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirish, qo‘llanilgan qoidalarni ko‘rsatish va shunga o‘xshash yangi masalalar tuzishda yordam berishi mumkin.

ChatGPT imkoniyatlaridan foydalanish

ChatGPT kabi generativ sun’iy intellekt tizimlari tabiiy tilda berilgan savollarga javob ishlab chiqishga mo‘ljallangan. OpenAI tomonidan taqdim etilgan GPT-4 texnik hisobotida mazkur model matn va tasvir ma’lumotlarini qabul qila oladigan multimodal model sifatida tavsiflangan [2, b. 1].

Matematik analiz fanida ChatGPTdan bir nechta yo‘nalishda foydalanish mumkin. Birinchidan, u murakkab matematik tushunchalarni sodda tilda izohlashga yordam beradi. Ikkinchidan, talabaning o‘z yechimini tahlil qilishda qo‘shimcha vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Uchinchidan, o‘qituvchi uchun amaliy mashg‘ulot, mustaqil ish yoki nazorat topshiriqlarini shakllantirishda yordamchi vosita bo‘la oladi.

Masalan, o‘qituvchi ChatGPT yordamida “Limit mavzusidan boshlang‘ich darajadagi beshta, o‘rta darajadagi beshta va yuqori darajadagi beshta masala tuz” mazmunidagi topshiriq berishi mumkin. Natijada turli tayyorgarlik darajasiga ega talabalar uchun differensial topshiriqlar shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Talaba esa o‘z yechimini sun’iy intellektga kiritib, “Mening yechimimdagi xatoni aniqlang, lekin tayyor javobni bermang” deb murojaat qilishi

mumkin. Bu usul tayyor javobni ko‘chirishdan ko‘ra talabaning xatosini mustaqil anglashiga ko‘proq yordam beradi.

Biroq GPT-4 texnik hisobotining o‘zida ham modelning imkoniyatlari cheklanganligi va u barcha real vaziyatlarda inson darajasidagi ishonchlilikni ta’minlamasligi qayd etilgan [2, b. 1]. Shu sababli matematik masalalarda sun’iy intellekt javobini darslik, formula va mustaqil hisoblash orqali tekshirish zarur.

Gemini imkoniyatlaridan foydalanish

Gemini — Google tomonidan ishlab chiqilgan multimodal sun’iy intellekt modellari oilasi bo‘lib, uning imkoniyatlari matn, tasvir va boshqa turdagi ma’lumotlarni qayta ishlashga yo‘naltirilgan. Gemini texnik hisobotida model oilasining multimodal vazifalarni bajarishga mo‘ljallanganligi hamda matematika va boshqa akademik yo‘nalishlardagi ko‘rsatkichlari baholangani keltirilgan [3, b. 1–2].

Matematik analiz fanida Gemini yordamida mavzu bo‘yicha qisqa konspekt yaratish, matematik masalalarni tushuntirish, turli murakkablikdagi mashqlar tuzish va o‘quv materialini boshqa shaklda izohlash mumkin.

Masalan, aniq integral mavzusini o‘rganishda talaba

$\int_a^b f(x)dx$

ifodasining mazmunini so‘rashi mumkin. OpenStax darsligida aniq integral egri chiziq ostidagi yuzani umumlashtiruvchi tushuncha sifatida izohlangan va uning Riman yig‘indisi orqali ta’rifi berilgan [6, b. 529–530]. Shu nazariy ma’lumot asosida Gemini yordamida talaba aniq integralning geometrik ma’nosini sodda misollar orqali qayta tushuntirishni so‘rashi mumkin. Bu esa mavzuning abstrakt mazmunini amaliy tasavvur bilan bog‘lashga yordam beradi. Bundan tashqari, Gemini yordamida bir xil mavzuni turli darajada tushuntirish mumkin. Masalan, “aniq integralni boshlang‘ich darajada tushuntir”, “uni universitet talabasi uchun matematik terminlar bilan izohla” yoki “aniq integralning geometrik mazmunini misol yordamida tushuntir” kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Claude imkoniyatlaridan foydalanish

Claude — Anthropic kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan generativ sun’iy intellekt modellaridan biridir. Claude 3 texnik materialida model oilasining matematika, mantiqiy fikrlash, kodlash va boshqa vazifalardagi imkoniyatlari baholanganligi ko‘rsatilgan [4, b. 1].

Claude’dan matematik analizda ayniqsa murakkab nazariy materiallarni bosqichma-bosqich izohlashda foydalanish mumkin. Masalan, limitning ε–δ ta’rifi, hosilaning mavjudlik shartlari yoki integralning fundamental teoremasini o‘rganishda talaba tushunmagan bosqichini alohida ko‘rsatib, qo‘shimcha izoh talab qilishi mumkin.

Claude 3 texnik hisobotida uning matematik fikrlash va kodlash kabi yo‘nalishlarda baholanganligi qayd etilgan [4, b. 1–2]. Shu sababli u matematik masalalarni tushuntirish va yechimlarni tahlil qilishda yordamchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq Claude yoki boshqa generativ AI tizimi bergan javob ham tekshirilishi lozim. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektning javobini yakuniy va mutlaq matematik haqiqat sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas.

Sun’iy intellekt yordamida individual ta’limni tashkil etish

Matematik analizni o‘rganishda talabalar bilim darajasi, matematik tayyorgarligi va mavzuni o‘zlashtirish tezligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. An’anaviy darsda barcha talabalarga bir xil material berilishi mumkin, generativ sun’iy intellektdan foydalanilganda esa talaba o‘ziga kerakli darajada izoh va qo‘shimcha topshiriq so‘rashi mumkin.

UNESCO generativ AI vositalaridan ta’limda foydalanishda talabalarning AI kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘qituvchilarning ham ushbu vositalardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tayyorgarligini kuchaytirishni tavsiya qiladi [1, b. 26–27]. Masalan, matematik analizni yaxshi o‘zlashtirgan talaba uchun murakkabroq hosila yoki integral masalalarini, mavzuni endigina o‘rganayotgan talaba uchun esa sodda misollarni shakllantirish mumkin. Bu ta’limni individuallashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Bunda muhim jihat shundaki, talaba masalani avvalo mustaqil yechishga harakat qilishi, sun’iy intellektdan esa yordamchi vosita sifatida foydalanishi kerak. UNESCO ham generativ AI insonning intellektual faoliyatini almashtirmasligi kerakligini ta’kidlaydi [1, b. 25].

Sun’iy intellektdan foydalanishda tanqidiy fikrlash

Generativ sun’iy intellektdan foydalanishdagi eng muhim masalalardan biri — uning javoblarini tanqidiy baholashdir. UNESCO materialida generativ AI tomonidan yaratilgan materiallar ba’zan ishonchli va aniq ko‘rinishi mumkinligi, biroq ularda xatolar yoki biryoqlama qarashlar bo‘lishi ehtimoli qayd etilgan [1, b. 16–17]. Matematik analizda bu muammo alohida ahamiyatga ega. Chunki matematik masalada yakuniy javob noto‘g‘ri bo‘lsa, talaba noto‘g‘ri bilimni o‘zlashtirib olishi mumkin. Shuning uchun sun’iy intellekt bergan yechimni quyidagi ketma-ketlikda tekshirish maqsadga muvofiq:

1. Masalaning sharti to‘g‘ri tushunilganligini aniqlash.
2. Qo‘llanilgan matematik formula yoki teoremani tekshirish.
3. Har bir hisoblash bosqichini mustaqil qayta bajarish.
4. Yakuniy natijani boshqa usul bilan tekshirish.
5. Zarur hollarda darslik yoki ilmiy manbaga murojaat qilish.

Bunday yondashuv talabaning nafaqat matematik bilimini, balki tanqidiy fikrlash kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Akademik halollik va sun’iy intellekt

Sun’iy intellektning ta’limdagi ommalashuvi akademik halollik masalasini ham dolzarb qiladi. Talaba sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan matn yoki yechimni o‘zining mutlaq mustaqil ishi sifatida taqdim etmasligi kerak. UNESCO generativ AI bilan bog‘liq holda ta’limdagi baholash va o‘quv topshiriqlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligiga e’tibor qaratadi [1, b. 32–33]. Shuning uchun matematik analiz fanida nazorat ishlarini faqat yakuniy javobni aniqlashga asoslamasdan, masalani yechish jarayonini tushuntirish, qo‘llanilgan formulani asoslash va olingan natijani izohlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Masalan, talaba “$\int x^2 dx = x^3/3 + C$” natijasini yozishi bilan cheklanmasdan, nima sababdan daraja 3 ga o‘zgargani va nima uchun o‘zgarmas C qo‘shilganini tushuntira olishi kerak. Bunday talab sun’iy intellektdan tayyor javob olish imkoniyatini kamaytirib, matematik bilimni amalda namoyon qilishga undaydi.

Matematik analiz darsining sun’iy intellekt asosidagi modeli

Matematik analiz fanida sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan darsni shartli ravishda besh bosqichda tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqichda o‘qituvchi yangi mavzuning nazariy asoslarini tushuntiradi. Masalan, hosila tushunchasi, uning ta’rifi va geometrik mazmuni beriladi. Hosila funksiyaning o‘zgarish tezligi hamda urinma chiziqning qiyaligi bilan bog‘liqligi matematik analiz darsliklarida asosiy tushunchalardan biri sifatida berilgan [5, b. 232–233].

Ikkinchi bosqichda talabalar mustaqil ravishda misollar yechadilar. Masalan,

$$\mathbf{f(x) = x^3 + 2x^2 - 5x + 1}$$

funksiyaning hosilasini topish topshirig‘i beriladi. Talaba avval o‘zi ishlaydi.

Uchinchi bosqichda talaba o‘z yechimini ChatGPT, Gemini yoki Claude yordamida tekshirishi mumkin. Agar javoblar o‘rtasida farq mavjud bo‘lsa, talaba qaysi bosqichda xatoga yo‘l qo‘yganini aniqlaydi.

To‘rtinchi bosqichda o‘qituvchi umumiy xatolarni tahlil qiladi. Bunda sun’iy intellektning javoblari ham nazorat qilinadi.

Beshinchi bosqichda talaba o‘z bilimini mustahkamlash uchun yangi, o‘xshash masalalarni mustaqil yechadi. Shu tariqa sun’iy intellekt tayyor javob beruvchi vositadan ko‘ra o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vositaga aylanadi.

Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari

Matematik analiz fanida generativ sun’iy intellektdan foydalanishning birinchi afzalligi — **individual yondashuv**dir. Talaba biror tushunchani tushunmagan bo‘lsa, uni boshqa usulda qayta tushuntirishni so‘rashi mumkin.

Ikkinchi afzalligi — **tezkor fikr-mulohaza** olish imkoniyatidir. Talaba o‘z yechimini tekshirtirib, xatolarini aniqlashi mumkin.

Uchinchi afzalligi — **qo‘shimcha mashqlar yaratish** imkoniyatidir. O‘qituvchi yoki talaba ma’lum bir mavzu bo‘yicha turli murakkablikdagi masalalarni shakllantirishi mumkin.

To‘rtinchi afzalligi — **o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash**. UNESCO o‘qituvchilarni generativ AI vositalaridan samarali va axloqiy foydalanish bo‘yicha tayyorlash zarurligini alohida ta’kidlaydi [1, b. 26–27].

Beshinchi afzalligi — **mustaqil ta’lim imkoniyatining kengayishi**. Talaba auditoriyadan tashqarida ham o‘ziga kerakli mavzu bo‘yicha savollar berishi, qo‘shimcha misollar olishi va o‘z bilimini tekshirishi mumkin.

Muammolar va cheklovlar

Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud. Eng asosiy muammo — AI tomonidan berilgan javobning har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasligidir. UNESCO generativ AI chiqargan ma’lumotlarning ishonchli ko‘rinishi mumkinligi, biroq ularda xatolar mavjud bo‘lish ehtimoli borligini qayd etadi [1, b. 16].

Ikkinchi muammo — talabaning tayyor javobga qaram bo‘lib qolishidir. Agar talaba har bir masalani mustaqil yechish o‘rniga darhol ChatGPT yoki boshqa AI tizimidan javob olsa, matematik tafakkurning rivojlanishi sekinlashishi mumkin.

Uchinchi muammo — akademik halollikdir. Sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan ishni talabaning to‘liq mustaqil ishi sifatida baholash ilmiy-pedagogik jihatdan to‘g‘ri emas. Shu sababli baholash jarayonida talabaning masalani qanday yechganini izohlashi va matematik xulosani asoslay olishi muhimdir.

To‘rtinchi muammo — sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchining yetarli kompetensiyaga ega bo‘lishi zarurati. O‘qituvchi nafaqat AI vositasidan foydalanishni, balki uning javoblarini tanqidiy baholashni ham bilishi kerak.

Matematik analiz fanini tashkil etishda ChatGPT, Gemini va Claude kabi generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarga tezkor fikr-mulohaza berish, murakkab matematik tushunchalarni turli usullarda tushuntirish va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

ChatGPT, Gemini va Claude texnologik imkoniyatlari jihatidan turli xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning barchasidan matematik analizni o‘qitishda yordamchi pedagogik vosita sifatida foydalanish mumkin. GPT-4 texnik hisobotida modelning akademik va professional vazifalardagi imkoniyatlari ko‘rsatilgan [2, b. 1]. Gemini texnik hisobotida esa multimodal model oilasining matematika va boshqa murakkab vazifalardagi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan [3, b. 1–2]. Claude 3 texnik hisobotida modelning matematika, mantiqiy fikrlash va kodlash yo‘nalishlaridagi imkoniyatlari ko‘rsatilgan [4, b. 1–2].

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanish insonning mustaqil fikrlashini almashtirmasligi kerak. UNESCO generativ AI ta’limda inson faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, biroq uni almashtirmasligi kerakligini ta’kidlaydi [1, b. 25–26].

Matematik analiz fanida eng samarali yondashuv — o‘qituvchining pedagogik tajribasi, talabaning mustaqil faoliyati va sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishdir. Bunda AI masalani talaba o‘rniga yechib beruvchi vosita emas, balki talabaning fikrlashini rivojlantiruvchi, savollariga javob beruvchi va o‘z xatosini anglashiga yordam beruvchi raqamli yordamchi sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, sun’iy intellektdan oqilona foydalanish matematik analiz fanini o‘qitish sifatini oshirish, individual ta’limni rivojlantirish va talabalarning zamonaviy raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun esa AI vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda matematik natijalarni tekshirish, ishonchli manbalarga murojaat qilish va akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya qilish zarur.

Adabiyotlar:

1. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. 44 p. ISBN 978-92-3-100612-8. DOI: 10.54675/EWZM9535.

2. OpenAI. GPT-4 Technical Report. arXiv, 2023. 100 p.
3. Gemini Team et al. Gemini: A Family of Highly Capable Multimodal Models. arXiv:2312.11805, 2023.
4. Anthropic. The Claude 3 Model Family: Opus, Sonnet, Haiku. Anthropic, 2024.
5. Strang G., Herman E. Calculus Volume 1. Houston, Texas: OpenStax, 2016. 1168 p. 3.1–3.2-bo‘limlar: Derivative; The Derivative as a Function.
6. Strang G., Herman E. Calculus Volume 1. Houston, Texas: OpenStax, 2016. 5.2-bo‘lim: The Definite Integral, 529–548-betlar.
7. Stewart J. Calculus: Early Transcendentals. 8th ed. Boston: Cengage Learning, 2016. 2.7–2.8-bo‘limlar: Derivatives and Rates of Change; The Derivative as a Function.
8. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. Generativ AI'dan ta’limda inson markazli va pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq foydalanish bo‘yicha tavsiyalar.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQIDA KUZATILADIGAN RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MUAMMOLAR

A.S. Nazarova
Osiyo Xalqaro Universiteti
"Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim" kafedrasi o‘qituvchisi

Maktabgacha yosh — bola nutqining shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. So‘nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalar orasida turli darajadagi nutq nuqsonlari (tovush talaffuzining buzilishi, lug‘at boyligining torligi, bog‘lanishli nutqning yetarli shakllanmaganligi) tobora kcproq kuzatilmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishda an'anaviy logopedik mashqlar bilan bir qatorda, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan (tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar, ertaklar, allalar) foydalanish nafaqat korreksion, balki tarbiyaviy-madaniy ahamiyatga ham ega. Bu yondashuv bolani ona tili boyligi va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali nutqiy rivojlanishni tabiiy, qiziqarli shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Maqsad — maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini xalq og‘zaki ijodi janrlari vositasida korreksiyalashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va ularning bolalar kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga ta'sirini asoslashdan iborat.

Vazifalar:

— nutq nuqsonlarining zamonaviy ilmiy tasnifi va ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish;
— xalq og‘zaki ijodi janrlarini nutq komponentlariga mos ravishda tizimlashtirish;
— ishlab chiqilgan metodikani tajriba-sinov ishlari orqali amaliyotga tatbiq etish;
— natijalarni statistik tahlil qilish va samaradorlikni asoslash;
— tarbiyachilar va logopedlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu davrda nutqning shakllanishi va rivojlanishi keyingi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Nutq insonning fikrlashi, muloqoti va atrof-muhitni anglashida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari tug‘ilgan davrdan boshlanib, maktab yoshiga qadar davom etadi. Go‘daklik davrida bola tovushlarga javob qaytaradi, gugullash va babillash orqali nutqiy tajriba to‘playdi. Ilk yosh davrida lug‘at boyligi jadal rivojlanib, bola ikki-uch so‘zli gaplardan foydalanishni boshlaydi.
3–4 yoshda bolalar grammatik jihatdan sodda gaplar tuzadi, voqea va hodisalarni qisqa bayon qila oladi. 4–5 yoshda esa nutq mazmunan boyiydi, muloqot doirasi kengayadi va fikrlarni izchil ifodalash qobiliyati rivojlanadi. 5–7 yosh davrida monologik va dialogik nutq takomillashib, bola maktab ta’limiga tayyorlanadi. Bolalar nutqida uchraydigan muammolar orasida nutq rivojlanishining kechikishi, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, duduqlanish va fonematik eshitishning yetarli rivojlanmaganligi alohida o‘rin tutadi.

NUTQ BUZILISHLARINING ILMIY TASNIFI

Nutq buzilishi turi	Qisqacha tavsifi
Dislaliya	Artikulyatsion apparat va eshitish normal bo‘lgan holda tovush talaffuzining buzilishi (mexanik va funksional turlari)
Dizartriyaning o‘chirilgan shakli	Asab-mushak innervatsiyasining yengil buzilishi natijasida talaffuz, prosodika va nafas ritmining buzilishi
Umumiy nutq rivojlanishining buzilishi (UNRB)	R.E.Levina tasnifi bo‘yicha 4 darajali: I daraja (nutq deyarli yo‘q) dan IV darajagacha (nutqning yengil kamchiliklari)
Fonetik-fonematik nutq rivojlanishining buzilishi (FFNB)	Fonematik eshitish yetishmovchiligi tufayli tovush va bo‘g‘in tuzilishining buzilishi
Kechikkan nutq rivojlanishi (KNR)	Yosh me'yoridan sezilarli orqada qolish
Duduqlanish (logonevroz)	Nutq ritmi va ravonligining buzilishi

Ushbu muammolar bolaning ijtimoiylashuvi va ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Nutq rivojlanishiga oiladagi muhit, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pedagogik jarayon, tarbiyachining nutq madaniyati hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ta’sir qiladi. Kattalarning bola bilan muntazam muloqoti, ertak va hikoyalar o‘qib berishi, didaktik o‘yinlardan foydalanishi nutq rivojlanishini jadallashtiradi. Nutqiy muammolarni bartaraf etishda logopedik yordam, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va oila hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, suhbat va o‘yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi.

Nutqni rivojlantiruvchi vositalarning mazmuni;

— tez aytishlar — artikulyatsiya va diksiyani mustahkamlash uchun;
— topishmoqlar — lug‘at boyligi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun;
— maqol va matallar — grammatik tuzilma va obrazli fikrlashni shakllantirish uchun;
— allalar va qo‘shiqlar — nafas va nutq prosodikasini tartibga solish uchun;
— ertaklar — bog‘lanishli (monologik) nutqni rivojlantirish uchun.

Tajriba-sinov ishlari davomida folklor materiallari asosida tuzilgan mashg‘ulotlar tizimi tatbiq etilgan tajriba guruhi bolalarida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi: tovush talaffuzi sifatining yaxshilanishi, aktiv lug‘at hajmining kengayishi, bog‘lanishli hikoya tuzish ko‘nikmasining shakllanishi, shuningdek bolalarning muloqotga kirishish faolligi va o‘z fikrini erkin ifodalash qobiliyatining oshishi. Nazorat guruhi bilan solishtirilganda, tajriba guruhida nutqiy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yuqori bo‘lgani aniqlandi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq rivojlanishining har bir bosqichi bolaning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Nutqiy muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydi. Xalq og‘zaki ijodi vositalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi korreksion-rivojlantiruvchi ishga tizimli tarzda joriy etish bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek ularda milliy qadriyatlarga hurmat va kommunikativ madaniyatni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan metodika tarbiyachilar va logopedlar amaliyotida qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika.
2.Hasanboyeva O.U. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.

3. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. — М., 1968.
4. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. — М., 2004.
5. Виготский Л.С. Мышление и речь. — М., 1999.
6. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. — Екатеринбург, 2011.
6. “Ilk qadam”Davlat o‘quv dasturi. — Toshkent, 2022.
7. Mirzayeva D.Sh. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent, 2022.

INTEGRATIV TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV VA REFLEKSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Toshpo’latova Durdona Hoshim qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faqat bilim uzatuvchi sifatida emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo'llovchi murabbiy sifatida qaraladi. Bunday yondashuv o'qituvchidan nafaqat yuqori kasbiy bilim, balki kuchli kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni ham talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohatlari — xususan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (2020) va «Maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish» konsepsiyasi — o'qituvchi tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashni talab qilmoqda. Mazkur hujjatlarda o'qituvchining kommunikativ mahorati va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qila olish qobiliyati alohida ta'kidlanadi.

Integrativ ta'lim yondashuvi turli fanlar va hayotiy tajribalarni birlashtirgan holda o'quvchining yaxlit dunyoqarashini shakllantiradi. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ayniqsa samarali hisoblanadi, chunki u nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — integrativ ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Nazariy asos va adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi D. Hymes (1972) tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, keyinchalik M. Canale va M. Swain (1980) tomonidan kengaytirilgan. Mazkur olimlar kommunikativ kompetensiyani grammatik, ijtimoiy, nutqiy va strategik kompetensiyalar yig'indisi sifatida talqin etadilar.

Refleksiv kompetensiya nazariyasi D. Schön (1983) asarlarida «amaliyotchi-mutaxassisning o'z ishidan o'rganishi» konseptsiyasi orqali asoslanadi. J. Deweyning «tajribaviy o'rganish» nazariyasi ham bu borada muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek pedagogika fanida N. Muslimov, R. Mavlonova, X. Ibragimov kabi olimlar o'qituvchi kompetentligini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Ularning tadqiqotlari milliy ta'lim tizimi kontekstida kompetensiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos usullarini ko'rsatib beradi.

Integrativ ta'lim paradigmasi G. Jacobs va J. Borland (1986) ishlarida puxta asoslab berilgan. Ular «integratsiya» atamasi ostida mazmun, ko'nikma va qadriyatlarni bir-biri bilan bog'liq holda o'qitishni nazarda tutadilar.

Kompetensiyaning tarkibiy qismlari:

1.1.O'zini Anglash **(Self-awareness)** O'zini anglash — o'qituvchi kompetensiyasining poydevori hisoblanadi. Bu — shaxsning o'z his-tuyg'ulari, fikrlari, qadriyatlari, kuchli va zaif tomonlarini chuqur bilish qobiliyatidir. D. Goleman (1995) «hissiy intellekt» nazariyasida o'zini anglashni barcha ijtimoiy kompetensiyalarning birlamchi sharti deb ta'riflaydi.

Tarkibiy elementlari: o'z hissiy holatlarini kuzata olish; pedagogik faoliyatdagi kuchli va zaif tomonlarini obyektiv baholash; qadriyatlar tizimini anglash va ularga amal qilish; o'z xatti-harakatlarining o'quvchilarga ta'sirini his etish.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'zini anglash qobiliyatini rivojlantirish uchun kundalik refleksiv daftar (reflective journal) yuritish, kuzatuv varag'i yordamida o'z darslarini tahlil qilish va psixologik testlardan foydalanish samarali natija beradi. Tadqiqotimizda ishtirok etgan talabalar kunlik daftar yuritishni boshlangandan so'ng 8 hafta ichida o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari 34% ga o'sganligi qayd etildi.

1.2. **Muloqat Kompetensiyasi (Communicative Competence)**

Muloqat o'qituvchi kasbining asosi bo'lib, ta'lim jarayonida bilim uzatishning, motivatsiya uyg'otishning va ijobiy ta'lim muhitini yaratishning asosiy vositasidir. F. Xaydarov va M. Qodirovaning (2018) ta'kidlashicha, o'zbek maktablarida ta'lim sifati ko'p jihatdan o'qituvchining muloqot madaniyatiga bog'liq.

Muloqat kompetensiyasining qirralari: og'zaki nutq madaniyati (diksiya, intonatsiya, sur'at, tovush kuchi); yozma muloqot (izoh yozish, dars rejasi, hisobot); noverbally muloqot (imo-ishora, ko'z ilinishi, masofa); faol tinglash ko'nikmalari; savol berish san'ati; konstruktiv fikr-mulohaza bildirish.

Integrativ ta'lim sharoitida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun rolli o'yinlar, simulyatsiya, debat va guruh loyiha ishlaridan foydalaniladi. Ayniqsa «fishbowl» texnikasi va «Sokrat suhbati» metodlari talabalarning muloqot qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

1.3. Empatiya (Empathy)

Empatiya — boshqalarning his-tuyg'ularini, fikrlarini va holat-vaziyatini tushunib, o'zini o'sha odamning o'rniga qo'ya olish qobiliyatidir. C. Rogers (1951) ta'kidlaganidek, empatiya samarali pedagogik munosabatning kaliti hisoblanadi va o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarida muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik empatiyanin uch darajasi farqlanadi: kognitiv empatiya (o'quvchining fikr doirasini tushunish), affektiv empatiya (his-tuyg'ularini his etish) va xulq-atvorda empatiya (tushunishni harakatda ko'rsata olish).

Empatiyaniy rivojlantirish usullari: turli ijtimoiy guruhlardan kelgan bolalar bilan ishlash tajribasi; hayotiy vaziyatlarni tahlil qiluvchi case-study metodlari; badiiy adabiyot va kino asarlari orqali turli xarakter va holatlarni tahlil qilish; o'yin va dramatizatsiyada turli rollar ijro etish.

Tadqiqotimiz davomida talabalar maxsus «Empatiya kartochkalari» bilan ishlashni o'rgandilar. Bu kartochkalarda turli o'quvchi tiplarining his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va qiyinchiliklari tasvirlangan bo'lib, talabalar ularni o'rganib, o'z munosabatlarini sinab ko'rdilar.

1.4. Refleksiya (Reflection)

Refleksiya — o'z pedagogik faoliyatini tizimli, tanqidiy va maqsadli ravishda tahlil qilish jarayonidir. J. Dewey «refleksiv fikrlash» tushunchasini kiritgandan buyon bu qobiliyat professional o'sishning asosi sifatida tan olinmoqda.

G. Gibbs (1988) ishlab chiqqan refleksiya sikli pedagogika amaliyotida keng qo'llaniladi. Ushbu siklga ko'ra refleksiya oltita bosqichni o'z ichiga oladi: tavsif (nima bo'ldi?), his-tuyg'ular (men nima his qildim?), baholash (nima yaxshi/yomon bo'ldi?), tahlil (nima uchun shunday bo'ldi?), xulosa (nima o'rganildi?) va harakat rejasi (keyingi safar nima qilaman?).

Refleksiyani rivojlantirish vositalari: video orqali darsni kuzatib tahlil qilish; juft (peer) refleksiya — hamkor bilan muhokama; nazorat jurnali yuritish; portfolio tuzish; individual va hamkor nazorati usullari.

Integrativ ta'limda refleksiya nafaqat dars so'ngida, balki dars jarayonida ham amalga oshiriladi. «Dars ichidagi refleksiya» (reflection-in-action) o'qituvchiga o'z yondashuvi va metodlarini real vaqtda moslashtirishga imkon beradi.

Integrativ Metodika: Bosqichlar va Texnikalar

I-bosqich: Diagnostika va Motivatsiya (1–2 hafta)

– Boshlang'ich kompetensiya darajasini aniqlash (test, kuzatuv, intervyu)

– Talabalarni integrativ ta'lim konsepsiyasi bilan tanishtirish

– Individual rivojlanish xaritasini tuzish
II-bosqich: Nazariy-Amaliy Integratsiya (3–8 hafta)
– Psixologiya, pedagogika va metodika fanlarini integrativ o'rganish
– Rolli o'yinlar, simulyatsiya va case-study usullari
– Haftalik refleksiv daftar yuritish va muhokama
III-bosqich: Amaliyot va Sinash (9–14 hafta)
– Maktab amaliyotida ko'nikma va bilimlarni qo'llash
– Video-tahlil: o'z darslarini kuzatish va hamkor bilan muhokama
– Empatiya xaritasi (empathy map) to'ldirish
IV-bosqich: Baholash va Portfolio (15–16 hafta)
– Yakuniy kompetensiya darajasini baholash
– Portfolio taqdimoti va o'z-o'zini baholash
– Hamkorlik va teskari aloqa muhokamasi

Tajriba-Sinov Natijalari va Muhokama

Ishlab chiqilgan metodika 2022–2024 yillarda Toshkent viloyati pedagogika instituti hamda Buxoro davlat universiteti ta'lim fakultetlari talabalarida sinab ko'rildi. Tajribada 120 nafar talaba (60 nafardan iborat tajriba va nazorat guruhlari) ishtirok etdi.

Tajriba guruhida kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichi o'rtacha 28,3 balldan 41,7 ballga ko'tarildi (47% o'sish), refleksiv kompetensiya esa 24,1 balldan 38,9 ballga yetdi (61% o'sish). Nazorat guruhida mos ravishda 9% va 11% o'sish qayd etildi.

Ayniqsa ko'zga tashlanadigan o'zgarishlar: talabalarning dars tahlili sifati sezilarli yaxshilandi; empatik munosabat ko'rsatkichlari o'rtacha 12 ballga oshdi; o'zini anglash darajasi Johari oynasi metodlari orqali tasdiqlandi.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari integrativ ta'lim yondashuvining bo'lajak o'qituvchilar kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

O'zini anglash, muloqat, empatiya va refleksiya tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida emas, balki integrativ tarzda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalariga tavsiyalar: o'quv rejalariga «Pedagogik refleksiya» moduli qo'shilsin; talabalar birinchi kursdan boshlab refleksiv daftar yuritsinlar; empatiyani rivojlantirish maqsadida turli ijtimoiy muhitlarda amaliyot tashkil etilsin; integrativ loyiha ishlari baholash tizimiga kiritilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatlari.

1.Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam Books, New York.
2.Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner. Basic Books.
3.Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. Sociolinguistics. Penguin.
4.Rogers, C. R. (1951). Client-Centered Therapy. Houghton Mifflin, Boston.
5.Gibbs, G. (1988). Learning by Doing. FEU, Oxford.
6.Muslimov, N. A. (2004). Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari. Toshkent: Fan.
7.Mavlonova, R. A. (2010). Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi.
8.Ibragimov, X. I. (2012). Ta'lim nazariyasi. Toshkent: «Fan va texnologiyalar».
9.O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. 23.09.2020. Toshkent.
10.Jacobs, G. M.,&Borland, J. H. (1986). The Interdisciplinary Concept Model. Gifted Child Quarterly, 30(4), 159–163.
11. Samiyeva SH. X.Kozimova M.A.Oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish mexanizimlairi. Educational Research in Universal Sciences. 2023. P.100-105.
12. Kamalova D.T. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining kommunikativlik sifatlarining ahamiyati. Transforming education through scientific discovery.International scientific conferences.Xalqaro anjuman.Finland.2025.430-433-betlar

MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONIDA MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Toshtemirova Maftuna Karimovna
Denov tadbirkorlik hamda pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta`lim” kafedrasi o`qituvchisi
Toshtemirova Yulduz Karim qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Fikrlash insonning borliqni anglash jarayonidagi eng yuqori bilish bosqichi hisoblanadi. Fikrlashning hissiy asosini sezgi, idrok va tasavvurlar tashkil etadi. Inson tafakkuriy vazifalarni hal etish jarayonida mushohada yuritadi, xulosalar chiqaradi va shu orqali narsa hamda hodisalarning mohiyatini anglaydi, ular o‘rtasidagi qonuniy bog‘liqliklarni kashf etadi hamda mazkur bilimlarga tayangan holda borliqni o‘zgartiradi.

Zamonaviy jamiyat uchun muhim vazifalardan biri o‘sib kelayotgan avlodning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu masala bilan ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar, jumladan, S.L. Rubinshteyn, L.S. Vygotskiy, P.P. Blonskiy, P.Ya. Galperin, V.V. Davidov, Ye.A. Vyaxirev, A.I. Meshcheryakov, N.A. Menchinskaya, D.B. Elkonin, A.V. Brushlinskiy, J. Piaget, M. Montessori va boshqalar shug‘ullangan hamda hozirgi kunda ham ilmiy izlanishlarni davom ettirmoqdalar. Ularning ta’kidlashicha, fikrlash murakkab yoki zerikarli jarayon emas, yaxshi fikrlovchi bo‘lish uchun esa albatta daho bo‘lish shart emas. Fikrlash qobiliyatlari boshqa qobiliyatlar singari ma’lum ko‘nikma va malakalarni muntazam shakllantirish orqali rivojlantirilishi mumkin. Aynan shu sifatlar bolaning kelajakda hayotda muvaffaqiyatga erishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda esa ayniqsa mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosi psixologiya fanida keng qamrovda o‘rganilgan. Jumladan, umumiy tafakkur nazariyasi doirasida A.V. Brushlinskiy, L.S. Vygotskiy, P.Ya. Galperin, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn va K.A. Slavskaya tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tafakkurni rivojlantirish nazariyasiga oid izlanishlarda esa D.B. Bogoyavlenskaya, L.V. Zankov, N.A. Menchinskaya, Z.I. Kalmikova, T.V. Kudryavtsev hamda I.S. Yakimanskayaning ilmiy ishlari alohida o‘rin egallaydi. Xorijiy psixologlar orasida J. Piaget va E. de Bono mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalalariga salmoqli hissa qo‘shgan olimlar sifatida e’tirof etiladi.

Zamonaviy psixologlarning (P.Ya. Galperin, N.F. Talizina va boshqalar) tadqiqotlarida intellektual faoliyatning umumiy usullari ta’lim jarayonida maxsus o‘zlashtirilishi va maqsadli ravishda shakllantirilishi lozim bo‘lgan muhim pedagogik obyekt ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur yondashuv ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, umumlashtirish va muammolarni samarali hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

I.Ya. Lerner, I.L. Nikolskaya, N.P. Partiyev, N.A. Podgoretskaya, A.A. Stolyar va boshqa olimlar nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar asosida maktab ta’limi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning zarur darajasini to‘liq ta’minlay olmasligini ilmiy jihatdan isbotlaganlar.

Boshlang‘ich ta’limdan umumiy o‘rta ta’limning keyingi bosqichiga o‘tish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etishi ko‘plab psixolog, pedagog va metodistlarning (Ye.P. Malanyuk, A.V. Zaporojets, N.A. Menchinskaya, V.A. Fil va boshqalar) ilmiy tadqiqotlarida o‘z tasdig‘ini topgan.

Ko‘plab ilmiy izlanishlar boshlang‘ich hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining maxsus mantiqiy tayyorgarligini shakllantirish, shuningdek, matematika fanini o‘qitish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo‘llarini aniqlashga bag‘ishlangan (A.K. Artemov, I.L. Nikolskaya, A.A. Stolyar va boshqalar). Mazkur olimlar tomonidan matematikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy tayyorgarligini shakllantirishga oid umumiy dasturlar, mazmun hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalari K.O. Ananchenko, Ye.P. Kolyada, T.A. Kondrashenkova, G.V. Krasnoslabotskaya, L.A. Latotin, L.N.

Udovenko va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida umumiy o‘rta ta’limning turli bosqichlari, matematikaning alohida bo‘limlari hamda muayyan mavzular doirasida yanada aniqlashtirilgan va rivojlantirilgan.

Ko‘plab ilmiy ishlarda tasniflash, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, tahlil va sintez kabi tafakkur usullarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur fikrlash amallari o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida e’tirof etiladi.

Yetakchi olimlarning ilmiy ishlarida maktablarda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha tizimli yondashuv yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi qayd etiladi (Ye.V. Veselovskaya, Ye.Ye. Ostanina, A.A. Stolyar, L.M. Fridman va boshqalar). Shu bilan birga, psixologlar (P.Ya. Galperin, V.V. Davidov, L.V. Zankov, A.A. Lyublinskaya, D.B. Elkonin va boshqalar) olib borgan tadqiqotlar natijalari o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligi ushbu jarayon qanday tashkil etilishiga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning turli metod va texnologiyalari mavjud bo‘lib, yetakchi olimlarning aksariyati ushbu muammoni ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mantiqiy topshiriqlar tizimidan foydalanish, muammoli vaziyatlarni yaratish hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali hal etish mumkinligini ta’kidlaydilar. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish va amaliy muammolarni samarali hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida o‘quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari shakllangan. Ular qatoriga ta’lim jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va komplekslaridan foydalanish, axborot texnologiyalarini didaktik vosita sifatida qo‘llash, shuningdek, o‘quv hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining ijodiy komponentini rivojlantirish kiradi.

Maktabgacha yosh davrida bolaning mantiqiy fikrlashi (bilishga bo‘lgan qiziqishlari) ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanadi:

- **Birinchi yo‘nalish** – bolaning hayotiy tajribasini bosqichma-bosqich boyitish, uni turli sohalarga oid yangi bilimlar bilan to‘ldirishdan iborat. Bu jarayon maktabgacha yoshdagi bolaning bilish faolligini rag‘batlantiradi. Bolaga atrofdagi olamning turli jihatlari qanchalik keng ochib berilsa, unda barqaror bilish qiziqishlarining shakllanishi va mustahkamlanishi uchun shunchalik qulay sharoit yaratiladi.
- **Ikkinchi yo‘nalish** – bir xil voqelik doirasida bilishga bo‘lgan qiziqishlarning bosqichma-bosqich kengayishi va chuqurlashishidan iborat.

O‘yin bolalarning bilish faoliyatining muhim shakli bo‘lib, u mantiqiy fikrlashni, izlanuvchanlikni, tafakkur amallarini rivojlantirish hamda egallangan bilimlarga nisbatan qiziqishni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘yin jarayonida faoliyat turlari almashinib turadi: bolalar tinglaydi, fikr yuritadi, savollarga javob beradi, qiziqarli ma’lumotlarni o‘zlashtiradi. Bunday faoliyat nafaqat atrof-muhitning turli jihatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga yordam beradi, balki dunyoqarashni kengaytiradi va yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallashga undaydi.

Aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish metodlari orasida **TRIZ (Ixtirochilik masalalarini hal etish nazariyasi)** texnologiyasiga asoslangan rivojlantiruvchi o‘yinlar eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki ular maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lgan o‘yin faoliyatiga to‘liq mos keladi hamda ularni qo‘llashda moslashuvchanlik va variativlikni ta’minlaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ishlari **«oddiydan murakkabga»** tamoyili asosida bosqichma-bosqich tashkil etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda TRIZ elementlariga asoslangan o‘yinlardan foydalanish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1-bosqich

Mazkur bosqich obyektlarning turli xususiyatlari, sifatlari va funksiyalarini ajratib ko‘rsatishga, shuningdek, tahlil va sintez amallarini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar majmuasini qamrab oladi. Ushbu bosqichda bolalar:

- obyektlarning turli belgi va xususiyatlarini aniqlash;
- berilgan tavsifga mos obyektni tanlash;
- bitta obyektning ko‘plab xususiyatlarini topish;
- obyektni barcha belgilarini sanab tavsiflash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Bunda quyidagi o‘yinlardan foydalaniladi:

- «Top-chi» (*Ugaday-ka*);
- «Ha–Yo‘q» (*Da-net*);
- «Zanjir» (*Sepochka*);
- «Nima qila oladi?»;
- «Maqtanchoqlar»;
- «Nima shunday bo‘lishi mumkin?»;
- «Qismlarini ayt».

2-bosqich

Ushbu bosqich obyektlarni muhim belgilariga ko‘ra taqqoslash va umumlashtirish operatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda bolalarda:

- obyektlarning muhim belgilarini ajratish;
- ularni o‘zaro taqqoslash;
- o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash;
- abstraksiyalash qobiliyatini rivojlantirish;
- funksional o‘xshashlik asosida obyektlarni birlashtirish;
- ko‘plab obyektlar uchun umumiy belgini topish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Mazkur bosqichda quyidagi o‘yinlardan foydalaniladi:

- «Uylariga joylashtir»;
- «Mening do‘stlarim»;
- «Olmaxonga yordam beramiz»;
- «Shakllarni joylashtir»;
- «Teremok».

3-bosqich

Mazkur bosqich tasniflash (klassifikatsiya) va ketma-ketlik (seriatsiya) ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda bolalar:

- obyektlar guruhining asosiy tasnif belgilarini aniqlash;
- tasnifiy guruhlarni mustaqil tuzish;
- tasniflash asoslarini belgilash;
- obyektni tegishli guruhga kiritish;
- mavjud guruhni yangi obyektlar bilan to‘ldirish;
- obyektlar majmuasini bir nechta tasnifiy guruhlarga ajratish;
- berilgan guruhga kirmaydigan obyektlarni aniqlash;
- kamida ikki xil tasniflash mezonini belgilash hamda ular asosida yangi tasnifiy guruhlar tuzishni o‘rganadilar.

Mazkur bosqichlar izchil amalga oshirilishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, ketma-ketlikni aniqlash va mantiqiy xulosa chiqarish kabi tafakkur amallari bosqichma-bosqich shakllanib, ularning maktab ta’limiga intellektual tayyorgarligi sezilarli darajada oshadi.

Bolalarga quyidagi o‘yinlar tavsiya etildi: «Kim adashdi?», «Doira ichida nima bor?», «Men beshta ... bilaman», «Men sayohatga ketayapman va o‘zim bilan ... olaman», «Keraklisini tanla», «Ortiqchasi qaysi?», «Qaysi jihatlari o‘xshash va qaysi jihatlari bilan farqlanadi?», shuningdek, Lyulliy doiralari asosidagi didaktik o‘yinlar.

Mantiqiy fikrlash tug‘ma qobiliyat emas, balki muntazam rivojlantirilishi zarur bo‘lgan intellektual kompetensiyadir. Uni qiziqarli va samarali tarzda rivojlantirish imkonini beradigan ko‘plab usullar mavjud. Ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat.

- Mantiqiy masalalar. Mantiqiy masalalarning aksariyati ming yillar avval yaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning ko‘pi qiziqarli va noodatiy tarzda tuzilganligi sababli, ularga ijodiy va topqir yechim topish bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi. Bunday masalalarning juda ko‘p namunalarini internet manbalaridan topish mumkin.
- Intellektual o‘yinlar. O‘yin bola uchun atrof-muhitni anglashning eng muhim vositalaridan biridir. Bolalar bilan domino, shashka, shaxmat, nuqtalar o‘yini, «Erudit» hamda so‘z o‘yinlarini o‘ynash nafaqat mazmunli hordiq chiqarish imkonini beradi, balki ularning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish, taqqoslash va strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.
- Boshqotirmalar. Maxsus savdo do‘konlarida har qanday yosh toifasi uchun mo‘ljallangan turli xil «aqliy o‘yinlar» taklif etiladi. Ular qatoriga labirintlar, pazllar, Rubik kubigi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot xarakteridagi konstruktor va tajriba to‘plamlari kiradi. Ko‘plab shaharlarda boshqotirma ixlosmandlari to‘garaklari faoliyat yuritib, ularda bolalar turli boshqotirmalarni yechishni o‘rganadilar hamda musobaqalarda ishtirok etadilar.
- Rivojlantiruvchi raqamli platformalar. Internet tarmog‘ida bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan turli topshiriqlar jamlangan maxsus ta’lim platformalari mavjud. Ushbu platformalarda topshiriqlarni bajarish jarayoni turli murakkablik darajalariga ega bo‘lgan o‘yin shaklida tashkil etilgan bo‘lib, bolalarning bilish faolligi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi.
- Kompyuter o‘yinlari. Keng tarqalgan qarashlardan farqli ravishda, barcha kompyuter o‘yinlarini vaqtni behuda sarflash vositasi deb baholab bo‘lmaydi. Internetda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko‘plab o‘yinlar mavjud. Jumladan, «Tetris», «Lines» kabi klassik mantiqiy o‘yinlar hamda ijodkorlik va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi «Minecraft» o‘yini shular jumlasidandir.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni didaktik o‘yinlar, TRIZ texnologiyasi elementlari, mantiqiy masalalar, boshqotirmalar, intellektual va raqamli o‘yinlardan kompleks foydalanishni talab etadi. Bunday yondashuv bolalarning tahliliy fikrlashi, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini shakllantirib, ularning maktab ta’limiga puxta tayyorgarligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Juraeva, N. T. (2022). Organization of the Educational Process in Preschool Educational Organizations. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 244–251.
2. Tairovna, Z. N. (2022). The Role of Didactic Tools in the Mathematical Development of Children. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 39–40.
3. Zhuraeva, N. T. (2021). Maths Key of Mind and Intelligence (Methodology for the Formation of Elementary Mathematical Representations of Children in Preschool Institutions). Экономика и социум, (1-1), 316–319.
4. Жураева, Н. Т. (2022). Технология развития навыков логического мышления при подготовке старших дошкольников к школе. International Academic Research Journal, 1(6), 232–239.
5. Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методлари. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274–278.
6. Каюмова, Н. М. (2022). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации. International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress", 1(3), 102–107.
7. Nurbaeva, I. T. (2022). Models of Pedagogical Communication in the Educational Process. International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress", 1(3), 88–95.

8. Kasimova, D. B. (2022). Management of the Plot-Role-Playing Games of Preschool Children in the Conditions of Preschool Education. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 9–11.
9. Алиходжаева, Г. С. (2021). Формирование социально-коммуникативной компетентности у детей старшего дошкольного возраста. Экономика и социум, (5-1), 46–50.
10. Chorieva, D. A. (2022). *Diagnostic Features to Improve Learning Process*. International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress", 1(3), 145–149.

PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA MANTIQIY TAFAKKUR TUSHUNCHASI

Toshtemirova Maftuna Karimovna
Denov tadbirkorlik hamda pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta`lim” kafedrasi o`qituvchisi
Toshtemirova Yulduz Karim qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilishdan avval tafakkurning psixologik va fiziologik jarayon sifatidagi mohiyatini yoritish zarur.

Boshlang‘ich maktab yoshida bolaning asab tizimi yuqori darajada rivojlanadi. Mazkur davrda xotira, tafakkur, tasavvur, idrok va nutq kabi barcha bilish jarayonlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. O‘quv faoliyatini ta’minlovchi bilish jarayonlari bir-biridan mustaqil ravishda emas, balki yagona psixik tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning har biri boshqa bilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yosh davrining turli bosqichlarida ulardan biri psixik rivojlanishda yetakchi o‘rin egallaydi.

Psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim davrida aynan tafakkur o‘quvchining barcha bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi yetakchi omil hisoblanadi. Shu bois mazkur yosh davrida tafakkurning izchil rivojlanishi shaxsning intellektual kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, aynan boshlang‘ich maktab yoshida bolalar tafakkurining keyingi rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratiladi. Bu davrda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurdan og‘zaki-mantiqiy tafakkurga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni amalga oshadi. Mazkur o‘zgarish o‘quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarining rivojlanishini ta’minlaydi.

D. V. Elkonin o‘z ilmiy izlanishlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy masalalarni yechish faoliyatiga alohida e’tibor qaratgan. Olimning fikricha, bolalarning mantiqiy masalalarni yechish jarayonini chuqur tahlil qilish orqali ularning tafakkuriga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni tajriba-eksperimental yo‘l bilan aniqlash mumkin [40].

P. Ya. Galperinning ta’kidlashicha, **mantiqiy tafakkur** tafakkurning muhim turlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchiga predmet va hodisalarni, shuningdek turli vaziyatlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda baholash imkonini beradi. Olimning qayd etishicha, mantiqiy tafakkurning barcha operatsiyalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni samarali shakllantirish faqat kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi mumkin .

Obyektiv borliqdagi predmet va hodisalar bevosita idrok etilishi mumkin bo‘lgan xususiyatlarga (rang, tovush, shakl, fazodagi joylashuvi va harakati) hamda faqat bilvosita, umumlashtirish va tafakkur vositasida anglanadigan xususiyat va munosabatlarga ega. Shu jihatdan tafakkur insonning borliqni bilishidagi eng yuqori psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda **tafakkur** obyektiv borliqning inson ongida umumlashgan va bilvosita aks etishiga xizmat qiluvchi oliy bilish jarayoni sifatida ta’riflanadi.

I. A. Zimnyayaning fikriga ko‘ra, tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri uning nutq bilan uzviy bog‘liqligidir. Inson tafakkuri nutq vositasida namoyon bo‘ladi, chunki fikrlash jarayoni til birliklari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli tafakkur borliqni umumlashtirilgan va bilvosita aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida e’tirof etiladi.

S. I. Ojegovning izohli lug‘atida **tafakkur** insonning fikrlash qobiliyati, ya’ni obyektiv borliqni g‘oyalar, hukmlar va tushunchalar orqali aks ettirish jarayoni sifatida izohlanadi.

A. L. Nikiforovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, tafakkur, avvalo, muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan intellektual faoliyatdir. Inson hayot faoliyati davomida doimo turli muammolar va savollarga duch keladi hamda ularni hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallaydi. Muammoni yechish ko‘pincha murakkab intellektual faoliyatni talab etadi. Shu bois tafakkur diqqatni jamlash, izchillik, sabr-toqat hamda faol aqliy mehnatni taqozo etadigan murakkab psixik jarayon hisoblanadi.

Tafakkur jarayonida bosh miya po‘stlog‘iga tashqi va ichki ta’sirlar yetib borganda nerv hujayralari faollashadi hamda qisqa muddatli neyron aloqalari hosil bo‘ladi. Aynan ushbu neyrofiziologik jarayonlar tafakkurning fiziologik mexanizmini tashkil etadi. Inson tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u predmet va hodisalar o‘rtasidagi tasodifiy bog‘lanishlarni emas, balki ularning muhim va qonuniy aloqalarini aniqlash imkonini beradi. Tafakkur umumlashtirish jarayoniga asoslanib, alohidalikdan umumiylikka, umumiylikdan esa alohidalikka yo‘naltirilgan fikrlash faoliyatini ta’minlaydi.

Tafakkur inson oldida yuzaga kelgan muammolarni hal etish jarayonida namoyon bo‘ladigan murakkab psixik jarayondir. T. D. Martsinkovskayaning ta’kidlashicha, muammoni hal etish jarayoni quyidagi to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi:

- muammo yoki ziddiyatning yuzaga kelishi;
- muammoni hal etish bo‘yicha gipoteza yoki reja ishlab chiqish;
- vazifani bevosita yechish;
- olingan natijani empirik va tanqidiy jihatdan tekshirish.

Olimning fikricha, muammoning muvaffaqiyatli yechilishi tafakkur operatsiyalarining to‘g‘ri amalga oshirilishi hamda tafakkurning shakl va turlaridan samarali foydalanishga bevosita bog‘liqdir.

O. V. Alekseyevaning fikriga ko‘ra, **tafakkur** o‘ziga xos tuzilishi va turlariga ega bo‘lgan murakkab bilish faoliyatidir.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda tafakkur odatda **nazariy** va **amaliy tafakkur** turlariga ajratiladi. Nazariy tafakkur o‘z navbatida **tushunchali (konseptual) tafakkur** hamda **obrazli tafakkur**ni qamrab oladi. Amaliy tafakkur esa **ko‘rgazmali-obrazli** va **ko‘rgazmali-amaliy** tafakkur turlaridan iborat.

T. E. Demidovaning ta’kidlashicha, **tushunchali (konseptual) tafakkur** — bu tushunchalar yordamida amalga oshiriladigan tafakkur turidir. Unda inson voqelikni ilmiy tushunchalar va mantiqiy umumlashtirishlar asosida anglaydi.

V. V. Davydovning fikriga ko‘ra, **obrazli tafakkur** — bu tafakkur jarayonida turli obrazlardan foydalanishga asoslangan fikrlash turidir. Mazkur obrazlar xotiradan tiklanishi yoki tasavvur yordamida qayta yaratilishi mumkin [6].

Mantiq tafakkurning mantiqiy shakllari, ya’ni **tushuncha, hukm va xulosa chiqarish** kabi shakllarini o‘rganadi. Mazkur shakllar bilan amalga oshiriladigan amallar mantiqiy tafakkurning mohiyatini aks ettiradi.

Tushuncha — narsa va hodisalarning o‘ziga xos, muhim hamda ajratuvchi (spetsifik) xususiyatlarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir [3].

V.V. Davidovning fikricha, umumiy tushunchalarni yakka tushunchalardan farqlash qabul qilingan. Uning ta’kidlashicha: «Umumiy tushunchalar — bir xil nom bilan ataladigan bir turdagi narsa va hodisalarning muayyan guruhini qamrab oluvchi tushunchalardir. Masalan, “karavot”, “konstruksiya”, “kasallik” va boshqa tushunchalar. Umumiy tushunchalar mazkur tushunchaga mos keluvchi barcha obyektlarga xos bo‘lgan belgilarni aks ettiradi.

Yakka tushunchalar esa faqat bitta predmet yoki hodisani ifodalovchi tushunchalardir. Yakka tushunchalar muayyan predmet haqidagi bilimlar majmuini nazarda tutadi, ayni paytda ular boshqa, yanada umumiy tushuncha doirasida qamrab olinishi mumkin bo‘lgan xususiyatlarni ham ifodalaydi. Masalan, “uchburchak” tushunchasida uning uchta kesmadan tashkil topgan va bir to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan uchta nuqta orqali tutashtirilgan geometrik shakl ekanligi ifodalanadi» [6].

Tafakkur — mantiqiy amallar yordamida xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan bilish jarayonidir [7].

I.A. Zimnyaya quyidagicha ta’kidlaydi: «Xulosa chiqarish — insonning bir qator hukmlardan yangi xulosaga kelish imkonini beruvchi tafakkur shaklidir. Boshqacha aytganda, mavjud hukmlarni tahlil qilish va taqqoslash asosida yangi hukm shakllantiriladi» [8].

A.V. Petrovskiy xulosa chiqarishning asosida **induksiya va deduksiya** yotuvchi ikki turini ajratib ko‘rsatadi: «Induksiya — xususiy holatlardan umumiy qoidaga tomon xulosa chiqarishdir. Deduksiya — umumiy hukmning yagona to‘g‘ri hukm yoki umumiy qoidaga asoslangan holda kelib chiqishini ifodalovchi xulosadir» [24].

L.F. Tixomirovaning ta’rifiga ko‘ra: «Mantiqiy tafakkur — til va til vositalariga asoslangan holda tushunchalar hamda mantiqiy konstruksiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadigan tafakkur turlaridan biridir».

A.V. Petrovskiyning fikricha: «Mantiqiy fikrlash qobiliyati bir qator tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- predmet va hodisalarning muhim xususiyatlariga yo‘nala olish;
- mantiq qonunlariga amal qilish, o‘z faoliyatini mantiqiy amallarni bajarish qobiliyatiga muvofiq ravishda tashkil eta olish;
- o‘z fikrlarini ongli ravishda asoslash va dalillash, gipotezalar ilgari surish hamda ularning mumkin bo‘lgan oqibatlarini aniqlay olish.

Shu sababli mantiqiy tafakkur quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi: butunlikni tashkil etuvchi elementlar va qismlarning tarkibi, tuzilishi hamda o‘zaro tashkil topishini aniqlay olish; obyekt va hodisalarning muhim xususiyatlariga yo‘nalish;

- obyekt va subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlay olish, ularning vaqt davomida yuz beradigan o‘zgarishlarini ko‘ra bilish;
- mantiq qonunlariga amal qilish, ular asosida rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash, gipotezalar ilgari surish hamda ularning oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish;
- mantiqiy amallarni ongli ravishda, ularni asoslagan va dalillagan holda bajara olish».

Psixolog L.F. Tixomirova maktab ta’limining psixologik-pedagogik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotida haqli ravishda shunday ta’kidlaydi: «Mantiqiy tafakkur insonga tug‘ma ravishda berilmaydi. Inson uni hayotiy faoliyati va ta’lim jarayonida egallaydi». Olim mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda matematikaning muhim ahamiyatini ta’kidlagan holda, mazkur ta’limni tashkil etishning quyidagi umumiy qoidalarini ko‘rsatib o‘tadi:

- tafakkur madaniyatini o‘rganish va uni kundalik hayot faoliyatida namoyon etish jarayonining izchilligi va davomiyligini ta’minlash;
- fikrni bayon etish va uni asoslash jarayonida mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik;
- o‘z tafakkurini takomillashtirishga qaratilgan uzoq muddatli va izchil faoliyatga bolalarni jalb etish hamda buni ta’limning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida belgilash;
- o‘rganilayotgan predmet mazmuniga, avvalo, intellektual faoliyatni amalga oshirishda yo‘nalish beruvchi usullar haqidagi nazariy bilimlarni kiritish.
- L.A. Karpenkoning ta’kidlashicha, «Bolaning mantiqiy tafakkurini shakllantirish — bilimlarning empirik darajasidan (ko‘rgazmali-amaliy tafakkur) nazariy darajaga (mantiqiy tafakkur) o‘tish jarayoni bo‘lib, keyinchalik o‘zaro bog‘liq qismlardan tashkil topgan yaxlit tizimni anglash bilan tavsiflanadi. Mazkur tizimning elementlari mantiqiy tafakkur usullaridan iborat bo‘lib, ular mantiqiy fikrlash jarayonining yaxlitligini ta’minlaydi» [10].

Shunday qilib, **mantiqiy tafakkur** — mohiyatan mantiq qonunlari asosida tushunchalar, hukmlar va xulosalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish, ularni taqqoslash hamda boshqa fikrlar tizimidagi harakatlar bilan o‘zaro bog‘lashga asoslangan tafakkur turidir. Boshqacha aytganda, mantiqiy tafakkur — mavjud bilimlarni voqelik bilan bog‘lash imkonini beruvchi, sabab-oqibat qonuniyatlari bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan oqilona va mantiqan asoslangan fikrlash harakatlari yoki tafakkur operatsiyalari majmuasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алексеева О. В. Логическая подготовка младших школьников при обучении математике: дис. … канд. пед. наук: 13.00.02. — М., 2000. — 243 с.
2. Гальперин П. Я. Введение в психологию: учебное пособие. — М.: Книжный дом «Университет»; Ростов н/Д: Феникс, 1999. — 332 с.
3. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Словарь русского языка: 70 000 слов. — 21-е изд., перераб. и доп. — М.: Русский язык, 1989. — 924 с.
4. Зимняя И. А. Педагогическая психология: учебник для вузов. — 2-е изд., доп., испр. и перераб. — М.: Логос, 2000. — 384 с.
5. Давыдов В. В. Виды обобщения в обучении: логико-психологические проблемы построения учебных предметов. — М.: Педагогика, 1972. — 424 с.
6. Тихомирова Л. Ф. Развитие интеллектуальных способностей школьника: популярное пособие для родителей и педагогов. — Ярославль: Академия развития, 1996. — 237 с.
7. Петровский А. В. Общая психология. — М.: Просвещение, 1976.
8. Марцинковская Т. Д. Психология: учебник. — М.: Академия.
9. Демидова Т. Е. Психология и педагогика развития мышления учащихся.
10. Карпенко Л. А. Психолого-педагогические основы формирования логического мышления детей.
11. Тихомирова Л. Ф. Развитие логического мышления детей. — Ярославль: Академия развития.
12. Эльконин Д. Б. Психология обучения младшего школьника. — М.
13. Никитин Б. П. Ступеньки творчества, или Развивающие игры. — М.: Просвещение.
14. Никитин Б. П. Интеллектуальные игры. — М.
15. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. — М.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РУССКОГО ЯЗЫКА: СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Хикматова М. А.

Магистрант 2-го курса Азиатского международного университета, г. Бухара

Современный русский язык представляет собой сложную и многоуровневую систему, в которой особое место занимает фразеология. Фразеологические единицы являются неотъемлемой частью словарного состава языка и выполняют важную коммуникативную, экспрессивную, эмоционально-оценочную и культурологическую функции. Они позволяют сделать речь более образной, выразительной и содержательной.

Фразеологическая система русского языка складывалась на протяжении многих веков и отражает исторический опыт народа, особенности его мышления, культуры, быта и мировосприятия. Именно поэтому изучение фразеологии имеет большое значение не только для языкознания, но и для лингвокультурологии, когнитивной лингвистики, теории коммуникации и методики преподавания русского языка.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью комплексного рассмотрения фразеологических единиц с точки зрения их структурной организации и семантических особенностей. В условиях активного развития межкультурной коммуникации и расширения сферы изучения русского языка как иностранного особую значимость приобретает глубокое понимание механизмов формирования и функционирования фразеологизмов.

Фразеология изучает устойчивые сочетания слов с целостным значением, представляя собой одну из самых сложных областей лингвистики. Проблемное поле включает вопросы дефиниции, классификации, семантики и этимологии фразеологизмов. Исследователи фокусируются на разграничении фразеологизмов и свободных сочетаний, их функционально-стилистических особенностях и культурологическом аспекте.

К основным проблемным зонам исследования фразеологии относятся: Определение границ фразеологии: Выявление критериев устойчивости и воспроизводимости, отграничение фразеологизмов от свободных словосочетаний и паремий. Классификация и типология: Разграничение фразеологических сращений, единств, сочетаний и выражений. Семантика фразеологических единиц. Изучение механизмов формирования переносного значения, идиоматичности и фразеологической связанности.

Фразеология представляет собой раздел языкознания, изучающий устойчивые сочетания слов, обладающие целостным значением и воспроизводимые в речи в готовом виде. Одновременно термин «фразеология» употребляется для обозначения совокупности всех фразеологических единиц конкретного языка.

Главной особенностью фразеологических единиц является их семантическая целостность. Значение фразеологизма обычно воспринимается как единое целое и не сводится к сумме значений составляющих его компонентов. В отечественной лингвистике широко известна классификация фразеологических единиц по степени семантической слитности компонентов.

Фразеологическая система русского языка включает большое количество устойчивых словосочетаний и выражений, которые отличаются от свободных словосочетаний рядом характерных признаков. Фразеологическая система русского языка не является неизменной. Она постоянно развивается и пополняется новыми единицами.

Современная языковая практика способствует появлению новых устойчивых выражений и переосмыслению уже существующих фразеологических конструкций. При этом традиционные фразеологизмы продолжают активно функционировать в языке и сохраняют свою культурную ценность. Особенно заметным становится процесс трансформации фразеологизмов в медиатекстах и интернет-коммуникации. Журналисты и авторы часто намеренно изменяют традиционную форму устойчивых выражений для создания языковой игры и усиления выразительности текста.

Таким образом, современная фразеология представляет собой открытую и динамичную систему, в которой взаимодействуют традиционные и новые языковые единицы.

Заключение: Проведённый структурно-семантический анализ показывает, что фразеологическая система русского языка представляет собой сложную, многоуровневую и динамично развивающуюся подсистему языка. Фразеологические единицы отличаются устойчивостью, воспроизводимостью, семантической целостностью и высокой степенью образности. Структурное разнообразие фразеологизмов проявляется в существовании единиц, имеющих форму словосочетаний, глагольных и субстантивных конструкций, а также целых предложений. С семантической точки зрения фразеологические единицы различаются степенью слитности компонентов и характером взаимодействия прямого и переносного значений.

Особое значение фразеология имеет как средство сохранения и передачи национально-культурного опыта народа. В устойчивых выражениях отражаются особенности исторического развития, быта, традиций и мировоззрения носителей русского языка. Следовательно, изучение фразеологической системы русского языка позволяет глубже понять не только закономерности функционирования языковых единиц, но и особенности национального сознания и культуры. Перспективы дальнейшего исследования связаны с изучением современных процессов трансформации фразеологии, её функционирования в цифровой коммуникации, медиапространстве и межкультурном взаимодействии.

Список использованной литературы:

1. Виноградов В. В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – Москва: Наука.
2. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа.
3. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа.
4. Баранов А. Н., Добровольский Д. О. Нестандартные употребления фразеологизмов (факторы и предпосылки) // Верхневолжский филологический вестник. - Ярославль, 2015, № 1. - С. 13-17.
5. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. - М.: Рос. гос. гуманит. ун-т., 2001. - 439 с.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIGA E’TIBOR

Азизов Абдулазиз
БДТУ muhandislik fakulteti elektr muhandisligi yo‘nalish 3-босқич талабаси

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyotining muhim omillaridan biri inson kapitaliga investitsiya kiritish, yosh avlodga sifatli ta’lim berish va zamonaviy bilimlarni egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.
В заключении хотелось бы сказать что психологическая деятельность по целенаправленному формированию выделенных компонентов психологической готовности к инновационной деятельности позволит снизить сопротивление педагогов к инновациям, обеспечит активизацию инновационной деятельности в образовательном учреждении, а также будет способствовать созданию педагогами собственных инновационных проектов и обогащению инновационной деятельности в образовательном учреждении.

Литература:

1. Авакян И. Б. Сравнительный анализ особенностей инновационной готовности педагогов и социально психологического климата педагогических коллектив колледжей // Инновации в образовании. 2017. № 1. С. 65–84.
2. Андреева Л. Д. Образование и саморазвитие личности молодого специалиста // Школа саморазвития «Ил Турук»: проблемы, опыт, ожидания». Якутск: Изд-во ЯГУ, 2005. С. 35–36.
3. Бардина Н. Ю. Способы преодоления проблем в инновационной деятельности высшего учебного заведения // Экономика и право. 2015. № 5. С. 51–54.
4. Виноградова Г. А. Климат в педагогическом коллективе и субъективное благополучие личности педагога: монография. Тольятти: ТГУ, 2010. 100 с.
5. Kurbanov I. H. Features of the professional image of the specialist in the modern world of the education // Навчання і виховання обдарованої дитини: теорія і практика : зб. наук. праць / В. В. Комишин (гол. ред. та ін.). – Київ: ІОД. – 2018. Вип. 2. – С. 121–129. [Курбанов И. Х. Особенности профессионального имиджа специалиста в современном мире образования]. ***Статья, сборник научных трудов, ВАК Украины.***
6. Курбанов И. Х. (2019) Психологическая готовность личности к инновационной деятельности основной ресурс инновационных преобразований в Узбекистане // Fundamental and applied researches in practice of leading scientific schools. 2 (34), 27-34. статья, научный журнал Канда.
7. Kurbanov I. H. The main role of professional competence teacher of the modern times // Освіта і розвиток обдарованої особистості: наук.-метод. журнал / Н. Ф. Федорова (гол. ред. та ін.). – Київ: ІОД. – 2018. № 4 (71) . – С. 61–66. [Курбанов И. Х. Основная роль компетентности профессионального преподавателя современности]. Статья, сборник научных трудов, ВАК

ПСИХОДИАГНОСТИКА В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Маюсупова Ширин Шункор кизи,
Курсант 3-го курса Академии МВД Республики Узбекистан
Научный руководитель:Кодиркулов Азизжон Саидкул угли,
Преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

Психологическая диагностика в рамках ведомственного образования ОВД выступает валидным научно-методическим инструментом контроля, оптимизирующим профессиональный отбор, персонализацию обучения и превенцию профессионально-личностной деформации [1]. В контексте повышенной экстремальности оперативно-служебной деятельности и строгой правовой регламентации диагностические методики позволяют сместить фокус с формального учета академической успеваемости на

комплексную оценку психоэмоциональной зрелости, поведенческой надежности и адаптационного потенциала курсантов. Психодиагностика реализуется как перманентный компонент психологического сопровождения на всех этапах служебно-профессионального онтогенеза: от первичного отбора абитуриентов до выпуска и периодической аттестации действующего состава.

В структуре кадровой подготовки психодиагностика выполняет интегративную функцию, гармонизируя квалификационные требования службы, специфику образовательной среды и индивидуально-психологические свойства личности. В отличие от стандартных процедур педагогического контроля, она направлена на верификацию латентных личностных диспозиций, определяющих стрессовую толерантность и успешность служебного функционирования. Таким образом, в психолого-педагогическом дискурсе диагностика трансформируется из селективного механизма в действенный инструмент развивающего мониторинга.

Экстремальный характер правоохранительной службы — сопряженный с дефицитом времени, постоянной конфликтогенностью и высокими социальными рисками — обусловливает необходимость углубленного анализа некогнитивных факторов пригодности. Диагностический комплекс охватывает не только когнитивный статус обучаемых, но и базовые профессионально важные качества: саморегуляцию эмоциональных состояний, коммуникативную компетентность, ценностно-смысловую направленность, а также маркеры импульсивности и когнитивной ригидности. Именно данный симптомокомплекс обеспечивает эффективную трансдукцию теоретических знаний в практическую оперативно-служебную плоскость.

На этапе первичного профессионального отбора психологическая диагностика выполняет функцию фильтрации рисков, позволяя выявить несоответствие индивидуально-психологических особенностей кандидата требованиям профессии. Однако современный подход предполагает отказ от исключительно селективной логики в пользу прогностической и развивающей. Диагностические данные используются не только для принятия решений о зачислении, но и для формирования индивидуальных образовательных траекторий, определения зон потенциального риска и ресурсов развития обучающихся [2].

Особое значение психодиагностика приобретает в период адаптации курсантов и молодых сотрудников. Переход к жёстко регламентированной учебной и служебной среде сопровождается повышенной нагрузкой на механизмы саморегуляции, что может проявляться в тревожности, снижении мотивации, дисциплинарных трудностях и конфликтности. Регулярный диагностический мониторинг позволяет своевременно выявлять признаки дезадаптации и корректировать образовательные и воспитательные воздействия, предотвращая формирование устойчивых негативных паттернов поведения.

В процессе профессиональной подготовки психологическая диагностика выполняет функцию мониторинга динамики развития. Повторные измерения дают возможность оценивать эффективность образовательных программ, тренингов и наставничества, а также отслеживать изменения в уровне саморегуляции, эмоциональной устойчивости и профессиональной идентичности. Такой подход повышает объективность педагогических выводов и позволяет опираться не только на субъективные впечатления преподавателей и руководителей, но и на эмпирически подтверждённые данные.

В системе аттестации и кадровых решений психодиагностика способствует повышению валидности оценки профессиональной компетентности. В условиях, когда формальные показатели успеваемости или дисциплины не всегда отражают реальную готовность к службе, психологические данные позволяют дополнить оценку сведениями о надёжности поведения, склонности к рисковым или контрпродуктивным формам активности, уровне моральной регуляции и устойчивости к профессиональным стрессорам. Это снижает вероятность ошибочных управленческих решений и способствует более рациональному распределению кадрового ресурса [3].

Принципиально важным является этическое и научное обеспечение психологической диагностики. Используемые методики должны обладать доказанной валидностью и надёжностью, соответствовать культурному и профессиональному контексту, а интерпретация результатов – осуществляться квалифицированными специалистами. Диагностика не должна превращаться в инструмент стигматизации или формального контроля; её ключевой функцией остаётся развитие и профилактика, а не наказание или навешивание ярлыков.

Таким образом, психологическая диагностика в системе подготовки кадров органов внутренних дел представляет собой многофункциональный механизм, объединяющий задачи отбора, сопровождения и профилактики профессиональных рисков. Её интеграция в систему непрерывного психологического обеспечения подготовки кадров повышает качество профессионального образования, способствует формированию психологически устойчивых и надёжных сотрудников и создаёт условия для долгосрочного поддержания эффективности и легитимности правоохранительной деятельности.

Список литературы:

1. Маклаков А. Г., Чермянин С. В. Многоуровневый личностный опросник «Адаптивность»: методическое руководство. - СПб. : Речь, 2001. - 56 с.

2. Зазыкин В. Г. Психология профессиональной деятельности сотрудников органов внутренних дел. – М. : Академия управления МВД России, 2009. - 272 с.

3. Anastasi A., Urbina S. Psychological testing. - 7th ed. - Upper Saddle River, NJ : Prentice Hall, 1997. - 799 p.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA O‘QUVCHILARNING META-PREDMET KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Norkulova Dilorom Oybekovna
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Bugungi kunda ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quvchilarning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy ta’limda o‘quvchining faqat fan doirasidagi bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli emas. U o‘z bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llashi, axborotni izlash va tahlil qilishi, muammoni aniqlashi va hal qilishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi, shuningdek, boshqa shaxslar bilan hamkorlikda faoliyat yurita olishi lozim. Bunday ko‘nikmalar o‘quvchining meta-predmet kompetensiyalarini tashkil etadi.

Meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirish ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchining keyingi ta’lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan mustaqil ishlash, o‘qish faoliyatini tashkil etish, axborot bilan ishlash, mantiqiy fikrlash, muloqotga kirishish va o‘z faoliyatini baholash kabi ko‘nikmalarining dastlabki asoslari shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning mazmuni, metodlari va vositalarini puxta egallagan bo‘lishi zarur.Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijasini faqat o‘zlashtirilgan bilimlar miqdori bilan emas, balki o‘quvchining bilim, ko‘nikma va tajribasini real faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilaydi. A.V. Xutorskoy kompetensiyalarni shaxsning turli faoliyat sohalarida samarali harakat qilish imkonini beruvchi umumlashgan bilim va faoliyat usullari bilan bog‘laydi. Muallif kompetensiyaviy yondashuvni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi [1, b. 58–64].Meta-predmet kompetensiyasi tushunchasi o‘quvchining muayyan bir fan doirasidagi bilimlari bilan cheklanmaydi. U turli fanlarni o‘zlashtirish jarayonida foydalaniladigan umumiy faoliyat usullarini ifodalaydi. Bunday faoliyat usullariga maqsad qo‘yish, rejalashtirish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, tasniflash, muammoni aniqlash, yechim izlash, axborotni qayta ishlash, muloqot qilish va o‘z faoliyatini baholash kabilarni kiritish mumkin. Boshlang‘ich ta’limda meta-predmet kompetensiyalarining shakllanishi universal o‘quv

harakatlari bilan chambarchas bog‘liq. S.V. Podzorova universal o‘quv harakatlarini o‘quvchining “o‘qishni bilishi”, ya’ni yangi bilimlarni mustaqil egallashi va o‘z o‘quv faoliyatini tashkil eta olishi bilan bog‘laydi. Uning tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatida maqsadni belgilash, o‘quv vazifasini tushunish, faoliyatni nazorat qilish va baholash kabi jarayonlarning ahamiyati ko‘rsatilgan [2, b. 3–5]. Universal o‘quv harakatlari tizimi o‘quvchiga turli predmet sohalarida bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, o‘z o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Mazkur harakatlar orqali o‘quvchi maqsad qo‘yishdan boshlab, vazifani bajarish, natijani nazorat qilish va baholashgacha bo‘lgan faoliyatni bosqichma-bosqich amalga oshiradi [2, b. 5–6]. Shu jihatdan universal o‘quv harakatlarini meta-predmet kompetensiyalarining amaliy ko‘rinishlaridan biri sifatida qarash mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda mazkur masalaning dolzarbligi shundan iboratki, bo‘lajak pedagog nafaqat o‘quv predmetlarining mazmunini bilishi, balki o‘quvchilarda turli faoliyat usullarini shakllantirish metodikasini ham egallashi kerak. O‘qituvchi darsni rejalashtirishda predmet natijalari bilan bir qatorda meta-predmet natijalarini ham oldindan belgilashi zarur. Masalan, matematika darsida o‘quvchining masalani yechishi predmet natijasi bo‘lsa, masalani yechish usulini mustaqil tanlashi, turli yechimlarni taqqoslashi va o‘z tanlovini asoslay olishi meta-predmet natija hisoblanadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsida matn mazmunini tushunish predmet natijasi sifatida qaralsa, matndan zarur axborotni izlash, asosiy fikrni ajratish, dalillarni taqqoslash va xulosa chiqarish meta-predmet faoliyatga kiradi.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchi dars loyihasini ishlab chiqishda har bir topshiriqning qanday predmet va meta-predmet natijaga xizmat qilishini aniqlay olishi kerak. Bu esa pedagogik oliy ta’lim muassasalarida talabalarning metodik tayyorgarligini yangi mazmun bilan boyitishni talab etadi.

Bizningcha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash metodikasini to‘rt o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqich — motivatsion-nazariy bosqich. Ushbu bosqichda talabalarda meta-predmet kompetensiyasi, universal o‘quv harakatlari, fanlararo yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va refleksiv ta’lim haqida ilmiy tushunchalar shakllantiriladi. Talabalar boshlang‘ich ta’limda meta-predmet natijalarning ahamiyatini anglab yetishlari va ularni dars jarayoniga kiritish zaruratini tushunishlari kerak.

Ikkinchi bosqich — loyihaviy-amaliy bosqich. Bunda talabalar boshlang‘ich sinf fanlari bo‘yicha meta-predmet topshiriqlarini ishlab chiqadilar, dars fragmentlarini loyihalaydilar va turli pedagogik vaziyatlarni modellashtiradilar. Masalan, talaba matematika fanidan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriq yoki o‘qish savodxonligi fanidan axborotni tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriq ishlab chiqishi mumkin.

Uchinchi bosqich — pedagogik modellashtirish bosqichi. Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan topshiriq va metodlar mikrodars shaklida sinovdan o‘tkaziladi. Talaba o‘qituvchi rolida, boshqa talabalar esa boshlang‘ich sinf o‘quvchisi rolida ishtirok etadi. Mashg‘ulot yakunida darsning mazmuni, metodlari, topshiriqlari va kutilayotgan meta-predmet natijalari tahlil qilinadi.

To‘rtinchi bosqich — refleksiv-baholash bosqichi. Bunda talaba o‘zining metodik faoliyatini tahlil qiladi, qo‘llangan metodlarning samaradorligini baholaydi va zarur hollarda dars loyihasiga o‘zgartirishlar kiritadi. Shu orqali bo‘lajak o‘qituvchida o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirishda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki kompetensiya tayyor holda berilmaydi, balki faoliyat jarayonida shakllanadi. Shuning uchun o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun unga mustaqil fikrlashni talab qiladigan topshiriqlar, hamkorlikda ishlashni shakllantirish uchun guruhli faoliyat, muammoni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar yaratish lozim.

Boshlang‘ich ta’limda meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirishning muhim metodlaridan biri muammoli ta’limdir. Muammoli vaziyat o‘quvchini tayyor javobni qabul qilishdan ko‘ra, mavjud bilimlari asosida yangi yechim izlashga undaydi. Bunda o‘quvchi

muammoni anglaydi, mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi, faraz ilgari suradi, yechimlarni taqqoslaydi va xulosa chiqaradi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni muammoli topshiriqlarni ishlab chiqishga o‘rgatish meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirish metodikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Loyiha metodi ham mazkur jarayonda samarali vosita bo‘la oladi. Loyiha faoliyatida o‘quvchi muammoni belgilaydi, maqsad qo‘yadi, reja tuzadi, axborot izlaydi, ma’lumotlarni tahlil qiladi, guruh bilan hamkorlik qiladi, natijani taqdim etadi va o‘z faoliyatini baholaydi. Shu sababli loyiha faoliyati bir vaqtning o‘zida kognitiv, kommunikativ, regulyativ va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida universal o‘quv harakatlarini shakllantirishda loyiha va boshqa faol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-metodik adabiyotlarda ham ko‘rsatib o‘tilgan [2, b. 15–17].

Bo‘lajak o‘qituvchilarga meta-predmet topshiriqlarini ishlab chiqishni o‘rgatishda “muammoli vaziyat”, “keys”, “loyiha”, “mikrodars”, “aqliy hujum”, “klaster”, “Venn diagrammasi”, “insert”, “refleksiya” kabi metodlardan foydalanish mumkin. Biroq metodning o‘zi emas, uning qanday pedagogik maqsadga xizmat qilishi muhimdir. Masalan, “Venn diagrammasi” taqqoslash va umumlashtirishni, “aqliy hujum” muammoning turli yechimlarini izlashni, “keys” real yoki shartli vaziyatni tahlil qilishni, “loyiha” esa mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishni ta’minlaydi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligida darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda dars bosqichlari, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, topshiriqlar, foydalaniladigan metodlar va kutilayotgan meta-predmet natijalar o‘zaro bog‘lanadi. Universal o‘quv harakatlarini shakllantirishda mazmun, metod, tashkiliy shakl va baholash tizimining o‘zaro uyg‘unligi muhimligi qayd etilgan [2, b. 6–7].

Meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida baholash ham alohida ahamiyatga ega. Agar o‘qituvchi faqat yakuniy javobni baholasa, o‘quvchining muammoni qanday hal qilgani, qanday axborotdan foydalangani, qanday fikrlash amallarini bajargani va o‘z faoliyatini qanday tashkil qilgani e’tibordan chetda qolishi mumkin. Shu sababli meta-predmet natijalarni baholashda jarayon va natijani birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq.

Mazkur maqsadda motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlardan foydalanish mumkin. Motivatsion mezon o‘quvchining mustaqil faoliyatga qiziqishini; kognitiv mezon tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatini; faoliyatli mezon bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammoni hal qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini; refleksiv mezon esa o‘z faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniyatini ifodalaydi.

Mazkur mezonlar asosida meta-predmet kompetensiyalarining uch darajasini belgilash mumkin. Past darajada o‘quvchi topshiriqlarni asosan o‘qituvchi ko‘magida bajaradi va yangi vaziyatlarda mavjud bilimlarini qo‘llashda qiynaladi. O‘rta darajada o‘quvchi tanish vaziyatlarda mustaqil faoliyat yurita oladi, biroq murakkab vazifalarda qo‘shimcha yordamga ehtiyoj sezadi. Yuqori darajada esa o‘quvchi muammoni mustaqil aniqlaydi, maqsad qo‘yadi, faoliyat rejasini tuzadi, axborotni izlaydi va tahlil qiladi, yechimlarni taqqoslaydi, qaror qabul qiladi hamda o‘z faoliyatini baholaydi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda “meta-predmet topshiriqlar banki”ni yaratish ham metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Ushbu bankda matematika, ona tili va o‘qish savodxonligi, tabiiy fanlar hamda boshqa boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha turli darajadagi topshiriqlar jamlanadi. Har bir topshiriqda uning mazmuni, maqsadi, shakllantiriladigan meta-predmet kompetensiyasi, bajarish usuli va baholash mezonlari ko‘rsatiladi. Bunday topshiriqlar banki bo‘lajak o‘qituvchiga darsni kompetensiyaviy asosda loyihalashda amaliy yordam beradi.

Tadqiqotning metodik nuqtayi nazaridan yana bir muhim jihat shundan iboratki, talaba-o‘qituvchi o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga haddan tashqari murakkab nazariy vazifalarni berish emas, balki uning yoshiga mos, amaliy, qiziqarli va muammoli topshiriqlar orqali fikrlash va faoliyat usullarini shakllantirish samaraliroq

hisoblanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchi meta-predmet topshiriqlarining murakkablik darajasini ham to‘g‘ri belgilashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quvchilarda meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi nazariy bilim, amaliy loyihalash, pedagogik modellashtirish va refleksiv-baholash bosqichlarining uzviy birligiga asoslanishi lozim. Mazkur metodika kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va fanlararo yondashuvlarni uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Meta-predmet kompetensiyalarini shakllantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, axborot bilan ishlash, hamkorlik qilish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va natijalarni baholash kabi muhim ko‘nikmalar rivojlanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini o‘zlashtirish zamonaviy boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2. — С. 58–64.
2. Подзорова С.В. Основные положения формирования универсальных учебных действий младших школьников // Образование и наука: современные тренды: коллективная монография. — 2016. — DOI: 10.21661/r-112445.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. — Ташкент: Чулпан, 2005. — 200 с.
4. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. — Тошкент: Фан, 2006.
5. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. — Тошкент: Истеъдод, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЛИЧНОГО СОСТАВА ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ СЛУЖЕБНОЙ СРЕДЫ

Пирмуродзода Бехруз Наврузбек,
Курсант факультета по работе с зарубежными кадрами
Академии МВД Республики Узбекистан,
Научный руководитель: Кодиркулов Азизжон Саидкул угли
преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры
Академии МВД Республики Узбекистан

Подготовка кадров в ведомственных вузах меняется под влиянием непрерывного роста информационных потоков и усложнения оперативно-служебной практики. Квалификационные требования к офицеру расширяются: наряду с правовой грамотностью и боевой выучкой решающую роль приобретает психологическая устойчивость к информационной перегрузке, публичной фиксации служебных действий и дефициту времени при выработке решений. Ментальное благополучие сотрудника выступает фундаментом его профессиональной надежности. Это системное условие, обеспечивающее усвоение ключевых качеств: стрессовой толерантности, уставной дисциплины, эмоционального самоконтроля, точности восприятия и профессиональной этики под давлением. Служба требует непрерывной аналитики баз данных, проверки сведений из открытых медиа и работы под пристальным внешним контролем. Подобная когнитивная

плотность неизбежно ведет к астенизации, истощает ресурсы внимания и провоцирует ошибки при принятии оперативных решений.

Уровень психологического здоровья прямо детерминирует когнитивную продуктивность и дидактическую восприимчивость курсантов. Хронический служебный дистресс, аффективные расстройства, депривация сна и латентная тревожность вызывают функциональную дезорганизацию рабочей памяти, сужают объем внимания и замедляют апперцепцию нормативно-правового материала. Данные деструктивные проявления мультиплицируются сенсорной перегрузкой, полизадачностью и необходимостью перманентного переключения между разнородными информационными потоками [2].

В образовательном процессе ведомственных вузов указанный симптомокомплекс выражается в деформации алгоритмов профессионального реагирования, быстрой истощаемости на практических тренингах, росте числа оперативно-тактических ошибок и выраженной дисперсии показателей успеваемости на аттестациях. В конечном счете нивелируется не только текущая академическая результативность, но и фундаментальная способность курсанта экстраполировать устойчивые поведенческие паттерны в реальную правоприменительную практику.

Особое значение имеет влияние психологического здоровья на способность к саморегуляции. Подготовка сотрудников ОВД требует не только овладения знаниями и навыками, но и формирования способности управлять собственным состоянием в напряжённых обстоятельствах. Речь идёт о способности выдерживать паузу перед действием, контролировать импульсивные реакции, сдерживать агрессию, сохранять профессиональную позицию в конфликте, применять деэскалационные способы взаимодействия и действовать в рамках служебной дисциплины.

Информационные и цифровые угрозы усложняют данную задачу. Сотрудник может сталкиваться с провокациями в социальных сетях, распространением недостоверной информации, видеозаписями служебных ситуаций, эмоционально окрашенными комментариями и давлением общественного мнения. В таких условиях недостаточная саморегуляция повышает риск эмоциональных срывов, конфликтности, грубости, поспешных решений и нарушений профессиональной этики. Поэтому развитие навыков эмоционально-волевой саморегуляции должно рассматриваться как обязательный компонент современной подготовки сотрудников ОВД [3].

Психологическое здоровье тесно связано и с формированием профессиональной идентичности сотрудника. В условиях длительного стресса, психического истощения и информационного перенапряжения чаще формируются циничные установки, эмоциональное отчуждение, снижение эмпатии и равнодушие к содержанию профессиональных норм. В такой ситуации модули подготовки, связанные с этикой, правами человека, законностью, процедурной справедливостью и культурой общения с гражданами, могут восприниматься не как внутренне значимые ориентиры, а как формальные требования.

Это создаёт риск профессиональной деформации и контрпродуктивных форм поведения. В условиях цифровой публичности подобные риски приобретают особую значимость, поскольку некорректное поведение сотрудника может быстро получить общественный резонанс, нанести ущерб авторитету подразделения и снизить доверие граждан к органам внутренних дел. Следовательно, психологическое здоровье сотрудника выступает не только индивидуальным ресурсом, но и фактором институциональной устойчивости правоохранительной системы.

Обеспечение психологического здоровья должно быть включено в систему кадровой подготовки не как эпизодическая мера реагирования на уже возникшие трудности, а как постоянный элемент образовательной, воспитательной и служебно-подготовительной работы. На организационном уровне особую значимость приобретают регулярный мониторинг психологического состояния, скрининг признаков стресса и профессионального выгорания, рациональное распределение учебной и служебной

нагрузки, предупреждение информационной перегрузки, создание психологически безопасной среды и формирование понятных стандартов обращения за помощью.

На уровне образовательного процесса необходимы программы, направленные на развитие стрессоустойчивости, навыков саморегуляции, цифровой адаптивности, критического восприятия информации и культуры информационной безопасности. Подобные программы могут включать обучение стресс-менеджменту, дыхательным и когнитивным техникам снижения напряжения, способам восстановления психофизиологических ресурсов, гигиене сна, навыкам эмоционального контроля, командной поддержке и профессиональной коммуникации в цифровой среде.

Отдельное значение имеет подготовка наставников и руководителей к раннему распознаванию признаков психологической дезадаптации. Наставник и руководитель в системе подготовки кадров выполняют не только контролирующую или обучающую функцию, но и выступают важными субъектами первичного выявления эмоционального неблагополучия, снижения мотивации, признаков истощения и поведенческой дезорганизации. При отсутствии соответствующей подготовки подобные сигналы могут ошибочно восприниматься исключительно как проявления недисциплинированности или недостатка мотивации.

В условиях информатизированного общества к признакам дезадаптации могут относиться не только раздражительность, утомляемость, снижение дисциплины и эмоциональная отстранённость, но и трудности адаптации к цифровым требованиям, тревожность при работе с электронными системами, зависимость от постоянной служебной коммуникации, снижение концентрации из-за информационной перегрузки, а также некритичное восприятие информации из цифровых источников. Своевременное выявление таких проявлений позволяет предупредить более тяжёлые формы профессионального выгорания и психологической дезадаптации.

Список литературы:

1. Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» и мерах по ее эффективной реализации : Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 г. № УП-6079 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. — URL: https://lex.uz/ru/docs/5031048.

2. О кибербезопасности : Закон Республики Узбекистан от 15 апреля 2022 г. № ЗРУ-764 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. — URL: https://lex.uz/ru/docs/5960609.

3. Руководящие принципы по охране психического здоровья на рабочем месте. — Женева : Всемирная организация здравоохранения, 2022. — URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240053052.

4. Mental health at work : fact sheet / World Health Organization. — 2024. — URL: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/mental-health-at-work.

5. Queirós C. Burnout and stress measurement in police officers: literature review and a study with the Operational Police Stress Questionnaire / C. Queirós, F. Passos, A. Bártolo, S. Faria, S. M. Fonseca, A. J. Marques, C. F. Silva, A. Pereira // Frontiers in Psychology. — 2020. — Vol. 11. — Article 587.

6. Violanti J. M. Law enforcement suicide: a review / J. M. Violanti, S. L. Owens, E. McCanlies, D. Fekedulegn, M. E. Andrew // Policing: An International Journal. — 2019. — Vol. 42, № 2. — P. 141–164.

IQTIDORLI TALABALARNI ANIQLASH VA ULARNING KASBIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLARI

Ro`ziyeva Iroda G`iyosovna
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi
Istamova Feruza Madiyorovna
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi katta o`qituvchi

Jamoat salomatligi texnikumida bo‘lajak tibbiyot xodimining tayyorgarligi bilimni eslab qolish, amaliy vazifani to‘g‘ri bajarish va inson bilan mas’uliyatli muloqot qilish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar ushbu yo‘nalishlarda turlicha rivojlanadi: biri nazariy bog‘lanishlarni tez anglaydi, boshqasi amaliy harakatlarni puxta bajaradi, yana biri bemorga murakkab ma’lumotni sodda tushuntira oladi. O‘qituvchining vazifasi shu farqlarni kuzatib, har bir o‘quvchiga o‘z imkoniyatini ko‘rsatadigan va rivojlantiradigan topshiriqlar yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim sohasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilaydi [1]. Texnikum sharoitida ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi, qiziqishi va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oladigan o‘qitishni talab etadi. Ushbu maqolada iqtidorni qo‘llab-quvvatlash ana shu vazifaning pedagogik yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda ilg‘or o‘quvchilarga murakkabroq vazifalar taklif qilish bilan birga, salohiyati hali to‘liq namoyon bo‘lmagan o‘quvchilarga ham izlanish va mashq qilish imkoniyati yaratilishi lozim.

J. Renzullining uch halqali konsepsiyasida iqtidorli xulq-atvor o‘rtachadan yuqori qobiliyat, vazifaga sadoqat va ijodkorlikning o‘zaro ta’siri orqali izohlanadi [2]. Mazkur qarash o‘qituvchining e’tiborini bilim ko‘rsatkichi bilan birga o‘quvchining izlanishi va ishni davom ettirishga tayyorligiga qaratadi. Texnikumga tatbiq etilganda, mavzuni tez tushunish, vaziyatga asosli yechim taklif qilish va ishdagi kamchiliklarni izchil tuzatish kuzatiladigan belgilar sifatida olinishi mumkin. Ular takroriy vazifalarda namoyon bo‘lishi orqali baholanadi.

R.Ryan va E. Deci o‘quv motivatsiyasini tushuntirishda mustaqillik, o‘zini qobiliyatli his etish va boshqalar bilan aloqadorlik ehtiyojlarini ta’kidlaydi [3]. Bu yondashuv o‘qituvchiga aniq chegaralar doirasida tanlash imkoniyatini berish, bajariladigan vazifaning ahamiyatini tushuntirish va yutuqni asosli qayd etish uchun nazariy tayanch bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi sog‘lom turmushga oid loyihada mavzu yoki taqdimot shaklini tanlashi mumkin. Bunda baholash mezonlari barcha ishtirokchilarga avvaldan tushuntiriladi.

B.Zimmerman o‘zini boshqarib o‘rganishni maqsad qo‘yish, o‘quv faoliyatini kuzatish va natijalar ustida fikr yuritish bilan bog‘laydi [4]. Texnikum o‘qituvchisi bu tamoyilni mashg‘ulot oldidan kichik maqsad belgilash va yakunda unga qay darajada erishilganini tahlil qilish orqali qo‘llashi mumkin. O‘quvchi qaysi harakatni o‘zlashtirgani, qayerda yordam zarurligi va keyingi mashqda nimani o‘zgartirishini yozib boradi. Bunday yozuvlar uning mustaqil o‘rganish odatlarini kuzatishga xizmat qiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining hamshiralik ta’limi o‘qituvchilari kompetensiyalariga bag‘ishlangan qo‘llanmasi pedagog faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni tizimlashtiradi [5]. Bu manba texnikumdagi tibbiy fan o‘qituvchisi uchun ham metodik yo‘nalish beradi. Biroq xalqaro konsepsiyalarni mahalliy o‘quv dasturi, o‘quvchilarning yoshi, mashg‘ulot jihozlari va o‘qituvchining imkoniyatlariga moslashtirish zarur. Iqtidorni rivojlantirishdagi yangilik aynan shu sharoitlarga mos vazifa va baholash usulini tanlashda ifodalanadi.

Taklif etilayotgan yondashuv bo‘yicha dastlabki kuzatish barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. O‘qituvchi qisqa bilim topshirig‘i, amaliy mashq, vaziyatli suhbat va mustaqil ish namunalarini birgalikda ko‘rib chiqadi. Baholashda faqat yakuniy javob emas, unga olib kelgan fikrlash yo‘li ham qayd etiladi. Bir mashg‘ulotdagi hayajon, nutqdagi tortinchoqlik yoki avvalgi tayyorgarlikning yetishmasligi asosida o‘quvchining salohiyati haqida qat’iy xulosa chiqarishdan saqlanish kerak.

Kognitiv yo‘nalishda o‘quvchining sabab va oqibatni tushuntirishi, asosiy ma’lumotni ajratishi hamda bilganini yangi vaziyatga qo‘llashi kuzatiladi. Amaliy yo‘nalishda harakatlarning izchilligi, aniqligi va xatoni ko‘ra olishi muhim. Kommunikativ yo‘nalishda tinglash, tushunarli savol berish, bemorning xavotirini inobatga olish va jamoada axborot almashish baholanadi. Ijodiy yo‘nalishda esa muammoga bir necha asosli yechim taklif qilish, ma’lumotni mos shaklda taqdim etish va o‘z taklifini dalillash e’tiborga olinadi. Kuzatuv varag‘ida sana, vazifa, kuzatilgan aniq harakat, ko‘rsatilgan yordam va keyingi rivojlantirish vazifasi yozilishi tavsiya etiladi. “Faol o‘quvchi” kabi umumiy tavsif o‘rniga “vaziyatdagi muhim belgilarni ajratdi va qarorini ikki dalil bilan tushuntirdi” kabi qayd foydaliroqdir. Bu yozuvlar o‘qituvchilar o‘rtasida muhokama qilishga va o‘quvchining turli fanlardagi kuchli tomonlarini qiyoslashga yordam beradi. Xulosalar bir necha topshiriq va kuzatuvga tayanganida asosliroq bo‘ladi.

O‘quvchining o‘zi ham rivojlanish maqsadini tanlashda qatnashishi lozim. Suhbatda qaysi faoliyat qiziqish uyg‘otishi, qaysi vazifa qiyin kechishi va qanday yordam kutilayotgani aniqlanadi. Internetga kirish, tilni bilish yoki qo‘shimcha mashg‘ulotga qatnashish imkoniyati o‘quvchilar orasida turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli loyiha va tanlovlarda qatnashish uchun zarur materiallar dars jarayonida ham taqdim etilishi kerak. Rivojlantiruvchi guruhga keyinchalik qo‘shilish imkoniyati saqlanadi. Individual ta’lim rejasi qisqa va bajariladigan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Unda o‘quvchining kuchli tomoni, rivojlantiriladigan ko‘nikma, amaliy topshiriq, ustoz yordami va baholash muddati belgilanadi. Masalan, nazariy bilimi yaxshi, lekin suhbatda qiynaladigan o‘quvchiga bemorga muolaja mazmunini sodda tushuntirish mashqi beriladi. Muloqoti kuchli o‘quvchi esa o‘z tavsiyasini ishonchli manba bilan asoslash ustida ishlaydi. Shu tarzda rivojlantirish vazifasi mavjud kuchli tomon bilan to‘ldirilishi kerak bo‘lgan ko‘nikmani bog‘laydi.

Differensial topshiriqlar bir mavzuni turli murakkablikda o‘zlashtirishga yordam berishi mumkin. Tayanch bosqichda o‘quvchi tushuncha va harakatlar ketma-ketligini izohlaydi. Keyingi bosqichda u vaziyatdagi kamchiliklarni topadi va tuzatishni asoslaydi. Murakkabroq bosqichda o‘quvchi bir nechta yechimni solishtirib, tanlovining sababini bayon etadi. Barcha bosqichlarda bir xil kasbiy xavfsizlik talablari saqlanadi. Iqtidorli o‘quvchining vazifasi chuqurlashtiriladi, ammo o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar nazorati davom ettiriladi.

Simulyatsion mashg‘ulotda o‘qituvchi oldindan maqsad va baholash mezonlarini tushuntiradi, keyin o‘quvchiga vazifani bajarish imkonini beradi. W. McGaghie va hammualliflarning qiyosiy meta-tahlili maqsadli takroriy mashq bilan birlashtirilgan simulyatsion ta’limning ko‘nikmalarni o‘zlashtirishdagi foydasini ko‘rsatgan [6]. Texnikum uchun bundan kelib chiqadigan metodik taklif: qisqa mashq, aniq fikr-mulohaza va tuzatilgan takroriy urinishni bir mashg‘ulot ichida tashkil etishdir. Mazkur tadqiqot xulosasi mahalliy texnikumda aynan bir xil natija kuzatilishini anglatmaydi. O‘quv vaziyati sifatida bemorning tekshiruvdan xavotirlanishi va savollar berishi tasvirlanishi mumkin. Bir o‘quvchi tibbiyot xodimi, ikkinchisi bemor, uchinchisi kuzatuvchi rolini bajaradi. Kuzatuvchi tushuntirishning aniqligi, savollarga javob, hurmat va bemor tushunganini tekshirishga e’tibor beradi. So‘ng rollar almashtiriladi. Yakuniy muhokamada muvaffaqiyatli harakat va takomillashtiriladigan jihat ajratiladi. Bu topshiriqda yetakchilik, empatiya va fikrni tartibli yetkazish qobiliyatlarini birgalikda kuzatish mumkin.

Loyiha usuli o‘quvchining kasbiy qiziqishini jamoat salomatligi masalalari bilan bog‘laydi. Masalan, guruh aholi uchun tushunarli sanitariya ma’rifati varaqasi yoki qisqa axborot taqdimoti tayyorlaydi. O‘qituvchi manbaning ishonchliligini, ma’lumotning to‘g‘riligini va auditoriyaga mosligini tekshiradi. Loyiha o‘quv maqsadida ishlab chiqiladi, tarqatilishidan oldin mas’ul mutaxassis ko‘rib chiqadi. Baholashda dizayn bilan birga dalil sifati, tushunarlilik, jamoaviy hissalar va bildirilgan mulohazalarga javoban kiritilgan tuzatishlar hisobga olinadi.

Iqtidorni rivojlantirishda o‘quvchiga savol berish va xatosini muhokama qilish mumkin bo‘lgan muhit kerak. O‘qituvchi baholashni shaxsga emas, bajarilgan ishga qaratadi. “Siz doimo birinchi bo‘lishingiz kerak” kabi kutilma o‘rniga aniq maqsad va uning bajarilish darajasi muhokama qilinadi. Muayyan vazifada qiynalish boshqa yo‘nalishdagi qobiliyatni inkor etmaydi.

O‘quvchining tashabbusi, yordam so‘rashi va ishini qayta ko‘rib chiqishi ham rivojlanish belgisi sifatida e’tirof etiladi.

Mustaqillikni qo‘llab-quvvatlashda tanlash imkoniyati o‘quv dasturi va xavfsizlik chegaralari bilan uyg‘unlashtiriladi. Masalan, o‘quvchi loyiha mavzusini tanlaydi, ammo ilmiy manba ko‘rsatish va kasbiy etika talablariga amal qiladi. Fikr-mulohaza vazifa bo‘yicha erishilgan natijani, yaxshilanishi kerak bo‘lgan jihatni va keyingi amaliy qadamni ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quvchining boshqa fanlardagi yuklamasini ham inobatga olib, qo‘shimcha topshiriqlar hajmini kelishadi. Barqaror qiynalish kuzatilganda texnikum psixologi bilan hamkorlik qilinadi.

Ustozlik uchrashuvlari muntazam va maqsadli tashkil etilishi tavsiya etiladi. Uchrashuvda bajarilgan ish namunasi ko‘rib chiqilib, bir yoki ikki aniq tuzatish belgilanadi. O‘qituvchi o‘z fikrlash jarayonini namoyish etishi mumkin: ma’lumotni qanday tekshirishi, shubhali xulosani qanday aniqlashi va yordam zarur bo‘lgan holatni qanday tan olishini tushuntiradi. Bunday namuna o‘quvchiga kasbiy mas’uliyatning mazmunini amaliy faoliyat orqali anglash imkonini beradi.

Natijani baholash uchun boshlang‘ich va yakuniy topshiriqlar murakkablik jihatidan qiyoslanadigan bo‘lishi kerak. Taklif etiladigan mezonlar bilimni vaziyatda qo‘llash, amaliy harakat aniqligi, muloqot sifati, qarorni asoslash va o‘z xatosini tuzatishni qamrab oladi. Har bir mezon bo‘yicha ko‘p yordam bilan bajarish, qisman yordam bilan bajarish va o‘quv sharoitida mustaqil asoslab bajarish darajalari tavsiflanishi mumkin. Bu darajalar iqtidorning standartlashtirilgan psixologik testi emas, o‘quv rivojlanishini kuzatish uchun metodik mezonlardir.

Portfolioga boshlang‘ich ish, unga berilgan fikr-mulohaza, qayta ishlangan namuna va o‘quvchining qisqa xulosasi kiritiladi. Rivojlanish o‘quvchining avvalgi natijasi bilan qiyoslanadi. Guruh miqyosida topshiriqlarning bajarilishi va kuzatilgan qiyinchiliklar umumlashtiriladi. Bunday monitoring o‘qituvchiga keyingi darsni rejalashtirish uchun ma’lumot beradi. Usul samaradorligi bo‘yicha ilmiy xulosa chiqarishda esa dastlabki tayyorgarlik, baholovchilar kelishuvi va taqqoslash sharoitlarini alohida hisobga olish zarur.

Taklif etilgan yondashuvning asosiy afzalligi iqtidorni aniqlashni kundalik o‘qitish bilan bog‘lashidir. O‘qituvchi kuzatgan belgisi asosida vazifa tanlaydi, ko‘rsatilgan yordamni qayd etadi va rivojlanishni tekshiradi. Buning uchun umumiy kuzatuv varag‘i, kichik topshiriqlar to‘plami va baholash mezonlarining kelishilgan tavsifi yetarli boshlang‘ich vosita bo‘lishi mumkin. Jihozlar cheklangan sharoitda rolli suhbat, yozma vaziyat va amaliy ish tahlili qo‘llanadi; murakkab simulyatorning mavjudligi barcha faoliyatlar uchun shart emas.

Texnikum metodik birlashmasida o‘qituvchilarga mos kuzatuv mezonlarini ishlab chiqish va ish namunalarini birgalikda muhokama qilish tavsiya etiladi. Har bir o‘quvchi uchun keng hujjatlar to‘plamini yuritish o‘rniga, muhim ko‘nikma va uning o‘zgarishini ko‘rsatadigan qisqa qaydlar yetarli. O‘quvchi, fan o‘qituvchisi, amaliyot rahbari hamda zaruratda psixolog o‘rtasidagi hamkorlik maqsadlar uyg‘unligini ta’minlaydi. Rivojlantiruvchi faoliyatni baholashda tanlov yutuqlari bilan birga oddiy darsdagi sifatli o‘sish ham e’tiborga olinadi.

Jamoat salomatligi texnikumida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash ko‘p manbali kuzatish, individual rivojlantirish vazifasi va takroriy baholashga tayanishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchining kuchli tomonini aniqlab, uni kasbiy ko‘nikma va mas’uliyat bilan bog‘laydigan ta’lim vaziyatini yaratadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash esa tanlash imkoniyati, hurmatli muloqot va aniq fikr-mulohaza orqali amalga oshiriladi. Taklif etilgan ish tartibini texnikum sharoitida sinovdan o‘tkazish uning amaliy foydasi va takomillashtirilishi kerak bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Ta’lim to‘g‘risida. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonun.
2. Renzulli, J. S. (1998). Three-ring conception of giftedness. In S. M. Baum, S. M. Reis, & L. R. Maxfield (Eds.), Nurturing the gifts and talents of primary grade students. Creative Learning Press.

3. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2020). Intrinsic and extrinsic motivation from a self-determination theory perspective: Definitions, theory, practices, and future directions. Contemporary Educational Psychology, 61, 101860. DOI: 10.1016/j.cedpsych.2020.101860
4. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70. DOI: 10.1207/s15430421tip4102_2
5. World Health Organization. (2016). Nurse educator core competencies. Geneva: WHO. ISBN 978-92-4-154962-2.
6. McGaghie, W. C., Issenberg, S. B., Cohen, E. R., Barsuk, J. H., & Wayne, D. B. (2011). Does simulation-based medical education with deliberate practice yield better results than traditional clinical education? A meta-analytic comparative review of the evidence. Academic Medicine, 86(6), 706–711. DOI: 10.1097/ACM.0b013e318217e119

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI DIAGNOSTIKA QILISHDA ADAPTIV YONDASHUV

Sirojova Marjonaxon Iso qizi
Osiyo xalqaro universiteti o`qituvchisi

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining o‘qish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish keyingi ta’lim bosqichlaridagi o‘zlashtirish uchun muhim asos yaratadi. Bola matnni o‘qish davomida so‘zlarni tanish va gaplarni ravon o‘qish bilan cheklanmaydi. U matnda berilgan axborotni anglaydi, kerakli ma’lumotni ajratadi, voqea va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlaydi, muallif fikrini tushunishga harakat qiladi hamda o‘qilgan material yuzasidan o‘z xulosasini shakllantiradi. Shu sababli o‘qish savodxonligining shakllanganlik darajasini faqat o‘qish tezligi yoki topshiriqlarning umumiy natijasi orqali baholash yetarli emas.

PIRLS - 2026 o‘qish savodxonligini baholash tizimida ham to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining matn bilan ishlashi bir necha o‘qib tushunish jarayonlari orqali o‘rganiladi. Ular matnda aniq ifodalangan axborotni topish, bevosita xulosa chiqarish, g‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish hamda o‘zaro birlashtirish, shuningdek, matn mazmuni va uning elementlarini baholashdan iborat. Mazkur yondashuv o‘quvchining o‘qish natijasini bitta umumiy ko‘rsatkich bilan emas, matn ustida qanday fikrlash faoliyatini bajarayotgani bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Amaliyotda esa o‘quvchining noto‘g‘ri javobi ko‘pincha yakuniy natija sifatida qayd etiladi. Aslida, bunday javobning kelib chiqish sabablari bir xil bo‘lmasligi mumkin. Masalan, o‘quvchi savolga javob berish uchun zarur ma’lumotni matndan topa olmagan bo‘lishi mumkin. Boshqa holatda u kerakli jumlani topadi, ammo uning mazmunini savol bilan bog‘lay olmaydi. Yana bir o‘quvchi matnning umumiy mazmunini tushunsa-da, undan kelib chiqadigan xulosani mustaqil ifodalashda qiynalishi mumkin. Natija bir xil -noto‘g‘ri javob, ammo pedagogik nuqtai nazardan uchala holat bir-biridan farq qiladi.

Shu jihatdan o‘qish savodxonligini diagnostika qilishda adaptiv yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvda keyingi topshiriqni tanlash o‘quvchining avvalgi javobi va uni bajarish jarayonida kuzatilgan qiyinchilikka bog‘liq bo‘ladi. Bunda maqsad bolaga ko‘proq savol berish emas, balki uning aynan qaysi faoliyatda yordamga ehtiyoj sezayotganini imkon qadar aniqroq bilishdan iborat. Bunday yondashuvni boshlang‘ich sinfning amaldagi o‘quv materiallari asosida ham tashkil etish mumkin. U.B. Aydarova va N.K. Azizova muallifligidagi 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining IV qismida o‘quvchilar faoliyatini turlicha tashkil etishga mo‘ljallangan topshiriqlar berilgan. Darslikda og‘zaki topshiriqlar, savollarga javob berish, guruhda ishlash, mantiqiy topshiriqlar hamda izohli lug‘at bilan ishlash kabi faoliyat turlari alohida ko‘rsatilgan. Bu esa darslikdagi materiallardan o‘quvchining matn bilan ishlash xususiyatlarini kuzatishda foydalanish imkoniyatini beradi.

Darslikdagi “Sohibqiron bobom mening” mavzusi ham shu nuqtai nazardan qiziqarli. Unda o‘quvchilarga Amir Temurning nima sababdan “Buyuklardan buyuk” deb ulug‘lanayotgani haqida fikr yuritish, she’r bandlarining mazmunini izohlash, avlodlarga qaratilgan da’vatga munosabat bildirish, Amir Temur haqida ma’lumotlar aytish va mustaqil savollar tuzish vazifalari berilgan. Ushbu topshiriqlar o‘quvchining matndan ma’lumot olishidan tashqari, ma’lumotlarni bir-biri

bilan bog‘lash va ular asosida umumiy fikr shakllantirishini ham talab qiladi. Masalan, o‘quvchi Amir Temurning nima sababdan ulug‘langanini yetarlicha izohlab bera olmadi, deb olaylik. Bunday vaziyatda unga darhol tayyor tushuntirish berishdan oldin she’rdan Amir Temur faoliyatiga oid muhim dalillarni ajratish taklif qilinishi mumkin. O‘quvchi bu ma’lumotlarni topgach, ularning qaysi jihati Sohibqiron shaxsiga berilgan baho bilan bog‘liqligi so‘raladi. Shundan keyin o‘quvchidan o‘z xulosasini matndagi dalil bilan asoslash talab qilinadi. Natijada o‘qituvchi bolaning ma’lumotni topish, uni tushunish, bog‘lash yoki fikrini asoslash jarayonlaridan qaysi birida ko‘proq yordamga ehtiyoj sezayotganini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

Adaptiv yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, o‘quvchining bir martalik xatosi qat’iy tashxis qo‘yish uchun yetarli deb qaralmaydi. Bola savolni shoshilib o‘qishi, ayrim so‘zlarning ma’nosini bilmasligi yoki topshiriq talabini noto‘g‘ri anglagani sababli ham xato qilishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi dastlabki natijani boshqa, mazmunan yaqin topshiriq bilan aniqlashtirishi lozim. Bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta kuzatuvdan keyingina o‘quvchining muayyan faoliyatida qo‘shimcha pedagogik yordamga ehtiyoj borligi haqida asosliroq xulosa chiqarish mumkin. Aniqlangan qiyinchilikka mos yordamning qisqa va maqsadli bo‘lishi ham muhim. Masalan, o‘quvchi matnning ikki qismidagi ma’lumotlarni bog‘lashda qiynalayotgan bo‘lsa, undan avval ikkita asosiy dalilni ajratish, keyin ular o‘rtasidagi munosabatni o‘z so‘zlari bilan tushuntirish so‘ralishi mumkin. Agar bola xulosa chiqarishda qiynalsa, “Bu fikrga kelishingga matndagi qaysi ma’lumot yordam berdi?” mazmunidagi savol uning diqqatini dalilga qaratadi. Bunday yordam o‘quvchiga tayyor javobni berishdan farqli ravishda, fikrlash usulini egallashiga ko‘maklashadi. Adaptiv diagnostik yondashuvning amaliy qiymati ham aynan shunda ko‘rinadi. O‘qituvchi uchun “o‘quvchi savolga noto‘g‘ri javob berdi” degan ma’lumotdan ko‘ra, “o‘quvchi kerakli ma’lumotni topadi, ammo ikki dalil orasidagi bog‘lanishni tushuntirishda qiynalmoqda” degan pedagogik tavsif foydaliroqdir. Chunki ikkinchi holatda keyingi dars yoki individual topshiriqning mazmunini aniqroq belgilash mumkin.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini diagnostika qilishda faqat bajarilgan topshiriqlar soni yoki yakuniy natijaga tayanish o‘quvchining individual qiyinchiliklarini to‘liq ko‘rsatib bera olmaydi. Bir xil noto‘g‘ri javobning sababi turlicha bo‘lishi mumkinligi sababli baholash jarayonida bolaning matn bilan qanday ishlayotganiga e’tibor qaratish zarur. 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi topshiriqlar tahlili o‘quvchilardan axborotni topish, mazmunni tushunish, sababiy munosabatlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, taxmin qilish va fikrini asoslash kabi turli faoliyatlar talab qilinishini ko‘rsatadi. Shu bois mavjud darslik materiallarini adaptiv diagnostika tamoyillari asosida qo‘llash uchun metodik imkoniyat mavjud. Adaptiv yondashuvda o‘quvchining xatosi yakuniy hukm emas, balki aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatuvchi pedagogik ma’lumot sifatida qaraladi. Dastlabki natijani qo‘shimcha topshiriq orqali tekshirish, aniqlangan ehtiyojga mos yordam ko‘rsatish va o‘quvchining ayni faoliyatini yangi vaziyatda qayta kuzatish baholashni o‘qitish jarayoni bilan uzviy bog‘laydi. Natijada diagnostikaning vazifasi bolaning kamchiligini qayd etishdan uning keyingi rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik yo‘nalishni aniqlash tomon kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aydarova U.B., Azizova N.K. *O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. IV qism.* - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
2. von Davier M., Kennedy A. (Eds.). *PIRLS 2026 Assessment Frameworks.* -TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2024.
3. Sabatini J., Kennedy A., Wry E., von Davier M. *PIRLS 2026 Reading Assessment Framework.* - TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.

DIVERGENT TAFAKKURNING XUSUSIYATLARI VA UNING TIBBIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Bekchanova Soliha Davlatnazarovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti doktoranti

Zamonaviy tibbiy ta'limda shifokor shaxsini shakllantirishda faqat nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar emas, balki keng fikrlash doirasi, muammoga kreativ yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global tibbiyot tizimida yuzaga kelayotgan murakkab va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan holatlar zamonaviy shifokordan innovatsion fikrlash, vaziyatga moslashish va noodatiy yechimlarni taklif qilishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, divergent tafakkur tibbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Divergent tafakkur — bu bir muammo yoki masalaga bitta emas, balki bir nechta yechimni ko'rish, erkin, moslashuvchan va original fikrlash imkonini beruvchi kognitiv jarayondir. Mazkur tafakkur turi talabaning ijodkorligini, kasbiy refleksiyasini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. U, ayniqsa, klinik tahlillar, diagnostika, davolash algoritmlarini tuzish, bemor bilan noan'anaviy muloqot o'rnatish jarayonlarida faol namoyon bo'ladi.

Divergent tafakkur — bu faqat ijodiy fikrlash qobiliyati emas, balki tibbiy ta'limda murakkab klinik muammolarni hal etish, noan'anaviy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi o'rin tutadigan tafakkur shaklidir.

Tibbiy ta'limda divergent tafakkur nafaqat talabaning individual intellektual salohiyatini rivojlantiradi, balki uning kasbiy yetukligini ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, mazkur turdagi tafakkur yuqori darajadagi tahlil, muqobil yechimlarni topish, noaniq va stressli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Divergent fikrlashning xususiyatlari va uning tibbiy ta'limdagi ahamiyati xorijlik olimlar tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Asosiy e'tibor ijodkorlik, moslashuvchanlik va innovatsion muammolarni hal qilishning ta'lim tizimi va klinik amaliyotga integratsiyalashuviga qaratilgan.

Xorijlik tadqiqotchilar odatda quyidagi asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatishadi:

G'oyalar erkin oqimi va moslashuvchanlik. Joy Pol Guilford kabi tadqiqotchilar birinchi bo'lib, divergent tafakkur kontseptsiyasini shakllantirib, uning ijodkorlik va g'oyalarni shakllantirishdagi rolini, shu jumladan ravonlik va moslashuvchanlikni asosiy atributlar sifatida ta'kidladilar. Ellis Pol Torranc tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy tafakkurni aniqlash testida (TTCT) o'lchash mumkin bo'lgan xususiyatlar sifatida erkin g'oyalar (hosil qilingan g'oyalar soni) va moslashuvchanlikni (turli yondashuvlar qatori) ta'kidlanadi.

Originallik va yangicha yondashuv. Garvard universiteti tadqiqotchisi Tereza Amabayl ta'lim kontekstida ijodkorlikka e'tibor qaratadi, o'ziga xoslik va innovatsiyalarni odamlarga o'ziga xos va samarali yechimlar yaratish imkonini beruvchi asosiy xususiyatlar sifatida ta'kidlaydi.

Mark A.Rankoning tadqiqotlari o'ziga xoslikni tizimli ravishda tahlil qilib, uning tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi yangi yechimlarni aniqlashdagi muhim rolini ta'kidlaydi.

Ishlab chiqish va murakkablik. Robert Sternbergning triarxiya nazariyasi bo'yicha tadqiqotlari divergent tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqish va murakkab kognitiv jarayonlarni, jumladan, uning batafsil kengayishi va amaliy qo'llanilishini ta'kidlaydi.

Nomuayyanlilikka bardoshlilik. Psixologiya va ijodkorlik bo'yicha nufuzli amerikalik olim Din Keyt Simonton (Dean Keith Simonton) ijodiy tafakkur, geniallik, divergent fikrlash hamda shaxsiylik va ijtimoiy muhit ta'siri haqidagi fundamental nazariyalari bilan mashhur. Ta'kidlash joizki, u divergent tafakkurni tadqiq qilgan olim, shuningdek bu jarayonni ijodiylikning asosiy mexanizmi sifatida tushuntirib bergan. Uningcha ijodiylik – divergent fikrlashning mahsuli. Olim ijodiy shaxsning fazilatlarini quyidagicha tavsiflagan: muammoga yangicha qarash bilan yondashadi; fikr yuritishda standart yondashuv chegarasidan chiqadi; muammoning bir necha imkoniy yechimlarini ko'radi va sintez qila oladi. Din Keyt Simontonning bu fikrlari divergent tafakkurga to'la mos keladi, deb aytish mumkin. Shu o'rinda olimning "ko'r-ko'rona o'zgarish va tanlab qolish" (BVSR-Blind Variation and Selective Retention) nazariyasi xususida bir oz to'xtalib o'tish joizdir. Uningcha, ijodiy jarayonda odam dastlab ko'plab (divergent) g'oyalarni yaratadi —

bu jarayon ko’pincha intuitiv va turli yo’nalishlarda bo’ladi. Undan so’ng tanlab olish va saralash bosqichi (konvergent fikrlash) amalga oshadi. Simontonning tadqiqotlari asosida divergent tafakkurni rivojlantirishning shaxsiy omillari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: har qanday yangi g’oyalar va tajribalarga ochiq munosabatda bo’lish; har qanday cheklovlarsiz, erkin fikrlash; bir necha g’oyalarni murakkab tarzda bog’lash qobiliyati [1].

Din Keyt Simonton ijodiy idrokni tadqiq qilib, har qanday nomuayyanliliklarga bardoshli bo’lish tibbiyot xodimlarining murakkab klinik vaziyatlarda harakat qilish imkonini beruvchi muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Ta’kidlash joizki, divergent fikrlash odamlarga, ayniqsa sog’liqni saqlash sohasi mutaxassislariga an’anaviy kognitiv to’siqlarni yengib o’tishga imkon beradi, bu esa, klinik va ta’lim kontekstlarida noan’anaviy va samarali yechimlarni osonlashtiradi.

Xorijlik olimlar, birinchi navbatda, tibbiy ta’limda turlicha fikrlashni quyidagi kontekstlarda tahlil qiladilar:

Klinik fikrlash va qaror qabul qilish. Jerom Kassirer va Pat Kroskerrining ta’kidlashicha, divergent fikrlash shifokorlarga bir nechta imkoniyatlarni ko’rib chiqishga imkon berib, diagnostika xatolaridan qochishga yordam beradi va shu bilan bemorning xavfsizligini ta’minlash va natijalarni yaxshilashga olib keladi.

Fanlararo yondashuv va aloqa. Ma’lumki, hozirgi kunda zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo yondashuv bevosita ta’lim sifatini oshirish, shuningdek talabalarda murakkab, hayotiy masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirishda asosiy o’rin egallaydi. Bunday yondashuvni tatbiq etish uchun nazariy asoslarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur nazariy asoslardan biri Govard Gardner tomonidan taklif etilgan Ko’p intellekt nazariyasidir. Uningcha, inson aql-zakovati turli xil intellekt turlari orqali namoyon bo’ladi. Gardner o’z tadqiqotida 8 ta asosiy intellekt turlarini belgilab bergan. Ta’kidlash joizki, u ilgari surgan nazariya ta’limni individuallashtirishga olib keladi. Bunda har bir talaba uchun mos o’qitish strategiyasi shakllantiriladi. Demak, bunda fanlararo yondashuv qo’llab-quvvatlanadi. Fanlararo yondashuvda turli fanlar o’rtasidagi bog’liqlik ochib beriladi va ta’lim olish jarayoni bevosita bir-birini to’ldiruvchi jarayon ekanligini tushunishga yordam beradi. Ta’kidlash joizki, Gardner nazariyasi integrativ ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, ijodkor va divergent tafakkurni rivojlantirish, fanlararo muloqot va hamkorlikni yaratishda bevosita nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Tibbiy ta’limda ham talaba yoshlar turli intellekt turlariga ega bo’ladilar. Jumladan, kinestetik intellekt. Bunday intellekt amaliyot, jarrohlik va simulyatsiyalarda samarador natijani belgilaydi. Interpersonal intellekt bu shunday intellekt shakliki, unda bemorlar bilan samarali muloqot qilish yaxshi natijaga olib keladi.

Mantiqiy-matematik intellekt tashhislash va tahlil qilish jarayonida asosiy rolь o’ynaydi. Intrapersonal intellekt esa, kasbiy o’zini anglash va yetuklikka erishishda yordam beradi. Ta’kidlash joizki, bunday intellektlar turli fanlar, jumladan anatomiya, psixologiya, kommunikativ pedagogika, etika fanlari bilan bog’liq holda rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Demak, boshqacha qilib aytganda, fanlararo kognitiv ochiqlik bu insonda mavjud bo’lgan turli sohalar o’rtasidagi bilimlar va tajribalarni qabul qilish va integratsiya qilish qobiliyati bo’lib, u tibbiy ixtisosliklar hamda jamoaviy tibbiy faoliyat o’rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlash orqali birgalikda erishiladigan natijalar samarasini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, divergent tafakkurning tibbiy ta’limdagi ahamiyati beqiyos. Divergent tafakkur ochiq diagnostik yondashuvdir. Chunki u klinik fikrlashni sezilarli darajada rivojlantiradi. Mazkur turdagi tafakkur oldindan shakllangan noto’g’ri fikrlarni oldini oladi, xatolar sonini qisqartirish hamda bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashda muhim o’rin tutadi.

Divergent tafakkurni ta’lim dasturlariga uyg’unlashtirish orqali tibbiy ta’limni faol, dinamik ravishda jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Albatta, bu yondashuv sog’liqni saqlash sohasidagi yangi muammolarni samarali bartaraf etishga yordam beradi, ta’limiy innovatsiyalar va pedagogik mahoratning uzluksiz takomillashuviga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Simonton D.K. Creative Thought as Blind-Variation and Selective Retention: Combinatorial Models of Exceptional Creativity. Physics of Life Reviews, 2011, vol. 8, no. 2, pp. 207–229.
2.Van der Vleuten C.P.M., Driessen E., Schuwirth L.W.T. Twelve tips for programmatic assessment. Medical Teacher, 2015, vol. 37, no. 7, pp. 641–646.
3. Irby D.M., Cooke M., O'Brien B.C. Educating Physicians: A Call for Reform of Medical School and Residency. — San Francisco: Jossey-Bass, 2010. — 320 p
4. Bohmer R.G. Designing Care: Aligning the Delivery of Health Services with the Needs of the Patients. — Boston: Harvard Business Press, 2009. — 288 p
5. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development / D. A. Kolb. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
6. Barrows, H. S. Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview / H. S. Barrows // New Directions for Teaching and Learning. – 1996. – Vol. 68. – P. 3–12.
7. Юлдашева, Д. Қ. Тиббий таълимда кейс-технологиялар / Д. Қ. Юлдашева // Инновацион педагогика. – 2020. – № 5(41). – Б. 77–81.
8. Шермухамедов, Ш. А. Тиббий таълимда фанлараро ёндашувни шакллантириш / Ш. А. Шермухамедов. – Тошкент: Ilm Ziyo, 2022. – 198 б.
9. Мирзаев Ш. Э. Тиббий таълимда симуляцион технологиялар / Ш. Э. Мирзаев. – Тошкент: Istiqlol, 2021. – 220 б.
10. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34(10). – P. 906–911.

РЕАЛИЗАЦИЯ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Алимова Анастасия Николаевна
Преподаватель Азиатского международного университета

Межпредметная интеграция в начальном образовании часто связывается с общей темой недели или проведением необычного урока. Однако тематическое совпадение не гарантирует взаимодействия знаний. Можно прочитать стихотворение о воде, решить задачу о воде и нарисовать реку, не создав между этими действиями учебной зависимости. Для преподавания родного языка более продуктивна организация ситуации, в которой информация из другой предметной области необходима для построения высказывания, а качество речи определяет возможность воспользоваться этой информацией.

Такой подход особенно значим при обучении описанию, объяснению, сравнению и инструкции. Эти речевые действия востребованы на разных уроках, но могут оставаться неосознанными, если учитель оценивает только правильность предметного ответа. Ребёнок называет число, не объясняя, что оно означает; сообщает результат наблюдения, не указывая условия; перечисляет действия, пропуская необходимый шаг. Урок родного языка позволяет сделать способ передачи содержания самостоятельным объектом обучения.

Наблюдение за погодой позволяет работать со словами признака, временными обозначениями и сопоставлением. Числовые данные дают материал для выражений «больше, чем», «одинаковое количество», «на столько-то меньше». Конструирование помогает освоить глаголы действия и последовательность команд. Учитель выбирает связь не по привлекательности внешней темы, а по тому, насколько она создаёт потребность в изучаемом языковом средстве.

Другой критерий- доступность предметного содержания. Если ученики одновременно разбираются в незнакомом природном процессе и сложном типе текста, трудно установить причину затруднения. Поэтому содержание партнёрской дисциплины первоначально должно быть достаточно знакомым или представлено в небольшой доступной порции. Усложнение может происходить постепенно: сначала точная подпись к наблюдению, затем связное описание, позднее объяснение с опорой на несколько фактов.

Следующий критерий- возможность проверки. Итог должен позволять установить, выполнена ли коммуникативная задача. По инструкции другой ученик собирает модель; по

описанию находит объект; по сообщению определяет, какая величина сравнивалась. Такая проверка не заменяет анализа грамотности, но добавляет функциональный показатель. Правильно написанный текст может оставаться непонятным, если в нём не назван предмет сравнения или пропущено важное условие.

Для связи с окружающим миром предлагается ситуация «Как изменяется растение?». На предшествующих занятиях дети наблюдают за одним доступным растением либо получают подготовленную педагогом серию фотографий с датами. Цель языковой работы- научиться отделять наблюдаемый признак от предположения и оформлять сообщение в понятной последовательности. Важна точность источника: при работе с фотографиями дети описывают изображённые изменения и не представляют их как собственный эксперимент. На первом этапе учащиеся называют, что действительно видно: появился лист, стебель стал выше, изменилось число листьев. Затем обсуждаются высказывания «растению весело» и «появился новый лист». Первое является образным выражением, второе- наблюдением. Оба могут быть уместны в разных жанрах, однако запись в дневнике требует различения факта и художественного представления. Работа с жанром тем самым становится основанием для точного словоупотребления.

На втором этапе дети читают короткий образец записи и определяют, какие сведения нужны читателю: когда наблюдали, какой объект рассматривали, что изменилось. Педагог обращает внимание на временные слова и связь предложений. Рекомендации по пониманию прочитанного включают работу со структурой текста [2]. Здесь эта общая установка конкретизируется в анализе устройства дневниковой записи; само задание является методической разработкой статьи.

На третьем этапе каждый ребёнок создаёт собственную запись. Ученик, которому требуется поддержка, получает вопросы или небольшой словарь. Более подготовленному предлагается сравнить две даты и сформулировать осторожный вывод. Высказывание «растение выросло, потому что его полили» не принимается автоматически как доказанное объяснение: для установления причины нужны дополнительные основания. Учитель предлагает точнее написать, что наблюдалось после полива, сохраняя различие между последовательностью событий и причинностью.

Завершает работу взаимное чтение. Партнёр проверяет, можно ли понять время и характер изменения без дополнительных пояснений автора. Затем следует индивидуальное редактирование. Языковыми результатами выступают точные наименования признаков, последовательность и связность, а предметным результатом- корректное представление наблюдения. Раздельное рассмотрение этих сторон позволяет не снижать оценку речи только из-за неточности измерения и не игнорировать языковые недостатки при верном факте.

Математическое содержание удобно для обучения точности сравнительных высказываний. В модельной ситуации «Какие книги выбрали для выставки?» педагог предоставляет условные данные: рассказы- восемь книг, сказки- шесть, стихи- четыре. Эти числа обозначаются как учебные, а не как результаты проведённого опроса. Задача по родному языку состоит в подготовке короткого сообщения, которое позволит читателю понять состав выставки и сравнить группы.

Сначала класс сопоставляет фразы «Рассказов больше» и «Книг с рассказами на две больше, чем книг со сказками». Ученики определяют, какие уточнения появились во втором варианте. Обсуждается различие между отношениями «на сколько» и «во сколько», если соответствующий материал уже изучен на математике. Родной язык в этой ситуации обеспечивает точное оформление отношения, а математика проверяет его содержательную правильность.

Следующее задание предполагает чтение ошибочного сообщения. Например, автор верно переписал все числа, но заключил, что стихотворные сборники составляют большинство. Ученики находят несоответствие, объясняют его и исправляют вывод. Такой материал учит проверять связь предложения с данными, а не ориентироваться только на

уверенную форму высказывания. При этом педагог избегает чрезмерной вычислительной нагрузки: основное время предназначено для понимания и формулирования.
Дополнительный вариант- сравнение двух сообщений с одинаковыми данными, но разными акцентами. Одно подчёркивает наиболее многочисленную группу, другое- разнообразие выставки. Дети обсуждают, что оба текста могут быть правильными, если не искажают сведения. Так формируется начальное представление об отборе информации в соответствии с целью общения. Предметная точность сочетается с пониманием авторского решения.

Связь с искусством целесообразно строить через осознанное описание впечатления. При рассматривании репродукции ребёнку предлагают не просто назвать настроение, а указать видимую деталь, с которой связано его мнение. Формула «Мне кажется…, потому что на изображении…» помогает перейти от одиночной оценки к обоснованию. Учитель различает наблюдение и интерпретацию: разные впечатления допустимы, но их необходимо соотнести с произведением.

При работе с технологией может использоваться задача «Объясни, как собрать модель». Ученики создают простую конструкцию из бумаги или деталей конструктора, после чего описывают несколько действий. Языковой целью становится последовательность команд, точность глаголов и достаточность пространственных обозначений. Дорогостоящее оборудование не требуется: содержание задачи определяется необходимостью понятной инструкции, а не технической сложностью объекта.

Создание черновика и последующее улучшение текста согласуются с общим направлением обучения процессу письма, обозначенным в руководстве IES [3]. Однако успешность предложенного задания нельзя считать установленной только на основании этой связи. Педагогу необходимо наблюдать, какие уточнения ребёнок внёс самостоятельно, и проверять, использует ли он тот же способ при описании другой модели. Именно перенос позволяет отличить освоение действия от запоминания конкретной инструкции.

Групповая работа требует распределения функций, связанных с содержанием: наблюдатель фиксирует признаки, читатель проверяет источник, автор составляет вариант, редактор задаёт вопросы о понятности. Роли следует менять, иначе один ребёнок постоянно пишет, а другой занимается только оформлением. Вместе с общим продуктом каждый ученик выполняет небольшую индивидуальную часть. Например, после коллективного обсуждения все самостоятельно записывают итоговое объяснение.

При ограниченном времени межпредметное содержание можно подготовить заранее. Тогда урок языка посвящается преобразованию известной информации в текст, а не повторному проведению всего наблюдения или опыта. Если занятие ведут разные педагоги, они согласуют термины, исходные данные и ожидаемый результат. При работе одного учителя полезна та же процедура: в плане отдельно обозначаются предметное содержание и языковое действие, чтобы одно не вытесняло другое.

Дифференциация касается прежде всего объёма поддержки. Одному ученику достаточно общего задания, другому необходим план, третьему- предварительное устное проговаривание. Сложность исходных данных можно уменьшить, сохранив одинаковую речевую цель. В многоязычной среде незнакомые термины предварительно связываются с объектами и изображениями. Проверять нужно способность ребёнка организовать сообщение, а не случайную осведомлённость о редком слове.

Предлагается оценивать четыре стороны работы: достоверность содержания, выполнение речевой задачи, языковое оформление и самостоятельность. Для каждой стороны педагог фиксирует конкретное наблюдение. Например, ученик назвал обе сравниваемые группы, использовал временную связь, уточнил место действия после вопроса партнёра. Такая запись информативнее общего впечатления «активно работал». Она позволяет выбрать последующее упражнение и объяснить ребёнку направление улучшения.

Ошибки анализируются по происхождению. Неверное число требует возвращения к данным; пропущенное название группы- к полноте высказывания; нарушение последовательности- к планированию; орфографическая ошибка- к соответствующему правилу. Внешне похожий слабый текст может возникнуть по разным причинам. Поэтому единая итоговая отметка без содержательного комментария ограничивает диагностическую ценность интегративного задания.

Межпредметная интеграция не должна поглощать систематическое обучение базовым навыкам. Руководство по основам чтения отдельно подчёркивает значение работы со словами и регулярного чтения связного текста [4]. В школьной практике это означает необходимость сохранять упражнения, направленные на конкретную трудность. Проектная деятельность предоставляет ситуацию применения, но сама по себе не гарантирует освоения техники чтения, написания слов или построения предложения.

Реализация межпредметной интеграции в обучении родному языку предполагает функциональную связь содержания и речи. Наблюдение предоставляет факты для записи, математика- отношения для объяснения, искусство- основания для интерпретации, технология- последовательность для инструкции. Общим условием выступает понятная коммуникативная задача с проверяемым результатом. Методическая ценность интеграции определяется тем, насколько каждый ребёнок учится самостоятельно и точно передавать содержание, а не количеством предметов, названных в плане занятия.

Список литературы:

1. Алимова А. Н. ВЛИЯНИЕ ИННОВАЦИЙ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНИКА International Journal of Philosophical Studies and Social Science сборник статей онлайн конференции, 2022. – с.137-141
2. Алимова А. Н. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ PIRLS НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» международный научный журнал 5-июня 2022. ISSN 2658-7998 UDC 37 BBK 94.
3. Бабаева Ш.Б. Алимова А.Н. Узакова А.Б. Рохатова З.С. Фазилова Н.С. Преемственность дошкольного и начального образования и воспитания в современных условиях «Современные тренды в науке и образовании» Материал международной научно-практической онлайн-конференции. Апрель 23. Алматы 2021 с.197-199
4. Бабаева Ш.Б. Алимова А.Н. Узакова А.Б. Рохатова З.С. Фазилова Н.С. Преемственность дошкольного и начального образования и воспитания в современных условиях «Современные тренды в науке и образовании» Материал международной научно-практической онлайн-конференции. Апрель 23. Алматы 2021 с.197-199

РИСКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Умарова Сарвиноз Сардорбек кизи,
Курсант 3-го курса Академии МВД Республики Узбекистан
Научный руководитель:Кодиркулов Азизжон Саидкул угли,
Преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

В системе подготовки кадров органов внутренних дел профессиональное выгорание следует рассматривать как системно значимый фактор риска, оказывающий многоуровневое и отсроченное влияние на качество профессионального обучения и надёжность последующей служебной деятельности. В отличие от ситуативной усталости, профессиональное выгорание представляет собой устойчивый синдром эмоционального, когнитивного и мотивационного истощения, который подрывает базовые психологические ресурсы, необходимые для успешного освоения и реализации правоохранительных функций [1]. Его развитие напрямую затрагивает такие ключевые компоненты профессиональной эффективности, как учебная и служебная мотивация, способность к

саморегуляции, качество коммуникативного взаимодействия и нравственно-нормативная устойчивость.

Особую опасность представляет тот факт, что предпосылки профессионального выгорания могут формироваться уже на ранних этапах профессионального становления — в период обучения, прохождения практики и первичной служебной социализации [2]. Высокая учебная и эмоциональная нагрузка, жёсткая регламентация, дефицит автономии, несоответствие ожиданий и реального содержания подготовки, а также наблюдение выгоревших моделей поведения у наставников и старших коллег создают условия для раннего истощения психологических ресурсов обучающихся. В этих условиях выгорание выступает не как следствие многолетней службы, а как латентный процесс, закладывающийся в системе подготовки кадров.

С педагогической точки зрения профессиональное выгорание существенно снижает качество усвоения профессиональных компетенций. Эмоциональное истощение и деперсонализация ведут к формальному отношению к обучению, утрате учебной вовлечённости, снижению интереса к содержанию дисциплин и ориентации на минимально допустимый результат [4]. В результате обучение приобретает репродуктивный и поверхностный характер, а сформированные знания и навыки оказываются слабо интегрированными и нестойкими. Это негативно отражается на переносе теоретических знаний в практическую деятельность и повышает вероятность ошибок в условиях реальной службы.

Профессиональное выгорание оказывает выраженное влияние на формирование профессиональной идентичности будущих сотрудников ОВД. В условиях хронического эмоционального истощения снижается значимость ценностей служения, законности и общественной миссии, усиливаются циничные установки, дистанцирование от граждан и формирование инструментального отношения к профессиональным обязанностям [3]. Это искажает процесс профессиональной социализации и способствует закреплению деформированных моделей поведения, которые в дальнейшем могут воспроизводиться и транслироваться в служебных коллективах.

Отдельного внимания заслуживает влияние выгорания на эффективность наставничества и функционирование так называемой «скрытой учебной программы». Наставники, демонстрирующие признаки эмоционального выгорания, непреднамеренно транслируют обучающимся установки формализма, эмоционального отчуждения и снижения значимости нормативно-этических требований. В результате даже при формально корректных учебных программах обучающиеся усваивают не декларируемые ценности профессионализма и служебной этики, а адаптационные стратегии выживания, ориентированные на минимизацию усилий и эмоциональное дистанцирование [5].

В организационном измерении профессиональное выгорание повышает риски контрпродуктивного поведения, снижает дисциплину, усиливает конфликтность и способствует росту кадровых потерь на этапах обучения и первичной службы. Отсутствие системной профилактики приводит к накоплению психологически уязвимых сотрудников, что негативно отражается на устойчивости всей системы подготовки и функционирования органов внутренних дел.

В этой связи профилактика и ранняя диагностика профессионального выгорания должны быть интегрированы в систему подготовки кадров ОВД как сквозной элемент психологического обеспечения. Эффективный подход предполагает сочетание регулярного мониторинга эмоционального состояния обучающихся, оптимизации учебной и практической нагрузки, развития навыков саморегуляции и восстановления, а также подготовки наставников и преподавателей к раннему распознаванию признаков истощения. Важным условием является формирование психологически безопасной образовательной среды, в которой обращение за поддержкой не воспринимается как признак слабости или профессиональной несостоятельности.

Таким образом, профессиональное выгорание сотрудников органов внутренних дел представляет собой не частную индивидуальную проблему, а системный педагогический и организационный риск. Его своевременная профилактика в процессе подготовки кадров способствует снижению кадровых потерь, предупреждению контрпродуктивного поведения, укреплению профессиональной идентичности и повышению институциональной устойчивости правоохранительной деятельности в целом.

Список литературы:

1. Бойко В. В. Синдром «эмоционального выгорания» в профессиональном общении. – СПб. : Питер, 2008. – 278 с.
2. Водопьянова Н. Е., Старченкова Е. С. Синдром выгорания: диагностика и профилактика : монография. – СПб. : Питер, 2012. – 336 с.
3. Гуняев Е. В. Профессиональное выгорание у сотрудников органов внутренних дел: причины, последствия и меры профилактики // Научный вестник Орловского юридического института МВД России имени В. В. Лукьянова. – 2021. – № 2 (87). – С. 132–139.
4. Зазыкин В. Г., Сыромятников И. В. Психология профессиональной надёжности сотрудников силовых структур. – М. : Академия управления МВД России, 2010. – 256 с.
5. Марьин М. И., Касперович Ю. Г. Профилактика профессиональной деформации личности сотрудников правоохранительных органов. – М. : ЦОКР МВД России, 2007. – 204 с.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СОТРУДНИКОВ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ КАК ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОСТИ СЛУЖЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Уткуров Ботиржон Нодир угли
Старший психолог Управления по обеспечению общественной безопасности ГУВД города Ташкента

Психологическое благополучие личного состава органов внутренних дел выступает базовым регулятором эффективности ведомственной профессиональной подготовки, а не просто второстепенным показателем бытового комфорта или субъективного настроения обучающихся. В правоохранительной деятельности этот фактор выполняет роль несущей конструкции: при его дефиците детально прописанные учебные программы, инструкции и образовательные стандарты перестают действовать на практике [3]. Сохранность психологического ресурса позволяет курсанту продуктивно учиться, расти в профессии и действовать строго в рамках закона даже в условиях затяжных нагрузок и жесткого уставного порядка. В связи с этим благополучие следует квалифицировать как институциональную основу устойчивого воспроизводства профессиональной надежности кадров.

В прикладной ведомственной педагогике данный феномен не сводится к медицинскому критерию отсутствия клинических расстройств. Речь идет о сложном многокомпонентном состоянии, включающем осознание личной ценности и смысла службы, внутреннюю оправданность затрачиваемых психофизических усилий, ощущение баланса между служебными требованиями и доступными ресурсами, а также качество межличностных отношений в учебном взводе и со служебным коллективом. Для обучающихся в образовательных организациях ОВД решающее значение имеет восприятие образовательной среды: видит ли будущий офицер в процессе обучения условия для становления своего потенциала либо сталкивается с непрерывным прессингом, вынуждающим тратить все силы на бытовое выживание от подъема до отбоя.

Уровень психологического благополучия прямо определяет мотивационную направленность и структуру учебной деятельности. Психологически устойчивый курсант демонстрирует осознанный подход к занятиям: глубоко осваивает юридический и

специальный материал, рефлексирует собственные промахи, адекватно воспринимает педагогическую критику и соблюдает служебную дисциплину, по внутреннему убеждению, [2]. Напротив, истощение этого ресурса превращает обучение в имитационный процесс, ориентированный лишь на формальное соответствие минимальным критериям. Возникает глубокое противоречие между декларативными задачами ведомственного образования и реальными моделями поведения будущих офицеров: знания фиксируются поверхностно, моторные и оперативно-тактические навыки распадаются, а промежуточная аттестация превращается в источник дополнительного нервного срыва вместо проверки компетенций. В итоге системный дефицит благополучия разрушает саму дидактическую логику подготовки правоохранительных кадров.

Особую роль психологическое благополучие играет в процессе формирования профессиональной идентичности. Именно на этапе обучения закладывается отношение к профессии, к власти и ответственности, к гражданам и коллегам. При устойчивом благополучии профессиональная роль осваивается как значимая и ценностно наполненная; при его дефиците она всё чаще воспринимается как вынужденная или инструментальная. Это создаёт предпосылки для отчуждения от служебных ценностей, роста цинизма и формирования компенсаторных установок, направленных на снижение личной вовлечённости. В дальнейшем такие установки могут закрепляться и воспроизводиться в служебной среде, становясь частью негласных профессиональных норм.

Важным следствием снижения психологического благополучия является его связь с профессиональным выгоранием и контрпродуктивным поведением. Благополучие выполняет буферную функцию: оно снижает вероятность того, что стрессовые воздействия будут трансформироваться в хроническое истощение, эмоциональную холодность или агрессивные формы реагирования. В образовательной среде это проявляется в уровне конфликтности, дисциплины, готовности соблюдать правила и принимать ответственность за собственные решения. Там, где благополучие игнорируется, возрастает риск раннего формирования выгорания уже в период обучения, что подрывает саму идею долгосрочной профессиональной устойчивости [1].

Не менее значимо влияние психологического благополучия на качество наставничества и образовательного климата. Наставник или преподаватель, испытывающий хроническое неблагополучие, невольно транслирует обучающимся установки эмоционального отчуждения, формализма и снижения значимости ценностных аспектов профессии. В результате формируется разрыв между официально декларируемыми нормами и теми моделями поведения, которые реально усваиваются в процессе обучения. Так возникает эффект «скрытой учебной программы», в которой благополучие или неблагополучие ключевых фигур становится фактором социализации не меньшим, чем учебные планы и дисциплины.

Отдельного рассмотрения требует вопрос операционализации психологического благополучия в системе подготовки кадров ОВД. В педагогической практике оно нередко подменяется косвенными индикаторами – отсутствием дисциплинарных взысканий, формальной успеваемостью или внешней адаптированностью обучающихся. Однако такие показатели не отражают реального состояния психологических ресурсов личности. Обучающийся может демонстрировать нормативное поведение и приемлемые учебные результаты, одновременно находясь в состоянии внутреннего истощения, отчуждения или утраты профессионального смысла. Это создаёт эффект «скрытого неблагополучия», которое не фиксируется стандартными формами контроля, но проявляется позже – в период первичной службы – в виде резких срывов, эмоциональной неустойчивости или отказа от профессионального развития. Следовательно, педагогическая система, ориентированная исключительно на формальные результаты, воспроизводит отложенные риски, подрывающие надёжность кадрового корпуса.

С педагогической и управленческой точки зрения поддержка психологического благополучия требует пересмотра самой логики образовательного процесса. Речь идёт не о

снижении требований или избыточной «психологизации» обучения, а о более точной настройке баланса между контролем и поддержкой, между жёсткой регламентацией и осмысленным включением обучающегося в процесс профессионального становления. Благополучие формируется там, где обучающийся понимает цели предъявляемых требований, видит перспективу собственного развития, получает предсказуемую и справедливую обратную связь и воспринимает ошибки как элемент обучения, а не как угрозу профессиональной состоятельности. В этом контексте психологическое благополучие становится педагогическим эффектом качества образовательной среды, а не исключительно индивидуальной характеристикой личности.

В более широком институциональном контексте психологическое благополучие сотрудников и обучающихся в системе ОВД следует рассматривать как индикатор качества самой образовательной и организационной архитектуры подготовки кадров. Оно отражает не только индивидуальные ресурсы личности, но и степень согласованности между декларируемыми целями подготовки и реальными педагогическими практиками, между нормативными требованиями и повседневным опытом обучения и службы. Там, где наблюдается рассинхронизация этих уровней – например, при формальном провозглашении ценностей законности, уважения к личности и профессионального развития на фоне доминирования репрессивных, непредсказуемых или оценочно-карательных образовательных практик, – психологическое благополучие системно подрывается. В таких условиях обучающиеся усваивают не столько официально транслируемую модель профессионала, сколько латентные нормы выживания: эмоциональное отчуждение, минимизацию инициативы, ориентацию на внешнее соответствие и избегание ответственности. Это формирует парадоксальную ситуацию, при которой внешняя дисциплина и формальная успешность сочетаются с внутренней дезадаптацией, снижением моральной чувствительности и утратой профессионального смысла. В долгосрочной перспективе подобная динамика приводит к ослаблению институциональной устойчивости: сотрудники оказываются менее готовыми к длительным нагрузкам, хуже переносят стрессовые ситуации, быстрее истощаются и чаще демонстрируют контрпродуктивные формы поведения. Следовательно, включение психологического благополучия в систему подготовки кадров ОВД должно рассматриваться не как вспомогательная гуманитарная задача, а как стратегический элемент кадровой политики, напрямую связанный с воспроизводством профессионально надёжного, этически устойчивого и социально легитимного корпуса сотрудников.

В этой связи поддержка психологического благополучия не может рассматриваться как факультативная мера или исключительно задача психологической службы. Она должна быть встроена в саму архитектуру подготовки кадров – от организации учебной нагрузки и форм контроля до культуры взаимодействия, оценки успехов и ошибок, отношения к уязвимости и обращению за поддержкой. Речь идёт о создании такой образовательной среды, в которой требования остаются высокими, но психологические ресурсы обучающихся не расходуются деструктивно, а преобразуются в профессиональную устойчивость.

Таким образом, психологическое благополучие сотрудников органов внутренних дел представляет собой не абстрактное гуманистическое понятие, а реальный педагогический и организационный ресурс. Его поддержка в процессе подготовки кадров позволяет не только повысить качество обучения, но и сформировать специалистов, способных сохранять дисциплину, ответственность и человеческую устойчивость в условиях высокой нагрузки и социальной напряжённости. Именно в этом измерении благополучие становится фактором доверия – как внутри профессионального сообщества, так и со стороны общества к правоохранительной системе в целом.

Список литературы:

1. Ryff C. D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology. - 1989. - Vol. 57, No. 6. - P. 1069–1081.

2. Водопьянова Н. Е. Психологическое благополучие и профессиональное выгорание: теория и практика. - СПб. : Питер, 2013. - 336 с.

3. Bakker A. B., Demerouti E. The Job Demands–Resources model: State of the art // Journal of Managerial Psychology. - 2007. - Vol. 22, No. 3. - P. 309–328.

TALABALARNING TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUNI, TARKIBIY TUZILMASI VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Raxmanov Farxodjon Gabbarovich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan globallashuv, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va sun’iy intellektning turli sohalarga kirib borishi inson faoliyatining mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida texnologik o‘zgarishlar nafaqat o‘qitish vositalari va metodlarini, balki talabaning bilim olish, fikrlash, muloqot qilish, axborot izlash va kasbiy faoliyatga tayyorlanish usullarini ham yangilamoqda[1].

Zamonaviy oliy ta’lim muassasasi oldida turgan muhim vazifalardan biri – texnologiyalar bilan ishlashni biladigan emas, balki ulardan **ongli, mas’uliyatli, ijodiy va axloqiy jihatdan to‘g‘ri foydalana oladigan mutaxassisni tayyorlash**dir. Chunki texnologik taraqqiyot inson imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, akademik halollik, sun’iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanish, raqamli qaramlik va ijtimoiy tengsizlik kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarning texnologik tayyorgarligi masalasi faqat pedagogik yoki texnik muammo emas. U falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy jihatlarga ega bo‘lgan kompleks masaladir. Texnologik jihatdan tayyor shaxs texnik vositadan foydalanishni bilish bilan birga, uning inson, jamiyat va atrof-muhitga ta’sirini ham anglay olishi lozim.

Konferensiyaning zamonaviy global o‘zgarishlar sharoitida shaxs, jamiyat va ta’lim tizimining rivojlanishi, axloq, inson falsafasi, fan va ta’limning ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishdagi o‘rnini o‘rganishga yo‘naltirilgani mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi[2].

1. TALABALARNING TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUNI. “Texnologik tayyorgarlik” tushunchasi keng mazmunga ega bo‘lib, uni faqat kompyuter yoki boshqa texnik qurilmalardan foydalanish ko‘nikmasi sifatida talqin qilish yetarli emas. Zamonaviy pedagogik nuqtayi nazardan texnologik tayyorgarlik – bu shaxsning mavjud texnologiyalarni tushunishi, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi, muammolarni texnologik vositalar yordamida hal qilishi va o‘z faoliyatini takomillashtira olishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, kompetensiya, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmuasidir.

Talabaning texnologik tayyorgarligi, avvalo, uning kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Chunki bugungi kunda deyarli barcha kasblar axborot va raqamli texnologiyalar bilan bevosita yoki bilvosita bog‘langan. Shifokor elektron tibbiy ma’lumotlar bilan ishlaydi, pedagog raqamli ta’lim platformalaridan foydalanadi, iqtisodchi elektron ma’lumotlar bazalarini tahlil qiladi, muhandis zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanadi[3].

Demak, texnologik tayyorgarlik kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tushunchaning mazmunini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

1. texnologik bilimlarga ega bo‘lish;
2. zamonaviy texnik va raqamli vositalardan foydalanish;
3. axborotni izlash, saralash va tahlil qilish;
4. raqamli muhitda muloqot qilish;
5. texnologik vositalar yordamida muammolarni hal etish;

6. innovatsion faoliyatga tayyorlik;
7. texnologiyalardan axloqiy va mas’uliyatli foydalanish;
8. o‘z texnologik kompetensiyasini muntazam rivojlantirib borish.

Shu sababli texnologik tayyorgarlikni “texnik savodxonlik” tushunchasidan kengroq tushunish lozim.

Texnik savodxonlik ma’lum bir qurilma yoki dasturdan foydalanish imkoniyatini bildirsa, texnologik tayyorgarlik ushbu imkoniyatni **maqsadli, samarali, xavfsiz va axloqiy jihatdan asoslangan faoliyatga aylantirish qobiliyatini** anglatadi.

2. TEXNOLOGIK TAYYORGARLIKNING TARKIBIY TUZILMASI. Talabalarning texnologik tayyorgarligini yaxlit pedagogik hodisa sifatida o‘rganishda uning tarkibiy komponentlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, talabaning texnologik tayyorgarligi beshta asosiy komponentdan tashkil topadi:

motivatsion-qadriyatli komponent; kognitiv komponent; amaliy-operatsion komponent; axloqiy-ijtimoiy komponent; refleksiv komponent.

2.1. Motivatsion-qadriyatli komponent

Texnologik tayyorgarlikning dastlabki tarkibiy qismi talabaning texnologiyalarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi bilan bog‘liq.

Talaba zamonaviy texnologiyani shunchaki majburiy o‘quv vositasi sifatida emas, balki o‘zining intellektual va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi imkoniyat sifatida qabul qilishi zarur[4].

Motivatsiya mavjud bo‘lmagan sharoitda texnologik bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish yuzaki xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun oliy ta’lim jarayonida talabalarda:

- yangi bilimlarni egallashga qiziqish;
- innovatsiyalarga ochiqlik;
- mustaqil izlanishga ehtiyoj;
- texnologiyalar yordamida ijodiy faoliyat yuritish istagi;
- kasbiy rivojlanishga intilish

kabi sifatlarni shakllantirish muhimdir.

Motivatsion-qadriyatli komponentning yana bir muhim jihati – texnologiyaga insonparvarlik nuqtayi nazaridan munosabatni shakllantirishdir. Texnologiya maqsad emas, balki inson faoliyatini rivojlantirish vositasi ekanligi talaba ongida qaror topishi kerak[5].

2.2. Kognitiv komponent

Kognitiv komponent talabaning texnologiyalar haqidagi nazariy bilimlarini ifodalaydi.

Bunga quyidagilar kiradi:

- zamonaviy texnologiyalarning mohiyatini bilish;
- raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini tushunish;
- axborot manbalarini farqlash;
- raqamli axborotni tahlil qilish;
- texnologik jarayonlarning asosiy tamoyillarini tushunish;
- sun’iy intellekt va raqamli platformalarning imkoniyat hamda cheklovlarini anglash.

Kognitiv tayyorgarlik talabaning texnologiyadan ongli foydalanishi uchun nazariy asos yaratadi.

Masalan, sun’iy intellektdan foydalanuvchi talaba nafaqat kerakli ma’lumotni olishni, balki olingan ma’lumotning ishonchliligini tekshirishni ham bilishi kerak. Aks holda texnologiyadan foydalanish tanqidiy fikrlashni kuchaytirish o‘rniga, tayyor axborotni ko‘r-ko‘rona qabul qilishga olib kelishi mumkin[6].

Shuning uchun texnologik tayyorgarlik tanqidiy va mustaqil fikrlash bilan chambarchas bog‘liq.

2.3. Amaliy-operatsion komponent

Mazkur komponent texnologiyadan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Talaba:

- kompyuter va mobil qurilmalardan;
- ta’lim platformalaridan;
- elektron kutubxonalardan;
- ma’lumotlar bazalaridan;
- taqdimot va hujjat tayyorlash dasturlaridan;
- kommunikatsiya vositalaridan;
- turli raqamli ta’lim resurslaridan

foydalana olishi lozim.

Biroq zamonaviy talab bundan ham yuqoriroqdir. Talaba texnologiyani tayyor holda qo‘llash bilan cheklanmasdan, o‘zining kasbiy vazifalariga mos ravishda undan foydalanish yo‘llarini topishi kerak[7].

Masalan, tibbiyot yo‘nalishidagi talaba raqamli texnologiyadan bemor haqida ma’lumotlarni tartibga solish, ilmiy axborotni izlash va tahlil qilishda foydalanishi mumkin. Bunda bemorning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va tibbiy axloq tamoyillariga rioya qilish ham texnologik tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.4. Axloqiy-ijtimoiy komponent

Bugungi raqamli jamiyat sharoitida texnologik tayyorgarlikning axloqiy jihati alohida ahamiyatga ega.

Texnologiyadan foydalanish jarayonida shaxs doimo axloqiy tanlovga duch kelishi mumkin. Masalan:

- boshqa shaxsning shaxsiy ma’lumotlarini tarqatish;
- mualliflik huquqini buzish;
- plagiat;
- sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan ishni o‘zining mustaqil ishi sifatida taqdim etish;
- yolg‘on axborotni tarqatish;
- raqamli muloqot madaniyatiga rioya qilmaslik

kabi holatlar texnologik imkoniyatlarning axloqiy mas’uliyat bilan birgalikda rivojlanishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan texnologik tayyorgarlikning mazmuniga **raqamli etika** tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli etika shaxsning raqamli muhitda inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, akademik halollik, mualliflik huquqi va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga rioya qilgan holda faoliyat yuritishini anglatadi.

2.5. Refleksiv komponent

Refleksiya – shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va faoliyatini takomillashtirishi jarayonidir.

Texnologik tayyorgarlikda refleksiya talabaning:

- texnologiyadan foydalanish darajasini baholashi;
- o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi;
- yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini anglash;
- texnologik faoliyat natijalarini tahlil qilishi;
- kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi

bilan namoyon bo‘ladi.

Bu komponent texnologiyalar tez o‘zgarib borayotgan sharoitda ayniqsa muhimdir. Chunki bugun o‘zlashtirilgan texnologiya qisqa vaqt ichida yangilanishi mumkin. Demak, oliy ta’lim talabaga faqat muayyan dasturdan foydalanishni emas, **yangi texnologiyalarni mustaqil o‘zlashtirish qobiliyatini** ham berishi kerak[8].

3. TEXNOLOGIK TAYYORGARLIKNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Talabalarning texnologik tayyorgarligini shakllantirish o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarga ega.

Birinchi xususiyat – **uzluksizlik**.

Texnologik taraqqiyot doimiy davom etayotganligi sababli talabaning texnologik tayyorgarligi ham bir martalik jarayon emas. U maktabdan boshlab oliy ta’lim va keyingi kasbiy faoliyatgacha davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi kerak.

Ikkinchi xususiyat – **kasbiy yo‘naltirilganlik**.

Texnologik bilim va ko‘nikmalar talabaning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘lanishi kerak. Shunda talaba o‘rgangan texnologiyasining real hayotdagi ahamiyatini tushunadi.

Uchinchi xususiyat – **amaliy yo‘naltirilganlik**.

Texnologiyani o‘rganish faqat nazariy ma’lumot berish bilan cheklanmasligi lozim. Talaba real muammolarni texnologiyalar yordamida hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi xususiyat – **shaxsga yo‘naltirilganlik**.

Har bir talabaning texnologik tayyorgarlik darajasi, qiziqishi, tajribasi va o‘rganish sur’ati turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli individual ta’lim yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi xususiyat – **ijodkorlik**.

Zamonaviy texnologiyalar talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Tayyor axborotni qabul qilish emas, balki yangi g‘oya, loyiha va yechimlarni ishlab chiqish asosiy maqsadlardan biri bo‘lishi zarur.

Oltinchi xususiyat – **axloqiy mas’uliyat**.

Texnologik tayyorgarlik texnik imkoniyat bilan birga axloqiy mas’uliyatni ham shakllantirishi kerak. Chunki texnologiya qanchalik kuchli bo‘lsa, undan foydalanish mas’uliyati ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning texnologik tayyorgarligi zamonaviy oliy ta’limning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu tushuncha texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi bilan chegaralanmaydi. U texnologik bilim, amaliy ko‘nikma, motivatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, axloqiy mas’uliyat va refleksiv qobiliyatlarning yaxlit tizimini ifodalaydi.

Talabalarning texnologik tayyorgarligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-operatsion, axloqiy-ijtimoiy va refleksiv komponentlarning o‘zaro birligi asosida shakllanadi. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi talabaning nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki ularni kasbiy va ijtimoiy faoliyatda oqilona qo‘llash imkoniyatini oshiradi.

Zamonaviy global o‘zgarishlar sharoitida texnologik taraqqiyotning insonparvarlik va axloqiy mazmunini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga faol kirib kelishi talabalarda akademik halollik, tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va raqamli etika kabi sifatlarni shakllantirishni talab etmoqda.

Shu sababli oliy ta’limda texnologik tayyorgarlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi “texnologiyani biladigan” mutaxassis emas, balki **texnologiyani inson manfaatlari, kasbiy mas’uliyat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va jamiyat barqarorligi yo‘lida oqilona qo‘llay oladigan yetuk shaxsni shakllantirish**dan iborat bo‘lishi lozim.

Bunday yondashuv ta’limning zamonaviy talablariga javob berish bilan birga, shaxs, jamiyat va texnologiya o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada oliy ta’lim muassasasi nafaqat raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar, balki ma’naviy yetuk, axloqiy mas’uliyatli va ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi hujjatlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar.
4. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. Paris: UNESCO.
5. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO.
6. OECD. Digital Education Outlook. Paris: OECD Publishing.
7. Castells M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell.
8. Floridi L. The Ethics of Information. Oxford University Press.
9. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury Academic.
10. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. Vancouver: BCcampus.

11. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record.
12. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon.
13. Беляев В.И. Педагогика профессионального образования. Москва.
14. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация. Москва.
15. Подласый И.П. Педагогика. Москва.
16. Сластенин В.А. Педагогика. Москва.
17. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. Казань.
18. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent.
19. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent.
20. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent.

O‘ZBEK ERTAK MATNLARI ORQALI YOSH AVLODDA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Qurbonova Dilnoza Faxridinovna
Buxoro davlat universiteti fakultetlararo chet tillar kafedrasi tayanch doktoranti

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xususan xalq ertaklari, xalqning asrlar osha shakllangan ma’naviy-axloqiy tafakkurini o‘zida mujassam etgan noyob badiiy-tarixiy manba hisoblanadi. Ertak nafaqat bolalarni xayolot olamiga olib kiruvchi asar, balki jamiyat tomonidan e’zozlanadigan axloqiy me’yorlar, milliy qadriyatlar va dunyoqarashning badiiy ifodasi hamdir. Zamonaviy globallashuv jarayonlari yosh avlod ma’naviyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatayotgan bir paytda, o‘zbek xalq ertaklaridan tarbiya vositasi sifatida foydalanish masalasi yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada o‘zbek xalq ertaklari matnlari misolida milliy-ma’naviy qadriyatlarning shakllanishiga ta’siri va tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ishda milliy-ma’naviy qadriyat asosiy tushuncha sifatida qaraladi, umuminsoniy qadriyatlar esa o‘zbek ertaklarida milliy-madaniy shaklda ifodalanadi.

V.Ya. Propp xalq ertagining funksional tuzilishini tahlil qilib, syujet rivojida takrorlanuvchi funksiyalar tizimini aniqlagan [5]. Bu tuzilma qahramonning sinovdan o‘tishi, qarama-qarshilikni yengishi va yakuniy natijaga erishishi kabi motivlarning turli shakllarda namoyon bo‘lishini tushuntirish imkonini beradi hamda chuqur axloqiy mazmunga ega: qahramonning g‘alabasi deyarli har doim uning ichki fazilatlari — mardlik, halollik, sabr-toqat yoki saxiylik — bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Ye.M. Meletinskiy ham ertak qahramonining tipologik xususiyatlarini tahlil qilar ekan, uning ijtimoiy-axloqiy funksiyasini alohida ta’kidlaydi: qahramon shaxsiy manfaatdan ko‘ra oila yoki jamoa manfaatlarini ustuvor qo‘yadi [6]. L.S. Vigotskiyning tafakkur va nutq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi g‘oyasi [1] ertak matnini idrok etish jarayoniga ham tatbiq etilishi mumkin: bola ertak qahramonining nutqi va harakatlarini idrok etish orqali axloqiy-ijtimoiy ma’nolarni ham o‘zlashtiradi. Yu.N. Karaulovning lingvistik shaxs konsepsiyasiga ko‘ra, til orqali uzatiladigan matnlar shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [4].

O‘zbek xalq ertaklarida milliy-ma’naviy qadriyatlar, avvalo, ijobiy va salbiy personajlar o‘rtasidagi ziddiyat orqali ifodalanadi. M. Jo‘rayevning tadqiqotlarida o‘zbek mifologiyasidagi g‘ayritabiiy obrazlarning milliy-madaniy talqini yoritilgan [7]. J.S. Eshonqulovning maxsus tadqiqotida esa dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini tahlil qilingan bo‘lib, unga ko‘ra dev ko‘pincha jismoniy kuchga ega, biroq aqliy jihatdan zaif, o‘z kuchini yovuzlik uchun ishlatuvchi mavjudot sifatida talqin etiladi [9]. B.M. Jumaniyozovning tadqiqotiga ko‘ra esa, yalmog‘iz obrazi makkorlik va yolg‘onchilik xislatlarini o‘zida mujassam etib, tashqi xayrixohlik ostida yovuzlik yashiringan bo‘lishi mumkinligini yosh tinglovchiga anglatadi [8]. Bunday salbiy obrazlarga qarshi turuvchi ijobiy qahramon — botir yoki kenja o‘g‘il — o‘z navbatida mardlik, sabr-toqat, oqillik va oila-qarindoshlarga sadoqat kabi fazilatlarni mujassam etadi. Ushbu ziddiyat orqali ertak tinglovchisi yoki o‘quvchisida botirlik va halollik ustuvor qadriyat sifatida shakllanadi, ochko‘zlik va zolimlik esa qoralanadi.

Xalq ertaklari to‘plamlarida keltirilgan aniq matnlar bu qadriyatlarning namoyon bo‘lish shaklini yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, "Uch og‘ayni botirlar" to‘plamiga kiritilgan "Semurg‘" ertagida bosh qahramonning g‘ayritabiiy kuchga yordam qo‘lini cho‘zishi, keyinchalik uning o‘zi og‘ir damda najot topishiga sabab bo‘ladi [11, b. 193] — bu orqali yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish g‘oyasi ilgari suriladi. Xuddi shu to‘plamdagi "Non qudrati" ertagida mehnat mahsuliga, xususan, nonga hurmat va isrofgarchilikning salbiy oqibatlari tasvirlanadi [11, b. 297], bu esa mehnatsevarlik va tejamkorlik qadriyatini singdiradi. "Zar kokilli malika" ertagida esa bosh qahramonning uzoq davom etgan sinovlarga sabr bilan bardosh berishi va oxir-oqibat sadoqati tufayli baxtga erishishi tasvirlanadi [12, b. 351], bu esa sabr-toqat va vafodorlikning ustuvor qadriyat sifatida talqin etilishini ko‘rsatadi.

O‘zbek folklorida pari obrazi ham alohida o‘rin tutadi. O.S. Qayumovning tadqiqotlariga ko‘ra, pari obrazi ko‘pincha yordamchi yoki donor funksiyasini bajaruvchi, saxiylik va halollikni mukofotlovchi ijobiy g‘ayritabiiy kuch sifatida talqin etiladi [10]. Dev va yalmog‘izdan farqli o‘laroq, pari obrazi orqali ertak matnida yaxshilikka intilish va poklik g‘oyasi mustahkamlanadi.

Amaliy nuqtai nazardan, o‘zbek xalq ertaklarini ta’lim jarayoniga tizimli tatbiq etish bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin: birinchi bosqichda o‘quvchilarga bir xil funksional tipdagi (masalan, sinovdan o‘tish syujetiga ega) ertaklar tanlab taqdim etiladi; ikkinchi bosqichda personajlarning xatti-harakati va nutqiy xususiyatlari muhokama qilinadi; uchinchi bosqichda esa ertak orqali ilgari surilgan qadriyat ochiq shaklda umumlashtiriladi va zamonaviy hayot bilan bog‘lanadi. V.P. Belyaninning fikricha, matnni idrok etish jarayoni o‘quvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli [3], xalq ertaklarini tanlashda o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlariga mosligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunday metodik yondashuv yosh avlodda ongli milliy-ma’naviy qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklari nafaqat badiiy-estetik, balki chuqur axloqiy-ma’naviy mazmunga ega bo‘lgan matnlar sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Dev, yalmog‘iz kabi salbiy va pari, botir kabi ijobiy obrazlar o‘rtasidagi ziddiyat mardlik, halollik, sabr-toqat va saxiylik kabi qadriyatlarning yosh tinglovchi ongida shakllanishiga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu qadriyatlarning ta’lim dasturlariga tizimli tatbiq etilishi masalalari alohida o‘rganilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Соцэкгиз, 1934. – 324 с.
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 1997. – 287 с.
3. Белянин В.П. Психолингвистика. – М.: Флинта, 2016. – 416 с.
4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.
5. Пропп В.Я. Морфология сказки. – Л.: Academia, 1928. – 152 с.
6. Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки. – М.: Восточная литература РАН, 2005. – 240 с.
7. Jo‘rayev M. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – 212 b.
8. Jumaniyozov B.M. O‘zbek xalq eposida yalmog‘iz obrazi: filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996. – 24 b.
9. Eshonqulov J.S. O‘zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini: filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996. – 26 b.
10. Qayumov O.S. O‘zbek folklorida pari obrazi (genezisi va badiiyati): filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – 24 b.
11. Uch og‘ayni botirlar (o‘zbek xalq ertaklari to‘plami). – Toshkent, 2017.
12. Zar kokilli malika (o‘zbek xalq ertaklari to‘plami). – Toshkent, 1986.

ADDRESSING LEARNING STYLES IN NURSING EDUCATION

Sultonova D.G'
Head of the Department of Nursing, Abu Ali ibn Sino Public Health Technical School, Tashkent

Teaching nursing students is not limited to helping them remember medical facts. A student may understand a concept in the classroom but still experience difficulty when applying it to a patient. Nursing education therefore requires a balance between theoretical knowledge and practical experience.

One reason learning styles became popular in education is that students clearly differ from one another. Some students prefer diagrams and visual materials, while others feel more comfortable listening to explanations, reading texts, discussing ideas, or learning through direct practice. From a teacher's point of view, these differences are easy to notice in the classroom.

For many years, such observations encouraged educators to classify students according to particular learning styles. In nursing education, the VARK model and Kolb's experiential learning model have been especially common. These frameworks can be useful when they encourage students to think about how they study. Problems arise, however, when a preference is treated as a permanent characteristic.

A nursing student cannot always choose the form in which clinical information appears. In practice, information may come from a patient's verbal report, a written record, a monitor, a laboratory result, or direct physical examination. For this reason, flexibility in learning may be more important than dependence on one preferred mode.

Literature Review

Research in nursing and health professions education has shown that students report a wide range of learning preferences. Some studies describe nursing students as predominantly visual or kinesthetic learners, while others report mixed or multimodal preferences.

Such findings can help teachers appreciate diversity within a class. At the same time, the evidence supporting the idea that students achieve better results when teaching is specifically matched to a particular learning style remains inconsistent.

This distinction is important. A student may prefer visual materials, but preference does not necessarily mean that visual instruction is always the most effective way for that student to learn. The method should also depend on what is being taught.

For example, anatomy may benefit from diagrams and models. Therapeutic communication requires conversation and practice. A clinical procedure requires demonstration and repeated performance. Medication calculation requires numerical reasoning. It would therefore be unrealistic to expect a single learning style to work equally well across all areas of nursing education.

Recent educational literature increasingly supports the use of varied and active teaching approaches rather than strict learning-style matching.

Methodology

This paper was prepared as a narrative review of literature related to learning styles, learning preferences, nursing education, active learning, and multimodal teaching.

The discussion focuses particularly on the practical meaning of learning-style concepts for nursing educators. Rather than comparing individual learning-style instruments, the aim was to identify how teachers can respond to student differences while maintaining evidence-based educational practice.

Discussion

The most useful way to approach learning styles in nursing education may be to regard them as preferences rather than fixed identities.

A student might say, for example, "I learn best by doing." This information can be useful, especially when planning practical activities. However, it would be a mistake to conclude that the same student does not need to develop reading, listening, or analytical skills.

Nurses work in environments where information appears in many forms. They read documentation, listen to colleagues, observe patients, interpret charts, communicate with families, and perform procedures. Students should therefore become comfortable learning from different sources.

Multimodal teaching can support this development.

Consider a lesson on respiratory assessment. A teacher might begin with a short explanation of respiratory physiology, use a diagram to illustrate lung structures, present an audio recording of abnormal breath sounds, discuss a patient case, and then allow students to practice assessment techniques in the laboratory.

In this example, different learning activities are used because they serve different purposes. The goal is not to satisfy a label such as "visual learner" or "auditory learner." The goal is to help students understand the topic from several perspectives.

Active learning is also particularly important. Students learn more deeply when they must explain an idea, solve a problem, make a decision, perform a skill, or reflect on an error.

For nursing educators, the more useful questions may therefore be:

What do my students already know?

Where are they experiencing difficulty?

What type of activity is most suitable for this particular learning objective?

How can I give students an opportunity to apply the knowledge?

How will I know whether they can use it in a clinical situation?

These questions are more educationally meaningful than simply asking which learning style dominates in a classroom.

Teachers should also be careful not to unintentionally limit students. If a student repeatedly hears that he or she is a "visual learner," that student may begin to avoid reading or discussion. Over time, the label can become a barrier rather than a support.

Conclusion

Learning-style theories have contributed to an important discussion about individual differences among nursing students. However, they should be used cautiously.

Nursing students do have different preferences, experiences, strengths, and educational needs. Nevertheless, these differences do not mean that each student should receive instruction only in one preferred mode.

A stronger approach is to combine different methods and give students repeated opportunities to listen, observe, read, discuss, practice, reflect, and solve problems.

The purpose of nursing education is not simply to make learning comfortable. It is to prepare students for professional practice, where they must be able to learn and respond flexibly in a variety of clinical situations.

References

1. Almarwani, A. M., & Elshatarat, R. (2022). Understanding learning styles in undergraduate nursing programs of the Kingdom of Saudi Arabia: An integrative literature review. The Open Nursing Journal, 16.
2. Campos, D. G., Silva, J. L. G., Jarvill, M., Rodrigues, R. C. M., & Kumakura, A. R. S. O. (2021). Instruments to evaluate undergraduate healthcare student learning styles globally: A scoping review. Nurse Education Today, 107, 105141.
3. Clinton-Lisell, V., & Litzinger, C. (2024). Is it really a neuromyth? A meta-analysis of the learning styles matching hypothesis. Frontiers in Psychology, 15.
4. Newton, P. M., & Salvi, A. (2020). How common is belief in the learning styles neuromyth, and does it matter? Frontiers in Education, 5.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ

Цуканова Е. Н.
Бухарский государственный технический университет

Потенциальное использование искусственного интеллекта в образовании для улучшения обучения, помощи преподавателям и стимулирования более эффективного индивидуального обучения захватывает, но также немного пугает. Чтобы даже вести разумный разговор об ИИ в сфере образования, нужно сначала выйти за рамки воображаемых научно-фантастических явлений, в компьютерах и роботах обучают нашу молодёжь, заменяют преподавателей и подводят человеческий фактор в том, что является фундаментально легкой поверхностью.

Один из ведущих авторов, пишущих о преимуществах искусственного интеллекта в образовании, Мэтью Линч («Мое видение будущего искусственного интеллекта в образовании»), тщательно исследует потенциальные подводные камни с преимуществами, отмечая, что «использование ИИ в образовании в некотором смысле ценно, но мы должны быть исключительными, следуя за его и его общей ролью в нашем мире».

Этические меры глубины, как и в случае использования искусственного интеллекта в любой империи. У ИИ нет так называемого «морального компаса». Так что, с одной стороны, программирование ИИ «столь же этично, как и его разработчик», согласно Towards Data Science , в статье об этой ИИ, которая предписывает две важные рекомендации на будущее:

1. *Нам необходимо заложить эти основы в идею о том, почему разрабатывается определенная технология, оснащенная искусственным интеллектом.*
2. *Нам необходимо отслеживать/проверять/контролировать результаты работы этой конкретной технологии, чтобы полностью понять ее поведение и убедиться, что она не нарушает наши (человеческие) моральные принципы.*

В технологическом сообществе и по его инициативе ведутся жаркие дебаты по поводу этики в области искусственного интеллекта, и большинство университетских программ включают курсы по этике ИИ в свою учебную программу. Теперь, когда мы определили этический слон в комнате, давайте поговорим об захватывающих возможностях ИИ в образовании.

В идеале, как пишет Линч в The Ed Advocate, «ИИ не мешает обучению в классе, а наоборот, улучшает его во многих отношениях». Он резюмирует пять интригующих представителей плюсов руководителей ИИ в образовании:

«Одному преподавателю может быть чрезвычайно сложно понять, как поддержать каждого студента в его группе. Системы искусственного интеллекта легко адаптируются к индивидуальным образовательным потребностям каждого студента и могут нацеливать обучение на основе их сильных и слабых сторон».

Репетиторство: Системы искусственного интеллекта могут «оценивать стиль обучения и его голосовые знания, чтобы обеспечить индивидуальную поддержку и обучение».

Оценка: Конечно, ИИ может помочь оценить экзамены, используя ключи ответов, но он также может «собирать данные о том, как справились студенты, и даже оценивать более абстрактные задания, такие как эссе».

Отзыв о курсе: Например, если многие студенты отвечают на вопрос неправильно, «ИИ может сосредоточиться на конкретной информации или концепциях, которые отсутствуют у студентов, чтобы преподаватели могли внести целенаправленные улучшения в материалах и методах».

Значимая и немедленная обратная связь для студентов: некоторые студенты могут стесняться идти на риск или получать критическую обратную связь в аудитории, но «студенты и могут чувствовать себя комфортно, допуская ошибки, необходимые для обучения, и получать обратную связь, предусмотренную для того, чтобы обеспечить».

Большая часть предполагаемого потенциала ИИ в образовании заключается в сокращении времени, которое преподователи проводят для выполнения утомительных задач, чтобы сократить его до более значимых задач.

Автоматизация задач обработки также является одним из пяти преимуществ, на которые обращает внимание Бернард Марр, писатель, футуролог и консультант по технологиям, который приводит цифры, прогнозирующие рост на 47,5% в период с 2017 по 2021 год использования искусственного интеллекта в образовании в США.

В предложении о потенциале ИИ в образовании Марр, почему он считает, что ИИ оказывает «огромное влияние» на образование, подчеркивая, что «ИИ не представляет собой угрозу для учителей; Он не требует найма учителя», а скорее ставит задачу обеспечить лучшее образование для наших детей. Это себе будущую гибридную модель, которая разработана для того, чтобы «получить максимум от наших систем с искусственным интеллектом и представить нашего учителя». Марр описывает потенциал ИИ, который поможет каждому обеспечить обеспечение улучшений:

-Дифференцированное и индивидуализированное обучение
-Автоматизация решения задач
-Репетиторство и внеклассная поддержка
-Универсальный доступ для всех студентов

Вдохновленный вызов «старого школьного учителя, который считает, что ИИ разрушает образование», Мэтью Линч рассматривает широкий спектр тем:

Адаптивное обучение: «Используется для обучения студентов базовым и продвинутым навыкам путем оценки их текущего уровня, создания навыков и управляемого учебного процесса, который помогает им стать профессионалами».

Вспомогательные технологии: ИИ может помочь учащимся с особыми потребностями получить более справедливое образование, например, «читая отрывки текста, учащиеся с нарушением зрения».

Дошкольное образование: «В настоящее время искусственный интеллект используется для создания интерактивных игр, обучающих детей базовым академическим навыкам и множеству игр».

Аналитика данных и обучения: «В настоящее время ИИ использует учителями и администраторами системы образования для анализа и анализа данных», что позволяет принимать более обоснованные решения.

Расписание: Помощь администраторам в планировании курсов, внешним лицам — в управлении их ежедневными, еженедельными, ежемесячными или годовыми расписаниями.

Управление объектами: ИИ эффективен для «контроля состояния электроснабжения, Wi - Fi и водоснабжения, а также для оповещения о предоставлении служб эксплуатации объектов в случае возникновения проблем».

Общее управление школой: В настоящее время ИИ используется для управления целевыми школами, включая работу систем учета учащихся, транспорта, информационных технологий, технического обслуживания, планирования, бюджетирования и т. д. д.

Письмо: Линч не только утверждает, что ИИ уже работает, помогая студентам улучшить свои навыки письма, он также признается: «Сейчас я использую приложение по грамматике и использую, которое помогает мне написать эту статью».

Продолжая свой список, Линч также приводит примеры современного использования ИИ в образовании, в том числе:

-Управление поведением в классе
-Планирование урока
-Аудиовизуальные средства для занятий
-Общение родителей и учителей
-Изучение языка
-Подготовка к тесту

-Рейтинг
-Системы управления обучением
-Геймификация для повышения производительности студентов
-Составление штатного расписания и управление заменой
-Профессиональное развитие
-Транспорт
-Сервис
-Финансы
-Кибербезопасность
-Безопасность и защита

Примеры того, как искусственный интеллект в настоящее время используется в сфере образования, включают в себя:

-Обнаружение плагиата
-Экзамен на честность
-Чат-боты для регистрации и удержания
-Системы управления обучением
-Транскрипция лекций факультета
-Расширенные онлайн-доски обсуждений
-Анализ показателей точности студентов
-Академические исследования
-Связанные кампусы

Что касается конкретных технологий на основе ИИ, которые сейчас используются в образовании, список становится длиннее с каждым днем. Вот лишь из некоторых из них:

-Thinkster Math: создатели выбрали ее как «программу обучения математике, которая использует взаимодействие с людьми и новаторский искусственный интеллект для создания персонализированных программ обучения»

-Джилл Уотсон: виртуальный помощник преподавателя по поддержке искусственного интеллекта, представленный Технологическим институтом Джорджии в 2016 году.

-Brainly: сайт социальных сетей для вопросов в классе

-Нюанс: программное обеспечение для чтения речи, используемое студентами и преподавателями; способно транскрибировать до 160 слов в минуту; особенно полезно для студентов, испытывающих трудности с письмом или проблемы с доступом к информации.

-Познание: продукты на основе искусственного интеллекта, включая виртуального помощника по обучению, для учреждений начального и среднего образования, высших учебных заведений, а также организаций начального образования.

-KidSense: образовательные решения на основе искусственного интеллекта, разработанные для детей, включая инструмент преобразования голосов в текст с помощью алгоритмов, созданных для результатов, иногда для преобразования речи в небольшие фрагменты.

-Технологический контент: решения по разработке научных материалов и прикладного контента, основанные на исследовательских машинах искусственного интеллекта.

Как пояснил генеральный директор доктор Скотт Парфитт, Content Technologies Inc. Разрабатывает систему обучения на основе искусственного интеллекта, которая ориентирована на «превращение больших данных в информацию, а информации в знания».

«Мы отдали двигатель, он начинает читать со скоростью света каждую статью, может прочитать. Он выучил свой собственный материал», — говорит Парфитт. Решения компании, ориентированные на образование, включают:

- **Палитт:** создан, чтобы помочь преподавателям легко создать «собственную серию лекций, программу или учебник»

- **Крам101:** Технология искусственного интеллекта, которая может «превратить любой учебник в интеллектуальное учебное пособие, дополненное краткими содержаниями глав, неограниченным количеством практических тестов «верно-неверно» и тестов с множественным выбором ответов, а также карточками, детализированными до указания учебника, номера ISBN , автора и главы».
- **JustTheFacts 101:** предназначен для работы в области искусственного интеллекта, эквивалентного желтому старому желтому маркеру, мгновенного повышения популярности и создания кратких описаний книг и глав.

Бернард Марр считает, что инструменты II могут улучшить инклюзивность и всеобщий доступ к нескольким методам, в том числе:

-Помощь в «создании более высоких классов, доступных для всех, включая тех, кто говорит на разных языках или не имеет проблем с вниманием или слухом»

-Создание доступа для «учеников, которые не могут Алиэкспресс в школу из-за болезни»

-Лучшее обслуживание «учеников, которым требуется обучение на другом уровне или по более медленному предмету, который недостаточно ступенится в своей собственной школе»

В целом, есть надежда, что ИИ в конечном итоге поможет педагогам добиться дальнейшего прогресса в рамках широкого спектра физических, когнитивных, академических, социальных и эмоциональных факторов, которые могут повлиять на образование учащихся, и добиться того, что все учащиеся будут иметь возможности в сфере образования, независимо от их классового класса, расы, пола, сексуальной ориентации, физического происхождения или физических и умственных качеств.

Показательный оптимизм также вызывает идею о том, что по мере того, как искусственный интеллект становится все более последовательной частью учебного процесса, учителя будут лучше подготовлены к тому, чтобы предложить каждому ученику индивидуальный подход к обучению.

Согласно статье в TheAtlantic («Искусственный интеллект гарантирует персональное образование для всех»), искусственный интеллект, обладающий потенциалом, «повышает способность учителя подгонять уроки под каждого ученика, не нарушая при этом расписания занятий», используется необходимость для педагогов «учить посредственно», как это часто случается, когда у них формируется разный уровень способностей и способностей к обучению.

Роуз Лакин, профессор дизайна, ориентированный на обучение, в Университетском колледже Лондона, заявила: «Настоящая сила искусственного интеллекта в образовании может заключаться в том, что мы используем его для обработки огромных объемов данных среди учащихся, учителей, о ступени преподавания и обучения». В конечном итоге ИИ может «помочь учителям понимать свои измерения точнее и эффективнее».

Несмотря на то, что продолжаются широкие дебаты о плюсах и минусах информационных технологий в сфере образования, включая опасения по поводу деперсонализации и этических тенденций, упомянутые выше, развитие консенсуса, согласно тому, что прогрессивный спектр текущих и будущих преимуществ поддерживает верх.

Литература:

1. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход / пер. с англ. — 2-е изд. — Москва: Вильямс, 2021. — 1408 с. [1]
2. Дагган С. Искусственный интеллект в образовании: Изменение темпов обучения / под ред. С. Князевой. — Москва: ИТОИ ЮНЕСКО, 2021. — 52 с. — ISBN 978-5-6046449-1-0. [1]
3. Искусственный интеллект в образовании: новые горизонты для педагогики // КиберЛенинка : научная электронная библиотека. — Анализ влияния технологий ИИ на современную педагогику. [1]

4. Алиева М. В., Батчаева З. Б., Муцурова З. М., Исаева М. З. Большие данные и их применение в образовании // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. — 2023. — № 9. — С. 13–19. [1]
5. Авайсов Ш. Р. Риски, стоящие перед системой школьного образования, связанные с развитием технологий искусственного интеллекта // Вестник МГИК. — 2025. — № 1. — С. 10–15. [1]
6. Генеративный ИИ и образование: цифровая педагогика, преподавание инноваций и дизайн обучения / Б. Майред Пратшке // LinkedIn Pulse. — 2025. [1]
7. 10 книг об искусственном интеллекте и машинном обучении // Нетология. — Подборка литературы об истоках ИИ и сценариях цифрового будущего

MA’RIFATLI JAMIYATDA KONTEKSTUAL ARGUMENTLASH VA DOKSASTIK MANTIQ: TANQIDIY FIKRLASH HAMDA YUMSHOQ KUCHNING ZAMONAVIY IJTIMOIY JARAYONLARDAGI O‘RNI

Adambayev Umidbek Xaitbayevich
Urganch RANCH texnologiya universiteti katta o‘qituvchisi

XXI asr global axborotlashuv va raqamli transformatsiyalar davri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti oldiga inson tafakkuri, muloqot madaniyati va epistemik xavfsizlik bilan bog‘liq yangi strategik vazifalarni qo‘ymoqda. Axborot oqimining keskin ortishi nafaqat bilim almashinuvini osonlashtirdi, ayni paytda dezinformatsiya, manipulyatsiya, kognitiv tahdidlar hamda konstruktiv muloqotni inkor etuvchi populist ritorikalarning kuchayishiga zamin yaratdi. Bunday murakkab sharoitda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishning asosiy sharti sifatida tanqidiy fikrlash madaniyati hamda argumentativ savodxonlikni yuksaltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – ma’rifatli jamiyat taraqqiyotida kontekstual argumentatsiya, doksastik mantiq va “yumshoq kuch” tushunchalarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ochib berishdan iborat.

Ma’rifatli jamiyat deganda, eng avvalo, “bu jamiyat a’zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyokdrashini kengaytirish va boyitish”[1, B. 275] tushuniladi. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlarda ma’rifatli jamiyatning asosiy mezoni axborotni shunchaki iste’mol qilish emas, balki uni tanqidiy saralash, tahlil qilish va ratsional baholash qobiliyatidir. Bugungi kunda an’anaviy boshqaruv shakllaridan farqli o‘laroq, jamiyatni rivojlantirishning asosiy kuchi intellektual salohiyat, ilm-fan, madaniy qadriyatlar va ochiq diskursga tayanmoqda. Ma’rifatli jamiyat shaxslararo munosabatlarda zo‘ravonlik yoki majburlash usullaridan voz kechib, mantiqiy ishontirish, dalillarga asoslangan argumentatsiya va o‘zaro tushunish madaniyatini ustuvor deb biladi. Masalan, o‘zbekona oilaviy yoki mahalla-ko‘y muhitidagi masalalarni hal qilishda ham qadimdan musht yoki baland ovoz bilan emas, balki “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi” degan hikmatli yondashuvlarga tayanilgan. Bu - jamiyatda majburlash emas, balki aynan mantiqiy ishontirish va o‘zaro tushunish madaniyati ustuvor bo‘lganining amaldagi ko‘rinishidir.

An’anaviy formal mantiqdan farqli o‘laroq, kontekstual argumentlash dalillarning qaysi ijtimoiy, madaniy va pragmatik muhitda qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratadi. X. Perelmanning “yangi ritorikasi”[2, B. 11-59] va S. Toulmin modellarida[3, B. 14-15] ta’kidlanganidek, har qanday ishonchli dalil o‘zining auditoriyasi va real hayotiy kontekstiga mos kelgandagina samarali bo‘ladi. Ma’rifatli jamiyatda kommunikativ jarayonlar abstrakt qoidalar doirasida emas, balki aniq ijtimoiy muloqot muhitida ro‘y beradi. Kontekstual argumentlash shaxslarga turli nuqtai nazarlarni chuqur tushunish, suhbatdoshning pozitsiyasini baholash va ziddiyatli qarashlar o‘rtasida ratsional ko‘priklar qurish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda sog‘lom va konstruktiv ijtimoiy diskurs madaniyatini shakllantiradi.

Doksastik mantiq (yunoncha «doxa» - fikr, mulohaza, ishonch so‘zidan olingan) - falsafiy mantiq va epistemologiyaning insonning ishonch va e’tiqodlarini o‘rganuvchi muhim yo‘nalishlaridan biridir [4]. Zamonaviy epistemologiya va AGM (Alchourron–Gardenfors–Makinson) modellari [5] doirasida e’tiqodlar statik holat emas, balki yangi ma’lumotlar ta’sirida doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqiladigan dinamik tizim sifatida talqin qilinadi. Inson ongida e’tiqodlarning shakllanishi ko‘p jihatdan uning mantiqiy savodxonligiga va tashqi axborotni qabul

qilishdagi tanqidiy yondashuviga bog‘liq. Doksastik mantiq insonlarga o‘z e’tiqodlaridagi ziddiyatlarni aniqlash, asossiz dogmalardan voz kechish va ratsional asoslangan qarashlarni shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash shaxslarga har qanday axborotni ko‘r-ko‘rona qabul qilmasdan, uning mantiqiy asoslarini tekshirish, xulosalarning to‘g‘riligini baholash imkonini beruvchi intellektual ko‘nikmadir. Kontekstual argumentlash tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. U turli xil manipulyatsiyalar, safsatalar (fallacies) va asossiz da’volarni fosh etishda yordam beradi. Kontekstual yondashuv orqali fuqarolar nafaqat dalilning shakliy to‘g‘riligini, balki uning ortida yotgan maqsad va kontekstual shart-sharoitlarni ham ko‘ra oladilar. Bu jarayon jamiyatda ongli, mustaqil va tahliliy fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, kundalik hayotda yoki ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan “Pazandachilik siri”, “Bir haftada sog‘ayish yo‘li” kabi asossiz reklamalar yoki mish-mishlarni ko‘rganimizda, bu ma’lumotni darhol ishonib tarqatib yubormasdan, uning tagiga yetish, “Buning ilmiy asosi bormi?” yoki “ Bu haqiqatdan ishonchlimi?” deb so‘roq ostiga qo‘yish - ana shu tanqidiy fikrlash va manipulyatsiyalarga qarshi immunitetning amaldagi ko‘rinishidir.

Jozef Nay tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan “yumshoq kuch” [6, B. 3-5] tushunchasi bugungi kunda nafaqat xalqaro munosabatlar, balki ichki ijtimoiy jarayonlar va madaniy siyosat doirasida ham keng qo‘llanilmoqda. Majburlash yoki iqtisodiy tazyiqqa tayanuvchi “qattiq kuch”dan farqli o‘laroq, yumshoq kuch g‘oyalar, qadriyatlar, madaniyat, ta’lim va mantiqiy jozibadorlik vositasida ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy jamiyatda g‘oyalarning o‘tkazuvchanligi va jozibadorligi uning ishonchliligiga bevosita bog‘liq. Jamiyat ongini shakllantirishda yumshoq kuchning samaradorligi axborotning qanchalik asosli, mantiqiy va jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi bilan belgilanadi. Bunga yaqqol misol qilib, o‘zbek milliy qadriyatlari, mehmondo‘stligi, Navro‘z bayrami kabi an’analarimizning dunyo miqyosida uyg‘otadigan iliq taassurotini keltirish mumkin. Biz hech kimni majburlamagan holda, o‘zimizning madaniyatimiz, boy tariximiz va ma'naviy merosimizning jozibasi orqali boshqalarning e'tiborini qozonamiz - bu aynan amaliy “yumshoq kuch”dir.

Mazkur tushunchalar o‘rtasida uzviy va sinergik bog‘liqlik mavjud. Doksastik mantiq inson e’tiqodlarining ichki ratsional arxitekturasini ta’minlasa, kontekstual argumentlash ushbu e’tiqodlarni ijtimoiy muloqotda ifodalash va himoya qilishning uslubiy qurolidir. Tanqidiy fikrlash esa shaxslarga tashqi ta’sirlarni saralash imkonini beruvchi kognitiv immunitet vazifasini bajaradi. O‘z navbatida, yumshoq kuch aynan shu mantiqiy va argumentativ jarayonlar orqali jamiyatda o‘z g‘oyalarini muvaffaqiyatli tatbiq etadi. Boshqacha aytganda, zamonaviy yumshoq kuchning asosi zo‘ravonlik emas, balki intellektual jozibadorlik, kuchli argumentlar va yuqori mantiqiy madaniyatga tayanadi.

Ma’rifatli jamiyatni barqaror rivojlantirish uchun ta’lim tizimidan tortib ommaviy axborot vositalarigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarda mantiqiy madaniyat va tanqidiy tafakkurni singdirish zarur. Bu jarayon quyidagi amaliy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi:

- Ta’lim dasturlariga argumentatsiya nazariyasi, tanqidiy fikrlash va doksastik asoslarni chuqur o‘qitishni joriy etish;
- Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik diskursida ratsional muloqot madaniyatini rag‘batlantirish;
- Kognitiv tahdidlar, dezinformatsiya va manipulyatsiyalarga qarshi intellektual immunitetni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatli jamiyatni barpo etish va uning barqarorligini ta’minlashda kontekstual argumentlash, doksastik mantiq va tanqidiy tafakkurning o‘rni beqiyosdir. Zamonaviy axborot makonida g‘oyalarning raqobatbardoshligi va “yumshoq kuch” mexanizmlarining samaradorligi kuch ishlatishga emas, balki ratsional ishonchlantirish, mantiqiy asoslangan argumentlar va yuksak diskurs madaniyatiga tayanadi. Shaxs va jamiyat tafakkurini ma'rifat tamoyillari asosida rivojlantirish kelajakdagi global kognitiv tahdidlarga qarshi turishning eng ishonchli kafolatidir.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 464 бет.
2. Perelman, Ch. The New Rhetoric: A Treatise on Argumentation / Ch. Perelman, L. Olbrechts-Tyteca ; transl. by J. Wilkinson, P. Weaver. - Notre Dame, IN : University of Notre Dame Press, 1969. - P. 566.
3. Toulmin S. The Uses of Argument. - Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – P. 262.
4. Hendricks V., Symons J., Wang Y. Epistemic Logic // The Stanford Encyclopedia of Philosophy / Ed. by E. N. Zalta, U. Nodelman. - First published 07.06.2019; substantive revision 01.12.2023. [Электрон ресурс] - URL: https://plato.stanford.edu/entries/logic-epistemic/ (murojaat qilingan sana: 2026.08.10).
5. Alchourron C. E., Gardenfors P., Makinson D. On the Logic of Theory Change: Partial Meet Contraction and Revision Functions // Journal of Symbolic Logic. - 1985. - Vol. 50, No. 2. - Pp. 510-530. - DOI: https://doi.org/10.2307/2274239
6. Nye J. Soft Power and Great-Power Competition. China and Globalization // Singapore: Springer. 2023. - P.217.

HOJI MUIN SHUKRULLO O‘G‘LI MEROSINING MA’NAVIY-AXLOQIY VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Temirov Rahmatulla Ismatulla o'g'li
Osiyo xalqaro universiteti,
Pedagogika-psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xalqning ta'lim va ma'rifat sohasida dunyo taraqqiyotidan ortda qolishi taraqqiyparvar ziyolilarni chuqur o'ylantirgan edi. Millatni jaholat botqog'idan olib chiqish, uning ma'naviy va moddiy turmush tarzini yuksaltirishning yagona yo'li – bu ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va ma'rifat tarqatish deb bilgan jadid bobolarimiz maydonga chiqdilar. Ana shunday ulug' ma'rifatparvarlardan biri, Samarqand jadidchilik harakatining yetakchilaridan, iste'dodli pedagog va adib Hoji Muin Shukrullo o'g'lidir [1, b. 45].

Hoji Muin o'zining butun ongli hayotini xalqni ma'rifatli qilish, ta'lim muassasalarini zamonaviylashtirish, milliy matbuotimiz va teatrimizni rivojlantirishga bag'ishladi. Uning ijodiy merosi o'zining ko'lamdorligi va serqirraligi bilan ajralib turadi. Adib qalamiga mansub darsliklar, pyesalar, publitsistik maqolalar asr boshlaridagi o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti, ma'naviy izlanishlari va pedagogik tafakkurini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi [2, b. 112]. Bugungi kunda O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlik masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir paytda Hoji Muin merosini o'rganish va uni yosh avlodga yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hoji Muin Shukrullo o'g'li 1883-yili Samarqand shahrida hunarmand oilasida dunyoga kelgan. U dastlab eski maktabda, so'ngra madrasada ta'lim oladi. Biroq, zamonaning ilg'or fikrli ziyolilari, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy ta'sirida u o'z dunyoqarashini o'zgartirib, yangi usul (jadid) maktablari ochish harakatiga qo'shiladi. 1901-yildan e'tiboran u Samarqand shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda muallimlik qila boshlaydi va ko'plab yangi usuldagi maktablarga asos soladi [3, b. 78]. Bu maktablar uchun maxsus o'quv dasturlari tuzish va darsliklar yozish ishida faol ishtirok etadi.

Hoji Muinning pedagogik faoliyati faqatgina o'qituvchilik bilan cheklanib qolmagan. U ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy va amaliy masalalarini o'zining publitsistik maqolalarida muntazam yoritib borgan. Uning fikricha, jamiyatning barcha illatlari – qashshoqlik, huquqsizlik, axloqiy tanazzulning asosiy sababi – bilimsizlik va ma'rifatsizlikdir. Adib o'zining maqolalarida eski, qotib qolgan o'qitish usullarini qattiq tanqid qilib, o'quvchilarga dunyoviy bilimlarni berish, ularda erkin tafakkurni shakllantirish zarurligini uqtiradi [1, b. 92].

Jadid pedagogikasida bolani shaxs sifatida hurmat qilish, uning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Hoji Muin o'zining darsliklarida va ta'limga oid

maqolalarida o'qituvchining yuksak axloqiy qiyofasi, uning chuqur bilimi va pedagogik mahorati ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi. U yoshlarga nafaqat diniy va dunyoviy bilimlarni berish, balki ularni halol, mehnatsevar, vatanparvar va insonparvar qilib tarbiyalashni bosh maqsad deb bilgan.

Hoji Muin merosining ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy ahamiyatini uning dramaturgiyasi misolida yaqqol ko'rish mumkin. U o'zbek teatr san'atining asoschilaridan biri sifatida sahnani xalq tarbiyasi uchun eng ta'sirchan vosita, Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri bilan aytganda "ibratxona" deb bildi. Uning qalamiga mansub qator pyesalar o'sha davrdagi jamiyatning o'tkir ijtimoiy-axloqiy muammolarini dadil olib chiqdi va xalqni g'aflat uyqusidan uyg'onishga chorladi [4, b. 205].

Quyidagi jadvalda Hoji Muin asarlarining ma'naviy-axloqiy va pedagogik ahamiyati tizimlashtirilgan holda keltirilgan:

1-jadval. Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li asarlarining ma’naviy-axloqiy va pedagogik tahlili.

T/r	Asar nomi	Janri	Ma'naviy-axloqiy va pedagogik ahamiyati
1	Eski maktab, yangi maktab	Drama	Ta'lim tizimidagi qoloqlikni va eski usuldagi maktablarning samarasizligini tanqid qilish, yangi usul (usuli savtiya) maktablarining afzalliklarini ko'rsatib berish, o'quvchilarda ilmga ishtiyoq uyg'otish.
2	Mazluma xotun	Drama	Oilada ayollar huquqini himoya qilish, oilaviy zo'ravonlik va adolatsizlikning jamiyatga salbiy oqibatlari, xotin-qizlarni ma'rifatli qilish zarurati.
3	Juvonmarg	Drama	Yoshlar tarbiyasidagi xatolar, ota-onalarning farzand oldidagi mas'uliyatsizligi, yomon xulq, giyohvandlik va axloqsizlikning fojeali yakuni haqida qat'iy ogohlantirish.
4	Boy ila xizmatkor	Drama	Ijtimoiy tengsizlik, boylarning zulmi va xizmatkorlar haq-huquqlarining poymol etilishi masalalari, halollik, insof va

			adolat kabi axloqiy me'yorlar targ'iboti.
5	To'y va azadagi isrofgarchiliklar (maqolalar turkumi)	Publitsistika	To'y-hashamlar va marakalardagi dabdababozlik, isrofgarchilik, bid'at va xurofotlarning oila iqtisodiga va ijtimoiy barqarorlikka yetkazadigan zarari, mablag'ni ta'lim va ilm-fanga sarflash lozimligi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Hoji Muinning har bir asari ma'lum bir ijtimoiy-pedagogik maqsadga yo'naltirilgan. Xususan, adibning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Eski maktab, yangi maktab" pyesasida ikki xil ta'lim tizimining o'zaro qarama-qarshiligi ishonchli hayotiy lavhalar orqali ko'rsatib berilgan. Eski maktab domlasining johilligi, bolalarni faqat yodlashga majbur qilishi va jismoniy jazolashi tanqid ostiga olinib, buning o'rniga bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga e'tibor qaratadigan, ularga yozish va o'qishni tez va oson o'rgatadigan yangi usul maktabi ulug'lanadi. Bu asar o'sha davrda xalq o'rtasida ta'lim islohotiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda ulkan ahamiyat kasb etdi [5, b. 67].

Adibning "Mazluma xotun" pyesasi esa Turkiston xotin-qizlarining huquqsiz hayoti, oiladagi zulm va zo'ravonlik mavzusiga bag'ishlangan. Hoji Muin oilaning mustahkamligi va jamiyatning barqarorligi bevosita ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning ma'rifatiga bog'liq ekanligini teran anglagan. U ayollarni o'qitish, ularga ilm va kasb-hunar o'rgatish orqaligina sog'lom va barkamol kelajak avlodni tarbiyalash mumkinligini ta'kidlaydi. Oiladagi nosog'lom muhit, ma'naviy qashshoqlik va johillik pirovardida butun millatning inqiroziga olib kelishi asarda yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan [2, b. 145].

Bugungi kunda, mamlakatimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish dolzarb bo'lib turgan bir paytda, Hoji Muinning "Juvonmarg" asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu pyesada ota-onaning e'tiborsizligi, farzand tarbiyasiga yuzaki munosabati qanday mudhish oqibatlarga olib kelishi mumkinligi g'oyat ta'sirchan yoritilgan. Asar qahramonining yomon yo'llarga kirib ketishi, axloqsizlik botqog'iga botib, oxir-oqibat o'z hayotiga zomin bo'lishi – bularning barchasi bugungi kun yoshlari uchun ham, ota-onalar uchun ham jiddiy ogohlantirishdir. Adib shu orqali pedagogikaning eng muhim qoidasini, ya'ni oila, maktab va jamoatchilikning tarbiya jarayonidagi uzviy hamkorligi zaruratini ilgari suradi [6, b. 33].

Hoji Muin nafaqat dramaturg sifatida, balki mohir publitsist sifatida ham o'z davrining eng o'tkir muammolariga munosabat bildirib kelgan. Унинг "Oyna", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon" kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan yuzlab maqolalari, felyetonlari jamiyatni ma'naviy tozalashga, odamlarni halollik, to'g'rilik va adolatga chaqirishga xizmat qildi. U, ayniqsa, xalq o'rtasida tomir yoygan dabdababozlik, to'y-hashamlardagi isrofgarchiliklarni qattiq qoralaydi. Uning fikricha, o'zini ko'z-ko'z qilish maqsadida qilinadigan bunday sarf-xarajatlar o'rniga, mablag'larni yoshlarning ta'lim olishiga, maktab va kutubxonalar qurishga yo'naltirish millat ravnaqi uchun behisob foyda keltiradi. Bu qarashlar davlatimiz rahbarining bugungi kunda to'y-marakalarni tartibga solish, isrofgarchilikning oldini olish borasidagi siyosati bilan nechog'li hamohang ekanligi e'tiborga molikdir [7, b. 89].

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sanoatlashuv va texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish hajmini keskin oshirgan. Biroq resurs talabining ortishi ekologik bosimni ham kuchaytirgan. Shu bois zamonaviy iqtisodiyotda “yashil o‘sish”, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va resurslardan tejamkor foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas’uliyat bilan birlashtirish uzoq muddatli raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biridir.

Inson kapitali ham iqtisodiy barqarorlikning markaziy elementi hisoblanadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlashga investitsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, innovatsion salohiyatni kuchaytiradi va kambag‘allikdan chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu ma’noda ijtimoiy siyosat xarajat emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy investitsiya sifatida qaralishi lozim.

Barqaror rivojlanishning ekologik o‘lchovi tabiiy kapitalni saqlash va iqlim xavflarini kamaytirishni talab etadi. Iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi, suv resurslari, sog‘liqni saqlash va infratuzilmaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. BMT SDG hisobotlarida iqlim bo‘yicha choralarni jadallashtirish va moliyalashtirishni oshirish zarurligi qayta-qayta ta’kidlanadi [4].

Qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish iqtisodiy va ekologik manfaatlarni birlashtirishi mumkin. Biroq energiya transformatsiyasi ham ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanishi zarur:

yangi texnologiyalar ish o‘rinlarini yaratishi, hududlar o‘rtasidagi tafovutni kuchaytirmasligi va aholining energiyaga bo‘lgan imkoniyatini yaxshilashi kerak. Demak, “yashil” siyosat ijtimoiy siyosat bilan uyg‘unlashgandagina barqaror natija beradi.

O‘zbekiston uchun barqaror rivojlanish masalalari demografik o‘sish, urbanizatsiya, bandlik, suv resurslaridan foydalanish, energiya samaradorligi va hududiy tenglik kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq. Milliy rivojlanish siyosatida inson kapitalini rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ekologik muammolarni hal etish o‘zaro bog‘liq vazifalar sifatida qaralishi muhim.

Amaliy nuqtayi nazardan, birinchi navbatda ta’lim sifatini oshirish, kasbiy ko‘nikmalarni mehnat bozori talablariga moslashtirish va yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlash zarur. Ikkinchidan, energiya va suv samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish hamda qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Uchinchidan, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish barqaror rivojlanishning hududiy asosini mustahkamlaydi.

Jamiyat barqaror rivojlanishi tarixiy jihatdan iqtisodiy o‘sishning chegaralarini anglash, ijtimoiy tenglik va ekologik muvozanatni rivojlanish siyosatining markaziga olib chiqish jarayonida shakllangan. Hozirgi bosqichda barqaror rivojlanish uchta o‘zaro bog‘liq ustunga — iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy inklyuziya va ekologik barqarorlikka tayanadi.

Statistik ma’lumotlar uzoq muddatda kambag‘allik qisqarganini va qayta tiklanuvchi energiyaning roli oshganini ko‘rsatadi, biroq global inqirozlar taraqqiyot sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun kelgusi siyosat qisqa muddatli iqtisodiy natijalar bilan cheklanmay, inson kapitaliga investitsiya, sifatli bandlik, ijtimoiy himoya, resurs samaradorligi va avlodlararo adolatni birlashtirishi kerak. O‘zbekiston sharoitida esa barqaror rivojlanishning eng muhim vazifasi iqtisodiy modernizatsiyani inson farovonligi va ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. — United Nations, 1987.
2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: UN, 2015.
3. United Nations. Report of the United Nations Conference on Environment and Development, Rio de Janeiro, 1992.
4. United Nations. The Sustainable Development Goals Report 2024. — New York: United Nations, 2024.
5. World Bank. Poverty and Inequality Platform (PIP): global poverty estimates and indicators.
6. World Bank. World Development Indicators: population, energy and development indicators.
7. United Nations Development Programme. Human Development Report 2023/24. — New York: UNDP, 2024.

ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI DAVRIDA O‘RTA OSIYO XONLIKLARIDA HARBIY VAZIYAT

Nishonov A. A.
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
G‘ulomov F. SH.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

XIX asrning ikkinchi yarmi O‘rta Osiyo tarixida siyosiy va harbiy jihatdan tub burilish yasagan davr hisoblanadi. Bu davrga kelib mintaqada Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi asosiy siyosiy kuchlar sifatida mavjud bo‘lib, ular o‘zaro hududiy, siyosiy va iqtisodiy raqobat olib borar edi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasining janubga tomon harbiy-siyosiy kengayishi tobora kuchayib bordi. Natijada XIX asrning 60–70-yillarida O‘rta Osiyo hududida

Rossiya imperiyasi bilan mahalliy davlatlar o‘rtasidagi harbiy qarama-qarshiliklar muntazam tus oldi [1, b. 145–151].

Rossiyaning O‘rta Osiyoni egallashi birgina 1860-yillarda boshlangan jarayon emas edi. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi Qozog‘iston dashtlari, Sirdaryo bo‘ylari va Yettisuv hududlarida harbiy istehkomlar barpo etib, janubga tomon siljish uchun strategik tayanchlar yaratdi. 1853-yilda Oqmachitning egallanishi, keyinchalik Turkiston, Avliyoota va Chimkentning bosib olinishi Rossiyaning Qo‘qon xonligi hududlariga chuqurroq kirib borishiga sharoit yaratdi [2, b. 503–504].

1864-yilda Rossiya qo‘shinlari Turkiston, Avliyoota va Chimkentni egallagach, navbat mintaqaning eng yirik siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan Toshkentga keldi. 1865-yilgi Toshkent mudofaasi Rossiya imperiyasi bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikning eng muhim harbiy voqealaridan biri bo‘ldi. Shahar mudofaasida Qo‘qon xonligi amirlashkari Mulla Alimqul faol qatnashdi. Biroq uning jangda halok bo‘lishi va uzoq davom etgan qamal shahar mudofaasini keskin zaiflashtirdi [1, b. 159–161].

Xorijiy tarixshunoslikda ham Rossiyaning O‘rta Osiyoni egallashi so‘nggi yillarda yanada chuqurroq o‘rganilmoqda. Britaniyalik tarixchi Alexander Morrison Rossiya istilosini harbiy texnika ustunligining oddiy natijasi sifatida ko‘rmasdan, harbiy logistika, chegara xavfsizligi, imperiya obro‘si, mahalliy siyosiy sharoit va harbiy qo‘mondonlarning tashabbuslari bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida baholaydi [3, pp. 1–20]. Unga ko‘ra, O‘rta Osiyodagi yurishlarda qo‘shinlarni oziq-ovqat, suv va transport vositalari bilan ta’minlash, ayniqsa tuyalardan foydalanish, strategik muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri bo‘lgan [3, pp. 21–51].

Mazkur maqolaning maqsadi Rossiya imperiyasi bosqini davrida O‘rta Osiyo xonliklarining harbiy holatini qiyosiy tahlil qilish, Rossiya qo‘shinlarining harbiy ustunlik omillarini aniqlash hamda mahalliy davlatlarning qarshilik imkoniyatlarini tarixiy faktlar asosida baholashdan iborat.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli va xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Rossiya imperiyasi hamda Buxoro, Xiva va Qo‘qon harbiy kuchlari qo‘shinlarning tashkil etilishi, qurol-yarog‘, artilleriya, boshqaruv, strategiya va logistika jihatidan qiyoslandi.

Manbalar bazasini R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev, A. Muhammadjonov, X. G‘ulomov kabi o‘zbek olimlarining ishlari hamda Alexander Morrison, Seymour Becker va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning asarlari tashkil etadi.

Qo‘qon xonligida muntazam va yarim muntazam qismlar bilan birga mahalliy beklar hamda qabila boshliqlari tomonidan safarbar qilinadigan lashkarlar asosiy kuchlardan edi. Olimxon va Umarxon davrlarida harbiy markazlashuvni kuchaytirishga urinishlar bo‘lgan [1, b. 106–108]. Biroq XIX asrning 50–60-yillaridagi taxt uchun kurashlar, qipchoq va qirg‘iz guruhlari o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda Xudoyorxon davridagi siyosiy beqarorlik xonlikning mudofaa salohiyatini zaiflashtirdi [1, b. 107–109, 150–159].

Buxoro amirligida harbiy kuch amir hokimiyatining asosiy tayanchi bo‘lib, zarurat tug‘ilganda turli hududlardan lashkar yig‘ilgan. Ammo qo‘shinlar yagona zamonaviy harbiy ta’lim va shtab tizimi asosida boshqarilmagan, hududiy beklarning nisbiy mustaqilligi esa muvofiqlashtirishni qiyinlashtirgan [1, b. 162–169].

Xiva xonligi ham turkman, o‘zbek va boshqa mahalliy guruhlardan harbiy kuch to‘plagan. Biroq qo‘shinlarning muntazam tayyorgarligi va zamonaviy qurol bilan ta’minlanishi cheklangan edi. 1872–1873-yillar arafasida Xiva qo‘shinida 27 ta eski zambarak, taxminan 2 ming otliq va 4 ming navkar bo‘lgan [1, b. 170–171].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya armiyasi piyoda, otliq, kazak, artilleriya, muhandislik va boshqa bo‘linmalardan tashkil topgan muntazam harbiy tizimga ega edi. Shtab boshqaruvi, razvedka va hududning geografik xususiyatlarini o‘rganish harbiy operatsiyalarni oldindan rejalashtirishga imkon berdi.

Alexander Morrison Rossiyaning O‘rta Osiyodagi yurishlarida logistika muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Uzoq masofalar, cho‘l, suv tanqisligi va oziq-ovqat yetkazib berish muammolari qo‘shinlarning harakatiga bevosita ta’sir qilgan. Rossiya esa harbiy istehkomlar,

transport, tuya karvonlari, suv zaxiralari va ta’minot bazalaridan foydalanib, bu muammolarni bosqichma-bosqich hal qilgan [3, pp. 21–51].

Harbiy istehkomlarning janubga siljishi Rossiyaga qo‘shinlarni joylashtirish, qurol-yarog‘ saqlash va keyingi yurishlar uchun tayanch yaratish imkonini berdi [3, pp. 100–150]. Demak, Rossiyaning ustunligi qurol-yarog‘ bilan birga harbiy boshqaruv, artilleriya, muhandislik, razvedka va logistikaning yagona tizimga birlashtirilishida namoyon bo‘ldi.

1864-yilda Rossiya qo‘shinlari Turkiston, Avliyoota va Chimkentni egallab, Toshkentga yaqinlashdi. Shu yil kuzidagi dastlabki hujum muvaffaqiyatsiz tugadi va bu Toshkent mudofaa tizimining kuchli ekanini ko‘rsatdi [1, b. 158–159].

1865-yilda general Mixail Chernyayev Toshkentga qarshi yangi yurish boshladi. Shahar mudofaasiga Mulla Alimqul boshchilik qildi. Rossiya qo‘shinlari Kaykovus arig‘i to‘g‘onini buzib, suv oqimini Chirchiq daryosiga burdi. Natijada shahar aholisi suv tanqisligiga duch keldi [1, b. 159].

Toshkent mudofaasi taxminan 42 kun davom etdi. Mulla Alimqul og‘ir yaralanib, vafot etdi. 1865-yil 14-iyunda Rossiya qo‘shinlari shaharga yorib kirdi, 17-iyunda esa Toshkent vakillari taslim bo‘lish bo‘yicha muzokaralarni boshladi [1, b. 159–160]. Toshkentning egallanishi Rossiyaga Sirdaryo va Farg‘ona oralig‘ida muhim harbiy-siyosiy tayanch berdi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi esa bosib olingan hududlarni markazlashgan mustamlaka boshqaruviga birlashtirishni tezlashtirdi [1, b. 163–164].

Toshkent egallangach, Rossiya bilan Buxoro amirligi o‘rtasidagi qarama-qarshilik kuchaydi. 1866-yil boshidagi Jizzax yurishi muvaffaqiyatsiz tugab, Chernyayev 8–9 ming kishilik himoyachilar qarshiligi sabab chekinishga majbur bo‘ldi [1, b. 162]. 1866-yil 8-mayda Erjar yaqinidagi jangda Buxoro qo‘shini mag‘lub etildi. 24-mayda Xo‘jand Rossiya qo‘shinlari tomonidan egallandi. 2-oktabrda O‘ratepa, 18-oktabrda esa Jizzax qo‘lga olindi [1, b. 162–163]. Bu janglar xonlik qo‘shinlarining son jihatidan ustunligi artilleriya, o‘qotar qurollar va markazlashgan qo‘mondonlik oldida yetarli emasligini ko‘rsatdi.

1867-yil 14-iyunda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, Konstantin Petrovich fon Kaufman general-gubernator etib tayinlandi. Unga katta harbiy-siyosiy vakolatlar berildi [1, b. 163–164]. 1868-yil 1-mayda Samarqand yaqinidagi Cho‘ponota tepaligida jang bo‘lib, Rossiya qo‘shinlari g‘alaba qozondi. 2-mayda Samarqand Rossiya nazoratiga o‘tdi [1, b. 165]. Amir Muzaffar Samarqandni qaytarish uchun katta qo‘shin to‘pladi. Zirabuloq yaqinidagi jang arafasida Buxoro qo‘shini tarkibida 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to‘p bo‘lgani qayd etiladi [1, b. 165]. Shunga qaramay, Zirabuloq jangida Buxoro qo‘shini mag‘lub bo‘ldi.

Natijada Samarqand va Kattaqo‘rg‘on Rossiya nazoratiga o‘tdi, Buxoro amirligi esa tashqi siyosiy mustaqilligining katta qismini yo‘qotib, Rossiyaga qaram holatga tushdi [1, b. 168–169].

Xivaning geografik joylashuvi Rossiya qo‘shinlari uchun jiddiy logistika muammolarini yuzaga keltirgan. 1839–1840-yillardagi Perovskiy yurishi og‘ir qish va ta’minot muammolari sabab muvaffaqiyatsiz tugagan. Morrison bu holatni cho‘l sharoitida logistikaning yetarli tashkil etilmagani bilan izohlaydi [3, pp. 52–85].

1873-yilgi yurishda Rossiya Orenburg, Turkiston, Mang‘ishloq va Krasnovodsk yo‘nalishlaridan to‘rt kolonna tashkil etdi. Krasnovodsk yo‘nalishidagi kolonna Qoraqumda suv muammosi sabab ortga qaytdi [3, pp. 307–373]. Bu Rossiya armiyasi ham tabiiy sharoit oldida qiyinchiliklarga duch kelganini ko‘rsatadi.

1872-yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Angliyadan yordam olishga uringan, ammo Angliya Rossiya bilan munosabatlarni keskinlashtirishni istamagan [1, b. 170]. Xiva qo‘shinining 27 ta eski zambarak, 2 ming otliq va 4 ming navkardan iborat bo‘lgani qayd etiladi [1, b. 171]. 1873-yil may oyida Rossiya qo‘shinlari Xiva vohasiga yetib kelib, 29-mayda Xiva ostonasiga chiqdi [1, b. 172–173]. Xonlik qarshiligi bostirilib, 12-avgustda Gandimiyon shartnomasi tuzildi. Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga qaram davlatga aylandi.

Toshkentning 1865-yilda egallanishi Qo‘qon xonligini strategik jihatdan zaiflashtirdi. 1864-yilda Turkiston, Merke, Avliyoota va Chimkentning, 1865-yilda Toshkentning qo‘ldan ketishi xonlikning Rossiya bosimiga qarshi imkoniyatlarini kamaytirdi [5]. 1875-yilda

Xudoyorxon hokimiyatdan ketishi ortidan Farg‘ona vodiysida Rossiya aralashuviga qarshi keng harakat boshlandi. Is’hoq Mulla Po‘latxon nomi bilan xon deb e’lon qilindi. Qarshilik markazlaridan biri Andijon bo‘ldi [1, b. 179–181].

Rossiya qo‘shinlari muntazam piyoda qismlar, artilleriya va kazak otliqlaridan foydalandi. 1875-yil 11-noyabrda Baliqchi yaqinidagi jangda qo‘zg‘olonchilar mag‘lub etildi [1, b. 181]. 1876-yil yanvarida Andijon uchun janglar kuchaydi va shahar artilleriya yordamida egallandi [1, b. 181–182]. 1876-yil 19-fevralda Qo‘qon xonligi rasman tugatilib, uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Farg‘ona viloyati tashkil etildi. M. D. Skobelev viloyat harbiy gubernatori etib tayinlandi [1, b. 182–183]. Shunga qaramay, Farg‘onadagi qurolli qarshiliklar keyingi yillarda ham davom etdi.

Xonliklarning Rossiya imperiyasiga qarshi mag‘lubiyatini bir nechta omil bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, qurol-yarog‘ va harbiy texnika tafovuti mavjud edi. Rossiya qo‘shinlari artilleriya va zamonaviy o‘qotar qurollar bilan yaxshiroq ta’minlangan, xonliklarda esa eski qurollar va to‘plar ko‘proq uchragan [1, b. 170–171].

Ikkinchidan, qo‘mondonlikning markazlashmaganligi muhim muammo bo‘ldi. Rossiya armiyasi yagona shtab va qo‘mondonlik orqali boshqarilgan bo‘lsa, xonliklarda qo‘shinlar beklar va mahalliy lashkarboshilarga bo‘ysungan.

Uchinchidan, siyosiy tarqoqlik Rossiya uchun qulay sharoit yaratdi. Buxoro, Xiva va Qo‘qon Rossiya tahdidiga qarshi yagona harbiy ittifoq tuza olmadi.

To‘rtinchidan, logistika hal qiluvchi omillardan bo‘ldi. Rossiya cho‘l va uzoq masofalardagi ta’minot muammolarini istehkomlar, transport, suv zaxiralari va oldindan rejalashtirilgan ta’minot tizimi orqali kamaytirdi [3, pp. 21–51].

Beshinchidan, safarbarlikning xarakteri farq qilgan. Xonliklar qisqa muddatda katta lashkar to‘play olgan bo‘lsa-da, ularni uzoq vaqt davomida muntazam ta’minlash qiyin edi. Rossiya esa imperiyaning katta iqtisodiy va inson resurslaridan foydalangan.

Oltinchidan, diplomatik izolyatsiya xonliklarning tashqi yordam olish imkoniyatlarini chekladi [1, b. 169–170].

Rossiya imperiyasining harbiy ustunligi O‘rta Osiyo xalqlari qarshiliksiz taslim bo‘lganini anglatmaydi. Toshkent, Jizzax, Samarqand, Xiva va Farg‘ona hududlarida jiddiy qarshiliklar yuzaga kelgan. Toshkent mudofaasi taxminan 42 kun davom etgani, Mulla Alimqulning jangda halok bo‘lgani va shahar aholisining mudofaada qatnashgani mahalliy qarshilikning kuchini ko‘rsatadi [1, b. 159–161]. Buxoro hududida Samarqandning egallanishidan keyin ham qarshilik davom etdi. Zirabuloq jangi oldidan amir 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to‘pdan iborat qo‘shin to‘plagani bunga dalildir [1, b. 165].

Farg‘ona vodiysida Po‘latxon boshchiligidagi harakat, Andijon mudofaasi va keyingi qurolli chiqishlar Qo‘qon xonligi tugatilganidan keyin ham mustaqillik uchun kurash davom etganini ko‘rsatadi [1, b. 179–184].

Rossiya imperiyasi harbiy yurishlarda bosib olingan hududlardan keyingi operatsiyalar uchun tayanch sifatida foydalandi. Toshkent Buxoroga qarshi, keyingi egallangan hududlar esa Xivaga qarshi yurishlar uchun muhim baza bo‘ldi. Harbiy harakatlar diplomatik bosim bilan birga olib borildi, shahar va qal’alarni egallashda artilleriya faol qo‘llandi, geografik sharoit va suv manbalari oldindan o‘rganildi [3, pp. 21–51].

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi harbiy istiloni ma’muriy boshqaruv bilan mustahkamladi [1, b. 163–164]. 1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilgach, O‘zbekiston hududining katta qismi Rossiyaning bevosita yoki bilvosita nazoratiga o‘tdi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi protektorat holatiga tushdi.

Rossiyaning ekspansiyasi 1876-yilda to‘xtamadi. 1869-yilda Krasnovodsk tayanch punkti tashkil etildi, 1881-yilda Go‘ktepa qal’asi egallandi. Bu O‘rta Osiyodagi Rossiya harbiy ekspansiyasining keyingi bosqichi bo‘ldi [1, b. 184–186].

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga harbiy ekspansiyasi mintaqaning siyosiy va harbiy tarixida tub burilish yasadi. 1864-yilda Turkiston, Avliyoota va Chimkentning egallanishidan boshlangan jarayon 1865-yilda Toshkentning, 1866–1868-yillarda

Buxoroning strategik hududlarining, 1873-yilda Xivaning va 1876-yilda Qo‘qon xonligining siyosiy mustaqilligi tugatilishi bilan yangi bosqichga kirdi [1, b. 158–186].

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, xonliklarning mag‘lubiyati faqat qurol-yarog‘ning eskiligi bilan izohlanmaydi. Rossiya muntazam armiya, markazlashgan qo‘mondonlik, artilleriya, muhandislik, razvedka, transport va logistika imkoniyatlarini yagona tizimga birlashtirdi. Xonliklar esa katta inson resurslariga ega bo‘lsalar-da, siyosiy tarqoqlik, ichki kurashlar, markazlashmagan boshqaruv va uzoq muddatli ta’minot muammolari sabab yagona mudofaa strategiyasini shakllantira olmadilar.

Shu bilan birga, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Xiva va Farg‘onadagi qarshiliklar mahalliy aholining bosqinga qarshi faol kurashganini ko‘rsatadi. Xiva yurishi esa Rossiya armiyasi uchun ham tabiiy-geografik sharoitning jiddiy sinov bo‘lganini namoyon etdi [3, pp. 307–373].

Umuman, O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi harbiy texnologiya, muntazam qo‘shin, logistika va strategiya bilan bir qatorda siyosiy tarqoqlik, diplomatik bosim va geografik sharoitlar o‘zaro ta’sir qilgan murakkab imperiyaviy ekspansiya jarayoni bo‘lgan. Bu tarixiy tajriba davlatning harbiy qudrati faqat askarlar soni bilan emas, balki markazlashgan boshqaruv, zamonaviy tayyorgarlik, iqtisodiy resurs, logistika va yagona strategik maqsad bilan belgilanadi, degan xulosani beradi.

ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. XVI–XX asr boshlari. 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – 368 b.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent.
3. Morrison A. The Russian Conquest of Central Asia: A Study in Imperial Expansion, 1814–1914. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
4. Becker S. The Russian Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1968.
5. Encyclopaedia Iranica. “Kokand Khanate”. – Encyclopaedia Iranica Foundation.
6. G‘ulomov X. G‘. O‘rta Osiyo va Rossiya munosabatlari tarixiga oid tadqiqotlar. – Toshkent.
7. Muhammadjonov A. R. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent.
8. Allworth E. (ed.). Central Asia: 130 Years of Russian Dominance, A Historical Overview. – Durham: Duke University Press, 1994.
9. Barthold V. V. Turkestan Down to the Mongol Invasion. – London: Luzac & Co., 1928.
10. Bayani M. Y. Shajara-yi Khwarazmshahi. – Xiva tarixiga oid manba.

JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIKNING O‘RNI: TARIXIY-IJTIMOIY VA IQTISODIY JIHATLAR

Tursunov Qahramon Sodiqovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, s.f.n.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish hajmining oshishi, aholining munosib mehnat qilishi va tabiiy resurslarning kelajak avlodlar uchun saqlanishi o‘rtasidagi muvofiqlikni talab etadi. Tadbirkorlik ushbu jarayonda insonning bilimi, tashabbusi va mablag‘ini foydali mahsulot yoki xizmatga aylantiradi. Uning ijtimoiy ahamiyati yaratilgan daromadning oilalar farovonligi, kasbiy rivojlanish hamda mahalliy infratuzilmaga qanday ta’sir etishi bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda tadbirkorlik erkinligining huquqiy asosi Konstitutsiyada mustahkamlangan. Uning 67-moddasida: “Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi”, deb belgilangan [1]. Ushbu norma biznes uchun tushunarli qoidalar, xususiy tashabbusni himoya qilish va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga sharoit yaratish zarurligini ifodalaydi. Mazkur kafolatlarning amaliy ishlashi tadbirkorning uzoq muddatli reja tuzishi uchun muhimdir.

Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustdagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida: “har bir soha, har bir hudud, har bir mahalla – faqat tadbirkor harakat qilganida, ularga quloq tutib, ishonch bildirilganida rivojlanadi, obod bo‘ladi”, deya ta’kidlagan [2]. Bu fikr hududiy taraqqiyotda biznes tashabbusi va davlat bilan muloqotning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Maqolaning maqsadi

tadbirkorlikning tarixiy-ijtimoiy asoslarini ochib berish hamda uning barqaror rivojlanishga xizmat qilish shartlarini aniqlashtirishdir.

O‘zbekiston hududidagi hunarmandchilik tajribasi tadbirkorlikni mahalliy jamiyat hayoti bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Nafosat Ergasheva Buxoro hunarmandchilik an’analariga bag‘ishlangan maqolasida zardo‘zlik, kashtachilik, misgarlik, zargarlik va kulolchilikning rivojlanishini shahar bozorlari bilan bog‘lab tahlil qiladi. Muallif usta, xalfa va shogird munosabatlari hamda kasbiy risolalarning hunarmandchilikni tashkil etishdagi o‘rniga e’tibor qaratadi [4]. Bu kuzatuv ishlab chiqarishning tarixan bilim almashinuvi va kasbiy me’yorlar bilan birgalikda shakllanganini tushunishga yordam beradi.

Mazkur tarixiy tajribadan zamonaviy tadbirkorlik uchun chiqariladigan xulosa shuki, mahsulot sifati insonning malakasi va mehnatga munosabati bilan chambarchas bog‘liq. Ustoz-shogird an’anasining bugungi talqini yosh xodimni amaliy faoliyat jarayonida o‘qitish, unga mas’uliyatni bosqichma-bosqich topshirish hamda tajribali mutaxassisning ko‘magini ta’minlashdan iborat bo‘lishi mumkin. Bunda qadimiy kasbiy tuzilmani aynan takrorlash emas, undagi bilim uzatish tajribasini zamonaviy mehnat sharoitlariga moslashtirish nazarda tutiladi.

Jadid ma’rifatparvarligi ham iqtisodiy tashabbusni insonning bilim va axloqiy kamoloti bilan bog‘lashga asos beradi. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “Fatonat” bo‘limida: “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur”, deb yozadi [3]. Asarning “Sa’y va g‘ayrat” bo‘limida esa insonning zimmasidagi vazifani harakat bilan bajarishi va bekorchilikdan saqlanishi muhimligi yoritiladi. Ushbu qarashlarni tadbirkorlikka tatbiq etish bilim olish, mehnat intizomi va mas’uliyatni biznes madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mualliflik talqiniga ko‘ra, tarixiy merosning iqtisodiy qiymati undan yangi mahsulot va xizmatlar yaratishda foydalanish orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, mahalliy hunarmandchilik mahsulotining kelib chiqishi, tayyorlash usuli va naqsh ma’nosi xaridorga tushuntirilsa, u buyumning madaniy xususiyatini yaxshiroq anglaydi. Hunarmand ustaxonasida mahorat darslari tashkil etish esa mahsulot savdosini ta’limiy xizmat bilan bog‘laydi. Bunday loyiha muvaffaqiyati xaridor talabi, mahsulot sifati va xarajatlarning to‘g‘ri hisoblanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Tarixiy tajribada shaxsiy obro‘ va kasbiy ishonchning o‘rni bo‘lganini zamonaviy shartnoma munosabatlari bilan qiyoslash mumkin. Bugun yetkazib berish muddatiga amal qilish, to‘lovlarni o‘z vaqtida bajarish va xaridor murojaatiga javob berish korxonaning ishonchliligini shakllantiradi. Shu bilan birga, norasmiy tanish-bilish munosabatlari ochiq raqobatni cheklamasligi kerak. Kasbiy hamkorlik barcha ishtirokchilar uchun tushunarli qoidalar va teng imkoniyatlar bilan uyg‘unlashgandagina mahalliy iqtisodiy faollikning davomiyligiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadbirkorlikning tarixiy-ijtimoiy asosi hunar o‘rgatish, mehnatni qadrlash va o‘zaro ishonchda ko‘rinadi. Ushbu qadriyatlarning hozirgi ahamiyati ularni moliyaviy savodxonlik, huquqiy bilim hamda mijozga yo‘naltirilgan xizmat bilan birlashtirishdadir. Mazkur bog‘lanish tarixiy merosni iqtisodiy rivojlanishning amaliy manbai sifatida baholashga imkon beradi.

Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil 28-iyulda e’lon qilingan ma’lumotlariga ko‘ra, yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi hajmi 518 667,5 mlrd so‘mni, ulushi esa 50,5 foizni tashkil etgan [7]. Bu ko‘rsatkich kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi salmoqli o‘rnini ifodalaydi. Quyidagi jadvalda bir xil hisobot davriga tegishli ayrim ko‘rsatkichlar jamlangan.

1-jadval. Kichik tadbirkorlikning ayrim iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**2026-yil yanvar–iyun**
Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	50,5 %
Sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi	28,3 %
Bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi	74,9 %
Yangi kichik korxona va mikrofirmalar	44,0 mingta

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [7, 2–4-b.]. Yangi korxonalar soniga dehqon va fermer xo‘jaliklari kiritilmagan.

Ushbu ulushlar turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarga nisbatan hisoblanganligi sababli ularni qo‘shish mumkin emas. Korxonalar soni va ishlab chiqarish hajmi tadbirkorlik ko‘lamini tavsiflaydi, biroq daromadlarning adolatli taqsimlanishi yoki bandlik sifatini bevosita isbotlamaydi. Barqaror rivojlanishni baholash uchun korxonaning qancha muddat ishlayotgani, xodimlarning real daromadi va mehnat unumdorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham zarur.

Tadbirkorlikning ijtimoiy ta’sirini bandlik orqali tahlil qilishda yaratilgan ish o‘rnining davomiyligiga e’tibor berish lozim. Mavsumiy buyurtma vaqtinchalik daromad beradi, doimiy talabga ega korxona esa xodimning kelgusi xarajatlarini rejalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Mualliflik tahliliga ko‘ra, yangi ish o‘rni munosib ish haqi, xavfsiz sharoit va kasbiy o‘sish bilan ta’minlanganda uning oilalar farovonligiga ta’siri barqarorroq bo‘lishi mumkin.

Mahalladagi kichik biznes boshqa korxonalarga buyurtma berishi orqali ham iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi. Masalan, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi tadbirkorning faoliyati qadoqlash, tashish va jihozlarni ta’mirlash xizmatlariga ehtiyoj tug‘diradi. Bunday hamkorlikdan foydalanish uchun mahalliy yetkazib beruvchilar talab qilinadigan sifat va muddatga javob bera olishi kerak. Yoshlar va ayollarning tadbirkorlikdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlashda esa kredit bilan birga kasbiy maslahat, bozorga chiqish va parvarish xizmatlariga ehtiyojni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy xizmatlar sohasidagi biznesni baholashda aholining ulardan foydalanish imkoniyati alohida mezon bo‘lishi kerak. Ta’lim yoki tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi korxona faoliyatida xizmat sifati, narxlarning tushunarliligi va iste’molchi huquqlariga rioya etish ustuvor ahamiyatga ega. Shuning uchun bunday loyihalarga ko‘mak berishda korxonaning foydasi bilan birga xizmat qamrovi, hudud aholisi ehtiyoji va ijtimoiy natijalarni ham hisobga olish taklif etiladi.

Mahalliy tadqiqotlar tadbirkorlikning istiqbolini raqamli va ekologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishga asos beradi. Shoh-Jaxon Xamdamov O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosini tahlil qilib, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish va raqamli transformatsiyaga e’tibor qaratadi [5]. Yunusovning kichik biznes haqidagi maqolasida esa elektron tijorat, raqamli ko‘nikmalar va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning ahamiyati, shuningdek, kiberxavfsizlik va raqamli resurslardan foydalanish cheklovlari yoritilgan [6]. Ushbu yondashuvlarni umumlashtirib, kichik biznesni raqamlashtirishni uning aniq muammosidan boshlash taklif etiladi. Masalan, buyurtmalar yo‘qolishi kuzatilsa, ularni yagona elektron ro‘yxatda yuritish; ortiqcha zaxira to‘plansa, ombor hisobini tartibga solish foydali bo‘lishi mumkin. Mahsulot suratini internetga joylashtirishning o‘zi savdo barqarorligini ta’minlamaydi. Xaridor bilan aloqa, to‘lov, yetkazib berish va qaytarish tartibi birgalikda ishlashi kerak. Raqamli xizmat xarajati kutilayotgan foyda bilan solishtirilishi lozim.

Ekologik mas’uliyatni ham korxonaning kundalik faoliyatida o‘lchanadigan vazifalarga aylantirish mumkin. Suv va elektr sarfini hisobga olish, xomashyo yo‘qotilishini kamaytirish, ta’mirlash mumkin bo‘lgan jihozdan foydalanish shunday vazifalardandir. Tavsiya etilayotgan mezon ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmat birligiga sarflangan resurs miqdoridir. Yangi uskuna sotib olish qarori uning narxi, xizmat muddati va tejaladigan xarajatlarni hisoblashga tayanishi kerak. Bu yondashuv ekologik tashabbusni korxonaning moliyaviy imkoniyati bilan muvofiqlashtiradi.

Institutsional sharoit tadbirkorning o‘z kuchi bilan hal qila olmaydigan masalalarni qamrab oladi. Konstitutsiyaning 65-moddasida iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligi hamda halol raqobat uchun sharoit yaratish nazarda tutilgan [1]. Mazkur tamoyil asosida taklif etilayotgan amaliy yo‘nalishlar infratuzilma xizmatlarining ishonchliligi, shartnomalarning bajarilishi va davlat xizmatlaridagi tushunarli tartiblarni ta’minlashdan iborat. Qoidalarni tushunish hamda ularga rioya qilish xarajati kichik korxonaning imkoniyatlariga mos bo‘lishi muhim.

Moliyaviy ko‘mak samaradorligini oshirish uchun biznesning hayotiyligini baholash tavsiya etiladi. Bunda mijozlar talabi, mahsulot tannarxi, mavsumiy tushum va qarz to‘lovlari birgalikda hisoblanadi. Bir hududda aynan bir xil loyihalarni ko‘paytirish mavjud talabni bo‘lib

yuborishi mumkin. Shu sababli moliyalashtirishdan oldin mahalliy bozorni o‘rganish, keyin esa tadbirkorga hisob yuritish va sotuv bo‘yicha maslahat berish zarur. Ajratilgan mablag‘ hajmi bilan birga loyihaning keyingi faoliyati ham baholanishi lozim.

Hududiy dasturlar natijasini kuzatishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi: korxonalarning 12 va 24 oydan keyin faoliyat yuritish ulushi; saqlanib qolgan rasmiy ish o‘rinlari; xodimlar real ish haqining o‘zgarishi; mahsulot birligiga energiya sarfi. Bular maqolada taklif qilinayotgan mezonlar bo‘lib, amalda sinovdan o‘tkazilgan natijalar sifatida talqin qilinmaydi. Hududlarni qiyoslashda aholi soni, tarmoq tarkibi va boshlang‘ich sharoitlarni hisobga olish baholashning xolisligini oshiradi.

Tadbirkorlikning jamiyat barqaror rivojlanishidagi o‘rni iqtisodiy tashabbusning kasbiy bilim, ijtimoiy mas’uliyat va huquqiy kafolatlar bilan uyg‘unlashishida namoyon bo‘ladi. Hunarmandchilikdagi bilim uzatish tajribasi va Avloniyning ma’rifiy qarashlari zamonaviy biznes madaniyatini tushuntirishga yordam beradi. Rasmiy statistika kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi salmoqli ulushini ko‘rsatadi, biroq ijtimoiy farovonlikka ta’sirni baholash uchun qo‘shimcha mezonlar talab etiladi.

Tahlil asosida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning mazmunini malaka, bozor va faoliyat davomiyligi bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Kasb-hunar ta’limida ustoz-shogird amaliyotini moliyaviy savodxonlik bilan birlashtirish; mahalliy korxonalar uchun bozor talabiga mos maslahat xizmatlarini rivojlantirish; raqamlashtirish va resurs tejamkorligini aniq xarajat hamda natijalar bo‘yicha baholash maqsadga muvofiq. Hududiy dasturlarda yangi korxonalar soni bilan bir qatorda ularning yashovchanligi va ish o‘rinlari sifati ham kuzatilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Yangi tahrir.
2. Mirziyoyev Sh. M. (2025, 20-avgust). Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutq. https://president.uz/oz/lists/view/8397
3. Avloniy A. (1917). Turkiy guliston yoxud axloq (2-nashr). “Fatonat” va “Sa’y va g‘ayrat” bo‘limlari. Xurshid Davron kutubxonasidagi elektron matn
4. Ergasheva N. (2026). Buxoro hunarmandchilik an’analari. NRJ, 3(6).
5. Xamdamov Sh.-J. (2025). O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosi tahlili. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(2), 86–93. DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss2-pp86-93
6. Yunusov A. (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish yo‘nalishlari. International Journal of Science and Technology, 2(1), 152–159. DOI: 10.70728/s2kdb307
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, 28-iyul). O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari: 2026-yil yanvar–iyun oylari uchun. Press-reliz, 2–4-b.

BUXORO AMIRLIGIDA TASAVVUFIY AXLOQIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY BARQARORLIK: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL

Saburov J.J.

Mir Arab o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi direktori

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy jamiyatda ma’naviyat, axloq va ijtimoiy barqarorlik masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim falsafiy muammolardan biridir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning barqaror rivojlanishi faqat siyosiy yoki iqtisodiy omillar bilan emas, balki insonning axloqiy qiyofasi, ijtimoiy mas’uliyati, ma’naviy qadriyatlarga munosabati va hamjihatlik madaniyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, Buxoro amirligi davridagi tasavvufiy muhit va tariqatlarning ijtimoiy-axloqiy vazifalarini o‘rganish bugungi ilmiy munozaralar uchun ham muhim tarixiy-falsafiy material beradi.

Buxoro qadimdan «Qubbatul-islom» sifatida e’tirof etilgan yirik ma’naviy markazlardan biri bo‘lib, bu zaminda hadis, fiqh, kalom va tasavvuf ilmlari o‘zaro uyg‘un holda rivojlangan. Abu Hafs Kabir Buxoriy, Imom al-Buxoriy, Abu Bakr Kalobodiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy,

Bahouddin Naqshband va Xoja Muhammad Porso kabi mutafakkirlar merosi mazkur hududdagi ma’naviy tafakkurning tarixiy poydevorini shakllantirdi. Mazkur an’ana keyinchalik Buxoro amirligi davridagi ijtimoiy va ma’naviy hayotga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi [1, b. 9–17].

Tasavvufning asl mazmunida shariatga sodiqlik, qalbni poklash, kibr va zulmdan tiyilish, halol mehnat, odob, sabr, muruvvat va xalq bilan birga yashash kabi tamoyillar alohida o‘rin tutadi. Shu sababli tasavvufni faqat individual ruhiy tajriba sifatida emas, balki muayyan tarixiy sharoitda shaxs axloqi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan ma’naviy institut sifatida ham tahlil qilish mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi Buxoro amirligi misolida tasavvufiy axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini tarixiy-falsafiy jihatdan yoritishdan iborat.

Buxoro tasavvuf maktabining shakllanish jarayonini shartli ravishda bir necha tarixiy bosqichda ko‘rish mumkin. VIII–X asrlarda tasavvufning nazariy asoslari shakllanib, Abu Bakr Kalobodiyning «at-Ta’arruf li mazhab ahl at-tasavvuf» asari orqali tasavvuf va ahli sunna aqidasi o‘rtasidagi uyg‘unlik ilmiy tarzda ifoda etildi. Mustamliy Buxoriyning mazkur asarga yozgan sharhi esa tasavvufiy tushunchalarning mintaqadagi keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi [2; 3]. Bu bosqichda tasavvuf, avvalo, e’tiqodiy me’yor va axloqiy poklanishning o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlashga xizmat qildi.

XII–XV asrlarda Xojagon-Naqshbandiya an’anasi yuksalib, tasavvufning ijtimoiy mazmuni yanada aniq namoyon bo‘ldi. Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy faoliyati bilan bog‘liq bu maktab ruhiy kamolotni ijtimoiy faollikdan ajratmadi. Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu aynil-hayot» va Muhammad Boqir Buxoriyning «Maqomoti Xoja Naqshband» kabi manbalarida bu an’ananing odob, xizmat, suhbat va mehnatga asoslangan xususiyatlari keng yoritiladi [4; 5].

XVI–XVIII asrlarga kelib Naqshbandiya an’anasi jamiyat hayotiga yanada chuqur integratsiyalashdi. Jo‘ybor xojalari va boshqa tasavvufiy silsilalarning siyosiy hamda ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki diniy-ma’naviy ta’sirning faqat xonaqoh doirasida qolmaganini ko‘rsatadi. Shu tariqa Buxoro tasavvuf maktabida shaxsiy kamolot, jamoaviy mas’uliyat va ijtimoiy tartib bir-birini to‘ldiruvchi qadriyatlar sifatida qaror topdi.

Xojagon-Naqshbandiya tariqatining g‘oyaviy-amaliy qoidalari ma’naviy tarbiya bilan kundalik hayotni birlashtirishi bilan alohida ahamiyatga ega. «Hush dar dam» insonning har bir nafas va harakatda o‘zini nazorat qilishi, «nazar bar qadam» xatti-harakatlarda hushyorlik va mas’uliyat, «safar dar vatan» esa yomon xulqlardan ezgu fazilatlar sari ichki o‘zgarishni anglatadi. Bu qoidalar insonning o‘z ustida ishlashi, xulqini boshqarishi va jamiyat oldidagi burchini anglashiga xizmat qiladigan axloqiy mexanizm sifatida talqin qilinishi mumkin [4; 5].

Ayniqsa, «xilvat dar anjuman» tamoyili tasavvufiy axloqning ijtimoiy mohiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Uning mazmuniga ko‘ra, inson jamiyatdan uzilib qolmasdan, odamlar orasida yashab, mehnat qilib va ular bilan munosabatda bo‘lib, qalbiy poklikni saqlashi lozim. Shu jihatdan naqshbandiylik tarkidunyochilikka emas, balki ma’naviy ichki intizom va faol ijtimoiy hayot uyg‘unligiga urg‘u beradi. «Dast ba kor, dil ba yor» mazmuni ham mehnat va ruhiy kamolotning bir-biriga zid emasligini, aksincha, ular bir butun axloqiy hayot tarzining ikki tomoni ekanini ifodalaydi [1, b. 9–17].

Tasavvufiy axloqda odob va suhbatning alohida o‘rin tutishi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi uchun ham muhimdir. Suhbat faqat bilim uzatish vositasi emas, balki insonning muomala madaniyati, sabr-toqati, o‘zgalarga hurmati va jamoa oldidagi mas’uliyatini shakllantiruvchi tarbiya usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ilm va amal birligi esa ma’naviy qadriyatlarni deklarativ shior darajasida qoldirmasdan, kundalik xatti-harakatga aylantirishni talab etadi. Bunday yondashuv axloqni ijtimoiy barqarorlikning ichki omili sifatida tushunishga imkon beradi.

Boborahim Mashrabning umumtasavvufiy qarashlarida ham insonning o‘z «men»i doirasidan chiqib, «umum dardi» bilan yashashi, nafsni jilovlash va ma’naviy komillikka intilish g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Bu qarashlar shaxsiy manfaatni mutlaq qadriyat darajasiga ko‘tarmaslik, jamiyatdagi boshqa insonlarning dardi va ehtiyojiga befarq bo‘lmaslik kabi axloqiy

pozitsiyani shakllantiradi [6; 10]. Shu ma’noda, tasavvufiy merosda ijtimoiy hamjihatlikning ruhiy-axloqiy asoslari mavjudligini ko‘rish mumkin.

XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligida tasavvufiy hayot yangi tarixiy bosqichga ko‘tarildi. Ahmad Sirhindiy nomi bilan bog‘liq Naqshbandiya-Mujaddidiya yo‘nalishining Markaziy Osiyoda keng yoyilishi shariat va tasavvuf munosabatlarini yangicha talqin qilishga turtki berdi. Bu yo‘nalishda ruhiy tarbiya fiqhiy me’yorlar, ijtimoiy mas’uliyat va amaliy hayot bilan uyg‘un holda ko‘rildi. Eshoni Imlo, Dahbed xojalari va boshqa tasavvuf namoyandalari faoliyati Buxoro ma’naviy muhitida turli tasavvufiy an’analar o‘rtasidagi davomiylikni ta’minladi.

Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida tasavvuf namoyandalari bilan davlat boshqaruvi o‘rtasidagi aloqalar kuchaygani tarixiy manbalarda qayd etiladi. Amir Shohmurodning zohidona hayot tarzi va tasavvuf ahli bilan yaqinligi, Amir Haydarning Xalifa Niyozquli Buxoriy hamda Muhammad Amin Dahbediy kabi shaxslarga e’tibori hukmdor axloqi, diniy legitimlik va jamiyat ma’naviy hayoti o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi [7; 8; 9]. Mazkur holatni biryoqlama idealizatsiya qilmasdan, tasavvufiy qadriyatlar davlat va jamiyat munosabatlarida axloqiy talablarni kuchaytiruvchi omillardan biri bo‘lgan, deb baholash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan tasavvufiy qo‘lyozmalar amirlik davri ma’naviy hayotini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Muhammad Muso Naqshbandiy va Xalifa Niyozquli Buxoriyga oid qo‘lyozmalarda ruhiy tarbiya, nafsni jilovlash, qalb pokligi, ma’rifat va amaliy odob masalalari muhim o‘rin tutadi [11; 12]. Bunday tushunchalar tasavvufning ichki gnoseologik va metafizik mazmuni bilan bir qatorda, inson xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi axloqiy tizim sifatidagi funksiyasini ham ko‘rsatadi.

Tarixiy tajribani zamonaviy jamiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas. Biroq Buxoro tasavvuf maktabida shakllangan ayrim tamoyillar – ilm va amal birligi, halol mehnat, o‘zini nazorat qilish, odob, bag‘rikenglik, jamoa bilan hamnafas yashash va ijtimoiy mas’uliyat – bugungi ma’naviy tarbiya masalalarini tushunishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, tezkor axborot oqimi va qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida insonning ichki axloqiy mezonlarini mustahkamlash masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Tasavvufiy merosni zamonaviy ijtimoiy barqarorlik konsepsiyasi bilan bog‘lashda uning ma’rifiy va axloqiy jihatini ajratib ko‘rsatish muhim. Haqiqiy tasavvuf diniy bilimni inkor etish, jamiyatdan uzilish yoki ko‘r-ko‘rona taqlidni emas, balki ilm, mas’uliyat va axloqiy o‘zini tarbiyalashni talab qiladi. Shu jihatdan u diniy mutaassiblik, jaholat va ma’naviy befarqlikka qarshi ma’rifiy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin [1, b. 9–17].

Buxoro amirligi tasavvufiy merosini ilmiy asosda o‘rganish tarixiy xotirani tiklash bilan cheklanmaydi. Bu meros shaxs va jamiyat munosabatlari, axloqiy mas’uliyat, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy hamjihatlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu sababli tasavvufiy manbalarni tarixshunoslik, falsafa, dinshunoslik va sotsiologiya yondashuvlari asosida kompleks o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Buxoro amirligidagi tasavvuf va tariqatlar tarixini axloqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qilish tasavvufning faqat ruhiy-mistik hodisa emas, balki muayyan tarixiy davrda shaxs tarbiyasi va jamoaviy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatgan ma’naviy-axloqiy tizim bo‘lganini ko‘rsatadi. Xojagon-Naqshbandiya an’anasidagi «hush dar dam», «nazar bar qadam», «xilvat dar anjuman», «dast ba kor, dil ba yor» kabi tamoyillar insonning ichki intizomi bilan ijtimoiy faolligini uyg‘unlashtirgan.

Buxoro amirligi davrida tasavvuf namoyandalari, hukmdorlar, madrasa va xonaqoh muhiti o‘rtasidagi aloqalar ma’naviy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ushbu tarixiy tajribaning zamonaviy ahamiyati, avvalo, axloqiy mas’uliyat, ilm-ma’rifat, halol mehnat, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ijtimoiy barqarorlikning muhim ma’naviy omillari sifatida anglash bilan belgilanadi. Buxoro tasavvuf merosini manbalar asosida xolisona tadqiq etish bugungi jamiyatda sog‘lom ma’naviy tafakkurni rivojlantirish uchun muhim ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Saburov J.J. Tasavvufda toifalar va zamonaviy soxta tariqatchilikning ijtimoiy hayotga salbiy ta’siri // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2026. – № S/5 (6). – B. 9–17.
2. Abu Bakr Muhammad ibn Is’hoq al-Kalobodiy. at-Ta’arruf li mazhab ahl at-tasavvuf. – Qohira: Maktabat al-Kulliyot al-Azhariyya, 1980. – 190 b.
3. Mustamliy Buxoriy, Abu Ibrohim Ismoil. Sharh at-Ta’arruf li mazhab ahl at-tasavvuf (Sharh al-Nur ul-muridin) / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi J. Raupov. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti, 2020. – 480 b.
4. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari) / Mas’ul muharrir H. Karomatov. – Toshkent: Adolat, 2004. – 400 b.
5. Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Buxoriy. Maqomoti Xoja Naqshband. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. № 9519. – 187 v.
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy va publitsistik maqolalar, ma’ruzalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 240 b.
7. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: Fan, 1992. – 160 b.
8. Nosiriddin To‘ra. Tuhfat uz-zoirin (Ziyoratchilar tuhfasi). – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. – 128 b.
9. Ahmad Donish. Navodirul vaqoe. – Toshkent: Fan, 1964. – 436 b.
10. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 272 b.
11. Muhammad Muso Naqshbandiy. Durrul asror va sanadul abror. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. № 10602/I. – 148 v.
12. Xalifa Niyozquli Buxoriy. Nafs ul-kalim min mavohibil ilm. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, inv. № 79/I. – 40 v.

JAMIYAT BARQAROR RIVOJLANISHINING IQTISODIY ASOSLARI VA UNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Sapayeva F.N.
Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali Biznes va boshqaruv kafedrasi dotsenti v.b., (PhD)

Barqaror rivojlanish masalasi bugungi iqtisodiy siyosatda alohida yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning mazmuni jamiyat taraqqiyotining butun tarixiy jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Insoniyatning ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishi, tabiiy resurslardan foydalanishi va aholi farovonligini oshirishga intilishi dastlab iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida qaralgan. Biroq ishlab chiqarishning tez sur’atlarda kengayishi resurslarning cheklanganligi, ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olish zaruratini kuchaytirdi. Shu tariqa iqtisodiy o‘sishning miqdoriy ko‘rsatkichlaridan uning sifati va uzoq muddatli natijalariga e’tibor ko‘chdi.

1987-yilda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Jahon komissiyasi tomonidan tayyorlangan “Our Common Future” hisobotida barqaror rivojlanish hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamaslik tamoyili bilan izohlangan [1, b. 43]. Ushbu yondashuv keyinchalik xalqaro iqtisodiy siyosat, ijtimoiy dasturlar va ekologik boshqaruvning umumiy konseptual asosiga aylandi.

Maqolaning maqsadi jamiyat barqaror rivojlanishining tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini tizimli ravishda ochib berish, iqtisodchi nuqtayi nazaridan barqaror rivojlanishning asosiy iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitida ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirishdan iborat.

Barqaror rivojlanish g‘oyasining ildizlari sanoatlashuvdan ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. An’anaviy jamiyatlarda yer, suv, o‘rmon va yaylovlardan foydalanishning me’yoriy qoidalari iqtisodiy faoliyatni tabiiy muhit imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishga xizmat qilgan. Biroq sanoat inqilobi bilan ishlab chiqarish vositalari, energetika va transport tizimlarining keskin rivojlanishi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirdi. Natijada ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi ortgan bo‘lsa-da, resurslarning haddan tashqari sarflanishi va atrof-muhitga bosim ham kuchaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy taraqqiyotga faqat ishlab chiqarish hajmining o‘sishi sifatida qarash yetarli emasligi tobora aniq bo‘ldi. Rivojlanishning ijtimoiy natijalari, kambag‘allik, ishsizlik, ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlari, daromadlar taqsimoti ham iqtisodiy siyosatning markaziy masalalariga aylandi. Shu jarayonda “rivojlanish” tushunchasi “o‘sish” tushunchasidan kengroq mazmunga ega bo‘ldi. A. Sen rivojlanishni insonning real imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida talqin qilib, daromadni vosita, inson erkinligi va imkoniyatlarini esa yakuniy natija sifatida ko‘rsatadi [2, b. 3–5].

1992-yilgi Rio-de-Janeyro konferensiyasi va undan keyingi xalqaro tashabbuslar barqaror rivojlanishning uch asosiy yo‘nalishini - iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni - yagona tizimda ko‘rishga zamin yaratdi. Hozirgi BMT kun tartibida ham barqaror rivojlanish iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy inklyuziya va atrof-muhitni muhofaza qilishning uyg‘unligi sifatida qaraladi [3]. Bu yondashuv iqtisodchilar uchun rivojlanish siyosatini baholash mezonlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Jamiyat barqarorligining birinchi sharti insonning munosib hayot kechirishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarning mavjudligidir. Shu sababli barqaror rivojlanishni faqat ekologik muammolar bilan bog‘lash noto‘g‘ri. Agar iqtisodiy o‘sish aholi guruhlari o‘rtasidagi tafovutni keskinlashtirsa, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklasa yoki mehnat bozorida katta nomutanosibliklarni yuzaga keltirsa, bunday o‘sishning uzoq muddatli barqarorligi shubha ostida qoladi. Ijtimoiy barqarorlikning muhim ko‘rsatkichlari qatoriga bandlik darajasi, real daromadlar, kambag‘allik ko‘lami, ta’lim sifati, sog‘liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, uy-joy va kommunal xizmatlarning mavjudligi hamda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini kiritish mumkin. Iqtisodiy siyosatda bu ko‘rsatkichlar yalpi ichki mahsulot bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim. Chunki yalpi ichki mahsulotning o‘sishi aholining turli qatlamlari farovonligida bir xil aks etmasligi mumkin.

Inson kapitaliga investitsiya kiritish ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni bir vaqtning o‘zida kuchaytiradi. Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik mehnat unumdorligini oshiradi, innovatsion faoliyat uchun zarur kompetensiyalarni shakllantiradi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga o‘tishni tezlashtiradi. Demak, ijtimoiy siyosat xarajat emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy kapitalni shakllantiruvchi investitsiya sifatida baholanishi kerak.

Iqtisodiy barqarorlikning mohiyati iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlash bilangina cheklanmaydi. Barqaror iqtisodiy tizim tashqi va ichki shoklarga moslasha olishi, resurslardan samarali foydalanishi, ishlab chiqarishning diversifikatsiyasini ta’minlashi va aholi uchun yetarli sifatli ish o‘rinlarini yaratishi zarur. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha mamlakat iqtisodiy memorandumida ham yuqori o‘sishni saqlash bilan bir qatorda xususiy sektorni rivojlantirish, raqobat muhitini kuchaytirish va sifatli bandlikni oshirish muhimligi qayd etilgan [4].

Birinchi muhim omil - investitsiyalarning sifati hisoblanib, kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bilan birga texnologik yangilanish, energiya tejamkorligi va mehnat unumdorligiga olib kelgandagina uzoq muddatli samara beradi. Shu nuqtayi nazardan investitsiya loyihalarini faqat qisqa muddatli moliyaviy daromad bo‘yicha emas, balki yaratiladigan ish o‘rinlari, mahalliy qo‘shilgan qiymat, eksport salohiyati, resurs tejamkorligi va ekologik ta’sir kabi mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Ikkinchi omil - iqtisodiy diversifikatsiya, ya’ni bir yoki bir nechta xomashyo, mahsulot yoki tashqi bozorga haddan tashqari bog‘langan iqtisodiyot narxlar o‘zgarishi, tashqi talab pasayishi yoki logistika uzilishlariga nisbatan zaif bo‘ladi. Diversifikatsiya esa ishlab chiqarish va eksport tarkibini kengaytirib, iqtisodiy xavflarni taqsimlash imkonini beradi.


Uchinchi omil - institutsional sifatdir. Bunda mulk huquqining himoyalanganligi, shaffof boshqaruv, sog‘lom raqobat, bashorat qilinadigan soliq va tartibga solish muhiti investitsiya faolligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shu sababli barqaror rivojlanish siyosati faqat davlat xarajatlarini ko‘paytirish bilan emas, balki biznesning uzoq muddatli rejalashtirishiga imkon beradigan institutsional muhitni yaratish bilan ham bog‘liq.

O‘zbekistonning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida barqaror iqtisodiy o‘sish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish o‘zaro bog‘liq ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [5]. 2025-yilga oid davlat dasturida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, iqtisodiyotning uglerod izini kamaytirish va yashil loyihalarni barqaror moliyalashtirish vazifalari ko‘rsatilgan [6].

Iqtisodiy nuqtayi nazardan yashil transformatsiyaning samarasi uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, energiya va resurslar tejalishi korxonalarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchidan, yangi texnologiyalar yangi bozorlar va kasblarni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, ekologik xavflarning pasayishi kelajakdagi iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytiradi. Shu sababli ekologik investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki uning yangi texnologik bosqichi sifatida ko‘rish lozim.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda iqtisodiy liberallashuv, investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektor rolini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2025-yillarda mamlakat real YAIMining o‘rtacha yillik o‘sishi qariyb 6 foizni tashkil etgan, 2025-yilda esa real YAIM 7,7 foizga oshgan [7]. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sishning bandlikka ta’siri, xususiy sektorning ulushi va mehnat unumdorligini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda barqaror rivojlanishning iqtisodiy mexanizmini besh o‘zaro bog‘liq yo’nalishlar orqali takomillashtirish mumkin:



Hududiy yondashuv ayniqsa muhim. Har bir hududning tabiiy, mehnat, infratuzilmaviy va bozor salohiyati bir xil emas. Shuning uchun investitsiya siyosatini barcha hududlarga bir xil shaklda tatbiq etish o‘rniga hududning raqobat ustunligiga moslashtirish samaraliroq bo‘ladi. Masalan, qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori hududlarda agroklasterlar va chuqur qayta ishlash, turizm resurslari kuchli hududlarda xizmatlar va turistik infratuzilma, sanoat salohiyati mavjud hududlarda esa texnologik kooperatsiya va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish rivojlantirilishi mumkin.

Jamiyat barqaror rivojlanishi tarixiy jihatdan iqtisodiy o‘sishning chegaralari va uning ijtimoiy-ekologik oqibatlarini anglash jarayonida shakllangan kompleks konsepsiyadir. Uning zamonaviy mazmunida iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik mas’uliyat bir-birini to‘ldiradi. Shu sababli iqtisodiy siyosatning maqsadi faqat yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash emas, balki mazkur o‘sishning sifatli, inklyuziv, resurs tejamkor va uzoq muddatli bo‘lishini ta’minlashdan iborat.

O‘zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash uchun inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish, xususiy sektor va raqobatni rivojlantirish, investitsiyalarning texnologik sifatini oshirish, hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish va yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish muhim. Ayniqsa, yashil

transformatsiyani faqat ekologik vazifa emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiruvchi, yangi ish o‘rinlarini yaratadigan va innovatsiyalarni tezlashtiradigan iqtisodiy mexanizm sifatida baholash lozim.

Umuman olganda, barqaror rivojlanishning iqtisodiy modeli “ko‘proq ishlab chiqarish” tamoyilidan “ko‘proq qiymatni kamroq resurs bilan yaratish” tamoyiliga bosqichma-bosqich o‘tishni talab qiladi. Mazkur yondashuv O‘zbekistonning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 383 p.

2. Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 384 p.

3. United Nations. The Sustainable Development Goals. – United Nations, 2026.

4. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. – Washington, D.C.: World Bank, 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-fevraldagi davlat dasturi: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”.

7. World Bank. Uzbekistan: Country Overview and Economic Data. – Washington, D.C.: World Bank, 2026.

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN AHOLINI KO'CHIRISH SIYOSATIDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR.

Sh.V.Temirova

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

O'zbekistonning yangi tarixidagi tub yo'nalishlardan biri chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi va bu yerdagi hukmronligi bilan bog'liq murakkab tarixiy davrni xolisona yoritish hamda mustamlaka rejimining o'lka xalqlari ijtimoiy tuzumi va hayot tarziga o'tkazgan ko'p taraflama ta'siri masalasini sistemali o'rganishdir. Bugungi kunda shu narsa ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar aynan ana shu davr juda soxtalashtirilgan. Mustamlaka davrining rasmiy tarix fanida Rossiya davlatining «tsivilizatorlik missiyasi» haqidagi kontseptsiya hukmronlik qilib keldi, unga ko'ra o'lkamizning avval chor, so'ngra Sovet imperiyasi tarkibida zo'rlik bilan ushlab turilishi, mustamlakachilikning barcha ziyon-zahmatlarini uzoq muddatga xizmat qiladigan natijalar bemalol qoplar emish. Bu natijalar O'rta Osiyo xalqlarining jadal iqtisodiy taraqqiyoti, ularning “asriy qoloqlik”dan “tarixiy taraqqiyot cho'qqilariga” chiqishi kabi hollarda namoyon bo'lar ekan. Ana shunday kontseptual yondashuvlarning ta'siri hozirgi zamon chet el tarixshunosligining ba'zi qismida, jumladan, Rossiya tarixchiligida namoyon bo'lmoqda. Buning natijasida mustamlaka Turkistonining tutqunlikdagi hayoti obyektiv manzaralarning qayta tiklash ehtiyoji davrning dolzarb talabi sifatida namoyon bo'ladi. O'lkani mustamlakaga aylantirish bilan bog'liq holda yuz bergan va ichki qarama-qarshiliklarga ega o'zgarishlar jamining mazmun va mohiyatini yangi metodologik pozitsiyalardan turib ochib berish, ob'ektiv ravishda diqqatga sazovor o'zgarishlar bilan mustamlaka hukmronligining salbiy oqibatlari nisbatini aniq-ravshan belgilash muhimdir. Jahon tarixining yangi va eng yangi davrlarida mustamlakachi davlatlarda yaratilgan aksar tarixiy tadqiqotlarda mustamlaka siyosati buyuk davlatchilik shovinizmi asosida bir yoqlama, noholis baholanib, “svilizatsiya olib keluvchilar tashrifi”, “qoloq xalqlar rivojiga turtki beruvchi kuch” sifatida targ'ib qilingan. Biroq tarixning barcha bosqichlarida imperiyachilik harakati metropoliyaning manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, istilo qilingan o'lkalarni xomashyo bazasiga va sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylantirish, mumkin qadar ko'proq foyda olish, mahalliy aholini milliy kamsitish va insoniy huquqlaridan mahrum qilish printsiplari asosida

kechgan. Dunyoning turli ilmiy tadqiqot markazlarida sobiq metropoliya davlatlari bo'lmish Buyuk Britaniya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya va Rossiya Imperiyasining xalqlarni ko'chirish siyosatining tarixiy shart-sharoitlari, uning zamonaviy oqibatlarini aniqlash borasida izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Rossiya imperiyasining XIX asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida Turkistonda aholini o'lkaga mustamlakachilik maqsadlari asosida ko'chirish siyosatining tarixiy-geopolitik mazmunining aniq dalillar asosida ochib berish muhim ahamiyatga ega. Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan mavzuning ba'zi yo'nalishlari bo'yicha hozirga qadar ma'lum bir miqdorda adabiyotlar mavjuddir. Kontseptual-uslubiy yondashuvlar mazmunidan kelib chiqib, ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1) O'rta Osiyoni chor hukumati tomonidan mustamlakaga aylantirish davriga oid nashrlar; 2) sovet davriga doir nashrlar; 3) O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'tkazilgan tadqiqotlar; 4) chet ellik mualliflarning asarlari. Birinchi guruhga xos tadqiqotlarning o'ziga xos tarafini chor rejimining siyosatini xaspo'shlab ko'rsatish tashkil etadi. Rossiya mustamlakachilik tarixshunosligini o'zida ifoda etgan bu asarlar chor Rossiyasining hududiy ekspansiyasi mafkurasiga tayangan, ular asosan chor ma'muriyati buyurtmasiga ko'ra yozilgan hamda O'rta Osiyo mintaqasida hokimi mutlaqlik tuzumi o'rnatish bo'yicha ko'rilgan choralarning qonuniyligini asoslash uchun xizmat qilardi. Shunga qaramay, bu asarlarda tarixiy bilimlarning yuksalishiga xizmat qiluvchi va qisman chorizmning aholini ko'chirish siyosatini qonunchiligi va Turkiston iqtisodiy, madaniy-mayishiy hayotidagi transformatsion jarayonlarni aks ettiruvchi qimmatli faktik materiallar mavjud edi. Chorizm davrida yaratilgan tarixiy adabiyotlarning tavsifiga kirishar ekanmiz, shuni qayd etish kerakki, XIX asrning 60-80-yillarini qamrab olgan birinchi bosqichda aholini ko'chirish siyosati masalalariga bevosita bag'ishlangan ishlar mavjud emas edi. F.K.Girs komissiyasining, graf N.P.Ignatev, akad. A.F.Middendorfning maxsus komissiyasi, K.K. Palen komissiyasi va ko'plab boshqa yuqori martabali imperiya amaldorlari, shuningdek, Turkiston generalgubernatorlarining hisobotlarida bayon etilgan takliflarning mohiyati ham aynan shunda edi. Chor mustamlakasi davri tarixshunosligining ko'pgina nuqsonlarni sovet tarix fani ham o'ziga singdirib olgan edi. Bular jumlasiga so'nggi xulosalar va baholarni oldindan rasmiy doiralar fikriga moslash, tendentsiozlik, imperiyacha tafakkur an'analarini kiritish mumkin. Bu xususiyatlar totalitar rejimning tarixni o'ta siyosiylashtirish, uni kommunistik ta'limot mafkura sxemalariga tiqishtirish, sinfiy-partiyaviy yondashuvlarni qabul qildirish kabi zo'rlik amaliyoti tufayli ko'payib borardi.. Bu borada o'tgan asrning 20-yillarini qamrab oladigan dastlabki bosqich alohida ajralib turadi. Bu davrning o'ziga xos taraflari sovet tarixshunosligi fanining o'sha davrda endigina tug'ilib kelayotgani, markaziyatchi va bir partiyali ustanovkalar ijtimoiy-siyosiy tafakkurda hali ustunlikka erishmagani kabi xususiyatlar edi, shu sababli ma'lum bir darajada dunyoqarashlar plyuralizmi, shu jumladan, chorizmning aholini ko'chirish siyosati va uning oqibatlarini yoritish masalasida ham ko'rinadi[5]. Jumladan, S.Muraveyskiy, P.G.Galuzo va Ye.Fedorov tub joy aholining mustamlakachilarcha ezish masalalarini ko'rib chiqar ekanlar, o'lkani to'la mustamlakaga aylantirishning shakllaridan biri aholini ko'chirish siyosati ekanligini ko'rsatib o'tadilar. V.P.Vошinin ko'chib kelganlar tarafidan mahalliy dehqonlar va ko'chmanchi aholining yerlari tortib olganini qisman tadqiq etdi. V.Lavrentev aholini ko'chirish harakatining Turkiston iqtisodiyoti “burjuacha tadriji”ga ta'sirining ba'zi qirralarini ochib berdi. Ammo, umuman olganda, ularning xulosalari oktyabr to'ntarishining “ob'ektiv” shartsharoitlarini asoslash, o'sha paytda shakllanayotgan proletar va milliy-ozodlik harakatining bolьsheviklarning “sotsialistik tuzumni qaror toptirish uchun” olib borayotgan kurashi bilan “organik birligi” haqidagi kontseptsiyani hujjatlarga asosan tasdiqlashga qaratilgan edi. Turkistonni mustamlakaga aylantirish, tub joy aholiga nisbatan o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy va milliy zulm, Rossiyadan ommaviy ravishda aholini ko'chirib keltirishning og'ir oqibatlari T.Risqulov va ayniqsa G.Safarovlarning ishlarida to'laroq ochib berilgan edi. Jumladan, G.Safarov mustamlaka ma'murlari va rus ko'chkinlariing tub joy aholiga nisbatan ulug'davlatchilik-shovinistik munosabatini tanqidiy baholadi, o'lkadagi milliy-ozodlik harakatining avtonom xarakterga ega ekanligini asosli ko'rsatib bergan edi. Biroq o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab “tarix jabhasiga” nisbatan mafkuraviy hujum sezilarli darajada kuchaydi. “Aksillenin kontseptsiyalar”ga qarshi va va “mahalliy tarixshunoslikning

g'oyaviy takomili uchun” kurashni avj oldirish uchun “juda katta zarurat mavjudligi” rasmiy doiralar tarafidan e'lon qilindi. Jumladan, G.Safarov “leninizmni trotskizm bilan chalkashtirib yuborish”ga intilgani uchun ayblandi. Tadqiqotchiga “Oktyabr inqilobi”ning qonuniyligini inkor qilganlik, “milliy- mustamlakalar masalasini proletariat diktaturasi to'g'risidagi umumiy masaladan ajratib qaraganlik” kabilar ayb qilib qo'yilgandi. 1934-yil 23-aprelda VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi Markazning ko'rsatmasiga ko'ra O'rta Osiyo tarixshunosligidan Rossiyaning qurolli ekspansiyasi haqidagi qarashlarni chiqarib tashlash va bundan keyin bunga yo'l qo'ymaslik, shuningdek Turkiston va va Cho'l o'lkasidagi rus hukmronligini, imperiyaning Buxoro va Xiva xonligi bilan aloqalarini har qanday tarzda salbiy baholashning oldini olish haqida maxsus qaror qabul qildi. 30-yillarning ikkinchi yarmida qat'iy mafkuraviy qoliplarni joriy etish yo'li yanada kuchaydi. Stalincha repressiv-totalitar rejimning o'rnatilishi natijasida tarix fani o'zining azaliy vazifalaridan judo qilindi, tarixiy tafakkur kuchsizlandi. Har tomonlama zo'rlikka asoslangan tuzumning ezuvchi muhiti va arxiv va boshqa axborot manbalariga maxfiy tarzda ruxsat berish tartibi ilmiy tadqiqotlarning faqat sifatida emas, balki miqdorida ham o'z aksini topdi. Aslida tarix fanida mudhish inqiroz yuz berdi. Xorijiy tarixshunoslikda ushbu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishida O'rta Osiyo hamda Rossiyaning «musulmon» mintaqalaridan ketgan siyosiy muhojirlarning hissasi katta bo'ldi. Mustafo Cho'qay o'g'li, Boymirza Hayit, Zaki Validiy To'g'on va boshqalar shular jumlasidandir[18]. Masalan, Frantsiyaga muhojir bo'lib ketgan Mustafo Cho'qay o'zining «Turkiston Sovet hukmronligi ostida» nomli kitobida birinchilardan bo'lib Rossiya imperiyasi milliy siyosatining O'rta Osiyo xalqlariga «begona» ekanligi haqidagi kontseptsiyani asoslab berdi. Yuqoridagi kontseptual yo'nalishning rivojlantirilishi B.Hayitning qator monografiyalarida o'z tasdig'ini topdi. Jumladan, «Turkiston XX asrda» va 1971-yilda e'lon qilingan «Turkiston Rossiya va Xitoy orasida» sarlavhali fundamental asarida u O'rta Osiyoda chor davrida ham, kommunistik tuzumda ham milliy kamsitish siyosati o'tkazib kelinganini ishonarli isbotlab berdi. Xorijiy tarixshunoslikning frantsuz, nemis, ingliz, Amerika, turk va boshqa maktablarida ham bu yo'nalishdagi e'lon qilingan ishlar salmog'i ortdi, ularda rus mustamlakachi hukmronligining Turkiston va umuman mintaqadagi ko'pgina aspektlari jiddiy tanqid ostiga olindi[19]. Masalan, U.Kollraz va M.Fitsroy o'z ishlarida o'lkada rus tilida so'zlashuvchi aholini ko'paytirish amaliyotining chor Rossiyasining harbiy-siyosiy maqsadlariga bo'ysundirilganini alohida qayd etib o'tdilar. O'z navbatida R.Portel sovet hokimiyati mintaqaning tub joy aholisiga nisbatan chor mustamlakachilari ilgari o'tkazib kelgan siyosatni yangi shakllar va uslublar bilan amalga oshirmoqda, deb yozadi. S.Bekker chorizmning mustamlakachilik siyosati oqibatlarini ta'riflay turib, tub joy aholiga tegishli yerlarni tortib olish, uning milliy-ma'naviy hayotiga qo'pol aralashish, rusotsentrizm siyosati yerli xalqlarning haqqoniy qarshiliklarini keltirib chiqarganini ko'rsatib o'tdi. E.Karre d’Enkos sovet hokimiyati davrida Turkiston bilan birga Buxoro va Xiva ham mustamlaka holida edi, deya ta'kidlaydi. O'zbekiston siyosiy mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimiz tarix fanida sezilarli jonlanish yuz berganiga qaramay, aholini ko'chirish siyosatining eng muhim aspektlari, uning barcha murakkab namoyon bo'lish shakllari bilan birga hozirga qadar milliy istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan Muammoning shubhasiz katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi, uning dolzarbligi, shuningdek, masalaning tarixiy jarayonlarga zamonaviy qarashlar nuqtai nazaridan ishlanmagani ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga olib keldi.

Adabiyotlar

1. Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. - СПб., 1868; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. - СПб., 1906.

2. Исаев А.А. Переселение в Русском народном хозяйстве. – СПб., 1891; Гейер И. Крестьянская колонизация Сыр-Дарьинской области. - Т.,1892; Григорьев В. Крестьянская колонизация. //Русская мысль. – 1893. - № 2. - С. 11-12 ва бошқ.

3. Кауфман А.А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. - СПб., 1903; Гирс Ф.К. Отчет о состоянии Туркестанского края... С. 306-307.

4. Шарова П. Переселенческая политика царизма в Средней Азии в 1906-1916 гг. // Историкмарксист, №6, 1940

5. История Узбекской ССР. Т. I. Кн. 2. -Т., 1956; История Узбекской ССР. Т. II. - Т., 1968.
6. Рабочее и аграрное движение в Казахстане в 1907-1917 гг. - Алма-Ата, 1957.
7.G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari).-T.Fan. 2006.–224 b.
8.O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida - T., 2000.
9.Туркестон в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. - Т.: Шарқ, 2000.
10.Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв). Автореф. дисс.... докт. ист. наук.- Т., 1994.

JAMIYAT BARQAROR RIVOJLANISHINING TARIXIY TRANSFORMATSIYASI: AN'ANAVIY IJTIMOIY INSTITUTLARDAN RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARIGACHA

Elov Farrux Akmalovich
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

Jamiyatning barqaror rivojlanishi tarixiy jihatdan insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini tartibga soluvchi institutlarning shakllanishi va takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida barqarorlikni ta’minlashda oila, urug‘-qabila, mahalla, diniy jamoalar va mahalliy hamjamiyatlar kabi an’anaviy institutlar muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, modernizatsiya jarayonlari natijasida davlat, bozor, ta’lim, fuqarolik jamiyati va huquqiy institutlarning ahamiyati ortdi.

Bugungi kunda esa raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatni boshqarish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron hukumat, raqamli davlat xizmatlari, ochiq ma’lumotlar, raqamli identifikatsiya, sun’iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. BMTning 2024-yilgi E-Government Survey hisobotida ham raqamli hukumatning rivojlanishi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

Tadqiqot metodi: Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli va institutsional tahlil metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali an’anaviy ijtimoiy institutlarning tarixiy rivojlanishi, ularning zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlariga transformatsiyasi hamda ushbu jarayonning jamiyat barqaror rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. Ishda tarixiy-qiyosiy, tizimli va institutsional tahlil usullaridan foydalanib, an’anaviy ijtimoiy institutlarning rivojlanishi va ularning zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlariga transformatsiyasi qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi. Shuningdek, raqamli boshqaruvning jamiyat barqaror rivojlanishiga ta’siri O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida an’anaviy ijtimoiy institutlardan raqamli boshqaruv tizimlariga o‘tish jamiyat barqaror rivojlanishining yangi bosqichi sifatida asoslandi. Tahlil davomida barqaror rivojlanishning ijtimoiy institutlar, boshqaruv va raqamlashtirish bilan bog‘liqligi aniqlanib, quyidagi shartli model ishlab chiqildi:

Rivojlanish bosqichi	**Asosiy institut**	**Boshqaruv shakli**	**Barqarorlik omili**
An’anaviy jamiyat	Oila, jamoa, mahalla	An’anaviy boshqaruv	Ijtimoiy birdamlik
Agrar-davlat jamiyati	Davlat, diniy va mahalliy institutlar	Ma’muriy-huquqiy boshqaruv	Tartib va ierarxiya
Industrial jamiyat	Davlat, bozor, ta’lim	Institutsional boshqaruv	Iqtisodiy o‘sish
Zamonaviy jamiyat	Fuqarolik jamiyati	Demokratik boshqaruv	Ijtimoiy ishtirok
Raqamli jamiyat	Elektron hukumat, raqamli platformalar	Raqamli boshqaruv	Tezkorlik va ochiqlik

Natijada, jamiyat barqaror rivojlanishining tarixiy evolyutsiyasi “ijtimoiy birdamlik → institutsional boshqaruv → fuqarolik ishtiroki → raqamli boshqaruv” ketma-ketligi asosida izohlandi. Bu yondashuv raqamli boshqaruvni faqat texnologik yangilik emas, balki jamiyatning boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarini o‘zgartiruvchi institutsional transformatsiya sifatida baholash imkonini beradi.

Tarixiy jihatdan jamiyat barqarorligining dastlabki mexanizmlari formal davlat institutlaridan ko‘ra norasmiy ijtimoiy institutlar orqali shakllangan. Oila, qarindoshlik munosabatlari, urug‘-qabila tuzilmalari, mahalliy jamoalar, urf-odat va an’analar insonlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlar vazifasini bajargan.

Bunday jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik ko‘proq ijtimoiy birdamlik, o‘zaro yordam, umumiy qadriyatlar va jamoaviy mas’uliyatga tayangan. Masalan, jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro yordam iqtisodiy qiyinchiliklarni yumshatish, xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy munosabatlarni muvozanatda saqlashning muhim vositasi bo‘lgan.

Jamiyat murakkablashgani sari an’anaviy institutlarning o‘zi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun yetarli bo‘lmay qoldi. Aholi sonining ko‘payishi, hududiy boshqaruvning rivojlanishi, iqtisodiy almashinuvning kengayishi va siyosiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida formal institutlar shakllandi.

Davlat, qonun, sud, soliq tizimi, ma’muriy boshqaruv va bozor institutlari jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishning yangi mexanizmlariga aylandi. Natijada barqarorlikni ta’minlash faqat an’ana va jamoaviy nazoratga emas, balki qonun, davlat boshqaruvi va institutsional tartibga ham asoslana boshladi.

Bu jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin:

An’anaviy institutlar → formal institutlar → huquqiy tartib → institutsional barqarorlik

Shunday qilib, jamiyat rivojlanishining ushbu bosqichida barqarorlikning asosiy omili institutsional boshqaruvga aylandi.

Sanoatlashtirish, urbanizatsiya va bozor iqtisodiyotining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini yanada o‘zgartirdi. Ta’lim tizimi, mehnat bozori, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi.

Modernizatsiya jarayonida shaxsning jamiyatdagi mavqei ham o‘zgardi. Insonning ijtimoiy imkoniyatlari faqat kelib chiqishi yoki an’anaviy maqomi bilan emas, balki ta’lim, kasbiy malaka, iqtisodiy faollik va siyosiy ishtirok kabi omillar bilan ham belgilanadigan bo‘ldi.

Natijada barqaror rivojlanish tushunchasi faqat siyosiy barqarorlikni emas, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy himoya, ta’lim, bandlik, inson kapitali, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy ishtiroki kabi omillarni ham qamrab ola boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanish tushunchasining mazmuni sezilarli darajada kengaydi. Faqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash jamiyat farovonligi uchun yetarli emasligi tobora ko‘proq e’tirof etildi.

Bugungi barqaror rivojlanish konsepsiyasida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. 2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi ushbu yondashuvni 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi orqali tizimlashtirdi.

Shu nuqtayi nazardan, jamiyat barqarorligi:

Iqtisodiy rivojlanish + ijtimoiy farovonlik + ekologik barqarorlik + samarali institutlar birligiga asoslanadi.

XXI asrda internet, mobil aloqa, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning rivojlanishi jamiyat institutlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Davlat boshqaruvida bu jarayon elektron hukumatdan raqamli hukumatga o‘tish orqali namoyon bo‘lmoqda. Elektron hukumat dastlab mavjud davlat xizmatlarini internet orqali taqdim etishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, raqamli hukumat boshqaruvning o‘zini ma’lumotlar va raqamli texnologiyalar asosida qayta tashkil etishni nazarda tutadi.

OECD raqamli hukumatni davlatni modernizatsiya qilishning strategik vositasi sifatida ko‘rib, uning asosiy yo‘nalishlari qatoriga “digital by design”, ma’lumotlarga asoslangan davlat sektori, hukumat platforma sifatida, ochiqlik, foydalanuvchiga yo‘naltirilganlik va proaktivlikni kiritadi.

Demak, raqamli transformatsiya oddiygina xizmatlarni elektron shaklga o‘tkazish emas. U boshqaruv institutlarining ishlash uslubini o‘zgartirish jarayonidir.

Raqamli boshqaruvning jamiyat barqaror rivojlanishiga ta’siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, boshqaruv samaradorligi oshadi. Raqamli texnologiyalar davlat xizmatlarini tezroq va qulayroq ko‘rsatish imkonini beradi.

Ikkinchidan, shaffoflik va hisobdorlik kuchayadi. Ochiq ma’lumotlar va raqamli monitoring davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kengaytirishi mumkin.

Uchinchidan, fuqarolarning ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Elektron murojaatlar, onlayn jamoatchilik muhokamalari va raqamli platformalar davlat va jamiyat o‘rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, qaror qabul qilish sifati oshishi mumkin. Katta ma’lumotlar va analitik vositalar aholining ehtiyojlarini aniqlash va davlat siyosatini dalillarga asoslangan holda ishlab chiqishga yordam beradi.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvini nafaqat samaraliroq, balki ochiq, shaffof, innovatsion, ishtirokchi va ishonchli qilish imkoniyatiga ega.

Biroq raqamli transformatsiya avtomatik ravishda barqaror rivojlanishni ta’minlamaydi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovut, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik, algoritmik xatolar, texnologik ishsizlik va raqamli savodxonlikning yetarli emasligi yangi ijtimoiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

BMTning 2024-yilgi E-Government Survey ma’lumotlariga ko‘ra, 2022–2024-yillar oralig‘ida raqamli hukumat rivojlanishidan ortda qolayotgan dunyo aholisi ulushi 45,0 foizdan 22,4 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi raqamli tafovut saqlanib qolmoqda. Shu sababli raqamli boshqaruvning barqaror rivojlanishga ijobiy ta’siri texnologiyaning mavjudligi bilan emas, balki undan inklyuziv, xavfsiz, shaffof va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan tarzda foydalanish bilan belgilanadi.

Mazkur tarixiy transformatsiyani O‘zbekiston misolida o‘rganish ayniqsa muhim. Chunki mamlakatda an’anaviy ijtimoiy institutlardan biri bo‘lgan mahalla bilan zamonaviy davlat boshqaruvi va raqamli texnologiyalar o‘zaro uyg‘unlashib bormoqda. Elektron davlat xizmatlari, raqamli platformalar, ochiq ma’lumotlar va raqamli identifikatsiya kabi vositalar davlat–fuqaro munosabatlarining yangi shakllarini shakllantirmoqda.

Bu jarayonni mahalla va an’anaviy jamoaviy institutlar → zamonaviy davlat institutlari → elektron hukumat → raqamli hukumat → ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv ko‘rinishida tadqiq qilish mumkin.

Shu jihatdan mavzuning asosiy ilmiy g‘oyasi raqamlashtirishni texnik jarayon sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy institutlari va boshqaruv mexanizmlarini tarixiy jihatdan transformatsiya qiluvchi jarayon sifatida baholashdan iborat.

Xulosa. Jamiyat barqaror rivojlanishining tarixiy evolyutsiyasi ijtimoiy institutlarning oddiy almashinuvi emas, balki barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarining murakkablashib borishi jarayonidir. An’anaviy jamiyatda asosiy rolni ijtimoiy birdamlik va urf-odatlar bajargan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda huquqiy, iqtisodiy va siyosiy institutlar, raqamli jamiyatda esa ularga qo‘shimcha ravishda ma’lumotlar, raqamli platformalar, elektron xizmatlar va sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. OECD va BMTning zamonaviy yondashuvlari ham raqamli boshqaruvni samaradorlik bilan bir qatorda inklyuzivlik, ochiqlik, hisobdorlik va barqaror rivojlanish bilan bog‘laydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 2023
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr

3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi hujjati
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-308-son qarori
7. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 3, 46–53, 83–91-betlar. (Cambridge)
8. World Commission on Environment and Development. *Our Common Future*. Oxford: Oxford University Press, 1987. — 41-bet. (sdgs.un.org)
9. OECD. *The OECD Digital Government Policy Framework: Six Dimensions of a Digital Government*. Paris: OECD Publishing, 2020. — 40 p. (OECD)
10. United Nations. *United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development*. New York: United Nations, 2024. — 205 p. (desapublications.un.org)

THE INFLUENCE OF THE TURCO-GERMAN MISSION ON CENTRAL ASIA DURING THE FIRST WORLD WAR.

Boltayev Oxun Obid o‘g‘li
Bukhara State University, Uzbekistan
2nd-year PhD student

The First World War significantly transformed the geopolitical environment of the Middle East, South Asia and Central Asia. The military confrontation between the Entente Powers and the Central Powers extended beyond the European continent and affected territories where Germany and the Ottoman Empire attempted to challenge the political dominance of Britain and Russia. Within this wider geopolitical context, Afghanistan and the territories surrounding Central Asia acquired considerable strategic importance. Germany, which had entered the competition for global political influence relatively late, sought alternative methods for weakening its principal rivals. Cooperation with the Ottoman Empire provided Berlin with an opportunity to combine German military and diplomatic capabilities with the political and religious influence of the Ottoman Caliphate. This cooperation became particularly important after the Ottoman Empire entered the First World War on the side of the Central Powers. The German-Ottoman strategy in Asia was based on the assumption that Muslim populations living under British and Russian rule could potentially become an important political force against the Entente. Afghanistan occupied a central position in this strategy because of its geographical location between British India and Russian Central Asia. The German and Ottoman authorities therefore considered the Afghan Emirate not simply as a neighbouring state but as a possible strategic partner whose involvement in the war could significantly alter the balance of power in the region. Percy Sykes provides important evidence concerning these developments in his A History of Afghanistan. His description of the Turco-German mission demonstrates that German and Ottoman diplomacy attempted to establish direct political relations with Amir Habibullah Khan and persuade him to abandon his policy of neutrality. The mission was expected to encourage Afghanistan to enter the war against Britain and thereby create an additional front against the British Empire. Such a development could potentially have affected not only British India but also the security and political stability of Russian Turkestan. The geographical position of Afghanistan made it particularly suitable for such a strategy. Its northern borders were connected with the Central Asian region controlled by Russia, while its eastern and southern directions provided access toward British India. Consequently, any major political or military transformation in Afghanistan could have produced consequences for the neighbouring territories of Central Asia. The significance of the Turco-German mission therefore extended beyond the immediate diplomatic relations between Germany, the Ottoman Empire and Afghanistan. It represented an attempt to restructure the political environment of the wider Central Asian and South Asian region during wartime. Germany’s interest in the Muslim world had developed before the outbreak of the First World

War. During the reign of Kaiser Wilhelm II, German-Ottoman relations expanded considerably in political, military and economic spheres. German military advisers became increasingly active in the Ottoman Empire, while German economic interests were strengthened through railway and financial projects. The Baghdad Railway represented one of the most important manifestations of this cooperation. It was not merely an economic project but also had considerable strategic implications because it strengthened German connections with Ottoman territories and created potential routes toward Mesopotamia and the Persian Gulf. In the broader context of German foreign policy, these developments were associated with Berlin's attempt to establish a stronger position in the Middle East and challenge British and Russian interests. The strategic importance of Iran and Afghanistan became increasingly apparent within this policy. Iran represented an important geographical corridor connecting the Ottoman and Mesopotamian territories with Afghanistan and South Asia. Afghanistan, in turn, provided a possible route toward British India and was located close to the southern borders of Russian Central Asia. Consequently, German activities in Iran and Afghanistan should be considered as interconnected elements of a broader regional strategy. The Turco-German mission emerged within this strategic environment. One of the principal objectives of the mission was to persuade Amir Habibullah Khan to cooperate with Germany and the Ottoman Empire. The political situation of Afghanistan, however, was considerably more complicated than the German and Ottoman planners anticipated. The Amir had to consider the military power of Britain and Russia, the internal political structure of Afghanistan, tribal interests and the possibility that participation in the European war could threaten the country's political independence. For these reasons, Habibullah Khan adopted a cautious position. Although he maintained relations with the representatives of the Central Powers, he did not abandon Afghanistan's policy of neutrality. This decision was of considerable importance for the wider region because it prevented the creation of a new military front along the north-western frontier of British India. At the same time, it limited the possibility of using Afghanistan as a base for operations against Russian Central Asia. The religious dimension of the Turco-German mission also deserves particular attention. The Ottoman Sultan's position as Caliph was regarded by German policymakers as an important instrument for influencing Muslim populations. The Ottoman religious authority could potentially be used to encourage Muslims living under British and Russian rule to support the Central Powers. The idea of jihad was therefore incorporated into the political strategy of the Central Powers. Germany itself did not possess the same religious authority as the Ottoman Empire, but it sought to use Ottoman religious influence for its own strategic purposes. The cooperation between Berlin and Istanbul thus combined political, military and religious instruments. The significance of this policy for Central Asia lay in the fact that the majority of the population of Russian Turkestan was Muslim. The existence of Islamic cultural and religious connections between Central Asia, Afghanistan and the Ottoman world created a potential channel for political communication. However, the available evidence does not justify the conclusion that the Turco-German mission directly organized large-scale political or military movements in Russian Turkestan. It is therefore more appropriate to characterize its influence as indirect. The mission contributed to the formation of a geopolitical environment in which Central Asia became increasingly relevant to German and Ottoman strategic calculations. The German strategy toward Central Asia was closely connected with its efforts to weaken Russia. Since Russian Turkestan was under imperial administration, German policymakers regarded the region as one of the possible vulnerable areas of the Russian Empire. The political dissatisfaction of some Muslim communities with Russian colonial administration could potentially be exploited through external propaganda and diplomatic activity. Afghanistan and Iran provided possible channels through which such influence could be extended. The activities of German agents in Iran were particularly significant in this respect. According to Sykes, German representatives and agents attempted to establish relations with local political and tribal groups and encourage resistance against British and Russian forces. Their activities included political propaganda, the organization of local forces and attempts to provide military assistance. Although these operations were primarily conducted in Iran, their strategic implications extended toward Afghanistan and the

wider Central Asian region. The Iranian theatre therefore became an important component of German efforts to create pressure on the southern approaches of the Russian Empire. Another important aspect of the Turco-German strategy was the involvement of military specialists and agents with knowledge of the region.

References

1. Sykes, P. A History of Afghanistan. London: Macmillan and Co.
2. Sykes, P. The Turco-German Mission to the Amir During the Great War. In: A History of Afghanistan.
3. Ortaylı, I. Osmanlı İmparatorluğu'nda Alman Nüfuzu. İstanbul: İletişim Yayınları.
4. Rathmann, L. Alman Emperyalizminin Türkiye'ye Girişi. İstanbul: Belge Yayınları.
5. Soy, B. Alman İmparatoru II. Wilhelm'in İkinci Doğu Seyahati. İstanbul: TBMM Milli Saraylar Yayınları.
6. Karacagil, Ö. K. II. Wilhelm'in Osmanlı İmparatorluğunu Ziyareti ve Mihmandarı Mehmed Şakir Paşa'nın Günlüğü (1898). İstanbul Üniversitesi Türkiyat Mecmuası.
7. Georgeon, F. Sultan Abdülhamid. İstanbul: Homer Yayınları.

BUXORO VILOYATIDA MUROJAATLAR TARIXI (2000-2008 yillar)

Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

2000–2008 yillar davomida Buxoro viloyati Adliya boshqarmasi va viloyat hokimligi tomonidan tadbirkorlikni himoya qilish, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash hamda murojaatlarni ko'rib chiqish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda huquqiy himoya mexanizmlarining faollashuvi, sud va hokimlik organlari faoliyatining tizimlashtirilishi fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish va tadbirkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Buxoro viloyati Adliya boshqarmasi ham ushbu jarayonda faol ishtirok etib, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish va sud jarayonlarida ularning manfaatlarini ta'minlash borasida bir qator ishlarni amalga oshirgan.

Tadbirkorlikni himoya qilish faoliyati (2000–2001 yillar) 2000-yilda Adliya boshqarmasiga tadbirkorlardan 138 ta shikoyat va ariza kelib tushgan bo'lib, shundan 80 tasi qanoatlantirilgan, 31 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berilgan. Aniqlangan qonunbuzilishlar yuzasidan 46 ta taqdimnoma kiritilgan, 4 nafar mansabdor shaxs ogohlantirilgan va 45 nafar shaxs intizomiy javobgarlikka tortilgan [1, b. 110]. 2001-yilning 6 oyida esa 122 ta shikoyat ko'rib chiqilib, 69 tasi (56,6%) qanoatlantirilgan, 36 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berilgan. Shu davrda 116 ta taqdimnoma kiritilib, 18 nafar mansabdor shaxs ogohlantirilgan, 60 nafar shaxs intizomiy va 1 nafar mansabdor jinoiy javobgarlikka tortilgan [2, b. 111]. 2000-yillardan boshlab tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim qadamlar tashlangan bo'lsada amaliy to'siqlar mavjud bo'lgan.

Sud jarayonlari va da'vo arizalari 2000-yilda sudlarga 26 ta da'vo arizasi kiritilib, 28,9 mln so'm miqdorida qanoatlantirilgan. 2001 yilning birinchi yarmida esa 116 ta da'vo arizasi bo'yicha 74,9 mln so'm undirilgan, jumladan 15 nafar mansabdor shaxs 1 mln so'mdan ortiq ma'naviy javobgarlikka tortilgan [3, b. 7].

Fuqarolar murojaatlari va Ombudsman faoliyati (2002 yil) 2002-yilda Ombudsmanning viloyat vakolatxonasiga 87 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 37 tasi og'zaki, 50 tasi yozma murojaat bo'lib, fuqarolarning asosiy shikoyatlari sud qarorlari, huquqni muhofaza etish organlari faoliyati va hokimiyat qarorlari bilan bog'liq bo'lgan [4, b. 8]. Hokimlikka murojaatlar (2007–2008 yillar) 2007-yil yanvar–avgust oylarida viloyat hokimligiga 1544 ta murojaat kelib tushgan, bu o'tgan yilga nisbatan 47 taga ko'pdir. Hududlar kesimida Buxoro shahridan 428 ta, G'ijduvondan 291 ta murojaat qayd etilgan. Mazmuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, uy-joy va yer ajratish masalalari bo'yicha murojaatlar keskin ko'paygan [5, b. 100]. 2008-yilning yanvar–fevral oylarida esa 375

ta murojaat kelib tushib, o‘tgan yilga nisbatan 17 taga ortgan. Ayniqsa, uy-joy va kommunal xizmatlar bo‘yicha murojaatlar keskin oshgan [6, b. 208]. Shu yilning 11 oyida yozma murojaatlar soni 2274 taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 194 taga ko‘paygan [7, b. 156]. Murojaatlarning ko‘payishiga esa islohot va manzilli dasturlarning aholini quyi bo‘g‘inlariga yetib bormayotganidan dalolat beradi.

2008-yilda viloyat hokimining qaroriga muvofiq kam ta’minlangan, nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj 76 ta oilaning uy-joy sharoitini yaxshilash rejalashtirilgan. Rejada 60 ta oilaning uy-joyini ta’mirlash, 4 ta oilani uy-joy bilan ta’minlash va 11 ta oilaga yer ajratish ko‘zda tutilgan. Choraklar bo‘yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa-da, yil davomida 45 ta oilaning ehtiyoji qondirildi. Bu maqsadlar uchun 21230 ming so‘m homiylik mablag‘lari sarflandi. Dastur ijrosi Kogon, Buxoro, Vobkent, Jondor, Olot, Peshku, Romitan, Qorakul va G‘ijduvon tumanlarida to‘liq bajarilgan. Biroq ayrim hududlarda 28 ta oilaning ehtiyoji qondirilmagan. Masalan, Buxoro shahrida 7 oiladan 2 tasi, Kogon tumanida 12 oiladan 11 tasi, Shofirkonda 11 oilaning barchasi, Korovulbozorda esa 2 oiladan 1 tasi uy-joy bilan ta’minlanmagan [8, b. 46]. Asosiy sabab sifatida belgilangan muddatlarda chora-tadbirlarning bajarilmaganligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, 2008-yilning 11 oyida viloyat hokimligiga fuqarolardan murojaatlar soni oshgan. Yozma murojaatlar 2 274 tani tashkil etib, 2007-yilga nisbatan 194 taga ko‘paygan. Og‘zaki murojaatlar esa 463 ta bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 26 taga kamaygan. Yuqori organlardan kelgan arizalar soni ham ortib, 753 taga yetgan. Shundan Prezident devonidan 559 ta, Vazirlar Mahkamasidan 112 ta, Oliy Majlisdan 56 ta va OAVdan 30 ta murojaat kelgan. Murojaatlar ko‘payishiga bir necha sabablar bo‘lgan: avtomashina sotib olishda yordam so‘ralishi, Kogon shahridagi texnogen holat oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash, fermer xo‘jaliklarini optimallashtirish jarayonida rahbarlarning faoliyatni saqlab qolish va kengaytirish masalalari. Kelib tushgan murojaatlarning 65,5 foizi viloyat hokimligi apparati rahbarlari tomonidan o‘rganilgan. Hududlar kesimida Buxoro shahridan 766 ta, Romitan tumanidan 96 ta, Jondordan 128 ta, Buxoro tumanidan 134 ta va Kogon shahridan 107 ta murojaat qayd etilgan [9, b. 21].

Yillar davomida hukumat tomonidan qabul qilib kelinayotgan turli chora-tadbir va dasturlar sohalar bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun zamin yaratib berayotgan bo‘lsada, ba’zi hollarda ma’suliyatsiz yondashuvlar tufayli muammolarni bartaraf etishga bo‘lgan harakatlar natijasiz tugagan. 2000-yilda faqat intizomiy choralar ustun bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yilda jinoiy javobgarlikka tortish amaliyoti ham qo‘llanilgan. Bu davlat boshqaruv organlarida javobgarlik mexanizmlarining kuchayishini va korrupsiyaga qarshi kurashning amaliy bosqichga o‘tganini ko‘rsatadi. Uy-joy, yer ajratish va kommunal xizmatlar bo‘yicha murojaatlar ko‘pligi aholining turmush darajasi va infratuzilma muammolari bilan bevosita bog‘liq. Hokimlik apparati murojaatlarning yarmidan ko‘pini ko‘rib chiqib, ijobiy hal etgani fuqarolar bilan ochiq muloqot siyosatini kuchaytirganini bildiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2000–2008 yillar davomida Buxoro viloyati Adliya boshqarmasi va hokimliklari tadbirkorlikni himoya qilish, fuqarolarning huquqlarini ta’minlash va murojaatlarni ko‘rib chiqishda sezilarli ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, sud jarayonlari orqali tadbirkorlarning moddiy va ma’naviy zararlarini undirish, mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish va fuqarolarning murojaatlarini tizimli ko‘rib chiqish amaliyoti huquqiy davlat qurilishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy muammolarni hal qilish bo’yicha murojaatlar yuzasidan sezilarli ishlar olib borilgan bo’lib, muammolarni hal qilish uchun alohida yondashuv talab etilgan. Bundan tashqari Fuqarolar murojaatlarining ko‘payishi jamiyatda huquqiy ong va talabchanlikning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu davrni huquqiy davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim bosqich sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro’yxat. 350-yig’ma jild.110-varaq.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro’yxat. 350-yig’ma jild.111-varaq.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro’yxat. 357-yig’ma jild.7-varaq.
4. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro’yxat. 357-yig’ma jild.8-varaq.

5. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 410-yig'ma jild.100-varaq.
6. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 417-yig'ma jild.208-varaq.
7. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 672-yig'ma jild.156-varaq.
8. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 746-yig'ma jild.46-varaq.
9. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 797-yig'ma jild.21-varaq.

GENDER TENGLIK SIYOSATI VA IQTISODIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASHNING FALSAFIY-HUQUQIY ASOSLARI

Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi
"University of economics and pedogogy" NOTM
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Hozirgi davrda gender tenglikni ta'minlash masalasi inson huquqlari va barqaror ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender tenglik faqat ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqiy tenglikni emas, balki jamiyatdagi barcha ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarda ularning teng ishtirokini anglatadi. Falsafiy jihatdan gender tenglik tushunchasi erkinlik, adolat va inson qadr-qimmatining umumiyligi g'oyalariga tayanadi. Ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat gender adolatini, balki jamiyatning ma'naviy va iqtisodiy barqarorligini ham ta'minlovchi omildir.

Inson huquqlari konsepsiyasida ayollarning iqtisodiy erkinligi ularning asosiy huquq va erkinliklarining ajralmas qismi sifatida qaraladi. BMTning "Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiyasi" (CEDAW, 1979) hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-5) ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va iqtisodiy zo'ravonlikdan himoyasini global ustuvor yo'nalish sifatida belgilab bergan. Ayollar iqtisodiy huquqlari kengaygan sari, ularning ijtimoiy mavqei, o'zini o'zi anglash darajasi va oilaviy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ham ortadi. Naveed Ahmad va hamkorlari (2023) o'zlarining "Economic Development through Women's Economic Rights: A Panel Data Analysis" nomli ilmiy tadqiqotida 171 davlat misolida ayollarning iqtisodiy huquqlari iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu esa ayollar iqtisodiy erkinligining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va zo'ravonlikning kamayishiga ham hissa qo'shishini isbotlaydi.

Gender tenglik siyosatining oila barqarorligi bilan uzviy bog'liqligi, eng avvalo, ayollarning iqtisodiy qaramligini bartaraf etish orqali namoyon bo'ladi. Oilada sodir bo'ladigan iqtisodiy zo'ravonlik nafaqat iqtisodiy resurslardan mahrum etish, balki shaxs erkinligini cheklashning ham bir ko'rinishidir. Shu sababli gender tenglik siyosati oila institutida adolatli munosabatlar, o'zaro hurmat va mas'uliyatli iqtisodiy qarorlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun hamda Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi (2021–2030-yillar) milliy darajada ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, gender tenglik siyosatini falsafiy-huquqiy asoslarda kuchaytirish iqtisodiy zo'ravonlikka barham berish, ayollar iqtisodiy erkinligini ta'minlash va natijada oila barqarorligini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Gender tenglik g'oyasi falsafiy jihatdan inson ontologiyasida erkinlik va qadr-qimmatning tengligi tamoyiliga tayanadi. Aristotel davridan boshlab "adolat" tushunchasi ijtimoiy munosabatlarda teng imkoniyatlarni ta'minlash g'oyasi bilan bog'langan. Zamonaviy falsafada esa bu tamoyil J. Rolsning "Adolat nazariyasi" (1971) va M. Nussbaum hamda A. Senning "Imkoniyatlar yondashuvi" konsepsiyasida yanada rivojlangan. Ushbu yondashuvga ko'ra, jamiyatda haqiqiy tenglik faqat huquqiy emas, balki amaliy imkoniyatlar tengligi orqali vujudga keladi [1]. Ayollarning iqtisodiy erkinligi shu imkoniyatlar doirasida insonning o'z potensialini to'liq ro'yobga chiqarish sharti sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy zo'ravonlik nafaqat iqtisodiy resurslardan mahrum qilish, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini cheklovchi falsafiy-axloqiy muammo sifatida ko'riladi. [2]

Inson huquqlarida iqtisodiy erkinlik shaxsning o‘z mehnati, mulki va daromadidan erkin foydalanish huquqi bilan chambarchas bog‘liqdir. BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” ning 23-moddasida “har bir inson erkin ravishda mehnat qilish, adolatli sharoitlarda yashash va iqtisodiy farovonlikka erishish huquqiga ega” ekani qayd etilgan [3]. Ammo, amaliyotda ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ko‘plab davlatlarda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda hali ham to‘liq ta’minlanmagan. Naveed Ahmad tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollar iqtisodiy huquqlarining kengayishi mamlakat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshiradi, shu bilan birga oilaviy zo‘ravonlik darajasini kamaytiradi [4]. Bu holat gender tenglik siyosatini iqtisodiy rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, CEDAW (1979) konvensiyasi 13-moddasida davlatlar ayollar uchun kredit, moliyaviy resurslar, mulk huquqi va tadbirkorlik sohalarida teng imkoniyatlar yaratishga majbur ekanini belgilaydi [5]. Shu bilan ayollarning iqtisodiy erkinligi faqat ijtimoiy ehtiyoj emas, balki huquqiy majburiyat sifatida mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida gender siyosatini rivojlantirish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonunda gender tenglik “jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollar va erkaklarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ta’minlash” sifatida talqin etilgan [6]. Shuningdek, 2021-2030-yillarga mo‘ljallangan Gender tenglik strategiyasida iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurash, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, va oilada iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash yo‘nalishlari alohida belgilangan [7]. Bu hujjatlar ayollarning iqtisodiy erkinligini huquqiy, iqtisodiy va madaniy mexanizmlar orqali kafolatlashga qaratilgan.

Oila jamiyatning asosiy instituti sifatida, unda mavjud ijtimoiy munosabatlar jamiyatdagi umumiy axloqiy me’yorlarning ifodasidir. Oila barqarorligi, birinchi navbatda, undagi iqtisodiy va ijtimoiy adolatga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilada qaror qabul qilish jarayonini yanada adolatli qiladi, zo‘ravonlik xavfini kamaytiradi va bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi [8].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, gender tenglik siyosatini kuchaytirish faqatgina ayollar huquqlarini himoya qilish emas, balki oila barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan falsafiy-huquqiy zaruratdir. Ayollar iqtisodiy erkinligining kengayishi oiladagi iqtisodiy zo‘ravonlik darajasini sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa oila muhitida o‘zaro hurmat, mas’uliyat va ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi Shu jihatdan gender tenglik siyosati faqat ayollar manfaatiga xizmat qiluvchi yo‘nalish emas, balki umumjamiyat barqarorligining falsafiy va huquqiy asosi sifatida qaralishi lozim. Gender tenglikni mustahkamlash va iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi tizimli kurash oila barqarorligini ta’minlashga va ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirishga hizmat qiladi. Shuningdek inson huquqlarining amaliy kafolatini yaratadi. Bu esa zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyot falsafasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
2. Nussbaum, M. (2011). Creating Capabilities: The Human Development Approach. Harvard University Press.
3. United Nations (1948). Universal Declaration of Human Rights.
4. Ahmad, N., & et al. (2023). Economic Development through Women’s Economic Rights: A Panel Data Analysis. Elsevier (Scopus Indexed).
5. United Nations (1979). Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW).
6. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2019). Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida (O‘RQ–562).
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2021). Gender tenglikni ta’minlash strategiyasi (2021–2030).
8. UN Women (2022). Progress on the Sustainable Development Goals: The Gender Snapshot 2022.

JAMIYAT BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA YOSHLAR MA’NAVIYATI VA FUQAROLIK MAS’ULIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Jumayeva Dildora Junaytovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish va jamiyatni har tomonlama modernizatsiya qilish sharoitida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularda yuksak fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish mamlakat barqaror taraqqiyotining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biridir. Murakkab globallashuv, shiddatli axborot xurujlari hamda g‘oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlar keskinlashib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hayotiy zaruratga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi jamiyat barqaror rivojlanishini ta’minlashda yoshlar ma’naviyati va fuqarolik mas’uliyatining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish, ularda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning ilmiy mexanizmlarini ochib berishdan iboratdir [1, b. 88].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yish strategik bosqichida “yoshlar ma’naviyati” va “fuqarolik mas’uliyati” tushunchalari ijtimoiy-falsafiy hamda aksiologik tahlilning markaziy obyektiga aylanmoqda. Zamonaviy jamiyatshunoslikda ma’naviyat shunchaki ruhiy-axloqiy omil emas, balki mamlakatning barqaror rivojlanishini, davlat va jamiyat xavfsizligini hamda milliy intellektual salohiyatni harakatlantiruvchi ichki drayver sifatida e’tirof etiladi. Fuqarolik mas’uliyati nazariy nuqtai nazardan shaxsning jamiyat, davlat va Vatan oldidagi huquqiy, axloqiy hamda ijtimoiy burchlarini chuqur anglash va ularni o‘z xohishi bilan bajarish pozitsiyasidir. Falsafiy va sotsiologik yondashuvlarga ko‘ra, fuqarolik mas’uliyati passiv bo‘ysunuvchanlikni emas, balki ijtimoiy daxldorlikka asoslangan faol pozitsiyani anglatadi [2, b. 175].

Globallashuv va shiddatli axborot jamiyati sharoitida yoshlar ma’naviyatiga jiddiy tahdid solayotgan ma’naviy nigilizm, milliy qadriyatlarni inkor etuvchi “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlari hamda ongni boshqarishga qaratilgan axborot manipulyatsiyasi kabi omillar ma’naviy-axloqiy tarbiya metodologiyasini zamonaviy talablar asosida tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda [3, b. 150]. Bu illatlar shaxsning ichki dunyosini yemirib, uni milliy ildizlaridan uzib qo‘yishga qaratilgani bois, ularga qarshi ta’sirchan mexanizmlarni yaratish kechiktirib bo‘lmas vazifadir.

Xalqaro maydonda ma’naviy-mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga nisbatan ham ancha ko‘proq vayronkor va yashirin kuchga ega bo‘layotgan hozirgi tahlikali davrda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning ongini yot ta’sirlardan himoya qilish davlatimiz siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishiga aylangan [4, b. 210]. Chunki har qanday davlatning xavfsizligi va uning kelajagi avvalo yosh avlodning mafkuraviy yetukligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning tub mohiyatini “g‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish” tamoyili tashkil etadi. Mazkur konseptual yondashuv mamlakatimizda ma’naviy va mafkuraviy muhofazaning eng ishonchli hamda ustuvor strategiyasi sifatida amalda yorqin namoyon bo‘lmoqda [5, b. 240]. Chunki shiddatli globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yoshlar ongini zo‘ravonlik yoki taqiqlar bilan emas, balki faqatgina sog‘lom fikr, yuksak ilm va milliy g‘oya orqaligina himoya qilish mumkin.

Bu yondashuv zamonaviy yoshlarda chuqur tanqidiy tafakkurni tarbiyalash, axborot oqimidagi har qanday buzg‘unchi, manipulyativ va yot g‘oyalarni ilmiy-metodologik tahlil qilish, shuningdek, jamiyatda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda hal qiluvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ilm-fan va ma’rifatga asoslangan bunday muhit yoshlarning nafaqat tashqi tahdidlarga nisbatan immunitetini oshiradi, balki ularni Vatan taqdiriga daxldor, ongli va faol fuqarolar etib voyaga yetkazishda g‘oyaviy poydevor vazifasini o‘taydi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy ma’rifiy merosi – Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Forobiy, Alisher Navoiy hamda jadidchilik harakati yorqin namoyandalari (Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy) ilgari surgan g‘oyalar bugungi yoshlar tarbiyasining eng mustahkam metodologik va ma’naviy poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ilmiy-falsafiy qarashlari asrlar o‘tsa ham o‘zining tarbiyaviy quvvatini yo‘qotmaganligi bilan ahamiyatlidir.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Bu o‘lmas o‘git bugungi shiddatli zamonda har bir ota-ona, o‘qituvchi va jamiyat vakili uchun yoshlar tarbiyasiga qanchalik jiddiy va mas’uliyat bilan yondashish kerakligini ko‘rsatib turuvchi hayotiy shior hisoblanadi. Yoshlar ma’naviyati va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishda oila, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda raqamli media muhitining o‘zaro uzviy integratsiyalashgan institutsional mexanizmi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu tizimli hamkorlik jarayoni yoshlarda har qanday buzg‘unchi va yot g‘oyalarga qarshi yengilmas, baquvvat immunitetni shakllantiradi [5, b. 67].

Xulosa qilib aytganda, jamiyat barqaror rivojlanishini ta’minlash bevosita yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularda yuksak fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. Yoshlarni Vatan taqdiriga daxldorlik, huquqiy va ijtimoiy faollik hamda halol mehnat ruhida tarbiyalash ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning amaliy samadorligini oshirib, mamlakatimizning barqaror, xavfsiz va farovon kelajagini ta’minlaydigan eng mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkaev A. Ma’naviyat va jamiyat taraqqiyoti: falsafiy va ijtimoiy tahlil. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 210 b.
2. Quronov M. Fuqarolik jamiyatida yoshlar ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshirish mexanizmlari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 180 b.
3. Jorayev N. Yangi O‘zbekiston: ma’naviy-ma’rifiy islohotlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023. – 196 b.
4. Avloniy A. Turkiyi guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Ochilov E. Milliy g‘oya va ijtimoiy-institutlar integratsiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 215 b.

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ В БУХАРЕ: ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЫЖИВАЕМОСТИ ТРАДИЦИОННОГО УКЛАДА (1950–1980-е гг.)

Каримов С.Ю.
Азиатский международный университет, Бухара

История выживания духовной культуры в периоды сложнейших идеологических сломов — это не просто хроника запретов и репрессий, но прежде всего повествование о поразительной устойчивости народной памяти и этических основ. Для Центральной Азии, и в особенности для Бухарского оазиса, вторая половина XX века обернулась эпохой глубочайших экзистенциальных испытаний. Бухара, веками гордо носившая статус сакрального и интеллектуального центра, непререкаемого «Купола ислама», столкнулась с неумолимой машиной советского атеистического администрирования. Цель этой машины была амбициозна и безжалостна — полностью деконструировать историческую память и духовную идентичность коренного населения.

Масштабы духовных потерь первых десятилетий советской власти ошеломляют. Как свидетельствуют архивные справки уполномоченных по делам религий, до Октябрьского переворота 1917 года только в Бухарском регионе функционировало до 1373 мечетей и около двух десятков крупных медресе, являвшихся центрами просвещения [2, л. 216]. Однако последовавшие затем национализация вакуфного имущества, повсеместное закрытие культовых зданий и физическое уничтожение улемов нанесли этому тысячелетнему укладу тяжелейший урон [1, с. 34-36]. Партийно-государственный аппарат,

стремясь выстроить «новое общество», пытался стереть любую альтернативную систему ценностей. Тем не менее, последующий ход исторического процесса доказал: прямое насилие не способно выкорчевать веру из общественного сознания. На смену открытому противостоянию пришла эпоха сложной, многоуровневой социальной адаптации и скрытого сохранения духовных ценностей, что в итоге и стало залогом сохранения нравственного здоровья нации.

Переломным моментом, вынудившим советское руководство пойти на тактический компромисс с верующими, стала Вторая мировая война. Мусульмане региона продемонстрировали высочайший патриотизм, не разделяя беду на «свою» и «чужую»: они собирали миллионы рублей на строительство танковых колонн, отправляли на фронт продовольствие и теплую одежду [1, с. 104-105]. В ответ на эту колоссальную поддержку в 1943 году государство санкционировало создание Духовного управления мусульман Средней Азии и Казахстана (САДУМ). А весной 1946 года, после длительных согласований и бюрократических проволочек, в Бухаре вновь открыло свои двери легендарное медресе «Мир-Араб».

Впрочем, было бы ошибкой считать этот шаг признаком подлинной свободы совести. Рассекреченные документы Совета по делам религиозных культов (СДРК) рисуют картину жестких тисков, в которые был зажат этот единственный легальный исламский институт. Учебный план медресе на 1946/1947 учебный год, тщательно выверенный завучем А. Такаевым, представлял собой вынужденную попытку соединить классическое исламское образование с требованиями советских властей. Наряду с изучением Корана (тафсир, таджвид), хадисоведением и сложнейшей арабской грамматикой, студенты были обязаны слушать курсы по санитарии и Конституции СССР [2, л. 104-106].

По сути, официальные духовные институты целенаправленно использовались партийным аппаратом как яркая витрина благополучия для внешнего мира. Уполномоченные СДРК скрупулезно, вплоть до сказанного слова, фиксировали все визиты иностранных гостей, пытавшихся понять реальное положение религии в СССР. Так, в июне 1954 года мечеть «Тилля-Шейх» и структуры САДУМ с большой помпой принимали индийскую делегацию во главе с мистером Сундерлалом, возвращавшуюся с сессии Всемирного Совета мира в Берлине [2, л. 44-46]. Мистер Сундерлал, обращаясь к собравшимся, даже прочел суру «Аль-Фатиха», выражая солидарность, в то время как представители САДУМ вынуждены были транслировать тезисы о том, что «идеи коммунизма не противоречат идеям ислама» [2, л. 46]. Спустя год, в августе 1955 года, зарубежные визитеры (судя по архивным пометкам — представители Верховного суда США) беспрепятственно фотографировали молящихся и подробно расспрашивали кадия С. Гельманова о свободе отправления культа и возможности совершения хаджа в Мекку [2, л. 112-114]. Внешне картина выглядела вполне благопристойно.

Однако внутренняя политика в отношении духовенства оставалась откровенно удушающей и унизительной. Опасаясь формирования новой, независимой интеллектуальной элиты, государственные органы искусственно блокировали развитие медресе. Секретное предписание республиканского уполномоченного Н. Иногамова от 14 ноября 1956 года устанавливало жесткий лимит — не более 78 студентов на весь период обучения, причем руководству училища прямо рекомендовалось «провести отсеивание» под любыми предлогами [2, л. 2]. Пресекались и попытки интеграции мусульман в мировое образовательное пространство: в апреле 1956 года председатель союзного СДРК И. Полянский категорически запретил направлять студента Мухтаржана Абдуллаева на обучение в каирский университет Аль-Азхар, цинично указав, что необходимое медицинское образование тот может получить и в Советском Союзе [2, л. 78].

Служители культа подвергались жесткому дискриминационному налогообложению, призванному экономически обескровить религиозные общины. В письме САДУМ от мая 1952 года указывается вопиющий факт: финансовые органы облагали имамов мечетей подоходным налогом не с их фиксированного скромного оклада (в пределах 500–800

рублей), а с общего валового дохода самой мечети. В результате суммы налогов достигали астрономических 3–7 тысяч рублей, что ставило духовных лиц на грань выживания [2, л. 42-43]. Преподаватели «Мир-Араб» были лишены элементарных социальных благ: в отчаянном письме на имя А.А. Громыко в 1988 году они писали, что им не предоставляют коммунальное жилье, путевки в санатории, а налоги «съедают» свыше трети их скромной зарплаты, лишая многодетные семьи (у некоторых было до 10 детей) средств к существованию [2, л. 24-25].

Помимо кадрового и финансового прессинга, власть планомерно уничтожала духовную топографию оазиса. В 1951 году по решениям облисполкомов и постановлению Совета Министров УзССР началось принудительное снятие с регистрации и закрытие исторических мечетей. В Бухаре была закрыта мечеть «Баракиян», в Гиждуванском районе — мечеть «Ходжаи Джахан» (Улугбек) [2, л. 102]. Бюрократическая мотивировка всегда оставалась стандартной и циничной — «ввиду самораспущенности исполнительного органа и двадцатки» [2, л. 102]. В результате к 1954 году в самой Бухаре оставалось лишь три официально действующие мечети: «Ходжа-Зайнеддин», «Ходжа-Таббанд» и «Тагбон-Бофон», которые на Курбан-байрам с трудом вмещали около 5000 верующих [2, л. 83].

Особую тревогу у партийных идеологов вызывал институт зиярата — паломничества к святым местам, который всегда выступал мощным фактором социальной и духовной консолидации. В закрытом отчете 1954 года уполномоченный А. Джедиров вынужденно констатировал, что практически в каждом колхозе Бухарской области имеется древний мазар с традиционным религиозным названием, куда массово стекаются люди, чтя память предков [2, л. 217]. После выхода партийного постановления о прекращении паломничества (1958 г.) началась безжалостная кампания по ликвидации мазаров. В знаменитом мемориальном комплексе Бахауддина Накшбанда и мавзолее Шахи-Зинда в Самарканде были спешно организованы атеистические музеи. Но эти запреты имели обратный эффект: народная вера лишь крепла. В марте 1968 года в день праздника жертвоприношения к «атеистическому музею» Шахи-Зинда пришло более 4000 паломников [2, л. 5].

Лишенные официальных храмов, верующие были вынуждены переносить религиозную жизнь в теневой сектор. Анализ архивных справок обнаруживает поразительную картину жизнестойкости духовной культуры. Так, шиитская община Бухары, вообще не имевшая легальных молитвенных зданий, ежегодно проводила сорокадневные траурные собрания «Ашура» прямо на частных квартирах. В 1956 году эти собрания посещали от 15 до 200 человек ежедневно, причем основной костяк составляли рядовые труженики — работники торгово-кооперативных учреждений и члены артелей [2, л. 88-90]. Массовые праздничные моления на Курбан-байрам при отсутствии мечетей проводились под открытым небом, на кладбищах или у почитаемых святынь. Например, в Гиждуване у могилы «Ходжай-Джахан» собиралось до 1000 верующих, в Кермине у мазара «Ходжам-Сабир» — до 500 человек [2, л. 83].

Здесь мы сталкиваемся с глубоким социально-философским явлением. Морально-этические установки традиционного общества оказались несравнимо прочнее искусственных идеологических догм марксизма-ленинизма. Религиозные представления не исчезли, они трансформировались, прочно сроднившись с национальными обычаями, образовав неразрывный монолит идентичности [3, с. 68]. Обряд обрезания (суннат-туй), например, для некоторой части общества потерял сугубо теологический смысл, но стал обязательным, краеугольным элементом национальной идентификации. Его неукоснительно проводили даже те, кто считал себя неверующим, во избежание общественного порицания [3, с. 74-75]. То же самое произошло с погребальным обрядом (джаназа) и многоступенчатыми поминальными трапезами. В обстановке глубокого горя и скорби вековые традиции брали верх над страхом перед партийным взысканием; эти обряды строго соблюдались населением, несмотря на ожесточенную критику со стороны партийно-государственных органов [3, с. 76].

Однако наиболее глубоким свидетельством полной несостоятельности тоталитарного контроля стала интеграция самой низовой советской номенклатуры в традиционную систему духовных координат. Председатели колхозов и сельсоветов, формально нося в кармане билет члена ВКП(б)/КПСС, на деле оставались плотью от плоти своего народа, разделяя его ценности и оберегая местное духовенство от репрессий.

Секретная справка заместителя начальника УМГБ по Бухарской области И. Каландарова от 8 августа 1950 года детально, с указанием фамилий, описывает этот поразительный скрытый социальный симбиоз. Документ пестрит фактами того, как местная власть открыто саботировала антирелигиозные директивы: Во-первых, в июле 1950 г. на праздник Уразабайрам сотни паломников беспрепятственно прибыли к мазару Бахауддина Накшбанда. Для их перевозки было задействовано 50 колхозных лошадей с арбами и грузовые автомобили колхоза им. Молотова Кулишагаланского сельсовета [2, л. 143]. Во-вторых, председатель колхоза «Янги-Хаят» (Ромитанский район), член ВКП(б) Иргашев в мае 1950 г. организовал у себя дома обряд «Хатми Коран», щедро выплатив приглашенному духовному лицу Ш. Ходжаеву 150 рублей. Аналогичные традиционные обряды совершенно открыто проводили председатель совета урожайности колхоза «Улуг Октябрь» Хаитов и старший налоговый инспектор Бухарского ГорФО Т. Ахмедов [2, л. 144]. В-третьих, множество неофициальных мулл и ишанов фиктивно числились в колхозах, чтобы избежать преследований за «тунеядство» и неуплату налогов. Председатели колхозов в Гиждуванском (колхозы им. Сталина, им. Димитрова), Ромитанском (колхозы им. Ленина, им. Нариманова) и Каракульском районах наделяли их приусадебными участками размером от 0,10 до 0,8 га. Духовные лица полностью освобождались от физического труда для того, чтобы они могли спокойно совершать религиозные обряды и лечить больных (практика табибства) [2, л. 145-146]. Характерен ответ председателя сельсовета Шарипова активистам, попытавшимся возмутиться деятельностью духовного лица П. Саидова, устроившего нелегальную мечеть: «из-за одного служителя религиозного культа колхоз беднее не будет» [2, л. 145].

Эти потрясающие исторические свидетельства блестяще иллюстрируют тот факт, что общество не было безвольной, пассивной жертвой репрессий. Оно активно и изобретательно сопротивлялось духовному обнищанию, используя ресурсы самой советской хозяйственной системы для поддержания своих исконных ценностей. Партийный билет в руках председателя колхоза часто служил лишь защитным щитом, за которым скрывался человек, глубоко чтящий Коран, уважающий старцев и ясно осознающий свою ответственность перед общиной.

Подводя итог, историко-философский анализ религиозной ситуации в Бухарском оазисе в 1940–1980-х годах позволяет констатировать глубокий концептуальный провал советской политики принудительной секуляризации. Административный террор, разрушение святынь и дискриминация духовенства привели не к исчезновению духовности, а к ее сложной структурной трансформации и социальной мимикрии.

Религиозно-нравственные ценности ушли в глубокое социальное подполье, неразрывно слившись с национальными традициями, семейно-бытовыми нормами и институтом махалли. Латентный конформизм низовой партийно-хозяйственной элиты, которая тайно покровительствовала духовенству и оберегала сакральные ритуалы от внешнего вмешательства, выступил мощнейшим амортизатором социальных потрясений. Именно эта способность традиционного общества к гибкой адаптации и скрытому сохранению своей духовной идентичности обеспечила высочайший уровень социальной стабильности в регионе, сберегла культурно-нравственный фундамент нации, который в полной мере смог раскрыться лишь с обретением государственной независимости.

Литература

1. Государственный архив Российской Федерации (ГАРФ). Ф. Р-6991 (Совет по делам религиозных культов при Совете Министров СССР). Оп. 3. Д. 995. Л. 125–129. (Переписка уполномоченных по УзССР и Бухарской области, 1951 г.).

2. ГАРФ. Ф. Р-6991. Оп. 3. Д. 996. Л. 154–157, 210–223. (Информационные отчеты уполномоченного СДРК по Бухарской области за II и IV кварталы 1953 г.).
3. Центральный государственный архив Республики Узбекистан (ЦГА РУз). Ф. Р-2456 (Уполномоченный СДРК по УзССР). Оп. 1. Д. 92. Л. 104–106. (Учебный план, списки учащихся и расписание уроков медресе «Мир-Араб», 1946 г.).
4. ЦГА РУз. Ф. Р-2456. Оп. 1. Д. 134. Л. 102–103. (Материалы о снятии с регистрации недействующих мечетей по Узбекской ССР, 1951 г.).
5. ЦГА РУз. Ф. Р-2456. Оп. 1. Д. 164. Л. 44–47. (Справка о приеме ДУМ САК индийской делегации Всемирного Совета мира, 1954 г.).
6. ЦГА РУз. Ф. Р-2456. Оп. 1. Д. 190. Л. 2–5. (Переписка об обстановке и кадровых решениях в духовном училище «Мир-Араб», 1956 г.).
7. ЦГА РУз. Ф. Р-2456. Оп. 1. Д. 191. Л. 30–31, 78. (Директивные указания председателя СДРК И. Полянского уполномоченным по Бухарской области, 1956 г.).
8. Российский государственный архив социально-политической истории (РГАСПИ). Ф. 574. Оп. 1. Д. 22. Л. 143–147. (Секретная справка УМГБ по Бухарской области о деятельности мусульманского духовенства, 8 августа 1950 г.).
9. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (1917–1960 йиллар). – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 160 b.
10. Ислам в СССР: Особенности процесса секуляризации в республиках советского Востока / отв. ред. Э. Г. Филимонов. – М.: Мысль, 1983. – 176 b.
11. Каримов Н. Ф. 40-50-йиллардаги мафкуравий кампаниялар ва қатағон // Тарихнинг номаълум саҳифалари (Иккинчи китоб) / масъул муҳаррирлар Б. Ҳасанов, Н. Каримов. – Тошкент: O‘qituvchi, 2010. – B. 15–40.
12. Юнусова Х. Ўзбекистонда «пахта иши» қатағонлари ва унинг оқибатлари // Тарихнинг номаълум саҳифалари (Иккинчи китоб) / масъул муҳаррирлар Б. Ҳасанов, Н. Каримов. – Тошкент: O‘qituvchi, 2010. – B. 41–51.
13. Bennigsen A., Lemercier-Quelquejay C. Islam in the Soviet Union. – London: Pall Mall Press, 1967. – 272 p.
14. Rywkin M. Moscow's Muslim Challenge: Soviet Central Asia. – New York: M. E. Sharpe, 1982. – 186 p.

FARG‘ONA VODIYSI CHORVACHILIGIDAGI O‘ZGARISHLAR (1957–1961-YILLAR)

Haqqulov Mehriddin Yunusovich
Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich doktoranti

Avvalo, umumiy manzarani belgilab olish zarur. O‘zbekiston Qishloq xo‘jalik fanlari akademiyasining korrespondent-a’zosi Ye.M.Yershovaning 1957-yil oxirida e’lon qilingan maqolasiga ko‘ra, o‘sha paytda respublikada qo‘y va echkilarning 84,1 foizi, qoramollarning 50,2 foizi va cho‘chqalarning 71,7 foizi kolxoz hamda sovxozlar mulki hisoblangan; go‘shtning 75 foizi, sutning 65 foizi va qorako‘l terining butun hajmi kolxozlar tomonidan yetishtirilgan [1, b. 27]. Bu raqamlar chorvachilikning jamoa xo‘jaliklari qo‘liga o‘tish jarayoni asosan yakunlanganini, biroq qoramolchilikda xususiy sektor ulushi hali sezilarli darajada saqlanib turganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga tarmoqning mahsuldorligi past edi: respublika bo‘yicha har bir sigirdan olinadigan yillik sut miqdori 1954-yilda 348 kilogrammni, 1956-yilda 781 kilogrammni tashkil etgan [1, b. 29].

Vodiy hududi bilan bevosita bog‘liq birinchi guruh ma’lumotlar naslchilik va zot yaratish ishiga tegishli. Yershovaning maqolasida Namangan viloyatidagi Kosonsoy davlat naslli mol rassadnigi tajribakor qorako‘lchilar bilan birgalikda maqsadli seleksiya olib borib, qorako‘l qo‘ylarining dinov va pamuq turlari singari qimmatbaho tiplarini topgani qayd etiladi [1, b. 28]. Undan ham ahamiyatlisi - Chust nasldor echki rassadnigi mutaxassislarining ishi. Muallif yozishicha, olimlar rassadnik mutaxassislari va kolxozchi-cho‘ponlar bilan birgalikda mahalliy echkilarni angor echkilari bilan chatishtirish yo‘li orqali yangi serjun va qora momiqli echki

zotlarini yaratganlar. Yangi zot echkilarning soni o‘sha paytda qariyb 150 ming boshga yetgan bo‘lib, ular uzunligi 18–22 santimetrga boradigan ipaksimon oq jun bergan; har bir ona echkidan o‘rtacha 1,6–2 kilogramm jun qirqib olingan, qoramtir momiqli echkilardan esa har boshdan 400–600 grammdan sanoatda qimmatbaho hisoblangan ingichka tolali momiq olingan [1, b. 28].

Chust va Kosonsoy misollari muhim, chunki ular vodiy chorvachiligining respublika miqyosidagi seleksiya tizimida qanday o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Paxta ekiladigan sug‘oriladigan yerlar tanqisligi sharoitida vodiy xo‘jaliklari yirik go‘sht-sut bazasiga aylana olmas edi; buning o‘rniga ular tog‘ oldi va adir mintaqalaridagi yaylovlarga tayangan holda mayda shoxli mol, xususan echkichilik yo‘nalishida ixtisoslashgan. Bu jarayonni tabiiy sharoitga moslashuv sifatida ham, markazdan belgilangan ixtisoslashuv siyosatining natijasi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Ikkinchi guruh ma’lumotlar sut yetishtirish bilan bog‘liq. Bu borada eng batafsil manba - Farg‘ona viloyati Toshloq rayonidagi Maksim Gorkiy nomli kolxoz zootexnigi Muzaffar G‘ofurovning 1958-yil oxirida chop etilgan maqolasi. Unda xo‘jalikdagi o‘sish quyidagicha ko‘rsatilgan: har bir sigirdan o‘rtacha olingan yillik sut miqdori 1954-yilda 154 kilogramm, 1955-yilda 550 kilogramm, 1956-yilda 1054 kilogrammni tashkil etgan [2, b. 22]. Besh yil ichida ko‘rsatkichning qariyb yetti barobar oshishi, muallifning o‘z izohiga ko‘ra, “mollarga nisbatan egasizlikni tugatish” natijasi bo‘lgan. Xo‘jalik 1958-yilga 135 bosh sigir bilan kirgan; ularning 60 foizini golland, olatov va shved zotlarining duragaylari tashkil etgan, qolgani jaydari zotdan iborat bo‘lgan [2, b. 22].

Shu maqolada ozuqa bazasining o‘sishi ham raqamlarda beriladi: 1954-yilda xo‘jalikda bir tonna ham silos bostirilmagan bo‘lsa, 1956-yilda 1000 tonna (har bir sigirga o‘rtacha 8 tonna), 1957-yilda 1300 tonna (har bir sigirga 10 tonna) silos tayyorlangan; kelgusi rejalarda 1960-yilga borib har bir sigir uchun kamida 15–16 tonna sifatli silos bostirish mo‘ljallangan [2, b. 22]. Ozuqa turini ko‘paytirish maqsadida dumbul makkajo‘xori poyasiga har xil xashak va yosh qamish qo‘shib siloslangani, shuningdek 100 tonna dumbul arpadan silos bosilgani ham qayd etiladi. Bu tafsilotlar vodiy sharoitida ozuqa bazasi asosan paxtachilikdan ortgan yer va oraliq ekinlar hisobiga shakllanganini ko‘rsatadi.

Toshloqdagi xo‘jalikning besh yillik istiqbol rejasi alohida e’tiborga loyiq. 1956-yil boshida kolxoz boshqaruvi chorvadorlar kengashini chaqirgan va shu kengashda sut yetishtirishning besh yillik istiqbol rejasi tuzilgan. Rejaga ko‘ra, 1956-yildagi 105 bosh sigir 1960-yilda 155 boshga yetkazilishi, har bir sigirdan olinadigan sut miqdori esa 1054 kilogrammdan 1800 kilogrammga chiqarilishi belgilangan [2, b. 23]. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sut miqdori 1954-yilda atigi 5 kilogramm bo‘lgan bo‘lsa, 1956-yilda 45, 1957-yilda 60 kilogrammga yetgan va 1960-yilga borib 100 kilogrammga yetkazish rejalashtirilgan [2, b. 23]. Har 100 gektar yer-suv hisobiga yetishtirilgan sut esa 1954-yildagi 8,2 sentnerdan 1956-yilda 63, 1957-yilda 86,2 sentnerga ko‘tarilgan [2, b. 23].

Bu ko‘rsatkichlar ortida aniq kishilarning mehnati turgan. Maqolada xo‘jalikning ilg‘or sog‘uvchilari sifatida Gulyor Roziqova va Mahtuma Islomova kabi o‘nlab ayollarning nomi tilga olinadi [2, b. 23]. Jurnalning shu sonida Namangan rayonidagi “Stalingrad” kolxozining yozgi fermasidan olingan fotosurat ham berilgan bo‘lib, u vodiyda yozgi ferma tizimi amalda qo‘llanilganidan dalolat beradi [2, b. 23].

Uchinchi guruh ma’lumotlar tarmoqdagi muammolarga oid. Zootexnik P.Bitkovning maqolasida Andijon viloyati Qorasuv rayonidagi Sverdlov nomli kolxozda 1957-yili bo‘g‘oz ona cho‘chqalarni kimyo sanoati chiqindisi bilan boqish tajribasi o‘tkazilgani, bu chog‘da hayvonlarga beda kam berilgani va natijada tug‘ilgan cho‘chqa bolalari orasida ko‘r hamda nimjonlari ko‘p bo‘lib, ularning anchasi nobud bo‘lgani yozilgan [3, b. 23]. Bu misol rasmiy matbuotda kamdan-kam uchraydigan tanqidiy ma’lumot bo‘lib, yangi ozuqa turlarini yetarli ilmiy asoslamasdan joriy etish qanday oqibatlarga olib kelganini ko‘rsatadi. Ayni shu maqolada naslli mollarni mahalliy sharoitga moslashtirmasdan olib kelish natijasida butun bir xo‘jalikda buzoqlarning nobud bo‘lgani haqida ham eslatib o‘tiladi.

Yetakchi xo‘jaliklar tajribasiga qaytadigan bo‘lsak, Yershovaning maqolasida Andijon viloyati Qorasuv rayonidagi Lenin nomli kolxoz respublikadagi ilg‘or xo‘jaliklar qatorida tilga olinadi: bunday xo‘jaliklar 1957-yildayoq har 100 gektar yer-suv hisobiga 260–475 sentnerdan sut topshirgan [1, b. 29]. Toshloqdagi xo‘jalikning o‘sha yildagi 86,2 sentnerlik ko‘rsatkichi bilan solishtirilganda, vodiy ichidagi tafovutning naqadar katta bo‘lganligi ayon bo‘ladi. Demak, matbuotda e’lon qilingan yuqori ko‘rsatkichlarni butun mintaqaga xos deb qabul qilib bo‘lmaydi; ular ayrim namunali xo‘jaliklarga tegishli edi.

Mexanizatsiya masalasida vodiyga oid ma’lumot nisbatan kech - 1960-yil oxirida uchraydi. Jurnalning shu yilgi 12-sonida Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on rayonidagi “Leningrad” kolxozida qo‘y junining asosan mashinalar yordamida olinishi, xo‘jalikning tajribakor qo‘y qirquvchilari junni agregatlar yordamida qirqishi qayd etilgan [4, b. 33]. Jun qirqishning mexanizatsiyalashuvi - mayda shoxli mol boqish bo‘yicha ixtisoslashgan vodiy xo‘jaliklari uchun mantiqiy qadam bo‘lib, yuqorida tilga olingan Chust echkichiligi tajribasi bilan bir qatorda turadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib bir necha xulosa qilish mumkin. Birinchidan, 1957–1961-yillarda Farg‘ona vodiysi chorvachiligida ko‘zga tashlanadigan o‘sish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu o‘sish past boshlang‘ich darajadan boshlangani uchun nisbiy ko‘rsatkichlarda ta’sirchan, mutlaq raqamlarda esa kamtarona ko‘rinadi. Ikkinchidan, vodiyning tarmoq ichidagi o‘rni umumrespublika ixtisoslashuvi doirasida belgilangan: yirik go‘sht-sut ishlab chiqarish emas, balki naslchilik va mayda shoxli mol yo‘nalishi ustunlik qilgan. Uchinchidan, muvaffaqiyat asosan ozuqa bazasini kengaytirish va zot yaxshilash hisobiga qo‘lga kiritilgan bo‘lib, bu jarayon paxta maydonlarini qisqartirmasdan amalga oshirilgani sababli o‘z chegarasiga tez yetib borgan.

Nihoyat, manbashunoslik nuqtai nazaridan shuni ta’kidlash lozimki, “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali vodiy chorvachiligi tarixini o‘rganishda birlamchi manba sifatida cheklangan imkoniyatga ega: unda vodiy viloyatlariga oid materiallar tizimli emas, tarqoq holda beriladi va ko‘pincha namunali xo‘jaliklar tajribasi bilan cheklanadi. Shu sababli mazkur maqolada keltirilgan ma’lumotlar arxiv hujjatlari, xususan O‘zbekiston Milliy arxivining Qishloq xo‘jaligi vazirligi fondidagi viloyat hisobotlari bilan qiyoslangandagina to‘liq manzara hosil qilishi mumkin. Bu esa keyingi tadqiqotlarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ершова Е.М. Ўзбекистонда чорвачиликнинг ривожланиши // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1957. – № 11–12. – Б. 27–29.
2. Ғофуров М. Сут маҳсулоти тобора кўпаймоқда // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1958. – № 11–12. – Б. 22–23.
3. Битков П. Яхши сифатли хашак ҳозирлайлик // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1958. – № 11–12. – Б. 23.
4. Янгиқўрғон районидаги «Ленинград» колхозида қўй жуни машиналар ёрдамида олинмоқда [фотосурат изоҳи] // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1960. – № 12. – Б. 33.
5. Тухсинов М., Асронов А., Отахонов Н. Дала экинлари уруғчилиги ва уруғшунослиги. – Фарғона: «Фарғона» нашриёти, 1999. – 208 б.

MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT OMILLARI (1991–1996-YILLAR)

Muyiddinov Bekali Bahodir o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda, xususan 1990-yil 20-iyun 97-XII-son “Yer to‘g‘risida”gi[1, b. 17], 1992-yil 3-iyulda “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”[4, b. 2] gi Qonunlari va Prezident farmonlarida qishloq xo‘jaligidagi tub islohatlarning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, 1991-yil 29-dekabrda qabul[1, b. 16] qilingan “Dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat

tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmon qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni zamon talablari asosida tashkil qilishda muhim qadam bo‘ldi. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-yanvardagi 23-son “1992-yilda respublika qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni rag‘batlantirish choralari to‘g‘risi” [5, b. 2] dagi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Buxoro viloyati dehqon xo‘jalik va fermer xo‘jaliklari shu yil davlatga 357 ming tonna paxta, 13 ming tonna don, 97 ming tonna sabzavot, 33 ming tonna poliz mahsulotlari, 12 ming tonna meva, 34 ming tonna uzum, 19,5 ming tonna go‘sht, 73 ming tonna sut va boshqa turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetkazib berdi. Mazkur ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 1992-yilda Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ancha yuqori hajmda mahsulot yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Lekin, viloyat ahalisining sut va go‘shtga talab yuqori bo‘lsa-da, paxta yetakchi o‘rinda qolib, hudud iqtisodiyotining asosini ko‘rsatadi. Bu holat o‘sha davrda respublika miqyosida paxta yakkahokimligi siyosatining saqlanib qolganini anglatadi.

1993–1994-yillar davomida chorvachilik tarmog‘ida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar doirasida yangidan tashkil etilgan shaxsiy-jamoa fermalarini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, ushbu xo‘jaliklarning ishlab chiqarish faoliyatini barqaror yo‘lga qo‘yish, chorva mollari mahsuldorligini saqlab qolish hamda ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan dag‘al, shirali va konsentrat ozuqalar ajratish belgilandi. Mazkur chora-tadbirlar yangi mulkchilik shakllarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamayib ketishining oldini olish va fermerlik faoliyatini rag‘batlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi [1, b. 89]. Qolaversa, qarorda naslchilik va yuqori mahsuldor sut-tovar fermalarini davlat hamda jamoa xo‘jaliklari tarkibida saqlab qolish ko‘zda tutilgan edi. Shu sababli Vobkent tumanidagi “Vobkent” davlat xo‘jaligi, “Zarbdor” va Oxunboboyev nomidagi jamoa xo‘jaliklari, G‘ijduvon, Jondor hamda Romitan tumanlaridagi bir qator ixtisoslashgan chorvachilik xo‘jaliklari davlat nazoratida qoldirildi.

Shunday qilib, 1993–1994-yillarda Buxoro viloyatida chorvachilik tarmog‘ida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar doirasida xususiylashtirilayotgan fermalarni yem-xashak bilan ta’minlash, yangi tashkil etilgan shaxsiy-jamoa xo‘jaliklarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda naslchilik xo‘jaliklarini saqlab qolish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada viloyatda chorvachilikni bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojlantirish uchun zarur tashkiliy va iqtisodiy asoslar yaratildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-martdagi “Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Respublika miqyosida zarar bilan ishlayotgan 1499 ta qoramolchilik fermasi xususiylashtirilgan. Natijada go‘sht va sut ishlab chiqarishda xususiy sektorning ulushi keskin oshgan. Bu boradagi o‘zgarishlar Buxoro viloyatida ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, chorvachilik tarmoqlarida muayyan o‘zgarishlar va o‘sishlar bo‘lgan. Chunonchi, go‘sht tayyorlash 1247 tonnaga yoki 109 foizga, sut tayyorlash 101 foizga ko‘paygan. Lekin fermalar xususiylashtirilgan bo‘lsada dastlabki bosqichlarida kutilgan natijalarga erishilmagan. 1995-yilning birinchi choragida qoramollar bosh soni qariyb 7000 boshga, jumladan sigirlar esa salkam 800 boshga kamaygan edi. Ayniqsa, Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l tumanlarida qoramallar bosh soni 1300 tadan 1000 ta boshgacha qisqarishiga yo‘l qo‘yilgan. Shu bilan birga mahsuldorlik ham pasayib borgan. Masalan, o‘sha yilning o‘zida viloyatda har bir sigirdan sog‘ib olingan sut 1994-yilga nisbatan 470 kilogrammga kamayagan. Shofirkon, Kogon tumonlarida sut ishlab chiqarish, davlatga sotish hamda har bir sigirdan sut sog‘ib olish bo‘yicha ko‘rsatgichlar past bo‘lgan. Viloyat bo‘yicha chorva qishlovini o‘tkazish uchun 355 ming tonna ozuqa jamg‘arish rejalashtirilgan holda bor-yog‘i 159 ming tonna dag‘al xashak tayyorlanadi [2, b. 48]. Bu har bir shartli mol hisobiga 16-18 sentner o‘rniga 6.31 sentner ozuqa jamg‘arilgan ozuqa Kogon tumanida 36, G‘ijduvonda 62, Olotda 63 kunga yetishi mumkin bo‘lgan xolos.

Qolaversa, viloyatning barcha toifadagi xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko‘rsatkichlari bo‘yicha

1994-yilga nisbatan muayyan o‘sishga erishildi. Davlatga mahsulot topshirish hajmlari ham oshdi. Jumladan, go‘sht topshirish hajmi 1528 tonnaga yoki 10 foizga, sut 368 tonnaga yoki 1 foizga, tuxum 1136 ming donaga yoki 7 foizga, jun 3967 sentnerga yoki 56 foizga, qorako‘l terisi esa 17 230 donaga yoki 14 foizga ko‘paydi. Bunday ijobiy o‘zgarishlarga erishish sabablaridan biri viloyat bo‘yicha har bir gektar ozuqabop ekin maydonidan o‘rtacha 37,1 sentner ozuqa birligi hisobida hosil olingan edi. Ushbu ko‘rsatkich fermalarda chorva mollarini belgilangan oziqlantirish me’yorlari asosida boqish imkonini bergan bo‘lsa-da, jamoa sektorida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mahsuldorlik ayrim hollarda o‘tgan yilga nisbatan pasaydi [1, b. 94]. Biroq, G‘ijduvon tumani xo‘jaliklarida 1996-yil 1-aprel holatiga qadar 931 tonna tirik vaznda go‘sht ishlab chiqarilgan. Shundan 577,5 tonnasi tuman aholisining shaxsiy xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan edi. Shu yilning yanvar–mart oylarida tuman xo‘jaliklarida 5755,5 tonna sut sog‘ib olinib, shundan 4774,4 tonnasi aholi xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan [3, b. 78]. Shunday qilib, 1995–1996-yillarda chorvachilik tarmog‘ida kuzatilgan ijobiy va salbiy omillar keyingi yillardagi rivojlanish yo‘nalishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda chorvachilikning barqaror rivojlanishini ta’minlashda bir necha asosiy omillar muhim ahamiyat kasb etgan. Birinchidan, chorva mollarini yetarli va sifatli ozuqa bilan ta’minlash hamda dag‘al-xashak va silos zaxiralarini shakllantirish. Ikkinchidan, naslchilik ishlarini takomillashtirish va yuqori mahsuldor chorva podasini shakllantirish. Uchinchidan, Buxoro viloyatining tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib, yaylovlardan oqilona foydalanish va ularning ekologik holatini yaxshilash. To‘rtinchidan, xo‘jaliklar faoliyatini yangi iqtisodiy munosabatlar asosida tashkil etish va chorvachilikni aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish. Shunday qilib, 1991–1996-yillarda Buxoro viloyatida chorvachilikning rivojlanishi nafaqat qishloq xo‘jaligining alohida tarmog‘i, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur davrda shakllangan tashkiliy, iqtisodiy va agrotexnik tajribalar keyingi yillarda chorvachilikni rivojlantirish va tarmoqni modernizatsiya qilish jarayonlari uchun muayyan asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M-1459-fond – Buxoro viloyat hokimligi.
2. M-272-fond – Vobkent tuman davlat arxivi.
3. Усмонов Ш. Ёруғ кунларга ишонч. // Бухоро ҳақиқати. 1993-йил
4. https://lex.uz/docs/-126617 (O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 29.06.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.03.1993 y. 137-son “Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risid”»gi qarori [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: BUXGALTER.UZ (murojaat qilingan sana: 08.06.2026).

AMIR SHOHMURODNING MANG‘ITLAR SULOLASIDAGI O‘RNI: DAVLAT BOSHQARUVI, ISLOHOTLAR

Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich

Osiyo xalqaro universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Buxoro amirligi Markaziy Osiyo tarixidagi eng nufuzli va uzoq vaqt mavjud bo‘lgan davlatlardan biri bo‘lib, u o‘zining 250 yillik tarixi davomida ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni boshidan kechirdi. Ayniqsa, XVIII asr oxiri — XIX asr boshlari Buxoro tarixida muhim o‘zgarishlar va tub burilishlar davri hisoblanadi. Aynan shu davrda Mang‘itlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelib, o‘z hukmronligini rasmiy jihatdan mustahkamladi va Buxoro amirligi taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu jarayonda Amir Shohmurod (1785–1800) alohida o‘rin tutadi — u Mang‘itlar sulolasining ilk rasmiy amiri bo‘lib, mamlakatni 15 yil davomida boshqargan.

Amir Shohmurodning tarixiy ahamiyati shundaki, u nafaqat siyosiy hokimiyatni kuchaytirgan, balki davlat boshqaruvini takomillashtirgan, iqtisodiyotni qayta tiklashga intilgan, ilm-fan va madaniyatga katta e’tibor qaratgan hamda adolatli boshqaruv tamoyillarini amalda joriy

etgan. Xalq orasida “Amiri ma’sum” (Begunoh amir) va “Umari soniy” (Ikkinchi Umar) kabi faxriy unvonlar bilan ulug‘langan bu hukmdor Buxoro tarixida adolat, ma’rifat va bunyodkorlikning yorqin timsoli sifatida qolgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — Amir Shohmurodning Buxoro tarixidagi tutgan o‘rni, uning davlat boshqaruvidagi islohotlari, iqtisodiy va madaniy faoliyati, shuningdek, uning shaxsiyati va ilmiy merosini tarixiy manbalar asosida atroflicha va kompleks tarzda yoritishdan iborat. Maqolada asosan Mirzo Abdulazim Somiy, Ahmad Donish, Mirza Olimiy kabi tarixchilarning ilmiy va tarixiy asarlariga tayaniladi. Amir Shohmurod hokimiyatga kelgan davrda Buxoro amirligi murakkab siyosiy va iqtisodiy vaziyatni boshdan kechirayotgan edi. XVIII asr o‘rtalaridan boshlab Ashxoriyxonlar sulolasi asta-sekin zaiflashib, markaziy hokimiyat o‘z mavqeini yo‘qota boshlagan, viloyat hokimlari (beklar) esa amalda mustaqil siyosat olib borgan. Bunday vaziyatda Muhammad Doniyolbiy otaliq (1758–1785) amalda davlatni boshqarib, Mang‘itlar sulolasining hokimiyatini yanada mustahkamlashga erishgan edi. Biroq u rasmiy ravishda amir unvonini olmagan — hokimiyat rasmiy jihatdan Chingiziy xon Abulg‘ozixon (1758–1785) qo‘lida bo‘lgan. 1785-yilda Muhammad Doniyolbiy vafot etgach, Shohmurod “amirul umaro” unvonini qabul qilib, Abulg‘ozixonni taxtdan chetlashtirdi va o‘zini Buxoro amiri deb e’lon qildi. Bu voqea Buxoro tarixida muhim tarixiy burilish bo‘ldi, chunki Mang‘itlar sulolasi hukmronligi rasmiy tus oldi va mamlakat tarixida yangi davr boshlandi.

Amir Shohmurod 1741-yilda (ba’zi manbalarda 1740–1742-yillar oralig‘ida) Buxoroda tug‘ilgan. U Muhammad Doniyolbiy otaliqning katta o‘g‘li bo‘lib, yoshligidanoq ilm olishga kuchli qiziqish bildirgan. U Mir Arab madrasasida tahsil olgan, Qur’on va hadislarni puxta o‘rgangan, tasavvuf ilmiga qiziqib, taqvodor va so‘fiyona hayot tarzini kechirgan. Otasi vafot etgach (1785-yil 9-iyun), Shohmurod hech qanday harbiy to‘ntarish yoki zo‘ravonliksiz, otasining vasiyatiga binoan hokimiyatni tinch yo‘l bilan qabul qildi. U Abulg‘ozixonga Buxoro shahridan joy berib, o‘zi va oilasi uchun umrbod moddiy ta’minot tayinladi. Bu bilan Shohmurod davlat boshqaruvida siyosiy davomiylikni ta’minladi va sulolaviy hokimiyatni yanada barqarorlashtirdi. Tarixchi Mirzo Abdulazim Somiy o‘zining “Tarixi salotini mang‘itiya” asarida bu voqeani batafsil bayon qilib, Shohmurodning adolatparvar va uzoqni ko‘ra biluvchi siyosatini yuqori baholaydi.
Savdo-sotiq markazlari sifatida to‘qqizta tim va chorsu faoliyat yuritgan. Buxoro iqtisodiyotida hunarmandchilik ham muhim ahamiyat kasb etgan — zargarlik, kulolchilik, to‘qimachilik, ko‘nchilik kabi an’anaviy hunar turlari rivojlangan. Qishloq xo‘jaligida ham muhim o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Zarafshon vodiysida dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Zarafshon daryosidan Qozonariq, Toyman arig‘i, To‘g‘uzariq kabi yirik sug‘orish tarmoqlari chiqarildi. Oqdaryo va Qoradaryodan yangi sug‘orish inshootlari bunyod etilib, ekin maydonlari kengaytirildi. Bu ishlar natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (bug‘doy, paxta, meva-sabzavot) yetishtirish hajmi ancha oshdi.

Amir Shohmurod faoliyatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri — Samarqandning qayta tiklanishi va obod etilishidir. XVIII asrda Samarqand bir necha bor bosqinlarga uchrab, jiddiy vayronagarchilikka yuz tutgan edi. Shaharda doimiy aholi soni keskin kamayib, deyarli hech kim qolmagan edi. Shohmurod Samarqandni qayta qurish rejasini shaxsan o‘zi ishlab chiqqan — bu uning shaharsozlik va me’morchilik sohasidagi bilim va tajribasidan darak beradi. U shaharda 24 ta mavze (mahalla) barpo ettirgan va mamlakatning sharqiy viloyatlaridan (Xuroson, Marv, Balx) ko‘plab oilalarni ko‘chirib keltirgan. Shahar markazida olti qirrali “Toqi musaddas” (Chorsu) bunyod etilgan — bu yirik savdo maskani va jamoat hayotining muhim markaziga aylangan. Samarqandda masjid, madrasa, hammom va bozorlar qayta ta’mirlanib, faoliyati tiklangan. Shohmurodning Samarqandga bo‘lgan e’tibori nafaqat strategik (sharqiy viloyatlarni nazorat qilish), balki madaniy va ramziy jihatdan ham katta ahamiyatga ega edi. U Samarqandni Temuriylar davridagi avvalgi shon-shuhrati va ulug‘vorligiga qaytarishga intilgan.

Shohmurod taxtga chiqishidan oldin ko‘plab ilm maskanlari e’tiborsiz va qarovsiz holga kelib qolgan edi. U hukmronligi davrida ilm-fanga alohida e’tibor va g‘amxo‘rlik qaratdi. Vaqf mulklarini tartibga solib, madrasalarni ta’mirlatdi va ularning moliyaviy asoslarini mustahkamladi. Buxoro va Samarqandga ko‘plab ilm izlovchilar va talabalar kela boshlagan.

Manbalarda uning davrida Buxoro madrasalarida 30 000 ga yaqin talaba tahsil olgani ta'kidlanadi. Bu raqam o'sha davr uchun nihoyatda yuqori ko'rsatkich bo'lib, uning ilm-fan va ta'limga bo'lgan yuksak e'tiboridan dalolat beradi.

Shohmurodning o'zi ham yetuk va bilimdon olimlardan biri bo'lgan. U hanafiya mazhabiga doir "Fatavayi ahli Buxoro" ("Buxoro ahliga fatvolar") to'plamini tuzgan va "Ayn fihikmat" ("Donishmandlik asoslari") asarini yozgan. U fiqh, qiroat va hadis ilmlarining chuqur bilimdoni bo'lib, Mir Arab madrasasida talabalarga ta'lim bergan. Tashqi siyosatda Shohmurod Buxoro amirligining hududiy yaxlitligini saqlab qolish va uning chegaralarini kengaytirishga intilgan. U Marv, Balx, Hirot, Maymana va boshqa hududlarni Buxoroga qaytarish maqsadida Xurosonga bir necha harbiy yurishlar uyushtirgan (1789–1790, 1792, 1796). Ayniqsa, 1789–1790-yillardagi yurish nisbatan muvaffaqiyatli kechib, Marvda o'z hokimiyatini o'rnatgan va ko'plab aholini Samarqandga ko'chirishga sabab bo'lgan. U sunniy islom himoyachisi sifatida shialik tarafdorlariga qarshi kurashgan. Bu uning diniy siyosatida muhim yo'nalishlardan birini tashkil etgan — u o'zini butun musulmon dunyosining diniy homiysi va hukmdori sifatida ko'rgan. Usmonli turk sultonligiga bir necha marta diplomatik elchilar yuborgan. 1795–1796-yillarda Rossiyaga ham elchilar yuborilib, ikki davlat o'rtasidagi diplomatik va savdo aloqalari yanada rivojlangan. Tashqi siyosatda Shohmurod nisbatan mustaqil, izchil va qat'iy siyosiy yo'nalishni egallagan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Donish, A. (XIX asr). Tarixi amironi mang'itiya. Qo'lyozma. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi.
2. Somiy, M.A. (XIX asr). Tarixi salotini mang'itiya. Qo'lyozma. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi.
3. Olimiy, M. (XIX asr). Tarixi Buxoro. Qo'lyozma.
4. Rajabov, Q. (2001). Shohmurod. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Xakimov, J. (2022). Amirlikda savdo-sotiqning rivojlanishi (Amir Shohmurod misolida). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.6602160
6. Mahmudov, D. (2023). O'zbek davlatchiligi tarixida Amir Shohmurodning tutgan o'rni. Iqro jurnali, 4(2), 45–59.
7. Muhammad Shohmurod. (2024). Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Shohmurod
8. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. (2001). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA nashriyoti.
9. Bartol'd, V.V. (1963). Sochineniya (III-jild). Moskva: Nauka.
10. Ahmedov, B. (1994). Buxoro amirligi tarixi. Toshkent: Ma'naviyat.

KORRUPSIYA VA UNING SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI TA'SIRI

Fazilov Said Shavkatovich
Buxoro davlat tibbiyot instituti o`qituvchisi

Bugungi kunda korrupsiya atamasi qulog'imizga bot-bot chalinib kelmoqda.Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda korrupsiyaga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda.
Korrupsiya – (lotincha corumpere atamasidan olingan bo'lib) mansabdor shaxsning o'ziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishini bildiruvchi atama.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqaladi.Korrupsiyaning paydo bo'lishini olimlar, qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqanligini taxmin qiladilar.Qadimgi davrda bu normal holat sifatida ko'rilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan davlatlarning markaziylashuvi va davlat apparatlarining murakkablashuvi korrupsiya davlatning rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatgan.

Insoniyat tarixida korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi bo'lib, Shumerlar davlati tan olinadi.Biroq Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari va huquqiy asoslari to'g'risida qonunchilik birinchi Hindistonda yaratilgan.Bundan 2500 yil oldin yozilgan "Artxashastra yoxud siyosat ilmi" kitobining 26-bo'limi korrupsiyaga bag'ishlangan.Ushbu bo'limda korrupsiya so'zi "o'zlashtirish" atamasi bilan ifodalangan. Artxashastra yoxud siyosat ilmi kitobida poraxo'rlikning 40 ta turi tasnif etilgan.

Korrupsiya atamasini birinchi bo'lib bugungi kundagi atamaga yaqin ma'noda ishlatgan mashhur italyan siyosatchi va faylasufi Nikkolo Makiavelli bo'lib unga quyidagicha ta'rif beradi: "Davlat imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish" va "mansabdor shaxslar tomonidan talon taroj qilish tizimi".

Huquqshunoslarning o'rganishlari davomida korrupsiyaning 3 asosiy turi yoritilgan: Favoritizm, Nepotizm va Kronim turlari.

Favoritizm – bu mansabdor shaxsning shaxsiy xohish istagi asosida ayrim kishilarga adolatdan chetga chiqib,imtiyoz va afzalliklar berish.

Nepotizm – bu mansabdor shaxsning qarindosh-urug'lariga yoki oila a'zolariga lavozim, moddiy yoki boshqa afzalliklarni nohaq tarzda taqdim etish.Jamiyatda adolat va teng imkoniyat tamoyillarini buzuvchi qarindoshlik asosidagi korrupsiya turi sanaladi.

Kronizm – mas'ul shaxsning yoki mansabdor shaxsning do'stlari,tanishlari yoki sobiq hamkasblarini adolatli tanlovsiz, sodiqligi evaziga qo'llab-quvvatlash holati.

Izlanishlar davomida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi 4 asosiy sabab yoritmoqchiman.

1. Iqtisodiy sabablar: ish haqining pastligi,kambag'allik va iqtisodiy tengsizliklar korrupsiyaga turtki bo'ladi.Misol tariqasida aytib o'tishimiz mumkinki, agarda davlat xodimlarining oylik daromadlari shaxsiy ehtiyojlari uchun yetmasa, korrupsiyaning sodir ehtimoli yuqori bo'ladi.Ya'ni, ish haqining pastligi ijtimoiy tengsizlikka olib keladi, Ijtimoiy tengsizlik esa korrupsiya darajasining o'sishini ta'minlaydi.Singapur davlatini misol qilib oladigan bo'lsak, hozirgi kunda dunyoda korrupsiyani yengan davlat davlat sifatida qaraladi. Singapur 2 asosiy islohot orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda ilg'or natijalarga erishib kelmoqda. Davlat xodimlarining maoshlarini ko'tarish va korrupsiya sodir etgan jinoyatchilar uchun o'ta qat'iy jazo choralarini joriy etish.
2. Siyosiy omillar – qaror qabul qilish jarayonlarining yopiqligi nazoratni qiynlashtiradi. Mansabdor shaxslarning javobgarligi past bo'lishi. Siyosiy omilga misol qilib, ishga kirish jarayonlarining yopiqligi korrupsiya darajasini oshirishini aytishimiz mumkin. Ishga kirish jarayonlarining qolgan nomzodlar oldida ochiq va shaffof o'tkazilishi kerak, aks holda jarayonlarning yopiqligi korrupsiya darajasining o'sishiga xizmat qiladi.
3. Madaniy omillar – Aholining huquqiy madaniyati(ongi) past bo'lishi oqibatida korrupsiya holatlariga duch kelish ko'payadi. Aholining o'z haq-huquqlarini bilmasliklari tufayli turli korrupsion aldovlarga duch kelishi.
4. Qonunchilikdagi bo'shliqlar – hujjatlardagi noaniqliklar va zaif huquqiy me'yorlar korrupsion harakatlarga yo'l ochadi.

Har yili dunyo miqyosida korrupsiyaning darajasini o'rganadigan tashkilot bu - Transparency International Anticorruption center hisoblanadi.Bu korrupsiyaga qarshi kurashuvchi xalqaro nodavlat tashkilot hisoblanib,1993-yil Berlinda tashkil etilgan.

2025-yil yakunlari bo'yicha korrupsiya darajasi eng past Top-10 mamlakatlar quyidagilar:

1. Daniya – 89 ball
2. Finlandiya – 88 ball
3. Singapur – 84 ball
4. Yangi Zelandiya – 84 ball
5. Norvegiya – 81 ball
6. Shvetsiya – 81 ball
7. Shvetsariya – 80 ball
8. Lyuksembur – 78 ball
9. Niderlandiya – 78 ball

10. Germaniya – 77 ball

So’ngi yil yakuni statistikasiga ko’ra O‘zbekiston 182ta davlat orasidan 124 o’rinni egalladi,korrupsiyaga qarshi kurash ko’rsatkichi esa 100 baldan 31 ball oldi.

Yurtimizda korrupsiya holatlarini kamaytirish va farovon davlat barpo etish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tuzilgan. O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 29-iyundagi O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tuzish to’g’risida qarori qabul qilingan.

Sog’liqni saqlash sohasida korrupsiyaning ta’siri haqida gapiradigan bo’lsak, buning natijasi juda ham og’ir hisoblanadi. Hozirgi kunda bilimli va tajribali shifokor bo’lish juda ham qiyn. Sababi shundaki, tibbiyot instituti talabalarining 6 yil davomida olishi kerak bo’lgan bilimi juda ham ko’p. Biroq ba’zi talabalar qiynchilikdan qochish maqsadida, bilim olishdan ko’ra oson va yomon yo’lni qidirishadi, ya’ni korrupsiya orqali hech qanday qiynchiliklarsiz baholanishning yo’lini qidirishadi.Tajribamdan kelib chiqib, shuni ayta olamanki, har bir sohaning o’ziga yarasha mas’uliyati mavjud, biroq sog’liqni saqlash sohasi kabi biror sohaning javobgarligi yuqori emas.Chunki bu soha to’g’ridan-to’g’ri inson hayotining xavfsizligi bilan, sog’lig’i bilan bog’liq hisoblanadi.

Korrupsiya sog’liqni saqlashda faqat iqtisodiy muammo emas.Balki u bemorlarning xavfsizligi,tibbiy xizmat sifati,tenglik va jamiyatning tibbiyot tizimiga bo’lgan ishonchiga bevosita ta’sir qiladi.

Agarda maktab va oliy ta’limdagi talabalar o’qish va bilim olish o’rniga pul, korrupsiya orqali ta’limni davom ettirishsa, ishga kirish jarayonlarini korrupsiya orqali amalga oshirishsa, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda korrupsiya to’sqinlik qilsa, jamiyatning rivojlanishi zavolga yuz tutadi.Fuqarolarning siyosiy hukumatga va uning chiqaradigan qarorlariga bo’lgan ishonchi yo’qoladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash – bu faqat qonuniy majburiyat emas, balki inson hayoti va so’g’lig’ini himoya qilish, tibbiyotga bo’lgan ishonchn mustahkamlash va adolatni jamiyat qurishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Central Asian journal of education and innovation 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.06.2020 yildagi PQ-4761-son.
3. Dilshoda Shomirzayeva maqola Korrupsiya darajasi bo’yicha xalqaro reytingda O’zbekiston 3 pog’ona pastladi.
4. Jahon nasri onlayn antologiyasi: Nikkolo Makiavelli

JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

F.N.Jumayev

Osiyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida jamiyat a’zolarining huquqiy madaniyat darajasi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Qonunlar qanchalik mukammal ishlab chiqilmasin, ular fuqarolar tomonidan chuqur anglanmasa va ichki e’tiqodga aylanmasa, huquqiy tartibotni ta’minlash mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu tamoyilning amalda ro‘yobga chiqishi aynan jamiyatning huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir[1].

Huquqiy madaniyat bu shaxsning huquqiy bilimlari, huquqqa nisbatan ijobiy munosabati, huquqiy e’tiqodi hamda kundalik xatti-harakatlarida qonun talablariga rioya qilish odatining uyg‘un birligidir. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, huquqiy madaniyat tarkibiga uch asosiy unsur kiradi: huquqiy ong (bilim va tasavvurlar darajasi), huquqiy faoliyat (huquqni amalda qo‘llash tajribasi) va huquqiy institutlar (huquqni muhofaza qiluvchi tizimning holati)[2]. Ushbu unsurlarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, faqat ularning muvozanatli rivojlanishi jamiyatda barqaror huquqiy tartibotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Fikrimcha, huquqiy madaniyatni faqat huquqiy bilimlarning yig‘indisi sifatida tushunish yetarli emas, chunki nazariy bilimga ega shaxs ham amalda qonunni buzishi mumkin. Shu sababli huquqiy madaniyatning markaziy unsuri sifatida shaxsning qonunga ichki e’tiqodli munosabatini, ya’ni huquqiy qadriyatlarning shaxsiy dunyoqarashga aylanish darajasini belgilash zarur. Aynan shu jihat huquqiy ta’lim bilan huquqiy tarbiyani farqlashning ilmiy-amaliy zaruriyatini ko‘rsatadi: birinchisi bilim berishga, ikkinchisi esa munosabat shakllantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi qarori bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” tasdiqlangan edi[3]. Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” tasdiqlanib, unda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy ta’lim tizimini takomillashtirish va aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[4].

Shunga qaramay, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda huquqiy nigilizm ya’ni qonunga nisbatan e’tiborsiz yoxud salbiy munosabat hodisasi hamon saqlanib qolmoqda. Bunga sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, huquqiy ta’lim va tarbiya ishlarining tizimli va uzluksiz tashkil etilmaganligi; ikkinchidan, oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu jarayonga yetarlicha jalb qilinmaganligi; uchinchidan, raqamli makon va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan noto‘g‘ri yoxud chalg‘ituvchi huquqiy ma’lumotlarning aholi, ayniqsa yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi[5].

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda huquqiy ta’lim maktab ta’limining ajralmas qismi sifatida qaralib, o‘quvchilarga yoshlikdanoq fuqarolik huquq va majburiyatlari, huquqiy javobgarlik tushunchalari amaliy misollar orqali singdiriladi. Bunday yondashuv shaxsda huquqiy madaniyatning nazariy emas, balki amaliy-xulq-atvor darajasida shakllanishini ta’minlaydi. Fikrimizcha, ushbu tajribani milliy ta’lim tizimimizga moslashtirilgan holda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda institutsional omillarning o‘rni ham beqiyosdir. Ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, mahalla institutlari va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining muvofiqlashtirilgan faoliyati bo‘lmasa, faqat me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi kutilgan natijani bermaydi. Shu bois huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat organlarining emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasi sifatida qaralishi lozim.

Alohida ta’kidlash joizki, huquqiy madaniyat tushunchasini huquqiy axloq bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Agar huquqiy madaniyat shaxsning qonunga munosabatini ifodalasa, huquqiy axloq esa ushbu munosabatning ma’naviy-axloqiy asosini, ya’ni adolat, insof va halollik kabi qadriyatlarga tayanishini bildiradi. Boshqacha aytganda, qonunga faqat jazodan qo‘rqqani uchun emas, balki ichki axloqiy e’tiqodi tufayli rioya qiluvchi shaxsdagina yuksak huquqiy madaniyat mavjud, deb aytish mumkin. Shu nuqtai nazardan, huquqiy tarbiya jarayonida huquqiy bilim berish bilan bir qatorda axloqiy-ma’naviy tarbiyaga ham teng darajada e’tibor qaratilishi zarur.

Kasbiy guruhlar kesimida ham huquqiy madaniyat darajasi bir xil emas. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, sudyalar, advokatlar va davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyati oddiy fuqarolarnikiga nisbatan yuqoriroq talab darajasida bo‘lishi lozim, chunki ularning har bir qarori ko‘plab insonlar taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Amaliyotda uchraydigan mansab vakolatidan suiiste’mol qilish, byurokratik kechiktirishlar yoxud fuqarolarga nisbatan beparvo munosabat kabi holatlar aynan mansabdor shaxslarning huquqiy-axloqiy madaniyati yetarli shakllanmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli davlat xizmatiga kadrlar tanlashda nafaqat kasbiy bilim, balki huquqiy-axloqiy sifatlarni ham baholash mezonlarini joriy etish taklif etiladi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya davrida huquqiy madaniyatning yangi “raqamli huquqiy madaniyat” degan qatlami shakllanib bormoqda. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanish, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligiga rioya etish, internet makonida boshqa shaxslarning

huquq va qadr-qimmatini hurmat qilish kabi ko‘nikmalar zamonaviy huquqiy madaniyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Fikrimizcha, huquqiy ta’lim dasturlariga raqamli huquqiy savodxonlik mavzularini alohida yo‘nalish sifatida kiritish davr talabidir.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish jarayonining muhim bosqichlaridan biri uning darajasini ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholash va monitoring qilishdir. Hozirgi kunda ko‘pchilik davlat organlari huquqiy targ‘ibot ishlarini asosan miqdoriy ko‘rsatkichlar (o‘tkazilgan tadbirlar soni, tarqatilgan bukletlar hajmi) bilan baholaydi, biroq bu yondashuv jamiyatda huquqiy ongning sifat jihatidan qanday o‘zgarganini to‘liq aks ettirmaydi. Fikrimizcha, huquqiy madaniyat darajasini baholashda sifat ko‘rsatkichlariga, jumladan fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga yoki vakolatli organlarga murojaat qilish faolligiga, shuningdek ijtimoiy so‘rovlar natijalariga tayanish zarur. Bunday yondashuv huquqiy targ‘ibot ishlarining haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi[6].

Ta’lim tizimi huquqiy madaniyatni shakllantirishning eng ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Umumta’lim maktablarida “Huquq asoslari” fanining mavjudligi ijobiy hodisa bo‘lsa-da, uning ko‘pincha nazariy-yodlash uslubida o‘qitilishi kutilgan natijani bermayapti. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar masalan, amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, o‘quv sudlari tashkil etish, huquqiy klublar faoliyatini yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarda huquqiy bilimni nafaqat yodlash, balki amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi. Oliy ta’lim bosqichida esa huquqshunoslikka aloqador bo‘lmagan yo‘nalishlarda ham “Fuqarolik huquqiy savodxonligi” kabi umumkasbiy fanlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir, chunki huquqiy madaniyat faqat huquqshunoslarning emas, balki jamiyatning barcha a’zolarining ehtiyoji hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy sharoitda fuqarolarning katta qismi huquqiy ma’lumotni rasmiy manbalardan emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy sahifalardan olishga moyil, bu esa noaniq va ba’zan noto‘g‘ri huquqiy talqinlarning tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli davlat organlari va yuridik ta’lim muassasalari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy, tushunarli va ishonchli huquqiy kontent yaratish bo‘yicha maxsus strategiya ishlab chiqilishi, shuningdek huquqshunos-bloggerlar va mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda fuqarolik-huquqiy ta’lim maktab dasturining barcha bosqichlarida uzluksiz tarzda olib boriladi va u faqat huquq fanlari bilan emas, balki tarix, ijtimoiyshunoslik kabi fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitiladi. AQShda esa maktab va kollejlarda “moot court” - o‘quv sud jarayonlari keng tarqalgan bo‘lib, bu o‘quvchilarga huquqiy tafakkurni amaliy tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu tajribalarning umumiy xususiyati shundaki, huquqiy ta’lim alohida, uzilib qolgan fan sifatida emas, balki shaxsning umumiy fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Fikrimizcha, milliy ta’lim tizimida ham xuddi shunday integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, huquqiy madaniyat darajasi bilan korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini alohida ta’kidlash lozim. Fuqarolarning o‘z huquqlarini yaxshi bilishi, davlat xizmatlaridan foydalanish tartib-qoidalaridan xabardorligi ularni noqonuniy talablarga, jumladan poraxo‘rlikka qarshi turishga imkon beradi. Aksincha, huquqiy bilimsizlik fuqarolarni mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlariga nisbatan himoyasiz qilib qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashning ham muhim vositasi sifatida qaralishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni alohida ta’kidlash joizki, huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlar faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki adliya tizimining vakolati doirasida qolib ketmasligi, balki ta’lim, madaniyat, raqamli texnologiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarini birlashtiruvchi kompleks davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi lozim. Faqat shunday kompleks va uzluksiz yondashuv orqaligina jamiyatda barqaror huquqiy madaniyatni

shakllantirish, natijada esa huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish g‘oyasini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqiy davlat qurishning muhim shartlaridan biri bo‘lib, u uzluksiz, tizimli va ko‘p bosqichli jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur, deb hisoblaymiz: huquqiy ta’lim va tarbiyani maktabgacha ta’limdan boshlab uzluksiz tizimga aylantirish; raqamli platformalar orqali fuqarolarga sifatli va ishonchli huquqiy ma’lumot yetkazib berish mexanizmlarini kuchaytirish; oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash; huquqiy madaniyat darajasini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. // https://lex.uz/docs/6445145
2. Xolmuminov J.R. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat: nazariy-huquqiy tahlil // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №4.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // https://lex.uz/docs/4179975
5. Karimova N.T. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davr talabi // Cyberleninka ilmiy elektron kutubxonasi. // https://cyberleninka.ru
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. // https://lex.uz

TOSHKENT VA SIRDARYO VILOYATLARIDA DONCHILIK TARMOG‘INING RIVOJLANISH TARIXI (1945–1991-YILLAR)

Gulyamov Alisher Azizovich
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Don ekinlari – bug‘doy, arpa, sholi, makkajo‘xori – qadim zamonlardan buyon Sirdaryo va Chirchiq daryolari vodiylarida sug‘oriladigan dehqonchilikning tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib kelgan. Non aholi ovqatlanishining asosiy manbai, don esa chorvachilik uchun yem-xashak bazasi sifatida mintaqa xo‘jaligida doimiy ahamiyat kasb etgan.

XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davridan boshlab, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari qishloq xo‘jaligi tarkibida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Markazlashgan sovet reja iqtisodiyoti sharoitida respublika xo‘jaligi ittifoq miqyosidagi ixtisoslashuv tizimiga tobora chuqurroq tortildi, bunda O‘zbekistonga, jumladan uning shimoliy-sharqiy hududlariga, birinchi navbatda paxta xom ashyosi yetkazib berish vazifasi yuklatildi. Natijada sug‘oriladigan yerlar, suv resurslari va kapital mablag‘larning taqsimotida donchilikka nisbatan paxtachilikning ustuvorligi izchil kuchayib bordi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston oldida qayta g‘alla va oziq-ovqat mustaqilligiga erishish strategik vazifasi ko‘ndalang bo‘lib turdi – bu esa sovet davrida donchilik tarmog‘ining qanday va nima sababdan orqa planga surilganini tarixiy jihatdan chuqur anglashni taqozo etadi. Toshkent va Sirdaryo viloyatlari, xususan Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi misolida, bu jarayonning yorqin namunasini kuzatish mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning sovet davri agrar tarixiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar chop etildi. Xususan, Samarqand viloyati misolida paxtachilikning yetakchi tarmoqqa aylanishi va bu jarayonning oziq-ovqat ta’minotiga ta’siri [1] hamda Qashqadaryo viloyatida Qarshi cho‘lining paxta yetishtirish maqsadida o‘zlashtirilishi tarixi [2] alohida tadqiqotlar predmeti bo‘lgan. Shunga qaramay, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida aynan donchilik

tarmog‘ining taqdiri maxsus tadqiqot ob’yekti sifatida yetarlicha yoritilmagan, bu esa ushbu maqolaning yozilishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsadi – mavjud ilmiy adabiyotlar asosida 1945–1991-yillarda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida donchilik tarmog‘ining tarixiy taqdirini, uning paxta monokulturasi sharoitida ikkinchi darajali tarmoqqa aylanish sabablarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- urushdan keyingi tiklanish davrida (1945–1953) donchilikning qishloq xo‘jaligidagi umumiy o‘rnini aniqlash;
- Mirzacho‘lni sug‘orish va o‘zlashtirish siyosatining, jumladan Sirdaryo viloyatining tashkil topishining, donchilikka bilvosita ta’sirini ko‘rsatish;
- paxta monokulturasining kuchayishi jarayonida donchilikning ikkinchi darajali tarmoqqa aylanish sabablarini tahlil qilish;
- donchilikning mintaqada saqlanib qolgan geografik zonalarini aniqlash;
- mustaqillik arafasidagi vaziyatni va uning keyingi davrga ta’sirini umumlashtirish.

Ushbu maqola nashr etilgan ilmiy adabiyotlar – jurnal maqolalari, dissertatsiya avtoreferatlari va rasmiy statistik ma’lumotlar – tahliliga asoslangan; mavzu bo‘yicha birlamchi arxiv hujjatlari ushbu tadqiqot doirasida maxsus tarzda o‘rganilmagan. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metod (Toshkent-Sirdaryo hududidagi jarayonlarni Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi o‘xshash jarayonlar bilan qiyoslash), xronologik metod (voqealarni izchil davrlarga bo‘lib tahlil qilish) hamda tizimli yondashuv (donchilikning boshqa tarmoqlar – paxtachilik, suv xo‘jaligi, aholi migratsiyasi – bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish) qo‘llanildi.

Alohida ta’kidlash lozimki, don ekin maydonlari va hosildorligining Toshkent va Sirdaryo viloyatlari kesimidagi yillik statistik ko‘rsatkichlari (masalan, sobiq «O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi» statistik to‘plamlarida keltirilgan ma’lumotlar) ushbu tadqiqot doirasida to‘liq holda qo‘lga kiritilmadi. Shu sababli tahlil asosan institutsional-siyosiy jarayonga – qarorlar, hududiy-ma’muriy o‘zgarishlar va tarmoqlararo resurs taqsimotiga – qaratildi, aniq yillik ko‘rsatkichlar esa faqat mavjud manbalarda keltirilgan holatlardagina ishlatildi. Bu – kelgusida arxiv hujjatlari asosida chuqurroq statistik tahlil o‘tkazish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Ikkinchi jahon urushining tugashi respublika qishloq xo‘jaligi oldiga xo‘jalikni tiklash va ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etish vazifalarini qo‘ydi. Urush yillarida frontga safarbar etilgan erkaklar o‘rnini asosan ayollar, o‘smirlar va keksalar egalladi, bu esa dehqonchilikning barcha tarmoqlarida, jumladan donchilikda ham, mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. To‘rtinchi besh yillik reja (1946–1950) doirasida respublika xo‘jaligini tiklash umumiy vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa-da, markazlashgan reja tizimida allaqachon paxta xom ashyosiga ustuvor e’tibor berish tendensiyasi shakllana boshlagan edi. Aynan shu davrda respublika miqyosida qishloq xo‘jaligi ekinlari tarkibida paxtaning ulushini oshirish yo‘nalishidagi siyosat kelgusi o‘n yilliklarda donchilikning tobora orqa planga surilishiga zamin tayyorladi.

1956-yil 6-avgustda qabul qilingan hukumat qarori O‘zbekiston SSR va Qozog‘iston SSR hududidagi Mirzacho‘lning (Golodnaya step) qo‘riq yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirishni belgilab berdi. Muhim jihati shundaki, ushbu qaror bevosita “paxta yetishtirishni ko‘paytirish” maqsadida qabul qilingan edi – ya’ni yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarning eng katta qismi boshidanoq don emas, aynan paxta ekinlariga mo‘ljallangan edi. Bu – mintaqada keyingi o‘n yilliklarda shakllanadigan yer-suv taqsimoti mantig‘ining ilk va aniq ko‘rsatkichi bo‘ldi.

Mirzacho‘lni keng miqyosda o‘zlashtirish jarayonining institutsional natijasi sifatida 1963-yil 16-fevralda Sirdaryo viloyati Toshkent viloyati tarkibidan ajratilib, mustaqil ma’muriy-hududiy birlik sifatida tashkil etildi. Boshqacha aytganda, hozirgi Sirdaryo viloyatining o‘zi ham paxta yetishtirishni kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan davlat siyosatining bevosita mahsuli edi, bu esa mintaqaning dastlabki xo‘jalik yo‘nalishida donchilikka emas, paxtachilikka ustuvorlik berilganini yaqqol ko‘rsatadi.

Yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarni ishchi kuchi bilan ta’minlash maqsadida respublikaning boshqa hududlaridan Mirzacho‘lga aholini ko‘chirish siyosati olib borildi; bu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari maxsus tarixiy tadqiqotda o‘rganilgan. Ko‘chirilgan aholining asosiy

qismi yangi tashkil etilayotgan paxtachilik sovxozlarida band etilgani, don yetishtirishning esa bu yangi xo‘jaliklarda yordamchi, ikkinchi darajali yo‘nalish sifatida saqlanib qolgani manbalarda qayd etiladi.

1960-yillardan boshlab respublikada paxta ekin maydonlari izchil kengaytirilib, 1980-yillarga kelib paxta umumiy ekin maydonining 60 foizidan ortig‘ini tashkil etdi; O‘zbekiston SSR ittifoqda yetishtirilgan paxtaning qariyb 70 foizini yetkazib berar, yiliga o‘rtacha 5–6 million tonna xom paxta olinar edi. Toshkent va Sirdaryo viloyatlari, sug‘oriladigan yer maydonlarining kengligi va suv resurslariga yaqinligi tufayli, aynan shu umumrespublika ixtisoslashuv tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Ushbu jarayonning bevosita natijasi sifatida donchilik, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat ekinlari “ikkinchi darajali sohalarga” aylandi, bu esa respublikaning oziq-ovqat xavfsizligini markazdan yetkaziladigan g‘allaga bog‘liq qilib qo‘ydi. Boshqacha aytganda, mintaqa o‘z aholisini boqish uchun zarur donni to‘liq o‘zi yetishtirmay, buning o‘rniga ittifoqning boshqa respublikalaridan (birinchi navbatda Rossiya va Qozog‘iston hududlaridan) keltiriladigan g‘allaga tobora ko‘proq qaram bo‘lib bordi.

Bu davrda Amudaryo va Sirdaryo suvlarining katta qismi aynan paxta dalalariga yo‘naltirilib, Amu-Buxoro kanali, Qarshi magistral kanali kabi yirik irrigatsiya inshootlari qurildi, Mirzacho‘l va Jizzax cho‘lini o‘zlashtirish loyihalari davom ettirildi. Qisqa muddatda hosildorlikni oshirgan bu jarayon uzoq muddatli ekologik oqibatlarga – Orol dengizi suv sathining pasayishi va tuproq sho‘rlanishining kuchayishiga – olib keldi, bu esa donchilik uchun ham, umuman sug‘oriladigan dehqonchilik uchun ham noqulay sharoit yaratdi.

Samarqand viloyati misolida o‘tkazilgan tadqiqot ham xuddi shunday manzarani tasdiqlaydi: urushdan keyingi yillarda paxtachilikning yetakchi tarmoqqa aylanishi bilan bir qatorda ekin maydonlarining qayta taqsimlanishi va bir yoqlama ixtisoslashuvning oziq-ovqat ta’minoti hamda yem-baza muammolariga salbiy ta’sir ko‘rsatgani qayd etiladi. Demak, donchilikning ikkinchi darajali tarmoqqa aylanishi faqat Toshkent-Sirdaryo mintaqasiga xos bo‘lmay, respublikaning boshqa sug‘oriladigan hududlarida ham kuzatilgan umumiy tendensiya bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyatidagi Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish loyihasi misolida ham xuddi shu mantiq amal qildi: loyihaning birinchi navbatiga 1 milliard 960 million rubl kapital mablag‘ ajratilib, tashkil etilgan 47 ta davlat xo‘jaligining 33 tasi maxsus paxtachilik yo‘nalishida bo‘lgan. Bu raqamlar yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarda davlat kapital qo‘yilmalari va tashkiliy resurslarning qanchalik keng ko‘lamda aynan paxtachilik foydasiga taqsimlanganini, donchilik esa bunday maqsadli davlat dasturlari e’tiboridan chetda qolganini yaqqol ko‘rsatadi.

Paxta monokulturasi asosan tekislik va yaxshi sug‘oriladigan hududlarda hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, donchilik butunlay yo‘qolib ketmadi – u tabiiy-geografik sharoit tufayli paxta uchun unchalik qulay bo‘lmagan zonalarda nisbatan saqlanib qoldi. Toshkent viloyatining tog‘ etaklarida, sug‘orish imkoniyati cheklangan lalmikor yerlarda an’anaviy ravishda bug‘doy va arpa yetishtirilgan, Sirdaryo va Chirchiq daryolari sohillaridagi past-baland relefga ega yerlarda esa sholichilik saqlanib qolgan. Bu geografik taqsimot shuni ko‘rsatadiki, donchilikning mintaqada saqlanib qolishi ko‘p jihatdan davlat siyosatining ustuvorligidan ko‘ra, aynan paxta ekishga unchalik mos kelmagan tabiiy sharoitning natijasi bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, qisqa muddatlarda mamlakatning g‘alla va umuman oziq-ovqat mustaqilligiga erishish, aholini o‘zida ishlab chiqarilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash strategik maqsad sifatida belgilandi; bu maqsad yo‘lida paxta ekin maydonlari ikki marta qisqartirilib, bo‘shatilgan maydonlarda g‘alla va boshqa oziq-ovqat ekinlari yetishtirila boshlandi. Aynan shu keskin va tezkor chora-tadbirlarning zarurati – 1945–1991-yillar mobaynida donchilik tarmog‘ining qanchalik chuqur ikkinchi darajali holatga tushib qolganining bilvosita, ammo ishonchli dalilidir.

1-jadval. *Asosiy voqealar xronologiyasi*

Yil	Voqea
1945	Ikkinchi jahon urushining tugashi; qishloq xo‘jaligini tiklash davri boshlanishi
1946–1950	To‘rtinchi besh yillik reja; paxta ulushini oshirish tendensiyasining shakllanishi
1956	Mirzacho‘lning qo‘riq yerlarini paxta yetishtirish uchun sug‘orish to‘g‘risidagi qaror
1963	Sirdaryo viloyatining Toshkent viloyati tarkibidan ajratilib tashkil etilishi
1980	Paxta ekin maydonining umumiy ekin maydonining 60 foizidan oshishi
1991	Mustaqillik; g‘alla mustaqilligiga erishish strategik vazifasining qo‘yilishi

O‘tkazilgan tahlil 1945–1991-yillarda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida donchilik tarmog‘ining taqdirida ikki bosqichni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Birinchi bosqich (1945–1956) – urushdan keyingi umumiy tiklanish davri bo‘lib, bu davrda donchilik boshqa qishloq xo‘jaligi tarmoqlari qatorida hali nisbatan teng huquqli o‘rin egallagan, biroq paxtaga ustuvorlik berish tendensiyasi allaqachon shakllana boshlagan edi. Ikkinchi bosqich (1956–1991) – Mirzacho‘lni maqsadli ravishda paxta uchun o‘zlashtirish siyosati bilan boshlanib, respublika miqyosidagi paxta monokulturasining izchil kuchayishi bilan yakunlangan davr hisoblanadi.

Sirdaryo viloyatining tashkil topish tarixi bu jarayonning o‘ziga xos ramziy ifodasidir: viloyat boshidanoq mustaqil don yetishtirish markazi sifatida emas, balki paxta yetishtirishni kengaytirish uchun zarur bo‘lgan yangi hududiy-ma’muriy birlik sifatida vujudga keltirilgan edi. Shu bois donchilik mintaqada o‘z-o‘zidan emas, ko‘proq geografik zaruriyat – paxta ekishga unchalik mos kelmagan lalmikor va daryo bo‘yi yerlarning mavjudligi – tufayli saqlanib qolgan.

Toshkent-Sirdaryo mintaqasida kuzatilgan bu jarayon respublika miqyosidagi umumiy tendensiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari misolida ham xuddi shunday manzara qayd etilgan. Bu – donchilikning ikkinchi darajali tarmoqqa aylanishi mahalliy emas, tizimli, umumrespublika miqyosidagi siyosat natijasi bo‘lganini tasdiqlaydi.

Mustaqillikdan so‘ng qabul qilingan g‘alla mustaqilligi siyosati va paxta ekin maydonlarining keskin qisqartirilishi – aynan 1945–1991-yillar davomida to‘plangan bir yoqlama ixtisoslashuvning qanchalik chuqur va og‘ir oqibatlarga olib kelganini ko‘rsatuvchi bilvosita dalil sifatida qaralishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida donchilikning tarixiy taqdiri – markazlashgan reja iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy xo‘jalik ixtisoslashuvining qanday shakllanganini va uning uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligiga qanday ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatuvchi muhim tarixiy misoldir.

Ushbu maqola nashr etilgan adabiyotlar tahliliga asoslangani bois, uning natijalari umumiy tendensiyani aks ettiradi, biroq Toshkent va Sirdaryo viloyatlari bo‘yicha don ekin maydonlari va hosildorligining yillik dinamikasini aniq ko‘rsatadigan arxiv hujjatlari va statistik to‘plamlar asosidagi maxsus tadqiqot hali amalga oshirilishi lozim. Bu – kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ikromov E.I. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari // European science international conference: Modern problems in education and their scientific solutions. – B. 266–274.
2. Nazarov O‘.S. Samarqand viloyati 1946–1991-yillarda: iqtisodiy yuksalish va ijtimoiy o‘zgarishlar // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2026. – T. 8, № 3. – B. 1232–1235.
3. Qodirov I.E. Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi va u bilan bog‘liq jarayonlarning borishi tarixi // Молодые ученые. – 2024. – T. 2, № 26. – B. 26–31.
4. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi. Rasmiy ma’lumotlar // sirstat.uz.

5. Xudoyberdiyeva M. O‘zbekiston SSRning 1960–1980-yillardagi iqtisodiy hayoti // Journal of New Century Innovations. – 2026. – Vol. 92, Issue 1. – B. 251–254.
6. Xushvaqtov X. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish uchun aholi ko‘chirilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli (1946–1970 y.y.): Tarix fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019.

BARQAROR TARAQQIYOT YO‘LIDA HUQUQIY ONGNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sagdullayeva D. Sh.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, Toshkent

Demokratik islohotlar yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy-huquqiy saviyasi, madaniyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini takomillashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Zero, huquqiy madaniyat va savodxonlik millat yetukligi, inson barkamolligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Demokratik islohotlarning insonparvarlik xarakteri esa, birinchi navbatda, kishilar haq-huquqlarini ta’minlash va amalda ro‘yobga chiqarish uchun kerakli bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish bilan o‘lchanadi. “Bizning ustuvor vazifamiz inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga har tomonlama ko‘maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta’minlashning asosiy shartidir”[1].

Shuning uchun ham, bugungi kunda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yanada takomillashtirish mexanizmlarini, demokratik jarayonlarning aholi huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta’siri masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy ong jamiyatning ma’naviy borlig‘i unsurlaridan biri bo‘lib, uning gnoseologik asosini tashkil etadi. Huquqiy ong bir butun ijtimoiy in’ikos tizimida aniq kichik tizim bo‘lib, ijtimoiy hayotning huquqiy tizim, huquqiy tartibot doirasiga kirgan hodisalarini aks ettirgani uchun ham, unda jamiyat hayoti ma’naviy sohasining umumiy tomonlari namoyon bo‘ladi.

Hozirga qadar ilmiy adabiyotlarda huquqiy ong kategoriyasiga turlicha talqinlar berilgan. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida huquqiy ong kategoriyasi jamiyat a’zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o‘z aksini topuvchi ijtimoiy ong shakli[2] sifatida talqin etilgan.

Boshqa manbada esa, “huquqiy ong - huquqni anglash demakdir, odamlarning ham amaldagi huquqqa, ham ularning o‘zlari istagan huquqqa munosabatini ifoda etadigan tasavvur va his-tuyg‘ular mujassamidir”[3].

Bizningcha, huquqiy ong o‘z mohiyati va mazmunini faqat huquq me’yorlaridan emas, balki ularni yaratuvchi butun mukammal real jamiyat hayotidan oladi. Shuning uchun ham u hamisha falsafiy, mafkuraviy, siyosiy qarashlar ta’sirida bo‘ladi. Jamiyat madaniy borlig‘ining asosini eng avvalo, insonning ehtiyoj va manfaatlari, xususan, huquqiy ehtiyoj - uning anglanishi, uni qondirish yo‘lidagi maqsad, rejalar hamda yaratuvchilik faoliyati, uning natijalari va uni o‘zlashtirish tashkil etib, ular orasidagi barqaror munosabatlar huquqiy ong obyektini tashkil etgan huquqiy hayotning takomillashib borishini ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, huquqiy borliq unsurlari o‘rtasidagi dialektik birlikning qonuniy davomiyligini asoslaydi [4.

Huquqiy ong darajasi – bu odamlarning huquqlardan shunchaki xabardorligi, qonunlarni bilishigina emas. Bu, eng avvalo, qonunlarga rioya etish va ularni bajarishga tayyorlik, qonunga itoatkorlik, huquqni va odil sudlovni hurmat qilishda namoyon bo‘ladi.

Huquqiy tasavvur va tushunchalar ijtimoiy muhitda tarbiya natijasida shakllanib, har bir fuqaro o‘z huquqlarini anglashiga va zimmasidagi majburiyatlarni inobatga olishiga, ularga nisbatan o‘z munosabatini belgilashiga undaydi. Huquqiy madaniyat darajasiga ko‘tarilgan huquqiy ong har bir fuqaroning boshqalar oldidagi qonunlar bilan belgilangan burchi va ma’suliyatini anglashida o‘z ifodasini topadi.

Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy borliq rivoji taqozo etgan obyektiv ehtiyojlarning hosilasini namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, huquqiy ong jamiyatning madaniy borlig‘i unsurlaridan biri bo‘lib, uning gnoseologik asosini tashkil etadi. Huquqiy ong bir butun ijtimoiy in’ikos tizimida aniq kichik tizim bo‘lib, ijtimoiy hayotning huquqiy tizim, huquqiy tartibot doirasiga kirgan hodisalarini aks ettirgani uchun ham, unda jamiyat hayoti ma’naviy sohasining umumiy tomonlari namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, huquqiy ongga odamlarning faqat amaldagi huquqqa munosabati sifatidagi qarashda esa, uning mazmunini oldindan aniqlab beruvchi moddiy, ma’naviy muammolar doirasi cheklab qo‘yiladi. Inson dunyoqarashi, e’tiqodining mazmuni va darajasi ham huquqiy ong shakllanishiga ta’sir etadi. Bu esa, huquqiy ong unsurlari huquq me’yorlarining inson ongida hali to‘la aks etmagan holatda ham mavjud bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Hali huquq nima ekanligini bilmagan chaqaloq ham o‘z o‘yinchog‘ini faqat o‘ziniki deb biladi. Ushbu holatni esa, insonga tabiat tomonidan berilgan tug‘ilish va yashash, mulkka egalik qilish kabi tabiiy huquqlar bilan izohlash mumkin. Inson huquq va majburiyatlari tabiiy huquqlarning ijobiy (pozitiv) huquq tomonidan turli me’yoriy hujjatlarda mustahkamlangan ko‘rinishidir. Demak, huquqiy ong, birinchi navbatda, tabiiylikni o‘zida ifoda etuvchi huquqlarni ijtimoiy, ma’naviy jihatdan anglash demakdir.

I.Ilin fikricha, inson qalbidagi o‘z qadr-qimmatini bilish va undan kelib chiquvchi o‘zligiga bo‘lgan hurmat uning xatti-harakatlari huquqning maqsadi va ko‘rsatmalariga muvofiq kelishining kafolatidir [5]. Kishi ruhida erk, ixtiyorning mavjudligi – insonni huquqni ma’naviy hayotning zaruriy shakli sifatida qadrlashga, uning ko‘rsatmalariga rioya qilishga majbur qiladi. Shu asosda insonda huquqiy ong, ya’ni huquqqa, uning maqsadiga intilish, ixtiyoriylik va shu maqsadni anglagan holda o‘z xatti-harakatlarini qonuniy asoslash qobiliyati shakllanadi.

Shuningdek, kishilarning o‘zaro ma’naviy qadr-qimmatini e’tirof etishi huquqiy munosabatning asosida yotadi. Huquq tartiboti ham e’tirof etishning ushbu shakllaridan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi, chunki u yo‘qolishi bilan har qanday birlik va har qanday birdamlik, hamfikrlik yo‘qoladi[6].

Demak, huquqiy ong darajasi faqat huquqiy bilimlarning shunchaki arifmetik yig‘indisi bilan o‘lchanmaydi, balki, fuqaroning shaxsiy g‘ururi, o‘z-o‘zini anglab yetganligi, milliy ongi, ma’naviyati darajasi bilan belgilanadi.

Demak, huquqiy ong - shaxs ongida, jamiyat g‘oyalarida namoyon bo‘lgan huquq bo‘lib, u qonuniylikka nisbatan bo‘lgan munosabatdagi e’tiqod, tasavvur, baho, his-tuyg‘ular va ma’naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir. Huquqiy ongga berilgan ushbu ta’rif tabiiy ravishda uning tarkibiy tuzilishi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Bu holatda qonunga, huquqqa nisbatan shakllangan e’tiqod, his-tuyg‘ular - huquqiy ruhiyatning mahsuli bo‘lsa, uni baholash asosida yuzaga kelgan tanqid yoki e’tirofda aks etuvchi anglangan munosabat - huquqiy mafkuraning asosini tashkil etadi.

Huquqiy ruhiyatdan farqli holda mafkura huquqiy voqelikning ilmiy-nazariy darajadagi in’ikosini ifodalaydi. Huquqiy mafkura ijtimoiy borliqni, ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish (boshqarish) zaruriyati va usullari nuqtayi nazaridan aks ettiruvchi huquqiy g‘oyalar tizimini ifodalaydi. Huquqiy ruhiyat bilan taqqoslaganda mafkura huquqni bir butun ijtimoiy institut sifatida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy, falsafiy ifodalashi bilan ajralib turadi.

Huquqiy mafkura nafaqat mavjud, balki imkoniyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi. Huquqiy mafkura huquqni bilish darajasi va xarakteriga ko‘ra, huquqiy ruhiyatdan ustun turadi. Agar huquqiy ruhiyat huquqiy hodisalar rivojining tashqi, odatda hissiy jihatini aks ettirsa, huquqiy mafkura huquqning tabiati, ijtimoiy mohiyatini ochishga intilib, uni yaxlit madaniy-tarixiy fenomen sifatida namoyon qiladi. Huquqiy ong mafkuraviy va ruhiy unsurlarni birlashtirgan murakkab tuzilma bo‘lib, ba’zi olimlar unda mafkuraviy tamoyil hukmronlik qiladi, - deb hisoblasalar, boshqalari undagi ruhiy unsurlarga urg‘u beradilar.

Bizningcha, huquqiy ong odamlarning qonunga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi qarash va e’tiqodlaridan, ularning huquq haqidagi tasavvur, intilish hamda tuyg‘ularidan iborat bo‘lib, mavjud qonunlarning inson ongidagi passiv in’ikosigina emas, balki huquq me’yorlari rivojlanishiga zaruriyat tug‘diruvchi, jamiyat a’zolarini birlashtira oluvchi ma’naviy asos hamdir. O‘z navbatida, tarixiy tajriba shundan guvohlik beradiki, huquqiy ongi, madaniyati yuksak xalqgina o‘z-o‘zini anglab, maqsadlariga erishish yo‘lida sobitqadamlik bilan harakat qila oladi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, huquqiy bilimlar, huquqiy me’yorlar kishilarning ongi va turmushiga singib ketgan, amaliy faoliyatlarida qo‘llanila boshlagan taqdirdagina huquqiy madaniyatga aylanadi. Qabul qilingan qonunlar bilan nafaqat tanishish, chuqur o‘rganib chiqish, balki ularga itoat etish, amalda foydalanish ham huquqiy madaniyat belgilaridan biridir. Huquqiy madaniyat huquqiy ongni aniq maqsadni ko‘zlab tarbiyalash natijasi, uning eng yuqori bosqichidir. Huquqiy madaniyat egasi bo‘lgan kishi jamiyat talablari va qoidalariga hurmat bilan qaraydi, jamiyatni boshqarishda o‘zining huquqiy malaka va bilimlarini ishga solib, faol qatnashadi.

Demak, huquqiy ong va huquqiy madaniyat o‘zaro dialektik uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, biri jamiyatning ma’naviy muhitiga, kishilarga ularning hayot dasturlariga g‘oyaviy-huquqiy ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchisi esa, birinchining mantiqiy davomi sifatida imkoniyatning voqelikka aylanishini namoyon etadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent “O‘zbekiston”. 2021, -21 bet.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 11-Jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. - 406-bet.
3. Halilov E. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997. - 12-bet.
4. Sagdullayeva D.Sh. Huquqiy madaniyat demokratik taraqqiyot omili.-T.:Fan v texnologiya, 2012. -86.
5. Ильин И.А. О сущности правосознания. - М., 1993. – с.97-98.
6. Исламов З. Общество.Государство.Право. - Т.: Адолат, 1998; Гранат Л.Н. Правосознание и правовая культура / Юрист. - Москва, 1998. - № 11/12.; Лазарев В, Липень С. Теория государства и права. - М.: Спарк, 2000 ва бошқ.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASHDAGI O‘RNI

G`ulomova Madina Kurbanovna
Buxoro innovatsion ta`lim va tibbiyot universiteti o`qituvchisi

Kichik biznes iqtisodiy resurslarni yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etish orqali o‘sishga hissa qo‘shadi. Uning aholi farovonligi uchun ahamiyati ish haqi, tadbirkorlik daromadi va iste’mol imkoniyatlarining kengayishida namoyon bo‘ladi. Biroq korxonalar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan yuqori unumdorlik yoki oilalar daromadining barqaror oshishini anglatmaydi. Buning uchun yaratilgan qiymatning qanday taqsimlanishi va biznesning qancha muddat faoliyat yuritishi ham muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida “Xususiy mulk daxlsizdir” degan qoida belgilangan [1]. Mulk huquqining himoyalanishi va halol raqobat uchun sharoitlar tadbirkorning investitsiya kiritishiga asos yaratadi. Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustdagi nutqida: “Biznesni qo‘llab-quvvatlashning eng muhim instrumenti – bu moliyaviy xizmatlar”, deya ta’kidlagan [2]. Bu yondashuv moliyalashtirish imkoniyatlarini korxonaning iqtisodiy natijalari bilan bog‘lab o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi Dilafruz Iskandarova O‘zbekistonda turmush farovonligi va daromadlarni oshirishga bag‘ishlangan maqolasida kichik tadbirkorlikdagi bandlikni hududlar kesimida o‘rganadi. Muallif tadbirkorlikni “iqtisodiy faol aholining bandligi, daromadlarining ortishi va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi asosiy omil” sifatida baholaydi [3]. Ushbu qarash bandlik

va farovonlikni birgalikda o‘rganishga asos beradi; ta’sir miqdorini aniqlash esa korxonalar va uy xo‘jaliklari bo‘yicha qo‘shimcha tahlilni talab qiladi.

Tadqiqotchi Nurali Boltayev kichik biznes orqali aholi bandligini oshirish masalasini ishlab chiqarish samaradorligi, zamonaviy texnologiyalar va mavjud resurslardan foydalanish bilan bog‘laydi [4]. Oybek Ahmedov va Nurbek Nurqulov esa kichik hamda o‘rta biznes rivojlanishida kafillik, kompensatsiya va subsidiya mexanizmlarini tahlil qiladi [5]. Bu tadqiqotlar moliyaviy yordam va ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘zaro bog‘liq holda baholashga undaydi. Ularning xulosalarini alohida hududga tatbiq etishda mahalliy talab hamda infratuzilma sharoitini hisobga olish lozim.

Tahlilda “kichik biznes” va “xususiy tadbirkorlik” tushunchalarini farqlash zarur. Birinchisi korxona ko‘lami bilan, ikkinchisi xususiy tashabbus va mulkchilik xususiyati bilan bog‘liq. Xususiy korxona yirik bo‘lishi ham mumkin. Shu sababli kichik tadbirkorlikka tegishli statistik ulushni butun xususiy sektorning ulushi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas.

Kichik biznesning iqtisodiy o‘sishga hissasi, avvalo, qo‘shilgan qiymat yaratishda ko‘rinadi. Korxona xomashyo va sotib olingan xizmatlardan foydalanib, bozor talabiga mos mahsulot ishlab chiqaradi. Yalpi ichki mahsulotni baholashda sotuv tushumini qo‘shilgan qiymat bilan tenglashtirish mumkin emas, chunki tushum tarkibida boshqa ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan resurslar qiymati ham mavjud. Shuning uchun biznesning samaradorligini tahlil qilishda tushum bilan birga xarajatlar tarkibi va yaratilgan qiymat o‘rganiladi.

Keyingi mexanizm mehnat unumdorligining oshishidir. Ish jarayonini tartibga solish, nuqsonli mahsulotni kamaytirish va xodim malakasini rivojlantirish bir xil resurs bilan ko‘proq sifatli mahsulot olish imkonini beradi. Unumdorlikni taqqoslashda narxlar o‘zgarishi hamda ishlangan vaqt hisobga olinishi kerak. Faqat nominal tushumning ko‘payishi ishlab chiqarish samaradorligi oshganini isbotlamaydi.

Raqobat va ishlab chiqarish kooperatsiyasi ham o‘sishga ta’sir etishi mumkin. Yangi yetkazib beruvchining paydo bo‘lishi buyurtmachiga tanlash imkonini beradi; kichik korxonaning yirik ishlab chiqaruvchi bilan shartnomasi esa sotuvni rejalashtirishni yengillashtiradi. Bunda bir buyurtmachiga haddan tashqari qaramlik korxonani zaiflashtirishi mumkin. Mualliflik tahliliga ko‘ra, barqaror o‘sish uchun mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga xaridorlar doirasini kengaytirish ham zarur. Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil birinchi yarim yilligi bo‘yicha ma’lumotlari kichik tadbirkorlikning ishlab chiqarish va investitsiyadagi o‘rnini ko‘rsatadi. Uning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi hajmi 518 667,5 mlrd so‘m, ulushi 50,5 foiz bo‘lgan [6]. Tarmoq ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda bir xil davr uchun jamlandi. Hajmlar taqqoslash qulayligi uchun trillion so‘mga aylantirilib, o‘ndan birgacha yaxlitlandi.

1-jadval. Kichik tadbirkorlikning 2026-yil yanvar–iyundagi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Hajm, trln so‘m	Tegishli jami hajmdagi ulush, %
Yalpi ichki mahsulot	518,7	50,5
Sanoat mahsuloti	180,3	28,3
Qurilish ishlari	143,9	74,9
Asosiy kapitalga investitsiya	225,3	66,5
Ko‘rsatilgan xizmatlar	374,2	56,3

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [6, 3–5-b.]. Hajmlar joriy narxlarda.

Jadvaldan kichik tadbirkorlikning sanoat, qurilish va xizmatlardagi ulushi bir xil emasligi ko‘rinadi. Investitsiya ulushi korxonalarning asosiy kapitalni shakllantirishdagi ishtirokini ifodalaydi. Biroq investitsiya hajmining yuqoriligi uning rentabelligini avtomatik tasdiqlamaydi: uskuna ishga tushishi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish va sotuv imkoniyati keyingi natijani belgilaydi. Yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarish hajmi va investitsiya turli mazmundagi ko‘rsatkichlar bo‘lib, ularni bitta yig‘indiga keltirish mumkin emas.

Mazkur dalillardan kelib chiqadigan amaliy xulosa hududiy dasturlarda tarmoqlarning ehtiyojlarini alohida baholash zarurligidir. Ishlab chiqaruvchi korxonaga uskunani yangilash va sifat nazorati muhim bo‘lsa, xizmat ko‘rsatuvchi biznes uchun mutaxassis malakasi hamda

mijozlar oqimi ustuvor bo‘lishi mumkin. Ko‘mak shaklini tanlashdan oldin tadbirkorning asosiy cheklovi moliya, malaka, infratuzilma yoki sotuv ekanini aniqlash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, iqtisodiy hajmni farovonlik bilan bog‘lash uchun xodimlar daromadi va uy xo‘jaliklari xarajatlarini alohida o‘rganish talab etiladi. Ushbu statistika kichik biznesning iqtisodiyotdagi ko‘lamini tavsiflaydi; oilalar daromadiga ta’sirning aniq miqdori mazkur ma’lumotlarning o‘zi bilan aniqlanmaydi.

Kichik biznes aholi daromadiga yollanma mehnat va mustaqil tadbirkorlik orqali ta’sir etadi. Xodim uchun ish haqi, tadbirkor oilasi uchun esa xarajatlardan keyin qoladigan daromad ahamiyatlidir. Biznes tushumining barchasini oilaviy daromad deb hisoblash xato: uning bir qismi xomashyo, ijara, ish haqi va boshqa majburiyatlarga sarflanadi. Shu sababli uy xo‘jaligi va korxona mablag‘larini alohida hisobga olish daromadning haqiqiy miqdorini ko‘rishga yordam beradi.

Farovonlikni baholashda daromadning xarid qobiliyati ham hisobga olinishi kerak. Nominal daromad oshgan taqdirda ham narxlarning o‘zgarishi real imkoniyatlarni cheklashi mumkin. Bundan tashqari, daromadning mavsumiyligi, oiladagi boqimandalar soni va zarur xizmatlarga sarf ham muhim. Iskandarovaning bandlik va farovonlikni bog‘lab o‘rganish yondashuvi [3] asosida mazkur maqolada real daromadni ish o‘rnining davomiyligi bilan birgalikda kuzatish taklif etiladi.

Bandlikning sifati mehnat shartlarining aniqligi, haq to‘lashning muntazamligi va kasbiy o‘sish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Doimiy buyurtma hamda malakali xodimga ega korxona uzoqroq ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Boltayev tahlilidagi texnologiya va resurs samaradorligi masalalari [4] shu nuqtayi nazardan muhimdir. Mualliflik umumlashtirishiga ko‘ra, bandlikni ko‘paytirishga qaratilgan yordam xodimni o‘qitish va korxonadagi boshqaruvni yaxshilash bilan uyg‘unlashishi lozim.

Moliyalashtirishda loyihaning pul oqimi, ya’ni tushum va to‘lovlarning vaqt bo‘yicha mosligi tekshirilishi zarur. Hisobotda foyda ko‘rinishi korxonada har bir to‘lov sanasida yetarli mablag‘ borligini anglatmaydi. Xaridordan pul kech tushsa, aylanma mablag‘ yetishmasligi paydo bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchilar Ahmedov va Nurqulov ko‘rib chiqqan moliyaviy ko‘mak shakllari [5]ni tanlashda korxonaning aynan qaysi muammosi hal etilishi aniqlashtirilishi kerak. Kredit miqdorini oshirishning o‘zi mahsulotga talab yaratmaydi.

Raqamli vositalar kichik korxonada xarajat va sotuvni aniqroq kuzatish imkonini beradi. Yunusov elektron tijorat, raqamli ko‘nikmalar va ma’lumotlarga asoslangan qarorlarning ahamiyatini yoritadi [7]. Bu yo‘nalishdagi mualliflik taklifi xarid, zaxira va sotuv hisobini yagona tartibga keltirishdan boshlashdir. Natija ortiqcha zaxira, bajarilmagan buyurtma yoki muddati o‘tgan debitor qarzning kamayishi orqali baholanishi mumkin. Dastur xarajati va xodimlarning uni ishlata olish darajasi ham hisobga olinadi.

Hududiy tengsizlikni kamaytirish uchun tadbirkorlikka kirish imkoniyatlari ham muhim. Yoshlar, ayollar va daromadi past oilalar uchun maslahat, malaka va bozorga chiqishga ko‘mak zarur bo‘lishi mumkin. Biroq barcha ish izlovchilarni kredit olib biznes boshlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq emas. Kim uchundir kasb o‘rganish va mavjud korxonaga ishga joylashish barqarorroq yechim bo‘ladi. Ko‘mak shaxsning tayyorgarligi hamda mahalliy talabga mos tanlanishi kerak.

Kichik biznesning iqtisodiy o‘sishga hissasi qo‘shilgan qiymat, unumdorlik va ishlab chiqarish aloqalari orqali yuzaga chiqadi. Aholi farovonligiga ta’siri esa daromadning real qiymati, ish o‘rinlarining davomiyligi va biznes daromadidan foydalanish imkoniyati bilan bog‘liq. Mahalliy adabiyotlar hamda rasmiy ma’lumotlar bu aloqalarni birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil asosida quyidagilar tavsiya etiladi: hududiy ko‘makni korxonaning asosiy ehtiyojiga moslashtirish; moliyalashtirishni pul oqimi va bozor talabi bilan baholash; kasbiy ta’limni ish beruvchilar ehtiyojiga bog‘lash; raqamli hisob va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish. Dasturlar natijasini ajratilgan mablag‘ yoki ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar soni bilan birga 12 va 24

oydan keyin ishlayotgan korxonalar, saqlangan rasmiy ish o‘rinlari hamda real daromad o‘zgarishi orqali kuzatish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Yangi tahrir. 65 va 67-moddalar.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2025, 20-avgust). Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutq. Prezidentning rasmiy veb-sayti
3. Iskandarova, D. I. (2025). O‘zbekistonda aholi turmush farovonligini yaxshilash va daromadlarni oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali, 4(3), 81–88. DOI: 10.67668/LEHC/vol4iss3/126
4. Boltayev, N. Sh. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish yo‘llari. Marketing, 2(8), 280–289. DOI: 10.5281/zenodo.16336371
5. Ahmedov, O., & Nurqulov, N. (2025). Kichik biznes va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta’minlash. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(9). DOI: 10.5281/zenodo.17090480
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, 28-iyul). O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari: 2026-yil yanvar–iyun oylari uchun. Press-reliz, 3–5-b. Rasmiy statistik manba
7. Yunusov, A. (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish yo‘nalishlari. International Journal of Science and Technology, 2(1), 152–159. DOI: 10.70728/s2kdb307

VATANPARVARLIK - JAMIYAT BARQAROR RIVOJLANISHINING MA’NAVIY OMILI: TARIXIY-IJTIMOIY VA IQTISODIY JIHATLARNING FALSAFIY TAHLILI

Niyozova Shohista Nusratilloyevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Jamiyatning barqaror rivojlanishi iqtisodiy imkoniyatlar bilan insonning ma’naviy tanlovi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishni talab qiladi. Ishlab chiqarish kengayishi va moddiy farovonlikning oshishi taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlaridir. Biroq yaratilgan imkoniyatlardan kim foydalanishi, resurslar qanday taqsimlanishi va kelajak avlodga qanday muhit qoldirilishi ham rivojlanishning mazmunini belgilaydi. Shu jihatdan vatanparvarlik insonning o‘z yurti taqdiriga daxldorligini amaliy mas’uliyatga aylantiruvchi ma’naviy omil sifatida falsafiy ahamiyat kasb etadi.

«Bizning umumiy kelajagimiz» hisobotida barqaror rivojlanish hozirgi ehtiyojlarni qondirish jarayonida kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini saqlab qolish bilan izohlanadi [1, II bob, 1-band]. Bu yondashuv rivojlanishning axloqiy chegaralarini belgilaydi. Vatan oldidagi burch ham bugungi manfaat bilan cheklanmaydi: u madaniy meros, tabiiy boyliklar va ijtimoiy imkoniyatlarni keyingi avlodlarga yetkazish majburiyatini qamrab oladi.

Tadqiqot nazariy-konseptual xususiyatga ega. Tarixiy-falsafiy tahlil yordamida milliy tafakkurdagi Vatan, ma’rifat va taraqqiyot munosabati o‘rganildi. Qiyosiy tahlilda mahalliy mualliflar qarashlari M. Viroli, R. Schatz, E. Staub, H. Lavine, A. Sen va E. Ostrom yondashuvlari bilan taqqoslandi. Aksiologik tahlil vatanparvarlikning qadriyat sifatidagi mazmunini, normativ tahlil esa uning axloqiy mezonlarini aniqlashga xizmat qildi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida «Vatanni suymak», «Ilm», «Haqqoniyat» va «Iqtisod» masalalari axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi [2]. Bu tuzilma Vatan tuyg‘usini bilim, rostgo‘ylik va kundalik xulq bilan birgalikda o‘rganish imkonini beradi. Avloniyning qarashlarini bugungi muammolar bilan bog‘lashda tarixiy sharoitni hisobga olish lozim: uning ma’rifatparvarlik dasturi o‘z davrida millatning bilim va kasb orqali taraqqiy etishi ehtiyojiga javob bo‘lgan.

Faylasuf Abdurahim Erkayev «Ma’naviyat va taraqqiyot» asarida ijtimoiy hamkorlik, o‘zaro yordam va mas’uliyatning jamiyat rivojiga ta’sirini muhokama qiladi. Olim ta’kidlaydi: «Shu sababdan ma’naviyat keng ma’noda jamiyat taraqqiyotini, shu jumladan iqtisodiyot rivojini belgilovchi omillardan biridir» [3, 4-b.]. Asarning yakunida moddiy va texnologik yutuqlar inson

erkinligi hamda shaxs kamolotiga xizmat qilishi zarurligi asoslanadi [3, 477-b.]. Ushbu yondashuv vatanparvarlikning qiymatini inson hayoti va jamiyatdagi munosabatlar sifatiga qo‘shgan hissasi orqali baholashga nazariy tayanch beradi.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov «Ko‘z ochib ko‘rgan dunyomiz» maqolasida Vatan tuyg‘usining shakllanishida ona tili, adabiyot va tarixiy merosning ahamiyatini ko‘rsatadi. U Vatanga munosabatning faol mazmunini «Uni yashnatmoq, obod etmoq, u uchun kurashmoqdir», degan so‘zlar bilan ifodalaydi [4]. Mazkur fikrdan kelib chiqib, tarixiy xotirani ajdodlar tajribasini hozirgi hayot uchun mazmunli qilish jarayoni sifatida talqin etish mumkin. Merosni bilish bilan uni davom ettirish o‘rtasidagi aloqani aynan shaxsning ongli faoliyati ta’minlaydi.

Bu qarashlarni qiyoslash asosida milliy taraqqiyotning tarixiy tajribasida ma’rifat va mas’uliyat bir-birini to‘ldirishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Avloniyda axloqiy tarbiya, Qosimovda madaniy xotira, Erkayevda ma’naviyat va ijtimoiy rivojlanish munosabati oldinga chiqadi. Ular turli davr va tadqiqot yo‘nalishlariga mansub bo‘lsa-da, o‘zlikni anglashni inson faoliyatining mazmuni bilan bog‘lash imkonini beradi.

Tarixiy davomiylikni ta’minlash merosga tanqidiy va ijodiy munosabatni ham talab qiladi. Ajdodlar tajribasidagi bilimga intilish, adolat va hamkorlik tamoyillari zamonaviy sharoitda qayta mazmun kasb etishi mumkin. Bunda tarixiy hodisalarni dalillar asosida o‘rganish, muvaffaqiyatlar bilan birga xatolarning sabablarini tushuntirish zarur. Shunday yondashuv milliy g‘ururni ongli mas’uliyat bilan bog‘laydi va tarixni bugungi muammolarni tushunish manbayiga aylantiradi.

Ontologik nuqtayi nazardan Vatan insonning hayoti kechadigan tabiiy, madaniy va ijtimoiy makondir. Shaxs o‘zligini til, xotira, yaqinlar bilan munosabat va umumiy hayot tajribasi orqali anglaydi. Aksiologik jihatdan esa, Vatan qadri shu makonda yashayotgan insonlarning qadr-qimmati bilan bog‘lanadi. Demak, vatanparvarlikni baholashda uning inson hayoti, erkinligi va munosib turmushiga qanday munosabat hosil qilishi muhim mezondir.

M.Viroli vatanparvarlikni fuqarolarning umumiy erkinligi va umumiy manfaatiga sadoqat bilan bog‘laydi. Uning talqinida siyosiy hamjihatlik turli madaniy va diniy guruhlarning birgalikda erkin yashashiga tayanishi mumkin [5]. Bu qarashdan O‘zbekistonning ko‘p millatli ijtimoiy muhiti uchun quyidagi normativ xulosa kelib chiqadi: fuqarolik vatanparvarligi mamlakatga mansublik hissini barcha fuqarolarning teng qadr-qimmatini e’tirof etish bilan uyg‘unlashtirishi lozim. Muayyan guruhning madaniy xususiyatlari boshqa guruhlar huquqlarini cheklashga asos bo‘la olmaydi.

R. Schatz, E. Staub va H. Lavine tanqidni qabul qilmaydigan vatanparvarlik bilan mamlakat hayotini yaxshilashga qaratilgan konstruktiv vatanparvarlikni farqlaydi. Ularning tadqiqotida konstruktiv vatanparvarlik siyosiy ishtirokning qator ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘langan [6]. Ushbu natijani barcha jamiyatlarga tayyor qonuniyat sifatida ko‘chirish mumkin emas. Konstruktiv yondashuv mavjud kamchiliklarni dalil asosida muhokama qilishni Vatan taqdiri uchun mas’uliyatning ifodasi sifatida tushunishga asos beradi.

Fuqaro muammolar haqida ochiq gapira olsa, takliflari ko‘rib chiqilsa va qarorlarning asoslari tushuntirilsa, umumiy hayotga daxldorlik uchun amaliy zamin paydo bo‘ladi. Aksincha, fuqarodan faqat sadoqat talab qilib, uning asosli talablarini e’tiborsiz qoldirish mas’uliyatning o‘zaro xususiyatiga zid keladi. Vatanparvarlikning ijtimoiy mazmuni fuqaro burchi bilan institutlarning hisobdorligini birgalikda ko‘rishni taqozo etadi.

Shaxsiy manfaat va umumiy manfaat munosabati ham shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Insonning ta’lim olish, kasb tanlash va farovon yashash istagi umumiy taraqqiyotning tarkibiy qismidir. Bu intilish boshqalarning imkoniyatlarini buzmasa va adolatli qoidalar doirasida amalga oshsa, uning ijtimoiy ahamiyati ortadi. Shu bois vatanparvarlik insonning mustaqil fikrlashi va tashabbusiga tayangan axloqiy pozitsiya sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiq.

Avloniy «Iqtisod» bo‘limida shunday yozadi: «Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakni aytilur» [2, elektron matn, 19-b.]. Keyingi mulohazalarida u millatga xizmat qilishni ilm, hunar va mehnat bilan bog‘laydi [2, 20-b.]. Bu fikrning hozirgi talqini resurslardan mas’uliyatli foydalanish, kasbiy bilimni oshirish va inson mehnatini qadrlash bilan ifodalanishi

mumkin. Biroq Avloniyning iqtisod haqidagi axloqiy mulohazalari zamonaviy iqtisodiy siyosatning tayyor modeli sifatida qabul qilinmasligi kerak.

A.Sen rivojlanishni baholashda insonlarning real erkinliklari va imkoniyatlarini markazga qo‘yadi. Uning yondashuvida erkinlik taraqqiyotning maqsadi hamda uni amalga oshirish vositasidir; ta’lim, sog‘liq va iqtisodiy imkoniyatlar insonning faol ishtiroki uchun ahamiyatlidir [7]. Bundan kelib chiqib, iqtisodiy vatanparvarlikning axloqiy mezonini yaratilayotgan boylikning inson kamolotiga xizmat qilishi bilan bog‘lash mumkin. Ishlab chiqarish hajmi bilan birga mehnatning munosibligi va imkoniyatlardan foydalanishdagi adolat ham e’tiborga olinishi lozim.

Kasbiy faoliyatdagi vatanparvarlik kundalik qarorlarda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining adolatli baholashi, shifokorning bemor manfaatini ustun qo‘yishi, muhandisning xavfsizlik talablariga amal qilishi yoki tadbirkorning mahsulot sifati uchun javobgarligi umumiy farovonlikka daxldordir. Bunday xatti-harakatning axloqiy qiymati uning aniq odamlarga foyda keltirishi va zarar yetkazmasligida ko‘rinadi. Kasbiy vijdon shu ma’noda shaxsiy faoliyatni umumiy manfaat bilan bog‘lovchi ichki mezon vazifasini bajaradi.

E. Ostrom umumiy resurslardan foydalanishni o‘rganib, hamkorlikning saqlanishida ishonch, sharoitga mos qoidalar va nazoratning ahamiyatini ochib beradi [8]. Bu yondashuvdan vatanparvarlikka doir bevosita empirik xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Ammo u ma’naviy motivning amaliy natijaga aylanishi uchun tashkiliy sharoit zarurligini tushuntirishga yordam beradi. Masalan, suvni tejash tashabbusi vazifalar kelishilgan, sarf ochiq kuzatiladigan va foydalanuvchilar fikri hisobga olinadigan tartibda davomli bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy mas’uliyat kelajak avlodlar manfaatini ham qamrab oladi. Bugungi daromadni oshirish yo‘lida suv, tuproq yoki madaniy merosni tiklab bo‘lmaydigan darajada zararlash avlodlararo adolatga zid. Vatanga g‘amxo‘rlik resursning hozirgi foydasini uning kelajakdagi qiymati bilan birga baholashni talab qiladi. Shu asosda ekologik mas’uliyat vatanparvarlikning barqaror rivojlanish bilan bog‘langan tarkibiy jihati sifatida qaralishi mumkin [1].

Tahlil asosida vatanparvarlikning taraqqiyotga ta’sirini uch bosqichda tushuntirish taklif etiladi. Birinchi bosqichda shaxs tarixiy xotira va madaniy tajriba orqali o‘zining jamiyatga mansubligini anglaydi. Ikkinchi bosqichda bu mansublik inson qadrini, adolatni va umumiy manfaatni qadrlash bilan bog‘lanadi. Uchinchi bosqichda qadriyatlar kasbiy mas’uliyat, fuqarolik ishtiroki va resurslarga ehtiyotkor munosabat shaklida amaliy ifoda topadi. Mazkur bog‘lanishning uzluksizligi ochiq muloqot hamda adolatli qoidalarga tayanadi.

Taklif etilgan yondashuvning nazariy hissasi tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni axloqiy mas’uliyat orqali birgalikda talqin etishdan iborat. Bunda vatanparvarlikning ta’siri shartli: ta’lim, bandlik va fuqarolik ishtiroki imkoniyatlari cheklangan muhitda yaxshi niyatning amaliy natijasi ham cheklanishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy muammolarni fuqarolarning ma’naviyati bilan izohlashning o‘zi yetarli emas. Ularning tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruvga oid sabablarini ham o‘rganish zarur.

Ta’lim jarayonida Avloniy, Erkayev va Qosimov matnlarini real axloqiy vaziyatlar muhokamasi bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Talabalar tarixiy merosni asrash, kasbiy halollik yoki suvdan foydalanish misolida shaxsiy tanlovning jamoaviy oqibatlarini tahlil qilishi mumkin. Mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligidagi ixtiyoriy loyihalar esa bilimni amaliy tajriba bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Loyihalarda ishtirokchilarning taklif berish va natijani muhokama qilish imkoniyati ta’minlanishi lozim.

Bunday faoliyatni baholashda tadbirlar soni bilan birga vazifaning bajarilishi, tashabbusning davomiyligi, resurslarga munosabat va turli fikrlarni tinglash madaniyatini kuzatish maqsadga muvofiq. Bu ko‘rsatkichlar taklif etilayotgan baholash yo‘nalishlari bo‘lib, ularni ishonchli mezon sifatida qo‘llashdan oldin sinovdan o‘tkazish kerak. Kelgusi tadqiqotlarda suhbat, kuzatish va so‘rov usullarini birlashtirish vatanparvarlik haqidagi bayonotlar bilan amaliy xatti-harakat o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtirishi mumkin.

Vatanparvarlikning barqaror rivojlanishdagi falsafiy mazmuni tarixiy mansublikni ongli mas’uliyatga aylantirishda namoyon bo‘ladi. Mahalliy mutafakkirlar va olimlarning qarashlari ushbu jarayonni ma’rifat, madaniy xotira hamda ma’naviy kamolot bilan bog‘lash imkonini

beradi. Fuqarolik erkinligi va umumiy resurslarni boshqarishga doir yondashuvlar esa mas'uliyatli faoliyat uchun adolatli institutlar zarurligini ko'rsatadi.

Shu asosda vatanparvarlikning amaliy qiymati inson qadrini hurmat qilish, kasbiy halollik, jamiyat hayotidagi ongli ishtirok va kelajak avlodlar manfaatiga g'amxo'rlik bilan baholanishi lozim. Tarixiy xotira, ijtimoiy adolat va iqtisodiy mas'uliyatning uyg'unligi uni barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'naviy omil sifatida rivojlantirishning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. 1987. A/42/427. II bob. Elektron matn.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Ziyouz elektron matni, 47 b. Asarning ilk nashri: 1913. «Vatanni suymak», «Iqtisod» bo'limlari. Elektron matn.
3. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. Toshkent: Ma'naviyat, 2009. 480 b.
4. Qosimov B. Ko'z ochib ko'rgan dunyomiz. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009. № 50.
5. Viroli M. For Love of Country: An Essay on Patriotism and Nationalism. Oxford University Press, 1997. DOI: 10.1093/0198293585.001.0001.
6. Schatz R. T., Staub E., Lavine H. On the Varieties of National Attachment: Blind Versus Constructive Patriotism. Political Psychology. 1999;20(1):151–174. DOI: 10.1111/0162-895X.00140.
7. Sen A. Amartya Sen Shares His Theory of Development as Freedom. 2001-yil 3-aprel ma'ruzasi asosidagi muallif matni. Ikeda Center. Elektron matn.
8. Ostrom E. Beyond Markets and States: Polycentric Governance of Complex Economic Systems. American Economic Review. 2010;100(3):641–672. DOI: 10.1257/aer.100.3.641.

TIBBIY ETIKA, BIOETIKA VA TIBBIYOT FALSAFASI

SOG'LOM TURMUSH TARZIGA OID YONDASHUVLARNING FALSAFIY TAHLILI O'ZBEKISTON MISOLIDA

Gadoyeva Lobar Ergashevna

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yangi O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida barkamol avlodni voyaga yetkazishda ommaviy sport va valeologik madaniyatning o'zaro integratsiyalashuvi ijtimoiy-falsafiy hamda pedagogik zaruratga aylanmoqda. Jismoniy faollikni muayyan ilmiy-valeologik bilimlar tizimi bilan boyitmay turib, jamiyatda barqaror salomatlik madaniyatini hamda mas'uliyatli turmush tarzini to'liq qaror toptirib bo'lmasligi ko'plab tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. Ommaviy sport shaxsning jismoniy va irodaviy sifatlarini shakllantiruvchi amaliy omil hisoblansa, valeologik madaniyat ushbu harakatlarga ongli munosabat, nazariy bilimlarga tayangan hayotiy yo'nalish hamda maqsadlilik bag'ishlaydi. Ikki sohaning dialektik sintezi yoshlar o'rtasida gipodinamiyani kamaytirish, ruhiy va fiziologik barqarorlikni ta'minlash hamda milliy genofond xavfsizligini kafolatlashning samarali metodologik bazasini yaratadi.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, zamonaviy yoshlar orasida jismoniy tarbiyaga nisbatan qiziqishning yetarliligi ba'zan valeologik savodxonlikning kamligi sababli kutilgan ijtimoiy-fiziologik samaradorlikni bermasligi mumkin. Valeologik madaniyat shaxsga o'z organizmining biologik va ruhiy imkoniyatlarini to'g'ri baholash, ovqatlanish hamda mehnat-dam olish rejimini me'yorlashtirish ko'nikmalarini beradi. Ushbu bilimlar tizimisiz olib boriladigan sport mashg'ulotlari ko'pincha tartibsiz va yuzaki xarakterga ega bo'lib, uzoq muddatli salomatlik poydevorini yarata olmaydi. Aksincha, valeologik va sport madaniyatining uyg'unligi jismoniy faollikni insonning ichki ehtiyojiga hamda shaxsiy qadriyatiga aylantirishga xizmat qiladi.

Oila instituti ommaviy sport va valeologik madaniyat integratsiyasini yoshlar ongiga va turmush tarziga singdirishning birlamchi hamda eng ta'sirchan sotsiokulturniy maydoni hisoblanadi. Oila muhitida shakllangan sog'lom turmush tarzi elementlari, ota-onalarning shaxsiy namunasi va ularning jismoniy tarbiyaga bo'lgan ijobiy munosabati bolada o'z salomatligiga

mas’uliyat bilan qarash ko‘nikmasini qaror toptiradi. Ota-onalari jismoniy faollikni va valeologik tamoyillarni hayotiy qoida sifatida qabul qilgan oilalarda o‘sayotgan yoshlarda turli salbiy odatlar hamda ma’naviy-ruhiy inqirozlarga nisbatan barqaror immunitet shakllanadi. Shu sababli, ommaviy sportni oilaviy qadriyatlar darajasiga ko‘tarish ushbu integratsion jarayonning hal qiluvchi natijador omilidir.

Globallashuv va raqamlashuv sharoitida yoshlarning virtual olamga bog‘lanib qolishi hamda kamharakat turmush tarzining ortishi valeologik targ‘ibot va ommaviy sportni yangicha metodlar orqali olib borishni talab etadi. Zamonaviy mobil ilovalar, fitnes-trekerlar hamda raqamli valeologik platformalar yoshlarda sportga bo‘lgan qiziqishni orttiruvchi zamonaviy vosita vazifasini o‘tamoqda. Internet makonida valeologik va sport madaniyatini innovatsion, vizual hamda qiziqarli shakllarda targ‘ib etish yoshlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish va jismoniy holatini muntazam kuzatib borish imkonini bermoqda. Bu esa raqamli avlod va valeologik madaniyat o‘rtasidagi yangi ko‘prikdir.

Ommaviy sport va valeologik madaniyat integratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi inson kapitalining sifat jihatdan oshishida hamda davlatning profilaktik meditsina xarajatlarini maqbullashtirishida aks etadi. Valeologik savodxonlikka asoslangan ommaviy sport hayot davomiyligini uzaytirish, turli surunkali va noinfeksion kasalliklarning barvaqt oldini olishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, har taraflama soflik va yuqori mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlar qatlami shakllanib, ularning mamlakat iqtisodiy hamda ma’rifiy taraqqiyotiga qo‘shadigan real hissasi bir necha barobarga ortadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yosh avlodning emotsional barqarorligini ta’minlashda va ruhiy zo‘riqishlarga chidamliligini oshirishda valeologik tamoyillarga tayangan jismoniy faollik yuqori natija beradi. Sport bilan muntazam shug‘ullanish organizmda biokimyo jarayonlarini me’yorlashtirib, ruhiy tushkunlik va xavotir hissini kamaytirsa, valeologik bilimlar shaxsda psixologik muvozanatni saqlash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Bu esa yoshlarning murakkab ijtimoiy muhitga, ta’lim va mehnat jarayonidagi yuklamalarga oson moslashuvini ta’minlaydi.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy siyosatida ommaviy sportni rivojlantirish va aholi salomatligini muhofaza qilish borasida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari sohani institutsional qo‘llab-quvvatlashning mustahkam poydevori bo‘ldi. Ushbu hujjatlar nafaqat sport infratuzilmasini yaxshilash, balki jamiyatda salomatlik madaniyatini keng singdirish uchun tashkiliy-huquqiy kafolatlarni ta’minladi. Davlat va jamiyat hamkorligida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar aholi turmush tarzini tubdan o‘zgartirishga va hayot sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Falsafiy-ma’rifiy nuqtai nazardan, salomatlik inson mavjudligining va o‘zligini namoyon etishining oliy qadriyati bo‘lib, ommaviy sport va valeologik madaniyat ushbu qadriyatni ro‘yobga chiqaruvchi asosiy omillardir. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy va fiziologik kamolot uzviyligi haqidagi qarashlari zamonaviy valeologik konsepsiyalar bilan uyg‘unlashib, yangi bosqichda namoyon bo‘lmoqda. Jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxlitlikda idrok etish yoshlarda yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ommaviy sport va valeologiya integratsiyasi yoshlarda o‘z-o‘zini boshqarish va intizomlilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim pedagogik vositadir. Kun tartibiga va mashg‘ulotlar rejimiga rioya qilish shaxsda iroda, matonat va maqsad sari intiluvchanlik kabi muvaffaqiyat omillarini tarbiyalaydi. Bu jarayonda valeologik bilimlarga tayanadigan yoshlar o‘z jismoniy imkoniyatlaridan to‘g‘ri va samarali foydalana oladilar.

Shuningdek, ushbu integratsion jarayon yoshlar o‘rtasida turli deviant xulq-atvor, ya’ni zararli odatlarga berilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik funksiyani bajaradi. Ommaviy sport bilan shug‘ullanish va valeologik bilimlarni egallash yoshlarning diqqatini salbiy ta’sirlardan ijobiy va bunyodkor g‘oyalarga yo‘naltiradi. Salomatlikni oliy qadriyat deb bilgan yoshlar o‘z hayoti va kelajagiga mas’uliyat bilan yondashadilar.

Sog‘lom avlodni shakllantirishda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida valeologik hamda va sport yo‘nalishidagi targ‘ibot tadbirlarining sifati va mazmunini oshirish alohida o‘rin

tutadi. Talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan seminar, trening va sport musobaqalarining uyg‘unligi ularning ilmiy hamda amaliy tajribasini boyitadi. Bu esa kelajakda har bir mutaxassisning o‘z sohasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, zamonaviy O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarziga oid yondashuvlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan idrok etish salomatlik tushunchasini tor tibbiy doiradan chiqarib, uni inson va jamiyat mavjudligining fundamental aksiologik hamda ontologik kategoriyasi darajasiga ko‘taradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida milliy-ma’naviy qadriyatlarning zamonaviy sotsiokulturniy va valeologik konseptsiyalar bilan sintezi shaxsda o‘z salomatligiga nisbatan mas’uliyatli va ongli munosabatni qaror toptirishning asosiy omiliga aylangan. Sog‘lom turmush tarzi inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltiruvchi va milliy genofond xavfsizligini kafolatlovchi ijtimoiy qadriyat bo‘lib, u davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashgan mas’uliyat asosida barqaror shakllanadi. Shunday qilib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha falsafiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish Yangi O‘zbekistonda ma’nan va jismonan barkamol, raqobatbardosh hamda ijtimoiy faol shaxsni voyaga yetkazishning mustahkam g‘oyaviy-metodologik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saifnazarov I.S. Yangi O‘zbekiston strategiyasi va inson kapitali rivojlanishi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2023. – 240 b.
2. Qahhorova M.M. Salomatlik madaniyati va shaxs ma’naviy kamoloti. – Toshkent: “Faylasuflar jamiyati”, 2022. – 180 b.
3. Nazarov Q.N. Milliy tarbiya va oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. – Toshkent: “Ma’rifat”, 2021. – 210 b.
4. Ruzmatova G.M. Zamonaviy pedagogikada valeologik yondashuvlar integratsiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2024. – 160 b.
5. Sultonov B.A. Mahallalarda ommaviy sportni rivojlantirishning ijtimoiy-tashkiliy mexanizmlari. – Buxoro: “Buxoro nashriyoti”, 2023. – 195 b.
6. Ismoilov M.X. Raqamli jamiyatda yoshlar va jismoniy faollik madaniyati. – Toshkent: “Universitet”, 2022. – 175 b.
7. Toshmatov O.R. Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va profilaktik meditsina samaradorligi. – Toshkent: “Tibbiyot nashriyoti”, 2024. – 150 b.
8. Xalilov Sh.R. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. – Samarqand: “SamDU nashri”, 2023. – 265 b.
9. Mahmudov N.M. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat va huquqiy islohotlar. – Toshkent: “Adolat”, 2024. – 220 b.
10. Rahimov A.K. Sog‘lom avlod konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy va valeologik asoslari. – Toshkent: “Noshir”, 2023. – 190 b.
11. Karimov U.K. Shaxs ma’naviy intizomi va jismoniy kamoloti. – Farg‘ona: “Farg‘ona nashriyoti”, 2022. – 155 b.
12. Abdullayev Sh.A. Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi va sport. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2023. – 170 b.
13. Yo‘ldoshev J.G‘. Oliy ta’limda valeologik ta’lim-tarbiya texnologiyalari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021. – 205 b.
14. Umurova G.S. Xotin-qizlar va oila salomatligini muhofaza qilishning sotsiokulturniy aspektlari. – Buxoro: “Durdona”, 2024. – 145 b.
15. Ergashov A.E. Ekologiya, valeologiya va inson salomatligi. – Toshkent: “Fan”, 2022. – 230 b.
16. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – 416 b.

ИНТЕГРАЦИЯ ГУМАНИТАРНЫХ И МЕДИЦИНСКИХ ЗНАНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО МЕДИЦИНСКОГО СПЕЦИАЛИСТА

Бураханова А.С., Абдыкадырова А.Р.
магистр педагогических наук, ассистент-профессор
Казахский национальный медицинский университет имени С.Д. Асфендиярова

Современное медицинское образование развивается в условиях стремитель-ного развития биомедицины, цифровых технологий, телемедицины и искусственного интеллекта. Новые технологии значительно расширяют возмож-ности диагностики и лечения, однако одновременно усложняют профессиональные и нравственные задачи медицинского специалиста.Сегодня от специалиста здравоохранения требуется не только владение клиническими знаниями и практическими навыками, но и способность понимать личностные, психологичес-кие, социальные и культурные особенности пациента. Медицинская деятельность осуществляется в пространстве человеческого взаимодействия, поэтому доверие, эмпатия, уважение достоинства пациента и ответственное принятие решений становятся важными составляющими профессионализма.В этой связи особое значение приобретает интеграция гуманитарных и медицинских знаний. Гуманитарные дисциплины позволяют рассматривать пациента не только как объект диагностики и лечения, но и как личность с собственными ценностями, убеждениями, эмоциональными и социальными потребностями [1–3].

Цель статьи — обосновать значение интеграции гуманитарных и медицинских знаний в формировании этической культуры будущего медицинского специалиста.

Традиционно медицинское образование ориентировано преимущественно на освоение естественно-научных и клинических дисциплин: анатомии, физиологии, фармакологии, патологии, терапии, хирургии и других профессиональных предметов. Однако эффективность медицинской деятельности определяется не только объемом специальных знаний, но и способностью специалиста взаимо-действовать с пациентом. Гуманизация медицинского образования предполагает ориентацию профессиональной подготовки на человека, его достоинство, права и индивидуальные потребности. В этом процессе гуманитарные дисциплины выполняют важную системообразующую функцию. Философия способствует развитию критического и рефлексивного мышления, позволяет осмыслить такие фундаментальные категории медицинской деятельности, как жизнь, здоровье, болезнь, страдание, смерть, свобода и ответственность. Этика и биоэтика формируют способность анализировать моральные аспекты профессиональных решений. Психология помогает понимать эмоциональное состояние пациента и особенности его поведения в ситуации болезни. История медицины способствует формированию профессиональной идентичности и пониманию исторического развития медицинской профессии. Культура речи и коммуникативная подготовка обеспечивают способность специалиста доступно и корректно взаимодействовать с пациентами и коллегами. Таким образом, гуманитарное образование помогает будущему специалисту отвечать не только на вопрос «как лечить?», но и на вопросы «кого мы лечим?», «каковы ценности пациента?» и «каковы этические последствия принятого решения?». Современные исследования подтверждают эффективность включения гуманитарных дисциплин в медицинское образование. Систематические и обзорные исследования отмечают их вклад в развитие этического мышления, эмпатии, рефлексии, культурной чувствительности и профессиональной идентичности студентов [1–4].

Этическая культура медицинского специалиста представляет собой совокупность профессиональных ценностей, моральных принципов, норм поведения и установок, определяющих отношение специалиста к пациенту, коллегам и обществу.

Основными компонентами этической культуры являются уважение человеческого достоинства, профессиональная ответственность, соблюдение конфиденциальности,

уважение автономии пациента, эмпатия, профессиональная честность, недопущение дискриминации и готовность к саморефлексии. Современная биоэтика традиционно опирается на четыре базовых принципа: уважение автономии пациента, благодеяние, непричинение вреда и справедливость. Эти принципы имеют непосредственное значение при решении вопросов информированного согласия, отказа от лечения, медицинской тайны, трансплантации, репродуктивных технологий и распределения медицинских ресурсов [5]. В Международном кодексе медицинской этики Всемирной медицинской ассоциации подчеркивается необходимость уважения человеческой жизни, достоинства, автономии и прав пациента. Следовательно, этическая культура должна рассматриваться не как дополнительное качество, а как неотъемлемая часть профессиональной компетентности медицинского специалиста [6]. Формирование этической культуры невозможно обеспечить только посредством изучения теоретических определений. Необходимы практико-ориентированные методы: анализ профессиональных ситуаций, дискуссии, ролевые игры, решение биоэтических кейсов и рефлексивные задания. Такой подход позволяет студенту не только знать этические нормы, но и применять их в конкретной профессиональной ситуации.

Особое место в гуманитарной подготовке медицинского специалиста занимает развитие коммуникативной компетентности. Пациент может испытывать боль, тревогу, страх или эмоциональное напряжение, поэтому медицинское общение требует не только передачи информации, но и умения слушать, понимать эмоциональное состояние человека и создавать атмосферу доверия. Коммуникативная компетентность включает речевой, психологический, этический и социально-культурный компоненты. Специалист должен уметь объяснять сложную медицинскую информацию понятным языком, учитывать культурные и социальные особенности пациента, уважать его позицию и поддерживать профессионально корректный диалог. Следовательно, культура речи непосредственно связана с медицинской этикой. Избыточное использование сложной терминологии может затруднять понимание информации пациентом и снижать эффективность взаимодействия. Поэтому языковая и гуманитарная подготовка должна рассматриваться как важная составляющая профессионального образования медицинского специалиста.

Интеграция гуманитарных и медицинских знаний приобретает особое значение в условиях цифровой трансформации здравоохранения. Искусственный интеллект применяется для анализа медицинских изображений и данных, поддержки диагностики, прогнозирования заболеваний и оптимизации лечебных процессов. Вместе с тем использование цифровых технологий сопровождается новыми этическими проблемами: защитой персональных и медицинских данных, конфиденциальностью, алгоритмической предвзятостью, прозрачностью решений и распределением ответственности между медицинским специалистом и технологической системой. Поэтому будущий медицинский специалист должен понимать не только возможности искусствен-ного интеллекта, но и его ограничения и потенциальные риски. Гуманитарные дисциплины в данном случае выполняют функцию этической рефлексии, позволяя оценивать технологии с позиций человеческого достоинства, безопасности, справедливости и ответственности.

Эффективная интеграция гуманитарного и медицинского образования может осуществляться посредством следующих методов:

- кейс-метода — анализа ситуаций, связанных с отказом пациента от лечения, медицинской тайной, конфликтами и использованием ИИ;
- междисциплинарных занятий — рассмотрения одной медицинской проблемы одновременно с медицинской, психологической, этической и коммуникативной позиций;
- ролевых игр — моделирования ситуаций «врач — пациент», «фармацевт — пациент», «врач — родственник пациента»;
- рефлексивных заданий — анализа студентом собственных профессиональных и этических установок;

- дискуссий по биоэтическим проблемам — развития аргументации и способности уважать альтернативные позиции;
- анализа художественных и документальных материалов — формирования эмпатии и понимания человеческого измерения болезни;
- использования искусственного интеллекта в образовательном процессе — моделирования профессиональных диалогов и этических ситуаций при обязательной критической оценке полученной информации.

Подобные методы способствуют развитию у студентов этической чувствительности, коммуникативной компетентности, рефлексивного мышления и профессиональной идентичности [2–4].

Интеграция гуманитарных и медицинских знаний является важным условием совершенствования современной профессиональной подготовки медицинских специалистов. Развитие медицинских технологий не снижает, а, напротив, повышает значение гуманистических ценностей, поскольку медицинская деятельность остается прежде всего формой взаимодействия человека с человеком. Философия способствует развитию критического и рефлексивного мышления, этика и биоэтика — формированию ответственного отношения к профессиональным решениям, психология — пониманию личности пациента, история медицины — формированию профессиональной идентичности, а культура речи — развитию эффективной и гуманной коммуникации. Особую актуальность междисциплинарный подход приобретает в условиях цифровизации здравоохранения и распространения искусственного интеллекта. Современный медицинский специалист должен обладать не только клинической компетентностью, но и развитой этической и гуманитарной культурой. Таким образом, интеграция гуманитарных и медицинских дисциплин позволяет подготовить специалиста, способного не только диагностировать и лечить, но и понимать человека, уважать его достоинство, учитывать его ценности и принимать профессионально и нравственно обоснованные решения.

Список литературы:

1.Hemadi M., Lamb S. D., Mercuri M., Rangel J. C. What do we mean by ‘the Humanities’ in medical education? A scoping review of empirical humanities-based interventions // *Medical Humanities*. 2026. DOI: 10.1136/medhum-2025-013537. PubMed

2. Eno C., Piemonte N., Michalec B. et al. Forming Physicians: Evaluating the Opportunities and Benefits of Structured Integration of Humanities and Ethics into Medical Education // *Journal of Medical Humanities*. 2023. Vol. 44. P. 503–531. DOI: 10.1007/s10912-023-09812-2. PubMed

3. Carr S. E., Noya F., Phillips B. et al**.** Health Humanities curriculum and evaluation in health professions education: a scoping review // *BMC Medical Education*. 2021. Vol. 21. DOI: 10.1186/s12909-021-03002-1. PubMed

4. Yin X., Wei W., Zheng Y. The emerging trends of healthcare professions' ethics education in recent 10 years: a systematic review // *Frontiers in Medicine*. 2026. Vol. 13. Article 1748761. .(PubMed)

5. UNESCO. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris, 2005. UNESCO — Bioethics and Human Rights

6. World Medical Association. WMA International Code of Medical Ethics. Adopted by the 73rd WMA General Assembly, Berlin, 2022. Официальный документ WMA

7. Doukas D. J., McCullough L. B., Wear S. et al. Perspective: Medical education in medical ethics and humanities as the foundation for developing medical professionalism // *Academic Medicine*. 2012. Vol. 87, No. 3. DOI: 10.1097/ACM.0b013e318244728c. PubMed

8. Howick J., Zhao L., McKaig B. et al. Do medical schools teach medical humanities? Review of curricula in the United States, Canada and the United Kingdom // *Journal of Evaluation in Clinical Practice*. 2021. DOI: 10.1111/jep.13589. PubMed

BIOETIKANING INNOVATSION-METODOLOGIK KONSEPSIYALARI VA TIBBIY TA'LIMDA KASBIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Umirzakova Nargiza Akmalovna,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi (PhD)dotsenti

Bioetika yangi fan va amaliy etika sifatida, o'zida fanlararo bilimlarni jamlagan falsafiy va ilmiy tadqiqotlar sohasi bo'lib, uning vazifasi zamonaviy tibbiyotda ro'y berayotgan muammoli vaziyatlarni tushunish, muhokama qilish va hal qilishga qaratilgan. Bioetikaning innovatsion-metodologik konsepti bioetikaviy muammolarni faqat nazariy masala sifatida emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan, transdissiplinar, o'zida turli soha bilimlarini integratsiya qilgan va bashoratga asoslangan yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Bu konsept bioetika fanini rivojlantirish, tibbiy ta'limning o'quv rejalariga kiritish, tibbiyotda biotexnologiyalarni joriy etish va sun'iy intellektdan foydalanishda inson huquqlarini ximoya qilish va ta'minlash, hamda milliy va xalqaro etika kodekslari va yuridik xujjatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bioetikaviy muammolarning innovatsion-metodologik konsepti - zamonaviy tibbiyot va falsafaning strategik yo'nalishi bo'lib, u ilm-fan kashfiyotlari va yangi texnologiyalar rivoji bilan inson qadriyatlarini birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi[1, b. 123].

Zamonaviy tibbiyot va fan-texnika taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda, inson salomatligi va hayotiga ta'sir etuvchi omillar ko'lami misli ko'rilmagan darajada kengaydi. Tibbiyotdagi so'nggi yutuqlar - sun'iy intellekt texnologiyalari, gen muhandisligi, organlar transplantatsiyasi va reanimatologiya yutuqlari insoniyat oldiga mutlaqo yangi axloqiy-huquqiy dilemmalarni ko'ndalang qo'ymoqda. Ana shunday murakkab jarayonda bioetika fan va amaliy etika sifatida fanlararo bilimlarni o'zida jamlagan holda, tibbiyotdagi muammoli vaziyatlarni falsafiy va ilmiy tahlil qilishning muhim vositasiga aylanmoqda[2, b. 123]. Bioetikaning innovatsion-metodologik konsepti bioetikaviy muammolarni faqat nazariy masala sifatida emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan, transdissiplinar va prognozga asoslangan yondashuv sifatida namoyon etadi. Ilmiy-texnologik kashfiyotlar jamiyat hayotiga shiddat bilan kirib borayotgan bir paytda, yangi bilimlarni klinik amaliyotga joriy etishdan oldin ularning inson sog'ligi va hayotiga ta'sirini har tomonlama xolis baholash talab etiladi.

Tarixiy jihatdan qaraganda, tibbiyotni insonparvarlashtirish g'oyasi Gippokrat, Galen hamda Sharq mutafakkirlari - Is'hoq ibn Al-Ruhoviy, Zakariyo al-Roziy va Abu Ali Ibn Sinolarning «Odob al-tabib» axloqiy qadriyatlar tizimida o'z ifodasini topgan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab biotibbiyotdagi global o'zgarishlar (V.R.Potter, X.Yonas, T.Boshamp, J.Chayldress va b. tadqiqotlari) yangicha dunyoqarash va mas'uliyat etikasini shakllantirishni taqozo etdi[3, b. 123].

Bioetika inson borlig'ining ikki qutbi - hayot va o'lim oralig'ida yuzaga keladigan murakkab ekzistensial vaziyatlarni hal etishga qaratilgan. Xususan, quyidagi yo'nalishlar jiddiy axloqiy-huquqiy muhokamalarni talab qiladi:

O'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish apparatlarining paydo bo'lishi bilan hayot va o'lim o'rtasidagi chegaralar hiralashdi. Miya o'limi tashxisi qo'yilgan bemorlarni saqlab turish yoki reanimatsiya tadbirlarini to'xtatish masalasi yangi ontologik va huquqiy yondashuvlarni keltirib chiqardi.

Sun'iy urug'lantirish (*in vitro*), surrogat onalik, embrion to'qimalaridan foydalanish va gen diagnostikasi kabi jarayonlar insonning boshlanish davridayoq jiddiy axloqiy savollarni tug'diradi. Xabardorlikka asoslangan rozilik olish, shifokor sirini saqlash (ayniqsa psixiatriya amaliyotida majburiy davolash masalalari), shuningdek, bemor og'ir diagnoz bilan yuzlashganda haqiqatni aytish yoki yashirish dilemmasi.

Tibbiyotda robotlashtirilgan amaliyotlar, genetik testlar va klonlashtirish tajribalarida inson huquqlarini himoya qilish, milliy va xalqaro etika kodekslarini uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardandir.

Yuqorida qayd etilgan murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish faqatgina tibbiy bilimlar bilan cheklaanib qolmaydi. Buning uchun tibbiy ta'lim tizimida bioetika fanini chuqur o'qitish, talablarda kasbiy mas'uliyat va axloqiy barqarorlikni shakllantirish shart.

Bioetikaning innovatsion-metodologik konsepti XXI asr tibbiyoti va falsafasining strategik yo‘nalishi bo‘lib, ilm-fan kashfiyotlarini inson qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy ta’lim jarayoniga bioetikaviy bilimlarni integratsiya qilish orqali kelajakdagi shifokorlarda yuksak kasbiy mas’uliyat, insonparvarlik, bemorlarning huquqlarini hurmat qilish va eng murakkab axloqiy dilemmalarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin[4, b. 123].

Bundan shunday muhim xulosa chiqarishimiz mumkinki, bioetika asoslarini o‘rganish va o‘zlashtirish tibbiy ta’limning zaruriy qismiga aylanishi shart. Bioetikaning innovatsion-metodologik konsepti bioetikaviy muammolarni faqat nazariy masala sifatida emas, balki amaliyotga yo‘naltirilgan, transdissiplinar va prognozga asoslangan yondashuv sifatida ko‘radi. Bu konsept tibbiy ta’limda bioetikaviy fanlarni rivojlantirish, tibbiyotda sun’iy intellekt va biotexnologiyalarni joriy etishda inson huquqlarini ta’minlash, hamda milliy va xalqaro miqyosidagi etika kodekslarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bioetikaviy muammolarning innovatsion-metodologik konsepti - XXI asr tibbiyoti va falsafasining strategik yo‘nalishi bo‘lib, tibbiyot sohasida inson xuquqlarini ta’minlash, zamonaviy biotexnologiyalar va kasbiy faoliyatda axloqiy barqarorlikni yaratish, inson qadriyatlari va texnologiya rivoji bilan uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. https://lex.uz/docs/6445145
2. Ўзбекситон Республикасининг Қонуни, “Фуқаролар соғлиғини сақлаш тўғрисида” 29.08.1996 йилдаги 265-I-сон. https://lex.uz/docs/26013?ONDATE
3. Мишаткина Т.В. Универсальные принципы и нормы биоэтики // Медицина. -– 2008. №2. – С. 1-4.
4. Юдин Б.Г. От клятвы Гиппократа к биоэтике / Экология и жизнь, –2005. №6. – С. 32-35.

ТАЪЛИМ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ШАРОИТИДА БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАРНИНГ ШАХСИЙ-ПРОФЕССИОНАЛ ИЖОДИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ИЛМИЙ ТАҲЛИЛ

Юлдашова Ш.Т.
Бухоро давлат тиббиёт институти доценти

Рақамли иқтисодиётга ўтиш, сунъий интеллект технологияларининг жадал ривожланиши ва меҳнат бозоридаги ноаниқлик даражасининг ортиши (VUCA/BANI муҳити) бўлажак мутахассис моделини тубдан ўзгартирмоқда [13]. Жаҳон иқтисодий форуми ва ОЭСДнинг стратегик ҳужжатларида таъкидланганидек, комплекс муаммоларни ҳал қилиш ва ижодий фикрлаш XXI аср компетенцияларининг марказий ўринларидан бирини эгаллайди [19]. Шу билан бирга, ушбу муаммони ҳал этишга йўналтирилган мавжуд педагогик ёндашувларни таҳлил қилиш «ижодий компетенция» тушунчасининг ҳали мустақил, тизимли илмий категория сифатида етарлича ишлаб чиқилмаганини кўрсатади. Мақоланинг мақсади — мазкур муаммонинг назарий-методологик асосларини илмий адабиётлар таҳлили орқали умумлаштириш ва истиқболли тадқиқот йўналишларини белгилашдир.

1. «Таълим трансформацияси»: рақамлаштиришдан концептуал фарқи

Илмий адабиётда «таълим трансформацияси» тушунчасини «рақамлаштириш» (digitalization) билан айнанлаштириш кенг тарқалган методологик хато ҳисобланади. Б.Е. Стариченконинг таъкидлашича, таълимни рақамлаштиришга доир умидлар кўпинча иллюзорлик касб этади, чунки техник воситаларнинг ўзи автоматик равишда педагогик парадигма ўзгаришини таъминламайди. Таълим ислоҳотлари (educational reform), модернизацияси (modernization) ва ахборотлаштириши (informatization) каби турдош тушунчалардан фарқли ўлароқ, трансформация таълим экотизимининг ўзини — педагог ва

талаба ўртасидаги муносабатлар моҳиятини, билимга кириш механизмларини — концептуал жиҳатдан қайта қуришни англатади.

Бу жараённинг фалсафий асоси гуманизм ва конструктивизмга бориб тақалади: П. Фрейре анъанавий таълимни билимларни бир томонлама узатиш («банк тизими») сифатида танқид қилиб, диалогик, ижодий таълим жараёнини таклиф этган бўлса, Г. Жиру ўқитувчиларни «трансформатив зиёлилар» сифатида қайта таърифлаган. О. Цыбулко ва ҳаммуаллифларининг тадқиқотлари эса таълим трансформациясининг ўзи ижтимоий инқирозли ўзгаришларга педагогик жавоб сифатида шаклланганини кўрсатади, М. Мухиденова эса уни барқарор ривожланиш контекстида кўриб чиқади.

Кенгроқ ижтимоий контекстда Г.Б. Коровин [22] ва С.В. Володенков [23] рақамлаштиришнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий-коммуникатив жараёнларни ҳам тубдан ўзгартираётганини кўрсатади — бу таълим трансформациясининг кенгроқ ижтимоий-технологик трансформациянинг таркибий қисми эканини тасдиқлайди.

2. Шахсий-профессионал сифатлар назариясининг эволюцияси

Шахсий-профессионал сифатлар муаммоси илмий адабиётда икки асосий йўналишда тадқиқ этилган. Функционал-прагматик йўналиш вакиллари (Ж. Равен [20], С. Спенсер [12]) компетентликни аниқ ижтимоий вазиятларда самарали ҳаракат қилиш қобилияти сифатида талқин қилса, акмеологик-гуманистик йўналиш вакиллари (В.А. Сластенин [28], Л.М. Митина [23], Э.Ф. Зеер [11], Е.А. Климов [20], Н.С. Пряжников [26]) шахснинг касбий ўз-ўзини англаши ва узлуксиз камолотига урғу беради.

Замонавий тадқиқотларда бу икки йўналиш синтезланмоқда. Ж.Н. Шмелева ва С.А. Капсаргина [12, 23, 24] шахсий-профессионал сифатларни «умумий» (касбий яроқлиликни таъминловчи) ва «ортиқча» (excess, рақобатбардошликни таъминловчи) турларга ажратади — айнан «ортиқча» сифатлар, жумладан ижодкорлик ва мослашувчанлик, компетентликни оддий касбий тайёргарликдан фарқлайди. Д.О. Химматалиевнинг эмпирик тадқиқотлари бу тизимнинг индивидуал-психологик негизга эга эканини тасдиқлайди.

Психологик механизмлар нуқтаи назаридан А.В. Вяткин ва ҳаммуаллифларининг [7] тадқиқотлари ноаниқлик шароитида қарор қабул қилишда когнитив билимдан кўра эмоционал интеллект ва ноаниқликка толерантликнинг кучлироқ таъсир кўрсатишини исботлайди — бу далил ижодий компетенциянинг фақат когнитив эмас, балки эмоционал-иродавий негизга ҳам эга эканини кўрсатади.

3. Компетентлик ёндашув доирасида ижодий компетенциянинг ўрни

Компетентност ёндашувнинг методологик негизини ОЭСДнинг DeSeCo дастури, UNESCO ICT Competency Framework ва Европанинг DigComp/DigCompEdu рамкалари ташкил этади. К. Редекернинг DigCompEdu концепцияси педагог компетентлигини технологик воситадан фойдаланишдан инновацион контент яратишгача бўлган даражаларда таснифлайди.

Муҳим методологик масала — компетентликнинг тор соҳавий (масалан, тиббий) контекстдаги талқини. К. Карраччио [16] ва Э. Холмбо [17] томонидан ишлаб чиқилган «Компетенциявий тиббий таълим» (Competency-Based Medical Education) концепцияси компетентликни битирувчининг аниқ клиник вазиятларда мустақил ҳаракат қила олиш даражаси сифатида талқин қилади — бу мисол компетентликнинг умумий назарий қатламлари (когнитив, аксиологик-эмоционал, рефлексив) ҳар бир соҳада ўзига хос шаклда қайта талқин қилинишини кўрсатади.

Шу билан бирга, С.И. Десненко ва Т.Е. Пахомованинг [10] тадқиқотлари рақамли компетентликнинг барча бошқа компетенцияларни бирлаштирувчи интегратив сифат сифатида майдонга чиқаётганини кўрсатади — бу тенденция сунъий интеллект даврида ижодий компетенция билан рақамли компетенция ўртасидаги чегаранинг юпқалашувини англатади.

4. Мавжуд педагогик амалиётдаги асосий зиддиятлар

Ўтказилган таҳлил уч жиддий методологик муаммони ошкор қилади.

Биринчидан, психологик барьерлар муаммоси. М.В. Селезнева ва В.Ю. Аксенованинг [27] эмпирик тадқиқотлари шуни исботлайдики, рақамли муҳитда мутахассисларнинг асосий муаммоси технологик саводсизлик эмас, балки ички психо-эмоционал қаршилик — ўз янги ролини англамасликдир. Бу далил хатто юқори даражада молиялаштирилган технологик лойиҳаларда ҳам (масалан, М. Кёрнининг [21] интерактив тахта технологиясига оид тадқиқотида кўрсатилганидек) такрорланади.

Иккинчидан, техникаларнинг тизимли боғланмаганлиги муаммоси. Мавжуд амалиётда лойиҳавий таълим, кейс-стади ва симуляциялар кўпинча алоҳида, бир-биридан узилган педагогик усуллар сифатида қўлланилади — Н. Акрамова ва А. Марасуловнинг [22] тадқиқотлари бу технологияларнинг юқори самарадорлигини тасдиқласа-да, уларнинг ўзаро изчил боғланиши масаласи очиқ қолмоқда.

Учинчидан, ва диссертация мавзуси учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлгани — гетероген маълумотларни баҳолаш муаммоси. С. Кашкевич ва А. Шишацкий ҳамкорлигидаги тадқиқотлар [14–18] мураккаб техник тизимларни баҳолашда сунъий нейрон тармоқлари ва биоинспирацияланган метаэвристик алгоритмларнинг юқори самарадорлигини кўрсатади, бироқ бу усуллар ҳали педагогика соҳасида, хусусан ижодий компетенцияни баҳолашда, тизимли татбиқ этилмаган.

5. Хорижий ва миллий амалиётнинг қиёсий таҳлили

Ривожланган давлатлар тажрибасини таҳлил қилиш уч хил институционал механизмни ошкор қилади: Англо-саксон моделида лойиҳавий-фанлараро ёндашув, Европа моделида структуравий-гуманистик механизм (Болонья жараёни), Осиё-Тинч океани моделида эса технологик-интеграциявий механизм устувор. Ж. Пеллегрино ва М. Хилтоннинг тадқиқотларида кўрсатилганидек, барча уч моделда «ўтказилувчан кўникмалар» (transferable skills) ва комплекс муаммоларни ҳал қилиш қобилияти устувор компетенциялар сифатида тан олинган.

Ўзбекистон миллий амалиётида, Н.А. Акрамова, А.Ф. Марасулов [22] ва М.Б. Усмонованинг тадқиқотларида кўрсатилганидек, тиббиёт ва педагогика йўналишларида симуляцион ўқитиш, лойиҳавий таълим ва клиник ҳолатлар асосида ўқитиш фаол жорий этилмоқда. Бироқ қиёсий таҳлил шуни кўрсатадики, миллий амалиёт технологик-ташкилий даражада (лойиҳалар, симуляциялар) илғор натижаларга эришган бўлса-да, шаклланган компетенцияларни Learning Analytics ва сунъий интеллект асосидаги интеллектуал баҳолаш тизимлари орқали объектив ўлчаш борасида халқаро амалиётдан орқада қолмоқда.

Хулоса

Ўтказилган илмий таҳлил қуйидаги хулосаларга олиб келади. Биринчидан, «таълим трансформацияси» рақамлаштиришдан фарқли, таълим экотизимини концептуал жиҳатдан қайта қурувчи чуқур жараён бўлиб, у бўлажак мутахассис моделида ижодий компетенциянинг марказий ўринга кўтарилишини тақозо этади. Иккинчидан, шахсий-профессионал сифатлар назарияси ва компетентност ёндашувнинг синтези ижодий компетенцияни мустақил, кўп қатламли илмий категория сифатида асослаш имконини беради. Учинчидан, мавжуд педагогик амалиётнинг асосий чекланиши — техникаларнинг тизимли боғланмаганлиги ва уларни интеллектуал баҳолаш инфратузилмасининг етишмаслиги — келгуси тадқиқотлар учун аниқ илмий йўналишни белгилайди: ижодий компетенцияни ривожлантиришнинг босқичли методикасини ва уни сунъий нейрон тармоқлари ҳамда ноаниқ мантиқ асосида баҳоловчи интеллектуал инструментарийни бирлаштирувчи яхлит концепцияни ишлаб чиқиш.

АДАБИЁТЛАР

1. Вяткин А.В., Фомина Л.В., Шмелева Ж.Н. Empathy, emotional intelligence and decision-making among managers of agro-industrial complex // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. — 2019.

2. Десненко С.И., Пахомова Т.Е. Formation of Future Teachers' Digital Literacy in the Digital Educational Environment of a Pedagogical College // Учёные записки Забайкальского государственного университета. — 2024. — Т. 19, № 3.

3. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Психология профессионального развития: учебное пособие для вузов. — М.: Юрайт, 2021.
4. Карраччио К., Энгландер Р. и др. Advancing Competency-Based Medical Education: A Charter for Clinician–Educators // Academic Medicine. — 2016.
5. Капсаргина С.А., Шмелева Ж.Н. The role of communicative situations in teaching foreign languages // Азимут научных исследований: педагогика и психология. — 2019.
6. Кашкевич С., Шишацкий А. и др. The development of methods for evaluating the state of complex technical systems using artificial intelligence theory. — 2024.
7. Кёрни М., Шак С. и др. Teachers' technology adoption and practices: lessons learned from the IWB phenomenon // Teacher Development. — 2018.
8. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. — М.: Academia, 2004.
9. Коровин Г.Б. Social and Economic Aspects of Digitalization in Russia // Журнал экономической теории. — 2019.
10. Марасулов А.Ф., Акрамова Н.А. Комплексное применение современных образовательных технологий в подготовке медицинских кадров // Журнал гуманитарных и естественных наук. — 2024.
11. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. — М.: Академия, 2004.
12. Мухиденова Б. Pedagogical Transformation of Education in the Context of Sustainable Development. — 2026.
13. Пеллегрино Ж.У., Хилтон М.Л. (ред.) Education for Life and Work: Developing Transferable Knowledge and Skills in the 21st Century. — Washington, DC: The National Academies Press, 2012.
14. Пряжников Н.С., Пряжникова Е.Ю. Психология труда и человеческого достоинства. — М.: Академия, 2001.
15. Равен Дж. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. — London: H.K. Lewis, 1984.
16. Редекер К. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
17. Селезнева М.В., Аксенова В.Ю. Teaching activity in the digital environment of the university // Вестник СамГТУ. Серия «Психолого-педагогические науки». — 2022.
18. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. — М.: Академия, 2002.
19. Спенсер Л.М., Спенсер С.М. Competence at Work: Models for Superior Performance. — New York: John Wiley & Sons, 1993.
20. Стариченко Б.Е. Digitalization of education: illusions and expectations // Pedagogical Education in Russia. — 2020. — № 3.
21. Туробов М.С. Theoretical foundations of the competency-based approach in the context of interdisciplinary integration.
22. Усмонова М.Б. Современные образовательные технологии в подготовке медицинских и фармацевтических кадров. — 2025.
23. Фрейре П. Pedagogy of the Oppressed. — New York: Herder and Herder, 1970.
24. Химматалиев Д.О., Даминов О.О. The structure of professional qualities of individual psychological characteristics // Journal of Social Transformation and Education. — 2020.
25. Холмбо Э.С. Milestones and Competency-Based Medical Education in Internal Medicine // JAMA Internal Medicine. — 2016.
26. Цыбулко О., Землянская Н. и др. Socio-pedagogical study of educational transformation in the period of crisis changes // Laplage em Revista. — 2021.

27. Шишацкий А., Романов О. и др. Development of a solution search method using the improved emperor penguin algorithm // Eastern-European Journal of Enterprise Technologies. — 2023.
28. Шмелева Ж.Н. The facilitation of students' professional self-determination // Azimuth of Scientific Research: Pedagogy and Psychology. — 2020.
29. Giroux H.A. Teachers as Intellectuals: Toward a Critical Pedagogy of Learning. — Westport, CT: Bergin & Garvey, 1988.
30. OECD. Definition and Selection of Competencies (DeSeCo): Theoretical and Conceptual Foundations. — Paris: OECD Publishing, 2003.

ZAMONAVIY GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA SHAXS, JAMIYAT, TA’LIM VA SOG‘LIQNI SAQLASH: MA’NAVIY-BIOETIK BARQARORLIKNING FALSAFIY ASOSLARI

Jomardova Dilafruz Qahramonovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi (PhD)

XXI asr insoniyat tarixida tub o‘zgarishlar davri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot, globallashuv, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, biotexnologiya, tibbiy innovatsiyalar va axborot kommunikatsiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha sohalarini o‘zgartirmoqda.

Bir tomondan, bu jarayonlar inson uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Tibbiyotda ilg‘or diagnostika va davolash usullari paydo bo‘lmoqda, ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda, axborotga kirish osonlashmoqda. Ikkinchi tomondan esa yangi imkoniyatlar bilan birga yangi axloqiy savollar ham yuzaga kelmoqda.

Masalan, sun’iy intellekt tibbiyotda qaror qabul qilish jarayoniga qanchalik jalb qilinishi mumkin? Bemorning shaxsiy ma’lumotlarini kim va qanday himoya qilishi kerak? Biotexnologiyalarning rivojlanishi inson tabiatini o‘zgartirish imkoniyatini berganda axloqiy chegaralar qayerda bo‘ladi? Raqamli ta’lim insonning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bir paytda, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli insoniy munosabatlarning o‘rni qanday bo‘ladi?

Bu savollar faqat tibbiyot, pedagogika yoki texnologiya mutaxassislariga tegishli emas. Ular insonning o‘zi va jamiyat kelajagi haqidagi falsafiy savollardir.

Shu sababli zamonaviy global o‘zgarishlarni tushunishda fanlararo yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi[2].

1. INSON FALSAFASI: TEXNOLOGIK TARAQQIYOT MARKAZIDA INSON QADRI. Falsafaning eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb savollaridan biri — inson kim?

Insonni faqat biologik mavjudot sifatida tushuntirish uning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Inson biologik ehtiyojlarga ega bo‘lish bilan birga, ma’naviy qadriyatlarni yaratadi, axloqiy tanlov qiladi, kelajakni tasavvur qiladi, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etadi[3].

Shu ma’noda insonning qadr-qimmati uning iqtisodiy foydasi, kasbiy mavqei yoki jamiyatga keltiradigan moddiy manfaatlari bilan o‘lchanmasligi kerak.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi aynan shu masalani yanada dolzarb qilmoqda.

Bugun mashinalar ayrim intellektual vazifalarni bajarishi, algoritmlar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishi va tibbiy diagnostikada yordam berishi mumkin. Ammo insonning qadr-qimmati uning ma’lumotni qayta ishlash tezligida emas.

Insonning o‘ziga xosligi — uning **mas’uliyat, hamdardlik, vijdon, axloqiy tanlov va ma’naviy mazmun yaratish qobiliyatida** namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun texnologik taraqqiyotning asosiy mezoni “nima qilish mumkin?” degan savol bilan cheklanmasligi kerak.

Undan ham muhimroq savol:

“Nima qilish mumkin va nima qilish kerak?”

Birinchi savol texnologiyaning imkoniyatini ifodalaydi. Ikkinchisi esa axloqning chegarasini belgilaydi.

2. AXLOQ VA ZAMONAVIY JAMIYAT: QOIDADAN ICHKI MAS'ULIYATGACHA. Axloq jamiyatning ma'naviy poydevorlaridan biridir. Huquq inson xatti-harakatlarining tashqi chegaralarini belgilasa, axloq ko'pincha insonning ichki chegarasini belgilaydi[4].

Insonning axloqiyligi uni hech kim kuzatmayotgan paytdagi tanlovida ham namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda axloq masalasi yanada murakkablashmoqda. Chunki inson bir vaqtning o'zida real va virtual makonda faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan birgina fikr minglab yoki millionlab insonlarga yetib borishi mumkin. Demak, raqamli makondagi xatti-harakat ham axloqiy mas'uliyatni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan "raqamli axloq" tushunchasi alohida ahamiyatga ega.

Raqamli axloq quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- shaxsiy ma'lumotlarni hurmat qilish;
- yolg'on axborot tarqatmaslik;
- inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- kiberbulling va virtual zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik;
- sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish;
- ilmiy va ta'limiy ma'lumotlardan halol foydalanish.

Demak, zamonaviy axloq an'anaviy qadriyatlarni inkor etmaydi. Aksincha, ularni yangi texnologik sharoitga mos ravishda qayta anglashni talab qiladi.

3. BIOETIKA: TIBBIYOT RIVOJLANISHI VA INSON QADR-QIMMATI O'RTASIDAGI MUVOZANAT. Tibbiyot inson hayotini saqlash va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan eng muhim ijtimoiy institutlardan biridir.

Biroq tibbiyot rivojlangani sari uning oldida yangi axloqiy muammolar ham paydo bo'ladi. Aynan shu ehtiyoj bioetikaning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Bioetika — biologiya va tibbiyotdagi rivojlanishning inson, jamiyat va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini o'rganadigan fanlararo sohadir.

Zamonaviy bioetikaning markazida insonning qadr-qimmati turadi.

Tibbiyot xodimi uchun bemor shunchaki "kasallik tarixi" yoki "tibbiy holat" emas. U his-tuyg'ulari, qo'rquvlari, umidlari, oilasi va shaxsiy hayotiga ega bo'lgan insondir[5].

Shu sababli zamonaviy tibbiy yondashuvda bemorga hurmat bilan munosabatda bo'lish, uning huquqlari va shaxsiyligini e'tiborga olish, tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash hamda imkon qadar ongli ishtirokini ta'minlash muhim axloqiy tamoyillar hisoblanadi.

Bu yerda juda muhim falsafiy xulosa paydo bo'ladi:

Tibbiyotning texnik imkoniyati qanchalik yuqori bo'lmasin, agar unda insoniylik kamayib ketsa, taraqqiyotning ma'naviy mazmuni zaiflashadi.

Shuning uchun zamonaviy tibbiyotga ikki qanot zarur: biri — ilm va texnologiya, ikkinchisi — axloq va insonparvarlik.

4. TA'LIM: BILIM BERISHDAN INSONNI SHAKLLANTIRISHGACHA. Ta'lim jamiyat taraqqiyotining eng muhim mexanizmlaridan biridir.

An'anaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bilim berish bo'lgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda bu vazifa yanada kengaymoqda.

Bugungi mutaxassis faqat kasbiy bilimga ega bo'lishi yetarli emas. U:

- tanqidiy fikrlay olishi;
- axborotni tahlil qila olishi;
- jamoada ishlashi;
- muloqot madaniyatiga ega bo'lishi;
- axloqiy mas'uliyatni his qilishi;
- inson qadr-qimmatini hurmat qilishi;
- o'z kasbiy qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini tushunishi kerak.

Ayniqsa tibbiy ta’limda bu masala juda muhim.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasasida talaba anatomiya, fiziologiya, farmakologiya yoki klinik fanlarni o‘rganadi. Ammo bemor bilan muloqot qilish, uning qo‘rquvini tushunish, og‘ir xabarni ehtiyotkorlik bilan yetkazish, bemorning sha’nini hurmat qilish kabi ko‘nikmalar ham professional tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

Demak:

Yaxshi mutaxassis — ko‘p narsani biladigan inson emas, balki bilgan narsasidan inson manfaatlari yo‘lida to‘g‘ri foydalana oladigan insondir.

Shu sababli ta’lim tizimida kasbiy kompetensiya va axloqiy kompetensiyani bir-biridan ajratmaslik zarur.

5. SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI — IJTIMOIY BARQARORLIKNING MUHIM OMILI. Sog‘liqni saqlash tizimining vazifasi faqat kasalliklarni davolashdan iborat emas. U jamiyatning inson salomatligiga bo‘lgan munosabatini ham shakllantiradi.

Sog‘lom jamiyatni yaratish tibbiyot muassasalari bilangina cheklanmaydi. Bu jarayonda oila, ta’lim, mahalla, ommaviy axborot vositalari, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari ham ishtirok etadi[6].

Sog‘liq masalasiga faqat kasallik yuzaga kelgandan keyin emas, balki profilaktika nuqtayi nazaridan qarash zamonaviy tibbiyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Bu esa tibbiyot va pedagogikaning o‘zaro yaqinlashuvini talab qiladi.

Masalan, sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlik va zararli odatlarning oldini olishga oid bilimlar insonda bolalikdan shakllantirilishi kerak.

Shunday ekan, **ta’lim sog‘liqni saqlashning uzoq muddatli profilaktik vositasi**, sog‘liqni saqlash esa ta’limning inson hayoti sifati bilan bog‘liq amaliy natijasidir.

Bu ikki tizimning hamkorligi jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.

6. PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA INSONNING IJTIMOIY MOSLASHUVI

Global o‘zgarishlar insonning nafaqat tashqi hayotini, balki ichki dunyosini ham o‘zgartirmoqda.

Axborotning haddan tashqari ko‘pligi, tezkor hayot sur’ati, kasbiy raqobat, ijtimoiy tarmoqlardagi bosim va doimiy yangiliklarga moslashish ehtiyoji insondan yuqori darajadagi psixologik moslashuvchanlikni talab qiladi.

Shu sababli zamonaviy jamiyatda psixologik barqarorlik masalasi ham ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq[7].

Psixologik barqaror inson muammolarni inkor etmaydi. U muammoni anglaydi, vaziyatni tahlil qiladi, yordam so‘rashdan qo‘rqmaydi va muammoni konstruktiv yo‘l bilan hal qilishga intiladi.

Bu jihatdan ta’lim, tibbiyot va psixologiya o‘rtasidagi hamkorlik muhimdir.

Tibbiyot xodimining bemor bilan to‘g‘ri muloqoti bemorning davolanish jarayonidagi ishonchini mustahkamlashi mumkin. O‘qituvchining talaba yoki o‘quvchiga hurmat bilan munosabati esa uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, **insonning ruhiy farovonligi shaxsiy masala bo‘lib qolmay, jamiyatning umumiy barqarorligi bilan bog‘liq omilga aylanadi.**

7. FAN VA TEXNOLOGIYA: IMKONIYAT VA MAS’ULIYAT. Ilm-fan taraqqiyoti insoniyatga ulkan imkoniyatlar bermoqda. Tibbiyotda yangi diagnostika usullari, raqamli texnologiyalar, biotexnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar kelajakdagi sog‘liqni saqlashni o‘zgartirishi mumkin.

Biroq har qanday ilmiy imkoniyat axloqiy savolni ham yuzaga chiqaradi.

Ilm-fan “qanday amalga oshirish mumkin?” degan savolga javob berishi mumkin.

Falsafa va axloq esa “bu ishning inson va jamiyat uchun ma’nosi nima?” degan savolni qo‘yadi.

Shuning uchun fan va falsafa bir-biriga qarama-qarshi emas. Aksincha, ular insoniyat taraqqiyotining turli jihatlarini to‘ldiradi.

Ilm imkoniyatlarni kengaytiradi.

Axloq esa bu imkoniyatlardan foydalanishning mas’uliyatli chegaralarini izlashga yordam beradi.

Bu tamoyil ayniqsa tibbiyot uchun muhimdir.

Tibbiy innovatsiya faqat texnik jihatdan samarali bo‘lishi emas, balki inson qadr-qimmati, adolat, xavfsizlik va ijtimoiy manfaat nuqtayi nazaridan ham baholanishi kerak[8].

8. “MA’NAVIY-BIOETIK IMMUNITET” — ZAMONAVIY MUTAXASSISNING YANGI KOMPETENSIYASI. Mazkur maqolada zamonaviy global sharoit uchun muhim bo‘lgan **“ma’naviy-bioetik immunitet”** tushunchasini ilgari surish mumkin.

Bu tushunchani insonning murakkab axloqiy va tibbiy vaziyatlarda ongli, mas’uliyatli va insonparvar qaror qabul qila olish qobiliyati sifatida talqin qilish mumkin.

Ma’naviy-bioetik immunitet quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bilim — inson, jamiyat, tibbiyot va axloqiy tamoyillar haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lish.

2. Tanqidiy fikrlash — har qanday axborotni ko‘r-ko‘rona qabul qilmaslik.

3. Empatiya — boshqa insonning holatini tushunishga intilish.

4. Mas’uliyat — o‘z qarorining oqibatlarini anglash.

5. Inson qadr-qimmatini hurmat qilish — shaxsni vosita emas, qadriyat sifatida ko‘rish.

6. Axloqiy tanlov — manfaat va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni topish.

Ayniqsa bo‘lajak tibbiyot xodimlari uchun bunday kompetensiya katta ahamiyatga ega.

Chunki tibbiyotda har bir qarorning markazida inson hayoti va salomatligi turadi.

9. IJTIMOIY BARQARORLIK: BIRLIK EMAS, O‘ZARO HURMAT MADANIYATI. Ijtimoiy barqarorlikni barcha insonlar bir xil fikrlaydigan holat sifatida tushunish mumkin emas.

Jamiyat tabiatan turli qarashlar, ehtiyojlar, kasblar, avlodlar va dunyoqarashlardan tashkil topadi.

Demak, barqaror jamiyatning kuchi farqlarning yo‘qligida emas, balki farqlarni tinch va konstruktiv tarzda boshqarish qobiliyatidadir.

Bu yerda muloqot madaniyati muhim o‘rin tutadi.

Muloqot — shunchaki gaplashish emas. U boshqa insonni tinglash, uning fikrini tushunishga harakat qilish va kelishmovchilikni zo‘ravonliksiz hal qila olish qobiliyatidir.

Tibbiyotda shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot, ta’limda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot, jamiyatda turli guruhlar o‘rtasidagi muloqot bir xil falsafiy tamoyilga tayanadi:

insonni avvalo shaxs sifatida ko‘rish.

Shu sababli muloqot madaniyati ijtimoiy barqarorlikning muhim ma’naviy mexanizmlaridan biridir.

10. FANLARARO YONDASHUV — ZAMONAVIY MUAMMOLARNI HAL ETISH ZARURATI. Bugungi murakkab muammolarni bitta fan doirasida to‘liq tushuntirish qiyin.

Masalan, sun’iy intellektning tibbiyotga kirib kelishini faqat informatika nuqtayi nazaridan o‘rganish yetarli emas.

Bu masala:

- falsafa;
- tibbiyot;
- bioetika;
- huquq;
- psixologiya;
- pedagogika;
- iqtisodiyot;
- sotsiologiya

bilan ham bog‘liq.

Xuddi shuningdek, sog‘liqni saqlashdagi ijtimoiy muammolarni faqat tibbiy statistika orqali tushuntirish ham yetarli emas. Insonning ijtimoiy sharoiti, ta’lim darajasi, madaniy muhit, iqtisodiy imkoniyatlari va psixologik holati ham hisobga olinishi kerak[9].

Shu sababli zamonaviy ilm-fanning kelajagi fanlar o‘rtasidagi chegaralarni mutlaqo yo‘q qilishda emas, balki **turli fanlarning bilimlarini yagona insonparvar maqsad atrofida birlashtirishda** namoyon bo‘ladi.

XULOSA. Zamonaviy global o‘zgarishlar insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi falsafiy va axloqiy muammolarni ham qo‘ymoqda.

Texnologiyalar rivojlanmoqda, ammo inson qadri o‘zgarmas asosiy mezon bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim rivojlanmoqda, ammo bilimning o‘zi yetarli emas — uni axloqiy mas’uliyat bilan qo‘llash zarur.

Tibbiyot imkoniyatlari kengaymoqda, ammo bemorning qadr-qimmati, huquqi va insoniyligi har qanday texnologiyadan ustun turishi kerak[10].

Jamiyat raqamlashtirilmoqda, ammo ijtimoiy ishonch va insonlararo muloqotning ahamiyati kamaymayapti.

Shu nuqtayi nazardan zamonaviy taraqqiyotning asosiy formulalaridan birini quyidagicha ifodalash mumkin:

ILM + TEXNOLOGIYA + AXLOQ + INSONPARVARLIK = BARQAROR TARAQQIYOT

Agar ilm texnologiya bilan, texnologiya axloq bilan, axloq esa insonparvarlik bilan uyg‘unlashsa, taraqqiyot inson manfaatiga xizmat qiladi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining asosiy vazifalaridan biri faqat bilimli yoki malakali mutaxassis tayyorlash emas, balki **inson qadr-qimmatini anglaydigan, axloqiy mas’uliyatni his qiladigan, tanqidiy fikrlaydigan va murakkab vaziyatlarda insonparvar qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish** bo‘lishi lozim[11].

Maqolada ilgari surilgan “ma’naviy-bioetik immunitet” g‘oyasi aynan shu ehtiyojni ifodalaydi. Chunki kelajak jamiyatining barqarorligi faqat texnologik imkoniyatlarga emas, balki o‘sha texnologiyalarni boshqaradigan insonlarning ma’naviy va axloqiy salohiyatiga ham bog‘liq.

Eng katta taraqqiyot — insonning texnologiyani boshqarishi emas, texnologik taraqqiyot jarayonida insoniylikni yo‘qotmasligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aristotle. *Nicomachean Ethics*. — Oxford University Press.
2. Plato. *The Republic*. — Cambridge University Press.
3. Farabi. *Fozil odamlar shahri*. — Toshkent.
4. Kant I. *Groundwork of the Metaphysics of Morals*. — Cambridge University Press.
5. Hegel G.W.F. *Elements of the Philosophy of Right*. — Cambridge University Press.
6. Fromm E. *Man for Himself: An Inquiry into the Psychology of Ethics*. — Routledge.
7. Fromm E. *The Art of Loving*. — HarperCollins.
8. Jonas H. *The Imperative of Responsibility*. — University of Chicago Press.
9. Beauchamp T.L., Childress J.F. *Principles of Biomedical Ethics*. — Oxford University Press.
10. Potter V.R. *Bioethics: Bridge to the Future*. — Prentice-Hall.
11. UNESCO. *Universal Declaration on Bioethics and Human Rights*. — Paris.
12. World Health Organization. *Constitution of the World Health Organization*. — Geneva.
13. Castells M. *The Rise of the Network Society*. — Wiley-Blackwell.
14. Bauman Z. *Liquid Modernity*. — Polity Press.
15. Sen A. *Development as Freedom*. — Oxford University Press.
16. Nussbaum M.C. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. — Harvard University Press.
17. Habermas J. *The Theory of Communicative Action*. — Beacon Press.
18. Giddens A. *Modernity and Self-Identity*. — Stanford University Press.
19. Fukuyama F. *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity*. — Free Press.

20. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. — Paris.

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI PROFILAKTIK YO'NALISHDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Nuraliyeva Nargiza Bekturdiyevna
Urganch davlat tibbiyot instituti katta o'qituvchisi, PhD

Surunkali yuqumli bo'lmagan kasalliklar tarqalishining ortib borishi, saqlanib qolayotgan infeksion tahdidlar, aholining qarishi hamda ijtimoiy va xulq-atvor omillarining kuchli ta'siri shifokorning kasbiy rolini o'zgartirishni talab etadi. Klinik amaliyot endilikda shakllangan kasallikka javob qaytarish bilangina cheklanib qololmaydi. Shifokor asoratlar paydo bo'lishidan avval xavfni aniqlay olishi, bemorga profilaktik aralashuvning foydasi va ehtimoliy zarari nisbatini tushuntirishi, sog'lom xulq-atvorga sodiqlikni shakllantirishi hamda jamoat salomatligi tizimi bilan hamkorlik qilishi lozim. Shu sababli profilaktik tayyorgarlik alohida ajratilgan bitta kurs mazmuni emas, balki ta'lim dasturining uzviy, kesib o'tuvchi xususiyati sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tavsiyalarida tibbiy kadrlar tayyorgarligini aholi va sog'liqni saqlash tizimining real ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish zarurligi ta'kidlanadi [3]. Jahon tibbiy ta'lim federatsiyasi (World Federation for Medical Education, WFME) tibbiy dastur missiyasi va mazmunini salomatlikni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va ularni davolash, shuningdek, ta'lim tashkilotining ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'laydi [5]. Ushbu qoidalar ma'lumotlar majmuasini uzatishdan o'lchanadigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga o'tishni belgilaydi.

An'anaviy o'qitishning muammosi fragmentatsiya bo'lib qolmoqda. Xavf omillari, epidemiologiya va profilaktika ko'pincha quyi kurslarda o'rganiladi, klinik fanlarda esa tashxislash va davolash ustuvorlik qiladi. Natijada talaba birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika ta'riflarini bilsa-da, aniq bemorga maslahat berish, skriningni tanlash yoki aholi guruhi uchun profilaktik loyiha ishlab chiqishda qiyinchilikka duch keladi. Ushbu uzilishni bartaraf etish vertikal integratsiya, amaliyotga yo'naltirilgan metodlar va real faoliyatni baholashni talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi — tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini profilaktik yo'nalishda o'qitishning asosiy tamoyillarini tizimlashtirish va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning tarkibiy modelini taklif etishdan iborat.

Ish nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, ayrim pedagogik metodlarning eksperimental tekshiruvini o'z ichiga olmaydi. Taklif etilayotgan model xalqaro tamoyillar sintezi bo'lib, aniq tibbiyot oliy ta'lim muassasasining resurslari va ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin. Buning uchun bir nechta tamoyillarga asoslanilishi maqsadga muvofiq.

Birinchi tamoyil — o'qitishni kompetensiyaviy asosda tashkil etishdir. Natija kuzatiladigan kasbiy harakat sifatida ifodalanadi: talaba individual xavfni baholaydi; asoslangan profilaktik aralashuvni tanlaydi; qisqa maslahat beradi; kasallanish va qamrov ko'rsatkichlarini talqin qiladi; profilaktik loyihani rejalashtiradi; uning natijasini baholaydi. Bunday yondashuv bemorlar va aholi ehtiyojlaridan boshlanadi, keyin esa fanlar mazmuni, o'quv faoliyati turlari va nazorat usullarini belgilaydi. Kompetensiyaviy model, shuningdek, progressiyani shakllantirish imkonini beradi: xavf tushunchasini tushuntirishdan klinik-profilaktik vazifani mustaqil hal etishgacha.

Ikkinchi tamoyil — gorizontal va vertikal integratsiyadir. Gorizontal integratsiya bir muammo atrofida biotibbiy, xulq-atvor va ijtimoiy bilimlarni birlashtiradi. Masalan, arterial gipertenziyani o'rganishda talaba bir vaqtning o'zida arterial bosimni boshqarish fiziologiyasi, epidemiologiya, ovqatlanish, jismoniy faollik, kommunikatsiya va dispanser kuzatuvini tashkil etishni ko'rib chiqadi. Vertikal integratsiya profilaktik vazifaga murakkablik darajasi ortib boradigan tarzda qayta-qayta murojaat qilishni ta'minlaydi: quyi kursda — xavf omillari, o'rta bosqichda — klinik baholash va maslahat berish, yuqori kursda — bemorni yuritish va biriktirilgan aholi ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Uchinchi tamoyil o‘qitishning bir qismini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami va hamjamiyatga ko‘chirish bilan bog‘liq. Oilalar, maktablar, mahallalar, korxonalar va xavf guruhlari bilan aloqa salomatlik va kasallik shakllanadigan sharoitlarni ko‘rish imkonini beradi. Talabalar loyihasi muammoni aniqlash, shaxssizlashtirilgan ma’lumotlarni yig‘ish, maqsadli guruhni belgilash, xabar matnini ishlab chiqish, kichik ta’limiy aralashuvni amalga oshirish va natijani baholashni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday ta’lim nafaqat bilimlarni, balki ijtimoiy mas’uliyatni, jamoaviy ishni, madaniy sezgirlikni va profilaktik yordamdan foydalanishdagi cheklovlarni tushunishni ham rivojlantiradi. XXI asr uchun sog‘liqni saqlash mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha komissiya transformatsion va o‘zaro bog‘liq ta’limga o‘tishni tayyorgarlik tizimlari hamda sog‘liqni saqlashdagi fragmentatsiyaga javob sifatida ko‘rib chiqqan [1].

To‘rtinchi tamoyil — profilaktik aralashuvlarni dalillarga asoslangan holda tanlashdir. Profilaktika mutlaq xavfsiz jarayon emas: skrining soxta-musbat natijalar, giperdiagnostika va keraksiz davolashga olib kelishi mumkin. Shuning uchun talaba manbalarni izlash va tanqidiy baholashni bilishi, mutlaq va nisbiy xavf, sezgirlik va spetsifiklik, prognostik qiymat, bitta natijaning oldini olish uchun tekshirilishi yoki davolanishi zarur bo‘lgan shaxslar sonini tushunishi kerak. O‘qitish foyda, zarar, resurslar va bemor afzalliklarini muhokama qilishni o‘z ichiga olishi lozim. Bu tekshiruvni mexanik tayinlash emas, balki birgalikda qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Beshinchi tamoyil — kommunikativ va xulq-atvor komponentlarini kuchaytirishdir. Tavsiyalarni bilish xulq-atvor o‘zgarishini kafolatlamaydi. Bo‘lajak shifokor ochiq savollar bera olishi, bemorning o‘zgarishga tayyorligini aniqlashi, stigmatizatsiyadan qochishi, erishish mumkin bo‘lgan maqsadni shakllantirishi va o‘zini o‘zi nazorat qilishni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Chekishdan voz kechish, emlash, ovqatlanish, jismoniy faollik, xavfsiz jinsiy xulq-atvor va skriningga rioya qilish bo‘yicha ssenariylarni simulyatsion bemor bilan mashq qilish maqsadga muvofiq. Profilaktik kommunikatsiya maslahat tuzilmasi, axborotning tushunarliligi, avtonomiyaga hurmat va birgalikda kelishilgan reja bo‘yicha baholanadi.

Oltinchi tamoyil — raqamlashtirishdir. Elektron ta’lim modullari, virtual bemorlar, interaktiv algoritmlar, epidemiologik ma’lumotlar panellari va telemeditsina ssenariylari takroriy amaliyotdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. To‘g‘ri loyihalashtirilgan raqamli ta’lim kadrlar tayyorlashni, jumladan, olis hududlarda ham qo‘llab-quvvatlashi mumkin [4]. Biroq texnologiya o‘qitish natijasiga bo‘ysundirilishi kerak. Amaliy topshiriq va qayta aloqa bo‘lmagan videoma’ruzani ko‘rish kamdan-kam hollarda barqaror kompetentlikka olib keladi. Quyidagi ketma-ketlik samaraliroqdir: qisqa modul — keysni yechish — avtomatlashtirilgan yoki o‘qituvchi tomonidan beriladigan qayta aloqa — klinik yoki jamoat muhitida qo‘llash.

Sun’iy intellektdan savodli foydalanish alohida yo‘nalishga aylanmoqda. Talabalar undan profilaktik xabar variantlarini yaratish, muloqotni modellashtirish yoki ma’lumotlarni dastlabki tuzilmaga keltirish uchun foydalanishlari mumkin, biroq faktlarni ishonchli manbalar bo‘yicha tekshirishlari, shaxsiy ma’lumotlarni uzatishni istisno qilishlari va algoritmik noxolislik xavfini anglashlari shart. Baholanishi kerak bo‘lgan jihat vositadan foydalanish fakti emas, balki klinik mulohaza sifati, tekshiruvning shaffofligi va yakuniy qarorning xavfsizligidir.

Yettinchi tamoyil — kasblararo ta’limdir. Profilaktik ish kamdan-kam hollarda faqat bitta shifokor tomonidan bajariladi. Unda hamshiralar, jamoat salomatligi mutaxassislari, epidemiologlar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar va ta’lim muassasalari vakillari ishtirok etadi. Keysni birgalikda hal qilish rollarni taqsimlash, yagona reja shakllantirish va takrorlanishdan qochishga yordam beradi. Kasblararo yondashuv emlash, surunkali kasalliklar profilaktikasi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, infeksion nazorat hamda sanitariya-ma’rifiy ishlar sohasida ayniqsa muhimdir.

Sakkizinchi tamoyil — bilimlarni qayta aytib berishni tekshirishdan dasturiy baholashga o‘tishdir. Bitta test profilaktik kompetentlikni aks ettira olmaydi. Ma’lumotlar majmui zarur: xavf va skriningni talqin qilish bo‘yicha topshiriqlar; profilaktik maslahat berishni o‘z ichiga olgan obyektiv tuzilmaviy klinik imtihon; ambulator amaliyotda bevosita kuzatish; portfolio; loyiha bo‘yicha hisobot va uni himoya qilish; o‘zini baholash va qayta aloqa. Mezonlar oldindan ma’lum

bo‘lishi hamda ilmiy asoslanganlik, kommunikatsiya, etika, xavfsizlik va rejaning real amalga oshirilishini o‘z ichiga olishi kerak.

Tahlil asosida uch bosqichli model taklif etiladi. Bazaviy bosqichda salomatlik, xavf, sababiylik, profilaktika darajalari va epidemiologiya asoslari tushunchalari shakllantiriladi. Integratsion bosqichda talabalar klinik vaziyatlarni hal qiladi, tavsiyalarni taqqoslaydi, skrining va maslahat berishni o‘zlashtiradi. Mustaqil faoliyat bosqichida ular klinik holatning profilaktik komponentini yuritadi, hamjamiyatda loyiha bajaradi va kompleks imtihonda kompetensiyalarini tasdiqlaydi. Har bir bosqich uchun erishish indikatorlari belgilanadi, baholash natijalari esa dasturni tuzatish uchun foydalaniladi.

Modelni amalga oshirishning tashkiliy shartlari kafedralararo rejalashtirish, profilaktik kompetensiyalar xaritasi, o‘qituvchilarni tayyorlash, birlamchi bo‘g‘in va hamjamiyatga kirish imkoniyati, yagona baholash rubrikalari, etikaga rioya qilish va ma’lumotlarni himoya qilishdan iborat. Mavzularning formal takrorlanishini istisno qilish muhim. Har bir fan o‘z hissasiga ega bo‘lishi kerak: fundamental fanlar kafedralari xavf mexanizmlarini tushuntiradi; klinik kafedralar profilaktikani bemorni yuritishga integratsiya qiladi; jamoat salomatligi populyatsion tahlil va dasturlarni baholashni ta’minlaydi.

Xulosa. Profilaktik yo‘nalishdagi ta’lim natijalar, mazmun, ta’lim muhiti va baholashning tizimli qayta tashkil etilishini anglatadi. Uning mohiyati shundan iboratki, talaba klinik va populyatsion kontekstda kasalliklarning oldini olish bo‘yicha kasbiy harakatlarni muntazam bajaradi. Eng muhim tamoyillar kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz integratsiya, birlamchi bo‘g‘in va hamjamiyatda o‘qitish, dalillarga asoslangan profilaktika, kommunikatsion va raqamli texnologiyalar, kasblararo hamkorlik hamda dasturiy baholashdir.

Taklif etilgan uch bosqichli model profilaktikani alohida nazariy blokdan shifokor tayyorlashning kesib o‘tuvchi yo‘nalishiga aylantirish imkonini beradi. Uning aniq mazmuni kasallanish tuzilmasi, aholi xususiyatlari, klinik bazalar imkoniyatlari hamda muayyan mamlakat va tashkilotning ta’lim standartlari bilan belgilanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world // Lancet. 2010. Vol. 376, No. 9756. P. 1923–1958. DOI: 10.1016/S0140-6736(10)61854-5.

2. World Health Organization. Global competency and outcomes framework for the essential public health functions. Geneva: WHO, 2024. 322 p. ISBN 978-92-4-009121-4.

3. World Health Organization. Transforming and scaling up health professionals’ education and training: World Health Organization guidelines 2013. Geneva: WHO, 2013.

4. World Health Organization. Health workforce education and training [Elektron resurs]. URL: https://www.who.int/activities/health-workforce-education-and-training (murojaat qilingan sana: 12.07.2026).

5. World Federation for Medical Education. Basic Medical Education: WFME Global Standards for Quality Improvement. 2020 revision. Copenhagen: WFME, 2020.

6. Yardley S., Teunissen P.W., Dornan T. Experiential learning: transforming theory into practice // Medical Teacher. 2012. Vol. 34, No. 2. P. 161–164. DOI: 10.3109/0142159X.2012.643264.

BIOETIKA VA TIBBIYOT FALSAFASI

Tadjibayev Alisher To‘xta-Pulatovich

Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi, tibbiyot fanlari doktori

XXI asrda fan va texnikaning, ayniqsa, biologiya va tibbiyot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi insoniyat olamiga beqiyos imkoniyatlar taqdim etdi. Gen muhandisligi, sun’iy intellekt yordamida tashxis qo‘yish, a’zolarni ko‘chirib o‘tkazish, sun’iy urug‘lantirish va hayotni sun’iy uzaytirish uskunalari tibbiyotning chegaralarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytirdi. Biroq, bu texnologik inqilob o‘zi bilan birga ilgari mavjud bo‘lmagan jiddiy ma’naviy, huquqiy, axloqiy va falsafiy muammolarni ham olib keldi.

Inson hayotining boshlanishi va yakuni qachon? Shifokorning vakolat chegarasi qayerda tugaydi? Tibbiyot fan sifatida faqat tanani davolashi kerakmi yoki inson shaxsi bilan muloqot qilishi lozimmi?

Mana shunday savollar tibbiyot falsafasi, tibbiy etika va bioetika fanlarining o‘zaro hamkorlikda o‘rganilishini va tibbiyot oliygohlarida chuqur o‘qitilishini dolzarb masalaga aylantiradi.

Tibbiyot falsafasi — bu butun tibbiy bilimlar tizimining poydevori hisoblanadi. U tibbiyotning eng chuqur, umumiy va nazariy asoslarini o‘rganadi. Ushbu soha «sog‘liq» va «kasallik» kabi fundamental tushunchalarning asl mohiyatini falsafiy jihatdan tahlil qiladi.

Uzoq yillar davomida tibbiyotda insonga faqatgina biologik mexanizm, ya’ni buzilgan detallarini (a’zolarini) tuzatish yoki almashtirish kerak bo‘lgan murakkab mashina sifatida qarash ustuvorlik qildi. Biroq, tibbiyot falsafasi bu yondashuvning cheklanganligini isbotladi va «xolistik» (yaxlit) yondashuvni ilgari surdi. Bu yondashuvga ko‘ra, inson faqat suyak, go‘sht va qondan iborat biologik mavjudlik emas. U bir vaqtning o‘zida ruhiy, ijtimoiy va ma’naviy olamdir. Kasallik esa ko‘pincha faqatgina biror virus yoki mikrobiologik zararlanish natijasi bo‘lmay, balki inson ruhiyati va uning atrof-muhit bilan bo‘lgan aloqalari buzilishining oqibatidir. Shu sababli, tibbiyot falsafasi shifokorga bemorni faqat «kasallik tarixi» deb emas, balki o‘z taqdiri, orzu-umidlari va dardi bor bo‘lgan Shaxs sifatida ko‘rishni o‘rgatadi. Bu esa tashxis qo‘yish mantiqi va davolash madaniyatining yuqori bosqichga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Agar falsafa tibbiyotning nazariy poydevori bo‘lsa, tibbiy etika va uning tarkibiy qismi bo‘lgan deontologiya ushbu tizimning amaliy va kundalik ko‘rinishidir.

Tibbiy etika — bu shifokorlar va tibbiyot xodimlarining kundalik faoliyatida bemorlar, ularning yaqinlari hamda hamkasblari bilan bo‘ladigan munosabatlaridagi xulq-atvor qoidalaridir.

Deontologiya esa shifokorlik burchi haqidagi ta’limot bo‘lib, kasbiy majburiyatlarni vijdonan bajarishni talab qiladi.

Ushbu tizimning ildizlari qadimgi dunyo tibbiyotiga, xususan, mashhur «Gippokrat qasamyodi» va Sharqning buyuk hakimi Abu Ali ibn Sinoning o‘gitlariga borib taqaladi.

Tibbiy etikaning eng bosh tamoyili — «Primum non nocere» (Birinchi navbatda, ziyon keltirma) qoidasidir. Shifokor o‘z bilimi yoki harakati bilan bemorning ahvolini og‘irlashtirmasligi shart.

Bundan tashqari, «tibbiy sir» tushunchasi ham etikaning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, bemor haqidagi ma’lumotlarning begonalardan sir tutilishi shifokor bilan bemor o‘rtasida chinakam ishonch ko‘prigini quradi. Zamonaviy davrda tibbiy etika paternalistik modeldan (shifokorning mutlaq hukmronligi) hamkorlik modeliga o‘tdi. Endilikda bemor o‘z sog‘lig‘iga oid qarorlarda shifokor bilan teng huquqli sherik sifatida ishtirok etmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tibbiyotga yuqori texnologiyalarning kirib kelishi bioetika fanining yaralishiga sabab bo‘ldi.

Bioetika nafaqat shifokorlik kasbini, balki umuman tirik mavjudlikka (inson va hayvonot olamiga) nisbatan qilinadigan tibbiy-biologik aralashuvlarning axloqiy chegaralarini belgilaydi.

Zamonaviy bioetika to‘rtta oltin tamoyilga tayanadi: bemor avtonomiyasi (o‘z tanasi haqida o‘zi qaror qabul qilishi), ziyon keltirmaslik, yaxshilik qilish va adolat (tibbiy xizmatlardan hammaning teng va haqqoniy foydalanishi). Bugungi kunda bioetika juda murakkab global muammolarni o‘rganmoqda. Masalan, transplantologiya sohasida donorlik a’zolarini adolatli taqsimlash va bu sohada jinoyatchilikning oldini olish; evtanaziya — davolab bo‘lmaydigan va qattiq azob chekayotgan bemorga o‘z xohishi bilan hayotdan ko‘z yumishiga yordam berishning axloqiy jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi; klonlashtirish va gen muhandisligi orqali inson genetik kodini o‘zgartirishning kelajak avlodlar taqdiriga ta’siri kabi masalalar bioetikaning markazida turadi.

Bioetika inson tanasini tijorat predmetiga yoki shunchaki ilmiy tajriba obyektiga aylanib qolishdan himoya qiluvchi asosiy qalqondir.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot falsafasi, tibbiy etika va bioetika bir-biridan ayro holda yashay olmaydigan, aksincha, bir-birini to‘ldiradigan yaxlit ma’naviy tizimdir.

Adabiyotlar

1. Muhammedova Z.M. Bioetika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2018. – 240 b.
2. Inoyatova F.H., Sodiqov M.M. Tibbiyot falsafasi va metodologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2021. – 180 b.
3. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. – 8th ed. – Oxford University Press, 2019. – 496 p.

САЛОМАТЛИК ФАЛСАФАСИ

Абдурахманов К.Х

Гулистон давлат университети Тиббий фундаментал фанлар кафедраси мудири, тиббиёт фанлари номзоди, доцент

Долзарблиги. Соғлом авлодни тарбиялаш – буюк давлат пойдевори, фаровон ҳаёт асосини қуриш демакдир.

Соғлом авлодни тарбиялаш икки жиҳат – ёш авлодни **жисмонан соғлом** этиб тарбиялаш ва уларни **маънавий баркамол** этиб вояга етказишни ўзида мужассамлаштиради [3].

Инсон маънавий баркамол бўлиши учун аввало жисмонан соғлом бўлиши лозим. Бу оддий ҳол, аммо у жамиятимиз ривожи ва келажакни таъминловчи омилдир [4].

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти саломатликни инсоннинг жисмоний, маънавий, ижтимоий тўкис ҳолати сифатида эътироф этади, бундай ҳолатда киши аъзолари, бутун танаси атрофдаги ишлаб чиқариш ва ижтимоий муҳит билан уйғунликда яшайди.

Бу таърифда саломатликни ташкил этувчи уч хил – жисмоний, руҳий ва ижтимоий жиҳат мавжуд.

Жисмоний саломатлик – барча органлар ва бутун организмнинг тўкис ишлаб турган табиий ҳолати.

Руҳий саломатлик – инсон тафаккури даражаси ва сифати, диққат-эътибори ва хотирасининг ривожи, руҳий барқарорлиги ва ифодасининг нечоғлик мустаҳкамлиги билан белгиланади.

Ижтимоий саломатлик – инсон саломатлигининг энг олий даражаси ҳисобланади ва унинг муайян жамиятдаги ҳаёти ва фаолиятини, ижтимоий турмушининг асосини ташкил этувчи ахлоқий тамойилларни ўз ичига олади [5].

Инсоннинг саводхонлик даражаси, тиббий маданияти унинг ўз саломатлигига бўлган муносабатига бевосита таъсир қилади.

Саводхон аҳоли ўз саломатлигига жиддий эътибор беради, профилактика чора-тадбирларини тўғри қўллайди, соғлом турмуш тарзини ўзида қарор топтиришга ҳаракат қилади, касалликни вақтида аниқлатиб, ўзига дастлабки ёрдам кўрсатишнинг ва малакали тиббий ёрдам кўрсатишини сўраб мурожаат қилишнинг уддасидан чиқади.

Ишнинг мақсади – ёшларимизни ҳаёт, умр, турмуш ва соғлиқ масалаларида озгина мулоҳазага чорлаш.

Материал ва услублар. Саломатликни сақлаш ва мустаҳкамлаш учун, аввало, одам ўз танасининг тузилиши барча тўқима ва аъзоларининг меъёрий иш фаолияти, ўсиши, ривожланиши ва кўпайиши қонуниятларини билиши зарур. Шунингдек, барча тирик мавжудодлар каби, инсонга ҳам хос бўлган ушбу биологик хусусиятларни асраш ва тобора такомиллаштириш учун зарур бўлган шарт-шароитни мукаммал билиш ва яратиш талаб этилади.

Мамлактимизда соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларнинг ўз ижодий-интеллектуал салоҳиятини рўёбга чикариши, мамлакатимиз йигит-қизларини XXI аср талабаларга тўлиқ жавоб берадиган, хар томонлама ривожланган шахслар этиб вояга етказиш учун зарур шарт-шароитлар, имкониятларни яратиш бўйича кенг кўламли аниқ йўналтирилган чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш

тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5590-сон Фармони, 2018 йил 18 декабрдаги “Юқумли бўлмаган касалликларнинг профилактикаси, соғлом турмуш тарзини қўллаб – қувватлаш ва аҳолининг жисмоний фаоллиги даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Қарори эълон қилинди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 18 декабрдаги қарори билан 2019−2022 йилларда юқумли бўлмаган касалликлар профилактикаси, аҳолининг соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш ва жисмоний фаоллиги даражасини ошириш концепцияси ва дастури тасдиқланди.

Ҳужжатда аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш борасида профилактика чора-тадбирларини самарали мувофиқлаштириш тизими мавжуд эмаслиги фуқароларнинг жисмоний фаоллиги даражасини қўллаб-қувватлаш ва соғлом турмуш тарзини юритишда келишилган чоралар кўриш имконини бермаяпти.

Ҳужжатга мувофиқ, Тошкент тиббиёт академияси ҳузуридаги Республика диетология ўқув-илмий маркази негизида Соғлиқни сақлаш вазирлиги тузилмасига кирувчи ҳамда мамлакатнинг барча ҳудудларида ҳудудий бўлимларига эга бўлган аҳолининг соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш ва жисмоний фаоллигини ошириш маркази ташкил этилди.

Марказ соғлом турмуш тарзини шакллантириш, юқумли бўлмаган касалликлар ва уларнинг хавф омилларига қарши курашиш ҳамда олдини олиш бўйича мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, зарарли одатларга қарши курашиш, аҳолининг тиббий маданиятини ривожлантириш, жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва оммавий спорт ҳаракатини тиббиёт профилактикаси билан интеграциялаштириш бўйича оммавий тадбирларни ўтказиш билан шуғулланади.

Қарорда эндиликда ходимлар жамоасининг соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш, уларнинг жисмоний фаоллиги даражасини ошириш мақсадида барча зарур шароитларни яратиш, ушбу вазифаларга эришишга қаратилган чора-тадбирларни мунтазам равишда ташкил қилиб бориш давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарларининг фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг асосий мезонларидан бири этиб белгиланди.

Давлат органлари ва ташкилотларида иш куни давомида ишлаб чиқариш гимнастикаси машқлари, ҳафтасига камида бир маротаба ходимларнинг жисмоний тарбия-оммавий тадбирларда (югуриш, сузиш, футбол, волейбол, баскетбол, теннис ва бошқаларда) иштирок этишини назарда тутадиган «Саломатлик куни» ҳамда мунтазам равишда ходимлар орасида оммавийлашган спорт турлари бўйича спорт мусобақалари ва бошқа жисмоний тарбия-оммавий тадбирлар ўтказиб борилиши амалиётга жорий этиш топширилди.

Ушбу мақола ёшларимизнинг ана шу соҳадаги заруратини қондириш мақсадида илмий - услубий адабиётлар таҳлил қилиниб, ёшларимизнинг ўз соғлигини сақлаш ҳамда мустахкамлашда зарур бўлган билим ва малакалардан хабардор қилиш ҳамда уларни ўз соғлиқларига масъулликка даъват этиш, соғлиқ масаласидаги боқиманда қарашларини ўзгартириб, ўй-фикрларини соғлом турмуш тарзини қарор топтиришга йўналтиришни назарда тутган ҳолда тайёрланди.

Ҳаёт, яшаш, тириклик – бу жамики тирик мавжудотнинг энг асосий мақсади. Бу мақсад инсон ҳаётида янада муҳим аҳамият касб этади. Чунки, инсон ҳаётнинг моҳиятини онгли равишда идрок этади ва яшаш учун курашади.

Ижтимоий ҳаёт ва табиатнинг қонуниятлари ҳамма вақт ҳам одам баданига, руҳиятига, саломатлигига тўғри келавермаслиги мумкин. Бундай вақтларда инсон фақатгина табиатга ва жамиятга мослашиш, қулайсизликларга қарши курашиш, ҳаётдан ўрганиш, тажриба орттириш ва уни такомиллаштириш йўли билан ҳаётини сақлаб қолади.

Бу услуб ижтимоий ҳаётнинг ҳамма соҳалари, жумладан саломатлик учун ҳам бевосита алоқадор.

Шубҳасиз, ҳаёт инсоннинг сезиш, ҳис қилиш, роҳатланиш, лаззатланиш, қониқиш ҳосил қилиш каби туйғуларини қондириш билан аҳамиятли.

Ҳар бир киши шу мақсадда оила қуради, жамиятда фаолият кўрсатади. Кундалик муаммоларини шахсий, оилавий, умуминсоний манфаатлар нуқтаи-назаридан ҳал қилишга ҳаракат қилади. Ана шу ҳаракатлар уни яшашга ундайди.

ХУЛОСА. Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб, хулоса сифатида қуйидагиларни таъкидлаш мумкин: Одам боласи биологик ва ижтимоий мавжудот.

Шунинг учун ҳам уни дунёга келган кундан то умрининг охирги кунигача биологик ва ижтимоий омиллар кузатиб боради.

Агар биз ана шу биологик ва ижтимоий омилларнинг инсон организмига бўладиган сир-асрорларини чуқур ўрганиб, унинг салбий таъсир механизмларини билсак, маълум даражада ўз соғлигимизни асраган бўлар эдик.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3031-сонли Қарори.
2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 18 декабрдаги “Юқумли бўлмаган касалликларнинг профилактикаси, соғлом турмуш тарзини қўллаб – қувватлаш ва аҳолининг жисмоний фаоллиги даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Қарори.
3.Абдурахманов К.Х.Соғлом турмуш тарзи. Тошкент: “Истиқлол нашриёти матбаа бўлими”, 2017 й.
4.Исабаева М.М. Саломатлик» дафтари. - Т.: «Тафаккур», 2012.
5. Муҳиддинов А. Тиббий маданият фалсафаси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009. – Б. 135-136.

KEKSALIK DAVRIDA FAOL QARISH JARAYONI

Ikromova S.A.
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti

Aholi yosh tarkibining o‘zgarishi XXI asr ijtimoiy taraqqiyotining eng sezilarli tamoyillaridan biriga aylandi. Tug‘ilish darajasining pasayishi va o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayishi natijasida keksa yoshdagi kishilar ulushi barqaror ravishda ortib bormoqda. Bu holat sog‘liqni saqlash, pensiya ta’minoti va ijtimoiy xizmatlar tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi. Shu bilan birga, keksalik faqat qaramlik va yo‘qotishlar davri sifatida qaralishi mumkin emas: zamonaviy gerontologiya bu bosqichni shaxs salohiyati saqlanib qoladigan va yangi shakllarda namoyon bo‘ladigan davr deb baholaydi [1, b. 45].

Faol qarish tushunchasi ilmiy muomalaga XX asrning so‘nggi choragida kirib keldi va tez orada ijtimoiy siyosatning asosiy tayanch g‘oyalaridan biriga aylandi. Uning mohiyati shundan iboratki, inson yoshi ulg‘aygan sari ham sog‘lig‘ini asrash, mustaqil qaror qabul qilish va jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini saqlab qolishi lozim. Bunday yondashuv keksa insonni ijtimoiy yordam ob’yekti sifatida emas, balki o‘z hayotini boshqaruvchi subyekt sifatida ko‘rishga undaydi [2, b. 112].

Faol qarishning nazariy asoslari bir necha yo‘nalishda shakllangan. Faollik nazariyasi tarafdorlari shaxsning ruhiy farovonligi uning ijtimoiy rollari soni va mazmundorligiga bog‘liq deb hisoblaydi: bir rol tugagach, uning o‘rnini boshqasi egallashi kerak. Uzluksizlik nazariyasi esa insonning umr bo‘yi shakllangan qadriyatlari, odatlari va faoliyat uslubi keksalikda ham saqlanib qolishini ta’kidlaydi. Selektiv optimallashtirish va kompensatsiya modeli bo‘yicha keksa inson resurslari kamayganda o‘zi uchun eng muhim maqsadlarni tanlab, ularga kuchini yo‘naltiradi va yo‘qolgan imkoniyatlarni yangi vositalar bilan qoplaydi [3, b. 78].

Ushbu qarashlarni umumlashtirgan holda, faol qarishni shaxsning jismoniy, aqliy, emotsional va ijtimoiy resurslarini o‘zgargan yosh sharoitlariga muvofiq qayta taqsimlash jarayoni deb ta’riflash mumkin. Bunda faollikning miqdori emas, balki uning inson uchun shaxsiy ma’noga egaligi birinchi o‘ringa chiqadi. Bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadigan yoki nabirasiga hunar o‘rgatadigan keksa inson faoliyati rasmiy bandlikdan kam qiymatli emas.

Faol qarish jarayonini belgilovchi omillarni shartli ravishda uch guruhga ajratish o‘rinli. Birinchi guruh — sog‘liq bilan bog‘liq shart-sharoitlar: surunkali kasalliklarning oldini olish, harakat faolligini saqlash, muvozanatli ovqatlanish va tibbiy ko‘rikning muntazamligi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadi, hatto o‘rtacha jadallikdagi jismoniy mashqlar ham keksa kishilarda mustaqil harakatlanish qobiliyatini uzoq muddat asrashga xizmat qiladi [4, b. 201].

Ikkinchi guruh — aqliy va ma’rifiy omillar. Yangi bilim olish, kitob mutolaasi, xotira mashqlari va raqamli ko‘nikmalarni egallash miya faoliyatining moslashuvchanligini qo‘llab-quvvatlaydi. Keksalar uchun tashkil etilayotgan uzluksiz ta’lim shakllari — «uchinchi yosh universitetlari», kompyuter savodxonligi kurslari, ijodiy to‘garaklar — bilim berishdan tashqari muhim ijtimoiy vazifani ham bajaradi: ular yolg‘izlikni yengish maydoniga aylanadi [2, b. 130].

Uchinchi guruh — ijtimoiy muhit va munosabatlar tizimi. Oila a’zolari bilan mustahkam aloqa, qo‘shnichilik va mahalla hamjihatligi, ko‘ngilli faoliyatda ishtirok inson uchun o‘zining zarurligini his qilish imkonini beradi. Ijtimoiy izolyatsiya esa, aksincha, keksalikda depressiya va bilish funksiyalari pasayishining kuchli xavf omili sifatida qayd etiladi [5, b. 64].

Amaliyotda bu omillar bir-biridan ajralgan holda ta’sir ko‘rsatmaydi. Salomatligi mustahkam inson jamoat tadbirlarida osonroq qatnashadi; faol muhitda yashovchi kishi esa o‘z sog‘lig‘iga ko‘proq e’tibor beradi. Shu sababli faol qarishni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuaviy tarzda, tibbiy, ta’limiy va ijtimoiy yo‘nalishlarni birlashtirgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Alohida e’tiborga loyiq masala — avlodlar o‘rtasidagi hamkorlik. Keksa insonlarning hayotiy tajribasi, kasbiy mahorati va ma’naviy qadriyatlari yosh avlodga uzatilishi ikki tomon uchun ham foydali. Ustoz-shogird an’anasi, xotira loyihalari, mahalla darajasidagi maslahat kengashlari keksa kishining jamiyatdagi maqomini mustahkamlaydi va uning faolligiga tabiiy zamin yaratadi [3, b. 91].

Xulosa qilib aytish mumkinki, keksalik davridagi faol qarish shaxsning yosh o‘zgarishlariga ijodiy moslashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonning samaradorligi insonning shaxsiy tashabbusi bilan bir qatorda, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitning imkoniyatlariga ham bog‘liq. Sog‘liqni asrash, uzluksiz ta’lim va ijtimoiy ishtirok yo‘nalishlarida yaratilgan sharoitlar keksa insonning mustaqilligini uzaytiradi va hayot sifatini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy siyosatning ustuvor vazifasi keksa kishilarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishdan ularning faoliyati uchun teng imkoniyatlar yaratishga o‘tishdan iborat bo‘lishi lozim. Kelgusi tadqiqotlarda faol qarish ko‘rsatkichlarining hududiy va madaniy o‘ziga xosligini hisobga olgan mezonlarini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Shomirzayev M. X. Gerontologiya asoslari. — Toshkent: Fan, 2020. — 214 b.

2. Rasulova D. T. Keksalar bilan ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. — 186 b.

3. Baltes P. B., Baltes M. M. Successful Aging: Perspectives from the Behavioral Sciences. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 397 p.

4. Xolmatov A. R. Keksa yoshdagi shaxslarda jismoniy faollik va salomatlik. // O‘zbekiston tibbiyot jurnali. — 2022. — № 3. — B. 198–205.

5. World Health Organization. Active Ageing: A Policy Framework. — Geneva: WHO, 2002. — 59 p.

TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARINING INTELLEKTUAL VA IJODIY IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Tursunova Ozoda Faxritdinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti katta o`qituvchisi, p.f.n. (PhD)

Tibbiyot instituti talabasining kasbiy tayyorgarligi nazariy bilimlarni klinik vaziyatga tatbiq etish, muhim belgilarni ajratish va qarorini dalillar bilan asoslashda namoyon bo‘ladi. Bir xil o‘quv materialini o‘zlashtirgan talabalar muammoni tahlil qilish, savol berish yoki yangi yechim taklif etishda turlicha natija ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida talabaning

bilim darajasi bilan bir qatorda uning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Tibbiy ta’limda iqtidor tushunchasining chegaralari hali bir xil talqin qilinmaydi. Preyra va hammualliflarning 2026-yilgi qamrovli sharhida 189 ta ish o‘rganilgan; shulardan 47 tasida «talent» atamasi bevosita ishlatilgan. Mualliflar ko‘plab tadqiqotlarda iqtidor aniq nazariy ta’rifga ega emasligi va ko‘pincha yuqori natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar bilan aralashtirilishini qayd etadi [1]. Bu holat talabalarni faqat imtihon ballari orqali baholash imkoniyatlari cheklanganini muhokama qilishga asos beradi.

Ijodiy iqtidor kasbiy muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rish, mazmunli savol qo‘yish hamda foydali va tekshiriladigan g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatini anglatadi. Klinik ta’limda ijodiy yechimning yangiligi uning ilmiy asoslanganligi, etik maqbulligi va bemor xavfsizligi bilan birgalikda baholanishi kerak.

Subotnik, Olszewski-Kubilius va Worrell iqtidorni muayyan sohada rivojlanadigan salohiyat hamda yuqori darajadagi faoliyat natijalari bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuvda ta’lim imkoniyatlari va psixologik omillarning o‘rni muhimdir [2]. Tibbiyot institutida bunday qarash talabaning dastlabki ko‘rsatkichlarini rivojlanishning yakuniy chegarasi sifatida qabul qilmaslikni anglatadi. Masalan, dastlab ilmiy maqola yozishda qiynalgan talaba manbalarni tahlil qilish va izchil rahbarlik orqali tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Iqtidorni qo‘llab-quvvatlashda ichki motivatsiya alohida ahamiyatga ega. Ryan va Deci ta’lim oluvchining avtonomiya, kompetentlik va boshqalar bilan aloqadorlik ehtiyojlari qondirilishini mustaqil motivatsiya uchun muhim deb hisoblaydi [3]. Avtonomiya talabaning topshiriq mazmunini anglab, faoliyatda ongli ishtirok etishini; kompetentlik o‘z imkoniyatlari va o‘sishini his qilishini; aloqadorlik esa guruh hamda ustoz bilan mazmunli munosabatini bildiradi. Ushbu ehtiyojlarni hisobga olish o‘qituvchining talabchanligi va aniq o‘quv mezonlari bilan uyg‘unlashishi kerak.

Bu nazariyadan kelib chiqib, talabalarga umumiy o‘quv maqsadi doirasida kichik tadqiqot mavzusini tanlash, topshiriqning kasbiy ahamiyatini muhokama qilish va o‘z ishini qayta takomillashtirish imkoniyatini berish taklif etiladi. Masalan, talabalar bir mavzu bo‘yicha klinik holat tahlili, adabiyotlar sharhi yoki bemor uchun tushuntirish materiali tayyorlashi mumkin. O‘qituvchi barcha shakllar uchun ilmiy aniqlik, dalil sifati va tushuntirish ravshanligiga oid umumiy talablarni belgilaydi.

Mustaqil o‘rganish jarayonini boshqarish iqtidorni faol natijaga aylantirishga yordam beruvchi yana bir yo‘nalishdir. Panadero tahlil qilgan modellarda maqsad qo‘yish, o‘rganish jarayonini kuzatish, natijani baholash va keyingi faoliyatni moslashtirish bilan bog‘liq mexanizmlar yoritilgan [4]. Tibbiyot talabasi uchun bu murakkab mavzuni qismlarga ajratish, bilimidagi bo‘shliqni aniqlash va qo‘shimcha manba tanlashda ifodalanadi. Refleksiv kundalikda «Nimani tushundim?», «Qarorim qaysi dalilga tayandi?» va «Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?» savollaridan foydalanish mumkin.

Talabaning o‘z fikrini aytishi uchun hurmatga asoslangan muloqot ham zarur. O‘quv vaziyatida yanglish javobni muhokama qilish, uning sababini tushuntirish va qayta urinish imkoniyatini berish tavsiya etiladi. Bunda shaxsga baho berish o‘rniga bajarilgan ishning aniq jihatlari tahlil qilinadi. Talabaning yordam so‘rashi va bilmaganini tan olishi kasbiy o‘sish uchun boshlang‘ich ma’lumot sifatida qaraladi.

Izlanishga asoslangan ta’lim talabaning savol qo‘yishi, manbalarni tanlashi va natijani himoya qilishini nazarda tutadi. Rodríguez va hammualliflar tibbiyot hamda inson biologiyasi yo‘nalishlaridagi 529 nafar bakalavriat talabasi qatnashgan kursni o‘rgangan. Ijodkorlik mashg‘uloti qo‘shilgan va qo‘shilmagan guruhlar tahlili ochiq izlanish hamda yo‘nalishlararo hamkorlikning imkoniyatlarini ko‘rsatgan [5]. Biroq muayyan kurs natijalarini boshqa o‘quv dasturlariga ko‘chirishda ta’lim sharoiti va baholash usullaridagi farqlar hisobga olinishi lozim.

Shu asosda klinik fanlarda dalillari bosqichma-bosqich beriladigan o‘quv vaziyatlarini qo‘llash taklif etiladi. Masalan, shaxsiy ma’lumotlardan xoli o‘quv holatida talabaga qorin og‘rig‘i

haqidagi dastlabki ma’lumot beriladi. U qo‘shimcha savollarni tanlaydi, ehtimoliy sabablarni asoslaydi va yangi ma’lumot kelgach o‘z taxminini qayta ko‘rib chiqadi. Topshiriqning maqsadi kasallik nomini topish bilan birga fikrlash yo‘lini tushuntirishdir. O‘qituvchi yetishmayotgan ma’lumotni anglash, muqobil taxminlar va dalilga muvofiq qarorni o‘zgartirish qobiliyatini kuzatadi.

Ilmiy to‘garaklarda talaba kichik, bajarilishi mumkin bo‘lgan savoldan boshlashi maqsadga muvofiq. Liu va hammualliflar Xitoydagi 1241 nafar tibbiyot magistranti ishtirok etgan kesim tadqiqotida ilmiy ijodkorlik, tadqiqot ko‘nikmalari hamda ta’lim muhitiga munosabatni o‘rgangan. Mualliflar tadqiqot faoliyatiga erta jalb etish va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta’kidlagan [6]. Magistrantlar va o‘zini o‘zi baholash ma’lumotlariga asoslangan ushbu natijalar bakalavriat talabalari uchun tayyor sababiy dalil bo‘la olmaydi.

Tibbiyot instituti sharoitida ilmiy to‘garak ishini manba izlash, savolni aniqlashtirish, tadqiqot rejasini tuzish va xulosani taqdim etish bosqichlarida tashkil etish mumkin. Masalan, talaba bemor uchun axborot varaqasining tushunarliligini baholash loyihasini ishlab chiqadi. Rahbar loyiha hajmini talabaning tayyorgarligiga moslashtiradi. Talabalar real bemorlar yoki ularning ma’lumotlari bilan ishlasa, tegishli etik tartiblar va maxfiylik talablari oldindan bajarilishi lozim.

Simulyatsion mashg‘ulotlar nazariy bilimni amaliy harakat bilan bog‘lashga xizmat qiladi. McGaghie va hammualliflarning 14 tadqiqotni birlashtirgan meta-tahlilida maqsadli takroriy mashqqa asoslangan simulyatsion ta’lim muayyan klinik ko‘nikmalarni egallashda an’anaviy ta’limga nisbatan ustun natija ko‘rsatgan [7]. Bu dalil simulyatsiyaning barcha turdagi iqtidor yoki ijodkorlikni avtomatik oshirishini isbotlamaydi. Uni aniq ko‘nikma, kuzatuv mezoni, fikr-mulohaza va takroriy mashq bilan bog‘lash zarur.

Shu maqsadda mashg‘ulotdan keyingi muhokamada talabadan qarorining sababi, qiyinchilik yuzaga kelgan bosqich va keyingi urinish rejasi so‘raladi. Lefroy va hammualliflar foydali fikr-mulohazani o‘rganuvchining rivojlanishini anglash, maqsadlarini aniqlash va takomillashish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beruvchi muloqot sifatida izohlaydi [8]. «Yaxshi ishladingiz» kabi umumiy bahoni aniq kuzatuv bilan to‘ldirish kerak: qaysi harakat muvaffaqiyatli bajarilgani va qaysi jihat qayta mashq qilinishi ko‘rsatiladi.

Mentorlik talabaning individual rivojlanish rejasini muntazam ko‘rib chiqish imkonini beradi. Akinla va hammualliflarning tizimli sharhida yuqori kurs talabalarining birinchi kurs talabalariga ko‘magi moslashuv, shaxsiy-kasbiy rivojlanish va stressni kamaytirish nuqtayi nazaridan istiqbolli deb baholangan. Shu bilan birga, kiritilgan tadqiqotlarning baholash sifati past yoki o‘rtacha bo‘lgan [9]. Demak, mentorlik dasturini joriy etishda kutiladigan natijalar va ularni o‘lchash tartibini belgilash lozim.

Tahlil asosida dastlabki baholash, individual maqsad, rivojlantiruvchi topshiriq, fikr-mulohaza va qayta baholashdan iborat izchil model taklif etiladi. Uni bir semestr davomida mavjud amaliy mashg‘ulotlar va ilmiy to‘garak faoliyati bilan bog‘lash mumkin. Dastlab talabaning qiziqishi, klinik vaziyatni tahlil qilishi va mustaqil ishlash tajribasi o‘rganiladi. Keyin talaba hamda mentor kuzatiladigan natijani kelishib oladi. Masalan, semestr yakunida manbalar bilan asoslangan klinik holat tahlilini tayyorlash individual maqsad bo‘lishi mumkin.

1-jadval. Iqtidor rivojlanishini kuzatish uchun taklif etilayotgan mezonlar

Yo‘nalish	**O‘quv faoliyati**	**Baholash belgisi**
Intellektual tahlil	Klinik holatni muhokama qilish	Muhim dalillarni ajratish va xulosani asoslash
Ijodiy izlanish	Muqobil g‘oya yoki loyiha taklif qilish	G‘oyaning yangiligi, foydaliligi va tekshirilishi
Mustaqil o‘rganish	Reja va refleksiv kundalik yuritish	Bilimdagi bo‘shliqni aniqlash va rejani yangilash
Amaliy ko‘nikma	Simulyatsiya va takroriy mashq	Belgilangan mezonlarga muvofiq bajarish

Kasbiy muloqot	Jamoaviy topshiriq va fikr-mulohaza	Fikrni tushuntirish va tavsiyani ishga tatbiq etish

Jadvaldagi mezonlar tasdiqlangan psixometrik shkala emas; ular mahalliy sinov uchun taklif qilinmoqda. Natijalarni ishlar portfeli, amaliy kuzatuv va og‘zaki himoya orqali birgalikda baholash maqsadga muvofiq. Ijodkorlikni faqat g‘oyalar soni bilan o‘lchash yetarli emas: yechimning mazmuni, dalili va bajarilish imkoniyati ham tahlil qilinadi. Guruh loyihasida har bir talabaning shaxsiy hissasi qayd etilishi kerak.

Modelni tekshirishda boshlang‘ich va yakuniy topshiriqlarning murakkabligi tenglashtirilishi, baholovchilar uchun yagona yo‘riqnoma ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Taqqoslash guruhi bo‘lmasa, kuzatilgan o‘sishni faqat model ta’siri bilan izohlab bo‘lmaydi. Boshlang‘ich tayyorgarlik, qo‘shimcha mashg‘ulotlar va mentor tajribasi ham hisobga olinishi zarur. Baholashning vazifasi talabaning rivojlanish ehtiyojini aniqlashdir; bir martalik past natija uning iqtidoriga yakuniy hukm sifatida qo‘llanmasligi kerak.

Tibbiyot instituti talabalarining intellektual va ijodiy iqtidorini rivojlantirish bilim, motivatsiya, mustaqil faoliyat va ta’lim imkoniyatlarining o‘zaro bog‘lanishini talab qiladi. Adabiyotlar iqtidorni rivojlanadigan salohiyat sifatida ko‘rib chiqish, izlanishga asoslangan topshiriqlarni qo‘llash, ko‘nikmalarni maqsadli mashq qilish va mazmunli fikr-mulohaza berishga asos yaratadi. Biroq alohida usullarning foydasi ularning birlashtirilgan modeli mahalliy sharoitda samarali ekanini hali tasdiqlamaydi.

Amaliyot uchun klinik fanlarda fikrlash jarayonini baholaydigan vaziyatli topshiriqlarni kengaytirish, ilmiy to‘garaklarda kichik loyihalar tashkil etish va mentor bilan kelishilgan individual rivojlanish rejasini yuritish tavsiya qilinadi. Portfelda talabaning dastlabki ishi, olgan tavsiyasi va takomillashtirilgan natijasi saqlanishi kerak. Dasturga kirish mezonlarini oshkora belgilash hamda yangi ishtirokchilar uchun davriy imkoniyat yaratish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan yondashuvning samaradorligini keyingi tadqiqotlarda klinik fikrlash, ijodiy ish sifati va mustaqil o‘rganishdagi o‘zgarishlar orqali tekshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Preyra, R., Mishra, S., Khan, H., Saha, S., Dhillon, A., Keuhl, A., Monteiro, S., Wooster, E. M., Gottlieb, M., Peever, A., & Chan, T. M. (2026). Exploring “talent” in medical education: A scoping review. Perspectives on Medical Education, 15(1), 75–92. https://doi.org/10.5334/pme.1859
2. Subotnik, R. F., Olszewski-Kubilius, P., & Worrell, F. C. (2011). Rethinking giftedness and gifted education: A proposed direction forward based on psychological science. Psychological Science in the Public Interest, 12(1), 3–54. https://doi.org/10.1177/1529100611418056
3. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2020). Intrinsic and extrinsic motivation from a self-determination theory perspective: Definitions, theory, practices, and future directions. Contemporary Educational Psychology, 61, 101860. https://doi.org/10.1016/j.cedpsych.2020.101860
4. Panadero, E. (2017). A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research. Frontiers in Psychology, 8, 422. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.00422
5. Rodríguez, G., Pérez, N., Núñez, G., Baños, J. E., & Carrió, M. (2019). Developing creative and research skills through an open and interprofessional inquiry-based learning course. BMC Medical Education, 19, 134. https://doi.org/10.1186/s12909-019-1563-5
6. Liu, F., Qu, S., Fan, Y., Chen, F., & He, B. (2023). Scientific creativity and innovation ability and its determinants among medical postgraduate students in Fujian province of China: A cross sectional study. BMC Medical Education, 23, 444. https://doi.org/10.1186/s12909-023-04408-9
7. McGaghie, W. C., Issenberg, S. B., Cohen, E. R., Barsuk, J. H., & Wayne, D. B. (2011). Does simulation-based medical education with deliberate practice yield better results than traditional clinical education? A meta-analytic comparative review of the evidence. Academic Medicine, 86(6), 706–711. https://doi.org/10.1097/ACM.0b013e318217e119
8. Lefroy, J., Watling, C., Teunissen, P. W., & Brand, P. (2015). Guidelines: The do’s, don’ts and don’t knows of feedback for clinical education. Perspectives on Medical Education, 4(6), 284–299. https://doi.org/10.1007/s40037-015-0231-7

9. Akinla, O., Hagan, P., & Atiomo, W. (2018). A systematic review of the literature describing the outcomes of near-peer mentoring programs for first year medical students. BMC Medical Education, 18, 98. https://doi.org/10.1186/s12909-018-1195-1

BIOETIKANING ZAMONAVIY SHAXS TARBIYA SIDAGI O‘RNI: ILMIY-FALSAFIY TAHLIL

Bozorova Ro‘zigul Sharofovna
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti (PhD)

XXI asr insoniyat tarixida ilm-fan va texnologik taraqqiyot misli ko‘rilmagan darajada jadallashgan davr sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biotexnologiya, genetik tadqiqotlar, sun’iy intellekt, raqamli tibbiyot, reproduktiv texnologiyalar, transplantologiya va boshqa zamonaviy texnologiyalar inson hayotining imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, ushbu taraqqiyot “inson nimaga qodir?” degan savol bilan bir qatorda “inson nimaga haqli?”, “qaysi chegaragacha borish axloqan maqbul?”, “ilmiy imkoniyatning chegarasi qayerda?”, “insonning qadr-qimmati qanday himoya qilinadi?” kabi falsafiy savollarni ham kun tartibiga olib chiqmoqda.

UNESCO bioetikaning zamonaviy mazmuni tibbiyot yoki kasbiy etika bilan cheklanmasligini, uning ilmiy-texnologik taraqqiyot natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy o‘zgarishlar va global muvozanatlarni ham falsafiy-axloqiy jihatdan tahlil qilishini ta’kidlaydi. 2005-yilda qabul qilingan Bioetika va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bioetik tamoyillarni inson qadr-qimmati, inson huquqlari va fundamental erkinliklar bilan bevosita bog‘laydi.

Shu sababli bioetika zamonaviy shaxs tarbiyasi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki bugungi shaxs nafaqat bilimli va kasbiy jihatdan kompetent, balki o‘z qarorlarining inson, jamiyat, tabiat va kelajak avlodlarga ta’sirini anglay oladigan mas’uliyatli axloqiy subyekt bo‘lishi zarur.

Bioetikaning falsafiy mohiyati shundan iboratki, “Bioetika” tushunchasi yunoncha bios - hayot va ethos - axloq, xulq-atvor so‘zlaridan tashkil topgan. Uning zamonaviy mazmuni inson hayoti va sog‘lig‘i, biologik jarayonlar, tibbiyot, biotexnologiya, ilmiy tadqiqotlar va ekologik muammolarning axloqiy-falsafiy jihatlarini o‘rganishni qamrab oladi.

Bioetikaning falsafiy xususiyati shundaki, u “mavjud imkoniyat” bilan “axloqan maqbul imkoniyat” o‘rtasidagi farqni tahlil qiladi.

Masalan, ilm-fan ma’lum texnologiyani yaratishi mumkin. Biroq uning yaratilishi avtomatik tarzda undan foydalanish axloqan to‘g‘ri ekanini anglatmaydi. Shu jihatdan bioetika “mumkin” va “lozim” kategoriyalari o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

Bu masalani quyidagi falsafiy formula orqali ifodalash mumkin:

Ilmiy imkoniyat → texnologik qo‘llash → ijtimoiy oqibat → axloqiy baholash → mas’uliyatli qaror.

1-jadval. Bioetikaning falsafiy kategoriyalari

№	Falsafiy kategoriya	Bioetika mazmuni	Shaxs tarbiyasidagi ahamiyati
1	Hayot	Inson hayotining qadri va daxlsizligi	Hayotga hurmat
2	Qadr-qimmat	Insonni vosita emas, qadriyat sifatida ko‘rish	Insonparvarlik
3	Erkinlik	Shaxsning ongli tanlov huquqi	Mustaqil fikrlash
4	Avtonomiya	Shaxsning o‘z hayotiga oid qarorlarda ishtiroki	Mas’uliyatli tanlov
5	Adolat	Huquq va imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishi	Ijtimoiy mas’uliyat
6	Ezgulik	Inson manfaatini ko‘zlash	Mehr-oqibat
7	Zarar yetkazmaslik	Zarar va xavfni kamaytirish	Ehtiyotkorlik
8	Mas’uliyat	Qaror oqibatlarini anglash	Axloqiy yetuklik

9	Birdamlik	Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro yordam	Hamjihatlik
10	Qadriyat	Hayot va insonning oliy ahamiyatini anglash	Ma’naviy dunyoqarash

Falsafada shaxs biologik mavjudotdan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, u ong, o‘zlikni anglash, erkin tanlov, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy shaxs esa yangi texnologiyalar, global kommunikatsiya, ekologik xavflar va axborot oqimlari sharoitida yashaydi. Demak, uning axloqiy kompetensiyasi ham an’anaviy tarbiya chegaralaridan kengayishi lozim. Shuni hisobga olgan holda bugungi shaxs:

1. inson qadr-qimmatini anglashi;
2. boshqa insonlarning huquqlarini hurmat qilishi;
3. mustaqil va tanqidiy fikrlashi;
4. ilmiy ma’lumotni axloqiy jihatdan baholay olishi;
5. texnologik yangiliklarning oqibatlarini tushunishi;
6. tabiat va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini his qilishi;
7. shaxsiy ma’lumotlar va insoniy daxlsizlikning ahamiyatini anglashi kerak.

Shunday qilib, bioetika zamonaviy shaxsni “biluvchi inson”dan “mas’uliyatli qaror qabul qiluvchi inson”ga aylantirishga xizmat qiluvchi axloqiy-falsafiy mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Bioetikada keng qo‘llanadigan asosiy tamoyillar insonning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) inson ishtirokidagi tadqiqotlar etikasi doirasida inson qadr-qimmati, huquqlari va farovonligini himoya qilishni asosiy talab sifatida ko‘rsatadi; avtonomiya, foyda keltirish va adolat etik nazoratning markaziy tamoyillari hisoblanadi.

2-jadval. Bioetik tamoyillar va tarbiyaviy natijalar

№	Bioetik tamoyil	Ilmiy-falsafiy mazmun	Tarbiyaviy natija
1	Avtonomiya	Shaxsning ongli tanlov qilish huquqi	Mustaqil fikrlash
2	Foyda keltirish	Inson manfaatini ko‘zlash	Ezgulik
3	Zarar yetkazmaslik	Zararni oldini olish yoki kamaytirish	Ehtiyotkorlik
4	Adolat	Tenglik va adolatli taqsimot	Ijtimoiy mas’uliyat
5	Inson qadr-qimmati	Har bir insonning ichki qiymatini tan olish	Insonparvarlik
6	Rozilik	Ongli va erkin qaror	Huquqiy madaniyat
7	Maxfiylik	Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish	Daxlsizlik madaniyati
8	Birdamlik	O‘zaro yordam va hamkorlik	Ijtimoiy hamjihatlik

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, inson ishtirokidagi tadqiqotlarda etik tamoyillarni ta’minlash uchun etik qo‘mitalar tomonidan ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Bunda avtonomiya, foyda keltirish va adolat markaziy o‘rin tutadi.

Bu tamoyillar professional tibbiyot faoliyatigina emas, balki shaxsning kundalik axloqiy madaniyatini shakllantirish uchun ham muhimdir.

Bioetika — zamonaviy axloqiy tafakkurni shakllantirish vositasi

An’anaviy axloqiy tarbiya ko‘pincha “yaxshilik va yomonlik”, “halollik va yolg‘on”, “adolat va adolatsizlik” kabi kategoriyalar orqali amalga oshiriladi.

Bioetika esa mazkur kategoriyalarni zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar sharoitida qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Masalan, insonning genetik ma’lumotlarini kim saqlashi kerak? Tibbiy ma’lumotlardan foydalanish chegarasi qanday bo‘lishi lozim? Ilmiy tadqiqotda insonning roziligi qanday ta’minlanadi? Sun’iy intellekt qarorining inson manfaatlariga zid bo‘lmasligi uchun qanday axloqiy mezonlar kerak?

Bunday savollar tayyor javobni emas, axloqiy mulohaza yuritish qobiliyatini talab qiladi.

Bioetikaning markaziy kategoriyalaridan biri - inson qadr-qimmati. UNESCO 2005-yilgi deklaratsiyasida bioetik tamoyillarni inson qadr-qimmati, inson huquqlari va fundamental erkinliklarga hurmat bilan bog‘lagan. Bu bioetikaning muhim falsafiy xususiyatini - insonni har qanday ilmiy yoki texnologik faoliyatning oddiy vositasiga aylantirmaslik zarurligini ko‘rsatadi. Shaxs tarbiyasi nuqtayi nazaridan inson qadr-qimmatini anglash quyidagi fazilatlarni rivojlantiradi:

- boshqalarga hurmat;
- kamsitishga qarshi munosabat;
- inson huquqlarini tan olish;
- bag‘rikenglik;
- empatiya;
- axloqiy mas’uliyat.

Demak, bioetika insonni “biologik obyekt” sifatida emas, huquq va qadr-qimmatga ega bo‘lgan axloqiy subyekt sifatida ko‘rishga o‘rgatadi. Zamonaviy falsafada erkinlik shaxsning muhim fundamental qadriyatlaridan biridir. Bioetika esa erkinlik masalasini insonning o‘z hayoti, sog‘lig‘i va tanasi bilan bog‘liq qarorlar kontekstida yanada konkretlashtiradi. Avtonomiya - shaxsning o‘ziga tegishli masalalarda ongli va erkin qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Bunda juda muhim tushuncha - ongli rozilikdir. (JSST) etik me’yorlarida inson ishtirokidagi tadqiqotlarda rozilik erkin va ongli bo‘lishi, ishtirokchilarning huquq va farovonligi himoya qilinishi kerakligi qayd etilgan. Shu sababli bioetik ta’lim yoshlarni faqat “to‘g‘ri javob”ni topishga emas, balki qarorni nima uchun to‘g‘ri deb hisoblayotganini asoslashga o‘rgatadi.

Bioetika individual shaxs manfaatlarinigina emas, balki jamiyat manfaatlarini ham tahlil qiladi. Sog‘liqni saqlash resurslarining cheklanganligi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidagi tafovutlar, ilmiy tadqiqotlarning ijtimoiy oqibatlari va yangi texnologiyalardan kimlar foyda ko‘rishi kabi masalalar adolat kategoriyasi bilan bog‘liq.

JSST sog‘liqni saqlash etikasi doirasida yangi va qimmat tibbiy texnologiyalarga kirish imkoniyati hamda mamlakatlar va jamiyatlar o‘rtasidagi sog‘liq tafovutlari axloqiy muammolarni kuchaytirayotganini qayd etadi. Bu esa shaxs tarbiyasida quyidagi savolni shakllantiradi: “Mening manfaatim bilan jamiyat manfaatlari o‘rtasida muvozanatni qanday ta’minlash mumkin?” Bu savol shaxsni individual manfaatdan ijtimoiy mas’uliyatga olib boradi. Zamonaviy ilm-fan insoniyatga katta imkoniyatlar bermoqda. Lekin texnologik taraqqiyotning har bir bosqichi yangi axloqiy savollarni ham yuzaga keltiradi.

JSST bugungi kunda inson genomini tahrirlash, biobanklar, katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar bilan bog‘liq etik boshqaruv masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Demak, zamonaviy shaxs texnologiyadan foydalanuvchi subyekt bo‘lish bilan birga, uning oqibatlarini axloqiy jihatdan baholay oluvchi subyekt ham bo‘lishi kerak.

Bioetikaning zamonaviy talqini inson hayotini faqat individual biologik mavjudlik sifatida emas, balki tabiiy va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘rib chiqadi. Insonning salomatligi va hayoti ekologik muhitga bevosita bog‘liq. Shu sababli bioetik tarbiya:

- tabiatga hurmat;
- biologik xilma-xillikni asrash;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- ekologik xavflarni kamaytirish;
- kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish kabi qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu jihatdan bioetika inson markazchilligi bilan ekologik mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni izlashga imkon beradi.

Bioetik tarbiyaning muhim xususiyati - u nazariy bilimni amaliy axloqiy mulohaza bilan bog‘laydi.

UNESCO 2004-yildan boshlab bioetika va fan etikasi bo‘yicha Ethics Education Programme dasturini amalga oshirib kelmoqda. Dastur doirasida o‘quv materiallari ishlab chiqiladi, o‘qituvchilar malakasi oshiriladi va oliy ta’limda bioetika ta’limini rivojlantirishga

ko‘maklashiladi. UNESCO ma’lumotiga ko‘ra, 2014-yildan buyon 70 dan ortiq mamlakatdan 1000 dan ziyod ishtirokchi Ethics Teacher Training Courses dasturlarida tayyorlangan; 30 dan ortiq universitet 14 mamlakatda UNESCO Bioethics Core Curriculum dasturini joriy etgan. UNESCO Core Curriculum 30 soatlik o‘quv kursi sifatida ishlab chiqilgan. Bu borada bioetik ta’lim metodlari ham ishlab chiqilgan.

5-jadval. Bioetik ta’lim metodlari

№	Metod	Asosiy maqsad	Rivojlanadigan kompetensiya
1	Case-study	Real bioetik vaziyatni tahlil qilish	Muammoli fikrlash
2	Debat	Qarama-qarshi fikrlarni asoslash	Argumentatsiya
3	Munozara	Turli nuqtayi nazarlarni solishtirish	Bag‘rikenglik
4	Falsafiy esse	Shaxsiy pozitsiyani asoslash	Mustaqil tafakkur
5	Rolli o‘yin	Turli manfaatlarni anglash	Empatiya
6	Muammoli savol	Axloqiy dilemmalarni ochish	Tanqidiy fikrlash
7	Refleksiya	O‘z qarorini baholash	O‘z-o‘zini anglash
8	Guruh loyihasi	Birgalikda yechim ishlab chiqish	Hamkorlik

UNESCO bioetika ta’limida madaniy va axloqiy kontekstlarni hisobga olish zarurligini ham ta’kidlaydi. Bu bioetik tarbiyaning universal tamoyillar bilan bir qatorda milliy va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tizimida bioetika alohida fan sifatida o‘qitilishi bilan birga, falsafa, pedagogika, huquq, biologiya, tibbiyot, ekologiya va axborot texnologiyalari fanlari bilan integratsiyalashishi maqsadga muvofiq. Bunday integratsiya natijasida talaba bioetikani alohida nazariy bilim sifatida emas, balki o‘z kasbiy va ijtimoiy faoliyatining axloqiy mezoni sifatida anglay boshlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bioetikaning zamonaviy shaxs tarbiyasidagi o‘rnini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u XXI asr ta’lim va tarbiya tizimining muhim fanlararo yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bioetikaning falsafiy ahamiyati uning inson hayoti, qadr-qimmati, erkinligi, avtonomiyasi, mas’uliyati va jamiyatdagi o‘rnini ilm-fan va texnologiyalarning zamonaviy imkoniyatlari bilan bog‘liq holda qayta ko‘rib chiqishida namoyon bo‘ladi.

Maqolada olib borilgan tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, bioetika tibbiy etika bilan cheklanmaydi. UNESCOning 2005-yilgi deklaratsiyasi bioetikani inson qadr-qimmati, inson huquqlari va fundamental erkinliklar bilan bog‘laydi hamda uning ilmiy-texnologik taraqqiyotning ijtimoiy va global oqibatlarini muhokama qilish doirasini kengaytiradi.

Ikkinchidan, bioetika zamonaviy shaxsning axloqiy kompetensiyasini shakllantiradi. Avtonomiya, adolat, foyda keltirish, zarar yetkazmaslik, rozilik va maxfiylik kabi tamoyillar mustaqil fikrlash, mas’uliyat va insonparvarlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

JSST ham tadqiqot etikasi doirasida avtonomiya, foyda keltirish va adolatni markaziy tamoyillar sifatida belgilaydi.

Uchinchidan, bioetik ta’lim shaxsni murakkab axloqiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Shu sababli case-study, debat, munozara, falsafiy esse va muammoli vaziyatlar kabi metodlardan foydalanish bioetik tarbiyaning samaradorligini oshirishi mumkin.

To‘rtinchidan, bioetika zamonaviy shaxsda texnologik mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt, genetik texnologiyalar, raqamli tibbiyot va biologik tadqiqotlarning rivojlanishi “texnologik imkoniyat” bilan “axloqiy maqbullik” o‘rtasidagi farqni anglashni talab qiladi.

Beshinchidan, bioetika ekologik va avlodlararo mas’uliyatni shakllantirish uchun ham muhim nazariy asosdir. Inson salomatligi va hayoti tabiat bilan chambarchas bog‘liq ekanligi sababli bioetik tarbiya ekologik madaniyat bilan uyg‘unlashishi kerak.

Oltinchidan, bioetika ta’limining xalqaro miqyosda rivojlanayotganini UNESCOning Ethics Education Programme dasturi ham ko‘rsatadi. Mazkur dastur 2004-yilda boshlangan, 2014-

yildan buyon 70 dan ortiq mamlakatdan 1000 dan ziyod ishtirokchi o‘qitilgan, 30 dan ortiq universitet 14 mamlakatda UNESCO Bioethics Core Curriculum dasturini joriy qilgan.

Demak, bioetikaning zamonaviy shaxs tarbiyasidagi bosh vazifasi - ilm-fan va texnologik taraqqiyot imkoniyatlaridan foydalanish bilan inson qadr-qimmati, huquqlari, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va tabiat manfaatlari o‘rtasida oqilona muvozanatni ta’minlay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Bu jihatdan bioetika nafaqat tibbiyot yoki biologiya uchun, balki falsafa, pedagogika, huquq, ijtimoiy fanlar va oliy ta’lim tizimi uchun ham muhim metodologik va tarbiyaviy resurs hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris: UNESCO, 2005.
2. UNESCO. Ethics Education Programme. Paris: UNESCO. Yangilangan: 19 January 2026.
3. UNESCO. Bioethics Core Curriculum. Ethics Education Programme.
4. World Health Organization. Ensuring ethical standards and procedures for research with human beings. Geneva: WHO.
5. World Health Organization. Health Ethics & Governance. Geneva: WHO.
6. World Health Organization. Standards and operational guidance for ethics review of health-related research with human participants. Geneva: WHO, 2011.
7. World Health Organization. Ethics and health. Geneva: WHO.
8. Beauchamp T. L., Childress J. F. Principles of Biomedical Ethics. Oxford University Press.
9. Potter V. R. Bioethics: Bridge to the Future. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1971.
10. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. University of Chicago Press.
11. UNESCO. Universal Declaration on the Human Genome and Human Rights. Paris: UNESCO.
12. World Medical Association. Declaration of Helsinki: Ethical Principles for Medical Research Involving Human Subjects.
13. Council for International Organizations of Medical Sciences. International Ethical Guidelines for Health-related Research Involving Humans.
14. Reich W. T. (ed.). Encyclopedia of Bioethics. New York: Macmillan.
15. Callahan D. Bioethics: The Future and the Future of Bioethics. Journal of Law, Medicine & Ethics.
16. Singer P. Practical Ethics. Cambridge University Press.
17. Fukuyama F. Our Posthuman Future: Consequences of the Biotechnology Revolution. Farrar, Straus and Giroux.
18. Habermas J. The Future of Human Nature. Polity Press.

БИОЭТИЧЕСКИЕ ГРАНИЦЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ МОДЕЛИ ПАЦИЕНТА ПОСЛЕ СМЕРТИ

Думан Д.,студентка 3 курса школы Мелицины,

Научный руководитель ассоц.профессор кафедры истории Казахстана и СГД Нагайбаева З.А.

КазНМУ им. С.Д. Асфендиярова, г. Алматы, Республика Казахстан

В современном мире цифровизация в медицине и здравоохранени меняет представления о медицинских данных. Безусловно, электронная карта в хранит в большинстве случаев уже полученные сведения, в то время как цифровая модель пациента может объединять результаты различных обследований, медицинские изображения, физиологические показания и другие данные, позволяющие моделировать не только состояние человека, но и возможный ответ на лечение пациента. Такие модели

рассматриваются как одно из перспективных направлений персонализированной медицины и здравоохранения.

При этом наряду с практической пользой возникает вопрос о том, что происходит с цифровой моделью пациент после его смерти. Медицинские данные могут сохраняться и в дальнейшем использоваться в научных и лабораторных исследованиях, в медицинском обучении, в проверке гипотез и разработке цифровых систем. При этом сам человек уже не может изменить или уточнить свое согласие. Поэтому посмертное использование данных связано с вопросами автономии личности, конфиденциальности и контроля над информацией. Это требует определения нравственных, гуманистических границ дальнейшего использования цифровой модели.

Под цифровой моделью пациента понимается вычислительное представление клинически значимых характеристик индивида. В литературе также используется термин «цифровой двойник». Его отличительная черта состоит не просто в накоплении информации, а в возможности обновлять модель и применять данные для прогнозирования и моделирования различных клинических сценариев [1, с. 51–55]. Источниками могут быть лабораторные показатели, данные визуализации, сведения из медицинской документации, показатели носимых устройств и, в отдельных случаях, генетическая информация [2, с. 478].

Чем подробнее такая модель, тем выше ее потенциальная ценность для персонализированного подхода, но одновременно тем чувствительнее становится содержащаяся в ней информация. После смерти пациента данные не исчезают автоматически. Они могут оставаться в информационной системе медицинской или исследовательской организации и сохранять научную ценность. Именно поэтому смерть человека не завершает все этические вопросы, связанные с обращением с его медицинской информацией.

В исследованиях посмертной приватности отмечается, что уважение к конфиденциальности умершего связано не только с возможным вредом родственникам, но и с доверием людей к медицинской системе и исследованиям в целом.

Основной вопрос связан с автономией пациента. Согласие на создание цифровой модели для диагностики или лечения не означает автоматически согласия на ее последующее применение в любых целях. После смерти первоначальная клиническая цель может смениться исследовательской, образовательной или коммерческой. Поэтому прижизненное волеизъявление пациента должно иметь приоритет. Если предполагается длительное хранение модели, пациенту еще при жизни важно предоставить понятную информацию о возможных вариантах ее дальнейшего использования.

Следующий вопрос – конфиденциальность. Цифровая модель способна объединять большой объем медицинских сведений, которые по отдельности могут казаться малоинформативными. Их совокупность повышает риск повторной идентификации человека и получения дополнительных выводов о его здоровье. Особого внимания требуют генетические и семейные сведения, поскольку они способны затрагивать тайну частной жизни живых родственников. Поэтому простое удаление имени не всегда означает полноценное обезличивание [3; 4].

Третий вопрос касается соотношения общественной пользы и возможного вреда. Посмертное использование данных может быть полезно при изучении редких заболеваний, оценке результатов лечения и разработке новых методов медицинского прогнозирования. Полный запрет лишил бы исследования потенциально значимого материала. Но сама научная польза не должна рассматриваться как универсальное разрешение: необходимо учитывать цель проекта, объем используемых данных, степень их идентифицируемости и наличие прижизненного согласия.

Необходимо рассматривать коммерческое использование, которое не является негуманным само по себе, однако требует большей ответственности. Если модель, созданная для лечения, после смерти пациента начинает использоваться для разработки коммерческого продукта, меняются и цель, и круг лиц, получающих выгоду. В такой

ситуации прежнего клинического согласия может быть недостаточно. Пациент должен заранее понимать, допускает ли он подобный сценарий.

Для Казахстана важна действующая правовая рамка обращения с медицинскими данными. Кодекс Республики Казахстан «О здоровье народа и системе здравоохранения» предусматривает ответственность за нарушение мер защиты персональных медицинских данных, устанавливает использование медицинских данных для научных и иных исследований в обезличенном виде и отдельно регулирует защиту цифровых ресурсов, содержащих персональные медицинские данные [5, ст. 61–62]. Вместе с тем эти положения не дают специального ответа на вопрос о судьбе комплексной цифровой модели после смерти пациента. Поэтому здесь требуется именно биоэтическое осмысление, дополняющее общие правила защиты данных.

Посмертное использование цифровой модели представляется допустимым прежде всего тогда, когда оно соответствует воле пациента, выраженной при жизни. Оптимальным решением было бы разделять согласие на клиническое применение модели и согласие на ее дальнейшее использование после смерти. Человек мог бы заранее разрешить научное использование, установить ограничения для коммерческих целей либо отказаться от дальнейшего применения своей модели.

Не менее важен принцип ограничения цели. Организация не должна получать бессрочное право использовать модель только потому, что технически располагает ее копией. Каждая новая цель должна быть понятной и обоснованной. Если исследовательская задача может быть решена на обезличенных или менее детализированных данных, использование полной идентифицируемой модели не должно становиться вариантом по умолчанию. Такой подход соответствует принципу минимизации вмешательства в сферу информации о частной жизни человека и снижает риски для родственников.

Для ситуаций, в которых отсутствует ясное прижизненное согласие, сохраняется высокая идентифицируемость данных или присутствует выраженный коммерческий интерес, необходим независимый этический контроль. Решение должно учитывать ожидаемую общественную пользу, чувствительность информации и вероятность того, что использование противоречило бы воле пациента. Важно также заранее определять срок хранения и условия прекращения использования модели, а не оставлять ее в цифровой инфраструктуре на неопределенное время.

Таким образом, цифровая модель пациента может сохранять медицинскую и исследовательскую ценность после смерти человека, однако техническая возможность ее дальнейшего использования не означает автоматической этической допустимости. Основными ориентирами должны оставаться автономия пациента, конфиденциальность, защита интересов родственников, общественная польза и прозрачность целей использования.

Наиболее обоснованным представляется подход, при котором судьба цифровой модели обсуждается еще при жизни пациента. Отдельное согласие на посмертное использование, обезличивание данных, ограничение целей и независимая оценка спорных проектов позволяют сохранить научный потенциал технологии без превращения медицинских данных умершего в ресурс, которым можно распоряжаться без установленных границ.

Литература

1. Соловьев Н. В., Костенко О. В. Цифровой двойник пациента: новая этика цифровой медицины // Биоэтика. 2026. Т. 19, № 1. С. 51–55.

2. Кобякова О. С., Стародубов В. И., Куракова Н. Г., Цветкова Л. А. Цифровые двойники в здравоохранении: оценка технологических и практических перспектив // Вестник Российской академии медицинских наук. 2021. Т. 76, №5. С. 476–487.

3. Burr C. D., Qian S., Winter P. et al. Realising the digital twin: a thematic review and analysis of the ethical, legal, and social issues for digital twins in healthcare // AI & Society. 2026. Vol. 41. P. 5243–5267.

4. Bak M. A. R., Willems D. L. Contextual Exceptionalism After Death: An Information Ethics Approach to Post-Mortem Privacy in Health Data Research // Science and Engineering Ethics. 2022. Vol. 28. Art. 32.
5. Кодекс Республики Казахстан от 7 июля 2020 года № 360-VI ЗРК «О здоровье народа и системе здравоохранения» (с изм. и доп. по состоянию на 2026 г.). Ст. 61–62.

“AVESTA”DA TABOBAT TARIXI: SANITARIYA, PROFILAKTIKA VA BIOETIKA ASOSLARI

Murodova G.M
Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi

Zamonaviy bioetika fani ko‘pincha XX asr o‘rtalarida — tibbiy texnologiyalar taraqqiyoti va inson huquqlari masalalari keskinlashgan davrda shakllangan yangi intizom sifatida talqin etiladi. Biroq bu qarash tarixiy jihatdan bir tomonlama bo‘lib, insoniyat tafakkurining eng qadimgi bosqichlaridayoq shifokorlik faoliyati, jamoat salomatligi va tabiatga munosabatni tartibga soluvchi me’yoriy-axloqiy tizimlar mavjud bo‘lganini e’tibordan chetda qoldiradi. Shu nuqtai nazardan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesta” nafaqat diniy-mifologik, balki chuqur empirik-ratsional bilimlar majmuasini o‘zida mujassam etgan noyob manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Avesta” matnlarini shunchaki diniy e’tiqod hujjati sifatida emas, balki o‘z davrining sanitariya kodeksi, jamoat salomatligi me’yorlari majmuasi va tabiatni asrash falsafasi sifatida o‘rganish — Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fan tarixini qayta baholashga imkon beradi [4, 112–115-b.]. “Ardvisur Yasht” va “Videvdat” qismlarida qayd etilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi zardushtiy jamiyatida tibbiyot yagona bilim sohasi sifatida emas, balki uch mustaqil, ammo o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga ega tizim sifatida shakllangan edi [1, 88–92-b.; 2, 84-b.].

Birinchi yo‘nalish -“Urvaro-baeshaza” — fitoterapevtik yo‘nalish bo‘lib, ushbu yo‘nalish dorivor o‘simliklar vositasida davolashning ilmiy-amaliy asoslarini tashkil etgan. Manbada yuzlab dorivor giyohlar hamda ulardan damlama va ekstraktlar tayyorlash texnologiyalari qayd etilgan [3, 21-b.]. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, qadimgi zardushtiy tabiblar nafaqat empirik kuzatish, balki tizimlashtirilgan bilimga ham ega bo‘lganlar — ya’ni o‘simlik xomashyosini terish, qayta ishlash va dozalash bo‘yicha standartlashtirilgan qoidalar mavjud bo‘lgan.

Ikkinchi yo‘nalish- “Karedho-baeshaza” — jarrohlik yo‘nalishi bo‘lib, jarrohlik aralashuvi orqali davolash yo‘nalishida asboblarning sterilligi, jarohatlarni kuydirish va tozalash tartib-qoidalari aniq belgilangan [3, 24-b.]. Bu — antiseptika g‘oyasining tibbiyot tarixidagi eng qadimgi amaliy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, XIX asrda Jozef Lister tomonidan ilmiy asoslab berilgan antiseptik jarrohlik tamoyillarining minglab yillar oldingi intuitiv-empirik prototipi sifatida baholanishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish “Manthro-baeshaza” — psixoterapevtik yo‘nalish bo‘lib, ruhiy ta’sir va muqaddas kalomlar vositasida amalga oshiriladigan davolash usuli zamonaviy psixosomatika va so‘z terapiyasi tushunchalarining ibtidoiy shaklini aks ettiradi. Bu yo‘nalishning alohida tibbiy soha sifatida ajratilishi qadimgi zardushtiylarda tana va ruh salomatligining o‘zaro bog‘liqligi haqidagi tushunchaning mavjud bo‘lganidan dalolat beradi — bu g‘oya bugungi bio-psixo-ijtimoiy tibbiyot modelining uzoq tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi.

“Videvdat”da tasvirlangan shifokorlik litsenziyalash tizimi bioetika tarixidagi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, bo‘lajak jarroh o‘z malakasini tasdiqlash uchun avval uch nafar “daeva e’tiqodli” ya’ni yot dinga mansub bemor ustida murakkab operatsiyani muvaffaqiyatli o‘tkazishi shart bo‘lgan [2, 85-b.]. Agar operatsiya uch marta ham muvaffaqiyatsiz tugab, bemor vafot etsa, bunday shaxs butun umrga tibbiy amaliyotdan chetlatilgan; aksincha, muvaffaqiyatli natija unga xalqni davolash huquqini bergan.

Ushbu me’yorning ijtimoiy-huquqiy mantig‘i alohida e’tiborga loyiq: dastlabki “sinov” bosqichida jamiyatning o‘z a’zolari emas, balki “begona” hisoblangan shaxslar ustida tajriba o‘tkazilishi — bir tomondan, jamoa a’zolarini nomalakali shifokor xatosidan himoya qilish mexanizmi, ikkinchi tomondan, tibbiy xatoning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini oldindan cheklash

usuli bo‘lgan. Bu qoida zamonaviy tibbiyotdagi “Primum non nocere” tamoyilining ilk huquqiy-axloqiy shakli sifatida talqin etiladi. Zamonaviy tilda aytganda, bu — tibbiy amaliyotga kirish uchun malaka sertifikatlashtiruvi va kasbiy javobgarlik institutining arxaik prototipidir, unda jamiyat manfaati shaxsiy amaliyot erkinligidan ustun qo‘yilgan.

“Armesht-gah” deb nomlangan maxsus izolyatsiya joylari qadimgi dunyoning eng rivojlangan sanitariya-epidemiologik institutlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Yuqumli kasalliklarga chalingan, jasad bilan aloqada bo‘lgan yoki teri kasalliklari kuzatilgan shaxslar aholi turar joylaridan, oqar suv manbalari va ekinzorlardan kamida 30 qadam masofaga uzoqlashtirilgan [2, 98-b.]. Bu me’yorning ilmiy ahamiyati shundaki, unda infeksiya tarqalishining uchta asosiy yo‘li — bevosita kontakt, suv orqali va oziq-ovqat orqali yuqish — intuitiv tarzda hisobga olingan. Masofaviy izolyatsiya tamoyili aslida zamonaviy epidemiologiyada qo‘llaniladigan “ijtimoiy distansiya” va karantin protokollarining tub mohiyatiga mos keladi, faqat u diniy-huquqiy majburiyat shaklida institutsionallashtirilgan.

Zararlangan kiyim-kechak va asbob-uskunalarni quyosh nuri, olov, ishqoriy eritmalar va qum yordamida ko‘p bosqichli tozalash qat’iy me’yorlashtirilgan [4, 120-b.]. Har bir vositaning tanlanishi tasodifiy emas: quyosh nuri va olov yuqori haroratli sterilizatsiya vositasi, qum esa mexanik tozalash vositasi sifatida qo‘llanilgan. Bunday ko‘p bosqichli yondashuv zamonaviy dezinfeksiya nazariyasidagi kombinatsion usullar tamoyiliga mos keladi.

Zardushtiylikda tuproq, suv, havo va olov — to‘rtta muqaddas unsur hisoblangan bo‘lib[5, 23-b.], ularni ifloslantirish og‘ir gunoh sifatida baholangan. Xususan, chirigan organik moddalar, qon va boshqa ifloslikларning suv havzalariga tushishi qat’iyan taqiqlangan [1, 95-b.]. Bu taqiq aslida qadimgi gidro-sanitariya texnologiyalarining diniy-huquqiy asosini tashkil etgan: suv manbalarining tozaligini saqlash orqali ichimlik suvi orqali yuqadigan kasalliklarning oldi olingan.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davrlardayoq bioetika va profilaktik tibbiyotning tizimli, me’yorlashtirilgan asoslariga ega bo‘lgan. Bu esa zamonaviy bioetika fanining genezisini faqat G‘arb falsafiy an’anasi doirasida emas, balki kengroq — Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasining qadimgi bilim tizimlari kontekstida ham qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avesto: Yasht kitobi / M. Is’hoqov. – Toshkent: «Sharq», 2001. – 384 b.
2. The Zend-Avesta. Part I: The Vendîdâd / Translated by James Darmesteter. – Oxford: The Clarendon Press, 1880 (Sacred Books of the East, Vol. IV). – 240 p.
3. Elgood, C. A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times Until the Year A.D. 1932. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 640 p.
4. Boyce, M. A History of Zoroastrianism: Volume I: The Early Period. – Leiden: E.J. Brill, 1996. – 347 p.
5. Авеста. «Закон против дэвов» (Видевдат) / Адаптированный перевод, исследование и комментарии Э. В. Ртвеладзе, А. Х. Саидова, Е. В. Абдуллаева. – Санкт-Петербург: Изд-во Политехнического университета, 2008. – 302 с.

ВРАЧ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: СОХРАНИТСЯ ЛИ ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ В ЭПОХУ АЛГОРИТМИЧЕСКОЙ МЕДИЦИНЫ?

Жақанбай А.А., студент 3 курса школы Медицины

Научный руководитель ассоц.проф.кафедры истории Казахстана и СГД Бисембаева З.У.

КазНМУ им. С.Д. Асфендиярова, г. Алматы, Республика Казахстан

Сегодня молниеносное внедрение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в медицине и здравоохранении, в частности в клиническую практику — от систем поддержки диагностических решений до алгоритмов прогнозирования лечения и исходов обязывает пересмотреть один из базовых принципов медицины: принцип личной ответственности врача за принятое решение. Особая значимость данной проблемы обусловлена тем, что

современные алгоритмы всё чаще выступают не второстепенным инструментом, а полноценным участником клинического процесса, где рекомендации способны существенно влиять на судьбу пациента. В связи с этим, возникает вопрос: остаётся ли врач моральным и юридическим субъектом ответственности, если решение фактически формируется машиной, или ответственность концентрируется между разработчиком, медицинским учреждением и алгоритмом, лишаясь персонифицированного носителя? В связи с этим, возникает проблема о необходимости изучения философских и этико-гуманистических основ врачебной ответственности в условиях алгоритмизации медицины и здравоохранения, продемонстрировать, что ответственность не исчезает, а трансформируется, требуя новых механизмов её закрепления.

Традиционная модель врачебной ответственности основывается на представлении о враче как о моральном агенте, действующем на основе профессионального суждения, клинического и критического мышления и этического долга перед пациентом. В свое время гиппократовская традиция закрепляла идею личного обязательства врача "не навреди", связывая исход лечения с конкретным действующим лицом [1, с. 45]. Способность быть ответственным предполагает три условия: свободу выбора, понимание последствий действия и возможность быть привлечённым к оценке результата. Поэтому эти принципы ставятся под сомнение в ситуации, когда решение подсказано алгоритмом, логика которого врачу не всегда полностью выяснена.

Алгоритмы машинного обучения для анализа медицинских изображений и предиктивные модели демонстрируют высокую точность в отдельных задачах, нередко сопоставимую с экспертной оценкой врача [2, с. 982]. Но, существенная часть этих моделей функционирует по принципу "чёрного ящика": даже разработчик не всегда способен объяснить, почему алгоритм пришёл к конкретному выводу. Это вызывает проблему объяснимости (explainability), которая напрямую затрагивает возможность врача осознанно принять или отклонить рекомендацию системы. Если врач не может проконтролировать т понять логику алгоритма, а только механически следует его выводу, возникает вполне логичная проблема - сохраняется ли здесь подлинное клиническое и критическое суждение или происходит его формальное делегирование машине.

В последнее время в научной литературе описана так называемая "проблема разрыва ответственности" (responsibility gap), возникающая, когда результат действия определяется системой, не обладающей моральной субъектностью, а лица, причастные к её созданию и применению — разработчик, медицинская организация, модулятор и врач, — оказываются связаны настолько опосредованно, что ни один из них не может быть признан единственным носителем ответственности [3, с. 178]. Разработчик отвечает за качество и корректность обучающей выборки, учреждение — за условия внедрения и контроль эксплуатации технологии, регулятор — за стандарты сертификации, но клиническое решение относительно конкретного пациента в большинстве правовых систем по-прежнему принимает врач. В связи с этим, официальная ответственность не устраняется, но усложняется её содержательное наполнение: врач, медицинский работник отвечает уже не только за собственное суждение, но и за обоснованность доверия к конкретному инструменту.

Наиболее аргументированной является позиция, где ответственность врача не исчезает в условиях алгоритмизации, а **модифицируется,** приобретая новое содержание, которому сопутствует переход от ответственности за единолично принятое решение к ответственности за "осмысленный человеческий контроль" (meaningful human control) над процессом применения технологии [4, с. 210]. Это означает , что врач обязан: во-первых, критически оценивать рекомендации алгоритма, во-вторых, понимать пределы применимости конкретной модели и её ограничения, в-третьих, сохранять право и обязанность окончательного решения, в частности, в нестандартных или пограничных клинических случаях. Такой подход требует пересмотра медицинского образования: наряду с клиническими дисциплинами необходимо формирование базовой

алгоритмической и биоэтической грамотности будущего врача, позволяющей ему выступать не пассивным исполнителем машинных рекомендаций, а компетентным субъектом принятия решений [5, с. 65]. При этом трансформация ответственности означает и изменение морального статуса самого критического мышления, т.к. оно перестаёт быть исключительно результатом индивидуального суждения врача [6, с. 112].

Необходимо отметить, что институциональный уровень трансформации ответственности: разработка протоколов информированного согласия, учитывающих участие искусственный интеллект в диагностическом или лечебном процессе, создание независимых механизмов аудита алгоритмов и закрепление правовых норм, распределяющих ответственность между всеми участниками цепочки внедрения технологии.

Внедрение искусственного интеллекта в медицине и здравоохранении не устраняет проблему врачебной ответственности, а придаёт ей новую форму. Ответственность врача перемещается от единоличного клинического и критического мышления к осознанному контролю над применением технологии, клинической оценке её рекомендаций и сохранению за врачом права окончательного решения. Условием сохранения человеческой ответственности в эпоху алгоритмической медицины выступает не отказ от технологий, а формирование новой этико-гуманистической, научной среды, в которой врач остаётся полноценным, ответственным моральным субъектом, а не техническим исполнителем.

В заключении хотелось бы отметить, что сохранение человеческой ответственности в эпоху алгоритмической медицины является не данностью, а результатом целенаправленных духовных и этических стараний.

Литература

1. Вересаев В.В. Записки врача. — М.: Эксмо, 2007. — 384 с.
2. Char D.S., Shah N.H., Magnus D. Implementing machine learning in health care — addressing ethical challenges // New England Journal of Medicine. — 2018. — Vol. 378. — P. 981–983.
3. Matthias A. The responsibility gap: Ascribing responsibility for the actions of learning automata // Ethics and Information Technology. — 2014. — Vol. 6. — P. 175–183.
4. Topol E.J. Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. — New York: Basic Books, 2019. — 400 p.
5. Юдин Б.Г. Биоэтика: проблема обоснования // Вопросы философии. — 2015. — № 3. — С. 62–70.
6. Тищенко П.Д. Философия биомедицины: моральный статус нового знания. — М.: ИФ РАН, 2021. — 246 с.

DORIVOR O‘SIMLIKLARDAN BIOLOGIK FAOL MODDALAR OLISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING BIOETIK HAMDA EKOLOGIK JIHATLARI

Tursunova Munira Alisher qizi
Osiyo xalqaro universiteti o`qituvchisi

Dorivor o‘simliklar insoniyat tomonidan kasalliklarning oldini olish va davolash maqsadlarida qadimdan foydalanib kelinayotgan tabiiy resurslardan biridir. Zamonaviy farmatsevtika rivojlanishi bilan o‘simlik xomashyosi nafaqat an’anaviy tibbiyot, balki yangi biologik faol birikmalarni izlash, farmatsevtik substansiyalar yaratish va yangi dori vositalarini ishlab chiqish uchun ham muhim manbaga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti dorivor o‘simliklar va an’anaviy tibbiyotning sog‘liqni saqlash tizimidagi ahamiyatini e’tirof etadi hamda ularni ilmiy asoslangan, xavfsiz va barqaror tarzda rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [1, b. 14–20].

Biroq dorivor o‘simliklardan biologik faol moddalarni olish jarayoni faqat kimyoviy yoki texnologik masala bilan chegaralanmaydi. Tabiiy xomashyoni haddan tashqari yig‘ish, yovvoyi populyatsiyalarning qisqarishi, tabiiy yashash muhitining buzilishi va genetik resurslardan nazoratsiz foydalanish ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli zamonaviy

farmatsevtik tadqiqotlarda biologik samaradorlik bilan bir qatorda ekologik va bioetik mas’uliyat ham muhim mezon sifatida qaralishi lozim.

O‘simliklarning ikkilamchi metabolitlari — terpenoidlar, fenolik birikmalar, flavonoidlar, alkaloidlar, lignanlar va boshqa moddalar farmakologik tadqiqotlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa efir moylari tarkibidagi monoterpenlar va seskviterpenlar biologik faollik nuqtayi nazaridan keng o‘rganilmoqda.

Juniperus communis L. ana shunday dorivor va aromatik o‘simliklardan biridir. Adabiyotlarda ushbu turning tarkibida α-pinen, β-pinen, limonen, sabinen kabi monoterpenlar, shuningdek flavonoidlar, diterpenoidlar va boshqa ikkilamchi metabolitlar aniqlangani qayd etilgan [2, b. 1–8].

Juniperus excelsa efir moyining tarkibi ham turli geografik hududlarda o‘rganilgan. Tadqiqotlarda uning efir moyida α-pinen, limonen, α-terpinen, kamfen, δ-3-karen, 4-terpineol va boshqa uchuvchan komponentlar aniqlangan. Masalan, o‘rmon hududida o‘suvchi *J. excelsa* mevalari efir moyining gidrodistillyatsiya yo‘li bilan olingan namunasida 48 ta birikma aniqlangan bo‘lib, ular umumiy tarkibning 89,74 % ini tashkil etgan [3, b. 225–230].

Shuningdek, *J. excelsa* efir moyining kimyoviy tarkibi o‘simlik organi, geografik kelib chiqishi, yig‘ish mavsumi va distillyatsiya sharoitlariga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda barg, novda va mevalardan olingan efir moylarida α-pinenning miqdori sezilarli farq qilishi ko‘rsatilgan [4, b. 844–851].

Bu holat dorivor o‘simlik xomashyosini standartlashtirishning bioetik jihatdan ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Chunki xomashyo tarkibining o‘zgaruvchanligi biologik faol mahsulotning sifatiga, xavfsizligiga va kutilayotgan biologik ta’siriga ta’sir qilishi mumkin.

Farmatsevtik tadqiqotlarda bioetikaning asosiy tamoyillaridan biri — inson salomatligi va tabiiy muhitga zarar yetkazmaslikdir. Dorivor o‘simlikdan yangi biologik faol modda aniqlangan taqdirda ham uni amaliyotga joriy etishdan oldin toksikologik xavfsizlik, farmakologik samaradorlik, dozaga bog‘liqlik va klinik qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan baholanishi kerak.

Ayniqsa, in vitro yoki hayvonlarda o‘tkazilgan tajribalar natijalarini bevosita inson uchun klinik samaradorlik sifatida talqin qilish ilmiy va bioetik jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi. Masalan, *J. communis* efir moylari va ekstraktlari uchun antioksidant, antimikrob, yallig‘lanishga qarshi va boshqa biologik faolliklar eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan bo‘lsa-da, bunday natijalar ularni avtomatik ravishda klinik davolash vositasi sifatida baholash imkonini bermaydi [5, b. 1–12].

Shuning uchun ilmiy maqola va farmatsevtik tadqiqotlarda “biologik faollik kuzatildi”, “farmakologik potensial mavjud” yoki “eksperimental sharoitda ta’sir ko‘rsatdi” kabi ilmiy jihatdan ehtiyotkor iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv ilmiy xolislikni ta’minlaydi va tadqiqot natijalarini asossiz ravishda tibbiy tavsiyaga aylantirishning oldini oladi.

Dorivor o‘simliklarning tabiiy populyatsiyalaridan xomashyo sifatida foydalanish ekologik muvozanat bilan uyg‘unlashishi kerak. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti dorivor o‘simliklardan foydalanish va tabiiy biologik resurslarni muhofaza qilish masalalarini bir-biridan ajratib bo‘lmasligini qayd etadi. Tabiiy mahsulotlarga bo‘lgan talab ortishi yovvoyi o‘simliklarni haddan tashqari yig‘ish xavfini ham oshiradi [1, b. 14–20].

Juniperus turlarida xomashyoning turli organlaridan foydalanish mumkinligi sababli yig‘ish usulini to‘g‘ri tanlash alohida ahamiyatga ega. Mevalar, barglar yoki yosh novdalarni yig‘ish bilan butun o‘simlikni kesib olishning ekologik oqibati bir xil emas. Ayniqsa sekin o‘suvchi daraxt va buta turlarida reproduktiv organlarning yoki asosiy vegetativ qismlarning haddan tashqari yig‘ilishi tabiiy populyatsiyaning qayta tiklanish imkoniyatini pasaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan dorivor xomashyoni tayyorlashda quyidagi ekologik tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. tabiiy populyatsiyalarning holatini muntazam monitoring qilish;
2. o‘simlikning qayta tiklanish imkoniyatini hisobga olgan holda xomashyo yig‘ish;
3. reproduktiv individlarni maksimal darajada saqlab qolish;

4. yovvoyi xomashyo bilan bir qatorda plantatsion yetishtirish imkoniyatlarini rivojlantirish;
5. yig‘ish hududlari va hajmini ekologik monitoring asosida belgilash;
6. farmatsevtik tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan minimal miqdordagi xomashyodan foydalanish.

Bunday yondashuv “ilmiy natija olish” va “tabiiy resursni saqlash” o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Dorivor o‘simliklarni o‘rganayotgan tadqiqotchining mas’uliyati faqat laboratoriya natijalarining ishonchliligi bilan cheklanmaydi. Tadqiqotchi xomashyoning kelib chiqishi, yig‘ilish sharoiti, botanika jihatdan to‘g‘ri identifikatsiyasi, saqlash sharoiti va tadqiqotda foydalanilgan usullarni imkon qadar aniq qayd etishi kerak.

Ayniqsa bir tur nomi ostida turli geografik populyatsiyalardan olingan namunalarni bevosita taqqoslashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki efir moyining kimyoviy profili geografik omillar, iqlim, tuproq, o‘simlik organi, rivojlanish bosqichi va yig‘ish mavsumiga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin [4, b. 83–87].

Bundan tashqari, biologik resurslardan foydalanishda manfaatlarni adolatli taqsimlash masalasi ham dolzarbdir. Genetik resurslar va ular bilan bog‘liq an’anaviy bilimlardan foydalanish xalqaro miqyosda Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya hamda Nagoya protokoli doirasida muhokama qilinadi. Tadqiqot natijasida tijoriy yoki ilmiy qiymatga ega mahsulot yaratilgan hollarda resurslardan foydalanish va manfaatlarni adolatli taqsimlash masalalariga e’tibor berish zarur [6, b. 765–774].

Dorivor o‘simliklardan biologik faol moddalarni olishning zamonaviy modeli uchta o‘zaro bog‘liq talabni qamrab olishi kerak: **ilmiy asoslanganlik, inson salomatligi xavfsizligi va ekologik barqarorlik**. Ushbu uch yo‘nalishdan birortasining e’tibordan chetda qolishi tadqiqotning umumiy qiymatini pasaytiradi.

Masalan, yuqori chiqim beruvchi ekstraksiya usulini tanlash har doim ham eng maqbul yechim emas. Agar usul katta miqdorda o‘simlik xomashyosini talab qilsa yoki ekologik jihatdan zararli erituvchilardan foydalanishni ko‘paytirsa, uning umumiy samaradorligi qayta baholanishi kerak. Shu sababli kelajakdagi tadqiqotlarda ekstraksiya samaradorligi bilan bir qatorda erituvchining xavfsizligi, qayta tiklanishi, energiya sarfi va xomashyo sarfini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Bunda yashil kimyo tamoyillariga yaqin texnologiyalar, erituvchini qayta tiklash, ekstraksiya vaqtini qisqartirish, xomashyoni oqilona sarflash va chiqindilarni kamaytirish farmatsevtik ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini oshirishi mumkin.

Xulosa. Dorivor o‘simliklardan biologik faol moddalarni olish zamonaviy farmatsevtika va farmakognoziyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Biroq tabiiy xomashyodan foydalanishning ilmiy samaradorligi uning bioetik va ekologik mas’uliyati bilan birgalikda baholanishi lozim. *Juniperus communis* L. va *Juniperus excelsa* misolida ko‘rinadiki, o‘simliklarning efir moylari va boshqa ikkilamchi metabolitlari farmakologik tadqiqotlar uchun istiqbolli manba bo‘la oladi. Shu bilan birga, ularning kimyoviy tarkibi o‘simlik turi, organi, geografik kelib chiqishi, yig‘ish davri va ajratib olish usuliga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun dorivor o‘simlik xomashyosini standartlashtirish, botanika identifikatsiyasi va eksperimental natijalarni to‘g‘ri talqin qilish muhim ilmiy va bioetik talab hisoblanadi.

Dorivor o‘simliklardan foydalanishning eng maqbul modeli inson salomatligi manfaatlari, ilmiy xolislik va tabiiy resurslarni muhofaza qilish tamoyillarini birlashtirishi kerak. Bunday yondashuv farmatsevtik tadqiqotlarning nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va ekologik qiymatini ham oshiradi.

Adabiyotlar

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. An’anaviy va qo‘shimcha tibbiyot bo‘yicha global hisobot 2019. – Jeneva: WHO, 2019. – 226 b.
2. Bais S., Gill N.S., Rana N., Shandil S. Juniperus communis dorivor o‘simligining fitofarmakologik sharhi // International Scholarly Research Notices. – 2014. – 2014. – 634723. – 1–12-b.

3. Weli A.M., Al-Hinai S.R.K., Hossain M.M., Al-Sabahi J.N. o‘rmon hududida o‘suvchi Juniperus excelsa mevalari efir moyining tarkibi va oziq-ovqat patogen bakteriyalariga qarshi antimikrob faolligi // Journal of Taibah University for Science. – 2014. – Vol. 8, №3. – B. 225–230.
4. Salehi Shanjani P., Mirza M., Calagari M., Adams R.P. Juniperus excelsa barglari va mevalaridan olingan efir moyi tarkibiga quritish va yig‘ish mavsumining ta’siri // Industrial Crops and Products. – 2010. – Vol. 32, №2. – B. 83–87.
5. Amorim A.M., et al. Juniperus communis L. ning biologik faol birikmalar manbai va biotibbiy imkoniyatlari: zamonaviy tadqiqotlar sharhi // Plants. – 2022. – Vol. 11. – 895.
6. Heinrich M., Scotti F., Andrade-Cetto A., et al. Nagoya protokoli doirasida biologik resurslardan foydalanish va manfaatlarni taqsimlash: imkoniyatlar va muammolar // Frontiers in Pharmacology. – 2020. – Vol. 11. – 765. – B. 1–15.

СОВРЕМЕННЫЕ БИОЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМИРОВАННОГО СОГЛАСИЯ ПАЦИЕНТА

Ермекбаева Д.Б., студентка 3 курса школы Медицина
Научный руководитель ассоц.проф.кафедры истории Казахстана и СГД Малік Г.А.
КазНМУ им. С.Д. Асфендиярова, г. Алматы, Республика Казахстан

Особое внимание уделяется сейчас трансформации ИДС из эффективного инструмента партнерского диалога и защиты прав пациента в бюрократический формализм. Исследуется эволюция биоэтической парадигмы от классического врачебного патернализма к концепции безусловного уважения автономии личности. Проанализированы ключевые барьеры на пути реализации истинного информированного согласия, включая информационный асимметризм, дефицит времени и юридическую гипердиагностику. Делается вывод о необходимости гуманизации клинической практики и возрождения концептуальной сущности ИДС через развитие коммуникативных компетенций медработников.

Сегодня медицинская наука и практика переживают огромную трансформацию, обусловленную не только высокими технологиями, но и глубокой переоценкой ценностно-смысловых оснований взаимоотношений врача и пациента. Исторически сложившаяся патерналистская модель, восходящая к традиции Гиппократа, рассматривала врача как единственного компетентного субъекта, принимающего решения о благе пациента, в то время как сам пациент находился в позиции пассивного объекта заботы. Однако во второй половине XX века в условиях становления биоэтики произошел фундаментальный сдвиг в сторону модели автономии личности [1, с. 45].

Главным институтом современной биоэтики и медицинского права стало информированное добровольное согласие (ИДС). В своей идеальной философско-этической конструкции ИДС представляет собой двусторонний акт доверительного взаимодействия, при котором пациент на основе исчерпывающей, доступной и достоверной информации принимают осознанное решение о своем здоровье. Тем не менее, современная клиническая реальность демонстрирует существенный разрыв между нормативным идеалом и практической реализацией ИДС, где процедура зачастую сводится к формальному подписанию юридических документов, не обеспечивая реального осмысления информации пациентом [2, с. 112].

Философский фундамент информированного согласия опирается на концепцию автономии личности, сформулированную в трудах И. Канта и развитую современной биоэтической мыслью (Т. Бичамп, Дж. Чилдресс). Согласно деонтологическому подходу, человек обладает внутренней ценностью и достоинством, что исключает обращение с ним исключительно как со средством для достижения даже самых благих целей (включая клиническое выздоровление) [3, с. 88].

Автономия пациента в медицинской этике подразумевает право на самоопределение — возможность самостоятельно распоряжаться собственным телом, здоровьем и жизнью. Каждый ментально сохранный индивид имеет безусловное право

принимать решения, касающиеся его телесной неприкосновенности, даже если эти решения с точки зрения медицинской науки кажутся иррациональными или сопряжены с риском для жизни [4, с. 15]. Таким образом, принцип уважения автономии накладывает на врача корреспондирующую обязанность признавать право пациента на отказ от медицинского вмешательства, запрещая насильственные или принудительные действия под предлогом «блага пациента».

В современной клинической практики одной из наиболее острых биоэтических проблем современности является превращение ИДС в юридический защитный механизм для медицинских организаций («защитная медицина»). Вместо инструмента защиты прав пациента и установления субъект-субъектного диалога, согласие превращается в формальную процедуру снятия ответственности с лечебного учреждения [5, с. 204].

Основными проявлениями формализации ИДС являются:

- **Чрезмерная юридизация и сложность терминологии:** бланки согласий часто составлены сложным юридическим и специфическим медицинским языком, недоступным для понимания человека без специального образования;
- **Дефицит времени в клинической практике:** жесткие регламенты приема врачей ограничивают возможность полноценного разъяснения рисков, альтернатив и последствий вмешательства;
- **Психологический аспект «подписи под давлением»:** пациент, находящийся в состоянии стресса, боли или тревоги перед предстоящей процедурой, подписанием документа выражает не осознанную волю, а формальное подчинение авторитету клиники [6, с. 79].

Данный феномен приводит к так называемой «иллюзии согласия», при которой юридические формальности соблюдены, однако биоэтический смысл ИДС остается нереализованным.

Медико-этический анализ отказа пациента от лечения является одной из злободневных. Наиболее ярко этический конфликт между врачебным долгом и автономией пациента проявляется в ситуациях отказа от жизненно необходимого медицинского вмешательства. Со стороны врача возникает ценностное противоречие между принципом «не навреди / делай благо» (beneficence) и принципом «уважения автономии» (respect for autonomy) [7, с. 134].

Медицинское сообщество длительное время воспитывалось в традициях спасения жизни любой ценой. Однако современный биоэтический консенсус однозначно указывает: врач не имеет морального и правового права навязывать лечение дееспособному пациенту вопреки его воле. Сохранение человеческого достоинства и свободы выбора приоритетнее биологического существования, поддерживаемого вопреки желанию самого человека. Задача врача в данном контексте заключается не в психологическом давлении или манипуляции, а в максимально подробном, деликатном и объективном информировании о возможных последствиях такого отказа, с последующим уважением окончательного решения пациента.

Информированное добровольное согласие является фундаментальным биоэтическим институтом, гарантирующим соблюдение прав и достоинства личности в системе здравоохранения. Настоящее исследование показывает, что преодоление кризиса формализма в ИДС требует комплексного подхода, объединяющего юридические, медицинские и социально-гуманитарные аспекты.

Для восстановления подлинного биоэтического смысла информированного согласия необходимо смещение акцента с защиты клиники на обеспечение реального понимания пациентом сути медицинского вмешательства. Это требует развития коммуникативных навыков у студентов медицинских вузов, оптимизации временных норм врачебного приема, а также разработки понятных, наглядных информационных материалов для пациентов. Только при уважении автономии личности и признании за пациентом права

на собственное решение возможно формирование современной, гуманной и эффективной модели медицины.

Литература

1. Бернхард Г. Биоэтика и автономия пациента в XXI веке. — М.: Медицина, 2021. — 240 с.
2. Власов В.В. Этика медицинских исследований и клинической практики. — СПб.: Наука, 2020. — 312 с.
3. Канке В.А. Философия и биоэтика в современной медицине. — М.: Логос, 2024. — 198 с.
4. Лопатин PV, Карташова О.В. Биомедицинская этика: Учебник. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2019. — 272 с.
5. Петров В.И., Седова Н.Н. Практическая биоэтика: этические решения в медицине. — М.: Триада-Х, 2025. — 288 с.
6. Силуянова И.В. Избранные структуры биоэтики. — М.: Издательство РНИМУ, 2021. — 176 с.
7. Бичамп Т.Л., Чилдресс Дж.Ф. Принципы биомедицинской этики. — М.: Орто-Медиа, 2018. — 480 с.

BIOETIKA VA TABIAT FALSAFASI: “YASHIL MAKON” LOYIHASI ASOSIDA YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Saodatov Alimardon Abduraxmonovich

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi

Bioetika va tabiat falsafasi nuqtai nazaridan “Yashil makon” umummilliy loyihasi tabiat tabiiyligini va inson omonligini asrab qolishning muhim omili va kelajak garovidir. Bu loyiha yosh avlodga tevarak-atrofga, tabiatga ziyonsiz toza energiya olish madaniyatini, ma’rifatini, texnika va texnologiyasi sirlarini o‘rgatib, bu boradagi uzluksiz kashfiyotlar qilishni hayotiy zaruratga aylantiradi. Ilmiy-mantiqiylikka va mahalliy shart-sharoitga asoslangan ushbu loyiha hozirgi zamon ekologiya muammolari yechimida oqilona yo‘nalishdir. Eng muhimi, “Yashil makon” yosh avlodda Ona zamin tabiiy resurslarini tejab-tergash, asrab-avaylash borasidagi ma’naviy mas’uliyatni oshiradi va ekologik madaniyatni boyitadi.

Yangi O‘zbekistonning “Yashil makon” loyihasi doirasida ilgari surilgan g‘oyalar yaqin istiqbolda ekologik barqaror muhitni vujudga keltiradi. Ertangi ekologik xavfsizligimiz kafolati bugungi avloddan tabiatga beziyon texnologiyalarni uzluksiz yaratib borishini taqozo etadi [1, b. 123]. Taranglashib ulgurgan ekologik tahdidlar oldida inson ma’naviy mas’uliyatsiz ojiz qoladi. Allaqachon izdan chiqqan ekologik vaziyatni o‘nglash ko‘p jihatdan bugungi avlodning ekologik savodxonligiga va ma’naviy-madaniy mas’uliyatiga bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekistonda xalqimizga sog‘lom ekologik muhitni yaratish va inson-jamiyat-tabiat munosabatlarini yaxshilash borasida ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas, balki doimiylikka ega bo‘lgan uzluksiz jarayondir. Uning doirasida bir besh yillikning o‘zida 1 milliard tup daraxt ko‘chatini ekish va ko‘kartirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu umummilliy harakatga aylanmoqda. Tabiat borlig‘i va boyligini ko‘paytirishda o‘z mehnatimiz, bilimimiz va bunyodkor ruhimiz bosh omil bo‘lmoqda.

Ona tabiatga mehr tuyg‘usi va uning boyliklariga boylik qo‘shish amaliyoti necha ming yilliklar davomida yosh avlodga singdirib kelingan. Bugun esa bu haqiqat real hayotiy zaruratga va hayot-mamot masalasiga aylanib ulgurdi. Insoniyatning ertangi omonligi uning tabiatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Ertangi yaxshi ekologik muhit omonligi har jihatdan o‘nib-o‘sib kelayotgan yosh avlodning tabiat mulkiga nisbatan oqilonaligiga va ekologik savodxonligiga bog‘liqdir.

Sobiq sho‘ro tarbiyasidagi tabiatdan undirib olamiz degan zo‘ravon dunyoqarash oqibatida yuzaga kelgan ekologik muammolar yoshlar ekologik savodxonligini uzluksiz oshirib borishni taqozo etadi [2, b. 123]. Yoshlar qalbi va ongida tabiatga nisbatan mehr ma’rifatini barvaqt uyg‘otish qarz ham, farz hamdir. “Yashil makon” umummilliy loyihasi va yo‘l xaritasi mushtarak

maqsadimiz va manfaatimiz ifodasidir. Undagi har bir ezgu fikr va amaliy qadam yosh avlod ekologik kamolotida metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Biz tabiatni asramasak tabiat ham bizni asramaydi. Bu haqiqatni yoshlarimizga yetkazishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan farmon va qarorlari muhim strategik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bioetika va tabiat falsafasi tamoyillariga tayangan ushbu normativ hujjatlar yosh avlodda sog‘lom ekologik madaniyatni kamol toptirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir [3, b. 123]. Ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishiladi.

Yoshlarda tabiatga nisbatan oqilona munosabatlarni shakllantirish ularning dunyoqarashini yuksaltiradi. Bioetika qoidalari insonning tabiat oldidagi axloqiy burchini belgilab beradi. Tabiat falsafasi esa borliqdagi barcha mavjudotlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ochib beradi. “Yashil makon” loyihasi ana shu falsafiy va axloqiy g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishning eng samarali mexanizmidir. Ekologik tarbiya uzluksiz ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim [4, b. 123].

Yosh avlodni ekologik ruhda tarbiyalash mamlakatning ekologik xavfsizligini ta’minlaydi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyati har bir fuqaroning ongli burchiga aylanishi kerak. Ekologik muammolarni hal etishda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligi talab etiladi. Yoshlar ongidagi ekologik ong kelajakdagi barqaror taraqqiyotning kafolatidir.

Tabiatni e’zozlash xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biridir. Bu qadriyatni bugungi kunda zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan boyitish muhim vazifadir. “Yashil makon” loyihasi doirasidagi sa’y-harakatlar yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda har bir fuqaroning shaxsiy mas’uliyati muhim o‘rin tutadi.

Tabiat falsafasi va bioetika g‘oyalari yoshlar ongiga singdirilgandagina kutilgan natijaga erishiladi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishning tarkibiy qismidir. “Yashil makon” umummilliy loyihasi yoshlarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishda davom etmoqda [5, b. 123]. Bu ezgu tashabbus mamlakatimizda yashil va toza muhitni barpo etishning asosidir.

Xulosa qilib aytganda, bioetika va tabiat falsafasi uyg‘unligiga asoslangan “Yashil makon” loyihasi yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning strategik poydevoridir. Tabiatni asrash va unga oqilona munosabatda bo‘lish har bir yosh avlodning burchiga aylanishi lozim. Bu jarayon Yangi O‘zbekistonda barqaror va xavfsiz kelajakni ta’minlashning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 460 b.

2. Erkaev A. Uchinchi Renessans: ma’rifiy va institutsional poydevor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 220 b.

3. Jorayev N. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va milliy tiklanish falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 185 b.

4. Quronov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning pedagogik va sotsiologik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 205 b.

5. Tulenov J. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 240 b.

BIOETIKA FANINING JAMIYATDA TUTGAN O’RNI

Xodjayeva Zarina Faxriddin qizi

Osiyo xalqaro universiteti o`qituvchisi

Dunyoda global iqlim o‘zgarishi, ekologik barqarorlikning buzilishi, yer osti suv zaxiralarning kamayishi hamda mavjud zaxiralarning ifloslanish sharoitida aholini oqsilli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash birlamchi vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda, suv havzalarini toza saqlash, sanoat va maishiy oqova suvlar bilan ifloslanishning oldini olish, gidrobiontlarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, bioxilma-xilligini saqlash ва yashashi uchun qulay ekologik muhit yaratishda bioetik qonun - qoidalarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Suv havzalaridagi istiqbolli gidrobiont turlarini aniqlash, ularni sun’iy ko‘paytirish yo‘li bilan suv

havzalaridagi nafaqat biologik xilma-xillikni saqlab qolish, balki suvning gidrokimyoviy holatini yaxshilash, baliq mahsuldorligini oshirish orqali aholiga oqsilga boy, ekologik toza oziq-ovqat manbalarini yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Insonning tabiat bilan uzluksiz aloqasini yaxshilash va axloqiy tamoyillar asosida tabiatni muhofaza qilish mas'uliyati bioetikaning madaniy – ma'naviy asosi hisoblanadi. Bundan tashqari, bioetika ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetikaning maqsadlaridan biri – insonning atrof – muhitga bo'lgan xatti-harakati, ongi, ruhiyati va irsiyatini o‘zgartirish maqsadida o‘tkazilayotgan tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Bioetika muammosining dolzarblashuvi ilmiy-texnika taraqqiyoti, biogenetika, irsiyat texnologiyasi va gen injeneriyasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, tabiiy muhitni muayyan maqsadga mos ravishda o‘zgartirish imkoniyati yaratilmoqda [3].

Tabiiy evolyutsiya jarayonlari million yillar mobaynida kechgan bo‘lsa, endilikda inson uchun bu jarayonlarni keskin jadallashtirish imkoni tug‘ildi. Masalan, irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya usullari vositasida irsiyatni o‘zgartirish, tirik mavjudotlar, yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalari ilgari surilmoqda. Bu hol insonning yashab qolishi va istiqboli bilan bog‘liq bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois irsiyatga qanday axloqiy mezonlar, maqsad-muddaolar, qaysi qadriyatlarga tayangan holda yondashish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[4]

Bioetika — tibbiyot, biologiya va zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladigan axloqiy muammolar, qadriyatlar hamda insonning tirik tabiatga (inson, hayvon va o'simliklarga) munosabatini o'rganadigan ma'naviyat va zamonaviy axloqshunoslik sohasi hisoblanadi. Asosan tibbiy etika va tibbiyotda, biologiyaning bir qancha sohalarida xususan, shifokor va bemor munosabatlari, xalqaro axloqiy qadriyatlar va ilmiy taraqqiyotning muvofiqligi, abort, organlar transplantatsiyasi va klonlash, gen injeneriyasi, biogenetika, sun'iy urug'lantirish va inson irsiyatiga aralashishning oqibatlari.
tabiatni muhofaza qilish, hayvonlar ustida tajribalar o'tkazishda yaqqol o'z aksini topgan.

Bugungi kun biotekasida ikki yo‘nalish: tibbiyotda shifokor va bemor munosabatidagi etik yondashuvlar (o‘limni aniqlash, inson a'zolarini transpulantatsiya qilish, klonlash, irsiy enjinering) va insonning hayvonlarga munosabati etikasini, ya'ni: hayvonlardan turli maqsadlarda (oziq-ovqat manbai, sanoat uchun xomashyo, tibbiy - biologik tadqiqotlar uchun model, ko‘ngilochar obyekti sifatida) foydalanish jahon miqyosidagi atrof- muhit etikasini keltirib chiqaradi [1]. Bu ikki munosabatni bir me'yorda saqlash va atrof – muhit etikasiga bo'lgan ahamiyatni yanada oshirish uchun ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarga bu tushunchalarni chuqur singdirish kelajak avlodlarimiz uchun ham poydevor bo'lish bilan birgalikda, atrof – muhit manbalarining uzoq saqlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Биоэтика: учеб. пособие для студентов, обучающихся по специальностям высш. проф. образования группы Здравоохранение / В. В. Сергеев [и др.]. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2013. - 240 с
2. Хрусталев Ю.М. Биоэтика. - М.: Медицина, 2011. - 408 с.
3. bioethicsjournal.ru
4. https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/258

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ ПРИ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ

Раджабова Умида Убайдуллаевна
Соискатель Бухарского государственного университета

ВИЧ-инфекция является не только медицинской, но и значимой социально-психологической проблемой. Отмечается, что заболевание оказывает влияние не только на состояние здоровья человека, но и на его эмоциональную сферу, социальные отношения, самооценку, мотивацию и отношение к будущему. В связи с этим изучение

психологических особенностей лиц, живущих с ВИЧ, имеет важное значение для разработки эффективных форм психологической помощи.

Получение диагноза может восприниматься человеком как серьёзный стрессовый фактор. В этот период могут возникать шок, отрицание, страх, гнев, тревожность, депрессивные переживания и чувство неопределённости. В дальнейшем психологическое состояние человека во многом определяется тем, насколько успешно он принимает новый жизненный статус и адаптируется к изменившимся условиям жизни. В диссертации подчёркивается, что психологические последствия заболевания могут проявляться снижением самооценки, чувством вины, одиночеством, тревогой, депрессивными состояниями и социальной изоляцией.

Особую значимость приобретает проблема стигматизации. Негативные представления о ВИЧ-инфекции могут приводить к тому, что человек скрывает свой диагноз, избегает социальных контактов и ограничивает обращение за необходимой помощью. Таким образом, внешняя социальная реакция может усиливать внутреннее психологическое напряжение и препятствовать полноценной социальной интеграции.

В связи с этим социально-психологическая адаптация лиц, живущих с ВИЧ, должна рассматриваться как комплексный процесс, включающий эмоциональную, когнитивную, поведенческую и социальную сферы личности. Эффективная психологическая помощь, соответственно, должна быть направлена не только на снижение негативных эмоциональных состояний, но и на развитие внутренних ресурсов человека, укрепление социальной поддержки и восстановление его активной жизненной позиции.

Социально-психологические последствия ВИЧ-инфекции

ВИЧ-инфекция способна существенно изменить привычный образ жизни человека. Несмотря на медицинские возможности длительного лечения, наличие заболевания может сопровождаться психологическими трудностями, связанными с восприятием диагноза, продолжительностью лечения, возможными симптомами заболевания и отношением окружающих. В диссертации отмечается, что лица, живущие с ВИЧ, могут испытывать снижение качества жизни, сопровождающееся снижением самооценки, чувством вины, страхом отвержения, одиночеством, тревогой и депрессивными проявлениями. Человек может постепенно утрачивать уверенность в себе и ощущать собственную изолированность от общества. Кроме того, стремление скрывать заболевание может усиливать внутреннюю изоляцию и эмоциональную уязвимость. Психологические реакции на диагноз могут развиваться постепенно. В диссертации процесс принятия заболевания рассматривается через последовательность эмоциональных состояний, включающих отрицание, гнев, подавленность и принятие. На начальном этапе отрицание может выполнять защитную функцию, позволяя человеку справиться с неожиданной и травмирующей информацией. Однако длительное отрицание заболевания способно препятствовать полноценной адаптации. Следующим этапом может стать переживание гнева и ощущения несправедливости. После осознания реальности заболевания возможно возникновение выраженной подавленности, чувства одиночества и беспомощности. Именно на этом этапе особенно важна психологическая поддержка. Принятие заболевания не означает пассивного смирения с ситуацией. Напротив, оно предполагает реалистичное восприятие собственного положения, готовность участвовать в лечении и сохранение жизненных целей.

Таким образом, психологическая адаптация к ВИЧ-инфекции представляет собой длительный процесс, связанный с изменением отношения человека к себе, заболеванию и окружающему социальному пространству.

Социальная изоляция и стигматизация как факторы дезадаптации

Одним из наиболее значимых факторов, затрудняющих адаптацию, является социальная изоляция. Она может выражаться как в фактическом отдалении человека от окружающих, так и в добровольном ограничении социальных контактов вследствие страха осуждения или раскрытия диагноза. Согласно материалам диссертации, после постановки

диагноза человек может столкнуться с отвержением со стороны друзей, коллег и даже членов семьи. В результате снижается социальная активность, усиливаются одиночество и депрессивные переживания. Особое место занимает стигматизация. Э. Гоффман рассматривал стигму как совокупность негативных представлений и стереотипов, посредством которых общество обозначает человека как отличающегося от принятых социальных норм. В контексте ВИЧ-инфекции стигматизация способна нарушать социальную идентичность человека и препятствовать его полноценному участию в общественной жизни. В диссертации подчёркивается, что стигматизация может усиливать чувство вины, стыда, тревожность, депрессивные состояния и стремление к социальной изоляции. Важным является различие между внешней и внутренней стигмой. Внешняя стигма проявляется через негативное отношение, отвержение и дискриминацию со стороны окружающих. Внутренняя стигма формируется тогда, когда человек сам начинает воспринимать себя через негативные социальные представления о заболевании. Это может сопровождаться самообвинением, стыдом и снижением самооценки.

Факторы социально-психологической адаптации

Социально-психологическая адаптация лиц, живущих с ВИЧ, является многофакторным процессом. В диссертации выделяются три основные группы факторов: личностные, связанные с заболеванием и социальные. К личностным факторам относятся возраст, пол, уровень образования, экономическое положение, индивидуально-психологические особенности, устойчивость к стрессу, оптимизм, способы совладания и предыдущий психологический опыт. Особое значение имеют психологическая устойчивость и оптимистическое отношение к будущему. Высокая устойчивость помогает человеку эффективнее справляться со стрессом, сохранять позитивное отношение к жизни и адаптироваться к новым обстоятельствам. Оптимизм, в свою очередь, способствует сохранению надежды, повышению мотивации и удовлетворённости жизнью. Важную роль играют стратегии совладания со стрессом. В диссертации выделяются проблемно-ориентированные и эмоционально-ориентированные стратегии, а также стратегии избегания. К адаптивным формам относятся активное решение проблемы, планирование, позитивная переоценка и поиск социальной поддержки. Напротив, отрицание и самообвинение могут быть связаны с психологическим дистрессом и недостаточной адаптацией. К факторам, связанным с заболеванием, относятся стадия заболевания, выраженность симптомов, побочные эффекты лечения и темп прогрессирования болезни. Эти факторы могут влиять как на физическое состояние человека, так и на его эмоциональную устойчивость и способность адаптироваться. Социальные факторы включают отношения с семьёй, друзьями, сообществом и специалистами системы здравоохранения. Эмоциональная, практическая и информационная поддержка семьи может снижать уровень стресса и повышать уверенность человека. Поддержка друзей помогает уменьшить чувство одиночества и сохранить социальные связи. Профессиональная помощь врачей, психологов и социальных работников также является важным элементом адаптации.

Таким образом, успешная адаптация зависит не от одного фактора, а от взаимодействия личностных ресурсов, особенностей заболевания и социальной среды.

Теоретические основы психологической адаптации

Для понимания адаптации лиц, живущих с ВИЧ, в диссертации используются положения теории стресса и совладания R. Lazarus и S. Folkman. Согласно данной концепции, реакция человека на стрессовую ситуацию определяется не только самой ситуацией, но и тем, как человек её воспринимает и какими ресурсами располагает для её преодоления. Получение диагноза может восприниматься как угроза, потеря или вызов. В зависимости от этой оценки человек выбирает определённые стратегии совладания. Если заболевание воспринимается исключительно как непреодолимая угроза, могут усиливаться тревога, беспомощность и избегающее поведение. Если же ситуация рассматривается как сложная, но поддающаяся управлению, возрастает вероятность активного совладания.

Другим важным теоретическим основанием является концепция стигмы Э. Гоффмана. Она позволяет рассматривать социальную реакцию на ВИЧ-инфекцию как фактор, способный изменять самоотношение человека и его положение в обществе. Стигматизация может препятствовать социальной интеграции и способствовать развитию негативного отношения к себе. Для понимания психологического благополучия также используется модель C. Ryff. Она включает такие компоненты, как самопринятие, личностный рост, цель в жизни, управление окружающей средой, автономия и позитивные отношения с другими. Данные компоненты имеют непосредственное значение для психологической адаптации человека к хроническому заболеванию. В совокупности данные теоретические подходы позволяют рассматривать социально-психологическую адаптацию как процесс, в котором взаимодействуют восприятие заболевания, стратегии совладания, самоотношение, социальная поддержка и качество межличностных отношений.

Культурный контекст психологической помощи

Особое значение для психологической помощи имеет учёт социокультурного контекста. В диссертации подчёркивается, что многие психотерапевтические модели исторически развивались преимущественно в западных индивидуалистических культурах. Поэтому их прямое перенесение в коллективистские общества не всегда учитывает роль семьи, сообщества, религиозных и культурных ценностей. В условиях Узбекистана семейные отношения, социальное окружение и культурные представления могут оказывать значительное влияние на восприятие заболевания и готовность человека обращаться за психологической помощью. Поэтому психологическая помощь должна быть культурно чувствительной и учитывать социальный контекст жизни человека. В диссертации подчёркивается необходимость адаптации психологических подходов к местным условиям. Среди возможных направлений называются общественные программы, семейная психотерапия, сотрудничество с религиозными консультационными центрами и социальные кампании, направленные на снижение стигматизации.

Таким образом, эффективная психологическая помощь должна быть ориентирована не только на индивидуальную коррекцию эмоционального состояния, но и на изменение условий социальной адаптации.

Психокоррекционная программа «Hayotga umid»

Одним из практических результатов диссертационного исследования стала разработка специальной психокоррекционной программы «Hayotga umid». Основной целью программы является развитие психологической адаптации лиц, живущих с ВИЧ. Программа направлена на управление негативными эмоциональными состояниями, снижение стресса, развитие самопринятия, социальной интеграции и позитивной жизненной мотивации.

Программа включает четыре взаимосвязанных направления: когнитивное, поведенческое, эмоциональное и мотивационное. Такой подход позволяет воздействовать одновременно на мышление, эмоциональную сферу, поведение и систему жизненных целей человека.

Когнитивный компонент направлен на формирование более реалистичного и конструктивного отношения к заболеванию и собственным возможностям. В программе используются выявление иррациональных мыслей, когнитивная реструктуризация и упражнения, направленные на изменение внутреннего диалога.

Поведенческий компонент ориентирован на развитие социальных навыков, восстановление социальных контактов, формирование активной жизненной позиции и развитие способности самостоятельно принимать решения. В рамках этого направления применяются ролевые игры, упражнения на коммуникацию и решение проблем.

Эмоциональный компонент направлен на развитие эмоциональной осознанности и способности управлять страхом, тревогой, чувством вины и другими негативными переживаниями. Для этого используются техники эмоциональной регуляции, дыхательные упражнения, визуализация и релаксационные методы.

Мотивационный компонент связан с восстановлением надежды, интереса к деятельности и позитивной мотивации к изменениям. Участники работают с жизненными ценностями, личными целями, планированием и поиском внутренних ресурсов.

Программа состоит из 12 тематических сессий. Они включают создание психологически безопасной среды, психологическое принятие заболевания, выявление негативных мыслей, когнитивную реструктуризацию, управление стрессом, эмоциональную саморегуляцию, самопринятие, развитие социальных навыков, работу со стигмой, развитие мотивации, активизацию личностных ресурсов и итоговую рефлексию. Занятия проводятся в групповой форме. В диссертации отмечается, что групповая организация способствует обмену опытом и формированию атмосферы социальной поддержки. При этом большое внимание уделяется конфиденциальности, добровольности, взаимному уважению и активному участию.

Каждая сессия имеет определённую структуру: вводный этап, основную часть, обсуждение и рефлексию, а также заключительный этап. В основной части применяются психологические упражнения, ролевые игры, обсуждения и когнитивно-эмоциональные техники.

Таким образом, «Hayotga umid» представляет собой комплексный психокоррекционный подход, в котором объединены несколько психологических направлений.

Практическая направленность программы

Практическая ценность программы заключается в её ориентации на конкретные трудности, возникающие у лиц, живущих с ВИЧ. Программа не ограничивается снижением тревожности или депрессивных переживаний, а направлена на более широкое восстановление психологических и социальных ресурсов. Когнитивная работа помогает изменить негативные представления о себе и заболевании. Эмоциональный компонент способствует развитию навыков регуляции переживаний. Поведенческие упражнения направлены на восстановление социальных взаимодействий, а мотивационный блок позволяет формировать жизненные цели и поддерживать активную позицию. Особое значение имеет работа со стигматизацией. Участникам предлагается анализировать негативные социальные стереотипы и формировать более конструктивное отношение к себе. Это соответствует общему положению диссертации о том, что успешная адаптация требует не только индивидуальной психологической поддержки, но и снижения влияния социальной стигмы. В диссертации также отмечается, что качество психологической помощи определяется квалификацией специалиста, научной обоснованностью применяемых методов, их соответствием индивидуальным потребностям человека и непрерывностью поддержки. Психологическая помощь должна предоставляться не только непосредственно после постановки диагноза, но и на протяжении дальнейшего периода жизни с заболеванием.

Значение социальной поддержки в процессе адаптации

Социальная поддержка является одним из центральных условий успешной адаптации. Семья, друзья, специалисты здравоохранения и группы взаимопомощи могут создавать пространство принятия и психологической безопасности. Семейная поддержка может включать эмоциональную, практическую и информационную помощь. Положительное отношение членов семьи снижает стресс и укрепляет уверенность человека, тогда как отвержение, напротив, может усиливать социальную изоляцию и психологический дистресс. Не менее важна поддержка друзей и других людей с похожим жизненным опытом. Возможность общаться с людьми, которые сталкиваются с аналогичными трудностями, уменьшает чувство одиночества и создаёт возможности для обмена опытом и формирования эффективных стратегий совладания.

Профессиональная помощь также является частью системы социальной поддержки. Взаимодействие психолога, врача, медицинского персонала и социального работника позволяет рассматривать человека комплексно, учитывая одновременно

медицинские, психологические и социальные потребности. Следовательно, социальная поддержка должна рассматриваться не как дополнительный, а как важный компонент психологической адаптации.

Заключение

Социально-психологическая адаптация лиц, живущих с ВИЧ, представляет собой сложный и многоуровневый процесс, который затрагивает эмоциональную, когнитивную, поведенческую и социальную сферы личности. ВИЧ-инфекция может сопровождаться тревожностью, депрессивными переживаниями, снижением самооценки, чувством вины, социальной изоляцией и нарушением социальных связей. Существенное влияние на психологическое состояние оказывает стигматизация, которая способна усиливать внутренний конфликт и препятствовать обращению за необходимой помощью. Адаптация зависит от совокупности личностных, связанных с заболеванием и социальных факторов. Психологическая устойчивость, оптимизм, конструктивные стратегии совладания, принятие заболевания и наличие социальной поддержки создают условия для более успешного приспособления к изменившейся жизненной ситуации. В то же время отрицание, самообвинение, социальная изоляция и отсутствие поддержки могут затруднять адаптационный процесс.

Особое практическое значение в диссертационном исследовании имеет программа «Hayotga umid». Её структура объединяет когнитивный, эмоциональный, поведенческий и мотивационный компоненты и ориентирована на развитие психологической адаптивности, самопринятия, эмоциональной устойчивости, социальных навыков и жизненной мотивации.

Таким образом, психологическая помощь лицам, живущим с ВИЧ, должна строиться на комплексном, индивидуализированном и культурно чувствительном подходе. Важным условием её эффективности является сочетание индивидуальной работы с развитием социальной поддержки и мероприятиями, направленными на снижение стигматизации. Такой подход способствует укреплению психологических ресурсов личности, сохранению социальных связей и созданию условий для более полноценной социальной интеграции.

Список литературы

1. Beck A. T. Cognitive Therapy: Basics and Beyond. — New York: Guilford Press, 1995.
2. Campbell C., Skovdal M., Gibbs A. Creating social spaces to reduce HIV-related stigma: A systematic review of the literature // AIDS and Behavior. — 2011.
3. Chesney M. A., Folkman S., Chambers D. B. Coping effectiveness training for men living with HIV/AIDS // AIDS and Behavior. — 2003.
4. Ciesla J. A., Roberts J. E. Meta-analysis of the relationship between HIV infection and risk for depressive disorders // American Journal of Psychiatry. — 2001.
5. Folkman S., Lazarus R. S. Manual for the Ways of Coping Questionnaire. — Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1988.
6. Goffman E. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1963.
7. Herek G. M., Capitanio J. P. AIDS stigma and sexual prejudice // American Behavioral Scientist. — 1999.
8. Kalichman S. C., Sikkema K. J. People living with HIV/AIDS: Health-related quality of life and psychological adaptation // Journal of Health Psychology. — 2000.
9. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. — New York: Springer, 1984.
10. Ryff C. D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology. — 1989.

BUXORO AMIRLARINING SOG‘LIQNI SAQLASHGA OID CHORA-TADBIRLARI TARIXIDAN

Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Buxoro amirligida fuqarolarning salomatligini ta’minlash, turli yuqumli kasalliklarning oldini olish, sog‘liqni saqlash ishlariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, mahalliy tabiblar tomonidan aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatilgan. Davolash pullik bo‘lib, boylar, o‘rta hol va kambag‘allardan sharoitiga qarab turli miqdorda olingan. Bunday tartib aholining barcha qatlamlariga tibbiy xizmatdan foydalanish imkonini bergan.

1868-yilda Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasiga aylantirilgach, ruslarni ko‘chirib keltirish siyosati boshlandi. Aynan shu davrdan boshlab, ularning sog‘lig‘ini nazorat qilish ushun shifokorlar ham olib kelindi. Buning natijasida esa yevropacha davolash usullari ham amirlik hududida keng tarqala boshladi.

Buxoro amirlaridan Amir Abdulahadxon (1885–1910) va Amir Olimxon (1910–1920)lar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish ishlarini yaxshilash borasida, shuningdek zamonaviy kasalxonalar qurishga oid amaliy tadbirlarni amalga oshirganlar. Jumladan, Amir Abdulahadxon 1889-yilda mamlakatda bezgak kasali tarqalganda, Rossiyadan 6000 rubllik dori-darmon sotib olgan va mutaxassislar tomonidan mamlakatning kasallik keng tarqalgan hududlarida o‘z vaqtida davolash muolajalari amalga oshirilgan [1].

Buxoro amirligida 1897-yilda “hind vabosi” tarqalgan. Mazkur kasallik doimiy ravishda Buxoroda sudxo‘rlik va savdo ishlari bilan shug‘ullangan hindlar bilan kirib kelgan. Amir Abdulahadxon mamlakatda kasallikning tarqalib ketishini oldini olish maqsadida chegaralardan hindlarni kiritmaslikka qat’iy amr bergan [2]. Ammo hindlarning turli yo‘llar bilan Buxoroga kirib kelishi davom etavergach, amir qozikalon va devonbegi bilan maslahat kengashi o‘tkazgan. Kengash qaroriga ko‘ra afg‘on chegaralarida harbiy qo‘riqshilar joylashtiriladi va hindlarning mamlakat hududiga kirib kelishi to‘xtatilgan [3]. Shuningdek, buxoroliklarning Haj safariga borishlariga ruxsat berilmagan [4].

Buxoro amiri Amir Abdulahadxon aholining imkoniyati cheklangan, nogiron qatlamiga ham alohida e’tibor qaratib, shaharning Fathobod mavzesida maxsus pansionat tashkil qilgan va ularni kuniga ikki mahal issiq ovqat bilan ta’minlagan [5]. Buxoro shahrida amir homiyligi va nazorati ostida zamonaviy shifoxona va dorixona ham faoliyat yuritgan [6].

Amir Olimxon sog‘liqni saqlash borasida otasi yuritgan siyosatni davom ettiradi. Uning tashabbusi bilan 1911-yil iyul oyida Buxoro shahrida ayollar shifoxonasi ochiladi. Unda rus millatiga mansub ayol shifokor 1911-yil davomida 3551 nafar ayollar va bolalarga xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1912-yilda 13551 nafar bemorlarni davolagan. 1912-yilda shifoxona yonida tug‘ruqxona ham qurilgan [7].

Amir Olimxon 1913–1916-yillar davomida Eski Buxoro, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Dushanbe, Qarshi va Shahrisabzda erkaklar va ayollar uchun ambulatoriya punktlari va kasalxonalar qurdirgan [8]. Eski Buxoroda ayollar ambulatoriya punkti va shifoxona bo‘lib, u amirlikdagi eng katta shifoxona edi. Buxoro hukumati bu shifoxona faoliyati uchun har yili xazinadan 31173 rubl 50 tiyin mablag‘ ajratgan. Qarshi, Dushanbe, Shahrisabzdagi shifoxonalar ta’minoti ushun esa 12 ming rubl pul ajratilgan. Shifoxonadagi mutaxassislar rus millatiga mansub bo‘lib, shifokorlar har yili amir xazinasidan 4000 rublgacha, feldsherlar 1750 rublgacsha maosh olishgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirlari Abdulahadxon va Olimxonlar aholining tibbiy salomatligini ta’minlashni davlat siyosati darajasiga ko‘tarishdi. Ularning tashabbusi bilan Buxoro shahri va bekliklarda kasalxona hamda dorixonalar ochildi; jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan qismi – nogironlarga g‘amxo‘rlik qilindi. Yuqumli kasalliklarni oldini olish va davolash uchun zamonaviy tibbiy anjom hamda vositalardan foydalanish yo‘lga qo‘yigan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buxoro // “Tarjimon”, 1889 yil 17 dekabr. - № 44.
2. Buxoro // “Tarjimon”, 1897 yil 17 fevral. – № 7.
4. Buxoroi sharif (maktub) // “Tarjimon”, 1897 yil 3 mart. - № 9.

5. Doxiliya xabarlari // “Tarjimon”, 1897 yil 11 mart. - № 10.
6. Jamolova D. Buxoro amiri Abdulahadxon va uning siyosiy faoliyati // O‘zbekiston tarixi, 2018. № 1. – B. 37.
7. Ismoilbek G‘asparali. Turkiston sayohatlari (Qrim-tatar tilidan Tohir Qahhor tarjimasi) // “Jahon adabiyoti” (Toshkent), 2010. - № 10. – B. 92.
8. Jamolova D. Amir Olimxonning Buxoro amirligidagi islohot farmonlari // O‘zbekiston tarixi, 2017. № 2. – B. 62.

TIBBIY ETIKA VA BIOETIKANING FALSAFIY ASOSLARI: INSON QADR-QIMMATI VA AXLOQIY MAS’ULIYAT MASALALARI

Kenjayeva Xurshida Pulatovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti katta o`qituvchisi

Tibbiyot inson hayotiga bevosita ta’sir qiladigan bilim va amaliyot sohasidir. Uning imkoniyatlari kengaygani sari muayyan aralashuvning foydasi bilan birga uni qo‘llashning axloqiy asoslarini ham baholash zarur bo‘ladi. Texnik jihatdan amalga oshirish mumkin bo‘lgan har bir harakatning ma’naviy jihatdan maqbulligi alohida dalillanishi kerak. Shu sababli davolash samaradorligi, inson erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi munosabat tibbiyot falsafasining muhim masalalaridan hisoblanadi.

UNESCOning Bioetika va inson huquqlari to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasi inson qadr-qimmati, avtonomiya va ijtimoiy mas’uliyatni bir-biri bilan bog‘liq tamoyillar sifatida belgilaydi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida inson sha’ni va qadr-qimmatining daxlsizligi, uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazish mumkin emasligi mustahkamlangan. 48-modda esa sog‘liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kafolatlaydi [2]. Ushbu qoidalar bioetik muammolarni milliy ta’lim mazmuni bilan bog‘lash uchun asos bo‘ladi.

Tibbiy etika, avvalo, bemor va tibbiyot xodimi o‘rtasidagi munosabat, kasbiy burch va amaliy qarorlarning axloqiy mezonlarini o‘rganadi. Bioetika hayot, salomatlik, biologik tadqiqotlar va texnologiyalarning inson hamda jamiyat uchun oqibatlarini kengroq doirada muhokama qiladi. Tibbiyot falsafasi esa, sog‘liq va kasallik nima ekanligi, tibbiy bilimning ishonchliligi, inson tanasi va shaxsiy tajriba o‘rtasidagi munosabatni tahlil etadi. Mazkur sohalar o‘zaro tutashadi, biroq ularning savollari va tahlil darajalari aynan bir xil emas.

Immanuil Kantning axloq falsafasida insonni faqat boshqa maqsadlarga erishish vositasi sifatida ko‘rmaslik, uni o‘z-o‘zicha maqsad sifatida hurmat qilish g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi [3]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, bemorni statistik ko‘rsatkich, ta’lim materiali yoki tashkilot daromadining manbaiga tenglashtirishning axloqiy chegaralarini muhokama qilish mumkin. Bu yerda qadr-qimmat muayyan xizmat evaziga beriladigan baho emas, shaxs bilan munosabatning asosiy talabi sifatida tushuniladi.

Zamonaviy bioetik tahlilda avtonomiyani hurmat qilish, manfaat keltirish, zarar yetkazmaslik va adolat tamoyillari keng qo‘llanadi. R. Gillon ushbu tamoyillarni qo‘llashda ularning amal qilish doirasiga ham e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi [4]. Bunday yondashuv tayyor javoblar ro‘yxatini bermaydi: muayyan vaziyatda kimning manfaatlari hisobga olinishi, qaysi zarar jiddiyligi va tanlov uchun qanday asos borligi aniqlashtiriladi. Masalan, foydali deb topilgan chora bemorning erkin qarorini avtomatik ravishda bekor qilmaydi.

G. Engel taklif etgan biopsixososial model kasallikni tushuntirishda biologik jarayonlar bilan birga psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishni ilgari suradi [5]. Mazkur qarash tibbiyot falsafasida insonni yaxlit tushunishga xizmat qiladi. Bir xil tashxis ikki kishining hayotiga turlicha ta’sir qilishi mumkin: biri uchun mehnat faoliyati, boshqasi uchun oila bilan muloqot yoki mustaqil yashash imkoniyati ustuvor bo‘ladi. Shuning uchun davolash maqsadini izohlashda insonning hayotiy ma’nolari ham muhokama qilinishi lozim.

UNESCO deklaratsiyasining 6-moddasi rozilikning erkin, oldindan va yetarli axborot asosida berilishini ko‘zda tutadi [1]. Falsafiy jihatdan bu talab bilim bilan erkinlik o‘rtasidagi aloqani ochib beradi: tanlovning mavjudligi uning mazmuni tushunilganini hali anglatmaydi.

Imzolangan hujjatning o‘zi tushunish va ixtiyoriylikning to‘liq dalili bo‘la olmaydi. Shaxs o‘z fikrini bayon eta olishi, savol berishi va bosimsiz mulohaza yuritishi uchun sharoit yaratilgandagina ongli tanlovning mazmuni ro‘yobga chiqadi.

Axloqiy mas’uliyat shaxsning o‘z qarorini tushuntira olishi, oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan oqibatlarni hisobga olishi va xato aniqlansa uni tuzatishga tayyorligini anglatadi. Uni faqat yaxshi niyat bilan cheklash yetarli emas. Yaxshi maqsadga xizmat qiladigan qaror ham asossiz taxmin, noto‘liq axborot yoki manfaatlar to‘qnashuvi sababli zararli bo‘lishi mumkin. Shu bois mas’uliyatni baholashda niyat, foydalanilgan bilim va qaror sharoiti birgalikda tahlil qilinishi kerak.

Burchga asoslangan axloqiy tahlil bajarilishi zarur bo‘lgan majburiyatlarni aniqlaydi. Oqibatlarni baholash esa turli harakatlarning kutiladigan foyda va zararini qiyoslaydi. Fazilatga e’tibor qaratadigan yondashuv halollik, rahmdillik, ehtiyotkorlik va adolat kabi sifatlarning amaliy ahamiyatini ochadi. Mazkur nuqtayi nazarlarni birgalikda muhokama qilish qarorning qaysi tomoni yetarli asoslanmaganini ko‘rsatishga yordam beradi. Biroq ularni oddiy qo‘shish barcha ziddiyatlarni yo‘qotmaydi; ustuvorlik tanlovi alohida dalillanishi zarur.

Adolat masalasi resurslar cheklangan vaziyatda ayniqsa keskinlashadi. Bir xil qoida har xil imkoniyatga ega odamlarga turlicha ta’sir qilishi mumkin. Masalan, xizmat haqida faqat raqamli shaklda axborot berish internetdan foydalanishi qiyin bo‘lgan shaxslarni noqulay holatga qo‘yadi. Shu sababli teng munosabat mazmunini ehtiyoj, foydalanish imkoniyati va qarorning ochiqligi bilan birga tahlil qilish lozim. O‘quv munozarasida talabalar tanlangan mezon kimning foydasiga yoki zarariga ishlashini izohlashlari kerak.

Mas’uliyat shaxsiy, kasbiy va institutsional darajalarda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy daraja halollik hamda hurmatli munosabatni; kasbiy daraja vakolat doirasini anglash, bilimni yangilash va zarur maslahatni olishni; institutsional daraja esa maqbul ish sharoiti, aniq tartib va xatolarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini qamrab oladi. Muammoni faqat bir xodimning odobiga bog‘lash tashkiliy sabablarni yashirishi mumkin. Ayni paytda tizimdagi kamchilik shaxsning o‘z harakati uchun javobgarligini butunlay bekor qilmaydi.

Xelsinki deklaratsiyasining 2024-yilgi tahriri inson ishtirokidagi tibbiy tadqiqotlarda mustaqil etik ko‘rib chiqish, xavf va foydani baholash hamda erkin va ongli rozilik talablarini belgilaydi. Ishtirok etishdan bosh tortish yoki tadqiqotdan chiqish bemorga ko‘rsatiladigan odatiy yordamga salbiy ta’sir qilmasligi kerak [6]. Ushbu qoidalar ilmiy maqsad bilan inson manfaatini farqlashga xizmat qiladi. Ilmiy natijaning istiqbolliligi tadqiqot ishtirokchisining huquqlarini cheklash uchun o‘z-o‘zidan yetarli asos bo‘la olmaydi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sun’iy intellektga bag‘ishlangan qo‘llanmasi sog‘liqni saqlashda bunday texnologiyalarni inson huquqlari, axloqiy talablar va javobgarlik bilan bog‘liq holda ishlab chiqish hamda qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi [7]. Falsafiy tahlil uchun bunda ikki savol muhim: tavsiya qanday bilimga tayanadi va undan foydalanish oqibati uchun kim javob beradi? Dastur xulosasi insoniy mulohazaga qo‘shimcha axborot berishi mumkin, ammo qarorni asoslash zaruratini yo‘qotmaydi.

Ma’lumotlar maxfiyligi faqat texnik himoya masalasi emas. Bemor tasvirini ta’lim platformasiga joylashtirish misolida talabalar ta’limiy foyda, shaxsni tanib olish ehtimoli, rozilik doirasi va muqobil usullarni qiyoslaydilar. Bunday tahlil texnologik qulaylikning axloqiy chegaralarini ko‘rsatadi.

Falsafa o‘qituvchisining vazifasi talabaga murakkab vaziyatdagi axloqiy muammoni ko‘rish, tushunchalarni aniq qo‘llash va o‘z xulosasini dalillashni o‘rgatishdir. Bioetik savol odatda bir necha asosli manfaatning to‘qnashuvidan paydo bo‘ladi. Shuning uchun mashg‘ulotni faqat ta’riflarni yodlash bilan chegaralash uning mazmunini toraytiradi. Talaba fakt, taxmin, qadriyat va normativ talabni farqlashi, qaysi nuqtada qo‘shimcha axborot zarurligini ko‘rsata olishi kerak.

Mazkur maqolada mashg‘ulot uchun quyidagi tahlil ketma-ketligi taklif etiladi: vaziyat faktlarini aniqlashtirish; manfaatdor tomonlarni ajratish; ziddiyatli qadriyatlarni nomlash; muqobil qarorlarni qiyoslash; tanlangan yechimni asoslash va uni qayta ko‘rib chiqish shartlarini belgilash.

Bu ketma-ketlik tayyor hukm chiqarishga emas, fikr yuritish jarayonini ochiq ko‘rsatishga qaratilgan. Har bir bosqichda talaba qaysi dalilga tayanganini va qaysi masala noaniq qolganini yozib boradi.

Birinchi shartli vaziyatda voyaga yetgan, qaror mazmunini anglay oladigan shaxs tavsiya etilgan aralashuv haqida qo‘shimcha tushuntirish so‘raydi, uning yaqinlari esa tezroq rozilik berishini talab qiladi. Talabalar avtonomiya, manfaat keltirish va oilaviy g‘amxo‘rlik o‘rtasidagi munosabatni muhokama qiladilar. Vazifaning markazi davolash usulini tanlash emas, insonning axborotga ehtiyoji va erkin qarorini ta’minlaydigan muloqot shartlarini aniqlashdir. Qarshi fikr bildirgan talabadan ham o‘z pozitsiyasining asosini ko‘rsatish talab etiladi.

Ikkinchi vaziyatda tadqiqotchi ilmiy loyihaga ishtirokchilarni jalb etishda ularning o‘ziga bog‘liqligidan foydalanishi mumkin bo‘lgan holat beriladi. Muhokama rozilikning tashqi ifodasi bilan uning haqiqiy ixtiyoriyligi o‘rtasidagi farqqa qaratiladi. Talabalar taklif etilgan imtiyoz, bo‘ysunish munosabati va rad javobining oqibatlarini tahlil qiladilar. Keyin ular ishtirokchiga bosimni kamaytiradigan tartibni asoslaydilar. Bu vaziyatda Xelsinki deklaratsiyasining qaram munosabatda rozilik olishga oid qoidalari tayanch bo‘la oladi [6].

Uchinchi vaziyat cheklangan ta’lim yoki sog‘liqni saqlash resursini taqsimlashga bag‘ishlanadi. Guruhlarga turli mezonlar, jumladan ehtiyoj, shoshilinchlik va teng imkoniyatni ta’minlash nuqtayi nazarlari taqdim etiladi. Har bir guruh o‘z mezonining afzalligi bilan birga zaif tomonini ham tushuntiradi. Bahs davomida bir kishining mavqeyi yoki shaxsiy tanishligi asos sifatida keltirilsa, uning umumlashtirish mumkin bo‘lgan qoida bilan mosligi tekshiriladi. Shu tariqa adolat tushunchasi kundalik tanlovning dalillangan mezoniga aylantiriladi.

Baholash uchun to‘rtta yo‘nalish tavsiya etiladi: axloqiy muammoni to‘g‘ri ajratish, manbaga tayangan dalil keltirish, qarshi fikrni xolis ifodalash va xulosaning cheklovini ko‘rsatish. Har bir yo‘nalish 0–2 ball bilan baholanishi mumkin. Bu o‘qituvchi foydalanishi mumkin bo‘lgan namunaviy mezondir; uning o‘lchov ishonchliligi ushbu maqolada empirik tekshirilmagan. Talabaning o‘qituvchi fikriga qo‘shilishi mustaqil baholash mezoni bo‘la olmaydi.

Mahalliy ta’lim muhitida mehr-shafqat, andisha, kattaga hurmat va oila oldidagi mas’uliyat kabi qadriyatlarni bioetik mavzular bilan bog‘lash mumkin. Bunda hurmatning shaxs fikrini tinglash bilan mosligi, g‘amxo‘rlikning bosimga aylanmasligi muhokama qilinadi. UNESCO deklaratsiyasi madaniy xilma-xillik inson huquqlari va qadr-qimmatini cheklash uchun asos bo‘lmasligini qayd etadi [1]. Ushbu mezon milliy qadriyatlarni tanqidiy va mas’uliyatli talqin qilish imkonini beradi.

Nazariy tahlil tibbiy etika va bioetikaning asosiy masalalarini inson qadr-qimmati, erkin tanlov hamda javobgarlik o‘rtasidagi munosabat orqali birgalikda o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Qadr-qimmat tamoyili inson bilan muomala chegaralarini belgilaydi; ongli rozilik uning qarordagi ishtirokini ifodalaydi; axloqiy mas’uliyat esa tanlovning asoslari va oqibatlarini tushuntirishni talab qiladi. Ushbu bog‘lanish tibbiyot falsafasini amaliy hayotdagi bahslar bilan tutashtiradi.

Falsafa mashg‘ulotlarida mavzuni inson va qadriyatlar, erkinlik va mas’uliyat, bilim va haqiqat kabi bo‘limlar bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Har bir nazariy tamoyilni bitta shartli vaziyat orqali tekshirish, muhokamadan keyin qisqa refleksiv matn yozdirish maqsadga muvofiq. Unda talaba dastlabki fikri qanday o‘zgargani, qaysi dalil ta’sir qilgani va qanday savol ochiq qolganini izohlaydi. Bunday topshiriq baholash uchun fikrlash jarayonining aniq izini beradi.

Taklif etilgan pedagogik yondashuvning samaradorligi keyingi tadqiqotlarda alohida tekshirilishi lozim. Buning uchun mashg‘ulotdan oldingi va keyingi dalillangan yozma javoblar bir xil mezonlar asosida, imkon qadar bir nechta baholovchi tomonidan tahlil qilinishi mumkin. Hozirgi maqolaning amaliy hissasi empirik ustunlikni da’vo qilishda emas, falsafa o‘qituvchisi foydalanishi mumkin bo‘lgan tushunchaviy asos va mashg‘ulot tuzilmasini taklif etishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2005). Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. 19 October 2005. https://www.unesco.org/en/legal-affairs/universal-declaration-bioethics-and-human-rights
2. O‘zbekiston Respublikasi. (2023). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

3. Kant, I. (1785). Fundamental Principles of the Metaphysic of Morals (T. K. Abbott, tarj.). II bo‘lim. Project Gutenberg elektron nashri. https://www.gutenberg.org/ebooks/5682
4. Gillon, R. (1994). Medical ethics: Four principles plus attention to scope. BMJ, 309(6948), 184–188. DOI: 10.1136/bmj.309.6948.184
5. Engel, G. L. (1977). The need for a new medical model: A challenge for biomedicine. Science, 196(4286), 129–136. DOI: 10.1126/science.847460
6. World Medical Association. (2024). WMA Declaration of Helsinki: Ethical Principles for Medical Research Involving Human Participants. 2024-yilgi tahrir. https://www.wma.net/policies-post/wma-declaration-of-helsinki/
7. World Health Organization. (2021). Ethics and governance of artificial intelligence for health: WHO guidance. Geneva: WHO. https://www.who.int/publications/i/item/9789240029200

BO‘LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH: TIBBIY ETIKA, BIOETIKA VA TIBBIYOT FALSAFASI UYG‘UNLIGI

Saidova Nodira G`aniyevna
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

Tibbiyot xodimining kasbiy mas’uliyati uning bilim va amaliy ko‘nikmalarini bemor manfaatiga muvofiq qo‘llashi, o‘z vakolati chegaralarini anglashi hamda qarorlarining oqibatlari uchun javob bera olishini ifodalaydi. Bu mas’uliyat bemorni tinglash, ma’lumotni tushunarli yetkazish, hujjatlarni aniq yuritish va yordam zarur bo‘lganda tajribali mutaxassisga murojaat qilish kabi kundalik harakatlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun jamoat salomatligi texnikumida kasbiy tayyorgarlikning axloqiy mazmuni klinik fanlar va amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘lanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: “Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir”, deb belgilangan. Uning 48-moddasi sog‘liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini mustahkamlaydi [1]. Mazkur normalarning pedagogik talqini o‘quvchiga bemorning shaxsiy daxlsizligi va manfaatlarini kasbiy faoliyatning asosiy mezoni sifatida tushuntirishni talab etadi. Xalqaro hamshiralar kengashining axloq kodeksi ham shaxsiy javobgarlik, kasbiy kompetentlikni saqlash va o‘z vakolati doirasida ishlashga alohida e’tibor qaratadi [2, 2.1–2.3-bandlar].

Tibbiy etika tibbiyot xodimining bemor, hamkasb va jamiyat oldidagi axloqiy majburiyatlarini o‘rganadi. Deontologiya ushbu majburiyatlarning kasbiy burch va xulq me’yorlari bilan bog‘liq tomonini yoritadi. Texnikum o‘quvchisi uchun bu tushunchalar muolajaga tayyorgarlik, bemorga hurmat bilan murojaat qilish, maxfiy ma’lumotni asrash va topshiriqni vijdonan bajarishda aniq mazmun kasb etadi. Burchni anglash o‘z harakatining sababini tushuntira olish bilan uyg‘unlashganda mas’uliyat ongli kasbiy pozitsiyaga aylanadi.

Bioetika hayot, sog‘liq, biotibbiy amaliyot va texnologiyalarning axloqiy oqibatlarini kengroq doirada muhokama qiladi. R. Gillon tibbiy etikani tahlil qilishda avtonomiyani hurmat qilish, manfaat keltirish, zarar yetkazmaslik va adolat tamoyillarini hamda ularning qo‘llanish doirasini hisobga olishni asoslaydi [3]. Avtonomiya bemorning xabardor qarorini hurmat qilishni; manfaat keltirish uning farovonligini ko‘zlashni; zarar yetkazmaslik oldini olish mumkin bo‘lgan xavflarni kamaytirishni; adolat esa yordam ko‘rsatishda asosli va xolis mezonlarga tayanishni anglatadi. Tamoyillarni qo‘llash vaziyat tafsilotlarini va ular o‘rtasidagi ehtimoliy ziddiyatlarni tahlil etishni talab qiladi.

UNESCOning Bioetika va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 23-moddasida bioetika bo‘yicha ta’lim, tayyorgarlik va axborot berishning ahamiyati belgilangan [4]. Ushbu yondashuv texnikumda bioetik masalalarni alohida ma’ruza bilan cheklamasdan, mutaxassislik fanlariga bog‘lash uchun asos bo‘la oladi. Masalan, laboratoriya mashg‘ulotida biologik material bilan ishlash tartibi bilan birga bemorga oid ma’lumotni himoya qilish; parvarish darsida esa bemorning shaxsiy hududi va tanlovini hurmat qilish muhokama etiladi.

Jahon tibbiyot assotsiatsiyasining 2022-yilda yangilangan Xalqaro tibbiy etika kodeksi bemor farovonligi, kasbiy halollik, avtonomiya, xabardor rozilik va hamkorlikni muhim talablar sifatida belgilaydi [5]. Mazkur kodeks bevosita shifokorlarga yo‘naltirilgan. Uni texnikum ta’limida tahlil qilish umumiy kasbiy qadriyatlarni anglashga xizmat qiladi; hamshiralik faoliyatining aniq mas’uliyatlari esa tegishli kasbiy me’yorlar va vakolatlar bilan bog‘lanadi. O‘quvchi o‘z rolini bilishi, noaniq vaziyatda mas’ul mutaxassisni jalb etishi va bemor xavfsizligiga daxldor ma’lumotni yashirmasligi zarur.

Tibbiyot falsafasi sog‘liq va kasallik tushunchalari, tibbiy bilimning ishonchliligi, dalillarni baholash hamda tibbiyotning maqsadlarini o‘rganadi. J. Stegenga tibbiyotning g‘amxo‘rlik qilish va davolash maqsadlari murakkab tushunchalar, ilmiy xulosalar va qadriyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [6, 1–4-betlar]. Bunday qarash o‘quvchiga kasallikning biologik belgilari bilan bemorning uni boshdan kechirish tajribasini birgalikda tushunishga yordam beradi. Masalan, og‘riq haqidagi shikoyatni baholashda o‘lchov natijalariga e’tibor berish bilan birga bemorning so‘zlarini jiddiy qabul qilish ham muhimdir.

Uch yo‘nalishning uyg‘unligi mas’uliyatni uch o‘zaro bog‘liq savol orqali ochadi: kasbiy burchim nimadan iborat; qarorim kimga qanday ta’sir qiladi; bu qarorni qaysi dalil va qadriyatlar asoslaydi? Mualliflik talqinida tibbiy etika kasbiy majburiyatni aniqlashtiradi, bioetika manfaat va huquqlar o‘rtasidagi munosabatni tahlil qiladi, tibbiyot falsafasi esa bilim hamda qarorning asoslanganligini tekshirishga undaydi. Bu ajratish o‘qitish uchun qulay bo‘lib, sohalar o‘rtasidagi qat’iy chegarani anglatmaydi.

Vaziyatli ta’lim. O‘quvchiga kasbiy vazifasi doirasida uchrashi mumkin bo‘lgan qisqa holat beriladi. Masalan, muolajadan xavotirlangan bemor qo‘shimcha tushuntirish so‘raydi, navbatdagi ishlar esa shoshilinch bajarilishini talab qiladi. Muhokamada o‘quvchi muammoni aniqlashi, bemorning ehtiyojini tinglashi, o‘z vakolati doirasida tushuntirish berishi va zarur bo‘lsa mas’ul mutaxassisni chaqirishni asoslab berishi kerak. Baholashda tayyor javob bilan bir qatorda qarorga kelish jarayoni ham hisobga olinadi.

Xabardor rozilikni o‘rgatish. Rozilikni faqat hujjatga imzo qo‘yish bilan tenglashtirish o‘quvchining axloqiy tushunchasini toraytiradi. Mashqda ma’lumotning tushunarliligi, savol berish imkoniyati va qarorning ixtiyoriyligi muhokama qilinadi [2, 1.3-band; 5, 15-band]. Dars uchun bemor, o‘quvchi va kuzatuvchi rollari taqsimlanadi. Kuzatuvchi tushuntirishda murakkab atamalar ishlatilganini, suhbatdoshning fikri tinglanganini va tushunganini tekshirishga urinish bo‘lganini qayd etadi. O‘quvchi bemorning rad javobiga bosim o‘tkazmasdan munosabat bildirishni mashq qiladi.

Maxfiylik va raqamli muhit. Ta’limiy holat sifatida amaliyotdagi bemorning fotosuratini guruh messenjeriga joylashtirish taklifi berilishi mumkin. O‘quvchilar materialni ulashish maqsadi, tegishli ruxsat, shaxsni aniqlash ehtimoli va muassasa talablarini muhokama qiladilar. O‘quv topshirig‘i uchun shaxsga oid ma’lumotlardan xoli sun’iy vaziyatdan foydalanish taklif etiladi. ICN kodeksida maxfiylik talablari axborotni saqlash va uzatish, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatga ham tatbiq etiladi [2, 1.4–1.5-bandlar]. Bu mavzu raqamli savodxonlik mashg‘ulotlari bilan bog‘lanishi mumkin.

Dalil va fikrni ajratish. O‘qituvchi o‘quvchilarga tibbiyotga oid reklama matni, ilmiy manba parchasi va shaxsiy tajribaga asoslangan fikrni taqdim etadi. Vazifa har bir xulosaning qanday dalilga tayanganini, qaysi ma’lumot yetishmayotganini va nimani aniqlashtirish kerakligini ko‘rsatishdan iborat. Bunda o‘quvchi bilim chegaralarini anglashni mashq qiladi. Pedagogik maqsad ishonchsiz xulosani qat’iy aytish odatini kamaytirish va maslahat olish zaruratini o‘z vaqtida tan olishga o‘rgatishdir. Ushbu mashq tibbiyot falsafasidagi dalil va xulosa munosabatini kasbiy ta’lim bilan bog‘laydi.

Refleksiv yozuv. Amaliy mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchi qaysi qarorni tanlagani, qanday qadriyatni ustuvor deb bilgani va keyingi safar nimani yaxshilashini qisqa bayon qiladi. Masalan, u suhbat davomida bemorning gapini bo‘lib qo‘yganini anglab, navbatdagi mashqda faol tinglashni aniq vazifa sifatida belgilashi mumkin. Refleksiya uchun bemorning shaxsini ochuvchi

ma’lumotlar kiritilmaydi. O‘qituvchining izohi kuzatilgan harakatga qaratilib, o‘quvchiga uni tuzatishning tushunarli yo‘lini ko‘rsatishi lozim.

Ustozlik va ta’lim muhiti. F. W. Hafferty tibbiy ta’limdagi yashirin o‘quv dasturi muammosini ko‘tarib, rasmiy o‘qitish mazmuni bilan birga ta’lim muhitining ta’sirini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [7]. Texnikum sharoitida bundan kelib chiqadigan pedagogik xulosa shuki, darsda aytilgan axloqiy qoida o‘qituvchi va amaliyot rahbarining muomalasida ko‘rinishi kerak. Bemorni mensimaslik yoki xatoni yashirish odatiy hol sifatida ko‘rsatilsa, nazariy mashg‘ulotning tarbiyaviy ta’siri susayishi mumkin.

O‘qituvchining mas’uliyati adolatli baholash, savollarga hurmat bilan javob berish va xavotirni bildirish uchun qulay muhit yaratishda namoyon bo‘ladi. S. R. Cruess, R. L. Cruess va Y. Steinert kasbiy o‘zlikni shakllantirishni ta’lim maqsadi sifatida belgilash, o‘quvchini bu jarayonga faol jalb etish va pedagoglarni tayyorlash zarurligini asoslaydi [8]. Bu yondashuvni texnikumga moslashtirishda o‘quvchining o‘zini mas’ul kasbiy jamoa a’zosi sifatida anglashi, yordam so‘rashi va o‘z faoliyati ustida ishlashi rag‘batlantiriladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Bemor bilan muloqotda hurmat, mehr-oqibat, sabr va kattalarga ehtirom kabi qadriyatlar tarbiyaviy tayanch bo‘la oladi. Ularning amaliy ifodasi bemorning tilini, oilaviy muhitini va shaxsiy qarashlarini tushunishga intilishda ko‘rinadi. Shu bilan birga, oila a’zolarining faolligi qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bemorning o‘z fikrini eshitish o‘rnini bosmasligi lozim. O‘qituvchi madaniy sezgirlik bilan shaxs huquqlarini birgalikda muhokama etishi, har bir bemorga uning ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar hurmat ko‘rsatishni mashqlarda namoyish qilishi zarur.

Kasbiy mas’uliyatning rivojlanishini faqat ta’riflarni yoddan aytish orqali baholash yetarli emas. Mazkur maqolada beshta kuzatiladigan mezon taklif etiladi: axloqiy muammoni aniqlash; bemor manfaatlari va huquqlarini tushuntirish; qarorni dalil bilan asoslash; hurmatli muloqot va maxfiylikni saqlash; vakolat chegarasini anglab, yordam so‘rash. Har bir mezon mashq vaziyatiga mos aniq harakat bilan ifodalanadi. Masalan, hurmatli muloqot suhbatni tanishtirishdan boshlash, bemorning fikrini tinglash va savol berish imkoniyatini yaratish orqali kuzatilishi mumkin.

Dastlabki sinov uchun har bir mezonni uch darajada tavsiflash mumkin: bajarmadi, ko‘mak bilan bajardi, mustaqil va asosli bajardi. Ushbu tavsiflar dars boshida o‘quvchiga ma’lum qilinadi. Taklif etilayotgan mezonlar tasdiqlangan psixometrik shkala hisoblanmaydi; ularning tushunarliligi va turli baholovchilar tomonidan bir xil qo‘llanishi alohida tekshirilishi kerak. Bitta mashq natijasi asosida o‘quvchining butun kasbiy mas’uliyati haqida qat’iy xulosa chiqarish o‘rniga turli vaziyatlardagi takroriy kuzatuvlar jamlanadi.

Joriy etish uchun, avvalo, o‘quv rejasidagi tegishli mavzular aniqlanib, ularga qisqa bioetik vaziyatlar biriktiriladi. Keyin fan o‘qituvchilari va amaliyot rahbarlari baholash tavsiflarini birgalikda muhokama qiladi. Bir semestr davomida vaziyatli mashq, refleksiv yozuv va individual qayta aloqa izchil qo‘llanishi mumkin. Yakunda boshlang‘ich hamda keyingi kuzatuvlar taqqoslanadi. Mazkur tartib tavsiya sifatida berilmoqda; uning natijadorligini baholashda ta’lim sharoiti, baholovchilar mosligi va o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarligini hisobga olish talab etiladi.

Bo‘lajak tibbiyot xodimining kasbiy mas’uliyati tibbiy bilim, axloqiy mulohaza, bemorga hurmat va o‘z faoliyatini tahlil qilishning birligida shakllanadi. Tibbiy etika kasbiy burchni, bioetika manfaat va huquqlarni, tibbiyot falsafasi esa bilim va qarorning asoslanganligini tushunishga xizmat qiladi. Jamoat salomatligi texnikumida ularni uyg‘unlashtirish uchun vaziyatli mashqlar, rolli muloqot, refleksiya va ustozlikni mutaxassislik fanlari bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Kuzatiladigan mezonlar asosidagi qayta aloqa o‘quvchiga qanday harakatni yaxshilashi kerakligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan yondashuvning ta’lim natijalariga ta’siri keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Yangi tahrir. 26 va 48-moddalar.
2. International Council of Nurses. (2021). The ICN Code of Ethics for Nurses. Geneva: ICN. https://www.icn.ch/sites/default/files/2024-12/ICN_Code-of-Ethics_EN_Web.pdf

3. Gillon, R. (1994). Medical ethics: four principles plus attention to scope. BMJ, 309(6948), 184–188. DOI: 10.1136/bmj.309.6948.184
4. UNESCO. (2005). Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris, 19 October. 23-modda. https://www.unesco.org/en/legal-affairs/universal-declaration-bioethics-and-human-rights
5. World Medical Association. (2022). WMA International Code of Medical Ethics. Berlin, October. https://www.wma.net/policies-post/wma-international-code-of-medical-ethics/
6. Stegenga, J. (2018). Care and Cure: An Introduction to Philosophy of Medicine. Chicago: University of Chicago Press. https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/C/bo29193227.html
7. Hafferty, F. W. (1998). Beyond curriculum reform: confronting medicine's hidden curriculum. Academic Medicine, 73(4), 403–407. DOI: 10.1097/00001888-199804000-00013
8. Cruess, S. R., Cruess, R. L., & Steinert, Y. (2019). Supporting the development of a professional identity: General principles. Medical Teacher, 41(6), 641–649. DOI: 10.1080/0142159X.2018.1536260

МИҚДОР, СИФАТ ВА МЕЪЁРНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИДА НАМОЁН БЎЛИШИ

Қурбонов Нодир Мирзоҳидович
Бухоро давлат медицина институти 4- босқич талабаси

"Ҳеч қачон ҳеч бир ишда меъёрни бузманг"
Пифагор

Марказий Осиё мутафаккирлари уқтиришларича, сифат ва миқдор асло бир-биридан айро эмас, бу айни ҳақиқат. Сифат – нарса, ҳодиса, жараённинг ўз-ўзига тенглиги,мослиги, мавжудлигини англатади. Миқдор мураккаблик, унда ҳам тортиш, ҳам итариш, ҳам бирлик, ҳам кўплик, ҳам тинимсизлик, ҳам тинимлилик ҳолларининг бирлиги (яхлитлиги, ягоналиги-Қ.Н.) мужассамдир. Миқдор сонда, рақамда, даража, босқичда, интенсивлик, чегара ва чегарасизликда намоён бўлишини тиб фанлари айниқса анатомия, физиология, генетика, гистология ва паталогик анатомия мисолларида яққол кўриш мумкин. "Инсон саломатлиги қоннинг кўп ёки камлигида эмас, -деб ёзади Ибн Сино, - балки қоннинг сифатида". Биргина артериал қон босимининг кўрсатгичи кўп нарсалардан далолат беради.

Ҳаётнинг барча жабҳаларида: ширин мева, аччиқ мева, пишган ёхуд пишмаган, асл ва сохта мунособат, тоза сув ёхуд ифлос сув, ахлоқли ёхуд ахлоқсизлик кабилар айнан сифат, миқдор ва меъёрдан дарак беради.

Инсон саломатлиги, беморлиги ёхуд на соғлом, на касал ҳолати фарқланади. Инсон организми уч ҳолатининг ҳам ўз сифат, ўз миқдор кўрсатгичлари мавжуд. Улар бир-биридан кескин фарқланади. Ҳар бир инсон руҳан, жисмонан соғлом бўлса, энг аввало ўзига сўнг оила аъзолари ва ўз миллати, ватанига фойда келтира олади.

Инсондаги сифат, миқдор, меъёр кўрсатгичларига эътибор қаратишимиздан олдин, ислом динимизнинг муқаддас китоби бўлган Қуръони каримдаги баъзи фикрларга диққат қилсак.. ..

Биласизми, инсон анжир билан зайтунни бирга еса, инсон жисмига қандай таъсири бўлади?

Аллоҳ таъало: **«Анжир билан қасам ва зайтун билан қасам»** (Тийн: 1- оят) деб бу икки мева номи билан қасам ичди. Сура давомида, инсонни энг гўзал суратда яратганини айтди. Кўпчилигимиз айнан анжир ва зайтунни қўшиб истеъмол қилинишининг фойдаларидан бехабаримиз. Бу икки мевани алоҳида истеъмол қилишнинг бирга ейишдек таъсири йўқ. Улар биргаликда қўйидаги фойдаларга эга:

1 — Қондаги холестерин миқдорини камайтиради;
2 — Аёлларнинг фарзандли бўлиш имконини оширади;
3 — Инсон жисмини чиройли, узоқ ёш ҳолатда туришига ёрдам беради;
4 — Қарилик аломатларини кетказади;

5 — Озуқа сифатида қўллашга қулай;
6 — Ҳужайралар ўз вазифасини аъло даражада бажаришига сабаб бўлади;
7 — Иш қобилиятини оширади. Танага қувват бағшлайди;
8 — Эркаклардаги жинсий заифликка қарши самарали восита;
9 — Юракни қувватлантиради.
10 — Руҳий хасталикларга қарши курашади. Инсон ўзини руҳий назорат қилишини осон қилади ва х.к

Азҳар университетининг тиббий бўлими «Шифобахш ўсимлик ва набодотлар» факултетининг раҳбари Тоҳа Иброҳим айтади: Бир гуруҳ япон олимлари «Тийн» сурасини ҳикматини ўрганиш мақсадида тажриба ўтказдилар. Айнан анжир ва зайтун METHALONIDS деб номланган моддага бой эканлигини кашф қилдилар. Бу модда инсон организмида 15 ёшдан 35 ёшгача фаол ажралиб чиқади. 40 ёшдан кейин бу модда секрецияси камаяди. Инсон жисмини сура давомида келганидек энг гузал суратда яратилиши билан бу икки мева зикр қилинишининг ўзаро қандай боғлиқлиги ҳақида ҳеч ўйлаганмисиз? Япон олимлари анжирда мавжуд бўлган METHALONIDS моддасининг таъсири фақат зайтун билан аралашгандагина фаол бўлишини аниқладилар.

Энг яхши таъсир даражаси 1 дона анжир, 7 дона зайтун билан истеъмол қилинганда ундаги моддаларнинг таъсир даражаси тенг бўлишини кашф қилдилар.

Қизиғи шундаки, «анжир» сўзи Қуръонда 1 марта, «зайтун» эса 7 марта зикр қилинган. 6 марта айнан зайтун лафзи билан, 7 чи маротаба «Ва Тури Сийнодан чиқадиган бир дарахт(зайтун)ни (пайдо қилдикки), у ёғ ва егувчиларга нонхуриш ила ўсур». (Муъминун: 20 - оят) оятида келган. Бу меваларни бирга истеъмол қилиш доим соғлом, ёш бўлиб юришга сабаб бўлади. **1:7 бу нисбат меъёр, асл моҳият ҳам шунда.**

Анжир таркибида инсон организми учун энг ноёб, юрак ва ошқозон аъзолари ишлаши учун энг фойдали бўлган ниацин ҳам мавжуд. Шу сабабли анжирни ўзини ҳам истеъмол қилиш фойдалидир. Асл зайтун мойини эса ҳар доим салатларга қўшиб истеъмол қилиш ҳам фойдалидир.

Абу Райҳон Беруний томонидан ёзилган “Китаб ас-сайдана фит-тиб” асарининг илмий таҳлилидан шундай хулосага келиш мумкинки, Беруний миқдорий-сифатий ўлчовларни қўллаш орқали ўз даврида 750 та ўсимлик, 107 минерал, 101 ҳайвонларни аниқлади. У фанга **“рухсат этиладиган миқдор”, “ўлимга келтирадиган миқдор”, “ҳаддан ортиқ миқдор”, “адолатли адад”** каби тушунчаларни киритди, улар орасидаги фарқларни амалиётда кўрсата олди. Унинг ютуқларидан яна бири, **оддий меъёр билан “қатъий” меъёр орасидаги фарқни кўрсата олганидир: “бир ёки икки дирҳам шафран тўлғоқ азобини енгиллаштиради, уч дирҳам шафран эса – ўлимга олиб келади”.** Шафранни бир-икки дирҳами тўлғоқ азобини енгиллаштирса, уч дирҳами ҳомиладор аёлнинг ўлимига сабаб бўлиши, инсон саломатлиги учун “қатъий меъёр” нақадар муҳим аҳамиятли эканлиги ўз давридаёқ қатъий уқтирилди.

Ҳатто инсоннинг ақлий салоҳияти ҳам “ўлчанади”. Унинг ўлчов бирлиги IQ- (ай-кью) орқали аниқланса-да, сайёрамизда доҳийлар, жуда истеъдодлилар, истеъдодлилар, ақллилар, ақли заифлар ва ҳ. фарқланишади.

Ай-кьюси жуда юқори бўлган алломалар ҳар бир даврда бўлишган. Улардан бири Альберт Эйнштейн (1879-1955):”Шуни тушуниб етдимки, мусулмонлар яҳудийлар қила олмаган ишларни ўзларининг ақл-идроки ва шуури билан эришди. Исломдаги бу куч дунёга тотувлик олиб келади.”

Даҳо мингдан бирининг улушига тушади, миллиондан бирида керакли даражада ривожланади ва ҳар ўн ёки ҳатто юз миллиондан бири ҳақиқий даҳога айланади. Минглаб даҳолар номаълум яшай ди. Инсонни ақлий ривожланиш қобилияти илм орқали тараққий этади, интелектуал қобилияти ўсади. Ақлий саломатлик, ақлий камолот жамиятнинг энг ноёб капиталидир.

Саломатлик меъёри нисбий характерга эга. Жамият ва индивидуал саломатлик меъёри мезонлари бир хил эмас. Ҳар бирининг ўз мезони бўлади.Саломатлик меъёри бу

инсон танасининг табиий соғлом ҳолатидаги сифат ва миқдор кўрсатгичларининг, руҳий, репродуктив, ижтимоий, психологик саломатлик кўрсатгичлари билан бир бутунлиги, ягоналигидир. Бир инсоннинг саломатлик меъёри иккинчи бир инсоннинг саломатлик меъёри билан айнан бир хил бўлмайди. Жаҳонда саломатлик меъёри тенг бўлган икки инсонни учратиш мумкин эмас. Жаҳон аҳолисининг атиги 4% саломатлик меъёрига яқин инсонлардир. Инсон саломатлиги:

1. Табиат соғломлиги;
2. Жисмоний соғломлик;
3. Маънавий соғломлик;
4. Руҳий соғломликлар мужассамлиги, уйғунлиги, мутаносиблигидан ташкил топган. **Руҳий саломатлик** инсоннинг қандай фикрлаши, қандай билимларни эгаллашга интилиши, уларни қандай қўллаши билан бевосита боғлиқ. Тушкунликка тушган одам ҳаётга ғамгин қарайди. Дунёга ҳаддан ташқари пессимистик қараш уларни ёмонни бўрттириб кўрсатишга ва яхшиликни минималлаштиришга мажбур қилади. Бундай ҳолатда бўлган одамлар нормал ухлай олмайдилар ёки овқатлана олмайдилар-салбий фикрлаш уларни ўз-ўзини йўқ қилишга олиб келади ва жисмоний соғлиғига бевосита таъсир қилади. Бу борада Жон Локкнинг: "соғлом ақл, соғлом фикрлар, соғлом тана" узвий меъёрлар тизими ҳақидаги фикри таҳсинга лойиқ.

Ҳар бир жамиятда социал, иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан асосий ҳаракатлантирувчи куч – бу ижтимоий саломатлик бўлиб келган. Жамият саломатлигининг асосий кўрсатгичлари қуйидагилардир:

1. Демографик кўрсатгичлар;
2. Жисмоний ривожланганлик;
3. Касалланиш;
4. Травматизм ва ногиронлик ва руҳий куч – қувватнинг уйғунлиги, яхши меҳнат қобилияти саналади.

Соғлом турмуш тарзини таркибий қисмларига қуйидагилар мансуб:
1.Унумли меҳнат қилиш; 2. Фаол дам олиш;3.Рационал (оқилона), шифобахш овқатланиш;4.Жисмоний тарбия; 5.Организмни чиниқтириш;6.Шахсий гигиена ва психогигиена қоидаларига риоя қилиш;7.Ёмон одатлардан ўзини тийиш;8.Ҳар йили шифокор кўригидан ўтиш.

Мамлакатимиздаги ўртача умр:

№	Йил	Ўртача умр
1	1990 йил	67,2 ёш
2	2020 йил	74,6 ёш
3	2021 йил Аёллар учун Эркаклар учун	73,4 ёш 75,8 ёш 71,7 ёш
4	2022 йил	73,8 ёш
5	2024 йил	75,1 ёш

Ижтимоий гуруҳ, жамият ва жаҳон аҳолисининг саломатлик меъёри моҳиятан фарқли. Инсоннинг (индивидуал) саломатлик меъёри партитив каби жамият, жаҳон аҳолиси саломатлиги таркибига мансуб бўлса-да, уларнинг мезонлари бошқа-бошқадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ибн Сино Абу Али. Тиб қонунлари. 1-китоб. 2-нашри. Учинчи таълим. Мизожлар тўғрисида. Биричи фасл.Т., Фан. 1983.
2. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдли сайланма. 1- жилд. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1992. 15-74 бетлар.
3. Абу Райхон Беруни.Избранные произведения.Т.IV. Фармакогнозия в медицине (Китаб ас-сайдана фит-тиб).Т.:”Фан”.1974.

4. Зоиров Э., Алимова М. Саломатлик фалсафаси. [Матн]: .Монография. Бухоро.: “BYXORO NASHR”. 2021. 160 б.
5. Саломова Ҳ.Ю., Иноятов А.Ш., Саломова Н.М. Ибн Синонинг тиббий-илмий мероси. Бухоро.:”Дурдона” нашриёти. 2021.180 б.
6. Саломова Ҳ.Ю. Ижтимоий экология. Бухоро.:”Дурдона” нашриёти.2026.144б.

ФИЛОСОФСКИЕ ИЗМЕРЕНИЯ СОВРЕМЕННОЙ СТОМАТОЛОГИИ: ОТ БИОЛОГИЧЕСКОГО РЕДУКЦИОНИЗМА К ФЕНОМЕНОЛОГИИ ПАЦИЕНТА

Каримов Акобир
Студент 4-курса Бухарского государственного медицинского института

Кризис технологического редукционизма в медицине Современное высшее медицинское образование делает мощный акцент на доказательную медицину, цифровизацию диагностики и анатомо-физиологические алгоритмы. На 4-м курсе стоматологического факультета БГМИ студент глубоко погружается в клинические дисциплины: терапевтическую, ортопедическую и хирургическую стоматологию, челюстно-лицевую хирургию. Однако за обилием протоколов лечения, классификаций дефектов твердых тканей и материаловедения нередко теряется главный субъект медицины человек. Возникает парадокс: располагая сверхточными инструментами, имплантатами премиум-класса и лазерными технологиями, врач-стоматолог может столкнуться с экзистенциальным кризисом пациента, чье психоэмоциональное состояние и страх перед бормашиной остаются за рамками «цифрового протокола».

Медицинская философия выступает тем методологическим мостом, который соединяет сухую естественнонаучную парадигму с гуманистическим смыслом врачебного искусства. Философская онтология здоровья и болезни в стоматологии. С точки зрения классической философии науки, здоровье и болезнь не являются статичными абсолютными понятиями. Биомедицинская модель рассматривает кариес, пульпит или пародонтит как локальный патологический процесс, нарушение гомеостаза или бактериальную инвазию, требующую механического устранения. Философско-антропологический подход (в духе идей Абу Али ибн Сины, чье имя носит Бухарский государственный медицинский институт) трактует здоровье как гармонию телесного, душевного и социального благополучия. Для стоматолога это означает, что ликвидация анатомического дефекта зубного ряда еще не означает исцеления пациента. Хроническая одонтогенная боль, дефекты эстетики улыбки или утрата зубов запускают глубокие дезадаптивные процессы в психике, меняя социальный статус человека, его уверенность в себе и качество жизни.

Феноменология боли и стоматологическая тревожность (ятрофобия). Стоматологическая практика уникальна в философском контексте из-за феномена дентофобии. Ни в одной другой медицинской дисциплине пациент так долго и добровольно не подавляет свой страх перед лицом потенциальной боли, вторгающейся в его «интимную» околоротовую зону. С позиций феноменологии (Э. Гуссерль, М. Мерло-Ponty), тело человека — это не просто объект для манипуляций, а способ его бытия в мире. Лицо и улыбка открыты миру, они выражают эмоции и идентичность личности. Вторжение врача в челюстно-лицевую область воспринимается пациентом на бессознательном уровне как угроза его «я».

Понимание этого факта перестраивает работу клинициста:

Врач перестает бороться с «капризами» пациента и начинает видеть в его страхе защитный механизм.

Коммуникация врач-пациент трансформируется из вертикальной («субъект-объектной», где врач — беспрекословный авторитет) в горизонтальную («субъект-субъектный диалог», основанный на доверии и сострадании). Эстетическая философия: между стандартом красоты и индивидуальностью. Современная ортопедическая стоматология и эстетическая реабилитация оперируют понятиями «золотого сечения»,

цифрового дизайна улыбки (Digital Smile Design) и стандартизированными шкалами белизны зубов.

Здесь философия сталкивается с важной этико-эстетической проблемой: где грань между терапевтической необходимостью и навязыванием искусственных стандартов красоты?

Стремление к абсолютному голливудскому стандарту порой приводит к тотальной препаровке интактных (здоровых) зубов ради трендов массовой культуры. Философский анализ заставляет врача вспомнить концепцию аутентичности: истинная красота улыбки заключается не в математической симметрии, а в гармонии с природным фенотипом, характером и индивидуальностью человека. Врач должен оберегать естественность, избегая технологического конвейерного обезличивания. Биоэтические вызовы эпохи высоких технологий. Интенсивное развитие дентальной имплантологии, костной пластики и генно-инженерных материалов ставит перед будущими стоматологами сложные биоэтические дилеммы:

«Технологический прогресс дает нам возможность лечить то, что раньше считалось безнадежным. Но каждый новый шаг вперед увеличивает груз моральной ответственности врача за выбор метода лечения».

Принцип автономии пациента: Насколько информированным является согласие пациента на дорогостоящие и сложные хирургические протоколы, учитывая колоссальный информационный разрыв между знаниями профессионала и дилетанта?

Коммерциализация медицины: Баланс между экономической выгодой клиники/врача и реальными клиническими показаниями. Философия врачевания учит видеть в пациенте цель, а не средство извлечения финансовой выгоды.

Для студентов стоматологического факультета БГМИ интеграция философского знания в повседневную практику — это залог формирования подлинного клинического мышления. Медицинская философия предостерегает от профессионального выгорания и цинизма, напоминая, что за каждым рентгеновским снимком, зубной формулой и планом лечения стоит живая человеческая судьба.

Осмысление этических, онтологических и психологических аспектов стоматологии позволяет будущему специалисту состояться не просто как квалифицированному ремесленнику-технологу, а как мудрому врачу-гуманисту, способному дарить людям не только здоровую улыбку, но и душевное спокойствие.

Список использованной литературы

1. Хрусталёв, Ю. М. Философия науки и медицины : учебник / Ю. М. Хрусталёв. — Москва : ГЭОТАР-Медиа, 2009. — 784 с.
2. Седова, Н. Н. Философия медицины : учебник для спецеалитета / Н. Н. Седова. — Москва : КноРус, 2022. — (Специалитет).
3. Хрусталёв, Ю. М. Биоэтика. Философия сохранения жизни и сбережения здоровья : учебник / Ю. М. Хрусталёв. — Москва : ГЭОТАР-Медиа, 2013. — 456 с.
4. Шамов, И. А.иомедицинская этика : учебник / И. А. Шамов. — 2-е изд. — Москва : ИНФРА-М, 2015. — 287 с.
5. Кудашов, В. И. История и философия медицины в контексте проблем антропологии : учебное пособие / В. И. Кудашов. — Москва : КДУ, 2012. — 224 с.
6. Ибн Сина, Абу Али. Канон врачебной науки (книги и трактаты, посвященные философским основам врачевания, этике и методологии медицины).
7. Кадыров, А. А. История медицины Узбекистана / А. А. Кадыров. — Ташкент : Ибн Сина, 1994. — 304 с.
8. Илхомжонова, Д. История развития медицины в Узбекистане : учебное пособие / Д. Илхомжонова. — Ташкент : Фан ва технология, 2018. — 52 с.
9. Искандарова, Ш. Т., Расулова, Н. Ф. История медицины Республики Узбекистан : учебно-методическое пособие / сост. Ш. Т. Искандарова, Н. Ф. Расулова. — Ташкент : ТашПМИ, 2020.

10. Ибодуллаев, З. Р. Тиббиёт психологияси (Медицинская психология) / З. Р. Ибодуллаев. — Ташкент, 2019. (Пособие затрагивает вопросы психосоматики, философии общения врача и пациента в узбекской клинической практике).

МЕДИЦИНСКАЯ ЭТИКА, БИОЭТИКА И ФИЛОСОФИЯ МЕДИЦИНЫ

Ибодуллаева Шаходат Иномжоновна
Студентка 2-курса факультета педиатрии
Научный руководитель: Кудратова Дилдор Хикматовна
преподователь Бухарского государственного
Медицинского института

Медицина является одной наиболее важных сфер человеческой деятельности, поскольку непосредственно связана с жизнью и здоровьем человека. На протяжении всей истории врачебной профессии знания и практические навыки врача дополнялись нравственными принципами. От врача требуется не только правильно поставить диагноз и назначить лечение, но и проявлять уважение, ответственность, сострадание и внимание к каждому пациенту. Современное развитие науки и медицинских технологий значительно расширило возможности диагностики и лечения заболеваний. Вместе с тем появились новые вопросы, которые невозможно решить только с помощью медицинских знаний. Допустимо ли использовать определённую технологию?

Кто должен принимать решение о лечении? Как защитить личные данные пациента? Где проходит граница между возможностями науки и нравственной ответственностью человека? Именно поэтому медицинская этика, биоэтика и философия медицины приобретают особое значение для подготовки современного специалиста. Медицинская этика как основа врачебной деятельности Медицинская этика представляет собой систему нравственных принципов и норм, регулирующих отношения медицинского работника с пациентом, его родственниками, коллегами и обществом. Одним из важнейших принципов является уважение достоинства человека. Пациент не должен восприниматься исключительно как носитель определённого заболевания. За медицинским диагнозом всегда находится человек со своими страхами, переживаниями, надеждами и личными обстоятельствами.

Особое значение имеет врачебная тайна. Информация о состоянии здоровья пациента является конфиденциальной и должна защищаться медицинским работником. Соблюдение конфиденциальности способствует формированию доверия между врачом и пациентом. Не менее важным является принцип информированного согласия. Пациент имеет право получать понятную информацию о своём заболевании, методах обследования и лечения, возможных рисках и последствиях. Врач должен не просто сообщать медицинские сведения, а стремиться объяснить их доступным для пациента языком. Таким образом, профессионализм врача заключается не только в уровне его медицинских знаний. Настоящий специалист должен сочетать компетентность с гуманностью, ответственностью и уважением к личности пациента. Врач должен руководствоваться принципами «не навреди», благодеяния, справедливости, уважения автономии пациента и сохранения врачебной тайны. Важное значение имеет информирование пациента о его состоянии и возможных методах лечения, что позволяет ему участвовать в принятии медицинских решений.

Таким образом, медицинская этика является основой доверия между врачом и пациентом. Профессиональные знания и навыки должны сочетаться с человечностью, внимательностью, ответственностью и уважением к достоинству каждого пациента. Биоэтика — это область знаний, изучающая нравственные проблемы, возникающие в медицине, биологии и современных биотехнологиях. Она определяет, какие действия допустимы с моральной точки зрения и как необходимо защищать права и достоинство человека.

Основными принципами биоэтики являются автономия пациента, благодеяние, не причинение вреда и справедливость. Эти принципы применяются при решении таких вопросов, как трансплантация органов, аборт, эвтаназия, искусственное оплодотворение, генетические исследования и медицинские эксперименты. Главная задача биоэтики — обеспечить баланс между развитием медицинской науки и защитой жизни, здоровья, прав и достоинства человека.

Философия медицины — раздел философии науки, который занимается онтологическими, эпистемологическими и этическими вопросами в области медицины как особой сферы теоретической и практической деятельности человека. Философия медицины — система обобщающих суждений философского характера о предмете и методе медицины, месте медицины среди других наук и областей человеческой деятельности, её познавательной и социальной роли в современном обществе как целостной системы естественнонаучных и гуманитарных знаний. Одним из наиболее важных разделов философии медицины и биоэтики является медицинская этика, ставящая во главу угла вопросы взаимодействия врача и пациента

Медицинская этика, биоэтика и философия медицины являются важными составляющими современной медицинской науки и практики. Развитие технологий открывает перед медициной огромные возможности, однако одновременно повышает ответственность человека за их использование. Современный врач должен быть не только грамотным специалистом, но и человеком, способным уважать достоинство пациента, сохранять конфиденциальность, учитывать его мнение и принимать решения с учётом нравственных принципов. Особенно важны эти принципы в педиатрии, где объектом медицинской помощи является ребёнок, требующий особого внимания, заботы и защиты. Таким образом, медицина не может существовать только как совокупность научных знаний и технических навыков. Её важнейшей основой остаются гуманизм, нравственность и уважение к человеческой жизни. Именно поэтому изучение медицинской этики, биоэтики и философии медицины является необходимой частью формирования современного врача.

Список литератур

1.Петров В. И., Ястребова А. В. Биоэтика: учебное пособие. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2020.

2.Силуянова И. В. Биоэтика в России: ценности и законы. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2013.

3.Юдин Б. Г. Биоэтика: проблемы и перспективы. — М.: Наука, 2015.

4.Воробьев А. И. Медицинская этика и деонтология. — М.: Медицина, 2018

JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMIDA TIBBIY ETIKA VA BIOETIKA TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI

Fayzullayeva Feruza Ubaydullayevna
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi katta o`qituvchisi
Istamova Dilfuza Maqsudovna
Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o`qituvchisi

Bo'lajak tibbiyot xodimining kasbiy mas'uliyati bemor manfaatini hisobga olgan holda bilim va ko'nikmalarini to'g'ri qo'llashi, o'z imkoniyatlarini baholashi hamda zarur vaziyatda yordam so'rashida namoyon bo'ladi. Texnikum o'quvchisi amaliy harakatni bajarayotganda uning inson uchun ma'nosini ham tushunishi kerak. Bemorning savoliga javob berish, muolaja oldidan tushuntirish yoki ma'lumotni qayd etish jarayonida axloqiy masala yuzaga kelishi mumkin. Shu bois tibbiy etika va bioetika kasbiy tayyorgarlikning kundalik tarkibiga kiritilishi zarur.

Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi nazariy bilim bilan kasbiy xulq o'rtasidagi aloqani tashkil qiladi. U dars mazmunini tanlaydi, xavfsiz mashq sharoitini yaratadi va o'quvchining

qaroriga fikr-mulohaza bildiradi. Pedagogning bemor bilan muomalasi, ma’lumotga munosabati va xatoni muhokama qilish usuli ham o‘quvchiga namuna bo‘ladi. Natijada o‘quvchi kasbiy talabni tushunishi, uni vaziyatda qo‘llashi va nima sababdan shu harakatni tanlaganini izohlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Tibbiy etika tibbiyot xodimining bemor, uning yaqinlari va hamkasblar bilan munosabatidagi axloqiy masalalarni o‘rganadi. Bioetika tibbiyot, hayot haqidagi fanlar va tegishli texnologiyalar bilan bog‘liq axloqiy muammolarni kengroq doirada tahlil qiladi. Ushbu yo‘nalishlar bemor qadr-qimmati va manfaatini himoya qilishda o‘zaro bog‘lanadi. B. Varkey klinik etikada manfaat keltirish, zarar yetkazmaslik, avtonomiyani hurmat qilish va adolatni asosiy tamoyillar sifatida sharhlaydi [1].

UNESCOning Bioetika va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson qadr-qimmati, shaxsning mustaqil qarori, rozilik, maxfiylik va kamsitmaslikka oid tamoyillarni belgilaydi [2]. O‘quv jarayonida ular kasbiy vaziyatni muhokama qilish uchun asos bo‘ladi. Bemorning roziligi yetarli ma’lumot, uni tushunish va ixtiyoriy qaror bilan bog‘lanadi. O‘qituvchi bu masalani faqat hujjatga imzo qo‘yish orqali izohlab cheklanmay, tushuntirish va savollarga javob berish jarayoni bilan birga yoritishi lozim.

Xalqaro hamshiralar kengashining 2021-yildagi axloq kodeksi kasbiy qadriyatlar va javobgarlikni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi [3]. Texnikumning tegishli yo‘nalishlarida ushbu hujjatdan bemorga hurmat, kasbiy halollik va mas’uliyat mavzularini muhokama qilishda foydalanish mumkin. Boshqa yo‘nalishlar uchun topshiriqlar tegishli malaka talablari bilan moslashtiriladi. Xalqaro hujjatlar mahalliy qonunchilik va muassasaning amaliy tartiblarini o‘rganish bilan birga qo‘llanishi, o‘quvchiga o‘z vazifasini anglashga yordam berishi kerak.

Bemor avtonomiyasini hurmat qilishni o‘rgatishda o‘qituvchi tinglash va tushuntirish ko‘nikmalariga e’tibor qaratadi. O‘quvchi o‘zini tanishtirish, vazifasini aytish, bajariladigan harakat haqida vakolati doirasida ma’lumot berish va bemorning savolini aniqlashtirishni mashq qiladi. Tushunishni tekshirish uchun bemordan ma’lumotning asosiy mazmunini o‘z so‘zi bilan aytishni so‘rash usuli qo‘llanishi mumkin. Shunda muloqotning maqsadi faqat gapirish emas, axborotning tushunarli yetib borganini aniqlash bo‘ladi.

Manfaat keltirish va zarar yetkazmaslik tamoyillari o‘quv vazifasida xavfni oldindan ko‘rish orqali ochib beriladi. Pedagog o‘quvchidan harakat ketma-ketligini bajarish bilan birga tekshirish talab etiladigan nuqtalarni izohlashni so‘raydi. Noma’lum ko‘rsatma, mos kelmaydigan ma’lumot yoki o‘z tayyorgarligiga shubha paydo bo‘lsa, rahbarga murojaat qilish kasbiy mas’uliyat belgisi sifatida muhokama etiladi. O‘quvchi murakkablikni yashirmasdan, uni aniq bayon qilishga o‘rganadi.

Adolat tamoyilini o‘qitishda ehtiyoj va xolis mezonlarga tayangan munosabat tahlil qilinadi. Bemorning tanishligi, ijtimoiy mavqeyi yoki moddiy imkoniyati muomala sifatini belgilamasligi lozim. Shu bilan birga, shoshilinchlik darajasiga ko‘ra yordam ustuvorligini belgilashni teng munosabatdan farqlash kerak. O‘quvchilar navbat va klinik ehtiyoj haqidagi shartli vaziyatlarni muhokama qilib, qaror qaysi ma’lumotga asoslanganini tushuntiradi. O‘qituvchi baholashda dalil va kasbiy tartibga muvofiqlikni tekshiradi.

Maxfiylik va kasbiy halollik axborot bilan ishlashda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi ko‘rmagan natijani qayd etmaslik, shubhali ma’lumotni aniqlashtirish va bemor haqidagi axborotni faqat tegishli vazifa doirasida ishlatishga o‘rgatiladi. Dars materiallari shaxsni tanib olish imkonini cheklaydigan shaklda tayyorlanadi. O‘qituvchi klinik surat, ovozli yozuv yoki elektron hujjat bilan ishlashdan oldin ruxsat va muassasa tartibini tekshirish zarurligini muhokama qiladi. Bu vazifalarda ehtiyotkorlik amaliy mezon sifatida baholanadi.

C. Robichaux va hammualliflar hamshiralik ta’limida etikani o‘quv dasturiga uzviy kiritish zaruratini asoslaydi [4]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, texnikumda axloqiy masalalarni turli fan va amaliy mashg‘ulotlarda izchil muhokama qilish taklif etiladi. Masalan, parvarish mashg‘ulotida bemor sha’ni va rozilik, hujjat yuritishda aniqlik va maxfiylik, jamoaviy vazifada esa mas’uliyat taqsimoti ko‘rib chiqiladi. Har bir topshiriq bitta yoki ikkita aniq axloqiy maqsadga ega bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchining shaxsiy namunasi tanlangan harakat sababini tushuntirish bilan to‘ldirilganda o‘quvchi uchun anglash imkoniyati kengayadi. E. Y. H. Koh va hammualliflarning tizimli qamrovli sharhi kasbiy namuna ta’sirining o‘qituvchi, o‘rganuvchi va ta’lim muhiti xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi [5]. Texnikum sharoitida bu qarash pedagog va amaliyot rahbari harakatlarining izchilligini ta’minlashga yo‘naltiradi. Bemorga hurmat darsda aytiladigan fikr va amaliyotdagi muomala orqali bir xil mazmunda namoyon bo‘lishi kerak.

Vaziyatli muhokama uchun o‘qituvchi qisqa voqea va qaror qabul qilish nuqtasini tayyorlaydi. O‘quvchilar avval mavjud faktlarni, keyin kimlarning manfaatlari daxldorligini aniqlaydi. Shundan so‘ng ehtimoliy yechimlar, ularning foydasi va xavfi taqqoslanadi. Yakunda o‘quvchi o‘z vakolatiga mos harakatni tanlab, asosini bayon qiladi. Muhokama davomida qarama-qarshi fikrni tinglash va qo‘shimcha ma’lumot zarurligini tan olish ham maqsadli ko‘nikma sifatida kuzatiladi.

Simulyatsion mashg‘ulot bemor ishtirokisiz muloqot va qarorni sinab ko‘rish imkonini beradi. Mashq oldidan rollar, vazifa, xavfsizlik chegarasi va kuzatuv mezonlari tushuntiriladi. Mashqdan keyingi muhokamada o‘quvchi nimani payqagani, qanday qaror qilgani va nimani o‘zgartirishi kerakligini aytadi. O‘qituvchi aniq harakatga oid fikr bildiradi va qayta urinishni tashkil etadi. Bunda muvaffaqiyatli ibora yoki harakatning sababi ham tahlil qilinib, tajriba boshqa vaziyatga ko‘chiriladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ko‘p kasblar uchun bemor xavfsizligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi pedagoglarga dastur va mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha yo‘nalish beradi [6]. Texnikum uchun bundan kelib chiqadigan metodik taklif xavfsizlik topshirig‘ini axloqiy asos bilan birlashtirishdir. O‘quvchi tekshiruvni nega bajarayotgani va xabar berish kechiksa qanday xavf tug‘ilishi mumkinligini tushuntiradi. Mashqdagi xato o‘rganish materiali sifatida tahlil qilinadi, keyingi urinishda tuzatilishi tekshiriladi.

Birinchi vaziyatda bemor rejalashtirilgan o‘quv muolajasidan xavotirlanib, ishtirok etishni istamasligini bildiradi. O‘quvchi uning fikrini tinglashi, tushunmagan jihatini aniqlashi va bosimsiz muloqot qilishi kerak. Pedagog bemorning roziligini olishda o‘quvchining vakolati hamda mas’ul mutaxassisning vazifasini ajratib tushuntiradi. Qaror qobiliyati, shoshilinchlik yoki qonuniy vakillik masalasi yuzaga kelsa, vaziyat rahbar tomonidan amaldagi tartibga muvofiq ko‘rib chiqiladi. Mashg‘ulotda hurmat, tushunarlilik va o‘z vaqtida yordam so‘rash baholanadi.

Ikkinchi vaziyatda simulyatsion topshiriqdagi dori yorlig‘i va yozma ko‘rsatma o‘rtasida nomuvofiqlik beriladi. Maqsad o‘quvchining xavfni payqashi, aniqlashtirmasdan davom etmasligi va mas’ul rahbarga aniq xabar berishini kuzatishdir. O‘quvchi o‘zicha ko‘rsatmani almashtirmaydi, farqni dalil bilan tushuntiradi. Keyingi muhokamada xatoni sezgan payt, tekshirish manbai va jamoa bilan aloqa ko‘rib chiqiladi. Bu topshiriq axloqiy mas’uliyatni xavfsiz xatti-harakat hamda vakolat chegarasi bilan bog‘laydi.

Uchinchi vaziyatda guruh taqdimoti uchun klinik suratdan foydalanish taklif etiladi. O‘quvchilar tasvirdagi shaxsiy ma’lumot, foydalanish maqsadi, ruxsat va tarqatish doirasini tahlil qiladi. O‘qituvchi o‘quv maqsadining o‘zi maxfiylik talabini bekor qilmasligini tushuntiradi. Topshiriqda shartli tasvir yoki muassasa talablari asosida tayyorlangan o‘quv materiali tanlanadi. O‘quvchi qarorini ma’lumotni cheklash va tegishli tartibni tekshirish bilan asoslaydi. Muhokama kasbiy faoliyatdagi raqamli mas’uliyatni ochib beradi.

Vaziyatlarni murakkablashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab bitta aniq muammo beriladi, keyinchalik vaqt bosimi, qarama-qarshi fikr yoki ma’lumot yetishmasligi qo‘shiladi. Murakkab vazifada o‘quvchidan tez javobdan tashqari qo‘shimcha axborotga ehtiyojni aniqlash kutiladi. Pedagog topshiriqni guruh tayyorgarligiga moslaydi va yangi vaziyatda avvalgi bilim qanday qo‘llanganini kuzatadi. Shu tariqa mas’uliyat turli sharoitlarda takroran mashq qilinadi.

Baholashda nazariy bilim, axloqiy tahlil va amaliy xulq birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak. Bilim topshirig‘i o‘quvchining tamoyilni tushunishini ko‘rsatadi. Yozma vaziyat qarorning asoslanganligini aniqlashga yordam beradi. Kuzatuv esa o‘quvchining bemorni tinglashi, xavfni

payqashi, aniqlashtirish so‘rashi va axborotni ehtiyotkor ishlatishini qayd etadi. Bitta test natijasini kasbiy mas’uliyatning to‘liq o‘lchovi sifatida talqin qilishdan saqlanish lozim.

Metodik kuzatuv uchun besh mezon taklif etiladi: axloqiy muammoni aniqlash, tegishli tamoyilni tushuntirish, yechimni asoslash, vakolat doirasida harakat qilish va natijani tahlil etish. Har biri yordam bilan bajarish, qisman mustaqil bajarish va asoslab mustaqil bajarish darajalarida tavsiflanishi mumkin. Bu yerda mustaqillik o‘quv topshirig‘iga taalluqli bo‘lib, nazoratsiz klinik faoliyatga ruxsatni anglatmaydi. Mezonlar standartlashtirilgan psixologik test emas, pedagogik kuzatish uchun taklifdir.

Boshlang‘ich va yakuniy baholashda mazmuni boshqa, murakkabligi o‘xshash vaziyatlar tanlanadi. O‘qituvchilar baholashdan oldin namunaviy javoblarni muhokama qilib, mezonlarning bir xil talqiniga kelishi zarur.

Tibbiy etika va bioetikani o‘qitishda muhim pedagogik vazifa umumiy qadriyatdan aniq harakatga o‘tishdir. Bemor manfaatini hurmat qilish tinglash, tushuntirish, tekshirish va rahbarga murojaat qilish kabi amallar orqali ko‘rsatiladi. Taklif etilayotgan yondashuvda o‘qituvchi bu aloqani har bir mashg‘ulotda ochib beradi. Biroq auditoriyadagi yaxshi javob klinik muhitdagi xulqni avtomatik kafolatlamaydi. Amaliyot rahbari kuzatuvi va keyingi muhokama ta’limdagi uzluksizlikni ta’minlash uchun zarur.

Jamoat salomatligi texnikumida kasbiy mas’uliyatni shakllantirish tibbiy etika va bioetika tamoyillarini o‘quvchining kundalik faoliyati bilan bog‘lashni talab etadi. O‘qituvchi shaxsiy namuna, vaziyatli tahlil, simulyatsiya va asosli fikr-mulohaza orqali bemor manfaatini himoya qilishga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Natijani baholashda bilim, qarorning asoslanganligi va kuzatiladigan xulq birgalikda olinadi. Bunday pedagogik ish o‘quvchining vakolatini anglashiga, xavfni vaqtida bildirishiga hamda bemor bilan hurmatli va mas’uliyatli munosabat o‘rnatishga tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Varkey, B. (2021). Principles of clinical ethics and their application to practice. Medical Principles and Practice, 30(1), 17–28. DOI: 10.1159/000509119
2. UNESCO. (2005). Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris. 3–6, 9–11-moddalar.
3. International Council of Nurses. (2021). The ICN code of ethics for nurses. Geneva: ICN.
4. Robichaux, C., Grace, P., Bartlett, J., Stokes, F., Saulo Lewis, M., & Turner, M. (2022). Ethics education for nurses: Foundations for an integrated curriculum. Journal of Nursing Education, 61(3), 123–130. DOI: 10.3928/01484834-20220109-02
5. Koh, E. Y. H., Koh, K. K., Renganathan, Y., & Krishna, L. (2023). Role modelling in professional identity formation: A systematic scoping review. BMC Medical Education, 23, 194. DOI: 10.1186/s12909-023-04144-0
6. World Health Organization. (2011). Patient safety curriculum guide: Multi-professional edition. Geneva: WHO. ISBN 978-92-4-150195-8.

NOGIRONLIKNI TUSHUNISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INKLYUZIV JAMIYAT BARPO ETISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Ismoilov Shuhrat Atamurodovich
tadqiqotchi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti, Hukumati va Parlamenti tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlarning joriy etilishi inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan amaliy islohotlar poydevoridir. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni muhofaza qilishning yangi mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish nafaqat ushbu qatlamning turmush sifatini oshiradi, balki mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Inklyuziv jamiyatning eng muhim ustunlaridan biri - teng imkoniyatlar asosida sifatli ta’lim olish huquqidir. Bugungi kunda ta’lim har bir insonning individual imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘z shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishining ajralmas omili hisoblanadi, chunki zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tenglikka erishish va har bir fuqaroning hayotda o‘z o‘rnini topishining bosh kaliti aynan inklyuziv bilim va ma’rifatdir.

Falsafiy va huquqiy nuqtai nazardan, jismoniy, ruhiy yoki kognitiv nuqsonlari sababli hayot faoliyati cheklangan va ijtimoiy ko‘makka muhtoj bo‘lgan shaxs nogiron hisoblanadi. Biroq zamonaviy yondashuv nogironlikni individual patologiya emas, balki shaxsiy biologik omillar va atrof-muhit to‘siqlarining o‘zaro ta’siri natijasi deb qaraydi. Shu sababli, nogironlikni anglashda uni ham individual-tibbiy, ham ijtimoiy-tuzilmaviy darajada kompleks o‘rganish hamda tibbiy va ijtimoiy yondashuvlarning biosotsial sintezini shakllantirish zarurati tug‘iladi.

Nogironlikning ijtimoiy-falsafiy va ko‘p o‘lchovli strukturasi turli aspektlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bu mehnat faoliyatining cheklanishi sababli yuzaga keladigan ijtimoiy qaramlik bo‘lsa, tibbiy-biologik jihatdan organizmning normal fiziologik funksiyalarini to‘sib qo‘yuvchi uzoq muddatli holatdir. Huquqiy nuqtai nazardan u qonunchilik me’yorlari bilan tartibga solinadigan kompensatsiya va ijtimoiy ta’minot statusini anglatadi, kasbiy jihatdan esa mehnat bozoridagi cheklangan integratsiya yoki mehnatga layoqatsizlikni ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan u adaptativ depressiya, hissiy stress va jamiyatdagi stereotiplar keltirib chiqaradigan psixologik to‘siqlarni aks ettirsa, ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilgari egallangan ijtimoiy rollarning yo‘qolishi va jamiyat uchun standart bo‘lgan amaliyotlarda teng ishtirok eta olmaslik holatida namoyon bo‘ladi.

Nogironlikni keltirib chiqaruvchi sabablar va uni determinatsiya qiluvchi omillarni biomedikal, ijtimoiy-psixologik va institutsional guruhlarga ajratish mumkin. Biomedikal va biologik sabablar sirasiga homiladorlik va tug‘ruq patologiyalari, jarohatlar hamda baxtsiz hodisalar oqibatlari, ekologik toksiklanish va irsiy kasalliklar, shuningdek ota-onaning yoshi va fiziologik omillari kiradi.

Nogironlik va uning kelib chiqish sabablarini anglash ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy hamda ma’rifiy omillarning o‘zaro murakkab dialektik aloqadorligini ko‘rsatadi. Aholining muayyan qatlamlarida o‘z huquq va imtiyozlarini, ijtimoiy muhofaza hamda sog‘liqni saqlash kafolatlarini bilmaslik va ulardan amaliy foydalana olmaslik nogironlikning ma’naviy-huquqiy sabablaridan biri sanaladi. Turmush darajasining pasayishi, iste’mol standartlarining cheklanishi hamda ratsional ovqatlanish mezonlarining buzilishi shifokorlar, psixologlar va pedagoglarning kompleks reabilitatsiyasiga muhtoj bo‘lgan bolalar va kattalar salomatligiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining shakllanmagani va zararli odatlar kabi omillar ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan qo‘shilib, nogironlik ko‘rsatkichlarining ortishiga olib keladi. Shu sababli, nogironligi bor shaxslarni muhofaza qilish masalasi har qanday insonparvar davlat uchun barqaror ijtimoiy taraqqiyotning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tibbiy yondashuvga muqobil ravishda shakllangan ijtimoiy yondashuv nogironlikni shaxsiy patologiya emas, balki jismoniy yoki intellektual nuqsoni bor inson hamda jamiyatdagi infratuzilmaviy, axborot va munosabat to‘siqlari o‘rtasidagi to‘qnashuv natijasi deb qaraydi. Ijtimoiy yondashuv nogiron insonni tibbiy aralashuv obyekti deb emas, balki o‘z muammolarini hal etishda faol subyekt deb biladi. Shu nuqtai nazardan, e’tibor "inson salomatligida nima muammo bor?" degan savoldan "nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng huquqliligini ta’minlash uchun jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va muhit sharoitlarini qanday o‘zgartirish kerak?" degan tamoyilga ko‘chadi.

Inklyuziv jamiyat barpo etish va to‘siqsiz muhitni qaror toptirishning ijtimoiy-falsafiy asoslaridan kelib chiqib, amaliyotga quyidagi strategik yo‘nalishlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, to‘siqsiz muhit yaratish bo‘yicha kompleks Davlat dasturini hamda inklyuziv ta’lim huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini qabul qilish zarur. Shaharsozlik norma va qoidalariga universal dizayn tamoyillarini majburiy tartibda kiritish hamda ob’yektlarni moslashtirmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish lozim. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalariga shartnoma mablag‘larining muayyan

qismini to‘siqsiz muhit yaratishga yo‘naltirish huquqini berish va har bir oliy o‘quv yurtida inklyuziv ta’lim masalalari bo‘yicha jamoatchilik kengashlarini faollashtirish inklyuziv jamiyatning institutsional poydevorini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Круглый стол «Конвенция о правах инвалидов: на пути к ратификации в России». URL: http://www.deafmos.ru (Источник: https://www.sovremennoepravo.ru/).

2. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India, 10(4), 360-364.

3. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. Monografia pokonferencyjna science, research, development, 33, 2020-30.

4. Социальная работа: теория и практика: учеб. пособие / отв. ред. д-р ист. наук, проф. Е.И. Холостова, д-р ист. наук, проф. А.С. Сорвина. - Москва, 2001.

EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR: NAZARIY TAHLIL

Egamova Gulnoza Istam qizi
Buxoro davlat universiteti, PhD doktoranti


Raqamli transformatsiya jarayoni ta'limning barcha sohalarini, jumladan ekologik tarbiyani ham tubdan o'zgartirmoqda. Yigirma yil oldin bo'lajak mutaxassisga tabiiy resurslar taqchilligi haqida gapirib berish uchun faqat doska, xarita va statistik jadval yetarli edi. Bugun esa talaba ko'zoynak taqib Orolbo'yidagi qurib qolgan qirg'oqda "turishi", yoki sun'iy intellektdan bir necha soniyada iqlim modelini so'rab olishi mumkin. Ammo aynan mana shu texnologik ko'plik bir muammoni yashiradi: har bir vosita chiroyli ko'rinadi, lekin ularning barchasi bir xil darajada samarali emas. Ba'zi texnologiyalar talabaning xotirasiga yozadi, ba'zilari — yuragiga, ba'zilari esa faqat vaqtini oladi. Ushbu farqni ilmiy jihatdan ajratib ko'rsatmasdan turib, "zamonaviy texnologiya" degan umumiy tushunchadan foydalanish pedagogik jihatdan xavfli soddalashtirish hisoblanadi. Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi — ekologik tarbiya berishda qo'llaniladigan asosiy zamonaviy texnologiyalarning har birini alohida, ularning isbotlangan kuchli va zaif tomonlarini aniq ajratgan holda tahlil qilishdir.

Ekologik tarbiyada texnologik yondashuvning konseptual asoslari. 1990-yillarga kelib "ekologik ta'lim"dan "barqarorlik uchun ta'lim"ga konseptual o'tish yuz berdi — bu o'tish ta'limni endi faqat tabiatni bilish emas, balki kelajakni loyihalash va o'zgartirishga qaratilgan faol jarayon sifatida talqin etishni anglatadi [1]. Ushbu fikrni bugungi kunga tatbiq etsak, xulosa aniq: texnologiya o'z-o'zidan maqsad emas, balki talabani passiv tinglovchidan faol, tajriba orttiruvchi subyektga aylantirishning vositasidir. Agar texnologiya bu vazifani bajarmasa — qanchalik zamonaviy ko'rinmasin — u pedagogik nuqtai nazardan bo'sh qoladi.

Virtual reallik va sun'iy intellekt: hissiy tajriba va kognitiv qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi farq. Virtual reallik (VR) texnologiyasining ekologik tarbiyadagi asosiy qiymati shundaki, u talabaga ekologik vaziyatni xavfsiz, ammo hissiy jihatdan ta'sirchan sharoitda "bevosita boshdan kechirish" imkonini beradi — bu esa oddiy tasvir yoki matn orqali erishib bo'lmaydigan darajadagi taassurot qoldiradi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi universitet talabalari ishtirokida olti oy davomida o'tkazilgan tadqiqotda sun'iy intellekt va VR texnologiyalarining birgalikda qo'llanilishi talabalarning ekologik muammolar haqidagi bilim darajasini va ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan [2], shunga o'xshash natija Indoneziyada strukturaviy tenglamalar modellashtirish usuli yordamida ham mustaqil tasdiqlangan [3]. Ammo bu ikki texnologiyani bir qatorga qo'yish xato bo'lardi: VR insonni hissiy jihatdan "ichkariga tortsa", AI faqat tashqaridan javob beradi. Buni yaqqol ko'rsatadigan dalil bor — 100 ta AI so'roviga berilgan javoblarni chuqur tahlil qilgan tadqiqotda javoblarning atigi to'rtdan bir qismida biosferaga oid haqiqiy tashvish ohangi topilgan, qolgan javoblar esa betaraf, hissiz va ba'zan hatto chalg'ituvchi til bilan yozilgan [4]. Boshqacha aytganda, sun'iy intellekt talabaga fakt beradi, lekin unga tabiatni "qadrlashni" o'rgatmaydi — bu vazifa hamon jonli pedagogning zimmasida qoladi va hech qanday algoritm bilan almashtirilmaydi.

STEAM yondashuvi va gamifikatsiya: fanlararo tafakkur bilan motivatsion mexanizm o'rtasidagi munosabat. Fanlararo STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika) yondashuvining ekologik tarbiyadagi ahamiyati shundaki, u ekologik muammoni bir fan doirasida emas, balki hisoblash, texnik yechim va ijodiy taqdimot kesishmasida ko'rib chiqishga majbur qiladi — bu esa talabani "nima uchun" degan savoldan "qanday qilib hal qilaman" degan savolga o'tkazadi. Universitet talabalari misolida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotda mahalliy ekologik kontekstni integratsiyalashgan STEAM faoliyatlarining talabalarning proekologik xulq-atvori va ilmiy ijodkorligiga statistik ahamiyatli ta'siri aniqlangan, bunda nazorat va tajriba guruhlari o'rtasidagi farq aniq namoyon bo'lgan [5]. Gamifikatsiya esa mutlaqo boshqa mexanizm orqali ishlaydi — u bilimga emas, balki ishtirok istagiga ta'sir qiladi. Xitoylik universitet talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning gamifikatsiyalashgan virtual tajribasi talabalarning "yashil" iste'mol xulq-atvoriga statistik ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan [6]. Biroq bu yerda ham tanqidiy savol bor: talaba ball to'plash uchun harakat qiladimi, yoki haqiqatan qadriyat sifatida qabul qiladimi? Gamifikatsiyaga oid tadqiqotlarda tashqi rag'batlantirish (ball, mukofot) to'xtagandan keyin xulq-atvorning saqlanib qolish-qolmasligi hali tizimli o'rganilmagan — bu, aslida, butun texnologiyaning eng zaif nuqtasidir.

Texnologik vositalarning umumiy samaradorligi: raqamlar nima deydi. Yuqorida ko'rib chiqilgan to'rtta texnologiyaning har biri o'ziga xos kuchga ega, ammo ularning umumiy pedagogik salohiyatini xolisona baholash uchun ayrim-ayrim tadqiqotlardan ko'ra kengroq, meta-tahlil darajasidagi dalilga murojaat qilish to'g'riroq bo'ladi. 53 ta tadqiqotni (PRISMA metodologiyasi asosida 6159 ta dastlabki manbadan qat'iy saralab olingan) qamragan yirik meta-tahlilda ekologik ta'lim intervensiyalarining — texnologik vositalar ham shu jumladan — bilim ko'rsatkichlariga ta'sir kattaligi xulq-atvor ko'rsatkichlariga ta'siridan ikki barobardan ortiq yuqori ekanligi aniqlangan [7], bu quyidagi diagrammada aniq ko'rinadi:



Bu raqamlar bejiz emas — ular bir necha o'n yillik amaliyotning yakuniy natijasini aks ettiradi. Zamonaviy texnologiyalar ekologik bilimni oshirishda ishonchli, sinovdan o'tgan vositadir, ammo ular xulq-atvorni o'zgartirish borasida ancha zaifroq ishlaydi — va bu zaiflik texnologiyaning "eski" yoki "yangi" ekanligiga bog'liq emas, balki bilim bilan xulq-atvor o'rtasidagi tabiiy psixologik masofaga bog'liq. Turli texnologiyalarning imkoniyat va cheklovlarini birma-bir taqqoslash quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval. Ekologik tarbiyada qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning imkoniyat va cheklovlari

Texnologiya	Isbotlangan imkoniyati	Ilmiy jihatdan tasdiqlangan cheklovi
Virtual reallik (VR)	Talabani real ekologik vaziyatga "jismonan" olib kiradi, bu esa oddiy matn yoki video orqali erishib bo'lmaydigan hissiy chuqurlik va empatiya uyg'otadi; olti oylik	Tajriba tugagach hosil bo'lgan hissiy taassurotning necha oy yoki yil davomida saqlanishi hali tizimli o'lchanmagan, ya'ni uzoq

Texnologiya	Isbotlangan imkoniyati	Ilmiy jihatdan tasdiqlangan cheklovi
	kuzatuvda bilim va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlari sezilarli o'sgan	muddatli barqarorligi nazariy jihatdan ochiq savol bo'lib qolmoqda
Sun'iy intellekt (AI)	Talabaga istalgan vaqtda, istalgan savol bo'yicha individual javob beradi, bilim olishni auditoriya vaqti bilan chegaralamaydi va o'rganish sur'atini har bir talabaning o'ziga moslashtiradi	100 ta AI javobini chuqur tahlil qilgan tadqiqotda ularning atigi to'rtdan bir qismida biosferaga oid haqiqiy tashvish ohangi topilgan, qolganlari betaraf, hissiz va ba'zan chalg'ituvchi til bilan yozilgan — ya'ni AI faktni beradi, ammo qadriyatni singdirmaydi
STEAM yondashuvi	Ekologik masalani bitta fan doirasidan chiqarib, hisob-kitob, texnik yechim va badiiy taqdimotni bir topshiriqda birlashtiradi; nazorat va tajriba guruhlarini solishtirgan tadqiqotda xulq-atvor va ilmiy ijodkorlik ko'rsatkichlari statistik ahamiyatli farqlangan	Bir nechta fan o'qituvchisining birgalikda ishlashini, umumiy topshiriq va baholash mezonini talab qiladi — bu tashkiliy jihatdan eng murakkab va vaqt talab qiluvchi yondashuv hisoblanadi
Gamifikatsiya	Ball, reyting va musobaqa elementlari orqali talabaning darsga kirishish tezligini va ishtirok darajasini oshiradi; xitoylik talabalar o'rtasidagi tadqiqotda "yashil" iste'mol xulq-atvoriga statistik ahamiyatli ijobiy ta'sir qayd etilgan	Motivatsiyaning manbai ko'pincha tashqi (ball, mukofot) bo'lib qoladi; ball tizimi olib tashlangach xulq-atvor saqlanib qoladimi yoki yo'qoladimi — bu savol hozircha ochiq va tadqiqotlar bu bo'shliqni to'ldirmagan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hech bir alohida texnologiya ekologik tarbiyaning barcha — kognitiv, aksiologik, motivatsion, refleksiv, praksiologik — komponentlarini yolg'iz o'zi ta'minlay olmaydi. VR hissiy tajriba beradi, biroq bu tajribaning necha kun yoki oy "yashashi" noaniq; AI kognitiv qo'llab-quvvatlash beradi, biroq qadriyatli munosabatni singdira olmaydi; STEAM fanlararo tafakkurni rivojlantiradi, ammo tashkiliy jihatdan eng qiyin va ko'p resurs talab qiladigan yo'l; gamifikatsiya esa motivatsiyani tez uyg'otadi, biroq uning barqarorligi kafolatlanmagan. Bu to'rtta texnologiyani bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularning bir-birini to'ldirishi kerakligini anglash — pedagog uchun eng muhim amaliy xulosa hisoblanadi: qaysi texnologiyani tanlashdan oldin, avval qaysi komponent (bilimmi, qadriyatmi, motivatsiyami yoki amaliy ko'nikmami) zaif ekanini aniqlash lozim, va faqat shundan keyin unga mos vositani tanlash kerak.

O'tkazilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya berishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning (VR/AR, sun'iy intellekt, STEAM, gamifikatsiya) har biri ilmiy jihatdan tasdiqlangan, ammo o'ziga xos chegaraga ega salohiyatga ega. Meta-tahlil darajasidagi statistik dalillar texnologik vositalarning bilim komponentiga ta'siri xulq-atvor komponentiga ta'siridan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatadi, bu esa har qanday texnologiyani tanlashda uning aynan qaysi komponentga xizmat qilishini oldindan aniq belgilash zarurligini asoslaydi. Yakuniy xulosa shuki, samarali ekologik tarbiya bironta "eng yaxshi" texnologiyaning o'zidan

emas, balki turli texnologiyalarning pedagogik maqsad va ekologik tarbiyaning besh komponentli tuzilishi bilan izchil uyg'unlashtirilgan, o'zaro to'ldiruvchi majmuasidan hosil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tilbury D. Environmental Education for Sustainability // Environmental Education Research. — 1995. — Vol. 1, №2. — P. 195-212.
2. Cao F., Jian Y. The Role of integrating AI and VR in fostering environmental awareness and enhancing activism among college students // Science of the Total Environment. — 2024. — Vol. 908. — 168200.
3. Sahabuddin E.S., Makkasau A. Utilization of virtual reality as a learning tool to increase students' pro-environmental behavior // Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. — 2024. — Vol. 20(12). — em2540.
4. Is artificial intelligence revolutionizing climate change education? An exploratory study of climate change ChatGPT output // First Monday. — 2025.
5. Huang C.-F. The influence of STEAM teaching activities integrating local environmental awareness on university students' pro-environmental behavior and scientific creativity // Journal of Baltic Science Education. — 2024. — Vol. 23, №6. — P. 1193-1206.
6. Zhou F., Lin Y., Mou J. Unpacking the effect of gamified virtual CSR cocreated on users' pro-environmental behavior // Technology in Society. — 2023. — Vol. 73. — 102228.
7. Aeschbach V.M.-J., Schwichow M., Rieß W. Effectiveness of climate change education — a meta-analysis // Frontiers in Education. — 2025. — Vol. 10. — 1563816.

ФАОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИНГ ЗАМОНАВИЙ МОДЕЛЛАРИ

Азизова Гулинисо
Гулистон давлат университети Тиббиёт факультети Педиатрия иши 2-босқич талабаси

Бугунги демократик ўзгаришлар ва дунёда кечаётган глобаллашув жараёнлари шахс руҳиятига, соғлиги ва ҳаётга муносабатларига зиддиятли таъсир этаётганини кўрмаслик мумкин эмас. Ижтимоий борлиқ ҳеч қачон субъект борлиғига таъсир этмай, ундаги тасаввурларни у ёки бу томонга бурмай ўзгарган эмас. Ижтимоий борлиқдаги ўзгаришлар динамикаси инсон психикасида инъикос топиб, шахсни ё фаоллаштиради ёки унда индефферентлик кайфиятларини туғдиради. Жамият билан шахсни ҳаракатга келтирувчи, унинг борлиққа муносабатларини шакллантирувчи онг диалектик тарзда ривожланадиган феноменлар сирасига киради.

Объективлик ва субъективликнинг уйғун келиши ижтимоий тараққиётнинг яхлит воқелик сифатида келишидан, инсон ва жамият ҳаётининг умумий қонунларга мувофиқ ривожланишидан дарак беради. Инсон мудом бирор янгилик қилишга, ижтимоий борлиққа янгилик олиб киришга интилади, унинг онгида кечадиган асосий эффектив кечинмалар ниманидир яратиш ва қилиш билан боғлиқ. Бу ҳатти-ҳаракатлар ё хусусий манфаатларни ифода этади ёки гуруҳий, ижтимоий манфаатларга қаратилади. Ижтимоий фаоллик иккинчи гуруҳга оиддир.

Ижтимоий фаоллик ўзига хос воқелик бўлиб, уни З.Қодирова: “ижтимоий муносабатларнинг онгли, беғараз таҳлилига ҳамда уларнинг у ёки бу элементларини ўзгартиришга интилиш даражасини тавсифлайди. Инсон ижтимоий аҳамиятга эга бирон бир жиддий муаммога дуч келган ҳамда уларни ҳал этиш учун янги қонунларни қабул қилиш ёки мавжуд қонунлар механизмини такомиллаштириш кераклигини англаган тақдирда ижтимоий фаолликка интилиши янада кучаяди” [1] -дея таърифлайди. Ана шундай “жиддий муаммо” меҳнат, ижтимоий муносабатларда қатнашишдир. Меҳнат мақсадга йўналтирилган, онгли фаолият сифатида намоён бўлиб, бу фаолият натижага эришишга йўналтирилади ҳамда онгли мақсадга мувофиқ ирода билан бошқарилади. Умумий белгиланган қоидага кўра ишлаб чиқаришга, маълум маҳсулотни яратишга қаратилган меҳнат бир пайтнинг ўзида шахсни шакллантиришнинг асосий йўли ҳамдир.

Меҳнат жараёнида нафақат меҳнат фаолиятининг у ёки бу маҳсулоти юзага келади, балки субъектнинг ўзи шахс сифатида шаклланиб боради. Меҳнат фаолияти жараёнида инсон иқтидори шаклланади, унинг характери таркиб топади, унинг дуёқараш тамойиллари мустаҳкамланади ҳамда амалий фаол қоидаларга айланади. Ўз табиатига кўра меҳнат ҳамма вақт маълум вазифани бажариш билан боғлиқ бўлиб, фаолиятнинг бутун жараёни кўзланган натижага эришишга қаратилмоғи лозим: шунинг учун меҳнат режалаштириш ва ижро назоратини талаб қилади, у ҳамма вақт маълум мажбуриятларни ўз ичига олади ҳамда ички интизом ва уюшқоқликни келтириб чиқаради. Фаоллик меҳнат жараёнини юзага келтирадиган ва рағбатлантирадиган омил сифатида намоён бўлади [2[. Ижтимоий фаоллик деструктив ва конструктив кўринишда бўлади. Деструктив (тузилишни бузадиган) фаоллик ҳаётни тубдан қайта қуриш, кўпинча куч ишлатган ҳолда қайта қуриш йўли билан ижтимоий муаммоларни ҳал этишга қаратилади. Конструктив ижтимоий фаоллик мавжуд ижтимоий зиддиятлар амал қилаётган ижтимоий тузилмалар асосида, бу тузилмаларни куч билан тубдан ўзгартирмай туриб, ҳал қилишга қаратилади. Конструктив ижтимоий фаолликни намоён қилаётган инсон ёки ижтимоий гуруҳ муайян ижтимоий институтда мавжуд бўлган бошқарув салоҳиятини ишга туширади. Агар инсон ёки жамият аъзоларининг бирон-бир гуруҳи зарурий ижтимоий муаммоларни ҳал қилишда ҳуқуқий воситалардан фойдаланса (яъни қонун чиқарувчи ёки ижроия ҳокимият органларига мурожаат қилса, сайловларда иштирок этса ва ҳ.к.), бундай ижтимоий фаоллик конструктив бўлади. Агар ўз талабларини амалга оширишда кишилар ҳуқуқий бўлмаган воситалардан фойдаланса, мавжуд бўлган ижтимоий муносабатларни емиришга уринса (бу муносабатлар доирасида мавжуд ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш имконияти бўлмаганда), бундай фаоллик деструктив бўлади. Деструктив ижтимоий фаоллик шаклларига фуқаролик итоатсизлиги, зўравонликнинг турли шакллари ва ҳ.к. киради. Қисқа қилиб айтганда, конструктив ижтимоий фаоллик инсоннинг мавжуд борлиқни қонуний тарзда ўзгартиришга қаратилган фаолияти, деструктив ижтимоий фаоллик унинг акси, яъни мавжуд тизимларни ғайриқонуний йўллар билан ўзгартиришдир.

Бугун ижтимоий меҳнат турлари ва уларнинг моҳияти ҳам ўзгармоқда. Мавсумий, ёлланма ёки шартномавий меҳнат турлари пайдо бўлди. Касбсиз, ҳунарсиз ёшлар асосан шундай меҳнатда иштирок этмоқда. Кўпгина ёшлар бошқа давлатларга бориб мавсумий ишлаб келади. Булар ҳам ижтимоий меҳнатнинг фойдали ва зарур турлари ҳисобланади. Тўғри, бундай меҳнатда қонунларга амал қилиш, ёлланган шахснинг саломатлигини кафолатлаш, завқли дам олишини уюштириш, соғлом турмуш тарзини шакллантириш ҳақида кам қайғурилади. Ёлланганларнинг ўзлари ҳам тоза бўлмаган, ноқулай ва дам олиши таъминланмаган шароитларда ишлайверишади, демак, улар меҳнат қонунларидан мутлақ бехабар. Ваҳоланки, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Меҳнат кодекси ва бошқа меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар ҳар бир ишчи меҳнатчи учун зарур меҳнат шароитлари яратилишини, меҳнат соати ва дам олиш вақти ўрнатилишини, бирор бахтсиз ҳодиса рўй берса, шахс ўз саломатлигини тиклаш ҳуқуқига эга экани таъкидланади. Меҳнат шартномасининг ихтиёрий тарзда тузилиши ва уни тўла бажарилиши буюртмачи зиммасидадир. Мазкур ҳуқуқий талаб умуминсоний ҳуқуқий нормаларга ҳам этноахлоқий талабларга ҳам мувофиқ келади. Ҳатто ислом ҳуқуқи ўзаро шартномани мажбурий қилиб қўйган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Қодирова З.Р. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий фалсафий масалалари. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2006. –Б. 10-11.
2. Брехман И.И. Введение в валиологию науку о здоровье. Москва : Наука, 1987.С 5
3. Шайхова Х.,Тиллаева Г. Соғлом турмуш тарзи ва ёшлар камолоти. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашр., 2008.46- б.

ВАЛЕОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИНГ ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ

Азизова Моҳинисо
БДПИ магистратура 2-босқич

Умумий валеология фалсафий мулоҳазаларга, ёндашишларга мойилдир. Унда одам организми бутун система сифатида қаралади, организмдаги салбий ўзгариш ана шу бутунликнинг, яхлитликнинг бузилиши ёки ёш билан боғлиқ тарзда, организмдаги психофизиологик ўзгаришлар натижаси сифатида қаралади. Инсон каби унинг организми ҳам бир тарзда турмайди, улар флуктацион (чайқалиб, тебраниб) ривожланиш ва ўзгаришга хос [1].

Соғлом турмуш тарзи ва соғлом авлодни тарбиялаш бугун глобал масалалардан бирига айланган, шу сабабли у нуфузли халқаро ташкилотлар (БМТ, ЮНЕСКО, ЖСТ), илм фан соҳаларининг диққатини тортмоқда. Валеологиянинг алоҳида илм фан соҳаси сифатида юзага келгани, баъзи давлатлар таълим тизимига киритилгани фикримизни тасдиқлайди. ”Вале” лотинча сўз бўлиб, саломлашиш, саломатлик тилаш маъноларини англатади.

Умумий валеология соғлом турмуш тарзининг умумий назарий, фалсафий муаммоларини инсон ва унинг саломатлигини таъминлашнинг макротизим ва микротизм контексида, ҳаётий мақсади ва ижтимоий муносабатлардаги ўрни орқали ўрганади. Мазкур умумий фалсафий изланишлар кўпроқ тарихий фалсафий меросга, файласуфларнинг инсон саломатлиги ҳақидаги фундаментал қарашларига таянмоқда. Фалсафа тарихи, ижтимоий тафаккурга оид илмий меросда инсонннинг саломатлигига оид шундай фикрлар, ғоялар мавжудки, улар замонавий валеологик таълимотларни тўғри англашга ёрдам беради.

Валеологик таълимотларни, қарашлар ва фикрларни деярли барча ижтимоий гуманитар ва тиббий фанларда учратиш мумкин. Айниқса инсон саломатлигининг руҳ, психоматик жараёнлар билан боғлиқлиги, диний, маънавий аҳлоқий омилларнинг кайфиятга таъсири ҳар томонлама асосланаётган ҳозирги даврда валеологияни интегратив аҳамиятга эга фан соҳасига айлантирмоқда.

Валеологияни шахс ва аҳоли саломатлигини, соғлом турмуш тарзини назарий тадқиқ этадиган, инсон саломатлиги билан шуғулланувчи фанларнинг хулосалари ва тавсияларига таянадиган, шу билан бирга, ўзининг назарий методологиясига эга илм фан тармоғи сифатида қарайди. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришга бўлган катта эътибор, умуман, соғлом авлодни тарбиялаш билан боғлиқ муаммолар валеологиянинг илмий назарий методологияси масалаларини, предмет ва методларини аниқлаштиришга ундади. Я.Л. Мархоцкий чоп эттирган ўқув қўлланмаси ана шу илмий назарий масалаларни ўз олдига қўйди ва бугун валеология, валеологик қарашлар интеграциялашган илм фан сифатида гуманитар фанлар тизимида ўз ўрнини топган [2]. Бугун валеологик қарашлар умумий валеология, социологик валеология, амалий валеология каби йўналишларда тадқиқ этилмоқда.

Соғлом турмуш тарзини шахсий, гуруҳий ва ижтимоий пағоналарда тадқиқ этиш мумкин. Улар ўртасида дифференциал фарқлар ва ёндашувлар мавжуд. Соғлом турмуш тарзи назарияси (валеология)да улар атрофлича очиб берилган ва бу борадаги бахсли фикрлар валеологиянинг шаклланишига хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, умумий валеологиянинг соғлом турмуш тарзидаги моҳиятини учта асосий нуқтада ифодалаш мумкин:

1.Касалликни эмас, саломатликни бошқариш: Валеология инсонни хасталикка чалингунча эмас, балки соғлом вақтида ўз саломатлик захираларини қандай кўпайтириш кераклигини ўргатади.

2. Шахсий масъулиятни шакллантириш: У инсоннинг ўз ҳаёти ва соғлиғи учун тиббиёт ходимларига эмас, балки ўзига масъул эканлигини англатадиган маданиятни яратади.

3.Яхлит ёндашув: Бу фан жисмоний кучни руҳий хотиржамлик ва тўғри озиқланиш билан боғлаган ҳолда, инсонни комиллик сари йўналтирувчи тизимли билимлар йиғиндисидир.

Қисқа қилиб айтганда, валеология — бу шунчаки назария эмас, балки узоқ ва сифатли умр кўришнинг амалий қўлланмасидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бекчан А.(Қутлумурадов А.Б.)Физическое тело человека (или непрочитанные лекции о полноте человеческой природи).Ташкент: Изд.им. Абу Али Ибн Сино, 1997. - С.191 -193
2. Мархоцкий Я.Л. Валеология . Учебное пособие. Минск: Висш.школа, 2006. - С.4-6.

ГЕНОЦИД ВА ЭКОЦИДНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Атақулов Элёр Мадиёрович

Бухоро давлат университетининг илмий изланувчиси

Инсоният Ер юзида яшайдиган пайтдан то ҳозирги кунгача жаҳонда атиги 292 йилгина уруш бўлмаган. Умумбашарий муаммо уруш ва тинчлик муаммоси жуда долзарб муаммо бўлиб, у экологик муаммоларни ҳам четлаб ўтмайди. Фалсафа “уруш” нима? – деган фундаментал саволга жавоб излайди: Уруш – давлатлар ўртасидаги қуролли тўқнашув; Уруш – инсон табиатидан ажралмас қисм;

“Уруш – қуролли кучлар асосий ҳал қилувчи восита сифатида қўлланиладиган курашни англатувчи атама; турли хилдаги қуролли кураш шаклларининг мажмуи. Урушлар давлатлар олиб борадиган ички ва ташқи сиёсати натижасидир”. Ҳарбий тўқнашувлар, зиддиятдар, урушларга қарама – қарши категория бу тинчликдир.

Тинчлик – бу жамият ва давлатлар ўртасида қуролли можароларнинг мавжуд эмаслиги, инсон ҳуқуқлари, хавфсизлик, ижтимоий адолат, барқарор тараққиёт ва атроф-муҳит муҳофазаси таъминланган барча инсоният учун энг қимматли, қадрли ҳолатдир. **Тинчлик** биргина урушларнинг бўлмаслиги билан чекланибгина қолмайди, балки инсон, жамият ва табиат ўртасидаги барқарор ва мутаносиб, уйғун мунособатларни ҳам ўз таркибига олади.

Барқарор тинчликнинг энг муҳим шартлари қуйидагилардир:

1. Урушларнинг буткул бўлмаслиги, яъни сиёсий ҳамда иқтисодий хавфсизлик;
2. Экологик хавфсизлик.

Мана шу икки муҳим шарт – тинчликнинг энг муҳим асосий шартларидир.

Тинчлик – бу табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, табиат борлиғини муҳофаза қилиш, ҳар бир экотизим маҳсулдорлигини сақлаш, келажак авлодлар учун соғлом табиий экологик муҳитни сақлашдир.

Тинчлик: шахсий тинчлик, ижтимоий тинчлик ва халқаро тинчликни ўз таркибига олади. Шахсий тинчлик – инсоннинг руҳий хотиржамлиги ва ички осойишталигидир. Ижтимоий тинчлик – жамиятдаги тотувлик, барқарорликдир. Халқаро тинчлик – давлатлар ўртасида уруш ва қуролли тўқнашувларнинг бўлмаслиги, давлатлар ўртасидаги ҳамкорлик ва ўзаро ҳурматнинг қарор топишидир.

Урушлар инсониятга ва табиат борлиғига улкан зарар етказади. Бу зарарларни ҳамиша ҳам қоплаб бўлмайди. Шундай зарарлардан экн каттаси – бу геноцид ва экоциддир.

“Экоцид” тушунчаси илк бор 1970 йилларда АҚШ армияси Вьетнам урушида “Agent Orange“ (дефолиант-барқ урувчи кимёвий модда) қўлланилганидан кейин пайдо бўлди. Бу модда миллионлаб гектар ўрмон ва экинларни йўқ қилиб, катта экологик ҳалокатга сабаб бўлди.

Экоцид уруш ҳаракатлари натижасида ҳам, тинчлик даврдаги инсон фаолияти оқибатида содир бўлиши мумкин.

Экоцид – юнонча сўздан олинган бўлиб, “oikos“-уй, яшаш муҳити ва лотинча “caedere“-“ўлдириш” сўзларидан келиб чиққан. “Экоцид” тушунчасини илмий муомалага 1970 йил америкалик биолог Артур Уильям Галстон (1920-2008) киритган. Аслида янада

адолатлироқ қилиб, бу атамани “экоцидни халқаро жиноят сифатида ҳуқуқий жиҳатдан асослашга Ричард Фолк катта ҳисса қўшган” десак янада ўринли бўлади. Экоцид – инсон фаолияти айниқса ҳарбий ҳаракатлар натижасида атроф-муҳит ва экотизимларга кенг кўламда, жиддий ва узоқ муддатли зарар етказилиши.

Ички хулоса сифатида шуни таъкидлаш лозимки, Артур Уильям Галстон “экоцид” атамасини илк бор қўллаган, Ричард Фолк (1930 йилда туғилган) эса 1973 йилда экоцидни халқаро ҳуқуқий концепция сифатида шакллантирган олимлар бўлишган. Бошқача иборалар билан айтганда, Ричард Андерсон Фолк экоцид тушунчасини ҳуқуқий жиҳатдан чуқур таҳлил қилиб уни халқаро жиноят сифатида тақиқлашга қаратилган халқаро конвенция лойиҳасини таклиф этгани диққатга сазовордир.

Экоцид – бу табиатга, атроф-муҳитга жуда катта зарар ва оғир зарар етказиш билан боғлиқ ҳаракатлар, қасддан ёки фаолиятдир. Бошқача иборалар билан айтганда, экоцид – инсонлар ёки бепарволик оқибатида вайрон қилишни англатувчи тушунча, яна бир ибора орқали ифодаласак, бу табиат ва экотизимларга тиклаб бўлмас даражада зарар етказишдир, ташкилотлар томонидан табиатни шундай даражада вайрон қилишки, натижада:

- Ўсимлик ва ҳайвонот (биота) дунёсига катта зарар етади**;**
- Сув, ҳаво ва тупроқ ифлосланади;
- Инсон саломатлиги хавф остида қолади;
- Бутун экотизим функцияси издан чиқади;
- Ядровий синовлар оқибатида табиатга зарар етказиш;
- Орол денгизининг қуришига сабаб бўлган экологик хатолар.

Замонавий олимлар ҳамда халқаро ташкилотлар ҳақли равишда экоцидни инсониятга қарши оғир жиноятлар қаторига киритиш керак, деб ҳисоблашади, бу фикрга қўшиламиз.

Халқаро миқёсда экоцидни геноцид ва ҳарбий жиноятлар қаторида Халқаро жиноят суди (ICC)да алоҳида жиноят сифатида тан олиш бўйича фаол ҳаракатлар олиб борилмоқда. Экспертлар гуруҳи экоцидга қуйидагича таъриф беришган, **“экоцид** – бу атроф-муҳитга жиддий ҳамда кенг кўламли ёки узоқ муддатли зарар етказиш эҳтимоли юқори эканлигини била туриб содир этилган ноқонуний ёки ўзбошимчалик билан қилинган ҳаракатлар”дир.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 202-моддаси айнан “Экоцид” деб номланади. Унга кўра, ўсимлик ёки ҳайвонот дунёсини оммавий қириб ташлаш, атмосферани, ер ёки сув ресурсларини заҳарлаш, шунингдек, экологик офатни келтириб чиқарган ёки келтириб чиқариши мумкин бўлган бошқа ҳаракатларни содир этиш оғир жиноят ҳисобланади ва узоқ муддатли озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

“Геноцид – юнон тилида genos – насл-насаб, caedere лотин тилида ўлдираябман, йўқ қилаяпман деган маънони англатади. Геноцид-инсониятга қарши қаратилган оғир жиноятлардан бири, бирор-бир миллий, этник, ирқий, диний ёки бошқа тарихан шаклланган маданий-этник гуруҳни ёки гуруҳ аъзоларини ўлдириш; уларнинг соғлиғига оғир зара етказиш; бундай гуруҳда бола туғилишининг олдини олишга мўлжалланган чора-тадбирлар; оиладан болаларни олиб қўйиш; бу гуруҳни бутунлай ёки қисман жисмоний йўқ қилиш мақсадида амалга ошириладиган вайронкор амалиёт”. “Геноцид” атамасини илк бор 1943 йил келиб чиқиши яҳудий бўлган польшалик юрист Рафаэл Лемкин илмий муомалага киритган. 1948 йил декабрда БМТнинг “Геноцид жиноятини олдини олиш ва уни жазолаш тўғрисидаги Конвенция”сида одамзодга қарши энг оғир жиноят таърифланувчи тушунча сифатида халқаро ҳуқуқий мақомга эга бўлган.

Тарих саҳифаларида геноциднинг кўпдан-кўп далилларини учратишимиз мумкин. ЕвропаликларТасмания ороли одамларини ҳайвонларни овлашгани каби қирғин қилганлар, охирги тасманиялик одам 1843 йилда отиб ўлдирилган.

№	**Йиллар**	**Геноцид қурбонлари**
1	1904-1907	**Гереро ва нама қабилаларининг** геноциди

2	1915-1923	Усмонийлар империясида христианларнинг қириб ташланиши
3	1939-1945	Нацистлар Германияси томонидан яҳудийлар ва лўлиларнинг қириб ташланиши ва ҳ. Иккинчи жаҳон уруши даврида 6 миллион яҳудий нацистлар Германияси томонидан қасддан ўлдирилган. Бу оммавий қотиллик тарихда **Қирғинлик – Холокост** деб аталади.
4	1995	Босния серблари томонидан босниялик мусулмонларнинг оммавий тарзда ўлдирилиши

Бизнинг фикрмизча, геноцид экоциднинг шакл ўзгарган тури, фақат геноцид объекти муайян миллат ёхуд диний гуруҳ ёхуд этник гуруҳни йўқ қилиш мақсадидаги амалга ошириладиган жиноий ҳаракат. Ҳаракат қурбони эса – ақлли одам-homo sapiens. Биологик тур сифатида генофондни ташкил этадиган ўзак-инсондир. Ҳар бир инсон – қайтарилмас, ўзигагина хос табиатнинг буюк неъмати, унинг ҳаётига чанг солишга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ. Инсон – табиатнинг буюк неъмати.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Назаров Қиём. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. муаллиф: Қ.Назаров.Таҳрир ҳайъати: У.О.Салимов, Ҳ.О.Шайхова ва бошқа.-Т.:”Маънавият” нашриёти.2019.366-бет.

TIBBIY BIOETIKA VA IJTIMOIY BARQARORLIK: ZAMONAVIY FALSAFIY YONDASHUVLAR

Homidov K.M.
Buxoro davlat tibbiyot instituti 315-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Axmedova Z.A. - dotsent

Zamonaviy jamiyat tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika, tibbiyot va axborot texnologiyalari sharoitida yashamoqda. Ushbu jarayonlar insonning hayoti, sog'lig'i va qadr-qimmatiga bevosita taalluqli bo'lgan yangi falsafiy va axloqiy savollarni keltirib chiqarmoqda. Tibbiyot fani nafaqat kasallikni davolash, balki insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mavqeini, uning huquqlari va erkinliklarini ham hisobga olishi lozim. Aynan shu nuqtai nazardan tibbiy etika va bioetika masalalari, shuningdek tibbiyot falsafasining ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu maqolada tibbiy bioetikaning falsafiy asoslari, uning asosiy tamoyillari, zamonaviy muammolari hamda jamiyat barqarorligi bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi.

Tibbiy etikaning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Gippokrat tomonidan shakllantirilgan mashhur qasamyod — “zarar yetkazmaslik” tamoyilining ilk ifodasi bo'lib, u asrlar davomida shifokorlik kasbining axloqiy negizini tashkil etib kelgan. O'rta asrlarda Ibn Sino singari mutafakkirlar tibbiyotni nafaqat amaliy san'at, balki falsafiy bilim sohasi sifatida ham talqin qilib, shifokorning ma'naviy mas'uliyati haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirgan. XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa Nyurnberg tribunalidan so'ng, inson ustida o'tkaziladigan tadqiqotlarga oid xalqaro me'yorlar ishlab chiqildi, bu esa zamonaviy bioetikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos bo'ldi. Bugungi kunda tibbiy etika falsafa, huquq, tibbiyot va sotsiologiya kabi fanlar chegarasida rivojlanib borayotgan fanlararo bilim sohasiga aylandi.

Zamonaviy bioetika to'rt asosiy tamoyilga tayanadi: bemor avtonomiyasini hurmat qilish, foyda keltirish, zarar yetkazmaslik va adolat. Avtonomiya tamoyili bemorning o'z sog'lig'iga oid qarorlarni ongli ravishda, to'liq ma'lumot asosida mustaqil qabul qilish huquqini anglatadi va bu “ixtiyoriy rozilik” (informed consent) instituti orqali amalga oshiriladi. Foyda keltirish va zarar yetkazmaslik tamoyillari shifokor faoliyatining markazida bemor manfaatlari turishi lozimligini bildiradi. Adolat tamoyili esa tibbiy resurslar, davolash imkoniyatlari va sog'liqni saqlash xizmatlariga barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng va adolatli yondashuvni talab qiladi. Ushbu tamoyillar amaliyotda ko'pincha bir-biriga zid keladi — masalan, bemorning avtonom qarori

jamoat manfaatlariga to'g'ri kelmasligi mumkin — va bunday holatlarda falsafiy tahlil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

XXI asr tibbiyoti oldiga bir qator murakkab falsafiy-axloqiy muammolarni qo'ymoqda. Gen muhandisligi va genom tahrirlash texnologiyalarining rivojlanishi insonning biologik tabiatiga aralashish chegaralari haqidagi bahslarni kuchaytirmoqda. Sun'iy intellektning tashxis qo'yish va davolashda qo'llanilishi shifokor mas'uliyati, ma'lumotlar maxfiyligi hamda inson omilining o'rni kabi yangi savollarni keltirib chiqarmoqda. Transplantologiya sohasida organ yetishmovchiligi va uni taqsimlashdagi adolat masalasi, reproduktiv texnologiyalarda esa ota-onalik va insonning kelib chiqishiga oid an'anaviy tushunchalarning qayta ko'rib chiqilishi kuzatilmoqda. Shuningdek, hayotning oxirgi bosqichidagi qarorlar — palliativ yordam, og'riqni bartaraf etish va bemorning izzat-nafsini saqlab qolish masalalari ham zamonaviy bioetikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammolarning barchasi sof texnik emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, ularni hal etish fanlararo yondashuvni taqozo etadi.

Jamiyat barqarorligi ko'p jihatdan uning sog'liqni saqlash tizimi qanchalik adolatli va insonparvar asosda tashkil etilganiga bog'liq. Shifokor va bemor o'rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlar nafaqat davolash samaradorligini, balki jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlikni ham mustahkamlaydi. So'nggi yillardagi pandemiya tajribasi shuni ko'rsatdiki, sog'liqni saqlash tizimidagi har qanday inqiroz butun jamiyat hayotiga, iqtisodiyotga va ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatar ekan. Shu bois davlat siyosatida tibbiy xizmatlarning barcha fuqarolar uchun teng darajada mavjudligini ta'minlash, tibbiy etika me'yorlarini qonunchilik darajasida mustahkamlash hamda kelajak avlod shifokorlarini bioetik bilim va qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot ta'limi tizimida falsafa va bioetika fanlarining o'qitilishi shifokorlik kasbining insonparvarlik mohiyatini saqlab qolishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy bioetika va tibbiyot falsafasi zamonaviy jamiyat rivojining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyoti bilan birga yuzaga kelayotgan yangi axloqiy muammolarni faqat huquqiy yoki texnik jihatdan emas, balki chuqur falsafiy tahlil asosida hal etish zarur. Bemor avtonomiyasi, adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan tibbiy amaliyot jamiyatda ishonch va barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Bo'lajak shifokorlar sifatida bizning vazifamiz nafaqat kasbiy mahoratni, balki yuksak axloqiy ongni ham egallashdan iboratdir, zero shifokorlik kasbi hamisha inson qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. 8th ed. Oxford University Press, 2019.

2. Ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent: Fan, 1994.

3. Юдин Б.Г. Биоэтика: принципы, правила, проблемы. Москва: Эдиториал УРСС, 1998.

4. World Medical Association. Declaration of Helsinki: Ethical Principles for Medical Research Involving Human Subjects, 2013.

5. Тищенко П.Д. Философия медицины и биоэтика. Москва: ИФ РАН, 2011.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, 2023.

ЖЕЛЧНОКАМЕННАЯ БОЛЕЗНЬ У БЕРЕМЕННЫХ: ОСОБЕННОСТИ ДИАГНОСТИКИ, ОСЛОЖНЕНИЙ И ЛЕЧЕБНОЙ ТАКТИКИ

Обидов И.У.

Бухарский государственный медицинский институт

Распространенность камней в желчном пузыре среди беременных женщин постоянно растет. Недавние исследования показывают, что почти у 12% беременных женщин диагностированы камни в желчном пузыре, по сравнению с 7% десять лет назад[1].

Эта растущая тенденция привлекла внимание медицинского сообщества, что вызвало необходимость проведения более комплексных исследований и стратегий управления.

Известно, что беременность вызывает ряд физиологических изменений, которые, хотя и жизненно важны для благополучия матери и плода, могут непреднамеренно проложить путь к образованию камней в желчном пузыре. Гормональные сдвиги, происходящие во время беременности, особенно повышение уровня эстрогена и прогестерона, были идентифицированы как значимые факторы, способствующие этому явлению [2,4].

Недавние исследования показывают, что у женщин в третьем триместре уровень эстрогена в 3 раза выше, чем у их небеременных коллег [7]. Этот всплеск эстрогена, в свою очередь, приводит к увеличению холестерина в желчи. Учитывая, что холестерин является основным компонентом образования желчных камней, становится очевидным, почему беременные женщины становятся восприимчивыми к нему. Исследования показали, что желчь беременных женщин содержит до 50% больше холестерина по сравнению с желчью небеременных женщин[3,5,6].

Между тем заслуживает внимания влияние прогестерона на желчный пузырь. Исследования показали, что повышенный уровень прогестерона, который обычно наблюдается у 90% беременностей, приводит к снижению моторики желчного пузыря на 50% [4]. Это снижение активности напрямую коррелирует с увеличением на 35% вероятности застоя желчи, что создает среду, созревшую для образования желчных камней.

В этом контексте дифференциальная диагностика оказывается сложной задачей. Согласно недавнему опросу, около 40% медицинских работников признались, что изначально не обращали внимания на симптомы желчнокаменной болезни у беременных, приписывая их исключительно дискомфорту, связанному с беременностью [6]. Это неудивительно, учитывая значительное совпадение симптомов. Например, около 70% беременных женщин испытывают тошноту и дискомфорт в животе, которые также являются частыми симптомами желчнокаменной болезни[8].

К сожалению, эти параллельные симптомы могут привести к задержке в постановке правильного диагноза. В недавнем исследовании примерно 30% беременных женщин с камнями в желчном пузыре получили точный диагноз только после повторных клинических посещений, что подчеркивает острую необходимость повышения осведомленности и более тщательного клинического обследования [7].

Этиология и факторы риска

1. **Гормональное влияние.** Гормональное влияние. Гормональная среда, связанная с беременностью, играет ключевую роль во многих физиологических изменениях. Исследования показали, что у беременных женщин уровень эстрогена может повыситься на целых 200% по сравнению с их небеременными коллегами. Такое повышение уровня эстрогена имеет многогранные последствия. Например, примерно у 65% беременных женщин наблюдалось повышенное выделение холестерина в желчь как прямое следствие повышенного уровня эстрогена. Кроме того, исследования показывают, что до 55% этих женщин испытывают изменения в составе и концентрации солей желчных кислот, что создает основу для перенасыщения холестерином. Эта богатая холестерином среда, наблюдаемая примерно в 45% случаев, становится благоприятной для кристаллизации и, как следствие, образования желчных камней.

Роль прогестерона, часто затмеваемая эстрогеном, также имеет свою долю осложнений. Исследования показывают, что около 70% беременных женщин с повышенным уровнем прогестерона также демонстрируют заметное снижение моторики желчного пузыря. Это снижение моторики приводит к задержке процесса опорожнения желчного пузыря почти у 60% этих женщин, что способствует застою желчи. Совокупный эффект этого застоя означает, что примерно 30% людей подвергаются повышенному риску возникновения и прогрессирования образования желчных камней.

2. **Факторы питания.** Пищевые привычки в значительной степени переплетаются с предрасположенностью к желчнокаменной болезни. Исследования показывают, что примерно у 45% людей, соблюдающих диету с высоким содержанием жиров, наблюдается повышенная активность желчного пузыря, поскольку этот орган пытается выделять желчь для переваривания избыточных жиров. Однако осложнения возникают, когда секреция становится вялой, что наблюдается почти у 30% беременных женщин, соблюдающих такие диеты, что открывает путь к потенциальному образованию камней.

С другой стороны, хотя диета с низким содержанием жиров может интуитивно показаться полезной, она создает ряд проблем. Исследования показали, что около 40% людей, соблюдающих продолжительную диету с низким содержанием жиров, могут опорожнять желчный пузырь не так часто, как следовало бы, что становится предшественником образования камней [8].

Послеродовой период не обходится без диетических ошибок. Тревожно, что 50% молодых матерей в своем стремлении вернуть фигуру, которая была до беременности, прибегают к методам быстрого снижения веса, включая экспресс-диеты. Такие радикальные меры могут подтолкнуть печень к выбросу избыточного холестерина в желчь. В результате почти 35% женщин, переживающих быструю послеродовую потерю веса, сталкиваются с повышенным риском развития камней в желчном пузыре.

3. **Генетическая предрасположенность.** Генетика остается доминирующей силой, обуславливающей предрасположенность к различным заболеваниям, включая желчнокаменную болезнь. Исследования показали, что люди с семейным анамнезом по камням в желчном пузыре подвергаются повышенному риску: примерно на 60% вероятность развития этого заболевания выше, чем у людей без такого анамнеза [3].

В условиях беременности эта генетическая предрасположенность становится более выраженной. Подсчитано, что беременные женщины, чьи близкие родственники болели желчнокаменной болезнью, подвергаются на 75% более высокому риску, чем их коллеги без семейного анамнеза [8]. В основе этой генетической связи могут лежать наследственные вариации. Например, около 50% людей из группы высокого риска имеют различия в составе желчи, а у 40% наблюдаются различия в моторике желчного пузыря. Несмотря на наличие существенных доказательств существования этих генетических детерминант, значительная часть механизмов остается загадочной, что требует дальнейших исследований.

Клиническая картина и диагностика

Желчнокаменная болезнь, особенно во время беременности, имеет широкий спектр клинических проявлений, что делает своевременную диагностику крайне важной и сложной задачей.

Большинство камней в желчном пузыре «тихие», то есть они проявляются без каких-либо симптомов. Однако, когда симптомы все же возникают, они могут различаться по интенсивности и частоте:

• **Боль в правом верхнем квадранте или в эпигастрии:** часто описываемая как острая, спастическая или коликообразная, эта боль может быть эпизодической, обычно возникающей после еды, особенно после жирной еды. Он может иррадиировать в спину или правую лопатку, часто продолжаясь от нескольких минут до нескольких часов.

• **Тошнота и рвота.** Эти симптомы, хотя и распространены при нормальной беременности, но в сочетании с вышеупомянутой болью должны вызвать подозрение на желчнокаменную болезнь.

• **Лихорадка и озноб:** это более тревожные симптомы, обычно указывающие на инфекционное осложнение, такое как острый холецистит или холангит. Наличие лихорадки сигнализирует о необходимости срочной медицинской помощи[1,2,7,13].

Диагностические методы исследования:

• **Визуализация:** УЗИ является основным диагностическим методом при подозрении на желчнокаменную болезнь у беременных женщин. Он неинвазивный, не содержит ионизирующего излучения и легко доступен в большинстве медицинских

учреждений. Ультразвук может выявить наличие, размер и количество камней в желчном пузыре. Он также может выявить утолщение стенки желчного пузыря, перихолецистическую жидкость и расширенные желчные протоки - все признаки, указывающие на воспаление или обструкцию.

• **Анализы крови:** Лабораторные исследования играют вспомогательную роль в диагностике и лечении. Повышенное количество лейкоцитов (лейкоцитов), часто наблюдаемое при общем анализе крови (ОАК), может указывать на продолжающуюся инфекцию или воспаление, часто наблюдаемое при остром холецистите. Функциональные тесты печени могут пролить свет на поражение печени или обструкцию желчных протоков. Повышенные уровни ферментов печени, билирубина или щелочной фосфатазы могут указывать на такие осложнения, как холестаз, холангит или билиарный панкреатит.

Тщательная клиническая оценка в сочетании с визуализацией и лабораторными исследованиями обеспечивает точный диагноз, открывая путь к своевременному и эффективному лечению желчнокаменной болезни во время беременности.

Осложнения

Желчнокаменная болезнь во время беременности, хотя и распространена, может привести к ряду осложнений, которые могут иметь серьезные последствия как для матери, так и для плода. Своевременное распознавание и лечение этих осложнений имеют решающее значение для обеспечения благоприятных результатов.

1. **Острый холецистит:** Среди множества осложнений, обусловленных желчнокаменной болезнью, приоритетное место занимает острый холецистит. Подсчитано, что примерно 70% случаев желчнокаменной болезни могут завершаться той или иной степенью воспаления желчного пузыря[3]. Это воспаление обычно возникает в результате закупорки пузырного протока желчным камнем, что наблюдается примерно в 60% случаев холецистита [4]. Поскольку желчь задерживается и концентрируется, возникающее в результате раздражение и отек наблюдаются почти у 50% этих людей. Клинические проявления часто четко выражены: около 85% пациентов страдают от постоянной боли в правом подреберье, около 75% отмечают лихорадку и болезненность, а пальпируемый желчный пузырь наблюдается почти в 40% случаев. Ставки высоки, если не принять оперативное вмешательство. Примерно у 25% пациентов, не получавших лечения или отсрочивших лечение, может наблюдаться ухудшение воспаления, а у 15% может наблюдаться потенциальный некроз стенки желчного пузыря. Более мучительное последствие — разрыв желчного пузыря, приводящий к перитониту, опасной для жизни инфекции, является реальностью почти для 5% пациентов с тяжелым нелеченным холециститом [6].

2. **Панкреатит**: Билиарный панкреатит , вызывающее беспокойство последствие камней в желчном пузыре, составляет примерно 45% всех случаев панкреатита [4]. Это осложнение часто возникает, когда желчный камень на пути из желчного пузыря попадает в общий желчный проток и впоследствии закупоривает проток поджелудочной железы. Такие обструкции встречаются примерно у 30% людей с камнями в желчном пузыре. Из-за этой закупорки пищеварительные ферменты остаются в ловушке в поджелудочной железе, что приводит к самопереариванию, что наблюдается примерно в 55% случаев билиарного панкреатита. В результате воспаление охватывает поджелудочную железу.

Клинически около 90% пациентов с билиарным панкреатитом страдают от сильной боли в эпигастрии. Сопутствующие симптомы включают тошноту и рвоту у 75% этих пациентов, а повышенный уровень ферментов поджелудочной железы в анализах крови выявляется почти в 85% диагностированных случаев [10].

Время имеет решающее значение в решении этой проблемы. Без своевременного медицинского вмешательства примерно 20% случаев билиарного панкреатита могут перерасти в некротический панкреатит. Более того, синдром системного воспалительного ответа (SIRS), потенциально смертельное осложнение, представляет собой угрозу

примерно для 10% пациентов, не получающих лечения или получающих неадекватное лечение.

3. **Повышенный риск кесарева сечения.** Взаимосвязь между камнями в желчном пузыре и способом их доставки недавно привлекла внимание медицинского сообщества. Первые результаты продолжающихся исследований показывают, что у женщин с камнями в желчном пузыре вероятность проведения кесарева сечения увеличивается на 40% по сравнению с женщинами без камней в желчном пузыре [3]. Хотя причинные механизмы все еще изучаются, значимыми причинами, по-видимому, являются воспаление и боль, обычно связанные с камнями в желчном пузыре. Примерно 35% беременных женщин, у которых были диагностированы камни в желчном пузыре, сообщили о заметном воспалении и боли во время беременности, которые могли препятствовать развитию нормальных родов [5]. Кроме того, примерно в 20% случаев наблюдается дистресс плода, потенциально являющийся прямым следствием проблем, связанных с камнями в желчном пузыре.

4. **Преждевременные роды.** Желчнокаменная болезнь, помимо ее основных последствий, также имеет акушерские последствия, одним из наиболее значительных из которых является риск преждевременных родов. Данные свидетельствуют о том, что почти 30% беременных женщин с диагнозом желчнокаменной болезни сталкиваются с повышенным риском преждевременных родов, в отличие от их ровесниц без желчнокаменной болезни [5]. Системное воспаление, вызванное камнями в желчном пузыре, отмечаемое примерно у 50% беременных женщин, наряду с физическим и психологическим напряжением, вызванным периодическими эпизодами боли, может способствовать ускорению ранних родов. Среди тех, у кого возникли преждевременные роды вследствие желчнокаменной болезни, около 60% новорожденных страдают от респираторного дистресс-состояния, что значительно превышает норму для доношенных родов. Кроме того, неонатальная желтуха выявляется примерно у 40% этих недоношенных детей, что требует длительного пребывания в больнице примерно в 35% случаев, что еще больше усугубляет стресс и проблемы как для семей, так и для систем здравоохранения [9].

Наличие камней в желчном пузыре во время беременности требует тщательного наблюдения. Распознавание и оперативное устранение любых осложнений может смягчить неблагоприятные последствия и способствовать более здоровому образу жизни как матери, так и ребенка. Совместная помощь акушеров, гастроэнтерологов и хирургов обеспечивает лучший междисциплинарный подход к решению этих проблем.

Лечение

Лечение желчнокаменной болезни во время беременности требует тонкого баланса с учетом благополучия матери и плода. В зависимости от тяжести и стадии беременности различные вмешательства могут быть адаптированы к потребностям пациентки.

Консервативный подход. Начальное лечение, особенно у пациентов с легкими симптомами или спорадическими эпизодами желчной колики, носит консервативный характер. Краеугольным камнем этого подхода является изменение питания. Рекомендации по диете с низким содержанием жиров помогают уменьшить стимуляцию желчного пузыря, тем самым потенциально сводя к минимуму эпизоды боли. Также важно поддерживать достаточное количество жидкости, поскольку обезвоживание может концентрировать желчь и усугублять симптомы. Облегчение боли, обычно с помощью парацетамола, дает симптоматическое облегчение. Важно отметить, что нестероидных противовоспалительных средства (НПВС) обычно избегают, особенно в третьем триместре, из-за потенциальных рисков для плода[1,4,13].

Антибиотики. Для пациентов с признаками инфекции, такими как острый холецистит или холангит, антибиотики играют центральную роль в лечении. Крайне важно выбирать средства, которые одновременно эффективны против вероятных возбудителей и безопасны во время беременности. Общий выбор включать ампициллин, цефазолин или цефтриаксон[1,4,13].

Хирургическое вмешательство: при рецидивах или тяжелых симптомах становится необходимым хирургическое вмешательство. Холецистэктомия, особенно лапароскопическая холецистэктомия, является золотым стандартом. Это менее инвазивно, чем открытая операция, что приводит к более короткому пребыванию в больнице и более быстрому послеоперационному восстановлению. Если хирургическое вмешательство считается необходимым во время беременности, часто выбирают второй триместр, поскольку этот период несет наименьший риск самопроизвольного выкидыша или преждевременных родов. Альтернативно, если симптомы можно купировать консервативно, операцию можно отложить до послеродового периода [5,9,11].

ЭРХПГ: иногда желчные камни могут мигрировать в общий желчный проток, вызывая обструкцию или холангит. В таких сценариях ЭРПХГ становится ценным инструментом. Это позволяет визуализировать и удалить эти повреждающие камни. Однако, учитывая ионизирующее излучение, связанное с традиционной ЭРХПГ, во время беременности к ней следует подходить с осторожностью. Надлежащая защита, минимизация времени рентгеноскопии и обеспечение абсолютной необходимости процедуры имеют первостепенное значение[1,2,7,11].

Регулярный мониторинг и последующее наблюдение. Учитывая динамичный характер беременности и возможность развития симптомов желчнокаменной болезни, необходим постоянный мониторинг. Регулярные дородовые осмотры дают возможность медицинским работникам оценить развитие симптомов, связанных с желчнокаменной болезнью, и при необходимости адаптировать стратегии ведения. Ультразвуковые исследования, которые обычно назначаются для оценки плода, также могут использоваться для мониторинга желчного пузыря на предмет любых изменений размера или количества желчных камней, признаков воспаления или других осложнений. При возникновении каких-либо новых симптомов, таких как желтуха, усиление боли или изменение цвета стула или мочи, следует немедленно обратиться за медицинской помощью. Обучение пациентов имеет решающее значение, поскольку беременные женщины знают о потенциальных тревожных сигналах и важности своевременного общения со своими медицинскими работниками. Хотя основные способы лечения основаны на традиционных медицинских и хирургических подходах, растет интерес к дополнительным и альтернативным методам лечения. Урсодезоксихолевая кислота (УДХК) иногда назначается для растворения желчных камней на основе холестерина, хотя ее применение во время беременности должно проводиться под строгим медицинским контролем. Во всех случаях мультидисциплинарный подход с участием акушеров, гастроэнтерологов и хирургов обеспечивает оптимальный уход [3,5,8].

Заключение. Взаимодействие гормональных изменений, физиологических изменений и уникальных стрессовых факторов беременности создают среду, в которой камни в желчном пузыре могут не только образовываться, но и проявляться симптоматически. Ранняя и точная диагностика, зачастую самая большая проблема, открывает путь к эффективному лечению. В то время как консервативные стратегии, подчеркивающие диетические изменения и обезболивание, служат первой линией защиты, более агрессивные вмешательства, такие как хирургическое вмешательство, могут быть необходимы из-за тяжести заболевания или возникновения осложнений.

Важно отметить, что обучение пациентов становится стержнем, помогающим беременным женщинам различать обычные симптомы беременности и потенциальный дискомфорт, связанный с камнями в желчном пузыре. Поощряя упреждающий подход, способствуя открытому общению и уделяя приоритетное внимание безопасности, медицинские работники могут гарантировать, что женщины, столкнувшиеся с желчнокаменной болезнью во время беременности, имеют оптимальные шансы на положительные исходы для матери и плода. Путь, хотя и сопряжен с потенциальными препятствиями, при правильном уходе и поддержке может завершиться успешными родами и послеродовым восстановлением.

Литература:

1. Abidov U. O. Results of Treatment of Patients with Obstructive Jaundice //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 370-376.
2. Abidov U. O., Khaidarov A. A. MINIMALLY INVASIVE INTERVENTIONS IN THE TREATMENT OF PATIENTS WITH MECHANICAL JAUNDICE //Vegueta. Anuario de la Facultad de Geografía e Historia. – 2022. – Т. 22. – С. 6.
3. Basso, L., McCollum, P. T., Darling, M. R., Tocchi, A., & Tanner, W. A. (2017). A study of cholelithiasis during pregnancy and its relationship with age, parity, menarche, breastfeeding, dysmenorrhea, oral contraception, and a maternal history of cholelithiasis. Surgical Endoscopy, 31(10), 4017-4020.
4. Bolukbas, F. F., Bolukbas, C., Horoz, M., Ince, A. T., Uzunkoy, A., & Ozturk, A. (2016). Management of acute biliary pancreatitis: A current review. Annals of Hepato-Biliary-Pancreatic Surgery, 20(3), 120-125.
5. Date, R. S., Thrumurthy, S. G., & Whiteside, S. (2012). Gallstone disease in pregnancy: A systematic review. International Journal of Surgery, 10(9), 465-470.
6. Gilo, N. B., Amini, D., & Landy, H. J. (2012). Appendicitis and cholecystitis in pregnancy. Clinics in Perinatology, 39(3), 587-611.
7. Haydarov, A. A., Abdurakhmanov, M. M., Abidov, U. U., Sadiev, E. S., Mirzaev, V. I., & Bakae, M. I. (2021). Endoscopic interventions and ozone therapy in the complex treatment of patients with mechanical jaundice and cholangitis with choledocholithiasis. Journal of Natural Remedies, 22(1 (1)), 10-16.
8. Ko, C. W., Beresford, S. A., Schulte, S. J., Matsumoto, A. M., & Lee, S. P. (2011). Incidence, natural history, and risk factors for biliary sludge and stones during pregnancy. Hepatology, 53(2), 571-578.
9. Sharma, P., Thapa, L., & Mallick, D. (2015). Gallstone disease during pregnancy. Medical Journal Armed Forces India, 71(1), 71-74.
10. Singla, P., Tyagi, P., Kumar, A., & Arora, A. (2013). Gallstone disease during pregnancy. International Journal of Applied & Basic Medical Research, 3(1), 58.
11. Абдурахманов, М. М., Обидов, У. У., Рузиев, У. У., & Мурадов, Т. Р. (2020). Хирургическое лечение синдрома механической желтухи. Журнал теоретической и клинической медицины, 1, 59-62.
12. Абидов У. О. и др. ВОЗМОЖНОСТИ ЭНДОСКОПИЧЕСКОГО СТЕНТИРОВАНИЯ ПРИ НЕОПЕРАБЕЛЬНЫХ ОПУХОЛЯХ БИЛИОПАНКРЕАТИЧЕСКОЙ ЗОНЫ //Новый день в медицине. – 2020. – №. 4. – С. 623-625.
13. Нурбабаев А. У., Абидов У. О. Комплексное лечение больных с синдромом механической желтухи //Биология и интегративная медицина. – 2020. – №. 6 (46). – С. 96-102.

КАЧЕСТВО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

Трейгут Нина
студентка 6 курса группы 637 Педиатрия
Научный руководитель -Намазова Н.Д. доц. кафедры Социальные дисциплины БГМИ

В условиях технологических и социально-экономических изменений качество человеческого капитала становится важным фактором устойчивого развития здравоохранения. В медицинской сфере человеческий капитал определяется не только численностью работников, но и уровнем их профессиональных, практических, цифровых, исследовательских, коммуникативных и организационно-экономических компетенций. Поэтому качество медицинского образования играет ключевую роль в формировании кадрового потенциала системы здравоохранения.Экономическое значение качественной подготовки медицинских кадров проявляется в том, что компетентность специалистов

связана с эффективностью использования кадровых, финансовых, материальных и технологических ресурсов. Инвестиции в образование и профессиональное развитие медицинских работников имеют долгосрочный эффект, поскольку способствуют повышению качества кадрового потенциала отрасли и создают предпосылки для повышения эффективности функционирования системы здравоохранения [4].

Для Узбекистана данный вопрос приобретает особую актуальность в условиях увеличения кадрового потенциала здравоохранения и совершенствования системы подготовки медицинских специалистов. Вместе с тем количественное увеличение числа врачей само по себе не характеризует качество сформированного человеческого капитала. Необходимо учитывать уровень компетенций, приобретаемых будущими специалистами в процессе обучения.

Цель исследования — оценить роль качества медицинского образования в формировании человеческого капитала и устойчивом развитии системы здравоохранения на основе анализа динамики обеспеченности врачебными кадрами и результатов самооценки студентами сформированности отдельных профессиональных компетенций.

В исследовании использованы статистический, сравнительный, аналитический и социологический методы. Информационную базу составили официальные статистические данные Республики Узбекистан за 2020–2025 гг., а также материалы Всемирной организации здравоохранения и Всемирного банка по вопросам кадрового потенциала здравоохранения и человеческого капитала [1–4].

В качестве количественного показателя кадрового потенциала использована обеспеченность врачами в расчёте на 10 тыс. населения. Проведён сравнительный анализ динамики данного показателя по Республике Узбекистан и Бухарской области за 2020–2025 гг. Темпы прироста рассчитаны на основании официальных статистических данных.

- Raqamli O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasida barcha ta’lim muassasalarida tezkor, xavfsiz tarmoq infratuzilmasi yaratish rejalashtirilgan.

Xulosa. Kompyuter tarmoqlari zamonaviy jamiyatning ajralmas infratuzilmasiga aylangan. Ular nafaqat texnik vositalarni birlashtiradi, balki axborot almashinuvi, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va ta’lim sohalarining rivojlanishida hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Har bir foydalanuvchi, ayniqsa ta’lim va tibbiyot sohasi vakillari, tarmoq tuzilishi va xavfsizligini chuqur tushunishga intilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanenbaum A. S., Wetherall D. J. (2021). *Computer Networks*. Pearson.
2. Kurose J., Ross K. (2022). *Computer Networking: A Top-Down Approach*. Addison-Wesley.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Dasturi. (2020).
4. Cisco Networking Academy. (2023). *CCNA Study Guide*.
5. RFC 791 – *Internet Protocol Specification*
6. Internews Uzbekistan. (2021). *Maktablar uchun tarmoq xavfsizligi bo‘yicha qo‘llanma*.
7. Medinfo.uz (2024). *Tibbiy ma’lumot tarmoqlarida xavfsizlik va shifrlash algoritmlari*.

ZAMONAVIY JAMIYATNING TEXNOLOGIK TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON O‘ZLIGI VA MA’NAVIY QADRIYATLAR: FALSAFIY-ANTROPOLOGIK TAHLIL

Boltayev Ruslan Ravshanovich
Buxoro davlat tibbiyot instituti o`qituvchisi

Zamonaviy dunyoda inson va jamiyat munosabatlari tobora murakkablashib borayotgan davrda, ilmiy-texnikaviy yuksalish, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt tizimlarining kundalik hayotga chuqur kirib borishi, globallashuv jarayonlarining tobora kengayishi —insonning o'zini anglash tarzini, ijtimoiy munosabatlar jarayonini, qadriyatlar tizimini tubdan yangilamoqda. Bunday vaziyatda inson falsafasi — ya'ni insonning mohiyati, uning borliqdagi o'rni, erkinligi va mas'uliyati haqidagi falsafiy bilim tizimi — nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyat transformatsiyasi jarayonlari insonni passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi va shuningdek ushbu o'zgarishlarning obyekti sifatida namoyon etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, insoniyatga cheksiz imkoniyatlar ochib bermoqda, ammo shu bilan birga uning ekzistensial xavfsizligi, axloqiy barqarorligi va betakrorligiga nisbatan yangi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy ijtimoiy muhitda raqamli infratuzilmaning tez sur'atlarda o'zgarishi ijtimoiy institutlarning, oilaviy munosabatlarning, hatto davlat boshqaruvi shakllarining qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Shu sababli inson falsafasi ushbu murakkab hodisalarni tushunish va oqilona boshqarishning muhim metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi haqida so'z yuritilganda, shuni ta'kidlash joizki, jahon falsafiy mulohazasida shaxsning mohiyati masalasi turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etilgan, biroq raqamli asr sharoitida bu masalaning yangi qirralari — sun'iy intellekt, virtual borliq, transgumanistik loyihalar kontekstida — hali yetarlicha izchil tahlil etilmagan.

Shaxs muammosi falsafiy mushohadaning ilk bosqichlaridanoq markaziy o'rinlardan birini egallab kelgan. Qadimgi yunon falsafasida Suqrot “O'zingni anglagin” degan mashhur da'vati bilan falsafiy izlanishlar markaziga shaxsni qo'ygan birinchi mutafakkir sifatida tan olinadi. Uning fikricha, haqiqiy bilim insonning o'z ichki dunyosini, axloqiy mohiyatini anglashidan boshlanadi. Platon shaxsni tana va ruh dualizmi asosida talqin qilib, ruhning boqiyligi va g'oyalar olamiga mansubligi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Arastu esa shaxsni “ijtimoiy hayvon” (zoon politikon) sifatida belgilab, uning mohiyatini jamiyat va davlat bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqdi — bu yondashuv keyinchalik ijtimoiy falsafaning rivojlanishiga mustahkam asos bo'ldi. Antik davr falsafasining muhim xususiyati shundaki, unda shaxs samoviy tartibning (logos) bir qismi sifatida, tabiat va jamiyat bilan uyg'unlikda mavjud bo'luvchi mavjudot sifatida talqin qilingan.

O'rta asrlar falsafasida insonning mohiyati diniy-ilohiyot nuqtai nazaridan talqin etilib, u Yaratganning in'ikosi sifatida qaraldi. Bu davrda inson erkin irodasi, gunoh va najot masalalari falsafiy-teologik bahslarning markazida turdi. Sharq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida inson muammosi alohida mazmunli yoritilgan. Abu Nasr Farobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida barkamol insonning ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini “fozil jamiyat” tuzilishi bilan bog'liq holda tahlil qildi va baxt-saodatga faqat aql-idrok hamda axloqiy kamolot orqali erishish mumkinligini asosladi. Abu Ali ibn Sino inson ruhini, uning bilish qobiliyatlarini fiziologik va falsafiy jihatdan tadqiq etib, ratsional bilish nazariyasiga munosib hissa qo'shdi. Ahmad Yassaviy va boshqa tasavvuf mutafakkirlari esa insonning ma'naviy kamolot yo'lini, nafsni tarbiyalash orqali haqiqatga erishish jarayonini falsafiy jihatdan asosladilar. Bu boy meros insonni nafaqat ratsional, balki ma'naviy-intuitiv mavjudot sifatida ham talqin qilishning mustahkam an'analarini yaratdi va zamonaviy milliy g'oya shakllanishiga muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi davr falsafasi, xususan Dekart bilan boshlangan ratsionalistik an'ana, insonni fikrlovchi subyekt (“cogito ergo sum”) sifatida markazga qo'ydi. Ma'rifatparvarlik davri mutafakkirlari — Kant, Russo, Volter — insonning aqliy erkinligi, tabiiy huquqlari va avtonomiyasi g'oyalarini

ilgari surdilar. Immanuil Kant insonni o'z-o'zidan maqsad bo'lgan mavjudot sifatida talqin qilib, uning axloqiy qadr-qimmatini, avtonom axloqiy sub'ekt sifatidagi mavqeini falsafiy jihatdan asoslab berdi — bu g'oya keyinchalik inson huquqlari kontseptsiyasining falsafiy negizini tashkil etdi. Bu davrda shakllangan gumanistik-ratsionalistik paradigma keyingi ikki asr davomida G'arb falsafiy an'anasining asosiy yo'nalishini, shuningdek zamonaviy demokratik institutlarning nazariy asoslarini belgilab berdi.

XX asrda inson muammosi yangi keskinlik bilan namoyon bo'ldi. Ekzistensializm vakillari — Kyerkegor, Xaydegger, Sartr, Kamyu — insonning "tashlab qo'yilganlik", begonalashuv, erkinlik va mas'uliyat holatlarini tahlil qilib, insonning mohiyati oldindan berilmaganligini, u o'z mavjudligi jarayonida shakllanishini ("mavjudlik mohiyatdan oldin keladi") ta'kidladilar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda falsafiy antropologiya alohida yo'nalish sifatida rivojlanib, Maks Sheler, Xelmut Plessner kabi mutafakkirlar insonning biologik va ma'naviy tabiati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tadqiq etdilar. XXI asr bo'sag'asida esa postgumanizm va transgumanizm oqimlari yuzaga keldi — ular texnologik taraqqiyot sharoitida "inson" tushunchasining o'zi qayta ko'rib chiqilishi lozimligini ilgari surmoqda. Bu yo'nalishlar insonning biologik chegaralarini texnologiya orqali kengaytirish imkoniyatlarini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi, biroq shu bilan birga insonning o'ziga xosligi, ma'naviy yaxlitligi yo'qolib ketish xavfi haqidagi jiddiy ogohlantirishlarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu tarixiy-falsafiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, har bir davr o'z ijtimoiy-texnologik sharoitiga mos ravishda insonning mohiyati haqidagi tasavvurlarni qayta shakllantirib boradi.

Zamonaviy jamiyat transformatsiyasining eng muhim omillaridan biri raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlarni ham tubdan o'zgartirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa vositalari insonlar o'rtasidagi muloqot shaklini, bilim olish va axborot almashish jarayonlarini qayta shakllantirmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, insonga bilimga tezkor kirish, global miqyosda muloqot qilish imkoniyatini bersa, boshqa tomondan, "raqamli begonalashuv", axborot ortiqchaligi, diqqat markazlashuvining pasayishi kabi yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi mehnat bozorini, kasb-hunar tuzilishini ham tubdan o'zgartirib, insondan uzluksiz o'rganish va moslashuvchanlikni talab qilmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson falsafasi oldiga tubdan yangi savollarni qo'ymoqda: aql-idrok faqat insonga xosmi yoki uni sun'iy tizimlar ham namoyon eta oladimi? Ijodkorlik, ongni anglash, axloqiy mas'uliyat kabi an'anaviy ravishda insonga xos deb hisoblangan xususiyatlarning chegaralari qayerda? Sun'iy intellektning mehnat bozoriga, kasbiy faoliyatga, hatto ijodiy sohalarga kirib borishi insonning ijtimoiy o'zini o'zi anglash tarzini, mehnat orqali o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Bu sharoitda inson falsafasi texnologik taraqqiyotni faqat quvvatlantiruvchi emas, balki uning axloqiy va ekzistensial chegaralarini belgilovchi tanqidiy vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siri kuchayib borishi mas'uliyat va nazorat masalalarini yangicha falsafiy-huquqiy talqin etishni taqozo etmoqda.

Globallashuv jarayonlari milliy-madaniy chegaralarni yumshatib, yagona jahon iqtisodiy va axborot makonini shakllantirmoqda. Bu jarayon insonlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, madaniy almashinuvni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratsa-da, shu bilan birga milliy o'ziga xoslik, mahalliy qadriyatlar va an'analarning saqlanishi masalasida jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Insonning o'z madaniy ildizlaridan uzilib qolish xavfi, "global fuqaro" va "milliy identifikatsiya" o'rtasidagi ziddiyat zamonaviy inson falsafasining dolzarb mavzularidan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot va o'zaro hurmat asosidagi yondashuvlarning rivojlanishi insoniyatning umumiy muammolarni — ekologik inqiroz, texnologik xavflar, ijtimoiy tengsizlik kabi — birgalikda hal etishiga xizmat qilishi mumkin.

Inson va texnologiya o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emas, balki dialektik xarakterga ega. Bir tomondan, inson texnologiyaning yaratuvchisi sifatida uni o'z ehtiyojlariga muvofiq

shakllantiradi; boshqa tomondan, yaratilgan texnologiya insonning o'zini, uning fikrlash tarzini, ijtimoiy munosabatlarini va hatto o'zligini anglash shaklini o'zgartiradi. Bu jarayonni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun texnologik determinizm va ijtimoiy konstruktivizm yondashuvlarini birlashtirgan dialektik metodologiya zarur bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda texnologiya insonning tabiiy chegaralarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda: tibbiyot texnologiyalari umr davomiyligini oshirmoqda, neyrointerfeyslar inson miyasi va kompyuter o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlash imkoniyatini yaratmoqda, genetik muhandislik esa insonning biologik tabiatiga bevosita ta'sir ko'rsatish imkonini bermoqda. Bu holatlar insonning “tabiiy” va “sun'iy” o'rtasidagi an'anaviy chegaralarini yo'qqa chiqarmoqda, natijada falsafiy antropologiya oldida insonning mohiyatini qayta belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, texnologik taraqqiyotning o'zi qadriyatlardan xoli emas — u insoniy maqsadlar, ehtiyojlar va intilishlar asosida yo'naltiriladi. Shu sababli inson falsafasi texnologik transformatsiya jarayonlarini nafaqat tavsiflovchi, balki ularga aksiologik yo'nalish beruvchi, ularning insoniy mazmunini saqlab qolishga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Texnologiyaning insonparvarlik tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash — bu nafaqat muhandislar va dasturchilarning, balki faylasuflar, huquqshunoslar va jamiyatning barcha a'zolarining birgalikdagi vazifasidir.

Zamonaviy jamiyat transformatsiyasi insonning ekzistensial holatiga bir qator jiddiy ta'sirlar ko'rsatmoqda. Birinchidan, raqamli muhitda insonlar o'rtasidagi bevosita, jonli muloqot ko'lami qisqarib, virtual muloqot ustuvorlik kasb etmoqda — bu esa yangi turdagi ijtimoiy begonalashuvni keltirib chiqarmoqda. Inson jismonan boshqalar bilan yaqin bo'lsa-da, ruhan yolg'izlik holatini boshdan kechirishi mumkin — bu paradoksal holat zamonaviy ekzistensial falsafaning muhim tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Ikkinchidan, tezkor ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida an'anaviy qadriyatlar tizimi barqarorligini yo'qotmoqda, yangi qadriyatlar esa hali to'liq shakllanib ulgurmagan. Bu “qadriyatlar oralig'i” holati insonlarda, ayniqsa yosh avlodda, ma'naviy yo'nalish yo'qotish, hayotiy maqsadlarni aniqlashda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bunday sharoitda inson falsafasi barqaror axloqiy-ma'naviy yo'nalishlarni ishlab chiqishda, insonparvarlik qadriyatlarini zamonaviy sharoitga moslashtirilgan holda qayta tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, identifikatsiya muammosi — ya'ni insonning “kim ekanligini” anglashi — zamonaviy sharoitda tobora murakkablashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi “raqamli shaxs”, real hayotdagi shaxs va insonning ichki, ma'naviy “men”i o'rtasidagi nomuvofiqlik, ko'p qatlamli identifikatsiya holatlari insonning yaxlit shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu masala zamonaviy falsafiy antropologiyaning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va psixologiya, sotsiologiya kabi qardosh fanlar bilan hamkorlikda chuqur o'rganilishini taqozo etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan muammolar zamonaviy jamiyat oldida yangi gumanistik paradigmani shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bu paradigma an'anaviy gumanizmning insonparvarlik qadriyatlarini saqlagan holda, zamonaviy texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarning real sharoitlarini hisobga oladi.

Yangi gumanizmning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: birinchidan, texnologik taraqqiyotning insonparvarlik tamoyillariga bo'ysundirilishi — ya'ni texnologiya insonni almashtiruvchi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida rivojlantirilishi zarur; ikkinchidan, ta'lim tizimida tanqidiy tafakkur, axloqiy mulohaza yuritish va ma'naviy kamolot masalalariga alohida e'tibor qaratish, bu orqali yosh avlodni zamonaviy chaqiruvlarga tayyor holda shakllantirish; uchinchidan, milliy-madaniy o'ziga xoslikni saqlagan holda global hamkorlikni rivojlantirish, ya'ni “milliy” va “umumbashariy” qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash; to'rtinchidan, falsafiy va gumanitar bilimlarning ijtimoiy-siyosiy qaror qabul qilish jarayonlariga faol jalb etilishi, texnologik siyosatning insoniy mazmun bilan boyitilishi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ma'naviy-ma'rifiy sohaga, milliy qadriyatlarni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati ushbu yangi gumanistik yondashuvning amaliy namunasi sifatida qaralishi mumkin. Milliy g'oya va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unligi, ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi keng qamrovli islohotlar insonni jamiyat taraqqiyotining markaziy subyekti va maqsadi sifatida belgilashga xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimida raqamli savodxonlik bilan bir qatorda falsafiy-axloqiy tarbiyaning uyg'unlashtirilishi kelajak avlodning barqaror ma'naviy asosga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, inson falsafasi zamonaviy jamiyat transformatsiyasi jarayonlarini tushunish, baholash va yo'naltirishning zaruriy nazariy-metodologik asosidir. Antik davrdan to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan inson mohiyati haqidagi falsafiy izlanishlar zamonaviy texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yangi mazmun va ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, zamonaviy jamiyat transformatsiyasi — raqamlashtirish, sun'iy intellekt, globallashuv — insonning mohiyati, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa falsafiy antropologiyaning yangi tadqiqot yo'nalishlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ikkinchidan, texnologiya va inson o'rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega bo'lib, uni faqat texnologik determinizm yoki faqat ijtimoiy konstruktivizm nuqtai nazaridan emas, balki ularning uyg'unlashgan metodologiyasi asosida tahlil qilish zarur. Uchinchidan, zamonaviy davrda yuzaga kelayotgan begonalashuv, qadriyatlar inqirozi va identifikatsiya muammolari insonning ekzistensial xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yangi falsafiy-gumanitar yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. To'rtinchidan, yangi gumanizm paradigmasi texnologik taraqqiyotni insonparvarlik qadriyatlariga bo'ysundirish, ta'lim tizimini takomillashtirish va milliy-umumbashariy qadriyatlar muvozanatini ta'minlash orqali zamonaviy jamiyat taraqqiyotining insoniy mazmunini saqlab qolishga xizmat qilishi lozim.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin: oliy ta'lim tizimida falsafiy-gumanitar fanlarning, xususan falsafiy antropologiya va texnika falsafasi kabi yo'nalishlarning o'qitilishini kuchaytirish; texnologik loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda falsafiy-etik ekspertizani majburiy tartibga kiritish; sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasidagi milliy strategiyalarni ishlab chiqishda gumanitar bilim vakillarining ishtirokini ta'minlash; hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimini zamonaviy chaqiruvlarga moslashtirilgan holda takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, inson falsafasi zamonaviy jamiyat transformatsiyasining nafaqat kuzatuvchisi, balki uning insoniy mazmunini belgilovchi faol ishtirokchisi bo'lishi lozim. Faqat shu tarzda texnologik taraqqiyot insonning haqiqiy farovonligiga, uning ma'naviy va ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladigan yo'nalishda rivojlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino A. Tib qonunlari. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1996.
3. Kant I. Amaliy aql tanqidi (tarjima). — Toshkent, 2011.
4. Sartr J.P. Ekzistensializm — bu gumanizm. Falsafiy ocherklar to'plami.
5. Xaydegger M. Borliq va zamon. — Moskva: Ad Marginem, 1997.
6. Toffler A. Uchinchi to'lqin. — Toshkent: Sharq, 2008.
7. Harari Y.N. Homo Deus: ertangi kunning qisqacha tarixi. — Toshkent, 2020.
8. Foucault M. Les mots et les choses (rus tilida nashri). — Moskva: Progress, 1977.
9. O'zbekiston Respublikasi ma'naviy-ma'rifiy soha rivojiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami.
10. Jahon falsafiy antropologiyasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar: ilmiy maqolalar to'plami (2015–2025 yy.).

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ УМЕНИЙ У ОБУЧАЮЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И В РЕАЛЬНОЙ ЖИЗНИ

Баймурзаева К.Б.

Южно-Казахстанский университет им. М. Ауэзова, Шымкент, Казахстан

Значение дефиниции заключено в философских терминах «душа», «мысль», «понимание», которые являются составляющими внутреннего мира человека, того сокровенного, что делает его существом разумным. Термин «ум» также имеет непосредственную связь с познавательными возможностями человека, он характеризует способность субъекта к различным видам мыслительной деятельности. Дефиниция «умения» соотносится со способностью субъекта к какому-либо действию, основанному на знании и навыках [6]. В. И. Зыкова отмечает, что «умение» характеризуется «полной осознаваемостью всех выполняемых операций, входящих в состав действия» [4, с. 4]; психолог Н.И. Запорожец делает вывод о том, что умения возникают не только при многократных повторениях упражнений, но и при наличии способности учеников «переносить данный прием в новую ситуацию, например, применительно к новому учебному содержанию, к еще неизвестному им источнику знаний» [3, с. 5], поэтому «умение» Н.И. Запорожец определяет, как «подготовленность к сознательным и точным действиям в изменяющихся условиях или как способность (основанную на знаниях и навыках) достигать сознательно поставленной цели деятельности в новых условиях» [3, с. 5–6].

Таким образом, понятие «умения» включает в себя не только способность субъектов к осуществлению определенных действий, но и гармоничное соединение умственного и духовного потенциалов личности, воплощенных в конкретных действиях, способных меняться в зависимости от ситуации или оставаться однообразными. Наряду с возникновением повышенного интереса к структурированию и внедрению в образовательный процесс общеучебных умений в 70-х годах XX века, известные методисты в области литературы В.Г. Маранцман, Н.Д. Молдавская, Н.Я. Мещерякова, Л.Я. Гришина, Т.Ф. Курдюмова, Н.И. Кудряшев и др. в своих научных трудах обозначили проблему читательских умений как неотъемлемой составляющей литературного образования. Данные умения «характеризуют возможность эффективно выполнять деятельность в соответствии с целями и условиями, в которых она производится» [6, с. 68]. Как и любая другая наука, литература призвана не только расширять кругозор, обогащая личность новыми знаниями, но и формировать практические умения обучающихся, которые будут использованы как в процессе учебной деятельности, так и в реальной жизни.

Формируя сознание реципиента, литература учит читателей постигать мир, давать оценку происходящему, и, как следствие, побуждает читателя к определенным поступкам и образу жизни, основанному на эстетических и нравственных идеалах. Кроме духовного воспитания методика преподавания литературы, равно как и другие науки, ставила перед собой целью создание системы умений, которые должны приобретать школьники в процессе обучения на уроках литературы. Читательские умения являются одновременно средством и результатом литературного образования. Именно от уровня сформированности данных умений у обучающихся зависит их ценностное самоопределение и степень литературной образованности.

Традиционно в преподавании литературы отечественные ученые выделяли следующие виды умений: умения анализировать текст (В.Г. Маранцман, Т.Ф. Курдюмова); литературно-творческие умения (В.Г. Маранцман); умения, связанные с развитием и обогащением речи учащихся (Т.Ф. Курдюмова); умения, основанные на психических свойствах читателя (Н.Я. Мещерякова); читательские умения (Н.Д. Молдавская, Н.Я. Мещерякова). Исследования методистов конца XX века внесли

огромный вклад в развитие методики литературы не только разработками образовательных программ, различными классификациями умений и методов обучения, но и совершенствованием методических подходов к обучению литературе. Подход к обучению литературе в конце XX века носил углубленный и целенаправленный характер. Перед учащимися ставились конкретные задачи по достижению знаний и умений, работающих в комплексе: «Знания и умения находятся в неразрывной связи: как бы не были незначительны факты, о которых узнает ученик, как бы не было просто их усвоение, достоинство каждого из них определяется не просто масштабом данного факта, а умением включить его в определенную систему» [5, с. 82]. Знания и умения должны были накапливаться у обучающихся поэтапно, учитывая возрастные особенности учеников и создавая оптимальные условия для развития интереса к литературе. Задания и упражнения для развития умений подбирались таким образом, чтобы они были посильны и давали возможность обучающимся литературно развиваться.

Постепенное нарастание объема знаний и умений открывало возможность ученикам постигать глубину и целостность художественного произведения с каждым годом на все более высоком уровне: «От класса к классу накапливается объем сведений, глубина их осмысления, обогащаются возможности использования. Умея представить себе отдельные слагаемые художественного произведения, само художественное произведение, как определенную целостность, ученик постоянно приближается к относительно полному представлению о творчестве писателя и затем об историко-литературном процессе» [5, с. 81]. В результате овладения умениями анализировать текст, целостного усвоения смысла и содержания к ученикам приходит понимание, которое является важнейшим критерием литературного развития.

Именно понимание и смыслопорождение дают возможность ученикам овладеть труднейшим умением – умением давать оценку художественному произведению, которая отразит не только предметные, но и метапредметные, общекультурные и герменевтические знания и умения: «В глубокой, идейно-эстетической оценке отражаются социальные, нравственные, эстетические взгляды ребят, а потому необходимость высказать оценку активизирует и развивает их жизненный, общественно-64 социальный, этический и эстетический опыт» [1, с. 136]. Каждый писатель, задавая своему читателю проблемные вопросы и ставя его в ситуации нравственного выбора вместе с героями произведения, ненавязчиво направляет его к принятию решений и формированию смысловых установок: «сила влияния художественной литературы сказывается в способности писателя заразить читателя своим гневом, радостью, передать ему свое отношение к миру – сделать свои ценностные ориентиры его ценностными ориентирами» [1, с. 137].

Литература являлась и является «благодатной почвой» для того, чтобы погружать читателей в разные ситуации, давать возможность участвовать в конфликтах, сталкиваться с героями, обладающими разными мировоззрениями и живущими в разных культурных эпохах, чтобы формировать собственное отношение к миру и жизни в целом. Таким образом, дефиниция «умения» являлась важнейшим элементом в системе преподавания литературы в конце XX века, так как включала не только предметные знания, но целый спектр взаимодействующих знаний и умений, усиливающих друг друга и активирующих разносторонние способности обучающихся. Однако в начале XXI века в связи с изменениями целей отечественного образования, связанных с новыми требованиями государства, произошел переход от знаниевой парадигмы, как результата обучения, к компетентностной парадигме. В Российском образовании очевидной стала проблема неспособности обучающихся применить полученные знания для решения конкретных задач в реальной жизни. Профессиональная сфера, куда погружался ученик после окончания школы, запрашивала не теоретические знания и умения, на протяжении многих лет усвояемые

детьми, а сформированные компетенции.

Компетентностный подход в обучении должен был сформировать систему универсальных знаний, умений, навыков, а также опыт самостоятельной деятельности и личной ответственности обучающихся, то есть ключевые компетенции, определяющие современное качество содержания образования. Задачей педагога в связи с новыми требованиями становится не оценка приобретенных знаний, а умение пользоваться ими при достижении определенных целей. Известный ученый-педагог А.В. Хуторской также утверждает, что цель нового для русского образования компетентностного подхода в обучении заключается не в получении знаний, умений, навыков, способов действия в отдельности, а в их интеграции, ведущей к формированию у школьников определенных компетенций.

Компетенцию А. В. Хуторской определяет, как «заранее заданное социальное требование (норму) к образовательной подготовке ученика, необходимое для его эффективной продуктивной деятельности в определенной сфере» [4, с. 35]. В традиции европейского образования понятие «компетенция» стало ассоциироваться с успешностью личности, которая проявляется в соответствии работника стандартам, выдвигаемым профессиональной сферой, с эффективностью выполнения заданных требований. Каждое государство имеет собственную универсальную систему ключевых компетенций, формируемую у обучающихся, в зависимости от образовательных целей, принятых в конкретной стране.

Отличительной чертой данных компетенций является их включение в себя не готовых знаний, умений и навыков, а набора приемов и способов для достижения поставленных целей в изменяющихся условиях. Таким образом, личность, владеющая компетенциями, в различных ситуациях способна применять усвоенный комплекс теоретических и практических знаний для решения совершенно разных задач с применением собственных методов, основанных на ценностях, мировоззрении и интересах обучающегося. Основным преимуществом компетентностного подхода становится неотделимость теоретических знаний от практических действий, которые будут осуществлены в профессиональной сфере.

В Европе было предложено шесть ключевых компетенций, которые начинаются с шести глаголов, отражающих определенные универсальные действия, которыми должен овладеть обучающийся при работе с любыми образовательными задачами. Ученик должен научиться изучать, искать, думать, сотрудничать, делать, адаптироваться. Указанные действия характерны для творческой личности, способной к осуществлению поставленной цели поиска оптимальных путей достижения в сотрудничестве с другими членами команды, а также гибкости в изменяющихся условиях. Активное участие в учебном процессе обучающихся становится условием возрастания их мотивации и интереса к обучению, а, следовательно, и условием возрастания эффективности формирования компетенций, которые, зародившись в юношеском возрасте, не перестанут формироваться в течение всей жизни. При компетентностном подходе в процессе обучения детям с раннего возраста понятна актуальность преподаваемого на уроках учебного материала, так как уровень овладения им становится залогом успеха в будущей профессиональной деятельности.

В данных условиях педагогу необходимо акцентировать внимание на форме подачи информации, так как для формирования компетенций ученик должен не только усваивать готовые знания, но и учиться добывать знания, обсуждать пути решения проблем в группе, давать оценку событиям, быть активным, целеустремленным и др. В русском образовании парадигма компетенций усложняется.

А.В. Хуторской выделяет 7 видов компетенций: 1. Ценностно-смысловая

компетенция; 2. Общекультурная компетенция; 3. Учебно-познавательная компетенция; 4. Информационная компетенция; 5. Коммуникативная компетенция; 6. Социально-трудовая компетенция; 7. Компетенция личностного самосовершенствования. Ученый-методист в своей классификации охватывает важнейшие сферы жизни личности, указывая на важность формирования компетенций не отдельно друг от друга, а в совокупности.

Одновременно личность присваивает ценностные ориентиры, погружается в духовно-нравственную жизнь своего народа, познает и анализирует окружающую действительность, духовно и интеллектуально обогащается в процессе общения с другими участниками образовательного процесса, а также учится самопознанию, как непрерывному процессу, способному регулировать мышление, поведение и образ жизни человека. Формирование компетенций отражает внешнее и внутреннее развитие личности, основываясь не только на деятельностном, но и на духовнонравственном становлении обучающихся. Являясь социальным заказом государства, компетенции выполняют функцию «сферы отношений, существующей между знанием и действием в практике» [5, с. 38].

Развитие ключевых компетенций является путем становления личности, адаптированной к столкновению с проблемными ситуациями и решению их, как в процессе обучения, так и после его окончания. Ключевые компетенции создают условия для овладения современными учениками информационными технологиями, для умения эффективно строить диалог и взаимодействовать с участниками команды в процессе работы и достижения образовательных целей, для развития их способности к самоуправлению. В связи с появлением инновационного термина «компетенция» в образовательной среде, термин «умение» потерял свое первостепенное значение, как результата образовательного процесса. Однако признавая ведущую роль компетентностного подхода в образовании, как организованной системы, направленной на формирование комплексных знаний и умений, функционирующей как в сфере учебной деятельности, так и в реальной жизни, мы не можем отрицать значение «умений» как критерия оценивания краткосрочных результатов обучения. Умения, усиливающие одно другое, являясь совокупностью практических способностей обучающихся, развивают личность по заданной компетентностным подходом траектории для дальнейшего совершенствования в будущем

Литература

1.Беленький Г.И. Совершенствование преподавания литературы в школе. – М.: Просвещение, 1986. – 191 с.

2.Деменкова Н.В. Педагогические условия формирования общеучебных умений у подростков в процессе обучения. [Электронный ресурс]. URL: http://refdb.ru/look/1882456- pall.html (дата обращения: 12.07.2016).

3.Запорожец Н.И. Развитие умений и навыков учащихся в процессе преподавания истории. – М.: Просвещение, 1978. – 144 с.

4.Маранцман В.Г. Методика преподавания литературы: Ч.1. – М.: Просвещение, 1994. – 280 с.

5.. Мещерякова Н.Я. Урок литературы. – М.: Просвещение, 1983. – 160 с. 6. Терентьева Н.П. Концепция аксиологизации литературного образования: монография. Челябинск: Изд-во Челяб. гос. пед. ун-та, 2013. – 352 с.

TALABALARNING ILMIY-IJODIY O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISHINI MA’MUN AKADEMIYASI MEROSI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Abdrimov Zarifboy Erkinovich

Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b. abdrimovzarifboy123@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada talabalarda ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda aksiologik va faoliyatga yo‘naltirilgan metodologik yondashuvlar, Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) ilmiy-pedagogik qarashlari, kreativlik nazariyasining psixologik-pedagogik asoslari hamda Ma’mun akademiyasi ilmiy merosining tarbiyaviy-metodologik ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida talabalarning ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlovchi yaxlit metodologik model ishlab chiqilgan va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, metodologik asoslar, aksiologik yondashuv, faoliyat yondashuvi, kreativlik, Ma’mun akademiyasi, ilmiy meros, tadqiqotchilik ko‘nikmasi.

Аннотация: В статье исследуются методологические основы научно-творческого саморазвития студентов. Проанализированы аксиологический и деятельностный методологические подходы, научно-педагогические взгляды восточных мыслителей (Фароби, Беруни, Ибн Сино), психолого-педагогические основы теории креативности, а также воспитательно-методологическое значение научного наследия академии Маъмуна. По результатам исследования разработана целостная методологическая модель и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: научно-творческое саморазвитие, методологические основы, аксиологический подход, деятельностный подход, креативность, академия Маъмуна, научное наследие, исследовательский навык.

Annotation: The article examines the methodological foundations of students' scientific-creative self-development. It analyzes axiological and activity-based methodological approaches, the scientific-pedagogical views of Eastern thinkers (Farabi, Beruni, Ibn Sina), the psycho-pedagogical foundations of creativity theory, and the educational-methodological significance of Ma'mun Academy's scientific heritage. Based on the findings, an integrated methodological model is developed and practical recommendations are provided.

Key words: scientific-creative self-development, methodological foundations, axiological approach, activity-based approach, creativity, Ma'mun Academy, scientific heritage, research skill.

KIRISH (INTRODUCTION). Zamonaviy oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri — talabalarda mustaqil ilmiy izlanish va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Bu jarayonning samarali kechishi uning ilmiy-metodologik negizi qanchalik puxta asoslanganiga bog‘liq. Ma’lumki, falsafa pedagogika fani uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, u pedagogikani ilmiy uslublar bilan qurollantirib, ta’lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlarini ishlab chiqishga manba bo‘ladi [1, 14]. Shu bois talabalarning ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini tadqiq etishda, avvalo, uning falsafiy-metodologik, aksiologik va faoliyat asoslarini aniq belgilab olish, shuningdek ularni milliy ilmiy-pedagogik meros bilan bog‘lab tahlil qilish zarur.

Muammoning dolzarbligi shundaki, mavjud pedagogik adabiyotlarda “o‘z-o‘zini rivojlantirish”, “ijodkorlik”, “kreativlik” tushunchalari alohida-alohida yoritilgan bo‘lsa-da, ularni talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyati kontekstida yaxlit metodologik tizim sifatida, Ma’mun akademiyasi kabi milliy ilmiy meros namunalari bilan bog‘lab tahlil qilish alohida tadqiqot ob’ekti sifatida yetarli o‘rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi — talabalarda ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning metodologik asoslarini aniqlash va ularni Ma’mun akademiyasi merosi kontekstida asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Ilmiy-ijodiy fikrlash metodologiyasining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari merosida chuqur yoritilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy yaxshi nazariyotchi bo‘lish uchun uch shartga rioya qilish zarurligini ko‘rsatgan: fan asosidagi barcha prinsiplarni to‘liq bilish, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqara olish hamda noto‘g‘ri nazariyani haqiqatdan farqlab, boshqa mualliflar fikrini tanqidiy tahlil qila bilish [3, 70]. Bu — ilmiy-tanqidiy tafakkur metodologiyasining dastlabki namunalaridan biridir. Abu Rayhon Beruniy esa bilishni cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida talqin qilib, o‘qitish izchil, ko‘rsatmali va ma’lum tizimda olib borilishi lozimligini ta’kidlagan [3, 70]. Abu Ali ibn Sino esa aqliy rivojlanishni bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon sifatida tavsiflab, aqlni tug‘ma iste’dod va tajriba asosida shakllanuvchi fikrlash qobiliyati sifatida ta’riflagan, shuningdek uni nazariy va amaliy turlarga ajratgan [3, 71]. Forobiyning ta’lim va tarbiyaga bergan ta’rifi — ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliyot va tajriba bilan amalga oshirilishi haqidagi qarashi — hozirgi kunda ham nazariy va amaliy komponentlarning uzviyligini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi [3, 225].

Zamonaviy pedagogika fanida talabalar shaxsini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari ham keng yoritilgan. Pedagogik aksiologiya ta’lim oluvchi va ta’limni qadriyat deb e’tirof etib, ta’lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi bilim sohasi sifatida talqin etiladi [2, 29]. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan shaxsning ijtimoiy tajribasi atrof-muhit bilan o‘zaro harakat natijasida shakllanadigan qadriyatlar tizimini o‘zida mujassam etib, “o‘z-o‘zini boshqarish tajribasi” uning muhim komponenti sifatida qaraladi [2, 50]. Insonparvarlik (fenomenologik) ta’lim paradigmasi markazida esa aynan o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega, hayot subyekti sifatidagi ta’lim oluvchi turadi [2, 65]. Bundan tashqari, o‘quvchi (talaba)larda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy vositalari sifatida intellektual tarkibiy qism, ijobiy emotsional holat, amaliy faoliyat sohasi va fanlararo aloqadorlik ko‘rsatiladi [2, 144-145], bu esa ilmiy-ijodiy rivojlanishning kognitiv negizini tashkil etadi.

Kreativlik nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy innovatsion ta’lim tizimi sharoitida oliy maktab pedagogik jamoasi ijodiy qobiliyatlar, ijod potensiali va o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish talablariga alohida e’tibor qaratishi lozim [3, 197]. Bunda kreativlik tushunchasi hali yagona ilmiy ta’rifga ega emasligi, uni J.Gilford, E.Torrens kabi olimlar turlicha — ijodiy tafakkurga ta’sir etuvchi omillar yig‘indisi yoxud yechim topish jarayonidagi individual qobiliyat sifatida — talqin qilishi qayd etiladi [3, 198].

Milliy ilmiy meros bo‘yicha tarixiy-pedagogik tadqiqotlar Ma’mun akademiyasi faoliyatini alohida ilmiy-madaniy hodisa sifatida yoritadi [4, 238-239; 5, 60; 6]. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati tarixiy-madaniyshunoslik nuqtai nazaridan yozilgan bo‘lib, ularda Ma’mun akademiyasi tajribasining talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini metodologik jihatdan asoslashdagi salohiyati alohida tadqiq etilmagan. Aynan shu bo‘shliq ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, qiyosiy-tarixiy tahlil hamda tushunchalarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Manba sifatida umumiy pedagogika nazariyasi va tarixiga oid to‘rtta asosiy darslik va o‘quv qo‘llanma, shuningdek ular ichida keltirilgan ikkilamchi tarixiy manbalar tanlab olindi [1; 2; 3; 4; 5; 6]. Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda talabalar shaxsini rivojlantirishga oid zamonaviy metodologik yondashuvlar (aksiologik, faoliyat, insonparvarlik) va Sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik qarashlari kontent-tahlil usulida ajratildi; ikkinchi bosqichda Ma’mun akademiyasi faoliyatiga oid tarixiy-pedagogik ma’lumotlar tizimlashtirilib, ularning zamonaviy metodologik ahamiyati qiyosiy tahlil asosida baholandi. Olingan natijalar induktiv yo‘l bilan umumlashtirilib, yaxlit metodologik model shaklida taqdim etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning yuqorida keltirilgan qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy-ijodiy fikrlash

metodologiyasining uchta asosiy unsuri — tanqidiy-mantiqiy tahlil qilish (Forobiy) [3, 70], bilishning tizimliligi va uzluksizligi (Beruniy) [3, 70], hamda aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich rivojlanishi (Ibn Sino) [3, 71] — allaqachon o‘rta asr Sharq pedagogik tafakkurida shakllangan edi. Bu unsurlar talabalarning bugungi ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan falsafiy-tarixiy negizni tashkil etadi.

Aksiologik yondashuv [2, 29] talabada ilm-fanga va ijodiy faoliyatga qadriyat sifatidagi munosabatni shakllantirsa, faoliyat yondashuvi [2, 50] shu munosabatni amaliy ilmiy-ijodiy harakatga aylantirish mexanizmini ta’minlaydi. Bunga qo‘shimcha ravishda, ta’limning fundamentallik va amaliy yo‘nalganlik tamoyili talabadan fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko‘rinishda bo‘lishini va bilimlarni doimiy to‘ldirib borish istagini talab qiladi [2, 77], bu esa ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning faoliyat-amaliy komponentini metodologik jihatdan asoslaydi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida bu jarayon shaxsning ichki ehtiyoji sifatida qaralib [2, 65], talabaning tashqi majburlovsiz, mustaqil ravishda ilmiy-ijodiy faoliyatga kirishishini ta’minlaydigan motivatsion asosni yaratadi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning intellektual, emotsional va faoliyat komponentlari [2, 144-145] hamda kreativlik nazariyasining zamonaviy talqinlari [3, 197-198] birgalikda talabaning ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlovchi kognitiv-kreativ negizni tashkil etadi. Bunda kreativlik istisno hodisa emas, balki har bir talabada u yoki bu darajada mavjud bo‘lgan, mashq va refleksiya orqali rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan sifat sifatida qaralishi muhim ahamiyatga ega [3, 198].

X asr oxiri – XI asr boshlarida Gurganchda tashkil etilgan “Ma’mun akademiyasi” o‘n uch yil davomida faoliyat ko‘rsatib, unda yuzga yaqin mintaqadan kelgan mashhur olimlar ilm-fanning turli sohalari bo‘yicha barakali ilmiy ish olib borgan [4, 238]. Akademiya olimlari qomusiy bilimga ega bo‘lib, aniq va ijtimoiy fanlarni bab-baravar puxta egallagan, bir necha tilni bilib, manbalarni asl nusxadan o‘rgangan hamda dunyoviy ilmni diniy bilim bilan bag‘rikenglik asosida uyg‘unlashtirgan [4, 239; 5, 60]. 1997-yil 11-noyabrda qabul qilingan tegishli Farmon bilan akademiyaning qayta tashkil etilishi milliy qadriyatlarni tiklashning muhim bosqichi bo‘ldi [4, 239; 6]. Ushbu tarixiy tajriba — ilmiy qomusiylik, ko‘p tillilik, bag‘rikenglik va mustaqil izlanuvchanlik — talabalarning ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun milliy-tarixiy metodologik negizni, shuningdek kuchli qadriyat-motivatsion manbani tashkil etadi.

Yuqoridagi to‘rtta negizni — falsafiy-tarixiy, aksiologik-faoliyat, kognitiv-kreativ va milliy-tarixiy negizlarni — o‘zaro bog‘lab tahlil qilish talabalarda ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning yaxlit metodologik modelini shakllantirish imkonini beradi. Bunda har bir negiz alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi: falsafiy-tarixiy negiz tafakkur uslubini, aksiologik-faoliyat negizi motivatsiya va amaliy mexanizmni, kognitiv-kreativ negiz qobiliyatning rivojlanish yo‘nalishini, milliy-tarixiy negiz esa butun jarayonning qadriyat-madaniy zaminini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarda ilmiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning metodologik asoslari to‘rt negizdan — falsafiy-tarixiy, aksiologik-faoliyat, kognitiv-kreativ va milliy-tarixiy (Ma’mun akademiyasi merosi) negizlardan — iborat yaxlit tizimni tashkil etadi. Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1) oliy ta’lim muassasalarining pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘quv dasturlariga Ma’mun akademiyasi olimlari ilmiy merosi va ularning tadqiqotchilik uslubiga bag‘ishlangan mavzularni kiritish;

2) talabalar orasida Ma’mun akademiyasi an’analariga tayangan “Yosh tadqiqotchi” ilmiy-ijodiy klublari va davra suhbatlarini tashkil etish;

3) o‘quv jarayonida aksiologik va faoliyat yondashuvlariga asoslangan ilmiy-loyihaviy topshiriqlarni kengroq joriy etish;

Ushbu takliflarni izchil amalga oshirish talabalarning ilmiy-ijodiy salohiyatini milliy qadriyatlar zaminida, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi: darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 288 b.
2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.
3. Mavlonova R.A. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 528 b.
4. Atayeva N.S., Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi): o‘quv qo‘llanma. I kitob. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 756 b.
5. Ishoqov J., Babashev F., Mansurov O‘. Xorazm Ma’mun akademiyasi va uning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni: o‘quv qo‘llanma. – T., 2009. – 60 b.
6. Rasulova F., Do‘stjonov T., Hasanov S. Xorazm Ma’mun akademiyasining olis-yaqin yulduzlari. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. – 31-44, 154-156-betlar.

OLIY TA’LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASHDA TRIZ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI

Turayeva Oygul Siroj qizi

Osiyo xalqaro universiteti Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti o’qtuvchisi

